TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI


MIRZA IBROHIMOV

64



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MIRZA IBROHIMOV





1619327

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.162-3
KBK 84(5Ozar)
M 54

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Tohir Qahhor, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi

Nurilla Choriyev

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8733-1-5
©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

OZAR XALQINING ARDOQLI FARZANDI

Mirza Ajdar o'g'li Ibrohimov 1911-yilning 28-oktabrida Janubiy Ozarbayjonning Sarab shahrida tug'ilgan.

U ozar xalqining taniqli farzandlari — Mirza Fatali Oxundzoda, Hasanbey Zardobiy, Jalil Mammadguluzoda, Alibey Husaynzoda, Hoji Zeynalabdin Tag'iyev kabi millat va vatan fidoyisi edi.

Adib 30-yillardan boshlab o'zining adabiy-publitsistik, ilmiy-nazariy hamda ijtimoiy-siyosiy faoliyati bilan Ozarbayjonning madaniy-mafkuraviy, siyosiy hayotida alohida o'rin tutgan.

Mirza 1918-yili oilasi bilan Bokuga ko'chib keladi. U onasidan uch, otasidan yetti yoshida ayriladi. Shu bois bolaligidayoq hayotning og'ir sinovlarini, qahatchilik va yo'qchilikni boshidan kechirdi, ko'rdi. O'zbek adiblari — Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhorning bolalik xotiralari bilan uyg'un qissalari kabi Mirza Ibrohimovning ("Gələcək gün") "Shunday kun keladi" romani ham bolaligidan mosuvo bola, quvonch va shod-u xurramlikdan bebahra o'smir hayotining badiiy ifodasidir.

Buni adibning qizi Sevda Ibrohimova roman haqidagi fikri bilan yana bir karra dalillaydi. U: ""Shunday kun keladi" romanini otamning tarjimayi holi deb aytsak bo'ladi. U asarda tasvirlangan barcha dahshatlar haqiqatdir. Buni u ko'p bora so'zlab berardi. Bunday suhbatlarda, albatta, romanga kirmagan achchiq va taxir bolalik bor edi. Otam o'sha yillarda onasidan ayrilgan. Keyin ochlikdan o'lmaslik uchun otasi va akasi bilan birga ishlagani Bokuga kelgan. Zabratga yetganida ukasi vafot etgan. Ukasi ochlik hamda yo'l charchog'iga bardosh berolmagan. Chidolmagan. Otamning otasi Ajdar neft qudug'idagi favvorada kuyib vafot etgan. Ana shu ayriliqdan so'ng, u bir janobning xizmatkori bo'lib kun kechirgan", – deb aytgandi.

Ushbu roman 1955-yili mohir tarjimon Sulton Muhammadjonov tomonidan mahorat bilan o'zbek tiliga o'girilib, nashr etildi.

"Shunday kun keladi" Eronda Rizo Shoh hukmronligining so'nggi davri, dehqonlarning og'ir mehnati, jamiyatdagi adolatsizlik va zulm haqida to'la tasavvur beradi.

Asarda bir o'spirin yigit — Faridunning kamolga yetishi, uning boshidan o'tgan voqealar, ijtimoiy-siyosiy hayotda kechayotgan o'zgarishlar ajib bir tarzda ifodalangan. Yozuvchi bu romani orqali milliy ozodlik harakatlarining kuchayishi sabablarini ochib beradi. Karimxon Ozodiy, Kurd Ahmad, Rizo Qahramoniy ma'naviy yetuk, jasur adolatparvarlarning xarakterini mahorat bilan yaratgan. Romandagi Sattorxon va Shayx Muhammad Xiyoboniyning og'ir sharoitda turmush kechirishi tasviri hamda fors, kurd va ozar yoshlarining yangi davr uchun birgalikda kurashi asarning ta'siri, ijtimoiy-badiiy qiymatini yanada oshirgan.

Romanda Faridun, Sartib Salimiy, Muso kishi, Hikmat Isfahoniy kabi badiiy obrazlar galereyasi yaratildi. Bu asar adibga jahoniy shuhrat keltirdi, deb aytsak hech mubolag'a bo'lmaydi. "Shunday kun keladi"da ilgari surilgan ijtimoiy-siyosiy muammolar xalqaro voqealar bilan hamohang bo'lgani uchun katta e'tibor qozondi. Bugun ushbu asarni mutolaa qilayotganda roman yozilgan vaqtni unutmasligimiz kerak. Negaki roman ilk bora 1948-yili nashr qilingan va bu paytda Ikkinchi jahon urushi yakunlanib, odamlarga orzu-istaklarini ko'rsatadigan, ertangi yorug' kunlarga undaydigan asarlar nihoyatda zarur edi.

Qolaversa, mustabid tuzumning 1930-yillardagi qatag'on siyosati xalqning, ayniqsa, ziyolilarning bir zum bo'lsin xayolidan ko'tarilgan emasdi. Shu bois adabiy qahramonlarning kechagi mustabid tuzumga bo'lgan ishonchini, aslo adibning qarashlari bilan bir deb bo'lmaydi.

Yozuvchi ilmiy-ijodiy faoliyati davomida ozar xalqi ma'naviy yuksalishi yo'lida katta xizmat qildi. U 1935–1937-yillarda Leningrad shahrida joylashgan Sharqshunoslik instituti aspiranturasida tahsil olib, atoqli ozarbayjon adibi Jalil Mammadgulzoda hayoti

va faoliyatiga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Mirza Ibrohimov Ikkinchi jahon urushining og‘ir sinovli yillarida zavod va qishloqlarda, harbiy qismlarda o‘zining otashin chiqishlari bilan harbiylar qalbida dushmanga nisbatan nafrat va g‘azab uyg‘otdi. Xususan, 1942-yili Uzoq Sharqda Xabarovsk, Vladivostok harbiy doiralarida 416-diviziya jangchilari bilan uchrashuvlarda qatnashadi.

Adibning “Qo‘rqinchli ovoz”, “San’at ixlosmandlari”, “Zahra”, “Chorrahani”, “Farishta”, “Qochqin”, “Janub hikoyalari”, “O‘n ikkinchi dekabr”, “Ozod”, “Gulxanda”, “Azob oxiri”, “Ikki umr”, “Xosrov Ruzbeh”, “Gulobodin”, “Parviz hayoti”, “Shunday kun keladi”, “Katta tayanch” (1957), “Parvana” asarlari mashhur.

Shuningdek, “Hayot”, “Madrid”, “Muhabbat”, “Qandchi qizi” (Mirza Fatali Oxundov mukofoti), buyuk adibning hayoti va kurashi haqida hikoya qiluvchi “Yaxshi odam” sahna asarlari bilan Ozarbayjon dramaturgiyasini boyitdi.

Adib Shekspirning “Qirol Lir”, “O‘n ikkinchi kechami, yo nima istasang”, A.N. Ostrovskiyning “Aqldan ozgan pul”, “Oqil bo‘lgan har bir kishiga soddalik yetar”, A.P. Chexovning “Uch opa-singil”, A. Satramovning “Erkaklarga ishonmang” pyesalarini ozarbayjon tiliga mahorat bilan tarjima qildi.

Mirza Ibrohimov 1942-yili 31 yoshida Ozarbayjon xalq maorifi mudiri, 1942–1946-yillarda Maorif vaziri lavozimlarida, shuningdek, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi boshqaruv kengashi raisi (1946–1954), Ittifoq Yozuvchilar uyushmasi boshqaruv kengashi kotibi (1957–1965), Ozarbayjon Respublikasi Oliy Prezidiumi raisi (1954–1958) lavozimlarida ishladi. U umrining oxirigacha Ozarbayjon Fanlar Akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot institutining Janubiy Ozarbayjon adabiyoti bo‘limi mudiri, “Ozarbayjon adabiyoti tarixi” ko‘p jildligi tahririyati a’zosi bo‘lib faoliyat yuritdi.

Ozarbayjon xalqining ardoqli farzandi, davlat va jamoat arbobi Mirza Ibrohimov 1993-yilning 17-dekabrida Boku shahrida vafot etdi va Faxriy Xiyobonida mangu qo‘nim topdi.

Adib mustabid tuzum davrida ozar tilining jozibasi, boyligi va qadim tarixi haqidagi tadqiqotlari bilan jamoatchilik e'tiborini birdamlik va erk masalalariga qaratib keldi. Bu uning vatanparvar va millatsevar adib ekanligi haqidagi taassurotlarimizni yanada yorqinlashtiradi.

Nurilla Choriyev,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

SHUNDAY KUN KELADI

Roman

BIRINCHI BOB

Kuni bilan har tarafga o‘t sochgan quyosh botib bormoqda. Uning shu’lalarini o‘zida aks ettirayotgan ufqdagi parcha-parcha bulutlar so‘nib borayotgan cho‘g‘ni eslatardi. Bulutlar asta-asta soviyotgan tandir kabi qoraya boshladi. Arablarning chodralariga o‘xshagan janub qorong‘iligi shoshilmasdan qishloq ustiga bosib kelar edi. Bu qorong‘ilik bilan birga moviy bo‘shliqlardan yerga orombaxsh salqinlik ham tusha boshladi. Savalon tog‘ining qorli cho‘qqisidan esayotgan shabada esa kechaning sovuq bo‘lishidan darak berardi.

Faridun xirmon chetida, hali tuyilmagan bug‘doy g‘arami yonida cho‘zilib yotar edi. U jazirama issiq kun va og‘ir mehnatdan so‘ng ko‘zini moviy bo‘shliqlarga tikib, kechqurungi yoqimli shabadada xayolga cho‘mgan edi. Bepoyon dengiz singari ko‘k gumbazi, u yerda porlayotgan ilk yulduzlar, uzoq Savalondan esgan mayin shabada yigitning horg‘in vujudiga orom berar, xayolini uzoq va go‘zal bir olamga olib ketardi. Baxt va shirin orzular yaratgan bu xayoliy olamdagi har bir narsa abadiy va buzilmas bo‘lib ko‘rinar, uning qalbini erkalar va jozibali go‘zallik bilan unga qarab jilmayar edi. Balki bu tasavvur emas, tushdir. Ehtimol, u bularning hammasini, ya’ni ozod va go‘zal dunyoni tushida ko‘rardi: unda inson butun borliqning xo‘jayini, hokimi. Unda odamlarning yuzi baxt-saodat nuri bilan porlaydi. Har bir kishi unda yashamoq va ijod etmoqning so‘nmas havasi bilan yashaydi.

U yerda ochlik ham, muhtojlik ham, g‘am-hasrat bilan boquvchi ko‘zlar ham yo‘q!

Nogahon eshitilgan bir tovush uni xayolidan ajratdi.

— Yigit, panshaxangni berib tur...

Bu qo‘shni xirmonning egasi Hasanali edi. Faridun o‘rnidan turib, panshaxani olib berdi-da, yana o‘z o‘rniga cho‘zildi. Yana ilgarigidek shirin xayollarga berilmoqchi bo‘ldi. Lekin iloji

bo‘lmadi. Uning xayoli kuchli shamolda to‘zigan qamish chayla singari sochilib ketgan edi. Xayollarni qaytadan bir yerga to‘plash mumkin emasdi. Endi Faridunning ko‘zi oldida hayotning og‘ir va azob-uqubatli sahnalari jonlandi. Bolaligi... Otasi bilan onasining o‘limi... Tehrondagi hayoti... So‘ngra Tabriz... Bu xotiralar ichida Tehronda kechirgan chidab bo‘lmas issiq kunlar bilan dim oqshomlar ayniqsa og‘ir edi. O‘shanda Faridun o‘zini hamisha qafasdagi qush kabi his qilardi. Shunda unga Ozarbayjonning daraxtzor va sersuv go‘zal qishloqlari; yozda yashil gilam to‘shalgan singari orombaxsh chamanzor dalalari va tog‘lari jannatdek ko‘rindi. Faridun qalbida chaqmoq kabi birdan shu’lalangan qizg‘in muhabbat bilan, yangi o‘rilgan, g‘alla hidi anqib turgan yumshoq ona tuproqni quchoqlab, unga yuzini surdi. Ko‘zlaridan ikki tomchi yosh sizib chiqib, yerga tomdi.

Faridun 1915-yilda, Tabriz shahrining g‘arbidagi Sahand tog‘ining etaklariga joylashgan, bog‘lari va totli mevalari bilan mashhur bo‘lgan Ozarshahrda tug‘ilgan edi. Bir tarafi Urmiya ko‘li, ikkinchi tarafi esa cho‘qqilari doim qor bilan qoplanib yotadigan Sahand tog‘i tizmalari bilan o‘ralgan Ozarshahr tabiatning go‘zal va safobaxsh joylaridan biri edi. Tog‘lardan sizib chiqqan zilol buloq va soylar bu yerlarda odamzod yashashi va bog‘dorchilik uchun juda qulay sharoit yaratar edi-yu yozda bu yerda Tabriz zamindorlari va savdogarlari istirohat qilar edilar.

Faridunning otasi Tabriz savdogarlaridan birining Ozarshahrdagi mulkida bog‘bon edi. Uning otasi ham, bobosi ham, bobosining bobosi ham shu yerda bog‘bonlik qilgan. Bu mulk bir zamindor qo‘lidan ikkinchisining qo‘liga o‘tgan, bir savdogardan ikkinchi savdogarga sotilgan bo‘lsa ham, Faridunning ota-bobolari shu yerda qolaverar edilar. Ular shu bog‘da o‘sgan bir daraxt singari, yer bilan birga yangi xo‘jayin ixtiyoriga o‘tardilar. Go‘yo bog‘bonlik ularning peshonasiga bitgan birdan bir hunar edi; ular onadan bog‘bon bo‘lib tug‘ilar edilar. Ko‘zini ochib, esini tanigan kundan boshlaboq daraxtlar orasida ishlab yurgan oqsoqolli otalaridan daraxt o‘stirishni, gullarni parvarish qilishni, xilma-xil shirin mevalar yetishtirish yo‘llarini o‘rganar edilar. Shu zaylda keksa ota to o‘lib ketguncha o‘zining butun tajribasini o‘g‘liga o‘rgatib ke-

tar, o‘g‘il uning o‘rnini bosar, otasining belkuragini, chopqi va qaychisini bekor qoldirmas edi. Shu taxlitda ularning bir necha nasli bog‘bonlik qilib o‘tgan. Ozarshahrda ularni “tug‘ma bog‘bonlar” der edilar. Ishi chappasiga ketgan yoki biror yaxshi navli meva yetishtirmoqchi bo‘lgan va hosilni oshirmoqchi bo‘lgan odam maslahat olish uchun shular oldiga kelar edi. Ular ham qo‘llaridan kelganicha barchaga baravar yordam berar edilar. Eshiklariga kelgan har bir kishini, izzat-hurmat bilan qarshi olar va o‘z bilganlarini unga o‘rgatar edilar. Shuning uchun qishloqning barcha aholisi ularni sevar va hurmat bilan esga olar edi.

Faridun kichkinagina bir uyda tug‘ildi. Bu baland devorlar bilan o‘ralgan katta bog‘ning darvozasi yonidagi ikki derazali, kesak devorli bir kulba edi. Faridunning otasi ham, bobosi ham shu uyda tug‘ilgan. Onasi har yili Navro‘z bayrami munosabati bilan uyning devorlarini, tashqari tomonini oqlar, uyga solingan yirtiq palos bilan ko‘rpa-to‘shaklarni qoqib tozalardi. Juda qashshoqlikda yashasalar ham o‘zlarini baxtli hisoblardilar. Ularning naslidan hali hech kim bir burda nonga zor bo‘lgan emas. Har yil bir amallab sabr-qanoat bilan yozga chiqishar va ochlik nimaligini bilmas edilar. Ularning bu dunyoda yaxshilik qilishdan boshqa maqsadlari yo‘q edi. Faridun to‘qqiz yoshga kirguncha ularning hayoti shu zaylda bir tekis davom etdi. Bu paytda Faridun otasiga dastyor bo‘lib qolgan edi; u toklar tagini chopiq, daraxtlarni payvand qila olar va shunga o‘xshash bir qancha ishlarni bajara olar edi. Yoz oylarida Ozarshahrga kelgan arbobning bolalaridan alifbeni ham o‘rganib oldi. Varaqlari titilib ketgan birinchi sinf kitobidagi hikoyalarni hijjalab o‘qib o‘tirganini ko‘rgan otasi yuzidan o‘pib, faxr bilan:

— Bu boladan bir ish chiqadi, — degan edi.

U hatto biroz pul jamg‘arib, Faridunni o‘qish uchun Tabrizga yoki Tehronga yuborish fikriga ham tushgan edi.

Lekin ko‘p o‘tmay bu shirin xayollardan voz kechishga majbur bo‘ldi. Tehronga ko‘chib ketgan ilgarigi xo‘jayini bog‘ni sotib ketdi. Yangi xo‘jayinning juda yaramas odatlari bor edi. Uning xatti-harakati va gap-so‘zida, odamlarga qiladigan muomalasida ma’lum bir izchillik yo‘q edi. U goh qo‘liga tushgan narsani uloq-

tirib uradigan johil, goh esa o‘zini har narsaga ham befarq qaraydigan soddadil odam kabi tutardi. Uning o‘n ikki yashar o‘g‘li otasining aksicha, aniq bir xarakterga ega bo‘lgan bola edi: u kuni bilan janjal qo‘zg‘aydigan, qo‘liga tushgan narsani urib sindiradigan, buzib yoradigan, dod-voy qilib yig‘laydigan, qahqaha urib kuladigan bir zumrasha edi. Tantiqlik va befahmlikning namunasi bo‘lgan bu bolada aql va idrok degan narsalarning uchquni ham yo‘q edi. To‘rt yil maktabga qatnaganiga qaramay hamon alifbeni o‘rganib ololmagan edi. Qo‘liga tushgan narsani urib sindirar, to‘g‘ri kelgan odamning boshiga urar, yuziga tupurar edi. Hech kim unga biror narsa deya olmasdi. Bog‘ga ko‘chib kelganlarining uchinchi kuni u Faridunni bekinmachoq o‘ynashga taklif qildi. Besh minut o‘tar-o‘tmas tantiqligi tutib, qo‘liga tushib qolgan tayoq bilan Faridunning boshiga urmoqchi bo‘ldi. Faridun kaltakni uning qo‘lidan tortib olib, otib yubordi-da, qorniga bir tepib yerga ag‘dardi. U meshdek gup etib yiqildi. Uning dod-voyini eshitib yugurib chiqqanlar orasida arbobning o‘zi ham bor edi. Arbob quturgan tuyadek Faridunning ustiga tashlandi, lekin Faridun chaqqonlik bilan chap berib qochib qolgani uchun arbobning o‘zi gumburlab yerga yiqildi.

— Ushlang bu haromini!

Xizmatkorlar Faridunni quvib ketdilar; Faridun qushdek daraxtdan daraxtga o‘tib, o‘zini ko‘chaga urdi. Alamiga chidamagan arbob darhol Faridunning otasini chaqirtirdi.

— Hoy ablah, sen xiyonatkor odamsan, ko‘zingdan ko‘rinib turibdi, — deb o‘shqirdi.

To‘satdan bunday hujumga uchragan otaning rangi quv o‘chib ketdi:

— Og‘o, yuz yillardan beri shu ostonada quldek xizmat qilamiz, senga o‘xshash o‘nlab arboblarga xizmat qilganmiz, lekin hech kim bizdan zarracha xiyonat ko‘rgan emas, — dedi u.

— Yo‘q, sen xoin odamsan, taqir-tuqurlaringni yig‘ishtir, bu yerda qorangni ham ko‘rmayin.

Faridunning otasi boshqa biror yerdan ish topmoqchi bo‘lib ko‘rdi. Lekin bir arbob quvib yuborgan odamga, boshqa arboblar ish bermadilar. Ikkinchi tarafdan esa, xo‘jayinning: agar

Ozarshahrdan chiqib ketmasa, ishini chatoq qilaman, degan gapini odamlar unga yetkazishdi. Shu bilan Faridun oilasi o‘z tug‘ilgan joyidan chiqib ketishga majbur bo‘ldi. Oldin Tabrizga keldilar. Tabrizda biror ish topish mumkin bo‘lmagandan keyin Ardabil tarafga, onasining qarindosh-urug‘lari turadigan qishloqqa ketishdi. Qishloqda ham joylashmoqning iloji bo‘lmagach, Faridunning otasi oilasi bilan ish axtara-axtara Tehrongacha yetib keldilar.

Ozarshahrdan chiqib ketgan kunlaridan boshlab Faridun otasi bilan onasining yuzida chuqur qayg‘u ko‘rardi. Ular juda g‘amgin edilar. Sirtdan xotirjam va beparvo ko‘rinishga tirishsalar ham, o‘zlarining tortgan iztirob va tashvishlarini tamoman yashirolmas edilar. Faridun ayniqsa onasining ko‘p siqilishini sezardi, ona bechora ko‘karib chiqqan joyidan uzib olingan gunafsha kabi hech bir shikoyat qilmay, kun sayin, soat sayin so‘lib borardi. Bir kecha uzoq yo‘l yurishgandan so‘ng, qandaydir karvonsaroyda shirin uyquda yotgan Faridun alla singari yig‘i tovushidan uyg‘onib ketdi: onasi uning boshini tizzasiga qo‘yib yig‘lab o‘tirardi. Faridun darhol onasining bo‘ynidan quchoqlab, uxlab yotgan otasini uyg‘otib qo‘ymaslik uchun sekingina:

— Onajon, yig‘lama! Xudo haqqi, yig‘lama! — dedi.

Shu kundan boshlab onasi hech yig‘lamadi. Lekin kundan kun yanada sarg‘ayib so‘la boshladi: uni g‘am ado qilmoqda edi. Tehronga kelganlariga uch oy bo‘lganda jimgina yonib turgan sham kabi so‘ndi. Bu Faridunning hayotidagi eng og‘ir xotiralaridan biri edi.

Ular Tehronda bir oycha juda og‘ir ahvolda yashadilar. Bir necha kun ko‘chada yashab, keyin bir joy topib ko‘chib keldilar. Otasi ish topolmagani uchun ahvollari kundan kun og‘irlashib borardi. Lekin bularning baxtiga, ota yaxshigina bog‘ va davlatga ega bo‘lgan, o‘ziga to‘q yaxshi bir odamga duch keldi. Bu kishi tehronlik, oltmish besh-yetmishlarga kirgan keksa o‘qituvchi edi. Faridunning otasi bir yilda bog‘ni juda yashnatib yubordi: yangi daraxtlar ekdi, go‘zal gulzorlar yaratdi, turli-tuman payvandlar qildi.

O‘qituvchi undan juda xursand edi. Dastlabki oylarda Faridun otasiga yordamlashdi. Uning kitob o‘qiyotganini ko‘rgan o‘qituvchi yoniga chaqirib, suhbatlashdi-da, qobiliyatli va aqlli bola eka-

nini sezib bo'sh vaqtlarida uni bir yilcha o'qitdi. Bir yilda Faridun ikki sinf hajmida bilim oldi. Ikkinchi yil o'qituvchi uni o'rta maktabning uchinchi sinfiga kiritib qo'ydi. Faridun yaxshi o'qir, otasiga ham yordam berardi. Ota o'z taqdiridan tamoman rozi bo'lmasa ham, har holda shunday yaxshi odamga duch kelgani uchun kecha-kunduz Xudoga shukur qilardi. Dastlabki oylarda u Faridunni ergashtirib shaharni tomosha qilgani chiqardi. Lekin darrov qaytardi: shaharning kishini kar qilarli shovqin-suroni, ko'chalardagi ochlik va muhtojlikning yurakni orziqtiruvchi manzaralari otasinigina emas, hatto Faridunni ham charchatar, qo'rqitar, vahimaga solardi; shuning uchun darrov qaytar edilar. Lekin o'qituvchining jimjit bog'ida ham u tinch yashay olmasdi, chunki o'qituvchi, ko'pincha, Tehronning og'ir hayoti to'g'risida so'zlar, och va muhtojlar, politsiya va jandarma, zindon va qamoqlar haqida eshitganlarini gapirib berardi. Shunda ota har safar:

— Shahar emas, jahannam bu! — deb qo'yar edi.

Shuning uchun ham u o'zini baxtli hisoblardi: qo'lida ishi bor, yemoqqa ovqati bor, yotish uchun joyi ham bor, o'g'li o'qiyapti — bu baxt emasmi, axir?

Lekin bu baxt ham uzoqqa bormadi. Tehronga kelganlaridan uch yil keyin, yozda otasi ichterlama kasaliga mubtalo bo'ldi. Kasalga chalingan ota yettinchi kuni kasalxonada dunyodan o'tdi. Faridun yolg'iz qoldi. Tabiatan insonparvar bo'lgan o'qituvchi uni haydamadi. O'qitdi. Shaharda yurgan minglab yetim va boshpanasiz bolalarni ko'rgan Faridunning qalbi bu odamga nisbatan umr bo'yi unutilmas bir minnatdorlik bilan to'ldi.

O'gay ukasining bolalaridan boshqa hech kimi bo'lmagan bu o'qituvchi xayolparast odam edi. U dunyodagi butun falokatlarning sababini jaholatdan deb bilardi. Kechqurunlari azim terak ostida o'tirib, qo'lidagi hassaga suyangan holda Faridunga:

— O'qi, o'g'lim, dunyoni jaholatdan qutqaradigan narsa ilm nuridir. O'qi, ilm ol, so'ng bolalarni o'qit! Baxt-saodatning kaliti ilmdir! — der edi.

O'qituvchining muloyimlik bilan aytilgan bu ma'noli so'zlari Faridunga vasiyat kabi tuyular, uning qalbiga mustahkam joylashar edi. Bunday paytlarda Faridun xayoliy bir olamda yashayot-

ganday o'zini unutardi. Shuning uchun ham Faridun o'n yillik maktabni bitirgandan so'ng keksa o'qituvchi o'z tanish-bilishlari orqali uni Tabrizdagi boshlang'ich maktabga o'qituvchilikka joylashtirib qo'ymoqchi bo'lganda, Faridun bunga xursandlik bilan rozi bo'ldi, chunki u endi boshqalarning ko'zini ochadi!

Faridun Tabrizda bir yil ishladi. Ikkinchi yili esa, boshqalarni ko'zini ochish uchun hali yana o'qishim lozim, degan qarorga keldi. Shunga ko'ra, universitetga kirish maqsadida Tehronga qaytdi. Og'alik qilgan keksani bir ziyorat qilishni o'zining burchi deb bildi. Tanish eshikni taqillatdi. Tezdan eshik ochilib, undan notanish bir odam chiqdi. Usti-boshidan xizmatkorga o'xshagan bu odam Faridunning hayajon bilan bergan ketma-ket savollariga xotirjamlik bilan beparvogina javob berdi, o'qituvchining bundan olti oy burun vafot etgani va uning mulki o'gay ukasining bolalariga o'tganini bildirdi. Shu onda bu buyuk shahar, Faridunning nazarida, go'yo begona va dushman joyga aylandi. Keksa o'qituvchining va otasi bilan onasining qabrini ziyorat qilgandan so'ng yana Tabrizga qaytmoqchi bo'ldi-yu, lekin tezda bu fikrdan qaytdi. Yozda Tabrizda nima ham qilar edi? U qishloqqa, tog'asi Musa akaning oldiga borishga qaror qildi. Yoz bo'yi ishlab, kuzda tamaddi qilish uchun bir narsa ortdirib, Tehronga qaytmoqchi edi.

So'fining qishloq masjidi pastakkina minorasidan eshitilgan "Allohu akbar" tovushi musulmonlarni oqshom namoziga chaqira boshladi.

So'fi bazo'r azon aytardi. Uning tovushida qandaydir horg'inlik bor edi. Ayni zamonda bu tovush butun qishloqqa va tevarak-atrofga go'yo sirli bir vahima tarqatardi. Bu tovushni eshitgan mo'minlar yurishdan to'xtar, so'zini to'xtatar, ishini chala-yarim qoldirar, fotiha o'qib, qo'lini yuziga surtardi-da, namoz o'qishga boshlardi. Faridun esa joyidan qo'zg'alishni istamasdi. U ilgarigidek cho'zilib yotar, bepoyon ko'klarni va bu ko'klar qarshisida noma'lum bir vahima bilan yuragi titragan mo'minlarni tomosha qilishni istardi. Lekin Musa akaning tovushi uni o'rnidan turmoqqa majbur qildi:

— Faridun, o'g'lim, birpasgina xirmonni sovurib tur, men namoz o'qib olay, — deb panshaxani uzatdi Musa aka.

Faridun shoshmasdan o‘rnidan turdi. Panshaxani olib, bundan besh kun burun yanchib qo‘yilgan, lekin shamol yo‘qligidan hali sovurilmagan g‘allani sovura boshladi.

Musa aka uning rohatini buzgani uchun uzr aytdi:

— O‘zing bilasan, o‘g‘lim, bunaqangi shamol doim bo‘lavermaydi. Sovur. Ertaga qolganini yanchish uchun shu kecha sovurishni tugatib olish kerak.

Faridun sovura turib, Musa akaning quyoshda qorayib ketgan yuziga qaradi-yu, indamadi. Bundan sal burun panshaxa bergani Hasanali yodiga tushdi. Butun qishloq odamlari, kattadan-kichik oftobda ishlayverib so‘xta bo‘lib ketganday ko‘rindi. U qayrilib Musa akaga yana bir qarab qo‘ydi. Musa aka yengini tirsakkacha shimarib, bug‘doy bog‘lari orasida turgan kichkinagina ko‘zani oldi. U lattadan qilingan va ingichka ip bilan ko‘zaning og‘ziga tiqib qo‘yilgan tiqinni oldi. Ko‘zani so‘l qo‘liga ushlab, o‘ng qo‘li ustiga engashtirdi. Suv tushmadi. U ko‘zani baland ko‘tarib, silkitdi:

— Ey, qilgan ishing qurmasin, Faridun, — dedi u, — bir tomchi ham suv qoldirmabsan-ku.

Faridun panshaxani yerga tashlab, ko‘zaga qo‘lini uzatdi.

— Menga ber, darrov buloqqa borib, to‘latib kelay.

— Yo‘q, kech bo‘lib ketayapti. Sen borib-kelguningcha namoz qazo bo‘lib ketadi. Ish ham to‘xtab qoladi. Suvsiz ham bir amallarman, — dedi Musa aka va ko‘zani xirmon etagini supurayotgan o‘n yetti-o‘n sakkizlarga kirgan qizga tutdi:

— Gulnoz, qizim, ko‘zani olib buloqqa borib kel. Kechqurun suv lozim bo‘ladi...

Qiz supurgini mola ustiga qo‘yib, qaddini rostladi. Otasining qo‘lidan ko‘zani olib, horg‘inlik bilan yelkasiga qo‘ydi-da buloqqa ketdi.

Faridun yana panshaxani qo‘liga oldi. Hozirgina somondan ajratilgan kahrabodek sap-sariq toza xushbo‘y bug‘doyga zavq bilan qarab, qalbi quvonchga to‘ldi. Yangi g‘ayrat va havas bilan sovurmoqqa boshladi. Uning aniq harakatlarini kuzatib turgan Musa aka bir siqim tozalangan bug‘doyni hovuchlab kaftida ezdi-da:

— Alhamdulillah, mana bu baraka-yu, mana bu farovon hayot! — dedi, keyin bir chekkaga chiqib quruq tuproq bilan ta-

yammum qildi. Cho'ntagidan joynamoz chiqarib, uni quruq yerga yozdi-da, qiblaga qarab namoz o'qiy boshladi.

— Allohu akbar!

Faridun odaticha, so'fining nolasiga ham, xirmonlardan eshitilayotgan "Allohu akbar" tovushlariga ham ahamiyat bermay ishlayverdi. U panshaxani to'latib sovurar ekan, og'ir bug'doy donalari oyog'i ostiga tushar, somonni esa shamol nariroqqa uchirib ketardi.

Somon to'planib qoldi deguncha Musa akaning yetti yashar o'g'li Ayoz uni nariroqqa surib qo'yardi. Bug'doyga yaqin to'kilgan qismini esa alohida ajratib bir yerga to'plardi-da, yirik ko'zli g'alvirda ehtiyotlik bilan elar, bir dona bug'doyni ham somonga aralashib ketishiga yo'l qo'ymasdi. Ayoz yoshiga munosib kelmaydigan bir jiddiylik bilan o'zidan ikki yashar kichik ukasi Niyozga buyruqlar berardi.

— Niyoz, jomni olib kel, mana bu bug'doylarni yig'ib ol, somonga aralashib ketmasin. Kichkina g'alvirni ber, bug'doyga tuproq aralashib ketibdi...

Uning ko'rsatmalarini diqqat bilan bajargan Niyoz g'aram ostidan elakni olib, unga berdi. So'ngra yugurib borib jomni olib keldi. Uni elangan bug'doy bilan to'latdi-da, ikki qo'li bilan ixrab-sixrab ko'tardi. Bug'doy uyumi ustiga to'kib keldi-da, qishloq tomonga qarab:

— Ayoz, nega ayam shu vaqtgacha kelmaydi! — deb so'radi.

— Ha, qorning ochdimi?.. Biroz sabr qil, kelib qolar.

Ular xirmonda ertalabdan beri kattalar bilan baravar ishlardilar. Issiq kun, og'ir mehnat va ochlik ularning tinka-madorini quritgan edi. Ularga qarab turib Faridunning yuragi ezilib ketar edi. G'aram ostidan eshitilgan yig'i tovushi uning yuragini battar ezdi. Bu Musa akaning uch yashar kenja qizi Olmos edi. Niyoz uning oldiga yugurdi, o'zining bola tili bilan allanarsalar deb singlisini ovuta boshladi:

— Ha, ha, nega yig'laysan... yig'lama. Ana, qara, aya kelayapti, — deb qishloq tomonni ko'rsatdi. Lekin qizchaning yana qattiqroq yig'lay boshlaganini ko'rib, Niyozning o'zi ham unga qo'shilishib yig'lab yubordi. Singlisi bilan ukasining yig'layot-

ganini eshitib, Ayoz qo'lidagi g'alvirini tashladi-da, ular oldiga yugurdi va har ikkisining boshini quchoqlab ovuta boshladi:

— Bo'ldi, yig'lamanglar. Hozir ayam kelib qoladi.

U bir amallab ularni ovutdi. Olmosni yana Niyozga topshirib qaytdi-da, bug'doy elash bilan mashg'ul bo'ldi. Faridun esa yuragini ezayotgan hislarning og'irligidanmi, yoki qalbini to'ldirgan g'azabdanmi, yanada shiddat bilan sovurardi. Hamqishloqlarning yonma-yon joylashgan xirmonlarida ham xuddi shu zaylda sovurardilar. Har xirmonda uzoq mashaqqat va g'ayrat bilan qilingan mehnatning natijasi bo'lgan oltindek bug'doy somondan ajratilib, bug'doy uyumlari hosil bo'lardi. Faridun bu xirmonlarga qarab, dehqonlarnnng faxr va sevinchlari sababini anglamoqqa boshladi. Bu yil hosil mo'l edi. Mo'l hosil har bir dehqonning ko'nglida umid va ishonch uyg'otgan edi. Ko'plar bu yil kuzda o'g'lining to'yini o'tkazib olishni, qiziga mol qilishni, sigirini ikkita qilib olish orzusida yashardilar. Ular bu yil o'z orzulariga yetishlariga shubha qilmasdilar, chunki hosil mo'l edi. Bu hosil yer egasining haqini to'lashga ham, mullaga ham, masjidga ham, faqir-fuqarolarga ham hissa ajratishga va o'z ro'zg'orini tuzatib olish, oilani yangi hosilgacha bir yil boqish uchun ajratib qo'yishga ham yetar edi. Dehqonlarning ko'pchiligi ana shunday xayolda yurishar va sevinishar edi. Bu shirin orzular ularning chehralarini ochib yuborgan edi. Hamma shod, hamma bir-birini sevinch va muhabbat bilan qarshilardi. Faridun ham bu yilgi hosil hisobidan biroz pul jamg'arib, Tehronga ketish, dorilfununda o'qib, o'quv yilining oxirigacha bir parcha nonga muhtoj bo'lmaslik haqida o'ylab, qalbi shodlik bilan tepardi.

Musa aka namozni tugatib, cho'kka tushib o'tirib fotiha o'qidi. Shu choq kuni bilan xirmonda ishlagan, biroz avvalroq qishloqqa ketgan Sariya xola qaytib keldi. Uning qo'ltig'ida ovqat o'rog'lik tuguncha bor edi. Bu kechqurungi ovqat edi. Bolalarining qanchalik ochiqib qolganini bilgan ona shoshgancha g'aram oldiga kelib, tugunni yechdi-da, uni quruq yerga dasturxon qilib yozdi. Siri ko'chgan mis idishni uning o'rtasiga qo'ydi, bitta qotirma non bilan og'zini yopti-da, qolgan nonlarni idishning atrofiga terib qo'ydi. Ovqat tayyor bo'lganini ko'rgan Musa aka namozni

tugatib, joynamozni yig'ishtirdi, keyin uni, odati bo'yicha, buklab o'pdi-da, cho'ntagiga solib, o'rnidan turdi.

— Kel, o'g'lim Faridun, kel, jindak ovqat yeb olaylik, — dedi va yelkasiga suv to'la ko'zani qo'yib, buloq boshidan kelayotgan Gulnozga qarab:

— Kel, qizim, sen ham ochsan, ovqatlanib ol! — dedi.

Faridun panshaxani hali tuyilmagan bug'doy g'aramiga tirab, dasturxon yoniga keldi. Sariya xolaga qaradi, uning atrofida pildirashib aylanib yurgan bolalarning boshini siladi. U Musa akaning qarshisida cho'kka tushib o'tirdi. Gulnoz ham onasining yoniga o'tirdi. Ular qotirma nonni ushatib, mis kosadagi sho'rvaga botirib, ishtaha bilan yeya boshladilar. Bolalar o'z nonlarini tez yeb qo'yishdi. Ayoz bilan Niyoz kelib Musa akaning o'ng va so'l tomoniga o'tirib, goh Faridunga, goh otalariga qarashib, indamay o'tirar edilar. Olmos Sariya xolaning tizzasiga joylashib olgan edi. Faridun bolalarga mehr-muhabbat va achinish bilan boqar edi. Ularning yoshlariga yopishib tushmaydigan itoatkorligi, sukut qilishlari, deyarlik yalang'och, darmonsiz gavdalari Faridunning dard va alamini oshirardi. Uning ko'zlari beixtiyor Gulnozga boqdi, qiz o'z tegishi bo'lgan bir-ikki burda qotirma nonni yeb olgach, bir chetda bo'ynini egib turardi. Qizning bu yerlarda kamdan-kam uchraydigan qora shahlo ko'zlari bilan oppoq yuzida ajoyib mutanosiblik bor edi. Qora sochlari ostida oq bo'yni bilan siynasi go'zal ko'rinardi. Beli nozik, yelkalari yumaloqroq edi. Doim oyoqyalang yurgani uchun tors-tors ajrab ketgan tovonlar uning nazokat va go'zalligini buza olmasdi. U goh tuz olib kelar, goh piyoz to'g'rardi. Ishi yo'q vaqtlarda ham bekor turolmas, qo'llari ish axtarardi. Egniga tizzasini zo'rg'a yopadigan kulrang ko'ylak kiygan edi. Boshqa bolalar qip yalang'och edi, desa ham bo'lardi. Ularning churuk-churuk ko'ylaklari badanlarini yashira olmasdi, ular shu qadar ko'p yamalgan ediki, yamoq soladigan joyi ham qolmagan edi. Bolalarning tizzalari, qorinlari, yonlari, qo'llari ochiq edi. Ularning ahvoli Faridunning yuragini battar ezardi. Nima uchundir hozir bu hol unga har vaqtdagidan ham achinarli va og'ir tuyuldi. Go'yo yegani zahar bo'lib, tomog'idan o'tmayotganga o'xshardi. Dehqonlarga xos ziyraklik bilan buni payqab turgan Musa aka go'yo o'zicha gapirgandek:

— Inshoolloh, bu yil g‘allamiz mo‘l bo‘ladi. Bolalarning qishlik ovqatini ajratib, qolganini Ardabilga olib borib sotaman. Bolalarga kiyim-kechak qilib beraman, — dedi. — Ovqatingni ye, ko‘p xayol suraverma, Ollohning karami keng.

Faridun “rahmat, to‘ydim” deb o‘rnidan turdi. Buni ko‘rgan Gulnoz suv keltirib, Faridunning qo‘liga quydi. Faridun odatga muvofiq, qo‘lini yuvib, lablarini ham ho‘lladi-da, dasturxondan uzoqlashdi. Musa aka bo‘shab qolgan mis kosani olib, so‘nggi burda qotirma bilan kosani tozaladi-da, nonni og‘ziga solib, qo‘lini yuvdi.

— Dargohingga ming marta shukur, biz to‘ydik, ochlarni ham o‘zing to‘ydir, — dedi.

Sariya xola dasturxonni yig‘ishtirib, tugdi.

— Xotin! — dedi Musa aka. — Sen bolalarni uyga olib ket, hali ishimiz ko‘p. Balki kechasi bilan xirmonda qolishga to‘g‘ri kelar. Gulnoz, qizim, sen ham uyga bor! Juda charchadinglar, yotib dam olinglar!

Sariya xola “xayr” deb, tugunni qo‘ltiqlab, Olmosni ham ko‘tarmoqchi bo‘lgan edi, lekin Gulnoz undan oldinroq borib singlisini ko‘tarib oldi.

— Men olib boraman, — dedi qiz va bo‘ynidan quchoqlab olgan singlisining yuzidan o‘pdi. Qishloqqa jo‘narkan, yelkasi ustidan Faridunga qaradi. Faridun qalbiga o‘t solgan bu qarashlardan o‘zini olib qochishga urinar edi. Lekin har safar uning ko‘zlari qizning ko‘zlari bilan uchrashmay qolmas edi. Ular xirmondan uzoqlashib ketdilar. Sariya xola bilan Gulnoz yonma-yon ketardilar. Bolalar onasining ortidan ergashgan jo‘jalar singari chuvillashib, bir-birlariga qoqila-qoqila borar edilar.

Musa aka qiyiq ko‘zlarini Faridunning xayolchan chehrasidan olib, bolalar orqasidan bir qaradi-da, chuqur xo‘rsindi:

— Kambag‘allik qursin, — dedi u. — Odamni bolalari oldida ham, xotini oldida ham, qo‘ni-qo‘shni oldida ham uyaltiradi. Men hali sening holatingni kuzatib turgan edim, bolalarga qarab tomog‘ingdan ovqat o‘tmay qoldi. Biz oddiy dehqonlarni hech narsaga tushunmaydi deb, o‘ylama. Bizlarning ham ba’zi narsalarga aqlimiz yetadi. Ammo, nima qilaylikki, qo‘limiz qisqa-yu,

yuzimiz shuvutda. Bolalarga qaraganimda mening ham yuragim eziladi. Ularni na kiyintira olaman, na qornini to'ydira olaman. Axir, ular to'yib ovqat yeyishni ham, kiyim kiyishni ham xohlaydilar. Bularning hammasiga pulni qayerdan olaman?

Musa aka jim qolib, xayolga cho'mdi. So'ng g'amginlik bilan qo'shib qo'ydi:

— Xudodan bittagina orzuyim bor: u ham bo'lsa bolalarni katta qilib, balog'atga yetkazish, ularni o'qitib, biror hunarga ega qilsam, bas! Undan keyin o'lsam ham armonim yo'q edi.

Faridun unga tasalli berdi:

— Xafa bo'lma, Musa tog'a, oyning beshi qorong'i bo'lsa, beshi yorug'. Bir kun senga ham baxt kulib boqadi. O'shanda bolalar ham to'yib ovqat yeb, kiyim-kechakli ham bo'lib qolishadi. Bir kun bu qishloqda ham maktab ochiladi, bolalarni o'qishga berasan. Yaxshi odam bo'lishadi. Xafa bo'lma...

Musa akaning go'yo bolalardan boshqa g'ami yo'qqa o'xshardi. Ularning kelajagini, hayoti va baxti uning butun fikri-zikrini band etgan edi.

Shuning uchun ham Faridunning umid to'la ko'zlari, umidlantiruvchi so'zlari uning dardini yangidan qo'zg'otgandek bo'ldi:

— Eh, o'g'lim, — dedi u, — kecha-kunduz fikri-zikrim shu bolalarda, meni keksaytirgan ham shu bolalarning tashvishi. Hali yoshim qirqqa borgani yo'g'-u, sakson yoshga kirgan cholga o'xshayman. Soch-soqolim oqarib, belim ham bukchayib qolayozdi — hammasi shu bolalar tashvishini tortishdan... Shularning qornini to'ydirarmikanman, shularga kiyim qilib bera olarmikanman, deb kecha-kunduz ishlayman. Ilojini qilolmayman. Doim bir narsa yetishmagani-yetishmagan.

Musa aka yong'oq yog'ochidan o'zi yasab olgan trubkasiga tamaki to'latdi. Chaqmoq tosh bilan o't chiqarib, tutatib oldi. Trubkani tortib tutun buruqsitdi-da, bir siqim tuproq olib kaftida ezdi. So'ng hayajon bilan so'zida davom etdi:

— Mana buni ko'rayapsanmi? — dedi u. — Bizni ochdan o'ldiradigan narsa mana shu! Belimizni sindiradigan ham shu! Bolalarimiz oldida yuzi qaro qiladigan va butun dunyo oldida sharmanda qiladigan narsa mana shu. Buni Xudo boylarga bergan,

kambag‘al qancha zahmat chekmasin qorni to‘yib ovqat yeya olmaydi. Yerga ega bo‘lgan odam yashay oladi. Yeri yo‘q dehqonning kuni it kunidan battardir!..

U chuqur alam bilan yerga tikildi. Faridun uning boqishlarida qutulib bo‘lmas falokatga uchragan odamning umidsizligini ko‘rdi. Tasalli va umid beradigan bir so‘z aytmoqchi bo‘ldi. Lekin ayta olmadi. Nima ham deya olardi? Unga yolg‘ondan tasalli berishni o‘ziga ep ko‘rmadi. Musa aka boshini ko‘tardi:

— Qani ko‘raylikchi, oxiri nima bo‘larkin, o‘g‘lim, — dedi-da o‘rnidan turdi. — Tur, endi ishimizni tamomlab qo‘yaylik!

Faridun turib, panshaxani oldi. Hali ham boyagi fikrlar tasiridan qutulmagan Musa aka o‘ziga-o‘zi gapirganday qo‘shimcha qildi:

— Balki bu yil baxtimiz ochilar... Arbobning suv pulini berarman, bolalarga kiyim-bosh qilib berib, bir parcha yer olsam edi. Ko‘p emas, bir parchagina!

Ikkovlari yana sovurishga boshladilar. Shu payt qo‘shni xirmon tomondan notanish va amirona bir tovush eshitildi:

— Ey, bug‘doyni tekisla, tamg‘ani menga ber!

Faridun ishdan to‘xtab, bu begona tovushga quloq soldi.

— Bu arbobning kishisi, gumashta Mamad, kelib bug‘doylarga tamg‘a bosyapti, — dedi Musa aka.

Faridunning taajjubda qolganini ko‘rib, tushuntira boshladi:

— Qishloqning qissasi uzun, o‘g‘lim, xirmonda tayyorlangan g‘allaga dehqonning qo‘l urishga haqqi yo‘q. Don tamg‘alanib qo‘yiladi, ya’ni maxsus belgi bilan nishon urib qo‘yiladi. Bir necha kundan keyin gumashta kelib, g‘allani taqsim qiladi. Yo ikki ulush dehqonga berib, uch ulushni arbobga ajratadi yoki dehqonga bir ulush berib, to‘rt ulushni arbobga olib qoladi. Gumashta kelmaguncha tamg‘ani buzib bo‘lmaydi.

Faridun hayrat bilan:

— Bordi-yu, birdan shamol turdi, yo biror mol tegib buzib ketdi, unda nima bo‘ladi? — deb so‘radi.

— Arbobga ham xuddi ana shu kerak-da. Tamg‘a buzildimi, demak, dehqon g‘alla o‘g‘irlagan bo‘lib chiqadi. Unda arbob donning hammasini tortib oladi. Bunday falokatdan Xudoning o‘zi asrasin.

Bu fikrdan o‘zi ham qo‘rqib ketgandek yana takrorladi:

— Xudo kofirning boshiga ham bunday qora kunni solmasin!

Ikkisi ham jim bo‘lishdi. G‘ayrat bilan sovurib, bu mash’um xayolni eslaridan chiqarishga tirishdilar. Gumashta ularga yaqinlashdi. Xirmon ko‘tarishni surishtirdi-da: “Birozdan keyin kelib, tamg‘a bosaman”, deb ulardan uzoqlashdi.

Oy yorug‘ida alla-pallagacha ishlab, xirmon ko‘tarishni tugatishdi. Somonni bir tomonga, bug‘doyni boshqa tomonga yig‘ib qo‘yishdi. Gumashta Mamad fonar bilan turtina-turtina kelib, somonga qarab:

— Ichida don qolmadimi? — deb so‘radi.

Musa aka darhol javob berdi:

— Yo‘q, og‘o, somonni ikki martadan sovurdim.

Gumashta Mamad xirmonning u yon, bu yoniga o‘tib, sinchiklab tekshirdi. U taxtadan yasalgan tamg‘ani qo‘liga oldi Tamg‘a kichkina andava shaklida bo‘lib, uning pastki qismida tishi, ustida esa andavanikiga o‘xshash dastasi bor edi. Yanchib, sovurilgan oltindek sap-sariq bug‘doyni ehrom shaklida baland qilib uyib qo‘yilgan edi. Gumashta tamg‘ani olib, bug‘doy uyumiga yaqinlashdi.

— Bismilloh, — deb tamg‘ani bug‘doy uyumining eng tepasiga bosdi. Tamg‘aning tishlari qog‘ozga bosilgan muhr singari iz qoldirdi. Keyin gumashta shoshmasdan bug‘doy uyumi atrofida aylanib, tamg‘ani tepadan pastgacha bosib tusha boshladi. Xirmon qilingan bug‘doyning hamma yog‘i tamg‘a izlari bilan qoplandi. Gumashta ishini tugatgach, jo‘nab ketdi.

Musa aka Faridunga o‘girilib:

— O‘g‘lim, endi biroz yotib damingni ol, juda charchab ketding. Erta bilan yana vaqtli turishing kerak, — dedi.

U javob kutmasdanoq boshi ostiga bir bog‘ bug‘doyni qo‘yib, quruq yerga cho‘zildi. Faridun ham bir bog‘ bug‘doyga bosh qo‘yib, boshqasi ustiga yotdi-da, oyning sutdek nuri ichida suzib yurgan yulduzlar va moviy ko‘kni uzoq tomosha qildi. Juda charchagan bo‘lishiga qaramay, uzoq vaqt ko‘zlariga uyqu kelmadi.

Birozdan so‘ng Musa aka xirmonni boshiga ko‘tarib, xurrak torta boshladi. Faridun xayolga botgan holda moviy va cheksiz

osmonni tomosha qilib yotib, endi uyquga keta boshlagan ediki, shu paytda uzoqdan, juda uzoqdan ashula eshitildi. Faridun buni uyquda eshitganini ham, bedorligida eshitganini ham eslay olmadi. Ashulaning shirin, ona allasi kabi yoqimli ohangi moviy bo'shliqlarga oqib ketar edi.

Tabriz usti Marog'a,
Zulfing bo'lmas tarog'lab.
Kecha-kunduz ortingdan
Kezdim seni so'roqlab.

Bu ashulaga quloq solib yotib, uyquga ketganini ham bilmay qoldi.

* * *

Kecha o'zining qora pardasini yig'ishtira boshladi, ufq oqara boshladi. Faridun Musa akaning qattiq-qattiq takrorlagan "Allohu akbar"idan uyg'ondi. Havo ochiq edi. Kechqurun qo'zg'algan shabada yarim kechada tingan edi. Shunga qaramay, mayin shabada cho'l va qirlardan hali o'rilib bo'lmagan, boshog'ini egib yotgan g'allazorlardan g'alla va o't-o'lanlarning yoqimli hidini xirmonga olib kelardi.

Osmonda bironta ham bulut ko'rinmasdi, poyonsiz ko'k gumbazi tagsizdek tuyulardi. Kunning juda issiq bo'lishi sezilib turardi.

Faridun sakrab o'rnidan turib, ust-boshidagi changni qoqdi, kecha salqinida muzdek bo'lib turgan suv bilan yuz-qo'lini yuvdi. O'zini juda bardam sezdi. Erinibgina kavsh qaytarishayotgan ho'kizlarni qo'shib, o'zi mola ustiga chiqib oldi. Dastlab Musa akaning og'zidan eshitganda zavq bilan qah-qah urib kulgani so'zlarni aytib, ho'kizlarni ishga soldi:

— Ha, balli, sadag'ang ketay, ha...

Ho'kizlar qo'zg'aldi. Mola kechasi xirmonga tashlangan, hali tekislanmagan bug'doy ustidan sakrab-sakrab yurib ketdi. Faridun uning ustida bazo'r o'zini tutib turar va ho'kizlarning tizginidan tortib, hayqirib qo'yardi. Xirmonni besh-olti ay-

lanib chiqqandan so‘ng, mola biroz tekis, muz ustida sirg‘angan chanadek yura boshladi. Faridun goh ho‘kizlarga o‘shqirar, goh kifti ustidan qarab bug‘doyning ezilib don bilan somonga ajralayotganini tomosha qilardi. Yirik bug‘doy donalari somondan ajrab chiqardi. Necha oylab qilingan og‘ir mehnat samaralarini ko‘rgan Faridunning qalbini tabiiy bir sevinch to‘ldirardi. Tongning ilk nafasi endi chiqib kela boshlagan quyoshning nurlari ostida qizara boshlagach, bu sevinch yana ham ortardi. Kayfchog‘lik bilan u beixtiyor ashula ayta boshladi. Bu Soib Tabriziyning:

“Na ehtiyojki, soqi berib sharob senga,
Ki berdi bodasini chun oftob senga”

deb boshlanadigan mashhur g‘azali edi.

Hamisha Gulnozning oy kabi yuziga qarar ekan, shu g‘azal uning yodiga tushar edi. Hozir ham shu g‘azalni o‘qishi bilanoq, uning ko‘zi oldida Gulnozning shahlo ko‘zlari jonlandi, chunki Soib Tabriziy o‘zining bu g‘azalini go‘yo Gulnozga bag‘ishlaganga o‘xshardi.

U Soibning bu g‘azalini o‘qir ekan qalbida yangi bir zavq qaynab ketdi. Atrofdan xabarsiz kabi o‘z xayoliga, o‘z dardiga berildi. Birdan g‘aram orqasidan bir juft ko‘z uni taqib etayotganini payqab qoldi. O‘sha tomonga qarar ekan, ko‘zi g‘aram orqasidan qarab turgan Gulnozga tushdi. Qizning qora shahlo ko‘zlari yoshlarga xos maroq va havas bilan Faridunga tikilib turardi. Ko‘zi qizning ko‘zi bilan beixtiyor uchrashar ekan, yigit o‘zini yo‘qotib qo‘yay dedi. Qalbi shirin bir hayajon bilan to‘ldi. Aftidan, qiz ham hayajonli edi. Chunki Faridun mola ustida yana bir aylanib kelganda, Gulnoz qizarib ketdi. Uning miyasidan “bu qiz ofatijon bo‘ladi” degan fikr o‘tdi. Boshqa fikrlar ham ketma-ket quyilib kela boshladi. Eh! Qani endi qishloqda maktab bo‘lsa! Gulnoz va Gulnoz singari qishloqdagi boshqa qizlar ham o‘qishsa! Iloji bo‘lsa, Faridunning o‘zi uni o‘qitardi, Tabrizga yuborardi. Qanday yaxshi, qanday go‘zal ish bo‘lardi bu! Gulnozni o‘qitish, uni hayotning past-balandliklari bilan tanishtirib, mustahkam, asl odam qilib yetishtirish! Bu fikr Faridunga g‘oyat go‘zal tuyuldi, haqiqa-

tan ham shunday qilsa har qancha maqtovga sazovor bo'ladigan ajoyib va romantik bir ish bo'lmasmidi-a? Bir kavakda sarg'ayib, so'lib bitishi aniq bo'lgan, doim og'ir mehnat ostida ezilgan, kambag'al, yarim yalang'och bir dehqon qizini o'qitsa, odam qatoriga qo'shsa, unga o'zining qanday ishlarga qobiliyati bor ekanini bildirib qo'ysa! So'ngra... So'ngra esa u qiz bilan qo'lni qo'lga berib, baxtsiz vatanning yaralarini davolashga boshlasa!..

Lekin Musa aka bilan Sariya xola bunga qanday qarasharkin, rozilik berisharmikin? Birdan yodiga bir narsa tushdi: bu voqea bundan ikki oy burun, Faridun endi qishloqqa kelgan vaqtda yuz bergan bo'lib, lekin yigit bunga unchalik ahamiyat bermagan edi. Tun. Faridun so'rida yotar edi. Sariya xola ham bolalarni yotqizib Musa akaning yostig'i boshida o'tirar edi. Kechqurunoq yechinib yotib olgan Faridun uyqu aralash ularning suhbatini tinglardi:

— Ko'z tegmasin, otasi, Faridun juda yaxshi yigit bo'libdi! — der edi Sariya xola — Bundan o'n besh yil burungi sho'x bolaga sira o'xshamaydi, vazmin, aqlli yigit bo'libdi!

Musa aka xotinining so'zini quvvatladi:

— Unda yosh bola edi-da, hali to'qqizga ham kirmagan edi. Undan beri o'n besh yil o'tdi. Ajoyib yigit bo'libdi!..

— O'shanda rahmatli onasi bilan birga kelgan edi. Onasi ko'p yaxshi ayol edi.

— Ehh... Sen uning onasini yaxshi bilmaysan. Bir haftagina mehmoning bo'ldi, xolos.

— Odamning yaxshi-yomonligini bir haftada emas, bir soatdayoq bilib olish mumkin. O'g'li ham xuddi rahmatli onasining o'zginasi bo'libdi.

— Sen ham menga o'xshab odam taniysan, xotin... Men dunyoda ko'p odamlarni ko'rdim. Lekin bunday oliyjanob odamni uchratgan emasdim. Faridun onasidan ham ko'proq rahmatli otasiga o'xshaydi. U ham og'ir-vazmin, aqlli odam edi. Otasi vafot qilganda Faridunning yoshi o'nlarda edi. Yetimlikda o'ssa ham, juda farosatli chiqibdi.

Musa aka jim qoldi. Ikkalasi ham qandaydir xayolga botdilar. Birdan Sariya xolaning pichirlagani eshitildi. Lekin Faridun uning nima deganini anglay olmadi.

— Juda yaxshi bo‘lardi, — deb javob berdi Musa aka va birpasdan so‘ng ilova qildi:

— Tag‘in, peshonasi biladi. Taqdiri azaldan bo‘lib kelib qolgan bo‘lsa ham ajab emas...

Buning asl ma’nosiga Faridun endi tushundi. Go‘yo Gulnozning hayajon bilan ko‘tarilib tushayotgan siynasi uning yoshlik o‘ti bilan yigitga zavqlanib boqqan shahlo ko‘zlari o‘sha suhbat ma’nosini aniqlab bergandek edi. Faridun shu xil xayolga tolgan holda g‘aram tomonga tez-tez qaray boshlarkan, Gulnoz yengil tabassum qilib ketib qoldi. Ko‘za ko‘tarib buloq boshidan qaytayotgan Musa akaning tovushi eshitildi:

— Barakalla, o‘g‘lim, barakalla! Umr bo‘yi dehqonchilik qilgan odamga o‘xshaysan-a...

Faridun ko‘zlarini g‘aram tomondan olib, Musa akaga qaradi-da:

— Nega ovora bo‘lib yuribsiz, men o‘zim olib kelardim, — dedi.

— Men olib keldim nima-yu, sen olib kelding nima? Qo‘y endi ishingni, Gulnoz nonushta olib kelibdi, kel, bir ovqatlanib olaylik...

Faridun javob bermadi. Musa aka mola ustiga chiqib, ho‘kizlarni haydadi.

— Ha, balli, sadag‘ang ketay, ha...

Faridun Gulnozni ko‘rish niyatida g‘aram orqasiga o‘tdi. Lekin qiz yo‘q edi. Tekis bir joyga o‘sha eski dasturxonni yozib, pishloq bilan nonni qo‘yib, o‘zi jo‘nab qolgan edi. Faridun bu yerga kelganidan beri qiz unga tanho duch kelmagan edi. Yigitning xayolidan: “Uyalsa kerak”, degan fikr kechdi.

* * *

Quyosh tik kelgan edi. Kunning eng qizigan payti issiq kishining yuzini yondirar, qizib ketgan tuproq va toshlar oyoqlarni kuydirar edi. Hatto soya joyda ham issiqdan turib bo‘lmasdi. Bu chidab bo‘lmas issiqlik manbai insonlarni jondan bezor qilar, nafasini bo‘g‘ar edi. Bu issiq ta’sirida cho‘llardagi o‘t-o‘lanlar qovjirab qolar, hali o‘rib olinmagan joylarda bug‘doy qurib, chirt-

chirt sinib yerga to‘kilardi. Qoramollar o‘zini soyaga olib, erinibgina kavsh qaytarishar, qushlar butoqlar orasiga yashirinar, itlar tilini bir qarich osiltirib salqinda yotar edilar. Faqat chigirtkalargina ora-sira uchishar, sakrashar; chirildoqlarning chirillashi to‘xtamasdi...

Faridun mola ustida turib ho‘kiz haydardi. Erta sahardan beri tinmay ishlagan va issiqdan hansirab, holdan toygan ho‘kizlar zo‘rg‘a harakat qilar edilar. Faridunning o‘zi ham arang ishlardi. Musa aka ham, Sariya xola ham, bolalar ham betinim ishlar edilar. Ular xirmon sovurishar, donni g‘alvirdan o‘tkazishar, xirmon atrofini supurishar edi. Ayoz sovuriq otayotgan otasiga yordam qilardi. Musa aka o‘g‘liga muhabbat va umid bilan qarab, o‘zicha:

— Yomon ko‘zdan Xudoning o‘zi asrasin, katta bo‘lib qoldi, bugun bo‘lmasa ertaga yonimga kiradi, — deb qo‘yar edi. Otasining bu so‘zlarini eshitgan bola yana ham yaxshiroq ishlashga tirishar, otasi uni kattalar qatoriga qo‘yganiga quvonar edi.

Birozdan so‘ng Faridun horg‘in holda terlab-pishib ketgan ho‘kizlarni chiqarib, soyaga haydadi. Musa aka ularning oldiga yangi o‘rilgan pichan soldi-da:

— Ha, sadag‘ang ketaylar, — deb ho‘kizlarni erkalatib, bo‘yniga urib qo‘ydi.

Faridun ham, Musa aka ham g‘aram soyasiga o‘tishdi. Musa aka suv ko‘tarib buloq tomondan kelayotgan Gulnozni chaqirdi:

— Hoy, qizim, — dedi u, — suvingdan qo‘limga jindek quychi...

Gulnoz ko‘zasini yelkasidan olib, otasining qo‘liga suv quydi, ko‘zlari esa yashirincha Faridunga boqar edi. Musa aka muzdek suv bilan betini yuvar ekan:

— Bay, bay, bay, bay!.. Dunyoning butun lazzati shunda ekan, — deb qo‘ydi. — Kel, o‘g‘lim, sen ham muzdek bo‘lib ol!

Faridun yengini shimarib, ko‘zani olish uchun Gulnozga yaqinlashgan ham ediki, birdan notanish tovush eshitildi:

— Shahloko‘z xonim, suvingdan ozgina ber, bir ichaylik!

Bularning uchalasi ham joyida qotib qolishdi. Ovoz egasi bir oyog‘i uzangida, ikkinchi oyog‘i yerda bo‘lgan gumashta Mamad edi. U Gulnozning yuziga tikilib turardi. Faridun bu

ko‘zlarda beodoblik, tamani payqadi. Gulnozni bu zaharli ilondan saqlamoqchi bo‘lgandek oraga kirib qiz bilan gumashta Mamadning o‘rtasida turdi. Gumashta unga achchiq bilan o‘qrayib qaradi-da:

— Suv deyapman, kofirmisanlar, suv bergilaring ham kelmaydi! — dedi.

Musa aka ko‘zadan kosaga ozgina suv quyib idishni chayqab tashladi-da, kosani to‘latib Mamadga tutdi:

— Og‘o, achchig‘lanishning nima hojati bor? Suv ichmoqchi bo‘lsangiz, marhamat...

Gumashta suv to‘la kosani olib, otining yoli ustidan quyib yubordi. Terlab turgan ot muzdek suvdan seskanib yer tepinib, boshini silkitdi.

Gumashta Mamad Musa akani nari itardi:

— Sen keksa odamsan, — dedi u, — ovora bo‘lma, qizing quyib bersin!

— Ovoragarchiligi yo‘q, bahuzur, o‘zim hamma xizmatingizni qilaman.

— Mersi! — dedi gumashta Mamad soxta muloyimlik bilan. — Qizing yaxshi qiz bo‘libdi! Xudo yomon ko‘zdan asrasin! Ol, xonim, kosani to‘ldirib ber-chi, qo‘lingdan bir suv ichay. Tashna kishiga suv berish savob ish.

Gumashta Mamad qo‘lida kosa bilan Gulnoz tomon qadam tashladi, lekin Faridun yana uning yo‘lini to‘sdi.

— Og‘o, suv ichmoqchimisiz, marhamat, mana suv! — dedi-da, kosaga suv quymoqchi bo‘lib, ko‘zani ko‘tardi.

Gumashta Mamad kosani bir chetga uloqtirib urdi.

— Zarari yo‘q, Musa amaki! Bir stakan suvga olmading bizni! Zarari yo‘q! — deb gumashta otini yetaklab, Hasanalining xirmoni tomon ketdi.

— Xudo kambag‘alning peshonasini sho‘r yaratgan. Yaxshi xotin ham, chiroyli qiz ham kambag‘alning boshiga bitgan balodir!..— dedi Musa aka qiziga qaramasdan.

Faridun indamadi. Ammo hozir qalbi to‘la edi. Juda ko‘p gaplarni aytib yuborgisi bor edi. Lekin o‘zini tiydi, beixtiyor qizga boqdi. Gulnozning yuzlari o‘t bo‘lib yonar edi. Lekin endi bu qizillik, shahlo ko‘zlarining hozirgi chaqnashi iztirob ifodasi

edi. Chunki qiz hozir o'zini gunohkor his qilardi. Ammo gunohi nima ekaniga aqli yetmasdi. U o'zini faqat begona ko'zlardan emas, hatto o'z yaqinlaridan chetroq olib yurishga tirishar edi. U butun borlig'i bilan oilasiga, bechora ota-onasiga sevinch, jindakkina bo'lsa ham baxt keltirish xayoli bilan yasharkan, haqiqatda esa nima uchun ularga dard, alam orttirishini hech biri tushunolmas edi. Shu paytga qadar faxrlanib yurgan o'z go'zalligining oila uchun ochiqdan ochiq xavf tug'dirayotganini yana ham chuqurroq tuyar ekan, baribir, buning sababini anglashdan ojiz qoldi. Bu uning iztirobini yana ham oshirib yubordi. Noma'lum, bir kelajak qo'rquvi oqshom qorong'iligi singari qalbini to'ldirar, u nimagadir pushaymon qilardi. Lekin nimaga? Go'zal bo'lib yaratilganigami? U xunuk, mayib bo'lib tug'ilishi kerakmidi? Yo'q! Kim bunga rozi bo'lardi deysiz!.. Bas, shunday ekan, nima uchun uning sho'rlik otasi bilan mushtipar onasi bundan shunchalik xafa bo'lishadi, shuncha xavotir olishadi, azob tortishadi? Nega onasi bunchalik hayajon bilan titraydi? Shularni o'ylab, u doim odamlardan chetlanib yurar, tanholikni axtarar edi. Qalbida boshqa hislar paydo bo'la boshlagan edi. Shu hislar uni hayotga chaqirar edi. Qisinib-qimtinib emas, bemalol erkin yashamoqchi bo'lardi. Faqat oyog'i ostidagina emas, keng ufqlarga qaramoq, ko'ksini to'ldirib nafas olmoq, yashamoq istardi. Buning juda qiyin, hatto mumkin emasligini ko'rib, nima qilishini bilmas edi.

Gumashta Mamad Musa akaga dag'dag'a bilan do'q urib, unga o'qrayib-o'qrayib ketgach, uning qalbidagi ming xil hisdan faqat bittasi qolgan, u ham bo'lsa nafrat hissi edi. Bu his hozir bu yerdagilarning hammasini chulg'ab olgan edi. Faridun ham, Musa aka ham, Sariya xola ham, hatto Ayozdan Niyozgacha shu nafrat hissi bilan to'la edilar.

Gulnoz ko'z yoshlarini zo'rg'a tiyib, xurmachadan mis idishga qatiq soldi. Uchi kemtik yog'och qoshiq bilan qatiqni aralashtirdi. Keyin unga non bilan ko'k piyoz to'g'rab, bodring soldi-da, buloq boshidan terib kelgan yalpizdan ham qo'shdi. Bularning hammasini qoshiq bilan qorishtirdi. Ko'zadan jindek suv ham quydi. Ovqat hozirlab, Musa aka bilan Faridun oldiga qo'ydi. Ular indamay ovqatdan bir-ikki qoshiq ham olmagan edilarki, Hasanalining qichqirig'i eshitildi.

— Yordam bering! Yordam!..

Musa aka bilan Faridun sakrab turib, uning oldiga yugurdilar. Hasanali boldiridan pastrog'ini mahkam siqib:

— Gyurza[1] chaqdi, gyurza! — deb qichqirar edi.

Ilon uning to'pig'ini chaqqan edi. Gyurza bug'doy g'arami ostida yotgan ekan. Hasanali suv ichmoqchi bo'lib ko'zani olgani kelganda, bir sakrab chaqib olibdi. Bechora Hasanali umidsizlikdan o'zini yo'qotib qo'yish darajasida edi. U nima qilishini bilmasdi. Xotini bilan olti bolasi bir-birlaridan balandroq qichqirishib, dod-faryod ko'tarib, Hasanalining ahvolini battar og'irlashtirar edilar. Musa aka bechora xotiniga va bolalarga o'shqirdi-da, ho'kiz qo'shiladigan qayishdan shartta uzib, Hasanalining oyog'ini ilon chaqqan yerining sal balandrog'idan mahkam bog'lab qo'ydi.

— Qatiq, darrov qatiq topib kel! — deb buyurdi u bolalarga.

Lekin qatiq topilmadi. Musa aka qishloqqa yugurdi. Otda xirmon aylanib yurgan gumashta Mamadga duch keldi. Gumashta unga kifti orqali bir qarab qo'ydi-da, otiga qamchi urdi. Musa aka undan madad so'rash mushkul ekanini payqab, orqaga qaytdi. Hasanalining oyog'i shisha boshladi. Musa aka qishloqqa borib kelguncha vaqt o'tishini o'ylab, uni eshakka mindirib olib ketmoqchi bo'ldi. Lekin Hasanali ko'nmadi. Borgan sari do'mbira bo'lib shishib ketayotgan oyog'ini ko'rsatib, biror shoshilinch chora topishni iltimos qildi. Xotini bilan bolalari yana yuz-ko'zlarini yulib, dod-faryod ko'tardilar.

— Musa tog'a, doktor chaqiring, doktor, — dedi Faridun.

Musa aka qo'l siltadi:

— Ey, o'g'lim-ey, qayoqdagi gapni gapirasan, bu yerlarda doktor nima qiladi!

Hasanalining oyog'i shishgandan shishib bordi. Buni ko'rgan Hasanali qat'iy bir qarorga keldi, shekilli, Musa akaga qarab:

— Bitta o'tkir xanjar top, tizzadan pastini kesib tashlash kerak, — dedi.

Bu gap hammani hayratga soldi, bunga hech kimning qo'li bormadi. Hasanali o'z atrofiga to'plangan odamlarning yuzida taraddud ko'rib, tashvishli ravishda:

[1] **Gyurza** — ko'lvor ilon

— Vaqt o‘tmasdan kesib tashlanglar! Bolta bilan bo‘lsa ham mayli! — deb qichqirdi-da, asabiylashib xotiniga o‘shqirib berdi:

— Muncha dodlayverding, o‘chir ovozingni! Bolalarni ham jim qil!

Xotin ham, bolalar ham birdan jim bo‘lishdi... Allaqayerdan o‘tkir bolta topib keldilar. Hasanali oyog‘ini xirmon chetida yotgan katta tosh ustiga qo‘ydi.

— Uring, bir zarb bilan uzib tashlang!

Boltani kim olsa ham, “uh, qo‘lim bormaydi”, deb yana joyiga tashlar edi. Shish kattalashib tizzaga yaqinlashib kela boshladi. Hasanali yana dodlay boshlagan xotini bilan bolalariga baqirib berdi-da, o‘zini chetga olib turgan bir dehqonga murojaat qildi:

— Ali qassob, nega qarab turibsan? Mening o‘limimni tilaysanmi? Boltani ol! Oyog‘imni uzib tashla!

Ali qassob hech nima demadi, odamlarni nari-beri surib, boltani qo‘liga oldi. U boltani ko‘targanida hamma yuzini chetga burdi. Ali bir zarb bilan Hasanalining tizzasidan cho‘rt uzib, oyoqni bir chetga uloqtirdi.

— Darrov eski-tuskilardan kuydirib bosinglar, — dedi-da, yoshlanib kelayotgan ko‘zlarini qisib, hech kimga qaramay davradan chiqib ketdi.

Faridun ham nima qilishini bilmay, g‘amginlik bilan bu yerdan uzoqlashdi. Cho‘loq bo‘lib qolgan Hasanali va shunday ham qashshoqlikda kun kechirayotgan uning bolalarini o‘ylab uning xafaligi oshib ketdi.

— Bechora xalq, bechora xalq! — deb xo‘rsindi u. — Qishloqdan qochmoq kerak, qochmoq kerak! — deb borar edi. — Bu yerda g‘am-g‘ussadan boshqa hech narsa yo‘q! — dedi o‘z-o‘ziga.

— Yo‘q, Faridun, ketma, hech qayerga ketma! — dedi birov.

Bu g‘aram orqasidan yoshli ko‘zlari bilan unga qarab turgan Gulnoz edi.

Faridun holsizlanib g‘ayri-ixtiyoriy ravishda ko‘zini unga tikib qoldi. Qiz unga muloyimlik bilan bir qaradi-da, qishloq tomonga yugurib ketdi...

* * *

Qishloqda duv-duv gap. Xirmonlarda ham, uylarda ham, ko'chalarda ham, buloq boshida ham, soy bo'yida ham shu voqea to'g'risida gapirar edilar. Yo'lda uchrashib qolgan dehqonlar bir-ikki og'iz shu to'g'rida dardlashib "nima qilish kerak?", deb bir-birlariga savol nazari bilan qarashar va umidsizlik bilan boshlarini quyi solgan holda ajralishar edi. Hech kim bu savolga javob topa olmadi. Nima qilish kerak? Nima qilish kerakligini hech kim bilmas edi. Ammo hamma norozi edi. Barcha dehqonlarning yuragi dard va g'azabga to'lib ketgan bo'lib, qoq yorilish darajasiga yetgan edi. Qishloqda katta-yu kichik, hamma shu: nima qilish kerak, degan savolga javob axtarardi. Lekin bunga javob bera oladigan birorta ham odam yo'q edi.

Faridun ham faqat shu to'g'rida bosh qotirardi. Yurganda ham, turganda ham, yotganda ham, suv ichganda ham tinmay shu to'g'rida o'ylar, shu savolga javob topishga urinar edi. Nima qilish kerak? Qishloqqa u ne-ne umidlar bilan kelgan edi!.. U Musa akaga yordam etish bilan birga o'ziga ham ul-bul orttirib, qishi bilan universitetda o'qish umidida edi. Endi bu umidlarning hammasi puchga chiqdi. Endi bu ham uning ko'ziga ko'rinmas, u o'zidan ko'ra ham dehqonlarning holiga achinar edi. Chunki u savdogar bolalariga dars berishi va bir amallab o'z kunini o'tkazishi mumkin. Faridun dehqonlarning uylaridan tortib, sandiq va xurjunlarigacha yaxshi bilardi, ularning uylarida juldur-juldur bo'lib ketgan ko'rpa-yostiqdan bo'lak hech narsalari yo'qligidan ham xabardor edi. Uni o'ylatib qo'ygan narsa ana shu qashshoq dehqonlarning ahvoli edi. Faridun butun umidini, butun kelajagini, o'z bilak kuchi bilan topilgan shu hosildan tegadigan ulushga tikkan Musa aka va Hasanalilar holiga, ularning jo'jalari holiga achindi. Uning yuragini dog'lagan narsa ham ana shu edi. Gumashta Mamad hosilni taqsimlash to'g'risidagi arbobning yangi shartlarini olib kelgandan beri hammaning ko'zida chaqnayotgan umid o'tlari o'chgan, yuzidagi shodligi g'am-g'ussa bilan almashingan edi. O'shandan beri: "Nima qilish kerak?!" degan dahshatli savol ko'ndalang turar edi: bu savolga javob topish uchun Faridun dehqonlarning ahvolini, arbob bilan dehqon ora-

sidagi munosabatni, fikran bo'lsa ham ko'z oldiga keltirishga tirishar edi. Dehqonlar bilan suhbatlashib, qishloqdagi qonun-qoidalarning zamindorlarga bergan cheksiz huquqlarini nazardan kechirgan sari fikri yanada qizg'inroq ishlay boshladi. Faridunning nazarida, u hali noaniq, uncha ravshan bo'lmasa ham, harholda, xalq hayotidagi, ijtimoiy muhitdagi bir muhim narsaga yaqin kelgandek bo'ldi. Go'yo u xalq hayoti deb ataladigan katta daryoni loyqalatadigan botqoqlikka yaqin kelgandek edi. Mamlakatni halokatga olib borayotgan, xalqning tinkasini quritgan ochlik va muhtojlikning ildizini topgan edi. Bu chirik ildiz qishloq va undagi ijtimoiy munosabatlar edi. Endi qishloq unga to'xtovsiz ravishda zaharli mikroblar yaratadigan iflos hovuz kabi jirkanch va dahshatli ko'rindi. Bu hovuzni quritish, yuqumli yarani kesib tashlash to'g'risida unda dastlabki fikr uyg'ona boshladi.

Shu og'ir va azob beruvchi tumanli fikrlar bilan xirmonga ketmoqda edi. Faridun o'z fikrlari bilan shu qadar band ediki, boshyalang bo'lishiga qaramay, quyoshning o't sochib, kuydirayotganligini ham sezmas edi. Faridunning yo'li axlat chuquri yonidan o'tar edi. Uning diqqatini shu yerda yurgan bir to'da boshyalang va oyoqyalang bolalar jalb qildi. Ularga yaqinroq joydan yo'l soldi. Ota-onalari xirmon va dalalarda bo'lgani uchun bebosh qolgan bolalar axlat ichida qop-qora bo'lib ketgan edilar. Faqat ko'zlarigina miltillab turardi. Lekin axlatlar bularning yagona hayot alomati bo'lgan ko'zlariga ham o'z tasirini ko'rsata boshlagan edi. Shilpiq kasali bilan og'rib, ko'zlari qip-qizarib ketgan ikki bolani ko'rgan Faridun yuzini chetga burdi. Lekin darhol o'zining bu harakatidan o'zi uyaldi! Xo'sh, nima uchun u hayotning bu chirkin, yurakni ezib yuboruvchi manzaralaridan ko'z yumadi? Teskari qarab o'tish bilan bu falokatlardan qutulib bo'ladimi? Shahar va qishloqlarda yashovchi o'n minglarcha bola, erkak va ayollarnnng ko'zlari shilpiq bo'lib qolgan emasmi? Shilpiq kasalidan ko'r bo'lib qolgan minglarcha odamlarning baxtsizligidan ko'z yumib bo'ladimi? Shu mard odamga yarashadimi? U doktor singari diqqat bilan bolalarga qaradi. Fikran bolalarni kasal va ko'r qilgan bu ifloslik bilan qishloqdagi munosabatlar o'rtasida bir o'xshashlik ko'rdi. "Yo'q, bu iflosliklar yo'qotilishi kerak! Albat-

ta, yo'qotilishi kerak! — degan fikr boshidan kechdi. — Bo'lmasa barcha aholi ko'r va mayib bo'ladi!". Shunday xayollar bilan suvi qurib qolgan soydan o'tib, xirmon yo'liga chiqib oldi. Uzoqdan anchagina odamlar to'planib turganini ko'rdi. Quyosh shu'lasi ostida yarqirab turgan ikki mashinani ham ko'rgach, odimini tezlashtirdi.

Butun qishloq bir katta xirmon oldiga yig'ilgan edi. Bug'doy g'arami yoniga eski paloslardan kapaga o'xshash bir narsa yasalgan bo'lib, o'sha yerga stol qo'yilgan, stolning ustiga esa sholcha yopilgan edi. Aftidan stol atrofida o'tirganlar, ancha badavlat odamlar edi. Ular to'rt kishi bo'lib, gumashta Mamad bilan Ali jandarm boshi ular huzurida qo'l qovushtirib turishar edi. Ularning yonida yana ikki jandarm ham turardi. O'n besh-yigirma qadam narida ularni doira shaklida o'ragan holda dehqonlar turishardi.

Musa aka olomon orasiga yorib kirmoqchi bo'layotgan Faridunning oldiga keldi-da, sekingina qulog'iga:

— Arbobning o'zi kelibdi! Og'oyi Hikmat Isfahoniy, — deb pichirladi.

— U bu yerda nima qiladi? Tehronni tashlab bu yerga nega kelibdi?

— Bilmadim... Aytishlaricha, mehmonlari bilan yozlik bog'iga kelib, sayohat qilib yurgan emish. Sayr qilib yurganida, yo'lda gumashta Mamad uchrab qolib, bu yerga olib kelibdi.

Kimdir uning qulog'iga:

— Yonidagisi amerikalik. Aytishlaricha, Ozarbayjonni ko'rmagan ekan. Og'o uni Ozarbayjonni ko'rsatish va tog'larda dam olish uchun olib kelibdi, — deb pichirladi.

— Aytganlaricha bor, ham ziyorat, ham tijorat, — deb qo'shib qo'ydi yana bir kishi.

Faridun odamlar orasiga kirib oldi. Endi u dehqonlarni ham, xo'jayinlarni ham bazo'r ko'ra olar edi. U baland bo'yli, yo'g'on bo'ynining eti qaytarilgan Hikmat Isfahoniyni diqqat bilan ko'zdan kechirdi. U tog' qoyalari singari jim turgan dehqonlarni bir-bir ko'zdan kechirardi. Hikmat Isfahoniy, aftidan, odamlarning bu jimjitligiga pinhoniy g'azab va nafratni sezardi, shekilli, o'zini va-

161927

himali qilib ko‘rsatishga urinardi: u qoshlarini chimirib olgan edi. Faridunning boshidan: “Dehqonlardan qo‘rqayapti. Bu jim turgan odamlar harakatga kelgudek bo‘lsa, sel kabi o‘z yo‘lidagi har narsani ham yuvib ketishiga aqli yetyapti” — degan fikr kechdi.

Hikmat Isfahoniy og‘ir sukunatni buzdi. U bamaylixotir, takabburlik bilan fors tilida gapirar edi. U shoshmasdan, dona-dona qilib, go‘yo shubhasiz dalil haqida gapirayotgandek so‘zlardi. Dehqonlarning vazmin boqishlarini yumshatish mumkin emasligini sezdi, shekilli, so‘zlashdan to‘xtab yo‘taldi-da, shohi ro‘molchasini olib, qo‘li bilan bo‘ynidan oqayotgan terlarini artdi. Og‘ir va chuqur sukut qilib turgan dehqonlar bir-birlariga qarab qo‘yishar edi.

— Og‘o nima dedilar, tushunmadik, — dedi kimdir, — bizga ham tushuntiring.

Gumashta Mamad engashib Hikmat Isfahoniyning qulog‘iga allanarsa deb pichirladi. Hikmat Isfahoniy aft-basharasini tirishtirib, Mamadga boshi bilan rozilik bildirdi. Gumashta Mamad jamoatga o‘girildi:

— Og‘o, hosil insof bilan men qanday buyurgan bo‘lsam shunday taqsimlansin deydilar. Boshqacha bo‘lishi mumkinmas. Hosilning beshdan biri sizga, beshdan to‘rti — og‘oning o‘zlariga tegadi. Chunki og‘oning chiqimlari juda ko‘p. Davlatga soliq, ma’murlar va xizmatkorlarga oylik to‘lashlari kerak, ularning hammasi og‘zini ochib, yeyman deydi.

Dehqonlar orasida norozilikni ifodalovchi g‘ala-g‘ovur boshlandi, hammayoqdan norozilik eshitila boshladi:

— Ilgarigi bitim nima bo‘ldi?

— Bolalarimiz tuproq yesinmi?

— O‘lsak ham beshdan ikki qismini olamiz.

Olomon harakatga keldi. Dehqonlar bilan xo‘jayinlar orasidagi masofa qisqardi. Hikmat Isfahoniyning jahli chiqa boshlaganini ko‘rgan jandarmlar dehqonlarni miltiq qo‘ndog‘i bilan orqaga sura boshladilar. Gumashta Mamad jamoatga qarab qichqirdi:

— Jim bo‘llaring, qo‘yga o‘xshab ma’rayvermalaring!

— Sen ovozingni o‘chirsang yaxshi bo‘lardi, — deb javob berdi kimdir.

Gumashta Mamad qanchalik bo'ynini cho'zmasin, luqma tashlagan kishini topa olmadi. Dehqonlar orasidan:

— Xaloyiq, yo'l beringlar! — degan boshqa bir tovush eshitildi.

Bu tovushda hayajon ham, g'azab ham, shikoyat ham bor edi. Dehqonlar bir-birlarini siqishib, orani ochib, kelayotgan odamga yo'l berdilar. Faridun Musa akaning isyonkor bir qiyofada Hikmat Isfahoniy oldida turganini ko'rdi. Uning o'ng tomonida bir-biriga siqilishib uch bolasi, so'l tarafida esa Hasanalining olti bolasi turar edilar. U Hikmat Isfahoniy oldida yergacha bukilib ta'zim qildi-da:

— Og'o, sadag'ang ketay, og'o, — deb gap boshladi, — mana bu bolalarga bir qara, rahming kelsin bizga. Qara, bo'yinlari ipdek ingichka, qorinlari esa meshdek shishib ketgan. Nega shunday? Och qolish va iflos suv ichishdan! Egnidagi kiyimlarini ham ko'rib turibsan, kiyimlari churuk-churuk. Bizga rahming kelsin, og'o! Hammasi shunaqa...

Gumashta Mamad yana engashib Hikmat Isfahoniyning qulog'iga allanarsa deb pichirladi. Hikmat Isfahoniy Musa akaning ustiga tashlandi:

— Uyat bormi senda! Uch yildan beri suvga haq to'lamaysan, indamay kelaman. Qilgan yaxshiligimga javobing shumi?

Musa aka yolvordi:

— Sadag'ang ketay, og'o, har yili to'layman, lekin to'lagan bilan hech ado bo'lmaydi. To'lagan sarim qarz ko'payib ketayapti.

— Bir yo'la to'lab, qutul qo'y, shunda foyizi oshib ketmaydi.

— Nima qilaylik, og'o, to'laymiz. Sen bu yilcha bizga rahm qilib, mana bu go'daklarning rizqini kesma, qarzdan ham qutularmiz. Ollohning karami keng.

Hikmat Isfahoniy unga boshdan oyoq nafrat bilan ko'z yugurtirdi:

— Yana bormi, yo hammasi shumi? — deb so'radi.

Musa aka savolga tushunmadi.

— Tushunmadim, sadag'ang ketay, nima deding?

Gumashta Mamad gapga aralashdi:

— Og'o bolalaringning hammasi shumi, yoki yana bormi? — deb so'rayaptilar.

— Bu uchtadan boshqa yana bir qizim ham bor. Bo‘yi yetib qolgan. Olib kelgani andisha qildim, — deb Musa aka jiddiy javob berdi.

Hikmat Isfahoniyning lablarida zaharxanda paydo bo‘ldi:

— Oz ekan, juda oz ekan!.. Yana besh-oltita kerak edi. Muncha qurumsoq bo‘lmasang!.. Qorin to‘ydirish uchun bir parcha non topolmaydi-ku, itvachchalarining ko‘pligini qarang-a...

Musa aka pinagini buzmadi:

— Xudo bergan bularni, sadag‘ang ketay, — dedi u, — Xudo bergan. Bandani yaratgan Xudo, nasibasini ham beradi... Agar sen bizga rahm qilsang, bir amallab tirikchiligimizni o‘tkazib turamiz.

— Xo‘sh, bu oltitasi kimniki?

— Og‘o, bularning yetimdan farqi yo‘q. Bularning otasini bundan ikki kun burun xuddi mana shu yerda ilon chaqib oldi. Oyog‘ini kesib tashlashga to‘g‘ri keldi. Hozir uyida xor-zor bo‘lib yotibdi. Bu yetimlarning holiga rahm qil, og‘o!

— Imom Riza yo‘lidagi gadolar kabi jonga tegma! Nariroq tur!

— Xudodan qo‘rq, og‘o!.. Faqirlarning haqini yema, Xudodan qo‘rq!

Gumashta Mamad Hikmat Isfahoniy tomon egildi-da, allanima deb pichirladi. Hikmat Isfahoniy o‘rnidan turdi.

— Hoy, chol, sen o‘zing Xudoga ishonasanmi? — deb so‘radi-da, Musa akaning yoqasiga yopishdi.

— Astag‘furulloh de, sadag‘ang ketay, astag‘furulloh de. Tiling komingga tortmasin tag‘in...

— Yo‘q, ishonmaysan deyman, ishonmaysan! Xudoga ishonsang, kecha tamg‘alangan bug‘doyni xirmondan o‘g‘irlab, uyingga tashimas eding.

Musa aka hayrat bilan odamlarga qaradi. Odamlar mixlangandek turgan joylarida qotib qolgan edilar.

— Ayt, sadag‘ang ketay, ayt, tekshirsinlar. Kecha qanday tamg‘a bosilgan bo‘lsa, shundayligicha turibdi.

Hamma Musa akaning xirmoniga tomon oqdi. Oldinda gumashta Mamad, uning kegidan Hikmat Isfahoniy va uning uchala mehmoni borar edilar. Musa aka bolalarni ham unutib, hammadan

oldin xirmon tomon yugurdi. Shovqin-suron ichidan yosh bolaning yig'lagan tovushi eshitildi.

— Hay, Sariya xola, kel, bu bolangni ol, oyoq ostida qolib ezilib qolmasin, — deb qichqirdi kimdir.

— Ezilsa nima qilay, — deb shikoyat qildi Sariya xola, — Xudo bularning jonini olmadi — biz qutulmadik!

Shu payt Olmos yana ham qattiqroq qichqirib yig'ladi. Sariya xola uni ko'tarib oldi-da, xirmon tarafga ketayotgan dehqonlarga yetib olish uchun yugurdi.

Xirmonni ko'rib, hamma hayron qoldi. Haqiqatan ham ehromda shaklida uyib qo'yilgan bug'doy buzilgan edi. Hikmat Isfahoniy Musa akaning yoqasidan tortib tamg'asi buzilgan bug'doyni ko'rsatdi:

— Xo'sh, bu nima?.. Nima bu?

Musa aka telba kishilardek goh gumashta Mamadga, goh Ali jandarm boshiga qarab qichqirdi:

— Xaloyiq, ishonmang! Bu bug'doyning hammasini qo'limizdan tortib olish uchun qilingan bir bahona! Yolg'on bu!

Hikmat Isfahoniy g'azabdan qip-qizarib ketdi:

— Demak, tamg'ani sen buzmagan ekansan-da, a?

— Yo'q, Xudo guvohim, men unga tekkanim yo'q!

— Yaxshi, tekshirib ko'ramiz. Qur'on bilan qasam ichasan.

Dehqonlar orasida yana shov-shuv boshlandi, xaloyiq yana harakatga keldi.

Hikmat Isfahoniy shu vaqtgacha biror og'iz ham so'z aytmay jim turgan, baland bo'yli qotma odamga murojaat qildi:

— Og'oyi So'fi Eronparast! Yolg'ondan qasam ichishning oqibati nima bo'lishini bularga tushuntirib qo'y! Qani, oldinga chiq!

So'fi Eronparast qo'lida saxtiyon muqovali kitobni ko'tarib oldinga chiqdi:

— Jamoat, mana bu Qur'on Xudoning amri bo'ladi. Unga yolg'ondan qasam ichgan kishi Allohi Taoloning g'azabiga duchor bo'ladi. Turgan joyidayoq tosh qotib qoladi. Kecha Sarobning Duzzan qishlog'ida Husayn Mashadiy Xudoyo-Xudovando, Mashhad pirim uning yuzini qora qilsin, Qur'onga qo'l tekkizishi bilanoq tirsagidan pastrog'i quruq yog'ochga aylanib qoladi. Al-

lohi Taoloning g'azabi ana shunday. Endi kimning haddi bo'lsa, chiqsin maydonga!

Bu so'zlarni aytib, u orqasiga chekinmoqchi edi. Hikmat Isfahoniy uni to'xtatdi:

— Bor, yetti qadam o'lcha, kelib ont ichsin, — dedi u. — Boshqa so'zim yo'q. Ont ichsin, men darhol uni kechiray. Yuz xalvar[1] bug'doy olib ketgan bo'lsa ham mayli, osh bo'lsin!

Odamlar chetga chiqishdi. So'fi Eronparast yetti qadam o'lchab, tuproqdan kichkinagina bir tepacha yasadi-da, qo'lida Qur'on ushlagan holda o'sha joyda kutib turdi. Atrofdagilar Musa akaga diqqat bilan qarab turar edilar. Faridun ham undan ko'zini uzmasdi. Uning ko'zlarida og'ir bir pushaymonlik alomatlari bor edi...

Hikmat Isfahoniy:

— Qani bo'l. Ont ich, bu hangamani tezroq tugataylik, — dedi.

Musa aka oyoqlari titrab asta-sekin uch qadam bosdi. To'rtinchi qadamda to'xtab qoldi. Shartta burilib, o'zini Hikmat Isfahoniyning oyog'i ostiga tashladi-da:

— Og'o, menga rahming kelsin, jabr bo'lsa mening bolalarimga bo'lsin, hammasini ol, menga hech narsa kerak emas! — dedi.

Hikmat Isfahoniy uni oyog'i bilan itarib yubordi:

— Yo'q, bunday dinsizlarni jazosiz qoldirishning o'zi katta gunohdir, — dedi u va Ali jandarmboshiga yuzlanib:

— Bu o'g'rini bog'lab, ikki yuz tayoq urilsin! — dedi.

Ali jandarmboshi ikki jandarmga qoshi bilan ishora qildi. Jandarmlar harakatga kirdilar. Hamma jim turardi. Musa aka jonsizday boshini osiltirib turardi. Faridun unga qarab hayron bo'lardi. Uning tamg'ani buzib bug'doy o'g'irlaganiga ishongisi kelmas edi. Hozirgi xatti-harakatlarini ham tushunmasdi.

Jandarmlar Musa akani yechintirdilar, yo'g'on arqon bilan uni katta chinor daraxtiga bog'ladilar. Faridun bir unga, bir Hikmat Isfahoniyga qarar edi. Hikmat Isfahoniy o'zi bilan shahardan kelgan, ko'rinishidan, ajnabiy bir kishiga o'xshagan odamga murojaat qildi:

— Mister Garoll, siz chetroq tursangizmikin. Birpas atrofni aylanib keling, biz ishimizni tugatib olaylik. Bu musulmonlarni kaltaklab turilmasa Xudoga ham bandalik qilmaydilar!

[1] **Xalvar** — og'irlik o'lchovi, taxminan 33 kg ga teng.

Mister Garold sovuqqonlik bilan tirjaydi. Tomosha qilmoqchi bo'lgan kishi singari zavq bilan:

— Yo'q, yo'q, — dedi u, — bu g'oyatda ajoyib ish! Buni Amerikada keskin chora deb ataladi... Juda qiziq! Shunday bo'lmasa mamlakatda tartib-intizomni saqlab bo'lmaydi. Kuch adolatning yo'ldoshidir, mister Isfahoniy, bemalol ishingizni ko'ravering.

Jandarmlar Musa akani daraxtga bog'lab, yangi kesib kelingan xivich bilan yalang'och badaniga ura boshladilar...

Musa aka mardlik bilan og'riqni yengishga, kaltakka indamay bardosh berishga tirishdi. Faridun uning og'riqdan qiyshayib ketgan basharasini, qaqragan lablarini ko'rar ekan ko'z oldi qorong'ilashib ketdi. Sariya xola va bolalarning yig'isi qulog'ini qomatga keltirdi. Qayrilib ularga boqar ekan, Gulnozning shahlo ko'zlaridan oqib chiqib, yuzi bo'ylab tushayotgan yosh tomchilariga ko'zi tushdi. Qizning yig'layotganini ko'rgan Faridun toqat qilolmay o'zini o'rtaga otdi:

— To'xtang, urmang uni! — dedi. — Unda hech qanday gunoh yo'q. U buloqqa suvga ketgan edi. Men ho'kizlarni qo'sha turib, bug'doyning ustiga yiqilib tushdim. Tamg'a buzildi. Unda gunoh yo'q...

Dehqonlar yengil nafas olishdi. Hikmat Isfahoniy So'fi Eronparastga:

— Yetti qadam o'lcha! — deb buyurdi.

So'fi Eronparast yana yetti qadam o'lchadi. Yana boyagiday tuproqni uyib qo'ydi-da, qo'lida Qur'on bilan o'sha yerda turdi. Faridun qat'iyat va jasorat bilan yetti qadam bosib, tuproqni tepib yuborib, qo'lini Qur'onga qo'ydi:

— Qur'oni sharif haqqi, to'g'ri gapirayapman!..

Bu so'zlarni jamoat shodlik bilan qarshi oldi. Musa aka yechgan kiyimlarini qaytarib berdilar. Faridun Hikmat Isfahoniyning oldiga kelib:

— Og'o, siz o'zingiz bergan va'dani buzishga haqqingiz yo'q, — dedi, — lafzda turmaslik sizning obro'yingizga to'g'ri kelmaydi. Ilgari qanday kelishgan bo'lsangiz, g'alla ham shunday taqsimlanishi lozim. Yer sizniki — bir ulush, suv sizniki — bir ulush, ish hayvoni sizniki — yana bir ulush. Hammasi bo'lib

beshdan uch ulush. Urug‘ bizniki — bir ulush. Bu qo‘llarning qadog‘iga qarang, mehnat ham bizdan — bu ham bir ulush. Hammasi bo‘lib beshdan ikki ulush. Demak, beshdan uchi — sizniki, beshdan ikkisi esa bizniki.

Faridun biroz sukut qildi, so‘ng hammaga eshitilarli qilib:

— Yo o‘lamiz, yo bir ponza[1] ham ortiq don bermaymiz! — dedi.

— Yo‘q, — deb qichqirdi Hikmat Isfahoniy, — yer haqi ikki ulush! Men hali omoch, mola, panshaxalar to‘g‘risida hech narsa deyayotganim yo‘q... Ha, ular osmondan tushadimi? Bularni ham hisoblasak, sizlarga beshdan bir emas, oltidan bir ulush berish kerak bo‘ladi!..

— Kechirasiz, og‘o, kechirasiz. Ularning hammasi ishchi hayvon bilan birga hisoblanadi. Yer ham bir ulush!.. Dehqonlarni bunchalik qiynash insofdan emas. Kambag‘allar ham odam!..

— Hay, yigit, kimsan o‘zing? Seni deb qarorimni o‘zgartiraymi? Buni ham o‘sha daraxtga bog‘lab yuz tayoq uring!..

Boyadan beri tishlarini g‘ijirlatib Faridunga qarab turgan gumashta Mamad bilan nima haqdadir suhbatlashayotgan Ali jandarmboshi mo‘ylov uchirdi. Jandarmlar Faridun ustiga bostirib keldilar. Faridun qarshilik ko‘rsatdi. Itarib yuborib bir jandarmni ag‘dardi. Lekin ularga yordamga otilgan Ali jandarmboshi bilan gumashta Mamad Faridunning qo‘llarini qayirib, orqasiga bog‘ladilar va daraxt tomon sudradilar.

Hikmat Isfahoniy bilan kelgan odamlardan biri butun hodisani diqqat bilan ko‘zdan kechirib turgan, o‘tkir ko‘zli kishi oldinga chiqdi-da, Faridunni ko‘rsatib, arbobga murojaat qildi:

— Bu yigitning gaplaridan siyosat hidi kelyapti, — dedi u. — Men jur’at etib sizdan so‘rardim, uni urishmasin. U yana ham og‘irroq jazoga loyiqdir. Uni bu arzimas jazo bilan jazolasangiz, uni loyiq bo‘lgan katta jazodan xalos qilgan bo‘lasiz.

Hikmat Isfahoniy biroz o‘ylagandan so‘ng:

— Yaxshi, og‘oyi Kurd Ahmad, — dedi, — Gaping to‘g‘ri. Bu bolshevik bo‘lsa kerak!

Keyin Hikmat Isfahoniy Ali jandarmboshiga murojaat qildi:

[1] **Panza** — taxminan 300 gramm,

— Bu muhojir Bokudan kelgan-a?

Ali jandarmboshi bilan gumashta Mamad baravar:

— Yo‘q, og‘o, Tabrizdan kelgan, kimligini bilmaymiz, — deb javob berishdi.

— Kim bo‘lardi! Bolshevik-da! Ko‘zlarini ko‘rmayapsanmi, xuddi bolshevikning ko‘zi, naq odamning ko‘kragini teshib yuboray deyapti. Mening manavi amerikalik do‘stim mister Garold: “Biror yerga bolshevik urug‘i tushdimi — bas, u yerni yondirib yuborishdan boshqa iloj yo‘q” deydi. Xudo haqqi, to‘g‘ri gap.

Keyin mister Garoldga qarab dedi:

— Mister Garold, bu Ozarbayjon bizning boshimizga bitgan balo bo‘ldi. Har balo shu yerdan topiladi: inqilob, konstitutsiya, bolshevik... Hammasidan ham bor.

— Mister Isfahoniy, buning hech taajjub qiladigan joyi yo‘q, — mister Garold xotirjamlik bilan qo‘lini ko‘tarib shimol tomonni ko‘rsatdi. — Bunday qo‘shnidan har narsani ham kutish mumkin. Sharqda yaxshi bir maqol bor: “Chillaki chillakini ko‘rib chumak uradi”, deydilar. Hokimiyat erkka intilar ekan, u Ozarbayjon, Gilon va Mozandaronda sizga hali ko‘p bosh og‘rig‘i topiladi. Kelajakda ko‘p isyonchilarga duch kelasiz hali.

— Yo‘g‘-e, mister Garold, yo‘g‘-e! Hech gap emas, omon bo‘lsak, siz kabi do‘stlarning yordami bilan bularning hammasining dodini beramiz. Ularni Araks daryosining narigi sohiliga uloqtirib yuboramiz.

— Yo‘q, bittadan boshini kesgan bilan bularni tugatib bo‘lmaydi. Bittasining boshini kessang, yuztasi chiqadi. Yana ham keskinroq usullar topish kerak. Eronning shimoliy chegaralarini o‘tib bo‘lmas istehkomga aylantirish kerak.

— Agarda ixtiyor mening qo‘limda bo‘lsa, bu chegaraga po‘latdan devor oldirgan bo‘lardim. Chegaraning u tomonidan hatto shamol ham o‘tmasligi uchun uning poydevorini dengiz ostiga qo‘ydirib, tepasini yettinchi osmonga yetkazardim.

Faridun o‘zini tutib turolmadi:

— U shamolning yo‘lini to‘sish qo‘lingizdan kelmaydi. Hamma to‘siqlaringizni xalq qo‘porib tashlaydi!

Hikmat Isfahoniy unga g‘azab bilan qaradi, unga tupurmoqchi ham bo‘ldi. Lekin o‘zini tutdi. U xalqqa murojaat etdi:

— Bu haqiqiy bolshevik, buni narigi qirg'oqdan qanday shamol uchirib keldi ekan! Hechqisi yo'q, bizni eronli deydilar, eng kuchli urug'dan chiqqanlarni ham chiritib yuborganmiz. Olib keting bu bolshevikni!..

— Xo'p bo'ladi!.. — Ali jandarmboshi jandarmlarga allanarsa deb shivirladi.

Faridunni olib ketishdi. Hikmat Isfahoniy dehqonlarga qarab dedi:

— Beshdan biri sizniki, to'rti — meniki, gap tamom, vassalom! Og'oyi Kurd Ahmadni shu yerga qoldirib ketaman. U mening vakilim bo'ladi.

Kurd Ahmad jim turgan dehqonlarga vazmin nazar tashladi. Dehqonlar unga indamay, ishonchsizlik bilan qovoqlarini solib, sinovchan nazar bilan qarab turar edilar.

* * *

Musa aka, Sariya xola xirmonda g'aramlar ostida o'tirishar edi. Gulnoz ular yonida g'aramga suyangan holda uzoqlarga tikilib turar edi. Niyoz uning etagidan ushlab turardi. Olmos boshini onasining tizzasiga qo'yib, qoq yerda yotardi. Faqat Ayozgina xirmon atrofida aylanib yurar, u goh g'alvirni ko'tarar, goh panshaxani olib xirmonni tozalar edi. Butun oila bugungi voqeaning og'ir ta'siri ostida xayolga botgan edi. O'rtada bir burda non va sovuq sho'rva turardi. Musa aka ham, Sariya xola ham Faridunning qamalishiga o'zlarini sababchi deb hisoblardilar. Bu haqda ochiq gapirmasalar ham, barcha xatti-harakatlari shuni ifoda etardi. Xirmonda taxlab qo'yilgan va chochilib yotgan bug'doy bog'lari endi ularning ko'ziga o'g'rilar va talonchilar uchun ajratilganday tuyulardi. Bir kun burun bu mo'l hosil ularning qalbida uyg'otgan sevinch va shirin orzulardan endi asar ham qolmagan edi. Shuning uchun Musa akaning ham, Sariya xolaning ham qo'li ishga bormasdi. Bolalarim qarovsiz qoladi degan qo'rquv bo'lmaganda, Musa aka bug'doy g'aramlariga o't qo'yib yuborgan bo'lardi. Musa aka bu fikrini xotinidan ham yashirmadi:

— Shu bolalar bo'lmasa, Xudo haqqi, shu kecha barchasiga o't qo'yib, boshim oqqan tomonga ketgan bo'lardim. Oyoq-qo'limga kishan bo'lgan mana shu bolalar.

— Yaxshisi Faridunning taqdiri haqida o'ylab ko'raylik, — dedi Sariya xola. — Axir, ertaga shaharga olib ketishsa, uni zindondan qutqarib bo'lmaydi.

Musa aka hech narsa demay, trubkasini tortib o'rnidan turdi. Orqasiga urilgan xipchin zarbidan badanining zirqirab og'rishiga ham qaramay, qo'shni xirmonga ketdi. Sariya xola uning ma'yus holda qo'shni xirmondagi dehhonlar bilan shivir-shivir kengashayotganini eshitdi. Lekin nimalar to'g'risida gaplashganliklarini eshita olmadi.

Birozdan so'ng Musa aka qaytib keldi.

— Xotin, — dedi u bo'g'iq tovush bilan, — dasturxonga non o'ra, bir kosa sho'rvadan ham ber, Ayoz olib borsin. Fariduning kechki ovqatsiz qoldi.

Sariya xola tizzasiga bosh qo'yib uxlab yotgan bolasining boshini olib qo'ymoqchi bo'lgan edi, lekin Gulnoz kelib, chaqqonlik bilan nonni sho'rvali mis tovoqning ustiga yopdi-da, dasturxonga o'rab berdi. Musa aka Ayozni chaqirib:

— Faridunga olib bor, o'g'lim, uni Husayn akaning omboriga qamab qo'yibdilar. Axlat tashlaydigan joyning yonida. Topa olasanmi? — deb so'radi.

— Topaman, ota, — deb darhol javob berdi bola.

— Jandarmga ovqat keltirdim de. Qo'ymasa yolvor, yarmini unga ber. Bir amallab Faridun bilan ko'rish. Nima qilmoqchi ekanini bil, biz nima qilaylik deb so'ra! Uqdingmi?

— Uqdim, ota...

Ayoz tugunni ko'tarib yo'lga tushdi. Musa aka uning orqasidan uzoq tikilib qoldi. Ayoz kecha qorong'iligida ko'zdan yo'qolgach, yana trubkasini yondirdi-da, qiziga:

— Gulnoz, atrofga ko'z-quloq bo'lib tur. Birov kelsa, menga xabar ber, — deb xotini yoniga cho'kka tushdi. Gulnoz ular tanho maslahatlashmoqchi ekanini sezib g'aram orqasiga o'tib ketdi.

— Faridunni qo'riqlashni Karim jandarmga topshiribdilar. U bo'lsa o'taketgan ta'magir, pul bo'lsa imonini ham sotib yuboradigan odam. Nimang bor!..

Sariya xola o'ylanib qoldi. Unda bironta qimmatli buyum yo'q edi.

— Sigirni sotsakmikan?

— Shu dolzarbda sigirni kimga ham sotarding? Sigirni sotsak shubha ham tug'iladi, keyin bizga tinchlik berishmaydi. Boshqa biror narsang yo'qmi? Yengilroq, qimmatroq... Qani, bir o'ylab ko'r-chi?!

Sariya xola Musa akaning qat'iy fikrga kelganini va nimaga ishora qilayotganini endi fahmladi.

— Bo'pti, juda soz! Bilakuzuk ham, marvarid ham, uzuk ham Faridunning jonidan aylansin, — dedi-da, yana yoshlana boshlagan ko'zlarini chetga burdi.

Musa aka qo'lini asta uning yelkasiga qo'ydi.

— Jon omon bo'lsa bas, ishlab topaman, undan ham yaxshiroqlarini olib beraman! Xafa bo'lma, xotin! — deb o'rnidan turdi.

U xotinining qanday qiyin ahvolda qolganini anglar edi. Bu bilakuzuk, marvarid va uzuk uning onasidan qolgan yodgorlik edi, onasiga esa buvisidan meros edi. Sariya xola ham ularni Gulnozning to'yiga atab yurgan edi. Bu zeb-u ziynatni qiziga yodgorlikka qoldirib ketish oiladan-oilaga o'tib kelayotgan an'ana edi. Bu an'anani buzish esa Sariya uchun juda og'ir edi. Lekin boshqa chora yo'q. Musa aka xotinining xayolini tarqatish uchun:

— Tur endi, sen ham bolalarni olib uyga ket, — dedi. — Bu yerda o'tirganingdan foyda yo'q.

Sariya xola uxlab yotgan Olmosni ko'tarib oldi, Gulnoz Niyozni yetaklab yo'lga tushdilar.

* * *

Kurd Ahmad dehqonlarning g'azabli nazarlari ostida xirmonlarni aylanib yurardi. G'aramlar orqasidan sekin-asta o'z gazab va noroziliklarini eshittirib aytayotgan dehqonlarning ovozlarini eshitsa-da, o'zini eshitmaganga solib indamas edi. U goho biror yerda to'xtab, ularning gapiga quloq solar, hali u, hali bu dehqon bilan ikki og'iz gaplashar, hatto hazillashar ham edi. Kurd Ahmadning o'zini bunday tutishi dehqonlarning battar g'azabini qaynatar edi. Ular Kurd Ahmadni faqat arbobning vakili debgina bilar edilar.

— Itvachcha! Yana bizni mazax qilib kuladi-ya, — deb so'kar edilar.

Kurd Ahmad bularning hammasini eshitar, lekin hech qanday gap uning osoyishtaligini buzolmas edi. U, aftidan, atrofda bo'layotgan voqealardan xabarsizdek edi. Aslida esa uning qalbida qaynayotgan nafrat dehqonlar nafratidan kuchliroq va og'irroq edi.

Kurd Ahmad Urmiya ko'li atrofida tug'ilib o'sgan kurdlardan edi. Janubiy Ozarbayjonning muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan va qadimiy shaharlaridan bo'lgan Urmiyada u eng yoshlik chog'laridanoq faqat kurdlarninggina emas, balki ozarbayjonlilarning ham, armanlarning ham, aysorlarning ham hayotini kuzatib bordi. Turkiyadan tortib to Angliya, Amerika, Germaniya va har xil ajnabiy davlatlarning bu yerda xalqlar orasida nizo tug'dirish uchun zo'r berib uyushtirgan razil fitnalarining shohidi bo'ldi. Bu hodisalarning mohiyatini tushunib olishda zamonasining o'qimishli odami va uning birinchi ustozi bo'lgan otasi unga yordam bergan chog'ida u hali o'n yoshga ham kirmagan edi. Otasi ko'pincha kurdlarning og'ir hayotidan, ularning qoloqligi va johilligidan, qabilaviy hayotning kurdlar orasida hanuzgacha hukm surib kelayotgan xurofotlardan shikoyat qilar va kurdlarning tarixiy falokatini shundan ko'rardi.

— Bizni taraqqiy etishimizga va birlashuvimizga yo'l qo'ymayotganlar imperialist davlatlar hamda ularning Turkiya, Iroq va Erondagi malaylaridir, — der edi u.

1920-yilda Ozarbayjonda Shayx Muhammad Xiyoboniy boshchiligida demokratik harakat boshlanganda uning otasi ham bu harakatga aktiv ishtirok etdi. O'sha paytdayoq Eronning vatanparvarlari uchun Rossiyada bo'lgan inqilob bir quyosh, Lenin bir payg'ambar hisoblanar edi. Uning otasi ham sotsialistik inqilobga, sovet davlatiga katta ishonch bilan qaragan odamlardan edi. Mitinglarda so'zga chiqar ekan, bolsheviklarni taraqqiyot yo'lidan ketishni istaganlarga na'muna qilib ko'rsatar edi. Ayni vaqtda Urmiyadagi Angliya, Amerika agentlarining fitnalarini fosh qilib tashlagan edi. Kurd Ahmadning otasi harakatning maqsadini tushuntirib berish uchun demokratlar tomonidan Ushno kurdlari orasiga yuborildi. Mahalliy kurdlarning qabila boshliqlaridan biri Zirobek inglizlar bilan bo'lgan yaqin munosabati bilan mashhur edi. Kurd Ahmadning otasi yo'lga tushgan kunlarida Zirobekning Urmiyada

ingliz konsuli bilan uchrashib, tezdan jo'nab ketganini eshitgan edi. Shundan besh kun keyin otasini hushsiz holda uyga olib keldilar: Zirobekning odamlari uni ushlab olib, daraxtga bog'lab qo'yganlar. Keyin vahshiyona kaltaklab, chala o'lik holda ko'l bo'yiga olib chiqib tashlaganlar. Uni yo'lovchilar topib olishgan. Bu hodisa yuz berganda Kurd Ahmad o'n sakkiz yoshda edi. Bu tahqirning o'chini olish uchun u miltiq ko'tarib, Zirobekning oldiga bormoqchi bo'lgan edi. Lekin o'lim to'shagida yotgan otasi uni qaytardi:

— Ular haq yo'ldan adashgan odamlar, o'g'lim. Sen ham shu yo'lga kirmoqchimisan? — dedi u. — Sen shunday bir yo'l tutki, xalqqa bir foydasi tegsin...

Kurd Ahmad Zirobekdan o'ch olish fikridan qaytsa ham, Urmiyada qololmadi. Hayotini xalq ozodligi uchun kurashga bag'ishlamoqqa qasamyod qilib Tehronga ko'chib ketdi. Bu davrda Tehronda Qojor sulolasi — o'z hukmronligining so'nggi kunlarini kechirmoqda edi. Poytaxtda turli siyosiy partiyalar paydo bo'lib, harakat boshlagan edi. Kurd Ahmad bu partiyalarning programmasini va xatti-harakatini diqqat bilan o'rganib bordi, nihoyat, u demokratik partiyaga a'zo bo'lib kirdi. Hikmat Isfahoniy bilan bo'lgan dastlabki uchrashuvi ham shu partiya safida ishlay boshlagan paytda yuz berdi. Kurd Ahmad Erondagi demokratiya va respublika harakatining fojiali ravishda bostirilishining shohidi bo'ldi. Rizoshoh istibdodining sekin-asta mustahkamlanib borganini ko'rdi, bu voqea uning xotirida doimiy saqlanib qoldi. Haqiqiy vatanparvar va ozodlik kurashchilarining zindonlarga tashlanganligi va surgunga yuborilganligini yaxshi bilganidek, ustki qiyofasini o'zgartirgan riyokor vatan xoinlarini ham yaxshi tanirdi. Hayot va kurash tajribalari unda buyuk bir iste'dod, ya'ni odam tanish iste'dodini ham tarbiyalab yetishtirdi. U Eronda qishloqma-qishloq, shaharma-shahar kezib yurarkan xalq ishiga sodiq va nomusli odamlar bilan do'stlashgan edi. Bugun bo'lib o'tgan hodisa uning sodiq do'stlari orasiga yana bir odam qo'shdi. Uning nazarida, Faridun faqat hayotning tabiiy oqimida yetishgan bir isyonkorgina emas, balki kurashga qobil jangchi ham edi. Bu jangchini qo'ldan chiqarish to'g'ri bo'lmasdi. Shuning uchun ham Kurd Ahmad xirmonma-xirmon kezarkan, dehqonlar bilan suh-

batlasharkan Faridun haqida, uni qanday qilib qutqarish haqida o'ylardi. Uni shahar zindoniga olib ketilmasdan burun qutqarish lozim edi, aks holda ish juda og'irlashib ketardi. Shu maqsadda u Hasanalining xirmoniga qarab ketdi.

U Hikmat Isfahoniyning qishloqlarida uzoq yillar kezib yurib yaxshi tanishgani dehqonlardan biri shu Hasanali edi. Hasanali kamgap, lekin ko'pni ko'rgan odamlardan edi. U dehqonlarning hayoti va tushunchalarini yaxshi bilardi. Uning yumshoq ko'ngil, lekin biroz sergaproq xotini bor edi. Uning tez jahli chiqar, bobillab ketar, qichqirar, lekin tezlik bilan jahlidan tushar, ko'ngli yumshab keta qolardi. Ularning boshiga tushgan kulfatni eshitgan Kurd Ahmad juda achindi. Ularni, albatta, borib ko'rishni ko'ngliga tugib qo'ydi. Ehtimol, ular yordamida Faridun bilan aloqa bog'lash, bir chora ko'rish mumkin bo'lar. Lekin buning uchun Hasanalidan burun uning xotini bilan ko'rishmoq foydali edi. Chunki Hasanali hozir o'zi bilan o'zi ovora bo'lib, boshqa bir ishga quloq solarli darajada emas edi. Shuning uchun ham u Hasanalining uyiga emas, xirmonga tomon yo'l oldi.

Xirmonga kelganda quyosh botib, qosh qoraya boshlagan edi. Hasanalining xotini xirmon sovurardi. Bir qizcha g'aram ostida o'tirib yig'lar, yig'isiga hech kim diqqat qilmaganini ko'rib birpas jim bo'lar, so'ng yana yig'lay boshlardi. Bu Hasanalining kenja qizi edi.

Kurd Ahmad yaqinlashib salom berdi. Xotin alik oldi. Kurd Ahmadni ko'rib achchig'i chiqdi va yoshlanib kelgan ko'zlarini chetga o'girib ishida davom etdi.

— Singlim, nega bolangni ovutmaysan? — deb so'radi Kurd Ahmad.

Xotin zarda bilan:

— Buni Xudo olmadi, men qutulmadim... Unga qaraymi, ish qilaymi? — deb javob berdi.

Kurd Ahmad yig'layotgan bolaga yaqinlashdi-da, uning boshini silab, bag'riga bosdi.

— Yig'lama, oppoq qiz, yig'lama, — deb uni ovuta boshladi.

Qizcha jim bo'ldi. Kurd Ahmad cho'ntagidan ikkita o'n tumanlik pul chiqarib, xotinga uzatdi.

— Ol, singlim, bolalarga kiyim-bosh qilib berarsan.

Xotin unga sal qiyo boqdi-yu, ishini to‘xtatmadi:

— Rahmat, sadaqaga ehtiyojimiz yo‘q, o‘z haqimizni o‘zimizga bersangiz ham yetar.

Pulni uning qo‘liga qistirayotgan Kurd Ahmad bu so‘zdan ranjimadi:

— Singlim, — dedi u, — bu ish mening ixtiyorimda emas. Agar men xo‘jayin bo‘lsam, sizdan bir ulush ham olmagan bo‘lardim. Lekin sizning g‘allangizga tegmasliklari uchun harakat qilib ko‘raman... Xo‘sh, eringning ahvoli qalay?

Gulsum biroz yumshagan bo‘lsa ham, lekin ilgarigicha jahl bilan:

— Nima bo‘lardi? Oyog‘idan ajrab yotibdi. O‘lib o‘lmaydi, qolib qolmaydi. Davolashga na dori bor, na darmon.

Kurd Ahmad Hasanali to‘g‘risida gap ochib, Gulsumning dardini yangilaganini anglab, boshqa hech narsa demadi. U bug‘doy g‘aramini ko‘zdan kechirdi. Shu payt qizcha yana yig‘ladi. Kurd Ahmad kelib, Gulsumning qo‘lidan panshaxani oldi.

— Qo‘y, panshaxangni tashla. Borib bolangga qara.

Gulsum panshaxani yerga tashlab, kelib bolasini qo‘liga oldi. Kurd Ahmad uni gapga tutdi:

— Bu qo‘shni xirmon kimniki?

— Musa akaniki... U sho‘rliklarning dardi biznikidan battar bo‘ldi. Oro yerda guldek yigit jandarmlar qo‘liga tushdi.

— Faridun yaxshi yigitmi?

— Yomon bo‘lsa, yo gumashta bo‘lardi, yoki jandarm bo‘lardi. Yaxshiligidan zindonga tushdi-da.

Kurd Ahmad diqqat bilan unga boqdi-da, sekingina:

— Sen uning ozod bo‘lishini istaysanmi? — deb so‘radi.

— Buni qaysi kofir istamaydi?

— Unday bo‘lsa, hozir Musa akaning oldiga borishingni so‘rayman. Uni qutqarmoq uchun nima qilmoqchi ekanini bilib kel. Agar yordam lozim bo‘lsa menga xabar ber.

Gulsum bolasini ko‘tarib Musa akaning xirmoni tomon ketdi. Birozdan so‘ng qaytib keldi:

— Musa aka: mening hech bir o'ylagan choram yo'q. Hukumat odamlari nima qilishsa, o'zlari bilishadi deyapti, — dedi. Birozdan so'ng:

— Aftidan, senga ishonmayapti... — deb qo'shib qo'ydi.

Kurd Ahmad indamay xirmonda aylanib yurdi, xotin esa g'aram ustida o'tirib, bolani tizzasiga olib tebratar edi.

— Biznikiga bormaysanmi? — deb so'radi u.

— Albatta boraman... Shu kechayoq boraman... — deb javob berdi Kurd Ahmad.

Uyquga ketgan bola uyqusida xo'rsinib qo'ydi.

Hasanalining xotini uni tizzasida tebratib, hazin tovush bilan alla ayta boshladi. U past tovush bilan alla aytardi. Bu hazin allada go'yo hayotining butun dard-u alami, barbod bo'lgan barcha orzular hikoya qilinayotganga o'xshardi.

* * *

Faridunni hech kim yashamaydigan xaroba hovlining molxonasiga qamab, eshikni qulflab qo'ydilar. Eski eshikning kichkinagina tirqishidan boshqa hech qayerdan yorug'lik kirolmas edi. Faridun mol oxuriga o'tirib, xayolga cho'mgan edi. Butun bo'lib o'tgan voqealar haqida o'ylar, mardona harakat qilgani uchun kelajakda uni nimalar kutib turganini anglasa ham pushaymon emasdi. Uning nazarida, qalbida allaqanday muqaddas his uyg'onib kela boshlagan, go'yo hayotida birinchi marta ahamiyatli qadam tashlagandek edi. Xirmondagi hodisani eslaganida Isfahoniy, mister Garold, gumashta Mamad, So'fi Eronparast, Kurd Ahmad bir-bir ko'z oldidan o'tdi. U bu odamlarning hammasini qanday odam ekanini yaxshi bilardi. Lekin faqat bitta odam to'g'risida, ya'ni Kurd Ahmad to'g'risida aniq bir fikrga kelolmasdi. Butun hodisa davomida u tez-tez shu odamning basharasiga qarab, uni kuzatib turdi, lekin uning qanday odam ekanini aniqlay olmadi. Kurd Ahmad Isfahoniyning vakili edi. Lekin bu hali uning yaxshi yoki yomon odam ekaniga qat'iy dalil bo'lolmasdi. Durust, bunday odamlarning aksari razil va iflos odamlar bo'ladi. Lekin Kurd Ahmadning hech bir harakati buni isbot etmasdi. Aksincha, Faridunni og'irroq oqibatga olib borishi mumkin bo'lsa-da, uni xaloyiq oldida, Gulnoz oldida

kaltaklanishidan qutqarishi minnatdor bo'lishga loyiq ish edi. Haqiqatan ham u Faridunni juda katta beobro'likdan saqlab qolgan edi. Yuz marta xipchin bilan urilgach, zindon azobi. Zarari yo'q, u qorong'i zindonda yotishga bardosh bera oladi, lekin kaltaklanish kabi xo'rlikka sira ham chidamagan bo'lardi. Uni bu xo'rlikdan qutqarib olgan odam arbobning vakili o'sha Kurd Ahmad edi. Faqat shuning uchungina bu odamga nisbatan qalbida hech bir nafrat qo'zg'atolmas va uning yuzini yodidan chiqarolmasdi. Lekin yuragi qattiq ura boshladi. Tezroq bu yerdan qutulib chiqishni orzu etardi. Chunki borgan sari nafas olish ham qiyinlashmoqda. Qamoqqa tushgan minutidan boshlaboq uning qalbida bir orzu uyg'ondi. Bu esa tashqarida nimalar bo'layotganini bilish orzusi edi.

Eshik orqasidan qorovulda turgan jandarmning oyoq tovushi eshitildi. U bitta-bitta qadam tashlab, aylanib yurar va doim g'ing'illab bir ohangdagi zerikarli kuyni xirgoyi qilardi.

Faridun mushti bilan gursillatib eshikni urdi. Jandarm javob bermadi. Lekin to'xtab quloq soldi. Faridun yana eshikni dukillatdi. Tashqaridan yo'g'on yoqimsiz tovush eshitildi:

— Ha, nima gap?..

— Menga qara, do'stim, ayt-chi, soat necha bo'ldi?

— Endi sen soatsiz ham yashayverasan.

— Harholda necha bo'ldi...

— Meni gapga solma!.. Mahbus bilan gaplashish mumkin emas.

— Har bir so'z uchun bir tuman to'layman. Soat necha?

— Pulni ber, ko'ray... Teshikdan uzat, keyin aytaman.

— Naqd pulim yo'q, nasiya qilib tur...

— Nasiyangni pishirib ye!

— Naqd olishga yomon o'rganibsan-da, kel, bir safar nasiya bo'la qolsin...

— Uchir ovozingni! Yigit, ko'p tilingni uzun qilaverma, tilsiz qolasan!

— Ayt-chi, quyosh botdimi, yo'qmi?

— Sening quyoshing allaqachon botgan.

— Mening quyoshim hali chiqqani yo'q, polvon. Sening quyoshing botgan bo'lsa, ehtimol.

Qo‘ndoq zarbasidan og‘ilning eshigi titradi. Ketidan jandarmning so‘kishi eshitildi. Faridun gapni to‘xtatib, yana oxur ustiga o‘tirdi. Uning xayolidan: “Dehqonlar beshdan birga rozi bo‘lishdimikin?” degan fikr kechdi. Keyin Musa aka, uning bolalari, shahlo ko‘zli Gulnoz xayolidan o‘tdi. Bu hodisaning ichida unga qorong‘i bo‘lib qolgan narsa, nima uchun Musa akaning qasam ichishdan bosh tortgani edi. Faridun shuni hech bir tushunolmas edi.

Sigirlarning ma’ragani podaning qishloqqa qaytganidan, kech kirganidan darak berdi. Birozdan so‘ng itlar hura boshladilar. Demak, qosh qoraydi. Ehtimol, oy ham chiqib, atrofga o‘zining yog‘dusini socha boshlagandir. Kichkina molxonaning eski eshigi tirqishidan ichkari kirgan parcha-parcha, uzuq-yuluq tovushlardan u tashqarida nimalar bo‘layotganini tasavvur etishga urinardi. Ayni vaqtda butun vujudida horg‘inlik sezdi. Ochiq havo, salqin kecha yodiga tushdi. “Somon ustida yotib uxlash qanday yaxshi edi!” deb o‘yladi. Oxurga suyanib mudrab olmoqchi ham bo‘lib ko‘rdi. Lekin uyqusi kelmadi. Urnidan turib yana eshikni taqillatdi. Jandarmni chaqirdi. U jandarm bilan birinchi gaplashganidayoq qanday och-ko‘z odamga duch kelganini payqagan edi... Oyoq tovushlari yaqinlashib kelgach, og‘zini eshik tirqishiga yaqinlashtirib, sekin:

— Meni qo‘yib yubor, seni rozi qilaman, — dedi.

— Sen o‘z boshingning bahosini bilasanmi? Ming tuman.

— Xo‘p, beraman.

— Naqd to‘laysanmi?

Faridun o‘ylanib qoldi. Yonida hech nimasi ham yo‘q edi.

— Eshikni och, tashqari chiqay, so‘ng nima desang ham beraman.

— Quruq va’da uchun o‘zimni o‘tga tashlamayman.

— Quruq va’da emas. So‘zim — so‘z.

Jandarm javob bermadi. U nimanidir o‘ylayotgani ko‘rinib turardi.

— Ha, nega indamaysan?

— Yo‘q, o‘n ming bersang ham chiqarmayman.

Faridun uning nima demoqchi bo‘lganini darhol fahmladi.

— Xayr, mayli. Bo‘lmasa menga bitta metin topib ber, men o‘zim yo‘l topib ketaman. Men ham qutulaman, sen ham boy bo‘lib qolasan, gunohkor ham bo‘lmaysan...

Shu payt kimningdir oyoq tovushi eshitildi. Jandarm eshik oldidan uzoqlashdi-da:

— Kim u, — deb qichqirdi.

— Men, amaki! Sen bilan Faridunga ovqat olib keldim.

Faridun Ayozning ovozini tanidi. Yuragi sevinch bilan to'ldi. Jandarm bolani oldiga chaqirdi. Tugunni oldi. Ochib kosa bilan qotirmani tosh ustiga qo'yib, yemoqqa boshladi.

— Amaki, Faridunga ham ozgina qolsin, — deb yalindi bola. Nondan ozgina olib, og'il tomonga yurdi.

Jandarm hech narsa demadi. Ayoz og'zini eshikka yaqinlashtirib, shivirlab so'radi:

— Faridun aka, bu men, otam nima qilaylik, deb so'rayapti.

Faridun nima deb javob berishini bilmas edi. Shu payt jandarm bolaga yaqin kelib:

— Nima qilardi, dadangga aytginki, pul yuborsin... yuz tuman. Yana bitta metin ham berib yuborsin! Tushundingmi? — dedi.

— Tushundim. Aytaman.

Ayoz nari ketdi. Dasturxonni yana o'rab, jandarmga: "Omon bo'l, amaki", deb yo'lga tushdi.

Ayoz tun allavaqt bo'lganda qaytib keldi. Uning qo'lida lattaga o'ralgan bir narsani ko'rib qolgan jandarm: "Menga ber!" deb po'pisa qilgan edi, pastakkina devor orqasidan Musa akaning yo'tal tovushini eshitib, hay-huy boshlanishidan cho'chib jim bo'ldi. Ayoz dadillandi va uning yonidan lip etib o'tib eshik oldiga keldi. Eshikning tirqishidan qo'lidagi o'roqlik narsani Faridunga uzatdi.

— Otam juda qimmatli buyumlar dedi... Mana bu metin...

Ammo metin eshikning tirqishidan sig'madi. Shunda bola engashib, ostonani axtardi. Eshikning tagidan kattagina ochiq joy topdi. Uni qo'li bilan kengaytirib, metinning dastasini Faridunga uzatdi. Faridun uni tortib oldi.

— Yasha, Ayoz, rahmat. Endi bu yerda turma, chiqib ket.

Ayoz ketdi. Jandarm eshik oldiga keldi.

— Qani, oldin pulni buyoqqa uzat-chi.

Faridun bu sotqin tabiatli odamlarga ishonish mumkin emasligini bilardi. Oltinni qo'lida jaranglatdi:

— Eshitdingmi bu yerdan chiqishim bilanoq qo'lingga beraman.

Oltin ovozini eshitish bilan jandarmning ko'zlari chaqnab ketdi.

— Bo'pti, mabodo biror kishi kelib qolgudek bo'lsa: "Kim u?" deb qichqiraman. Shunda sen darrov kavlashdan to'xta...

So'ng hovlining narigi tomoniga qarab ketdi. Faridun yenglarini shimarib, og'ilning orqa devorini tekshirdi. Bo'shroq joyni topib, metin bilan Tesha boshladi. Eski kesak devor buzila boshladi. Birozdan so'ng ochilgan tuynukdan ichkariga kechaning salqin havosi bilan shabada urildi. Faridun tuynukni odam sig'adigan darajada kengaytirgandan keyin metinni yerga qo'yib, jandarmni chaqirish maqsadida eshikni urdi. Lekin hovli tarafdan emas, teshilgan joydan jandarmning ehtiyotkorlik bilan sekingina chaqirganini eshitdi:

— Tez chiq, seni bu yerda poylab turibman.

Faridun uning ehtiyotkorligiga hayron bo'lib tashqari chiqdi. Oltin buyumlarni uning qo'liga berdi. Ketmoqchi bo'lgan edi, lekin uni jandarm to'xtatdi.

— Metinni ham olib ket, — dedi-da, endi bo'shab qolgan molxonani qo'riqlash uchun hovliga kirib ketdi.

Faridun metinni ko'tarib molxonadan yigirma-o'ttiz odim uzoqlashmagan ham ediki, Ayozning:

— Faridun aka, buyoqqa kel, — degan tovushini eshitdi.

Faridun uning yuzidan o'pib, boshini siladi.

— Iye, Ayoz, bu yerda nima qilib yuribsan? Qo'ltig'ingdagi nima?

— Eski kiyimlar. Otam berdi. Kiyimini o'zgartirib qishloqdan chiqsin dedi.

Ayoz tez-tez qadam tashlab, yo'l boshladi. Bir necha burilishdan o'tishgandan so'ng bir xarobaga kelishdi.

— Faridun aka, ichkari kirib, shu yerda kiyimlaringni kiyib ol.

Faridun kiyimlarini o'zgartirib oldi. O'z kiyimlarini tugib, qo'ltiqqa urdi. Metinni esa o'sha xaroba hovliga yashirib, yashirgan joyini Ayozga ko'rsatdi.

— Bu ishlar tinchib ketgach, olib ketarsiz, — dedi va biroz turib qo'shib qo'ydi:

— Sen mana bu ko‘chadan ketaver, men boshqa yo‘ldan ketaman.

Bola uning qo‘lini kattalardek vazminlik bilan qisdi-da, muyulishda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Faridun qishloqning jimjit ko‘chalaridan borar ekan, itlar hurib qolmasin deb qo‘rqib, juda ehtiyotkorlik bilan qadam bosar edi. Musa akaning hovlisi oldidan o‘taturib, beixtiyor to‘xtab qoldi.

Ichkari kirib u bilan suhbatlashgisi, ayniqsa xirmondagi ishning sirini bilgisi keldi. Shunda birdan uning xirmonda bo‘lish ehtimoli yodiga tushdi. Bolalarni uyg‘otishning ham hojati yo‘q edi. Hoziroq bu yerdan jo‘nab ketishni o‘yladi, ilk hayot maktabi bo‘lgan, boshida yangi-yangi, hali o‘zi ham yaxshi anglab ololmagan ajoyib fikrlarni uyg‘ otgan bu qishloqdan darhol chiqib ketmoqchi ham bo‘ldi. Lekin oyog‘i yurmadi. Gulnoz, Sariya xola... Musa aka bilan xayrlashmay ketsa, vijdon azobi chekajagini payqadi. Kim biladi deysiz, ehtimol, ularni yana bir ko‘rish nasib bo‘lmas? Yo‘q, qalbida ularni oxirgi marta ko‘rish, vidolashish orzusi juda kuchli edi. Buning ustiga Musa akaning kishini hayratda qoldiradigan harakatining sababini bilmay ketsa, bu savol doim uning boshidan nari ketmas, ko‘nglini doim g‘ash qilgan bo‘lardi. So‘lga burildi. Qishloqning tor va jimjit ko‘chasidan ikki yuz qadam chamasi yurganidan keyin, bir vayronaga o‘tdi. Eshikni taqillatib o‘tirmay, bu vayrona uyning tomidan Musa akaning hovlisiga tushish mumkin edi. U suvalmagan kesak devorga tarmashib tomga chiqdi. Egilib hovlini ko‘zdan kechirdi. Bolalar supada uxlab yotishar edi. Oy yorug‘ida ularni bir-biridan bazo‘r ajratib olish mumkin edi. Bolalar kunduzgi dahshatlarni unutib, pishillashib shirin uxlashar edi. Sariya xola tez-tez seskanib ketar va bir narsalar deb g‘o‘ng‘illardi. Aftidan, kunduzi bo‘lgan ko‘ngilsiz hodisa uning dilida mahkam joy olgan va uni uyqusida ham bezovta qilmoqda edi. Bechora xotin alahlar edi. Gulnoz onasi bilan bolalar o‘rtasida osmonga qarab yotardi. Kichkinagina oq choyshab uning oyoqlari va gavdasini yopib turardi. Oyning shu’lasi ular ustida o‘ynardi. Faridunga u uyg‘oqdek tuyuldi. Shuning uchun ham sekin:

— Gulnoz, — deb chaqirdi.

Qiz darhol o‘rnidan turib o‘tirdi-da, yostig‘i ostidan ko‘ylagini olib kiydi. Faridun tomdan hovliga sakrab tushishi bilanoq devor oldiga yetib kelgan Gulnoz quchoq yozib uning quchog‘iga o‘zini tashladi. Yiqilib tushmaslik, o‘zi bilan birga qizni ham yiqitib yubormaslik uchun Faridun beixtiyor uning yumshoq va haroratli badanini o‘z quchog‘iga oldi. Qiz uning bag‘riga qisildi, yigit qizning badanidan shirin va xushbo‘y issiqlik kelayotganini sezdi. Qizning oy yorug‘ida yonib turgan shahlo ko‘zlaridan uchqunlar chaqnaganini ko‘rdi.

Uyg‘onib qolgan Sariya xolaning:

— Hoy, kimsan? — degan tovushi eshitildi.

Faridun Gulnozni qo‘yib, Sariya xolaning oldiga bordi-da, salom berdi.

— Men ketayapman, Sariya xola, xayrlashgani keldim. Salomat bo‘linglar. Sizga ko‘p zararim tegdi. Yaxshi-yomon gapirgan bo‘lsam, kechirasiz.

Qora durracha bilan boshini tang‘ishga urinayotgan Sariya xola:

— Sendan hech qanday yomonlik ko‘rganimiz yo‘q, o‘glim, — dedi, — yaxshilikdan boshqa narsa ko‘rganimiz yo‘q. Omon bo‘lgin. Xudoga ming qatla shukurki, jandarm qo‘lidan qutulibsan. Hozir seni tushimda ko‘rayotgan edim. Yaxshiyamki tushim ekan, juda yomon tush ko‘rayotgan edim. Endi xayr, seni Xudoning o‘zi yomon ko‘zdan asrasin! Bizni ham unutma!

Faridun egilib uxlab yotgan bolalarning yuzidan bir-bir o‘pdi. Keyin uning o‘zini ham o‘pmoqchi bo‘lib cho‘zilayotgan Sariya xolaga peshonasini tutdi. Gulnoz chetda qarab turardi. Faridun uning og‘ir hayajon bilan tez-tez ko‘tarilib tushayotgan ko‘kragiga qarab:

— Xayr, Gulnoz, salomat bo‘l. Men ketaman, — dedi-da, unga qo‘lini uzatdi.

Gulnoz uni eshikka qadar kuzatib qo‘ydi. U eshikka suyanib, qizga bir boqdi. Qiz bir narsa demoqchi bo‘lib, og‘iz juftlar, lekin ayta olmas edi. Oy yorug‘ida inju donalari kabi yaltillab oqib tusha boshlagan ko‘z yoshlarini to‘xtata olmadi.

— Yana kelasanmi?

Faridun nima javob bersa ham, buning hech qanday ahamiyati yo'qligini anglatuvchi ohang bilan qo'shimcha qildi:

— Yo'lingga ko'z tutaman, qiyomatga qadar kutaman!

Faridun:

— Aytganing kelsin! — dedi-da, uning qo'lini siqdi. Qizning o't bo'lib yonib turgan dudoqlari va ko'zlaridan bir o'pgisi keldi. Lekin tuyg'ularini jilovlab, ko'chaga otildi-da, xirmon tarafga jo'nadi. Muyulishda to'xtab, o'z uyidek qadrdon bo'lib qolgan uyga yana bir qarab qo'ydi. Oy shu'lasida eshikka suyanib boshini quyi solgan holda turgan Gulnoz unga bir xayol, bir haykal kabi ko'rindi. Yo'l-yo'lakay, nega men qizga umid beruvchi biror so'z aytmadim, deb o'zini koyib yubordi. Gulnoz umr bo'yi shu ahvolda uning ko'z o'ngida saqlanib qoldi.

Xirmonga kelganida tun yarim kechadan og'ib, oy botib bormoqda edi. Musa aka hali yotmagan edi. U xirmonda aylanib yurardi. Odim tovushini eshitib: "Kim u?" deb so'radi. Faridun sekingina javob berdi. Musa aka yugurib kelib, uni quchoqladi-da, ho'ngrab yig'lab yubordi. Faridun uni ovutib, g'aram panasiga o'tdi:

— Dehqonlar arbobning shartlarini qabul qilishdimi? — deb so'radi.

— Peshonamizga yozganida, o'g'lim. Dehqonlarning qo'lidan nima ham kelardi. Rozi bo'lmay nima qilardik? Moling ham, joning ham arbobniki. Ko'rding-ku, bir og'iz so'z uchun boshimga qanday kulfatlarni soldi. Xudoga ming qatla shukurki, qishloqdan quvib yubormadi. Bu ham uning qo'lidan keladi. Kim nima derdi deysan. Qaqir-quqirlaringni qo'lingga beradi-da: bor, to'rt tomoning qibla, boshing oqqan tomonga ketaver, deydi. Unda tilanchilikdan boshqa iloj qolmaydi...

Faridun o'zini qiziqtirgan savolni berdi:

— Musa tog'a, kechirasan, bir narsa so'ramoqchiman. Hech ishonolmadim. Nahotki, tamg'ani sen buzgan bo'lsang?

— Yo'q, o'g'lim. Men o'g'irlik, aldamchilik qiladigan odamlardan emasman. Ochimdan o'lsam o'lamanki, harom tomoqni yemayman. Bularning hammasi oldindan tayyorlanib qo'yilgan. O'zlari buzib, bizga to'nkaydilar. Shu yo'l bilan hamma hosilni tortib olmoqchi bo'ladilar. Bu gumashta Mamadning ishi.

— Bo'lmasa nega qasam ichmading?

Musa aka xayolga cho'mdi.

— Ey o'g'lim, qasam ichish, Qur'onga qo'l tegizish osonmi? Qo'rquvdan yuragim yorilib ketay dedi... Jur'at qilolmadim...

Kecha kul va axlat tashlanadigan chuqur yonidan o'tib ketayotgandagi xayolidan kechgan fikrlar yodiga tushdi: "Hamma narsa chirigan, hamma narsa sasigan" deb o'yladi. "Bu havoda nafas olish, yashash mumkin emas, arboblarning dehqonlar ustiga egar qo'yib minishi qolibdi, xolos!.."

Bu fikrlar uni birdan yuz yil, ikki yuz yil orqaga surib yuborgandek bo'ldi. U go'yo yigirmanchi asrda emas, balki Shoh Abbos yoki Nodirshoh zamonasida yashayotgandek bo'ldi. Kichik xon davrida mullalarning fatvosi bilan "harom" deb e'lon qilingani uchun arbob yerlarida dehqonchilik qilmay, ochidan o'lgan dehqonlarni esladi.

— Eh, xurofot va nodonlik naqadar dahshatli, naqadar qo'rqinchli narsa! — deb o'yladi, —Yigirma yillik qisqa bir davrda boshidan qancha-qancha po'rtanalarni kechirgan, barcha eski narsalarni ost-ust qilib tashlagan, Araks daryosining narigi sohilidagi, biz bilan nihoyati yuz qadamcha narida yashaydigan odamlar yuz yillik, hatto ming yillik yo'lni yigirma yilda bosib o'tdilar. Ammo bizchi? Hamon o'sha johilligimizda qolib ketayapmiz! Hamon o'sha odamlarmiz!". Yodiga Sa'diyning: "Hamon xokamki, hastam!"[1]— degan misralari tushdi. Lekin darhol bu mulohazalari o'ziga ham shubhali ko'rindi. Hatto tosh va qoyalarni yo'nib, shaklini o'zgartiradigan zamon Musa akalarning inson tarixini o'tib borayotgan buyuk yo'ldan chetga chiqarib qo'ymaydigandek, harqalay ularning hayotida ham, ba'zi o'zgarishlar yuz beradigandek tuyulardi. Ehtimol, yuz berar ham. Faridun shuni tekshirib ko'rmoqchi bo'ldi.

— Musa tog'a, — dedi u birdan, — arbobning yerlari sizniki, dehqonlarniki, deb e'lon qilishsa, nima qilar eding?

Musa akaning ko'zlarida umid o'tlari chaqnab ketdi, ovozida shodlik ohangi eshitildi.

— Nima qilar edik, o'g'lim... Xudoga ming marta shukur qilib, taqsimlab olar edik.

[1] Men hali ham o'sha tuproqman.

— Bordi-yu, mullalar, So'fi Eronparastga o'xshaganlar qo'llariga Qur'on olib, arbob yerini bo'lishib olish gunohdir desalar, unda nima bo'ladi?

Musa aka xayolga toldi:

— Yo'q, bunday bo'lmaydi. Nega harom bo'ladi? Xudo yerni xalq uchun yaratgan!.. Nega harom bo'lar ekan! Aslida arbobning qo'lida harom bo'lib yotibdi. Yer kecha-kunduz ishlagan, jon kuydirib ter to'kkan, mehnat qilgan odamniki.

— Bu to'g'ri. Lekin shunga qaramay, mullalar harom deb e'lon qilsalar nima qilasan?

Musa aka qat'iy javob berdi:

— Men yer olishdan qaytmayman. O'lsam o'laman-u, ammo yer olishdan qaytmayman.

Faridun o'rnidan turdi:

— Xayr, Musa tog'a, sen menda katta umid tug'dirding, xayr!

Musa aka Faridunning kelajagi haqida qayg'urib:

— Endi qayerga ketmoqchisan? — deb so'radi va javob kutmasdan davom etdi. — Mabodo Tabrizga qaytsang, tez qo'lga tushasan. Bir qancha vaqtga Ozarbayjondan chiqib ket. Yo janubga, yo Mozandaron taraflarga borib yasha.

Faridun Tehronga bormoqchiligi va bir yo'la dorilfununga ham kirmoqchiligini aytishga og'iz juftladi-yu, lekin bir mulohaza bilan indamadi, chunki uning ketgan yerini bilishni Musa akadan so'rab qolishlari, uni yana Qur'on qarshisiga olib borishlari mumkin edi. Musa aka yolg'ondan qasam ichishni bilmas, uning ketgan yerini ham aytmas edi. U holda Musa aka o'zini abadiy ozodlikdan mahrum qilishi mumkin edi. Shu andisha Faridunni qayerga ketmoqchi bo'lganini Musa akadan yashirishga majbur qildi.

— Mendan xavotir bo'lma, Musa tog'a, — dedi u, — biror joy toparman. Sen bolalarning ehtiyotini qil. Hech tashvishlanma, vaqti bilan o'zim bir xabarini beraman.

Musa aka Kurd Ahmadning Gulsum orqali qilgan taklifini Faridunga aytdi. Faridun hayron bo'lib fikrga toldi:

— Uning maqsadi nima ekan? — deb so'radi.

— Qaydan bilay, o'g'lim. Uning qanday odamligini Xudoning o'zi biladi. Lekin uni boshqa xo'jayinlarga sira o'xshamaydi de-

yishadi. Birovning cho'piga ham ko'z olaytirmas emish, rahmdil odam emish...

Faridun xayrlashib, Musa akaning qo'lini siqar ekan, Musa aka:

— O'g'lim, sening ulushingni nima qilamiz? Haqingni qayerga yuboraman? — deb so'rab qoldi.

— Hech qayerga yuborma, Musa tog'a, hech qayerga... Bolalarga kiyimbosh qilinglar.

U Musa akani quchoqlab o'pdi-da, xirmondan chiqib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. U g'aramlar panasidan yurib, ochiq yerlarda esa egilib, ko'zga ko'rinmay o'tishga tirishdi. Uchta qo'shnining xirmoni orqada qoldi. Shu yerdan bepoyon qir boshlanib ketardi. Endi qaddini rostlab, tez ketmoqchi bo'lib turgan ham ediki, odim tovushi eshitildi, darhol marzaga yotib, jim qoldi. Oy yorug'ida bir soya unga tomon yaqinlashib kelmoqda edi.

— Faridun, qo'rqmang, bu men, — dedi kelgan odam.

Faridun Kurd Ahmadni tanib, o'rnidan turdi. U yaqinlashib, qo'l cho'zdi:

— Salom... Men Musa aka bilan kengashmoq uchun xirmonga kelgan edim. Sizni u yerda ko'rib, orqaga qaytdim. Bizning ko'rishganimizni uning ham bilmagani ma'qul.

Faridun hamon taajjub bilan bu g'alati odamga qarab turardi:

— Siz kimsiz?.. Nega meni ta'qib qilasiz?

Kurd Ahmad mehribonlik bilan dedi:

— Men ham xuddi sizga o'xshab bu adolatsiz ishlardan nafratlanaman. Siz kabi nomusli odamman. Nomusli odamlar bir-biriga yordam qilishi kerak. Qayerga ketmoqchisiz?

— Tehronga...

— Men ham shuni maslahat berardim. Tabrizga qaytish yaramaydi. To'g'ri Tehronga boring. Ehtimol, men sizdan oldinroq yetib borarman. Ehtimol, mehmonxonaga tusharsiz. O'shanda ham shaharning chetrog'idan biror uy topishga harakat qiling. Keyin bir ilojini toparmiz.

U Faridunning qo'lini siqdi-da, unga buklangan qog'oz qistirdi.

— Yo'lda kerak bo'ladi. Xarajatlaringiz uchun, — dedi va o'zining Tehrondagi adresini aytdi:

— Esingizdan chiqmasin. Xotirjam bo'ling, u bizning asosiy idoramiz emas, mayda omborlarimizdan biridir. Men u yerda haftada bir marta, yakshanba kunlari ertalab soat sakkizdan kunduz o'n ikkigacha bo'laman, xolos. Xayr, oq yo'l, safaringiz bexatar bo'lsin.

Faridun hech narsa demadi. Uning qo'lini minnatdorlik bilan qisib, yo'lga tushdi...

Qalbi hayajonga liq to'lgan holda bug'doyi o'rib olingan dalalardan, ko'katlari qurib qolgan marzalardan o'tib borar, ariqlar qirg'og'ida o'sgan yalpizlarning isi anqib turgan havodan o'pkasini to'ldirib nafas olar, ora-sira moviy osmonga qarab qo'yardi. Har tarafga nur sochgan oy uning yo'lini yoritar, Savalon tog'idan esgan tungi shabada uning yuzini silar edi...

IKKINCHI BOB

Tehrondan shimolga, Ozarbayjonga tomon cho'zilib ketgan, cho'llar va ko'pgina qishloqlarni bosib o'tadigan tosh yo'l chekkasiga joylashgan choyxonada hayot odatdagidan ko'ra xiyla jonli edi. Yenglarini tirsakkacha shimarib olgan choyxonachi hozirgina so'yilgan tovuqlaring patini yular, tutayotgan o'choqqa o'tin qalar va o'n uch-o'n to'rtlarga kirgan dastyoriga dambadam: — Samovarga ko'proq olov tashla, qo'limga suv quy!.. — deb buyruqlar berardi. O'choqqa osilgan katta qozonda eng yaxshi hisoblanadigan sadriy guruchdan qilinayotgan palov pishmoqda, qozondan ko'tarilgan bug' bilan shirin hid atrofga tarqalmoqda. Shom yegan oy atrofni zo'rg'a yoritmoqda. O'choqning nari-beri qo'yilgan toshlari orasidan chiqqan olovning qip-qizil tillari kecha qorong'iligini yorib, poyonsiz cho'l bag'riga kirib yo'qolardi. Ora-sira bu olov ustuni, go'yo doiraviy shu'laga duch kelgandek sinardi. O'choqdan ellik-oltmish qadam nariroqda bir juft ko'z bir zumgina yarq etib yonar va darhol qorong'ilik ichida g'oyib bo'lardi. Bu, go'sht hidini sezib choyxona yaqinida, yo'l atrofida izg'iy boshlagan chiyabo'rining ko'zi edi. Hech ov qila olmagan chiyabo'rilar har zamon, har zamonda uvlashib qo'yishardi. Bu atrofda sahroning abadiy bo'lib tuyulgan sukunatini buzadigan boshqa na biron tovush, na biron harakat bor edi. Cho'lning bu doimiy jimjitligiga o'rgangan choyxonachi hech narsaga parvo qilmay, xotirjamlik bilan o'z mehmonlariga choy va ovqat hozirlar edi. U na tepasidagi moviy ko'klarga sochilgan porloq yulduzlarga, na poyonsiz cho'lga va na uyon-buyondan paydo bo'lib turgan chiyabo'rilarga parvo qilardi. U choyxonaning hamisha bir xil, jimjit va cho'lning keng bagrida doimiy qolib ketgan hayotini harakatga keltirgan va jonlantirib yuborgan mehmonlarning ko'nglini olish taraddudida edi. O'zi odamlar bilan munosabatda bo'lish, gaplashish imkoniyati tug'ilganidan benihoyat xursand

edi. Chunki har kun qosh qorayishi bilanoq bu yerlarda hayot tugardi. Biron kishi kelmasdi ham, ketmasdi ham. Yo'ldan mashinalar ham bu yerda to'xtamas edi. Kun botib, qorong'ilik tushishi bilan u choyxonaning eshigini bekitib, ko'rpasiga o'ralib yotar edi. Yo chiyabo'rilarning uvullashiga quloq solib, yo o'zi butun vujudi bilan ishongan ko'zga ko'rinmas qo'rqinchli jinlar to'g'risida o'ylab uyquga ketar edi. U faqat tong otib, dastlabki karvonlar yetib kelgandan so'nggina vahimali va qo'rqinchli tushlar ta'siridan qutular, samovarga o't tashlar, choyxona atrofini supurib, karvonlarga choy berardi. Kun botguncha oddiy va bir taxlitdagi hayot davom etardi. Kun botgandan so'ng esa, butun borliq abadiy sukunat va harakatsizlik qariga g'arq bo'lib ketardi. Hech qayerda hayot degan narsadan asar ham qolmasdi. U yana ko'rpasiga o'ralib yotar, yana chiyabo'rilarning uvlashiga quloq solar, yana qo'rqinchli jinlar to'g'risida o'ylar, shu holda oxiri pinakka ketardi. Har kun ahvol shu edi! Bugun esa ahvol butun boshqacha edi. Bugun oqshomdan sal o'tishi bilan qora mashinada to'rt kishi kelib qoldi. Ular kechasi shu yerda qo'nishlarini bildirib, yaxshilab ovqat hozirlashini buyurdilar. Ularning ikkitasi harbiy formada edi yo'ldoshlari unga: "Og'oyi sartib"[1], deb murojaat qilardilar. Sartib choyxonachiga:

— Ikki ko'zing yo'lda bo'lsin. Mashina ko'ringan zamon menga xabar ber, — deb buyurdi.

Choyxonachi "jonim bilan" deb javob berdi. Ularning gap-so'zi, xatti-harakati va ko'rinishidan ancha e'tiborli odamlar bo'lsa kerak deb o'yladi. Bu ham uning ko'ngliga ancha huzur bag'ishladi va dastlabki paytda paydo bo'lgan qo'rqinch va xavotirli hislarini yo'qotib yubordi. Choyxonachining baxtiga, bular kelgandan keyin yarim soatcha o'tgach, choyxonaga yana uch dehqon kirib keldi. Dehqonlar Ardabildan qaytib kelishayotgan ekan. Ular qishloqlariga kun yorug'ida yetib borisha olmagach, bu yerda to'xtashga majbur bo'lgan edilar.

Ular bir stakandan choy ichishgandan so'ng quruq yerga solib qo'yilgan bo'yraga cho'zilishib, tezda xurrak torta boshladilar. Bu xurrak choyxonachini yana ham dadillantirib yubordi. Mashinada

[1] **Sartib** — general.

kelgan yo'lovchilar yomon niyatli kishilar bo'lganda ham, bu oddiy dehqonlar uning yonini olishlari, himoya qilishlari mumkin edi. G'oyat xursand bo'lgan choyxonachi palov damlab, kichkinagina tovada tovuq go'shti qovurardi. U, qo'liga kapkir ushlab, goh palov pishayotgan qozondan xabar olar, goh tovaga nazar solardi.

Sartib ikki beti qip-qizil, ingichka qora mo'ylovli, kelishgan yosh ofitser bilan tashqari chiqdi:

— Qanday jimjit kecha, Yavar, — dedi u horg'inlik bilan, — ham salqin. Qadim zamonlarda karvonlarning nima uchun kechasi yo'l yurib, kunduzi dam olib yotishiga endi tushundim.

— Shunday bir kechada yo'limizni davom ettiraversak bo'lmasmidi, sartib, nega bu yerda to'xtashga qaror qildingiz? — deb so'radi Yavar Azimiy.

— Avvalo, yo'ldoshlarni yo'lda tashlab ketish yaxshi emas, — deb javob berdi sartib. — Yo'lda har qanday voqea ro'y berishi mumkin, yo birdan mashina buzilib qolishi, yo yana biror ishkal chiqishi hech gap emas. Ikkinchidan esa, komissiya a'zolarining hammasi Tehronga baravar kirib borishlari kerak. Shunda bizning uyda yig'ilib, odamlar orasida ixtiloflar chiqib qolmasdan qat'iy bir qarorga kelib olamiz. Buni komissiyaning ayrim a'zolari sarhang bilan ko'rishmasidan qilish kerak, bo'lmasa chatoq bo'ladi.

— Hamid Hamidiy juda beg'araz va jasoratli odam ko'rinadi.

— U konstitutsiyaning eski kurashchilaridan va nomusli odam. Aks holda, u bunday bir harakatga aslo qo'shilmagan bo'lardi. Shaharning hurmatli odamlaridan imzo to'plab, dehqonlar bilan arboblar orasidagi munosabatga zid keladigan qonunni qaytadan ko'rib chiqishni talab qilish — hazil gapmi?.. Bunga sen qanday qaraysan?

— Masalaning mohiyati menga ham ayon. Lekin, menimcha, ish shaklan qaltis tashkil etilgan. Qishloqlardan, hatto Urmiya va Ardabildan odam chaqirib, uylarda maslahat va yig'inlar tashkil etish yaxshi bo'lmabdi. Umuman ancha shov-shuv ko'tarildi, bundan esa, fursatni g'animat bilib, davlatdan norozi odamlar ham foydalanib qoladilar.

— Yanglishayapsan, yigit! Sen hozir jandarma boshlig'i singari fikr yuritayapsan. Holbuki, ozod mamlakatda bunday ishlar

tabiiy va qonuniy bir hodisadir. Grajdanlarning ijtimoiy tashabbuskorligini bo‘g‘masdan unga yo‘l berish lozim, bu vatanimizning obod bo‘lishi va ravnaq topishining garovidir...

Sartib shu mavzu to‘g‘risida uzoq gapirdi, hozirgi zamon madaniy davlatlarida fikr erkinligining taraqqiyoti katta ahamiyatga ega ekanligini va Hamidiyning harakati tamomila qonuniy ekanini tushuntirdi:

— Tabriz gubernatori bilan jandarmasining boshlig‘i esa benomus odamlar. Taraqqiyot nima, fikr ozodligi nima — buni bilmaydilar. Hamidiyning xalq oldidagi obro‘si ham ularning nafsoniyatiga tekkan. Ana shularning biriga o‘nni qo‘shib-chatib gap ko‘paytirganlar.

Sartib Salimiy jim qoldi. Ular chiyabo‘rilarning uvullashiga quloq solib, ochiq havoda birpas kezishdi.

— Sen hali yoshsan, — dedi Salimiy, — mening maslahatim shuki, o‘z muhokama va harakatlaringda hamisha vatan manfaatlari hamda xalq manfaatlarini har narsadan yuqori qo‘y...— U Yavar Azimiyning qo‘ltig‘idan oldi, — yur endi, ichkari kiraylik, palov ham dam yeganga o‘xshaydi.

Ular ichkari kirishdi. Cho‘llarning jimjitligiii buzib, chiyabo‘rilar yana ham battarroq uvillay boshladilar. Lekin ular o‘choq oldiga kelishga qo‘rqar edilar. Birdan ularning tovushi kesildi. Qorong‘ilikdan qandaydir shitirlagan tovush eshitildi. Choyxonachi ko‘zlarini qisib, qorong‘iliqqa g‘arq bo‘lgan bepoyon cho‘lga tikildi. Allakim to‘ppa-to‘g‘ri o‘choqqa yaqinlashib kelar edi. Choyxonachi diqqat bilan quloq solib turdi. Shunday qorong‘i kechada yurgan kim bo‘ldikin? Ko‘zga ko‘rinmas ruhlar va jinlar esiga tushdi. Titroq tovush bilan “bismilloh” deb qo‘ydi. Oyoq tovushi yaqinlashdi. Choyxonachi o‘zining yolg‘iz emasligini bildirib qo‘yish uchun shogirdni chaqirib qo‘ydi-da, qora sharpa tomonga qarab:

— Kim u? — deb qichqirdi.

— Mehmon, — degan javob eshitildi. — Shu’lani ko‘rib, shu tomonga burildim.

— Hayoting ravshan bo‘lsin... Xush kelibsan!

Ikki kun og‘ir yol bosib charchagan Faridun o‘choqboshiga yaqinlashdi. Olov yorug‘ida choyxonachi unga tikilib qaradi.

Uning oyog'ida changga botgan choriq, boshida yirtiq pahloviy qalpoq, egnida rangi ancha ketib qolgan ko'ylak bilan shalvar. Oddiy bir dehqon singari soch-soqoli o'sgan va afti-basharasi changga belangan edi.

— Juda charchadim, agar bemalol bo'lsa, bu kecha qo'nib ketsam deyman. Ertaga azonda yana yo'lga chiqaman...

Choyxonachi uni shogirdiga topshirdi:

— Og'oni ichkari olib kirib joy ko'rsat, dam olsin, — dedi-da, Faridundan so'radi:

— Ovqat-povqat ham qilib olasizmi?..

Faridun birpasgina ikkilanib turgach:

— Bir stakangina choy bo'lsa, yo'q demasdim, — dedi.

Choyxonachi kulimsiradi. Faridun hali ham yo'l chekkasidagi choyxonadan chiqib qolganini bilmas edi. Qayerga kelib qolganini unga bildirib qo'ymoq uchun:

— Bir stakan ichasizmi, ikki stakan buyurasizmi — bemalol, — dedi choyxonachi. — Siz kabi mehmonlarga xizmat qilish bizning vazifamiz.

Faridun o'zining choyxonaga kelib qolganini endi payqab, dadillashdi. Ust-boshining changini qoqdi-da, suv so'rab, yuz-qo'lini yuvdi. Choyxonaga kirib, atrofni ko'zdan kechirdi. Choyxona uzun bir xonadan iborat edi. Kiraverishda, so'l tarafda pastakkina panjara bilan choy qo'yish va ovqat pishirish uchun joy ajratilgan. Unda kichkina-kichkina stakanlar ko'zga tashlanardi. Yerda samovar shaqillab qaynab turibdi. Samovarning ustida katta gulli choynak. Biroz yuqoriroqda kvadrat shaklidagi maydoncha bor. Uning ustida oq dasturxon yozilgan uchta stol, ulardan birida to'rt kishi yeb-ichib o'tirishar, suhbatiashar edi. Ular tepasida neft lampa bo'lib, uning xira yorug'i atrofni zo'rg'a yoritib turardi.

Faridun ichkari kirishi bilan o'tirganlar yalt etib unga bir qarashdi-da, oddiy bir dehqonga o'xshatib, yana o'z ishlari bilan mashg'ul bo'lishdi.

Faridun ulardan birining ovozidan tanidi. Bu xirmonda qo'lidagi Qur'on bilan Xudoni o'rtaga solib, Musa akani qo'rqitgan So'fi Eronparast edi. U biroz shirakayf bo'lib, eshikka orqasini o'girgan holda o'tirar, qo'liga qadaq ushlab, tost ko'tarmoqda

edi. Faridun ko'zlarini qisib, o'sha tarafga qaradi. Chiroqning xira yorug'ida ularni bir-bir ko'zdan kechirdi. Boshqa hech bittasini ham tanimadi. Hikmat Isfahoniy bilan mister Garold esa bular orasida yo'q edi.

O'tirganlardan biri sovuq va o'g'ri ko'zli kishi ahyon-ahyonda unga qarab qo'yardi. O'rtoqlari uni goh "og'oyi Mahbusiy", goh "og'oyi Husayn" deb murojaat qilar edilar.

Tanholik va osudalik axtargan Faridun ulardan yuzini o'girdi-da, devor ostidagi bo'yra ustida xurrak tortayotgan dehqonlarga qaradi. O'zi uchun munosib bir joy axtara boshladi. Choyxonachining dastyori olib kelgan bir stakan achchiq choyni ichib ustki ko'ylagini yechib bukladi-da, uni boshi ostiga qo'yib, bo'yraga cho'zildi.

Shu payt uxlab yotgan dehqonlardan biri uzun va qattiq qilib xurrak tortdi.

— Bay, bay, bay, — dedi Husayn Mahbusiy. — Kayfim uchib ketdi, bu haromzodaning burni xuddi karnaydek varanglaydi-ya.

— Turklarni eshak deganlaricha bor-da, — deb hiqillab kuldi, kayfi ancha oshib qolgan So'fi Eronparast.

Husayn Mahbusiy uning so'zini quvvatlab tushdi:

— Ozarbayjonga kelsang, jahannamga tushgandek bo'lasan. Na sen biror odamning gapiga tushunasan, na sening gapingga birov tushunadi. Xuddi jahannamning o'zginasi!..

— Unday dema, — deb unga e'tiroz bildirdi sartib Salimiy, — Ozarbayjon go'zal, jannatday joy. Ozarbayjonliklar bo'lmasa, eron xalqining yarmi ochdan o'lardi. G'alla, go'sht va yog'ni shulardan olamiz. Totli mevalarni ham bizga shular yetkazib beradilar...

Eronparast kulib javob berdi:

— Albatta, yemoq uchun Ozarbayjondan yaxshi joy yo'q, bu to'g'rida so'z bo'lishi ham mumkin emas. Ozarbayjonga kelib yeysan, ichasan, semirasan; qorningni ham, cho'ntagingni ham to'ldirasan, so'ng Tehronga qaytib, kayf qilasan. Juda go'zal yer. Ammo...

Shu yerga kelganda u aytmoqchi bo'lgan gapidan zavqlanib qahqaha urdi.

Ko‘zlariga yig‘ilib kelgan yoshini dastro‘moli bilan artib, davom etdi:

— Ammo aholisi hamisha mana bular singari quruq yerda, chuvalgan bo‘yrada yashasa yana ham yaxshiroq. Chunki ular qizil qon xalqdir. Bu xalq bir balo bo‘lib qo‘zg‘alib qolsa bormi — yo‘lida uchragan barcha narsani bosib-yanchib tashlay oladi... Bularning jilovini mahkam ushlash, kecha-kunduz jilovlab turish kerak! Ha-ha-ha... Mahkam jilovlab olish kerak!

— Menga qarang, og‘o, — dedi sartib g‘azab bilan, — hech bir hurmatli mehmon mezbonni bunchalik tahqir etmaydi. Uning dasturxonidan yeb, urib boshini yormaydi, milliy iftixoriga til tegizmaydi.

Husayn yarim ehtirom, yarim nafrat, yarim xushomadgo‘ylik bilan gapga aralashdi:

— Og‘oyi sartib, — dedi u, — bizning hammamizning bitta milliy iftixorimiz bor. Eron, Eron talabasi bo‘lish... A’lohazratning barcha fuqarolari uchun boshqacha bir millat, boshqacha iftixor, boshqacha til bo‘lmasligi kerak!

Sartibning battar achchig‘i chiqdi:

— Og‘o, siz hali yosh bolasiz!.. — dedi u keskinlik bilan, — men sizga to‘tiqush singari soxta siyosiy shiorlarni hadeb takrorlay bermaslikni maslahat berardim. Chunki bunday toifa odamlar har yerda hamisha yurak va vijdondan mahrum bo‘lgan hasharotga o‘xshash bo‘ladilar. Siz or-nomusli odam va fuqaro bo‘lishga tirishing. Sizning o‘z mustaqil fikringiz bo‘lsin. U haqiqat va vijdonga bo‘ysunsin. Faqat ana shu vaqtdagina men sizning so‘zingizga quloq solaman.

So‘ng sartib choyxonachiga qarab:

— Yo‘lga bir qarab kel-chi, mashinadan darak yo‘qmikan? — dedi.

Choyxonachi tashqari chiqdi.

— Og‘oyi sartib, — deb gap boshladi Husayn Mahbusiy xushomadgo‘ylik bilan, — sharafimizga ont ichamanki, men doim el-yurt manfaatlarini o‘ylayman. Nahotki a’lohazratning aytganlari haqiqat bilan vijdonning talablariga javob bermasa?.. Nahotki u kishining gapi butun Eron yoshlarining muqaddas e’tiqodi bo‘lma-

sa?.. Mening eshitishimcha, a'lohazrat — shahonshohi Eron Rizoshoh Pahloviyning o'zlari Ozarbayjon degan nomni dunyo xaritasidan o'chirib tashlashni, ozarbayjon tilini yo'q qilib yuborishni istaydilar. Bunda boshqa hech qanday e'tirozga o'rin qolmaydi.

Choyxonachi qaytib kirdi-da:

— Og'oyi sartib, hech narsa ko'rinmaydi, — deb xabar berdi.

Sartib qo'lidagi qadahni bo'shatib, labini artdi-da, yanada keskinroq qilib:

— Yigit, — dedi, — sening shirin tabassum bilan aytayotgan zaharli so'zlaring menga achchiq sharbatni eslatayapti. Achchiq gapingni qara-yu, shirin tabassumingni qara! Er yigit bo'l, er yigit bo'lib gap gapir-u, er yigit bo'lib gapga quloq sol!

Husayn Mahbusiy sergaklashdi, basharasi jiddiy tusga kirdi.

— Og'oyi sartib, men ortiqcha so'z aytganim yo'q. Men faqat a'lohazratning fikrlarini takrorladim, xolos.

Sartib uning gapini shartta kesdi:

— A'lohazratning nomiga bo'hton qilma! Imonim komilki, u kishining bu razolatlardan hech bir xabari yo'q. Bu fitnalar eng oliy mansabdorlardan tortib, mayda amaldorlargacha bo'lgan olchoq odamlarning ishidir!..

— Xo'sh, Ozarbayjon-chi?.. Men Ozarbayjon to'g'risidagi fikrlaringizdan shubhalanaman...

— Menga qarang, og'o, — deb gapga aralashdi Yavar Azimiy, — siz o'z shubhali fikrlaringizni qo'yib, nega bu ochiq-oshkor ishlarga shubha qilasiz?

Sartib yana bir qadah konyak ichib, davom etdi:

— Men ozarbayjonlik emasman. Men ham xuddi sen kabi forsman. Lekin men yaxshi bilamanki, ba'zi odamlarning miyasini afyun singari zaharlab qo'ygan bunday zaharli fikr ertami-kechmi axir bir kun bizni baxtsizlikka olib boradi. Ozarbayjon yog'li et parchasidir. Ozarbayjon og'izni shirin qiladigan totli mevadir. Ehtimol, uni yutib yuborish oson bo'lar. Lekin uni hazm qilib yuborish unchalik oson ish emas. U bizning qornimizni yorib, ichak-chavog'imizni ag'darib yuborishi mumkin. Boshqa millatlarni ezish hisobiga Eronni ozodlik va baxt-saodatga olib chiqib bo'lmaydi. Bu yo'l halokat va badbaxtlik yo'lidir. Yetti-sakkiz

millionli bir xalq o'ziga teng keladigan xalqlarni: ozarbayjonlar, kurdlar, armanlar va hokazolarni yutib, hazm qilib yuborishi mumkin deb o'ylashdan ham ahmoqona bir gap bo'lmasa kerak...

Oraga og'ir sukut cho'kdi. Uzoq vaqtgacha hech kim ham churq etmadi. Uyoq-buyoqqa kezib yurgan sartib, gugurt chaqib, sigarasini tutatganda Faridun unga diqqat bilan qaradi. Uning qoracha yuzida chuqur qayg'u izi, aqlli va o'tkir boqqan ko'zlarida intizorlik ifodasi bor edi. Sartib o'rtadan sal balandroq bo'yli kishi bo'lib, kelishgan qaddi-qomatini mag'rur tutardi. Faridunning qalbida so'zlari g'oyat bama'ni bo'lgan bu odamga nisbatan chuqur bir hurmat tug'ildi. U devor tomonga o'girilib, uyquga ketdi.

* * *

Cho'lda uvlashgan chiyabo'rilarning tovushi bilan chigirtkaning chirillashidan boshqa hech narsa choyxonaning jimjitligini buzmas edi. Bu jimjitlik, hali ham uyoq-buyoqqa yurib turgan sartibning diqqatini oshirib yubordi.

— Nega bunchalik kechikib ketishdi ekan? — deb choyxonachiga murojaat qildi Salimiy.

Choyxonachi hurmat bilan bosh egib, tez javob berdi:

— Tashvishlanmang, og'oyi sartib, Xudo xohlasa kelib qolishadi.

Sartib stolga yaqinlashib, yana bir qadah konyak quydi. U ichmay, qadahni qo'lida ushlab turdi. Bir qo'li bilan ko'zlarini qayerga yashirishni bilmayotgan Mahbusiyning iyagidan ko'tardi:

— Yigit, agar sen nomusli odam bo'lsang, mening aytganlarimni o'ylab ko'r. Agar josus bo'lsang, juda omading keldi, meni Xudoning o'zi senga ro'baro' qildi. Hech vaqt bunchalik omading kelmagan bo'lsa kerak. Hammasini yozib ber. O'n, o'n besh tuman cho'ntagingga tushadi.

U javob kutmasdan, choyxonachini chaqirdi.

— Amakijon, biror soat cho'zilib olishga joy-poy yo'qmi?

Choyxonachi hurmat bilan:

— Mana buyoqqa marhamat, og'oyi sartib! Buyoqqa o'ting, — deb choyxonaning to'riga tutilgan pardani ko'tardi, uning orqasidagi eshikni ochib, sartibni ichkari kiritdi.

— Siz kabi aziz mehmonlar uchun saqlayman. Yaxshi kravat va yumshoq to'shak. Top-toza. Yotib dam oling, hordig'ingiz chiqsin.

Sartib yo'ldoshlariga:

— Mashina kelishi bilanoq meni uyg'oting, — dedi-da, ichkariga kirib, eshikni bekitdi.

Choyxonachi o'rnidan turgach, Yavar Azimiyga qarab:

— Og'o, ehtimol, siz ham yotmoqchidirsiz? — deb so'radi.

— Yo'q, uyqum kelgani yo'q, toza havoda birpas kezmoqchiman, — deb javob berdi Yavar Azimiy va eshikka tomon yurdi.

U tashqari chiqib ketgach, So'fi Eronparast Mahbusiyga qayrilib qarab:

— Og'oyi sartib kimni kutyapti? — deb so'radi.

Husaynning lablarida zaharxanda ko'rindi:

— Kimni kutsa kutaversin! Ajaldan boshqa hech kim kelmaydi! Uni sarhang[1] deydilar...

Ular bir-birlariga qarashib uzoq vaqt jim o'tirishdi. Narigi xonadan sartibning xurrak tovushi eshitila boshlagandan keyingina, biroz yengil tortishdi.

So'fi Eronparast ko'zlarini suzib, so'z qotdi:

— Bu sartibning gaplari menga yoqmadi!

Husayn Mahbusiy:

— Ajali yetgan odam — alahlayveradi-da, — dedi-da, vinoni ko'tardi.

— Bu qaysi Salimiy? Qaysi avloddan?

— Bu Salimiy, a'lohazrat taxtga chiqqan yillarida yoq zindonda ostirib yuborganlari Salimiyning o'g'li bo'ladi. U vaqtda bu Yevropada o'qib yurgan edi.

— Aha-a-a!.. Hali bu Salimiyning o'g'li ekan-da... Uning otasi ashaddiy rusparastlardan biri edi. — Xuddi o'sha!

— Bilaman, og'ayni, bilaman! Bizning og'oyi Hikmat Isfahoniyning eski dushmanlaridan biri edi. Taniyman uni.

— Aslini surishtirganda, uning o'limiga sabab bo'lgan kishi ham o'sha sizning og'ongiz edi. Endi bo'lsa, sartibga qizini bermoqchi deyishadi.

[1] **Sarhang** — qo'shin boshlig'i *(fors.)*

— Yo‘q, azizim, bo‘lmagan gap. Qo‘lidan kelsa, og‘o buning ham qonini ichadi. U Shamsiya xonimni bundaylarga bermaydi.

— Ovora bo‘lmay qo‘ya qolsin ham! Berganida ham bunga yo‘l qo‘yishmaydi. Uni sarhang deydilar. Ko‘rarsan, hali necha xil reja tuzarkin. Shamsiya xonimning boradigan so‘nggi joyi sarhangning og‘ushidir.

Ular jim bo‘lishdi. Husayn yana bir qadah vino ichdi-da, nima uchundir chuqur xo‘rsinib qo‘ydi.

So‘fi Eronparast unga tasalli bera boshladi:

— Ey, xafa bo‘lma, yigit... O‘z oti bilan sartib, sartib bo‘lganidan keyin zarda qiladi-da. Parvo qilma. Xushchaqchaq bo‘l, vino ich. Ichaver. Shunday ichginki, butun vujuding yayrab ketsin.

U bir ko‘tarishda qadahni bo‘shatdi. Palovdan bir qoshiq olib yana qadahni to‘latdi-da, uni ko‘tarib, choyxonada kezib yurdi:

— Yigit, sen yoshsan. Tez qizishib, tez hovringdan tushasan. Chunki dunyoning issiq-sovug‘ini hali tatib ko‘rmagansan. Lekin dunyo tanigan odamlar yaxshi-yaxshi nasihatlar qilganlar.

Davroni jahon bemayu soqiy hech ast,
Be zamzamayi sozi iroqi hech ast,
Harchand dar ahvoli jahon menigaram,
Hosil hama ishrat astu boqiy hech ast.[1]

So‘fi Eronparast qadahni bo‘shatib, stol oldiga keldi. Qo‘lini Husaynning ayollarniki singari silliq, tuksiz betiga tekizdi, Bundan zavqlanganini bildirmoq uchun dedi:

— G‘am-g‘ussani qo‘y, yigit!.. O‘yna, kul, kayfingni qil, yigit! Dunyoda shundan boshqa nima olib ketasan! Bo‘lmasa, bir vaqti keladiki, unda kech bo‘ladi. Vaqt o‘tib, umr tugagan bo‘ladi. Unda boshingni ming yerga ur, qo‘ling hech yerga yetmaydi...

Z-on pesh ki, az zamona tobe bixo‘rim
Bo yakdigar imro‘z sharobe bixo‘rim.

[1] Umar Xayyomning ruboiysi. Mazmuni: may va soqiy bo‘lmasa, jahonda yashash hech narsaga arzimaydi. Nayning navosi bo‘lmasa, dunyo hech narsaga yaramaydi. Jahonning ahvolini qanchalik ko‘zdan kechirsam, ishratdan boshqa hamma narsalarning hech narsaga arzimasligini anglayman.

K-in charxi falak, ba gohi raftan moro
Chandon nadihad amon, ki obi bixo'rim.[1]

U yana bir qadahni bo'shatib, stolga qo'ydi. Yana bir narsa o'qimoq uchun og'iz juftlar ekan, parda orqasidagi eshik ochildi. Sartib eshikdan boshini chiqarib:

— Xudo haqqi, birpas tinch qo'yinglar, jindak mizg'ib olayin. Safsatabozlikni bas qilinglar! — dedi va eshikka suyanib, So'fi Eronparastga qaradi-da, dona-dona qilib bir ruboiy o'qidi:

Govest dar osmon nomash Parvin.
Yak govi digar nuhufta dar zeri zamin.
Gar binoyi, chasmi haqiqat bikusho,
Zeru zabari du gov mushti xar bin.[2]

Sartib eshikni yopib, kirib ketdi. So'fi Eronparast tumshayib, joyiga kelib o'tirdi-da, yana bir qadah vinoni bo'shatdi.

— Bu sartib juda zahar odam ekan, — deb to'ng'illab qo'ydi u.

— Sirka qancha o'tkir bo'lsa, idishi uchun shuncha xavfli bo'ladi.

So'fi Eronparast ichgan sari sergap bo'ladigan, gapirgan sari ichaveradigan odamlar toifasidan edi. U endi she'r o'qishdan qo'rqib, ko'zini parda orqasidagi eshikdan olmay ezmalik qilardi. O'tgan kunlaridan hikoya qilar, maktabda qanday o'qiganini eslar, dunyoning siyosatidan so'zlardi. Nima esiga tushsa, shuni gapiraverardi. Ba'zan hozirgina aytgan gaplarini takrorlardi.

Fors tilidek toza va boy tilda so'zlayotgan bu kishi uchun so'zning hech bir qimmati-yu, ma'nosi yo'q edi. Hozir bildirgan fikrini keyingi gapida inkor qilar, bundan biroz oldin yoqlagani bir hodisani, sal turib qoralab ketardi. Bularning hammasini shunday bir ishonch va tabiiy ravishda qilar ediki, go'yo dunyoda uning uchun mantiqsizlik va fikr buzuvchilikdan boshqa jozibaliroq ish yo'qqa o'xshardi; go'yo yer yuzida sobit va aniq prinsiplar, qat'iy va bir-biriga zid tushunchalar yo'qday edi.

[1] Umar Xayyomning ruboiysi. Mazmuni: zamona bizga azob sharobini ichirmasdan, burun kel, bugun birga sharob ichaylik. Chunki olamdan ketish vaqtimiz yetganda, bu falak bizga bir qultum suv ichishga ham imkon bermaydi.

[2] Umar Xayyomning ruboiysi. Mazmuni: ko'kda Parvin nomli bir ho'kiz bor. Boshqa bir ho'kiz yerning ostida. Haqiqat ahliga o'xshab aql ko'zingni ochib, bu ikki ho'kiz orasidagi bir to'da ahmoq eshaklarni tomosha qil.

Nihoyat, uning bema'ni safsatalaridan zerikkan Husayn suhbat mavzuini o'zgartish uchunmi, yo uni birpas ermak qilib biroz ko'ngil ochish uchunmi:

— Demak, og'oyi Hikmat Isfahoniy sizni yo'lda, yo'lning o'rtasida tashlab ketibdi-da?! — deb so'rab kirdi.

— U yomon, imonsiz odam, — dedi So'fi Eronparast ovozini ko'tarib, — mashinani to'xtatdi-da, tush pastga, dedi... Tushmadim. Shunda u qo'limdan tortib, yo'l yoqasiga tashlab ketdi.

— Sababi nima axir, nima uchun?

— Ayb o'zimda, albatta! Men, itvachcha, og'oning bir so'zini ikki qilmay deb, o'zimga o'zim: u qatiqni oq desa — oq deyay, qora desa — qora deyay, deb ming marta qasam ichdim. Lekin baribir bu nuqul esimdan chiqib qola beradi. O'z bilganimni deyaverdim. Mana boshimga shunaqangi savdolar tushdi...

— Axir, nima bo'ldi o'zi, gap nima ustida edi?

— Nima bo'lardi, mister Garold: "Tabriz bilan Julfa orolini necha kilometr?" deb so'radi. Og'o: "Taxminan, uch yuz kilometr chiqadi" deb javob berdi. Shunda men tiling qurg'ur darrov gapga aralashib: "Yo'q, og'o, bor-yo'g'i bir yuz yigirma kilometr", dedim. Og'o esa: "Men aniq bilaman, uch yuz kilometr" dedi. Men yana e'tiroz bildirdim: "Spravochnikda o'qiganman, bir yuz yigirma kilometr" dedim. Shundan so'ng u meni mashinadan haydab tushirdi. Uning ustiga "o'jar eshak", deb ham so'kdi.

— Qosh qoraya boshlaganda shu cho'li-biyobonga tashlab ketaverdimi, a?

— Ha, tashlab ketaverdi...

— Xo'p, og'oyi Hikmat Isfahoniy-ku tehronlik, bunday narsalar unga bir odat bo'lib qolgan. Bu amerikalik mister Garold nega indamadi?

So'fi Eronparast bosh chayqadi:

— Be-e, ajab gaplarni aytasan-a! Birodar, bu amerikaliklar vahshiylarga qanday nazar bilan boqsalar, bizga ham shunday boqadilar. Hamma narsa ularga lazzat beradi. Biz og'o bilan tortishayotganimizda, ayniqsa og'o meni mashinadan haydab tushirayotganda mister Garold rosa qahqah urib kuldi.

— Ha, zap ajoyib tomosha bo'libdi-da!

— Asti qo'yaberasan! — dedi So'fi Eronparast va qadahni yana bir to'latib, yangi ruboiy o'qimoqchi bo'lganida Husayn gapini og'zidan oldi:

— Birodar, Xayyomni tinch qo'y, yana sartibning achchig'i chiqadi.

Choyxonaga bir nafas jimlik cho'kdi. Shirin uyquda yotgan dehqonlarning pishillashidan bo'lak tiq etgan tovush yo'q edi.

So'fi Eronparast o'ziga gapirgandek qilib:

— Nasha chekib, shirin xayollar suradigan kecha bo'ldi-da, — deb qo'ydi.

Husayn uning fikrini tasdiqladi.

— Juda bema'ni kecha bo'ldi! Uni faqat nasha chekib o'tkazmasang, boshqa iloj yo'qqa o'xshaydi.

So'fi Eronparast sirli tovush bilan shivirlab:

— Nega bu yerda tunadik-a? Axir, ketaversak bo'lmasmidi, ular ham ertalab yetib borishardi-qo'yishardi. Shunday qilsak bo'lmasmidi? — dedi.

— Bo'lardi-yu, lekin sartib Tehronga hammaning baravar kirib borishini istaydi. Ixtiloflar chiqmasligi uchun raportni hammamiz baravar topshiraylik, deydi. Bir tomondan, o'zidan qo'rqsa, ikkinchi tomondan esa, bu ishdagi o'z rolini yashirib ketmoqchi.

— Demak, Hamid Hamidiyga juda ko'ngil qo'ygan ekan-da?

— Bo'lmasam-chi? U ham sartibning otasi boshlagan yo'ldan ketganlardan-da! Dordan tasodifan qutulib qolgan.

— Agar bu ishning bir uchi ichki ishlar ministrligiga yetib qolguday bo'lsa bormi, unda Hamidiy salomat qutulolmasa kerak... O'zining ketidan sartibni ham ilashtirib ketmasa deb qo'rqaman...

— Buning uchun ehtiyotsizlik bilan aytilgan bir necha og'iz so'zi kifoya qiladi. Sarhangga keragi ham xuddi ana shu.

— Menimcha, uning hozir aytgan gaplarini sarhangga yetkazilsa kifoya qilar.

— Albatta, qizishib ketib aytganlari katta gap. Bu gaplar bo'yniga sirtmoq bo'lishi mumkin. Uning nozik yerini topdim endi, hali yana gapga solib, ko'p fikrlarini bilib olaman. Sen ham menga yordamlashmog'ing kerak. Buni sarhangning o'zi topshirgan. Kuchlilar kichik odamlar ham tahqirni unutmasligini bilib qo'-

yishsin, kichik odamlar ba'zan kattalarni dor ostiga olib borishning ham uddasidan chiqadilar.

Yavar Azimiyning kirib kelayotganini ko'rib, Mahbusiy baland ovoz bilan:

— Og'oyi So'fi, — dedi, — turing, bir toza havoga chiqib keling, boshingiz og'rib qoladi, turing, bir aylanib keling.

So'fi Eronparast o'rnidan turdi, gandiraklab tashqariga chiqib ketdi. Mahbusiy Yavar Azimiyga:

— Bu ezma qayerdan ham uchrab qoldi. Gapiraverib, miyamni qoqib qo'limga berdi, — deb arz qildi.

Yavar Azimiy qiziqib so'radi:

— Bu So'fi Eronparast kim o'zi?

— Hikmat Isfahoniyning redaktorlaridan — "Sado"ni shu chiqaradi. Arbob har safarga chiqqanda uni o'zi bilan albatta olib ketadi va ko'pincha yarim yo'lda tashlab ketadi... Shaharga qaytganidan so'ng esa yo'lda boshidan kechirgan sarguzashtlarini eshitadi. Bu ham, xuddi masxaraboz singari cho'llarda yurgani, ariqlarga yiqilgani va choyxonalarda yotgannni ming ohangga solib gapirib beradi. Ikkisi ham huzur qilishadi.

Parda orqasidagi eshik ochilib, sartibning ovozi eshitildi:

— Nima gap, mashinadan darak bormi?

Husayn itoatkorlik bilan javob berdi:

— Yo'q, og'oyi sartib, hali ham kelgani yo'q. Siz yotib uxlay bering, kelishsa xabar beramiz.

— Soat ikkidan ham oshib ketdi. Allaqachon kelishlari kerak edi. Yo biror hodisa bo'lib qoldimikin?

— Bo'lishi mumkin, og'oyi sartib! Yo'l juda uzoq, biror yerda tunab qolgan bo'lsalar ham ehtimol... Biroz oshdan yesangiz-chi, og'oyi sartib. Juda yaxshi osh bo'libdi-da. Siz hech narsa yeganingiz ham yo'q.

Sartib o'tirib, istamaygina bir-ikki qoshiq osh yedi. So'ng yonidan sigara olib labiga qistirdi. Husayn Mahbusiy darrov gugurt chaqib tutdi. Sartib sigarani tugatib, o'ychanlik bilan lampaning xira nuriga tikilib o'tirdi.

— Sartib, — dedi Husayn, — siz Tabrizda juda charchadingiz. Ish ham juda shoshqin va mushkul edi.

— To‘g‘ri! Bir odamga tuhmat qilib, nomini shunchalik bulg‘ash mumkinligiga hali ham aqlim bovar qilmay turibdi!

— Mamlakatimizda har qanday ishni ham kutish mumkin, sartib! Naqadar bema’ni yurt bu!.. Bir paqir uchun ota-onasini sotib yuboradiganlar ham topiladi! — dedi qizg‘inlik bilan Husayn Mahbusiy.

Sartib bu gaplarning chin yurakdan chiqayotganini ham, biror maqsadni ko‘zda tutib aytilganini ham ajratolmadi. Umuman u Husayn Mahbusiyni tanishga qiynalardi. Bu odam unga goh yosh bola singari soddadil mas’um bo‘lib ko‘rinar, ba’zi gaplarni ochiqcha aytib yuboraverar, kular, mehribonliklari bilan odamni o‘ziga tortar edi. Goho esa g‘ing deb ovozini chiqarmaydigan, har narsaga shubha bilan qaraydigan sovuq bir odamga aylanib qolardi. Goh u har kimga ham rahmi keladigan, har narsaga aralashsa ham kishini betinch qilishdan o‘zini tiyadigan rahmdil bo‘lib qolar, goho esa tushunib bo‘lmas darajada zahar tilli kishi bo‘lib qolar edi. Shu yigirma kunlik so‘nggi safari vaqtida birinchi marta uchrashgani bu odam haqida sartib shu paytgacha ma’lum bir fikrga kelolmadi. Unga yaxshi gapirishni ham, yomon gapirishni ham bilmasdi. Umuman sartib odamlarni darrov ajratib ololmas, biror odam haqida darhol bir fikrga kelolmas edi. Uning uchun dunyoda yaxshi odamni yomon deb o‘ylashdan og‘irroq azob bo‘lmas edi. U insonlarni yomon yo‘llarga solgan narsa ularni mensimaslik va yomon munosabatda bo‘lish, deb ishonardi. Bu munosabatlar o‘zgarsa, odamlar bir-birlariga muhabbat va sadoqat bilan yondashsalar hayotdagi yaramas hollar ancha kamaygan bo‘lardi. Ayni zamonda uni hech narsa ham yaxshi deb o‘ylagan odamining kutilmaganda qilgan bir yaramas harakatidek pushaymon qilolmasdi. Shuning uchun ham sartib yangi tanishgan biror odam haqida qat’iy bir qarorga kelguncha, uzoq vaqt bir-birini rad etuvchi qarama-qarshi fikrlar bilan band bo‘lib, bundan ruhan juda azob chekardi. Husaynga o‘xshash birdan tanib olinishi qiyin bo‘lgan odamlar to‘g‘risida u ko‘pincha aniq fikrga kelolmasdi. O‘zining tinchligini buzmaslik uchun bunday odamlar bilan mumkin qadar qayta uchrashmaslikka tirishardi. Ular bilan ko‘rishish va suhbatlashishdan o‘zini olib qochardi. Sal ilgari qizishib aytgan so‘zlarini endi o‘rinsiz deb o‘ylagani uchun Husayn bilan suhbatlashishga rag‘bati yo‘q edi, shuning uchun unga qisqagina qilib:

— Yigit, sen ham charchagansan, borib biroz damingni ol. Mening ham uyqum kelayapti, — dedi-da, yana o‘z xonasiga kirib ketdi.

Husayn, sartibning bu harakatinn o‘z fikrlarini yashirish yo‘lida qilingan ustalik deb hisobladi-da: “Tegirmonga tushsa butun chiqadigan, pishiq odam ekan”, deb o‘yladi.

Husayn dunyoni qimorxona, barcha insonlarga qimorbozlar deb qaraydigan maslaksiz va aqidasiz odamlardan edi. Uning nazarida bu qimorxonadagi har ish baxtga, omadga, mahorat va ziyraklikka bog‘liq edi. U sartib to‘g‘risida ham shunday fikrda edi. Chunki, sartib uning qurboni, uning daromad manbai edi. Uni komissiya a’zolari qatoriga qo‘shib, Tabrizga jo‘natar ekan, sarhang unga sartibga ko‘z-quloq bo‘lishni alohida uqtirgan edi. U sarhangning maqsadini yaxshi bilardi. Shu maqsad bilan u yetarli material yig‘ishga ulgurgan edi. Shuning uchun ham hozir sartibning suhbatdan qochishi Husaynni uncha xafa qilmadi. U samovarchini chaqirib, dehqonlardan ancha nariga joy soldirdi-da, yechinib yotdi. Birozdan so‘ng So‘fi Eronparast bilan Yavar Azimiy ham kelib, u bilan yonma-yon yotishdi. Samovarchi samovarning kulini qoqib, choyxona eshigini bekitdi.

* * *

Faridun yo‘lda nihoyatda qiynalganiga, kunduzlari yashirinib, kechalari yo‘l yurganiga qaramay, juda hushyor uxlardi. U tez-tez uyg‘onib ketar, ammo yana darhol uxlab qolardi. Boshqa mehmonlar ham uxlab, choyxona tamoman sukunatga g‘arq bo‘lguncha, u yarim uyg‘oq yotdi. Yolg‘iz choyxonachigina yotmas, choyxonada g‘ivirlab yurar, tez-tez eshikka chiqib kelardi. Choyxonachi allamahaldan so‘ng mashina tovushini eshitib, yana tashqari chiqdi-da, bir necha kishini ergashtirib kirdi. Ularning tovushnini eshitgan Faridun ko‘zini ochdi, lekin u g‘ira-shira yonayotgan chirog‘da hech narsa ko‘rmay, o‘zini uxlaganga solib yotaverdi.

Yangi kelganlardan biri:

— Sartibni chaqir, — deb buyurdi.

Sartib bu tovushni tanib eshikka chiqdi.

— Og'o, juda kechikib qoldingiz, — dedi sartib va javob kutmasdan so'zida davom etdi: — Shu yerda dam olamizmi, yo yo'lga tushaveramizmi?

Yangi kelgan kishi:

— Kechaning salqinida ketaverganimiz ma'qul, — deb tashqariga chiqib ketdi.

Sartib hamrohlarini uyg'otdi. Yavar Azimiy bilan Husayn darhol uyg'onishdi. Lekin dong qotib o'likday uxlab qolgan So'fi Eronparastni oyoq-qo'llaridan tortib uygotishga to'g'ri keldi. Sartib choyxonada qilishgan xarajatlarni to'ladi.

— Rahmat, amaki! — dedi u. — Joying juda ozoda va yumshoq ekan. Rahmat.

Birozdan so'ng mashinaning chirog'lari ulkan ko'zlarday porlab, Tehron yo'lini yoritdi. U janubga tomon g'izillab ketdi-da, bir nafasda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Uzoqlarda ora-sira nur tushib turgan tepalar va muyulishlar mashinaning olg'a qarab ketayotganidan darak berardi.

Shundan so'nggina Faridun qattiq uyquga ketdi.

UCHINCHI BOB

Tehronning katta markaziy ko'chalaridan biri hisoblangan va keyinchalik Rizoxon tomonidan nomi o'zgartirilib, Xiyoboni Shoh deb atalgan Istanbuli ko'chasida odam tirband. Yo'lka va magazinlar oldi betinim qichqirib, mollarini maqtayotgan olib-sotarlar hamda turli-tuman odamlar bilan to'la. Tosh ko'chada esa foytunlar, yengil mashinalar va yuk mashinalari g'izillab uyoq-dan-buyoqqa o'tib turardi. Asrlardan beri davom etib kelgan odatga binoan, foytunchilar otlarini bo'yniga turli bezaklar osib bezatishgan edi. Tilanchilarning mungli tovushlari, suv va gazetafurushlarning, chorbozorchilarning hayqirig'i quloqni batang keltirardi:

"Og'o, xayr qiling!", "Cho'llaganning davosidir muzdek!", "Eng yaxshi amerika paypog'i", "So'nggi axborot!" "Gebbelsning yangi nutqi!", deb qichqirgan tilanchi, suvfurush, olib-sotar va gazeta sotuvchilarning qiyqirig'i quloqni batang keltirardi. Savdo-sotiq va shahar hayotining eng qizg'in vaqti edi. Hikmat Isfahoniy o'zining beso'naqay gavdasini hayron qolarlik darajada yengil ko'tarib, go'yo bu tovushlarni eshitmagandek borardi. Cheti sariq hoshiyali ro'molchasi bilan peshonasi, bo'yni, baqbaqasidan duv-duv oqayotgan terlarini beto'xtov artar edi. Egniga nozik oq jujuncha kastum kiygan edi. U boshiga panama kiyib va ko'ziga qora ko'zoynak taqib olgani uchun eronlik zamindor yoki savdogardan ko'ra ko'proq yevropalik turistga o'xshab ketardi. U qo'lidagi hassasini g'urur va oliftagarchilik bilan o'ynatib borardi. Tanimaganlar ham uning savlatini ko'rib, chetga chiqishardi. U salomlashgan tanishlariga panamasini sal ko'tarib javob qilardi-da, yana g'urur va e'tiborsizlik bilan indamay o'tib ketardi. Chapga burilib, oyog'ini bir kichkina eshikning zinasiga qo'yib, odati bo'yicha, chaqqonlik bilan qo'lini ko'zi oldiga yaqinlashtirib oltin zanjirli "Omega" soatiga qaradi. Qip-qizil lablarida o'zidan mamnun eka-

nini anglatuvchi yengil tabassum ko'rindi, chunki soat to'qqizdan o'n besh minut o'tgan edi. So'ngti o'n yil ichida u har kun xuddi shu mahalda oyog'ini shu zinaga qo'yar edi. To shu kungacha bir minut oldin ham va bir minut keyin ham kelgan emasdi.

Hikmat Isfahoniy g'isht zinadan chiqib tor dahlizga va undan o'tib katta xonaga kirdi, bu xonaning derazalari o'rtasi gulzor qilingan katta hovliga ochilar edi. Xizmatchi bosh egib eshikni ochdi. Hikmat Isfahoniy ichkari kirdi.

U yechinib o'tirdi-da, o'zini yelpib, terini artgach, Kurd Ahmadni chaqirishga buyurdi, keyin xizmatchi keltirib qo'ygan bir dasta gazeta va jurnallarni bir-bir ko'zdan kechira boshladi.

Uning ko'zi "Ittiloat" gazetasining 1939-yil 25-sonidagi "Chet el xabarlari" degan bo'limiga tushdi. U Polsha chegaralari va Dansig atrofida nemislar vujudga keltirgan jiddiy siyosiy vaziyat to'g'risidagi xabarlarni ko'zdan kechirgach, Gebbelsning nutqini o'qiy boshladi.

Birozdan so'ng qaddini tik, o'zini erkin tutgan Kurd Ahmad kirib keldi.

— O'tiring, og'oyiman, — deb Hikmat Isfahoniy, unga joy ko'rsatdi, — o'tiring-da, Gebbelsning manavi talablariga quloq soling!..

— "Angliya bilan Fransiya Germaniyaning mustamlakalar to'g'risidagi talablaridan bosh tortolmaydilar. Germaniya Angliyaning Markaziy Yevropa ishlariga aralashuviga yo'l qo'ymaydi. Chunki bu Angliyaning ta'sir doirasiga kirmaydi!" Shu joyni u huzur qilib, baland tovush bilan o'qidi.

Qog'ozini gazetadan olib, Kurd Ahmadga tikildi:

— Xo'sh, bunga nima deysiz, og'oyiman, bundan qon hidi keladimi, yo'qmi?

Javob kutmasdan davom etdi:

— Ha, dunyoning ob-havosidan qon hidi kelyapti! Endi biz ham hushyor bo'lishimiz kerak!.. Hushyor bo'lishimiz kerak! Hozirgi vaqtda nima olib nima sotishni, omborda nimani saqlab qo'yib, bozorga nima chiqarishni bilmagan savdogar ertaga ohvoh qilib, dunyoni boshiga ko'taradi. Xo'sh, savdo-sotiq ishlari qanday?

Kurd Ahmad savdo-sotiqning ahvoli, Amerika va Angliyadan keltirilgan mollar to'g'risida ma'lumot berdi. Bozorda jun mollariga ehtiyoj paydo bo'lgani, ikki yuz ming tumanlik ingliz shalini bozorga chiqarish niyatida ekanini bildirdi.

— Aslo, aslo, — deb uning so'zini kesdi Hikmat Isfahoniy, — hech bunday qila ko'rmang. Aksincha, bozordagi hamma molni sotib olib, omborga yashirish lozim. Ikki yildan keyin bu mollarni o'n baravar foydasiga sotish mumkin. Urush molning emas, pulning qimmatini tushiradi. Mol yig'ish, mol saqlash kerak.

Kurd Ahmad bu odamning pul va molga to'ymaydigan xasis ko'zlariga tikilib jim qoldi.

Hikmat Isfahoniy xizmatchini chaqirib:

— Chilim! — deb buyurdi-da, yana gazetalarni ko'zdan kechira boshladi.

Kurd Ahmad Eronning birinchi konstitutsiyasi e'lon qilingan paytda maydonga chiqqan va shu paytgacha Eron siyosiy olamida doim katta rolni o'ynab kelayotgan bu odamga qarab o'tirar va go'yo uni yana ham yaxshiroq o'rganmoqchi bo'lgandek uning butun hayotini bir-bir xayolidan kechirar edi. Hikmat Isfahoniy bir necha marta majlisga deputat bo'lib saylandi. U hatto bosh ministr lavozimida ham ishlagan edi. U keyingi davrda Eron taxti atrofida olib borilgan barcha o'yinlarda, fitna va hiyla-nayranglarda faol qatnashgan edi. U Mamadali shohning taxtdan haydalishi, Ahmad shohning hokimiyat tepasiga kelishi va uning ham quvg'in qilinishida ishtirok etgandi. Eron siyosatini goh ingliz, goh amerika, goh nemis siyosati manfaatlariga, ba'zan esa uchala davlat manfaatlariga baravar bo'ysundirish ishlarida ko'zga ko'rinarli o'rin tutgan edi. Shuning uchun ham o'z faoliyati bilan o'zining "mo'tadil siyosat tarafdori", "muvozanatni sevuvchi" sifatida tanitgan. Bu mavhum so'zlar Erondagi reaksion siyosatchi arboblar tasavvurida aniq bir ma'noni ifodalaydilar.

"Mo'tadil siyosat" bilan "muvozanat" — Eronda o'zaro raqobat qilayotgan davlatlarni hozirgi paytdagi qudrat va tazyiqiga qarab ta'min etish, rozi qilish siyosatidir. Eronning taraqqiy qilishi va yuksalishiga zid bo'lgan bu siyosat Hikmat Isfahoniyning tobora keng savdo qilishi, mol-mulk orttirishidan tashqari yaxshi nom

chiqarishiga ham imkon berardi. U "vatanparvar", "eronparast", "Eron do'sti" deb nom chiqargan edi. Bu nom unga siyosiy vaziyat og'irlashib va ichki qarama-qarshiliklar kuchayib ketganda asqotar edi. Bunday paytlarda u "mo'tadil siyosat" tarafdori va buyuk siyosiy arbob Hikmat Isfahoniy bo'lib emas, "eronparast", "Eron do'sti" Hikmat Isfahoniy bo'lib maydonga chiqar edi. Shunda u reaksion doiralarga qarshi "kurash" boshlar, "oppozitsiya" tashkil qilar, matbuotda so'l shiorlar bilan chiqar va go'yo progressiv kuchlarni quvvatlaganday bo'lib ko'rinardi. Hatto ba'zan bu progressiv kuchlar bilan ittifoq ham tuzar, bu bilan o'z lageridagi raqiblarni qo'rqitar, yon berishga majbur qilardi, boshqa tarafdan esa qulay fursat kelishi bilanoq demokratik harakatni ichdan turib buzar, ustalik bilan xiyonat qilib, o'zining progressiv ittifoqchilaridan yuz o'girar, ularni qurol kuchi bilan mahv etishga da'vat qilardi.

London, Parij, Berlin va Nyu-Yorkda hamda Yevropaning barcha yirik shaharlarida uning o'z agentlari va homiylari bor edi, u hamisha o'shalar bilan aloqa qilib turardi. Eronning o'zida u Rizo shohdan keyingi eng badavlat odam edi. Tabrizda, Reshtda va Mozandaronda uning gilam to'qish fabrikalari bor edi. Bularning hammasi unga siyosat olamida maxsus mavqe yaratib bergan edi. Majlisdan tortib hukumatga qadar bo'lgan davlat apparatida uning qo'li yetmaydigan joy yo'q edi. Hatto Rizo shoh Paxlaviy singari xudbin va zolim hukmdor ham bu odamning ra'yi bilan hisoblashishga majbur edi.

Kurd Ahmad zohiran oliyjanob va muloyim ko'ringan bu odamga qarab, uning hayot yo'lini eslar ekan, go'yo ko'zi oldini to'sib turgan parda ko'tarilib, qarshisida jirkanch, vahshiy odam jonlanardi. Hayotning asl ma'no va maqsadlarini unutgan bunday odamlar pul va mol-u mulk uchun hech qanday pastkashlikdan qaytmas edilar! Dunyoda ularning yakka-yu yagona maqsadi bor edi: pul, pul va yana pul! Ularning Xudosi ham, oliy maqsadi ham shu.

Xizmatchi sheroz chilimni ko'tarib kirdi-da, hali ham gazetalarni ko'zdan kechirib o'tirgan Hikmat Isfahoniyga tutdi. Hikmat Isfahoniy boshini ho'tarib, gazetalarni bir chetga surib qo'ydi-da, bir kerishib olgach, chilimning nayidan tutib bir-ikki xo'rillatib tortdi, keyin chuqur entikdi.

— Oh, xo'p maza qildim-da! — deb yana siyosiy suhbatga qaytdi:

— Dunyoning vaziyati ko'zimga ancha tumanli ko'rinadi. Nemislar yer, mustamlaka talab qilmoqdalar. Polsha va Yevropaning boshqa davlatlari ertangi kunni o'ylab, noma'lum kelajak qarshisida titramoqdalar. Inglizlar o'z hokimiyat va ta'sirlarini yo'qotishlariga ko'zlari yetib zir yugurmoqdalar. Bolsheviklar esa o'zlarini tinch tutayotgan bo'lsalar ham, dunyoga zo'r vahima solmoqdalar... Yo'q, dunyoning vaziyatiga sira tushunib bo'lmay qoldi. Xuddi shuning uchun ham bizning mamlakatimizda tinchlik va xotirjamlik bo'lishi lozim. Turli avanturistlar va zararli fikrlarni tashuvchilarning ovozini o'chirish kerak!..

Aftidan, bu mulohazalar uning esiga Ozarbayjonni soldi. Qishloqdagi hodisani eslatdi.

— Xo'sh, og'oyi man, anovi bolshevik nima bo'ldi? — deb so'radi Hikmat Isfahoniy. — Esingdami? Ho' o'sha xirmonda g'alva ko'targan-chi! Oti nima edi, ayt-chi, oti nima edi?

Kurd Ahmad bu kutilmagan savoldan biroz esankirab qolganini yashirishga tirishib:

— Oti mening ham esimdan chiqibdi! O'zini jandarmlarga topshirib keldim. Xotirjam bo'lavering. Ali jandarmboshining qo'lidan odam uyoqda tursin, hatto ilon ham qochib qutulolmaydi...

— Siz yana sarhang Safoiyga ham bir xabar berib qo'ying. Bu jandarmlarning na kattasi-yu, na kichigiga — hech biriga ham ishonch yo'q. Bular yuztalikning bir uchini ko'rsa, onasini sotishdan ham toymaydigan xalq. Sarhangga xabar bering!

Hikmat Isfahoniy ko'zlarini yumdi-da, yana huzur qilib chilim chekdi.

Miyasini turli fikrlar va o'zini hayajon chulg'ab olgan Kurd Ahmad:

— Bosh ustiga, — deb javob berdi-da, ketmoq uchun o'rnidan qo'zg'aldi, lekin chilim nayini hamon og'zidan olmagan Hikmat Isfahoniy uni to'xtatdi:

— To'xta, og'o, mening senda ishim bor!

Kurd Ahmad istamaygina yana joyiga o'tirdi:

— Buyuring!

Hikmat Isfahoniy oyoqlarini uzatib, semiz gavdasi bilan kresloda yaxshiroq o'rnashib o'tirib oldi-da, chilimni yana ham qattiqroq tortdi.

— Og'o, ishlarimiz biroz chigallashib qolibdi. Shvetsiyadan olgan mollarimiz kelib-kelib, Basrada to'xtabdi. Iroqlik muttahamlarga ishonib bo'lmaydi. Dunyodagi besaranjomlikdan foydalanib, birovning molini o'zlariniki qilib olishdan ham toymaydilar... Xo'sh, siz bunga nima deysiz?

Kurd Ahmad hali ham uning gapni qayoqqa burayotganini tushunmadi. Shuning uchun u vazminlik bilan javob berdi:

— Og'o ijozat bersalar, biror odam yuboramiz.

Hikmat Isfahoniy go'yo bu suhbatni esidan chiqarib qo'ygandek, o'z-o'zicha so'zlandi:

— Bu og'oyi Gebbelsni ko'rayapsizmi, u mustamlaka qidirayapti... Bozor axtarayapti... Shundaymi, og'o?..

Kurd Ahmad o'zini eshitmaganga soldi. Dastro'molini olib, yuzini yelpiy boshladi:

— Havo juda isiyapti-da.

Hikmat Isfahoniy uyga ko'z qirini tashlab, yana ko'zlarini yumdi:

— Basraga kimni yuborishni mo'ljallayapsiz?

— Og'oyi Rashidiyni yuborsak, qalay bo'larkin? O'zi ancha ziyrak odam.

— To'g'ri kelmaydi, nashavonlik qilib, bizni sharmanda qiladi.

Hikmat Isfahoniy to'satdan chilimni bir tomonga surib qo'ydi-da, qaddini rostlab o'tirdi.

— Agar bemalol bo'lsa, taqsirim, shu ishni o'z bo'yningizga oling. Yuz ming tumanlik mol. Buni to'g'ri kelgan kishiga ishonib bo'lmaydi. Ertaga ertalab yo'lga chiqavering!

Kurd Ahmadning xayoliga e'tiroz qilish fikri keldi, biror bahona bilan bu vazifani zimmasidan soqit qilish haqida o'yladi. Lekin shu payt Hikmat Isfahoniy qat'iy bir harakat bilan o'rnidan turdi.

— Oq yo'l, og'o. Mollarning hammasini jo'natmay, qaytmang. Chatoqlik chiqsa, darhol telegramma bering. Men mister Tomasdan iltimos qilganman, bitta xat yozib beradi... Inshoolloh, hech bir ishkal chiqmas.

Kurd Ahmad Faridunni o'yladi. Xat tashlab ketmoqchi ham bo'ldi. Lekin tezda bu fikridan qaytdi. Ombor mudiriga tayinlab qo'ymoqchi bo'ldi. Ammo bunday qilish ham yaxshi bo'lmasdi. Tavakkal qilib, ketaverishdan boshqa chora yo'q edi.

Kurd Ahmad chiqib ketgach, Hikmat Isfahoniy ochko'zlik bilan chilim chekib, uning xurillashiga quloq solgan holda xalqaro siyosat hamda savdo-sotiq ishlarining istiqboli to'g'risida o'ylab ketdi. Chilim suvining ajoyib quldirashi unga rohat bag'ishlar, tinchlantirar edi. Uni mudroq bosa boshladi. Lekin shu payt eshik tomondan eshitilgan:

— Og'o ijozat beradilarmi? — degan tovush uning uyqusiga xalal berdi.

U kipriklarini ko'tarib, yarim ochiq eshikka qaradi-da, So'fi Eronparastning ichkari suqilgan boshini ko'rarkan, birdan qah-qah urib kulib yubordi.

— Iye, sen hali ham tirikmisan? — deb so'radi. — Qani, beri kel, gapirchi, qanday yetib kelding, yo'lda nimalar bo'ldi?

So'fi Eronparast unga yoqadigan turli-tuman yolg'on-yashiqlarni qo'shib, o'z sarguzashtini hikoya qilib berdi. Turli qiyinchiliklarga tushgani, og'oning yo'lida jonini ham qurbon qilishga tayyor ekanini aytish bilan so'zini tugatdi.

— Yaxshi bo'pti, — dedi Hikmat Isfahoniy, — bundan keyin Tabriz bilan Julfa orasidagi masofaning necha kilometr ekanini esingdan chiqarmaysan. Ayt-chi, esingda saqlaysanmi, yo'qmi?

— Qiyomatg'a qadar esimdan chiqmaydi, og'o!

— Qani bo'lmasa, ayt-chi: Tabriz bilan Julfa orasidagi masofa qancha?

— Uch yuz kilometr, og'o!

— Yana takrorla-chi!

— Uch yuz kilomert, og'o!

— Endi bor, gazetaga ham yoz, bundan so'ng sira esingdan chiqmasin!

So'fi Eronparast og'oni xursand qilganidan mamnun bo'lib:

— Xo'p bo'ladi, — deb chiqib ketdi.

Hikmat Isfahoniy chilimni xo'rillatib, yana ko'zlarini yumdi...

TO'RTINCHI BOB

Faridun o'z hayotida yangi bir davr, noma'lum kurashlar, iztiroblar, hayajonlar davri boshlanganligini sezar edi. U endi qonundan tashqari, oddiy grajdanlik huquqlaridan mahrum odam edi. Yangi muhit, davlat va mamlakat qonunlari doim uning boshi ustida yalang'och turgan qilichga o'xshardi. U o'z hayotining noaniq, turli-tuman qiyinchiliklar bilan to'la yillarida doim bu qilichdan ehtiyot bo'lishi, uning damiga duchor bo'lmaslik uchun harakat qilishi kerak edi. Ba'zan unga qishloq jandarmi qo'lidan qochmay, sud oldida turganda ahvoli bunchalik chatoq bo'lmaydiganday tuyular edi. Sudda u o'zini himoya qilar, arbobning adolatsizlik va qonundan tashqari harakatlarini sudyalarga ochiq aytib bergan bo'lardi. Bir burda nonga zor bo'lgan dehqonlarning og'ir va chidab bo'lmas hayotini tasvirlab, sudyalarning ko'nglini eritib, ularda dehqonlarga nisbatan rahm-shafqat uyg'otar edi... Shunda qalbining eng ichkarisidan chiqqan norozilik tuyg'ulari bu fikrlarni uzil-kesil rad etib, uning ko'nglida shubha uyg'otardi. Ularda haqiqat va adolat bormidi? Sudyalar Hikmat Isfahoniy bilan gumashta Mamadlarni qo'yib, uning gapiga quloq solisharmidi? Yo'q! Qochishdan boshqa chora yo'q edi. O'zining bo'ynini sirtmoqqa tutib berish ahmoqlik bo'lmaydimi? Faqat aqlsiz, o'z huquqini tanimagan, qo'rqoq odamgina o'zini bu ablah jandarmalar qo'liga topshirishi mumkin edi! Shusiz ham bu bechora mamlakatda har qanday pastkashlikka, har bir tahqirga bo'ysunuvchi baxtiqaro mazlumlar ozmi?

Yo'q, chekinish yo'li to'silgan! Endi orqaga qaytish yo'q! Shu kungacha uning hayoti, to'g'ri kelgan tomonga qarab oqaveradigan daryoga o'xshar edi. Endi u boshqa yo'ldan oqishi kerak. Lekin bu oqim uni qayerga olib borishini hali aniq bilmasdi.

Tehronga kelgandan so'ng, birinchi yakshanbadayoq Kurd Ahmad bergan manzilga bordi. Bu haqiqatan ham mol ombori edi.

Tinmay odamlar kelib-ketib turar va mollarni mashinalarga yuklab ketishardi. Lekin bu yerda Kurd Ahmad yo'q edi. Kelib ketayotgan odamlar bilan muomala qilishayotgan kishi undan:

— Og'oga qanday mol kerak? — deb so'radi.

— Men og'oyi Kurd Ahmadni ko'rmoqchi edim.

— Og'o Basraga ketganlar. Mollarimiz u yerda to'xtab qolgan edi, shuning uchun arbob u kishini Basraga yuborishni lozim ko'rdilar. Qachon qaytishlari noma'lum.

Keyingi kunlarda Faridun Tehronning iflos, chang ko'chalari, yarim xaroba uylar bilan to'la bo'lgan kambag'allar mahallasida yashab, kunlar va soatlarni sanardi. Bu yerda Tehronga kelganidan beri ko'chib o'tgan uchinchi joy edi. Dastlab katta hovlidan unga bir xona berishgan edi. Lekin u yerda Faridun ikki kungina yashadi. Uy xo'jasining o'g'li axloqsiz yigit ekan. O'ziga o'xshash bir necha ulfatlari bilan ichar, nasha chekar, to yarim kechagacha u qilmagan buzuqchilik qolmasdi. Ular hatto bir kun kechasi kelib Faridunning eshigini taqillatib, o'zlari bilan ulfatchilik qilishga chaqirishdi ham Faridun qattiq qarshilik qilganida, uni rosa haqorat qilib ketishdi, ertasigayoq Faridun u joydan ko'chib ketdi. Ikkinchi ko'chib kelgan joyi birinchisiga nisbatan ancha tinch bo'lsa ham sharoiti juda yomon edi; bu tagiga g'isht terilgan xona yarim yer-to'la bo'lib, o'lguday zax edi. Bundan tashqari biri-biridan kichik olti bolaning otasi bo'lgan uy xo'jasi har kun xotinining qo'lidan sudrab ko'chaga olib chiqib tashlar va "seni qo'yaman" derdi. Bolalar chuvvos ko'tarib yig'lashardi. Qo'ni-qo'shnilar yig'ilishib, er-xotinni yarashtirib qo'yishardi. Lekin ertasiga yana shu hangoma takrorlanar edi. Uchinchi topgan kvartirasi ancha tinch edi.

Faridun uyning nam tortgan burchaklari va tokchadagi idishlarga tikildi. Idish-tovoqlar orasidan chinni laganlar ham, sopol lampa ham, zang bosgan mis krujkalar ham bor edi. Nasriddin shohning rasmi tushirilgan chinni kosa uning diqqatini o'ziga tortdi. Uni qo'liga olib uyoq-buyoqlarini aylantirib tomosha qila boshladi. Tokchada turgan narsalar ichida eng qimmatli buyum shu edi.

Beli bukchayib qolgan, gapirganida kichkina ko'zlarini chirt-chirt yumadigan kampir ichkari kirib, kosani Faridunning qo'lida ko'rdi-da, titroq tovush bilan:

— Tomosha qilayapsanmi, o'g'lim? Yaxshilab tomosha qil. Bu juda qimmatbaho narsa!.. Ehtiyot bo'l, sinib qolmasin! — dedi.

Bu so'zlar kampirning og'zidan beixtiyor chiqib ketdi. Faridun kosani joyiga qo'ydi-da:

— Qo'rqma, ona, sindirmayman, — dedi.

Kampir yengil nafas oldi.

— To'g'ri, bolam, — dedi u, — dunyo moli hech narsaga arzimaydi. Hammasi yo'qolib ketadi. Lekin mol shirin-da. Devning joni shishada bo'lganidek, mening jonim shu kosada. Shu kosa singan kuni meni ham o'ldi deyaver! Men yangi kelin bo'lib tushganimda, qaynanamning birinchi sovg'asi shu edi. Men qaridim, uni hali ham asrab kelayapman. Shuning uchun bu kosa singan kuni men ham o'laman.

Pastakkina derazalardan ko'cha shovqin-suroni kirib xonani to'ldirdi. Mahsido'zning shogirdlari ishdan qaytmoqda edilar. Faridun har kun azonda shu deraza oldida turib ularning ishga o'tib ketayotganlarini kuzatib qolar, kechqurun esa yana shu yerda turib ularni qarshi olar edi. Demak, hozir soat yetti bo'libti. Endi Sarxonning ham ishdan qaytadigan vaqti bo'lib qoldi. Har hafta juma kuni kechqurun u xuddi shu paytda uyga qaytar edi. Kampir taxta kravat ustidagi yostiqni tuzatib qo'ydi. Mehribon ko'zlari bilan Faridunga qaradi:

— Nevara ko'rsam, kosani unga sovg'a qilsam, degan niyatim bor. Keyin tinchgina oyog'imni uzatib ketardim. Kelinim farzand ko'rmayapti, o'qitdim ham, tumor ham yozdirib berdim. Hech qanday foyda bermayapti!

— Nabira ko'rasan, ona, albatta ko'rasan. Hali Sarxon ham, kelining ham yosh.

— Qachon, axir? Kutaverib toqatim toq bo'ldi. Ajalim yetib o'lib ketsam, kosa...

— Oyi, yana kosa to'g'risida gapirayapsan, deyman-a?! — dedi uyga kirib kelgan Sarxon. U baland bo'yli, bronza rangli, baquvvat yigit edi. U Faridunga qo'lini uzatdi:

— Salom, onamning bu kosa to'g'risidagi gaplarini eshitsam yuragim siqiladi. Hammaga rahmim keladi. Har kim o'z hayotini bir narsaga bog'lab qo'ygan: biri oltinga, biri mol-mulkka, biri

davlatga... Inson o‘z qo‘li bilan yasagan narsalariga o‘zini-o‘zi qul qilib qo‘ygan, mol-mulk yo‘lida jon berishadi. Marg-e bunday hayotga!..

Faridun hozirgi yashab turgan uyining xo‘jayini, Tehron temiryo‘lining mashinisti Sarxonni ko‘pincha qovog‘i soliq, nimadandir norozi bo‘lib yurganini ko‘rardi. U go‘yo o‘zi bilan uyga qandaydir bir og‘irlik, diqqinafaslik olib kelardi. Onasining mehribon va muloyim chehrasiga darhol jiddiyat va tashvish cho‘kardi. Xotini Faridaning rangi o‘char, lablari allaqanday bir andisha va vahima bilan pir-pir ucha boshlar edi. Har ikki ayol ham shoshib qolishar, qo‘l yuvgichda suv to‘lami yoki yo‘q ekanini tekshirishar, Sarxonga kerakli narsalarni tez tayyorlab berishar, darhol samovarga olov tashlashar edi. Aftidan, ularning ikkalasi ham Sarxonning achchig‘i chiqib asabiylashishidan qo‘rqib, oyog‘i kuygan tovuqdek pitillab qolishardi. Faridun ularning qo‘rquvining sababi ikki xil ekanini sezdi. Onasining qo‘rquvida allaqanday muhabbat va itoatkorlik bor bo‘lib, Faridaning qo‘rquvida esa maxfiy norozilik va o‘jarlik bor edi. Sarxon hamisha charchoq va g‘azabli ko‘zlari bilan faqat onasigagina qarar edi, hechvaqt Faridaga qayrilib qaramas edi. Faridaning ko‘zlari ham doim yerga tikilgan bo‘lardi.

Faridun bu yerga ko‘chib kelganining uchinchi kuni edi. Sarxon ishdan qaytdi-da, indamay yuz-qo‘lini yuvib, ovqatlandi. Keyin Faridun bilan choy icha boshladi. Sarxon choyni juda yaxshi ko‘rardi, bir o‘tirishda olti-yetti stakan choy ichmay o‘rnidan turmasdi. Hozir ham beshinchi stakanni ichib, oltinchisini kutmoqda edi. Faridun bir stakan choydan so‘ng, gazeta o‘qiy boshladi. Eriga nisbatan kichkina ko‘rinadigan, lekin ziyrak va chaqqon bo‘lgan Farida oltinchi stakanni olib kelib, Sarxonning oldiga qo‘ydi. Birdan Sarxon go‘yo birov boshidan qaynoq suv quyib yuborgandek tutoqib ketdi. Faridaning qo‘lidan ushlab to‘xtatdi-da:

— Buni oborib otangning go‘riga to‘k! Men loyqa suv emas, choy ichmoqchiman, choy, — deb stakanni uloqtirib yubordi. Stakan devorga tegib, chil-chil bo‘ldi. Stakandan to‘kilgan choy Sarxonning qo‘lini kuydirdi. Bu uning battar g‘azabini qaynatdi. G‘azabdan o‘zini yo‘qotgan Sarxon nafrat nazari bilan qarab turgan xotinining yuziga bir urdi.

— Yo‘qol, ko‘zimga ko‘rinma!

Farida joyidan qimirlamadi. Yosh to‘la boshlagan ko‘zlari bilan unga qarab turaverdi. Eri yana urish uchun qo‘lini ko‘tardi.

— Yo‘qol deyapman senga. Bo‘lmasa bir uraman, til tortmay o‘lasan!

Farida bu yuzini o‘girib:

— Ur! Istaganingcha uraver!.. — dedi.

Bu javobdagi zarda Sarxonning battar g‘azabini qaynatdi. Qo‘lini havoda o‘ynatib, Faridani urish uchun unga yaqinlasharkan, Faridun o‘rtaga tushdi-da, uning qo‘lini ushladi:

— Uyat emasmi?! — dedi u, — Sen erkak kishisan-ku, axir!

Faridaning ko‘zidan ikki tomchi yirik yosh oqib tushdi. Lekin u yig‘lamadi, qichqirmadi, yiqilishni istamagan daraxt singari mag‘rur turardi. Sarxon Faridunni ko‘kragidan itarib yubormoqchi bo‘lib:

— Qoch! — deb qichqirdi.

Lekin Faridun bo‘sh kelmadi, uning ikki qo‘lidan mahkam ushlab, qat’iyat to‘la ko‘zlari bilan uning g‘azabli ko‘zlariga tikildi.

— Yaxshi emas, o‘zingni tut, o‘tir joyingga!..

Shu payt eshikdan kampir kirib keldi-da, titroq tovush bilan:

— Bu qanday gap, o‘g‘lim! Odam degan mehmon oldida ham janjallashadimi? — deb o‘g‘lini koyidi, keyin Faridaga qarab:

— Bor, qizim, sen narigi uyga chiq! — dedi.

Farida g‘azab va g‘urur mujassami singari indamay chiqib ketdi. Kampir stakan va tarelkaning siniqlarini yig‘ishtirib ola boshladi. Sarxon eshikni taraqlatib yopib, chiqib ketdi.

Ona Faridundan uzr so‘raganday:

— Unda gunoh yo‘q, — dedi, — charchab, horib keladi. Ishi ko‘p, na kechasi tinchlik bor, na kunduzi. Shu ham ish bo‘ldimi! Qamoqdan ham battar! Buning ustiga biri pul so‘raydi, boshqasi sovg‘a. Bermasa bo‘lmaydi — ishdan haydab yuborishadi. Bersa o‘zi och, xotini yalang‘och qoladi. Unda gunoh yo‘q. Ishda yana birorta ko‘ngilsizlik yuz bergandir. Alamini bechora kelindan oldi.

Faridun indamay quloq solib o‘tirdi. Kampir bo‘lsa yuragini bo‘shatishga odam topganidan xursand bo‘lib, so‘zida davom etdi:

— Eh bolam, xotin kishining umri it azobida o‘tar ekan. Rahmatlik otasi ham xuddi shunga o‘xshagan edi. Ishdan fe’li bu-

zilib kelsa bas'yo nondan, yo choydan bir bahona topib, meni urgani turardi. Birorta ham sog' qolgan qobirg'am bo'lmasa kerak. Bu ham xuddi otasining o'zi bo'ldi! Hamma kambag'allar ham shunaqa! Badavlatlarni bilmayman — ko'rmaganman, ishim tushmagan, ammo kambag'alning xotini kaltak yemagan kun yo'q. Bilmadim, bu dunyoda ro'shnolik ko'rgan biror xotin bormikin. Men eshitgan emasman. Qaysi xotinni ko'rmagin — hammasining boshida musht, ko'zida yosh.

Narigi xonadan Faridaning tovushi eshitildi:

— Gunoh o'zimizda. Bizni urib o'ldirsalar ham arziydi. O'zimizni bularga qul qilib berganmiz.

— Unday dema, qizim, — dedi kampir nasihatomuz, — xotin kishining Xudodan keyingi xo'jayini er bo'ladi. Er istasa o'ldiradi, istasa erkalatadi. Bu faqat birgina sening boshingda emas, hamma joyda ham shu.

Farida narigi xonadan yana gap qotdi:

— Yo'q, bunday emas. Bu baxtiqarolik faqat bizning boshimizda, xolos. Men kecha yana anavi muhojir qiz bilan gaplashdim. U Bokuda, butun Rossiyada xotinlarni urish uyoqda tursin, hatto ayollarga qattiq gapirishga ham hech kimning haqqi yo'q dedi. Xoh otasi bo'lsin, xoh eri bo'lsin, baribir! Erim bo'lsa, erligida tursin-da! Nima, u menga jon beribdimiki, jonimni oladi! Ishxonasidan alam o'tgan ekan, borsin, o'sha yerdagilarni ursin, menda nima gunoh!..

— Sen o'sha muhojir qizning gapiga ko'p quloq solaverma, bolam. Ruslarning qonuni boshqa, bizniki boshqa.

— Xudo ko'tarsin mening qonunimni! Bir kun qochib ketaman bu yerdan!..

Kampir indamay, kelini chiqib ketgan uyga kirib, o'rtadagi eshikni yopdi. Faridun yana uzoq vaqtgacha ularning tortishuvlarini eshitib o'tirdi. Faqat Sarxon qaytib kelgandan so'nggina, uyga og'ir jimlik cho'kdi. Bu oiladagi hayot va Faridaning isyonkor xarakteri Faridunning miyasida yangidan yangi fikrlar tug'dirardi. Uning qalbida beixtiyor ravishda bu xotinga nisbatan hurmat tug'ildi. Demak, yangi bir avlod dunyoga kelmoqda edi. Bu yangi avlod qalbida inson kabi yashash orzusi uyg'onmoqda. Sarxon

ertasiga ertalab indamay, hech kimga ham biron og'iz so'z demay ishga ketdi-da, to'rt kundan so'ng uyga qaytdi. Yana uning avzoyi buzuq edi, ko'zlari g'azab o'ti bilan yonar edi. O'sha kuni kechqurun uning qosh-qovog'i ochilmadi.

Kechasi narigi xonadan eshitilayotgan Faridaning tovushi Faridunning qulog'iga chalindi.

— Sarxon, Sarxon, uxlayapsanmi? — deb chaqirar edi. — Menga qara, senga gapim bor.

— Nima deysan? Xo'sh, gapir!

— Men sendan so'ramoqchi edim: men bu uyda kimman?

— Esingni yeb qo'yibsan, shekilli, — deb javob berdi Sarxon, yotgan kravati g'ijirlab ketdi.

Lekin Farida asta, ammo o'jarlik bilan davom etdi:

— Yo'q, men esimni yeganim yo'q. Axir qachongacha shu taxlitda yashaymiz. Axir, sen bilan men bir yostiqqa bosh qo'yganmiz-ku. Men tosh bo'lsam ham senga bir yordamim tegib qolar, axir. Bilaman, ishing og'ir, ro'zg'or sening bo'yningda. Nega sen o'z dardingni menga ochmaysan. Hech bo'lmasa g'amingni biroz yengillashtirarman, g'amingga sherik bo'larman. Men senga yomon taklif qilayotganim yo'q. Nega indamaysan, Sarxon.

— Yot, uxla!.. Gapni ko'paytirma! Sen bunday gaplarni ko'tara olmaysan!

— Sen menga aytib ko'r-chi avval. Ko'tara olmaymanmi, yo'qmi — ana shunda ko'rasan...

— Xotin, gapingdan boshqacha is kelayapti. Bunaqangi gaplarni sendan birinchi eshitishim.

— Yo'q, bu yangi emas, eski gap, ko'pdan beri yuragimda yig'ilib yotgan gap. Endi pichoq borib suyakka qadaldi!

— Xo'sh, nima demoqchisan?

— Aytmoqchimanki, men ham odamman. Sen bilan umr bo'yi yashashga roziman. Lekin, har bir ish, har bir narsani mendan yashiraverma, meni ham o'z dardingga sherik qil. Men ham senga yordamlashay. Ishdan kelganingdan to yana qaytib ketguninggacha qosh-qovog'ingni solasan, doim zaharlik qilasan. O'zingni qiynagan narsalar to'g'risida menga ham gapirib ber, ehtimol, men ham biror yordam berarman. Jilla bo'lmasa, dardingga sherik bo'laman-ku!

Faridun Sarxonning o'rnidan turib o'tirganini eshitdi.

— Xo'p aytaman, lekin ko'p jonimga tegaverma. Xo'jayin o'g'lini uylantirmoqchi. Unga to'yona uchun har birimiz ellik tumandan to'lashimiz kerak. Bo'lmasa, ishdan haydaydi. Ana endi nima deysan, qani endi ellik tuman emas, yigirma besh tuman topib ber-chi, bir ko'rib qo'yay dardimga sherik bo'lganingni. Xo'sh, nima bo'ldi senga, nega daming ichingga tushib ketdi?..

Farida uh tortdi.

— Xo'sh, nima bo'libdi! Buni menga aytgan bilan gunohkor bo'lib qolganing yo'q-ku! Juda bo'lmaganda, nima sababdan qiynalib yurganingni bilaman-ku!

— Bo'ldi endi, ko'p boshimni qotirma! Go'yo sen bundan xabardor bo'lishing bilan mening yukim yengillashdi-qo'ydi!

Sarxon boshqa hech narsa demadi. Farida esa yana ancha vaqtgacha gapirdi, eriga tasalli berdi, o'zi ham biror chora topishi mumkinligini bildirdi. Lekin eri hech qanday javob bermay uxlab qoldi. Ertalab ham hech narsa demay ishga jo'nadi.

U ketgandan so'ng Faridun bozorga chiqdi. Bir soatsozga qo'l soatini ko'rsatib:

— Qancha berasan? — deb so'radi.

Soatsoz bir Faridunga, bir soatga qaradi. Soatning uyoq-buyog'ini ko'rdi.

— Yaxshi tutibsan, yangi turibdi, — dedi, — to'qson tuman beraman.

Faridunning juda achchig'i chiqdi-yu, ammo Eron bozorlari qonun-qoidasini yaxshi bilgani uchun hech e'tiroz bildirmadi.

— Olaqol! — dedi...

Soatsoz unga taajjublanib qarab qo'ydi-da, to'qson tumanni sanab berdi. Faridun pulni olib, uyga qaytdi-da, kampirni chaqirib, o'ttiz tumanni unga topshirdi.

— Ol, ona, — dedi Faridun. — Ikki oylik uy haqini oldindan berib qo'ymoqchiman. Bilaman, Sarxonga hozir pul zarur.

Kampir qat'iy e'tiroz bildirdi:

— Yo'q, o'g'lim. Men sendan pul ololmayman, Sarxondan baloga qolaman.

Faridun qistadi, lekin kampir ko'nmadi.

— Sarxon kelsin, o‘zi bilan gaplash.

Yana to‘rt kundan so‘ng Sarxon ishdan qaytdi. Choy paytida Faridun Sarxon bilan gap boshlash uchun bir bahona axtarar ekan, uning o‘zi gap ochib qoldi:

— Og‘oyi Faridun, — dedi u biroz o‘ng‘aysizlanib, — meni kechiring. Tunov kuni biroz ahmoqlik qildim... Endi o‘zim ham pushaymonman. Janjalsiz uy, azobsiz go‘r bo‘lmaydi. Kechiring meni.

Uning ovozida g‘ayritabiiy muloyimlik bor edi. Ko‘zlari ham mehribonlik bilan boqar edi. Faridun darhol uning so‘zini kesdi:

— Men kechiraman, — dedi u. —Lekin siz Faridadan uzr so‘rashingiz kerak.

Sarxon unga hayron va jiddiylik bilan qaradi. Faridun uning ichida paydo bo‘lgan e’tirozning yuzaga chiqishiga yo‘l qo‘ymadi:

— Ha, Faridadan uzr so‘rashingiz kerak. Men shunday qilgan bo‘lardim. Umuman sizdan bir narsani iltimos qilmoqchi edim: bundan keyin u bilan bunday yomon muomalada bo‘lmang. Uni ham, o‘zingizni ham xafa qilmang. Bilaman, turmushingiz ham, ishingiz ham og‘ir. Lekin bu og‘ir hayotni yanada og‘irlashtirishning nima keragi bor? U sizning hayotingizga hech bo‘lmaganda ozgina baxt keltira oladi-ku. Nega shu baxtni ham o‘zingiz buzasiz, shusiz ham hayotingizda qayg‘u-hasrat to‘lib yotibdi-ku! Qalay? So‘z berasizmi?

Bu so‘zlardagi samimiylik va pokizalik Sarxonni Faridunga qo‘pol javob berishidan saqlab qoldi. U Faridunning gapiga indamay, biroz o‘ng‘aysizlanib quloq soldi.

— Endi sizdan ikkinchi bir iltimosim bor, — deb davom etdi Faridun. — Mana bu o‘ttiz tumanni oling. Ikki oylik ijara haqi. Oldindan berib qo‘ymoqchiman. Xabarim bor, hozir sizga pul juda zarur. Taajjublanmang va meni kechiring. Tunov kun Farida bilan gaplashganingizni beixtiyor eshitib qolgan edim. Ertasiyoq bu pulni onangizga bergan edim, qancha qistasam ham olmadi. Sizning ajoyib oilangiz bor. Ular bilan muomalangizni o‘zgartirsangiz, turmushingiz hozirgiga qaraganda ancha yengillashib qoladi, bu qadar og‘ir tuyulmaydi!

Bu shirin so‘zlar, Sarxonning nazarida tinch, shirin bir oilaviy hayot manzaralarini ochib yuborgandek bo‘ldi. Bu so‘zlardan

so‘ng u yumshadi, yengillashgandek bo‘ldi. Go‘yo bu so‘zlar uning qalbiga allaqanday issiqlik, quvvat bergandek, shodlik va muvozanat keltirgandek edi. U sakrab o‘rnidan turib, Faridunni quchoqlab o‘pdi:

— Sizga o‘xshagan odamni men hali hech uchratmagan edim, — dedi u.— Aka-uka bo‘lamiz...

* * *

Ertasi kuni Faridun barvaqt uyg‘ondi. U hali turib, kiyinib bo‘lmagan Sarxonning tovushini eshitdi:

— Farida, tur, — der edi u, — uyni yig‘ishtirib ol. Hozir Faridun ham turib qoladi... Siqilmasin.

Faridun bu so‘zning nimani anglatishini bilar edi. U tashqari chiqishi uchun Sarxonlar yotgan uydan o‘tishi kerak edi. Yanada to‘g‘rirog‘i, ularning ustidan bosib o‘tishi lozim edi. Chunki ular o‘zlarining yotoqxonalarini bo‘shatib bergach, bu xonaga o‘tiladigan uyga ko‘chib o‘tgan edilar. Ilgari bu xonada faqat kampirning o‘zi turardi. Bu uy qorong‘iligi va quyosh nuri tushmaganidan zax, rutubat hidi keladigan qafasga o‘xshagan bir xona edi. Faridun bu uyni faqat muhtojlik natijasidagina ijaraga qo‘yib, o‘zlari bir katalakka tiqilishganini sezgan edi. Sarxon o‘z ish haqi bilan ham o‘z oilasini, ham akasining tul qolgan xotinini uch bolasi bilan boqishga majbur edi. Lekin uy xo‘jalarining mehribonlik bilan muomala qilishlari, ularning Faridunga faqat bir ijarachi sifatida emas, balki yaxshi bir odam kabi qarashlarini, u bilan do‘stlashmoqchi ekanliklarini ko‘rsatar edi.

Sarxonning tovushi bilan uyg‘ongan kuni Faridun yana qaytib uxlay olmadi. Yostig‘i ostiga yashirib qo‘ygan kitobni olib, o‘qishga berildi. Bu kitobni bir kun bozorda bir kitobfurushning eski-tuski kitoblari orasidan tanlab olgan edi. Bu kitob Shayx Muhammad Xiyoboniyning nutqlar to‘plami edi. Faridun Xiyoboniy to‘g‘risida ayniqsa Tabrizda turgan vaqtida juda ko‘p eshitgandi. Lekin uning hech bir narsasini o‘qimagan edi. Bu nutqlar 1920-yilda Xiyoboniy Tabrizda demokratik harakatga boshchilik qilgan vaqtda so‘zlangan va zamondoshlari tomonidan aynan yozib olingan, keyinchalik nashr qilingan edi. Uni o‘qigan sari

ozodlikka chaqiruvchi dadil ovoz, Tehron zulmi va istibdodiga qarshi kurashga chaqiruvchi ovoz tobora baralla eshitilardi. Bu nutqlarda yangi hayot, yangi harakat va taraqqiyot to'g'risida juda ko'p gapirilardi. Lekin "bu hayot qanday hayot, uni qanday qilib qurish kerak?" degan savollarga javob yo'q edi. Kelajak va taraqqiyotga chaqirish ham ko'p xayoliy va anglashilmas edi. Faridun qancha vaqt o'qib yotganini bilmadi. Sarxon eshikni sekin-sekin taqillatib, boshini suqib qaraganini ko'rganida vaqtning allamahal bo'lib qolganini payqadi. Faridun Sarxonni ko'rib:

— Kir, kiraver, og'oyi Sarxon, — dedi. Sarxon ichkari kirib, salom berdi:

— Men ham aytdim-a, nega mehmonimiz bunchalik uzoq uxlab qoldi deb, — gap qotdi Sarxon. — Demak, turib kitob o'qib yotgan ekan-da, tur, tur o'rningdan birodar! Avval choy ichib olaylik, keyin menga desa kechgacha o'qi!

Faridun kitobni yopib tokchaga qo'ydi. Fikri o'qigan narsalarida bo'lganidan Sarxonga allaqanday mujmal nazar tashladi. Sarxon buni sezdi.

— Aftidan, qiziq kitobga o'xshaydi-a? Kiyin, choy ichamiz. Keyin menga ham o'qib berasan, — dedi-da, o'z xonasiga chiqib ketdi.

Faridun kiyinib, yuvinish uchun kichkinagina hovliga chiqdi. Kampir bilan Farida kirib, uning uyini yig'ishtira boshladilar. Choy ichdilar, juma kuni bo'lganidan Sarxonning ishga bormasligini bilib, Faridun kitobni qo'liga oldi.

— Quloq soling, nima gaplar yozilganini bir eshiting: "Qo'zg'al, ey xalq! Egilgan qaddingni ko'tar! Asrlardan beri seni bosib yotgan asorat va jaholat uyqusidan uyg'on! Zulm va istibdod zanjirlarini uz! Ozodlik va demokratiya yo'lini tut! O'z hayoting va o'z mehnatingning xo'jayini bo'l! Hayotingni shunday qurginki, taraqqiyot va baxtning eshigi senga ham, avlodlaringga ham ochilsin!"

Sarxon diqqat bilan quloq solib o'tirardi. U ko'pincha ma'nosini tushunmagan so'zlarining qandaydir nurli, baxtiyor kelajakka chaqirayotganini sezardi. U Faridani ham chaqirdi:

— Farida, beri kel! Sen ham quloq sol!

Farida kelib, uning yoniga o'tirdi. Faridun o'qir, tushunish qiyin bo'lgan ayrim joylarni tushuntirib berish uchun ba'zan to'xtar, shu bahona bilan o'z mulohazalarini ham aytar edi, o'zining ham hayajon va orzularini gapirib berardi. "Agar kichik kuch yaxshi uyushgan va haqiqat uchun qo'zg'algan bo'lsa, u juda katta kuchlarni o'z orqasidan ergashtirib keta oladi. Rossiyada Lenin rahbarligi ostida bolsheviklar tomonidan qilingan ishlar bunga ravshan misol bo'la oladi..."

Sarxon qalbidagi eng buyuk orzularini ifoda etmoqchi bo'lganday:

— Lenin!.. Rossiya!.. — deb yengil nafas oldi.

Faridun faqat ana shu so'zlardagina ravshan va aniq chaqiriq eshitdi: "Yaxshi uyushgan kuch... Lenin... Bolsheviklar...". Bu so'zlar unga Ozarbayjonni, xirmondagi voqea va Hikmat Isfahoniyni eslatdi. Hikmat Isfahoniy:

— Bu bolshevik ekan!.. Haqiqiy bolshevik! — deb qichqirgan edi.

Nima sababdan Hikmat Isfahoniylar bu so'zdan shunchalik qo'rqishadi? Nima uchun qonunning eng og'ir jazosiga uchramoq uchun shu birgina og'iz so'z kifoya qilarkin? Chunki bu so'zda ifoda etilgan "haqiqat uchun qo'zg'algan" tashkiliy kuchni ijod etgan kishi Lenin edi. Davlatmandlar ham Leninning buyukligini inkor eta olmas edilar... Musa akalar esa uni payg'ambar deb bilar edilar. Ana shuning uchun ham Lenin yaratgan ulug' kuch, o'lmas avlodning nomini tilga olganda, Hikmat Isfahoniyga o'xshash kishilar ilon chaqqanday to'lg'onadilar. Aftidan, Sarxonni ham hozir xuddi shu fikrlar band qilgan edi.

— Faridun, — dedi u. — Aytchi, nega bizning davlatimiz Rossiyani yaxshi so'z bilan tilga olgan odamni bunday qattiq jazolaydi? Biror kishini "bolshevik" deb qo'yilsa, bas — darrov uni dor ostiga sudraydilar. Bizning og'olar so'ziga qaraganda, Rossiya allaqachon to'zib ketishi, bolsheviklarning suyaklarigacha chirib ketishi kerak edi. Ammo u yerdan kelganlar Rossiya kundan kunga taraqqiy etayotgani, gullab-yashnayotgani to'g'risida gapiradilar. Nahotki bizning og'olarimiz shunchalik beorlik bilan yolg'on gapirishdan uyalmasalar?..

Faridun javob bermay turib, Farida gapga aralashdi.

— Albatta-da, davlatmandlar bolsheviklar to‘g‘risida yaxshi gap aytishmaydi! Ammo sen bilan menga o‘xshash o‘z qo‘l kuchi bilan kun ko‘ruvchilarning hammasi Rossiya to‘g‘risida, Rossiyadagi xalqning baxtli ekanligi to‘g‘risida gapiradi. Shunday emasmi, Faridun aka?

Hamisha muhtojlikda yashab ezilgan va yakkalab qo‘yilgan bu odamlarning yuragidagi yuksak tuyg‘ular Faridunni quvontirdi.

— Xuddi shunday, — deb javob berdi Faridun mehribonlik bilan. — Ma’lum bo‘lishicha, u yerdagi hayot biznikiga hech bir o‘xshamas ekan. U yerda bitta ham ishsiz odam topilmas ekan. Har kim istagan hunarining egasi bo‘la olar ekan. Barcha xalqlarning bolalarini tarbiyalaydigan ko‘plab maktablar, oliy o‘quv yurtlari bor. Sovet Rossiyasida eng katta rahbarlaridan tortib, eng oddiy dehqongacha teng huquqli. U yerda birovni urish uyoqda tursin, birovga tuhmat qilish ham mumkin emas! Shunday qilgan odamning ishini sudda ko‘radilar. Poraxo‘rlik, mansabdan foydalanish kabi harakatlar tag-tomiri bilan yo‘qotib yuborilgan!..

Faridun gapirar ekan, Sarxon bilan Farida bir-birlariga qisilishib quloq solishar edi. Faridunning so‘zlari ularni ertakday ajoyib xayoliy dunyoga olib ketardi. Ular Faridunning so‘zlarini eshitib to‘ymas, uning ko‘proq so‘zlashini istar edilar.

BESHINCHI BOB

Faridun dastlab Kurd Ahmadning kelib, uni biror ishga joylab qo'yishiga, yo'l-yo'riq ko'rsatishiga umid bog'ladi. Lekin kunlar o'tar, ammo Kurd Ahmaddan esa hamon darak yo'q edi. Faridun o'sha ombordan yana ikki marta xabar oldi, ammo Kurd Ahmad hali ham qaytmagan edi. Nihoyat, hadeb uni so'rayverib, odamlarga otning qashqasidek ma'lum bo'lib qolmaslik uchun o'zi chora axtara boshladi. Universitetda darslar boshlanishiga hali ikki oy bor edi. O'qishga kirganda ham baribir biror ish topishi lozim edi. Ishsiz yashab ham, o'qib ham bo'lmas edi. Tezlik bilan biror ish topmasa, tezda soatning puli ham tamom bo'lardi. U vaqtda istar-istamas Sarxon oilasiga qaram bo'lib qolishi turgan gap edi. Bunga yo'l qo'yib bo'lmasdi, albatta. Bir kun bo'lsa-da, ular hisobiga yashashni tasavvur etib ko'rgach, buning naqadar og'ir bo'lishini darhol tushundi. Lekin Tehronda u qanday ish topishi mumkin edi? Tabrizdagi singari boshlang'ich maktabda o'qituvchilik qilsa, juda yaxshi bo'lar edi-ya. Lekin bunga ham umid juda kam edi. Tehronda ko'pgina oliy ma'lumotli kishilarning ham ishsiz yurganliklarini bilardi. Vaholanki, u o'rta ma'lumotga ega edi. Shunday bo'lsa-da, u o'z baxtini bir sinab ko'rmoqchi bo'ldi. Uydan chiqib to'g'ri Maorif ministrligiga jo'nadi. U ministrlik binosi oldida ko'pgina ishsiz muallimlarni ko'rdi, Ular eshik tagida suhbatlashib o'tirishar, ichkari kirib chiqishar, kezib yurishardi. Ularning tashvishli chehralari, suhbatlaridan quloqqa chalinayotgan uzuq-yuluq jumlalar ham bularning ish axtarib yurgan muallimlar ekanidan darak berardi. Faridun ichki hayajonini bo'g'ib, o'zini bosib olishga harakat qilgan holda yoshgina bir muallim oldiga borib ish topish masalasida kimga murojaat qilish kerakligini so'radi. Muallim uni boshdan-oyoq ko'zdan kechirgach:

— Ma'lumotingiz qanday? — deb so'radi.

Faridun o'rta ma'lumotli muallimlar tayyorlash maktabini bitirganini aytdi. Muallimning chehrasida yengilgina istehzo alomati ko'rindi.

— Qayerliksiz?

— Ozarbayjonlikman...

— Azizim, — dedi muallim zaharxanda bilan, — hech kimga murojaat etmay qo'ya qoling. Boshqa ish topishga harakat qiling. Biror idoraga yoki kontoraga yozuv-chizuv ishi uchun olishsa ham do'ppingizni osmonga otavering! Mana men oliy ma'lumotga egaman, o'zim gilonliman, bir oydan beri har kuni shu dargohga kelib ketaman, lekin haligacha "erta keling — indin keling"dan boshqa javob olganim yo'q.

Faridun bu so'zlarga uncha parvo qilmay, ministrlikka kirdi. Undan-bundan so'roqlab, ministr sekretarini topdi. Sekretar baland bo'yli, ko'zoynak taqqan yigit ekan, moy surib taragan sochi qop-qora ko'rinardi. Uning oldida bir necha odam bor ekan. U bir vaqtda ularning hammasi bilan so'zlashar, lekin birontasining so'ziga ham diqqat bilan quloq solmas edi. Bittasiga chala yarim javob berar va darhol boshqasiga qarab, uning savolini kutardi. U oldida turgan odamlar ustidan Faridunga murojaat qildi:

— Og'o, siz nima deysiz?

Faridun ish axtarib kelganini aytdi. Sekretar ham ko'chadagi muallimning savollarini aynan takrorladi. Faridunning javobini eshitgach, miyig'ida kulib qo'ydi-da:

— Og'o, boshqa joydan ish axtaring, ovora bo'lib yurmang, — deb javob berdi, Faridunga qayrilib ham qaramasdan, keyin uning boshi ustidan orqadagi kishilarga murojaat qila boshladi:

— Og'o, siz nima deysiz?..

Faridun maorif ministrligidan horg'in va umidsizlangan holda chiqdi. U endi qayerga borishini bilmasdi. Shaharda bozor qizigan sari shovqin-suron avj olib bormoqda edi. Muyulishlardan birida, odam qaynagan joyda allaqanday savdogar bir juft ayollar paypog'ini uning naq tumshug'i tagiga keltirib:

— Og'o, a'lo amerika matosi, — deb maqtadi. Faridun indamay o'tib ketdi. Esini tanigandan beri unga yaxshi tanish bo'lgan bu shovqin-suronli, turli hiyla-nayrangga asoslangan bozor ha-

yoti unga oddiy bir narsa bo'lib qolgan edi. Lekin bugun bu hayot uning qalbida allaqanday bir vahima tug'dirdi. Xudosi ham, payg'ambari ham pul bo'lgan bu hayot go'yo insonning astar-avrasini ag'darib tashlardi. Insonni shafqatsiz girdob singari o'z qa'riga tortib qiynardi; goh yuqori ko'tarar, goh domiga tortib ketar va faqat o'lgan kishilarnigina sokin sohilga chiqarib tashlardi. Bu yerda ham girdobga tushganlar singari har kim o'z dardida edi. Qo'l-oyoqlarini qimirlatishar, biri hamrohining yoqasidan tutar, biri qo'shnisining oyog'iga yopishib tortar, faqat o'zini qutqarishga urinardi. Bu dahshatli, omonsiz hayot edi. Faridun hozir shu hayotning ostonasida turar edi. Bu yerda minglarcha mayda, yirik do'kondorlar bilan hech bir ishi bo'lmagan odamlar bir-birlariga aralashib ketgan edi; maqsadsiz, orzusiz hayot ularni o'z quchog'iga olib, sudrab borardi. Ular shovqin-suron qilib charchashardi. Faridun agar shu oqimga tushib qolsa go'yo o'z osmonidan ajrab qolganday bo'lardi. Jazirama oftobda ter to'kayotgan yuz minglarcha Musa akalar va qadoq qo'lli Sarxonlardan ajralib qolardi. Ularning hayoti Faridunga bo'sh sahrolar orasidan sokin oqib borayotgan keng bir daryoni eslatdi.

Lekin bu daryoning harakatsiz va sokin ko'rinishi orqasida naqadar buyuk quvvat yashirinib yotadi! Bu buyuk quvvatni uyushtirib, harakatga keltiruvchi, "qara, naqadar quvvatlisan!" deb uning qudratini o'ziga ko'rsatuvchi topilarmikin...

Katta bir bino Faridunning diqqatini o'ziga tortdi. U binoning eshigi ustiga ingliz va fors tillarida: "Angliya-Eron neft kompaniyasi" deb yozib qo'yilgan edi. Faridun xayolga toldi. Bu kompaniyaning vatan xoinlari va sotqinlar yetishtirishi, uning ishi pul kuchi bilan eronliklarning axloqini buzish ekanligi to'g'risidagi xalq ichida yuradigan hikoyatlarni esladi. Bu bino mamlakat badaniga yopishgan zulukday tuyula boshladi: uning iflos gavdasi tipirchilab, ochko'zlik bilan vatan qonini so'rmoqda edi... "Yo'q! Ochimdan o'lsam ham bu yerda ishlay olmayman. Xalqning qonini so'ruvchi zuluklarga xizmat qila olmayman!" deb o'ylagan Faridun nafrat bilan bu binodan uzoqlashdi. Lekin ish topish lozim edi! Birdan esiga, ehtimol, savdo va sanoat ministrligining biror shaxobchasida ishlash mumkindir degan xayol keldi.

Shu maqsad bilan savdo va sanoat ministrligi tomon yo'l oldi. Shveysar xo'mrayib uni boshdan-oyoq kuzatdi-da:

— Kimda ishingiz bor? — deb so'radi.

Faridun shveysarlarning tabiatini bilardi... Ular qisinib-qimtinib keladigan odamlarni ichkari kiritmaydilar. Shuning uchun u dadillik bilan:

— Og'oyi ministrda ishim bor! — deb javob berdi.

— U kishi yo'qlar.

— U holda o'rinbosariga uchrashaman, — dedi-da, shveysarga qayrilib ham qaramay, zinadan chiqib ketaverdi. Uzun zalga chiqdi. Xizmatchi uni sekretar yoniga yo'lladi.

Faridun eshikni asta taqillatib:

— Mumkinmi? — deb so'rab, ichkari kirdi. Bu xonada ustiga har xil qog'ozlar taxlanib tashlangan katta stol yonida o'tirgan cho'tir yuzli va o'rta bo'yli, keng yag'rinli sekretar boshini ko'tarib, unga bir qarab qo'ydi-da, yana egilib qog'ozlarni ko'zidan kechiraverdi. Faridun kelib uning qarshisida to'xtadi. Sekretar esa go'yo qarshisida hech kim yo'qday bamaylixotir o'z ishini davom ettiraverdi. Faridun uning yo juda parishonxotir, yoki g'oyat takabbur odam ekanligiga darhol tushundi.

— Og'o, meni sizning oldingizga yubordilar, — dedi u muloyimlik bilan sekingina.

Sekretar yana boshini ko'tarmadi. Hech narsa eshitmagandek o'tiraverdi. Qimirlamadi ham. Faridun, ehtimol, uning qulog'i og'irroq bo'lsa, deb o'yladi-da, balandroq tovushda:

— Og'o, meni sizning oldingizga yuborishgan edi, — deb takrorladi.

Sekretar bu safar ham go'yo hech gap bo'lmagandek hushtak chaldi, Faridunga qayrilib ham qaramay, bir dasta qog'ozlarni papkaga soldi-da, chetdagi oynali shkafga oborib, boshqa papkalar qatoriga qo'ydi.

Faridun birozdan so'ng yanada balandroq tovushda:

— Og'o, meni sizga yuborgan edilar! — dedi.

Sekretar birdan o'girilib, Faridunning qarshisiga keldi:

— Men kar ham, ko'r ham emasman! Hammasini ko'rib, eshitib turibman! — dedi-da, yana o'z joyiga o'tirdi. Shoshilmasdan

stol ustidagi qog‘ozlarni ham yig‘ib papkalarga joyladi-da, qo‘llarini qovushtirib Faridunga qaradi:

— Og‘oning nima xizmatlari bor? — deb so‘radi.

Avvalda Faridunning juda achchig‘i chiqdi. Sekretarni boplab so‘kib yuborgisi ham keldi. Lekin o‘zini tiyganidan so‘ng, bu yerga kelganiga afsus qildi. Endi esa sekretarning bunchalik boadab so‘zlar bilan unga murojaat qilganiga kulgisi qistadi. Sal jilmayib, kelishdan maqsadini so‘zladi-da, ministr o‘rinbosari oldiga olib borishini iltimos qildi. Sekretar o‘rnidan turdi:

— Og‘o, bunaqangi arzimas ishlar bilan ministr o‘rinbosarini bezovta qilish yaramaydi. Ovora bo‘lib yurmay, boshqa joydan ish axtaring. Biroz dastmoya topib biror do‘koncha oching, — dedi-da, xonadan chiqib ketmoqchi bo‘lganday eshik tomon yo‘naldi. Faridun istehzo bilan:

— Rahmat, yaxshi maslahat berdingiz, — deb chiqib ketdi. Tehronda ish topish va tirikchilik o‘tkazish naqadar qiyinligi yaratgan vahima qalbini yanada ortiqroq qamrab oldi.

* * *

Kunlar o‘tib borar, ammo Faridun ish topolmasdi. U ministrliklarga bordi, bir qancha yirik kompaniyalarga uchradi. Hech qayerda ish bermadilar. Kompaniyalardan birida keksa kishi uning iltimosini diqqat bilan tinglagach:

— O‘g‘lim, ish topish qiyin. Orqangda bironta suyanchig‘ing bo‘lmasa, hech kim senga ish bermaydi, — dedi o‘kinch bilan.

Shunga qaramay, Faridun umidsizlanmadi, kompaniya va idoralarni aylanaverdi. Shu taxlitda u aka-uka Suhayliylar firmasiga duch keldi. U kontoraga kirganda ovqat vaqti edi. Kontorada uch kishi bir stol atrofida palov yemoqda edi. Faridun buni ko‘rib, qaytmoqchi bo‘ldi. Lekin ulardan biri uni do‘kondor yoki mayda savdogar deb o‘yladi shekilli, darhol o‘rnidan turib, uning oldiga keldi:

— Marhamat, og‘o, marhamat, keling, qani ovqatga, — deb taklif qildi.

Faridun qip-qizarib ketib, rahmat aytdi. Boyagi kishi yog‘ bo‘lib ketgan barmoqlarini ko‘k hoshiyali ro‘molchasiga artar ekan, gapida davom etdi:

— Xizmatingiz bo'lsa ayting, bajarishga tayyormiz. Nima kerak edi? Bizda a'lo navli Kurdiston tamakisi bor...

— Men savdogar emasman, — dedi Faridun chiqib ketmoqchi bo'lib, — do'konim ham yo'q, — keyin ohista ilova qildi, — bir ish axtarib yuribman...

Suhayliy qiziqsinib:

— Qanday ish kerak? — deb so'radi.

— Idora ishi... yozuv-chizuv.

Suhayliy o'ylab qoldi.

— Qayerliksan, yigit?

Faridun baribir rad javobi olishni o'ylab, eshikka yo'nalar ekan:

— Ozarbayjonlikman, — deb javob berdi.

Suhayliy osh yeb o'tirgan birodarlari oldiga bordi.

Ular nima to'g'ridadir pichirlashar edilar.

— Fors tilini yaxshi bilasanmi?

— Ha.

Uch og'a-ini yana maslahatlashishdi.

— Ammo ish juda ko'p bo'ladi, hisob-kitob ishlari tartibli bo'lishi kerak.

— Shubhasiz.

— Qancha haq so'raysan?..

Faridun bu to'g'rida o'ylab ko'rmagan edi;

— Bilmayman, qancha to'laysizlar?..

— Juda soz, oyiga yigirma tuman. Uyog'ini yana ko'ramiz, yaxshi ishlasang yana oshiramiz, — dedi Suhayliy.

Faridun: "Og'o, men faqat ijara haqi uchungina o'n besh tuman to'layman", demoqchi bo'ldi-yu, yana bu ish ham qo'ldan ketmasin deb indamay rozi bo'ldi. Faridun og'a-ini Suhayliylar firmasi kontorasida ishlay boshladi, bu firma tamakifurushlik qilar edi. Suhayliylarning tamaki oladigan joylari asosan Ozarbayjon bilan Kurdiston edi. Ko'pincha ular vositachi savdogarlardan qochib, qishloqlar bilan bevosita aloqada bo'lib, tamakini ikki baravar arzonga olishardi. Bu vaziyat ularda ozarbayjon tilini biladigan biron odam uchun ehtiyoj tug'dirgan edi. Faridunni ishga olishlarining sababi ham shu edi. Agar Faridun g'ayrat bilan ishlasa, tadbirli bo'lsa, keyinchalik uni hamma kontraktatsiya ishlarini bitirib kelish uchun

vakil qilib Ozarbayjon bilan Kurdistonga yuborishlari mumkin edi. Suhayliylarning Faridun to'g'risida ana shunday rejalari bor edi. Faridun esa shuncha ovoragarchilik bekor ketmaganiga, ish topilganiga xursand, buni Tehronda joylashib qolish uchun birinchi qadam deb hisoblardi. U Suhayliylarning kontorasiga hammadan oldin kelib, hammadan keyin ketardi. Kun chiqqanidan to kun botguncha kuni shu yerda o'tardi. Topshirilgan ishlarni tartib va qoida bilan o'z vaqtida bajarardi; shirin so'zi va halol ishi bilan tezda Suhayliylar aloqa qiladigan savdogarlar va xaridorlarning hurmatini qozondi. Bu ham Suhayliylarni xursand qilardi. Suhayliylarning savdo ishlarida Faridunga qiziq va sirli ko'rinadigan ko'p narsalar ham bor edi. Ular davlat tamaki fabrikasini xom-ashyo bilan ta'minlardilar. Ammo bu fabrika bilan bo'lgan aloqalari ham Faridunga juda qiziq va sirli bo'lib tuyulardi. Faridun hamisha turli amaldorlarga o'n ming tumanlab pora va sovg'alar berish to'g'risidagi gap-so'zlarni eshitardi. Og'a-ini Suhayliylarning tamaki savdolariga bitta majlis deputati ham yaqindan ishtirok qilardi. Suhayliylar bu deputatning asosiy daromad manbai ekanini ochiq aytishardi. Faridunga hammasidan ham qiziq tuyulgan narsa Suhayliylarning hisob-kitob uchun ikki daftar tutishlari edi. Bu daftarlar Faridunga birinchi kundan boshlaboq topshirilgan edi. Bu daftarlardan biri rasmiy daftar edi, bunga barcha daromadlar deyarlik besh marta kamaytirib yozilardi. Bu daftar hamisha kontorada, katta Suhayliyning stoli ustidagi devorda osig'liq turardi. Ikkinchi daftarga esa haqiqiy daromadlar yozib borilardi. Bu daftarni Suhayliylar uchalasi ham har uch kunda bir diqqat bilan tekshirib chiqar va juda ehtiyotlab saqlar edilar. Faridun buning sirini bir necha daf'a so'ramoqchi bo'ldi-yu, lekin bu bilan xo'jayinlarning achchig'ini chiqarib qo'yishdan cho'chib, so'ramadi.

Bularning sirini bilib olishda Kurd Ahmad qanday yordam bergan bo'lardi-ya. Navbatdagi bozor kuni Kurd Ahmad bilan ko'rishmoq uchun Suhayliylardan ikki soatga ruxsat so'radi. Yana o'sha omborga bordi. U yerdagi xizmatchi Faridunni tanib holgan edi. Uni uzoqdan ko'rishi bilanoq:

— Og'oyi Kurd Ahmad hali ham kelganlari yo'q! — deb javob berdi.

Bu kishining diqqatini bunchalik jalb qilishni Faridun xatarli deb hisobladi. Har hafta bu yerga kelaverishi xavfli ekanini tushundi. Butun kunlarini Suhayliylarning kontorasida o'tkazar edi. Kechqurunlari esa, Sarxon uyda bo'lsa, u bilan suhbatlashib vaqt o'tkazar, bo'lmasa kampirning sodda, ammo ibratli hikoyalarini tinglardi.

* * *

Bir kun kechqurun ishdan qaytgan Faridun Farida bilan kampirni g'oyat hayajonli holda ko'rdi. Ayniqsa Farida qattiq hayajonda edi. Uning o'zini tutishda, harakatlarida allaqanday isyonkorlik va norozilik sezilardi. U Faridunning surishtirishini ham kutib o'tirmay, buning sababini gapira ketdi:

— Ey, Faridun aka, bu dunyoda naqadar yaramas ishlar bor! Shundan ko'ra odamning bir parcha tosh bo'lib yaratilgani ming marta yaxshi bo'lardi. Yurak-bag'ring o't bo'lib yonadi, yordam qilging keladi-yu, lekin qo'lingdan hech narsa kelmaydi.

Faridaning gap-so'zi ham, ishi ham, harakatlari ham doim qizg'in va ehtirosli bo'lardi. Uning so'zini kesmoqchi bo'lsangiz battar qizishish odati bor edi. Buni bilgan Faridun indamay quloq solib o'tirdi. Farida Bokudan kelgan muhojir qizning fojiasini hikoya qilib berdi. Farida u qizni juda hurmat qilar va bu hurmatini hech kimdan yashirmas edi. Faridun bu qizni sira ko'rmagan edi. Ammo Faridaning hikoyalaridan u qiz to'g'risida ma'lum bir tasavvurga ega bo'lgan va uning bir necha hovli narida yashashini bilardi. Ular 1930-yilda Bokudan ko'chib kelgan edilar. Ularning oilasi — ota-onasi, qizning o'zi va kichkina ukasidan iborat edi. Qiz Bokuda tish doktorlari tayyorlash texnikumini bitirgan edi. Eronga ko'chib kelishgach, barcha muhojirlar singari hamisha nazorat ostida yashardilar. Har haftada bir marta Politsiya idorasiga kelib, shaharda ekanliklarini bildirib turishlari lozim edi. Qizni necha bor politsiya idorasiga chaqirib:

— Siz bu yerga nima maqsadda kelgansiz? Bolsheviklar qanday topshiriq berishgan? — deb qayta-qayta surishtirganini, urib so'kishganini ham Faridaga aytib berardi. Ularning bunday qiyin ahvolini hikoya qilarkan Faridaning ko'zlari yoshlandi. Bugun

ularning uyiga politsiyachilar to'satdan bostirib kelib, butun oilani politsiya uchastkasiga olib ketibdi. U yerdan esa Arabistonga jo'natmoqchi ekanlar. Qo'qqisdan bostirib kelgan politsiyachilar ularni haqoratlab narsalarini ko'chaga ota boshlaganda, to'polonga qo'ni-qo'shnilar to'planishibdi. Farida ham o'sha yerda ekan. Muhojir qiz payt poylab u bilan xayrlashib, Faridani quchoqlab o'pibdi.

— Juda mehribon qiz!.. Juda ko'ngli yumshoq! Meni go'yo o'z tug'ishgan singlisi bilan ajrashayotganday bag'riga bosdi.

Farida o'zini to'xtata olmay, yana so'zida davom etdi:

— Mana bu kitoblarni berdi. Bularni ehtiyot qilib qo'y, nasib bo'lsa, qaytib kelsak qaytarib berarsan, — dedi. Jandarmalar topib olmasin deb hamisha yashirib yurar ekan... Qarang, tuproq ostida yotib qog'ozi ham sarg'ayib ketibdi.

Farida muqovalari ezilgan, chetlari yirtilgan va zax hidi kelib turgan to'rtta kitobni Faridunga berdi. Faridun kitoblarni varaqladi. To'rttala kitob ham Bokuda arab alifbosida nashr qilingan edi. Ikkitasi meditsina kitobi bo'lib, uchinchisi, qalini, Jiovonolining "Spartak" romani edi.

Undan biroz kichikroq kitobning-birinchi betining tepasiga "Maksim Gorkiy" deb, o'rtasiga esa "Ona", deb yozilgandi. Faridun Maksim Gorkiy to'g'risida ko'p narsa eshitgan edi... Uning kitoblari Eronda ta'qiq qilinganligini bilar edi. Maksim Gorkiy degan ulug' yozuvchi borligini xalqdan yashirish mumkin emasdi! Gorkiy haqida gapirar edilar. Yuqori doiralar va rasmiy matbuotlarda Gorkiy to'g'risida bo'ladigan gaplar tanqid va tuhmatdan iborat bo'lardi. Lekin tanqidchilarning xatti-harakati va ohangi, bu tanqidlarning qudratli, yiqilmaydigan azamat bir narsaga qarshi qaratilganini bildirar edi. Ular Gorkiyni juda yomon ko'rar, lekin uni rad qilishga ojizlik qilishardi. Gorkiy Faridun uchun hali kashf etilmagan, lekin yer sharining allaqaysi bir yerida jo'sh urayotgan okeanlar ichidagi sirli hayot kechiruvchi ulug' orol edi. U qandaydir bir gazetada Gorkiy to'g'risida yozilgan maqolani o'qigan edi, maqolada Gorkiy dinsiz, Xudosiz odam deb yozilgan edi. U shu qadar xudosiz kishiki, hatto o'zi yangi bir din, yangi bir xudo yasab olgan.

Uning dini butparastlikni ham, xristianlikni ham, musulmonlikni ham tan olmaydi. Uning xudosi nihoyatda qahrli bo'lib, insonlarning shu vaqtgacha muqaddas hisoblab yurgan narsalarining hammasini rad qiladi. Axloq va tasavvur normalarini buzadi. Insonlarni allaqanday qonunsiz, betartib olamga tortadi. Gazetaning bundan gaplari gazetxonlarni qo'rqitib, yuragiga mavhum vahima solsa-da, lekin tag'in qandaydir bir qiziqish ham uyg'otardi. O'sha yangi xudo yaratgan jasur odamning kimligini bilging keladi. Hech bo'lmaganda uni bir marta ko'rib, so'zlarini eshitging keladi. Dastlab Gorkiy to'g'risida faqat yomon gaplar eshitib yurgan chog'laridayoq Faridunning qalbida xuddi shunday orzular uyg'ongan edi. Keyinchalik bu to'g'rida boshqa odamlardan boshqacha gaplarni eshitib, bu orzular yanada ortdi. Bu odamlarning gapiga qaraganda, Gorkiy buyuk san'atkor edi. U haqiqiy hayotni shunday haqqoniy va chuqur tasvirlab ko'rsatganki, ungacha hech kim hayotni bunchalik chuqur ko'rsata olmagan.

Uning qo'liga tasodifan tushib qolgan "Ona" romani bu qadar qarama-qarshi fikrlar yurgan uning avtori bilan yaqindan tanishish uchun imkon berardi. Bu juda yaxshi bo'ldi! Kitobni ochmasdanoq qalbida mehr-muhabbat hislari paydo bo'ldi. Ona! Ona haqida roman yozgan kishi naqadar buyuk, naqadar mehribon qalbga ega bo'lishi kerak.

Faridun darhol uch kitobni Faridaga qaytarib berdi.

— Bu kitoblarni yashirib qo'y! Bunisi esa menda turatursin, keyinroq berarman!

Kitob birinchi sahifasidan boshlaboq uni o'ziga jalb etdi. Kitobni o'qigan sari unda tasvirlangan ishlar uzoq bir joydagi ishchilar slobodkasida yashaydigan notanish odamlarning tasviri emas, balki jonli hayotday tuyuldi. Bu allaqanday tanish, yaqin bir hayotning manzarasi. Asarda og'ir mehnat qilib charchagan, ruhan ezilgan, qayg'u-hasratda turmush kechiradigan odamlar tasvirlangan edi!.. Ular ishdan qaytgach xotinlari bilan janjallashar, ularni sira ayamasdan kaltaklashar edi. Faridun bularning naql va hikoya emasligini payqab turardi. Bularning hammasini qayerdadir uchratgan edi. Faridun o'qigan sari asar uni ulug' bir daryo

kabi o‘z bag‘riga tortib borar edi. Ba’zi so‘zlar unga tushunilmaydiganday tuyulardi. Bu so‘zlarni u birinchi marta eshitayotgani yo‘q, albatta. Yo‘q, u so‘zlar unga ona allasidan ham yaqinroq edi. Lekin ular bu kitobda eng oddiy ma’nodagi so‘zlardan ko‘ra ahamiyatli, yanada chuqurroq ma’noli so‘zlarga aylanib borar edilar. Faridun shu ma’noni anglab olishga tirishardi. Har bir fikrni tushunib olishga harakat qilar, ba’zi jumlalarni qayta-qayta o‘qirdi. Go‘yo birov qo‘lidan yetaklab, ko‘chama-ko‘cha aylantirib yurar va uylariga olib kirib: “Ko‘rdingmi? To‘g‘rimi? Sen bilgan hayotga o‘xshaydimi?” — deb hayot manzalari va insonlar yuragidagi dardini ochib ko‘rsatar edi. Mixail Vlasovning turmushini ko‘rgach, o‘z tirikchiligini ko‘z oldiga keltirdi. Shundan so‘ng u Sarxon va Sarxop kabilarning qo‘polligi va g‘azabining asl sabablarini chuqurroq tushuna boshladi. Gorkiy: “Bunchalik tubanlashib ketishga hamisha ham odamlarning o‘zi sabab bo‘lavermaydi”, — deb yozgan edi, buni o‘qir ekan: xo‘sh, u holda kim javobgar bunga? — deb o‘ylanib qolardi. Nega insonlar bir-birlariga bu qadar yomonlik qiladilar? Bir-birlarini ezadilar, uradilar, tahqir qiladilar? Bir-birlarining izzati nafsini, nomusini yerga bukadilar, poymol qiladilar, hayotini zaharlaydilar? Bunga kim sababchi? Kim gunohkor? Ona bilan suhbatlashar ekan, hazilkash Fyodor Mazin aytadi:

“Asosiy gunohkorlar va xalqni chaqadigan zaharli gazandalar bo‘yni yo‘g‘on odamlardir. Fransuzlar ularga yaxshi ot qo‘yganlar: burjua... Yodingizda saqlang, onajon, burjua... Ular bizni chaynab-chaynab, siqib qonimizni ichadilar.

— Demak, davlatmandlar — deb qo‘ydi ona.

— Ha, davlatmandlar!..”

Gunohkorlar har yerda ham xuddi ana shulardir. Bo‘yni yo‘g‘onlar, davlatmandlar!..

Ularni yo‘qotmoq uchun odamlarni uyushtirish, ularni o‘qitish, o‘rgatish kerak. Ularga hayotni o‘zgartirishni, o‘zgartirganda ham birdaniga abadiy yaxshilash uchun o‘zgartirish lozimligini tushuntirmoq kerak. Odamlarning ko‘pchilik qismi ezilgan, ruhsiz va taqdirga tan bergan kishilar edi. Gorkiy buni izohlab beradi: “Bu odamlar turmushning hamma vaqt bir xilda ezishiga

ko‘nib qolganlar va yaxshilash mumkinligiga sira ishonmaydilar, har bir o‘zgarish zulmning tobora ortib borishiga xizmat qiladi deb o‘ylaydilar”. Yo‘q, bu hayotni o‘zgartish lozim. Gorkiyning “Ona”si Faridun qalbida uyg‘otgan birinchi fikr ana shu bo‘ldi. Bu Faridunning qalbida uyg‘ongan harakat qilish to‘g‘risidagi dastlab his edi. Uni keyingi paytda qiynagan, rohatini buzgan, anglashilmas, noma’lum, chigal bir savolga javob topilgan edi. Shu paytgacha u ko‘r-ko‘rona, ko‘zi bog‘liq holda harakat qilgan edi. Endi esa qo‘liga atrofni charog‘on qilib yuboradigan mash’al tushgan edi. Bu mash’al hayotning qorong‘i burchaklarini yoritar, turmushning ustidan tumanli va ko‘zni aldaydigan pardalarni ko‘tarib, ko‘p sirlarni oshkor qilardi. Hikmat Isfahoniylar, gumashta Mamadlar, Ali jandarmboshilarning haqiqiy basharasi, hokim sinflar va malaylarining barcha kirdikorlari bu mash’al yorug‘ida yaqqol ko‘rinardi. Bu gal Musa akalarning, Sarxonlar va Hasanalilarning, butun borlig‘i bilan g‘am-alamga botgan, bechora Sariyalarning, Madinalarning hayotini yanada aniqroq ko‘rsatardi. Faridunning nazarida butun dunyo ikki — bir-biroviga zid lagerga bo‘lingani manzarsi ochildi: bu lagerlardan biri mehnatkash, qadoq qo‘lli, hayotdagi barcha noz-ne’matlarni yaratadigan millionlar lageri edi. Bu lager dini, tili, odatlari va e’tiqodidan qat’iy nazar, barcha mehnatkashlarni birlashtirar edi. Ular orasida qon-qarindoshlikdan ham yaqinroq birodarlik yaratar edi. Dunyoning hamma burchaklarida ham ularning hayoti, tilak-orzulari va maqsadlari bir xil edi. Xoxolning so‘zlari Faridunding ko‘nglidagilarni ifoda qilib berar edi:

“Biz uchun millat ham yo‘q, qabila ham. Faqat do‘st bor-u, dushman bor. Hamma ishchilar bizning do‘stimiz. Hamma boylar, hamma hukumatlar bizning dushmanimiz. Dunyoga bunday bir nazar tashlasak yer yuzida bizlarning, ya’ni ishchilarning naqadar ko‘pchilik ekanimizni ko‘rasan — qalbing shodlik bilan to‘ladi. Onajon, fransuz ham, nemis ham hayotga bunday nazar solsa xuddi shunday xursand bo‘ladi. Italyan ham bunga xursand. Biz hammamiz bir onaning bolasimiz. Bu ona — yer yuzidagi barcha mamlakatlarda yashaydigan mehnatkash xalqning buzilmas birligi to‘g‘risidagi fikrdir. Bu fikr yengilmasdir, bizni ilhomlantiruvchi-

dir. Adolat osmonining quyoshi o'shadir. Bu osmon esa mehnatkashlarning yuragidadir".

Bular Faridun uchun tamoman yangi fikrlar edi. U hamisha yer yuzidagi barcha insonlarning ozod va yaxshi yashashini orzu qilardi. Lekin bunday hayotga qanday qilib erishishni bilmasdi. Unga bu yo'lni Gorkiy ko'rsatib berdi. Shunday hayotni yarata oladigan azamat kuchni unga tanitdi. Bu yo'l Pavel Vlasovning yo'li edi. Bu yo'l qiyin va xavfli yo'l edi. Bu yo'lda turmalar, sudlar, xavf-xatarlar bor edi. Lekin u ozodlikning, qutulishning yagona yo'li edi — kurash va omonsiz urush yo'li edi. Faridun muhojir qizning Faridaga hikoya qilib berganlari bilan bu kitob o'rtasida bog'liqligi borligini payqadi. Shimoliy chegaraning narigi tomonidagi ozod mamlakatni ana shu yo'ldan borib qurganlar. Bu yo'ldan borishni uddasidan chiqmagan kishilar dunyoning zulmi ostida ezilmoqdalar... Bu yo'l jasoratli odamlarning yo'lidir, e'tiqodi zo'r va qo'rqmas kishilarning yo'lidir.

"Haqiqatning kuchiga ishonmaydiganlar chetga chiqsinlar! Haqiqat yo'lida oxirigacha kurashishga jur'at eta olmaydiganlar chetga chiqsinlar! O'ziga ishonmaydigan va qiyinchiliklardan qo'rqadiganlar chetga chiqsinlar!" — degan so'zlar ularning shioridir.

Bunday jasur kishilar uning vatanida yo'qmidi? Bor edi... Xalq yo'lida, ozodlik yo'lida o'limdan qaytmaydigan kishilar ko'p edi. Ammo vatan asorat ostida, Musa akalar, Sariya xolalar, Sarxonlar huquqsiz qullardek kun kechirardilar. Ularning g'azabi toshsa o'zlarini yemirardi. Chunki ularni birlashtiradigan, uyushtirib yo'l-yo'riq ko'rsatadigan kitobi yo'q edi. Mardlik bilan ozodlik bayrog'ini yuqori ko'tarib, ularni orqasidan ergashtiradigan hamda:

"Yashasin sotsial-demokratik ishchi partiyasi, bizning partiyamiz, o'rtoqlar, bizning manaviy vatanimiz!" — deb shior tashlaydigan Pavel Vlasov kabi odamlar kerak edi.

Yo'q, Eronda ham Pavel Vlasovlar ko'p edi. Lekin ularni uyushtiradigan, yo'lga soladigan tashkilot yo'q edi. "Ma'naviy vatan" yo'q edi.

Borgan sari Faridunning fikri oydinlasha bordi. Qat'iy bir qaror tug'ilib kelmoqda va uning butun borlig'ini egallab olmoq-

da edi. Tokay o'g'ri kabi qo'rqa-pisa, qonunlardan yashirinib yashaydi, axir odamlarni qulga aylantirib qo'ygan bu qonunlarni, bu tartibni mahv etib, yangi qonunlar yaratish lozim edi. U sekin-sekin vatanning eng jasur, eng asl farzandlarini to'plab, bir maqsad atrofiga yig'a borish lozim degan qarorga keldi. Bu odamlar bir kun xalqning oldiga chiqib:

— Qo'zg'aling, istibdodni mahv eting! Yashasin ozodlik va mehnat olami! —deyajaklar.

Faqat ana o'shandagina Faridun boshini tik ko'tarib erkin yura olar, faqat o'shandagina faxr bilan: "Bizning ham tashkilotimiz bor, ma'naviy vatanimiz bor!" deya oladi. Faqat o'shandagina xalq oldiga chiqib Nikolay singari:

— O'rtoqlar! Biz yangi ideal yo'lida kurashga otlandik. Bu ideal nur va haqiqat idealidir, ong va baxt idealidir! — deb ayta oladi.

Demak, gazetalar xato qilishmagan ekan. Gorkiy haqiqatan ham ular uchun qo'rqinchli ekan, chunki u mehnatkashlarni yangi bir ideal yo'lida kurashga chaqirardi. Bu idealning butun dunyoda g'alaba qilishi uchun qurbon bo'lish baxtdir! Chunki hamma davlatmandlar, Hikmat Isfahoniy va mister Garoldga o'xshaganlar shundan, shu yangi idealdan qo'rqadilar!

OLTINCHI BOB

Tehron pasttekisligida bo'ron o'kirmoqda edi. Birdan qo'zg'alib, osmonga bir necha qora bulut parchasini surib kelgan bu dahshatli shamol shaharni chang va to'zonga ko'mib yubordi. Biroz sarg'aygan va yuzini tuman bosganday ko'ringan quyosh hamon atrofga olov sochmoqda. Ola-bula bulutlar quyoshdan ancha uzoqda suzib, shahar ustiga emas, Zarganda bilan Shimronga soya solardi. Shamol shahar ko'chalarida, uylarning tomida, ayvonlarda guvullab o'ynar, issiq va dim havoga quruq va achchiq chang-to'zonni aralashtirib, odamlarning beti-ko'zi va boshiga keltirib sochardi.

Kunning nihoyatda issiq va dimligidan eshik va derazalarni bekitib o'tirib bo'lmasdi, ochiq derazalardan esa uyga bo'ron o'zini urar, uni chang va qum bilan to'ldirardi.

— Sharqning ajoyibotlari shunday! Ham tishini g'ijirlatadi, ham kulimsiraydi — deb fon Valter derazalarni yopdi. U xonaning burchagiga qo'yilgan elektr parrakning hammasini baravar yurgizib yubordi-da, odati bo'yicha, devorga osig'liq kichkinagina dumaloq oynaga qarab, yana sochlarini silay boshladi. Oynada kal boshi battarroq yaraqlab ko'rindi. Uning boshida faqat nomigagina soch bor bo'lib, ular ham boshining atrofi va quloqlarining ustidagina qolgan edi. Bir vaqtlar u boshi atrofidagi sanog'lik tuklarni o'rtaga tarab, yuragini g'ash qilib turadigan yaltiroq boshini sal bo'lsa ham bekitishga urinardi. Lekin vaqt o'tishi bilan boshidagi o'sha sanog'lik tuklar ham shunchalik siyraklashib ketdiki, boshining o'rtasidagi yarqiroq qismini yashirishning hech iloji qolmadi. Boshi atrofidagi siyrak tuklarni silash fon Valter uchun ermak va odat qatoriga kirib qolgan edi. Kayfi chog' paytlarida oyna oldida hushtak chalib, uzoq vaqtgacha sochlarini silliqlardi. Biron bir suhbat qilayotgan paytda biror muvaffaqiyatli gap aytsa, yoki biror gap unga yoqsa, allaqanday bo'g'iq bir tovush bi-

lan kulib, darhol boshidagi siyrak tuklarini silay boshlardi. Uning kulgisi ham kulgiga o'xshamasdi. Go'yo tomog'iga bir narsa tiqilib qolganday qandaydir yoqimsiz "xi, xi, xi" degan tovushlar eshitilardi. Fon Valterni yaqindan bilganlar, u kulishni bilmaydi der edilar. O'zi ham buni inkor etmasdi. Lekin fon Valterning suhbatdoshi uning qo'lidan ko'z uzmas edi. Chunki qo'llari boshiga tomon ko'tarilsa — bas, demak, so'z fon Valterga ta'sir qilgan bo'lardi. Suhbatdan mamnun bo'lgan paytda u siyrak sochlarini shoshmasdan, sekin silab o'tirardi. Mabodo suhbat unga yomon ta'sir qilgunday bo'lsa qo'llari sochi ustida tez-tez yura boshlardi.

Fon Valterning kichkinagina yumaloq gavdasiga nisbatan kallasi juda katta ko'rinardi. Sariq baroq qoshlari ko'zlarini to'sib qo'yardi. Shuning uchun bir narsani ajratib olish qiyin edi: uning ko'zlari juda botiqmidi, yoki qoshlari o'siqmidi? Uning lablari tashqi qiyofasiga munosib qalin, do'rdoq edi. Uning faqat nozik, qirra burnigina o'ziga yopishib tushmas, uning boshqa azolaridan o'zining ko'rkamligi bilan ajralib turardi.

U elchi bilan birga Rizo shoh huzuridan hozirgina qaytgan edi. Bu uchrashuv Ribbentropning imzosi va Gitlerning roziligi bilan kelgan telegramma asosida uyushtirilgan edi. Ribbentrop ularga shoh bilan nazokat va xushmuomalada bo'lish, joyi kelganda latifalar aytish, xushomad qilish, hatto doim jilmayib turib so'zlashish lozimligini yozgan edi. Bu uchrashuvdan maqsad — Eron bilan Germaniya o'rtasidagi savdo ishlarini yanada kengaytirish, Germaniyaning Eronga yangi mutaxassislar yuborishiga va Eron armiyasiga yordam berishga shohning roziligini olish edi. Rizo shoh ularni marmar saroyida qabul qildi. Uchrashuv vaqtida faqat saroy vaziri Hakim ul-mulk hozir bo'ldi. Bu narsa uchrashuvga shohning nihoyatda katta ahamiyat berganini ko'rsatardi.

Fon Valter bilan elchi shohning xonasiga kirganlarida, u katta xarita osig'liq turgan devor yonida xayolga cho'mib turardi. Ularni ko'rgach, ikki qadam yurib oldin elchining, keyin fon Valterning qo'lini siqdi. Fon Valter shohni boshdan-oyoq ko'zdan kechirdi. Shohning egnida oltin pogonli harbiy kitel, oyog'ida esa yaraqlagan etik. Uning bo'yi novcha, qo'llari serjun va qora

basharasi jiddiy va qovog'i soliq edi. Faqat ko'zlaridagina tabassum alomati bo'lgan sun'iy bir muloyimlik bor ediki, u ham kul ichida so'nib borayotgan cho'g'ni eslatardi.

Elchi shohga Gitler bilan fon Ribbentropning salomini topshirdi.

— A'lohazratning fikrlari, harakat va faoliyatlari Germaniya bilan Eronni ma'naviy jihatdan birlashtiradi va ular o'rtasida ruhiy yaqinlik yaratadi, — dedi elchi. — Ikki davlat orasidagi ideologik birlikka asoslangan do'stlik mustahkamdir.

Shoh tashakkur bildirgandan so'ng, Gitler va janob tashqi ishlar ministriga o'zining salomini yetkazishni iltimos qildi.

— Janobi Gitlerning qat'iy harakatlari bizga yoqadi, — dedi shoh. — Xalqaro munosabatlarda buzib tashlanishi lozim bo'lgan ko'pgina bitimlar bor. Eski bitimlar bekor qilinishi kerak. Germaniya — Yevropada, Eron — Sharqda o'zlarining ilgarigi qudratlarini tiklashlari zarur!

Fon Valter so'zga aralashdi:

— Bizning ham istagimiz xuddi shunday, — dedi u, xaritaga yaqinlashib va qo'lini Germaniyaning ustiga qo'ydi. — Bu tor yerda qisilib yotibmiz, nafas ololmaymiz.

Xarita ustini yopib qo'yayotgandek bir harakat bilan qo'lini sharq mamlakatlari ustidan surib o'tdi:

— Bizga yer kerak, qanotimizni yoyish uchun maydon kerak.

Rizo shoh uni boshdan-oyoq ko'zdan kechirgach, qo'lini uning yelkasiga qo'ydi:

— Maqsadingizni juda yaxshi tushunamiz, — dedi u.— Germaniyaning bu orzularini biz ham qo'llaymiz. Dunyo qaytadan taqsimlanishi kerak.

Elchi Rizo shohning maqsadini tushundi:

— A'lohazrat haq gapiradilar, — deb gap qotdi elchi. — Fyurer butun dunyoda yangi tartib o'rnatadi. U buni Yevropadan boshlaydi, so'ngra Sharqqa ko'chadi. Eron o'zining bir vaqtlardagi mavqeyini tiklaydi.

Hali ham ko'zi xaritada bo'lgan fon Valter qo'lini O'rta Osiyo ustida yurgizib, Kaspiy dengizi ustidan o'tkazdi-da, to'g'ri Boku ustida to'xtadi:

— Germaniya bilan Eronning manfaatlari bir xildir, — dedi u, — sizga ham, bizga ham yer kerak. Biz sharqqa surilishimiz kerak, siz shimolga ko'tarilishingiz kerak. Yo'limizni to'sib yotgan dushman bitta. U dushmanning nomi bolshevizm. Unga qarshi muqaddas salb yurishi uyushtirish lozim. Buni fyurer amalga oshiradi.

Rizo shohning ko'zlari chaqnab ketdi:

— Bu yo'lda fyurer bizni o'zining sodiq ittifoqchisi hisoblashi mumkin. Yigirma yildan beri biz Sharqda bolshevizm selining yo'lini to'sib yotibmiz. Hozir ham bolshevikiarga qarshi bo'lgan har bir kishi bizning do'stimizdir va u bizdan barcha yordamni ola biladi.

Shoh so'zlaganda kulimsirab, uning so'zlarini tasdiqlab turgan elchi:

— Germaniya o'z do'stlarini yaxshi taniydi, — deb gap qistirdi, — biz shohanshoh hazratlarining Sovetlarga nisbatan bo'lgan munosabatlarini juda yuqori baholaymiz. Bizni birlashtirgan narsa faqat iqtisodiy manfaatlargina emas, bizning ideologiyamiz va maqsadimiz ham birdir.

Ular bir soatdan so'ng Rizo shohni tark qildilar. Saroy vaziri Hakim ul-mulk butun suhbat paytida biron og'iz ham so'z aytmadi, ularga qarab har gapni boshi bilan tasdiqlar, Rizo shoh gapirganda, unga qarab: — Balli, qurboningiz bo'lay, balli, — deb qo'yardi. Uning kayfi juda buzuq edi. Fon Valter buning sababini bilolmadi.

Fon Valter hamon oyna oldida turardi. Burniga, qoshlariga qarar, og'zini ochib tishlarini tomosha qilar va hadeb qo'llari bilan siyrak sochini silab, hushtak chalardi. Uning butun bu harakatlari go'yo fikrining tez harakat qilishiga yordam bergandek edi. Fikri esa hamon Rizo shoh bilan uchrashuv atrofida aylanib yurardi. U uchrashuvning natijalaridan g'oyat mamnun edi. Rizo shoh ularning taklifini qabul qildi. Ba'zi maqsadlari esa kutganidan ham afzal natijalar berdi. Shoh Zanjon mis konlarini nemislar tomonidan ekspluatatsiya qilina boshlashiga rozilik berdi. Shu bilan birga moliya, savdo va sanoat, pochta va telegraf hamda ichki ishlar ministrliklariga joylashtirish uchun qo'shimcha ravishda yana o'ttizta nemis mutaxassis va maslahatchilarining Eronga kelishiga

ruxsat berdi. Savdo masalalarini ishlab chiqish uchun har ikkala mamlakat vakillaridan iborat aralash komissiya tuzish mo'ljallangan edi. Eron armiyasini hozirgi zamon nemis qurolli kuchlari tipida qurollantirish, harbiy intizomni mustahkamlash to'g'risida takliflarni shoh hech so'zsiz qabul qildi. Fon Valter elchi bilan birga uchrashuvning mazmuni va natijalari to'g'risida Ribbentropga mufassal shifr-telegramma yuborganlaridan so'ng, o'z uyiga qaytgan edi. Bu safar paytida terlagani uchun elchixona hammomida cho'milib chiqishni ham unutmagan edi.

Nihoyat oyna oldidan ketib, o'z o'rniga kelib o'tirdi. Ministrliklarga joylashtiriladigan kishilarning ro'yxatini qo'liga oldi. Kimni qayerga joylashtirilsa maqsadga muvofiqroq bo'lishi to'g'risida endi o'ylay boshlagan ediki, eshik ochildi.

— Mumkinmi, — deb ruxsat so'radi fon Zalkind va xonaga kirgach, garchi harbiy kiyimda bo'lmasa ham harbiychasiga chest berib salomlashdi.

U ichki ishlar ministrligidagi nemis starshiy maslahatchisi edi. Fol Valter unga joy ko'rsatdi.

— Sartib Salimiy ham shu yerdami? — deb so'radi u Zalkinddan.

Zalkind unga gunohkorlarcha qaradi.

— Kelishga unamadi, shundaymi? — deb so'radi yana fon Valter javob kutmasdan. — Shunday bo'lishini o'zim ham bilardim.

Zalkind fon Valterning bunga uncha e'tibor bermaganini ko'rib, yengil nafas oldi.

— O'lgudek o'jar odam u! — dedi Zalkind va fon Valterning qo'li sochlari ustida tez-tez harakat qilayotganini ko'rib, nafasi ichiga tushib ketdi.

— Dushman, — deb uning so'zini to'g'riladi fon Valter.

— Agar bitta-yarimta odamni men ishga tavsiya qilsam — olmaydi. Sarhangga ham ko'p xalaqit beradi. Yo'ldan olib tashlansa yaxshi bo'lardi.

Fop Valter Zalkindga diqqat bilan tikildi.

— Qo'lga kiritsak yaxshiroq bo'ladi. O'zi singari ofitserlar va intelligensiya o'rtasida uning obro'si baland. Kechqurun u bilan o'zim so'zlashaman.

Zalkind endi chiqib ketgan ediki, komendant telefon qilib qoldi.

— Janob fon Valter, Husayn Mahbusiy sizni ko'rmoqchi.

— Kelsin!

Mahbusiy tez, lekin tovushsiz qadam bosib kirib keldi. Fon Valterni o'zining o'g'ri boqishlari bilan tez kuzatib chiqdi. Valter ham qog'ozlarni bir chetga surib, uni ko'zdan kechirdi-da, sochini silay boshladi.

Sharq mamlakatlarida o'zining o'n-o'n besh yillik faoliyati vaqtida fon Valter Mahbusiy kabi odamlarning juda ko'pini ko'rgan edi. To'g'rirog'i uning asosiy ishi Mahbusiy kabi odamlarni tarbiyalab yetishtirish edi. Axloqi buzuq, ma'naviy jihatdan chirik, vatanini sotib yuborgan bu tipdagi odamlar fon Valterning ko'rar ko'zi, eshitar qulog'i, yashirin qo'l-oyog'i edi, Fon Valterning kuchi ham shu odamlarda edi. Chet mamlakatda, umumxalq undan nafrat qiladigan bir sharoitda, bu odamlar uning tayanchi edi. Lekin bu odamlarning hayosizligi ham fon Valterga juda yaxshi ma'lum edi. O'z holiga qo'yib berilsa, ular dushman lageriga o'tib ketishdan va o'z xo'jayinlarini sotib yuborishdan ham toymas edilar. Shuning uchun fon Valter ular bilan doim ehtiyotkorlik bilan, jiddiy turib gaplashar, suhbat paytida qo'lini cho'ntagiga solib, to'pponchasini ushlab turardi.

Fon Valter Mahbusiyning salomiga javob qaytarib, o'rnidan turdi.

— Demak, sartib bilan aloqa o'rnata olmading, shundaymi?

— Yo'q, — dedi Maqbusiy astagina. — Hech yaqiniga yo'latmayapti.

Valter qovog'ini soldi.

— Yodingda bo'lsin, sen masala talashish, yoki e'tiroz bildirish uchun qo'yilgan emassan, sensiz ham shohga sadoqatli bo'lishni tashviqot qiladiganlar topiladi.

Mahbusiy o'zini oqlash uchun dalil keltirishga harakat qildi. Shunday ham talaygina ish qilib qo'yganini bildirdi, Tabrizdagi hodisalar, Hamid Hamidiy to'g'risidagi bir necha kun oldin bo'lib o'tgan gapni takrorladi. Uning so'zlariga indamay quloq solib turgan fon Valter hech qanday yangi gap eshitmagach, uning so'zini kesdi:

— Topshiriqni bajardingmi?

Mahbusiy xursandlik bilan:

— Ha, hammasi tayyor, — deb javob berdi, — Mana bu siz so‘ragan uyning manzili. Uy egasining ismi Qamarbonu. Yana bir ismi Saodat xonim. U bilan gaplashib ham qo‘ydim: endi u o‘z qo‘limizda. Uning uyiga shaharning eng baobro‘ odamlari kelib-ketib turishadi. Mana bu esa arbob Hanafiyning manzili. Epchil odam. Har ish qo‘lidan keladi. Lozim bo‘lsa onasining ham kallasini olib keladi...

Fon Valter qo‘li bilan sochini silab-silab, yana uning so‘zini kesdi:

— Qamarbonu bilan aloqani uzma. Xonimlarning hammasini o‘rganib chiq. Ularning ro‘yxatini tuzib, uch kundan so‘ng menga olib kel. Uyga kelib-ketadiganlarning ham ro‘yxatini olib kel. Arbob Hanafiyni esa ertaga yarim kechada olib kelasan. Endi xayr!

Mahbusiy chiqib ketdi.

Valter o‘rniga o‘tirib xayolga cho‘mdi. Keyingi kunlardagi ishlar, Rizo shoh, Hakim ul-mulk, Hikmat Isfahoniy va Mahbusiylar bir-bir ko‘zi oldidan o‘tdi. Shohning aytgan “o‘tmishdagi qudratimiz”, “yangi tartib”, “yangi yerlar”, “buyuk davlat” kabi dabdabali so‘zlari yodiga tushdi, ensasi qotib kulib qo‘ydi.

— Ablahlar! Ablahlar!.. — dedi u.

Birdan xayoli o‘zgardi, Rizo shoh, Hakim ul-mulk va Hikmat Isfahoniylar uzoqlashdilar. Dunyoning yangi tartib o‘rnatilgan yangi xaritasi ko‘z oldiga keldi. “Germaniya imperiyasi!..” Bu imperiya La-Mansh qirg‘oqlaridan tortib, Eron ko‘rfazi orqali to Hind okeanigacha bo‘lgan yerlarni birlashtirgan bo‘ladi...

Xayol uni yana ham uzoqroqqa olib ketdi. Yangi manzaralar ko‘z oldiga keldi... Fon Valter buyuk imperiya nomidan Eronni boshqarmoqda. Hurmat bilan bosh egib, qo‘l qovushtirib, fon Valterning yangi tartib, yo‘l-yo‘riqlari to‘g‘risidagi so‘zlariga quloq solib Rizo shoh, Hakim ul-mulk kabilar uning huzurida turishibdi. Fon Valterning so‘zi tugagach, hozirgina Mahbusiy chiqib ketganidek sekin-asta, oyoq uchida yurib chiqib ketishdi...

Uning xayolini telefon jiringlashi buzdi. Elchi gapirmoqda edi. U Eron savdogarlari bilan bo‘ladigan uchrashuvni tezlatishni iltimos qildi.

— Bu ishga shu bugunoq kirishaman, — dedi fon Valter va trubkani osdi-da, Isfahoniy bilan uchrashmoqchi ekanini eslab, soatiga qaradi. Vaqt yaqinlashmoqda edi. Qo'ng'iroq chalib, mashina chaqirdi. Kulrang nafis sherst kastumi va kulrang shlapasini kiydi-da, to'garak oynaga qarab, o'zini yana bir marta tomosha qilgach, chiqdi.

* * *

Hikmat Isfahoniy fon Valterni ochiq yuz va muloyim jilmayish bilan eshikkacha kuzatib qo'ydi. Hatto eshik oldida uning orqasidan qarab birpas turdi ham. Keyin qaytib kelib joyiga o'tirdi. Basharasidagi muloyim tabassum yo'qolib, afti jiddiylashdi-da, darhol xizmatchini chaqirdi:

— Chilim keltir, og'oyi Kurd Ahmadni ham chaqir, So'fi Eronparastni ham.

Kurd Ahmadnnng Basradan kelganiga ikki haftacha bo'lgan edi. Har bozor kuni Faridunni kutar, uning kelmaganini ko'rib ko'ngli g'ash bo'lardi. Necha marta ombor mudiridan so'ramoqchi ham bo'ldi. Lekin ehtiyotkorlik qilib so'ramadi. Ombor mudiri ham unga hech narsa demagan edi, chunki har kun besh-olti kishi Kurd Ahmadni so'rab kelardi. Faridun ham shulardan biri edi.

Kurd Ahmad Faridun to'g'risida har xil xayollarga borardi. Ehtimol, u pushaymon bo'lib, bu yo'ldan chekingandir? Xirmondagi harakati vaqtinchalik, lov etib bir yongan olov singari bir narsadir? Bir lahzali hisga berilib, har xil qahramonliklar ko'rsatgan odamlar kammi? Bunday kishilarning harakatlari mustahkam, bir katta maqsadga qaratilgan bo'lmaydi. Bunday harakatlarning sababi aql va idrok talabi natijasi bo'lmagani uchun uncha e'tiborsiz va mantiqsiz bo'ladi. Lekin Faridunni ham shunday odamlar qatoriga qo'shishga ko'ngli bormas, bunga shubha qilardi. Kurd Ahmadni hammadan ham boshqa bir taxmin bezovta qilardi: Faridun politsiyaning qo'liga tushgan bo'lsa-ya. Unda sarhang Safoiy buni albatta bilishi kerak edi. U o'z navbatida buni Hikmat Isfahoniyga yetkazmay qo'ymasdi. Lekin Hikmat Isfahoniy bu to'g'rida indamas, sukut qilardi. Bu ham Kurd Ahmadning ko'nglida ming xil shubhalar tug'dirardi.

Keyingi kunlarni Kurd Ahmad ana shunday turli shubhalar quchog'ida o'tkazmoqda edi.

Kurd Ahmad ichkari kirganda, So'fi Eronparast odaticha xushomadgo'ylik bilan jilmayib, arbobning huzurida o'tirardi.

Hikmat Isfahoniy Kurd Ahmadni xursandlik bilan qarshiladi. Hol-ahvolini, sog'ligini surishtirdi.

— Kayfsizroq ko'rinasiz? Betob emasmisiz? — deb so'radi u.

Kurd Ahmad tashakkur aytib, og'oning yo'qlash sababini bilish uchun og'iz juftlagan ediki, Hikmat Isfahoniyning o'zi sirli tovush bilan gap boshlab qoldi:

— Taqsirlarim, — dedi u, — men sizlardan maslahat so'ramoqchiman. Mushkul ahvolga tushib qoldim. Endi bunday miyani ishlatib, chora topmasak bo'lmaydiganga o'xshaydi...

Kurd Ahmad unga taajjub bilan boqdi. So'fi Eronparast qimir etmay o'tirardi. Hikmat Isfahoniy o'zining haqiqatan ham qiyin ahvolda qolganini bildirish uchun ovozini biroz pasaytirib, sun'iy g'amginlik bilan davom etdi:

— Shunday mushkul ahvolda qolarman deb sira o'ylamagan edim. Hozir shunday ahvoldamanki, yo o'z e'tiqodimdan voz kechishim kerak, yo bo'lmasa sinib gado bo'lib qolishim kerak. Men bundan birinchisiga sira rozi bo'lolmayman. Er kishi ham o'z e'tiqodi, o'z insofini bu dunyo lazzatiga alishtiradimi, Xudo ko'rsatmasin! Bundan ko'ra och-yalang'och qolganim afzalroq! Bu boshiga do'ppi kiyib, beliga belbog' bog'lagan kishiga yarashmaydi. Yo'q! Men och qolishdan qo'rqmayman, yomon otliq bo'lishdan qo'rqaman. Sinib qolgudek bo'lsam, mening raqiblarim Badr, Nikipur, Manuk Martinlar[1] mening obro'yimni poymol qiladilar. Kulimni ko'kka sovuradilar. Nima qilay endi? Yo'l-yo'riq ko'rsatinglar, maslahat beringlar.

Kurd Aqmad hech narsa tushunmaganini bildirish uchun og'iz juftlagan edi, Hikmat Isfahoniy unga gap bermay, yana gapirib ketdi:

— Gap mana bundoq, taqsirlarim! Hozirgina fon Valter kelib, menga shipshitib ketdiki, bu itvachcha Badr, Nikipur va Ma-

[1] Yirik savdogarlar. Ular ikkinchi jahon urushi davrida Eronda fashist siyosatini yuritdilar.

nuk Martinlar bozordagi hamma chet eldan kelgan mollarni, ya'ni qand, gazlama va boshqa shunga o'xshash tovarlarni sotib olish haqida ingliz va nemis savdo vakolatxonalari bilan yashirin bitim tuzibdilar. Keyinchalik ular bu tovarlarga istaganlaricha baho qo'yadilar. Ikkinchi tarafdan esa ular mahalliy mahsulotlarni, ya'ni chetga chiqarish mo'ljallangan jun, teri, yog', mo'yna kabi tovarlarni ko'plab bozorga chiqarib, bozorni to'ldirib yubormoqchilar. Bu esa darhol ularning bahosini tushirib yuboradi. Buning naqadar noinsoflik ekanini tushungandirsiz? Xalqni o'tmas pichoq bilan so'ymoqchilar ular!

Kurd Ahmad bu ahvol yuz bersa, u xalqning boshiga katta balo bo'lishini, yuz minglab dehqonlar, mayda savdogarlar, hunarmandlar va shahar kambag'allarining xonavayron bo'lishini ko'z oldiga keltirib:

— Bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi, — dedi g'azab bilan. — Hozir avji dehqonlarning bozorga jun, teri, mo'yna kabi tovarlarni chiqaradigan payti. Biz ham hozir shu mollarni bozorga chiqarsak, ularning bahosi juda pasayib ketadi. Unda dehqon bechora qilgan mehnatining o'ndan bir bahosiga ham ega bo'lolmaydi. Ikkinchi tomondan esa, chet eldan kelgan mollarning bir kishi qo'liga to'planishi ularning bahosini juda oshirib yuboradi. Bu xalqqa, ayniqsa, dehqonlarga katta kulfat bo'ladi. Xonavayronlik, qashshoqlik, ochlik boshlanadi. Katta yer egalari bozorda qilgan zararlarini qishloq dehqonlaridan olib, ularning terisini shiladilar...

Kurd Ahmad gapirayotganda ko'zlarini yumib xo'rillatib chilim chekayotgan Hikmat Isfahoniy qattiq oh tortdi.

— Gaplaringiz juda to'g'ri, birodar! Ularda na insof bor va na vijdon. Xo'sh, endi biz nima qilishimiz kerak?

— Uzoq o'ylab o'tirishning nima hojati bor? — dedi Kurd Ahmad hayajon bilan. — Biz faqat nemislar va inglizlar bilangina savdo qilishimiz shartmi? Ulardan boshqa ham mol olib, mol yetkazib beradigan topiladi, — deb qo'shib qo'ydi u ma'nodor qilib.

Hikmat Isfahoniy Kurd Ahmadning ishorasiga tushundi. Qo'lini orqasiga qilib xonada keza boshladi.

— To'g'ri, — dedi u, — biz bilan savdo qiluvchilar topiladi. Nega topilmasin? Siz bizning shimoliy qo'shnimizni nazarda tu-

tayapsiz. Shundaymi? Mening undagi bolshevizm yo sotsializm bilan nima ishim bor? Men ulardan ideya sotib olarmidim! Bolshevik bo'lsa o'ziga. Men unga mayiz, jun, teri sotaman. Undan esa qand, chit, mashina olaman. Rus tili bilan qandining tengi yo'q ekanligi dunyoga ma'lum. Lekin iloj yo'q! Bizning oliyjanob xo'jayinlarimiz buni istamaydilar. Biz bolsheviklar bilan savdo qilishni istamaymiz! — deydilar.

Hikmat Isfahoniy 1938-yildagi sovet-eron savdo bitimining bekor qilinganiga ishora qilmoqda edi. Kurd Ahmad buni tushundi. Bular unga g'oyat shubhali tuyuldi, u yanada hushyor tortdi.

— Xo'sh, endi og'oning amrlari qanday bo'ladi? — deb so'radi u, Hikmat Isfahoniyga ishonchsizlik bilan qarab.

Isfahoniy yana chilim chekib ko'zini yumdi.

— Bilmadim, azizim, bilmadim! — deb po'ng'illadi u.— Siz qanday maslahat berasiz?

Lekin uning javobini kutmay so'zida davom etdi:

— Yaxshisi, dushmanni o'z quroli bilan urish kerak. Basradan olib kelgan mollaringizni omborlarga yashirib qo'ying! O'rta va mayda savdogarlar qo'lidagi chet el mollarining hammasini sotib oling. Teri, jun, mo'yna, yog' zapaslarini bozorga chiqaring.

Kurd Ahmad e'tiroz bildirmoqchi bo'lgan edi, lekin Hikmat Isfahoniy unga so'z bermadi.

— Men gapirib bo'lay, sabr qiling. Men nomusimni pulga sotmayman dedim-ku. Endi nariyog'ini eshiting. Bu og'oyi Badr va Nikipurlar bunday qarashsaki, biz hamma mahalliy mollar bilan bozorni to'ldirib yuborayapmiz, shunda ular o'z omborlarida bor bo'lgan barcha mahalliy tovarlarni bozorga chiqaradilar, o'rniga shosha-pisha chet el tovaridan olib, omborlarini to'latadilar. Ana shunda biz do'stimiz fon Valterning yordami bilan ularning omboridagi moldan o'n hissa ko'proq mol olib bozorga chiqaramiz, bozorni chet el mollari bilan to'latib yuboramiz. Shu taxlitda ularning bahosi ancha tushadi. Dehqonlar, kambag'allar istaganicha olaveradi. So'ngra biz bozordagi barcha xomashyoni — teri, jun, mo'ynani olib, ilgarigi bahoda nemis savdo vakillariga topshiramiz. Dehqon bisotida bor molini sotib qolsin, marhamat. Shu taxlitda biz dehqonlarni ham, mayda savdogarlarni ham xonavay-

ron bo'lishdan saqlab qolamiz. Ana shunday qilib, odamlarga xalq g'amini yeydigan kishilar ham borligini bildirib qo'yamiz!

Kurd Ahmad xo'jayinning bu rejasi amalda qanday bo'lib chiqishi to'g'risida bosh qotirganicha chiqib ketdi.

Hikmat Isfahoniy butun suhbat davomida g'ing deb og'iz ochmagan, bosh qimirlatish bilan goh uning, goh Kurd Ahmadning gapini tasdiqlab o'tirgan So'fi Eronparastga qarab dedi:

— Xo'sh, taqsir! Nima qilib baqrayib o'tiribsan? Men xalq g'amida kuyib-pishayotganimni ko'rib turgandirsan-a? Bor endi, hozir bu yerda eshitganlaringdan o'ndan birini bo'lsa ham gazetangda chiqar. Xalq ham xabardor bo'lsin bundan.

YETTINCHI BOB

Sartib Salimiy bir tarafiga qator derazalar qurilgan mo'jazgina kabinetida o'tirib, "Ittiloat" gazetasining so'nggi sonini ko'zdan kechirmoqda edi. Gazeta Moskvada bo'layotgan muzokaralar to'g'risida "London za Parij" matbuotidan olib berilgan xabarlar bilan to'la edi. Unda muzokaralarda qatnashayotgan ingliz va fransuz davlat delegatlarining jamoasi to'g'risidagi, uch davlat muzokaralaridan kutilayotgan natijalar to'g'risidagi xabarlar bosilgan edi. Sovetlar ingliz fransuzlarning taklifini so'zsiz qabul qiladilar, deb alohida takidlab o'tardi. Barcha gazetalarning diqqat markazida Polsha masalasi turardi. Gazetaning yozishicha, go'yo Fransiya bilan Angliya Polshaning milliy mustaqilligi, davlat manfaatlarini himoya qilishni xohlaydiganday ko'rinardi. Dunyodagi eng ko'p mustamlakaga ega bo'lgan, yuz millionlab kishilarni qullikda saqlagan davlatlarning vakillari Polshaning "davlat xavfsizligi", "milliy mustaqilligi" to'g'risida bunchalik ko'p gapirishdan maqsadlari nima ekanini sartib Salimiy juda yaxshi tushunar, bu dabdabali so'zlar ostida qandaydir tahqir borligini sezardi. Bu balandparvoz fikrlar uning qalbidagi eng aziz tuyg'ularini haqorat qilgandek tuyulardi. U gazetani burchakda turgan to'garak stol ustiga uloqtirib, o'rnidan turdi-da, balkonga chiqib, hovliga qaradi. Sartib Salimiy bugun odatdagidan ham g'amginroq edi. Tabriz hodisasidan keyin ichki ishlar ministrligida qola olmasligiga ishondi. Dastlab komissiyaning barcha a'zolari o'zaro maslahatlashib, Hamid Hamidiy harakatlarining haqiqiy sabablarini yozib berishga qaror qilgan edilar. Haqiqatan ham arbob — katta yer egalarining g'ayriqonuniy harakatlari haddan oshmoqda edi. Ozarbayjonning iqtisodiy hayoti so'nib borardi. Shaharlar ishsizlar va ochlar bilan to'la edi. Xalqning ahvoli chidab bo'lmas darajada og'irlashib ketgan edi. Hamidiyning istagi ham xalq hayotini biroz yaxshilash yo'lidagi bir tadbir ko'rish edi. Sartib Salimiy

komissiyaning ishi natijalarini xuddi shu ruhda yozib bermoqchi edi. Lekin sarhang Safoiyning taklifi bilan ministr to'satdan Tabriz komissiyasining barcha a'zolarini chaqirtirdi. Ularning fikrini eshitib bo'lgach:

— A'lohazrat komissiya azolari ichida ham Hamid Hamidiyning hamfikrlari bor ekan degan fikrga kelmasalar deb xavotirdaman. Xulosalar haqida yana bir o'ylab ko'ringlar! A'lohazrat dehqonlarni katta yer egalaridan yuqori qo'yolmaydilar, — dedi.

Bu so'zlardan so'ng komissiya a'zolari pitirlashib qolishdi. Komissiyaning Yavar Azimiydan boshqa hamma a'zolari bir og'izdan Hamid Hamidiyni isyonkor, shubhali odam, vatan xoini deb atay boshladi. Sartib Salimiy e'tiroz bildirishga urinib ko'rgan edi, lekin komissiya a'zolari:

— Siz o'z fikringizni alohida yozib berishingiz mumkin, biz o'z fikrimizni alohida yozamiz, — dedilar.

Bu uni og'ir ahvolga solib qo'ydi. U sofdil Hamidiyni halokatga sudray olmas edi. U buni jinoyat deb bilardi. Alohida fikr yozib bersa, sarhangning qo'liga yana bir ortiqcha hujjat bergan bo'lardi. Chunki ishning borishidan Hamid Hamidiyning politsiya idorasiga chaqirtirilib, jazolanishi aniqlanmoqda edi. Hamidiy rasmiy jazolangandan so'ng, sarhang albatta sartibning unga bergan bahosini e'lon qilib, Salimiyni qoralar edi. Nima qilish kerak? Salimiy bu savolga javob topolmasdi. Buning ustiga nemis maslahatchisi bilan bo'lgan hodisa dard ustiga chipqon bo'ldi. Ichki ishlar ministrligida hammasi bo'lib sakkizta nemis maslahatchisi bor edi. Lekin ular ministrlikning barcha bo'limlari ishiga aralashaverishar, ayrim rayon boshliqlaridan tortib, eng oliy mansabdorlarning ham ishini tekshirishar, shubhali va sotqin kishilarni mas'uliyatli vazifalarga olinishini talab qilishar edi. Sartib Salimiy ministrlikning bu g'ayriqonuniy ishlariga ochiq e'tiroz bildiradigan xodimlardan biri edi. Lekin "maslahatchilar" bu e'tirozlarga quloq solishmay, o'z istaklaricha ish ko'raverar edilar. Bu holga toqat qilolmagan sartib, ko'p o'ylab o'tirmay o'zi ishlaydigan bo'limga biriktirib qo'yilgan nemis maslahatchisi Zalkindni qo'lidan sudrab, kabinetidan olib chiqib tashladi. Buning uchun ministr uni ikkinchi marta ogohlantirdi.

So‘nggi kunlarda ministrlikka borish uning uchun jahannamga borgandek og‘ir tuyulardi. O‘zining sog‘ligi ham ancha yaxshi emasligini his qilib, uydan chiqmaslikka qaror qilgan edi. Sartibning og‘ir ruhiy ahvolidan xabardor bo‘lgan Tehron intelligensiyasi va harbiylari orasidagi hamfikr do‘stlari uni yolg‘iz tashlab qo‘ymadilar. Ular har kun kechqurun suhbatlashish, dardlashish va biror iloj topish uchun sartibning uyiga kelishar edi. Mana hozir ham eshikning taqillayotganini eshitgan sartib tok ro‘dalari bilan o‘ralgan so‘ri atrofida kuymanib yurgan bog‘bonga:

— Ota, eshikni och. Mehmonlar kelishdi, shekilli, — dedi.

Bog‘bon eshikni ochib, Yavar Azimiy bilan yana bir oddiy aholi kiyimidagi odamni ichkari kiritdi. Sartib Salimiy ularni ko‘rishi bilanoq balkondan zalga o‘tib keng g‘ishtin zinapoyadan pastga tushdi. Zinapoya yonida do‘stlarini kutib oldi.

— Salom, og‘oyi Hofiz Biluriy, — deb keksayib qolgan, qalin sochlari oppoq oqarib ketgan, yuzini ajin bosgan odamning qo‘lini qisdi-da, keyin Yavar Azimiyga yuzlanib:

— Salom, aziz birodarim, — deb Yavar Azimiy bilan so‘rashdi.

Hofiz Biluriyni hurmat bilan oldinga o‘tkazib yubordi-da, Azimiyga murojaat qildi:

— Xo‘sh, ishlar qalay, og‘oyi Yavar Azimiy? Ko‘zim tegmasin, alhamdulillah, kundan kun ochilib ketayapsan.

Yavar Azimiy o‘z odaticha, nozik qop-qora mo‘ylovini silab qo‘ydi-yu, lekin indamadi.

Ichkari kirishdi. Sartib yong‘oq yog‘ochdan nard o‘yini uchun maxsus shaklda yasalgan stolni o‘rtaga surdi.

— Qani, bir hunaringizni ko‘rsatib turing-chi, men choy buyuray, — dedi-da, chiqib ketdi.

Hofiz Biluriy mehmonxonani ko‘zdan kechira boshladi. To‘rdagi devorda oltin suvi yuritilgan katta ramkada Rizo shohning portreti osig‘liq edi. Rasm yon tomondan olingandi, shoh yuzining bir tomoni va qayoqqadir o‘qrayib qarab turgan chag‘ir ko‘zigina ko‘rinardi. Xonada boshqa hech qanday rasm yo‘q edi. Shoh portretining tagidagi guldor kirmon gilami ustida zarhal qilingan, kichkinagina, uch oyoqli stol turardi. Unga fil suyagidan yasalgan odam qo‘li qo‘yilgan bo‘lib, qo‘l mash’al ko‘tarib turgan holda tasvirlan-

gan edi. Bu aql va ilm timsoli edi. Yoqut bilan bezatilgani uchun mash'al haqiqatan ham atrofga nur sochib turgandek yaraqlar edi.

Burchakda kitob bilan to'la katta oynavand shkaf qo'yilgan edi.

Yavar Azimiy nard toshlarini stolcha ustiga qo'ydi-da:

— Qani, marhamat, — deya Biluriyga murojaat qildi.

Shu payt sartib Salimiy qaytib kirdi. Yavar Azimiy hurmat yuzasidan o'rnini bo'shatib berib, o'zi boshqa stul olib o'tirdi-da, zavq bilan o'yinni tomosha qila boshladi. Ular doim zo'r qiziqish bilan o'ynardilar. Lekin bugun o'yin juda hafsalasizlik bilan bormoqda edi. Hech kim churq etmasdi. Sartibning parishonxotirlik bilan o'ynab, ketma-ket yutqizaverganini ko'rgan Biluriy o'yinni to'xtatdi.

— Yaxshisi, Tabriz komissiyasi to'g'risida nima qarorga kelganingizni aytib bera qoling, — dedi u.

Sartib do'stlarini parishonxotirlik bilan ko'zdan kechirdi.

— Hali bir qarorga kelganim yo'q!

— Hech narsa yozmasangiz nima qiladi? — deb so'radi Biluriy, maslahatomuz.

Sartib, o'zining keksa o'qituvchisining nasihatini rad qilishni ep ko'rmaganidan, indamadi, bir pachka sigara olib, ularga tutdi-da, o'zi ham bittasini oldi.

— Inson o'z tabiatiga doim sodiq bo'lishi kerak! — dedi u halqa-halqa tutun chiqarib. — Ko'p o'yladim, o'z fikrimni ochiq yozib beraman degan fikrga keldim. Nima bo'lsa bo'lar. Juda zo'r kelsa, o'limga hukm qilisharda. Bir boshga bir o'lim. Men hech vaqt o'limdan qo'rqqan emasman.

— To'g'ri, — deb uning fikrini quvvatladi Yavar, — dunyoda faqat mardlik qoladi. Ikkalamiz ham alohida-alohida o'z fikrimizni a'lohazratga yozib beramiz.

— Ikkalamiz emas, bir o'zim yozaman! — dedi Salimiy qat'iy qilib. — Sen hali yoshsan, hozircha turatur.

— Ehtiyot bilan ish ko'rish kerak, yigitlar, — dedi Biluriy. — Bizning vatanimizdek bir mamlakatda doim ehtiyot bo'lish kerak. Vatan va xalqning ahvoli og'ir, uning besh-o'nta g'ayratli o'g'lonlari bor, xolos. Shu o'g'lonlar ham bekorga halok bo'lib ketsa, undan nima foyda? Ministr bilan yana bir gaplashsang qalay bo'larkin?

— Buning hech foydasi yo‘q, — dedi sartib toqatsizlik bilan. — Ministr haqiqatdan juda uzoq odam.

Sartib o‘rnidan turib, Rizo shoh portreti qarshisiga keldi-da, unga uzoq tikildi.

— Afsus, u yolg‘izda, yolg‘iz! Bu noma’qulchiliklardan uning aslo xabari yo‘q! — dedi Salimiy.

— Nahotki bilmasa? — deb so‘radi ishonqiramay Yavar Azimiy.

— Albatta, — dedi sartib ishonch bilan. — U bilan xalq orasida o‘tib bo‘lmas devor bor. Sarhang Safoiy, Hakim ul-mulk, Hikmat Isfahoniy kabi sotqin ministrlar, amaldorlar, deputatlar. Eh, bu devorni qulatish, alohazratning atrofiga vijdonli, nomusli kishilar to‘plashning iloji bo‘lsa edi, Eronning taraqqiy qilib ketishini ana o‘shanda ko‘rar edingiz!

Tabiatan indamas va og‘ir odam bo‘lgan Biluriy bu yurak so‘zlarining ta’siri bilan sakrab o‘rnidan turdi. Mash’al ushlab turgan odam qo‘lini oldi-da, u bilan butun mamlakatni yoritmoqchi bo‘lgandek baland ko‘tardi.

— Qutulish yo‘li ilm, madaniyat va mar’ifat nurlaridadir, — dedi u.— Shoh ham, dehqon ham o‘qishi kerak. Ministrlarning mansabparastligiga, savdogarlarning pulparastligiga sabab johilligimizdir. Haqiqat bilan or-nomus faqat kambag‘al bilan ishchilardagina qolgan. Afsuski, ularning yuragi ham qo‘li kabi bo‘sh, fikri xayoli singari tumanli. Bizni bu musibatdan faqat ilmgina qutqara oladi. Ko‘zimizga haqiqat nurini sochadi. Grajdanlarning hammasi o‘qimishli bo‘lsa, vatan ham ravnaq topadi. Ana shunda shoh ham, ministr ham, savdogar ham, dehqon ham bir fikrda bo‘ladilar, bir maqsad uchun yashaydilar, qo‘lni qo‘lga berib vatanni begonalar changalidan qutqaradilar.

— U buni istamaydi deb o‘ylaysizmi? — dedi Salimiy portretni ko‘rsatib. — Bizni ruhoniylar qo‘lidan, shariat ta’siridan qutqargan u emasmi? Mamlakatda yangi yo‘llar qurdirdi, ayollarimizning boshidan qora chodrani olib tashladi. U ham xuddi siz aytganingizdek bo‘lishni istaydi. Lekin bunga yo‘l qo‘ymaydilar. Atrofini buzuq, yaramas odamlar va xalqni sevmaydigan xoinlar o‘rab olgan!

— Koshki edi-ya, shunday bo‘lsa! — dedi Hofiz Biluriy chuqur xo‘rsinib va sartib Salimiyga g‘amginlik bilan qaradi. U

sartibning so'zlarida zo'r ishonch borligini sezdi. U, bu to'g'ri va rostgo'y odamga chin yuragidan achindi.

* * *

Sartib Salimiy taajjubda edi: Hikmat Isfahoniy uni nima maqsadda uyiga taklif etdi ekan? Bu, sartibning Shamsiyaga bo'lgan muhabbati bilan bog'liq bir gapmikin yoki boshqa biror sabab bormikin?

Bunga juda qiziqqan sartib Salimiy Hikmat Isfahoniyning Zargandadagi bog'iga jo'nadi. Mashina baland devorlar bilan o'ralgan bog'lar yonidan o'tib, Hikmat Isfahoniy darvozasi oldida to'xtadi. Sartib Salimiy ichkaridan chiqib kelayotgan Kurd Ahmadga duch keldi. Mustaqil xarakterliligi, xushomadgo'ylik va laganbardorlikni bilmagani uchun Salimiy Kurd Ahmadni juda hurmat qilardi. Sartib Salimiy u bilan samimiy ko'rishdi.

— Hech ko'rinmaysiz, og'o, — dedi u Kurd Ahmadning qo'lini do'stlarcha siqib. — Har zamonda bir bo'lsa ham do'stlarni yo'qlab turilsa yomon bo'lmaydi.

Sartibning juda yaxshi odam ekanligini bilsa ham, oliy amaldorlar bilan yaqinlashishni umuman yoqtirmagan Kurd Ahmad quruqqina qilib:

— Iltifotingiz uchun tashakkur, sartib. Omon bo'ling. Xizmatingizga doim tayyorman, — deb javob berdi.

Sartib Hikmat Isfahoniyning oldida kimlar borligini surishtirdi. Kurd Ahmad bundan xabarsizligini, Hikmat Isfahoniy u bilan eshik oldida, oyoq ustida turib nari-beri gaplashib, jo'natib yuborganini aytdi. "Shu kunlarda bir oldingizga bormoqchiman" dedi sartib xayrlashar ekan. Keyin zo'r qiziqish bilan darvozadan ichkari kirdi. Bog'ga kirar ekan uzoqdan Hikmat Isfahoniy bilan birga sayr qilib yurgan past bo'yli, xumkalla odamga ko'zi tushdi-da, kayfi buzildi. Qiziqish o'rnini pushaymon egalladi. Sartib fon Valterni darhol tanidi.

Hikmat Isfahoniy hassasini so'l qo'liga ushlab, o'ng qo'li bilan fon Valterga allanarsani ko'rsatib, gap ma'qullamoqda edi. Sartib fon Valterning qanchalik zo'r berishiga qaramay, u bilan uchrashishdan doim bosh tortib keldi. Hozir ham shartta qaytib ketmoq-

chi bo‘ldi. Lekin uni ko‘rib qolgan Hikmat Isfahoniyning shu tomonga tez yurib kelayotganini ko‘rgach, to‘xtashga majbur bo‘ldi.

— Marhamat, og‘oyi sartib, marhamat, — deb salomlashdi g‘oyat muloyimlik bilan Hikmat Isfahoniy. — Tanishib qo‘yinglar, bu kishi do‘stimiz fon Valter bo‘ladilar.

Ilojsiz qolgan sartib g‘ijinib fon Valterga qo‘l uzatdi. Lekin fon Valter, aksincha, uning qo‘lini g‘oyat mamnunlik bilan qisib, hatto hazil qilib ham qo‘ydi:

— Odatda sharqliklarning qo‘li issiq bo‘lguchi edi, lekin og‘oyi sartibning qo‘li sovuq ekan.

Sartibning u bilan suhbatlashgisi yo‘q edi, shuning uchun indamadi. Hikmat Isfahoniy buni fon Valterga nisbatan hurmatsizlik deb o‘ylab, o‘zi so‘zga aralashdi.

— Sartibning o‘ti yuragida, — dedi u tirjayib.

Fon Valter boshidagi siyrak tuklarni silab, suhbatni davom ettirishga urindi.

— Yuragida o‘ti bor odamlar ajoyib odamlar bo‘ladi! — dedi u.

Sartib yana indamadi.

Baland daraxtlar orasidagi yo‘lkada keza boshladilar. Hikmat Isfahoniy Berlin radiosi va uning forscha eshittirishlari to‘g‘risida gap ochdi:

— Bizning xalqimiz xo‘p omi xalq. Ko‘p narsadan bexabar, dunyodan xabari yo‘q. Natsistlarning otini eshitgan, lekin ularning yuksak maqsad va niyatlarini tamomila tushunmaydi. Berlin radiosi shu sohadagi eshittirishlarni ko‘paytirsa yaxshi bo‘lar edi. Bo‘lmasa, avom xalq nemislar to‘g‘risida gap bo‘lsa, ularning inglizlar yoki amerikalilardan hech farqi yo‘q, deb o‘ylashi mumkin.

— Sizning bu orzuyingizni albatta janob Gebbelsga xabar qilaman, — dedi tirjayib fon Valter. — Bu masalaga og‘oyi sartib qanday qaraydilar? Bizning eshittirishimiz bilan hech qiziqadilarmi?

Sartibning ko‘zlari fon Valterning quyuq sariq qoshlari tagidan unga qarab turgan ko‘zlari bilan to‘qnashdi, bevosita o‘ziga berilgan savolni javobsiz qoldirmadi:

— Eshitaman, lekin doim emas, — dedi.

— Afsus, afsus! — deb gapga aralashdi Hikmat Isfahoniy. — Eshitib turish kerak. Men bitta ham eshittirishni xato qilmayman. Eshittirish vaqti kelganda hatto qulog'im ham qichishib qoladi! Ha-ha-ha! ...

— Odatlanib qolgansiz-da, — dedi sartib kulimsirab. — Har qanday odat ham taryokka o'xshab xumor qiladi. O'rgangan odam chekmasa — turolmaydi.

Sartibning har bir so'ziga, ifodalariga diqqat bilan quloq solib turgan fon Valter nemis propagandasining zaharga o'xshatilishini nazaridan qochirmadi. Lekin sir boy bermaslikka tirishib, avzoyini buzmadi. Hikmat Isfahoniy esa nihoyat sartib gapga kirganidan sevinib, kula-kula davom etdi:

— To'g'ri aytdingiz, og'oyi sartib. Radio, matbuot — bularning hammasi haqiqatan ham zaharga o'xshagan narsa bo'ladi. Undan foydalansang — boshingni og'ritadi, foydalanmasang xumor qiladi.

Fon Valter zarbaning o'rnini o'zgartirishga urindi.

— To'g'ri. Dunyoda zahar o'rnida o'tadigan radio va gazetalar juda ko'p. Lekin nemis radiosi ilm-ma'rifat va siyosatdagi haqiqatnigina tarqatadi.

— Masalan, irq nazariyasi kabi narsalarni, — deb gap qistirdi sartib.

Hikmat Isfahoniy o'qrayib qaradi, fon Valter esa sartibning keyingi so'zlaridagi istehzoni sezmaganlikka olib:

— To'ppa-to'g'ri, — dedi jiddiy, — irq nazariyasi nemis fanining so'nggi so'zi, buyuk kashfiyoti. U insoniyatni qutqarib qolish yo'lini ko'rsatib beradi.

— Albatta, albatta! — deb gapga aralashdi, irq nazariyasining nima ekanidan tariqcha ham xabari bo'lmagan Hikmat Isfahoniy. — Irq nazariyasi — buyuk problema. Yer yuzidagi butun chegara va to'siqlar yo'qotilib, savdo rivojlanganidan so'nggina insoniyat erkin nafas oladi.

— Insoniyat tarixi nima? — deb uning so'zini bo'ldi fon Valter. — Qabilalar, millatlar, irqlar kurashi! Qon, qon, doim qon! Biz bu qon to'kishlarga abadiy barham bermoqchimiz. Siz bu haqda nima deb o'ylaysiz, og'oyi sartib?

Sartib fon Valterning ko'zlarida chaqiriq borligini sezdi. Bu chaqiriqni javobsiz qoldirishni lozim ko'rmadi. Chunki bu bilan fon Valterni umidlantirgan bo'lar, u esa o'z navbatida sartib bilan ko'rishishga yana va yana harakat qilgan bo'lar edi. Bunga yo'l qo'yib bo'lmasdi.

— Qon to'kishlarga millatlar va irqlar orasida doimiy va buzilmas tinchlik aloqalari o'rnatilgandagina barham berish mumkin bo'ladi. Lekin adovat va intiqom bilan bunga erishish mumkin emas.

— Lekin har bir millat o'z o'rnini bilishi sharti bilan.

Sartib uning so'ziga ataylab boshqa ma'no berdi:

— Albatta, har millat o'z uyida xo'jayinlik qilishi, o'z ichki ishlari bilan shug'ullanishi, boshqalarning tinchligini buzmasligi kerak. Har kim o'z uyida o'tirib, o'z holicha yashasin. Birovlarning uyiga bosh suqib, xo'jayinlik qilmasligi kerak.

Fon Valterning qo'li boshida tez-tez harakat qila boshladi, qat'iy hujumga o'tish payti kelganini angladi:

— Sartib, — dedi u, — siz aqlli odamsiz, o'z xalqingizni sevasiz va tinchlik bo'lishini istaysiz. Biz sizga do'stlik va sulh taklif etamiz.

Boshlanib ketgan tortishuvning naqadar jiddiy va chuqur ketganini nihoyat payqab qolgan Hikmat Isfahoniy shoshib gapga aralashdi:

— Ey, yarashinglar darrov, janoblar, ittifoq bo'linglar! Dushmanlikdan nima foyda! — dedi-da, bir qo'li bilan sartibning, bir qo'li bilan fon Valterning qo'lidan tutib ularni birlashtirishga urindi.

Fon Valter sartib Salimiyga qo'l cho'zib:

— Bu to'g'ri gap. Nemislar bilan do'st tutinsangiz zarar ko'rmaysiz, — dedi.— Bu do'stlik sizni shunday bir darajaga ko'taradiki, butun Eronning ko'zi sizga tikilgan bo'ladi.

Siyosiy avantyuristning bu qilig'idan g'oyat g'azablangan sartib Salimiy nafrat bilan qo'lini tortib oldi:

— Qo'lingizni boshqalarga uzating, janob fon Valter, — dedi u titrab. — Men vatanfurushlikka o'rgangan emasman.

SAKKIZINCHI BOB

— Onajon, bir ajoyib chit, biram ajoyib chitki, ko‘rsangiz aqlingiz shoshadi. Mayda-mayda chiroyli gullari ham bor. Bor pullarimni berib, ko‘ylakni sotib olishimga sal qoldi-da, — derdi endigina bozordan qaytgan Farida, olib kelgan narsalarini qo‘yaturib.

Kampir kichkina ko‘zlarini qisdi:

— Mayli, qizim, xafa bo‘lma. Xudo xohlasa, pul yig‘ib ko‘ylak ham olarsan bir kun. Undan ham yaxshirog‘ini olasan.

— Ey, onajon, ko‘ylak olishga menga yo‘l bo‘lsin! — dedi Farida uh tortib, so‘ng bozorda eshitganlarini shoshib-pishib gapira boshladi: — Hozir mol bundan besh oy burungiga qaraganda uch marta qimmatlashibdi. Aytishlaricha, yana oshar emish. So‘ng, ovozini pasaytirib, qaynanasining qulog‘iga shivirladi:

— Urush bo‘lar emish. Hamma yo‘llar bekitilarmish. Mol keladigan yo‘l qolmas emish...

— Nimalar deyapsan, bolam, — deb kampir qo‘rqib ketdi, ko‘zlari alang-jalang bo‘lib qoldi, qo‘l siltadi. — Xudo ko‘rsatmasin urushni. Xalqning holi nima kechadi unda? Hamma ochdan o‘ladi-ku.

— Men qaydan bilay, hammayoqda shu to‘g‘rida duv-duv gap. Shunday urush bo‘lar emishki, qon tizzaga chiqarmish. Nemislar yer talab qilishayotgan emish, ruslar bo‘lsa bermaymiz deyisharmish. O‘rtaga inglizlar tushibdi. Bu qurib ketgur inglizlar ularni yarashtirish o‘rniga, janjalni battar qizdirib yuborayotgan emishlar.

— O, bolam-a, inglizlar oraga kirgan bo‘lsa, ish chatoq ekan. Inglizlar urush chiqarmasdan qo‘ymaydi endi. O‘tgan urushda rahmatli qaynanam vafot qilgan edilar. Men u vaqtda sen-day edim. Hech narsaga aqlim yetmasdi. Erta-yu kech ishdan bo‘shamasdim, hali-hali esimda, rahmatlik qaynanam urushni qo‘zg‘agan inglizlar, derdi. Shunday ocharchilik bo‘ldiki, odamlar

hatto odam go'shti yedilar. Xudoyi taolo bunday kunni hatto kofirning ham boshiga solmasin...

Kampir qo'lidagi ishni bir chetga surib, o'rnidan turdi.

— Menga qara, qizim, qosh qoraymasdan borib, bir fol ochirsam deyman. Balki odamlarni bekorga qo'rqitishayotgandir.

Farida uni to'xtatdi.

— Yaxshisi Faridundan so'raymiz, — dedi u.— U o'qimishli odam. Davlatlar o'rtasidagi ishlarga tushunadi. — Keyin Farida Faridunning eshigini qiya ochdi-da:

— Mumkinmi, Faridun aka? — deb so'radi.

Faridun deraza oldida turib, kosibning ishdan qaytayotgan shogirdlariga qarab, ularning noma'lum kelajagi to'g'risida qayg'uli o'yga cho'mgan edi. Faridaning ovozini eshitib o'girildi.

— Kiraver, Farida.

Farida bilan kampir ikkalasi uning xonasiga kirishdi. Farida hayajon bilan bozordan eshitib kelganlarini gapirib berdi.

— To'g'rimi shular, Faridun aka?

Faridun xalqaro ahvolni ularga oddiy so'zlar bilan tushuntirishga tirishdi. Keyin qo'shib qo'ydi:

— Qo'rqmanglar! Mabodo urush bo'lsa ham ilgarigi urushga o'xshagan bo'lmaydi. Ilgarigi urushda butun dunyo mehnatkashlarining himoyachisi yo'q edi. Hozir ezilgan xalqlarning Sovet Ittifoqidek himoyachisi bor. Sovet hukumati urushning bo'lmasligi uchun barcha choralarni ko'rmoqda. Shunda ham urush boshlanib ketsa, Sovetlar uning mehnatkashlar foydasiga tugashi uchun harakat qiladilar.

— Xudo Sovetning bayrog'ini baland qilsin! — deb duo qildi kampir va fotiha o'qidi.

— Men hozir, — dedi u keliniga, o'rnidan turib. — Har holda bir fol ochirib ko'raychi, nima derkin.

Kampirning bu qilig'idan Faridunning bir kulgisi qistadi, bir achindi. Xotinlar bilan narigi xonaga chiqar ekan, Faridaning xarjlariga ko'zi tushdi.

— Bu nima, Farida? — deb so'radi u.

Faridun Sarxonga ta'sirini o'tkazib, bu uyda tinchlik va ahillik yaratgandan beri Farida uni barcha odamlardan ham yuqori

qo'yardi. Faridaning nazarida, Faridun bilan hech kimni tenglashtirib bo'lmasdi. U hammadan ko'ra aqlli, asl va oliyjanob odam edi. O'zi ham sezmagani holda unga yaxshi ko'rinishga tirishardi. Xotinlarga xos ziyraklik bilan Faridunning hech kim sezmagan qiliqlari, xatti-harakatiga razm solar, unga nimalar ma'qul bo'lishi, nimalar ma'qul bo'lmasligini ajratib olishga tirishar edi. Faridun "Ona" romanini ularga o'qib bera boshlagach, uning Faridunga bo'lgan hurmati yana ham ortdi.

Bu hodisa o'tgan juma, Sarxon uyda ekanligida yuz berdi. Kechqurun ovqatdan so'ng, yoniga samovarni qo'yib, undan-bundan gaplashib o'tirgan edilar, kampir jinlardan, dev-parilardan gapirmoqda edi. Sarxon temiryo'ldagi ishlardan shikoyat qildi. Farida esa qo'ni-qo'shnilarnikidan eshitib chiqqanlaridan so'zladi. Shunda Faridun birdan ularning so'zini bo'ldi-da: kelinglar, yaxshisi sizlarga kitob o'qib beray, — deb taklif qilib qoldi. Keyin muhojir qizning kitobini o'qib bera boshladi. U shoshmasdan, xotirjamlik bilan sodda va tushunarli qilib o'qirdi. Uning og'zidan chiqqan har bir so'z tushunarli, ma'lum bir ma'noni aniq anglatib turardi. Ba'zan to'xtab, tushunish qiyin ayrim so'zlarga, jumlalarga izoh berardi, kitobdagi voqealarga o'zining qarashi to'g'risida ham bir ikki og'iz gap qo'shib o'tardi. Kitobning Sofiya haqida gap bo'lgan o'rni Faridaga ayniqsa ta'sir qildi. Faridun shu yerda o'qishni to'xtatdi-da:

— Xotin bo'lsa — ana shunday bo'lsa-da, — dedi.

Beixtiyor aytib yuborgani bu so'zlar uning butun qalbini, butun orzu-umidlarini ifoda qilgandek edi. Shundan so'ng Farida, Faridunga qanday qiz yoqarkin deb o'ylab, biroz tumanli bo'lsa ham shuni ko'z oldiga keltirishga tirishib ko'rdi. Faridaning nazarida, u qiz hamma narsadan burun ish ko'rgan, mahoratli bo'lishi kerak edi. Biror ish bilan shug'ullanmaydigan, bekorchi qizning Faridunga yoqishini Farida hech tasavvur qila olmasdi. Shundan so'ng Faridaning ketma-ket ulanib ketgan mulohazalari: "Xo'sh, sen o'zing nima ish qilayapsan, nima bilan mashg'ulsan?" degan savolga olib keldi. Shundan so'ng u turli xarjlardan qisib qolib tiyinlab to'plagan va Sarxondan yashirib yurgan pulni ko'tarib, bozorga chiqdi. Bu pulni o'ziga ko'ylak olish uchun yiqqan edi. Lekin unga dug, jun taraydigan taroq va jun olib keldi...

— Faridun aka, qachongacha uyda bekor o'tiraman, qachongacha qo'ni-qo'shnilarning g'iybatiga quloq solaman? — deb Faridunning savoliga u ham savol bilan javob qaytardi. — Endi jundan paypoq, qo'lqop to'qimoqchiman. Ham ish qilishga o'rganaman, ham ko'p bo'lmasa-da, Sarxonga yordam qilaman.

Faridun faqat shapaloq bilan musht yeb kun ko'rib kelayotgan bu ayolda yashirinib yotgan, bo'g'ib qo'yilgan yaratuvchilik quvvatini ko'rib hayron qoldi. Faridadagi hayotda o'z joyini topish uchun intilishni — bu o'rin garchi juda arzimagan, ko'rimsiz bo'lsa ham mayli! Na muhtojlik va na zulm sindira olmagan edi. Inson huquqlaridan mahrum qilingan Eron xotin-qizlari ichida Farida kabilar yuz minglarcha edi. Ularga ozgina imkon yaratib berilsa, ular nimalarni qila olmaydilar deysiz? Faridaning bu ishi uni ayni zamonda juda sevintirdi:

— Barakalla, Farida, yasha! — dedi Faridun xursandlik bilan. — To'g'ri yo'lni topibsan!

Kechki ovqatdan so'ng Sarxon Faridun bilan yolg'iz gaplashmoqchi ekanligini bildirdi. Xotinlar narigi xonaga o'tishdi. Sarxonni ishdan qaytgandan beri xayolchan ko'rgan Faridun:

— Nima gap, Sarxon? — deb so'radi g'amxo'rlik bilan. — Parishonroq ko'rinasan?

— Sening bu kitobing rohatimni buzdi, oromimni oldi, Faridun. Forslarning: "Namidonam — rohatijonam"[1] degan bir gapi bor... Hech narsani bilmas edim — tinch edim. Endi bo'lsa har qadamda zulmni ko'radigan bo'lib qoldim. Rohatim buzildi. Biror narsaning yomonligini bilishgina kifoya qilmaydi. Uni yaxshisi bilan almashtirish kerak, axir. Yomonlikni ko'rib turib, undan ko'z yumish insonga yarashmaydi. Ilonni ko'rib, o'ldirmagan odamga la'nat deydilar. Shunday ekan, endi nima qilish kerak?..

Bu "nima qilish kerak?" degan savol Faridunni Sarxondan ham ko'proq bezovta qilar edi. U soatlab, kunlab shu haqda o'ylab: biz ham o'z "ma'naviy vatanimizni" yaratishimiz kerak, degan qarorga kelgan edi. Barcha savollarga javob ana shu edi.

— Sinalgan, ishonchli o'rtoqlaring bormi? — deb so'radi Faridun. — Yolg'iz otning dong'i chiqarmidi?

[1] **Bilmasam** — jonim tinch.

— Nega bo‘lmasin! — deb javob berdi Sarxon. — O‘rtoqsiz ham odam bo‘ladimi? Mening shunday o‘rtoqlarim borki, joningni bersang ham arziydi.

— Juda yaxshi! Yanagi juma ulardan bir-ikkitasini chaqir, tanishaylik.

Sarxon o‘rtoqlarini bir-bir xayoldan o‘tkazdi. Dastlab kimni chaqirish to‘g‘risida o‘ylay boshladi. Faridun uning fikrini bo‘ldi:

— Bu gaplarni Farida oldida ham gaplashish mumkin ediku, — dedi u.

— Ayollarga ishonib bo‘ladimi? — deb kuldi Sarxon hazil aralash.

Faridun jiddiy e’tiroz bildirdi:

— Yo‘q, do‘stim, bu gaping to‘g‘ri emas. Bunday gaplarni tashla! Ayollar bizdan ko‘ra ko‘proq eziladilar, lekin ularning qo‘lidan bizdan kam ish keladi deb o‘ylama.

So‘ng Faridaning yangi boshlagan ishi to‘g‘risida so‘zlab berdi.

— Xotiningni har qancha hurmat qilsang arziydi! Ha, arziydi!

Xotinining bu ishi Sarxonning qalbida nozik hislar uyg‘otdi. Farida Sarxon uchun shu paytgacha bo‘lgan og‘ir yukdan uning yordamchisiga aylangan edi. Bu vaqtga qadar uning ortiqcha yuk bo‘lib yurishiga sabab nima edi? Buning sababi ko‘p edi. Endi ko‘zi ochilib yorug‘ dunyodagi haqiqatni ko‘rgach, har yerda ham: qo‘ni-qo‘shnilarnikida ham, tanish-bilish, qarindosh-urug‘larinikida ham ayollarning huquqsiz qul singari yashashini ko‘ra boshlagan edi. Ayollar bilan boshqacha muomalada bo‘lishni hech kim xayolga ham keltirmas edi. Bu yigit esa er bilan xotin o‘rtasida tamoman yangicha muomala yaratmoqda edi. Faridun bu oddiy va og‘ir hayotni yaxshilash mumkinligini ko‘rsatmoqda edi. Bu fikrlar bilan tanishgan Sarxon bunda o‘zining ham gunohkor ekanini g‘ira-shira payqay boshlagan edi. Bu fikrlar go‘yo uni politsiya uchastkasiga sudragandek bo‘lar edi, Farida bilan qilgan muomalasini bir-bir uning yodiga solib: “Sen jinoyatchisan, tavba qil!” deb ta’zir berayotgandek tuyular edi. U har qancha xijolat tortsa ham Faridani chaqirib, Faridunning oldida undan uzr so‘rashga erkaklik g‘ururi yo‘l bermadi.

* * *

Hikmat Isfahoniy viloyatlardan tortib Tehrongacha har yerda ham aholi orasida iqtisodiy ahvolning yomonlashuviga qarshi ko'tarilayotgan ochiq norozilikni eshitib va ko'rib turardi. Norozilik bildiruvchilar faqat dehqonlar bilan shahar kambag'allarigina emas edilar. Dehqonlar bilan shahar kambag'allarini laqillatish va aldab ketish Hikmat Isfahoniy uchun uncha qiyin ish emas edi. Uni bezovta qila boshlagan narsa badavlat yer egalari bilan o'rtahol savdogarlar orasida tug'ilayotgan norozilik edi. Bular suvning qayerdan loyqalanayotganini biladigan, bunga aqli yetadigan odamlar edi. Hikmat Isfahoniy ana shulardan ko'proq qo'rqardi. Ular nemis va ingliz savdo vakolatxonalari yordami bilan mamlakatda sun'iy ravishda inqiroz yaratgan korchalonlarni fosh qilib qo'yishlari mumkin edi. Bu esa uning jamiyatda "vatanparvar", "taraqqiyparvar", "demokrat" deb orttirgan nomiga dog' tushirishi mumkin. Shuning uchun vaqti g'animatda so'lga burilib, Nikipur, Badr, Manuk Martinlardan ajralib turish kerak edi. Barcha zarur ishlar amalga oshirib bo'lingandi: sotilishi lozim mollar sotib yuborilgan, olinishi lozim bo'lgan mollar esa olib bo'lingan edi. Bozorda maqsadga muvofiq narx-navo o'rnatilgan edi. Lekin Nikipurlardan ajrab chiqishining o'zi kifoya qilmas edi. Avval xalqqa "yaqinlashmoq", qolaversa o'rta savdogarlar bilan yer egalarining hurmat va ishonchini qozonmoq lozim edi. Lekin So'fi Eronparastning "Sado" gazetasi bilangina keng xalq ommasini aldab bo'lmasdi.

Tutunga to'lib ketgan xonada chilimni tortib-tortib, uning ohangdor xo'rillashiga quloq solib, endi ko'rilajak tadbir to'g'risida, uning ikir-chikirlari to'g'risida o'ylardi, bu to'g'rida bir qarorga kelgach, xizmatkorga Kurd Ahmadni chaqirishni buyurdi. U Kurd Ahmadni ko'pdan beri bilardi. Uning xarakteri ham, qalbi va tabiati ham o'ziga tamomila teskari ekanini bilardi. Kurd Ahmadning o'z e'tiqodi bilan demokrat ekani, xalqni va vatanni juda qattiq sevishi unga ma'lum edi. Kurd Ahmad nihoyatda halol va insofli odam edi. Uning bu yaxshi fazilatlarini bilgan Hikmat Isfahoniy o'zining barcha ishlarini unga dadil topshiraverar edi. Hikmat Isfahoniyning boshqa mulohazalari ham bor edi. Uning qo'li-

da Kurd Ahmaddek odamning xizmat qilishi jamiyatning ko'zi oldida Hikmat Isfahoniyning eng halol va oliyjanob odamlarga tayanuvchi demokrat degan nomini yana ham mustahkamlashga xizmat qilishi kerak edi. Shuning o'zi ham kichkina gap emasdi. Kurd Ahmadning haqiqiy demokratik qarashlariga kelganda esa Hikmat Isfahoniy bu tomondan butunlay xotirjam edi: Rizo shoh Pahlaviy mamlakatda shunday bir rejim yaratgan ediki, bunday rejim hukm surgan bir yerda Kurd Ahmad sira qo'rqinchli emas edi. Bulardan tashqari Kurd Ahmadning Kurdiston va Ozarbayjonda do'stlari va tanish-bilishlari juda ko'p edi. Bularning ichida uning obro'si baland edi. Kurd Ahmadning aytgani aytgan edi: na kurdlar, na ozarbayjonlar uning maslahatidan chiqmas edilar. Nihoyat "demokratizm" va "vatanparvarlik" o'yinini o'ynash Hikmat Isfahoniy uchun nard o'yinidan kam zavq bag'ishlamas edi. Bu o'yinda u Kurd Ahmadni o'zi uchun eng ishonchli yo'ldosh, eng yaqin yordamchi hisoblardi.

Kurd Ahmad ichkari kirdi. Salom berib, o'tirdi. Hikmat Isfahoniy unga xo'mrayib qaradi.

— Soqolim yo'qligi uchun so'zimning ham qadri yo'q, — deb gapni xalq maqolidan boshladi, — Bu insofsizlarning xalq boshiga naqadar kulfat keltirganliklarini ko'rdingmi? Bozordagi ahvoldan xabardor bo'lsang kerak, a? A'lo sifatli Buxoro qorako'lining bahosi oltmish realga tushibdi. Uch oy oldin to'qson real edi. Bir yil oldingi bahosi to'g'risida-ku, hali hech narsa deyayotganim yo'q. Xalqning uyini kuydirdilar, ularning jazosini Xudo bersin. Butun mamlakat iqtisodini xarob qildilar.

Kurd Ahmad Hikmat Isfahoniyning lo'ttibozlik qilayotganini juda yaxshi tushunib turar, lekin bu safar o'yin nima maqsadga xizmat qilishini hali bilmas edi. U o'z xo'jayinining xulq-atvorini juda yaxshi o'rgangan edi. U bu odamning nardni qanday o'ynashini bilganidek, sharoitga qarab fikrlarining yo'nalishini ham oldindanoq bilib ola bilardi. Isfahoniyning har bir so'zi "so'lga" burilmoq payti kelgandan dalolat berardi.

— Ha, vaziyat og'ir, — deb uning gapini tasdiqladi Kurd Ahmad.

— Og'ir deyish kam hali! Halokatli ahvol! Halokatli!.. Xalqning holiga boqsam, yodimga bir hikoya tushadi... Ehtimol, eshit-

gandirsan ham... "Bir kishi xizmatkori bilan qishloqdan shaharga qarab safarga chiqibdi. Yo'l uzoq bo'lganidan kechgacha shaharga yetib kelolmabdilar. Qorong'i tushib qolibdi. Bir dalada tunashga to'g'ri kelibdi. Xo'jayini otdan tushlb ovqatlanib olibdi-da, egarni boshiga qo'yib, uyquga ketibdi. Otni esa xizmatkorga topshirib, uni qo'riqlab o'tirishga buyuribdi. U xizmatkoriga uncha ham ishonmas ekan. Shuning uchun tez-tez uyg'onib, xizmatkordan otni so'rarkan.

— Ali bola!

Xizmatkorni mudroq bosayotgan ekan, uning tovushidan cho'chib, darhol boshini ko'taribdi. Otga bir qarab qo'ygach, otning o'tlab yurganini ko'rib, yengil nafas olibdi-da:

— Labbay, og'o? — debdi.

— Nima qilayapsan, o'g'lim?

— Yulduz sanayapman, og'o!

— Sanayver, o'g'lim, sanayver. Ot turibdimi?

— Ha, og'o, turibdi. O'tlab yuribdi.

Xo'jayini yana uxlabdi, lekin birozdan so'ng yana uyg'onib, chaqiribdi:

— Ali bola!

— Labbay, og'o?

— Nima qilayapsan?

— Mana bu polizdagi qovun ko'pmikin, yo osmondagi yulduz ko'pmikin, deb hisoblab yotibman.

Hisoblayver, o'g'lim, hisoblayver. Yaxshi qilasan. Ot qani?

— O'tlab yuribdi.

Xo'jayin uchinchi marta uyg'onib, otni so'rasa, xizmatkor uxlab qolibdi, ot esa g'oyib bo'libdi. Ot o'g'rilari uni allaqachon olib ketib qolishgan ekan.

— Nima deysiz, og'o? — depti xizmatkor sekingina.

— Nima qilyapsan?

— Otni-ku o'g'irlab ketishdi, endi egarni kimga ortsak ekan, deb o'ylab yotibman. — Ana shunday, azizim, — deb davom etdi Hikmat Isfahoniy hikoyasini tamomlab, — Nikipurlar boyib, cho'ntaklarini pulga to'latib olishdi, bu — go'rga-ya, lekin faqir fuqaroning ahvoli nima kechadi? Men ana shuni o'ylayapman. Ularni qanday qilib kiyintirib, qornini to'ydirish mumkin?

Hikmat Isfahoniyning maqsadga yaqin kelganini sezgan Kurd Ahmad:

— Ularning ham g'amini yeyish siz kabi g'amxo'r og'olar ustiga tushadi, — deb javob berdi.

— Bo'lmasamchi? Bu axir mening xalqim-ku. Shuning uchun men ularga g'amxo'rlik qilishim kerak. Sendan iltimosim shuki, ellik ming tuman ajratib, qiynalib qolgan mayda va o'rta savdogarlarga qarz ber. Aytib qo'yginki, men bir tiyin ham foyda talab qilmayman. So'ng yana Tehron, Tabriz, Mehobod va Mashhadning qiynalgan kambag'allari uchun ham yigirma ming tuman ajrat. Kamchiliklariga yaratishsin.

Kurd Ahmad o'rnidan turdi. Lekin Hikmat Isfahoniy uni to'xtatdi.

— Bu ishni o'zing boshqar, toki pul eng qiynalganlarga, yetim-yesirlarga borib tegsin, viloyatlarda hukumat organlarida o'tirgan muttahamlarning cho'ntagiga tushib ketmasin.

* * *

Sovetlar bilan savdo bitimlari tuzishni talab qiluvchi tovushlar tobora balandroq eshitila boshladi. Bu tovushlar faqat xalq ommasining tovushi emas, balki Eronning milliy va iqtisodiy manfaatlarini ozmi-ko'pmi qadrlaydigan turli demokratik guruppalarning va tabaqalarning ham tovushi edi. Ayrim savdogarlar va korxona egalari ham ba'zi joylarda shu masala yuzasidan fikr bayon qila boshladilar. Kurd Ahmad bunday sharoitda haqiqatni xalqqa faqat matbuot vositasi bilangina tushuntirib berish mumkin deb hisoblardi, buning uchun vaqt g'animatda darhol varaqalar tarqatish lozim edi... Bu fikr "Sado" gazetasida bosila boshlagan yolg'on-yashiqlardan so'ng yana ham zarur bo'lib qoldi.

— Salom, og'oyi Kurd Ahmad, — degan tanish tovush eshitildi.

Qarshisida turgan Faridunni ko'rarkan, uni quchoqlab o'pgisi keldi. Lekin o'zini tutib, uning qo'lini mahkam siqdi. Keyin Faridunni ombor kontorasining kichkinagina xonasiga o'tkazib yubordi, ketidan o'zi ham kirdi-da, ingliz qulfli eshikni sharaqlatib yopdi.

— Qayerlarda qolding, aziz birodar? — deb so'radi u hayajon bilan. — Qani o'tir, nimalar bo'lganini bir-bir so'zlab ber-chi.

Faridun o'zining Tehronga qanday yetib kelganini, qanday ish axtarganini va hozir qayerda turishini qisqacha gapirib berdi.

— O'zimga bir necha sodiq o'rtoq ham topib qo'ydim — deb Sarxon, Farida, temiryo'lda strelkachi bo'lib ishlaydigan Rustam to'g'risida ma'lumot berdi.

— Ajoyib odam ular, yuraklari toza, fikrlari bir. Men jamiyatimizda jon-dili bilan ozodlikka intiluvchi, ozodlik uchun oxirgi tomchi qoni qolguncha kurashishdan toymaydigan odamlar juda ko'plab topilar ekan, degan xulosaga keldim. Ularning hammasi yaxshi kunlar kelishini orzu qiladilar. Lekin har kim o'z holicha norozi bo'lib yurgani bilan u kun kela qolmaydi. Birlik bo'lishi lozim. Minglarcha odamlarning irodasini, fikrini birlashtiradigan bir kuch lozim.

Kurd Ahmad uning bu fikrlariga quloq solib o'tirar ekan ko'zlari chaqnar edi. Yangi do'stining jo'shqin qalb egasi ekani va yuksak g'oyalarga intiluvchi bir odamligini ko'rib, benihoyat xursand edi. Faridun esa, nazarida, aytmoqchi bo'lgan gaplarining juda oz qismini ham aytib bera olmagandek tuyulardi. Xayolidan kechirgan, miyasiga to'planmoqda bo'lgan fikrlarning yuzdan birini ham ifoda eta olmagandek edi, shuning uchun ham yanada aniq, ravshan ifodalar axtarib topishga tirishardi.

— Bizga ma'naviy vatan lozim. Siyosiy tashkilot tuzishimiz kerak, — deb hayajon bilan o'z so'zini tugatdi, Kurd Ahmadga tomon engashib qizg'inlik bilan.

Kurd Ahmad ham unga tomon biroz engashib, Faridunning ko'zlariga tikildi-da:

— Bu yo'lning dorlar, qop-qorong'i zax zindonlarga olib borishi mumkin bo'lgan yo'l ekani to'g'risida o'ylab ko'rdingmi? — deb so'radi.

— Bilaman, — dedi Kurd Ahmadning hamon shubhalanib so'zlayotganini sezib qolgan Faridun. — Boshqalarni ozodlikka chiqarish uchun kimdir jonidan kechishi ham kerak-da.

U Pavel Vlasov bilan Nikolayning so'zlarini esladi. To'g'rirog'i, ularning so'zlarini aniq eslay olgani yo'q, lekin Gorkiy qahramonlarining qoni go'yo o'z qon tomirlarida qaynab ketgandek bo'ldi, yana ham qizg'inlik va ishonch bilan gapira ketdi:

— Men ozodlik yo'lini yoritish uchun yuragimni mash'al qilib yondirishga ham roziman! Bu yo'lda ketimizdan ergashadiganlar son-sanoqsiz bo'ladi. Bizning orqamizdan faqat Sarxonlar, Musa akalar, Rustamlargina emas, balki bir burda nonga zor bo'lganlarning hammasi ergashadi. Ulardan tashqari, o'ziga to'q bo'lgan kishilar ham ergashadilar, chunki hozirgi usul-idoramiz, bu jamiyat odamlarning qornini to'ydira olmaydigina emas, u kishilarga ma'naviy oziq berishdan ham ojiz. Jamiyatimizning buyuk dardi — ma'naviy jihatdan ochligidir! — Bu so'zlarni aytar ekan, Faridun sartib Salimiy kabi kishilarni ko'z oldiga keltirdi.

— Juda ajoyib fikrlar aytding, do'stim, — dedi uning qizg'in so'zlariga quloq solib turgan Kurd Ahmad va Faridunning qo'lini qattiq siqdi. — Men senga munosib kvartira topib qo'ydim: bir yerda turib qolish sen uchun xavfli.

Ko'chaga chiqib, foytun yolladilar. Kurd Ahmad manzilni aytgach, oftobdan yashirinishni bahona qilib foytunning ustini yoptirdi.

Foytunchi qamchisini osmonga ko'tarib o'ynatdi, bo'yni turli-tuman jig'a va qo'ng'iroqlar bilan bezatilgan otlar ko'chani changitib yura ketdilar. Foytunchi goh otlarga, goh yo'lda tez-tez duch kelib turgan chayqovchilar, yuk aravalari va foytunlarga qarab:

— Ha-ha, ho-ho, fis-fis, — deb qichqirib qamchi o'ynatardi.

Yo'lda Faridun Kurd Ahmadga kula-kula o'zining dastlabki kelib tushgan joyidagi xo'jayinlari to'g'risida, ularning har kun ertalab urishib qo'ydi-chiqdi bo'lib, kechqurun yana yarashishlari to'g'risida; bundan bezor bo'lib boshqa joyga ko'chgani, yangi ko'chib kelgan joyidagi uy xo'jasining bangi o'g'li uni ulfatchilikka chaqirgani to'g'risida gapirib berdi. Keyin Sarxon oilasi haqida, hatto kampirning Nasriddin shoh rasmi solingan chinni kosasi to'g'risida ham so'zlab berdi.

Kurd Ahmad Faridunning Suhayliylar qo'lida ishlayotganini eshitib:

— Ular yaramas odamlar! Ularning olgan nafasi ham yolg'onchilikdan iborat, — dedi.

Faridun xo'jayinlarining ikkita daftar tutishlarini aytib, buning sababini so'radi.

Kurd Ahmad uning savdo ishlaridan xabarsizligidan kuldida:

— Bunday kirdikorlar savdo olamida eng oddiy narsa hisoblanadi, — dedi. — Ular soliqlardan qochib rasmiy daftarda daromadlarni juda kamaytirib ko'rsatadilar... Senga boproq biror ish axtarishga to'g'ri keladi. Ular seni biror falokatga duchor qilib qo'yishlari mumkin: qo'llaridan keladi bu. Chunki Suhayliylar xizmatchilarini o'zlarining yaramas ishlarida ishtirok etishga majbur qiladilar... Aks holda, ishini chatoq qiladilar.

Faridun sartib Salimiyni xotirlab, u to'g'risida gapirib berdi. Uning Erondagi millatlar to'g'risidagi, Erondagi oliy tabaqa vakillarining sotqinligi to'g'risidagi fikrlarini Kurd Ahmadga yetkazdi.

— Menimcha, u juda halol va e'tiqodli odamga o'xshaydi, — deb o'z so'zini tugatdi Faridun.

— Taniyman! — dedi Kurd Ahmad bir qancha vaqt fikrga cho'mib o'tirgach. — Ajoyib odam. U, shubhasiz, nomusli odam. Lekin baxtsiz. Quyi tabaqalarga ishonmaydi, yuqoridagilardan nafrat qiladi. Umidi faqat shohdan, lekin shoh sartibga ishonmaydi, unga shubha bilan qaraydi. Sartibning dushmanlari juda ko'p: bizning Hikmat Isfahoniy, sarhang Safoiy va boshqa ko'pgina saroy a'yonlari... Uning eng xavfli va ashaddiy dushmani — sarhang Safoiydir. Sarhang sekin-asta unga choh qazimoqda.

— Ularning o'rtasida dushmanlik bormi?

— Ham shaxsiy, ham ijtimoiy dushmanlik bor. Sartib halol odam, sarhang esa — yolg'onchi, o'taketgan iflos, vijdonsiz shaxs. Sartib o'z xalqini sevadi, sarhang esa shuhratparast, mansabparast. Bundan tashqari, har ikkalasi ham Hikmat Isfahoniyning qizi Shamsiya xonimni yaxshi ko'rishadi, lekin Shamsiya xonimning umidi Shohpurdan[1] bo'lgani uchun bularning ikkalasiga ham e'tibor qilmaydi. Sarhang Safoiy Shohpurning Shamsiya xonimga nisbatan bo'lgan munosabatining jiddiy emasligiga ishonadi, shuning uchun ham o'zining eng xavfli raqibi deb sartibni biladi. Chunki Shamsiya xonimning Shohpurdan umidi uzilsa, sartibni tanlashi shubhasiz.

[1] **Shohpur** — shahzoda.

Foytun Istanbuliy xiyobonidan o‘tib, kichkina bir ko‘chada to‘xtadi. Kurd Ahmad foytunchiga javob berib, bir yo‘lakka kirdi-da, kichkinagina eshikni taqillatdi.

Ularga uy egasi, yoshi anchaga borib qolgan xotin eshik ochdi, mehmonlarni ichkari kiritdi.

Ular ichkari kirishlari bilan yuqoriga ko‘tariladigan g‘isht zinapoyaga duch keldilar. Bu yer salqin, lekin ancha zax edi.

Kurd Ahmad Faridunni uy egasiga tanishtirdi.

— Sizga ham mehmon, ham o‘g‘il bo‘ladi. Onalik qilishingizga ishonaman, — dedi.

— Xush kelibdi, jonim bilan, — deb javob berdi ayol.

Yuqoridan tushib kelgan o‘rta bo‘yli va hamisha jismoniy ish bilan mashg‘ul bo‘ladigan kishilarga xos pishiq gavdali yigit ularning gapini bo‘lib:

— Salom, taqsirim, — dedi, — Xush ko‘rdik!

Kurd Ahmad uning qo‘lini siqib, Faridunga uni tanitdi.

— Tanishinglar! Bu kishi temiryo‘lchi og‘oyi Rizo Qahramoniy bo‘ladi. Birga yashaysizlar.

— Juda xursandman, — dedi Faridun unga qo‘lini uzatar ekan.

Qahramoniy Faridunning qo‘lini o‘zining ulkan ho‘li bilan qattiq siqdi.

— Xush kelibsiz, aziz do‘st! Qani ichkariga marhamat qiling!

Ular boloxonaga chiqib, ichkari kirishdi. Bu uchala derazasi ham ko‘chaga qaragan uzunchoq uy edi. Ikki chetdagi deraza tagida bittadan kravat turar, ularning usti katak-katak qizg‘ish odeyal bilan yopilgan edi. O‘rtada ovqat stoli, chetda esa yozuv stoli turar edi. Har bir kravatning yonida polga gilamchalar to‘shalgan edi. Polning qolgan joyi ochiq bo‘lgani uchun qoq yer ochilib qolib, xonaning chiroyini buzib turardi.

Rizo Qahramoniy Faridunga kravatlardan birini ko‘rsatib:

— Mana bu sizning kravatingiz bo‘ladi! Aybga buyurmaysiz, bori shu! — dedi-da, Kurd Ahmad bilan unga yumshoq divandan joy ko‘rsatdi.

Faridun uning jiddiy va mehribonlik bilan porlagan ko‘zlariga boqdi. Bu ko‘zlarda kishilar o‘rtasida ruhiy yaqinlik yaratuvchi, ularni eski qadrdonlar singari bir-biroviga yaqinlashtiruchi muhabbat va soddalik bor edi.

* * *

Faridunning to'satdan ko'chib ketadigan bo'lib qolganini eshitgach, Sarxonlar oilasi taajjubda qoldi. Ular norozilik bilan bir-birlariga qarab-qarab qo'yar edilar.

Ayniqsa Farida xafa bo'ldi, Faridunga norozilik bilan qarar, lekin indamas edi.

— Xafa bo'lmanglar, — dedi Faridun. — Men sizlardan qiyomatgacha ham ajralmayman. Qayerda bo'lsam ham kelib turaman.

Nihoyat Farida tilga kirdi, og'ir sukutni buzib, Sarxonga murojaat qildi:

— Hech bo'lmasa manzilini olib qol, har zamonda xabar olib turasan.

Sarxon og'iz ochguncha bo'lmay, Faridunning o'zi gap boshlab qoldi:

— Men endi Istanbuliy xiyobonining orqasidagi ko'chada Rizo Qahramoniy degan o'rtog'imning uyida turaman. U ham temiryo'lda ishlaydi. Tanish bo'lsangiz ham ajab emas.

— Rostdanmi? — deb xursand bo'lib qichqirdi Sarxon. — Juda yaxshi taniyman. U ta'mirlash ishlari nazoratchisi. Mening parovozimni ham necha marta ta'mirlab bergan. Ajoyib yigit! Rostimni aytsam, unikidan boshqa yerga ketadigan bo'lsang, aslo yubormasdim!

Faridun ular bilan xayrlashib hovliga chiqqanda, Farida unga sovg'a taqdim qildi.

— Birinchi jufti senga, kiyib yur, — dedi-da, unga yangi to'qib tugatgan bir juft jun paypoq tutqazdi.

Kampir Nasriddin shohning rasmi solingan chinni kosada suv olib kelib, Faridunning orqasidan sepdi:

— Oq yo'l, o'g'lim, — dedi u.

* * *

Kurd Ahmad Faridunga bir to'da savdogarlarning chet el savdo vakolatxonalari bilan til biriktirib, mamlakatda iqtisodiy inqiroz yaratganlarini mufassal tushuntirib berdi.

— Jim turib bo'lmaydi! — dedi u Faridunga inqiroz natijasida xalqning qanday falokatda qolganini tushuntirib bergach, — xalqqa haqiqatni aytish kerak! Varaqa chiqarish lozim.

Bu fikr, amaliy faoliyatga o'tish yo'lidagi dastlabki qadam bo'lgani uchun Faridunni g'oyat quvontirdi.

— Buni bosib chiqaradigan joy bormi?

— Yo'q. Biror bosmaxona bilan aloqa bog'lamaguncha qo'lda yozishga to'g'ri keladi...

Varaqa matnini Faridun bir kechada tuzib chiqib, uni Rizo Qahramoniyga o'qib berdi. Matnning asosida ikki sinf o'rtasidagi sinfiy kurash to'g'risidagi fikr yotardi. Ezuvchilar va eziluvchilar! Dunyodagi barcha falokatlar ezuvchilarning talovchilik xarakteri tufayli dunyoga kelishi to'g'risida gapirilardi. Shu sinf mahv etilgandagina ahvol tuzalishi mumkin. Shunda dunyo jannatga aylanadi. Rizo Qahramoniy qulog'iga yangi eshitilgan bu jasoratli so'zlar yozilgan varaqani juda yoqtirdi. Ikkalasi ham Kurd Ahmadning oldiga borib, varaqani unga topshirdilar. Kurd Ahmad varaqani diqqat bilan bir necha marta o'qib chiqdi. Bu so'zlar unga ham yoqdi. Jamiyatning kelishmas ikki dushman lagerga bo'lingani to'g'risidagi fikrning aniq va ravshan qilib bayon etilgani unga juda ma'qul bo'ldi. Lekin bu so'zlarga nimadir yetishmaganga, go'yo ular hozirgi kundan, hayotdan ajrab qolganga o'xshardi.

— Hozirgi kunning ehtiyojlari to'g'risida gapirish kerak. Bu to'g'ri fikrlarni har bir kishiga tushunarli misollar bilan isbotlash kerak. Ekspluatatorlar sinfi faqat kambag'allarninggina dushmani emas, balki barcha xalq, butun mamlakat, butun davlatning dushmani ekanini ham uqtirib o'tish kerak, chunki ular nomussizlik bilan milliy manfaatlarga xiyonat qilmoqdalar. Sovetlarga dushman bo'lganlari uchun o'zlarini imperializmning quchog'iga otmoqdalar. Vatanni va xalqni sotmoqdalar...

Faridun ham, Rizo Qahramoniy ham Kurd Ahmadning bu ilovasini ma'qulladilar, varaqani shu fikrlar asosida tuzatdilar.

Kechasi bilan varaqa yozishga va'da qilib, endi ketmoqchi bo'lib turgan edilarki, Kurd Ahmadga uni sartib Salimiy ko'rmoqchi ekanini bildirdilar. Kurd Ahmad bir nafas ikkilanib turgach:

— Mayli, kiraversin, choy qo'yinglar, — dedi-da, sartibni kutib olish uchun hovliga chiqdi.

Sartib ichkari kirishi bilan Faridun ham, Rizo Qahramoniy ham hurmat bilan o'rinlaridan turdilar. Kurd Ahmad sartibga joy ko'rsatdi. Sartib yumshoq kresloga o'tirdi.

— Bu og‘olar kimlar? — deb so‘radi u.

Kurd Ahmad Faridunni ko‘rsatdi:

— Bu og‘o mening ozarbayjonlik do‘stalarimdan, o‘qituvchi, Tehronga universitetda o‘qimoqchi bo‘lib kelgan. Bu og‘o esa usta. Depoda ishlaydi. Parovozlarni yaxshi biladi.

Kurd Ahmad tanishtirar ekan, Faridun bilan Rizo Qahramoniy o‘rinlaridan turib, hurmat bilan bosh egdilar.

— O‘qishga kelib juda yaxshi ish qilibsiz, — dedi sartib Faridunga, — har bir xalqning, har bir xalqninggina emas, balki butun insoniyatning yo‘li universitet orqali o‘tadi.... Biror yordamga muhtojlik sezsangiz hech tortinmay menga murojaat qilavering.

Faridun tashakkur bildirdi.

— Og‘oyi sartib juda ma’rifatparvar odam, — dedi Kurd Ahmad. — Universitetning ko‘pgina studentlariga yordam qilganlar.

— Men og‘oyi sartibning oliyjanob qalbli kishi ekanlarini o‘z ko‘zim bilan ko‘rib ishonganman, — dedi Faridun.

Sartib unga qiziqdi.

— Qayerda ekan, yigit? — deb so‘radi u.

Faridun choyxonani eslatib, o‘zim ham choyxonadagi dehqonlar orasida edim, dedi.

— Ozarbayjonlik bir kishi sifatida mening vatanim to‘g‘risida aytgan yuksak fikrlaringiz uchun sizga tashakkur bildiraman.

Uning barcha suhbatdan xabardor ekanligiga ishongan sartib:

— Hamid Hamidiyning ishi nima bo‘lganini bilasanmi? — deb so‘radi.

Faridunning unga savol nazari bilan qarab turganini ko‘rib, so‘zida davom etdi:

— Talay kishilarni qamoqqa olish to‘g‘risida buyruq berildi. Hamidiyning ahvoli juda chatoq bo‘lsa kerak.

— Hali ham adolatga umid bog‘laylik, — dedi Faridun. Sartibning lablarida achchiq tabassum paydo bo‘ldi.

— Be! Adolat emish! Shu sarhanglar, shu sotqin ministrlar, saroy amaldorlari bor ekan, adolat to‘g‘risidagi gaplar quruq xayol bo‘libgina qoladi, xolos... qaysi fakultetga kirmoqchisan?

— Huquq fakultetiga.

— Qaysi fandan dars berarding?

— Tarix bilan Eron adabiyotidan.

Sartib biror narsani xotirlamoqchi bo'lgandek xayolga cho'mdi. U Faridunga boshqa hech narsa demay, Kurd Ahmadga yuzlandi:

— Mening kelganimga taajjublanayotgan bo'lsangiz kerak?

— Xush kelibsiz! Eshigimiz doim ochiq.

— Ba'zi narsalar to'g'risida so'zlashmoqchi edim.

Faridun bilan Rizo Qahramoniy choyni kutmay, ketmoq uchun qo'zg'aldilar.

— Bizni kechiring, sartib, — deb unga qo'l uzatdilar.

Sartib ham o'rnidan turdi. Faridun bilan xayrlashar ekan, gap orasida:

— Yigit, bir kishiga adabiyotdan dars berishga rozi bo'larmiding? — deb so'radi. — O'qish uchun, menimcha, biror ish bilan mashg'ul bo'lishing ham kerakdir, axir?

Faridundan oldinroq Kurd Ahmad javob berdi:

— Juda yaxshi bo'lardi, og'oyi sartib. Og'oyi Faridun xuddi shunday bir ish axtarib yuribdi.

— Unday bo'lsa, ikki kundan keyin menga bir uchra, — dedi sartib.

Faridun:

— Xo'p bo'ladi, — deb javob berdi-da, Rizo Qahramoniy bilan birga chiqib ketdi.

Ular ketgandan so'ng Kurd Ahmad ikki stakanda atirday choy olib keldi. Birini sartibning oldiga qo'yib, o'z joyiga o'tirdi. Sartib choyga qand solib, kichkina qoshiqcha bilan aralashtirar ekan gap boshladi:

— Xabaringiz bo'ldimi, men ministrlikdan ketayapman. Ikki kun burun meni ministr chaqirtirdi. Uning so'zlaridan iste'fo berishim kerakligini angladim. Bunga o'zim ham juda xursandman. Sizning oldingizga kelishdan esa maqsadim boshqa.

Mavjud odatga ko'ra Kurd Ahmad uning hurmati uchun o'rnidan turib o'tirdi.

— Buyuring, xizmatingizga tayyorman.

Sartib mamlakatda ro'y bergan og'ir vaziyatdan so'zladi. Dehqonlarning holi yomonlashgani, zamindorlar bilan dehqonlar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish lozimligi to'g'risida gapirdi.

— Islohotlar qilish zarurati tug'ildi. Fikrlarimni a'lohazratga yozib yubormoqchiman. Vatan halokatga tomon bormoqda. Ozarbayjon bilan Kurdistonning ahvoli mendan ko'ra sizga yaxshiroq ayon, albatta. Ba'zi masalalarni oydinlashtirmoq uchun oldingizga kelgan edim.

Kurd Ahmad masalaga o'zining qanday qarashini bildirmay, sartib Salimiyning so'zini oxirigacha tinglagach, o'zi bilgan ma'lumotlarni unga aytdi.

Salimiy ketarkan:

— Rahmat! Bir oy istirohat qilganday bo'ldim, —deb Kurd Ahmadning qo'lini siqdi.

* * *

Faridun bilan Rizo Qahramoniy tinimsiz varaqa ko'chirishar edi. Faridun har bir harfni diqqat bilan yozardi. U o'zini go'yo jamiyatning yangicha hayot va axloq qonunlarini yozayotgandek his qilardi. Rizo Qahramoniy ham xuddi shunday ilhom va g'ayrat bilan ishlardi. Ikkalasi ham o'ttiz nusxadan ko'chirishdi. Varaqa matni ularga yod bo'lib qoldi. Kechasi soat uchlarga borib yuz nusxa tayyor bo'lganda, qadlarini rostladilar. Termosdagi choydan ikki stakanga quyib ichdilar. Bu ish ularni zarracha charchatgani yo'q, aksincha, yanada ruhlarini ko'tarib yubordi. Hech birining uyqusi kelmasdi, o'z kravatlariga o'tirib, suhbatlasha boshladilar.

Faridun Ozarbayjondagi qishloq hayoti, Musa aka va Gulnoz to'g'risida so'zlab berdi.

— Eh, uning naqadar go'zal va sof yurakli qiz ekanini bilsang edi! — dedi u oh tortib, —Lekin ular shunchalik og'ir hayot kechirishadiki, asta qo'yaverasan. Uni hayot deb ham bo'lmaydi!

Rizo Qahramoniy unga tasalli berdi:

— Xafa bo'lma, azizim, sabr qil. Ular ham yorug'likka chiqishadi. Dunyo hamisha birdek turmaydi!

Faridun fikrini tarqatish uchunmi, yoki qiziqibmi:

— Endi, sen o'z hayoting to'g'risida biroz gapirib ber, Mozandarondan ham bir eshitaylik, — dedi.

— Hayot hamma joyda ham bir xil, — deb gap boshladi Rizo Qahramoniy, keyin shoshmasdan o'zining bolaligidan boshlab, to shu kungacha kechirgan hayotini gapirib berdi.

U yigirma olti yillik hayotining yigirma yilini mehnat qilib o'tkazdi. Mayda savdogar bo'lgan otasi uni o'ziga yordamlashish uchun do'konchasiga olib chiqqanda, u endi oltiga kirgan edi. U otasi bilan birga saharlab do'konga chiqib ketar, qosh qorayganda uyga qaytardi. Kun bo'yi otasi unga har xil ish buyurib turardi:

— Rizo, o'g'lim, yugur, Mashadi Abbosga ayt: xaridorga bir stakan choy olib kelsin! ...

— O'g'lim, darrov mana bu o'n tumanlikni maydalab kel!

— Qaqqayib turma, og'oning qopiga ko'mir to'lat!

Erta sahardan to kechqurungacha Rizoga ish topilar, o'tirib birpas dam olishga vaqt bo'lmas edi. Shuning uchun ham uyga kelgach, onasi qo'ygan ovqatni nari-beri yeb, darrov o'ringa cho'zilardi. Boshini yostiqqa qo'yar-qo'ymas qattiq uxlab qolardi. Ko'pincha tushiga ham otasining buyruqlari kirib, uyoqdan-buyoqqa zir yugurib yurardi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, u o'zini baxtli hisoblardi. Chunki ularning qilishga ishi, yegulik ovqati bor edi. Lekin bozorning yaramas qonunlari tez orada ularning bu kichkinagina baxtini ham barbod qildi. Otasi o'ziga nisbatan boyroq bir savdogarning hiylasiga aldanib, kattaroq foyda qilish umidida qaltis bir ishga aralashib qoldi. Ikki oy ichida u bor-yo'g'idan ajralib, do'konni yopib qo'yishga majbur bo'ldi. Bir amallab ishni yana yurgizib yuborish uchun uydagi bor narsalarni sotdi. Lekin, baribir, o'zini qaytadan tiklay olmadi. Shundan so'ng otasi Rizoni bir temirchi oldiga olib bordi, temirchi qanchadan-qancha iltimoslardan so'ng Rizoni shogird qilib olishga rozi bo'ldi.

Rizo temirchining do'konida ertadan kechgacha goh dam bosib, goh bolg'a urardi. Buning evaziga kuniga ikki qiron[1] mehnat haqi olardi.

O'ylayverib, betob bo'lib qolgan otasi:

— Hamma qiyinchilikka chida, o'g'lim, bir hunarning egasi bo'lib ol! Qo'lingda bir hunaring bo'lmasa, bizning mamlakatda tirikchiliging o'tmaydi! — deb qayta-qayta takrorlar edi.

Rizo ikki yil temirchiga shogird bo'lib ishladi. O'g'li o'n ikkiga to'lar-to'lmas, otasi vafot etdi. Undan Rizoga bitta yirtiq gilam bilan, paxtalari oqib yotgan o'rin-ko'rpa qoldi.

[1] **Qiron** — Eron puli, 17–18 tiyinga to'g'ri keladi.

Bularning holiga achinib va bolaning g'ayrat bilan ishlashini ko'rib, temirchi Rizoning ish haqini bir qiron oshirdi. Bu uch qiron o'zi bilan onasining ochdan o'lmasligi uchun bir amallab yetib turdi. Lekin ular shunga ham rozi edilar. Chunki, bulardan ko'ra battarroq hayot kechiruvchilar ming-ming edi. Uch qiron u yoqda tursin, uch shay ham topolmaydiganlar son-sanoqsiz edi: hammayoqda ishsizlik, shafqatsiz ishsizlik hukmron edi. Ishsiz qolish qo'rquvi ostida Rizo o'n sakkizga kirguncha temirchiga shogird bo'libgina qolmadi, hatto malay bo'lib ham xizmat qildi. Hech qanday ishdan bo'yin tovlamadi, har qanday og'ir ishdan ham qochmadi, otasining vasiyatini esidan chiqarmay temirchilik hunarini yaxshilab o'rgandi, mohir temirchi bo'lib yetishdi. O'n sakkizga to'lganida temirchi uni o'z oldiga chaqirib oldi-da:

— O'g'lim, — deb gap boshladi, — endi sen katta bo'lding, mohir usta bo'lib olding, endi o'zingga birorta do'kon och, yoki biror yerga borib ishla. Endi men seni shogird qilib ushlab turolmayman, chunki uch qironga ishlatishga vijdonim yo'l qo'ymaydi, lekin ortiq to'lashga ham qurbim yetmaydi. Biror bolani shogird qilib olaman, bir bechora bir burda non puli ham topadi, mening ishim ham bitadi. Men qo'limdan kelganicha senga o'z hunarimni o'rgatdim. Rahmat desang — otangga rahmat, demasang ham mayli, o'zing bilasan.

Rizo ustaga tashakkur bildirdi:

— Ming rahmat, usta! Siz otam o'rniga otalik qildingiz, sizdan hech yomonlik ko'rmadim. Qiyomatgacha unutmayman.

Rizo rosa bir oy ish axtarib sarson bo'ldi, keyin onasining "bir kunimizga yarar" deb bir necha yillardan beri tiyinlab yig'ib yurgan yegirma tumanini poraga berib, temiryo'l stansiyasi deposiga qora ishchi bo'lib kirdi. Bu yerda u kechani kecha, kunduzni kunduz demay, g'ayrat bilan ishlab ustaga yordamchi bo'ldi. Nihoyat mohir usta bo'lib tanildi. U bilan birga ishlaydigan hamma temiryo'l ishchilari undan rozi edilar. Xushtabiat, dilkash, mehnatsevar bo'lgani uchun hech kim uni yomon so'z bilan tilga olmas, taniganlarning hammasi uni izzat-hurmat qilar edi.

Bu yerda uning mavqeyi ancha yaxshilanib qolgan bir paytda, onasi oshqozon yarasi bilan og'rib, vafot etdi. U yolg'iz qoldi.

Ishdan keyin sovuq va bo'm-bo'sh uyga qaytishni istamas, kuniga o'n olti-o'n sakkiz soatlab holdan toyib qolguncha ishlar edi. Bir kun uni stansiya boshlig'ining oldiga chaqirdilar. Boshliq uni baland bo'yli, taxminan sakkiz pud keladigan, barvasta qomatli, ko'zoynak taqqan kishi bilan tanishtirdi-da:

— Og'o Tehrondan keldilar, sening mohir ustaligingni eshitib, Tehron deposiga ishga olib ketmoqchilar, — dedi. — Xo'sh, nima deysan?

Bu taklif Rizoga yoqib tushdi.

— O'zingiz bilasiz! — deb javob berdi u.

Javobdan mamnun bo'lgan boshliq bilan tehronlik bir-birlariga qarab kulimsirab qo'yishdi. Bir oydan so'ng u Tehron temiryo'l stansiyasi deposida ta'mir ishlari ustasi bo'lib ishlay boshladi. Dastlabki paytlarda u Tehronda, o'ziga begona bo'lgan muhitda, tanholikda juda qiynalib ketsam kerak, deb qo'rqdi. Lekin ishga tushgandan so'ng tez orada o'ziga do'stlar, o'rtoqlar topib oldi. Ko'p o'tmay shular orqali Kurd Ahmad bilan ham tanishdi. Rizo Qahramoniyning hayoti Faridunga o'z hayotini eslatdi. Ularni o'z o'rnidan qo'porib, tog'-toshlarga uloqtirib urgan bo'ron birdek tuyuldi. Faridunning yodiga yana "Ona" romani tushdi. Ishchilarning hayoti har yerda ham bir xil. Naqadar buyuk haqiqat edi bu!

— Rizo, — dedi Faridun, — hammamizni ham ezib yotgan muhit bir emasmi? Hindiston kambag'allari ham, xitoy qashshoqlari ham, Parij ishchilari ham bir xil yashaydilar, dushmanlarimiz ham bir. Bunday o'ylab ko'rsang, haqiqatni darrov payqab olasan, ko'rinishidan hamma har xil turmush kechirayotganga o'xshaydi. Hindistonda bir boshqa yashaydilar, bizda boshqacha, Fransiyada yana boshqacharoq. Lekin yaxshiroq qarasang, hamma yerda ham mehnatkashlarni bir xil zahar bilan zaharlashlarini, ularning hamma mamlakatlarda ham og'ir hayot kechirishini darhol fahmlaysan. Shuning uchun ham hammamiz birlashuvimiz lozim. Bunga millatimiz ham, dinimiz ham to'sqinlik qilmasligi kerak. Menga sartib nima uchun yoqib qoldi? Shuning uchun yoqib qoldiki, uning nazarida ozarbayjonlik ham, fors ham, kurd ham qardoshdir. Sizlarning ham millatlarga qanday qarashingiz, ularni bir-biridan ajratmasligingizni yaxshi ko'raman. Chunonchi, Kurd Ahmad — kurd,

sen forssan, endi sizlarga mana men ham qo'shildim, men esa — ozarbayjonman. Biz qon-qardosh, og'a-ini emasmizmi, axir?

— Hali shoshma, — deb uning gapini bo'ldi Rizo Qahramoniy, — men seni yaqinda armani Simonyan bilan tanishtirib qo'yaman. O'shanda nima der ekansan?

— O, unda butun boshli internatsional bo'lar ekan! — dedi-da, xursandlik bilan Rizo Qahramoniyni quchoqladi Faridun.

* * *

Faridun Lolazor va Istanbuliy ko'chalarining chorrahasida to'xtab: "Uyga ketsammikin yoki Sarxonnikiga borib, Faridadan unga berilgan varaqalarni tarqatgan-tarqatmaganini bilsammikin? Yo uyiga maxsus taklif qilgan sartibnikiga borsammikin? Axir, sartibga so'z bergan edim-ku" deb o'ylanib qoldi.

Suhayliylarning uni yanada qiyinroq ishlarga solmoqchi ekanliklarini ham esladi. Uni kenja Suhayliy bilan tamaki tayyorlash ishlariga Ozarbayjon bilan Kurdistonga yubormoqchi ekanliklari yodiga tushdi. Yo'q, u yerdan ketish, boshqa bir ish topish lozim edi. Bu masalada Faridunga sartibdan boshqa kim yordam bera olar edi! Shunday deb o'ylab, foytun kira qildi-da, sartib Salimiynikiga qarab ketdi. Bog'bon "She'r bilan quyosh" belgisi bo'lgan og'ir darvozani ochdi. Faridunni ichkari kiritib, o'zi sartibga xabar bergani ketdi. Sartibning hovlisining uzunligi besh yuz, eni uch yuz metr edi. Hovlida azim chinorlar o'sib yotardi. Hovlining o'rtasidagi to'rt burchak hovuzning atrofi gulzor qilingan edi. Darvozadan to ikki qavatli g'isht imoratgacha cho'zilgan g'isht yo'lkaning usti tok so'rilari bilan qoplangan edi. G'uj-g'uj uzum boshlari oltindek tovlanib osilib yotardi.

Xizmatkor qaytib chiqdi. U hali Faridunga bir og'iz so'z aytishga ulgurmasidanoq, sartibning ovozi eshitildi:

— Marhamat, og'oyi Faridun, marhamat! Xush kelibsiz.

Faridun sartibni ovora qilmaslik uchun tez yurib bordi. Sartib mehribonlik va oddiy harakat bilan uning qo'lini siqdi. Uning kayfi chog', chehrasi ochiq edi.

Sartib Faridunning qulog'iga:

— Eshitdingizmi, shaharimizda varaqalar paydo bo'libdi? — dedi u. — Bizdagi janoblar xalqni qo'y podasidek bir gap deb

hisoblar edilar. Holbuki, mana uning ichidan ham qahramonlar chiqib qoldi!

Faridun o'z mehnatining samaralari to'g'risidagi xabarni dastlab ana shu yerda eshitdi. G'oyat xursand bo'lib ketganidan o'zini sartibning quchog'iga tashlab. "Sartib! Bu bizning ishimiz!" deb qichqirishiga sal qoldi.

Lekin hech narsadan xabari yo'q odamdek:

— Qanday varaqalar? — deb so'radi.

Sartib javob berishga ulgurmasidanoq suhbatlarini yoqimli ayol ovozi bo'ldi:

— Og'oyi sartib, bizni uyda issiqda bo'g'ib qo'yay dedingiz-ku. — Faridun ovoz kelgan tomonga qayrilib qaradi. Ular oldiga zinadan uch erkak bilan ikki ayol tushib kelishdi. Sartib keksa kishi bilan yosh bir ayolni Faridun oldiga olib kelib tanishtirdi. Avval uni yoshi va mavqeyiga ko'ra sartibni juda hurmat qilishi bilinib turgan, hassali mo'ysafidga tanishtirdi.

— Og'oyi Hofiz Biluriy, tanishinglar; bu kishi mening yangi do'stim og'oyi Faridun bo'ladilar. Universitetda, sizning fakultetingizda o'qimoqchilar.

Mo'ysafid kishi Faridunga diqqat bilan tikilib uning qo'lini siqdi.

— Juda yaxshi, juda yaxshi, — dedi u xursandlik bilan, — hamisha ozodlik ma'rifatga bog'liq deb takrorlayman-ku.

— Bu kishining universitetga kirib olishi uchun yordam berarsiz, deb ishonaman, — dedi sartib Salimiy.

Bu orada uydan chiqqan boshqa kishilar hovuz bo'yiga kelib, gullarni tomosha qilishardi. Ulardan biri Hofiz Biluriyni chaqirib qoldi. Biluriy allanima demoqchi bo'lib turgan edi aytolmadi:

— Kechirasiz, og'oyi Faridun, bu to'g'rida tashvish chekmang, men yordam beraman... Hozir og'oyi sartib va Shamsiya xonim bilan suhbatlashib turing, yana ko'rishamiz.

Faridun Shamsiya xonimning ismini eshitar ekan, diqqat bilan qizga tikildi. Qizning yosh bolalarnikiga o'xshash chehrasida soddalik va mas'umlik bor edi. Ingliz materialidan tikilgan yengil ko'ylagi uning xipchadan kelgan kelishimli qaddi-qomatini yaqqol ko'rsatib turardi. Qo'liga xuddi ko'ylagining rangidan qo'lqop kiygan, boshida esa shlapa. Baquvvat va gavda-

li sartibning yonida u kichkinagina, xuddi nozik qo‘g‘irchoqqa o‘xshardi.

— Tanishinglar, — dedi sartib unga Faridunni ko‘rsatib.

Shamsiya kulimsirab, qo‘lini uzatdi. Faridun uning nozik qo‘lini siqar ekan, allaqanday bir hislar ta’siri ostida nechundir Gulnozni, Faridani esladi. Ular bilan Shamsiya orasida yer bilan osmoncha farq bor edi. Ularning xirmonda ishlashdan, panshaxa va g‘alvir tutishdan, o‘tin yorish va kartoshka artishdan, qozon va kir yuvishdan va hokazolardan dag‘allashib ketgan qo‘llari oldida Shamsiyaning bu oppoq va turli xushbo‘y hidlari kelib turgan qo‘llari go‘yo jo‘rttaga quyoshdan yashirinib tutilgandek rangsiz edi. Faridun bunday yumshoq qo‘llarni hali hech ushlamagan edi. U seskanib ketganday qizning qo‘lini darhol qo‘yib yubordi. Shamsiya ham buni sezdi, yana boyagidek kulimsirab, Faridunga qiziqsinib qaradi:

— Og‘oning ixtisoslari nima? — deb so‘radi.

Faridunning o‘rniga sartib Salimiy javob berdi:

— Og‘oyi Faridun muallimlar. Eron adabiyoti tarixini juda yaxshi biladilar. Sizga yangi topgan muallimim shu kishi edilar.

Shamsiya yana Faridunni boshidan oyoq ko‘zdan kechirdi-da:

— Og‘oyi Faridun rozi bo‘ladilarmi? — deb so‘radi.

— Menimcha rozi bo‘ladilar. Shunday emasmi, og‘oyi Faridun?

Faridun quyidagi bayt bilan javob berdi:

“Do‘st yo‘lida tikmasang sen garchi bosh,
O‘yla u ortiqcha yuk, go‘yoki tosh”.

Shamsiya jilmayib:

— Naqadar ajoyib she’r, — dedi. — Ertaga soat o‘n bilan o‘n ikkining o‘rtasida kutaman. Bu yil qanday bo‘lmasin o‘rta maktabni bitirib olishimga yordam qilib yuboring.

Keyin manzilni yozib berish uchun sartibdan qog‘oz bilan qalam so‘radi. Sartib to‘rt enlik yon daftari bilan avtoruchkasini uzatdi. Qiz Faridunga manzilini yozib berdi.

Faridun choydan so‘ng ketish uchun qo‘zg‘alar ekan, sartib uni eshikkacha kuzatib:

— Boshqalarni ham o‘qiting, o‘zingiz ham o‘qing, — deb uning qo‘lini mahkam siqib xayrlashdi.

* * *

Farida bilan kampir Faridunni xursandlik bilan qarshi oldilar. Faridun kelganda kampir katta, yorug‘ xonada o‘tirib ip yigirar, Farida esa jun ko‘ylak to‘qir edi. Aziz mehmonni ko‘rishi bilanoq har ikkisi ham ishini bir chetga qo‘yib o‘rnidan turishdi. Farida samovarga olov tashlay boshladi. Kampir esa qadimgi temir sandiqni ochib, bitta xalta oldi. Qand solib qanddonni to‘ldirgach, xaltani yana sandiqqa tashlab qulflab qo‘ydi.

— Juda pishiq bo‘lib ketibsiz-ku, ona, — deb hazillashdi Faridun.

— Nima qilay, bolam? Qand-qurs yo‘q bo‘lib ketarmish, urush yaqin emish. Mana, biroz g‘amlab qo‘ydim, senga o‘xshagan aziz mehmonlar kelganda qo‘yaman-da.

Farida samovarga olov tashlab ichkari kirdi, Faridunning varaqalar to‘g‘risidagi savoliga tez va hayajon bilan javob bera boshladi:

— Varaqalarni qo‘ynimga tiqib, bozorga chiqdim. Dastlab allof do‘koniga kirib, ul-bul xarid qilgan bo‘lib, bitta varaqani shu yerga tashlab ketdim. Ikkinchisini paypoq olgan kishi bo‘lib, attorlik do‘koniga tashlab chiqdim. Juda ajoyib paypoq edi-da! Yana bittasini gazlama do‘konida qoldirib chiqdim. Bittasini hech kimga ko‘rsatmay bir uyning eshigiga yopishgirib qo‘ydim. Qaytishda qarasam yigirmatacha odam to‘planib o‘qiyapti! “O‘qinglar, o‘qinglar, balki haqiqatni tushunib olarsizlar!” deb o‘yladim. Faridun aka, shu bilan dunyo o‘zgaradi deb o‘ylayapsizmi?

Faridun jilmaydi.

— Yo‘q, Farida! Dunyoni shu qadar buzib yuborishganki, bu varaqalar yordami bilan tuzatib bo‘lmaydi. Lekin bu varaqalar dunyoni yaxshilash uchun nimalar qilish lozimligini odamlarga tushuntirib beradi.

— Demak, hali yo‘l juda uzoq ekan-da? — deb gapga aralashdi kampir. — Yorug‘ kunlarga hali beri chiqmas ekanmiz-da?

— Shoshilmang, onajon, shoshilmang! Yo'l qanchalik uzoq bo'lmasin odamlar uning ancha qismini o'tib qo'yishgan.

— Men shoshilayotganim yo'q, bolam... Joning omon bo'lsin, nima bo'lsa bo'lar. O'zimning qayg'umni qilmayman. Mening bir oyog'im yerda bo'lsa, bir oyog'im go'rda. Men mana shu kelin bilan o'g'lim to'g'risida o'ylayman. Boshyalang, oyoqyalang bola-chaqalar to'g'risida qayg'uraman. Tezroq kela qolsin o'sha kun, yosh-yalanglar shu azoblardan qutulishsin. Men ochimdan o'lamanmi, ajalim yetib o'lamanmi — buning farqi yo'q.

Shaharga tarqatilgan bu yuz varaqa minglarcha odamlarning qalbida umid yaratdi, uylarga sevinch olib kirdi, ularni bir lahza bo'lsa ham haqiqat nuri bilan yoritdi. Odamlar o'z turmushlarini o'zgartirishi kerak bo'lgan allaqanday voqealar bo'lishini kuta-boshladilar. Ilk qadamlarning bunday natija berishi Faridun qalbini yangi va yanada kattaroq ishlar qilish havasi bilan to'ldirdi.

TO‘QQIZINCHI BOB

Faridun har kuni Shamsiyaga Eron adabiyoti va umumiy tarixdan ikki soat dars berardi. Qiz uni shaharda, o‘z uyidagi mehmonxonada Sa’diy va Firdavsiyning hikoya, dostonlarini va Hofizning g‘azallarini zavq bilan tinglar edi. She’rlarning shirin va ohangdor kuyini tinglar ekan, go‘yo o‘zini unutgandek bo‘lardi.

Ko‘pincha u:

— Yana bitta g‘azal o‘qing! — deb iltimos qilardi.

Ko‘p o‘tmay ular do‘stlashib ketishdi. Qiz sekin-asta unga shunday o‘rganib qoldiki, o‘zining dardi va sevinchini u bilan eng yaqin do‘stidek o‘rtoqlashadigan bo‘ldi.

Bir juma kuni ishlardan bo‘sh bo‘lgan Faridun istirohat qilgani Lolazorga chiqdi. Ko‘cha odam bilan to‘la payt edi. Uzoqdan Shamsiyaga ko‘zi tushdi.

— Salom, xonim!

Qizdan xushbo‘y hid kelardi. Buni Faridun ancha uzoqdanoq sezdi. Shamsiya unga yaqinlashdi, sekin-sekin kezib, suhbatlashmoqqa boshladilar.

Shamsiya aristokratik doiralarda va saroyda odat tusiga kirib ketgan soxta va sun’iy ta’sir bag‘ishlaydigan nozik harakatlar qilishga va tovushiga ohangdorlik berishga harakat qilardi. Bularning hammasi yuqori tabaqalarni faqat quyi tabaqalardangina emas, balki yuqori tabaqadagi xonimlarni ham biridan birini ajratishga xizmat qilardi. Lekin bu soxtalik niqobi ostidan ham Shamsiyaning xarakteridagi soddalik va yoshlik go‘zalligi yaqqol ko‘zga tashlanib turar, bu esa qizning husniga husn qo‘shardi. Lekin Faridunni unga yaqinlashtirgan narsa bu emasdi.

Hikmat Isfahoniy kabi badavlat va aristokratning oilasida tug‘ilib o‘sgan Shamsiya xonim uchun Tehronning barcha eshiklari ochiq bo‘lishi tabiiy. Barcha ministrlarning uyidan tortib, ministrlik eshiklari, hatto saroy eshigi ham Shamsiya uchun doim

ochiq edi. Tehrondagi chet el elchixonalaridan tortib ofitserlar va davlat arboblari orasida ham uning tanish-bilishlari bor edi. U fransuzchani o'z ona tilisidan ham yaxshi bilar, o'z harakatlari bilan go'yo yuqori tabaqalarning simvoli edi. Lekin shular bilan bir qatorda uning yana bir ajoyib xususiyati bor ediki, bu uni o'z oliy tabaqasidan ajratib turardi: u tabiatan sodda, oddiy bir qiz edi. Xarakteridagi bu xususiyati natijasida u o'zining "past" tabaqadagi maktabdosh o'rtoqlari bilan shu paytgacha aloqasini uzmagan, ular bilan ham do'stona munosabatda yashardi. U quyi tabaqadan chiqqan kishilarning sof va tabiatan sodda bo'lishini juda yuqori baholar edi. Bunday odamlarning ayollarga nisbatan munosabatlarini ayniqsa qadrlardi. O'zi yashayotgan muhitda ayollarga nisbatan bunday oliyjanob munosabatni ko'rmagan Shamsiya bu sodda odamlardagi bunday oliyjanoblikni g'oyat yuksak baholar edi. Shunday xususiyatlarning Faridunda ham borligini birinchi uchrashgan kundanoq payqagandi. Faridunning unga nisbatan izzat-hurmat bilan muomala qilishi unga juda yoqar, shuning uchun u bilan birga bo'lgisi kelardi.

— Oilangizning ahvoli qalay? Saroyga borib turibsizmi? U yerda urush masalasiga qanday qarashadi? — deb so'radi Faridun qizdan.

— Rahmat, oilam yaxshi, hammasi sog'-salomat. Saroy eshigi ham hali bizga ochiq. Urush masalasiga kelsak, bu juda murakkab masala. Har kim o'z bilganicha qaraydi. A'lohazrat bitta qat'iy amr berish bilan cheklandi: shubhali odamlardan birontasini ham ayamaslik haqida buyruq berdi... Ehtiyot bo'ling, og'oyi Faridun, ehtiyotsizlik bilan aytib yuborilgan biror og'iz so'z katta falokatga sabab bo'lishi mumkin.

— Xonim, bu nima deganingiz? Biz a'lohazratning eng sodiq fuqarolaridan bo'lamiz. A'lohazratga yaxshilikdan bo'lak hech narsani istamaymiz. Shohpur qalay? U bilan ko'rishib turibsizmi?

— Har kun ko'rishamiz. Shahzoda bizning Shimrondagi bog'imizga kelmagan kun yo'q. Ertaga ham katta ziyofat beryapmiz. Borasizmi?

Bu savolni berib, Shamsiya fikrga toldi, uning bolalarga xos chehrasi jiddiy tusga kirdi.

— Ertaga kechqurun soat oltida mashina yuboraman. Manzilingizni bering. Lekin bir narsani oldindan kelishib olaylik. Men sizni o‘z ismingiz bilan tanishtira olmayman. Avvalo sizning kambag‘al oilasidan ekaningizni, ikkinchidan esa, ozarbayjonligingizni sir saqlash kerak. Bularning har ikkisi ham sizni og‘ir ahvolda qoldirishi mumkin. Men sizga yangi ism qo‘yaman — Jamshid Isfahoniy, mening Isfahondan kelgan xolamning o‘g‘li bo‘lasiz...

— Lop etib og‘oyi Hikmat Isfahoniy kelib qolsa, siz ham, men ham mushkul ahvolga tushib qolmaymizmi?

— Xavotir bo‘lmang. Otam ertaga kechqurun soat oltidan boshlab, navbat bilan oldin ingliz elchixonasida, keyin amerika elchixonasida, undan so‘ng esa nemis elchixonasida bo‘ladi. Bittasida ziyofat, bittasida savdo masalalari, yana bittasida, bilmadim, yana nima...

— Yo‘q, xonim, — dedi Faridun bir minutcha fikrga tolgach. — Men birovning nomi bilan yashashni istamayman. Buning ustiga men bunday ziyofatlarga borib o‘rganmaganman.

— Yaxshi, bo‘lmasa o‘z ismingizda qolavering. Men sizni student deb tanishtiraman, bo‘ptimi?

— Rahmat.

— Juda soz! Men sizni Tehronning tanlangan xonimlari bilan tanishtirib qo‘yaman. Lekin, go‘zallarni ko‘rganda ko‘zingizni shira bosib, meni unutmasangiz deb qo‘rqaman.

— Bizning bir maqolimiz bor: “Har narsaning yangisi, lekin do‘stning eskisi yaxshi” deydilar.

— Demak, kelishdik. Kutaman! — deb Faridun bilan xayrlashdi Shamsiya.

Shamsiya ketgach, Faridun uning so‘zlari to‘g‘risida o‘ylab ketdi. “Ehtiyot bo‘ling, og‘oyi Faridun!” Qizning bu so‘zlari unga ogohlantirishdek tuyuldi: “Bu so‘zlarda allaqanday narsaga ishora bo‘lsa kerak?” deb o‘yladi Faridun, ammo qizning bu gapni aytgandagi chehrasini eslab: “Yo‘q, bu gap uning og‘zidan tasodifan chiqib ketdi!” deb o‘z taxminidan voz kechdi.

Kechqurun kun botgach, Faridun uydan chiqib, Aram Simonyanlarnikiga ketdi. Ular Lolazor xiyobonining boshidagi ikki qavatli binoda turishar edi. Uyning ko‘cha eshigi ostida, zinapoya-

ning yonginasida bir magazin joylashgan bo'lib, bu magazinda turli narsalar: qimmatbaho mo'ynadan tortib, chinni idish-u, oltin-kumush buyumlargacha sotilardi. Doktorning uyiga kirish uchun magazin yonidan o'tib, tor zinadan chiqish va dahlizga ochiladigan Eshikning qo'ng'irog'ini bosish lozim edi. Dahlizning o'ng va chap tomonida ikki eshik bor edi. Ung tomondagisi uch xonadan iborat bo'lgan doktorning uyiga olib kirardi. Uzunroq katta xona doktorning qabulxonasi va mehmonxonasi edi. Xonaning devorlariga Eronning bir qancha qadimiy miniaturalari osib qo'yilgandi. Xonaga kichkinagina divan va bir necha yumshoq kreslo qo'yilgan, o'rtada to'garak choy stoli turardi. Bu xonadan ko'cha tomoni balkonli ikkinchi xonaga o'tilardi. Bu doktorning butun meditsina asboblari va dori-darmonlari saqlanadigan kabinet edi. Doktor kasallarni shu xonada ko'rar edi. Uchinchisi yotoq edi. Bu xona devoriga katta Tabriz gilami qoqilgan bo'lib, bu gilamda yilning to'rt faslini tasvir qilgan rasmlar ishlangan, har faslning tasviri tagiga rasmga atab bir bayt she'r yozilgan. Qarshi tomondagi devorga, kravatlar tepasiga moyli kraskalar bilan yalang'och bir ayolning rasmi solingan edi. Doktordan oldin bu xonada yashagan bir savdogarning qoldirgan bu yodgorligini yashirish uchun bu devorga Hindistondan keltirilgan va toj kiydirish marosimi tasvir etilgan gilam qoqilgan edi.

Dahlizning chap tomonidagi ikki tavaqali eshik Aram Simonyanning xonasiga olib kirardi. Unda ikki xona bor edi. Birinchi xona yozuv stoli, bir necha kitob javoni, stullar va radiopriyomnik qo'yilgan kichkinagina stolcha bilan jihozlangan edi. Aram o'rtoqlarini derazalari dahlizga ochiladigan xonada qabul qilardi. Ikkinchi xonaga yog'och kravat qo'yilgan bo'lib, to'rdagi devoriga Simonyanlar oilasining turli yillarda tushgan suratlari osilgan edi. Bu xona uning yotog'i edi. Aram Simonyan doktor Simonyanning o'g'li edi.

Doktor Simonyan chor hukumati zamonidayoq Rossiyadan Tabrizga, undan Tehronga ko'chishga majbur bo'lgan erkin fikrli kishi edi. U o'z ixtisosiga mohir bo'lganidan Tehronda tez shuhrat topgan, zo'r obro'ga ega bo'lgan edi.

O‘zini erkin tutar, hech kimga tobi bo‘lmasdi. Uning hurmati Tehrondagi faqat arman ziyolilari va savdogarlari ichida emas, balki ozarbayjon va forslar orasida ham zo‘r edi.

Doktorning o‘g‘li universitetning so‘nggi kursida o‘qir edi. U qobiliyatli, g‘ayratli, ozod fikrli va jasoratli yigit edi. Mutolaa qilishni juda yaxshi ko‘rardi. Fors, ozarbayjon va arman tillaridan tashqari ingliz va fransuz tillarini ham mukammal bilardi. Ozarbayjon tili bilan maxsus shug‘ullangan edi, u hatto qadimiy arman kitoblarini ham o‘qiy olar edi.

Faridunni bu oila bilan Kurd Ahmad tanishtirib qo‘ydi. Faridun keyinchalik bu yerga keladigan boshqa odamlar bilan ham tanishib olgan edi.

Vaqt o‘tishi bilan Simonyanning uyi Kurd Ahmad bilan Faridunning uchrashadigan yeriga aylanib qoldi. Doktornikiga har kun qanchadan qancha har xil odam kelib ketar, bu odamlar turli millat, turli tabaqa va turli hunardagi odamlar edi.

Bularning hammasi bu yerda uchrashib turish uchun juda qulay sharoit yaratgan edi.

Faridun eshik qo‘ng‘irog‘ini bosdi. Aramning o‘zi eshik ochdi. Bu, uyda begona odam borligini bildirardi. Boshqa vaqtlarda eshikni xizmatkor ochar edi. Aram Faridunni ichkariga olib, eshikni yopdi-da, darhol mehmonni qo‘ltiqlab yotoqxonasiga boshladi.

— Qolganing juda yaxshi bo‘ldi, — dedi u Faridunga. — O‘rtoqlar yig‘ilib bo‘lishdi. Faqat seni kutib turgan edik.

Faridun ichkari kirganda olti kishi o‘rnidan turib u bilan ko‘rishdi. Hamma o‘tirgach, u hammani birma-bir ko‘zdan kechirdi. Ko‘zi Kurd Ahmad va Rizo Qahramoniy ko‘zlari bilan uchrashar ekan, ularga do‘stona jilmayib qo‘ydi. Boshini egib ular bilan alohida salomlashdi. Kurd Ahmad o‘tirganlarga murojaat qildi:

— Og‘oyi Faridun shimoldan kelgan, u ancha vaqt qishloqda ishlagan, dehqonlarning kayfiyatini yaxshi biladi. Ozarbayjon dehqonlari chekayotgan azob-uqubat unga juda yaxshi ma’lum, o‘zi ham boshidan ba’zi narsalarni kechirgan, qanday kulfatdan qutulganini eshitsangiz hayratda qolasiz!

Kurd Ahmad bilan yonma-yon o‘tirgan, qorachadan kelgan bir kishi bu gapdan so‘ng:

— Yigitning mardi jangda bilinadi, — dedi. — Yaproq ham shamol va chang-to'zonlarga chidash beradi-da. Men umri bo'ronlar quchog'ida o'tgan odamni asl inson deb hisoblayman.

Faridunning gapirayotgan kishining so'zlariga diqqat bilan quloq solib turganini ko'rgan Kurd Ahmad ularni tanishtirib qo'ydi:

— Bu kishi Karimxon Ozodiy. Tamaki fabrikasida ishlaydi.

Shu payt yana eshik qo'ng'irog'i chalindi. Aram tez chiqib ketdi. Birpasdan so'ng Sarxon bilan Farida kirib kelishdi. Ularni ko'rib, hamma o'rnidan turdi.

— Tanishinglar, — dedi Faridani ko'rib sevinib ketgan Faridun. — Bizning yo'limizdan boruvchi birinchi eronlik ayol.

Kurd Ahmad kulib e'tiroz bildirdi:

— Yo'q, azizim, — dedi u, — yana bitta ayolimiz bor. Karimxon Ozodiyning xotini — Xovar xonim. Bugun biroz tobi qochib turgani uchun kelmabdi.

Faridun Sarxon bilan Faridaga o'z yonidan joy berdi. Farida juda hayajonda edi, shu qadar hayajonda ediki, o'zining qayerga kelib qolganini ham bilmasdi. U na xonani va na undagi odamlarni ravshan ko'rardi. Hatto gapni ham aniq tushunmasdi.

Hamma o'tirgach, Karimxon Ozodiy Faridunga murojaat qilib:

— Ozarbayjonda ahvol qanday? — deb so'radi.

Faridun endi tanishgan bu odamlarga o'z fikrimni qanday qilsam tushuntirarkanman deb biroz o'ylanib qoldi. Gap boshlaganida, o'z fikrini to'liq va ravshan tushuntira olmayotganday tuyuldi. Lekin u qishloqda ko'rgan va boshidan kechirganlarini gapirib bera boshlagach, borgan sari xotiralar uni o'z quchog'iga torta bordi va u qiynalmay, erkin gapira boshladi.

— Qishloqlagi hayotni sira inson hayoti deb aytib bo'lmaydi, — deb hikoyasini tugatdi u, — qishloqdagi hayot jahannamning o'zginasi: hammayoqda muhtojlik, ochlik, yalang'ochlik, zulm. Jandarm deysizmi, politsiya deysizmi, zamindor deysizmi, yo qishloqning bo'lak badavlatroq odami deysizmi — hammasi ham dehqonni talash bilan mashg'ul.

Kurd Ahmad uning so'zini quvvatlab, o'zi ko'rgan-bilganlarini gapirib berdi. Zamindor bilan dehqonlar o'rtasida to'xtovsiz kurash borayotganini alohida uqtirib o'tdi.

— Dehqonlar juda ham jonidan to‘ygan! Lekin faqat dehqonlargina norozi emas. Men turli tabaqaga mansub kishilar bilan uchrashdim, hammasi norozi. Butun mamlakat shoh usul-idorasining zulmi ostida ingramoqda. Har bir davlat idorasida bitta emas, birato‘la bir necha xo‘jayin, bir necha hukmdor o‘tiribdi, axir. Poraxo‘rlik, bosh-boshdoqlik, fisq-fujur avjiga mingan, xalqning or-nomusi va huquqlari oyoqosti qilingan. Men aminmanki, butun xalq bu turma azobidan qutulish uchun bir signal berilishini kutib turibdi.

— Albatta, bularning hammasi to‘g‘ri, — dedi Rizo Qahramoniy. — Menimcha, biz Erondagi ahvolga faqat qishloqdagi vaziyatga qarab baho bersak, uncha to‘g‘ri bo‘lmaydi. Hozir Eronda qudratli ijtimoiy kuch — yangi bir sinf paydo bo‘lmoqda. Bu ishchilar sinfidir. Eronning butun kelajagi shu ikki qudratli kuchning hamjihatlik bilan harakat qilishiga bog‘liqdir.

— Shunday, bu to‘g‘ri gap, — deb tasdiqladi uning so‘zini Karimxon Ozodiy.

Faridun Ozodiyning gapiga quloq solar ekan, uning horg‘in, lekin hushyor chehrasidan ko‘z uzmadi. Karimxon birov gapirganda uning basharasiga tikilib qarab turar va diqqat bilan tinglardi. Hozir esa barcha unga qarab turganini ko‘rib, o‘tirgan yerida bir qimirlab qo‘ydi-da, dona-dona qilib so‘zlab ketdi:

— Albatta, hamma kuch ishchining bolg‘asida, uning bilagida va mehnatida. Buni yoddan chiqargan partiya hech ish qilolmaydi. Hozirgi zamonda ishchi sinfisiz bironta ham progressiv qadam qo‘yilishi mumkin emas, revolutsion qadam-ku, aslo!

— Juda to‘g‘ri! — deb luqma tashlab qoldi yoshlardan biri, qizg‘inlik bilan. — Buzog‘ining dumiga mahkam yopishib olgan dehqon qayoqda-yu, xususiy mulkdan xalos bo‘lgan ishchi qayoqda!

Bu gap majlisda zo‘r tortishuvga sabab bo‘ldi. Bu odamlarning nima uchun bunchalik qizishib ketganlarining asl sababini uncha tushunmagan Farida gapirayotganlarning hali unisiga, hali bunisiga hayron bo‘lib qarardi.

—To‘g‘ri emas, — dedi Karimxon Ozodiy nihoyat, gapi qizg‘in tortishuvga sabab bo‘lgan yigitga qarab. — Eron shunday

bir mamlakatki, unda revolutsion harakatdan dehqonlarni ortiqcha yuk singari chiqarib tashlab bo'lmaydi... Mehnatkash dehqonlar — ishchilarning sodiq ittifoqchisidir...

Faridun Kurd Ahmad tomonga egilib, luqma tashlagan yosh yigitning kimligini so'radi.

— Bu sovun zavodining texnigi — Rizvon, — dedi Kurd Ahmad sekin. — O't yigit. — Keyin o'rnidan turib, baland tovush bilan o'rtoqlarini tartibga chaqirdi:

— Jim, og'olar, jim! Og'oyi Karimxon Ozodiy so'zini tugatsin, keyin bitta-bittadan so'z olasizlar.

O'rtaga jimlik cho'kdi, Karimxon Ozodiy gapida davom etdi:

— Aziz do'stlarim! Men aytmoqchimanki, Eronda yangi sinf — proletariat vujudga kelmoqda. Proletariatining o'z ideali, o'z buyuk maqsadlari bor. Usiz Eron hayoti jonsiz va ruhsizdir. Bizni zulmdan qutqarsa, shu sinf qutqaradi. Jamiyatimizning chirik binosini tog'dan tushgan kuchli sel kabi shu sinf ag'darib tashlaydi.

Rizvon yana o'zini bosa olmadi:

— Men ham shuni aytdim-da, — deb qichqirdi u.— Shu chirik binoni ag'darish doim o'z qaqir-ququri to'g'risida o'ylaydigan dehqonning qo'lidan kelarmidi!

— Dehqon ham buni qila oladi, u ham buyuk kuchdir.

— Dehqonlar zulmni yo'qota olsa, shu paytgacha yo'qotmasmidi? — deb Rizvonning yonini oldi yosh ishchilardan biri. — Dunyo ming yillardan beri mavjud bo'lsa, dehqon ham shuncha vaqt mavjud. Xo'sh, qani uning dunyoni o'zgartirolgani?

Yana qizg'in tortishuv boshlanib ketdi. Kurd Ahmad yana o'rtaga tushdi, bir amallab shovqinni bosdi. Keyin Karimxonga qarab:

— Davom eting, — dedi.

Lekin uning gapini Rizvon yana bo'ldi:

— Eron revolutsiyasining tashabbuschisi ishchi bo'ladi, — dedi u qizg'inlik bilan. — Revolutsiyani fikri ham ishi singari chigal bo'lgan boqqol ham, doim bitta sigirini ikkita qilishni o'ylagan dehqon ham qilolmaydi.

— Boqqol boshqa, dehqon boshqa, — dedi Karimxon osoyishtalik bilan, bir Rizvonga, bir Kurd Ahmadga qarab. Uning bunday

bamaylixotir gapirishi va bazo'r tik qarashi Rizvonga ta'sir qildi, u boshqa e'tiroz bildirmay joyiga o'tirdi.

Karimxon esa davom etdi:

— Men aytmoqchimanki, bizning hozirgi jamiyatimizda zulm va ekspluatatsiyaning asoslarini yo'qotish uchun dastavval ishchilarga tayanish kerak, albatta. Lekin bu dehqondan yuz o'girishimiz kerak degan gap emas! Rizvon yana e'tiroz bildirdi:

— Kuchlarni bo'lib yuborishning nima keragi bor? Biz boshdanoq maqsadimizni aniq belgilab, ana shu maqsad yo'lida kurashuvimiz lozim. Biz amalga oshirmoqchi bo'lgan ishni faqat ishchilargina amalga oshira oladi. Ular buyuk kuchdir. Shuning uchun biz o'zimizning barcha diqqatimizni ishchilarga qaratishimiz kerak. Faqat ishchilargina bunday ishga ikkilanmay chiqadilar, hatto o'limdan ham tap tortmaydilar...

Bu so'nggi gaplar o'tirganlarga ancha xush keldi:

— Bunga shubha yo'q!

— To'g'ri-to'g'ri... — degan ovozlar eshitildi.

Bu so'zlar Rizvonga dalda berdi.

— Mening fikrim mana bunday, — deb davom etdi u dadillik bilan. — Kuchlarimizni parchalab yuborishning hojati yo'q. Maqsadimizni aniq belgilab olib, harakat boshlaylik. Fikrlarimizni sochib, chigallashtirib, o'zimizni tog'-toshlarga urish ahmoqlikdir. Biz oldimizga qo'ygan maqsadni bajarish hech mahal dehqonlar qo'lidan kelmaydi. Bu faqat ishchilarning ishidir. Shuning uchun butun diqqatimizni ishchilarga qaratishimiz lozim.

Karimxon Rizvonning yuziga boqdi va nasihatomuz dedi:

— To'g'ri, ishchilarning turmushi it kunidan battar. Buni ko'rish uchun uzoqqa borishning hech hojati yo'q. Mana bu tarafga bir nazar solsang bas, — Karimxon Tehronning sanoat korxonalari joylashgan janub tomonga ishora qildi. — Bu rayonda yashovchilarning shu paytgacha shaharga bostirib borib, shaharni talon-toroj qilmaganlariga hayron qoladi kishi. Chunki inson hayoti uchun bundan ham og'ir vaziyat yaratib bo'lmasa kerak. Janubdagi neft konlarida ishchilarning ahvoli bundan ham battar. Qayerga borma ahvol bir! Lekin dehqonlarning ahvoli yaxshiroqmi? Yo'q! Ularning ahvoli bundan ham beshbattar. Men dehqonlardan yuz o'gira olmayman.

Rizvon o'rnidan turib ketdi, yana o'tirdi-da, o'rtoqlarini yana ham qizishtirib yuboradigan qilib:

— Chora topish lozim, chora! — dedi. — Xalq kutib turibdi! Inglizlarning no'xtasi, Pahlaviyning zanjiri bu bechora xalqni, bu badbaxt mamlakatning bo'ynidan yechib tashlanishi kerak. Barcha alomatlar ijtimoiy muhit daryosining g'alayonga kelishidan darak bermoqda. Biz o'sha kunlar uchun xalqni tayyorlashimiz kerak!

Uning bu so'zlari majlisdagilarga qattiq ta'sir qildi. Ular o'zlarini buyuk bir maqsad yo'lida o'zini o'lim quchog'iga otishga tayyor turgan kishilar singari his qilib, bir og'izdan:

— Yasha!

— Barakalla!

— Qoyil! — deb qichqirishdi.

Kurd Ahmad bu gaplarga quloq solib o'tirar ekan, ulardan haqiqatni tasdiqlash bilan birga bu yerda paydo bo'lgan kayfiyatning hozirgi zamon sharoitiga to'g'ri kelmaydigan joylarini ham sezib turardi. U shu ikki narsani birlashtirish, masalani ochiqroq tushuntirish yo'llarini axtara boshladi.

— Og'olar, — dedi u, — ota-bobolarimizdan qolgan yaxshi maqol bor: "Holva degan bilan og'iz chuchimas", deydilar. "Holvani pishirish uchun yog' bilan un, bol bilan o'tin kerak". Albatta, Pahlaviy rejimi g'oyat og'ir, bu to'g'ri. Lekin uni qancha so'ksangiz ham, baribir, u taxtdan voz kechmaydi. Uni xalq taxtdan ag'daradi. Xalq faqat ishchi ham, faqat dehqon emas. Xalq — ham ishchi, ham dehqondan, hamda o'z mehnati bilan yashaydigan shahar va qishloq kambag'allaridan, ya'ni o'qituvchilar, vrachlar, xizmatchilar, hunarmandlar, mayda va o'rta savdogarlardan iboratdir. Bularning hammasini bir markazga to'plamas ekanmiz, istibdodni ag'darib bo'lmaydi. Qisqasi, mening taklifim shuki, keng xalq ommasi orasida ish boshlab yuborishi kerak.

Rizvon uning so'zini bo'ldi:

— Lekin ko'proq kimgadir tayanish kerak-ku, axir?

— To'g'ri! Xalqqa tayanish kerak, dastlab ishchilarga, shuningdek dehqonlarga ham, keyin barcha ilg'or, erkin fikrli kishilarga tayanish kerak! — dedi Kurd Ahmad qat'iy.

— Insoniyat tarixida bu kurashni biz birinchi bo'lib boshlayotganimiz yo'q, — dedi oraga cho'kkan sukutdan foydalanib

Karimxon Ozodiy. — Kelinglar, boshqa xalqlarning tajribalarini eslab, ulardan saboq olaylik. O'zimizga yaqin bo'lgan Rossiyani olaylik. Lenin Rossiyaning barcha ishchilari, dehqonlari va sofdil kishilarini birlashtirish uchun kurashmagan edimi? Bolsheviklarning g'olib kelishlarida asosiy rol o'ynagan sabablardan biri shu emasmidi?

O'tirganlar uning so'ziga diqqat bilan quloq solishar edi. Karimxon har bir so'zni zo'r ishonch bilan aytar edi. Rizvon boshini quyi solib, fikrga toldi. Farida hukumatga qarshi kurashga otlanayotgan bu kishilar orasida yakdillik yo'qligini payqab afsuslandi. Ishchilar bilan dehqonlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishni mutlaqo tushunmadi. Ishchilar to'g'risida gap bo'lganda Sarxonni o'ylar, dehqonlar to'g'risida gap bo'lsa shu kungacha qishloqda turishadigan o'z ota-onalarini ko'zi oldiga keltirar edi. Nahotki Sarxon bilan Faridaning ota-onasi bir-biriga dushman bo'lsa? Kurd Ahmad bilan Karimxonning so'zlari uning bu shubhasini biroz yumshatgan bo'lsa-da, lekin u hali ham masalaning tagiga yetmagan edi. Shuning uchun bu odamlarning yakdil bo'lishlarini, bir jon va bir tan bo'lib ishlashlarini istagan Farida beixtiyor:

— Dehqon bilan ishchi bir oiladir, — deb yubordi. Kutilmaganda gapirib yuborganidan o'zi uyaldi, qizarib yerga qaradi.

Uning so'zini olqishlar bilan qarshi oldilar. Hammaning chehrasi ochildi, odamlar jonlanib ketishdi.

Bundan Kurd Ahmad foydalandi. U o'rtoqlarining diqqatini yaqin kelajakdagi ishlarga tortdi.

— Og'olar, — dedi u.— Bironta ham aqli raso kishi bu yerda bo'layotgan gaplarni inkor etolmaydi. Biz uzoq kelajakdagi maqsadlar to'g'risida gaplashish bilan birga shu kecha-kunduzdagi maqsadlar to'g'risida ham o'ylashimiz kerak. Kelajak hozirgi kunni to'g'ri qurgan, to'g'ri anglagan odamlarnikidir, degan gap bekorga aytilmagan. Kelinglar, davrimizni tahlil etaylikchi, qanday sharoitda yashayapmiz!

O'rtoqlarini bir-bir ko'zdan kechirarkan ko'zi Aramning ko'zi bilan uchrashdi. Aram chuqur fikrga tolgan edi. Kurd Ahmadning qarashidan o'zida ishonch va kuch borligini sezgandek, Aram gap boshladi:

— Ishchilarning ham, dehqonlarning ham ozodlik yo'lidagi vazifasi va maqsadi bir. Bunga men ham aminman. Lekin bu vazifani hozirgi zamondagi sharoitni to'g'ri hisobga olish bilangina amalga oshirish mumkin, deb hisoblayman. Men ham ichki, ham tashqi vaziyat to'g'risida gapirayapman, Germaniya butun harbiy quvvati bilan Yevropa ustiga bostirib bormoqda. Chemberlen nemislar bilan ruslarni bir-biriga ro'para qilib qo'yib, Myunxenda yutqizganini Moskvada yutmoqchi bo'ldi. Lekin bu ish qo'lidan kelmadi. Endi u Eronda, Turkiyada va butun sharqda Rossiyaga qarshi kuch to'plamoqda. Eron ishchilari bilan dehqonlarining dastlabki vazifasi mana shunga qarshi zarba berish, uni buzib yuborishdir.

Aramning so'zlarini eshitib o'tirgan Faridun kurash frontining o'zi o'ylaganidan ko'ra kengroq ekanini tushundi; ular boshlagan ish Faridun taxmin qilganicha kichkina bo'lmay, juda katta ekan.

— Germaniya ham Sharqqa suqilib kirishga harakat qilmoqda, — dedi Faridun, — bizning davlat tepasida o'tirganlar esa shimoldagi qudratli qo'shnimizning dushmani bo'lgan har bir kimsaga sotilishga tayyorlar. Hamma gap ana shunda!

— Chunki shimoliy qo'shnimiz ishchilar davlatidir, bizning davlatimiz esa tekinxo'rlar davlatidir, — dedi Rizvon, — Shuning uchun o'z-o'zidan ma'lumki, bularning ruhiga g'arbdagi mamlakatlar yanada yaqinroq.

— Xuddi shuning uchun ishchilarning ham, dehqonlarning ham hozirgi sharoitda shiori bir bo'lishi kerak: istibdodga qarshi kurash, imperializmga qarshi kurash, vatanimizning tamomila mustaqil bo'lishi uchun kurash. Biz xalqni mana shu shiorlar atrofiga to'plashimiz kerak, xalq ichida hozirgi vaziyat to'g'risida mana shu yo'nalishda tushuntirish ishlari olib borish kerak, — dedi Kurd Ahmad. — Do'stlar! Muhtaram do'stlarim! Biz hammamiz xalqimizning sodiq farzandlarimiz. Hammamiz ham uning dard-alamini, yaralarini ko'rib turibmiz, uning holiga yurakdan achinamiz. Hammamiz ham Eron hozirgi zamonning ilg'or davlati bo'lishini, uning hech kimga tobe bo'lmasligini, ozod va ma'rifatli bo'lishini istaymiz. Lekin na ko'zyoshlari bilan va na qalbning samimiy orzulari bilan ozodlikka erishib bo'lmaydi, hozirgi Eronning baxtsizligi shundaki, Pahlaviy xonadoni mamlakatning janu-

biy chegaralarini imperialistik yirtqichlarga ochib qo'ygan holda, shimoliy chegaralarni mahkamlab berkitib tashlagan. Shimoliy chegara shunday yopiqligicha qolar ekan, mamlakatimiz chet el kapitalining zulmidan xalos bo'lmas ekan, bunday sharoitda Eron na tobelikdan qutuladi va na ozod mamlakat bo'ladi. Bu buyuk maqsadga erishish uchun bizning ishimizga sodiq bo'lgan eng sofdil kishilarning hammasini bir lagerga birlashtirish kerak: ishchilarni ham, dehqonlarni ham, ziyolilarni ham, hattoki boqqollarni ham. Biz o'z fikrimizni, qarashlarimizni xalq ommasiga: non, ish va ozodlik istaganlarning hammasiga yetkazib berishimiz kerak. Biz eng yaqin kunlarda amalga oshirishimiz lozim bo'lgan ishlarning aniq rejasini tuzib chiqishimiz kerak...

— Men yashirin gazeta tashkil qilishni taklif etaman, — dedi Kurd Ahmad aytgan so'zlarning haqqoniyligini chuqur qis kilgan Faridun.

— Gazeta chiqarish uchun darrov pul topish qiyin, — deb e'tiroz bildirdi Karimxon Ozodiy. — Yaxshisi, dastlab bitta to'plam chiqaraylik. Uni Kurd Ahmad aytgandek: "Ish, non va ozodlik!" deb ataymiz.

Bu taklifni hamma qizg'in ma'qulladi. Kitobni tayyorlash Faridun, Kurd Ahmad, Karimxon Ozodiy va Aramga, tarqatish esa Rizo Qahramoniy, Sarxon, Farida va Rizvonga topshirildi.

Tun allamahal bo'lib, tarqalisha boshlashganida, Faridun Shamsiya xonimdan eshitganini o'rtoqlariga aytdi.

— Og'aynilar, — deb qo'shib qo'ydi u, — og'ir davr boshlanyapti. Ehtiyot bo'linglar. A'lohazrat ichki ishlar ministrligiga sal shubha tug'dirgan har bir kishini zindonga tashlash to'g'risida buyruq beribdi.

Karimxon Ozodiy shuncha vaqtdan beri birinchi marta jilmaydi:

— Qo'rqma, azizim! — dedi u.— Mamlakat shunday ham katta zindon. Biz shu zindonni ichdan turib buzamiz. Og'olar qancha g'azablanishsa g'azablanishaversin, qo'yaver. Sirka qancha o'tkir bo'lsa, idishni shuncha tez sindiradi...

Faridun Simonyanlarnikidan Rizo Qahramoniy bilan birga chiqdi. Ular bo'shab qolgan jimjit ko'chalardan indamay ketardilar. Har ikkalasi ham o'zlari boshlagan ishning kelajagi, oqibati

to‘g‘risida o‘yga botgan edilar. Faridun o‘z qalbida kuchli taassurot qoldirgan Karimxon Ozodiyning har bir so‘zini eslardi.

Hayotni yaxshi tushunishi yuz-ko‘zidan yaxshi ko‘rinib turgan bu kishining chehrasi sira uning ko‘z oldidan nari ketmasdi.

Faridun o‘z taassurotini Rizo Qahramoniyga ham aytdi:

— Menimcha, u turmushni hammamizdan ham ko‘proq ko‘rgan. U hamma narsani bizlardan ko‘ra yaxshiroq tushunadi va to‘g‘ri tasavvur qiladi.

— To‘gri, — deb uning gapini tasdiqladi Rizo Qahramoniy. — U hayot girdobiga tushib chiqqan, muhimi shuki, o‘sha girdobdan salomat chiqqan. Biz esa bu kurashga endi tayyorlanayapmiz, u qonli to‘qinishlarda ishtirok etgan, chiniqqan, biz esa endi qo‘lga qurol olmoqdamiz. Hali jangga kirmagan, undan qanday chiqishni bilmagan jangchi bilan jangning butun og‘irliklarini boshidan kechirgan jangchi o‘rtasidagi farqni tasavvur qila olasanmi?

— Shunday, faqat hayot tajribasigina kishining qarashida va chehrasida shunday sabot va qat’iyat izlarini qoldira oladi.

Ular indashmay, postda turgan politsiya yonidan o‘tib, boshqa ko‘chaga burilib ketdilar. Osmonda ola-taroq bulutlar suzib yurar, ular orasida yulduzlar porlab turardi. Yulduzlarga qarar ekan Faridun qishloqni, Gulnozni va Musa tog‘asini xotirladi. U qishloqda boshidan kechirgan va ko‘rganlaridan Rizo Qahramoniyga aytib bergisi keldi. Lekin Rizo Qahramoniy to‘satdan:

— Sen Shamsiya xonimga dars berayapsanmi? — deb so‘rab qoldi.

— Har kuni ikki soatdan dars beraman. Lekin, menimcha, aytgan gaplarimdan hech narsa anglamaydiganga o‘xshaydi. To‘g‘ri, zavq bilan quloq solib o‘tiradi. Hatto vaqtning tez o‘tganidan shikoyat ham qiladi. Ammo shunday bo‘lsa ham, men uning hech narsa tushunmaganini payqayman.

— Noz-u ne’mat ichida yashaganlardan nimani ham umid qilasan? Senga o‘xshash mingta o‘qituvchi ham unga hech narsa o‘rgata olmaydi, chunki chinakam o‘qituvchi bo‘lgan hayotning nafasi ularga borib yetmaydi...

— Ehtimol haqlidirsan.

— “Ehtimol”i nimasi! Haqiqatan ham haqliman. Hali bu xonimning sendan hazar qilmagani ham katta gap.

— Yo‘q, yo‘q! Uning xarakteri unday emas, u oddiy qiz. Hatto meni ertaga bo‘ladigan ziyofatiga ham taklif qildi.

— Rostdan-a, — deb hayron bo‘ldi Rizo Qahramoniy. — Sening o‘rningda men bo‘lsam, sira bormagan bo‘lardim. Ular ichadigan sharbat qashshoqlarning qonidan bo‘lgan, nonlari esa kambag‘allarning ko‘z yoshida pishirilgan!

Rizo Qahramoniyning qalbida barcha ochlarning va muhtojlarning davlatmandlarga nisbatan bo‘lgan nafrati jamlangandek edi. Shuning uchun Faridun do‘sti bilan tortishib o‘tirmadi:

— Men yana o‘ylab ko‘raman, — dedi u, — hali vaqt bor, ertagacha nima gap-u, nima so‘z.

* * *

Kechadan beri Faridun o‘z hâyotining butunlay boshqa — chuqur, oliyjanob m’ano kasb etganini his qildi. Endi u o‘zining ilgarigi hayotini bo‘sh, tashlandiq bir qop-qorong‘i g‘ordagi miltillab yonib turgan shamga taqqoslardi. U bironta ham o‘tkinchiga yo‘l yoritmay, shu tarzda umr bo‘yi miltillab turishi, so‘ng so‘nishi ham, yoki birdan ko‘tarilgan shamol tasodifan o‘chirib qo‘yishi ham mumkin edi.

Endi esa o‘sha sham tog‘ning baland cho‘qqisiga o‘rnatilgan mash’alga aylandi. U doim to‘xtovsiz harakatda bo‘lgan, uzluksiz kelib-ketib turgan odamlarning yo‘lini yoritib turadi.

Ehtimol, vaqt kelib mana shu kichik, lekin yorug‘ mash’aldan ulug‘ qutqaruvchi yong‘in boshlanib ketar. O‘shanda Musa akaning o‘z bolalari uchun bir burda non topish yo‘lida bukchaygan beli rostlanadi; uzzukun g‘am-alam tortish natijasida bot qarib qolgan Sariya xolaning yuzidagi ajinlar yo‘qoladi; Gulnozning ko‘zlari umid va baxt nuri bilan chaqnab ketadi. O‘shanda butun qishloq, million-million mehnatkashlar zulm va qashshoqlikning zanjiridan xalos bo‘ladilar...

Shunday xayollarga berilib ketgan Faridun soatning olti bo‘lganini sezmay qoldi. Shu payt eshik tagiga hashamatli mashina kelib to‘xtadi. Ko‘p o‘tmay qo‘ng‘iroq chalinib, xonaga baland bo‘yli yigit kirib keldi.

Haydovchi bergan konvertni ochib, Faridun quyidagi xatni o‘qidi:

“Hurmatli Faridun! Va’dalashganimizdek sizga mashina yubordim. Haydovchiga tayinlab qo‘yganman. Kechikmang! Hurmat bilan — Shamsiya”.

Faridun xatni o‘qib chiqqach, haydovchiga qarab:

— Xo‘p! Hozir tushaman! — dedi.

Haydovchi chiqib ketgach, u maktubni yana bir ko‘zdan kechirib kulimsiradi.

Gazeta o‘qib turgan Rizo Qahramoniy, qovog‘ini soldi, gazetani bir chetga surib, Faridunga ko‘z qirini tashlab qo‘ydi.

Faridun unga Shamsiyaning xatini o‘qib berdi.

— Qiziq. Go‘yo bularning hammasi tushga o‘xshaydi, — dedi Rizo Qahramoniy. Keyin Faridunga qarab:

— Demak, ziyofat masalasi jiddiy, shundaymi? — deb so‘radi.

Faridun galstuk bog‘lar ekan istehzo bilan:

— Azizim, meni ko‘p gapga tutaverma, shoshilib turibman, — dedi. — Vaziri-vuzoralar menga ko‘z tutib turishibdi. Shoir aytganidek, men shunday bir gadomanki, sultonlar menga kosagul bo‘lishadi.

— Bor, mayli, og‘ayni, lekin kechikma. Rostini aytsam, oliyjanoblarning “quyoshi”dan naf ololmaysan, ammo kuyib ketmasang edi, deb xavfdaman.

— Xavotir bo‘lma, azizim, sog‘-salomat qaytishga harakat qilaman, — dedi Faridun, keyin chiqib ketdi.

Birozdan so‘ng mashina harakatga kelib, Shimron yo‘liga tushdi. Faridun endi va’da berganiga pushaymon bo‘la boshladi. Lekin endi vaqt o‘tgan, qaytishning iloji yo‘q edi. “Hechqisi yo‘q, ba’zan xato qilish ham foydali bo‘lib chiqadi”, deb o‘yladi Faridun va ziyofatda o‘zini qanday tutishi kerakligi to‘g‘risida o‘ylay boshladi. Shamsiya xonimning ziyofatiga yig‘iladigan, tug‘ilganidan beri o‘zini xo‘jayin deb his qilishga o‘rganib qolgan aristokratlar orasida u o‘zini erkin va tabiiy tutishi, dovdirab qolmasligi kerak edi.

Faridun shunday fikrda ekan, mashina Zargandaga kirib bordi. Zarganda Tehrondan o‘n-o‘n besh kilometr sharqi-shimolga, tog‘lar etagiga joylashgan, salqin go‘zal va o‘zining ajoyib bog‘lari bilan mashhur yer. Zarganda Shimronning etagiga joy-

lashgan. Zarganda bilan Shimron yoz kunlarida Eron aristokratlarining istirohat va aysh-ishrat qiladigan yerlaridir. Bu yerlarda ba'zi badavlat kishilarning o'n gektarlab bog'-rog'lari bor. Bu bog'larda ajoyib saroylar, go'zal imoratlar qad ko'tarib turadi. Bundagi har bir imorat o'z xo'jayinining didiga qarab juda hashamatli qilib solingan. Shimronda Shamsiyaning otasi Hikmat Isfahoniyning ham katta bog'i bor edi.

Faridun ilgari ham bu yerlarga o'z o'rtoqlari bilan kelgan edi, lekin u paytda bu bog'-rog'larni uzoqdan, chetdan turib tomosha qilgandi. Faridun bu yerlar to'g'risida yuzlarcha hikoyalar, rivoyatlar eshitgan, bu yerlarning turli ishqiy sarguzashtlar va fojialar bo'lib o'tgan joy ekanini bilar edi-yu, lekin bu ajoyib bog'larni kirib ko'rishga muyassar bo'lmagan edi. Unga o'xshash kambag'allar uchun bu yerdagi eshiklar taqa-taq berk edi.

Shuning uchun ham Faridun bugungi ziyofatga zo'r qiziqish bilan ketmoqda edi.

Mashina kechki sayr uchun ko'chalarga chiqqan odamlar bilan to'la Shimrondan borar edi. U "Darband" mehmonxonasi oldidan o'tib, chapga burildi-da, biroz yurgach, katta darvoza oldida to'xtadi. Mashinaning signaliga oppoq soqolli, ellik yoshlardagi bir chol chiqib, darvozani ochdi va mashinani ichkari kiritib yubordi. Faridun mashinadan tushib, uzoqlarga cho'zilib ketgan bog'ga, gulzorlar va imoratlarga qarab, bir zum to'xtab qoldi. Sarxonlar va Musa akalarning peshona teri, bilak kuchi mana shunday yerlarni bunyod qilgan ekan! Och-yalang'och, qashshoq Eronda, baland devorlar bilan o'rab olingan bog'larda ana shunday shohona hayot kechirilar ekan!

Ana shunday achchiq xayollarga botgan holda Faridun baland-baland daraxtlar orasidan o'tgan, mayda qum sepib qo'yilgan salqin xiyobonlardan borar edi. Oldinda, kenggina bir maydonchada qizil ko'ylak kiygan, atir sepgan va zebi-ziynat taqqan Shamsiya mehmonlarni kutib olmoqda edi.

Faridun o'z odaticha shogirdiga sal bosh egib salom berdi-da, kamtarlik bilan bir chetda to'xtadi.

Bog'da Faridun taniydigan bironta ham odam yo'q edi. Bu marmar ustunli, serhasham, go'zal imoratdan unga go'yo qanday-

dir bir sovuqlik kelib urar, uning badanini junjitar edi. Qimmatbaho matolardan kiyim kiygan xonimlar bilan yigitlar ham, ularning muomala qilishdagi murakkab qoida-qonunlari ham unga tamoman begona edi.

Mehmonlarni kutib bo'lgach, Shamsiya bir to'da yigit, qizlar bilan unga tomon yurdi. Bir necha qadam qolganda o'z to'dasidan ajralib chiqib, Faridun bilan ko'rishdi-da:

— Tanishinglar, — dedi.

Faridun bu olifta va begona odamlar orasida sal o'ng'aysizlandi-da, o'ziga yaqinroq turgan baland bo'yli yigitga qo'l uzatdi, lekin u yigit o'zini chetga tortib istehzo bilan:

— Fransuzlar odaticha, avval xonimlar bilan tanishing, — dedi.

Faridun bir lahzada terlab ketdi. Xonimlar bilan og'olar bir-birlari bilan ko'z urishtirib olishdi. Ularning lablari bilan ko'zlarida istehzoli tabassum o'ynar edi. Lekin bu ko'pga cho'zilmadi, uning o'rnini beparvolik, nazar-pisand qilmaslik va bee'tiborlik egalladi.

Lekin shu choq Faridun ham go'yo ichki bir turtki, bir tovush yordami bilan o'zini rostlab oldi. Bu tovush Faridunga: "Shu tekinxo'rlar va bekorchilar oldida dovdirab qoldingmi?" degandek bo'ldi. Shu bahona bo'ldi-yu, o'zini qo'lga oldi, bu oliftalardan o'zini kuchliroq va yuqoriroq his qildi.

Faridun o'ziga yaqin turgan qizga qayrilib:

— Kechirasiz, xonim, — dedi.

Atrofdagilar unga yana qiziqib qaray boshladilar. Go'yo hammalari hushyor tortgandek edi. Faridunning ovozida samimiylik va quvvat sezgan haligi xonim unga mehribonlik bilan nazar tashlab, qo'lini cho'zdi. Bundan foydalanib Shamsiya uni Faridunga tanishtirdi:

— Sudoba xonim, saroy vazirining qizi.

Faridun qizga qiziqib qaradi. Qizning katta-katta shahlo ko'zlarida mehribonlik uchqunlarini ko'rdi.

Faridun xilma-xil ipak va shollar bilan bezangan, yasanib, tusangan, turli qimmatbaho toshlar bilan porlagan, har biridan turli atirlar hidi anqib turgan, yasangan xonimlar bilan tanishib bo'lgach, yigitlarga tomon o'girildi. Bu yerda Tehronning butun aristokrat oilalaridan chiqqan yoshlar to'plangan edi. Mehmon-

lar beshta-beshta, uchta-uchta bo'lib bog'da sayr qilib yurishar, o'zaro suhbatlashishardi. Oqshom shabadasi qalblarga sevinch bag'ishlar edi. Botayotgan quyoshning so'nggi nurlari azim chinorlarning uchida jilvalanib o'ynardi. Har o'n-o'n besh qadamda bir xizmatchi bosh eggan holda qotgan: ularning qo'lidagi kichkinagina patnislar choy, sharbat, qahva, turli shirinliklar, sigara va papiroslar bilan to'la edi. Xonimlar yoki og'olarning salgina sezilarli imosi bilan ularning istaganini darhol ado etish uchun hozir turgan bu xizmatkor-malaylar mehmonlarni ziyraklik bilan kuzatib turadilar. Muhtojlik ularni bo'ysunuvchan va ojiz qilib qo'ygan edi.

Marmar ustunli bino oldida orkestr vals kuyini chalmoqda edi. Raqs tushayotganlar ham bor edi. Lekin yig'in hali u qadar qizimagan edi. Shuning uchun ham ko'pgina mehmonlar to'da-to'da bo'lib kezishar, yoki bir chetda turib raqs tushayotganlarni tomosha qilishardi.

Faridun ahyon-ahyon hozirgina tanishgan yangi tanishlariga duch kelar, lekin ular har safar Faridunni ko'rmagan kishi bo'lib o'tib ketishardi. Ulardan faqat bittasi — Faridun dastlab tanishgani — Sudoba xonim uni ko'rganda samimiylik bilan tabassum qilar va u bilan bir-ikki og'iz so'zlashib ham qo'yardi.

Sudoba Faridunning Ozarbayjondan kelganini eshitgach, unga ayniqsa qiziqib qoldi. Faridunda samimiy, oq ko'ngil va sodda bir qiz kabi taassurot qoldirgan Sudobaga nisbatan boshqa mehmonlarning sovuq va hatto, biroz balandroq turib muomala qilishlarini sezib, Faridun yana hayron qoldi.

Buning sababini Faridun keyinroq bilib oldi.

Sudoba Ozarbayjonda, kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan edi. Bundan bir necha yil burun, Sudoba hali yosh bola chog'ida saroy vaziri Hakim ul-mulk uning onasini asir qilib Tehronga keltirgan va keyinchalik o'ziga xotin qilib olgan edi. Aristokrat oilalarda ularni — onasi bilan Sudobani — uzoq vaqt mensimay "harbiy o'ljalar" deb yurishdi. 1920-yilda Sudobaning o'z otasi Tabrizda Shayx Muhammad Xiyoboniy isyonida ishtirok etib, shoh qo'shinlaridan bir qismiga boshchilik qilgan Hakim ulmulkni asir qilib olib, uning mo'ylovi bilan bir qulog'ini kesib

olib: — Bor, xo'jayinlaringga ayt, bizni tinch qo'yishsin, — deb qo'yib yuboradi. Isyon bostirilgach, Hakim ul-mulk uni ostiradi va uning go'zalligi bilan dong chiqargan xotini va o'sha vaqtda hali go'dak bo'lgan Sudobani Tehronga olib ketadi. Sudobaning onasi Hakim ul-mulkning uchinchi xotini edi. Ilgarigi ikki xotinidan ham bir necha bolasi bor edi. Hakim ul-mulk kundoshlar janjalidan qutulish uchun Muhammad payg'ambarning shariatiga amal qilib, xotinlarning uchalasiga shaharning bir-biridan uzoq bo'lgan uch yeriga uch hovli qurib bergan edi. Sudobaning onasi ham o'zi uchun ajratilgan kichkinagina hovlida turishga majbur bo'lgan edi. Lekin uning qalbida o'zining suyukli erini o'ldirgan qotil va o'zini qul qilgan kishi — Hakim ul-mulkka nisbatan nafrat so'nmagan edi. Keksa buzuq uni rasmiy ravishda o'z xotinim deb e'lon qildi. Sudoba esa saroy vaziri qizi sifatida tarbiyalandi. Lekin u aristokratlar doirasi o'ziga nisbatan doim sovuq muomala qilishini payqardi. Onasi buning sirini Sudobaga, u ancha katta bo'lib qolgandan so'nggina tushuntirdi. Qiz odamlardan o'zini chetroq olib yura boshladi. Laganbardorlik, xushomadgo'ylik hukm surgan muhitda Sudoba o'zini begona sezar, siqilar edi. U o'zi katta bo'lgan va doim vaqt o'tkazadigan muhitda faqat Shamsiya xonim bilangina inoq edi, unga o'zini yaqin tutardi. Shamsiya ham unga moyillik ko'rsatardi.

Birdan mehmonlar harakatga keldi. Hamma darvoza tarafga yurdi. Musiqa to'xtadi. Odamlarning boshi ta'zim bilan quyi egildi. Shamsiya taajjubda qolgan Faridunga izoh berdi:

— Shohpur kelyapti! Yuringlar, qarshi olaylik.

Shohpur bir necha harbiy kiyimli kishilar kuzatuvida sekin-sekin odim tashlab kelar edi. U qaddini g'oz tutib kelar, go'yo o'z bo'yidan balandroq ko'rinishga tirishayotgandek edi. Lekin uning chehrasi takabburlikdan boshqa hech narsani ifoda qilmas edi. Mehmonlarning xatti-harakatida, pichir-pichirlarida xushomadgo'ylik va qo'rquv hislaridan boshqa hech narsa yo'qligini payqab Faridunning nafrati qaynadi, o'rnidan ham qo'zg'almay yuzini teskari burdi.

Sudoba uning bu holatini sezdi, shekilli, taajjub bilan:

— Nahotki, Shohpurni ko'rishga qiziqmasangiz? — deb so'radi.

— Buning hech qiziqarli yeri yo‘q, — deb javob berdi Faridun bamaylixotir. — Shohpur o‘yinchoqmidiki, uni tomosha qilsam? U ham bizga o‘xshagan odam-da...

Sudoba to‘xtab Faridunga tikildi-da:

— Jasoratli odamlarni juda yaxshi ko‘raman. Ana, sartib ham sizga o‘xshab bir chetda bemalol turibdi, — dedi va mehmonlarga qo‘shilib, shahzoda tomon yurdi.

Haqiqatan ham sartib bir chetda turib, shahzodani kutish marosimini tomosha qilar edi.

Shahzoda sekin-sekin kelar, ahyon-ahyonda biror mehmonning oldida bir zum to‘xtab, takabburlik bilan unga qo‘l cho‘zar yoki til uchida uning sog‘lig‘ini so‘rar edi-da, yana ilgarigidek takabburlik bilan yog‘ochdek qaqqayib, yo‘lida davom etardi.

Sartibning yonidan o‘tar ekan, unga bir ko‘z tashlab qo‘ydi. Shunda sartib, ilgarigi vaziyatini buzmay, unga sal bosh egib ta’zim qildi. Shohpurning orqasidan soya kabi ergashib yurgan harbiylardan biri:

— Majlisga deputat bo‘lmoqchisiz, shekilli, a, sartib? — dedi, — harbiy mundirni surtukka almashtiribsiz?

Bu ichki ishlar ministrligining siyosiy bo‘limi boshlig‘i sarhang Safoiy edi. U o‘z odaticha, gapirishi bilanoq qah-qah urib kulib yubordi-da, hammaga alanglab qaradi.

Bu o‘rta bo‘yli, nodonligi basharasidan yaqqol ko‘rinib turgan, hunariga mos tushadigan yumshoq, lekin allaqanday sovuq tovushli va xuddi shunday sovuq nazarli kishi edi.

Sartib uning hammaga ham sezilarli darajadagi bu istehzoli so‘zlarini javobsiz qoldirmadi.

— Surtuk ostidagi qalb mundir ostidagi qalbdan ham otashin va sofroq bo‘ladi, sarhang, — dedi sartib.

U yer-bu yerdan:

— Yashang, bravo, — degan tovushlar eshitildi. Lekin sarhang o‘zini sartibning bu so‘zlarini eshitmaganga soldi-da, vaziyatini buzmay shahzoda orqasidan ketaverdi.

Bu dahanaki jangni eshitgan Shohpur:

— Tinchlik paytida sartib harbiy mundir kiyib yurar edi, endi esa osmondan porox hidi kelib turgan bir paytda diplomat kiyi-

mini kiyib olibdi, — deb kuldi. Sarhang va boshqa mehmonlar bu so'zlarga chapak chaldilar. Lekin sartib yana taslim bo'lmadi:

— Nomusli diplomat ham vatani uchun jang qiluvchi soldatdir, — deb javob berdi u shahzodaga, "nomusli" so'ziga urg'u berib.

Oraga og'ir jimlik cho'kdi. Sarhang ham, Shohpur ham boshqa hech narsa demadilar. Sartib esa ularga g'olib kelgan kishi mag'rurligi bilan bir qarab qo'ydi. Shohpur ilgarigidek takabburlik bilan yo'lida davom etar ekan, nihoyat:

— Albatta, — deb ilova qildi, — agar diplomatning siyosati to'g'ri bo'lsa.

— Yuragida vatan muhabbati bo'lganlar hech vaqt to'g'ri yo'ldan toymaydilar, — yana uning gapini javobsiz qoldirmadi sartib.

Bu ko'ngilsiz jangga barham berish uchun Shamsiya oraga tushdi:

— Og'olar, raqs boshlashni taklif etaman, — dedi u.

Mehmonlar musiqa chalinayotgan tarafga qarab yurishdi. Odamlar yana kezishga, raqs etishga, suhbatlashishga boshladilar. Shamsiya sartibning oldidan o'tar ekan:

— Sartib, — deb shivirladi qiz uning qulog'iga, — mag'rurlikni biroz kamroq qilsangiz nima qiladi!

— Hali ham hech mag'rurlik qilayotganim yo'q.

— Kifoya qilarli darajada mag'rurlik qildingiz. Siz bu tipdagi odamlarni bilmaysiz. Ular har kimning ham o'z oldilarida ikki bukilib ta'zim qilishiga o'rganib qolganlar. Hech narsani eslaridan chiqarmaydilar. Hech narsani kechirmaydilar. Ayniqsa jasoratli va dovyurak odamlarni! Buni yodingizdan chiqarmang, sartib.

— Yodimda saqlayman-u, ammo amal qilmayman!

— Hayotda har narsani ham bilish kerak, — dedi-da, sartib bilan Faridunni qo'l ushlashtirib qo'yib ketdi.

Ular yolg'iz qolib, bir-birlariga qarab qo'yishdi.

Faridun sartibning boqishlaridan yashirib bo'lmas qayg'u va g'am sezdi.

— Sartib, — dedi Faridun, — afv etasiz, bu xatti-harakatingiz biroz keskinroq bo'lsa ham, har holda menga ko'p lazzat bag'ishladi.

— Boshqacha harakat qilolmayman. Dilimdagi tilimda.

— Lekin sarhang, nazarimda, ancha soddadil odam tuyuldi menga.

— Ishonma bunga, yigit, — dedi sartib. — Uning kulgisi ham zaharli. Bunday odamlardan sira yaxshilik kutib bo'lmaydi. Bularning qo'lidan uyiga mehmon qilib chaqirib, palovga zahar solib berish ham, odamni o'z qarindoshlari qo'li bilan o'ldirtirish ham, zindonda bo'g'ib o'ldirish, so'ng unga ta'ziya tutish ham keladi. Bu Eron hokimlari uchun juda tipik holdir! Nushera-voni Odilning[1] mazdakiylarga ishlatgan hiylasini esla...

Faridun sartibning chehrasida har narsadan norozilik, nafrat alomatlarini sezib turardi. Ayni zamonda uning chehrasida taraddud va qat'iyatsizlik ham sezilib turardi...

Suhbat aylanib, yana Shamsiya bilan Shohpur ustiga ko'chdi. Faridun sartibning yana asabiylashganini sezdi.

— Bu yerda ikki yoshning qalbidan ko'ra ko'proq olchoq siyosat tadbirlari hukm surmoqda, — dedi sartib. — Og'oyi Hikmat Isfahoniy Eron taxtiga ko'pdan beri ko'z tikib keladi. Garchi o'zi shoh bo'lolmasa ham, kelajakdagi taxt egasi uning qo'lida o'yinchoq bo'lishini istaydi. Saroyda ming xil hiyla-nayranglar ishlatadigan bunday siyosatbozlar bitmas-tuganmas quvvatga egadirlar. Ular o'z maqsadlari yo'lida hech narsadan tap tortmaydilar, har qanday vositadan, har qanday ifloslikdan ham foydalanaveradilar. Ayniqsa Hikmat Isfahoniy!

— Sizning unga qarshi aytayotgan bu so'zlaringizda biroz g'araz ham borga o'xshaydi.

— Nimaga ishora qilayotganingizni tushunayapman. Albatta, otamning qonini unutsam men besharaf va benomus odam bo'lar edim. Lekin Isfahoniy to'g'risidagi gaplarim to'g'ri va adolatlidir.

— Menimcha, otangizning o'ldirilishiga aybdor faqat Hikmat Isfahoniy bo'lmasa kerak.

— Mening otamni o'ldirgan, Eronni falokat va baxtiqoralikka olib borgan qonli siyosatdir. Bu siyosat a'lohazratning ham istagiga ba'zan qarshi keladi. Ingliz, german, amerikan bankirlarining kuchiga tayanadigan bu sotqinlarning qachongacha davr

surishi ma'lum emas. Lekin zamon har qanday zaharga ham qarshi dori tayyorlayoladigan ajoyib bir tabibdir.

— Lekin bu tabibning sabri bir inson naslining umridan ortiqroqqa yetadi. Biz o'lgandan keyingi intiqomlar voris qoldirmay o'lgan kishilarga motam tutilgandek gap...

— Men zamondan u qadar umidsiz emasman. Hozir ular tayangan inglizlar hukmronligining tugash oldida turganini bildiruvchi ba'zi alomatlar paydo bo'lmoqda.

— Qanday alomatlar ekan u?

— Sotqin vazirlar va elchilar o'z siyosatlarida tayanadigan markaz larzaga kelmoqda.

Musiqaning yoqimli sadosi atrofni to'ldirgan edi. Ular o'zlariga qarab kelayotgan Shamsiyani ko'rib, jim bo'lishdi. Mehmonlar endi turib bo'lsa ham ul-bul yemoqqa, ichmoqqa boshlagan edilar, Tansa qilayotganlarning soni ham tobora orta bordi. Faridun bilan sartib ham bezalgan yemak stoli oldiga yaqinlashar ekanlar biroz xafaroq ko'ringan Shamsiya bilan to'qnash keldilar. Qiz sun'iy bir kulgi va shodlik bilan:

— Endi sizlarni bir-biringizdan ajrataman, — dedi-da, sartib Salimiyga murojaat qildi. — Menga ham biroz vaqtingizni bersangiz, sartib.

So'ng sartibning qo'lidan tutib, yetaklab ketdi. Sartib uning atir hidlari kelib turgan nozik qo'llarining titramoqda ekanini sezdi.

— Sizga nima bo'ldi, Shamsiya? — deb kulimsirab so'radi u qizdan.

— Siz kulsangiz, bas! Ammo mening yuragim dard bilan to'la. Iltimos qilardim, men bilan biroz raqs etsangiz. Rozimisiz?

Qiz allakimning qalbida rashk o'tini yondirmoqchi bo'layotganini sezgan sartib:

— Biroz xizmat qilishim mumkin, — dedi.

Shamsiya hech narsa demadi, unga yana ham yaqinroq yurib odamlar orasidan o'tdi-da, raqs maydoniga kirdi. Orkestr vals chalmoqda edi. Sartib musiqasiz ham bir joyda jim turolmayotgan bechora qizni vals ohangida yengil aylantira boshladi. Lekin u

Shamsiyaning allakimga achchiq qilayotganini ochiq ko'rib turardi. Bir davra aylanib kelishgach, sartib atrofga ko'z yugurtirdi. Biroz narida Sudoba xonim Shohpur bilan raqs tushar, boshini shahzodaning yelkasiga qo'yib raqs tushayotgan paytda ham Sudoba g'amgin edi. Buni kuzatib turgan sartib birdan Shohpurning ham bularga ko'zi tushib qolganini va ko'zlari hayrat bilan yomon chaqnab ketganini ko'rdi. Lekin sartib shahzodaning bu boqishlariga ahamiyat bermadi, Shamsiyani yana ham qizg'inlik bilan aylantirib ketdi. Maqsadiga erishgan Shamsiya sartibning qulog'iga mamnunlik bilan shivirladi:

— Bu yaxshiligingizni hech vaqt unutmayman!

Sartib qizga achindi: shu qadar ham past ketadimi odam! Bu qadar tubanlik!..

Shu payt Shohpur Sudobani aylantirganicha ularga yaqin keldi-da, birdan Sudobani qo'yib yuborib, Shamsiyani tutdi. Shamsiya yengil bir harakat bilan sartibdan ajralib chiqdi. Sartib darhol bir chetga chekildi va qaytib raqs maydonida ko'rinmadi.

Sudobaning o'ng'aysizlikdan qip-qizarib ketganini ko'rgan Faridun qizni bu og'ir vaziyatdan qutqarish uchun tez raqs maydoniga kirib, uning qo'lidan tutdi va musiqa ohangiga qarab harakat qila-qila, Sudobaning qulog'iga shivirladi:

— Bu yerdan tez chiqib ketaylik, men raqs qilishni bilmayman.

Qiz unga mehribonlik bilan tikilib qararkan:

— Yashang, yigit, — dedi, — juda qalbingiz sof ekan.

* * *

Kechqurun soat o'nda, janub osmonida yulduzlar charaqlab turgan paytda Faridun Zargandadan qaytish taraddudiga tushdi. Shamsiya unga o'z mashinasini taklif qildi. Lekin boyagidan ham g'amgin ko'ringan sartib:

— Ruxsat etsangiz, men olib ketsam, — deb iltimos qildi-da, Faridunni o'z mashinasiga o'tqazdi.

Sartib anchagacha indamay ketdi. Aftidan, ziyofat sartibni xursand qilish o'rniga ko'p azob bergan edi. Mashina Tehron yo'liga chiqqandan so'ng u Faridundan:

— Xo'sh, ziyofat ma'qul bo'ldimi? — deb so'radi.

Faridun o'z taassurotlarini yashirmadi. Bunday shohona saroylar va dabdabali hayotni u shu vaqtga qadar ko'z oldiga ham keltirolmaganini aytdi. Lekin odamlarning xulq-atvoridagi sovuqlik sira yoqmadi. Har biri o'zini boshqalardan baland ekanini ko'rsatishga tirishadi. Bu odamlar ichida faqat saroy vazirining qizi biroz odamga o'xshaydi, ancha sodda qiz ekan.

— Ha, yanglishmabsan, — dedi sartib, — u bu yerdagilardan tamom boshqacha qiz...

So'ng Sudobaning butun tarixini so'zlab berdi.

— Sho'r suvda sovun ko'pirmagani kabi, bu muhit ham uni o'z ichiga ololmaydi. Yoshligidan beri uni har qadamda masxara qiladilar. Uning asli-nasabini esiga solib, kuladilar. Lekin bu istehzolar va zaharli so'zlarning bir jihati yaxshi bo'lganki, qiz aqlli va ko'zi ochiq bo'lib o'sdi.

Faridun nima uchundir Gorkiyning "Ona"sidagi o'z badavlat otasidan voz kechib revolutsionerlarga kelib qo'shilgan Natashani esladi. Sudobaning ham bu dabdabali hayotda nimasi bor edi? Uni bu past va mayda mahluqlar bilan nima bog'lab turardi? Faridun shuni sartibga aytdi. Sartib qalbida qaynagan murakkab hislar ta'siri ostida gapira ketdi:

— Bu falokat insonlardan ajralib yashab bo'lmaydi. Yaqinlashsang yuraging qayg'uga to'ladi. Nima qilish kerak? Darvishga o'xshab kovakka kirib yashashga kuching yetmaydi. Har bir ishga ham chidashga majbursan. Hamisha jamiyat bu soxta va chirik odatlardan qachon qutuladi-yu, qachon odam odamga mehribon bo'ladi, hamma bir oila bo'lib yashaydi? — deb o'ylayman.

Faridun sartibning yaxshi odamlar borligidan bexabar ekanligiga achindi.

— Og'oyi sartib, — dedi Faridun, — siz orzu qilgan odamlar bor, ular mehribon, qalbi pok, beg'araz kishilar; lekin ular siz axtarayotgan yerda emas, ular quyi tabaqalar orasida.

— Ehtimol, gaping to'g'ri hamdir, — deb javob berdi o'ychanlilik bilan sartib. — Sen aytgan odamlar, albatta, soddadil va ochiq ko'ngil odamlar. Lekin ular johil va qo'pol odamlar.

— Bora-bora ularning ham ko'zi ochiladi, past-balandni ajratib olishadi, shunda dunyo ham yaxshilanadi.

— Yunon tili muallimimiz ham shunday der edi, — deb kuldi sartib, — bu dunyoda hamma ish yaxshilanib ketadi, keyin darhol jiddiylashdi. Volterning "Kandid"ini o'qiganmisan? Albatta o'qi, ajoyib asar. Unda bizning hayotimizni eslatadigan juda ko'p joylar bor...

Faridun "Ona" haqida gapirmoqchi, unda hayotning juda mukammal, juda to'g'ri va shu paytgacha aniq ochib berilmagan bir tasvirini topganini aytmoqchi bo'ldi. Lekin sartibning turli savollar bera boshlashi va "Ona"dagi ruh unga yoqmasligini o'ylab indamadi.

Sartib shirin xayolga botganligini anglatuvchi tovushda gap boshladi:

— Dunyo tuzaladi deding, — dedi u, — Buning uchun g'ayrat va himmat kerak. Haqiqatni aytishdan qo'rqmaslik kerak. Shular to'g'risida, rostini aytsam, a'lohazratga o'z fikrlarimni yozib bermoqchiman. Vatanimning sharafini so'ndirgan, nomusini bukkan, bu yaramasliklarni yo'qotib yuborish uning qo'lida, bu unga juda osondir. Unga barcha haqiqatni aytishim kerak. Buni ham o'z zimmamga olaman.

Faridun sartibning shohga juda ishonishini, uni bu e'tiqoddan qaytarish juda qiyin ekanini angladi. Sartibning ko'zi ochilishi uchun u buyuk hayotiy haqiqat bilan uchrashishi lozim edi. Faridun sartibning hayotiy haqiqat bilan uchrashuvi yaqinlashib qolganini ham sezdi. Lekin, har holda, o'z fikrini sartibday odamdan yashirgisi kelmadi:

— Umidlaringiz puchga chiqmasa deb qo'rqaman, sartib, — dedi Faridun. — Siz axtargan odamlar, nomusli va vatanparvar odamlar siz axtarayotgan yerda emas, quyi tabaqalar ichida, mehnatkash xalq orasidadir!..

Sartib javob bermadi. U chuqur xayolga cho'mdi.

O‘NINCHI BOB

Tanaffus vaqtida Rizo Qahramoniy non olish uchun do‘konga yugurdi. Qaytib kelgach, ishchilar orasida depo boshlig‘ini ko‘rdi. Favqulodda biror hodisa yuz bergan bo‘lsa kerak, chunki boshliq ishchilar orasiga kam kelardi. Uni o‘rab olgan ishchilar so‘zini diqqat bilan eshitar edilar. Rizo ham yaqin kelib, ishchilar orasiga kirib, boshliqning gapini tinglay boshladi.

— Bolsheviklar butun dunyoni xarob qilmoqchilar, — derdi depo boshlig‘i har bir so‘zini chertib-chertib. — Ularga o‘z yerlari torlik qilganmish! Endi ular Polshaga, Belgiyaga ko‘z tikyaptilar! Ular hatto bizning vatanimiz Eronga ham ko‘z olaytirmoqdalar. Ana shuning uchun bizning ittifoqchilarimiz — inglizlar bilan fransuzlar ular bilan bitim tuzishni xohlamayaptilar.

Boshliq uzoq gapirdi, 1939-yilning yozida Angliya va Fransiya hukumatlari Sovet Ittifoqi bilan Moskvada olib borgan muzokaralarining barbod bo‘lishini Sovetlarga to‘nkadi, ruslar go‘yo hech bir davlat bilan bitim tuzishni istamayaptilar, deb tushuntirishga urindi.

— Lekin Allohi taoloning marhamati va a’lohazrat Humayun shohanshohi Eron Rizo shohning g‘ayrati bilan biz bu balodan ham qutulib ketamiz, inshoolloh, omin! — deb so‘zini tugatdi depo boshlig‘i va birozdan so‘ng:

— Kimda qanday savol bor? — deb so‘radi.

— Hammasi tushunarli, og‘o, — deb javob berdi barcha to‘planganlar nomidan keksa bir ishchi o‘rtaga chiqib. — Lekin, og‘o, bizning maoshimiz qachon oshiriladi? Xudo haqqi, og‘o, topgan pulimiz nonga ham yetmaydi, och qolayapmiz! Kiyim-boshimizni-ku, Xudoga ming qatla shukur, ko‘zing bor — ko‘rib turibsan...

Chol so‘zining isboti uchun yog‘ va temir zanggiga belangan, qirq yamoq churuk-churuk ko‘ylagi bilan shalvarini ko‘rsatdi.

— U to‘g‘ri aytayapti, og‘o! — degan tovushlar eshitildi atrofdan.

— Hozir bu to‘g‘rida gaplashayotganimiz yo‘q, og‘olar, hozir gap boshqa narsa ustida borayapti, — deb ishchilarning so‘zini kesdi depo boshlig‘i. So‘ng u yana butun musulmon mamlakatlariga tahdid qilayotgan bolshevistik xavf haqida, Sovetlarning bitimga kelmayotganligi va bitimni istamayotganligi haqida gapirib ketdi. Biroz gapirgach, so‘zini to‘xtatdi-yu, endi savollar to‘g‘risida og‘iz ham ochmay, jo‘nab qoldi.

U ketgandan so‘ng ishchilar devor tagiga o‘tirib, ovqatlana boshladilar. Ular quruq yerda chordona qurib, quruq non va piyoz bilan tamaddi qilardilar.

— Ammo boplading-da uni, amaki? — dedi ishchilardan biri cholga. — Agar ota-onasini qoldirmay so‘kkaningda ham, Xudo haqqi, unga bunchalik ta’sir qilmasdi! Juda nozik joyidan ushlading-da! Boplading lekin!

— Nima, noto‘g‘ri aytdimmi? — javob berdi chol. — Shu ham turmushmi?

— Ablah, itvachcha! — dedi yana bir ishchi g‘azab bilan. — Men bu yerda ochdan o‘lay deyapman-u, menga aql o‘rgatgani kelibdi-ya! Hey, sendaqa nasihatgo‘yni...

Yana bir ishchi so‘zni boshliqning gapi ustiga burdi:

— Chemberlen bolsheviklarni nemislarga to‘qnashtirib qo‘yib, o‘zi bir chetga chiqib turmoqchi bo‘lgan ekan-da? Obba, ablah-ey! Kimni aldamoqchi bo‘lding! Stalinnimi? Eh, xomkalla-yey! Stalinning umri uzoq bo‘lsin, yuz yil keyin keladigan ishni biladi.

— Ruslar bizning yerimizni bosib olmoqchi bo‘lishayotgani rostmi? — deb so‘radi allakim.

— Senga nima bo‘ldi? Esing joyidami, yigit? Bularning hammasi bo‘lmag‘ur gap. Bizni qo‘rqitish, no‘xtalab olish uchun to‘qilgan gap.

— Xo‘sh, din masalasi-chi? Bolsheviklar “Xudo” deb qo‘ysang tilingni sug‘urib olar emishlar-ku.

— Bo‘lmagan gap! Ular aslo bunday qilishmaydi. Ular, odamlarning aytishicha, xohlasang Xudoga ishonaver, xohlamasang yo‘q, der ekanlar. Bolsheviklar o‘zlari esa Xudoga ishonishmas ekan.

— Eh, attang, attang! Shunday hukumat bo‘lsa ham, kambag‘alning suyangan tog‘i, ishchining himoyachisi bo‘lsa ham, Xudoga ishonmas ekan-da, a?

— Menimcha, boshqalarga qaraganda, xuddi o‘sha bolsheviklar Xudoga ko‘proq ishonishadi. Kambag‘allarning qornini to‘ydirishadimi? To‘ydirishadi. Demak ular Allohi taologa xush keladigan ish qilishadi. Odamlar ham rozi, Xudo ham rozi. Chunki dinsizlik ham ochlik bo‘lgan joyda bo‘ladi. Ochning imoni bo‘lmas, degan gap bor-ku!

Depoda bu ishchilar bilan besh yildan beri birga ishlab kelayotgan Rizo Qahramoniy ulardan har birining hayotini, o‘tmishini, orzu va istaklarini bilar edi. Bular haqiqiy mehnatkash xalq edi. Ularning gap-so‘zlariga quloq solib o‘tirar va:

“Qanday ajoyib odamlar bular, bizning doimiy tushuntirish va agitatsion ishimizga juda muhtoj kishilar”, deb o‘ylardi.

— Nima bo‘lganda ham, — deb yana gapira boshladi boyagi savol bergan keksa ishchi, — Sovetlar mehnatkashlarning tarafdori ekanini hech kim inkor qilolmaydi. Bu, shubhasiz, ravshan narsa. Bizning og‘olar esa xalqqa qarshi biror yomonlik o‘ylab chiqarsalar, Xudo to‘g‘risida ko‘proq gapira boshlaydilar, bolsheviklar bilan xalqni qo‘rqitadilar. Ko‘rasizlar hali, bular nima hiyla qilishayapti ekan... Balki inglizlar bilan til biriktirishmoqchi bo‘lsa kerak... Ilgarigi urushda ham xuddi shunday qilgan edilar... O‘shanda Eronning yarmi xalqi ochdan o‘lgan edi...

Kechqurun ishdan qaytgandan so‘ng Rizo Qahramoniy depoda bo‘lgan gaplar va ishchilarning nimalar deyishganini Faridunga gapirib berdi. Faridun esa shaharda faqat sovet-german bitimi haqida duv-duv gap bo‘layotganini so‘zladi. Mehnatkash xalq va ilg‘or kishilar bu bitimning tuzilishidan g‘oyat xursand edilar, ular bu bitim tuzilishini sovet diplomatiyasining yutug‘i deb hisoblardilar. Ko‘p kishilar bir-birlari bilan uchrashganda:

— Inshoolloh, shu bilan inglizlarning hiyla-nayranglaridan qutulgan bo‘lsak zora, — deb bir-birlarini tabriklashar edilar. Kelajakka umid bilan qarar edilar.

Lekin rasmiy doiralar bilan reaksion tabaqalar masalaga boshqacha ko‘z bilan qarashdi. Gazetalar Sovet davlatiga qarshi qa-

ratilgan bo'hton va yolg'on-yashiq gaplar bilan to'la edi, bularning hammasi London va Parij radiolaridan olingan xabarlar edi. Bu esa keng xalq ongiga ta'sir qilishi, xalqni chalg'itishi mumkin edi.

— Shu munosabat bilan maxsus varaqa chiqaraqolaylik-da, — deb taklif qildi Rizo Qahramoniy. — Xalqqa haqiqatni tushuntirish bizning burchimiz.

— Mana bu yaxshi gap, lekin juda topding! — dedi Faridun shodlanib. — Buni kechiktirib bo'lmaydi. Qani bo'lmasa hozir bir Moskva radiosini eshitib ko'raylikchi, Moskva nima der ekan. Hozir eshittirish boshlanadi!

— Yana besh minut bor, — dedi Rizo Qahramoniy soatiga qarab. — Moskvani eshitamiz-u, varaqa yozishga o'tiramiz. Bu safar bosmaxonada bostirib, mamlakatning hamma burchiga tarqatmasak bo'lmaydi.

Ular eshikni ichidan qulflab olishdi, derazalarni yopib, pardalarini tushirib qo'yishdi-da, radiopriyomnikning oldiga o'tirib, uning ovozini pasaytirishdi, keyin hayajon bilan Moskvaga quloq sola boshladilar. Eshittirish sovet-german bitimi bilan xalqaro ahvol masalalariga bag'ishlangan edi.

Moskva shoshmasdan, bamaylixotir, ishonch bilan so'zlamoqda edi. Diktorning ovozida haqiqat kuchi bilinib turardi. Bu do'stlarning yuragini sevinch bilan to'ldirdi.

— Qog'oz-qalam ol, tezroq! — deb shivirladi Rizo Qahramoniy Faridunga.

Do'stlar nafaslarini ichlariga yutib tinglayotgan bu eshittirishda Moskva radiosi xalqaro ahvol to'g'risida keng ma'lumot berar edi. U so'nggi hodisalarning sabablarini ochib ko'rsatar, izoh berar, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tushuntirib berardi.

Faridun bilan Rizo Qahramoniy bu eshittirishda Eron va G'arbiy Yevropa davlatlaridagi siyosat arboblarining nutqlaridagi singari nojo'ya hayqiriqlar, bema'ni hovliqishlar, tushunib bo'lmaydigan noaniq ifodalarni uchratmadilar. Moskva asl haqiqatni sodda va oddiy so'zlar bilan har kim ham tushuna oladigan qilib butun dunyoga tushuntirib bermoqda edi!

Do'stlar radioga quloq solishar ekan, ba'zan bir-birlarini turtib qo'yishar, sevinchdan kulimsirashar va bir-birlariga ma'noli qilib qarab-qarab qo'yishar edi. Faridun tez-tez yozib olardi.

Eshittirish tamom bo'lgach, divanga borib o'tirdilarda, Faridunning yozib olganlarini o'qiy boshladilar. Faridun eshittirishning umumiy manosidan tashqari bazi ayrim jumlalarni ham yozib ololgan edi.

Eshittirishdan ingliz va fransuz hukmron doiralarning Germaniyaga go'yo "faqat ideologik kurash" e'lon qilganlarining fosh qilingan yeri ularga ayniqsa yoqib tushdi.

— Qani, yana bir marta o'qi-chi! — deb iltimos qildi Rizo Qahramoniy. — Shu joyini butunligicha varaqaga kiritish kerak.

Faridun yozib olganini o'qidi:

— Hammasi bo'lib 47 million aholisi bo'lgan Britaniya imperiyasi 480 million aholiga ega bo'lgan mustamlakalarga xo'jayinlik qiladi. Aholisi 42 milliondan ortiq bo'lmagan Fransiya 70 million kishi yashaydigan mustamlakaga ega. Yuz millionlarcha kishilarni ekspluatatsiya qilish imkoniyatini bergan bu mustamlakachilik Angliya va Fransiyaga butun dunyoda hukmronlik qilishga asos bo'lmoqda. Germaniya esa xuddi o'sha mustamlakalarga ko'z tikmoqda. Bu esa ingliz va fransuz imperialistlarini dahshatga solayotir. Shuning uchun ular Germaniyaga qarshi urush ochdilar. Angliya va Fransiya hukmron doiralarining urush boshlashlariga asosiy sabab o'zlarining dunyoda hukmronlik qilishdan mahrum bo'lib qolish qo'rquvidir.

Varaqani yozishdan oldin Kurd Ahmad va Karimxon Ozodiy bilan ko'rishib, maslahatlashib olmoqchi bo'ldilar. Lekin ular yo'lga chiqish uchun endi eshik oldiga kelgan edilarki, Rizo Qahramoniy Faridunni to'xtatdi-da, qo'lidan sudrab stol oldiga olib keldi:

— Vaqt bekor o'tmasin! Sen o'tirib varaqani boshlayver, men esa borib ularni shu yerga olib kelaman! — dedi-da, shoshganicha eshikka otildi.

Faridun esa varaqa yozishga o'tirdi.

* * *

Faridun aka-uka Suhaylilarning kontorasidagi ishini tashlab, Tehron universitetining yuridik fakultetiga o'qishga kirdi. Bunda unga sartib Salimiy ham, professor Biluriy ham, Shamsiya ham yordam berdilar. Ko'p o'tmay u o'zining talaba o'rtoqlari orasida hurmat va muhabbat qozona oldi.

Kunduzlari universitetda bo'lar, kechqurunlari uyda o'tirib darslarini tayyorlar, so'ngra ko'chaga chiqib yarim soatcha toza havoda sayr qilib kelar edi. Bu payt shahar ko'chalarida odam ko'p bo'lardi, ko'chalarda yasangan boy-badavlat odamlar sayr qilib yurishar, ular orasida har qadamda churuk-churuk kiyimlarga o'ralgan gadoylar uchrab turar va:

— Og'o, holimga rahmingiz kelsin! — deb tilanishar edi.

Faridun hali yosh bolalik chog'laridayoq va Tabrizda ekanligida Tehron hayotiga oid ko'p hikoyalarni eshitgan va bundagi dahshatli hayotning ba'zi suratlarini tasvirlagan ba'zi hikoyalarni eshitgan edi. Bunday kitoblar topib o'qish juda mushkul edi. Ularni faqat yashirin ravishdagina o'qish mumkin edi, chunki Tehron hayotinigina emas, hatto umuman Eron hayotini jindek bo'lsa ham tanqid qilgan asarlar taqiqlangan edi. Ularni o'qigan kishilar esa qattiq taqib qilinar edi. Shunday taqiq qilingan kitoblar qatoriga Shayx Muhammad Xiyoboniy, doktor Eroniy va boshqa shular singari kishilarning asarlari kirardi.

Shunga qaramay, Erondagi ijtimoiy tengsizlik, o'rta asr turg'unligi, siyosiy tuzumning yaramasligini ko'rsatgan, shunga ishora qiladigan asarlar yashirincha qo'ldan-qo'lga o'tib yurar, qiziqib o'qilar edi. Hozirgi vaziyat, Rizo shoh yaratgan chidab bo'lmas zulm to'g'risida esa hikoyalar, rivoyatlar, latifalar, masallar, naqllar to'qilgan va ular og'izdan-og'izga ko'chib, shahar va qishloqlarda keng tarqalgan edi. Hukumat bular bilan qanday kurashishni va qanday qilib ularning oldini olishni bilmas edi. U Zahhok[1]ga o'xshab odamlarga doim shubha bilan qarar, g'azabidan hech kimga omonlik bermasdi.

Hukumatning shahar va qishloqdagi badavlat kishilarga nisbatan g'amxo'rligi haqida ham ko'p gap-so'zlar yurardi. Hukumat bu janoblarning barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlar, ularga yordamga kelardi. Ularning savdo-sotiq ishlarining rivojlanishiga, ularning boyligini orttirishga yordam beradigan qonunlar chiqarardi. Shaharda ishchilarning, qishloqda mehnatkash dehqonlarning ixtiyorini tamoman shularning qo'liga topshirib qo'ygan edi.

[1] **Zahhok**— Eronning afsonaviy podshohlaridan biri bo'lib, olimligi bilan dong chiqargan.

Ardabillik bir keksa dehqon doim:

— Xo'jayin binokorlarga binokorlik materiallarini bergandek, a'lohazrat bizni zamindorlar qo'liga topshirib qo'ydi va ularga: yo'ning, ezing, suvga botiring, loy qiling — istagan narsangizni yasang deb ixtiyor bergan, — deb yurardi.

Xalq ichida yurgan yashirin gap-so'zlar ana shu taxlitda edi.

Hokim doiralardagi ochiq suhbatlarda va kundalik gazetalarda esa, aksincha, shohning Eron uchun qilgan xizmatlari, keltirgan mashinalari, qurdirgan yo'llari va saroylari ko'klarga ko'tarilib maqtalar edi. Turli joylardagi suhbatlarda asosiy o'rin Tehron va Tehron hayotiga bag'ishlanar edi. Rizo shohning shahar va qishloqdagi rasmiy siyosati ko'klarga ko'tarilib maqtalsa-da, aslida qonli va eng yaramas ishlar shu siyosat niqobi ostida olib borilardi.

Ana shuning uchun Faridun Tehronga kelgach, dastlabki kunlardan boshlaboq shahar zohiriy ko'rinishining qanchalik chiroyliligidan tortib, poytaxt hayotining barcha ikir-chikirlarigacha diqqat bilan o'rgana boshladi. Shaharda eng oldin ko'zga tashlangan narsa — qashshoqlik bilan badavlatlik va ochlik bilan isrofgarchilik o'rtasidagi keskin farq edi. Shahardagi siyosiy va ijtimoiy hayot esa yana ham keskinroq qarama-qarshiliklarga to'la edi. Buni darhol sezib olish qiyin edi, albatta, chunki odamlar bir-birlaridan cho'chishar, birov-birovga ishonmas, odamlar hammaga gumonsirab va hadiksirab qarar edi. Ammo Faridun tushib qolgan sharoit va muhit unga poytaxt hayotidagi bu qarama-qarshiliklar bilan yaqindan tanish bo'lish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bergan edi.

Ayniqsa universitet hayoti bunga katta imkoniyat ochgan edi.

Faridun universitetga g'oyat katta orzular bilan kirdi.

Uning bu yerga kelishdan maqsadi faqat kelajakda bir burda non topa olishini ta'minlash emas edi. Yo'q. O'zi tanlagan yo'ldan yanada dadilroq va qat'iyroq borish, xalqqa foydali kishi bo'lish, xalq oldidagi o'z burchini yanada yaxshiroq ado etish edi. Kurd Ahmad, Rizo Qahramoniy va Aram Simonyanlar bilan qaysi mutaxassislikka kirish to'g'risida maslahatlashar ekan, xuddi shuning uchun ham u sira ikkilanmay yuridik fakultetni tanladi.

— Mening hayot yo'lim aniqlangan: u — doimiy ijtimoiy kurashlar yo'lidir. Shuning uchun men dastlab huquq fanlarini o'rganishim kerak.

— Demak, seningcha, men jamiyat manfaatlariga zid yo'l tutgan ekanman-da? — deb so'radi kulimsirab Aram, u universitetning meditsina fakultetida o'qir edi.

— Yo'q, do'stim, — deb e'tiroz bildirdi Faridun jiddiy, — ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan xasta bo'lgan jamiyat har ikki xildagi vrachlarga muhtojdir. Jamiyat senga ham, menga ham muhtoj. Men aminmanki, meditsina sening qo'lingda tor bir mutaxassislik bo'libgina qolmay, balki ijtimoiy ideal yo'lidagi umumiy kurashlarda senga qurol bo'lib ham xizmat qiladi.

— Bunga shubha qilmasang ham bo'ladi!

Universitet hayoti Faridunning ozodlik to'g'risidagi fikrlarining asta-sekin, lekin asosli ravishda chuqurlashuviga sabab bo'la bordi. Bu, albatta, Tehron universitetida o'quv darsliklari ilg'or g'oyalar asosiga qurilganidan, yoki unda ilg'or fikrli progressiv professorlar dars berishidan emas edi. Aksincha, 1917-yilda tashkil qilingan Tehron universiteti o'zining dunyoga kelgan kunidan boshlab hokim tabaqalarning va davlatning jiddiy nazorati ostida edi. Bu yerda yillar bo'yi tarixiy va ilmiy haqiqatlar sir tutilar, bu haqiqatlarga zid qarashlar, hokim feodal sinfining manfaatlariga xizmat qiladigan eng reaksion nazariyalar o'qitilar edi. Son-sanoqsiz diniy maktablar tarqatayotgan diniy ta'limot va noto'g'ri talqin qilingan xurofotlar kamlik qilgandek, eng chirkin nazariyalar ham bu yerda "fan" sifatida o'qitilardi.

1937-yilda amalga oshirilgan islohot universitetni go'yo "yevropalashtirgan" bo'lsa-da, aslda uning o'quv darsliklarining yana reaksion asosga qurilishiga va progressiv ilmiy fikrlarning yanada ayovsizroq taqib qilinishiga olib keldi. Hikoya qilayotgan voqealarimiz davom etayotgan vaqtda yuridik fakultetida o'qitiladigan barcha fanlardan bir xulosa kelib chiqardi: Rizo shoh hukmronlik qilayotgan davr ideal davlat hokimiyati davridir. Adolat va har qanday insoniy hislardan butunlay mahrum bo'lgan Rizo shoh Eronining qonunlari dunyodagi eng insoniy, eng ideal qonunlardir, mamlakat va xalq baxt-saodatining asosi monarxiyadir. Haqiqat-

ga va aqlga zid bo'lgan bu chirkin fikrlarga biroz bo'lsa ham shubhalanib qaragan, yoki o'z shubhasini biror dalil keltirib, isbotlashga uringan har bir talaba, darhol "xavfli element" deb topilar va qattiq nazorat ostiga olinar edi. Boshqa fakultetlarda ham xuddi shunday tartib hukm surardi. Lekin yuridik fakultet "zararli va xavfli fikrlar" eng ko'p tarqalgan fakultet edi. Chunki yuridik fakultetda talabalarni istar-istamas boshqa mamlakatlarning ijtimoiy ahvoli, davlat tuzilishi va konstitutsiyasi bilan tanishtirishga majbur edilar. Bu esa, tabiiy ravishda, ularning hukumat istamagan xulosalarni chiqarib olishlariga olib borardi. Universitetning o'zida bo'lmasa ham, undan tashqarida talabalar o'rtasida nazariy tortishuvlarning kelib chiqishiga, ular ichida "zararli" fikrlarning tug'ilishiga sabab bo'lardi. Shuning uchun ham yuridik fakultetda ma'ruzalar paytida o'rganilayotgan narsalarning sababiga qiziqishga, ularni chuqurroq tahlil qilishga yo'l qo'yilmasdi, lektor blan tortishish esa mutlaqo mumkin emas edi. Chunki huquq masalalari chuqur tahlil etilgudek bo'lsa, ijtimoiy tizimning yaramas va adolatsizligi sezilib qolgan bo'lardi. Bunday ishga tashabbuskor bo'lganlar esa, o'z taqdirlarini eron politsiyasi qo'liga topshirgan bo'lar edilar. Bularning hammasini diqqat bilan ko'zdan kechirib borgan Faridun, shunday bo'lishiga qaramay, talabalar orasida erkin fikrli va dadil yigitlarning ko'p ekanini payqadi. Bularning aksariyati keng ijtimoiy faoliyat maydoni va haqiqiy ozodlik axtaruvchi, endigina fikr qila boshlagan, xayolparast yoshlar edi. Ustod deb atalgan muallimlar orasidagi muomala nihoyatda rasmiy va quruq bo'lgani uchun ularning qanday fikrdagi kishilar ekanini ajratib olish mushkul edi. Talabalardan biri — Qurbon Marandiy o'zining erkin fikrliligi va dadil xatti-harakatlari bilan Faridunning diqqatini o'ziga tortdi. Qurbon Marandiy yuridik fakultetning iqtisod bo'limida, uchinchi kursda o'qir edi.

Ularning tanishuvlari ham juda ajoyib bo'ldi.

Kunlardan bir kun Faridun universitetning keng hovlisida xayol surib kezib yurardi; goh baland qad ko'tarib turgan daraxtlarni, goh kuz kelganidan sarg'aya boshlagan gullarni tomosha qilar, o'z qadrdon Ozarbayjonini xotirlar, endi uzoq vaqtgacha u yerga borolmasligini o'ylab, qalbi g'ariblikning alamli hislari bi-

lan to'lar edi. Shunda birdan o'rta bo'yli, lekin pishiq gavdali bir yigit keldi-da, Faridun bilan eski tanishlardek Ozarbayjon tilida do'stona gaplasha ketdi.

— Salom, birodar, — deb qo'l cho'zdi-da, javob kutmay davom etdi:

— Ozarbayjonlik ekaningni darhol sezdim-u, o'zimni tutolmadim. Zora bizning tomonlar haqida ham biror yangilik eshitsam, deb o'yladim. Qayerdansan?

— Tabrizdanman.

— Juda soz. Men esa Marog'adanman. Tanishaylik. — Faridun hayron bo'ldi.

— Nega bo'lmasa o'zingni Marandiy deb yurasan?

— Bobom Maranddan Marog'aga ko'chib kelgan. Men Marog'ada tug'ilganman. Lekin bizni u yerdagilar Marandiy deb atashardi. Biz tomonlarda hech bo'lganmisan?

— Yo'q.

— Afsus! Ajoyib joylar-da! Mevali bog'larini har qancha maqtasang ham oz!

U Marog'aning meva bog'lari to'g'risida, o'rik gullaganda tabiatning nihoyatda go'zallashib ketishi to'g'risida zavq bilan gapira ketdi, axir uch yildan beri u yerga borolmagani to'g'risida shikoyat bilan gapini tugatdi.

— Ajablanma, azizim, — dedi u, Faridunning taajjublanganini ko'rib. — Shu keyingi yillarda yotoq puli, o'qish haqi to'lab, o'zimni boqishga bir amallab zo'rg'a pul topardim. Tug'ilib-o'sgan joylarimni borib ko'rish uchun hech pul orttira olmadim.

Ma'ruzaga chaqirgan qo'ng'iroq ularning suhbatini bo'ldi. Besh kundan keyin ikkinchi marta uchrashdilar. Dars tamom bo'lgach, Qurbon Marandiy Faridunning oldiga keldi. Ular birgalashib universitetdan chiqib ketdilar-da, shahar ko'chalarida bir soatcha aylanib, suhbatlashib yurdilar. Shu suhbat chog'ida Faridun Marog'ada Qurbonning hech kimi yo'qligi, ota-onasi allaqachon vafot etib ketganini, o'zining esa yamoqchiga shogird bo'lishdan tortib, to xizmatkorlikkacha og'ir mehnat va mashaqqatlar bilan to'la yo'l bosib o'tganini va faqat zehnining o'tkirligi tufayligina o'rta maktabni bitira olganini, bir amallab Tehronga

kelib, zo'rg'a universitetga kirib o'qib yurganini bildi. Qurbonning og'ir hayoti va ochiq ko'ngilliligi Faridunning qalbida unga nisbatan hurmat va muhabbat uyg'otdi. Uchinchi marta ko'rishganlarida Qurbon Faridun bilan kelajak hayoti haqida gap boshladi. U o'zi tanlagan ixtisosining og'irligidan shikoyat qila boshladi.

— Rostimni aytsam, shu fakultetga kirganimga pushaymon qilayapman. Ma'naviy va axloqiy jihatdan asoslari chirik bo'lgan bir jamiyatda adolat va haqiqatga tayanadigan qonunlarni tasavvur qilib bo'ladimi? Bunday qonunlar yo'q yerda advokat yo o'z or-nomusini sotishi, tilanchilik va poraxo'rlik, qon to'kish va zulmni yoqlashi kerak, yoki o'zi ertami-kechmi juvonmarg bo'lib ketishi kerak. Boshqa yo'l yo'q. Shundan ko'ra meditsina fakultetiga kirsam, jamiyatga ko'proq foydali bo'lardim.

Faridun unga tasalli bera boshladi, bu qadar noumid bo'lmaslikni maslahat berdi, adolat va haqiqat yo'lida qurbon bo'lishning zuluk kabi xalqning qonini so'rib yotishdan ko'ra sharafliroq ekanini so'zladi.

— O'zingga ehtiyot bo'l, vatandoshim, — dedi Qurbon Faridunning gaplarini eshitib bo'lgach. — Bizning universitet juda xavfli joy! Bu yerda eng xavfli hisoblanadigan narsa — fikr qilish ekanini esingdan chiqarma! Shunga ehtiyot bo'l!

— Men xavfli fikrlar to'g'risida o'ylayotganim yo'q.

— Sen qorni to'q, baxtli kishi ekansan-da. Otang savdogarmi?

Faridunning ham xuddi o'zi singari kimsasiz yetim ekanini eshitgach:

— Unday bo'lsa, sening miyangga "xavfli" fikrlarning kelmasligiga ishonmayman, — dedi, — chunki men insonning butun tushunchalarini belgilaydigan narsa iqtisodiy munosabatlardir, deb hisoblaydiganlardanman.

Keyin Faridunning qulog'iga shivirladi:

— To'g'ri, buni bizda Marksizm deyishadi va uni eng xavfli ta'limot deb hisoblashadi. O'qituvchilar Marks ta'limotini o'quv darsligiga asosan g'oyat yuzaki o'tsalar ham, titrab turadilar. Buning ustiga uni nihoyatda yuzaki va noto'g'ri tushuntiradilar. Lekin, menimcha, bu eng to'g'ri va asosli ta'limot. Sen qanday o'ylaysan, vatandosh?

— Bunday narsalar meni qiziqtirmaydi, — dedi Faridun, o‘zining yuragidagi gaplarini tamom ochib qo‘yishdan cho‘chib va darsga kirish bahonasi bilan undan uzoqlashdi. Lekin Qurbon Marandiy uning yo‘lini to‘sdi:

— Bu gaplarni seni vijdonli odam hisoblaganim uchun aytdim, — dedi u.— Esingda bo‘lsin, vatandosh!

Faridun Qurbonning samimiy, aqlli, lekin hissiyotga tez berilib ketadigan va shunday paytlarda o‘zini tutolmay, yuragidagi butun gaplarini ochib qo‘yadigan yigit ekanini sezdi. Keyingi yuz bergan voqealar Faridunning yanglishmaganini tasdiqladi.

Qurbon Marandiy butun vujudi bilan istibdodga, Rizo shoh hokimiyatiga dushman edi. Uni ko‘r-ko‘rona ehtiroslar, ko‘pincha aqlga bo‘ysunmay qoladigan qizg‘in hissiyotlar hukmi ostidan qutqarish mumkin bo‘lsa edi, Qurbon yashirin tashkilot uchun naqadar foyda keltirgan bo‘lar edi. Shu maqsadda Faridun uni juda diqqat bilan o‘rganar va xatti-harakatlariga razm solib yurardi. Lekin ikki kundan so‘ng universitetda yuz bergan bir hodisa uning xarakteriga singib ketgan bu qiziqqonlilikni yo‘qotish mumkin emasligini ko‘rsatdi.

Yozda atrofni do‘zax kabi yondirib yuboradigan Tehron quyoshi, kuzning so‘nggi kunlarida va qishda iliq, yoqimli bo‘ladi. Uning nurlari kishiga yoqadi, rohat bag‘ishlaydi. Shunday kunlarda, odatda, ko‘chalar, xiyobonlar, maydonlar odam bilan liq to‘la bo‘ladi. Universitet talabalari ham katta va keng maydon sahniga chiqishar, yakka-yakka, yo juft-juft bo‘lib kezishar, suhbatlashar edilar. Shunday kunlardan biri edi. Talabalarning ko‘pchiligi tashqarida edi. Faridun ham o‘z kursdoshlari bilan kezib yurardi. Sakkiz yo o‘n kishidan iborat bir to‘da talabalar sarv daraxti ostida allanarsa to‘g‘risida qizg‘in tortishardilar. Marandiy ham shular ichida edi. Faridun unga qarab qo‘ydi. Qurbonning ko‘zlari o‘tday chaqnar, u yana hissiyotga berilgan edi. Faridun bunga ahamiyat bermay, o‘rtoqlari bilan ular oldidan o‘tib ketdi. Qaytib o‘sha joydan o‘tayotganda sarv ostidagi bahslashayotgan talabalarning bahsiga qiziqib, to‘xtadi. Qurbon Marandiy ko‘zlari chaqnab, lablari titrab asabiylik bilan pak-pakana, cho‘chqadek semirib ketgan talabaga gap ma’qullar edi:

— Bor, og‘o, o‘zing yoz! Eron mamlakati jannat, unda kambag‘al ham, och ham, mazlum ham, zolim ham yo‘q deb yoz! Butun dunyo kelib bizni tomosha qilsin-da, yashash qoidasini bizdan o‘rgansin!

Pakana talaba g‘azab bilan uning so‘zini kesdi.

— Siz o‘zingizni tentaklikka solmang, og‘o! Demak, sizningcha, bizning millatimiz a’lohazratning iltifotlari soyasida farog‘atda yashamayotgan ekan-da, a? Shunday so‘zlarni aytishga tilingiz borgan ekan, tomiringizda bir tomchi ham Eron qoni yo‘q!

— Agar Eron qoni, ochlik va azob ichida yashayotgan bechora xalqning ahvolidan ko‘z yumishga majbur qilsa, u holda haqiqatan ham mening tomirimdagi qon Eron qoni emas.

— Xo‘p, mayli, og‘o! Kimning pushaymon bo‘lishini ko‘ramiz! — dedi pakana talaba, keyin orqasiga qaramay jo‘nab ketdi.

Qurbon Marandiy o‘zini tinchitmoqchi bo‘lgan o‘rtoqlarining so‘ziga ham quloq solmay, achchiqdan titragan holda auditoriyaga kirib ketdi.

Lekin uni auditoriyada o‘tirishga qo‘ymay rektorning oldiga chaqirib ketdilar. Rektor uni talabalar oldida uyaltirib:

— A’lohazrati Humoyunning soyayi davlatida biz bu yerda ilm-ma’rifat o‘rganmoqdamiz. Sen vatanparvar bo‘l, jannatning bir go‘shasi bo‘lgan Eronni sev. Allaqanday bem’ani gaplaringni tashla!

— Og‘oyi janobi rais[1], — dedi Qurbon Marandiy rasmiy bir hurmat bilan, — men birorta yomon gap aytganim yo‘q. Og‘oning nimaga ishora qilmoqchi ekanlarini tushunmadim.

— Bor, — dedi rais qat’iy va e’tiroz qilishga yo‘l bermaydigan bir ohangda. — Bundan keyin ham shunday qilsang o‘zingdan ko‘r!

Faridun ham, boshqa talabalar ham Qurbon Marandiyning shu kundan boshlab nazorat ostiga olinganini payqadilar. Buni Qurbon Marandiyning o‘zi ham sezdi. Lekin bu hol uning ko‘zini ochmadi, balki battar g‘azabini qaynatdi. Kunlardan bir kun Rizo shoh xiyobonida unga duch kelib qolganida Faridun unga ehtiyot bo‘lish kerak deb maslahat berdi.

— Men jahannamga tushgandek bo‘g‘ilib ketaman, — deb e’tiroz bildirdi Qurbon, — Nima bo‘lsa bo‘lar, men bu og‘olar singari vijdonim bilan nomusimni sotmayman.

[1] Rektor.

Dunyoning azobu-uqubatini ko'p tortganman, men hech narsadan qo'rqmayman. O'n yil yashamay — o'n kun yashasam ham mayli. Lekin vijdon bilan yashayman.

Faridun boshqa hech narsa demay u bilan ajralishdi.

Shundan keyin uni tashkilotga tortish fikridan tamoman voz kechdi. Qalbidan esa unga achinardi. "Istibdod rejimi faqat ochlik va zulm keltirish bilangina cheklanmay, buning ustiga odamlarga ruhiy azob ham beradi" deb o'ylardi.

Qurbon Marandiy kabi kishilar bunday sharoitda hayotdagi falokat va razolatlarga qarshi yakka-yolg'iz kurashib bir kun emas, bir kun halok bo'lib ketishlari turgan gap edi. Faqat ochiq xalq qo'zg'oloni boshlangan taqdirdagina bunday odamlarning hayoti va faoliyati foydali bir yo'lga kira olar edi.

* * *

Mister Tomasni dunyoda hech narsa hayron qoldirolmas edi. U Sharqqa kelgandan so'ng, dunyoda har qanday ishning bo'lishi mumkin, dunyoda hech hayron qoladigan ish yo'q degan qarorga kelgan edi. Haqiqatan ham uning so'nggi o'n besh yil ichidagi nutqlari, xatti-harakatini qog'ozga tushursangiz, bironta ham xitob yo savol alomati qo'yishga hojat qolmasdi. Uningcha, hamma ish o'z yo'lida, sekin-asta bo'laverardi.

Lekin mister Tomas bugun juda hayratda edi. U trubkasini tutatib, kabinetida uyoqdan-buyoqqa yurar ekan, hayron bo'lib nima qilishini bilmasdi. To'g'ri, uning bu holati Sheroz tuprog'iga o'xshagan sap-sariq basharasidan aslo sezilmasdi. Mister Tomasning yo'g'on, og'ir gavdasi inson hislarini juda mohirlik bilan yashira oladigan qal'aga o'xshardi. Trubkasini og'ziga qistirib, qo'llarini beliga tirab xona ichida kezib yurar va ora-sira stol ustida yotgan bir parcha qog'ozga qarab qo'yardi. Uni bunday hayratga solgan narsa ham o'sha bir parcha qog'oz edi. Trubkasini o'chirib o'tirdi, ehtiyot bilan kulini to'kdi, yangidan tamaki to'latib, yana tutatdi-da, labiga qistirdi. O'rnidan turmay, boyagi stol ustida yotgan bir parcha qog'ozni qo'liga oldi, bitta ham kiprigi yo'qdek ko'ringan ko'zlariga yaqinlashtirdi. Bu — Faridunning qo'li bilan yozilgan varaqa edi. Varaqa bunday boshlanar edi:

"Vatandoshlar! Eshiting! Haqiqat ovoziga quloq soling! Eron reaksion gazetalarining gapiga ishonmang! Ular Londonning yolg'on va bo'htonlarini takrorlamoqdalar! Ular insoniyat uchun yangi qonli urush hozirlamoqdalar va buni xalqdan yashirish uchun zo'r berib urinmoqdalar, javobgarlikni esa butun dunyo mehnatkashlarining vatani Sovetlar mamlakatiga to'nkamoqdalar. Biz Eronning halol va nomusli farzandlari haqiqatni sizga bildirib qo'yishni o'z burchimiz deb bilamiz."

Varaqa shunday so'zlar bilan tugar edi:

"Eron mehnatkashlari! Qo'zg'oling! Butun dunyo mehnatkashlarining ovoziga o'z ovozingizni qo'shing! Ovozimizni baralla qo'yib: "Yo'qolsin urush olovini yoquvchi imperialistlar!" deb xitob qilaylik. Biz ingliz kolonizatorlariga: "Bizning Vatanimizdan yo'qoling! Uni shuncha talaganingiz yetar endi! Erondan qo'lingni tort!" deylik".

Mister Tomas hayratdan nima qilishini bilmasdi. Bunga mana shu varaqa sabab edi. Bu varaqaning oldini ola olmay dog'da qoldi. Buning uchun uni shunday bir boy mamlakatdan chaqirib olishlari ham mumkin edi. Imperiya shunday og'ir vaziyatda qolgan bir paytda uning na tajribasi, na staji bilan hisoblashmay qo'yishlari ham mumkin edi.

Uning staji esa juda katta edi. Ko'rsatgan xizmatlari ham, o'zining o'ylashicha, oz emasdi...

Mister Tomas butun umrini Sharqqa bag'ishlagan inglizlardan edi. U yoshlik chog'idayoq fors va arab tillarini yaxshi o'rganib, islom ta'limotining asoslari bilan tanishgan edi.

Bu bilan kifoyalanib qolmay, ko'pgina sharq mamlakatlarining tarixini, hayoti va tirikchiligini, odat va an'analarini, bu mamlakatlarning bir-biriga o'xshash jihatlari va farqini, xalqning ahvoli-ruhiyasini mushohada qilib va o'qib o'rgangan edi.

U sharqdagi o'z faoliyatini boshlagan joyi Hindiston, keyin Afg'onistonda edi. Uning Afg'onistonda xizmat qilgan payti ayrim afg'on qabilalarining bosh ko'tarishi bilan boshlanib, Omonulloxonning[1] taxtdan tushirilishi bilan tugagan g'alayonlar

[1] **Omonulloxon** — 1919-yildan 1926-yilgacha Afg'oniston amiri, so'ng 1926-yildan 1929-yilgacha Afg'oniston podshosi

davriga to‘g‘ri keldi. Bu voqealardan ikki oy keyin mister Tomas Eronga ko‘chirilgan va to shu paytgacha Eronda xizmat qilar edi. Tabiiyki, Eron haqidagi kitoblardan olingan tasavvur va ma’lumotlar bir necha yillar mobaynida Eron hayotini kuzatish va tajriba natijasida yanada chuqurlashgan edi. Uning Eronda bormagan joyi yo‘q edi. Ozarbayjon, Kurdiston, Mozandaron, Gilon, Xurosonning va janubning ozmi-ko‘pmi ahamiyatli shahar yo qishloqlarida uning qadami tegmagan joy yo‘q edi. Har yerda ham mahalliy amaldorlar, zamindorlar va savdogarlar orasida mister Tomasning tanishlari bor edi. Bu odamlar faqat savdo yoki siyosat masalalaridagina emas, hatto shaxsiy ishlarida ham mister Tomas bilan maslahatlashib ish ko‘rardilar. Mister Tomas kimning kim bilan teskariligini, hatto kim kim bilan qon dushmani ekanini ham bilar va payti kelganda, o‘z maqsadi yo‘lida bundan ustalik bilan foydalanar edi ham.

Xullas, mister Tomas inglizlarning Sharqdagi yuzlab yillar yurgizib kelayotgan mustamlakachilik siyosati ta’sirida tarbiyalangan va shu siyosatni yanada taraqqiy qildirganlardan biri edi.

Tehronning o‘zida esa mister Tomas kirolmaydigan hashamatli uy yo‘q edi. Saroyning va butun aristokratlarning eshigi unga doim ochiq edi. Oliy mansabdorlarning oilalarida uni “bizning Tomas” deb atardilar. Chunki u Eronning urf-odatlarini yaxshi bilishdan tashqari, o‘zini shu urf-odatlarning chinakam tarafdori deb ko‘rsata olgan edi. Mister Tomas oliy mansabdor va nufuzli odamlarga rasmiyatchilik bilan muomala qilmasdi. Yo‘q! Mister Tomas ular bilan muomala qilganda o‘zini erkin tutardi. Go‘yo uning uchun hech qanday rasmiy qoida-qonunlar yo‘qdek edi. Shuning uchun ham u o‘zining tanish-bilishi bo‘lgan amaldorlarnikiga yoki mashhur badavlat odamlarnikiga to‘satdan kirib boraverardi. Trubkasini tutatib, uy egasi bilan eng arzimagan ikir-chikir narsalar to‘g‘risida bemalol bir soat-yarim soat suhbat qilar, lekin hamsuhbatining gapiga diqqat bilan quloq solib o‘tirardi.

Lekin endi-chi! Eronliklar unga kutilmaganda birdan mana bu varaqani “sovg‘a” qildilar!

O‘zining istirohat qiladigan vaqti bo‘lishiga qaramay, u sarhang Safoiyning uyiga jo‘nadi. Sarhang uni o‘zining ikki qavatli

uyining tashqari hovlisidagi tok so'risi ostiga joylashgan ayvonchada qabul qildi. — Nima buyurasiz, mister Tomas, choymi yo viski? — deb so'radi mezbon.

Mister Tomas darhol javob bermadi. Trubkasini olib tamaki to'ldirar ekan, tepasida osilib yotgan uzum boshlarini tomosha qila boshladi.

— Ajoyib hovlingiz bor, og'oyi sarhang, — dedi mister Tomas. Maqtovdan sarhang og'zining tanobi qochdi.

— Iltifotingiz uchun rahmat, mister Tomas. Yaxshi qaray olmayman, uy ishlariga qo'lim tegmaydi.

Sarhang bir minutgagina ul-bul buyurgani chiqdi. Qaytib kirganida mister Tomas oyoqlarini chalishtirib yumshoq kresloda o'tirar va trubkasini tutatar edi. Birozdan so'ng xizmatchi choy, viski va shirinliklar olib chiqib, stol ustiga terib qo'ydi-da, chiqib ketdi.

Sarhang viski quyib, mister Tomasga uzatdi.

— Sizning sog'lig'ingizga, mister Tomas.

Sarhang qadahni oxirigacha ichdi. Mister Tomas qadahni sal labiga tegizdi-da, qaytib stolga qo'ydi. Boyagi varaqani xotirjamlik bilan cho'ntagidan olib, sarhangga uzatdi.

— Ko'rdingizmi buni?

— Ko'rganman, mister Tomas, ko'rganman! Yomon, og'ir zamonlarda yashayapmiz! Suvlar loyqalanmoqda!

— Xo'sh, o'sha suv loyqatuvchilarni topish to'g'risida o'ylab ko'rdingizmi?

— Nega o'ylamaylik? O'ylayapmiz! Hamisha shuning harakatidamiz! Lekin, nima qilaylik, ularni topish u qadar oson ish emas-da.

Sarhang barcha ko'rilgan choralarni birma-bir aytib, jinoyatchilarni topish uchun barcha maxfiy agentlarini ishga solganini so'zladi.

— Bularning hammasi yaxshi, — dedi mister Tomas, — lekin natija bermagandan keyin foydasiz-da. Men sizning do'stingizman, talantingizning qadriga yetaman. Lekin shunday yo'l tutish kerakki, natijada u bizni to'ppa-to'g'ri maqsadga olib borsin. Xuddi o'sha shiorlar ostida soxta guruhlar tashkil qiling, qamoqdan qaytganlarning hammasini ro'yxatga oling va ularni kuchli

nazorat ostida saqlang. Nihoyat rus elchixonasi! Sovet grajdanlari!.. Ular bilan aloqa bog'lagan odamlarning hammasi ham doim nazorat ostida bo'lsin.

— Qilayapmiz, mister Tomas, bularning hammasini ham qilayapmiz, — dedi xunob bo'lib ketgan sarhang. — Lekin bundan hech bir ish chiqmayapti-da! Ammo noumid bo'lmang, mister Tomas! Harqancha ustalik bilan yashiringan bo'lsalar ham, biz ularni albatta topamiz.

— Bu ishga eng tajribakor agentlaringizni safarbar qiling. Mahbusiy qayerda?

— Uni bugun kechasiga chaqirtirdim.

Mister Tomas viski bilan tomog'ini ho'llab, so'zida davom etdi:

— Nihoyat, diqqatingizni shunga jalb qilmoqchimanki, varaqa boshdan-oyoq vakili men bo'lgan davlatga qarshi qaratilgan. Buning ba'zi janoblarga yoqib tushishi ham turgan gap, buni yashirmasak ham bo'lar deyman...

— Yo'g'e, mister Tomas! Men sizga sodiq do'stman! Nahotki, bunga shubhangiz bo'lsa?

— Men siz to'g'ringizda gapirayotganim yo'q! — deb uning gapini bo'ldi Tomas. — Sizning yaxshilikni unutmasligingizga ishonaman.

— Yaxshiligingizni qiyomatgacha unutmasligimga, doim sizga sodiq do'st bo'lib qolishimga ishonavering, mister Tomas.

Mister Tomas qosh qoraygandan so'nggina sarhangning hovlisidan chiqib, mashinasini Hikmat Isfahoniynikiga qarab haydatdi.

* * *

Universitet hayoti Faridunning qalbini shodlik va mamnuniyatga to'ldirish o'rniga borgan sari g'am-g'ussaga va alamga to'ldira bordi. Goh o'qish haqini to'lay olmagani uchun, goh yaxshi galstuk yo kastum kiyib yurolmagani uchun, yoki boshini soch moy bilan moylamagani uchun tahqir etilgan va hatto universitetdan butunlay haydab yuboriladigan talabalarning ahvolini ko'rib ezilar, yuragi siqilar edi. Lekin shunga qaramay, u ma'ruzalarga muntazam qatnar, o'zini tutib yura olar edi. Uyga qaytdi deguncha, darhol ko'rgan va bilganlarining og'ir taassuroti ostida

boshlab qo'ygan maqolasini yozishga o'tirardi. Ba'zi vaqtlarda yarim kechadan keyin ham uzoq o'tirib qolar, to charchab holdan toygunicha ishlar edi. Rizo Qahramoniy Faridunning maqola yozishga o'tirganini ko'rgach, uni gapga tutmas, unga xalaqit bergisi kelmasdi. U o'zini shunday tinch tutardiki, xona ichi Faridundan boshqa odam yo'qdek jimjit bo'lardi. Rizo Qahramoniy juda ehtiyotlik bilan turib o'tirar, gazetani ichida o'qir, hatto yurganda ham oyoq uchida yurardi. Ba'zan choy qaynatib, ikki stakanga quyar, birini o'z stoli ustiga, ikkinchisini Faridunning oldiga qo'yardi. Choyni ko'rgan Faridun:

— Rahmat, — deb qo'yardi-da, yana o'z ishi bilan band bo'laverardi. Shu taxlitda bir necha kun o'tdi. Nihoyat: "Ish, non va ozodlik!" kitobining birinchi maqolasi yozilib bo'ldi. "Eron ishchilari va ularning hayoti" sarlavhali ikkinchi maqolani Karimxon Ozodiy yozdi. Dehqonlar ahvoliga bag'ishlangan uchinchi maqolani Kurd Ahmad yozdi. U o'z maqolasiga: "Mening ko'rganlarim" deb sarlavha qo'ydi.

Faridun o'zining maqolasini yana bir marta o'qib chiqdi, ba'zi tuzatishlar kiritdi, keyin Kurd Ahmad bilan Karimxon Ozodiyning maqolalari bilan tanishib chiqdi. Ularning maqolalari ham Faridunga juda ma'qul tushdi. Faqat ba'zi uslubiy tuzatishlar kiritish lozim edi, xolos.

Bu ishlarning hammasini qo'lidan chiqargach, Faridun mamnunlik bilan xonada uyoq-buyoqqa yurib, kaftlarini bir-biriga ishqadi-da:

— Toza qiyomat bo'ladi, hali, ko'rasan! — deb qo'ydi.

Rizo Qahramoniy uning baxt va umid bilan to'la chehrasiga qaradi. Allanarsa so'ramoqchi bo'ldi-yu, lekin yana o'zini tiydi. Savol o'rniga o'z taassurotini gapirdi:

— Bir gap aytaymi, Faridun? Hozir shu qadar chehrang ochiq, shu qadar go'zalsanki, agar Shamsiya xonim shu yerda bo'lsa Shohpurdan kechib, seni yaxshi ko'rib qolgan bo'lardi.

— Yo'q, aziz do'stim. U qiz sen bilan mening tengimiz emas. Men borgan sari sening fikringga yaqinlashib kelayapman. Sen bilan men Shamsiya xonimga o'xshaganlar bilan aslo kelisha olmaymiz. U ajoyib qalb egasi. Lekin muhit va noto'g'ri berilgan tarbiya

uning qalbini chirkin tasavvurlar, bema'ni etiqodlar bilan to'ldirib yuborganki, uni tozalamoq uchun butun bir asr kamlik qilsa kerak. Mening qalbim esa qishloqda qolgan. Bizning boshimizga tushadigan qiyinchiliklarni Shamsiya singarilar aslo ko'tara olmaydi.

— Juda ham bunchalik noumid bo'lma, — deb hazillashdi Rizo Qahramoniy. — Sen ham oliy ma'lumotli advokat bo'lasan. Bundan ham daromadliroq ish bormi? Injener bo'lsang, quruvchi yo temiryo'lchi bo'lsang — ishsiz qolish xavfidan qo'rqsang bo'lardi; bu boshqa gap. Advokat-chi?! Advokat uchun barcha yo'llar ochiq! Amaldor ham, zamindor ham, savdogar ham, boy ham, hatto jandarm ham advokatdan maslahat so'raydi. Jinoyat desang — istaganingcha topiladi: politsiya kechasi-yu, kunduzi ishlab yotibdi. Sudlar ham kecha-yu kunduz ish bilan band, zindonlar to'la... Dehqonning yetti qavat terisini shilîb olaver, kuching yetganicha shil, armoning qolmasin!.. Mana ko'rdingmi, og'ayni, sening kelajaging porloq!

— Kayfing chog' bo'lgani uchun juda xursandman, azizim. Ammo, afsuski, shoshilib turibman — ketishim kerak. Javobini kechqurun beraman.

— Kitobcha qachon chiqadi? — deb so'radi jiddiy Rizo Qahramoniy. — Ishchilar kutishayapti. Men uni tarqatish uchun odamlarni ham mo'ljallab qo'yganman.

— Yaqinda chiqadi, tez orada, u Tehronda katta hayajonga sabab bo'ladi. Endi, ko'rishguncha xayr!

U maqolalarni olib, Karimxon Ozodiynikiga jo'nadi. Kitobchani bostirishni Karimxon Ozodiy o'z zimmasiga olgandi, chunki matbaa ishchilari orasida uning do'stlari ko'p edi. U hamma narsani taxt qilib qo'ygan edi.

Yuragi shirin orzular bilan to'la Faridun zo'r hayajon ichida kitobchaning chiqishi to'g'risidagi xayollarga g'arq bo'lib, Tehronning tobora odam siyraklashmoqda bo'lgan ko'chalaridan odim tashlab borardi.

* * *

Hali yoshi o'ttizdan oshmagan bo'lishiga qaramay, soch-soqoli oqarib ketgan Karimxon Ozodiy yosh bolaligidanoq og'ir hayot

kechirar edi. Hayotdagi ehtiyoj va qiyinchiliklar uning juda ham irodasi mustahkam va matonatli bo'lib yetishuviga sabab bo'ldi. U juda yoshligida ota-onasidan yetim qolgan edi. Sovun zavodining ishchisi bo'lgan otasi sovun qaynab turgan qozonga tushib ketib halok bo'lganda, u endi oltiga to'lgan edi. U onasining qaramog'ida qoldi. Suyanadigan biror kishisi bo'lmagan bechora ayol yetimchasini boqish uchun ish axtarib eshikma-eshik uzoq kezdi, ish topolmagach, tilanchilik qilmoqqa majbur bo'ldi. Bir necha oydan so'ng betob ona ko'chada vafot etdi.

U vaqtlarni Karimxon es-es xotirlasa ham, lekin bu hodisa uning yodida juda yaxshi saqlanib qolgan edi. Bir tor ko'chada, kichkinagina bir eshik tagida yomg'irdan saqlanib bolasini isitish uchun bag'riga bosgan ayol, shu taxlitda uyquga ketgan edi. Onasining abadiy uyquga ketganiga tushunmay Karimxon o'sha joyda uzoq o'tirib qoldi. Undan so'ng nimalar bo'lganini aniq eslayolmaydi. Allakimlar kelib, allanarsalar qilishdi. U shundan so'ng onasini ko'rmadi. Keyinchalik, aqli kirgandan keyin, har qancha urinsa ham onasining qabrini topolmadi.

Uni o'sha sovun zavodida ishlaydigan otasining o'rtoqlaridan biri o'z uyiga olib ketdi.

Yoshi o'nga to'lgach, u ham otasi ishlagan sovun zavodda ishlay boshladi va shu yerda keksa ishchilar yordami bilan savodini chiqarib oldi. Tirishqoqligi, zehni balandligi, mehnat qilishga zavqi va g'ayratining zo'rligi tufayli u ko'p narsalar o'qidi, o'rgandi. Yoshligidanoq ancha hunarmand ishchilardan hisoblanardi.

Ishchilar uni o'z farzandlaridek sevishar, hurmatlashar va uning so'zidan chiqishmasdi. Har to'g'rida unga maslahat solishar, dard va ehtiyojlarini tortinmasdan aytardilar. Bu hol sekinasta uning qalbi va fikrlariga ta'sir ko'rsatdi, miyasida muhit hamda hayotga nisbatan o'ziga ham g'alati tuyulgan turli fikrlar tug'ila boshlashiga sabab bo'ldi.

Nihoyat, bu fikrlar uni revolutsion kurashga olib keldi. Sekinasta u o'ziga hamfikr o'rtoqlar ham topdida, revolutsion harakatga qo'shildi.

Yigirma ikkiga to'lar-to'lmas, xuddi o'zi kabi yetimlikda o'sgan Xovar ismli kambag'al, lekin ancha ko'hlik, kelishgan va

aqlli bir qizga uylandi. Ular hayotning butun og'irliklarini birga tortishar, bir-birlariga bo'lgan muhabbat va sadoqat bilan hayotning butun og'irliklarini yengillatishga tirishar edilar. Xovar uning kichkinagina va sovuq kulbasiga shodlik keltirgan bir mash'al singari, uning uyi va hayotini isitib va yoritib yubordi. U o'zini benihoyat baxtli hisoblar edi. Xovarni u o'z hayotidagi og'ir kulfatlar va azoblarni unuttiradigan bir malak kabi sevar, ardoqlar edi.

Birga hayot kechira boshlaganlarining ikkinchi yili Xovar o'g'il tug'ib berdi, bu ularning yana ham baxtiyor bo'lishlariga sabab bo'ldi.

Lekin ko'p o'tmay hayotning shafqatsiz bo'roni ularning baxtiga chang soldi, kambag'al, lekin baxtiyor bo'lgan bu oilani falokat quchog'iga otdi, ularning butun sevinch va orzulariga barham berdi. 1933-yilgi ko'plab qamoqqa olish paytida Karimxon Ozodiy ham qamaldi. Ikki oy zindonda yotgach, uni janubga surgun qildilar. Olti yillik surgun azobi, muhtojlik va oilasining dardini tortgan Karimxon bot qarib qoldi, bularning hammasi uning chehrasida o'z tasirini qoldirdi. Surgundalik chog'larida u o'z Xovari va o'g'lini o'ylar ekan, o'zining bolaligi, otasi bilan onasi ko'z oldida jonlanardi. Uning xayolida yoshgina o'g'li Ozod ham o'zi kabi ko'chalarda qolib ketayotgandek, o'zi kabi og'ir hayot kechirib, aynan otasi o'tgan yo'ldan o'tadigandek tuyulardi. U ham endi kichkina bir baxt egasi bo'lganda hayot bo'roni uning baxtini ham urib ag'darib ketayotgandek, uning bolasi ham kimsasiz qoladigandek bo'lardi. Lekin Karimxon ozod va baxtli kunlarning albatta kelishiga ishonar, bu baxtsizliklarning axir bir kun tugashiga imoni komil edi. Toleyiga surgundan qaytib kelganda Xovar ham, kichkina Ozod ham sog'-salomat edi.

Yosh ayol eri qamalgach ham o'zini yo'qotmadi, boshiga tushgan barcha kulfatlarga qarshi mardona kurashdi va o'g'lini tarbiya qildi. Bir qancha vaqt o'tgach Karimxonning ozodlikda qolgan o'rtoqlari unga yordam qo'llarini cho'zdilar. Nihoyat uni Aram o'z uyiga — otasiga yordamchi qilib olib ketdi. Shu kundan boshlab Xovar o'zini tamom o'nglab olgan edi.

Surgundan qaytib kelgach Karimxon uni yana sadoqat va muhabbat bilan kutgan oilasi, sevimli Xovari bilan birga bo'ldi. U

tamaki fabrikasiga ishga kirdi. Surgun uning revolutsion kurashga bo'lgan irodasini sindirolmadi, aksincha, u tamoman revolutsion kurash yo'liga kirdi.

Hozir kitobchani bosayotgan bosmaxonadan qaytib kelar ekan, Karimxon Ozodiy goh o'zining og'ir hayotiy yo'lini eslar, goh Tehronning hozir bo'shab qolgan ko'chalarini tomosha qilar, goh hech qayg'usi yo'q odamday bitta-bitta odim tashlab yurar edi. O'zini ruhan juda yengil va baxtiyor sezardi. U butun vujudi bilan boshlagan ishning zavqiga berilgan edi, uning kelajagini ko'z oldiga keltirishga tirishardi.

Birdan kimdir uning qo'lidan ushlaganini sezdi-da, qayrilib qarab, hayron bo'lib qoldi:

— Iye, og'oyi Mahbusiy! Baxayr?..

Mahbusiy uni qizg'inlik bilan quchoqlab o'pdi:

— Xudoga shukur, aziz birodar, yana diydor ko'rishadigan kunlar ham bor ekan, — dedi u.— Ajrashganimizga necha yillar bo'ldi-yu! Lekin doim yodimdasan! Doim seni o'ylardim, yaxshi xususiyatlaring, mustahkam irodang va mehribonliging haqida o'ylardim, doim mahbuslarga shular to'g'risida so'zlardim. Lekin bu jahannamdan tirik chiqarman, yana seni uchratarman, deb sira o'ylamagan edim.

Bularni so'zlarkan Mahbusiy hatto yig'lab yubordi. Uning bu holi Karimxon Ozodiyga qattiq ta'sir qildi. U ham ko'z yoshlarini zo'rg'a tiyib:

— Qachon kelding? — deb so'radi.

— Bu vayrona shaharga kelganimga besh kun bo'ldi. Bu shaharning o'sha zindondan sira farqi yo'q.

— Qayerda turibsan?

— To'g'ri kelgan joyda. Hozircha doimiy turar joy topganim yo'q. Bu yerda mening xolavachchalarim bor, o'shalarnikida yotib yuribman.

Karimxon Ozodiyning unga rahmi keldi. Biroz o'ylagandan keyin eski do'stini o'zining kichkinagina uyiga olib ketishga qaror qildi.

— Yur biznikiga, suhbatlashamiz, bahona bilan damingni ham olasan, mening oilam bilan ham tanishasan.

— Bezovta qilarman deyman?..

Karimxon uning borishga qarshi emasligini, ammo shunchaki manzirat qilayotgan ekan demasin degan andisha bilan:

— Bezovta bo'lishi bor ekanmi? Qo'limizdan kelgancha xizmatingizda bo'lamiz, — dedi-da, uni qo'lidan sudradi. Ular gangir-gungir suhbatlashib, Karimxon Ozodiyning uyiga jo'nadilar.

Karimxon Husayn Mahbusiy bilan bundan olti yil burun tanishgan edi.

Qamalganining ikkinchi kuni eshik ochilib, turmachilar yuzko'ziga qarab bo'lmaydigan bir odamni Ozodiyning kamerasiga itarib yubordilar. Yangi mahbus uzoq oh-voh qildi, goh qo'li, goh oyog'i, goh biqini og'riyotganidan shikoyat qildi, kelib yiqilgan yerida yotib qoldi. O'z shikoyatlari orasida u hukumat va politsiya boshliqlarini og'ziga kelganini qaytarmay so'kdi, hatto Rizo shohning o'zi ham quruq qolmadi.

Uning oh-vohlariga va inqillashiga bardosh berolmagan Karimxon Ozodiy uning oldiga kelib, tasalli bera boshladi, yangi mahbusning dardini yengillatishga tirishdi.

Qop-qorong'i, zax zindondagi azob-uqubat ularni tez do'stlashib ketishlariga va hamdard bo'lishlariga sabab bo'ldi.

Taxminan o'n besh kunlardan keyin Husayn Mahbusiyni Karimxon Ozodiydan ajratib boshqa kameraga ko'chirdilar. Yana ikki haftadan keyin Karimxon Mahbusiyning hukm qilinganlarning birinchi to'dasi bilan janubga surgun qilinganini eshitdi.

Karimxon Ozodiy Mahbusiy bilan ikkinchi marta janubda uchrashdi. Mahbusiyning surgun muddati tugab, Tehronga qaytib ketayotgan ekan. Ular eski qadrdonlardek ko'rishdilar-da, yana bir necha kun birga yashadilar.

Mahbusiy ozodlikka chiqib, Tehronga jo'nab ketdi, shundan boshlab ular orasidagi aloqa uzildi. Lekin bir necha yildan keyin Mahbusiy yana qamalib, yangi bir guruh mahbuslar bilan janubga surgun qilindi. Shunda ular uchinchi marta uchrashdilar.

— Yana qo'lga tushdim, aziz birodarim, — degan edi o'shanda Mahbusiy alam bilan.

Surgun muddatini tugatib, poytaxtga qaytar ekan, Karimxon Mahbusiy bilan xayrlashdi: Mahbusiy hali yana besh yil surgunda yurishi kerak edi.

Ular xayrlashishar ekan:

— Bor, aziz birodarim, — degan edi Mahbusiy, yig'lamoqdan beri bo'lib. — Mening esa bu jahannamdan sog' chiqishimga aslo umidim yo'q. Muhtojlik, og'ir sharoit va betoblikdan halok bo'layotgan mahbuslarni ko'rib yuragim siqiladi. Allaqanday bir ovoz: "Yo'q, Husayn, sen bu yerdan ketolmaysan" degandek tuyulaveradi. Bor, ozod kunlarda kishilarga hatto qabri ham noma'lum qoladigan Mahbusiyni eslab yur!..

U Karimxonni yana bir karra quchoqlab o'pib, so'ng ko'z yoshlarini oqizib ajrashgan edi.

Bularning hammasini xotiridan o'tkazgan Karimxon Ozodiy sevinch bilan:

— Xudoga shukur, sog'-salomat qaytibsan, — dedi. — So'nggi ajrashganimizda ahvoling menga juda qattiq ta'sir qilgan edi. Hech xayolimdan nari ketmasdi.

— Men ham seni sira unutolmadim, mahbuslar orasida tanish-bilishlar, do'stlar oz emas. Lekin hamisha seni eslardim.

— Qanday qilib qutulding? Gunohingni kechdilarmi?

— Bizdakalarning gunohini kechirishmaydi, birodar. Qochdim.

— Demak, sen shaharda yashirin yashab yurgan ekansan-da? Ehtiyot bo'l. Yana bir qo'lga tushsang, dor tagiga sudrashlari aniq.

— Eh... Rosa jonimga tegdi bu ishlar. Ayon endi surgunga chidash berolmayman! Undan ko'ra o'lgan yaxshi. So'nggi nafasimgacha kurashaman. Xo'sh, o'zing nimalar qilayapsan?

Karimxon o'z hayoti, ishlari haqida so'zlab berdi. Tehrondagi siyosiy vaziyat, ishchi va dehqonlarning og'ir ahvoli haqida gapirdi.

Karimxonning uyiga yetishganida suhbatni to'xtatishdi. Karimxon eshikni taqillatdi. Xovarning o'zi eshik ochgani chiqdi. Karimxonning ovozini eshitib, shodlikdan titragan ovoz bilan:

— Qayerda yuribsan? Nega buncha kech qolding? — deb eshik ochdi.

Uning ovozidagi ham xavotirlik, ham mehribonlikni bildiruvchi bu titroq Karimxonga naqadar aziz, naqadar tanish edi! Uning butun qalbdan chiqishini, mehribonlikning ifodasi ekanini Karimxon yaxshi bilar edi. Chunki Xovar har kun eshikni ochib, erini ichkari kiritarkan, uning bo'yniga osilib olar, boshini muhabbat bilan erining ko'ksiga qo'yar edi.

— Nima uchun bunday bo'lishini bilmayman, — der edi Xovar, — lekin har safar uyga kelganingda seni menga Xudoyim boshqatdan qaytarib bergandek tuyuladi. Bir soat kechiksang, ming xayolga boraman...

Karimxon uni quchoqlab, ko'zlariga uzoq tikilar, hech narsa demay, yuz-ko'zidan, lablaridan o'par edi.

Karimxon hozir ham xotini bo'yniga tashlanishini bilar edi, shuning uchun:

— Xovar, mening hamrohim bor, — deb xotinini ogohlantirib qo'ydi.

Ular ichkari kirishdi. Bu kichkina, ko'rimsiz xona edi.

— Choying bormi? — deb so'radi Karimxon Xovardan.

— Hozir olib kelaman, — dedi Xovar va hozirgina tanishgani Husayn Mahbusiyga qaradi, lekin darhol yuzini boshqa tomonga o'girdi. Birinchi boqishdayoq mehmonning o'g'ri ko'zlari Hovarga yoqmadi. Shu vaqtda o'z odati bo'yicha Karimxon, yog'och kravatda uxlab yotgan o'g'li Ozodga qarab turgan edi.

— U seni rosa kutib o'tirdi, — dedi Xovar eriga. — Kech bo'lib qolgach, uxlatdim.

— Yaxshi qilibsan, — dedi Karimxon va sekin engashib, ehtiyot bilan o'g'lining yuzidan o'pdi.

Xovar eri bilan o'g'liga muhabbat to'la ko'zlari bilan qarab quvonar edi. Xonadan chiqish uchun qayrilar ekan, Xovarning ko'zlari yana Mahbusiyning ko'zlari bilan to'qnashdi. "Ey Xudo-yey, namuncha ko'zlari yomon ekan" deb xayolidan kechirdi. Xovarni, Karimxonni, dunyodan bexabar yotgan kichkina Ozodni diqqat bilan ko'zdan kechirayotgan bu odamning qalbi hasadga to'ladek tuyuldi.

Tashqari chiqqach, u o'zining bu fikrini Karimxonga ham aytdi. Karimxon kulimsiradi.

— Ko'zidagi bu og'ir nazar hayotning azob-uqubatlaridan qolgan nishonadir, Xovarim, — deb javob berdi u.

— Yo'q, uning boqishlarida g'am-alam ko'rinmaydi, boshqa allaqanday bir narsa bor unda... Uning boqishlarida hasad bor. Harqalay, u senchalik ko'p azob chekmagan bo'lsa kerak. Lekin sening ko'zlaring muhabbat va nur bilan to'la.

— Mening ko'zlarimga nur baxsh etuvchi sensan, sening muhabbating, Xovarim!..

Xovar boshqa narsa demadi, choy va ovqat hozirlash bilan ovora bo'ldi. Ovqatdan keyin ular yana biroz suhbatlashib o'tirishdi. Yotishdan oldin mehmon tashqari chiqdi. Xovar Karimxonga:

— Uning oldida indamadim. Endi aytay: Faridun kelgan edi. Nima qilib bo'lsa ham seni ko'rmoqchi ekan. Ertaga seni kutadi.

— Hech narsa demadimi?

— Yo'q! Hech narsa demadi. Ozgina ishim bor edi, o'zini ko'rsam aytarman, deb ketdi. Shuncha qistasam ham, o'tirmadi.

Xovar yana biroz o'yga tolib, so'ng qo'shib qo'ydi:

— Odam ana o'shanga o'xshagan bo'lsa. Yuzi, ko'zi, gap-so'zi hammasi samimiy. Bu-chi...

— Yaxshi, Xovarim, bugunchalik qolsin, ertaga ketadi. Bundan keyin olib kelmayman, — deb yana xotinining ko'zidan o'pdi.

— Xafa bo'lma mendan, — dedi Xovar uning quchog'iga suqilib, — sendan hech narsani yashirolmayman...

O‘N BIRINCHI BOB

Rizo shoh oq marmar saroyning pillapoyalaridan bitta-bitta ko‘tarilayotganda barcha xizmatchilar ikki bukilishdi, harbiylar esa g‘oz qotishdi. Qo‘rquvdan nafasi ichiga tushib ketgan bu odamlarning hammasi go‘yo jonsiz kishilarga o‘xshardi. Shohning qosh-qovog‘i doim soliq bo‘lar, ko‘zlari g‘azab o‘ti bilan chaqnab turardi. Bu qora basharaga, sira jilmayishni bilmaydigan bu qonli ko‘zlarga tik qarab bo‘lmasdi. Butun mamlakatni zindon va turmalar bosib ketganday uning betini ham chuqur ajinlari bosib ketgan edi. Boqishlarida cheksiz hukmronlikka to‘ymagan yurakning ochko‘zligi sezilardi.

Atrofga dahshat sochuvchi bu odam taxtga kelib o‘tirganda, butun saroyga go‘riston sukunati cho‘kkan edi. Katta-kichik xizmatchilarning hammasi oyoq uchida yurar, qo‘rqa-pisa shivirlashib so‘zlashar edi. Birozdan so‘ng shoh saroy ministrini chaqirtirdi. Oradan besh minut o‘tar-o‘tmas uning huzuriga past bo‘yli, taryakdan qop-qorayib, quruq suyak bo‘lib qolgan bir kishi kirib keldi. Bu kishi saroy vaziri Hakim ul-mulk edi. U shohga ikki bukilib ta’zim qildi. Hakim ul-mulkning munchoqdek ko‘zlari yog‘i tugab qolgan chiroq kabi miltillab turardi, yuragi titrab a’lohazrat Humoyunning amrini kutar edi. Shohlar va hokimlar o‘zgarib turishiga qaramay, Eron siyosati jilovini doim o‘z qo‘lida saqlab kelayotgan bu odam Pahlaviyning qarshisida yaproq kabi dir-dir titrar, minut sayin boshiga qilich tushishini kutgan odam singari boshi doim quyi egilgan edi.

Rizo shoh ministrni sinovchan nazar bilan kuzatib:

— Tur o‘rningdan! Beriroq kel! — deb buyurdi. Hakim ulmulk yugurib shohga yaqin keldi.

— Qani, gapir, nima gaplar bor? — dedi shoh hatto unga qayrilib ham qaramay.

Hakim ul-mulk nima qilishini bilmay qoldi, qip-qizardi. Lablari titradi.

— A'lohazrat, men qog'ozlarni keltirmagan edim, — dedi u bo'g'iq tovush bilan. Rizo shoh unga g'azab bilan qarab:

— Xo'sh, nima uchun ovora bo'lib kelib yuribsan, og'oyi Hakim ul-mulk! — deb so'radi kesatib shoh. — Ehtimol, muborak afti-angorimni sog'inib qolgan deb o'ylagandirsan-a?.. Hayvonsan-da, hayvon! Oltmish yildan beri eshaksan-u, hali ham ishingni uddasidan chiqolmaysan!

— Afv eting, a'lohazrat, gunohkorman.

— Afv eting! Afv eting! — deb uni masxara qildi shoh. — Ikkinchi qulog'ingni ham kesib tashlayman, o'shanda bilasan afv so'rashni!

Hakim ul-mulk bu so'zlar va g'azabli boqishlardan tegirmon toshi ostida qolgandek ezildi. Lekin eshak so'zi shohning yodiga allaqanday bir kulgili narsani keltirdi, shekilli, lablarida kulgiga o'xshagan bir narsa paydo bo'ldi. Qo'rqa-pisa unga ko'z tashlab turgan Hakim ul-mulk buni payqadi. Rizo shoh o'z vazirini yuz martalab takrorlashga majbur qiladigan bir bayt she'rni xotirlashga zo'r berib urinardi:

— Xari... xari... xari...

She'rni sira xotirlay olmasligiga aqli yetgach, Rizo shoh vaziriga qichqirdi:

— Qani aytsang-chi, shoir nima degan edi?!

Hakim ul-mulk she'rni tez o'qidi:

— *Xari Iso garash ba Makka barand.*

Chun beyoyad hanuz xar boshad[1].

Shoh kuldi:

— Buni shoir sen kabi eshaklarga atab yozgan!..

Hakim ul-mulk ta'zim qildi:

— A'lohazrat Humoyunning aytganlari tamomila to'g'ri.

— Yana bir o'qi.

Hakim ul-mulk she'rni yana bir marta o'qidi. Shoh tag'in kuldi.

— Bor endi, qog'ozlarni keltir!

---

[1] Isoning eshagini Makkaga olib borsalar ham, qaytganda yana eshakligicha qolaveradi.

Hakim ul-mulk orqasi bilan yurib, o'zini eshikka urdi. "Xudoga shukur, yaxshilikcha qutuldim", deb xayolidan kechirdi-da, qog'ozlarini keltirgani yugurdi.

Rizo shoh deraza oldida to'xtab allaqayoqqa tikilib qolar, goh viqor bilan qadam tashlab xonani aylanib chiqardi, uning miyasini band etgan narsa davlatlar o'rtasidagi turg'un bo'lmagan munosabatlar, murakkab diplomatik aloqalar, mamlakatning ichki va tashqi vaziyati edi. Bu vaziyat unga juda shubhali ko'rinardi, shuning uchun qalbida tashvish uyg'otardi.

Xalqning ahvol-ruhiyati, yashirin noroziliklar, nihoyat, keyingi vaqtlarda tarqatilgan varaqalar butunlay jilovlanib tashlangan mamlakatda yashirin, lekin xavfli kuchlarning yana kuchayib ketganidan darak berardi. Rizo shoh savodsiz, avom xalq ommasini tarixiy ishlar qilishda buyuk shaxslar qo'lidagi bir vosita, ularga ko'r-ko'rona itoat qiladigan bir poda deb hisoblardi.

Endi birdan ma'lum bo'ldiki, ko'r avom quvvat — xalq o'zini ko'rsatish bilangina cheklanmay, balki o'sha "buyuk shaxslar"ning qalbiga qo'rquv ham solishga qodir ekan.

Shoh shu vaqtga qadar bu quvvatni abadiy itoatda saqlashga qodir bo'lgan mustahkam va buzilmas apparat tuzganman, deb o'ylab yurardi. Yangi ofitserlar bilan to'ldirilgan, yangi qurollar bilan qurollangan va yangi ustavga bo'ysundirilgan armiya, politsiya va jandarmediya, yustitsiya organlari, ministrliklar shu maqsadga bo'ysundirilgan edi. Bundan boshqa yana savdogarlar, zamindorlar, fabrikantlar va zavodchi boylar ham xalq ommasini doim jilovlab turish ishiga o'z hissalarini qo'shardilar.

Rizo shoh biror maqsadga erishishda ana shu janoblarga tayanib ish ko'rar, bu janoblar ham o'z navbatida Rizo shohni o'z homiylari deb bilardilar. Shohning mamlakatda "boshboshdoqlik", "tarbiyasizlik" yuz berishiga mutlaqo yo'l bermasligiga ishonganliklari uchun barcha yaramas qiliqlariga, tahqirlariga chidardilar; har ish "qudratli shaxs"ning irodasiga bog'liq edi.

Mana endi yana qo'zg'alib qolgan o'sha bo'ysunmas kuchning qarshiligini tamoman sindirib tashlamasa, u ertami-kechmi, axir bir kun, o'z hukmronligidan ajraladi. Hozir uning qarshisida bosh egib kelayotgan o'sha savdogarlar, fabrikantlar, zamindorlarning o'zi hammadan oldin unga qarshi bosh ko'taradilar-da:

— Chetga chiq! Bizga boshqa kuchli hukmdor kerak! — deydilar.

Lekin u ishning bungacha borib yetishiga hech vaqt yo'l qo'ymaydi!..

Rizo shoh chalasavod johil odam edi. Yoshligidanoq soldat etigi bilan soldat shinelidan boshqa kiyim kiymagan, soldatlarning ongini shakllantiruvchi harbiy qonundan boshqa bironta ham kitob o'qimagan, harbiy mashqdan boshqa bironta ham ilmni bilmagan bu kishi o'zini buyuk odam, deb hisoblardi. U o'zi bilmagan narsalarning hammasiga nafrat bilan qarardi. U qurol ishlatishni, kuch va quvvatga tayangan "ilm"nigina haqiqiy ilm deb bilar edi. Qudratli shohlar va yengilmas lashkarboshilardan so'zlamaydigan tarixni, odamlarni adashtirishga xizmat qilmagani uchun zararli deb hisoblardi. San'at va adabiyotni xalq uchun zahardan ham zararliroq deb bilardi, chunki ularda zo'rlik va qurol kuchi kuylanmas, balki gumanistik tuyg'ular va insonga muhabbat motivlari kuylanar edi. Dunyoda ta'zim qilishga arzigudek biror narsa bor deb hisoblash mumkin bo'lsa, u, shohning fikricha, kuch-quvvat edi. Shuning uchun har kun ertalab uyqudan uyg'ongach, harbiy qismlarni bir ko'zdan kechirish yigirmanchi asr "oliy janobi"ning odati bo'lib qolgani hech bir ajablanarli hol emas edi.

Ozmi-ko'pmi biror mantiqiy so'z aytgan, biror yangi fikr bildirgan kishi uning qahriga uchrardi.

Shoh: "Inson kuchgagina bo'ysunadi, kuch bo'lmagan yerda haqiqat ham yo'q" degan gapni takrorlashni yaxshi ko'rardi. Bunday aqida uning despotlikni cheksiz sevuvchi tabiati bilan mos kelibgina qolmay, balki uning tabiatida bor edi. Harholda, uni yaqindan bilganlar va u hukmronlik qilgan o'n besh yillik vaqtni o'z boshidan kechirganlar bir xil fikrda edilar. Sharqning an'anaga kirib qolgan shafqatsizlik bilan hukmronlik qilish usulida mamlakatni boshqargan bu odam ko'cha chapanilari singari og'zi buzuq va axloqsiz edi. Yirik burjuaziya vakillari bilan birga yo'lida uchragan barcha to'siq va mone'liklarni goh hiylagarlik bilan, goh ikkiyuzlamalik va yolg'on va'dalar yordami bilan, goh o'rni kelib qolganda, terror va o'ldirib yuborish yo'li bilan oradan ko'tarib tashlab, butun Eronni o'ziga bo'ysundirgandan

so‘ng uning mustabidlik tabiati va cheksiz xudbinligi baralla yuzaga chiqdi.

Shundan beri uning o‘zi ham, uni qo‘llab-quvvatlagan hamfikrlari ham Sharqning mayda despoti bo‘lgan bu kishining buyuk odam ekanligiga ishona boshladilar.

Bu ishonch unda mamlakat manfaatlari va kelajagi uchun zararli bo‘lgan ishlarni kechiktirmay, tezlik bilan amalga oshirish fikrini uyg‘otdi. Qudrati cheksiz ekani, hatto Xudoning qudratiga baravarlab qolishi to‘g‘risida xushomadgo‘ylik bilan aytilgan gaplarga o‘zi ham jiddiy ravishda ishonib qolgan edi. Bu telba hokim faqat hozirgi ishlarinigina emas, hatto o‘tmishdagi “qahramonliklari”ni ham xotirlashni yaxshi ko‘rardi. Mozandaronda o‘tgan yoshlik yillari, oilasiga boshchilik qilgan amakisi Nasirullaxonning harakati bilan 1900-yilda chor qo‘shinlari generali Lyaxovning kazak qismiga xizmatga kirgani, soldatlar bilan qo‘pol va ayovsiz muomala qilish natijasida harbiy unvonining tez ko‘tarila borgani... O‘tmish to‘g‘risidagi xotiralar muqarrar 20-yillarga olib kelardi.

Bu yillarda ingliz-amerika razvedka organlari bilan maslahatlashib va ittifoq bo‘lib xalq demokratik kuchlarga qarshi olib borgan riyokorlik ishlari va Said Ziyoiddin bilan birga amalga oshirgan davlat o‘zgarishlari Rizo shohning nazarida buyuklik ifodasiday bo‘lib tuyulardi. Birdan jiringlab qolgan telefon ovozi uning xayolini bo‘ldi. Xayoli bo‘linganidan g‘azabi qaynab, shu payt telefon qilgan odamni haqorat qilib trubkani ko‘tardi...

Shu payt shoh huzuriga qaytib kelayotgan Hakim ul-mulk qabulxonada sarhang Safoiy va moliya ministriga duch keldi.

— A’lohazratning kayfi qalay? Achchiq ustida emasmi? — deb shivirlab so‘rashdi ular Hakim ul-mulkdan.

Hakim ul-mulk ularning hayajon va qo‘rquvdan ko‘karib ketgan basharalariga bir qarab qo‘ydi-da, ma’nodor qilib shohning kabineti tomonga boshi bilan ishora qildi. Undan telefonda gaplashayotgan shohning g‘azabli tovushi eshitilmoqda edi.

“Uning kayfi ana shu holda”, — degan kishi bo‘ldi-da, go‘yo bir narsani esidan chiqargandek, ketiga qaytib o‘z kabinetiga yugurib ketdi.

Shohning g'azabi pasayishini kutib kabinetida o'tirdi. Allaqanday qog'ozlarni varaqlagan bo'ldi. Qaytib kelib, Safoiy bilan ministrning hali ham ichkari kirolmay, eshik oldida turganini ko'rdi. Ichkaridan esa hali ham shohning asabiy va g'azabli tovushi eshitilar edi. Xizmatchilar oyog'i kuygan tovuqdek pitirlab, u yoqdan-bu yoqqa zir yugurar edilar. Hammaning ko'zida qo'rquv, vahima alomatlari.

Uchalasi ichkari kirib, yergacha egilib, ta'zim qilishdi.

Shoh salomga alik ham olmay, sakrab o'rnidan turdi-da, tishlarini g'ijirlatib:

— Hammangizni tiriklay yerga ko'mib yuborish kerak! — deb o'shqirdi.

Ular boshlarini ko'tarishga ham botinolmay dahshat ichida endi nima bo'lishini kutib turdilar. Rizo shoh birdan keskin bir harakat bilan moliya ministrining yoqasidan ushlab, silkitdi:

— Sen qayerdan bunday diktator bo'lib qolding?

Rangi quv o'chib, dir-dir titragan moliya ministri boshini yana ham quyi egib ta'zim qildi:

— Nima gunoh qilib qo'ydim men, a'lohazrat? Men...

Rizo shoh unga so'zini tugatishga imkon bermadi. Ovozining boricha bo'kirdi:

— Itvachcha! Qurilish ishlariga yetti yarim million ajratishga senga kim ruxsat berdi?

Moliya ministri o'zini zo'rg'a qo'lga oldi:

— Men bunga muborak amringizga binoan imzo chekkan edim, — dedi, — bunda mening hech ixtiyorim yo'q!

Buni eshitgan Rizo shoh moliya ministrining basharasiga qulochkashlab bir tushurdi.

— Menga qo'shin kerak, qurol-aslaha kerak, ablah! Sen pulni qayerga sarf qilayapsan, a? Sening qilmishlaring va o'g'irliklaringdan xabarim yo'q deb o'ylaysanmi?

Moliya ministri tarsaki zarbidan bir necha qadam yerga uchib ketdi. Qip-qizarib ketgan betini ushladi. Sardor Asad bilan Temur Toshning[1] taqdirini o'ylab, qaynab kelayotgan g'azabini bosib indamadi.

---

[1] **Sardor Asad bilan Temur Tosh** — Rizo shoh davrida zindonda qiynab o'ldirilgan Eron siyosiy arboblari.

Rizo shoh unga qo'li bilan eshikni ko'rsatdi:

— Jo'na!..

Moliya ministri chiqib ketgach, Rizo shoh kelib taxtga o'tirdi-da, sarhang Safoiyga o'girildi:

— Sen ham xiyonat yo'liga kirdingmi? Mening nonim seni ham quturtirdimi? Davlat seni ham buzdimi deyman-a?

Hozirgi moliya ministrining boshiga tushgan kulfatning shohidi bo'lgan sarhang indamadi. U har qanday tahqirlarga ham bardosh berish lozim ekanini bilardi. Yanada to'g'rirog'i, u bunga odatlanib qolgan edi.

Nega toshdek indamay turipsan? Gapir! Eshitaylik! Ardabilda dehqonlar arbobga qarshi bosh ko'tardilar, sen nima qilding? Shaharda xalqni qo'zg'olonga chaqirmoqdalar, har kun varaqalar tarqalmoqda, xo'sh, sen nima qilding? Yoki meni faqat o'zi uchungina qo'rqadi deb o'ylaysizmi, og'o, yo'q, og'o, mening bir boshim bor, bir gap bo'lsa — Yevropa shaharlaridan biriga borib, kayf-safoyimni qilaverishim mumkin. Men senlarni o'ylayman, senlarning g'amingni yeyman, men bo'lmasam, og'oyi sarhanglar, vazirlar, arboblar o'n joningdan bir joningni saqlab qololmaysanlar!..

Oraga cho'kkan jimlikdan foydalanib sarhang Safoiy o'zining sinalgan quroli — xushomadgo'ylikni ishga soldi:

— Balli, — deb boshladi ahmoqligi yaqqol ko'rinib turgan basharasiga tabassumga o'xshash bir narsa chiqarishga urinib, — butun Eronning baxt-saodati, jumladan bizning baxtimiz ham zoti oliylariga bog'liq ekanini yaxshi bilamiz va...

Rizo shoh uning so'zini kesdi:

— Bu gaplaringni boshimga uramanmi?! Bu gapingni oborib savdogar otang Safoiyning go'riga ayt! Ardabildagi isyonchilar nima bo'ldi? Shaharda nima gaplar bor? Shundan gapir!

Qonxo'r hukmdorning axloqini yaxshi bilgan, qachon jim turish, qachon gapirish, gapirganda ham nimalar to'g'risida gapirish mumkin va nimalar to'g'risida gapirish mumkinmasligini yaxshi bilgan sarhang, bu mushkul ahvoldan qutulish uchun yana o'zining sinalgan usuli — yolg'onchilikni ishga soldi, qo'lga tushib qolmaslik uchun qat'iy va burro-burro qilib gapirishga urindi:

— A'lohazrat, Ardabilda o'ttiz kishi qo'lga tushdi. Tergov ishlari olib borilayapti. Jandarm qo'lidan qochib ketgan odamning Kavkazdan o'tgan bolshevik ekani aniqlandi. Ardabillik dehqonlar orasida g'ovg'a qo'zg'agan ham xuddi o'shaning o'zi ekan. Uni hozir axtaryapmiz. Tehronda esa bir odamni ushladik, u varaqalarni o'z qo'lim bilan yozganman, deb iqror bo'ldi.

Rizo shoh uning so'zini kesib, o'tirgan yerida buyurdi:

— Dehqonlarni beboshlikka o'rgatgan bolshevikni qayerdan bo'lsa ham topasan, sarhang!.. Zindonga tashlanganlarni qiyin-qistoq qil, toki uning yashiringan joyini aytib bersinlar!.. Qo'zg'olonchi dehqon Musaning mol-mulki musodara qilinib, o'zi Ozarbayjondan surgun qilinsin!..

Sarhang shohning momaqaldiroqday guldirayotgan tovushini eshitar, lekin hech narsa tushunmasdi. Uning fikri-yodi boshqa joyda, mahbuslardan qaysisini tuzoqqa ilintirsam ekan degan hayol bilan band edi. Chunki Rizo shoh oldida aytgan gaplarini to'g'rilash, haqiqatga aylantirish lozim edi. Shoh so'zini tugatib jim bo'lganda, g'azabdan so'l betidagi tirtig'i ucha boshladi. Sarhang nima deyishni bilmasdan, o'ylab-netib o'tirmay:

— Xo'p bo'ladi, — deb ta'zim qildi.

Rizo shoh teskari o'girilib tupurdi:

— "Xo'p bo'ladi, xo'p bo'ladi!" Hammang ham nonko'rsan!.. Hammang ham o'lgudek yolg'onchi va xoinsan!

Dokadek oqarib ketgan sarhang:

— A'lohazrat, — dedi zo'rg'a, — biz sizning sodiq qulingizmiz.

— Ko'rib turibman qanchalik sodiqligingni! Mamlakat xoinlarga to'lib ketayapti-yu, menga sodiqlikdan gapirasan! Zap sodiq ekansan-u!

— A'lohazrat, biz xoinlarni hech surishtirmay yo'qotmoqdamiz. Biz Tabrizda Hamid Hamidiyning taxtga qarshi dushmanchilik qilayotganini ochdik. Bu yerda sartib Salimiyni nazorat ostida saqlab turibmiz.

Salimiyning nomini eshitishi bilan Rizo shoh birdan qichqirishdan to'xtadi va Hakim ul-mulkka o'dag'aylamay, lekin g'azab bilan:

— Uning isloh to'g'risidagi xatini og'olar bilishadimi? — deb so'radi.

Hakim ul-mulk bosh egdi:

— Yo‘q, a’lohazrat, bunday amri oliy bo‘lgani yo‘q.

— Amr lozim emas. Barcha ministrlarni, yirik savdogar va arboblarni to‘pla. Xatni ularga ber, o‘qishsin! Men bo‘lmasam hammasining holiga maymunlar yig‘lashini bilib qo‘yishsin! Yo noto‘g‘rimi?

— Juda to‘g‘ri, a’lohazrat, buni, albatta, qilaman.

Rizo shoh sarhangga o‘girildi:

— Bu og‘o yuqoridan pastgacha bo‘lgan barcha davlat apparatini poraxo‘rlikda, o‘g‘irlikda va vatanga xiyonat qilishda ayblabdi, — dedi. — Mahallalarda o‘z-o‘zini idora qilish organlari tashkil qilishni va ularga hukumat organlarini nazorat qilish huquqi berilsin, deb yozibdi. Yer islohoti o‘tkazish g‘oyasini ilgari suribdi. Unda haligi... “kolxoz”lardan boshqa hamma narsa bor. Bu ochiqdan ochiq xoinlik-ku!

Shohning g‘azabi endi boshqa narsa ustiga ko‘chganini ko‘rib suyungan sarhang Safoiy biroz dadillandi. Hamid Hamidiyning Tabrizda davlatga qarshi fitna tayyorlagani, Salimiy to‘g‘risidagi qo‘lida bor ma’lumotlarga qo‘shib-chatib, bir necha hissa oshirib so‘zladi.

— Hammasi qirib tashlansin! Tuxumi quritilsin! — deb baqirdi Rizo shoh va biroz sukutdan so‘ng:

— Sartib Salimiyni Ichki ishlar ministrligidan haydadinglarmi? — deb so‘radi.

— Haydadik, a’lohazrat, haydadik — a’lohazrati Humoyunning farmoyishlarini og‘oyi ministr darhol amalga oshirdi.

Rizo shoh og‘ir qo‘lini ko‘tardi. Bu sarhang Safoiyga ketish uchun berilgan ijozatni bildirar edi. Sarhang Safoiy ikki bukilgan holda orqasi bilan yurib, chiqib ketdi.

Hakim ul-mulk hamon qaqqayib turar edi.

Shoh taassuf bildirgandek bir tovushda:

— Ko‘rdingmi, vazir, ko‘rdingmi? — dedi. — Men Eronda kuchli davlat yaratmoqchi bo‘lib, qancha-qancha eshaklarga duch kelayapman. Men hammangizni tarsaki va darra bilan urib-urib ishlataman.

Shoh vazirining qo‘rquv va ma’nosizlikdan boshqa hech narsa ifoda etmagan ko‘zlariga qaradi, lekin unda e’tiroz yoki norozilik bildiradigan biror alomat sezmay, yana o‘shqira ketdi:

— Ha, ishlataman! Boshingizdan qalpoqlaringizni, sallalaringizni olib shlapa kiygizdimmi? Kiygizdim. Xotin-qizlarning yuzini ochdimmi? Ochdim. Senlarni ishlataman dedimmi — ishlataman.

— Ixtiyor sizda, a'lohazrat, — deya oldi Hakim ul-mulk.

Shoh istehzo va kin aralash zaharli qilib vazirning so'zini takrorladi:

— Ixtiyor sizda emish-a-a-a... Ah, tulkilar... tulkilar!..

Mahkam qisilgan tishlari orasidan chiqayotgan har bir so'zidan nafrat yog'ilib turgan shoh bu so'zlarni aytib, Hakim ul-mulk ustiga bostirib kela boshladi. Buni ko'rgan vazir dag'-dag' titray boshladi. Moliya ministrining hissasiga tushgan tarsakining tovushi qulog'iga eshitilib ketdi. Rizo shohning to'qmoqdek mushtiga qarab, uning zarbiga dosh berolmasligini angladi-da, rang-gi bo'zday oqarib ketdi.

"Bu zindonga keladigan biror kishi ham yo'q, biror kishi telefon ham qilmaydiki, qutulib qolsam", deb o'yladi vazir.

— Qani aytchi, har kun necha marta shoh bo'lish to'g'risida o'ylaysan? Rostini ayt!

Hakim ul-mulk zo'rg'a:

— Jonim sizga qurbon, men sizning sodiq qulingizman, — deya oldi.

— Sodiq qulingizman!.. Qirq yil ichida menga o'xshagan necha kishiga sodiq qul bo'lding? Indamaysan, a? Demak, meni eshak, deb hisoblaysan. Xayr, mayli. Men eshak bo'lsam ham hammangizning adabingizni berib qo'yaman!

Shohning lablarida kulgi ko'rindi. Eshak so'zi unga yana o'sha mashhur baytni eslatdi. Yana Hakim ul-mulkka murojaat qildi:

— Shoir nima degan edi?

Biroz o'ziga kelgan Hakim ul-mulk baytni takrorladi. Shoh kuldi. Hakim ul-mulkning ham chehrasi biroz ochildi. Es-hushini yig'di. Saroy hayoti, shohlarning odat va xulq-atvorlarini sarhang Safoyidan ham yaxshiroq bilgan bu vazir endi eng qo'rqinchli payt o'tganini, shohning g'azabdan tushganini fahmladi. Endi ish to'g'risida gap boshlasa ham bo'lar edi. Shoh butun qahrini to'kib bo'lgan edi. Ikki kundan beri ayta olmay yurgan gaplarni aytish payti kelgan edi.

— Janob oliylari Eron davlatining shahonshohi va yer yuzining ziynati, poki muqaddas a'lohazrat Humoyun Rizo shoh Pahlaviyga o'z sadoqat va muhabbatimizni izhor etib, hazratlarining huzurlarida hech bir gunohkor emasligimizni bildiramiz va Pahlaviy sulolasining kelajagi uchun xatarli bo'lgan ba'zi ishlardan janob oliylariga arz qilishga jur'at etamiz...

Rizo shoh diqqat va qat'iyatni ifoda etuvchi nazar bilan saroy ministriga boqdi. Vazir uning betida besaranjomlik va xavotirlik paydo bo'lganini ko'rdi. Lekin ichdan kelgan titroqni bir amallab bosib, o'zini qo'lga oldi-da, Shohpur bilan Shamsiya xonim orasida yuz berayotgan munosabatdan, bu munosabat atrofida yurayotgan gap-so'zlardan so'zlab ketdi. Hakim ul-mulk bu ishq o'yini orqasida katta maqsadlar borligi, uzoqni mo'ljallab ko'rilgan siyosiy mo'ljallar yashirinib yotgani to'g'risida so'zladi. Ishbilarmon odamlar va davlat arboblari orasida o'z ishiga pishiqligi bilan mashhur bo'lgan, o'n yilgi ishlarni oldindan ko'rib qo'yadigan og'oyi Hikmat Isfahoniyning tadbirlari to'g'risida ham so'zlab o'tdi.

Rizo shoh o'rnidan turdi, qo'lini orqasiga qilib uyoqdan-buyoqqa kezindi. Kelib Hakim ul-mulkning qarshisida to'xtadi. Ministr avval Rizo shohning yana g'azabi qaynab ketsa kerak, deb o'yladi. Lekin shoh, odatiga xilof ravishda indamasdan uning basharasiga qarab turar edi.

Birdan shohning miyasiga hech kutilmagan bir fikr keldi. U Hikmat Isfahoniyning qizini sartib Salimiyga olib bersa, har jihatdan ham foydali bo'lishini o'yladi. Bir tomondan, sartib Salimiy Hikmat Isfahoniy kabi podsholikka sodiq odamning nazorati ostiga tushar, ikkinchi tomondan esa, Shamsiya valiahd shahzodadan uzoqlashtirilgan bo'lar edi.

— Sen qanday o'ylaysan, vazir, og'oyi sartib Salimiydan tamom qo'limizni yuvib qo'ltiqqa uraveramizmi, yo Hikmat Isfahoniy uni yo'ldan qaytara olarmikin?

Hakim ul-mulk Rizo shohning Salimiyni nima sababdan tilga olganini darhol tushundi. Bu ishning qanchalik mumkin yo mumkinmasligiga ham aqli yetdi.

— A'lohazrat, — dedi u, — fikringiz ko'p go'zal fikr. Lekin endi sartib Salimiy Shamsiya xonimga uylanishga rozi bo'larmikin?

Rizo shoh vaziriga taajjub bilan boqdi:

— Nega rozi bo'lmasin? Bundan besh-olti oy burun buni o'zi orzu qilib yurgan edi-ku!

— Jasorat qilganim uchun afv etasiz, a'lohazrat, hozir sartib Salimiy Shamsiya xonim bilan...

Rizo shoh, Hakim ul-mulkning nimaga ishora qilayotganini anglab, yana baqirib berdi:

— Gap qaytarma! Shamsiya xonim bilan sartib Salimiyning nikohi tezlik bilan o'tkazilsin!

— Xo'p bo'ladi, a'lohazrat!

Rizo shoh boshqa ishlar to'g'risida surishtira boshladi.

Hakim ul-mulk portfelini ochib, undan kichkinagina bir kitobcha oldi.

— A'lohazrat, — dedi u, — shaharda mana shunday kitobchalar paydo bo'lib qoldi. "Ish, non va ozodlik istaymiz!" Boshdan-oyoq fitna va fisqi-fujur!

Rizo shoh g'azab blan Hakim ul-mulkning qo'lidan kitobni tortib oldi. Birinchi sahifasini ko'zdan kechirib vazirga qaytarib berdi-da:

— O'qi! — deb buyurdi.

Hakim ul-mulkni vahima bosdi. Noiloj sekin o'qiy boshladi: "Ey, Eronning qashshoq va mehnatkash aholisi, dunyoga kelgan kunidan boshlab bir burda nonga zor bo'lgan bechoralar! Biz sizlarga murojaat qilamiz!.. Biz sizning hayotingizni o'zingizga oynada aks ettirgandek ko'rsatib bermoqchimiz. Bizning maqsadimiz sizlarning ko'zingizni ochish, Pahlaviyning zulm va istibdod asosiga qurilgan qonli idora usulining Eron boshiga yana qanday falokatlar tayyorlayotganini sizga tushuntirib berishdir".

Rizo shoh kitobni Hakim ul-mulkning qo'lidan tortib olib vazirning basharasiga uloqtirdi:

— Menga bu kitob emas, uni yozgan odamlarni qatl qilish to'grisidagi farmon kerak! Kim yozgan buni?

— A'lohazrat, bunda hech shubhasiz ruslarning qo'li bor. Rus elchixonasi...

Rizo shoh uning so'zini kesdi:

— Ruslarning qo'li borligini bilaman. Men sendan kim yozganini so'rayapman! Yo o'zing yozdingmi?

Keyingi so‘zlarni eshitgan Hakim ul-mulkning tomog‘i qaqrab qoldi, oyoqlari yerga yopishib qolgandek turgan joyida qotib qoldi. Bo‘g‘zini sovunlangan sirtmoq qisib kelayotgandek zo‘rg‘a-zo‘rg‘a nafas olar va nima deyishini bilmasdi:

— Sadag‘angiz bo‘lay, rus elchixonasiga kelib-ketib turadigan odamlarning hammasi nazorat ostiga olingan. Lekin birortasini ushlashimiz uchun asosimiz yo‘q, — dedi.

Rizo shoh hech narsa tushunmaganidan qat’iy hukm singari buyurdi.

— Tur yo‘qol!.. Boshimni og‘ritma!

Hakim ul-mulk shu zahotiyoq chiqib keta boshlagan edi, Rizo shoh uni to‘xtatdi:

— Vazir, Mozandaronda Hikmat Isfahoniyning bog‘i bormi?

— Balli, a’lohazrat, bo‘lsa kerak.

— Juda yaxshi bog‘ deyishadi. Romsardan chiqqan daromad hisobidan o‘sha bog‘ni sotib olish kerak!

— Xo‘p bo‘ladi, a’lohazrat!

— Jo‘na endi!

Hakim ul-mulk yana eshikka tomon tisarila boshladi-yu, lekin Rizo shoh uni yana to‘xtatdi:

— Ingliz elchisi men bilan ko‘rishmoqchi bo‘lgandir?

— Balli, a’lohazrat.

— Shanba kuni Sa’doboddagi qasrda, tushdan ikki soat oldin!

— Xo‘p bo‘ladi, a’lohazrat.

— Bor endi!

Vazir, nihoyat, xonadan chiqdi, shoh yana chaqirib qolmasmikin, deb biroz quloq solib turdi, so‘ng biroz yengil nafas oldi. Boshini ko‘tarib, atrofga qaradi. Saroy xizmatchilari unga sinovchan nazar bilan qarab turardilar. U bu boqishlarni nazarpisand qilmadi, qaddini rostlab, boshini baland ko‘targan holda takabburlik bilan ular oldidan o‘tib ketdi. Uzi og‘oyi Hikmat Isfahoniyning Mozandarondagi bog‘-rog‘ini podshoh uchun qanday qilib olib bersam ekan, deb o‘ylardi.

* * *

Angliya elchisi diplomatlarga xos aniqlik bilan belgilangan vaqtda mister Tomas bilan birga Rizo shohning Sa’doboddagi saroyiga

yetib keldi. Ularni saroy vaziri, tashqi ishlar ministri kutib olishdi. Elchi anglo-saksларning butun Sharq mamlakatlarida odat qilganlari tarzda o'zini takabbur tutardi. Ministrlar esa Eron aristokratlariga xos bo'lgan zohiriy nazokat bilan xushomadgo'ylik qilardilar. Elchi kattakon go'zal bog' va saroyni ko'zdan kechirar ekan:

— Men bu yerga kelsam hamisha o'zimni Londonda deb his qilaman. Bundagi nozik uslub, nafosat va madaniyatga Yevropadagi har bir shaharning ham havasi kelsa arziydi. A'lohazratning faqat siyosat masalalaridagina emas, hatto san'at va yashash masalalarida ham didi, zavqi komildir.

Mister Tomas elchining so'zini quvvatladi:

— A'lohazratning g'ayrati natijasida Eron Yevropa taraqqiyoti yo'liga tushib oldi.

Mister Tomas o'zining xushomadgo'ylikdan iborat bu so'zlarini bir ohangda, jonsiz, sovuqqina qilib so'zlar edi. Hatto tinglovchilar ham uning istehzo qilib kulayotganini payqab olishlari mumkin edi. Mister Tomas yana boyagidek sovuqqina qilib gapida davom etdi:

— Shunday sur'atlar bilan taraqqiy qilib borsa, Eron tezda butun musulmon Sharqiga namuna bo'la oladi.

Inglizning og'zidan chiqqan bu so'zlar ministrlarga, ayniqsa Hakim ul-mulkka yoqib tushdi. U Eronning saroy xodimlariga xos shirin so'zlik bilan javob berdi.

— Angliya davlatining yordami va a'lohazratning g'ayrati bilan Eron hali yanada taraqqiy etadi.

— Albatta, albatta, — deb tashqi ishlar ministri uning so'zini quvvatladi.

Suhbatlashib, ular sekin-sekin saroyga tomon yaqinlashib kelaverdilar. Suhbat faqat bir mavzuda emasdi. Ular turli mavzularda suhbatlashardilar.

Saroyning keng qabulxonasidan o'tib, ichkari kirganlarida, Rizo shoh o'rnidan turib, ularni qarshi oldi. Elchi va mister Tomas bilan so'rashar ekan, ularning qo'lini uzoq qo'yib yubormay hol-ahvol so'radi. Tirjayishga urinib ko'rdi-yu, lekin bunga erisha olmadi. Rizo shoh mehmonlarni o'tirishga taklif qildi. Tashqi ishlar ministri bilan saroy ministri baravardan ikki kreslo

surib qo'ydilar. Elchi tashqi ishlar ministri qo'yib bergan kresloga o'tirdi. Hakim ul-mulk qo'ygan kresloga esa mister Tomas o'tirdi.

Eron odatiga ko'ra, choy keltirish o'rniga kichkinagina grafinda konyak va shirinliklar keltirildi. Elchi bilan mister Tomasga o'zi konyak quyaturib, Rizo shoh ulardan hol-ahvol so'rardi, Tehron issig'i lohas qilayotgani yo'qmi deb so'radi-da, ketidan qo'shib qo'ydi:

— Issiq kunlar tugay deb qoldi. Ko'p o'tmay salqin ham tushib qoladi.

Mister Tomas suhbatni o'ziga kerakli izga tushirish va hozir javobligini namoyish qilmoq uchun:

— Issiq endi boshlanadi, a'lohazrat, — dedi.

Rizo shoh ham, ministrlar ham kulishdi.

— To'g'ri aytdingiz, mister Tomas, barometr issiq kunlar boshlanishidan darak berayapti, — deb uning gapini tasdiqladi Rizo shoh.

Suhbat shu tarzda siyosiy mavzuga ko'chdi.

Elchi Yevropada boshlangan urush to'g'risida, buyuk davlatlarning munosabatlari, Sharqning bu voqealardan chetda turaolmasligi va nihoyat, ma'lum sabablarga ko'ra Buyuk Britaniya Eronga alohida e'tibor bermay qola olmasligi haqida gapirib ketdi.

— Men namoyondasi bo'lgan qirol davlati Eronning qaysi davlat qo'lida bo'lmasin Buyuk Britaniyaga qarshi qurol bo'lib qolishiga sira ham yo'l qo'yolmaydi. Dunyodagi hodisalarning rivojlanib borishi va kutilmaganda biror voqea yuz berishi mumkinligini nazarda tutib, Eron yerlari hozir imperiyaning mudofaasi uchun har vaqtdagidan ham katta ahamiyatga ega bo'lib qolganini hisobga olib, Angliya hukumati siz a'lohazrat bilan darhol muzokaralar boshlab yuborishni lozim ko'radi. Angliya sizni doim o'zining eng sodiq ittifoqchisi va do'sti deb biladi.

Rizo shoh ikkilanib qoldi. Elchi qaysi davlatga ishorat qilayotganini anglab ololmadi: u Sovet Ittifoqiga ishora qilayotganini ham, uning mamlakati hozir urush holatida turgan Germaniyaga ishorat qilayotganini ham ajratolmadi. Shuning uchun u elchidan shu masalani ochiqroq tushuntirishni iltimos qildi:

— Eronni o‘z quroli qilishi mumkin deganda mening muhtaram do‘stim qaysi davlatni ko‘zda tutadilar? — deb so‘radi u.

Rizo shohning savolini anglab, elchi shohni tinchlantirish uchun shoshildi.

— Buyuk Britaniya hukumatining fikricha, Eronning shimolida barqaror bo‘lgan davlat tuzumi Eronni ham, boshqa Sharq mamlakatlarni ham doim tashvishga solmoqda. A’lohazrati Humoyunning o‘zlari ham bir qator nutqlarida shu masalaga qayta-qayta to‘xtalib o‘tganliklari bizga ma’lum, Eron xaritasini bir minutgina ko‘z oldingizga keltiring. Bu tarafda — Ozarbayjon, Kurdiston, Gilon, Mozandaron, Kaspiy dengizi. U tarafda esa — Sovet Ozarbayjoni, Boku, Armaniston, Turkmaniston va yana Kaspiy dengizi. Masala hechqanday izohga muhtoj emasday ko‘rinadi.

Elchining gaplarini nihoyatda rasmiy va quruq hisoblagan mister Tomas suhbatga aralashdi:

— Germaniyaga bo‘lgan da’volarimizni biz yangi Myunxen tashkil qilib, to‘garak stol atrafida Gitler bilan kelishib hal qilaveramiz. Lekin bolsheviklar bilan sira ham kelishib bo‘lmaydi. Bizning ular bilan bo‘lgan kurashimiz — ideologik kurash, ikki xil ideologiya bir-biri bilan aslo kelishmaydi. Bizning bu kurashimizda Eron sodiq ittifoqchimizdir. Eron qirollikning buyuk hayot manbalari bilan Rossiya orasidagi ko‘prikdir. Britaniya sheri bir kuni kelib, shimolga sakramoqchi bo‘lsa shu ko‘prikdan o‘tmay iloji yo‘q.

— To‘g‘ri aytdingiz, mister Tomas, — deb uning so‘zini bo‘ldi Rizo shoh, — mana yigirma yildirki, Eron bir qo‘rg‘on bo‘lib, Sovet Rossiyasining Hindistonga o‘tadigan yo‘lini to‘sib yotibdi.

Eron hukmdor doiralarining har bir qulay paytdan foydalanib, o‘z qiymatlarini oshirish uchun bunday harakat qilishlaridan hozir elchining ham, mister Tomasning ham joni chiqib ketdi. Lekin ular inglizlarga xos sovuqqonlik bilan bir-birlariga qarab qo‘ydilar-u, lekin shohning bu so‘zlarini javobsiz qoldirdilar.

Mister Tomas hech gap bo‘lmagandek sovuqqonlik bilan ilgarigi gapini davom etdirdi:

— Bu yerda Rossiya bilan birinchi marta to‘qnash kelayotganimiz yo‘q. Lekin podsho Rossiyasi bilan kelishish mumkin edi. U

faqat harbiy qurilmalar va savdo bozorlari istar edi, xolos. Bulardek boshqalarni bezovta qilmas, fuqarolarni yo'ldan ozdirmas edi, hozirgi ruslarning oyog'i tekkan yer borki, yonib ketaveradi. Ularni Volgagacha siqib qo'ymaguncha na siz erkin nafas olasiz, na biz. Ana shuning uchun ham Kavkaz Eronning ta'sir doirasiga kirishi kerak.

Eronning barcha hukmdorlari necha asrlarlan beri orzu qilib kelgan Kavkazning tilga olinishi Rizo shohni shirin xayollarga olib ketdi. Kavkazdagi go'zal shaharlarni, serhosil yerlarni va Sovet Ozarbayjoni, Armanistoni va Gruziyasining bitmas-tuganmas yerosti boyliklarini ko'z oldiga keltirib, ularga o'zini xo'jayinday his qila boshladi.

Mister Tomas esa bu payt butunlay boshqa bir manzarani ko'z oldiga keltirdi: ingliz qo'shinlari Eron orqali o'tib, Kavkazni egallaydilar, Boku neftini qo'lga kiritadilar, Kavkazda yana bir boy ingliz dominioni paydo bo'ladi...

Mister Tomasning so'zlaridan so'ng Rizo shohning yuzida yana sun'iy tabassum alomatlari ko'rindi.

— Biz hech vaqt birlashgan qirollikning yordami va maslahatlaridan voz kechgan emasmiz. Shimolga qarshi olib boriladigan kurashda kichkina va ojiz Eron o'z qo'lida bo'lgan barcha imkoniyatlarni to'plab, buyuk davlatlarning tashabbusini quvvatlashga hozir.

Elchi mamnuniyat bilan iljaydi:

— Biz a'lohazratning siyosat olamidagi iste'dod va farosatlarini hamisha yuksak baholab keldik va o'zimizning barcha ishlarimizda sizga katta umid bog'lab kelganmiz. Eron ufqlari va Buyuk Britaniya osmonini qora bulutlar bosib kela boshlagan bir paytda a'lohazrat Humoyunning yana ham ehtiyotkorlik bilan ish tutishlariga aminmiz. Bizning umumiy manfaatlarimiz Eronning shimoliy rayonlarida aerodromlar qurishni va mustahkamlangan istehkomlar yaratishni, shuningdek, ingliz maslahatchilari va konsultantlarining bemalol ish olib borishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilishini talab qiladi.

Rizo shoh o'z ministrlari tomonga o'girilib qisqa buyruq berdi:

— Uch kunlik muddat ichida elchi janoblarining vakili bilan birlikda ularni qiziqtirayotgan harbiy masalalar to'grisida barcha shartlar ko'rib chiqilsin.

Ministrlar:

— Bosh ustiga, — deb ta'zim qildilar.

— Men a'lohazratning diqqatlarini yana bir narsaga jalb qilmoqchiman, bu masala Eronda tartib saqlashda va davlatingizning yanada taraqqiy qilishida katta ahamiyatga ega, — dedi mister Tomas.

Rizo shoh bilan ministrlari yana unga diqqat bilan tikildilar. Mister Tomas so'nggi paytda Eronda bolshevistik targ'ibotning kuchayganiga va bunga qarshi kurashning zaif ekaniga shohning diqqatini jalb etdi. U bu masalalarni dunyodagi vaziyat bilan bog'lab, Polsha, Finlandiya va Boltiq bo'yi mamlakatlarini eslatdi. "Ruslar xavfi" Eronga ham ularga bo'lgan tahdiddan kam emasligini eslatib o'tdi:

— Bu xavfga qarshi kurashmoq lozim, — dedi u. — Kommunizm xavfi borgan sari kuchaymoqda. Tehronda va Eronning boshqa viloyatlarida chiqayotgan gazetalar esa bunga yetarli ahamiyat bermayotirlar. Birlashgan qirollik hukumati nomidan sizning diqqatingizni shunga tortishni o'z burchim deb hisoblayman.

Rizo shoh o'z ministrlariga g'azab bilan boqdi. Buning ma'nosini anglagan ministrlar boshlarini quyi solishdi. Rizo shoh boshini quyi solib o'tirgan ministrlardan g'azab chaqnab turgan ko'zini uzmadi:

— Mister Tomas to'g'ri aytadilar. Bu masalada Eron matbuotining ko'zi ko'r, qulog'i kar bo'libdi. Na dunyodagi vaziyatni va na mamlakat ozodligi xavf ostida qolganini ko'radilar, yoki o'zlarini ko'rmaslikka soladilar. Siz ularga tushuntirib qo'yingki, Eronda chiqadigan gazetalar Eron davlatining siyosatiga xizmat qilishi kerak. Ertadan boshlab gazetalarda ruslar bizning ichki ishlarimizga aralashayotganlari, mamlakatimizga qo'shin bilan bostirib kirishga tayyorgarlik ko'rayotganlari, shimol neftini, hatto butun shimoliy viloyatlarimizni bosib olmoqchi bo'layotganlarini fosh qilishga qaratilgan kompaniya boshlansin.

Mister Tomas portfelidan bir kitobcha oldi:

— A'lohazrat, bu kitobchani Eronda ruslar bostirib tarqatayotganlariga shubha yo'q. Buning hammasi ruslarning ishi.

— Albatta, — dedi Rizo shoh yana ministrlariga o'qrayib qarab, buyurdi:

— Rus tahlikasi haqida shovqin-suron ko'taringlar! Butun mamlakatga jar solinglar, hammani ruslarga qarshi ko'taringlar.

Vazirlar ta'zim qilib bosh egishdi.

* * *

Hikmat Isfahoniy o'zining saroyga chaqirilganini eshitib, o'ylanib qoldi.

Uning miyasiga dastlab: "Yaxshilikka ko'rinsin-da bu" degan fikr keldi.

Uzoq o'ylab, turli-tuman taxminlarni bir-bir xayolidan kechirib, saroyga chaqirishlaridan maqsad siyosiy masalada yoki savdo masalalarida biror maslahat so'rash bo'lsa kerak, degan xulosaga keldi. Chunki saroyda hal qilib bo'lmaydigan bundan boshqa masalaning bo'lishi mumkin emas edi.

"Shimol neftini amerikaliklarga berish shartlari to'g'risida a'lohazrat mendan maslahat so'ramoqchi bo'lsa kerak-da", deb o'yladi. Yoki, ehtimol, inglizlarning aerodromlar qurish haqidagi takliflari masalasida maslahatlashmoqchidir. Amerikaliklarga sotiladigan mayiz, jun, tamaki masalasi bo'lishi ham mumkin.

Hikmat Isfahoniy saroy shu masalalar to'g'risida uning maslahatiga muhtoj bo'lib qolganini o'ylab, o'zidan mamnun holda sergo'sht qo'llarini jiletkasining cho'ntagiga tiqib, xonada keza boshladi.

Tayin qilingan vaqtga o'n besh minut qolganda, o'sha kayfichog'lik bilan uydan chiqdi-da, amerikaning mashhur Ford firmasi unga shaxsan sovg'a qilgan avtomobilga tushib, haydovchiga qisqa buyruq berdi:

— Saroyga!

Saroy darvozasi oldida navbatchilik qilib turgan harbiylar Hikmat Isfahoniyning o'zlariga tanish semiz gavdasini ko'rib, mashinani ichkari kiritib yubordilar.

U mashinadan tushib, saroyning atrofidagi bog'dan o'tdi-da, Hakim ul-mulkning xonasiga qarab ketdi.

Hikmat Isfahoniy o'zicha "saroy sichqoni" deb yuradigan Hakim ul-mulk oldiga kirmay turib, Rizo shoh huzuriga kirib bo'lmasligini bilar edi. Bu saroyda odat bo'lib qolgan edi. Buning

ustiga Hakim ul-mulkdan saroyga chaqirilishining sababini bilib olish va masaladan xabardor bo'lib, so'ng shohning oldiga kirmoqchi bo'lgan edi.

Ko'pdan beri tanish bo'lgan bu ikki kishi bir-biriga bir qarashdayoq muddaoga tushunadigan bo'lib qolgan edilar. Ayni zamonda ular bir-birlarini ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q ekanini, ularning bir-birini juda yomon ko'rishlarini hamma bilar edi.

Buni ularning o'zlari ham bilardilar, lekin buni ochiq aytishmas, bu haqda indashmas edi. Chunki ularning manfaatlari bir-birlarini qo'llab-quvvatlashni talab qilar edi. Hikmat Isfahoniy eshikni ochib, ichkari kirishi bilanoq Hakim ul-mulk o'rnidan sakrab turib, mehmonning istiqboliga chiqdi, qo'llarini mahkam siqib:

— Og'o, o'n besh kunlik oy singari juda kam ko'rinadigan bo'lib ketdingiz. Axir, insof ham kerak-da, ahyon-ahyonda biz g'ariblarga ham jamolingizni ko'rsatib tursangiz bo'lmaydimi!

Hikmat Isfahoniy unga: "Men yorning ko'ksidagi xol bo'lishni istardim, o'shanda meni hech narsa yordan ajratolmasdi", degan ma'noni anglatuvchi bir bayt bilan javob berdi.

— Barakalla, qoyil! — deb qichqirdi Hakim ul-mulk va juda zavqlanganligini bildirish uchun boshini tebratib ham qo'ydi.

U Hikmat Isfahoniyga kreslo qo'yib berdi. O'zi esa qarshisiga o'tirdi. Xizmatchi ikkita kichkina piyolada achchiq choy olib kirdi.

Patnisdagi choyni Hakim ul-mulk o'z qo'li bilan olib, bir piyolasini mehmonning oldiga, bir piyolasini esa o'z oldiga qo'ydi.

— Xo'sh, nima yangiliklar bor? — deb so'radi Hikmat Isfahoniy. — Inglizlar kelishadi, amerikalilar ketishadi, nemislarni qabul qilasizlar, bizlarni esa esingizga ham keltirmaysizlar?

Hakim ul-mulk uning mister Tomas va fon Valter bilan bo'lgan muzokaralardan xabardor ekanini fahmlab, ular to'g'risida qisqa so'zlab berdi. Bu ishlarning kelajagi to'g'risida ham qisqacha to'xtagach, german masalasiga o'tdi:

— Hozir biz nemislar bilan bitim tayyorlash bilan bandmiz. Nemislarga yo'llar qurish, ayniqsa shimoliy rayonlarga yo'l qurishga, Tabrizda gilam to'qish fabrikasi ochishga, Zanjondagi temir konini ekspluatatsiya qilishga ruxsat berildi. Nemislarning ham, inglizlarning ham, amerikaliklarning ham tashabbuskorli-

gini a'lohazrat shimolga burmoqda. Endi ruslar nima qilishlarini ko'ramiz.

— Juda yaxshi qilibsizlar, og'o! Mana endi savdo-sotiq ham rivojlanadi, molimni xohlasam nemislarga, xohlasam inglizlarga, xohlasam amerikaliklarga sotaman, qaysi biri ko'proq pul to'lasa, qaysi biridan ko'proq foyda ko'rsam, o'shanisiga sotaman. Bolsheviklardan nima foyda? Ular bizga faqat zarar yetkazmoqdalar, xolos. Savdo masalasiga kelsak, har ish davlatning qo'lida. Ammo Germaniya, Amerika, Angliya — bu boshqa masala, ularda firmalardan ko'pi bormi? Bir firma bilan savdo qilish ta'bimga to'g'ri kelmasa, boshqasi bilan qilaman. Savdo-sotiq ham bemalol bo'ladi! Marhamat, savdoingni qilaver. Hech kim monelik qilmaydi. A'lohazrat juda yaxshi qilibdilar bu ishni. Shimoliy chegaralarimiz qanchalik mahkam saqlansa, biz uchun shuncha yaxshi.

Hakim ul-mulk mehmonning kayfini yana ham ko'tarish uchun Amerika jun, tamaki va mayizga qo'yilgan bahoni qabul qilganini bildirdi. Buni eshitgan Hikmat Isfahoniy bu xabar tarqab ketmasidan oldinroq mayda savdogarlar qo'lidagi molni tezlik bilan yig'ishtirib olish kerakligi haqida o'ylab qo'ydi. Yuz ming tumanlab qiladigan foydalari ko'ziga ko'rinib ketdi.

— Meni a'lohazrat yo'qlagan edilarmi? — deb so'radi biroz sukutdan so'ng Hikmat Isfahoniy. — Biror maslahat so'ramoqchi emasmilar?

Hakim u-lmulk mushkul ahvolda qoldi. Yo'q desa Hikmat Isfahoniyning kayfi buzilib, Mozandarondagi bog'ini shohga berishga rozi bo'lmay qolishi ham mumkin edi. Shu mulohazalarga borgan vazir Hikmat Isfahoniyning izzati nafsini qanoatlantirib, shundan foydalanishga qaror qildi.

— Balli, a'lohazrat bu masalalarni sizga xabar qilishni menga topshirgan edilar. Fikringizni bildim, Xudoga ming qatla shukurki, hammasi ham sizga ma'qul bo'lganday ko'rinadi.

— Albatta, albatta, iltifotlari uchun a'lohazratga ko'p rahmat!

Hikmat Isfahoniy ketish uchun qo'zg'oldi. Xayrlashish uchun Hakim ul-mulkka qo'l uzatdi.

— Xayr, aziz do'stim, Xudo yor bo'lsin!

Hakim ul-mulk uning qo'lini siqar ekan, birdan bir narsa esiga tushib qolgandek:

— Ko'rarda ko'zim, aziz do'stim, — dedi Hakim ul-mulk, — Mozandaronda sizning bog'ingiz bor-a?

Birdan Hikmat Isfahoniyning qosh-qovog'i solinib qoldi.

— Borlikka bor-ku... Lekin... uncha aytarli bog' ham emas...

— O'sha bog'ingiz a'lohazratga juda yoqib qolibdi. Hatto uni sotib olmoqchi ham bo'lib turibdilar, shuni a'lohazratga sotsangiz.

"Sotsangiz" so'zining asl ma'nosini yaxshi bilgan Hikmat Isfahoniy o'zini tutib turolmadi:

— Muttaham-ey! Boyadan beri nima qilib mening boshimni og'ritib o'tiribsan? Shu darding bor ekan darrov aytaqolsang bo'lmasmidi!

Hakim ul-mulk avzoyini o'zgartmay davom etdi:

— A'lohazratning o'zlari ko'ribdilar, yoqibdi. U kishi faqat sotib olmoqchi bo'ldilar, xolos.

Hikmat Isfahoniy qaynab ketgan g'azabiga erk berdi, o'zini bosolmadi:

— Olinglar! Talanglar! O'sha ham qolmasin sizlardan! Biz ochimizdan o'lsak ham mayli.

Quyulib kelgan bu gaplarni aytdi-yu, eshikka otildi. Lekin besh-olti qadam bosib, yana to'xtadi. G'azab va shovqin bilan Mozandarondagi bog'ini saqlab qololmasligiga ko'zi yetdi, buning ustiga uning bu ishi shohni o'ziga qarshi qilib qo'yish uchun saroy sichqoni Hakim ul-mulkning qo'lida ortiqcha bir bahona bo'lar edi.

U yana Hakim ul-mulkning oldiga qaytib kirdi, g'azabini zo'rg'a bosib zo'raki muloyimlik bilan:

— Molimiz ham, jonimiz ham a'lohazratga qurbon! Hujjatlarni ertagayoq berib yuboraman, — dedi-da, yugurib chiqib ketdi.

O‘N IKKINCHI BOB

Dunyoda voqealar hayron qolarli darajada tezlik bilan rivojlanib bormoqda edi. Yangi-yangi hodisalar tez-tez yuz berib turardi. Sharqiy Yevropada boshlangan yong‘in Polsha safdan chiqqandan so‘ng bosilgandek bo‘ldi. Lekin aslda yong‘in endi boshlanmoqda edi.

Polyaklarni o‘tga tashlab, eng qiyin fursatda yordamsiz qoldirgan va ularga xiyonat qilgan inglizlar endi Fransiyani qurbon qilishga tayyor edilar. Ular go‘yo endigina uyasidan chiqqan ochko‘z yirtqichga yangi yemish, yangi qurbon axtarayotganga o‘xshardilar. O‘sha yirtqichni buyuk Sovet Ittifoqiga qarshi kurash to‘g‘risidagi rejalarining amalga oshmaganini ko‘rgandan keyin ular butun Yevropani parchalab yirtqichga topshirish bilan o‘zlarini qutqarmoq va shunday qilib vaqtdan yutmoqchi bo‘ldilar.

Gitler o‘zining sulhparvarligi, Germaniyaning boshqa hech qanday talabi yo‘qligidan so‘zlar, amalda esa butun Yevropani bosib olishga tayyorgarlik ko‘rar edi.

Dunyodagi barcha xalqlar Myunxenda zanjirdan bo‘shatib yuborilgan bu vahshiyning faqat Yevropa bilangina kifoyalanmasligini tushunar, chuqur xavotirlik va hayajon bilan endi nima bo‘lishini kutardilar.

Davlatlar orasidagi munosabatlarda barqarorlik va mustahkamlik yo‘q edi. Go‘yo dunyoning g‘ildiragi o‘rnidan qo‘zg‘olib, noma’lum tomonga g‘ildirab ketayotgandek edi. Tarix, o‘rnidan qo‘zg‘olib qirg‘oqlariga toshib chiqqan zo‘r to‘lqinli dengiz singari bo‘ron va po‘rtanalar davriga kirgan edi.

Rizo shohning o‘n besh yillik hukmronligi davrida yaratilgan va ko‘pgina eronliklar nazarida abadiy bo‘lgan usul-idorasi tarixning bu to‘lqinlari natijasida chok-chokidan so‘kila boshladi. Jamiyat fikrida sekin-asta bu chirigan tuzumning tez orada qulab ketishi muqarrar, degan fikr uyg‘onardi. Kundan kun ortib borayotgan

zulm va terror natijasida paydo bo'lgan vahima odamlarning qalbida va ongida tug'ilib kelayotgan bu fikrning ochiq aytilishiga hali imkon bermasa-da, tamomila buning oldini olishdan ojiz edi.

Hikmat Isfahoniy ham Pahlaviy saltanatining yo'qotilishiga tarafdorlardan biri edi. Lekin u bu saltanatning hukmronlik qilishga asos bo'lib turgan ijtimoiy tuzumning buzilishini mutlaqo istamasdi. Aksincha, bu to'g'rida o'ylarkan, uni vahima bosib ketardi. U Pahlaviyga qarshi boshlangan har qanday kurash ham muqarrar ravishda o'sha tuzumga qarshi kurashga aylanib ketishini bilar edi. Shuning uchun Hikmat Isfahoniy Pahlaviy absolutizmiga qarshi kurashga qo'shilmas, balki, aksincha, unga yaqinlashishga va qo'llab-quvvatlashga harakat qilardi. Hikmat Isfahoniy Pahlaviyning barcha tahqir va tazyiqiga chidashga rozi edi, chunki barcha yerlar va mol-mulkidan ajralgandan ko'ra bitta mulkidan ajralgani yaxshiroq edi.

Bu fikr unda ayniqsa keyingi paytlarda tobora mustahkamlasha bordi. Latviya, Litva va Estoniyada xalq harakatining g'alabasini ko'rgan Hikmat Isfahoniy Rizo shoh istibdodining yana ham mustahkamlanishi kerak degan fikrga kelgan edi.

"Ish, non va ozodlik!" kitobchasi Hikmat Isfahoniyning qo'liga dunyodagi hodisalar uni juda tashvishga solib qo'ygan bir paytda tushib qoldi. Kitobni o'qigan sari qizishib va asabiylashib bordi. U Rizo shoh hukmronlik qilgan o'n besh yil ichida shohning tahqirlari, shubha va tazyiqlari uni bunchalik asabiylashtirmagan edi.

"Eh, padariga la'nat! — deb o'ylar edi u. — Biz g'aflatda yotibmiz. Suv toshqini esa ostonamizga kelib qolibdi! Bizni halok qilishi mumkin u! Bu zararli fikrlar butun Eronni ostin-ustin qilib yuborishi mumkin, ularni tag-tomiri bilan yulib tashlash kerak, qizigan temir bilan kuydirib yuborish kerak! Boshqa iloj yo'q!"

Hakim ul-mulk unga telefon qilganda, u hali ham shu fikrlarga g'arq bo'lib o'tirgan edi. Hikmat Isfahoniy Hakim ul-mulkning ovozini tanib, trubkaga qichqirdi:

— Og'oyi vazir, janobingizga ma'lum qilib qo'yay, hammasi tayyor. A'lohazratdan iltimos qilsangiz, bizdan arzimagan bir sovg'a — Mozandarondagi mulkimni qabul qilsinlar.

— Hojati yo'q edi-ku, og'oyi Hikmat Isfahoniy, ovora bo'libsiz-da, — deb ayyorlik qila boshladi, Hakim ul-mulk, — bizni

ko‘p xijolat qildingiz-da. Ammo hozir gap boshqa to‘g‘rida. A’lohazrat bundan ham muhimroq bir topshiriq bergan edilar. Kecha aytish esimdan chiqibdi.

Hikmat Isfahoniyning xayolidan: “Yana nimani ko‘zladi ekan”, degan fikr o‘tdi.

— Buyuring, biz a’lohazratning ojiz qullarimiz, — dedi u tashvishlanib.

Hakim ul-mulk kitobcha to‘g‘risida so‘zladi-da, Rizo shohning shunga oid buyrug‘ini bildirdi. Hikmat Isfahoniy yengil nafas oldi.

— Bizdan xotirjam bo‘lavering, azizim, barcha kerakli gaplarni yozamiz. Ehtimol, shu bugunoq gazetamizning favqulodda sonini ham chiqararmiz. Xotirjam bo‘lavering!

Hikmat Isfahoniy trubkani qo‘yib, endi So‘fi Eronparastga odam yuborgan ediki, mister Garoldning kelgani haqida xabar berdilar. Hikmat Isfahoniy sakrab o‘rnidan turib, eshikni ochdi. Amerikali do‘stini eshik oldida ikki bukilib ta’zim qilib qarshi oldi.

— Bizni g‘oyat xursand qildingiz, mister Garold! Sizni ko‘rib boshimiz osmonga yetdi! Marhamat, ichkariga marhamat!

Mister Garold savdo masalasida Hikmat Isfahoniyni xursand qiladigan xabar olib kelgandi. U Amerikadan Hikmat Isfahoniy nomiga mashinalar, qand va sanoat mollari yuborilganini va Hikmat Isfahoniyning jun va quruq mevalarga belgilagan bahosi qabul qilinganini bildirdi.

— Amerika savdo-sotiq masalalarida juda saxiy. U sizning vataningiz kabi qoloq va yordamga muhtoj mamlakatlarga ayniqsa diqqat qilishni o‘z vazifasi deb biladi.

Hikmat Isfahoniy yana bir ta’zim qildi:

— Minnatdormiz, mister Garold, minnatdormiz. Biz kelajakka doir barcha umidlarimizni Amerikaning yordamiga bog‘laganmiz. Bizning mamlakat singari qoloq bir mamlakatni Amerikaga o‘xshash madadkori bo‘lmasa botib ketadi. So‘zning ochig‘ini aytsam, mister Garold, agar sizning ulug‘ mamlakatingiz bizni qo‘llab-quvvatlamaganda biz ba’zi qudratli qo‘shnilarimiz bilan bunday bekinmachoq o‘ynay olmagan bo‘lar edik.

Mister Garold kuldi:

— Men bilan diplomatiya tilida gaplashmang, og'oyi Hikmat Isfahoniy! Keling, hamma gapni ochiq gaplashaylik: qo'shnilarimiz emas, qo'shnimiz. Siz Sovetlarni ko'zda tutayapsiz, shunday emasmi?

— Xudo umringizni uzun qilsin, mister Garold! Ochig'ini aytsam, xuddi shunday demoqchi edim. U shunaqangi musibatki, undan na qochib va na ko'chib qutulib bo'ladi!

— Qochish ham, ko'chish ham kerak emas. Mahkam turish va kurashish kerak. Mana bu kitobchani ko'rdingizmi?

— Ha, ko'rdim.

— Siz ham qarab o'tirmang, yozing. Shovqin-suron ko'taring, dunyoni yordamga chaqiring. Bolsheviklar kichkina zaif mamlakatni mahv qilmoqchilar, deb jar soling. Shunday qilsangiz, bu sizlarga yordamga oshiqish uchun bizga bir bahona bo'ladi. Bu to'g'rida majlis ham o'z fikrini aytsa yomon bo'lmaydi...

Mister Garoldning maqsadini darhol anglaydigan bo'lib qolgan Hikmat Isfahoniy:

— Mister Garold, qo'limizdan kelgan hamma ishni qilamiz. Majlisning birinchi yig'ilishidayoq shunday bir nutq so'zlayki, dunyo titrasin. Shunday bir shovqin-suron qilib, shunday bir faryod chekayki, butun Eron oyoqqa tursin! Azbaroyi Xudo, butun jamoatni g'azotga chaqiraman: "Qo'zg'aling, musulmonlar, ruslar bizni xarob qilmoqchi, bolsheviklar hammani imondan mahrum qilmoqchilar", deyman. Men payg'ambarimizning muqaddas ko'k bayrog'ini ko'taraman: "Ey, amerikalik do'stlar, imonsiz bolsheviklardan bizni qutqaring!" deb murojaat qilaman.

Shu payt eshikdan So'fi Eronparastning kallasi suqildi. Mister Garoldni ko'rib, orqasiga qaytmoqchi bo'lgan edi-yu, lekin uni Hikmat Isfahoniy chaqirdi:

— Kir, kiraver! — dedi u So'fi Eronparastga nafrat bilan qarab. — Mana, do'stimizning gapiga sen ham quloq sol. Ehtimol, sen ham biror narsa tushunib qolarsan. Yeydigan noningga yarasha qo'lingdan biror ish keladimi?

— Og'o, nimaga ishora qilmoqdalar? — deb so'radi So'fi Eronparast.

— Nimaga ishora qilar edim, betamiz. Hech narsadan xabaring yo'qmi, deyman-a? Mana bu kitobchani ko'rmadingmi?

Bu ruslarning ishi ekanini, uni sovet elchixonasida yozilganini ko'rmayapsanmi? Moskva bizning ishlarimizga aralashayotganini ko'rmayapsanmi? Shularning birontasini ham bilmaysanmi? Bilsang nima uchun qo'lingni qo'ltiqlab o'tiribsan? Men gazetangga oyiga bir qop pul sarf qilaman-a! Es-hushing qayoqda! Qani ko'rsat hunaringni, yoz oqilona maqolalaringni!..

O'z xo'jayinining ta'nalarini So'fi Eronparast gardonini cho'zib, ko'zlarini g'iltillatib eshitdi.

— Balli, balli, — deyishdan boshqa so'z topolmadi u.

Nihoyat mister Garold gapga aralashib, So'fi Eronparastni xo'jayinining hujumidan qutqardi. Maslahat bilan gazetaning favqulodda chiqarmoqchi bo'lgan sonini shularga sabab bo'lishi mumkin edi. "Sado"ning ertaga chiqadigan sonida kitobcha va uning avtorlariga qarshi maxsus maqolalar bosishga qaror qildilar. Shundan so'ng So'fi Eronparastga ruxsat berdilar.

Mister Garold ketish uchun qo'zg'olganda, Hikmat Isfahoniy uni to'xtatdi. Qo'yarda-qo'ymay Shimronga, o'zi bilan ovqatlangani olib ketdi.

So'fi Eronparast Hikmat Isfahoniy oldidan terlab-pishib chiqdi, o'z xonasiga o'ta turib Kurd Ahmadga duch keldi. Uning oldida yuragini bo'shatdi.

— Og'o meni yana bopladi, — dedi u Kurd Ahmadga hasrat qilib, — og'ziga kelganini qaytarmadi.

Kurd Ahmad u o'z dardini aytmoqchi bo'layotganini ko'rib, qo'lidan ushlab, o'z xonasiga boshladi:

— Bu yerda har narsaga ham tepinib bo'lmaydi, atrof to'la odam.

Kurd Ahmadning xonasiga kirib o'tirdilar. Kurd Ahmad eshikni qulflab qo'ydi-da, So'fi Eronparastga tikildi:

— Xo'sh, xo'jayin seni nega buncha koyidi?

— Shunday bopladi, shunday ta'zirimni berdiki, asti qo'yavering! Og'iz ochirgani qo'ymadi, rosa xor qildi.

So'fi Eronparast Hikmat Isfahoniyning topshirig'i va mister Garoldning so'zlarini aytib berdi.

— Bularning hammasi o'sha amerikaliklarning, inglizlarning ishi. Bo'lmasa bizning og'olarning bunga aqli yetmasdi, — de-

di-da, o'zining so'zlaridan qo'rqib ketib, alanglab atrofga qarab qo'ydi. — Og'o, — dedi u yolvorib, — bu gapni men faqat sizga aytdim, oramizda qolishiga ishonaman-a?

— Nahotki menga ishonmasang! Meni bilasan-ku!

— Bu shaharda sizdan boshqa bironta ham chinakam yigit yo'q! O'z ahvolingizni yaxshilash uchun hech mahal birovni qurbon qilmasligingizni bilaman! — dedi u.

Uni tamom tinchlatish uchun Kurd Ahmad:

— Bundan xotirjam bo'laver, — dedi. — Birovga yomonlik tilab, bir burda non topgandan ko'ra, ochdan o'lgan yaxshiroq.

So'fi Eronparast yuragini bo'shatib va dardini yengillatdi-da, chiqib ketdi.

* * *

Faridun universitetdan uyga kelganida, uy bekasi uni Kurd Ahmad kutib o'tirganini aytdi. Faridun shoshib yuqori ko'tarildi. Kurd Ahmad deraza yonida xayolga cho'mib o'tirardi.

— Nima gap? Tinchlikmi? — deb so'radi Kurd Ahmadning to'satdan kelib qolganidan xavotirlangan Faridun.

— Tinchlik. Yaxshi xabarlar olib keldim. Bizning varaqalarimiz bilan kitobchamiz hammani harakatga keltirdi. Hammaning og'zida shu gap. Hamma har xil fikrda. Varaqalarimiz bilan kitobchamiz xalq qalbida umid tug'dirdi, hukmron doiralarni esa qo'rquv va vahimaga soldi.

Faridun hayajon bilan kitobchaning talabalarga qanday ta'sir etgani to'g'risida so'zlab berdi.

— Talabalar orasida ham bizning hamfikrlarimiz juda ko'p. Ular kitobdagi gaplarning haqiqat ekaniga, mualliflar uni yaxshi niyat va pok yurak bilan yozganliklariga ishonadilar. Shuning uchun ham gazetalarda bosilayotgan turli bo'htonlar ularda nafrat uyg'otmoqda. Forslik bir talaba tanaffus paytida mening oldimga keldida, "Sado"ning oxirgi sonini ko'rsatib, sekingina: "Nega bu bizning og'olar o'zlari ham ishonmaydigan gaplarni yozishar ekan-a?" deb so'radi. So'ng o'zi javob berdi: "Chunki hech narsa insonni yolg'on-yashiqdan ko'ra ko'proq ahmoqona ahvolga solmaydi". Haqiqatni, oqni qoradan farq qila olish hissini yo'qot-

magan xalq har qanday zulm zanjirini ham uzib tashlay olishiga ishonaman.

Ular bir-birlariga mehribonlik bilan qarab qo'ydilar, bu mehribonlikni maslakdoshlik, hamfikrlik va jangovar do'stlik yaratgan edi. Har ikkisi ham shirin xayolga cho'mdilar.

Eshikni taqillatib uy bekasi kirdi-da, Karimxon Ozodiy bilan Aram Simonyan kelganidan xabar berdi. Ular ham Faridun va Kurd Ahmad singari hayajonda edilar. Ular ham o'z mehnatlarining samarasini ko'rib, quvonchga to'lgan edilar.

— Bilasizlarmi, aziz do'stlarim, — dedi jiddiy ravishda ularning sevinchidan ruhlangan Faridun, — bu razil bo'htonchilarga qarshi darhol kurash boshlashimiz kerak. Xalq dushmanlari, istibdodning malaylari o'zlarining sinalgan usullarini ishga solmoqdalar. Ular ozodlik to'g'risida og'iz ochgan har bir kishini ruslarning josusi, deb e'lon qiladilar. Kitobchani hatto sovet elchixonasida bosilgan, degan gaplarni aytishgacha borib yetdilar. Bu ahmoqona gaplar g'oyat kulgili bo'lsa ham, har holda xalqni yo'ldan chalg'itishi mumkin.

— Bu to'g'ri gap, — deb uning so'zini quvvatladi Kurd Ahmad. — Lekin hukmron doiralarning sovetlarga bunchalik dushmanlik qilishlari va bo'htonlar yog'dirishlarining sababi ham tushunarli. Ko'rshapalaklarning quyoshdan qo'rqishlari tabiiy emasmi, axir? Biz bu bo'htonlarga Sa'diyning so'zlari bilan javob berishimiz kerak: "Quyoshning muborak nurlari ko'rshapalaklarga yoqmasa, quyoshga qarshi urush e'lon qilish kerakmi?" Yo'q! Minglab ko'rshapalaklarning ko'zi ko'r bo'lsa bo'lsinki, quyosh yuzi bir nafas ham to'silmasin.

Karimxon Ozodiyning odatda doim g'amginlikni ifoda etadigan ko'zlari ham shodlik blan chaqnab ketdi:

— Men janub surgunida yurganimda bir ozodlik uchun kurashchi keksa kishi bilan tanishgan edim. U o'zining butun kuch-quvvatini, butun umrini Eronning rivoji uchun bag'ishlagan kishi edi. U hayotning so'nggi minutigacha ozodlik ishining g'alaba qozonishiga qattiq ishonadi: "Yer yuzida Sovetlar bor ekan, ozodlik quyoshi aslo botmaydi. Ozodlik quyoshining nurlaridan hamma bahramand bo'ladi!" degan so'zlarni aytib jon ber-

di. Dunyodagi barcha xalqlar ana shunday deb o'ylaydilar. Ozodlik haqidagi fikr bilan yashaganlarning hammasi o'sha quyoshga umid bilan qaraydilar. Istibdod va reaksiyaning Sovetlarga qarshi g'azabi, bo'htonlari va ko'rolmasligining sababi ham ana shunda.

Kurd Ahmad shohning fon Valter va mister Tomas bilan qilgan suhbati to'g'risida eshitganlarini o'rtoqlariga so'zlab berdi.

— Ingliz, german va amerikalik hukmron doiralar Eronning ozodlik va mustaqilligining dushmanidirlar, bu hech kimga sir emas. Men kitobimizning ikkinchisini shu masalaga bag'ishlab chiqarishni taklif qilaman. Biz bu kitobchada mamlakatni ochlik, qashshoqlik va bechoralikka olib borgan chet el kapitalining butun kirdikorlarini fosh etib tashlaymiz. Eron hukmdorlari, ingliz, nemis va amerikalilarning buyrug'i bilan ish ko'rar edilar, Mamlakatimizda ishsizlik, ochlik va qashshoqlik hech vaqt tugamaydi. Vatanimizda ingliz-eron neft kompaniyasi, Amerika elchixonasi va savdo vakolatxonasi xo'jayinlik qilar ekan, mamlakatimiz aholisi insonday hayot kechirolmaydi!

Do'stlar ikkinchi kitobni chiqarishga qaror qildilar. Uning mazmunini ham kelishib oldilar.

Karimxon Ozodiy ingliz-eron neft kompaniyasining' qanday usullar bilan Eron davlati ishlariga aralashayotganini fosh qiluvchi maqola yozish vazifasini o'z zimmasiga oldi. Kurd Ahmadga yirik davlat arboblarining chet el kapitaliga tobe ekanini fosh qilib tashlaydigan maqola yozish topshirildi.

— Shohning o'zidan tortib, ozmi-ko'pmi taniqli bo'lgan barcha amaldorlar, zamindorlar va savdogarlar ingliz, amerika va nemis kapitalining qulidir, — deb maqoladagi asosiy fikrni ifoda qila boshladi Kurd Ahmad. — Savdo, kreditlar, xomashyo, mashinalar — bularning hammasi ularni bir-biri bilan chambarchas bog'lab qo'ygan. Bu mamlakatlarning vakillari xohlasalar Eronning eng boy savdogarlarini ham bir kunda xonavayron qilishlari mumkin. Buni bizning og'olar ham yaxshi biladilar.

Faridun avtorlardan maqolalarni tezroq yozib topshirishini iltimos qildi. U ikkinchi broshuraning ham tezroq chiqishini istar edi. Kitobchani chiqarish bilan birga tashkilot ishlarini ham kengaytirishga qaror qildilar.

Ular kelajak to‘g‘risida va haqiqiy tashkilot tuzish to‘g‘risida so‘zlashdilar.

— Do‘stlarim, — dedi Faridun, — bizning har yerda ham ishonchli va qo‘rqmas kishilarimiz bo‘lishi kerak. Biz hech narsasiz ish boshlayapmiz, lekin biz zindonlarni buzishimiz, qullik zanjirlarini uzishimiz kerak. Biz o‘z saflarimizga aqlli va qo‘rqmas, jasoratli kishilarni qabul qilishimiz kerak. Buning uchun esa xalqdan bir minut ham ajralish yaramaydi. Ishchilar, dehqonlar, butun kambag‘al mehnatkashlar orasida bizning sinalgan kishilarimiz bo‘lishi kerak.

Tashkilot ishini ishchilar bilan dehqonlar orasidan boshlashga qaror qildilar. Ishchilar orasida tashkilotchilik ishi olib borishni Karimxon Ozodiyga, dehqonlar orasida ishlashni Kurd Ahmadga topshirdilar.

Gap orasida Karimxon Ozodiy o‘zining turma va surgunda birga bo‘lgan o‘rtog‘i Mahbusiy to‘g‘risida so‘zlab berdi. Yanagi yig‘ilishga uni olib kelishini va’da qildi.

— Tashkilotni kengaytirish bilan birga hushyorlikni ham oshirishimiz kerak, — deb qo‘ydi biroz xayolga cho‘mib Faridun.

— Mahbusiydan xotirjam bo‘lavering, — dedi Karimxon Ozodiy. — U bilan men turmada va surgunda birga azob chekkanmiz. U sinalgan odam!

Shu payt eshik qo‘ng‘irog‘i chalindi. Faridun eshikni ochdi. Ostonada Shamsiya xonimning haydovchisini ko‘rib hayron qoldi. U Faridunga xat uzatdi-da:

— Xonim javob kutmoqdalar, — dedi.

Faridun konvertni ochdi, maktub ikki satrgina edi:

“Bezovta qilganim uchun kechirasiz. Biror soatga kelib ketsangiz. Kutaman. Shamsiya”.

Faridun o‘ylanib qoldi. Dastlab bormaslik va Shamsiya bilan aloqani tamoman uzib yuborishni o‘yladi. Lekin buning foydasizligini va ortiqcha gap-so‘zlarni ko‘paytirishni o‘ylab, bu fikrdan qaytdi. Haydovchiga pastda kutib turishini iltimos qildi. Kiyinib, o‘rtoqlari bilan xayrlashdi-da, pastga tusha boshladi. Zinada Rizo Qahramoniyga duch keldi. Qahramoniy eshik oldida turgan tanish mashinani ko‘rgan edi. Salomlashgandan so‘ng, u ma’noli kilib do‘stini boshdan oyoq ko‘zdan kechirdi:

— Yana o'sha yoqqami? Hikmat Isfahoniyning qizi juda boshingni aylantirib qo'ygan ko'rinadi, do'stim? — dedi.

— Xotirjam bo'l, azizim, — dedi Faridun va Sa'diydan bir bayt o'qidi:

In muddaiyon dar talabat bexabaronand
Onro ki xabar shud xabar boz nayomad...[1]

— Biz unday odamlar toifasidan emasmiz! Bizning maqsadimiz ham, yo'limiz ham ma'lumdir!..

Faridun Qahramoniyning qo'lini mahkam siqib, xayrlashdi. Rizo Qahramoniy esa fikrga tolib, o'zining juda sevgan, lekin ba'zi xatti-harakatlariga hech tushunolmagan do'stining orqasidan qarab qoldi.

* * *

Elchi Rizo shoh bilan bo'ladigan uchrashuv haqida mister Garoldga xabar berib, tayyorgarlik ko'rishni so'radi:

— Shimol nefti tarixiga oid hamma hujjatlarni ko'zdan kechiring, — dedi u.

Shimol nefti Amerika elchisiga ham, mister Garoldga ham hamon chaqib bo'lmaydigan yong'oq bo'lib qolmoqda edi. Janub nefti inglizlar qo'lida edi. Ular amerikaliklarning janub neftini qo'lga kiritish yo'lida qilgan barcha urinishlarini barbod qilib kelardilar. Janub neftini qo'lga kiritishdan umid uzmaganlari holda amerikaliklar bunga erishish uchun uzoq vaqt talab qilinishini ham bilar edilar. Shuning uchun ham ular borgan sari ko'proq shimol neftiga, Sovet Ittifoqiga chegaradosh tumanlarga ko'z tikar edilar.

Mister Garoldning o'zi shaxsan shunday bir fikrda ediki, shimol neftini qo'lga kiritish bilan Amerika bir o'q bilan bir emas, uch quyonni urgan bo'lar edi; birinchidan, boy neft tumani qo'lga kirardi; ikkinchidan, bu Sovetlar chegarasida muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan tumanlarni nazorat ostiga olish imkoniyatini berardi, katta masofalarga cho'zilib ketgan, to Boku ostona-

[1] Raqiblar o'z maqsadlarini o'zlari ham bilmaydilar. Maqsadini bilganlar esa kar-soqovlar singari sukut qiladilar.

larigacha yetib boradigan harbiy markaz va bo'linmalar qurish mumkin bo'lardi. Uchinchidan esa, Eronda neft chiqara boshlash bilan ingliz-eron neft kompaniyasiga qarshi raqobat boshlash va ko'p o'tmay uni qo'lga kiritish imkoniyati tug'ilar edi.

Ikkinchi jahon urushining boshlanib ketishi, Germaniyaning yangi yerlar talab qilishi, Buyuk Britaniya imperiyasining yangi inqirozlarga uchrashi mister Garoldni Eronda Amerika bilan raqobat olib borayotgan davlatlarni siqishtirib chiqarish payti keldi, degan fikrni olg'a surishga olib kelgan.

Elchi ham xuddi shu fikrda edi. U mister Garoldning Eron to'grisidagi fikrlariga quloq solib, jiddiy suratda:

— Albatta, Rossiya bilan Angliyaning Eronda hali ma'lum darajada ta'sirlari bor. Lekin Eronni Amerika boshqarishi kerak, — degan edi.

Bu so'zlar mister Garoldning fikrini ham aynan ifoda etar edi. U Amerika faqat Eronnigina emas, balki butun dunyoni boshqarishi kerak, degan fikrda edi. Bu yo'lda u hatto salb yurishlari uyushtirishga ham tayyor edi. Shuning uchun ham mister Garold Amerika prezidenti mister Ruzveltni liberal, uzoqni ko'rmaydigan siyosiy arbob deb hisoblardi. Uning siyosati mister Garoldga yoqmasdi. Mister Garoldni Eronga yuborgan davlat departamentidagi vakillari ham mister Garoldning ham fikrlari edi. Ularning hammasi Ruzveltning siyosatini nihoyatda yumshoq va yaramas siyosat deb hisoblar edilar. Prezidentning o'zini esa qarib qolib, esini yegan idealist deb bilardilar.

Mister Garoldning fikricha, bunday chirigan "idealistik" siyosat ko'p o'tmay, kundan kun o'sib ketayotgan kuchli banklar va monopoliyalarning siquviga chidash berolmay qolardi. "Haqiqiy" siyosat yurgizish payti yaqinlashmoqda edi. Ana shunda butun dunyo Amerika oldida bo'yin egishi muqarrar edi. Gitlerning dunyoga hokim bo'lish to'g'risidagi da'volarini esa mister Garold hech qanday moddiy asosi bo'lmagan telbalik va bema'nilik, ahmoqona donkixotchilik deb bilar edi. Lekin bu donkixotchilikning mister Garold nazarida bir yaxshi jihati bor ediki, u ham bo'lsa Gitler Amerikaning dunyoga hokim bo'lishiga zamin hozirlab berardi.

Hozircha mister Garold shimol nefti tarixiga oid materiallarni o'rganar ekan, Amerikaning bu sohadagi har bir urinishiga to'sqinlik qilib kelayotgan bittagina monelikka duch kelardi. Bu 1921-yilda imzolangan Sovet-Eron bitimi edi.

1921-yilda Amerikaning "Standart oyl" kompaniyasi Xuroson, Go'rgon, Mozandaron, Gilon va Ozarbayjon neft konlarini ochish va ekspluatatsiya qilish to'g'risida Eron davlati bilan konsession bitim tuzgan edi. Lekin bir yil o'tar-o'tmas sovet-eron bitimiga muvofiq Eron hukumati bu bitimni bekor qilishga majbur bo'ldi. Lekin amerikaliklar bu bilan tinchib ketmadilar.

1923-yilda Amerikaning "Sinkler" kompaniyasi Eron hukumati bilan xuddi o'sha tumanlardan neft chiqarish uchun bitim tuzdi. Lekin 1921-yilda tuzilgan sovet-eron bitimi amerikaliklarning bu urinishini ham puchga chiqardi.

1937-yilda Amerikaning "Delavar" kompaniyasi Eron hukumatidan yana o'sha tumanlarda neft ishlab chiqarish huquqini oldi. Lekin Sovet hukumatining talabi bilan 1921-yil bitimiga binoan, amerikaliklarning bu harakati ham bekor ketdi.

Lekin, mister Garoldning fikricha, shimoliy neftni uzil-kesil hal qilish payti kelgan edi. Bu esa Eronni Amerikaga bo'ysundirishdagi dastlabki qadam bo'lishi kerak edi.

Shanba kuni ingliz elchisi bilan mister Tomasni kutib olgan ministrlarning xuddi o'zlari, xuddi o'sha saroyda, xuddi o'shanday xushomadgo'ylik bilan Amerika elchisi va mister Garoldni kutib oldilar.

Amerikaliklarning ministrlar bilan qilgan muomalalari hozirgi zamon odamlarining qadim zamonlarda g'orlarda yashagan ibtidoiy odamlar bilan qilgan muomalalariga o'xshardi.

Amerikaliklar barcha eronliklarni endi aqliy taraq qiyotga kirib kelayotgan yosh bolalar, deb hisoblardilar. Shuning uchun ular eronliklar bilan uchrashganlarida o'zlarini bolalarga alifbe va to'rt amalni o'rgatuvchi o'qituvchilardek tutardilar.

Ular eronliklar mustaqil ravishda davlatni idora qila olmaydilar deb hisoblar edilar. Negaki, eronliklar endigina to'rt amalni o'rgangan yosh bolalar edilar-da! Algebra va geometriya kabi murakkab bo'lgan davlatni boshqarish ishiga ularning qanday qilib

ham aqli yetsin! Amerikaliklarning yordamisiz ular hech vaqt odamlardek hayot kechira olmaydilar, ular shuning uchun ham eronlik-da! Amerikaliklar o'zaro gaplashganda eronliklarni "katta bolalar" deb atar edilar.

Ular saroy ministri va tashqi ishlar ministri bilan ham xuddi o'shanday muomala qilar, ularni yuz minglab "katta bolalar"dan biri deb hisoblardilar.

Anglo-saksiar oldida doim ma'naviy jihatdan ham, jismoniy jihatdan ham sajda qilishga o'rgangan ministrlar esa ularning bunday muomalalariga ahamiyat bermadilar-da, ikki bukilib ta'zim qila-qila, amerikaliklar nima desa "xo'p, xo'p" deyishib, ularni Rizo shoh oldiga boshlab kirdilar.

Rizo shoh ham ularni g'oyat muloyimlik va xushomad bilan kutib oldi, hol-ahvol so'radi. Badburush basharasiga sun'iy kulgi alomatlari chiqarishga harakat qilib:

— Bizning aziz do'stlarimiz o'zlarini qanday his qiladilar? — deb so'radi.

— O'-o'-o'... tashakkur, tashakkur! A'lohazratning himoyasi ostida bo'lgan amerikalik o'zini yomon his qilishi mumkinmi? — deb kuldi elchi.

— Amerikaliklarni biz alohida muhabbat bilan sevamiz va g'oyat hurmat qilamiz. Bunga shubhalanmasangiz ham bo'ladi.

Elchi iltifot ko'rsatish uchun go'zal so'zlar axtarishga vaqt sarf qilib o'tirishni ortiqcha deb bilib, darhol maqsadga ko'chdi:

— Bunga hech shubha qilmaganimiz uchun, siyosiy hayot sizning mamlakatda ham, butun dunyoda ham g'oyat jiddiylashib ketgan bir paytda sizga mustahkam ittifoq va do'stlik taklif qilmoqchimiz. Lekin bu ittifoq va do'stlik hisobiga bizning mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan buyuk maqsadlarni qo'lga kiritish uchun bizga barcha imkoniyatlar yaratib berilishi kerak. Ana shuning uchun ham biz Eronning behisob yerosti boyliklarining bekor yotishiga rozi bo'lolmaymiz. Vaholanki, bu boyliklar umumiy ishimizga xizmat qilishi kerak! Men shimol neftini nazarda tutaman.

Rizo shoh o'ylanib qoldi:

— Lekin og'oyi elchi, ma'lumki...

Mister Garold uning so'zini bo'ldi:

— Aytmoqchi bo'lgan gapingizni bilamiz. A'lohazrat 1921-yilgi rus-eron bitimini nazarda tutadilar. Lekin hozirgi vaziyatda u bitimning bir parcha rasmiy qog'oz bo'lib qolganini aytib o'tirish ortiqcha bo'lsa kerak, deb o'ylayman. Hozirgi zamonning talabi va sharoiti rasmiy ravishda kuchda bo'lgan va bekor qilinmagan ko'pgina xalqaro bitimlarni amalda o'z kuchini yo'qotib qo'yishiga sabab bo'lmoqda, bu hech birimizga ham sir emas.

Rizo shoh o'rnidan turdi. Uning ketidan ministrlar ham, mehmonlar ham turishdi. Shoh boshqa bir stol oldiga borib, unda yotgan katta bir geografik xaritani ochdi. U ma'nodor qilib barmoqlari bilan Kaspiy dengizidan Shimoliy okeangacha, Uzoq Sharqdan Boltiq dengizigacha bo'lgan nihoyatda katta territoriyani egallagan Sovet Ittifoqini ko'rsatdi, so'ng uning qo'li Eron ustida to'xtadi.

— Shunday buyuk mamlakatga qarshi bizning Erondek kichkina bir mamlakat nima ham qila olar edi?..

Shoh shunday degach, amerikaliklarga qaradi. Elchi bu bilan shoh nima demoqchi ekanini tushunardi. U Rizo shohning shunday deyishini oldindan bilar edi. Shuningdek, u Rizo shohning bir qancha dalillardan so'ng uning taklifiga rozi bo'lishini ham bilar edi. Elchi hali ham qo'lini xarita ustidan olmagan Rizo shohga qarab:

— Agar rozi bo'lsangiz, a'lohazrat, Amerikaning butun quvvati, ham harbiy, ham iqtisodiy quvvati sizning tarafingizda bo'ladi, — dedi. — Hozircha esa davlat departamenti siz taklif qilgan bahoda bir million dollarlik mayiz, teri, jun va tamaki sotib olishga rozilik berganini sizga xabar qilmoqchiman.

Qisqa sukutdan keyin elchi Rizo shohning yuziga qaradi. Shohning betini qoplab yotgan ajinlar sal tekislangandek bo'ldi. Sariq betida rozilik alomatlari ko'rindi. Rizo shohning yuzidagi bu o'zgarishlarni sezgan elchi davom etdi:

— Bundan tashqari, Amerika juda yengil shartlar bilan qarz berishga ham tayyor. 1921-yil Sovet-Eron bitimiga kelsak, mening fikrimcha... — u o'z fikrini ifoda qilib berish uchun biror muvofiq so'z axtarib, jindek to'xtadi. Lekin uning so'zini Rizo shoh tugalladi:

— Albatta, o‘zaro yaxshi niyat bilan ish boshlansa, chora topilmay qolmaydi.

Mister Garold kulimsiradi. Elchi davom etdi:

— Men ham shunday deb o‘ylayman, a’lohazrat. Hozircha esa biz shimoliy tumanlarda ilmiy-tekshirishga doir ishlarni boshlab yuborish niyatidamiz. Menimcha, bironta ham mamlakat ilmiy-tekshirish ishlariga qarshilik ko‘rsatmasa kerak.

— Albatta, bu ishning ikkinchi jihati. Eng zaruri — o‘zaro rozilik bo‘lishi kerak.

— Shimoliy tumanlarda qaziladigan har bir amerika qudug‘i, qurilgan har bir neft markazlari ichki ishlaringizga chet elliklarning aralashuvidan himoya qiladi hamda bizning siyosiy va iqtisodiy aloqalarimizning tobora mustahkamlashuviga sabab bo‘ladi.

Rizo shoh elchining gaplarini diqqat bilan eshitib, yana o‘z ministrlariga qaradi:

— O‘n besh kunlik muddat ichida janob elchining vakillari bilan birga shimoliy rayonlarda neft chiqarish to‘g‘risidagi bitimning asosiy shartlari ishlab chiqilsin, — deb buyurdi.

Ministrlar o‘z shohlarining buyrug‘ini eshitib, yana bosh egib ta’zim qildilar.

* * *

Faridunni Shimronda, bir necha kun ilgari bazm bo‘lgan o‘sha bog‘da Shamsiyaning o‘zi kutib oldi. Bu safar bog‘da hech kim yo‘q edi. Hatto xizmatchilar ham ko‘rinmasdi. Shamsiya ularga jo‘rttaga javob berib yuborganga o‘xshardi. Bu Faridunga qiziq tuyuldi.

U fikran Shamsiyaning maqsadini anglashga tirishib ko‘rdi. Lekin biror xulosaga kelolmadi. Qiz esa ishonch bilan uning qo‘ltig‘idan olib, saroyga boshladi.

— Siz, albatta, nimaga chaqirdi ekan deb o‘ylayotgan bo‘lsangiz kerak? — deb so‘radi Shamsiya Faridunning ko‘ziga qarab. — Xohlasangiz, aytishim mumkin.

— Quloq‘im sizda. Qancha tez aytsangiz shuncha yaxshi, xonim.

— Qarshingizda mehrob eshiklari ochilishi lozimdek muncha shoshilmasangiz? — deb so‘radi qiz noz bilan, keyin jilmayib Faridunning yuziga tikildi.

U aftidan, o‘z go‘zalligi bilan hammaning qalbida uyg‘otadigan husni Faridunning qalbida ham uyg‘otmoqchi edi. Faridun qizning qarashi, qiliqlaridan unga yoqishga harakat qilayotganini sezib:

— Xonim, nahotki, sizga uch kishining muhabbati kamlik qilsa? — deb so‘radi. —To‘rtinchi bir yurakka o‘t tashlashning nima keragi bor?

Shamsiya qoshlarini chimirib, Faridunga qaradi. Allanarsa demoqchi bo‘ldi. Lekin uyga yetib kelganlari uchun indamadi.

Ular marmar zinadan chiqdilar. Tashqaridan qaraganda uchburchakka o‘xshagan bu bir qavatli uyni Faridun ziyofat kuni ham ko‘rgan edi-yu, lekin ichkarisiga kirmagandi.

Tashqaridan katta dahlizga kirilardi. Ichkari kirish bilan qator uchta eshikka ko‘zingiz tushadi: biri o‘ngda, biri to‘g‘rida, yana biri so‘lda. Ikki chetdagi eshiklar yonida to‘rtburchak shaklida tushirilgan guldor naqshlar bor edi.

Shamsiya o‘rtadagi eshikni ochib, Faridunni kichik bir xonaga taklif qildi.

Mehmonxonaning katta derazalariga shohi pardalar tutilgan. Polga katta qimmatbaho gilam yozilgan. Gilam go‘yo atayin shu xona uchun to‘qilgandek, mehmonxona sahni bilan bab-baravar edi. Xonaga simmetrik ravishda olti joyga yumshoq kreslolar qo‘yilgan. Kreslolarning yoniga esa silliq qilib ishlangan bejirim, top-toza choy stollari qo‘yilgan edi. Mehmonxonaning to‘rida pianino turardi. Pianino tepasidagi devorga gul ushlagan, yarim-yalang‘och ayolning portreti osilgan edi.

Shamsiya qizil ipak ko‘ylagining etaklarini yig‘ishtirib, kreslolardan biriga o‘tirdi-da, Faridunga yonidagi kreslodan joy ko‘rsatdi. Faridun yuragi nima uchundir xavotirlangan holda kresloga o‘tirdi...

Shamsiya uzilib qolgan suhbatni davom ettirib, dedi:

— Bir kishini har qancha sevsang ham, har qancha sevilsang ham, baribir yana har kimga yoqqing kelaveradi. O‘zingga hamma

diqqat qilishini xohlaysan. Hamma sening go'zalligingga boqib hayron qolsin. Buning aksini aytgan ayolga sira ishonmang, Faridun!..

— Lekin har holda men sizning hozirgi gapingizga ishonmayman! Biror kishini sal sevgan qiz o'sha kishiga o'z muhabbatini ochiq aytolmaydi. Bunday gaplar siz bilan men kabi yaqin do'stlar o'rtasidagina bo'lishi mumkin. Ikki sevishgan o'rtasida bunday gap bo'lmaydi.

— Sizningcha, sevishganlar qanday so'zlashadilar?

— Bilmadim, xonim, hali tajribadan o'tkazib ko'rganimiz yo'q. Lekin, menimcha, haqiqatan ham bir-biriga ko'ngil bergan odamlar muhabbatlarini bir-birlariga tillari bilan emas, ko'zlari, qalblari, qarashlari va o'zlarini tutishlari bilan bildiradilar. Ular muhabbat hislarini so'z bilan ifoda qilib berolmasalar kerak.

Shamsiya uning so'zini kesdi:

— Demak, ular bir-birlari bilan uchrashganda indashmaydi, oh tortishadi, yolg'iz qolganda esa xayolga cho'mishadi, yig'lashadi, shundaymi?

— Shunday bo'lsa ham ajab emas...

— Asl muhabbat ham shu, a?

— Harholda, o'shalar chin muhabbatning belgilaridir. Ularda qalbning ishtiroki ko'rinib turadi.

— Unday bo'lsa tabrik etaman sizni. Shahrimizning go'zal xonimlaridan biri sizni, hozir o'zingiz tasvir etgan muhabbat bilan sevib qolibdi.

Faridun unga taajjub va savol nazari bilan qaradi.

— Rost, rost!.. Hech taajjublanmang. Lekin uning kimligini ham so'ramang. Baribir aytmayman. Muhabbat hozircha sirligicha qolsin! Shunda yana ham kuchayib ketadi... Keyinchalik o'zingiz payqab olasiz.

— Lekin men bunga uncha qiziqmayman-da! — dedi Faridun.

— Yo'q, qiziqasiz! Lekin suyunchisiga bir narsa va'da qiling. Bo'lmasa aytmayman. Va'da qilasizmi?

— Bir kamg'abal talaba sizdek badavlat xonimga nima ham va'da qila olar edi. Mening bir jonim bor, xolos, u ham sizga qurbon bo'lsin.

— Yo‘q, joningiz sog‘ bo‘lsin, ming yil yashang. Lekin do‘stligimiz abadiy qoladi, nima bo‘lsa ham, boshimizga qanday kun kelsa ham men istagan vaqtda sizni ko‘ra olsam bas! Boshqa hech narsa talab qilmayman. Va’da qilasizmi?

— Bunday va’dani aslida sizdan men so‘rasam bo‘lar edi, xonim! Chunki kambag‘allarning do‘stligi shunday ham mustahkam va doimiy bo‘ladi.

— Juda soz. Unda aytaman. Ziyofat kuni oshiqi shaydo bo‘lib qolgan xonimingiz...

Faridun darhol Sudoba xonimni esladi.

— Ming ko‘ngildan bir ko‘ngilni sevib qolgan qiz o‘sha![1] — dedi Shamsiya ko‘zini suzib.

— Kimni? — deb so‘radi Faridun taajjub bilan.

— Kimni bo‘lardi. Meni emas, albatta.

Shamsiya qah-qah urib yubordi-da, yana jiddiy tus oldi.

— Bechora qizning ahvolini bilsangiz edi. Deyarli har kuni shu yerga keladi. Tashqarida qadam tovushlari eshitilib qolsa, hayajonlanib ketadi, eshikka termuladi. Nihoyat, bir kuni chiday olmay o‘zi gap ochdi. “Nega o‘qituvchingiz ko‘rinmaydi, azizim Shamsiya?” deb so‘radi. “Eh, uni ko‘rish juda qiyin. U juda ham jiddiy bir yigit. Boshi bilan ilmga sho‘ng‘igan”, deb. “Yo sizga yoqib qoldimi?” deb so‘radim. U qip-qizarib ketdi-yu, lekin javob berdi. “Ha, Shamsiya, u oliyjanob, aqlli va oddiy bir yigit ekan!” dedi. Ana shunda men sizlarni, albatta, bir uchrashtirishga qaror qildim. Sizning bugun bezovta qilganimning sababi ham ana shu, qimmatli o‘qituvchim!

Faridunning xayolidan bularning hammasini Shamsiya hazillashib qilmadimikan, degan fikr kechdi. Badavlat xonadonlarga bunday ermaklar oddiy bir narsa edi. Insonlik g‘ururi kamsitilgan Faridun bu o‘yinda rollarni o‘zgartirishga qaror qildi.

— Xayr, siz aytgancha bo‘lsin, xonim, — dedi Faridun. — Siz meni o‘zingiz qo‘ymoqchi bo‘lgan spektaklda ishtirok etishimni istaysiz, shundaymi? Mayli, men unda ishtirok qilaman. Lekin shu bugunoq Sudoba xonimga uning ustidan kulganingizni, mana shunday spektakl tashkil qilganingizni aytaman.

Shamsiya shoshib, qo‘li bilan Faridunning og‘zini to‘sdi.

[1] Ozarbayjon ertaklarida kuchli muhabbatni shu so‘zlar bilan ifoda qiladilar.

— Hay, hay, nimalar deyapsiz? Men nima degan odam bo‘laman unda, el-yurt nima deydi?

— Kimning nima deyishi bilan mening ishim yo‘q!

— Meni qiziqtirgan narsa boshqa: kimsan, vazirning qizi bir kambag‘al dehqonni sevib qolgan emish?! Shu ham gap bo‘ldimi?

— Juda qiziq! Meni ham xuddi ana shu qiziqtirayapti-da! Shahzoda bilan kambag‘al bir talaba! Juda qiziq, juda qiziq!..

Faridun Shamsiyaning ko‘zlarida qizg‘onish va intiqom uchqunlari chaqnaganini ko‘rdi. Endi gapning tagiga yetdi.

Shamsiya shu yo‘l bilan Shohpurga yaqinlashgani uchun Sudobadan o‘ch olmoqchi edi.

— Xonim, siz yaxshi ish qilmayapsiz. Bir yosh qizning hislari bilan o‘ynashish, arzimagan bir ish uchun o‘ch olish yaxshi emas. Men sizning qalbingizda bu qadar mayda hislarga joy bo‘lishiga ishongim kelmaydi.

Shamsiya qizarib ketdi:

— Ha, u mening hayotim bilan o‘ynashsa maylimi? — deb yuzini chetga burdi-da, o‘kirib yig‘lab yubordi.

Faridun unga tasalli berishga harakat qildi: — Muhabbat, chin muhabbat bo‘lsa bularning hammasi mayda-chuyda va arzimagan narsalardir, xonim. Chunki haqiqiy muhabbat xiyonatdan uzoq bo‘ladi. U sotmoq va sotilmoqni bilmaydi. Ikki yoshning yuragi muhabbat hislari bilan birlashsa, bunday ikir-chikirlar muhabbatga qanday qilib ta’sir eta olsin, Shamsiya xonim?

Faridun Shamsiyaning eng nozik yeriga tekkan edi. Qiz o‘z tabiatiga zid bo‘lgan ma’yuslik bilan sukut qilib, boshini quyi soldi. Faridun uni bu holatda birinchi marta ko‘rishi edi.

— Hamma gap ana shunda, — dedi Shamsiya o‘zi bilan o‘zi so‘zlashgandek. — Hamma gap o‘sha muhabbatda, o‘sha muhabbat haqiqiy muhabbatmi, yo yo‘qmi — ana shunda!.. Yo u muhabbat emas-u, podsho xonadoniga mansub kishining o‘yinimi? Gap ana shunda!

U yana yig‘lay boshladi. Faridun uning allaqanday og‘ir fikrlar quchog‘ida qolganini sezib indamadi. Qiz sakrab turib, mehmonxonadan chiqib ketdi.

Faridun yolg‘iz qolib fikrga cho‘mdi. U derazalarga tutilgan shohi pardalarga, yumshoq kresloga, yashnab turgan gilamlarga qarar va ular qanchadan-qancha azob-uqubat, qanchadan-qancha ko‘z yoshi va peshona terlari natijasida bo‘lgani haqida o‘yladi... Mehmonxona birpasda tor bir qafasga o‘xshab qoldi. Yuragi siqildi.

Nafas olishi og‘irlashdi... Turib derazani ochmoqchi yo chiqib ketmoqchi bo‘ldi. Lekin tashqaridan odam tovushlari eshitilib qolgani uchun o‘rnidan qo‘zg‘almadi. Dahlizda Shamsiyaning tovushi eshitildi.

— Ey, keling, Sudoba xonim, xush kelibsiz!

Bu Sudoba edi...

— Joningizga ham tekkan bo‘lsam kerak, lekin shunda ham har safar xush kelibsiz, deb qarshilaysiz, — dedi kulib Sudoba.

— Bu nima deganingiz, xonim?! Men juda xursandman. Qani ichkariga marhamat qiling.

Shamsiya eshikni ochib, Sudobani ichkari kiritib, ketidan o‘zi kirdi.

Faridun o‘rnidan turdi. Faridunni ko‘rgan Sudoba hayajonini yashirolmay, qizardi. Faridun qiz bilan salomlashdi, kelib uning qo‘lini siqdi, o‘tirishga joy ko‘rsatdi.

Qizlar o‘tirishdi.

Faridun sezdirmasdan Shamsiyaga ko‘z tashladi. U yuz-ko‘zini yuvib olgan, pardoz-andoz qilishga ham ulgurgan edi. Chehrasidan hozirgina yig‘laganini aslo bilib bo‘lmasdi. Jilmayishi ham odatdagicha edi. Lekin Faridun uning harakat va qarashlaridan Sudobaga qarshi avvalgi achchiqdan asar ham sezmadi.

Shamsiya Sudobadan hol-ahvol so‘radi:

— Ahvollaringiz qalay, xonim? Otangiz sog‘-salomatmi?

— Shukur. Otam sog‘-salomat, so‘raganingiz uchun rahmat. Lekin keyingi kunlarda biroz kayfi yo‘qroq.

— Nega, tobi qochdimi?

— Yo‘q, kasal emas. Nima uchundir xafaroq. Siz, albatta, yangi tashkilot to‘g‘risidagi gaplarni eshitgandirsiz, Shamsiya xonim? Otam menga ularning kitobchasini ham ko‘rsatdi. Ahvol chatoq!

Aytishicha, a'lohazrat g'azabdan kechalari uxlamas emish, yer ostidan bo'lsa ham, osmondan bo'lsa ham gunohkorlarni topinglar, deb buyuribdi.

Suhbatning kutilmaganda shu mavzuda boshlanishi Faridunni juda qiziqtirdi. U saroy arboblarining bu to'g'rida nima deb o'ylayotganlarini bilib olishi mumkin edi, buning ustiga uni jinoyatchilarga qarshi qanday choralar ko'rishayotgani qiziqtirdi. Bundan boshqa yana u Sudobaning fikrini bilishga ham qiziqdi.

— Siz o'sha kitobni o'qidingizmi? — deb so'radi Faridun Sudobadan.

Sudoba unga qarab yana qizarib ketdi, lekin o'zini bosib, javob berdi:

— Ha, o'qidim. Lekin, rostini aytsam, juda qiziqarli qilib, zo'r jasorat bilan yozilgan. U shunday kuchli mantiq bilan yozilganki, agar kishi shunday kitoblardan bir nechtasini o'qisa, bolshevikka aylanib ketishi mumkin...

Uning ko'zlari qiziqish o'ti bilan chaqnab ketdi:

— Agar bu kitobni chet ellar yordamisiz vatandoshlarimizning o'zlari yozishgan bo'lsa, — Sudobaning tovushi titradi, — men ularni qahramonlar deb atagan bo'lar edim. Mening tasavvurimda, ular shu qadar buyuk va ruhan qudratli odamlarki, afsonalarimizdagi qahramonlarga o'xshaydilar. Ishonamanki, bunday ishga qadam qo'ygan odamlar dorga tortilishlari mumkinligini oldindan bilishgan. Aytingchi, ularni qahramon demay bo'ladimi?

Faridun qizni yana chuqurroq sinab ko'rmoqchi bo'lib so'radi:

— Kechirasiz, xonim, qanday qilib vatan xoinlari qahramon bo'lsinlar?

Sudoba unga dadil boqdi:

— Siz vatan xoini deb kimlarni aytayapsiz? Men boshdanoq shart qo'yib, agar ular chet elliklarga sotilmagan bo'lsalar, dedim-ku. Agar shunday bo'lsa men ularni xoin deyolmayman, unday deyishga tilim bormaydi. Har bir mamlakat, turli yo'l bilan taraqqiy etishi mumkin. Mamlakat hokimlari qanday fikrda bo'lsalar butun aholining ham ayni shunday fikrda bo'lishlari shart emas. Siz ularga nisbatan juda nohaq gapirayapsiz. Yo sizning ham ministr bo'lish niyatingiz bormi?..

— Yo‘q, xonim. Mendan ministr chiqmaydi.

— Nega, sizning fikringiz ham xuddi ministrlarnikiga o‘xshaydi-ku!

— Chunki mening ko‘nglim yumshoq. Agar ministr bo‘lib qolgudek bo‘lsam, ehtimol, sizning o‘sha qahramonlaringiz boshiga tushadigan jazoni yumshatgan bo‘lardim.

— O, rahmat. Unda, janob o‘qituvchi, mamlakatda bironta ham jinoyatchi qolmasdi. Mening ko‘nglim ham juda bo‘sh, hamisha mahkumlarga achinaman.

— Shu rahmdilligingizdan ozginasini otangizga bersangiz bo‘lmaydimi?

— Kecha otam bilan toza janjallashdim. U jinoyatchilarni, albatta, topib osamiz deydi. Men esa unga, siz begunoh odamlarning qonini to‘kasiz dedim, avvalo, unday ishga jasorat qilgan odamlarni topolmaysiz dedim. Chunki ularning juda aqlli va hushyor odamlar ekanligi ko‘rinib turibdi. Ular osonlikcha qo‘lga tushmaydilar. Ikkinchidan, ularni osib nima qilasiz? Oldin ularning gaplariga quloq soling, yozganlarini o‘qing, balki ular sizning noto‘g‘ri yo‘ldan ketayotganingizni isbot etar.

— Xo‘sh, otangiz nima dedi?

— U bu gaplarga quloq solgisi ham kelmaydi. Esingni yebsan, deydi. Senga ikki kun muhlat beraman, bu bema’ni xayollarni tashla... Bo‘lmasa o‘sha qaroqchilar singari sening ham ishing chatoq bo‘ladi.

Faridun bu zebi-ziynat taqqan, ko‘zi ehtiros bilan chaqnab turgan qizning ajoyib so‘zlarini tinglab hayron qolardi. Qizning ko‘zlarida aql-idrok aks etardi. Hayoti haqida eshitganida Faridunning qalbida qizga nisbatan hurmat uyg‘ongan bo‘lsa, hozirgi so‘zlarini eshitgach, qiz unga yoqa boshladi. Bu muhokamalar qizning sof qalb va mantiqiy tushunchalar egasi ekanidan darak berardi. Bunday qiz bilan do‘st bo‘lish Faridun o‘z hayotini bag‘ishlagan ish uchun ko‘p foyda keltirishi ham mumkin edi.

— Men o‘sha kitobdagi so‘zlar haqida qancha o‘ylasam, undagi gaplarning to‘g‘riligiga shuncha ko‘proq ishonayapman, — deb davom etdi Sudoba. — Haqiqatan ham mamlakatimiz-

dagi kishilar hayotini hayot deb bo‘ladimi? Men fabrika, zavodlarga borgan emasman, qishloqlarni ko‘rmaganman. Ishchi va dehqonlarning turish-turmushidan xabarsizman. Lekin bir ko‘chaga chiqsam, uyga qaytib kelgandan keyin ovqatga o‘tirolmayman, non yesam zahar bo‘lib o‘tadi. Ochlar, yalang‘ochlar, tilanchilar bilan liq to‘la ko‘chalar ko‘z oldimdan o‘taveradi!..

— Eh, xonim, siz oliyjanob yurak egasi ekansiz. Lekin shuni aytishim kerakki, hayotning shunday bo‘lishiga bizning o‘zimiz aybdormiz.

— Men bunga o‘zimni aybdor deb hisoblay olmayman.

— Har kim ham, bunga o‘zining jamiyatda turgan o‘rniga qarab, ozmi-ko‘pmi aybdor. Birov ko‘proq aybdor, birov kamroq. Lekin har kimning ham aybi bor; har kim ham bir bahona topib, o‘shaning orqasiga yashirinadi, o‘zini aybsiz deb ko‘rsatishga tirishadi. Shuning uchun ham bunga hech kim aybdor emasdek tuyuladi...

— Men ham aybdor ekanman-da, bo‘lmasa? Siz mening to‘g‘rimda qanday fikrdasiz?

— Rostini aytsam, siz to‘g‘ringizda biror narsa deyolmayman. So‘zlaringiz bilan jamiyatdagi o‘rningiz, vaziyatingiz o‘rtasida katta farq bor ko‘rinadi.

— Bu fikringizga qo‘shilolmayman. Men umrimda hali o‘z vaziyatimdan biron marta chetga chiqib ketganim yo‘q va chiqmayman ham.

Qizning miyasiga birdan allaqanday biror yomon fikr, shekilli, birdan avzoyi buzilib, Faridunga ta’na bilan qaradi:

— Yo siz mening vazirning o‘gay qizi ekanimga ishora qilayapsizmi? Men bunga si ra afsus ham qilmayman, buni hech kimdan yashirmayman ham! — dedi g‘urur bilan Sudoba.

Faridun o‘zi istamagani holda qizni xafa qilib qo‘yganiga achindi.

— Men esa buni sizning aybingiz emas, balki bir fazilatingiz, deb hisoblayman, — dedi Faridun mehribonlik bilan.

— Rostdanmi? — deb so‘radi qiz jiddiy. — Lekin, aytingchi, siz o‘zingiz haqiqatan ham biz bilgan odammisiz?

— Mehnatkash kishilar o'zlarining aslda kim ekanliklarini yashirib o'tirmaydilar, xonim. Ularning bunga vaqtlari ham yo'q.

Sudoba Faridunga hurmat va muhabbat bilan nazar tashladi.

— Men ziyofat kuni sizni diqqat bilan kuzatib yurdim. Harakatlaringiz, gap-so'zingiz, o'zingizni tutishingizga diqqat qildim. Siz men ko'rib o'rgangan kishilarga sira o'xshamaysiz. Sizning samimiyligingiz, rostgo'yligingiz menga juda yoqdi. Men o'sha fazilatlaringizni hozir ham ko'rib turibman.

— Rahmat, xonim. Sizning ham samimiy qalb egasi ekaningiz va vazirning qizi bo'lishingizga qaramay, to'g'ri va ochiq fikr yuritishingiz menga ham juda yoqdi.

— O'ylaymanki, bu bizning oxirgi suhbatimiz bo'lib qolmas, siz bilan hali ko'p suhbat qilamiz, shundaymi?

— Men ham shunday deb o'ylayman.

— Agar malol kelmasa, menga yon daftarchangizni bering.

Faridun qizga daftarchasini olib berdi. Qiz unga tezlik bilan allanarsalar yozdi-da, daftarchani Faridunga qaytardi.

— Istagan vaqtingizda telefon qilishingiz mumkin. Istagan vaqtingizda...

Faridun unga yana tashakkur aytdi.

Bularning gapidan zerikib, allaqachon chiqib ketgan Shamsiya bir patnisda shirinliklar va uch piyola choy ko'tarib keldi. Ularni mehmonlarning oldiga tizib qo'ydi-da, o'zi ham o'tirdi.

— Ha, Sudoba xonim, zerikib qolmadingizmi? — deb so'radi u.

Faridun Sudobaga sinovchan nazar tashladi. Qiz ham o'zgarmadi, boyadan beri so'zlashib o'tirgan tovushida:

— Zarracha ham zerikkanim yo'q, Shamsiya xonim, — deb oddiygina javob berdi. — Zerikish nimasi? Shunday kishi bilan tanishtirganingiz uchun tashakkur aytishim mumkin, xolos... Yana nima ham deya olardim!

* * *

Kech kuz kirganiga qaramay, choshgohda quyosh juda qattiq qizdirardi. Faqat kech yaqinlashib, daraxt va uylarning soyalari ko'chalardan quyosh nurlarini haydab chiqargandan keyingina

biroz salqin tushardi. Bunday paytda butun Sharq shaharlarida bo'lgani singari Tehron ko'chalarida ham odam qaynar edi, butun shahar xalqi ko'chaga chiqqandek bo'lardi.

Lolazor ko'chasi ham odamga liq to'la edi.

Kinoteatrlar oldidagi reklamalar kino yangiliklari haqida xabar berardi. Bu yangi filmlarning aksari Amerika filmlari edi.

Birdan Faridunning ko'zi bir qizga tushdi, qiz unga tanishday ko'rindi. Qizning yonida o'rta yashar bir ayol ham bor edi. Ular mashina oldiga keldilar. Qiz ayolning qo'ltig'idan ushlab, mashinaga chiqishga yordamlashdi, o'zi ham mashinaga o'tirmoqchi bo'lganida, shu tomonga qaragan edi, Faridun uni darhol tanidi. Bu Sudoba edi.

Sudoba ham Faridunni ko'rib qoldi. Faridun u mashinaga o'tirib jo'nab ketsa kerak deb o'yladi. Lekin qiz mashinaga o'tirmadi, u mashinadagi ayolga allanarsa dedi-da, Faridun tomonga kela boshladi.

— Salom, Sudoba xonim, qanday yaxshi uchrashuv!

Qizning qop-qora ko'zlari shodlik bilan chaqnab ketdi.

— Siz va'dangizning ustidan chiqmadingiz, telefon qilmadingiz. Men bo'lsam intizor bo'lib kutdim!..

Sudoba Faridunga so'z bermay yana qo'shimcha qildi:

— Yo'qotib qo'ygan bo'lsangiz, yana telefonimiz nomerini yozib berishim mumkin, — dedi u tabassum bilan.

— Yo'q, bezovta bo'lmang, esimda. Lekin sizni bezovta qilishga ko'nglim bo'lmadi.

Qiz uning qo'lidan ushlab mashina tarafga sudradi:

— Yuring, yuring, men sizni onam bilan tanishtirib qo'yaman! Bunday onani bu dunyoda topolmaysiz. U oliyjanoblik va muhabbatning ramzidir!..

Faridun hamma qizlar ham o'z onalari to'g'risida shunday fikrdalar demoqchi bo'ldi-yu, lekin Shamsiyaning so'zlarini eslab, onasi uning yakka-yagona suyanchi ekanini anglab indamadi.

Qiz uni onasiga tanitdi:

— Onajon, og'oyi Faridun bilan tanishing. Bu kishi sizning hamshahringiz bo'ladilar.

Xotin o‘rnidan qo‘zg‘olmoqchi bo‘lgan edi, lekin Faridun tez yugurib kelib u bilan ko‘rishdi. U vazirning xotinidan ko‘ra ko‘proq dehqon ayolga o‘xshardi. Yoshi anchaga borib qolgan bo‘lishiga qaramay, yoshligidagi go‘zalligi saqlangan edi. Uning qiyofasida amaldorlarning xotinlariga xos manmanlik, takabburlik sezilmasdi. Bu go‘zal ayol o‘zining butun vujudi bilan xalq ichidan chiqqan samimiy, oliyjanob, oddiy ozarbayjon xotini ekanini ko‘rsatib turardi.

— Hamshaharingiz dedingizmi? — deb so‘radi Faridun hayron bo‘lib.

— Bo‘lmasam-chi! — deb kuldi mamnunlik bilan Sudoba. — Mening onam ham sizga o‘xshash ozarbayjonlik. U ham o‘sha go‘zal Ozarshahrda katta bo‘lgan. U menga o‘zi tug‘ilgan joyini shunday ta’riflab beradiki, jannat o‘sha yer bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman.

— Onangiz yanglishmabdilar, — dedi Faridun. — Siz ham Ozarshaharni bir ko‘rsangiz edi! U haqiqatan ham Ozarbayjonning eng go‘zal joyi!

Sudoba ko‘zlarini suzib unga boqdi.

— Nasib bo‘lsa bir kuni ko‘rarman, — dedi u ma’nodor qilib, lekin Faridun Sudobaning boqishidagi ma’noga tushunmadi.

— Qizim, og‘oyi Faridunni uyga taklif qil, mehmon bo‘lsinlar, — dedi ayol sekingina.

Sudoba Faridunga o‘girildi:

— Onam sizni mehmonga chaqirayaptilar, — dedi.

— Katta rahmat, albatta, boraman.

— Xayr!

Qiz mashinaga o‘tirdi. Faridun eshikni yopti-da, mashina ko‘zdan yo‘qolguncha ketidan qarab turdi. Xayol surgan holda bitta-bitta yurib Istanbuliy ko‘chasining muyulishiga kelganda bexosdan sartib Salimiyga duch keldi.

Sartib uni ko‘rishi bilan, harbiy kiyimdagi sheriklari bilan xayrlashdi-da, kelib Faridun bilan so‘rashdi. Siyosiy vaziyatning borgan sari keskinlashib borayotgani, keyingi voqealar va inglizlar bilan amerikaliklarning Eronda o‘z ta’sirlarini kuchaytirayotganlari to‘g‘risida so‘z ochdi.

— Hukmdorlarimiz amerikaliklarning maslahati bilan hozir ekayotgan urug'lar kelajakda zaharli hosil beradi! Lekin hozir kelajak haqida bir narsa deyish qiyin. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga qarab, ishning qayerga borishini oldindan ko'rib bo'lmaydi. Chunki, har ish ham qismatning, taqdirning, falakning ixtiyoriga bog'liqdir.

— Qismat, taqdir, falak!.. Kechirasiz, og'oyi sartib, lekin bunaqangi so'zlar siz kabi tushunadigan, o'qimishli odamga yarashmaydi.

— To'g'ri aytding, yigit! O'zim ham bu so'zlarni ishonganimdan tilga olayotganim yo'q. Ojizlikdan, bu ahvoldan qutulish yo'lini topolmaganimdan aytayapman. Sen taqdirga ishonishning va xurofotning nimaligini bilasanmi? Ular johil va qo'rqoq odamlarga tasalli beradigan birdan-bir narsadir.

Faridun, siz qo'rqoq ham, johil ham emassiz-ku, demoqchi bo'ldi-yu, lekin sartibni juda hurmat qilganidan, indamadi. Sartib ham go'yo buni sezgandek:

— Afsuski, men ham hayotning yaramasliklarini ko'p ko'rgan, lekin o'zgartirishdan qo'rqadigan odamlardanman. Hayotni o'zgartirish kerakligini ko'ra-bila turib, uni qanday qilib o'zgartirishni bilmadimmi, demak, men johil odamman.

— Lekin, og'oyi sartib, Eronda sizga o'xshagan odamlardan bir-ikki yuz kishi, nahotki, topilmasa? Ular birlashib, maslahat bilan vatanimiz yaralarini davolashga, nahotki, biror chora topmasalar?

— Nega topolmasinlar? Unday odamlar topiladi, yigit! Ikki yuzgina emas, xatto yuz mingta ham topiladi. Lekin ularning yo'lini qalin bir devor to'sib yotibdi. Bu devorni davlat arboblari qurib qo'yishgan. Qani endi ularning ovozi a'lohazratga yetib borsa!..— dedi sartib va xayolchanlik bilan kulib qo'ydi.

— O'sha devorni ag'darib tashlashga urinishlar bo'ldimi hech? — deb so'radi Faridun.

— Yo'q, menimcha, bunday harakat bo'lgani yo'q. Lekin men bunga bir harakat qilib ko'raman.

U Faridunga har qanday qilib bo'lsa ham Rizo shoh huzuriga kirishga, sotqin ministrlar va arboblarning uni qanday aldayotgan-

larini, mamlakatni halokatga olib borayotganliklarining hammasini aytib, shohning ko'zini ochishga ahd qilganini so'zladi.

Faridun bu oliyjanob kishini bunday xatarli xatodan qaytarishga harakat qilib ko'rmoqchi bo'ldi.

— Og'oyi sartib, nahotki, siz shoh bu ishlarning hammasidan bexabar deb o'ylasangiz? Sizni qabul qilib, gapingizni eshitsa, ahvol o'zgaradi, deb o'ylaysizmi?

— Sen bunga shubha qilasanmi?

— Yo'q, men shubhalar bilan yashashni xohlamayman. Men bu falokatlarni yaratayotgan istibdod tuzumning xuddi o'zi ekaniga qat'iy ishonaman. Mamlakatni shohlar boshqaradigan vaqtlar o'tib ketgan. O'z ixtiyorini bir monarxga topshirib qo'ygan har bir mamlakatning haqiqatan ham qismat, taqdir va falakdan boshqa najoti qolmaydi, deb o'ylayman. Shuning uchun sizning bu harakatingiz behuda ketishiga ishonaman!

Har vaqt gapning po'st kallasini ochiq aytib qo'yaqoladigan sartib Salimiy, shunday xususiyatli odamlarni yaxshi ko'rardi. Bunday odamlar uning e'tiqodiga qarshi fikr aytsalar ham, agar o'sha fikrlar samimiy aytilsa, hech achchig'i chiqmas edi.

Hozir ham Faridunning chin yurakdan so'zlaganini va o'z fikrini dadillik bilan ochiq aytib qo'yaqolganini o'ziga nisbatan bir hurmat va ishonch deb bildi.

— Sening dadilligingga qoyilman. Balli. Lekin fikringga qo'shilmayman.

— Men esa sizdek bir odamning allaqanday xayollar bilan yashashingizga achinaman, — dedi Faridun va gapni boshqa tomonga burish uchun so'radi: — Shimoliy tumanlardan neft chiqarish uchun yangi bitim tuzilganmish deyishadi. Rost gapmi shu?

— Rost. Inglizlar bilan amerikaliklar shimolda o'tib bo'lmas istehkomlar qurmoqchi. Gazetalarda Sovetlarga qarshi ko'tarilgan shovqin-surondan maqsad ham odamlarning diqqatini ana shu ishlardan chalg'itish, xolos. Zindonlar, turmalarning soni yana ortadigan bo'ldi! Buning alomatlari hoziroq ko'rinib turibdi. Kecha Tabrizdan bir to'da mahbuslar keltirildi. Ardabilda ham ommaviy qamoqqa olishlar kutiladi.

— U yerdagisi nima uchun? — deb so‘radi Faridun hayajon bilan.

— Sarhang o‘z mavqeyini mustahkamlash uchun Ardabilning butun aholisini qirib yuborishdan ham toymaydi. Hikmat Isfahoniyning bir qishlog‘ida yuz bergan hodisa hali ham a’lohazratning yodidan chiqqani yo‘q. Bu esa sarhangning obro‘yi uchun dog‘ bo‘lib tushdi. Sarhang Safoiyga o‘xshaganlar esa shoh oldida o‘z obro‘sini ko‘tarish uchun butun mamlakat aholisini qilichdan o‘tkazishga ham tayyor. Musa ismli allaqanday keksa bir dehqonni qamoqqa olish, mol-mulkini musodara qilish va oilasini qishloqdan haydash to‘g‘risida buyruq berilgan. Qishloqda yuz bergan to‘polonga o‘sha chol sababchi bo‘lgan emish...

Bu gap Faridunni g‘oyatda tashvishga solib qo‘ydi. U Musa akani, uning yosh bolalari va Gulnozni ko‘z oldiga keltirdi. Ularning mushkul ahvolda qolganini payqadi. Ularga darhol yordam berish lozim edi. Buni kechiktirib bo‘lmasdi. Qishloqqa, ularga yordamga shoshilish lozim edi.

U zo‘rg‘a o‘z hayajoni, tashvishi va iztirobini bosib, sartib bilan xayrlashdi. Butun vujudi: Qishloqqa! Qishloqqa! — deyayotgandek edi. Hech qanday tahlika, hech qanday xavf-u xatar uni yo‘ldan qaytara olmasdi.

O‘N UCHINCHI BOB

Qish yaqinlashib kelmoqda. Kech kuzning bulutli sovuq kunlari g‘amginlik bilan o‘tardi. Dalalarda podalar ko‘rinmay qoldi. Savalon tog‘ining cho‘qqilarini quyuq tuman va bulut qoplagan.

Xotin-xalaj va bolalar kuzning sovuq shamoli to‘kib, yer bilan bitta qilgan xazonlarini yig‘ib qoplash, ya’ni qishga o‘tin g‘amlash bilan ovora.

Bog‘-u rog‘lar o‘zlarining yashil to‘nlarini allaqachon yechib tashlashgan, ba’zi daraxtlarda qolgan besh-oltita sariq barglarni hisobga olmasa, daraxtlar qip-yalang‘och bo‘lib olishgan edi. Tabiat kelgusi yil yangitdan jonlanish, yangidan hosil berish uchun qish uyqusiga hozirlanmoqda edi. Hayot keng va bepoyon dalalar quchog‘idan tor chordevorlarga, qorong‘i katalak uylarga chekingan edi. Qishloq ayollari qishning g‘amini yemoqda edilar: tegirmonlarda tortilgan unlarni maxsus sandiqlarga joylashar, bug‘doylarni qoplashar, bir kuni korimizga yaraydi deb oshqovoqlarni ko‘zdan nariroqqa yashirib qo‘yishar edi. Sariya xola bilan Gulnoz ham qishlik zapaslarni joy-joyiga saranjom qilib, yenglarini shimargan holda hovliga chiqdilar. Hovlining bir chetida uyilib yotgan tappilarni o‘tinxonaga tashimoqqa boshladilar. Musa aka endi sevimli sariq sigirining oxurini tozalab bo‘lib, molxonaning bir burchagida turgan shaloq kursini mixlash bilan ovora edi. Kichkina Ayoz esa goh kursini ushlab turar, goh bolg‘acha uzatar, goh mixlarni otasiga tayyorlab berish bilan ko‘maklashardi. Boshqa bolalar og‘ilning bir burchiga suykanib, sho‘xlik qilayotgan to‘qli bilan o‘ynashmoqda edilar.

Musa aka kursini tuzatib bo‘ldi, uni og‘ilning bir burchagiga qo‘ydi-da, qo‘zichoqqa qaradi-da:

— Xotin, — deb Sariya xolani chaqirdi, — pichoqni olib kel, to‘qlichani ham so‘yaqolay. Bundan keyin buni asrashning foydasi yo‘q. Qish uzoq, boqolmaymiz. Bekorga oriqlab qoladi. Bugun

juma, kalla-pochasini bolalarga pishirib ber, go'shtini qovurma qilib, xumga bosib qo'y. Qish uzoqqa cho'ziladi, bolalarga ozgina-ozgina berib yurarsan.

— Ha, ota, so'ying, so'ying! — deb qichqirishdi bolalar shodlanishib.

Gulnoz yugurib kirib, uydan yog'och dastali, zang bosa boshlagan katta pichoqni olib chiqdi. Musa aka yengini shimarib, pichoqni qayradi. Qo'zini bosib, bo'yniga pichoq qo'ydi. Keyin uni og'ilxonaning eshigiga osib, terisini shila boshladi.

— Xotin, — dedi u yana Sariya xolaga murojaat qilib. — Go'shtdan Hasanalining bolalariga ham ozgina yuborish esingdan chiqmasin. Qiyin bo'ldi bechoralarga. Savob bo'ladi.

So'ng qorong'i tushmasdan to'qlini saranjom qilish uchun jadal ishlay boshladi. Lekin hali terisini shilib va dumbani ajratmasidanoq qorong'i tusha boshladi. Gulnoz uyga kirib qora chiroqni yoqib chiqdi-da, og'ilning eshigi oldiga osib qo'ydi. Musa aka qo'zining ichini tozalab, ichak-chavoqlarini Gulnozning qo'lidagi mis tog'oraga tashlagan ham ediki, ko'cha eshigi taqillab qoldi. Hamma diqqat bilan eshikka tikilishdi. Eshik taqillagan sari hayajoni ortib borgan Gulnoz, o'zini tiya olmadi, yuragi o'ynab ketdi.

— Faridun?! — deb yubordi qiz beixtiyor.

Musa aka qizga ko'z qirini tashlab qo'ydi-da:

— Faridun nima qiladi bu yerda? — deb qo'ydi u.

Lekin eshikni taqillatgan Faridun ekaniga qattiq ishongan Gulnoz eshikni ochgani yugurdi, ammo Musa aka uni to'xtatdi.

— Sen borma, qizim, ehtimol biror begona odamdir. Qayt orqangga, onang ochsin!

Eshik ikkinchi marta taqilladi, bu safar qattiqroq va tezroq taqilladi. Otning kishnagan ovozi eshitildi. Musa akaning yuragi bezovta bo'ldi.

— Kim bo'ldi ekan bu? Bevaqt kim kelishi mumkin?.. Xotin oldin kimligini so'ra, keyin och!

Eshik uchinchi marta taqilladi, bu gal zarbaning zo'rligidan eshikning ag'darilib tushishiga sal qoldi.

Eshik oldiga borgan Sariya xola:

— Kim?.. Kim u? — deb so'radi.

Ko'chadan g'azablangan tovush eshitildi:

— Nima balo, o'lib qolganmisan hammang!? Och eshikni!..

Xotinning ovozi titradi:

— Kimsiz, axir?

— Qo'rqma, joningni olmaymiz! Och!

Musa aka gumashta Mamadning yo'g'on tovushini tanidi.

— Padaringga la'nat, — deb tupurdi u jahl bilan. — Iskovichdek is biladi-ya!

Nochor qolib, o'zi eshik ochdi.

Gumashta Mamadning Ali jandarmboshi bilan birga kelganini ko'rib, Musa aka battarroq qo'rqib ketdi.

Gumashta Mamad otining jilovini uzatdi:

— Ma, olib bor! Bog'lab qo'y! Nega eshikni ochmaysan, qariya?

— Eshitmabman!

Gumashta Mamad unga istehzo bilan qarab, uni Ali jandarmboshiga ko'rsatdi:

— Eshitmagan emish? Nimaga eshitmaysan, karmisan? Quloqlaring og'irlashib qoldimi? Ol jilovni!

Musa akaning hali ham joyidan qimirlamay turganini ko'rib achchig'i chiqdi, kecha qorong'isida ko'zlarini qisib, diqqat bilan unga tikildi:

— Nega yenglaringni shimarib olding, chol? Yo pahlavonlik qilmoqchimisan? Olib bor otlarni, oldiga xashak sol!

Mamad otning jilovini Musa akaning qo'liga tutqazib, hovliga kirdi. Chiroq yorug'ida hali buzilmagan, chiroyli bo'lib osilib turgan go'shtni uyoq-buyoqqa aylantirib ko'rdi.

— Ajoyib kabob bo'ladi! — dedi-da, Ali jandarmboshiga qaradi. — Bu kishi halol odam deb aytmadimmi! Qara, mehmonlarni qanday qarshilayapti!

Ali jandarmboshi ham go'shtni ko'zdan kechirdi.

— Gaping to'g'ri, go'shtmisan, go'sht ekan! — dedi u, — lekin men og'zimga ham olmayman. Mamad, joning haqi, mazasini ham totib ko'rmayman! Bir tishlam yesam otamga la'nat!

— Nima balo, ro'za tutganmisan deyman? Yo go'sht yeyishdan tavba qilganmisan?

— Yo'q, gap unda emas. Qancha go'sht yeyish mumkin, axir? Qayerga bormay — go'sht, qaysi eshikni taqillatmay — kabob.

Jonimga ham tegdi! Sen bilmaysan, og‘ayni, jandarmning kuni ham kunmi! Dehqon uni azroilni qarshilagandek qarshilaydi. Oldingga durustroq, bunday og‘izga yoqadigan taom ham qo‘ymaydi. Qaysi uyga kirma, oldingga qo‘ygani yo qoq suyak bo‘lib qotgan buzoq go‘shti, yo qari sigir go‘shti! Ammo men undaqanggi jandarmlardan emasman. Qayerga kirsam yo qo‘zi, yo to‘qli so‘ydiraman! Boshqasi bilan ishim yo‘q!

— Bunday ko‘zingni ochib qarasangchi! Bu ham hali yoshiga to‘lmagan to‘qli-ku!

— Menga desa bir oylik qo‘zi bo‘lsin, og‘zimga olmayman dedimmi, olmayman! Ko‘nglimga tegdi! Qo‘y go‘shtini ko‘rsam ko‘nglim ayniydi.

U tunash uchun yotog‘iga chiqayotgan tovuqlarga ko‘z qirini tashladi, keyin bolalari oldida indamay ma’yus bo‘lib turgan Sariya xolaga o‘girildi. Qorong‘i tushib qolgani uchun ayolning ko‘zlarida nafrat yonayotganini payqamadi.

— Hoy xotin, — dedi u, — anavi tovuqlardan bir-ikkitasini tut! Yaxshi zakuska bo‘ladi. Ko‘p kerak emas, ikki-uchta bo‘lsa yetad! Yotar qoringa ko‘p ovqat sig‘ishning foydasi yo‘q...

Sariya xola indamay, otlar bilan ovora bo‘layotgan Musa akaga qaradi. Kuzning sovug‘idan dir-dir titrab, onasining oyog‘i ostida o‘ralashayotgan bolalar Sariya xolaning etagiga yana ham qattiqroq yopishib olishdi.

Faqat Gulnozgina joyidan qimirlamadi. U turgan joyida boshidagi ro‘molining uchini o‘ynab, gumashta Mamad bilan Ali jandarmboshiga tik qaraganicha turaverdi. Qiz iloji bo‘lsa, tinch oilaviy hayotlariga g‘am-g‘ussa va betinchlik keltirgan bu odamlarning yoqasidan ushlab ko‘chaga chiqarib tashlagudek holatda edi. Lekin otasining ahvoliga, uning g‘azab va qo‘rquv aks etgan harakatiga qarab, o‘zini bo‘g‘ib kelayotgan g‘azab va nafratini zo‘r bilan yengdi.

Gumashta Mamad haykaldek qotib turgan qizga ko‘z tashladi, bir vaqt xirmonda yuz bergan hodisani esladi-da, g‘azabli tovush bilan:

— Hoy, oppoq qiz, — dedi buyruq bergandek qilib. — Qani, suv obkelib qo‘limga quy-chi!

Keyin yenglarini shimara boshladi.

Gulnoz bir otasiga, bir onasiga qarab, joyidan qo'zg'almadi.

Musa akaning ko'nglidan "uyimga yirtqich hayvon kirdi" degan fikr kechdi. Keyin zora yaxshi muomala va shirin so'z bilan ularni insofga keltirsak, deb o'yladi-da, Gulnozga:

— Suv olib kel, qizim. Mehmonlarning izzat-hurmatini joyiga qo'yish kerak, — dedi.

Keyin mehmonlarga murojaat qildi:

— Qani, ichkariga kiringlar, hozir hammasini tayyor qilamiz. Qani, marhamat!

Gumashta Mamad Gulnozga suqlanib yana bir qarab, tomdan tarasha tushganday:

— Hoy, Musa aka, nega qizingni uzatmaysan? — deb so'radi. — Qiz bolani qancha tez uzatsang shuncha yaxshi. Tezroq uzat, tinchiysan! Uyda saqlasang oshingga o'rtoq; boshingga to'qmoq bo'lishidan boshqa foydasi tegmaydi. Tezroq uzatib yubor! Yoki mo'ljallab qo'ygan odaming bormi? Ha-ha-a! Kim ekan u? Aytaqol, kimga saqlab o'tiribsan?

Musa aka zo'rg'a o'zini saqladi:

— Og'oyi Mamad, ichkariga kiring, bunaqangi so'zlarning nima keragi bor? Bu yerga mehmon bo'lib kelgan ekansiz, bosh ustiga, ichkariga marhamat qiling! Xotin, bola-chaqalar oldida yaxshi emas bu gaplar...

Gumashta Mamad o'sal bo'lganini yashirish uchun gapni hazilga burdi.

— Nega achchig'ing chiqadi, qariya? Nima dedimki, achchig'ing chiqa qoldi? Shunchaki, so'radim qo'ydim-da. Bizni ham to'yga aytasanmi, yo'qmi — shuni bilmoqchi edim. Bunday qizga shunday bir to'y qilishing kerakki, butun qishloq tomoshaga kelsin!..

Ali jandarmboshi Musa akaning yelkasini qoqdi:

— Xudo senga shunday bir xazina ato qilganiga xursand bo'lsangchi, boboy! Ardabil savdogarlarida ham bunday go'zal qiz yo'q. Hozirgi zamonda bunday qiz bir xazina bilan baravar. Imonimiz haqqi, bu qizni butun bir xazinaga ham alishmasdim!

Musa aka gapni boshqa tomonga burmasa, bu hayosizlarning gapdan to'xtamasligini ko'rib, javob bermay qo'yaqoldi.

— Og'olar nima ovqat buyuradilar? — deb so'radi u.

— Menga hech narsa kerak emas, — dedi gumashta Mamad, — jindek qovurilgan jigar, ozroq to'shdan qilingan kabob, bir-ikki stakan achchiq choy bilan yotarga yaqin bir kosa qatiq bo'lsa bas. O'rganib qolganman, yotishdan oldin qatiq ichmasam, sira uyqum kelmaydi. Odatim shunday. Og'oyi Ali jandarmboshi ko'ngillariga yoqqanini yana o'zlari buyursinlar.

— Nima ham buyurar edik, ogayni! Bir kechalik mehmonmiz, xo'jayin nima qo'ysa baham ko'raveramiz. Modomiki so'ragan ekansiz, aytamiz-da. Bitta ikkita tovuq chig'irtmasi[1] bo'lsa yomon bo'lmas edi. Ozgina qovurilgan jigar bo'lsa ham yo'q demaymiz. Go'shtning yumshoq yeridan dumba aralashtirib bir ikki six kabob ham hozirlasin, ko'ngil-da, birdan tortib qolsa yermiz, kuz kechasi uzoq, nima ham deb bo'lardi.

Gumashta Mamad uning so'zini bo'ldi:

— Haqiqatan ham dunyoda shu kuz kechasidan yomon narsa yo'q. U shu qadar uzoqki, oxiri yo'qdek tuyuladi. Yeysan, ichasan, turib tashqariga chiqib kezasan, karta o'ynaysan, darvishning ertagiga quloq solasan, London radiosini tutasan, shunda ham tong otmaydi. Hoy, Musa aka, menga qara, bir-ikki butilka araq topsang qalay bo'larkin, a? Har holda, uzoq kechani o'tkazish uchun o'shandan yaxshi narsa yo'q. Yo afyun chekking bormi? U topiladi. Afyun mendan! Sen esa araq top!

Musa aka ishning chatoqlasha boshlaganini payqadi.

— Insof qilinglar, og'olar, bu atrofda araq nima qiladi? Qishloq joyda araq topilarmidi? Afyunni o'zingiz chekavering. Xohlaganingizcha cheking. Lekin insofni unutmang.

Gumashta Mamad e'tiroz qildi:

— Araqsiz go'sht yeb bo'larmidi? Hazm bo'lmaydi, araq bo'lsa ishtahang ochiladi, badaning qizishadi, rohat qilasan! Xudo xayringni bersin, Musa aka, bizni noumid qilma, bir-ikki shisha topib kelmasang bo'lmaydi.

Ali jandarmboshi Musa akaning ma'yus chehrasiga qarab, gapga aralashdi.

— Musa aka, agar senga malol kelmasa, anavi xurjunni qara, unda bir-ikki shisha bor. O'shalarni olib kel!

[1] Qo'y yoki tovuq go'shti ichiga tuxum solib pishiriladigan taom.

Gumashta Mamad norozi tovush bilan

— Nima u, araqmi? — deb so‘radi.

— Yo‘q, og‘ayni, araq xurjunga solib qishloqma qishloq olib borishga arziydigan narsa emas. Qonyak, a’lo navli fransuz konyagi!

Gumashta Mamad mamnun bo‘lib o‘zicha kulib qo‘ydi.

— Yo‘q, men araq bo‘lmasa ovqat yeya olmayman!

Ali jandarmboshi Musa akaga buyurdi:

— Sen borib haligi xurjundagini olib kel!

Musa aka qorong‘i hovliga chiqib ketgach, Ali jandarmboshi taajjub bilan gumashta Mamaddan so‘radi:

— Muncha araq deb qolding? Konyak ham bor, Sheroz sharobi ham!

Gumashta Mamad kuldi:

— Yoshsanda, og‘ayni, yoshsan! Hech narsaga tushunmaysan!

— Araqni ingliz konyagidan ham, Sheroz sharobidan ham afzal bilish yoshlik bo‘lsa, men haqiqatan ham yosh ekanman.

Gumashta Mamad bunga javoban tirjayib qo‘ydi:

— Ana, aytmadimmi yoshsan deb! Azizim, gap araqda emas. Maqsad anavi isqirt cholni uydan jo‘natish. Mening dardim Gulnoz! Sheroz sharobi araqdan yaxshiligini men ham bilaman. Qishloqda araq bo‘lmasligini ham bilaman. Lekin cholni nariroqqa jo‘natmoqchiman. Endi tushungandirsan?

Musa aka xurjunni keltirib ularning oldiga qo‘ydi. Endi uning harakatlarida dadillik va qat’iyat bor edi. Sariya xolani chaqirib buyurdi:

— Xotin, suv olib kel, og‘olar qo‘llarini yuvishsin. Keyin dasturxonni yoz.

Sariya xola obdastada suvni tezda keltirib, gumashta Mamad bilan Ali jandarmboshining qo‘liga quydi. Keyin dasturxon yozib, non hamda meva-cheva olib chiqdi, Musa aka qovurilgan jigarni dasturxonga qo‘ydi.

— Qani, hozircha shuni baham ko‘rib turinglar!

Ali jandarmboshi konyakni ochib piyolalarga to‘ldirdi. Birini gumashta Mamadga uzatdi.

— Ol, Musa akaning sog‘ligiga!

Musa aka teskari o‘girilib:

— Ming la'nat-ey! — deb qo'ydi o'zicha.

Ular birpasda piyolalarni bo'shatib qovurdoqqa tashlandilar. Gumashta Mamad eshik oldida turgan Musa akaga qarab g'o'ldiragan tovush bilan:

— Hay, Musa aka, balki bir shisha araq topib kelarsan, a? — deb so'radi.

Musa aka qat'iy qilib javob berdi:

— Qishloqda araq topilmaydi!

— Bu yerdan shahar ham uncha uzoq emas. Yarim soatda yetasan. Kel, Musa aka, bizga bir yaxshilik qil. Mening otimga minib, shaharga tush. Araq olib kel. Mana bu pulni ol. O'n tuman. Araq to'rt tuman turadi. Qolgani o'zingniki. Qani, bo'laqol tezroq!

Musa aka biroz o'ylab olgach:

— Xo'p bo'ladi, olib kelaman. Pulingizni yoningizga solib qo'ying. Siz mening mehmonimsiz, hamma xarajat ham mendan, — dedi-da, qat'iy bir harakat bilan o'rnidan turib, hovliga chiqdi.

Gumashta Mamad Musa akaning jo'nab ketganiga qanoat hosil qilish uchun eshik oldiga kelib, uni kuzatib turdi.

Musa aka to'g'ri otlarning oldiga bordi. Bo'z otni egarlab chiqdi. Otga minarkan uning oldiga Gulnoz keldi.

— Ota, shunday kechada qayerga ketayapsiz? — deb so'radi titroq tovush bilan.

— Ishing bo'lmasin, qizim! — dedi Musa aka quruqqina kulib. — Mehmonlardan xabar olib turinglar.

Keyin Sariya xolani bir chetga chaqirib, allanimalar deb shivirladi-da, otga qamchi bosdi. Birozdan so'ng otning tuyoq tovushi zim-ziyo kuz kechasining qo'ynida eshitilmay qoldi.

Mehmonlar yeb, ichib o'tirdilar. Ali jandarmboshi ichgan sari yechilib, chakagiga zo'r beradigan odamlardan edi. Shuning uchun u gumashta Mamadga navbat bermay, hadeb o'zining qishloqlardagi sarguzashtlaridan so'zlar, bir hikoyasini tugatmay ikkinchisini boshlar edi:

— Sen nimani ham bilasan! Namin degan joyda go'zal juvonlar juda ko'p bo'ladi. Bir kun otda o'tib ketayotgan edim, lo'ppigina bir kelinchak ko'rinib qoldi. Erga tekkaniga ham bir oydan oshmagan bo'lsa kerak. Uzi ham juda rohatijon ekan! Poylab yurib, bir kun shartta hovlisiga kirib bordim. Eri dalaga ekin

sug‘organi ketgan ekan. Uyda qari kampir bilan yosh bolalardan boshqa hech kim yo‘q edi. Hamma yotguncha o‘tirdim. Kelin qaynanasi bilan bolalar o‘rtasida o‘ziga joy soldi. Kutib yotdim, u ham uyquga ketdi. Hamma uyquga ketdi. Kechasi allavaqt bo‘lib qolganda o‘rnimdan turdimda, borib kelinning qo‘yniga kirdim. Uyg‘onib dodlamoqchi bo‘ldi. O‘zingni ham eringni ham o‘ldiraman dedim. Yolvordi, shirin so‘z bilan avramoqchi bo‘ldi. Quloq solmadim. Men shirin gapga laqqa tushadiganlardan emasman. Tong otganda otimga minib, qishloqdan chiqib ketdim.

Gulnoz kabob keltirdi. Dasturxonga qo‘yib, chiqib ketmoqchi bo‘ldi. Gumashta Mamad mast ko‘zlari bilan qizga tikildi. Qiz boshini quyi soldi. Mamad o‘rnidan turib, qizning bilagidan ushladi:

— O‘tir, xonim qiz, o‘tir, biz bilan ovqatlan! Bitta jaz yesang nima qiladi? — deb qizni o‘ziga tortdi. Gulnoz siltanib uning qo‘lidan chiqdi-da, uyning o‘rtasiga borib, unga g‘azab bilan qaradi.

— Bunday fikrlaringizni tashlang, og‘o! Men siz aytganlardan emasman!

— Sendan o‘tkirroqlarini ham ko‘rganmiz...

— Jindakkina or-nomusingiz bo‘lsa, mehmon bo‘lib kelgan ekansiz, mehmonday chiqib keting! Bo‘lmasa non-tuzning uvoliga uchraysiz!..

Gulnoz gumashta Mamadning javobiga quloq solmay, chiqib ketdi.

Ali jandarmboshi qizning go‘zalligini go‘yo endi sezgandek:

— Bunday go‘zalni sira ko‘rmagan edim. Dunyoning boj-u xirojiga arziydi, — deb qo‘ydi.

Gumashta Mamad unga rashk bilan qaradi, raqibidan qutulmoqchi bo‘lib:

— Rostimni aytsam, men shu qizni olmoqchiman, — dedi. — Jiddiy aytayapman. Qishloqi bo‘lsa nima? Menga juda yoqib qolgan-da!

Ali jandarmboshi uning chakagidan ushlab silkitdi. U gumashta Mamadning maqsadiga tushunib qolgan edi, bunaqangi ishlardan o‘zining ham tajribasi kam emasdi.

— Sen kimni aldamoqchi bo‘layapsan, og‘ayni? Aldab nima qilasan? Qo‘rqma, xotirjam bo‘laver, men aralashmayman. Men senga o‘xshagan fe’li tor emasman.

Ular yana bir piyoladan ichishdi.

— Haqiqatan ham go'zal narsa ekan! — deb qo'ydi Ali jandarmboshi.

Gumashta Mamad u bilan janjallashishdan qo'rqib, hiyla ishlata boshladi:

— Ali, yaxshi emas bu ishing! Bir odamning tuzini ichib turib, qiziga ham ko'z olaytirasanmi? Kel, shu yaramas ishning bahridan o'taylik. O'zi hali yosh, buning ustiga bir kambag'al bechoraning qizi. Bunday nomardlik qilish yigit kishiga yarashmaydi. Kel, umrimizda biz ham bir inson kabi ish qilaylik!

Gumashta Mamad Ali jandarmboshini ichirib, mast qilib uxlatmoqchi, Gulnoz to'g'risidagi niyatidan qaytarmoqchi, keyin o'z maqsadiga erishmoqchi bo'ldi. Lekin Ali jandarmboshi buni tushundi:

— Azizim Mamad, — dedi u. — Sen bu hunaringni menga ishlatma. Meni alday olmaysan, men bunday ishlarni endi ko'rayotganim yo'q. Mening o'zim ko'p odamlarni aldab kelganlardanman. Senga o'g'il bola so'zni aytay. Qiz uch soat sening ixtiyoringda, shu fursat ichida bilganingni qil. Qarshilik yo'q. Uch soatdan keyin meni o'zi ham to'xtatolmaydi. Vassalom! Mening shartim shu, nima deysan, rozimisan?

Gumashta Mamad uning yuziga shapatilab qo'ydi:

— Sen mendan ham hayosiz ekansan! Roziman!

Chig'irtmani ham yeb bo'lishdi, konyak ham, sharob ham tugadi. Shunda gumashta Mamad Ali jandarmboshiga qarab:

— Endi sen yot! — dedi. — Vaqt bo'lganda o'zim uyg'otaman.

— Ovora bo'lmay qo'yaqol o'zim ham uyg'onaman, — deb javob berdi-da, Ali jandarmboshi yechinmasdanoq so'ri ustiga cho'zildi. Ko'p o'tmay uy xurrak tovushidan zirillay boshladi. Gulnoz kirib, dasturxonni yig'ishtira boshladi. Gumashta Mamad tashqariga chiqdi. Toza havoda kerishdi. Qishloq jimjit edi. Ahyon-ahyonda itlar hurib qo'yardi. Gumashta Mamad ichkari kirib dasturxonni yig'ishtirayotgan Gulnozni quchoqladi. Qiz yana siltanib, uning qo'lidan chiqdi. Mamad eshikni yopdi.

— Hay qiz, men senga oshiq bo'lib qoldim, seni olmoqchiman. Shaharga olib ketaman, xonim bo'lasan!

G‘azabdan yanoqlari o‘t bo‘lib yongan Gulnoz:

— Meni qo‘yib yubor! — deb qichqirdi.

Gumashta Mamad qizga yopishib, dast ko‘tarib oldi. Gulnoz uning yuz-ko‘zini yumdalar, tipirchilar, o‘zini qutqarishga urinardi. Lekin qo‘zichoqni tutib olgan bo‘ridek gumashta Mamad qizni mahkam ushlab olgan edi. Nihoyat u qizni o‘ringa bosdi. Shu payt baquvvat bir qo‘l uning yelkasidan mahkam ushlab orqaga tortdi-da, o‘zini o‘nglab olishiga ham qo‘ymay, og‘ilga tomon surib ketdi.

— Xotin, arqonni ber!

Sariya xola arqonni olib keldi. Musa aka gumashta Mamadning oyoq qo‘lini chambarchas qilib bog‘ladi. Mamad taajjub bilan Musa akaga qaradi.

— Hay, chol, Ardabilga darrov borib keldingmi?

— Men ahmoq ekanman-da, xotin, bola-chaqamni sendek nomardlarning qo‘liga topshirib shaharga ketsam!

Tuf betingga! Or-nomusing bormi? Seni non ko‘r qilsin, non-ko‘rlikdan ham toymading!

— Tavba qildim, Musa aka, gunohimni kechir. Oyoq-qo‘limni yech, sharmanda qilma!

— Yo‘q, yechmayman. Ertalab butun qishloqni chaqiraman. Qanday sharmanda bo‘lganingni ko‘rib qo‘yishsin!

Gumashta Mamad yalindi, yolvordi, lekin Musa aka quloq solmadi. Keyin Mamad do‘q qilishga o‘tdi. Bu ham Musa akaga kor qilmaganini ko‘rib, jim bo‘ldi. Boshini quruq yerga qo‘yib, molxonaning bir burchagida uxlab qoldi.

Musa aka Ali jandarmboshi yotgan uyning eshigini tashqaridan tambalab, bolalarning oldiga kirib ketdi.

* * *

Vaqt yarim kechadan oqqanda Ali jandarmboshi uyg‘onib, xonani ko‘zdan kechirdi. Qorong‘ida hech narsa ko‘rinmasdi. Mamadni chaqirdi. Javob bo‘lmadi. Gugurt chaqdi. Xonada hech kim yo‘q edi. Hayron bo‘ldi.

“Bu itvachcha gumashta Mamadning ishi”, deb o‘yladi-da, turib eshikni itardi.

Eshik tashqaridan tambalangan edi. G'azablanib qo'l va oyoqlari bilan eshikni taqillatdi. Qichqirdi, shovqin-suron ko'tardi. Lekin itlarning hurishidan bo'lak tovush eshitilmadi.

— Yaxshi! Itvachcha Mamad seni bir boplamasam, Ali otimni boshqa qo'yaman! — dedi-da, o'rniga kelib yotdi. Birozdan keyin yana uyni boshiga ko'tarib xurrak torta boshladi.

Ertalab tong otishi bilanoq Musa aka qo'ni-qo'shnilardan bir necha kishini chaqirib:

— Boshimga mana shunday musibat tushdi, guvoh bo'linglar!..— dedi.

Qo'shnilar bosh chayqashib, taassuf bildirishdi. Gumashta Mamad bilan Ali jandarmboshi shubhasiz o'ch olajagini aytdilar.

— Endi bu yerda senga kun berishmaydi, vaqti g'animatda biror joyga ko'chib ket! — deb maslahat berdilar.

— Qayerga ham borardim! Buning ustiga qish kirayapti. Hammamiz sovuqqa qotib o'lamiz, ochlikdan xarob bo'lamiz. Nima bo'lsa ham o'z uyimda bo'lsin. Hech qayerga ketmayman!

U to'plangan dehqonlar oldida gumashta Mamadning oyoq-qo'lini yechdi. Ali jandarmboshini uydan chiqardi. Otlarini egarlab, jilovini qo'llariga berdi:

— Xush kelibsiz, og'olar, xush ko'rdik! — deb ularga eshikni ko'rsatdi.

Gapning tagiga endi tushungan Ali jandarmboshi:

— Shundaymi hali! Shu esingda tursin, Musa aka! — dedi-da, otga qamchi urdi.

Gumashta Mamad indamay, uning ketidan bo'z otining boshini qo'ydi. Ular kuz tongining changgi ichida ikki qora nuqta singari g'oyib bo'ldilar. Musa akaning qo'li ishga bormadi. Nimaga qo'l urmasin ishi unmasdi. Uyda birov o'lgandek, hamma motamda edi. Hammalari boshlariga biror kulfat tushishini sezardilar. Bolalar ham buni sezganday indamasdilar.

Kechga yaqin qishloq chetida bir necha otliq kishi ko'rindi. Bular jandarmlar edi. Gumashta Mamad bilan Ali jandarmboshi ularning oldida kelmoqda edilar. Ular qishloqqa kirgach, to'ppa-to'g'ri Musa akaning hovlisiga qarab yurdilar. Buni ko'rib qo'ni-qo'shnilar ham o'sha yerga to'planishdi. Gumashta Mamad otdan tushib, Musa akaning yoqasidan ushladi:

— O‘n yildan beri arbobga suv puli to‘lamaysan! — deb qichqirdi bo‘g‘iq tovushda. — Sigirni ham, eshakni ham, qo‘ylarni ham olib chiq buyoqqa!..

— Gumashta Mamad, — dedi g‘azabdan qorayib ketgan Musa aka, — bor o‘zing olib chiqaver! Kuch hozir sening tarafingda! Nima xohlasang qilasan. Mayli, qilaver!.. Bir kun bu zulmlaringning azobini tortasan!..

Ali jandarmboshi gapga aralashdi:

— Hoy, chol, gapni ko‘paytirma! Olib chiq mollarni!

Musa akaning qimirlamaganini ko‘rgach, jandarmlarga buyurdi:

— Mollarni haydab chiqinglar! Tezroq!

Jandarmlar og‘ilga kirib bo‘g‘oz sigirni, eshakni va qo‘ylarni haydab chiqdilar. Sariya xola bilan bolalar yig‘lay boshladilar. Ularni turtib yuborib, jandarmlar mollarni hovlidan haydab chiqdilar.

Gumashta Mamad Musa akaga xo‘mrayib qarab:

— Senga besh kun muhlat: qishloqni bo‘shatib qo‘y! Qayoqqa borsang boraver — to‘rt tomoning katta ko‘cha! — Menga desa jahannamga bor! — dedi-da, otini yetaklab chiqib ketdi.

O‘sha kun kechasi Musa aka qalpog‘ini bostirib kiydi, jun sharfini bo‘yniga o‘radi, qiyiqchaga non tugib yo‘lga tushdi:

— Shohning oldiga boraman! Arz qilaman!

Shu umidda u Tehronga jo‘nadi.

Lekin gumashta Mamad bilan Ali jandarmboshi shu bilan tinchib qo‘ya qolmadilar. Shaharga kelib Musa akaning mol-mulkini musodara qilish va o‘zini oilasi bilan birga Ardabildan haydash haqida buyruq oldilar. Sho‘rlik cholni tamom yo‘qotib yuborish uchun imkoniyat tug‘ilganini ko‘rib, ular shaharda bir soat ham turmay, otlarining boshini yana qishloqqa burdilar.

Musa akaning Tehronga ketganini eshitib battar g‘azablandilar. Sariya xolaning qo‘lidan sudrab hovlidan olib chiqib tashladilar, bolalarini ham ko‘chaga haydab chiqardilar. Ularni qishloqdan quvdilar.

— Ering qayoqqa ketgan bo‘lsa, o‘sha yoqqa jo‘na!

Sariya xola nochor edi. O‘zidan qo‘rqqan hamqishloqlar ularga yordam ham, tunash uchun uyidan joy ham berolmadi. Chunki gumashta Mamad bilan Ali jandarmboshi:

— Bu shohning amri, Ardabilda bularga joy bergan har bir kishi surgun qilinadi, — deb e'lon qilgan edilar.

Sariya xola Gulnoz bilan birga kichik bolalarini yetaklab, Tehronga qarab yo'lga tushdilar. "So'rab-so'rab cholimni topsam zora!" deb umid qilardi bechora ayol. Lekin u hali boshiga ko'p kulfatlar tushishini bilmas, bir yirtqichdan qutulib, undan ham battarroq yirtqichga tomon yo'l olganidan bexabar edi.

* * *

Kuzning sovuq shamoli Savalonning cho'qqilaridan g'izillab kelib turar, dalalar va qishloqlarni changitib o'tardi. Havo borgan sari soviy boshladi. O'tin-ko'miri yo'qlar, qalin ko'rpalarga o'ralib, oqshomdanoq yotib oladilar! Dekabr tugab bormoqda edi. Kuz borgan sari qishning siquvi ostida chekinmoqda edi. Faqat Musa akaning uyidayagina tutun chiqmas, qosh qorayganda derazasidan chiroq yorug'i ko'rinmas edi. Bu hovlida ayniqsa oqshomdan so'ng jimjitlig hukmron edi. Undan ahyon-ahyonda sayoq itlarning irillashgan tovushigina eshitilib qolardi.

Shunday oqshomlardan birida qishloqqa Faridun kirib keldi. O'ziga tanish bo'lgan va qalbida ming xil xotiralar uyg'otgan ko'chalardan hayajon va intizorlik bilan Gulnozlarning uyiga yaqinlashdi.

Eshikning lang ochiq yotganini ko'rib hayron bo'ldi, keyin birdan dahshatli bir fikr va sirli vahimadan cho'chib ketdi. Hovliga otildi. Hovlining o'rtasida suyak kemirib yotgan allaqanday sayoq it kutilmaganda kirib kelgan odamdan hurkib, irillaganicha og'ilga qochib kirib ketdi. Boshqa it uning suyagini ko'tarib, ko'chaga qarab yugurdi... Faridun supaga chiqdi. Bu supada o'sha kecha onasi va ukalari bilan Gulnoz ham yotgan edi. O'sha kechasi kechirgan his va hayajonlarnni eslab yig'ilib kelgan ko'z yoshlarini zo'rg'a tiydi. Qo'lidagi kichkina chamadonni yerga qo'yib o'tirdi. Uni g'azab aralash g'ussa bo'g'ar edi.

Qishloq jimjit, atrof sukunat ichida. Osmonni qalin bulutlar qoplab olgan. Qora sovuq. Hatto itlar ham qishloqning jimjitligini buzmas edilar. Faridun o'tirdi. Insonlar boshiga tushayotgan son-sanoqsiz kulfat va fojialar to'g'risida o'yladi. Bu xo'rliklar

va ko‘z yoshlarning tugaydigan kuni bormi? Odam baxtini birpasda qora qilib tashlaydigan bu adolatsizliklarning tugaydigan payti kelarmikin?..

Hovliga yana bitta sayoq it kirdi. Hovlida odam borligini payqab, hayronlik bilan bir hurib qo‘ydi-da, og‘ilga kirib ketdi. U yerdan ikki itning irillashgani eshitildi, birozdan so‘ng yana jimlik cho‘kdi. Faridun chemodanni ko‘tarib, ko‘chaga chiqdi. Shaharga qaytishdan oldin qarindoshlari to‘g‘risida biror ma’lumot olmoqchi bo‘lib, yugurganicha Hasanalining hovlisiga keldi. Hasanalining xotini eshik ochgani chiqdi. Faridunni ovozidan tanib sevinib eshik ochdi-da, uni quchoqlab yig‘ladi. Musa aka oilasining boshiga tushgan musibatlarni gapirib berdi.

Faridun Hasanalining bo‘yra ustida churuk-churuk ko‘rpalarga o‘ralib yotgan bolalarini ko‘rib, chuqur xo‘rsindi-da:

— Hasanali aka qayerda? — deb so‘radi.

— Qayerda bo‘lar edi? — deb yig‘ladi Gulsum. — Ko‘rdiki, uyda yotavergani bilan tirikchilik o‘tmas ekan, uyda o‘tirsa, bolalarni urishishdan boshqa narsa qo‘lidan kelmas ekan. Shundan keyin bir qancha duolarni yodlab, masjidga jo‘nadi. Besh-olti kun masjidda yashadi. Panjshanba kunlari o‘lganlarning arvohiga duoyi fotiha o‘qib o‘tirdi. Qishloq masjidi, unga nuqul kambag‘allar qatnaydi, daromadning mazasi bo‘lmadi. Sudrala-sudrala bir amallab Ardabilga yetib oldi. Yaqinda Ardabildan kelganlarning aytishicha, juma masjidi oldida turadigan tilanchilarga qo‘shilib olgan emish...

Faridunni birov bo‘g‘ayotgandek bo‘ldi. Tasalli bergani so‘z topolmadi. Chamadonini ochib, Musa akaning bolalariga atab olib kelgan kiyim-boshlarini Gulsumga berdi, bechora ayolning duosini olib qishloqdan chiqib ketdi.

O‘N TO‘RTINCHI BOB

Rizo shoh mashinani saroyga yetmasdan, Pahlaviy ko‘chasida to‘xtatdi-da, odatiga xilof o‘laroq, piyoda keta boshladi. Uni harbiy formali kishilar o‘rab olishgan bo‘lib, sarhang Safoiy ham shular orasida edi. Shoh shoshmasdan qadam tashlar va qovog‘ini solib atrofga qarar edi. Uni ko‘rgan odam yo biror magazinga o‘zini urar, yo turgan yerida ta’zim qilib turar, yo devor tagiga suqilib, shohning o‘tib ketishini kutar edi. Hatto xaridor chaqirib jag‘i tinmaydigan do‘kondor yo magazinchilarning ham nafasi ichiga tushib ketar, ular ichkariga o‘zlarini urardilar. Maktab bolalari va chodralarini tashlagan bo‘lsalar ham ro‘mollari bilan betlarini yashirgan ayollar ham shohga duch kelgach, yashin urgandek qotib qolishar, nafaslari ichlariga tushib, yuzlarini chetga burardi. Ko‘chada go‘yo dahshatli arvoh, har tarafga o‘lim sochuvchi qora bir soya kelayotgandek tuyuladi. Bu zulm va istibdod timsoli edi. U qadam qo‘ygan yerga qabriston jimjitligi cho‘kar, u o‘tib ketgandan keyin kishilarning rangiga qon yugurib, yengil nafas olishar edi. Shohning qora yuziga qaragan odamlarning ko‘z oldiga zindonlar, dorlar, zulm va azob-uqubatlarda qurbon bo‘lib ketgan odamlar kelar edi. Shoh esa takabburlik bilan qaddini g‘oz tutib borar, rangi o‘chgan, ko‘zlari cho‘kib ketgan odamlarning betiga qaramas ham edi. Kim bilsin, u bu odamlarni odam o‘rnida ko‘rmasmidi, yoki ularning betiga qarashdan qo‘rqarmidi.

U Pahlaviy ko‘chasidan saroy ko‘chasiga chiqib, marmar saroyiga yaqinlashganida, kutilmagan hodisa yuz berdi. Qo‘qqisdan, soch-soqoli oqarib ketgan, juldir-juldir kiyimga o‘ralgan bir chol podshohning oyog‘iga o‘zini tashladi. Shoh qo‘rqib ketganidan beixtiyor bir qadam orqaga tisarildi. Uni hech vaqt tark etmagan qo‘rquv butun vujudini titratdi. Lekin oyoqlari ostida yotgan odamning suiqasd qiladigan kishi emas, qoq suyak bo‘lib qolgan ojiz bir qashshoq ekanini ko‘rib, biroz o‘zini bosdi-da, unga g‘azab

bilan qaradi. Baland bo'yli, yanoqlari qip-qizil, bo'yni yo'g'on bir sartib bilan sarhang Safoiy cholga tashlanib, uni chetga chiqarib tashlamoqchi bo'ldilar. Lekin chol bor kuchi bilan qarshilik ko'rsatib, Rizo shoh tomon emaklay boshladi. Rizo shoh o'ng qo'lini amirona ko'tardi. Sartib bilan sarhang chetga chiqdilar. Shoh g'azab bilan chaqnagan ko'zini cholning yuziga tikib, fors tilida so'radi:

— Nima deysan, chol?

Chol duo o'qiyotgandek qo'llarini ko'tarib, ozarbayjon tilida javob berdi:

— Ko'kda — Alloh taolo, yerda sen, a'lohazrat. Senga sig'inib keldim! Bolalaringga qurbon bo'lay, bolalarimga rahming kelsin.

Rizo shoh g'azabdan qorayib ketgan yuzini Hakim ul-mulkka o'girdi:

— Bu eshaklarga hali ham inson tilini o'rgatmabsanlar-da! Quloq sol, pima deyapti u?

Hakim ul-mulk Rizo shohning otliq kazaklar polkida xizmat qilib yurgan paytlarida ozarbayjon tilini yaxshi o'rganganini bilar edi, lekin Ozarbayjon xalqiga nisbatan nafratining nihoyatda kuchli ekanidan, u qasddan bu tilda so'zlashmasdi. Hakim ul-mulk shohni battar g'azablantirmaslik uchun yarim forscha, yarim ozarbayjoncha qilib:

— Qariya, che mexohi, nima arzing bor? — deb so'radi.

Musa aka nima qilishini bilmay bir shohga, bir Hakim ul-mulkka qarab, chuqur botib ketgan ko'zlarini pirillatdi:

— Sadag'ang ketay, og'o, Ardabil tomondan keldim. Mening butun umidim shohdan! Menga rahming kelsin!

— Arzingni gapir, chol! — dedi Hakim ul-mulk sekin, lekin g'azab bilan.

— Shikoyat qilib keldim, sadag'ang ketay, shikoyat qilib keldim! Pichoq borib suyakka qadaldi. Arbobning, jandarmlarning, gumashtaning zulmi jonimizdan o'tib ketdi. Arzimizga hech kim quloq solmaydi.

Rizo shohning asabiylasha boshlaganini sezgan Hakim ul-mulk yana Musa akaning gapini bo'ldi:

— Hay chol, — dedi u shartta kesib, — o'z arzingni aytsangchi!

Musa aka shoshib qoldi, arzini eshitmay ketib qolishlaridan qo'rqib, shosha-pisha gapira boshladi:

— Juda dardim buyuk. O'n yil burun arbobdan ozgina suv puli qarz bo'lib qolgan edim. O'n yildan beri to'layman-u, lekin sira uzolmayman. Kamayish o'rniga borgan sari ko'payib ketaverdi. Nima qilay, qarzim borgan sari oshib bordi. Bunga bir narsa demayman, birovning halol haqi ekan, mayli olsin. Foizsiz qarz bo'lmaydi. Har yil undan-bundan qisib-qimtib, bolalarning nafsini qiyib to'layman, qutulay deyman sira qutulolmayman. Bu yil menga ayniqsa og'ir bo'ldi. Hosilimiz yaxshi bitgan edi, lekin hammasini arbob tortib oldi. Qarz esa yana mening gardanimda qolaverdi. Hali jandarm kelib, hali gumashta kelib qarz qistaydi. Mening qizim bor. Ular qizimga ham ko'z olaytira boshlashdi. Nomusimizga tegmoqchi bo'ldilar. Pichoq borib suyakka qadaldi. Toqatim toq bo'ldi. Uyimdan sigirimni, odobsizligimni kechiringlar, eshagimni, qo'ylarimni olib ketishdi. Yeydigan hech narsamiz qolmadi. Ochdan o'lishimiz qoldi, xolos. Mana shundan keyin ochlik va tashnalikka chidab, sudrala-sudrala shu yerga keldim. Ikki oydan beri ko'chalarda sarson-sargardon bo'lib yuribman. Arzimga quloq soluvchi kishi yo'q. Tilanchilik qilib kun ko'ryapman. Farmon bersang mollarimni qaytarib berishsa, bo'lmasa bolalarim ochdan o'ladi. Oyoqlaring ostida jon beray! Meni xalos et!

Musa aka tiz cho'kkan holda qo'llarini osmonga ko'tarib, Rizo shohning g'azabli basharasiga tikilib qoldi.

Hakim ul-mulk cholning arzini ikki ogiz so'z bilan shohga tushuntirdi. Shoh sarhang Safoiyga o'girildi:

— Bu cholni zindonga tashla, chirib ketsin!.. Yashab nima qiladi?! Jandarmga so'z qaytargani uchun mol-mulki musodara qilinsin! Oilasi ham surgun qilinsin! — deb ketmoqchi bo'lgan edi, lekin hech narsa tushunmagan Musa aka yana shohning oyog'idan quchoqladi:

— Qurboning bo'lay, menga yordam qil!

Shoh allanarsani eslagandek yana to'xtadi, birpas o'ylanib qoldi. Cholning nomini so'radi. Musa aka shohning rahmi keldi, shekilli, deb o'yladi-da, dadillanib nomini aytdi. Lekin shoh uning

otini eshitish bilan tutoqib ketdi, cholni bir tepdi-da, sarhang Safoiyga qarab:

— Bu yana o'sha Musa bo'lmasin? Nima uchun u erkin yuribdi? — deb so'radi.

Sarhangning rangi o'chdi:

— Biz uni axtarayapmiz, a'lohazrat, — dedi u titrab.— Qishloqdan qochib ketgan ekan...

— Yaxshi axtaribsizlar? Olib bor buni, terisiga somon tiq! Faridunning qayerdaligini aytmaguncha qo'yma!

— Bachashm,[1] a'lohazrat!

Bularning gapidan hech narsa tushunmagan Musa akaning tovushi yana eshitildi:

— Menga rahming kelsin, shohim...

Rizo shoh saroy darvozasi tomon qadam tashlar ekan:

— Ovozini o'chir! — deb buyurdi.

Harbiy kishilar darhol bechora cholning ustiga tashlandilar. Uni ko'tarib, sudrab ketmoqchi bo'ldilar. Lekin u harbiylar qo'lidan siltanib chiqib, yana shohning yo'lini to'sdi. Musa akaning titrab aytgan so'zlarida qat'iylik va kuch sezilardi:

— Men sening zolimliging to'g'risida ko'p gaplarni eshitgandim-u, ammo o'z ko'zim bilan ko'rmagandim. Mana endi ko'rdim! Sen ham meni tepib o'tding. Jandarmlar va gumashtalarning boshimga solgan musibatlarini eshitmading, Xudodan qo'rqmading. Mayli zarari yo'q, bu yarimtalik dunyo hamma vaqt birdek turmaydi. Senga o'xshash zolimlarning toj-u taxtdan mahrum qilgan!.. Sening ham qilmishingga yarasha jazo beradi. Endi ketaver, yetimlarning ohi va yig'isi, keksalarning faryodi yoqangdan tutsin!

Musa akani sudrab keta boshladilar. Lekin u yurmas, oyog'ini mahkam tirab gapirar va so'kar edi. Faqat og'ziga latta tiqib qo'yganlardan keyingina ovozi tindi.

Rizo shoh hech narsa demay saroyning marmar zinalaridan ko'tarilib, ichkari kirib ketdi. Uning ketidan soya kabi ergashib kelayotgan saroy ministriga qayrilib ham qaramadi. Hakim ulmulk ham bir ko'lanka singari so'zsiz o'z xonasiga chekildi...

[1] **Bachashm** — "ko'z ustiga" ya'ni "xo'p bo'ladi" demak.

* * *

Hikmat Isfahoniy o'zining Mozandarondagi bog'ini Rizo shohga sovg'a qilgani va bu uning o'z shahanshohiga cheksiz muhabbati ifodasi ekanini bildirib shohga alohida xat yozmoqchi bo'ldi. Rizo shohga ming-ming la'natlar o'qib, ming ohangda oh-voh qilib xatni yozib bo'ldi-da, uni bog'ning vasiqalariga qo'shib, Hakim ul-mulkka yubordi. Saroy ministridan a'lohazratni shu arzimas sovg'ani qabul qilishga ko'ndirishni iltimos qildi. Hakim ul-mulk ikki bukilib, qog'ozlarni shohning oldiga qo'yganda, shoh avval bularning nima ekaniga tushunmadi.

— Og'oyi Hikmat Isfahoniy siz a'lohazratga Mozandarondagi bog'ni sovg'a qilibdi, uning ra'yini qaytarmay, bog'ni o'zingizning mulklaringiz hisobiga o'tkazishingizni iltimos qilayapti, — deb tushuntirdi.

Rizo shoh tirjaydi.

— Vazir, og'oyi Hikmat Isfahoniy meni noqulay ahvolda qoldiribdi. Yaxshisi og'o uning bahosini aytsa bo'lardi, pulini to'lardik.

— Yo'g'-ey, a'lohazrat, bu nima deganingiz? Og'oyi Hikmat Isfahoniy xafa bo'ladi.

— Bu... o'z xohishi bilanmi? Yoki?

— O'z xohishi bilan, albatta, a'lohazrat.

Biroz sukunatdan so'ng Hakim ul-mulk yana davom etdi:

— Hikmat Isfahoniy juda g'alati odam-da, a'lohazrat.

— Nega? Biror narsa dedimi?

— Dedi, a'lohazrat.

— Nima dedi?

— Aytishga tilim bormaydi, a'lohazrat.

Rizo shoh qichqirib yubordi:

— Gapir! Nima dedi?

Hakim ul-mulk Hikmat Isfahoniyning hamma haqoratlarini birma-bir shohga yetkazdi.

Rizo shoh shartta o'rnidan turib, asabiy bir holda xonada kezindi.

— Uni mening huzurimga qachonga chaqirgansan?

Hakim ul-mulk soatiga qaradi.

— U hozir yetib kelgan bo‘lishi kerak, a’lohazrat.

Rizo shoh zangni bosmoqchi bo‘lgan edi, lekin Hakim ul-mulk uni to‘xtatdi.

— Uzr so‘rayman, a’lohazrat, og‘oyi sartib Salimiy juda achchig‘lanib ketdi.

— Nega?

— Shamsiya xonimga uylanishga rozi emas.

— Rozi bo‘ladi! — dedi Rizo shoh va joyiga o‘tirib, zangni bosdi.

Eshikdan kirgan xizmatchiga Hikmat Isfahoniyni kiritish va darhol sartib Salimiyni chaqirishni buyurdi.

— Men u bilan yozib yuborgan qog‘ozi to‘g‘risida gaplashmoqchiman, — dedi Rizo shoh.

— Bachashm.

Ikki minut o‘tar-o‘tmas Hikmat Isfahoniy kirib ta’zim qildi. Eron odaticha dabdabali so‘zlar bilan shohning sog‘-salomatligini so‘radi. Bu maqtov shohni sira xursand etmagani, aksincha, u g‘azablanib o‘tirganini ko‘rib vazirga qaradi. Rizo shoh unga o‘tirish uchun joy ko‘rsatdi. U Hakim ul-mulkning qarshisidagi kresloga o‘tirdi.

Shoh Mozandarondagi bog‘ning hujjatlarini Hikmat Isfahoniy oldidagi stolga uloqtirdi.

— Ol, o‘zingga siylov! Men sening xayr-ehsoningga zor emasman!

Hikmat Isfahoniy taajjub bilan bir shohga, bir Hakim ul-mulkka qaradi.

— A’lohazrat, bu ojiz bir qulingizning sizga sovg‘asidir. So‘rar edim, uni qabul qilib meni shod etsangiz..

Rizo shohning g‘azabi qaynab ketdi:

— Mamlakatning yarmini yeb to‘ymayotgan kim? Senmi yoki menmi? Xalqning yetti qavat terisini shilib olayotgan kim? Sen emasmi? Ming hiyla-yu nayranglar bilan mamlakatning qonini so‘rib yotgan kim? Sen! Chet ellar bilan til biriktirib, besh qironlik molni o‘ttiz qronga sotadigan ham sen! Ha, sen, sen!

Hikmat Isfahoniy bu ayblashlarga qarshi nima qilishini bilmas, goh shohga, goh Hakim ul-mulkka qarar, shohga e’tiroz bildirishga botina olmas edi. Hakim ul-mulk esa uning qarashlaridan:

"Xayr, mayli, og'oyi Hakim ul-mulk, shu qilgan ishing esingda tursin, men ham qaytaraman!" deb yonib o'tirganini sezib turardi.

Nihoyat Rizo shoh jim bo'ldi. Bundan foydalanib Hikmat Isfahoniy o'rnidan turdi:

— A'lohazrat, — dedi u muloyimlik bilan, — hammamizning ham sizga ixlosimiz baland, bunga Xudo shohid. Siz Eronning sharafi, bizning iftixorimiz, hukmdorimizsiz. Bir mulk turib ming mulkimiz, bir bog' emas, ming bog'imiz, bir jon emas, ming jonimiz sizga qurbon! Nima dedingiz, a'lohazrat?

U Rizo shoh uloqtirib urgan qog'ozlarni olib borib yana shohga tutdi:

— Sizdan ojizona iltimos qilaman, a'lohazrat. Bu bechora qulingizning ko'nglini shod eting. Oling shu bog'imni, Ardabilda yana bitta yaxshi bog'im bor, u ham juda go'zal va nash'ali, jannatdek joy, o'shani ham a'lohazratga tayyorlayotgan edim. Ertagayoq uning vasiqasini ham taxt qilib yuboraman.

U Rizo shohning yumshaganini ko'rib, qo'lidagi vasiqani avaylab shohning oldiga qo'ydi-da joyiga kelib o'tirdi.

— Har qanday farmoningizga hozirman, a'lohazrat.

Rizo shoh boshini ko'tarib:

— Shamsiya xonimning sog'ligi qalay? — deb so'radi.

— Xudoga shukur, soyayi davlatingizda sog'-salomat yuribdi.

— Biz uning og'oyi sartib Salimiyga erga chiqishi uchun ruxsat etdik, — dedi buyruq ohangda, — sen nima deysan?

Bir onda miyasidan ming xil fikr kechgan Hikmat Isfahoniy e'tiroz bildirib bo'lmasligiga darhol tushundi.

— Qiz sizniki, a'lohazrat, siz otasiz. Kimni lozim ko'rsangiz, o'shanga beramiz.

— Biz sartib Salimiyni lozim ko'rdik. Nikohni ham mumkin qadar tezroq o'tkazinglar.

— Bachashm, a'lohazrat!

Shu payt xizmatchi kirib, sartib Salimiyning kelgani haqida xabar berdi.

Rizo shoh uni kiritishni buyurdi.

Rizo shoh Tehron siyosiy doiralarida Sovet Ittifoqining do'sti sifatida tanilgan bu odamdan foydalanmoqchi edi. Uni ham Ang-

liya-Eron bitimi komissiyasi jamoasiga kiritib qo'ymoqchi edi. Tuzilayotgan bu bitimlarning asl mohiyatini pardalash uchun bundan ko'ra yaxshiroq vosita topish qiyin edi.

Sartib Salimiy esa o'zini saroyga, Rizo shoh huzuriga chaqirilganini eshitib, hayotidagi eng mas'uliyatli payt kelganini fahmladi. Uzoq yillar orzu qilib yurgan fursatga yetishgan edi. U o'zining butun fikrlarini, hatto yozib bermagan gaplarini ham Rizo shohga ochiq aytib bermoqchi, mamlakatni boshqarish ishida tubdan o'zgarishlar yasash lozimligini tushuntirmoqchi edi. Ana o'shanda, Eron tarixida yangi bir davr, xalqqa tayanadigan adolatli hokimiyat va taraqqiyot davri boshlanadi!..— deb o'ylardi sartib Salimiy.

Shu fikrlar bilan saroyga yo'l oldi. O'zini tutishga urinar, lekin shodligidan yuragi gurs-gurs urardi.

Sartib ichkari kirib, hurmat bilan shohga ta'zim qildi-da, muhabbat jo'sh urib turgan ko'zlari bilan unga tikildi: ishongan bog'i, suyangan tog'i, har ishni Eron uchun qiladigan va adolatli deb bilgan shohi uning ro'parasida turardi.

Rizo shoh esa uning vujudida og'ir iztiroblar va qat'iyat alomatlarini ko'rdi. O'tirishga ruxsat berib, joy ko'rsatdi.

Salimiy Hikmat Isfahoniy bilan Hakim ul-mulk o'rtasidagi bo'sh kresloga o'tirdi-da:

— Amringizga muntazirman, — dedi.

Rizo shoh darhol ishga o'tdi:

— Og'oyi vazir, boshlang! — deb qisqa buyruq berdi u.

Hakim ul-mulk o'tirgan joyida qo'rqibgina bir qimirlab qo'ydi-da, gap boshladi:

— Dunyo siyosati o'z tarixining yangi pallasiga kirdi. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlar nihoyatda keskinlashdi va noma'lum hamda qorong'i bir tus oldi. Rossiya — Germaniya bitimi siyosat va diplomatiya olamida hech kutilmagan voqea bo'ldi va o'q davlatlarni Sovet Rossiyasiga qarshi urushga tashlash umidini puchga chiqardi. Shuning uchun Angliya hukumatining qudratli o'q davlatlarni ruslarga qarshi gij-gijlab, shu vosita bilan butun dunyoni bolsheviklar xavfidan qutqarishga bo'lgan umidlari ham hozirgi vaziyatda butunlay bo'lmasa-da, qisman puchga chiqdi. Ma'lumki, inglizlarning shu siyosati bilan bizning hukumatimiz siyosati

ham chambarchas bog'liq edi. Nemislarning ruslar bilan murosasi qanchalik uzoqqa cho'zilishi — bu hali boshqa masala. Har holda hozir ruslarning o'z siyosatlarida birdan, kutilmagan bir qadam bilan inglizlarni nemislarga qarshi urush holatida qoldirganlari fakt, biz bu bilan hisoblashmay ilojimiz yo'q. Lekin hozir rus qo'shinlari vaqtdan foydalanib, Rossiyaning g'arbidagi ruslarga dushman bo'lgan mamlakatlarning chegaralarini buzmoqdalar. Polshaning yarmisi bilan Boltiqbo'yi mamlakatlari ruslar qo'liga o'tdi. Voqealarning borishi bizga nisbatan ham xuddi shunday bir xavfni tug'diradi. Chunki ruslar bizning mamlakatimizni ham o'sha g'arb mamlakatlari singari o'zlariga dushman deb biladilar, bu hammaga ma'lum. Shu tufayli ruslar g'arbdagi mamlakatlar chegaralarini buzganlaridek, bizning chegaralarimizni ham buzishdan toymaydilar. Bu esa hali fursat o'tmasidan mamlakatning shimoliy chegaralarini mustahkamlashimizni talab qiladi. Bu masalada bizning manfaatlarimiz Angliya va Amerika Qo'shma Shtatlarining manfaatlari bilan bir bo'lganidan biz ularning ba'zi takliflarini qabul qilishga majbur bo'ldik. Xususan, bizning shimoliy rayonlarimizda mudofaa punktlari va aerodromlar qurish uchun inglizlarga ruxsat berdik.

Shu vaqtgacha zalda uyoq-buyoqqa kezib yurgan Rizo shoh ministrning uzindan-uzoq nutqidan zerikib, uning gapini cho'rt kesdi.

— Biz davlat va mamlakatimizning taraqqiyotini nazarda tutib, shimoldagi neftni ekspluatatsiya qilishga amerikalilarga ruxsat berdik, — dedi shoh.

Hakim ul-mulk bilan Hikmat Isfahoniy buni ma'qullab bosh irg'atdilar:

— Balli, balli! Juda to'g'ri!

Sartib Salimiy esa matbuotdan va hukmron doiralardan ko'pdan beri ma'lum bo'lgan bu masalalarni bunchalik mufassal ifoda qilinishiga Rizo shohning nima uchun ruxsat bergani haqida o'ylar, sukut qilib natija va taklifni kutardi.

Lekin Rizo shoh maqsadini birdan ochmadi. U sartib Salimiyga qarab:

— Bu masalalar to'g'risida og'oyi sartibning qanday fikrdaligini bilmoqchimiz! — dedi.

Salimiy esa o'zining nima uchun chaqirilganini hali ham tushunolmas edi. U o'zining yozib bergan fikrlari to'g'risida shohning gap ochishini va vatanning baxt-saodati yo'lida qilinishi kerak bo'lgan ishlar to'g'risidagi orzularini Rizo shohga so'zlab beradigan fursatni kutardi. Lekin Hakim ul-mulk uzundan uzoq jumlalar tuzib, xalqaro vaziyat haqida gapirdi. A'lohazrat esa hal qilib bo'lingan masala to'g'risida uning fikrini so'radi. Sartib qiziq bir holatda qoldi. Shuning uchun u shohning o'zidan biror gap eshitish maqsadida, to'g'ri va ochiq javob berishdan o'zini olib qochdi.

— A'lohazrat va davlat tomonidan hal qilib qo'yilgan masala to'g'risida mening fikrimni so'rab o'tirishning hojati ham bo'lmasa kerak, deb o'ylayman. Chunki undan hech qanday foyda chiqmaydi.

Shoh darrov uning so'zini kesdi:

— Hukumat tomonidan hal qilingan masala jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlansa va siz kabi siyosatdan xabardor bo'lgan kishilarning qarashlariga to'gri kelsagina muvaffaqiyat qozonadi, sartib.

Salimiy shohning bu so'zidan keyin dadillashdi, ko'p yillardan beri kutib yurgan fursati endi kelganini fahmladi:

— Shunday buyuk siyosiy masalalarda a'lohazrat mening fikrimni so'rashlari men uchun katta sharafdir. A'lohazrat, agar ruxsat etsangiz va diqqat bilan tinglasangiz, men o'z fikrimni bo'yamay, ochiq-oydin gapirib beraman.

Salimiy birpas to'xtab, Rizo shohga qaradi. Shohning ko'zlari unga o'qrayib tikilib turganini ko'rib, javob bermasligini tushundida qat'iyat bilan so'zlashda davom etdi:

— Og'oyi vazir dunyo siyosatining yangi davrga kirganini, bu esa bizning shimoliy qo'shnimizga nisbatan olib borgan siyosatimizning, ochiqroq qilib aytsak, dushmanlik siyosatimizni yana ham keskinlashtirishimiz lozimligini talab qilayotganini so'zladi. Men og'oyi vazirning chiqargan xulosalari keltirgan dalillaridan mantiqiy ravishda kelib chiqishini inkor qilmayman. Chunki hukumatimiz hozirga qadar yurgizib kelgan siyosat borgan sari, inglizlar bilan amerikaliklarga, hatto bulardan boshqa ba'zi Yevropa mamlakatlariga tobora qattiqroq tobe bo'lib qolishimizga olib kel-

moqda. Bu siyosatning to‘g‘riligiga shubha bilan qarovchi Eronda bitta men emasman...

— Yana kim bunga shubha qiladi? — deb so‘radi Rizo shoh uning gapini bo‘lib.

Lekin sartib o‘zini yo‘qotmadi.

— Barcha nomusli aholi, — deb javob berdi u, podshohning basharasiga dadil qarab. — Ular sotqin deputatlar va ministrlarning, yirik savdogar va arboblarning Eronni halokatga olib borayotgan siyosati sizning orzularingizga ziddir, deb o‘ylaydilar.

— Bu siyosat — mening siyosatim! Men Ahmad Mirzo[1] emasmanki, hukumat siyosatini vazirlarim yuritsin!

Sartib Salimiy Rizo shoh meni sinab ko‘rayapti, shekilli, deb o‘yladi-da, yana ilgarigidek dadillik bilan so‘zida davom etdi.

— Agar bu siyosat sizning siyosatingiz bo‘lsa, yanada yomonroq, a’lohazrat. Demak, suv boshidan loyqa ekan. Unda uni tozalash uchun ko‘proq vaqt va mehnat qilish kerak ekan.

— Sen vatan xoini Hamid Hamidiyni nima uchun himoya qilmoqchi bo‘lganingni endi tushundim.

— U vatan xoini emas, a’lohazrat. Uning butun fikri-zikri vatanning ravnaq topishiga qaratilgan.

— Arboblarni jilovlab, oyoq yalang dehqonlar qo‘liga topshirish bilan vatan ravnaq topmaydi.

Sartib yana allanarsa deb javob bermoqchi edi, lekin Rizo shoh g‘azab bilan o‘rnidan turib, bo‘kirdi:

— Sening bu gaplaring menga yangilik emas. Marhum otang ham xuddi shunday degan edi.

Rizo shohning nimaga ishora qilayotganini anglagan Hikmat Isfahoniy Salimiyga istehzo bilan bir qarab qo‘ydida, Sa’diydan bir bayt o‘qidi:

“Oqibat gurgzoda gurg shavad
Garchi bo odami buzurg shavad”.[2]

---

[1] **Ahmadshoh** — Qojarlar sulolasining eng so‘ngi vakili. Rizoshoh shu Ahmadshoh taxtiga o‘tirgan.

[2] Bo‘ri bolasi odam qo‘lida tarbiyalansa ham, baribir, kata bo‘lgach, bo‘ri bo‘ladi.

Otasining o'limi Salimiyning esiga tushdi, uning jallodlari bilan yuzma-yuz turganini eslagan Salimiy yana ham qat'iyraq davom etdi:

— A'lohazrat, menga o'lim va zindonni eslatishning hojati yo'q. Mening fikrimni so'radingiz, men aytdim. Ha, bu yo'l vatan uchun halokatli yo'l. Og'oyi vazir Rossiya Polsha bilan Boltiqbo'yi o'lkalarining chegarasini buzganini gapirdilar. Lekin ularning chor Rossiyasi bilan inglizlar tomonidan halokatga mahkum etilgan mayda mamlakatlar bo'lganini tilga olmadilar. Sovet davlati ularga ozodlik berdi, taraqqiy qilishiga imkon tug'dirdi. Lekin ular shu buyuk davlatga qarshi siyosat yurita boshladilar. Natija ko'rganimizdek bo'ldi. Yangi Rossiyaning Eronga qilgan yaxshiliklarini eslang, a'lohazrat. U Eronni parchalanib ketishdan saqlab qoldi. Buning ahamiyatiga bir nafas bo'lsa ham tushungan vatanparvar na shimol neftini amerikaliklarga beradi va na inglizlarning shimolga aerodromlar qurishiga ruxsat beradi!

Salimiy endi orqaga qaytish mumkin emasligini sezib, o'limga mahkum qilingan odamning qat'iyati bilan hech tap tortmay, dadil gapirardi.

Rizo shoh esa uning so'zini, qaynab kelayotgan g'azabini kuch bilan bosib, tinglardi; basharasi g'azabdan battarroq qorayib ketgan edi. Shoh bu odamning saltanat uchun xavfli bo'lgan yashirin ishlar bilan shug'ullansa kerak, ma'lum markaz bilan bog'liq bo'lsa kerak, keyingi vaqtlarda mamlakatda yuz berayotgan hodisalarda buning ham qo'li bo'lsa kerak, deb o'ylar, qizishib ketib, o'z sirini o'zi ochadi, hozir o'zi qo'lga tushadi, hozir, deb kutib o'tirardi. Lekin sartibning keyingi so'zlari uning toqatini toq qildi, u stolga bir musht urib, baqirdi:

— Bas! Yo'qol, bor, bolsheviklar senga o'xshash josusni jon deb qabul qiladilar!

"Josus" so'zini eshitgan sartib tarsaki yegandek cho'chib tushdi.

— Men bu yerga Ka'baga kelgan odamdek umid bilan kelgan edim, a'lohazrat. Siz mening ishonchimni chilparchin qildingiz.

— Nonko'r!.. Josus, rus josusi! — deb bo'kirdi Rizo shoh g'azab bilan va sartibni bo'g'moqchi bo'lgandek intildi.

— Bu so‘z bilan siz Eronning barcha nomusli vatanparvarlarini haqorat qildingiz. Men sizga o‘zimning e’tiqodimni so‘zladim, lekin e’tiqod xotin emaski, birovga zo‘rlab tutqazish mumkin bo‘lsa, — dedi-da, yugurib zaldan chiqib ketdi.

Salimiyning so‘nggi so‘zlari Hikmat Isfahoniyning ko‘ksiga nishtarday qadaldi.

— Kechirasiz, a’lohazrat, — dedi u shohga, — men bunday odamga qiz berolmayman!

Rizo shohni yana shubhali hislar chulg‘ab oldi. U o‘zini yashirin tashkilotning iziga tushgandek, chigal kalavaning uchini topganday:

— Aytganim aytgan, deganim degan, — dedi u. — Boring, to‘yga hozirlik ko‘ring!

Hikmat Isfahoniy qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib ta’zim qila-qila, chiqib ketdi.

Rizo shoh Hakim ul-mulkka qaradi:

— Ikkalasi ham toj-taxtning dushmani. Bittasi keksa tullak, ikkinchisi endi tishi chiqib kelayotgan bo‘ri. Vaqti kelganda ikkalasini ham yo‘qotish kerak!..

O'N BESHINCHI BOB

Hikmat Isfahoniy saroydan og'ir taassurot bilan chiqdi. Fikrlari ayqash-uyqash bo'lib ketgan va qalbi hayajonli edi. Rizo shohning undan noroziligini, hatto unga yashirin kin saqlaganini sezardi. Shoh hech narsani unutmasligini va hech narsani kechirmasligini bilar edi. Shuning uchun ham qalbida og'ir tashvish paydo bo'ldi. Shohning bunday g'azablanishida Hakim ul-mulkning ham roli borligi unga ravshan edi. Lekin unga ko'p narsalar qorong'iligicha qolaverdi. Har qalay shohning ham, Hakim ul-mulkning ham xatti-harakatiga tushunib bo'lmasdi. Saroydan chiqqanda shoh bilan Hakim ul-mulkning yolg'iz qolishi ham uning shubhasini battarroq oshirib yubordi. "Bu saroy sichqoni hali ko'p nayrangbozlik qiladi!" deb o'ylar edi Hikmat Isfahoniy norozi bo'lib, u shunday odam oldida tilini tiya olmagani uchun achchig'lanardi. "O'zim ham o'lgudek ahmoqman, bu ablahlarning odatini bilaman-u, yana tilimni tiymayman-a. Mana, Mozandarondagi mulkimdan ham ajradim, buning ustiga ustak Ardabildagi bog'im ham qo'ldan ketdi, qizimni ham anavi qurimsoqqa beradigan bo'ldim, yana qarzdor ham bo'lib qoldim. O'z oyog'imga o'zim bolta urdim. O'sha ablah saroy sichqoni, o'sha bangi itvachcha ham meni bosib o'tdi. Bo'g'zimga oyoq tiradi. Endi so'nggi nafasim chiqquncha bosgani bosgan..." Bu xayollar uning yuragini siqib, tobora ta'bini tirriq qilardi.

Bu o'y va mulohazalar uni shu ahvoldan chiqish uchun biror chora topishga undadi. O'z mavqeyini mustahkamlash uchun yo'l topishi lozim edi. Hikmat Isfahoniy Rizo shohga qanday qilib ta'sir qilish, bu makkor af'yun chekuvchi bangi Hakim ul-mulk ta'siridan shohni qanday qilib qutqarish yo'llarini axtara boshladi. Sovg'a-salomlar bilan bir ish chiqmas edi, chunki a'lohazratning shunday bir xususiyati bor ediki, mol-mulki ortgan sari ish-

tahasi ham karnay bo'laverardi. Uni sovg'a-salomlarga to'ydirib bo'lmasdi.

Hikmat Isfahoniy uzoq muddat shohga ta'sir qilish yo'llarini axtardi, turli-tuman choralarni birma-bir xotiridan kechirarkan, birdan esiga do'sti mister Tomas tushib qoldi.

"Aha! Topdim! — deb sevindi. — Eron siyosatida bu odamning qo'li yetmaydigan joy yo'q. Yaxshi topdim! U a'lohazratni shunday yumshatsinki, a'lohazrat mumday erib ketsin. Og'oyi Tomas a'lohazratning g'azabini shunday marhamatga aylantirsinki, ko'rgan odam tahsin va ofarin desin!"

Shu fikrlar bilan u haydovchiga mashinani ingliz elchixonasiga haydashni buyurdi.

Hikmat Isfahoniy mashinasidan tushib qarasa, mister Tomas mashinaga chiqib, jo'namoqchi.bo'lib turgan ekan. Hikmat Isfahoniy uning oldiga yugurdi. Tomas ham uni ko'rib to'xtadi.

U qo'lini uzatib:

— O-o-o, mister Isfahoniy! Salomalaykum! Ahvoli shumo cheto'vr? — deb kuldi-da, Hikmat Isfahoniyning qo'lini siqdi.

Hikmat Isfahoniy mister Tomasning novcha va sergo'sht gavdasi ustida cho'nqaygan sap-sariq boshiga qaradi. Ikki qo'llab uning qo'lini siqdi-da, uzoq vaqtgacha qo'yib yubormadi. Mister Tomas uning bu harakatidan Isfahoniyning muhim bir ish bilan kelganini payqab, qo'lidan ushlab, ichkariga boshladi:

— Butun Eronda mening bitta do'stim bor, chinakam do'stim, — dedi u, — u ham bo'lsa —mister Isfahoniy. Uning hurmati uchun eng zarur ishlarimdan ham kechaman.

— Mersi[1], Xudo guvohim, men ham sizga juda ixlosmandman. Sizni bir ko'rmasam, rohatimni yo'qotaman. Butun ingliz do'stlarimga nisbatan bo'lgan muhabbatim sizning oliyjanob siymoyingizda mujassamlangan.

— Men Hindistonda, Iroqda, Misrda va Arabistonda ko'p kezdim, lekin sizdek do'stni hech qayerda uchratmadim. Men Sharqning butun go'zalliklarini, butun sadoqati, mehmondo'stligi, soddadilligi va aqlliligini sizning siymoyingizda gavdalangan desam xato qilmagan bo'laman. Siz to'g'ringizda Angliyadagi do'stlarimga, hatto rafiqamga ham yozganman.

[1] **Mersi** — rahmat *(fransuzcha).*

— Mersi, mersi, mersi!.. Xizmatlaringizga hozirman!

— Yo‘q, sizning xizmatingizga men hozirman. Buyuring, xizmatingizni bajarib, lazzatlanay. Do‘stga xizmat qilishdan ko‘ra yuksakroq ma’naviy zavq bo‘lishi mumkinmi? Menimcha, yo‘q. Gapiring, xizmatingizga hozirman!

— Sizning sog‘-salomat yurganingizni ko‘rishdan boshqa tilagim yo‘q. Sizni sog‘inib qoldimu, bir ko‘rib kelay deb yugurdim.

Ko‘rib turibman, gapirgingiz kelmay turibdi. Bo‘lmasa men gapiray, siz quloq soling. Men bizning savdo vakolatxonamiz blan gaplashnb qo‘ydim: Angliyadan kelgan mollarning hammasini bu safar sizga berishadi. Boshqa savdogarlarga hech narsa tegmaydi. Bu safar keladigan mollar ham eng a’lo navli jun, ipak mollar. Turli navli rang-barang mollar! Bozorning to‘la xo‘jayini o‘zingiz bo‘lasiz. Istagan narxingizda sotasiz. Xo‘sh, nima deysiz bunga, xursandmisiz?

— Sizdan ko‘p, g‘oyatda minnatdorman, mister Tomas!..

— Yo‘q, bu hali hammasi emas. Birlashgan qirollik hukumati o‘zining sodiq do‘stlarini biladi, ular dunyoning qaysi burchida bo‘lsalar ham qadrlariga yetadi, ularni munosib ravishda mukofotlaydi. Siz yaqin orada siyosat olamining ta’sirli odamlaridan bo‘lasiz. Ministrlik lavozimiga nima deysiz, a?

Hikmat lsfahoniy xursandligini zo‘rg‘a yashirib, yasama g‘amginlik bilan:

— Bu kecha mumkin edi, lekin bugun mumkin emas, — deb javob berdi.

— Nega? Nega mumkin bo‘lmasin?

Hikmat Isfahoniy butun bor gapni mister Tomasga so‘zlab berdi. Tomas diqqat bilan tingladi. Keyin kulimsirab:

— Hech xavotir bo‘lmang! Hammasi ham arzimagan gap-ku! — deb javob berdi. — Men ham hayron bo‘ldim-a, do‘stim nimadan buncha xafa deb!? Hech xafa bo‘lmang! Arzimaydi!

— Sizdan so‘rar edim, mister Tomas, og‘oyi elchiga aytib qo‘ysangiz, shohga men to‘g‘rimda biror narsa deb ko‘rsalar.

— Xotirjam bo‘ling, mister Isfahoniy. Bularning hammasi to‘g‘rilanib ketadi. A’lohazratning o‘zi chaqirib, sizga ministrlik lavozimini taklif etadi.

— Alloh taolo marhamatingizdan bizni mahrum qilmasin, mister Tomas! Siz bo'lmasangiz, biz ochdan o'lamiz.

U mister Tomasni quchoqlab o'pdi. Mister Tomas esa uning yelkasiga qoqib:

— Sharq muhabbatiga qoyilman, sharq muhabbatiga! — deb qo'ydi.

Hikmat Isfahoniy ketmoqchi bo'lib o'rnidan turganida, mister Tomasning yana allanarsa demoqchi bo'layotganini payqadi. Uni gapga solish uchun:

— Qirol hukumatiga janob oliylari bizning sadoqatimizni yetkazsangiz, mister Tomas, — dedi. — Sharqning, jumladan bechora Eronimizning yakka-yu yagona do'sti bo'lsa, u ham Angliyadir. Biz inglizlarning yuz yillar mobaynida bizga qilib kelayotgan yaxshiliklarini hech vaqt unutmaymiz. Biz besh-o'nta mahmadananing, yegani non topolmay yurganlarning gapiga quloq solmaymiz. U yaramaslarni ham yo'ldan urgan, shubhasiz, o'sha ruslar, bunga islomi sharif va imonim haqi qasamyod etaman.

— Og'oyi Isfahoniy, — dedi mister Tomas, — siyosat olamining sizga noma'lum bo'lgan bironta ham burchagi yo'q. Ayniqsa Tehrondek siyosat sirlari bilan to'la bo'lgan bir markazda orttirgan uzoq yillik tajribangiz siyosatdagi eng nozik lahzalarni ham ajrata olishingizga imkon beradi. Shuning uchun men oldindanoq sizdan uzr so'rab qo'yaman. Chunki men hozir aytmoqchi bo'lgan gaplar janobingizga alifbeni takrorlagandek bo'lib tuyulishi mumkin. Mamlakatlar o'rtasida, ularning siyosati va davlat tuzilishidan ham qat'iy nazar, hech vaqt o'zgarmay qolaveradigan va ularning o'zaro munosabatlariga o'z ta'sirini doim o'tkazib turadigan bir faktor borki biz uni tabiiy yoki geografik sharoit deb aytamiz. Hamma narsa ham o'zgarishi mumkin, lekin o'sha faktor o'zgarmaydi. Rossiya bilan Eron o'rtasidagi munosabatlarga ham ana shu faktor, hech so'zsiz, o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Ana shu faktor tufayli Eron doim Rossiya tomonidan bo'lgan xavf ostida yashab keladi. Chorizm yiqildi, o'rniga bolshevizm keldi. Eronga bo'lgan xavf kamaydimi? Yo-o'q. Aksincha, ortdi. Bolsheviklar barcha boshqa xavflardan tashqari o'zlarining dahshatli ideologiyalari — kommunizm xavfi bilan Eronga tahdid qilmoqdalar.

Qirollik hukumati Eronda bir masala ustida bosh qotirib yotibdiki, u ham bo'lsa o'sha bolshevistik xavfning oldini olishdir. Biz bu ishda siz kabi og'olarning yordamingizga va bizning niyatimizga tushunishingizga tayanamiz.

— Biz sizga bo'lgan sadoqatimizni ko'rsatamiz, mister Tomas.

— Lekin Erondagi ba'zi og'olar buni yo tushunmaydilar, yo bundan lozim xulosalar chiqarib ololmaydilar. Bu xavfga qarshi keskin kurash olib bormaydilar. Keyingi kunlarda shaharda tarqalgan isyonkor varaqalardan xabaringiz bordir? Ularni tarqatayotganlar kim? Bu o'z-o'zidan ma'lum: ruslar, bolsheviklar, Komintern. Ammo, Eron matbuoti bu haqda yetarli darajada aniq va keskin qilib yozmayapti.

Hikmat Isfahoniy mister Tomasning maqsadiga darrov tushundi.

— Mister Tomas, mening gazetam bu to'g'rida har kuni yozayapti. Oxirgi nomerlarini yuboraman, bir ko'zdan kechiring. O'z fikrlaringizni bizga bildirsangiz, inobatga olamiz, albatta. Hatto gazeta redaktori og'oyi So'fi Eronparastni oldingizga yuboraman. Gazetada bosishga lozim ko'rgan gaplaringiz bo'lsa hammasini ayting, bossin.

— Eronning kelajagini o'ylagan odamlar yana bitta muhim masalani nazarda tutishlari lozim. Bu shimol nefti masalasidir. O'zini Eronnning eng qadimgi do'sti deb hisoblaydigan qirollik hukumati shimol neftini ishlab chiqarishda o'zining butun tajriba va tadbirlarini ishga solishga tayyor. Eronning siz kabi farosatli va aqlli siyosiy arboblari bu masalaning qaysi davlatning foydasiga bo'lsa ham chuqur o'ylamay, yengiltaklik bilan hal qilinishiga qarshi chiqishlari kerak.

Mister Tomas "qaysi davlatning foydasiga bo'lsa ham" degan so'zlariga ayniqsa urg'u berib gapirdi, Hikmat Isfahoniy bu safar ham do'stining muddaosini yaxshi tushundi.

— Mister Tomas, — deb javob berdi u, — Eron zaif bir davlat, kichkinagina bir mamlakat. U Amerikadek gigantga qarshi turolmaydi. Amerika kapitali mamlakatga zo'rlik bilan kirib kelmoqda-ki, o'z jonimizni saqlab qolish uchun ular bilan savdo qilishga majbur bo'lmoqdamiz. Angliya bilan Amerika bu masalani Eronda emas, Londonda yo Vashingtonda hal qilib, keyin bizga aniq-ravshan ko'rsatmalar berishlari kerak.

— Har holda, siz ham o‘z fikringizni aytishingiz kerak, og‘oyi Isfahoniy.

— Bosh ustiga, mister Tomas, ertagayoq bu masalaga butun bir sahifa bag‘ishlaymiz. Inglizlarning ishtirokisiz shimol neftini ishlab chiqarishning mumkin emasligi esa o‘z-o‘zidan ma’lum!

Mister Tomas indamadi. Lekin Hikmat Isfahoniy uning chehrasidan suhbatdan rozi bo‘lganini payqadi.

— Xayr endi, aziz do‘stim, mister Tomas!

Mister Tomas uning qo‘lini siqdi. Eshik oldida Hikmat Isfahoniy o‘girilib qaradi-da, o‘zining iltimosini yana bir karra unga eslatib o‘tdi:

— Mister Tomas, meni ham esingizdan chiqarmang! Men hozir sizning yordamingizga juda muhtojman!

U uzoqlashib ketdi. Hozir u boshqa binolar oldidan shamoldek uchib borar edi.

— Orqaga qaytar, shu ko‘chadan yana bir o‘taylik, bu juda oliyjanob ko‘cha-da! —dedi haydovchiga.

Haydovchi mashinani birinchi duch kelgan chorrahada qaytarar ekan, Hikmat Isfahoniy yana fikrga cho‘mdi. “Bu itvachcha inglizning shirin so‘zlariga juda ishonaverish yaramaydi, — deb o‘ylar edi u, —ular odamning boshini aylantirishga juda usta bo‘lishadi. Shirin so‘z bilan aldab qo‘yningni puch yong‘oqqa to‘ldirishadi, bir kun qarabsan-ki, hamma aytgan gapi teskari bo‘lib chiqadi. Seni uxlatib qo‘yib, uyingni ship-shiydon qilib ketadilar. Bu toifa odamlar foyda desa o‘z otasini sotib yuborishdan ham toymaydi. Ular a’lohazrat bilan kelishib olishsa, meni esga olishmaydi. Bu ministrlik lavozimi to‘g‘risidagi gaplar ham, meni laqillatish uchun aytilayapti. Ularning dardi — neft!”

Bu mulohazalar yana uning ko‘nglini betinch qildi. Hatto mister Tomasning tabassumi ham hozir unga zaharxandaday bo‘lib tuyula boshladi.

“Yo‘q, albatta amerikalik do‘stlar bilan uchrashish kerak. Ular inglizlar emas. Ularning cho‘ntagi pulga to‘la. Shuning uchun a’lohazratning huzurida ularning so‘zi o‘tkir. O‘shalarning oldiga kirib, ishimni pishitib ketmasam bo‘lmaydi!”

U haydovchiga “Amerika elchixonasiga hayda” dedi.

Uni ko'rgan komendant kulimsirab, shlapasini oldida, salom berdi. Hikmat Isfahoniy ham mashinadan tushib, komendantga ayni nazokat bilan shlapasini olib, salom berdi-da, uning qo'lini siqdi.

— Mister Garoldni ziyorat qilgani kelgan edim! — dedi.

Komendant ichkari kirib, mister Garoldga telefon qildi. Qaytib chiqib:

— Marhamat! — deb Hikmat Isfahoniyni ichkariga taklif qildi.

Mister Garold uni mister Tomas singari dabdaba va tantana bilan qarshi olmadi. U tirjayib o'rnidan turdi-da, indamay kelib ko'rishdi, hol-ahvol so'rab choy buyurdi. Bularning hammasi Hikmat Isfahoniyga samimiyroq ko'rindi.

"Mana bular xo'jayinlik qilib o'rganishgan!" — deb o'yladi u o'zicha.

Xizmatkor keltirgan choy ustida mister Garold shahardagi so'nggi voqealar, savdo-sotiqning borishidan va dunyodagi ahvoldan gapirib o'tirdi:

— Urush kengayib bormoqda, — dedi, u, — bu esa savdo-sotiq ishlarini ancha qiyinlashtirib qo'ydi. Men sizga bir do'stlik maslahati berib qo'ymoqchiman: siz urush yillarida qimmati tobora oshib boradigan mollarni sekin-asta yig'ib olavering...

Tajribali savdogar bo'lgan Hikmat Isfahoniy uning so'zlaridagi ma'noni anglab, urush natijasida savdo ishlari rivojlanishini xayolidan kechirdi:

— Biz hamisha siz kabi xayrixoh va samimiy do'stlarimizning maslahatiga quloq solib kelganmiz. Xudoga ming qatla shukurlar bo'lsinkim, ana shu tufayli kundan kun ilgari qarab ketayapmiz, taraqqiy qilayapmiz, savdo-sotiq rivojlanmoqda va kengaymoqda. Inshaalloh, bundan keyin ham sizning marhamatingiz soyasida kam bo'lmaymiz.

— Amerika barcha mamlakatlar bilan ham keng va ochiq savdo qilish tarafdori. U ayniqsa Sharqning Eron singari orqada qolgan mamlakatlari bilan o'z iqtisodiy va savdo munosabatlarini mustahkamlashni, shu vosita bilan ularni taraqqiy ettirishni istaydi. Har ikkala mamlakatning ham manfaatlariga xizmat qiladigan bu ishda siz kabi og'olarning xizmatini yuqori baholaymiz. Endi shimol neftining ishga solinishi bu masalada har ikki mamlakatga

ham keng imkoniyatlar ochadi. O'ylashimcha, siz ham shu fikrda bo'lsangiz kerak.

— Bir mengina emas, balki butun Eron shu fikrda. Axir, bu neft qachongacha yer ostida yotadi! Ishga solinglar, sizga ham bir foydasi tegsin, bizga ham! Bunga kim nima derdi? To'g'risini aytsam, ixtiyor a'lohazratning o'zida bo'lsa, shimol neftini allaqachon sizlarga topshirgan bo'lardi. Lekin shimoliy qo'shnimizning boshimizga bitgan balo ekanini o'zingiz yaxshi bilasiz. O'z holimizga qo'ymaydi. "Hay, bu bizning yerimiz, bizning boyligimiz" deydi. "Sening ishing nima?" — deydigan bir mard yo'q. Xudoga ming qatla shukurki, mana buning ham fursati kelibdi. Neftni chiqaravering, zavodlar quring siz ham foyda ko'ring, bizga ham non puli chiqsin.

Mister Garold unga ma'nodor qilib:

— Qani endi inglizlar ham shu fikrda bo'lsa! — deb qo'ydi.

Hikmat Isfahoniy uning nimaga ishora qilayotganini darhol angladi:

— Og'oyi Garold, siz inglizlarni bizdan ko'ra yaxshiroq bilasiz. Ularga uncha ishonib bo'lmaydi. Ayniqsa biz eronliklar buni ko'p sinab ko'rganmiz. Ularning ko'zi sira to'ymaydi. Butun dunyoni egallab olgach, endi oyga chiqamiz deydigan xalq! Ular ana shunaqa! Bundan ikki kun oldin bir ingliz menga, shimol neftini faqat amerikaliklarning o'ziga topshirib bo'lmaydi, bu davlatlar orasidagi muvozanatni buzadi, dedi. U shimol neftini ishlash uchun Eron, Amerika va Angliya teng ishtirok qilishiga tarafdor. Men unga to'ppa-to'g'ri aytdimki, mister Garold, ingliz do'stlar, bizni endi tinch qo'yinglar, janub neftini hazm qilib yubordingiz, mayli bilganingizni qiling, lekin shimol neftini tinch qo'yinglar endi! Sizning hurmatingiz haqqi, xuddi shunday dedim...

— Juda to'g'ri aytibsiz, — deb uning harakatini ma'qulladi mister Garold. — Lekin butun Eron neftini uch davlat birga ishlab chiqarsa to'g'ri bo'lmaydimi? Nima uchun janub neftiga faqat inglizlar xo'jayinlik qilishlari kerak? Axir, bu Eronga ham, Amerikaga ham zarar-ku! Eronliklar buni tushunishi kerak.

— Bunga hech shubha qilmang, mister Garold, biz buni allaqachon tushunganmiz. Savdogarlar bilan arboblarning hammasi

bo‘lmasa ham, to‘qson to‘qqiz foizi amerikaliklar tarafdori. Majlisda ham, hukumatda ham aytganlaringizni amalga oshirishni o‘z zimmamga olaman.

Birdan allanarsa esiga tushib qolgandek, qo‘lini cho‘ntagiga tiqib, to‘rt buklangan bir qog‘oz oldi.

— Mister Garold, tunovi kungi shartimizga binoan, shanba kuni majlisda so‘zga chiqmoqchiman. Mana, nutqimning qisqacha mazmuni. Quloq soling-a, balki biror narsa esimdan chiqib qolgandir. Siz siyosat masalalarida mendan ko‘ra tajribaliroqsiz.

Mister Garold Hikmat Isfahoniyga mug‘ombirona ko‘z tashlab, tirjaydi:

— O-o-o, sizdagi siyosiy his menda bo‘lsa jon koshki edi. Men siyosatni sizdan ortiq tushunmasam kerak.

— Unday demang, Xudo haqqi, unday demang! Savdo masalasida, to‘g‘ri, yuz kishini daryoga oborib, sug‘ormay qaytarib kelishim mumkin. Lekin siyosat masalalarida — yo‘q. Bu bizning qo‘limizdan keladigan ish emas. Bu sohada sizning oldingizda bir yosh boladek gapmiz.

U mister Garoldga o‘zining sovetlarga qarshi ruhdagi nutqining tezisini o‘qib berdi.

— Gapirganda esa buni hali o‘n hissa oshirib yuboraman! — deb qo‘shib qo‘ydi.

Mister Garold diqqat bilan quloq soldi, ba’zi joylarini takror o‘qitdi, nihoyat, o‘z fikrini aytdi:

— Mister Isfahoniy, siyosat noziklikni talab qiladi. Sizda xuddi ana shu hislar bor. G‘arbdagi ko‘pgina parlament deputatlari buni sizdan o‘rganishlari kerak...

— Oh, oh, oh, omon bo‘ling, mister Garold, — dedi taltayib ketgan Hikmat Isfahoniy, keyin unga tashakkur bildirdi.

Mister Garold esa asli aytmoqchi bo‘lgan fikrlariga muqaddima bo‘lgan bu so‘zlarning unga yoqib tushganini ko‘rib, davom etdi:

— Lekin, har holda, ba’zi joylariga sal-sal o‘zgarishlar kiritilsa yomon bo‘lmas edi. Dastlab baqiriq va so‘kishlarni kamaytiring. Shunday gapiringki, nutqingizni eshitganda odamlar sizni tamom xolis turib gapirayotganingizga shubha qilmasin. Xullas, mister Isfahoniy, nozikroq...

Hikmat Isfahoniy mister Garoldning fikrini yaxshi tushunganini bildirish va uni ortiqcha so‘z axtarishdan qutqarmoq uchun:

— Xullas, mister Garold, paxta bilan bosh kesgin deng, — deb qahqah urib kulib yubordi.

Hikmat Isfahoniyning bunday ochiqdan ochiq hayosizlik qilishi mister Garoldga yoqmadi:

— Yo‘q, haqiqatni aytish kerak! — dedi u.

Hikmat Isfahoniy darrov o‘zini tutib, jiddiy qiyofaga kirdi.

— Albatta, albatta. Men shunchaki hazillashdim, — dedi. — Aslida hammasini siz aytgandek qilaman, mister Garold. Lekin siz bizga nisbatan bo‘lgan marhamatingizni, lutf-u karamingizni ayamasangiz bas!

— Biz Eronning, ayniqsa siz kabi og‘olarning do‘stimiz. Xohlang umum davlat miqyosidagi istaklaringizdan, xohlang o‘z shaxsiy ishlaringizdan so‘zlang, xizmatingizga hozirmiz.

Hikmat Isfahoniy uning bu iltifotidan foydalanib, Rizo shoh huzurida o‘tgan gaplarni unga so‘zlab berdi. O‘zining xavf va taxminlarini aytdi. Alohazratning tabiatan tutiruqsizligini, tez-tez o‘zgarib turishini, o‘zining ehtiroslari yo‘lida hech qanday ishdan ham toymasligini so‘zladi.

— Og‘oyi elchi orqali bir og‘iz shipshitib qo‘yilsa, ko‘p soz ish bo‘lardi-da. U kishi mening Amerika davlatining do‘sti ekanimni bir og‘iz aytib qo‘ysalar bas. Boshqa iltimosim yo‘q, mister Garold.

Mister Garold unga dalda berdi:

— O‘zingizni Qo‘shma Shtatlar bayrog‘i ostida tamoman xavfsizman deb his qilavering! Bizga ishonaverishingiz mumkin!

Quvonib ketganidan ko‘zlariga yosh kelgan Hikmat Isfahoniy:

— Alloh taolo biror kun ham bayroqlaringizdan bizni mahrum qilmasin, mister Garold, — dedi-da, ikki bukilib ta’zim qildi.

* * *

Hikmat Isfahoniy juda kayfi chog‘ bo‘lib ketdi. U bugungi muvaffaqiyatidan shod edi. Uning abadiy bo‘lib tuyulgan ruhiy muvozanati cheksiz zavq bag‘ishlar edi. U o‘zidan, o‘z kelajagidan shu qadar xotirjam ediki, qadam tashlagan sari oyoqlarida shu

paytgacha sezilmagan quvvat sezardi. Uning nazarida, o'zining haqiqiy hukmdorini endi topgan edi. Eron yeri uning oyoqlari ostida titrayotganga o'xshardi.

U ana shunday ruhiy ko'tarinkilik bilan mashinaga tushdi:

— Stambuliy ko'chasiga hayda, — dedi u haydovchiga, — keyin Lolazorga burasan... Juda sayr qilgim kelayapti.

Mashina uchib borar ekan, u yana orqada qolib ketayotgan uylarga, magazinlarga, nazarida birpashshacha ham ko'rinmagan odamlarga qarab borar, oyoqlarini uzatib mashinaning yumshoq suyanchig'iga suyangan holda taltayib o'tirar edi. Birdan ko'zi svastikali bayroqqa tushdi. Mashina sur'at bilan ketayotgani uchun qayrilib mashinaning orqa derazasidan qaradi. Bu nemis elchixonasi edi.

Af'yun kayfini surayotgan bangining shirin xayolini buzgan turtkidek, bu bayroq ham uni shirin xayolotdan ayirdi.

"Hay kishi, — dedi o'ziga-o'zi, — yana g'aflatda qolma, bu yerga ham bir kirib chiq. Bu yerda ham o'zingga madadkor hozirlab qo'y. Aslida bu amerikaliklar ham inglizlardan farq qilishmaydi. Ularga ham ishonib bo'lmaydi. Tehronda menga o'xshagan yuzlab savdogarlar bilan aloqa qilishadi. Yuzlab savdogarga salom berib, alik oladilar. Ko'rinishda ular g'oyat oliyjanob, ammo aslida inglizlardan ko'ra battarroq talonchi. Fikri-xayollari neftda. Bo'lmasa shohga mening to'grimda gapirib nima ham qilishadi? Nemislar boshqa masala... Bular qat'iy harakat qiluvchi, dadil odamlar. Kuch hozir ular tomonda. Angliyani ham, Amerikani ham yong'oq po'chog'idek orolga tiqib qo'ydilar. Bularning ko'zi oldida Fransiyani, Belgiyani, Polshani bosib oldilar, bu mamlakatlarda o'z uyida o'tirgandek xo'jayinlik qilmoqdalar. A'lohazratga bularning bir qarab qo'yishining o'zi ham kifoya qiladi".

Shunday mulohazalardan so'ng u nemis elchixonasiga kirishga qat'iy qaror qildi. Haydovchiga mashinani nemis elchixonasiga qarab haydashni buyurdi.

Komendant mashinada o'tirgan Hikmat Isfahoniyni ko'rishi bilan darvozani ochdi-da, kelib Isfahoniy bilan ko'rishdi.

— Bugun sizni fon Valter so'ragan edi, — dedi.

Hikmat Isfahoniy bu so'zni eshitib juda taltayib ketdi. Xabar bermay to'satdan kelib qolgani juda o'rinli bo'lib chiqdi.

Bu ham uning mavqeyini mustahkamlash va obro‘sini oshirish uchun zarur bir vosita edi. Shu fikrlar bilan u to‘g‘ri fon Valterning ajoyib mebelllar bilan bezatilgan kabinetiga tomon yo‘naldi. Fon Valter uni kabinetning eshigi oldida, koridorda qarshi oldi. Aftidan, komendant unga allaqachon xabar berib ulgurgan edi. Fon Valter uni qo‘ltiqlab, o‘z xonasiga boshlab kirdi. Mehmonni yumshoq kresloga o‘tqazib, o‘zi ham unga qarama-qarshi o‘tirdi.

— Kelganingizga juda xursandman. Bugun sizni ertalabdan beri axtaraman. Lekin osmonga uchib ketibsiz, shekilli, hech topolmadik, — dedi-da ikkala qo‘li bilan boshidagi tuklarni silay boshladi.

— Qayerda bo‘lsak ham, axir kelib do‘stimiz oldiga tushamiz, — deb javob berdi Hikmat Isfahoniy. — Bunga shubha qilmasangiz bo‘ladi.

— Bunga hech shubham yo‘q. Kishining yuziga aytish yaxshi bo‘lmasa ham, sizning aqli raso va siyosat olamining sirlarini tushunishda hech qiynalmaydigan odam deb hisoblashimni qayd etishga majburman. Sizning bu yuksak fazilatlaringiz to‘g‘risida hatto fyurerga ham yozdik. Xuddi shu bugun fon Ribbentrop shifr bilan fyurerning siz to‘g‘ringizdagi topshirig‘ini bizga yetkazdi. Sevinchim ichimga sig‘may, sizni ertalabdan beri axtaraman.

— Og‘oyi fyurer nima depti? — deb so‘radi sabrsizlik bilan Hikmat Isfahoniy.

— Fyurer bizga siz bilan yanada mustahkamroq aloqa bog‘lashni topshiribdi. Eronda nemis siyosatining kelajagi va unda sizning o‘ynaydigan rolingiz to‘g‘risida fyurerning alohida fikri bor.

Fon Valter ma’nodor sukut qildi. Hikmat Isfahoniyning ko‘zlarida zo‘r qiziqish ifodalarini ko‘rib, uni qanoatlantirish uchun yana so‘zida davom etdi:

— Hozir siyosat olami to‘lqinlanib turgan dengizga o‘xshaydi. Aqli raso, qobiliyatli millatlar bunday paytda davlat kemasining rolini mohir qo‘llarga topshiradilar. Fyurer o‘zining uzoqni ko‘ruvchi buyuk siyosatida Eronga hamisha alohida e’tibor berib keldi. U Yevropa ishlari bilan tamom band bo‘lib qolib, Sharqni esdan chiqardi, deb o‘ylamang. Yevropada boshlagan ishimiz Sharqda

tugallanadi. Eron esa Sharqning darvozasidir. Shuning uchun, fyurerning fikricha, bu darvozada sinalgan posbon turishi kerak.

Hikmat Isfahoniy bunchalik kutilmagan yangiliklarni eshitishdan qaqrab qolgan lablarini yalab qo'ydi.

— Kim nima desa deyaversin, biz eronliklar u kishiga imon keltirganmiz. Bizning avom xalq u kishining otini imom Haydar qo'ygani ham bejiz emas, azizim fon Valter... Agar fyurer musulmon bo'lsa edi, Sohibi zamon keldi, deb dastlab o'zim bayroq ko'targan bo'lar edim.

U diniy farq to'g'risidagi gapni bekorga aytganini sezib, fon Valterga bir qarab qo'ydi-da, darhol o'z xatosini tuzatishga shoshildi:

— U kishi qaysi dinda bo'lmasin, baribir, biz unga ishonamiz.

— Fyurer eronliklarni ayniqsa boshqacha muhabbat bilan sevadi. U eronliklarni ham oliy irq deb hisoblaydi. Uning fikricha, yer yuzida yashashga qobil faqat ikki millat bor: u ham bo'lsa nemislar bilan eronliklar. Chunki ularning qoni toza qon, oliy irq qonidir. Fyurerning rejasi bo'yicha, dunyoga ikki millat hokimlik qilishi kerak. G'arbda — biz, Sharqda —siz! Nahotki, siz bizning slavyanlarga nisbatan bo'lgan nafratimizni tasodifiy bir narsa deb o'ylasangiz? Slavyanlar past irqqa mansub. Bizning ular bilan tuzgan bitimimizga uncha ahamiyat bermang. Bularning hammasi fyurerning diplomatiyasi. Biz bugun emas erta anglo-sakslarni biryoqlik qilamiz-u keyin qurollarimizni ruslarga qarshi qaratamiz! Fyurer dunyoga hokim bo'lgach, Bokuni, butun Kavkazni Eronga topshiradi. O'shanda nihoyatda katta imperiyaning ko'klarida og'oyi Hikmat Isfahoniy porloq bir yulduz bo'ladi. Xa-xa-xa...

Fon Valter xushchaqchaqlik bilan qah-qah urib kulib yubordi. Gitlerning irqiy nazariyasini Hikmat Isfahoniyga xush keladigan qilib va Eron sharoitiga moslashtirib tushuntirganidan g'oyat mamnun edi.

Hikmat Isfahoniy esa bo'lajak buyuk imperiyaning bepoyon territoriyasini ko'z oldiga keltirishga harakat qilardi.

— Ana o'shanda savdo ham rosa rivoj topadi-da! — deb qo'ydi u va yana labini yaladi. — Na biror chegara-yu, na tamojnya to'sig'i! Sotaver! Rossiyadan mol olib, Yevropaga olib borib

pulla! Mayiz deysanmi, turshak deysanmi, moy deysanmi, charm, ipak, bug'doy deysanmi, sotaver! Yevropa bozorlariga qalashtirib tashla. Qaytishda esa Yevropadan chit, movut, turli attorlik mollari, paypoqlar va boshqa sanoat mollari olib kel. Tashib ketaver, mahalliy bozorlarni to'ldirib tashla, odamlar istaganicha olsin. Savdoni rosa rivojlantirib yuboramiz-da, fon Valter!

— Fyurer bizga shunday deb buyurdi: siz kabi odamlar urushdan zarar ko'rmasinlar. Savdo vakolatxonasining omborlarida bor mollarning hammasini ularga beringlar, deb buyurdi. Nima xohlasangiz marhamat. Bahosi masalasida ham sizni aslo xafa qilmaymiz!

— Xudo guvoh, men sizdan yerdan osmongacha minnatdorman. Alloh taolo sizning bayrog'ingizni hamisha o'zi asrasin, uning soyasini bizning boshimizdan ham nari qilmasin. Bo'lmasa biz xo'jayinsiz qolamiz! Endi menda qanday yumushingiz bor, do'stim?

Fon Valter baroq qoshlari ostidan Hikmat Isfahoniyga mug'ombirona ko'z tashlab qo'ydi:

— Bizning bolsheviklar bilan to'qnashuvimiz muqarrar ekanini, buni hozirgina aytib o'tdim, — dedi.

— Nega bilmas ekanmiz, bilamiz, albatta, bilamiz, — deb javob berdi xushomadgo'ylik bilan Hikmat Isfahoniy.

— Ana shuning uchun bu ishga hozirdanoq tayyorgarlik ko'rib qo'yishimiz lozim, bu ishda esa sizning yordamingizga muhtojmiz.

— Buyuring! Bir marta emas, ming marta yordam berishga hozirman!

— Miyanada savdo idorangiz bormi?

— Eronning qaysi burchida mening savdo idoram yo'q deysiz? Barcha shaharlarda bor.

— Miyanada bizga ishonchli va xavfsiz bir joy kerak. Biroz oziq-ovqat saqlab qo'ymoqchimiz. Zarur bo'lib qolganda bir korimizga yaraydi.

Fon Valter Hikmat Isfahoniyga jo'rttaga, oziq-ovqat deb qo'ya qoldi, chunki u saqlab qo'yadigan narsasining portlovchi moddalar ekanini undan yashirishni lozim ko'rdi. Hikmat Isfahoniy buning ma'nosini anglaganday:

— Oziq-ovqatmi? — deb so'radi-da, o'ylanib qoldi. — Aziz do'stim, yukning miqdorini bilishim mumkinmi? Yo'q, yo'q, xayolingizga boshqa fikr kelmasin, men faqat o'shanga qarab joy hozirlatib qo'ymoqchiman, xolos.

— Hozircha ellik tonna yukka joy bo'lsa bas. Keyinchalik, ehtimol, biroz ko'paytirarmiz. Lekin men sizdan shuni iltimos qilmoqchimanki, shu mollar sizning mollaringiz sifatida jo'natilsa. Uni mening odamim ham kuzatib boradi, albatta.

— Yuz tonna desangiz ham joy topiladi. Ozarbayjondan deysizmi, Mozandarondan deysizmi, qayerga desangiz ham ikki kunda yetkazamiz. Araksning naq o'zida ham joy topamiz. Shunday joylaymizki, hatto qushlar ham sezmay qoladi.

Hikmat Isfahoniy fon Valter meni miyasi yo'q bir ahmoq deb o'ylamasin degan maqsadda jo'rttaga ochiq qilib gapirishga tirishardi.

Lekin fon Valter o'zidan mamnun holda qo'llari bilan boshidagi sanoqli tuklarini silab turib:

— Rahmat, mister Isfahoniy! Biz ham bu yaxshiliklaringizni hech vaqt unutmaymiz, — dedi.

Endi Hikmat Isfahoniy o'z dardini ochdi:

— Og'oyi fon Valter, lutfingizdan foydalanib, sizga bir arzimni aytmoqchiman.

— Marhamat, marhamat.

Hikmat Isfahoniy Rizo shoh bilan bo'lgan hangamani mister Tomas bilan Garoldga qanday so'zlab bergan bo'lsa, fon Valterga ham xuddi shunday so'zlab berdi. O'zining nimadan xavf qilayotganini aytdi.

— Sizdan bitta iltimosim shuki, fyurerning men to'g'rimdagi qanday fikrda ekanini a'lohazratga bildirib qo'ysangiz!

Fon Valter yana qah-qah urib kuldi:

— Siyosatda bunchalik yosh bola bo'lmang, og'oyi Hikmat Isfahoniy. Buni Rizo shohga aytib bo'ladimi!

Keyin qo'lini Hikmat Isfahoniyning yelkasiga qo'yib, past tovushda:

— Axir, fyurer sizni Rizo shoh bilan bir qatorga qo'yadiya! — dedi.

— O‘tinaman sizdan, meni shu nomardning qilichidan qutqaring. Buning uchun og‘oyi elchi Rizo shohga bir og‘iz so‘z aytsa, bas.

— Qo‘rqmang, xotirjam bo‘ling, og‘oyi Hikmat Isfahoniy, siz bizning himoyamiz ostidasiz, sizga hech kim tegolmaydi.

Xayrlashar ekanlar fon Valter uni bir nafas to‘xtatdi. Shkafdan ikkita kitob oldi-da, birini Hikmat Isfahoniyga uzatdi:

— Oling, bu fyurerning “Mening kurashim” degan kitobi. Bir nusxasi forscha, bir nusxasi nemischa. Bu bir nemisning o‘z sodiq do‘stiga bera oladigan eng yuksak sovg‘asidir.

Kitoblardan birining sahifasiga allanarsalar deb yozib ham berdi. Hikmat Isfahoniy kitoblarni ikki qo‘llab qabul qildi:

— Xudo shohid, bu kitob men uchun Qur’onday azizdir, — dedi Hikmat Isfahoniy va sekin-sekin yurib fon Valterning xonasidan chiqib ketdi.

O'N OLTINCHI BOB

Tehron keskin qarama-qarshiliklar ichida yashar edi. Chetdan qaraganda, bu ko'zga chalinmasdi, hayot go'yo bir me'yorda oqib borayotgandek edi. Haqiqatda esa bu qarama-qarshiliklar daraxtni ichidan kemirib, quritib qo'ygan qurt singari Tehrondagi hayotni ich-ichidan kemirar edi. Tehron, bolalari bir-birini yeyish uchun yaralgan bola tug'gan onaga o'xshar va xuddi o'sha onaning barcha azob va iztiroblarini boshidan kechirardi. Qashshoqlik va badavlat turmush uning bolalari edi.

Shahardagi bu dahshatli manzara Faridun qalbida qishloq uyg'otgan qayg'u va g'azabni yana ham oshirib yuborardi. U bozor va ko'chalarni to'ldirgan boshpanasiz bolalar, sarson-sargardon bo'lib yurgan va ochdan o'lmaslik uchun uchragan har bir kishiga qo'l cho'zgan xotin-qizlarni diqqat bilan ko'zdan kechirar, ular orasidan Musa akani, Gulnozni, Sariya xolani, ularning bolalarini axtarardi.

Shu taqlitda u kunlab, haftalab shaharning ko'cha va bozorlarini axtardi, tanish-bilish hamda do'stlardan surishtirdi, yor-birodarlariga ularning belgilarini aytib qo'ydi, lekin bundan hech naf chiqmadi, qarindoshlaridan biron darak topmadi.

U mashinalarda kelib idora va do'konlarga kirayotgan qorni to'q, egni butun Hikmat Isfahoniylarni mahkam ushlab:

— Og'olar, ko'ringlar, mana bu bechoralarni, bularning hammasi — sizning ishingiz! — deb qichqirgisi kelardi. Uning qayg'u-hasrati borgan sari ortib bordi. Ilgarigi quvnoqlik va sho'xliklari yo'qolib, ularning o'rnini og'ir tushunchalar, azobli hissiyotlar egallay bordi. Bu tushuncha va hissiyotlar qalbidagi intiqom o'tlarini battar alangalatib, ozodlikka bo'lgan intilishini kuchaytirdi. Uning yuragi faqat rivojlanish, faqat kurashdagina taskin topardi, shuning uchun ham bu ishga yana mukkasidan ketdi. Ishi yomon borayotgani yo'q edi. Varaqalar bilan birinchi kitob kutgandan ham ortiq

natija berdi. Ularning mazmuni xalq orasida tez tarqalib ketdi. Shaharning har burchagida shu to'g'rida gap bo'lardi.

Faridunning nazarida, ularning eng katta ahamiyati — xalqda umid uyg'otgani, tuzum va mavjud hayotdan norozi bo'lgan odamlarni kurashga ruhlantirganida edi.

Odamlar, rasmiy doiralar va matbuot tomonidan tarqatilayotgan mish-mishlarga, ya'ni varaqalarni Sovet elchixonasi tarqatayapti, degan gaplarga aslo ishonishmas, istehzo bilan, jilmayish bilangina qarshi olishardi, bunga javoban esa varaqa chiqarib, tarqatgan odamlarga "Haqiqatchilar" degan nom berishgan edi. Varaqa avtorlariga berilgan bu nom ham xalq orasiga tez tarqaldi.

Xalq bunday ishga jasorat qilgan odamlardan yana ham dadilroq va kattaroq ishlar kutardi.

Qurbon Marandiy bir kuni Faridunni uchratib, xursandlik bilan unga otildi:

— Ana, endi nima deysan, og'ayni? — dedi u, — mening aytganim bo'ldimi — yo'qmi? Xalq tili yo'q hayvon emaski, doim indamay turaversa, shunchalik zulmga ham doim chidayversa, demabmidim? Esingdami, men senga birlashib ish boshlab yuboraylik, degan edim. Ko'nmagan eding, mana boshqalar boshlab yuborishibdi!

— Qiziq, qanday dadil odam boshlaydi bu ishni? — deb so'radi Faridun, o'zini bilmaslikka solib: u varaqa mualliflari to'g'risida odamlarning qanday fikrda ekanini bilmoqchi edi.

Qurbon Marandiy darhol uning xatosini to'g'riladi:

— Dadil odam emas, dadil odamlar! Sen nima ishlar bo'layotganini hatto ko'z oldingga ham keltira olmaysan. Aytishlaricha, ularning har yerda ham: qo'shinda ham, ichki ishlar ministrligida ham o'z odamlari bor emish. Faqat qulay fursat kelishini kutib turgan emishlar, payt kelishi bilan qurol ko'tarib, zulmning bu chirigan binosini ag'darib tashlagani chiqishar emish. Ha, yana bir gap bor, ko'z-quloq bo'lib tur, yaqinda ikkinchi kitobcha chiqar emish. O'zing topolmasang, menga shipshitib qo'y, o'zim senga topib beraman!

Qurbon Marandiyning so'zlari Faridunni bir jihatdan xursand qilsa ham, bir jihatdan o'ylatib qo'ydi. U xalqning bu umidini

so‘ndirmaslik uchun ishni yanada dadilroq davom ettirish kerakligini tushunar va buni o‘z burchimiz deb bilardi. Ular go‘yo baxt-saodat umidi bilan yashagan minglarcha odamlarning oldida bu yo‘ldan toymaslikka qasamyod etganga o‘xshardilar, buni buzishdan ko‘ra kattaroq gunoh bo‘lmasdi.

Endi ishni susaytirib yuborish, ikkinchi kitobni kechiktirish kishilarni umidsizlikka olib borish, yana jandarmeriya bilan politsiya ixtiyoriga topshirib, kurash maydonidan qochish degan gap edi! Shuning uchun Faridun bu tun kuchini va vaqtini sarflab ikkinchi kitob ustida ishlay boshladi. Ayni vaqtda bitta varaqa ham tayyorlay boshladi. Bu varaqa hokim va reaksion doiralarning bo‘htonlariga qarshi zarba berishi kerak edi. Rizo Qahramoniy poytaxtda chiqadigan gazetalarning oxirgi sonlarini olib kelib, stol ustiga taxlab qo‘ydi. Faridunning ishini yengillatish uchun u kerakli joylarini qizil qalam bilan tagiga chizib ham qo‘ydi. Faridun uyga qaytib kelganda u:

— Marhamat, azizim, hammasini taxt qilib qo‘ydim, lekin bir kun yangi hukumat tuzilib, ministr bo‘lganingda meni o‘zingga kotib qilib olasan, — deb hazillashdi.

— Bilasanmi, — dedi Faridun jiddiy ravishda, — haqiqatan ham xalq bizdan xuddi o‘sha yangi hukumatni kutyapti, xalqning umidi shu!

Endi Rizo Qahramoniy ham jiddiylashdi:

— Sen nima deb o‘ylagan eding? Xalqning ongini uyg‘otib qo‘yib, kurash maydonidan qochish yaxshi bo‘ladimi? Xalqning istagi doim o‘rinli va o‘z vaqtida bo‘ladi.

— Gaplaring to‘g‘ri, lekin biz bu istakni amalga oshirishdan shunchalik uzoqmizki! Biz hali hatto bu masalada o‘z fikrimizni ham aniqlab olganimiz yo‘q. Nima qilmoqchimiz? Maqsadimiz nima? Qanday hokimiyat uchun kurashamiz? Biz hozirchalik eski tuzumni buzish to‘g‘risidagina so‘zladik, xolos.

— Bu haqda hali ko‘p bosh qotiraverma, azizim, — dedi Rizo Qahramoniy, — bu eski hukumatni ag‘dargandan keyin qanday hukumat tuzish kerakligini xalqning o‘zi topib oladi.

Rizo Qahramoniy ana shunday katta masalalar to‘g‘risida fikrga toldi, uning ko‘zlari shirin orzular va ilhom bilan porladi:

— Bilasanmi, Faridun, keyingi kunlarda mening ko'nglim tog'dek ko'tarildi. Men onadan yangi tug'ilgandek, dunyoni boshqacha tushunishga va unga boshqacha ko'z bilan qarashga boshladim. Hatto o'zimga ham boshqacha nazar bilan qaraydigan bo'lib qoldim. Ba'zan o'zimga o'zim: "Sen o'zingni kichkina odam deb o'ylama. Sen aslida juda katta odamsan, katta zabardast quvvatning bir bo'lagisan. U quvvat xalqdir. Sen u bilan birga bo'l, undan ajralma, uning fikri bilan yasha! Ana shunda o'zingning qanday katta va yengilmas, qimmatli va hatto go'zalligingni bilasan!" deb qo'yaman.

Faridun gazetalarni ko'zdan kechirib o'tirib, do'stining gapini tinglardi. Bu so'zlar bilan Rizo Qahramoniy katta, muhim bir narsani ifoda qilib berishga urinayotganini tushundi. Faridun uning aytayotganlaridan ko'ra ko'proq narsani his etayotganini payqadi.

— Sen baxtlisan, do'stim, — deb javob berdi u o'rtog'iga, — diling tilingdan ko'ra boyroq. Ularni hali yaxshi ifodalab berolmasang ham, hislaring juda chuqur. Bu, inson uchun katta baxt, katta xislatdir. Lekin dunyoda boshqacha odamlar ham ko'p. Mana, qara, o'shalardan biri nimalar deb yozibdi.

U "Sado" gazetasida bosilgan So'fi Eronparastning "Vatan xoinlari tutildi" degan maqolasini o'qiy boshladi. So'fi Eronparast ichki ishlar ministrligi tomonidan allaqanday Rahmonzoda degan odamning uchta sherigi bilan tutilganidan xabar berardi, Rahmonzoda go'yo bu kitoblarning Bokuda bosilganini, o'zi esa o'rtoqlari bilan birga Eron tuprog'iga parashutda tashlanganini bo'yniga olgan emish. Gazetada hatto Rahmonzodaning parashut oldida tushgan rasmi ham bosilgan edi. Maqolaning oxirida So'fi Eronparast ichki ishlar ministrining ruxsati bilan Rahmonzodani o'zi shaxsan kirib ko'rgan va suhbatlashganini xabar qilgandi.

Faridun gazetani bir chetga uloqtirdi.

— Shunchalik ham kulgili va qabih ish bo'lishi mumkinmi! Og'oyi Hikmat Isfahoniyning kundalik gazetasidan bundan ortiq nimani ham umid qilarding.

— Yo'q, bundan ham ortig'ini kutish mumkin, — dedi Rizo Qahramoniy va gazetani olib, boshqa betida bosilgan bir maqolani ko'rsatdi. — Sen mana buni o'qib ko'r. Qara, Hikmat Isfahoniy majlisda nimalar depdi.

Bu Hikmat Isfahoniyning majlisda so‘zlagan nutqi edi. U o‘z nutqida Eronning shimolida qo‘zg‘algan qora bulutlar to‘g‘risida, dinsiz va Xudosizlarning faoliyati kuchayganligi va kofirlarning xurujlari to‘g‘risida so‘zlar va imom Sohibuzzamonning* g‘arb tomondan kelishidan xabar berardi.

Imom Sohibuzzamon — musulmonlarning o‘n ikkinchi imomi. U odamlar ko‘zidan narida yashaydi. Rivoyatlarda aytishlaricha, u yerda dinsizlik avj olib ketganda paydo bo‘lar emish va yana hammani dinga kiritar emish.

Sohibuzzamon degani — zamonaning hukmdori degan ma’noni bildiradi.

— Riyokorligini qara-ya, — dedi g‘azab bilan Rizo Qahramoniy, — o‘zi umrida namoz o‘qimaydi-yu, Sohibuzzamondan gapiradi-ya! Bu janoblar xalqni rosa ahmoq qilishmoqchi bo‘lishadi-da!

Faridun, “Sado”ni qo‘yib, “Faryod”ni oldi. Bu gazetada ham varaqalar bilan kitob haqida gap bor edi. Lekin bundagi gaplar biroz boshqacharoq edi: unda aytilishicha, varaqalar ham, kitob ham Kominternning Tehronda yashirin holda yashayotgan agentlari tomonidan tarqatilgan edi. Bu odamlarga Musa degan bir Falastin yahudiysi boshchilik qilayotgan emish.

Gazeta yana o‘z o‘quvchilarini bu agentlarning soni bir necha mingdan ortiq ekaniga ishontirmoqchi bo‘lardi. Ular, go‘yo Eron odatini yaxshi bilmaganlaridan, choyxonalarda katta stakanlarda choy ichib o‘tirganlarida qo‘lga tushibdilar va o‘zlarining Kavkazdan kelganlariga iqror bo‘libdilar. Shundan so‘ng gazeta ularning hammasini qatl qilinishini talab qilar edi.

Faridun bu gazetani ham bir chetga qo‘yib:

— Qiziq, ular shu bahona bilan kimlarni aldamoqchi bo‘lishyapti ekan? — dedi o‘zicha.

Rizo Qahramoniy o‘rnidan turdi:

— Ular o‘z aqlini yeb qo‘yishibdi! — dedi u g‘azab va nafrat bilan. — Men ketdim. Meni Farida bilan Karimxon kutib turishibdi. Oxirgi kitoblarni olib chiqish kerak. Bugun kechqurun Sarxonnikida yig‘ilishamiz-a, esingdan chiqmasin.

— Bunday narsalar esdan chiqmaydi, — deb javob berdi Faridun, — ishingga muvaffaqiyat tilayman! Men kechqurun sizlarga

ajoyib bir xabar olib boraman, — dedi-da, yana boshqa gazetalarni ko'zdan kechira boshladi.

Rizo Qahramoniy do'sti hozir aytishni lozim ko'rmagan narsani so'rab o'tirmadi. Shuning uchun u hamma o'rtoqlarini ham xursand qiladigan xabar eshitish umidida indamay chiqib ketdi.

* * *

Faridun va Kurd Ahmad bilan tanishgach, Sarxon o'zining qanday o'zgarib borayotganini payqamasdi. U o'zini yengil his qilibgina qolmay, balki ilgarilar qorong'i va tumanli ko'ringan hayot yo'lida endi shu'la paydo bo'layotganini ko'rardi. Hamisha g'amgin, umidsiz va qosh-qovog'i soliq bo'lgan Sarxon xushfe'l, xushchaqchaq, odamga tez aralashib ketadigan va g'ayratli odamga aylana boshladi. Sarxondagi bu o'zgarishni hammadan oldin uning onasi bilan Farida sezdi. U endi arzir-arzimasga bo'g'ilmas, sabrli, vazmin bo'lib qolgan edi. Uning muhit va kishilarga nisbatan bo'lgan munosabati ham o'zgardi. Kishilarga qarshi qalbida saqlagan nafrati endi muhabbat hislari bilan almashdi.

Farida ham, uning nazarida, kundan kun qadrliroq va afzalroq bo'la bordi, Sarxonning unga nisbatan bo'lgan mehr-u muhabbati ortdi. Avvallari u Faridani haftalab ko'rmasa ham esiga kelmasdi. Endi bo'lsa uydan chiqqanining uchinchi-to'rtinchi kuniyoq sog'inib qolardi.

Sarxon juma kuni ishdan qaytsa, onasi ostonada o'tirib, charx yigirib o'tirgan ekan. Xafa bo'lib kelganida ham, xursand bo'lib kelganida ham, doimo istiqboliga chiqib, qo'liga suv quyadigan, atrofida parvona bo'ladigan Farida bugun uyda yo'q ekan.

Kampir charxni surib qo'ydi-da, bukilib qolgan qaddini rostladi. Hovli devoriga osig'liq kichkina temir qo'l yuvgichga suv to'latdi.

— Oyi, Farida qani? — deb so'radi Sarxon.

Sarxonning achchig'lanishidan cho'chib turgan ona, uning muloyimlik bilan so'zlayotganini ko'rib yengil tortdi.

— Yana o'shayoqqa ketdi, o'g'lim, hozir kelib qolar. Agar sen undan oldin kelsang, bugun yana o'shandan olib kelgani ketdi, deb qo'ying degan edi. O'shandan olib keladi...

Sarxon xotinining ziyrakligi va ochiqligini o'ylab kulimsiradi.

— Yaxshi kelining borda, oyi! — dedi.

O'g'lining birinchi marta Faridani maqtaganini eshitgan kampir:

— O't deysan, o't, — dedi uning so'zini ma'qullab, — xuddi buloqday qaynaydi. Butun hukumatning ishini topshirib qo'ysa ham uddalaydi. Bilmagan narsasi yo'q, dunyodagi hamma ishdan xabardor. Birpas bozorga chiqsa bas, shaharda bor gapning hammasini bilib keladi. Qalbi ham sof! Barchaga baravar, hammaga mehribon. Juda odamijon.

Shu payt eshikdan yelkasida yuk ko'targan Farida kirib keldi, unda har xil sabzavotlar ko'rinib turardi.

— Ha, keldingmi? — deb qarshi oldi uni Sarxon, — qaynanang sen to'g'ringda nima deyotganini o'zing qam bir eshitib qo'y.

Sarxon xotinining yelkasidan yukni oldi.

— Uh, biram og'irki! Kiftim uzilib tushay dedi! — deb qo'ydi, terlab-pishib ketgan Farida, yukni eriga uzatar ekan.

Sarxon yukni ichkariga olib kirdi-da, sabzavotlar tagidan oq muqovali kitoblardan birini oldi. Xuddi yosh bolalardek sevinib o'pib, bag'riga bosdi.

— Yelkalaringdan aylanay, — dedi u Faridaga, — yelkang xalqqa baxt-saodat olib kelibdi. — Xotinini o'pmoqchi bo'lgan edi, lekin Farida uni to'xtatdi:

— Sabr qil, yuragim gupillab uryapti, birpas nafasimni rostlab olay, keyin... — dedi.

Rizo Qahramoniy kirishi bilan Sarxon Faridani bo'shatdi.

— Iye, usta, quruq kelibsan? — deb hazillashdi Sarxon.

— Men mollarimning hammasini mashinaga bosib Isfahonga jo'natdim. U yerda molimni juda qimmatga olishadi! — deb kuldi Rizo Qahramoniy.

— Mozandaron tarafda ham sening molingga juda talab katta. Kutaverib bechoralarning toqati toq bo'ldi!

— Qo'rqma, hammaga ham yetadi!

Kampir ularni ikkinchi xonaga, choyga taklif qildi. Rizo Qahramoniy stol ustida pishqirib qaynayotgan bir biqini pachoq samovarga va jo'mragi siniq choynakka qaradi.

— Shu samovarda choy ichishni yaxshi ko‘raman-da, pishqirishiga qoyilman. Sarxonning parovozi ham bunchalik pishqirmaydi.

Sarxon ham uning hazilini javobsiz qoldirmadi:

— Ustasi sen bo‘lganingdan keyin pishqiradi-da.

— Cho‘loq otni ko‘r qilib qo‘yadigan ham taqachi bo‘ladi-da.

Ular kulishib, stolga o‘tirdilar. Shu payt eshik taqillab, Rizvon kirib keldi.

— Ha, zolim o‘g‘li, juda vaqtida kelding-a, — deb kuldi Rizo Qahramoniy.

Kampir Rizvonga joy ko‘rsatdi.

— Qaynanang juda yaxshi ko‘rar ekan, o‘g‘lim, o‘tir.

Rizo Qahramoniy Rizvonga qaradi:

— Eshityapsanmi, oshna: xotining emas, qaynanang yaxshi ko‘rar ekan...

Rizvon ham darhol, javob bera qoldi:

— Qaynanasi bir kun yaxshi ko‘rgan kishining xotini ming kun yaxshi ko‘radi!..

Kampir stakanlarni artib, yaxshi dam yegan quyuq choy bilan to‘ldirdi-da, har kishining oldiga bir stakandan choy qo‘ydi. Sarxon yaqinda Mozandaronda dehqonlar bilan zamindorlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan to‘qnashuv to‘g‘risida gapirib berdi.

— Dehqonlarning bor-yo‘g‘ini tortib olishibdi, dehqon imonini bersa beradiki, mol-mulkini bermaydi. Ikki qishloqda arbobni tutib olib urishibdi, boshqa bir qishloqda gumashtani o‘ldirishibdi.

Rizo Qahramoniy Rizvonga ishora qildi:

— Bizning ba’zi og‘olar esa, dehqonlarni pisand qilishmaydi! Ular uyasidan chiqqach, o‘sha uyani haqorat qiladigan baqaga o‘xshaydilar.

— Birinchidan, gapni chigallashtirmay, ochiq gapir, — dedi Rizvon, o‘rtog‘ining chehrasiga tik boqib. — Ba’zi og‘olar deganing kim? Ikkinchidan, men dehqonlarga juda yuqori baho beraman, lekin faqat dehqonlarga tayanib, ularning o‘zi bilangina hukumatni ag‘darib bo‘lmaydi, degan fikrni ta’kidlayman.

— Sening eng katta xatoying ham ana shunda! — dedi Rizo Qahramoniy. — Sen bilan tortishib o‘tirishning ham hojati yo‘q.

Qara, shunchalik zulmga, jandarmlarning qamchisidan qon tomishiga qaramay, dehqonlar arbobni tutib olib urishibdi. Nima deysan bunga? Yoki, seningcha, bu ham zulm binosini ag'darishga emas, balki tirgak qo'yish uchun ilingan harakatmi?

— To'g'ri, bu zulm binosini ag'darish uchun chuqur qazish, lekin tirnoq bilan qazish, men bo'lsam metin bilan qazish tarafdoriman. Metin, lom, dinamit bilan chuqur qazish kerakki, zulm binosi gumbirlab ag'darilsin!

— Sen shuni yaxshi bilginki, dehqonni unutsang, vaqt kelganda metin uradigan odam topolmay qolasan.

Shu taxlitda ilgarigi bahs yana qizishib ketdi. Tortishuvchilar goh qizishib ketishar, baqirishar, goh pasayishar edi. Sarxon, Rizvon o'z xatosini e'tirof qilishini istamasa-da, ilgariga nisbatan ancha bo'shashganini va xiyla past kela boshlaganini sezdi. Rizo Qahramoniy esa uni xatosidan tamom voz kechmaguncha tinchitmoqchi emasdi.

Lekin shu payt Faridun kelib qoldi. Farida sakrab turib, uni qarshi olgani yugurdi.

— Faridun aka, — dedi Farida xursandlik bilan, — hammasini olib chiqib bo'ldik, joy-joyiga tarqatdik.

— Yasha, Farida, — deb uning qo'lini siqdi Faridun.

U hamma bilan birma-bir ko'rishdi. Kampirning oldiga kelib salom berib, so'radi:

— Sandiqdagi qanddan yana ishlatibsiz-da, a? Kosangizning ahvoli qalay?

— Umring uzoq bo'lsin, bolam. Qani endi sizga o'xshagan mehmonlar kelaversa, men sandiqdagi qanddan olib, oldilaringga qo'yaversam. Kosam ham turibdi, singani yo'q, — dedi-da, tokchadan kosani olib ko'rsatdi, uni uyoq-buyog'idan tomosha qilib, changini artdi-da, yana joyiga qo'yib qo'ydi.

Rizo Qahramoniy bilan Rizvon Faridunni darrov o'z bahslariga tortdilar. Faridun o'tirdi-yu, yon cho'ntagidan bir kitobcha oldi.

— Sizni qiziqtirgan masalalarning hammasiga ham manavi kitobda aniq javob berilgan, — dedi u kitobning muqovasini silab. — Zo'rg'a topdim! O'qigan sari johilligimizga hayron qolaman. Dunyoda bizga hamon qorong'i bo'lgan masalalar allaqa-

chon hal qilib qo'yilgan ekan. Mana, masalan, ishchilar bilan dehqonlar masalasini birinchi bo'lib bizning Rizvon maydonga otdi deb o'ylab yuribmiz, vaholanki, bu masala allaqachon hal qilingan ekan.

Rizvon qizarib, kitobga qo'lini uzatdi.

— Bu qanday kitob ekan?

Faridun uning qo'lini qaytardi:

— Shoshma, hozir aytaman, — deb o'rnidan turdi-da, kitobni boshiga ko'tarib tantanali ravishda:

— Do'stlarim! Biz shu paytgacha ko'z oldi qop-qorong'i bo'lgan ko'rlar singari turtinib-surtinib yurgan ekanmiz.

Hamma diqqat bilan Faridunning gapiga quloq solardi. Sarxon achchiq choy quyilgan stakanni nariroq surib, yaxshilab o'rnashib o'tirdi. Rizo Qahramoniy bilan Rizvon o'zlarining bundan sal ilgari o'tgan bahslarini unutib, bir-birovlariga suyanib o'tirishardi. Rizvon bir qo'lini Sarxonning yelkasiga tashlab stolga engashib o'tirardi.

Kampir ikki qo'lini jag'iga tirab taajjub bilan Faridunga tikilgan edi. Tikka turgan Farida ham ko'zini undan uzmasdi. Faridun gapira boshlaganidan keyin kirib kelgan Aram ham uning og'ziga tikilib qoldi. Faridun do'stlarini bir-bir ko'zdan kechirib, yana davom etdi:

— Do'stlarim! Mening ko'z oldimda buyuk haqiqatlar ochildi! Men o'ylab-o'ylab, zamonamizda ozodlik va taraqqiyot uchun kurash bayrog'ini ko'taradigan har qanday siyosiy partiya ham o'z yo'lini leninizmning porloq nurlari bilan yoritishi lozim degan xulosaga keldim. Aks holda, bunday partiya ko'r singari har qadamda qoqilishi va yiqilishi turgan gap! Asrimizda barcha xalqlarning ozodlik bayrog'i lenincha-stalincha ta'limotdir!

Yana eshik taqilladi, hamma sergaklashdi. Farida eshik ochgani yugurdi. Kurd Ahmad bilan Karimxon Ozodiy keldilar, Ozodiy o'zining xotini Xovarni ham boshlab keldi.

Faridun so'zida davom etdi:

— Mana, quloq soling, o'rtoq Stalin biz shu mahalgacha bahslashib yurgan masalamizni juda chuqur va aniq ifodalab bergan.

Faridun kitobni ochdi, varaqlab, bir sahifada to'xtadi. Hammalari zichroq o'tirishib, ko'zlarini o'sha sahifaga tikdilar.

Faridun o'qiy boshladi:

"Dehqonlar masalasiga II Internatsional partiyalarining beparvolik bilan va hatto ochiqdan ochiq ters qarashlarining sababi G'arbning alohida sharoitda rivojlanishigina emas. Buning sababi, avvalo, shuki, bu partiyalar proletar diktaturasiga ishonmaydilar, rivojlanishdan qo'rqadilar va proletariatni hokimiyat tepasiga qo'yish to'g'risida o'ylamaydilar. Kimki rivojlanishdan qo'rqsa, kimki proletarlarni hokimiyat tepasiga qo'yishni o'ylamasa, u proletariatning bu vaqtdagi ittifoqdoshlari to'g'risidagi masalaga qiziqolmaydi, u ittifoqdoshlar haqidagi masalani ahamiyatsiz masala deb bilib, unga beparvolik bilan qaraydi. Dehqonlar masalasiga II Internatsional qahramonlarining istehzo bilan qarashlari, ularning nazarida, sipogarchilik belgisi, "haqiqiy" marksizm belgisi deb hisoblanadi. Haqiqatda bunda marksizmdan asar ham yo'q, chunki proletar revolutsiyasi arafasida dehqonlar masalasidek muhim masalaga qiziqmasdan beparvolik bilan qarash proletariat diktaturasini ikki tomondan inkor etishdir, marksizmga ochiqdan ochiq xiyonat qilishning shubhasiz belgisidir".

Faridun o'qib bo'lgach, Kurd Ahmad o'rnidan turib, uni quchoqlab o'pdi.

— Yasha, birodar! Juda yaxshi ish qilibsan, bizga juda katta yordam bu! Men ham Stalinning kitobini ko'pdan beri axtarib yurgan edim lekin sen mendan baxtliroq ekansan, — dedi-da, o'tirganlarga qarab davom etdi. — Bilasizlarmi, so'nggi paytlarda bir fikr aslo miyamdan nari ketmayapti. Biz varaqalar, kitobchalar bosish, ularni tarqatish, omma orasida tashkiliy va agitatsion ishlar olib borish bilan birga o'rtoqlarimizni nazariy jihatdan tarbiyalash ishini ham olib borishimiz kerak. Siyosiy kurash yo'liga kirgan odamlar bu kurashning nazariyasini ham yaxshi o'rganishlari kerak. Men o'n kunda bir marta maxsus nazariy mashg'ulot tashkil qilib turishni taklif qilaman. Hali biz ko'p masalalarni o'rganishimiz kerak. Kerakli adabiyotlarni ham asta-sekin topib olamiz.

— Juda yaxshi maslahat! — deb hamma bir og'izdan uning fikrini quvvatladi.

Faridun kitob o'qirkan terlab-pishib ketgan, hozir esa fikrga tolgan Rizvon, do'stlarining tikilib turishlaridan xijolat tortmadi.

— O'rtoqlar, qanday katta xato qilganimni endi tushundim. Ko'zlarim ochildi. Dehqonlarga uncha e'tibor bermay, juda yanglishgan ekanman.

Biroz sukutdan so'ng yana so'zida davom etdi:

— Juda yaxshi maslahat berildi, bilimsiz kishi siyosiy kurash olib borolmaydi. O'qishimiz kerak. Nazariy bilim olishning o'zi ham istibdod zulmiga qarshi kurashning ifodasidir.

Birinchi mashg'ulot kunini belgiladilar. Uni o'tkazish Faridunga topshirildi. U revolutsion kurashda ishchilar bilan dehqonlarning o'zaro munosabati qanday bo'lishi kerakligini Stalinning kitobi asosida so'zlab berishi kerak edi.

Keyin ikkinchi kitobni tarqatish masalasiga ko'chdilar. Tehronda bu ishni bajarish Rizo Qahramoniy, Karimxon Ozodiy va Xovarga topshirildi. Mozandaronda bu ishni Sarxon bajarishi kerak edi. Gap Kurdistonga kelganda, Kurd Ahmad:

— Meni xo'jayin Kurdistonga yuboryapti. Men o'zim bilan yuz nusxa olib ketaman, — dedi.

Tabrizda va Ozarbayjonning boshqa yerlarida kitobchani tarqatish ishini Faridun o'z zimmasiga olmoqchi bo'ldi, universitetdan o'n kunga ruxsat olib ketajagini aytdi. Lekin bu fikrni hech kim quvvatlamadi.

— Men Faridun akaning Ozarbayjonga borishiga qarshiman, — deb e'tiroz bildirdi Farida, — bu juda xavfli ish, buning ustiga u hozir shu yerda bo'lishi kerak. Agar ijozat bersangizlar u yerga o'zim olib boraman.

Hamma taajjub bilan Faridaga qaradi.

— Qo'rqmaysanmi? — deb so'radi Faridun.

— Nimadan qo'rqaman? — deb dadil javob berdi Farida. — Shunday olib boramanki, hech kim bilmay qoladi.

Ularning taraddudlanib qolishganini ko'rib kampir gapga aralashdi:

— Qo'rqmanglar! U ayol emas — o't! Olib boradi! Bundan xotirjam bo'laveringlar.

Bir og'izdan shunga qaror qildilar. Kurd Ahmad Faridaga Tabrizda Ozar o'g'li degan odamni qanday topishni tushuntirdi.

Yarim kechada hammalari bitta-bittadan chiqib, tarqalishdi.

Farida bilan yolg'iz qolgach, Sarxon xotinini bag'riga bosib, hayajonli tovush bilan:

— O'zingni ehtiyot qil, Farida, — dedi.

Farida ham uning bag'riga siqildi.

— Endi men hech narsadan qo'rqmayman. Sarxon, azizim, bir o'ylab ko'rgin, bizning orqamizda kim turibdi! Mening nazarimda, Stalinning o'zi shu yerda biz bilan turganga o'xshaydi, u mening qalbimda. U menga qo'rqma, qizim, dadil bo'l, tutgan yo'ling to'g'ri yo'l, deyayotganday bo'ladi.

Uning hayajon va sevinchi Sarxonga ham o'tdi.

— To'g'ri aytding, Farida, — dedi u hayajon bilan. — Dunyoning qaysi burchida revolutsionerlar paydo bo'lmasin, Stalin ular bilan birga, u — bizning ozodlik bayrog'imizdir!

— U juda matonatli va qo'rqmas odam deyishadi, shu to'g'rimi? — deb so'radi Farida birdan yosh bolalarcha soddadillik bilan.

— U Sibirda surgunda bo'lgan, dunyoning barcha azob-uqubatlarini ko'p tortib, maqsadga erishgan, — deb g'urur bilan javob berdi Sarxon, — bunday odamlarchi, Farida, yuz yilda, ming yilda bir dunyoga keladi!

— Qasam ichib aytamanki, hech vaqt uning yo'lidan toymayman! O'lsam ham qaytmayman!

Sarxon Faridaning bekorga qasam ichmaganini angladi: u bu yo'lda ko'p azob-uqubatlarga uchrashi mumkinligiga aqli yetar edi, shuning uchun shu qasam bilan o'zining irodasini mahkamlab olmoqda edi.

Sarxon xotiniga endi javob bermoqchi bo'lib turgan ham ediki, ostonada o'tirib gaplariga quloq solayotgan kampir uning so'zini kesdi:

— Stalinning bayrog'i dunyo turguncha tursin! O'sha bayroq sizlarni ham yorug' kunlarga olib chiqsin! — dedi u.

Kampirning duosidan keyin Sarxon indamay xotinining sochini siladi.

* * *

Faridun Qurbon Marandiydan o'zini chetroq olib yurdi. Universitet koridorida yoki hovlisida har zamonda unga to'qnash kelib qolsa:

— Ha, og‘o, ishlar yaxshimi?

— Yaxshi, rahmat, o‘zlaridan so‘rasak? — kabi qisqagina salom, alik bilan cheklanar edi.

O‘zining nazorat ostiga olinganini bilgan va hammaning undan shubhalanishini ko‘rgan Qurbon Marandiy ham talabalardan chetlanibroq yurar, hech kimga ishonmas, hech kim bilan yaqin suhbatda bo‘lmas, universitetda bir o‘zi boshini tik tutib yurardi.

Faridun bugun universtitetga g‘amgin va o‘ychan holda keldi. U o‘zining butun borligini chulg‘ab olgan xayollardan qutulmoqqa urinar, fikrlarini bir yerga to‘plab ma’ruza eshitishga harakat qilardi.

Tanaffus chog‘ida auditoriyadan chiqib, xayolchan kezib yurarkan, deraza oldida turgan bir to‘da talabalarga ko‘zi tushdi. Bular uchinchi kurs talabalari edi. Bir vaqt Qurbon Marandiy bilan janjallashgan pakana talaba ham shular ichida edi.

Faridun ularga ahamiyat bermay, kezib yurishda davom etarkan Qurbon Marandiy duch keldi. Qurbonning kayfi chog‘ edi. Faridun bilan salomlashib o‘tib ketdi-da, ikki qadam yurgach, duch kelgan boshqa bir talabaga boshi bilan salom berib, zavq bilan ozarbayjon tilida bir bayt o‘qidi:

“Na ehtiyojki, soqi vera sharob sana,
Ki verdi bodasini chunki oftob sana.”

Shodlik bilan jilmayib, xursandlik izhor etgan haligi do‘sti og‘zini ochib javob berishga ulgurmasidanoq, pakana talaba sheriklari orasidan chiqib, ularning oldiga keldi-da:

— Og‘o, bu yer Eron, tiliniz esa fors tili! — dedi.

— Bilaman, — deb javob berdi sal xijolat bo‘lgan Qurbon Marandiy. — Buni o‘zim ham bilaman. Hozir o‘qiganim baytim Soib Tabriziyning[1] bayti. U “Ozarbayjon donishmandlari” degan kitobda bosilgan.

— Og‘o, siz meni o‘qitmang! Men buni chirkin ish, jinoyat va xiyonat deb hisoblayman!

Qurbon Marandiy yana qizishib ketdi:

— Chirkin ish chirkin odamga yarashadi! Siz oldin o‘zingizni eplab oling!

[1] **Soib Tabriziy** — XVI asrda yashagan atoqli ozarbayjon shoiri.

Pakana talaba yana bir-ikkita qo'pol gap qilgan edi, Qurbonning battar g'azabi qaynab, pakana talabani koyib tashladi. Qizishib ketgan Qurbon Marandiy yonlariga adabiyot fakultetining dekani kelib qolganini sezmay qoldi.

Dekan ham ozarbayjon tilida so'zlashish va she'r o'qish vatanga xiyonat qilish bo'ladi, deb Qurbon Marandiyni ogohlantirdi. Bu gap Qurbonning toqatini toq qilib yubordi. U o'zini tuta olmadi:

— Og'o, axir, bu Soibning she'ri-ku, go'zal va nafis qilib yozilgan she'r, — deb e'tiroz bildirdi u dekanga.

— Agar poeziyani sevsang Sa'diy bilan Hofizning she'rlarini o'rgan, — deb nasihat berdi dekan. — Bu qo'pol, bema'ni va mazmunsiz tilda yozilgan she'rlarni og'zingga olma!

— Axboringiz uchun aytib qo'yay, u Soib Tabriziyning she'ri edi, uning she'rlari juda nafis, ma'nodor va g'oyat latif tilda yozilgan!

— Surbetlik qilaverma! Aytganni qil!

— O'z ona tilida she'r o'qish surbetlik bo'ladimi, og'o?

Qurbonning oxirgi so'zlari dekanning toqatini toq qildi:

— Ozarbayjonliklarga arpa yedirish kerak deb Mustafiy bilib aytgan! — deb qichqirdi u bo'g'ilib.

Bu haqorat Qurbon Marandiyning jon-jonidan o'tib ketdi. Xo'rlikka chidayolmadi:

— Og'o, biroz odobni ham bilish kerak! — dedi u g'azab bilan.

Janjal bo'lgan joyga to'planganlar orasida bir necha ozarbayjon, kurd va armani talabalari ham bor edi. Ular Qurbon Marandiyning yonini olishga urinib ko'rdilar. Dekan battar bo'g'ilib, ularni ham xoinlar deb atadi. Qizishib ketgan talabalarning dekanni tutib olib urishlariga sal qoldi. Masala rektoratgacha chiqdi. Rektor Qurbonni oldiga chaqirib, uni vatanparvarlik hissini yo'qotib qo'yishda va talabalar orasida g'ovg'a qo'zg'ashda ayblab, universitetdan haydalganini aytdi. Bu talabalarni zo'r hayajonga soldi. Bu ayniqsa ozarbayjon, armani va kurd talabalariga juda yomon ta'sir qildi. Ular o'zlarini begona va dushman mamlakatga tushib qolgan odamlardek his qilishardi.

Kechqurun Faridun bu hodisani Rizo Qahramoniyga gapirib berdi.

— Eh, bu shovinizm naqadar yaramas narsa! — dedi Faridun, — xo'jayinlar ishchilar bilan dehqonlarning qonini so'rib ham to'yishmapti, ular yana Eronda yashovchi bechora millatlarni bir-birlariga dushman ham qilib qo'ymoqdalar. Yer yuzida bundan ko'ra qabihroq jinoyat bo'lmasa kerak. Chunki insoniyatning baxt-saodati millatlarning bir-birini hurmat qilishlarida va totuv, do'stona yashashlaridadir.

Bu so'zlar Rizo Qahramoniyga qattiq ta'sir qildi:

— Men ham forsman, — dedi bo'g'iq tovush bilan, — lekin men xalqim nomidan bunday yaramas ishlarni qilgan kishilarning xatti-harakatidan nomus qilaman.

— Nafrat qilaman. Menga tasalli beradigan narsa — sizlarning: Kurd Ahmadning, Aramning, sening meni izzat-hurmat qilishingiz, do'stligingiz va ishonchingizdir... Biz og'a-inilarmiz, shuning uchun mening istagim shuki, bizning shu do'sti-birodarlarimiz xalqlarimiz do'stligining ham ramzi bo'lib qolsin!

Faridun "Ona" romanidagi qahramonlardan birining so'zlarini esladi:

— Shunday, do'stim, biz yuraklarimizning olovi bilan boshqalar yo'lini yoritishimiz kerak!

O'N YETTINCHI BOB

Sartib Salimiyning kabinetida og'ir jimjitlik hukm surar edi. Sartibni kutib o'tirgan Hofiz Biluriy bilan Yavar Azimiy yuzma-yuz o'tirishib fikrga cho'mgan edilar. Ularning oldidagi stol ustida nard o'yinining oq va qizil donachalari sochilib yotar edi.

O'yin allaqachon to'xtab qolgandi — ularning xayoli tamom boshqa yoqda edi. Nard yonida turgan stakanlardagi choy sovib qolgan, mehmonlar oldiga qo'yilgan meva-chevalarga hatto qo'l ham urilmagan edi.

Yavar Azimiy toqatsizlik bilan tez-tez soatiga qarab qo'yardi. Hofiz Biluriy esa noma'lum bir nuqtaga tikilgan holda o'ychanlik bilan nard toshlarini o'ynab o'tirardi. Ikkalasi ham hozir Salimiyning taqdiri hal bo'layotganini bilishar va bu ishdan qanday natija chiqishini tasavvur etishga urinardilar.

Salimiy uydan chiqib, saroyga jo'naguncha ular bu uchrashuvning yuz berishidan xursand edilar. Ular bu uchrashuv yaxshilik bilan tugaydi, degan fikrda edilar. Sartib Salimiy bu uchrashuvda mamlakat siyosatida biror katta o'zgarish yasashga erisha olmasa-da, o'zi to'g'risidagi yomon gaplardan qutulib, o'zining ilgarigi mavqeini tiklab chiqsa kerak, deb o'ylar edilar.

Lekin Salimiy bular bilan xayrlashib hovlidan chiqib ketishi bilanoq ularning ko'ngli g'ash bo'la boshladi.

Hofiz Biluriy nard toshlarini aralashtirib yuborib, Yavar Azimiyga qaradi:

— Nima uchundir yuragim hovliqib ketyapti. Sartib biror tuzatib bo'lmas xato qilib qo'ymasa edi...

— Men ham biror qaltis ish qilib qo'ymasa edi deb xavotirdaman.

— Vaziyat shundayki, ishning mushkullashib ketishi ham mumkin.

— Sartibning ahvoli og'ir, albatta.... Sartibning yakka o'zi, muxoliflari juda kuchli...

Yavar Azimiy ko'pdan beri o'zini qiynab yurgan shubhalarini keksa o'qituvchiga ochdi:

— Siz qanday o'ylaysiz, Salimiyning tarafdorlari ko'p bo'lgan taqdirda ham podsho uning taklifini qabul qilarmikin?

— Oldindan bir narsa deyish qiyin, — dedi Hofiz Biluriy, bir nafas o'ylab olgach, — agar sartib Salimiy kabi odamning taklifi rad qilinsa, demak mamlakatimizda hech qanday haqiqat yo'q, yozilganlar va aytilgan gaplarning hammasi ham yolg'on ekan.

Ko'cha eshik qo'ng'irog'i jiringlaganini eshitib, ikkalasi baravar turib, hovliga chiqishdi. Sartib kirgach, uning chehrasi va xatti-harakatidan kayfiyatining qanday ekanini bilishga urindilar. Sartib o'ychan va rangi oqargan holda kirib keldi, sochidagi oqlar ko'paygandek edi.

Yavar Azimiy o'zini tutolmay:

— Nima bo'ldi, Sartib? — deb so'radi.

Sartib javob bermadi. O'ychanlik bilan do'stiga qarab qo'ydi-da, fikrga toldi. Uchrashuvning yaxshi natija bermaganini payqagan do'stlar ham boshqa hech narsa so'ramadilar.

Sartib o'ng qo'lini iyagiga tirab, uzoq vaqt indamay o'tirdi. U umrining eng qimmatli vaqtlarini bo'sh xayollarga sarflab yuborganiga afsuslanar edi. Nazarida, qalbi ham, miyasi ham bo'm-bo'sh bo'lib qolganday tuyulardi. Endi uning na yuksak orzusi, na muqaddas e'tiqodi qolgan edi. Bularning hammasi tamoman bosib yanchib tashlangan, mahv etilgan edi. Bu hol o'tgan umri uchun pushaymonlik hissini uyg'otsa, qulog'ida yangragan "josus" degan so'z unga g'oyat og'ir haqorat bo'lib eshitilar edi. Birdan, unga, bir juft g'azabli ko'z fikrini taftish etayotganday tuyuldi. U ko'zlar sovuq bur xanjar singari ko'ksini yorib o'tib, yuragini pora-pora qilib to'g'rayotgandek bo'ldi. Bu ko'zlar — Rizo shohning ko'zlari edi. U ko'zlar devordagi portretdan sartibga tikilib qarabturar edi.

Sartib sakrab o'rnidan turdi-da, shaxdam qadamlar bilan eshik oldiga borib, keksa xizmatchisini chaqirdi.

— Otaxon, mana bu portretni olib tashla! — deb buyurdi u.

Xizmatkor bir unga, bir portretga qarab qo'ydi. Taraddud bilan stul qo'yib, portretni oldi.

— Uni nima qilay endi, og'o? — deb so'radi xizmatchi.

— Pechkaga qalab, yoqib yubor! Ramkasini ham yoqib tashla!

Xizmatkor portretni ko'tarib chiqib ketdi. Sartib hamon ma'yus o'tirgan do'stlariga yuzlandi:

— Bugungi kun mening hayotimdagi eng og'ir, shu bilan birga eng quvonchli kundir. Men bugun o'zimning xom xayollarim bilan xayrlashib, haqiqatga yuz o'girdim, ko'zim ochildi. Shu bugungacha men haqiqatni tamom boshqa joydan axtarib yurgan ekanman...

— Uni qayerdan axtarish kerak bo'lmasa? — deb so'radi hayajon bilan Yavar Azimiy.

Sartib javob bermadi. U yana fikrga cho'mgan edi.

— Uni ilm-ma'rifatdan axtarish kerak! — dedi Hofiz Biluriy ishonch bilan. — Ma'rifat tarqalishi bilan haqiqat ham ro'yobga chiqadi.

Sartib uning so'zini kesdi:

— Yo'q, aziz do'stim, yo'q! Saltanat bor yerda haqiqat bo'lmaydi. Ilm-ma'rifatning o'zi haqiqatga hech vaqt yo'l ochib berolmaydi. Hali hayot ekansiz, juda bo'lmasa siz umringizning qolgan qismini xom xayollarga sarflamang. Chunki siz nomusli odamsiz. Siz vatanning farzandlariga tushuntirib qo'yingki, saltanat va shohlar, ularni qo'llab-quvvatlaydigan va himoya qiladigan tuzum bor joyda haqiqat aslo bo'lmaydi!

U o'rnidan turib, xona ichida keza boshladi. Sartib o'zini bosib, xayolini bir yerga to'play boshladi.

— Mening yosh do'stim, — dedi u Yavar Azimiyning yelkasiga qo'lini qo'yib, — men endi ko'p yashamasam kerak, chunki bugun men o'z o'limimga o'zim hukm chiqartirib keldim. Lekin senga maslahat bermoqchiman. Sen biz ketgan yo'ldan ketma. Uning noto'g'ri yo'l ekani menga bugun ayon bo'ldi. O'zingga boshqa yo'l, ishonchli va to'g'ri yo'l top. Sen o'sha varaqa avtorlarini top. O'shalarga astoydil, chin qalbing bilan qo'shil. Biz axtargan haqiqat o'sha yerda, quyida ekan. Do'stlarim, kelajak o'sha joyda. Sen ham o'sha joyga bor!...

* * *

Shamsiya yig'lab: "O'zimni o'ldiraman", deb chiqib ketganidan so'ng, Hikmat Isfahoniy uning harakatlariga razm solib yurdi. Ikki-uch kun uni poylab yurdi. Lekin hech qanday ko'ngilsiz hodisa yuz bermaganini ko'rib, qizini endi tushunib qolgandir, taqdirga tan bergandir deb o'yladi. Shuning uchun u sartibni kuyov qilish masalasi hal bo'ldi endi, degan qarorga keldi. Hikmat Isfahoniy qizining sartib Salimiyga berilishini manfaatli ish deb bilardi, Shamsiya bilan Salimiy bir yostiqqa bosh qo'ysalar, bu unga siyosiy jihatdan ham katta foyda keltirgan bo'lar edi. Bu, birinchidan, Salimiyning otasi o'ldirilishida Hikmat Isfahoniyning ham ishtiroki bor, degan gap-so'zlardan qutulishiga imkon berib, oradagi adovatga chek qo'yardi.

Ikkinchidan esa, Salimiy tamom boshqacha e'tiqodli odam edi. Hikmat Isfahoniyning o'ylashicha, bu ham bir kun koriga yarab qolardi. Lekin u bo'lajak kuyovining mavqeyini mustahkamlash uchun Salimiyni har gapni ochiq aytib yuboraverishdan hamda yoshlik va qiziqqonlik natijasida tug'ilayotgan ba'zi harakatlardan tiyib qo'ymoqchi bo'ldi. Hikmat Isfahoniy shu maqsadda Salimiyni oilaviy tushlikka taklif qildi. Bunda faqat oila a'zolarigina qatnashar edi, xolos. Salimiyga qilmoqchi bo'lgan nasihatlari o'rinli bo'lsin uchun tushlikka So'fi Eronparastni ham taklif qildi. Bu tadbirlarning hammasi oldindan tayyorlab qo'yilganini bildirmaslik uchun Eronparastga shimol neftini amerikaliklar bilan inglizlarga berish masalasiga bag'ishlangan maqolasini o'qitmoqchi, bu masalada Salimiyning ham fikrini so'ramoqchi va fursatini topib ko'nglidagini unga aytmoqchi edi. Bu uning tuzgan rejasi edi. Salimiyning tushlikka taklif qilinganini bilgan Shamsiya ham o'z rejasini tuzib qo'ydi. U atayin qilingan kun va soatni sabrsizlik bilan kutardi. Hayajon, intiqom va g'azab o'tida qovirilgan qiz sartibga qarshi aytmoqchi bo'lgan so'zlarini qayta-qayta takrorlar edi.

Soat o'n ikkiga yaqin Hikmat Isfahoniyning butun oila a'zolari uning shahar hovlisiga to'plandilar. Gazeta redaktori So'fi Eronparast ham vaqtdan ilgariroq hozir bo'ldi. U xo'jayinga maqolani o'qib bermoqchi ham bo'lgan edi-yu, lekin Hikmat Isfahoniy:

— Turatur! — deb uni to'xtatdi.

Nihoyat, soat o'n ikkidan sal o'tgach, sartib Salimiy ham keldi. U bugun har vaqtdagidan ham o'ychanroq va g'amginroq ko'rinardi. Hikmat Isfahoniy, aksincha, o'zini xushchaqchaq ko'rsatishga urinib hadeb kular, hazillashar edi. U Salimiyga o'z uyi, hatto ba'zi daraxtlarning tarixigacha uzundan uzoq qilib gapirib berdi.

Nihoyat, ular sharq uslubida bezatilgan katta mehmonxonaga kirib yumshoq kreslolarga o'tirdilar.

— Ertalabdan beri maqolangni o'qib beraman, deb jonimga tegding, — dedi u So'fi Eronparastga mumkin qadar erkin va beparvo gapirishga harakat qilib, — qani, o'qib beraqol, nimalar yozib kelding?

Yalqovligi yaqqol sezilib turgan va atrofdagi ishlarga tamom beparvo qaraydigan So'fi Eronparast hozir dik etib o'rnidan turdi-yu, yugurib borib portfelini olib keldi. Portfelidan bir dasta yozilgan qog'ozlarni oldiga qo'ydi-da, Hikmat Isfahoniyning tuzatishlarini darhol yozib olish uchun bir qo'liga avtoruchkasini ham ushlab oldi.

Hikmat Isfahoniy yumshoq kresloga qulayroq o'rnashib oldi-da, oyoqlarini uzatib, qo'lidagi tasbehini o'girib, redaktorga ko'z qirini tashlab qo'ydi:

— Qani, boshla!

Sartib indamay o'tirardi. U Hikmat Isfahoniyning xo'jayinlarga kerakligini ham, So'fi Eronparastning malay singari yaltoqligini ham diqqat bilan kuzatar, ikkalasidan ham nafratlanardi. Lekin qimirlamas, hech narsa demas, hech narsani ifoda etmaydigan nazar bilan ularning xatti-harakatlariga qarab o'tirardi. Redaktor Eronparast maqolasini o'qishdan oldin bir izoh berdi:

— Bu safar zimmamga juda mushkul vazifa yuklandi, — deb boshladi u. — Inglizlarni ham, amerikaliklarni ham, nemislarni ham xafa qilmaydigan ifodalar topish kerak edi. Biri xursand bo'lib, ikkinchisi xafa bo'lmasin. Lekin og'olarga ma'lumki, maqolada yoritilmoqchi bo'lgan masala ustida gapirilganda yuqoridagi uch davlatdan bittasi rozi bo'lsa, qolgan ikkitasi albatta norozi bo'ladi. Shuning uchun men bu masalani shunday chigallashtirib yubordimki, undan hech kim ham hech narsa tushu-

nolmaydi. Lekin har uchala do‘stimiz ham mamnun bo‘lishadi. Qisqasi...

Hikmat Isfahoniy toqatsizlik bilan uning so‘zini kesdi:

— Namuncha ezmalik qilasan? Maqolangni o‘qisangchi!

— Xo‘p bo‘ladi, — dedi redaktor Eronparast itoatkorlik bilan, keyin maqola sarlavhasini o‘qidi:

— “Eron mustaqilligining zarur sharti”.

U maqolaning sarlavhasini o‘qib bo‘lib, ko‘zini Hikmat Isfahoniyning og‘ziga tikib, kutdi. Hikmat Isfahoniy har so‘zni bitta-bitta takrorlab chiqdi:

— Eron... mustaqilligining... zarur... sharti... yomon emas, yaxshi boshlabsan. Ildizini topibsan, o‘qichi.

Xo‘jayinini mamnun qila olgani uchun taltayib ketgan Eronparast joyida bir qimirlab qo‘yib, o‘qiy boshladi:

— “Bizning ba’zi jurnalist do‘stlarimizning fikricha, shunday ikki omil borki, ular Eronning baxtsizligiga sabab bo‘ladi deydilar. Bulardan biri Eronning shimoldan tortib janubigacha cho‘zilib ketgan yerosti boyligi — neft, ikkinchisi esa Hindiston mamlakatidirki, Eron uning darvozasi oldidadir. Ammo bizning fikrimizcha, bu ikki omil Eronning baxtsizligi emas, balki baxti hisoblanadi”.

So‘fi Eronparast yana to‘xtab, Hikmat Isfahoniyga qarab qo‘ydi. Hikmat Isfahoniy bu safar ham ma’qulladi:

— Bu ham yomon emas. Davomini o‘qi.

Redaktor Eronparast maqolasining xo‘jayinga ma’qul tushganidan mag‘rurlanib, qaqqayib o‘tirib oldi-da, davom etdi:

— “Biz aql va mantiqning qanday asoslariga tayanib bu omillarni Eronning baxti deb hisoblaymiz? Avvalo, shuning uchunki, shu ikki omil bo‘lmasa, inglizlar kelib bizning mamlakatda bunday o‘rnashib olmas edilar. Amerikaliklar biz bilan savdo munosabatlarini rivojlantirish uchun bunchalik harakat* qilmas edilar. Nemislar yuqorida aytilgan ikki mamlakat bilan raqobatga kirishib, biz bilan savdo munosabatlarini kengaytirishga bunchalik harakat qilmas edilar. Shunday qilib, bundan kelib chiqadigan birinchi natija shuki, bu ikki omil: neft bilan Hindiston dunyoning eng katta va madaniy davlatlaridan uchtasini bizning mamlakatga

jalb qiladi. Endi bu uch davlatning Eronga kelishlaridan bizga nima foyda? Biz bu yerda raqamlar qo'yib, o'quvchilarni zeriktirmoqchi emasmiz, chunki bu foydalarni sanab tugatib bo'lmaydi. Biz shu ishlardan eng muhimlarinigina o'quvchilarimizga eslatib, qolganlarini topishni ularning o'zlariga havola qilamiz. Bu uch davlatning mamlakatimizga suqilib kirishi natijasida..."

Hikmat Isfahoniy shartta uning so'zini kesdi:

— Shoshma, shoshma! Uying kuygur! Nimalar deyabsan? "Suqilib kirishi" emish-a! Bu nima deganing? "Bu uch davlatning bizga yordam qo'lini cho'zishi natijasida" deb yoz! Endi davomini o'qi!

— Xo'p bo'ladi, "Bu uch davlatning bizga yordam qo'lini cho'zishi natijasida.." Buyog'i chiqmaydi, og'oyi Hikmat Isfahoniy.

— Nega chiqmas ekan, chiqadi. Sen o'qiyver, chiqmagan joyini chiqarishga men yordam beraman.

— "Bu uch davlatning bizga yordam qo'lini cho'zishi natijasida dunyoda savdo jihatdan Eron singari taraqqiy etgan mamlakat yo'qdir..." Chiqmadi. Mana o'zingiz ko'ring, yopishmaydi-da.

— Yana nimalar deb aljiryapsan? Juda yaxshi chiqdi. Bundan chiroyli jumla bo'lmaydi. O'qi!

So'fi Eronparast o'zining prinsipial odam ekanini ko'rsatish maqsadida yana e'tiroz etdi:

— Chiqmadi. Jumlaning silliqligi buzildi.

— Hoy, og'o, mening obro'yimni bukma. Silliq bo'lishining nima keragi bor? Biz bu yerda savdo masalasi to'grisida gapiryapmiz, axir. O'qi!

— Xo'p bo'ladi. "Bu uch davlatning bizga yordam qo'lining cho'zishi natijasida dunyoda savdo jihatdan Eron singari taraqqiy etgan mamlakat yo'qdir..."

— Juda chiroyli!

— "Eron bozorlarida qush suti va odam jonidan boshqa hamma narsa topiladi. Istagan mamlakatning molini topa olasiz. Xohlagan tur, xohlagan rangdagi mollarni topolasiz. Qaysi firmaning, qaysi mamlakatning moli desangiz topiladi. Inglizlar, ameri-

kaliklar, nemislar ko'p mehnat qilib ishlab chiqargan mollari bilan bozorlarimizni to'ldirib tashlaydilar. Nega? Chunki ular bizning do'stlarimiz. Ular mushkul ahvolda qolishimizni istamaydilar. Masalan, biz arzimas narsa, ya'ni kerosin lampa ishlab chiqarish uchun qancha mehnat sarf qilishimiz kerak: zavod-fabrikalar qurishimiz, ishchilar yollashimiz kerak. Natijada kerosin lampa bizga ikki baravar qimmatga tushib ketadi. Xo'sh, bizga bundan nima foyda? Hech nima! Biz bu yo'ldan ketsak, sekin-asta qarzga botib, kunlardan bir kun sarmoyamizdan ajralamiz. Unda Eron mustaqilligini kafanga o'rab shahzoda Abdulazimning go'riga tiqqan bo'lamiz. Lekin bu uch davlat bizning mustaqilligimizni hurmat qiladilar. Harbir vijdonli va insofli kishi bu uch davlatning savdo masalalarida bizning manfaatlarimizni ko'zlab ish tutishlarini biladi. Ular bizdan ko'p mehnat sarf qilishni talab qilmaydigan bodom mag'zi, jun va teri kabi mollarni olib, bular evaziga Muzaffariddin shohning tushiga ham kirmagan qushdek uchag'on mashinalar beradilar, velosipedlar yuboradilar.

To'g'ri, bizning ba'zi bir noshukur va noumid vatandoshlarimizning da'vosiga ko'ra, bu uch davlatni, ayniqsa inglizlarning mamlakatimizda olib borgan siyosati hamda savdosi natijasida mamlakatimiz go'yo xarob bo'layotgan, mustamlaka holiga tushib qolayotgan emish".

Shu yergacha ko'zlarini yumib, mudrab quloq solayotgan holda tasbeh o'girayotgan Hikmat Isfahoniy sakrab o'rnidan turdi.

— Tuf-ey. Padaringga la'nat! Butun avlodi-ajdodingga la'nat! Topgan gapini qara-ya! Gado, itvachcha, bozordagi bema'ni mahmadanalarning gaplarini nega gazetaga yozasan? O'chir hozir, o'chirib tashla, asari ham qolmasin!

Hikmat Isfahoniyning g'azabidan qo'rqib ketgan So'fi Eronparast o'sha satrlar yoniga savol alomati qo'ydi, lekin ko'zlarini olaytirib qarab turgan Hikmat Isfahoniy uning qo'lidan qog'ozni ham, qalamni ham tortib oldi:

— Bunday emas, mana bunday, ko'rdingmi? — deb qalam bilan o'sha satrlarni o'chirib tashladi.

— Endi davomini o'qi!

So'fi Eronparast xijolat tortib tomog'ini qirib qo'ydi.

— "To‘g‘ri... ba’zi johil odamlar bu uch davlat Eronni bozorga aylantirib, uni mol bilan to‘ldirib tashlash bahonasida Eronning milliy sanoatini taraqqiy ettirishga yo‘l qo‘ymaydilar, ekonomikasini buzadilar, chet el kapitaliga tobe qilib qo‘yadilar, deb da’vo qilishadi. Go‘yo iqtisodiy mustaqillikni yo‘qotgan davlat, siyosiy mustaqilligini ham, mustaqil davlat bo‘lib yashash qobiliyatini qam yo‘qotib qo‘yadi deydilar. Go‘yo inglizlar, amerikaliklar va nemislar Eronni xuddi shunday holga solgan emishlar..."

Hikmat Isfahoniy yana o‘zini tuta olmay sakrab o‘rnidan turib ketdi:

— Hoy, itvachcha, sen mening dushmanimmisan! — deb bo‘kirdi u g‘azab bilan. — Gado, qurumsoq, "go‘yo", "da’vo qiladilar", deganing nima? Mening faqat inglizlar bilan bo‘lgan savdodan oyiga yuz ming tuman foyda qilishimni bilasanmi? Meni shu foydadan mahrum qilmoqchimisan? Bundan uch kun burun seni mister Tomas oldiga nega yubordim? Uning gaplaridan hech qanday saboq olmabsan-da? Qanday gaplarni topib yozding? Da’vo qiladilar! Da’vo qiladilar. Ular bekorlarni aytibdilar! Bunday gapni bolshevikdan boshqa kim aytardi? A? Yoki sen meni bu mamlakatdan qochib ketishga majbur qilmoqchimisan? Qanday gunohim uchun? Men senga nima yomonlik qildim? Gunohim har oy senga ming tuman pul berganimmi? Yo seni Hamadon eshagi kabi semirtirib qo‘yganimmi? Ol, yig‘ishtir qog‘ozlaringni, otangni go‘riga olib bor!..

Hikmat Isfahoniy shu qadar g‘azablanib ketdiki, og‘ziga nima kirib, nima chiqayotganini bilmas, og‘zi ko‘pirib, lablari dir-dir titrar edi. Bu maqola shu holicha "Sado"da bosilib chiqqanini ko‘z oldiga keltirishga urinardi: uning ko‘z oldida mister Tomas bilan mister Garold va fon Valterning g‘azablangan basharasi, Rizo shohning qon quyilib turgan dahshatli ko‘zlari, Hakim ulmulkning tirjayganda ko‘rinib turadigan sariq tishlari jonlandi. U bularni ko‘z oldiga keltirar ekan, vahimaga tushib ketdi. Qarshisida ikki bukilib o‘tirgan So‘fi Eronparastga bo‘lgan g‘azabi yanada alangalandi, Eronparastni bo‘ralab so‘kaverdi.

Nihoyat, baqirib-baqirib charchagach, hali ham indamay, bularni kuzatib o‘tirgan sartib Salimiyga o‘girildi:

— Men bu ablahga shimoliy neftni amerikaliklar bilan inglizlarga berilishi to‘g‘risida maqola yozib, buning zarurligini turli dalillar bilan isbotlashni topshirgan edim. Maqola mamlakat bizniki, demak neft ham bizniki, kimga sotamiz, qanday bahoda sotamiz, qanday bahoda olamiz — bu bizning o‘z ishimiz degan mazmunda bo‘lishi kerak edi. Unda yana bolsheviklarning bizning ichki ishlarimizga aralashayotganliklari, o‘z uyimizda xo‘jayinlik qilishimizga yo‘l qo‘ymayotganliklari ham aytilishi kerak edi. Ular bizning milliy mustaqilligimizga tahdid qilayotganliklari, savdomizni buzmoqchi bo‘layotganliklari to‘g‘risida gapirilishi lozim edi. Bu ablah bo‘lsa it oyga qarab hurgandek, uch buyuk davlatga qarshi huribdi!

Salimiydan hech qanday javob olmagach, Hikmat Isfahoniy, xonada biroz kezib yurdi, keyin kelib So‘fi Eronparastning qarshisida to‘xtadi:

— Qani, tur o‘rningdan, jo‘na! Yoki palovning hidi dumog‘ingni qitiqlab, keta olmayapsanmi? Qani, tur, tur tezroq! Gazeta ertalab chiqishi kerak! Bor, aytganimdek qilib yozib kel, kechqurun tag‘in o‘qib berasan!

— Bachashm! — dedi muvaffaqiyatsizlikdan juda xafa bo‘lib ketgan So‘fi Eronparast va qog‘ozlarini yig‘ishtirdi, shlapasini oldi-da, qisilib-qimtinib sekin chiqib ketdi. Boyadan beri goh kulgidan zo‘rg‘a o‘zini tiyib, goh yuragida qaynab kelayotgan g‘azabni zo‘rg‘a bosib o‘tirgan Salimiy chuqur nafas oldi. Lekin hali ham g‘azabidan tushmagan Hikmat Isfahoniy kelib Salimiyning qarshisiga o‘tirdi.

— Og‘oyi Salimiy, men ko‘pdan beri siz blan gaplashmoqchi bo‘lib yuribman. Avvalo Xudo guvohim, men sizni o‘z o‘g‘limday yaxshi ko‘raman. Siz mening uchun g‘oyatda azizsiz. Shunga ko‘ra, men sizga otalarcha bir necha maslahat bermoqchiman.

Salimiy qoshlarini chimirdi-yu, lekin rasmiy odobga amal qilib:

— Marhamat, haddingiz sig‘adi, — dedi.

— Sen hali yoshsan, — dedi Hikmat Isfahoniy Salimiyni sansirashga boshlab. — Sen siyosat olamida bo‘layogan ishlarni qanday ko‘rsang, xuddi shunday tushunasan. Vaholanki, bu ishlar sen

ko‘rib turgandan ko‘ra chuqurroq va murakkabroqdir. Buni nazarga olmasang, katta xatolarga yo‘l qo‘yishing mumkin.

— Sizdan so‘rar edim, ochiqroq qilib gapirsangiz. Siz qanday xatolarni nazarda tutasiz?

— Shoshilma. Nega shoshilasan? Sabr qil, hammasini birma-bir, ochiq qilib aytib beraman.

— Marhamat... Lekin mening ham bir shartim bor. Siz ham mening gaplarimni sabr qilib eshitasiz.

— Albatta, albatta. Sabr muvaffaqiyatning kalitidir.

— Marhamat qiling, qulog‘im sizda.

— Sening birinchi xatoying shuki, o‘g‘lim, sen o‘z kelajaging haqida qayg‘urmaysan. Masalan, a’lohazratning huzurida ruslarning tarafini olishning nima keragi bor edi? A’lohazrat senga hech qarshilik qilmadi, senga hech narsa demadi, deb faraz qilaylik. Nahotki, sen ruslar bilan savdo munosabatlarimiz shu paytgacha yurishmasligini tushunmaysan?...

— Bo‘lmasa, masalani oydinlashtirish uchun, mening bir savolimga javob bering!..

— Marhamat qil!

— Nima uchun Sovetlarga qarshi bunchalik adovat saqlaysiz? Inglizlar, amerikaliklar, nemislar ko‘z oldingizda Eronni talab, xonavayron qilmoqdalar, qashshoqlikka mahkum etmoqdalar-u, sizlar yana ularga mamlakatning butun boyliklarini ketma-ket topshiraverasizlar? Lekin gap Sovetlar ustiga kelsa, ularni so‘kish va la’natlashdan boshqa gapni bilmaysizlar? Nima uchun siz, og‘oyi Hikmat Isfahoniy, shaxsan siz shunday pozitsiyada turasiz? Menga siz mana shuni tushuntirib bersangiz.

— Bosh ustiga, marhamat, mana quloq sol! Inglizlar, amerikaliklar va nemislar to‘g‘risida aytgan gaplaring hammasi to‘g‘ri. Bu masalada fikringga to‘la qo‘shilishaman. Lekin sen ham bizni eshak deb hisoblama! Biz ham ba’zi narsalarga tushunamiz, bular bizga ham ma’lum. Ammo, shunday bo‘lishiga qaramay, qancha o‘ylasam ham mening uchun Sovetlardan ko‘ra inglizlar bilan amerikaliklar ming marta yaxshiroq. Tushunsangchi, axir, biz hech mahal Sovetlar bilan bir fikrga kelolmaymiz, sira kelisha olmaymiz. Shoshma, mening gapimga quloq sol! Mijozimiz to‘g‘ri

kelmaydi! Nuqtayi nazarimiz bir-biriga zid... Amerikaga ochib qo'ygan eshiklarimizning yuzdan birini Sovetlarga ochib ko'r-chi, nima bo'lishini o'shanda ko'rasan. Ertasigayoq eronliklar bir-birining go'shtini yemasa, mening basharamga tuf degin, butun Eron ostin-ustun bo'lib ketadi! Axir, men ham ba'zi narsani tushunaman! Qani Sovetlar bilan salgina aloqa bog'lab ko'rchi, ertasigayoq bir tomondan dehqon bosh ko'tarib, yerni menga bo'lib ber demasa, ikkinchi tomondan ishchi ko'tarilib, sakkiz soatdan ortiq ishlamayman, demasa, padarimga ming la'nat degin!

— Lekin Eronning barcha katta-kichik shaharlarida ochlar va yalang'ochlarning soni kundan kun ko'payib borayotganiga insofingiz qanday yo'l beradi? Bundan uyalmaysizmi? Ishsizlar va boshpanasizlarning ko'pligidan ko'chalardan yurib bo'lmaydi. Shularning kimligini bilasizmi? Ular dehqonlar, minglab va o'n minglab yersiz qolgan, ko'plab xonavayron bo'layotgan, bir parcha yeridan ham ajrab qolayotgan, shahardagi ishsizlar va tilanchilarga kelib qo'shilayotgan dehqonlardir. Ishchilarchi? Kuniga o'n to'rt soatlab ishlab, xo'jayin to'lagan arzimas maoshini bola-chaqasini boqishga ham yetkaza olmayotgan, och-yalang'och tirikchilik qilishga majbur bo'layotgan ishchilarchi? Xo'sh, ular sizning millatingiz, vatandoshlaringiz, og'a-inilaringiz emasmi?

— Xo'p, shunday ham deylik, lekin qaysi mamlakatda ochlar va tilanchilar yo'q? Qaysi shaharda boshpanasiz ishchilar topilmaydi? Dunyoda hamma ham badavlat bo'lavermaydi. Sen badavlat bo'lib ketsang, men badavlat bo'lib ketsam, unda podani kim boqadi?

— Mening kommunist emasligimni yaxshi bilasiz. Lekin men qattiq ishonamanki, bu ahvol uzoqqa cho'zilmaydi. Zamonaning ruhi hozir tamoman boshqacha! Siz esa buni tushunishni istamaysiz. Uzoqqa bormaylig-u, og'oyi Hikmat Isfahoniy, o'zingizni misolga olaylik. O'zingiz Tehronda o'tirasiz, mamlakatning turli burchaklariga joylashgan idoralaringiz savdo ishlarini olib boradi, sizga yuz ming tumanlab foyda yuborib turadi. Bundan boshqa sizning Ozarbayjonda va Mozandaronda oltmishlab qishloqlaringiz bor, siz bu qishloqlardan ko'pini hatto ko'rmagansiz ham, ularni boshqarishni gumashtalaringizga topshirib qo'ygansiz. Deh-

qonlar yozni yoz demay, qishni qish demay ishlaydi: yer haydaydi, ekin ekadi, o'radi, xirmon qiladi, siz bo'lsangiz xirmonda hozirsiz. Tayyor hosilning beshdan uch hissasini o'z omboringizga to'kdirasiz. Men xuddi ana shunday ishlar yo'qotilsin deyman!

— Xo'sh, menga nima taklif qilasan? Hamma yerlarimni oyoqyalang dehqonlarga ulashib beraymi? Xudoyo tavba! Ajab gaplarni gapirasana. Ota-bobolarimdan meros qolgan mulklardan voz kechaymi?

— Gap ota-bobodan meros qolgan mol-mulklarda emas, og'oyi Hikmat Isfahoniy, gap dunyoning o'zgarib borishida. Dunyodagi vaziyat kundan kun o'zgarib bormoqda. Ertagi kunning kelishini to'xtatib bo'lmaganidek, mol-mulklarni ham abadiy saqlab bo'lmaydi. Shuning uchun agar bugun siz o'z ixtiyoringiz bilan ularni bo'lashib bermasangiz, ertaga o'g'lingizdan kuch bilan tortib olishadi!

— O'g'lim, mening senga maslahatim shuki, bu fikrlarni miyangdan chiqarib tashla. Bo'lmasa, u bir kun boshingga balo bo'ladi. Rusparast bo'lmoqchi bo'lsang, mayli, bo'laver. Ehtimol, bu ham bir koringga yarab qolar, ammo masalaning boshqa tomonini ham esingdan chiqarma. Bu badbaxt mamlakatda muvozanat saqlamasang kun ko'rolmaysan...

Salimiy javob bermadi, o'yga toldi.

"Bu qo'rqinchli xameleonlar mamlakatimizni qachongacha sotadilar?" deb o'yladi u.

Ko'p o'tmay ovqat keltirishdi. Bu — oraga tushgan og'ir jimlikka xotima berdi.

* * *

Ovqat vaqtida sartib Salimiy xayolga cho'mib o'tirdi, ovqatni qanday yeganini ham bilmadi. Hayoti va kelajagi haqida hali ham biror qat'iy qarorga kelolmagani, hali ham taraddudda ekanidan azoblanardi. Uni zimdan kuzatib o'tirgan Shamsiya sartib faqat o'zi to'g'risidagi fikrlar bilan band bo'lsa kerak deb o'ylar edi. Sartib hatto atrofida o'tirgan odamlarni sezmas edi ham. Shamsiya uning chehrasi va xatti-harakatlaridan o'z maqsadiga erishgan xudbin kishining mamnunligini ifodalovchi belgilar axtarar, lekin

g‘am-g‘ussa va iztirob ifodasidan boshqa hech narsa topolmay, hayron edi.

“U juda g‘alati odam ko‘rinadi, — deb o‘ylar edi Shamsiya, — qalbidagi hislarini hech bilib bo‘lmaydi-ya!”

Shamsiya bilan Salimiy masalasini hal bo‘lgan deb hisoblagan Hikmat Isfahoniyning fikri ingliz savdo vakolatxonasi omborlaridan olinadigan mollarni tezroq tashib ketish va Hakim ul-mulkdan o‘ch olish yo‘llarini axtarish bilan band edi. Lekin bular uning sadriy guruchdan damlangan yog‘liq palovni ishtaha bilan yeyishiga mone bo‘la olmadi. Oilaning boshqa a’zolari esa, goh Shamsiyaga, goh Salimiyga qarashar, bugungi tushlikni ularning fotiha oshlari deb hisoblar edilar.

Ovqatdan so‘ng Hikmat Isfahoniy dam olish uchun o‘z xonasiga chiqib ketdi. Sartib Salimiy hain uyga qaytish uchun oila a’zolari bilan xayrlasha boshladi. Shamsiya hammadan ko‘ra uzoqroqda turib, allaqanday bir kitobni varaqlar edi.

— Xayr endi, xonim! — deb unga qo‘l uzatdi Salimiy. Qiz qo‘lini ham uzatmay:

— Sizga aytadigan bir-ikki og‘iz so‘zim bor, — dedi.

Ular hovliga chiqib qator ekilgan daraxtlar soyasida keza boshladilar. Bir necha qadam bosishgandan keyin Shamsiya necha kunlardan beri qalbini to‘ldirib yotgan g‘azab va nafratni aytish payti nihoyat yetdi deb hisoblab, Salimiyga dedi:

— Men sizdan har ishni ham kutgan edim-u, lekin bunday yaramaslikni kutmagan edim!

Salimiy taajjublanmadi. U qizning xafa bo‘lib yurganini avvaldanoq sezgan edi. Ahvolining nihoyatda og‘ir ekanini payqagan va butun borligi bilan shu og‘ir vaziyatdan ezilgan odam uchun bu so‘zlarning nima ahamiyati bor edi? O‘z ahvoli to‘g‘risida uzoq va og‘ir fikr qilib ko‘rgandan keyin ham o‘zi tushib qolgan bu vaziyatdan qanday qilib qutulish yo‘lini topolmagach, Salimiy nima bo‘lsa bo‘lar, deb hamma ishni taqdirga havola qilib qo‘ya qolgan edi. Ana shu ahvoli-ruhiyaning ta’siri ostida sartib Shamsiyaning so‘zlarini tingladi. Shamsiya so‘zdan to‘xtab, javob kutganida sartibning lablarida tabassum paydo bo‘ldi:

— Tushuna olmadim, xonim! — dedi u.

Buni haqorat hisoblagan Shamsiya battar g'azablandi:

— Sizni sevmagan, sizdan nafrat qiladigan qiz bilan qandan yashaysiz? — dedi Shamsiya, tutila-tutila ko'z yoshlarini oqizib. — Otam meni sotishi mumkin. Ha, u meni sotishi mumkin, zo'rlab bo'lsa ham sotishi mumkin, lekin haqorat va tahqir qilingan bir xotin sizning umringizni zaharlashdan bo'lak sizga nima bera oladi? Siz, o'zini doim madaniy bir odam deb hisoblagan, bizning muhitdagi odamlar ichida erkin va mustaqil fikrlari bilan ajralib turgan kishi bo'laturib, bunday yaramas ishga qanday rozi bo'ldingiz? Siz chirik urf-odatlarga tayanib meni sotib olmoqchimisiz? Mayli, menga qullik tamg'asini bosing, sizlardan har qanday ishni kutsa bo'ladi, har qanday ishni!..

Bir vaqtlar haqiqatan ham xayoliy bir muhabbat bilan sevgan qizining azob chekishi va ko'z yoshlariga Salimiy befarq qaray olmadi. O'zi bilan birga o'sgan odamlar va muhit sodda bir qizning xayolida yaratgan barcha orzularning barbod etgani hamda uning umidsizlik va ma'yuslikka tushirganini ko'rgan sartib qizga chin qalbidan achindi. Shu bilan birga u hozir ma'nan ezilgan va kimsasiz odam singari mushkul ahvolda qolgan qiz Salimiyga yanada sevimliroq va jozibador bo'lib ko'rindi. Hayotning qizga bergan dastlabki zarbasi, uning xomxayollarini ham, yasama sipolik va takabburligini ham parcha-parcha qilib tashlagan edi.

Shamsiya hozirgi vaziyatida muhabbat va hurmatga sazovor edi. Qiz yuragini ochgan edi. Uni yurakdan chiqqan samimiy so'zlar bilangina yupatish mumkin. Yolg'on so'zlashning hojati yo'q edi.

Shuning uchun Salimiy qizga bor gaplarning hammasini ochiq gapirib berdi. O'zining ikkilanishlarini, og'ir ahvolda qolganini, barcha ruhiy kechinmalarini yashirmay gapirib berdi. Rizo shoh istibdodi hukmron ekan, hech bir odam baxtli bo'lolmasligini so'zladi:

— Shoh bizning mol-mulklarimiznigina emas, hatto qalblarimizning ham xo'jayiniman deb hisoblaydi. Bu razolatga qarshi chidash juda og'ir, lekin chidashga majburmiz. Nima qilishim lozimligini hali aniqlaganim yo'q. Lekin shuni aytishim mumkinki, sizni sevgan taqdirimda ham, bunday nikohga rozi bo'lolmas

edim. Hozir esa ikki kishi o'rtasida bo'ladigan do'stlikdan ortiq narsa taklif qilolmayman. Shuning uchun, keling, ikkalamiz do'st bo'laylik!

Shamsiya xayolga toldi. Haqiqatan ham unga vaziyat juda og'ir tuyuldi. Hech qanday qarorga kelolmadi. Qo'lini Salimiyga uzatib.

— Menga haqiqatni ochganingiz uchun rahmat, — dedi u va xayrlashar ekan qalbida yengillik his etdi.

O'N SAKKIZINCHI BOB

Mister Garold dunyo hodisalarining ketishini amerikaliklarga xos korchalonlik bilan qiziqib kuzatib bordi. Gitler Yevropaning bir necha mamlakatlarini bosib oldi, hozir bo'lsa Fransiyaga bostirib kirib, Parijga yaqinlashib kelmoqda edi. Shahardan shaharga qochib yurgan Fransiya hukumati Parijni ochiq shahar deb e'lon qilgan edi.

Amerika milliarderlari indamasdan o'z sanoatlarini kengaytirib, boshlanib ketgan jahon urushiga moslashtirib qayta qurmoqda edilar, ular bostirib kirgan tomonga ham, o'zini himoya qilayotgan tomonga ham yordam berardilar.

Dunyoni o'z qa'riga tortib ketayotgan urush olovi mister Garoldning ko'zlariga nur berar, qalbini sevinchga to'ldirardi. Butun mamlakatlarni qoplagan urush olovi go'yo o'lim va falokat sababchisi emas, balki nurbaxsh quyoshday edi. Bu nur go'yo Amerikaning butun dunyoni o'ziga bo'ysundirish uchun okeanlarni bosib o'tadigan yo'lini ko'rsatib turardi...

Mister Garold haqiqiy Amerika korchaloni bo'lganidan urushning Amerika banklari va amerikalik kapitalistlarning g'oyat katta foyda olishlariga xizmat qilishini bilar edi. Shuning uchun u og'izda urushni yomonlar va tinchlikni maqtar edi-yu, ichida urushning kengaya borganiga xursand edi. Urush dunyo oltin zapasining kattagina qismini yana Uollstrit sandiqlariga borib tushishiga xizmat qilar, ko'pgina mamlakatlarning iqtisodiy boyliklarini amerikaliklar qo'liga topshirar edi. Bularning evaziga esa Amerika naqd pul hisobiga och-yalang'och qolgan xalqlarning qornini to'yg'azish uchun tuxum poroshogi va go'sht konservalari, urush qurbonlarining yaralarini bog'lash uchun doka bilan paxta berar edi.

Mister Garold hozir kuchli bo'lgan davlatlarning dahshatli urush natijasida kuchsizlanib qolishlariga va dunyo bozoridagi o'z o'rin-

larini Amerikaga bo'shatib berishlariga ishonardi. O'shanda hozir u bilan Eronda raqobat olib borayotgan do'sti mister Tomas ham mister Garoldning buyrug'ini bajaruvchi bir kishiga aylanib qoladi.

Lekin bir masala mister Garoldning ko'nglini g'ash qilar edi: mister Garoldning dunyoga hokim bo'lish to'g'risidagi xayollarini so'ndirar edi; bu masala Sovet mamlakatining mavjudligi edi. U Sovet mamlakati kelajakda Sharqda ham, G'arbda ham Amerikaning dunyoga hokim bo'lishi yo'lida yengilmas to'siq bo'lishini tushunar edi.

Shuning uchun mister Garold o'zining Erondagi faoliyatiga katta baho berar edi. U o'zining Erondagi faoliyatini vaqti kelganda o'sha to'siqni portlatib yuborish uchun tayyorgarlik deb bilardi.

Dastlabki paytlarda mister Garold Eron xalqining Sovetlarga nisbatan ochiq muhabbatiga uncha e'tibor bermadi. U, bu muhabbatni hech qanday real quvvatga ega bo'lmagan narsa deb baholardi. Mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotini boshqargan Rizo shoh, Hikmat Isfahoniy, Hakim ul-mulk va sarhang Safoiy kabi odamlar uning qo'lida ekan, hech qanday real kuchga ega bo'lmagan bu muhabbat nima ham qila olar edi? Lekin varaqalar bilan kitobning paydo bo'lishi mister Garoldni xalq muhabbati ham o'zida qudratli kuchni yashirib yotganiga ishontirdi. Bu yangilik mister Garoldni cho'chitib qo'ydi. Rizo shohning butun tazyiqiga, sarhang Safoiyning barcha urinishlariga qaramay, varaqa va kitobni chiqargan va xalq ichida tarqatgan odamlar topilmadi. Ularning kimligi haqida xalq ichida yurgan turli gap-so'zlar masalani juda chigallashtirib yuborgan edi.

Turli manbalarga asoslanib mister Garold bu odamlarni qayerdan axtarish kerakligini aniqlashga urinar edi.

Hikmat Isfahoniyning qishlog'ida bo'lgan hodisani, o'shanda qamalgan yigitning qochib ketganini xotirladi, mister Garold bu ikki hodisa o'rtasida bog'lanish yo'qmikin degan fikrga keldi: uzoq o'ylab o'tirmay Hikmat Isfahoniyga telefon qildi-da, Ardabildan gumashta Mamadni Tehronga chaqirtirishni iltimos qildi.

U ikki kun o'tmay Tehronga keldi. Hikmat Isfahoniydan o'zining Amerika elchixonasiga, mister Garold huzuriga chaqirtirilga-

nini eshitib gumashta Mamad juda gerdayib ketdi. Hikmat Isfahoniyning:

— Qara, senga qanday odamlarning ishi tushibdi, — degan gapi uni yanada kekkaytirib yubordi.

Amerikaliklar bilan yaqinlashishdan gumashta Mamadning o'zi ham manfaatdor edi. U keyingi vaqtlarda Ali jandarmboshining nemislar bilan yaqindan aloqa bog'laganini bilar edi. Mana shu aloqa tufayli Ali jandarmboshi o'zining uch xonali uyi va kichkinagina hovlisini sotib, bundan ikki oy burun katta qo'rg'onli bog' olgan edi. Birdan boyib ketgan Ali jandarmboshi o'zining eski do'sti Mamadni nazar-pisand qilmay qo'ygan edi. Buni ko'rgan gumashta Mamad yo Ali jandarmboshining xonavayron bo'lganini ko'rguncha yashashga, yo qanday qilib bo'lsa-da, undan ham boyib ketishga qasd qilgan edi. Mister Garoldning oldiga chaqirilganini eshitgach, dastlab miyasiga kelgan fikr shu bo'ldi: "Ha, itvachcha, sen hali qarab tur! Seni nemis elchixonasi qo'ltiqlasa, mana meni Amerika elchixonasi chaqiribdi. Ko'ramiz, kim g'olib chiqar ekan?!!" Mister Garold gumashta Mamadning vafodor itdek qarab turishidan, uning har qanday xizmatga ham tayyor ekanini tushundi-da, darhol maqsadga ko'chdi. U gumashta Mamaddan qishloqdagi ahvol va dehqonlarning kayfiyatini mufassal surishtirdi. Gumashta Mamad unga mukammal axborot berdi.

Mister Garold undan Faridunning qanday qilib qochgani, hozir qayerda bo'lishi mumkinligini so'radi.

— Buni bir Xudoning o'zi biladi, mister Garold, — deb bilmasligini e'tirof qildi gumashta Mamad, — yerning tagiga tushib ketdimi, osmonga uchdimi — bilolmadik, na o'ligidan darak bor, na tirigidan.

Biroz o'ylab olgach, qo'shib qo'ydi:

— Hoynahoy Ozarbayjonda bo'lsa kerak, mister Garold. Bu yerda bo'lsa, allaqachon qo'lga tushgan bo'lardi.

Mister Garold bosh chayqadi:

— Yo'q, men aminmanki, u shu yerda.

— Unday bo'lsa, buni Ali jandarmboshidan boshqa hech kim bilmaydi, — dedi Mamad sirli qilib shivirlab. — Faridunni qochirib yuborgani uchun kattagina pul olgan bo'lsa kerak.

Mister Garold Ali jandarmboshining kimligi bilan qiziqmaganini ko'rgan gumashta Mamad xafa bo'ldi.

— U juda ham firibgar-da, mister Garold.

— Kim, Faridunmi?

— Yo'q, Ali jandarmboshini aytyapman. Taniysizmi?

Mister Garold qisqagina qilib:

— Taniyman, — deb qo'ya qoldi.

Buni eshitgan gumashta Mamad:

— "Obbo, padar la'nat-ey, undan amerikaliklarning eshigi ham qolmapti-da", deb o'ylab, hech bo'lmasa uni bu yerdan haydatishga harakat qildi.

— U nemislarga sotilgan, mister Garold. Ularga quldek xizmat qiladi.

Mister Garold bunga o'zining hech bir qiziqmaganini bildirish uchun sovuqqina qilib boshqa narsani so'radi:

— Xo'sh, o'sha dehqonning oilasi nima bo'ldi?

— Haydab yubordik, mister Garold, Ardabil atrofidan butunlay haydadik.

— Ular hozir qayerda, bilmaysanmi?

— Bilaman, mister Garold. Ularni nazardan qochirmay kuzatib yuribmiz. Sudrala-sudrala shu yerga, Tehronga kelishmoqda.

— Ularni nazardan qochirma, — dedi mister Garold biroz o'ylab olgach. — O'zing ham Tehronda bo'l. Xo'jayiningga o'zim telefon qilib qo'yaman.

Shundan so'ng u komendantga telefon qilib, Mahbusiyni kiritishni buyurdi. Birozdan so'ng Mahbusiy kirdi, mister Garold unga gumashta Mamadni tanishtirib:

— Birga ishlaysizlar, — dedi.

Ular bilan xayrlashar ekan, mister Garold stolning tortmasidan tilla soat olib, gumashta Mamadning qo'liga taqdi.

— Do'stligimiz abadiy bo'lsin. Haqiqiy Amerika tillasi!

Gumashta Mamad mister Garoldning keyingi so'zini eshitib xafa bo'ldi, chunki "amerika tillasi" degan termin yolg'ondakam tilla degan ma'noda ishlatilishini bilardi. Lekin u:

"Hechqisi yo'q, boshlang'ichi uchun bu ham yomon emas", deb o'zini ovutgan bo'ldi-da, mister Garold bilan xayrlashib, Mahbusiyning ketidan chiqib ketdi.

* * *

Mister Tomasning kayfi buzuq edi. Gitler galalari Fransiyani o'ziga tamom bo'ysundirgandan so'ng deyarlik butun Yevropaga xo'jayin bo'lib olib, hozir bevosita Angliya orollariga tahdid qila boshlagan edi. Londonga tashlangan bombalar Sharq mamlakatlarining hukmron doiralari orasida Angliyaning obro'sini ancha tushirib yuborgandi, ular ko'proq nemislar bilan amerikaliklar tomoniga og'ib ketdilar. Angliyaning mustamlakachilik quvvati tezdan tugashi to'g'risida gap-so'z boshlandi. Inglizlarning do'stlari ham ulardan yuz o'gira boshladilar. Mister Tomas hatto Hikmat Isfahoniy, Hakim ul-mulk, sarhang Safoiy kabi kishilarning ham undan ancha ko'ngli soviy boshlaganini sezdi. Ular fon Valter va mister Garold bilan har kun uchrashganlari holda mister Tomasni haftalab yo'qlamas edilar. Mister Tomas bunga ham chidab, kuni bilan trubkasini og'zidan qo'ymay G'arbga boqardi. Mister Tomas ba'zan juda umidsizlikka tushib qolardi. Lekin u Angliyaning o'z mustamlakalaridan ajralgan holda orollarda yashay olishiga aqli yetmasdi. Chemberlen hukumatining yiqilishi va hukumat tepasiga Cherchillning kelishi uning bu shubhalarini tamom yo'qotib yubormagan bo'lsa-da, har holda, ancha yumshatdi. Uning yuragini g'ash qilgan yana bir narsa — Sovet mamlakatining hali urushdan chetda turishi, uning o'z harbiy quvvatini saqlab borishi edi. Sovet hukumatining obro'si butun dunyo xalqlari orasida tobora ortib borardi. So'nggi kunlarda Eronda bo'layotgan voqealar bu yerda Angliyaning obro'siga katta xavf tug'dirishini yaxshi tushunardi. Sarhang Safoiyni oldiga chaqirib va undan varaqalar bilan kitobcha mualliflarining hali ham topilmaganini eshitgan mister Tomas yana battarroq vahimaga tushdi.

Sarhang Safoiy gap orasida sartib Salimiyning shoh bilan uchrashganini va shohning undan shubhalanayotganini so'zlab berdi.

— Uning ota-bobolari ruslarga tarafdor bo'lgan, — dedi ma'nodor qilib mister Tomas, — shuni ham aytib qo'yayki, sarhang, bitta Salimiyning o'zi Rossiya tarafdori bo'lgan minglab oddiy kishilardan ko'ra xavfliroqdir.

— A'lohazrat ham xuddi shunday fikrda.

— Shunday ekan, nega yo‘qotib yubormaysizlar uni? Hayronman sizlarga!

— A’lohazrat rozilik bermayapti. U Salimiyning o‘limi bilan xavfli odamlarning yashirin tashkilotini topish yanada ham mushkullashib ketar degan andishada sartib to‘g‘risidagi buyruqni kechiktirmoqda. Lekin uning taqdiri hal qilingan, bundan xotirjam bo‘lavering.

Mister Tomas sarhang Safoiyni kuzatgach, Hakim ul-mulkning uyiga jo‘nadi. U keyingi vaqtda Hakim ul-mulkning telefon ham qilmay qo‘yganidan eronliklarning imperiyaga nisbatan ancha sovib qolganini payqab, o‘zini zo‘rlab o‘rnidan turdi. Hovliga mister Tomasning mashinasi kirib kelganini ko‘rgan Hakim ul-mulk sira taajjublanmadi. Soxta sevinch bilan mehmonning istiqboliga chiqdi...

— O-o-o! Mister Tomas! Marhabo! Xush kelibsiz! — deya ko‘rishish uchun qo‘lini cho‘zdi.

Yo‘g‘on, barvasta gavdali mister Tomas qarshisida turgan bu mitti odamga yuqoridan qarab, shirinso‘zlik bilan javob berdi. Qadrdon do‘stini bir ko‘rib chiqish orzusida kelganini bildirdi. Hakim ul-mulk mister Tomasni oldinga o‘tkazdi. Ular saroy vaziri eng yaqin do‘stlarini qabul qiladigan maxsus mehmonxonaga chiqdilar.

Kirib o‘tirishgach, Hakim ul-mulk xizmatchini chaqirib, ovqat buyurdi-da, horg‘inlik bilan mehmonga qaradi:

— Juda og‘ir zamonda yashayapmiz-da, mister Tomas, — deb gap boshladi u, bir oh tortib qo‘ygach. — Xalqaro siyosatning iplari juda chigallashib ketdi. Bunday sharoitda davlatni idora qilish juda mushkul.

— O, sizdek tajribakor siyosat arbobi shikoyat etsa, biz nima ham qila olardik...

— Unday demang, mister Tomas! — deb uning so‘zini kesdi Hakim ul-mulk.

— Sizning ahvolingiz butunlay boshqacha... Sizning ishingiz biznikiga qaraganda ancha oson. Siz harakat qilasiz, biz fol ochamiz. Biz sizga yaqqol ko‘rinib turgan narsalarning ko‘lankasi bilan ish ko‘ramiz.

— Men bu gaplaringizdan do‘stligimizdan shubhalanib qolibsiz, shekilli, deb xafa bo‘lishim mumkin.

— Do‘stligimiz o‘z yo‘rig‘i bilan, ammo haqiqat shunday. Men istardimki...

— Men aksincha o‘ylayman: sizlarda shunday ishlar yuz bermoqdaki, biz ulardan tamomam bexabarmiz, — deb e’tiroz bildirdi mister Tomas.

Hakim ul-mulk uning nimaga ishora qilayotganini anglashga urindi. Lekin gap nima to‘g‘rida ekanini tushunolmay:

— Har kimdan yashiradigan sirimiz bo‘lsa ham, sizdan yashiradigan sirimiz yo‘q, — deb e’tiroz bildirdi.

Mister Tomas inglizlarga xos sovuqlik bilan o‘zini qiziqtirgan masalaga yaqinlashaverdi:

— Sizdan so‘rar edim, shu uchrashuvimiz to‘g‘risida a’lohazratga xabar berib qo‘ysangiz, unga mening salomimni yetkazsangiz va qirol hukumati o‘zining Sharqdagi do‘stlarini juda yuqori baholashini va doimo ularni o‘z himoyasi ostiga olishga tayyor ekanini bildirib qo‘ysangiz.

— Albatta, buni hammamiz ham bilamiz.

— Men og‘oyi Hikmat Isfahoniyni ham xuddi siz kabi do‘stlarimdan biri deb hisoblayman. U bizdan hech narsani yashirmaydi...

Mister Tomas Hakim ul-mulkning ko‘zlariga tikildi. U eron aristokratiyasining bu ikki vakili orasidagi eski adovatni bilar edi. Hakim ul-mulk ham Tomasning nimaga ishora qilayotganini angladi. U mister Tomasning Rizo shoh bilan Hikmat Isfahoniy o‘rtasidagi gap-so‘zdan ko‘pdan beri xabardor ekanini darhol payqagan edi.

— A’lohazratning naqadar g‘azablanganini bilsangiz edi, — deb bo‘lgan ishning hammasini unga so‘zlab berdi.

Mister Tomas diqqat bilan eshitdi, Hikmat Isfahoniydan eshitganlari bilan Hakim ul-mulkning gaplarini, bir-biriga taqqoslab ko‘rdi. Vazirning gaplarining ilgari eshitganidan hech farqi yo‘q edi.

Hakim ul-mulk davom etdi:

— Ko‘p masalalarda, mister Tomas, oddiy ko‘zga tashlana qolmaydigan narsalar bo‘lishini siz mendan ham yaxshi bilasiz.

Hokimiyat uchun kurash yo'li doimiy shubhalar, uzluksiz xiyonatlar va hech kutilmagan fitnalar yo'lidir. A'lohazratning fikricha Salimiy ham, Hikmat Isfahoniy ham o'z karvonini shu soxta yo'ldan boshlab bormoqdalar va axir bir kuni yomon yo'lga tushib ketadilar.

— Og'oyi Hikmat Isfahoniy bunday jazoga loyiq emas, — deb qat'iy e'tiroz bildirdi mister Tomas. — U qirol hukumatining haqiqiy do'stidir.

Hakim ul-mulk gavdasini biroz oldinga tashlab:

— Men amerikaliklardan ham, nemislardan ham aynan shu xildagi gaplarni eshitdim, — deb javob berdi.

Mister Tomas gapni cho'rt kesib:

— Angliya o'z do'stlarini yaxshi biladi! — dedi.

Saroy vaziri Hikmat Isfahoniy bilan bo'ladigan kurashning uzoqqa cho'zilishini sezdi-da, gapni boshqa tomonga burib yubordi. U mamlakatda muxolifatning kuchayib ketayotgani, buning hamma belgilari ko'zga tashlana boshlagani haqida gapirdi. Bundan tashqari hukumatga qarshi kitobchalar tarqatayotgan odamlar hali ham topilmaganini aytdi.

Mister Tomas og'zidan trubkasini olib:

— Ularni men topsam nima deysiz? — dedi.

— Unda Eron uchun qilgan xizmatingiz o'n baravar ortadi. Sizdan juda minnatdor bo'lamiz! — dedi Hakim ul-mulk.

— Urinib ko'raman, — dedi mister Tomas, keyin yana trubkasini labiga qistirib, qattiq tortdi-da, ko'zlarini qisib xayolga toldi.

* * *

Olti yil ichida doktor Simonyan Xovarni o'ziga yaxshi yordamchi qilib yetishtirdi. Xovar erkaklar oldida yuzini ochishdan uyaladigan, ularning so'zlariga javob bera olmay, qip-qizarib ketadigan va inson a'zolari tasvirlangan anatomik plakatlarni ko'rganda: "Ey Xudo, shuni ko'rgandan ko'ra, yer yorilsa kirib ketsam yaxshiroq bo'lardi!" deb yuzini yashiradigan ayoldan kasallarga mehribon, epchil va g'ayratli meditsina hamshirasiga aylandi. Og'ir tabiatli, dunyodagi faqat yaxshi narsalarnigina ko'radigan, barchaga baravar qaraydigan, har kishi va har narsadan yaxshilik

axtaradigan bu oliyjanob doktor Xovarga muhabbat to'la ko'zlari bilan boqar va faxr bilan:

— Sen mening ikkinchi ilmiy asarimsan! — der edi.

Doktor bemorlardan qo'li bo'shagach, ko'pincha yumshoq kresloga o'tirib, kichkina Ozodni oldiga chaqirib, uni quchoqlab o'pardi-da, qo'liga konfet berardi. Doktorning xotini Anush ham Ozodni juda yaxshi ko'rardi. U Ozodni keksa xotinlarga xos mehribonlik bilan sevar edi. Har kuni doktor va Xovar kasallar bilan band bo'lgan paytlarida Ozod uning oldida o'ynardi. Bolaning xuddi onasi singari beozorligi, odamga tez el bo'lib ketishi va yoshiga to'g'ri kelmaydigan darajada burro hamda jiddiyligi Anushga juda ta'sir qilar edi. Uyda kam bo'ladigan Aram ham Ozodni juda yaxshi ko'rardi.

Ozod to'rt yashar paytidayoq unga alifbe kitobidagi harflarni tanitgan va sanashni o'rgatgan ham shu Aram edi.

Bularning hammasi Xovarga ajoyib tushdek tuyular edi. U o'zi singari och-yalang'och ayollar va bolalarning Tehron ko'chalarida har qadamda tilanchilik qilib yurganini ko'rib, doktorni duo qilishdan tolmasdi. "Bular bo'lmasa mening holim nima kechardi?" deb o'ylar edi u. Hatto o'zining bu fikrlarini bir kun Anushga ham aytib tashakkur bildirgan edi:

— Alloh taolo sizlarga baxt bersin, dunyo turguncha turinglar, siz bo'lmasangiz ko'chada qolgan bo'lardim.

— Biz seni o'z qizimizdek yaxshi ko'ramiz, — deb javob bergan edi Anush Xovarni o'pib. — Biz och bo'lsak — och bo'lasan, to'q bo'lsak — to'q.

— Xudoyo davlatingiz ziyoda bo'lsin! Bu qilgan yaxshiliklaringizni sira esimdan chiqarmayman. Chunki, bunday yaxshilikning evazi yo'q. O'lgunimcha eshigingizda cho'ri bo'lib qolaman.

Bu so'zni eshitib qolgan doktor o'z xonasidan chiqib:

— Qizim, ikkinchi bunday gapni gapirma, — dedi. — Cho'ri deganing nimasi? Sen oilamizning a'zosisan. Karimxon keladi, undan keyin yana birga yashaysizlar, baxtli bo'lasizlar!

Xovar boshqa narsa demay, ko'ziga yosh olib, narigi xonaga chiqib ketgan edi. To'g'risi, u juda ko'p gaplar aytmoqchi edi-

yu, lekin ayta olmagandi. Dilida doktor bilan uning oilasini ming martalab duo qilgan edi. Shunday sof ko'ngilli, ajoyib odamlarning musulmon emasligiga o'zicha achingan, armani bo'lsa nima bo'libdi, qalbida Xudoning nuri bor, deb yana o'ziga tasalli bergan edi.

Endi Karimxon surgundan qaytib kelgach, Xovarning baxtiyorligining cheki yo'q edi. U o'z o'tmishini eslar ekan jar yoqasidan omon qaytgan odamning hayajonini kechirar edi. O'zini jarga qulab ketishdan saqlab qolgan Simonyan oilasiga nisbatan muhabbati yuz marta oshar edi. Unga hatto Karimxonni surgundan qaytargan ham shu Simonyanlardek tuyular edi. Karimxon surgundan qaytib kelgandan so'ng, Xovar juda ochilib ketdi. Uning butun borligi go'yo baxt nuri bilan porlar edi. Uning boshiga kelgan g'am-alam bulutlari birdan tarqab ketgan edi. U yanada ko'rkamlashib ketdi, yuzlari naqsh olmaday qizardi. Uning ko'zlari hayot va muhabbat ehtirosi bilan yonardi, hatto ovozida ham o'zgarish paydo bo'ldi: ovozi yanada jarangdarroq bo'lib qoldi, ovozidan quvnoqlik, xushbaxt ohanglari bilinib turardi. Buni hatto doktor oldiga keladigan kasallar ham payqashdi, Xovarning baxtiyor va quvnoqligi atrofdagilarga ham ta'sir qilmay qolmasdi. Doktor Xovardagi bu o'zgarishlarni ko'rib, ich-ichidan quvonar, yoshligidagi Kavkazda eshitgan: "Yorug' kunlar kishining baxtini ochadi" degan ozarbayjon maqolini eslar edi.

Xovar har kun soat beshda doktornikidan qaytib kelgach, uyni yig'ishtirar, ovqat pishirar, choy qo'yar, kichkina Ozodni tizzasiga o'tkazib, Karimxonni kutar edi. Cheksiz baxt tuyg'ulari bilan to'la qalbining eng ichkarisida allaqanday bir g'ashlik bor edi, allaqanday xavotirlik sezardi. Unga allanima: "Ko'rarsan, boshingga hali ko'p g'ovg'alar tushadi" deyayotgandek tuyulardi, u ming xil xayollarga borib, hayajonlanardi. O'zini ovutish uchun o'rnidan turib hovliga chiqar, soyaga qarar, hali vaqt erta ekan-ku, nega buncha xavotir bo'lmasam, deb Ozod bilan o'ynay boshlardi. Karimxon kelib yuvinar, non yer, choy ichar va eski, churuk gilam ustiga yastiq qo'yib yonboshlardi-da, xayolga cho'mardi.

Shunday paytlarda Xovar uning yoniga o'tirib, yelkasiga boshini qo'yib, xavotirlanganini gapirib berardi.

— Ko'p xavotir bo'laverma, Xovarim, — deb uning sochlaridan o'pardi Karimxon.

Bugun ham ular ovqatlanishib, Ozodni uxlatishgach, ikkalasi o'tirishardi. Xovar Karimxonga qanday intizorlik bilan kutgani, hayajon va o'ylarini gapirmoqda edi. O'z xotiralarini so'zlar ekan, ikki gapning birida Simonyanlarni tilga olar, ularning yaxshiligidan so'zlar edi. Xovar Karimxonning qo'lini ushlab, to'satdan:

— Sen ham hech meni eslarmiding? — deb so'rab qoldi.

Karimxon ham xotinining qo'llarini ushlab janub kechasi singari qop-qora ko'zlariga boqib allanima demoqchi bo'ldi. Lekin shu onda eshik taqillab qoldi.

Xovar bir sakrab tushdi-da, dik etib o'rnidan turdi. Uning yuragi o'ynab ketdi:

— Shu paytda kim kelishi mumkin?...

Karimxon uni tinchitib, eshik ochgani chiqdi. Eshikni taqillatgan Husayn Mahbusiy edi. U zarur ish bilan kelganini aytdi. Karimxon eshikni ochib, uyga boshlab kirdi. Mahbusiy Xovarga salom berdi. Xovar javob berar ekan, uning basharasiga qaradi. Xovarning nazarida, butun uyni qorong'ilik bosib ketgandek tuyuldi. U o'zini tuta olmay, darhol hovliga chiqib ketdi. Ichkaridan Karimxonning:

— Xovar, choy qo'yib yubor, — degan ovozi eshitildi.

Birozdan so'ng Xovar choy olib kirdi, lekin yana uyda o'tira olmay hovliga chiqib ketdi. Husayn Mahbusiy bilan Karimxon bir soatcha so'zlashib o'tirishdi. Xovar ularning nima to'g'risida gaplashganini bilmadi, chunki xayoli parishon edi.

Husayn Mahbusiy ketgandan so'ng Karimxonga hujum boshladi:

— Bu odamni endi uyga kiritmayman demaganmiding?

— Xovarim, kelgan mehmonni qaytarib bo'ladimi?

— Meni qiynama, Karimxon, u odam menga yoqmaydi. Bilmadim, qayerdan topib kelding uni.

— U mening turmada, surgunda birga bo'lgan o'rtog'im, Xovar. Hozir ham tinchligi yo'q. Yomon ishlamayapti, bas, shunday ekan, nima deya olardim?

— Sen mendan xafa bo'lma, Karimxon, lekin u kim bo'lsa ham uyga olib kirma. Boshqa joyda uchrash. Iloji bo'lsa u bilan hech ko'rishma. Men istamayman! Qarashlari biram xunuk! U biram sovuq, biram og'ir qaraydiki! Nahotki, sezmagan bo'lsang? Bir marta bo'lsa ham unga diqqat bilan qaragin, ko'rasan. Karimxon, azizim, o'zingni o'yla, undan tashqari meni o'ylamasang ham, mana bu o'g'limiz uchun o'zingni ehtiyot qilsang bo'lmaydimi? Sensiz uning holi nima kechadi, axir?

Xovar o'zini tutolmay, ho'ngrab yig'lab yubordi. Karimxon unga tasalli berdi:

— Sen juda ham yuragingni oldirib qo'yibsan, Xovar. Bu to'g'rida ko'p o'ylashing sezilib turibdi. Senga so'z beraman, u endi sira bizning uyga kelmaydi. Tinchlan, Xovarim! Men sening faqat bugungi kuning to'g'risida emas, ertangi kuning to'g'risida ham o'ylayman. Mening idealim, butun orzu-umidlarim kelajak kunlardan, shunday kun keladi, biz albatta, o'sha kunlarga yetamiz. Biz sen uchun ham, o'g'ling uchun ham baxtli, go'zal hayot yaratamiz. Shunday bir hayot yaratamizki, agar oylab uyga kelmay qolsam ham xavotir olmaysan, hech narsadan qo'rqmay xotirjam o'tiraveradigan bo'lasan.

U Xovarni quchoqlab, yoshli ko'zlaridan o'pdi. Xovar yengil tortib, o'zini yana cheksiz baxtiyor his qildi.

* * *

Husayn Mahbusiy Karimxonlarnikidan chiqqach, bir qancha vaqt Tehronning bo'shab qolgan ko'chalarida aylanib yurdi. Ahyon-ahyonda uchrab: "Og'o, marhamat", deb o'z xizmatini taklif etgan foytunchilar, uylar va do'konlar oldidan beparvo o'tib ketaverdi, yarim kechada ham o'tkinchilarga qo'l cho'zishdan charchamagan tilanchilar va ora-sira uchrab qoladigan tungi ishratchilarning shovqin-suroniga e'tibor bermay borar edi.

U zo'r berib o'ylardi. Endi uning butun kelajagi, taqdiri yashirin tashkilotni tezroq ochishiga bog'liq edi, ish kechikib ketsa butun

hayot va toleyi xavf ostida qolardi. Bu esa uni qo'rqitar, yuragiga vahima solardi. Nima qilish kerak? Qanday ish ko'rish kerak? Hodisalarning borishini tezlatish uchun qanday chora ko'rish lozim? Nima qilsa hozircha topgan kichkinagina yo'lni kengaytirib, qaynab turgan buloqqa yetib bora oladi? Lekin ishni muvaffaqiyat bilan oxirigacha yetkazsa, kelajakda uni katta mukofotlar kutadi! Unga juda katta yo'llar ochilar edi. Ammo maqsadga erishish qiyin edi. Karimxon unga ayrim mayda-chuyda topshiriqlar berish bilan kifoyalanar, boshqa hech narsa aytmasdi. Hatto va'da qilgani yig'ilishga ham olib bormay, ishni paysalga solib yurardi. Karimxonning aytishicha, allaqanday sabablarga ko'ra yig'ilish bo'lmay qolardi, goh uni chaqirmagan bo'lar, goh kimdir Tehrondan ketib qolgan bo'lardi. Qistash ham xavfli edi. Lekin kechiktirib ham bo'lmasdi. Politsiya undan oldinroq tashkilotni ochib qolishi mumkin edi, unda Husayn Mahbusiy hamma narsadan mahrum bo'lardi.

Shunday fikrlar bilan u shaharda izg'ib yurdi. Soatiga qarab, mister Tomasga uchrashishi kerakligini esladi. Uning oldiga borish fursati yetgan edi.

U endi mister Tomasning uyiga jo'nadi. Mister Tomas Mahbusiyni doim Tehronning tor va eski ko'chalaridan biridagi kichkinagina hovlida qabul qilardi. Mahbusiy bu hovlida hali eshik ochadigan qorovuldan boshqa birorta ham jonli kishiga duch kelmagan edi. Hovliga kirganda, og'ir sirli jimjitlik kishini vahimaga solardi. Lekin Mahbusiy bu jimjitlikka o'rganib qolgandi.

U eshikdan kirishi bilan to'g'ri balkonning oldidagi kichkina xonaga tomon ketdi. Mister Tomas trubka chekib, allaqanday qog'ozni o'qib o'tirar edi.

Mahbusiy ichkari kirib salom berdi, lekin javob olmay g'o'dayib turib qoldi. Mister Tomas go'yo hech kim kelmagandek, unga parvo qilmay, o'z ishi bilan shug'ullanaverdi. Boshini ham ko'tarmadi. Mahbusiy xonadagi tamaki tutuni bilan kuldondagi kul va papiros qoldiqlariga qaradi. Undan oldin ham bu yerga odamlar kelib ketganini angladi.

Oradan o'n besh minutcha vaqt o'tganidan keyingina mister Tomas boshini ko'tardi-da, trubkasini tutatib, Mahbusiyga qaradi:

— Ha... keldingmi? O'tir!

Mahbusiy o'tirdi-da, ko'zlarini mister Tomasga tikdi. Mister Tomas trubkasidagi tamakini chekib bo'lib kuldonga trubkani qoqdi. Keyin, odaticha ingichka cho'p bilan trubkaning ichini tozalay boshladi. Mahbusiy buning norozilik alomati ekanini bilar edi. Mister Tomas besh minutcha trubka tozalash bilan ovora bo'ldi. Keyin yana unga tamaki to'ldirib, shoshilmay labiga qistirdi. Mahbusiy yaltoqlik bilan unga gugurt chaqib tutdi. Lekin mister Tomas o'rnidan turib, cho'ntagidan gugurt oldi-da, trubkasini o'zi yondirdi. Yana trubka tutata boshladi. Keyin u qo'llarini cho'ntagiga tiqib, xonada uyoqdan buyoqqa kezdi. Ikki marta esnagandan keyin, xona o'rtasida mazza qilib bir kerishdi-da, kelib joyiga o'tirdi. To'g'rirog'i, kresloga cho'zilib o'ng oyog'ini stol ustiga uzatib yubordi, oyog'i Mahbusiyning burnini uchirib yuborishiga sal qoldi. Mister Tomas so'l oyog'ini ham stol ustiga qo'yib, birpas rohatlanib olgach, Mahbusiyga qarab:

— Xo'sh, qachon yig'ilishmoqchi? — deb so'radi. — Ularning ro'yxatini olib keldingmi?

— Mister Tomas, bu juda zo'r va mushkul ish. Sabr qilish kerak. Buning ustiga, hozir ish mening istagimday bo'lmayapti. Sabr qiling, olib kelaman.

— Sen menga aql o'rgatayapsanmi?

— Kechiring, mister Tomas.

— Nimani kechiray, mana bunimi?

Mister Tomas Mahbusiyning oldiga kichkina bir kitobcha tashladi. Bu "Ish, non va ozodlik" kitobchasining ikkinchisi edi. Mahbusiyning dami ichiga tushib, bir narsa deyishga botina olmadi.

— Sabr qil emish! Qachongacha sabr qilamiz? Ular qurol ko'tarib ko'chaga chiqqungachami?

— Men qo'limdan kelgan ishni hammasini qilyapman.

— Qilayotgan bo'lishing mumkin, lekin bizning foydamizga emas, zararimizga. Bu kitob boshdan-oxirigacha inglizlarni tahqirlashdan iborat. Ehtimol, bu senga ham yoqar-a?

— Mister Tomas!..

— Senlarga sira ishonib bo'lmaydi. Kattangdan-kichiging besh qiron ortiq to'lagan odamga sotilib ketaverasanlar!

— Mister Tomas, men o'z sadoqatimni isbot qildim-ku!

Mister Tomas Mahbusiyning oldiga o‘n tumanlik pul tashladi.

— Ol! Senga besh kun muhlat beraman. Besh kun!

— Harakat qilaman. Lekin, mister Tomas, siz ham hamma ishning faqat menga bog‘liq emasligini hisobga oling.

Mister Tomas oyoqlarini stol ustidan tushirdi-da, o‘rnidan turib, yana xonani bir kezib chiqdi.

— Sen o‘z hayoting bilan o‘ynashayotibsan, shekilli! — dedi u va yonidan to‘pponcha chiqarib, ro‘molchasi bilan arta boshladi.

Mahbusiy uning qo‘lidagi to‘pponchani ko‘rib, uning nima demoqchi bo‘lganini tushunib, dik etib o‘rnidan turdi.

— Harakat qilaman, mister Tomas, besh kunda bir yoqlik qilishga harakat qilaman.

— Harakat qil, harakat qil. Xayr endi!

Mahbusiy hovliga chiqdi. Qo‘rqa-pisa orqasiga qaradi, ko‘zlarini hovliga tikdi. Hovli qorong‘i bo‘lganidan hech narsani ko‘rib bo‘lmasdi. Qo‘zlarini yumib, ochdi. Lekin baribir yana hech narsa ko‘rolmadi. Qorong‘ilik ichida ko‘ziga faqat bir narsa ko‘rinaverdi. Bu mister Tomasning kichkinagina yaltiroq to‘pponchasi edi; u qorong‘ilikning har tomonidan o‘zining sovuq og‘zini Mahbusiyga qaratib turar edi. Mahbusiy darhol hovlidan chiqib, ko‘chadagi lampa yorug‘iga otildi. Yorug‘dan ko‘zlari qamashdi, u ko‘zini ishqalab, shimining cho‘ntagidan o‘n tumanni oldi-da, tomosha qilib, yana buklab yon cho‘ntagiga solar ekan:

— Ingliz ko‘ppagi! — deb to‘ng‘illab qo‘ydi. — Buyurgan ishini qara-yu, bergan pulini qara!

U mister Tomasning unga qilgan muomalasi va qosh-qovog‘ini ko‘z oldiga keltirib, yana qo‘rqib ketdi. Dorning sirtmog‘i halqumidan siqib kelayotgandek terlab ketdi. Biroz yurib to‘xtadi. Esiga yangi bir narsa kelganday:

— Mayli, sen bermaganingni fon Valter bilan mister Garolddan olaman, — dedi-da, so‘lga burilib, bu og‘ir xayollardan tezroq qochib qutulmoqchi bo‘lgandek qadamini tezlatdi.

O‘N TO‘QQIZINCHI BOB

Dalalardagi tepaliklar usti va qip-yalong‘och bo‘lib qolgan daraxt shoxlari qor bilan qoplangan edi. Allaqayerlardan kelayotgan izg‘irin kishining suyak-suyagidan o‘tib ketardi. Yo‘l bo‘yidagi suvlar va ko‘lmaklar taqa-taq qotib muzlagan. Savalonning boshi doimiy tuman ichida yashiringan edi. Sariya xola bilan Gulnoz sovuqni ham sezmay tor so‘qmoq yo‘ldan sekin yurib borardilar. Gulnoz ikkita ko‘rpa bilan bitta tugunni yelkasiga ko‘tarib olgan edi. Gulnozning yelkasidagi ko‘rpa orasidan Olmosning ko‘zlari mo‘ltillab turardi. Sariya xolaga opichib olgan Niyoz tinch uxlab yotardi. Sariya xola bir qo‘li bilan Ayozni yetaklab, ikkinchi qo‘liga esa oziq-ovqat solingan xurjunni tashlab olgan edi.

Ular horib-charchab noma’lum kelajak sari ketishardi. Qalblari tosh singari og‘ir g‘am-g‘ussa va yolg‘izlik alami bilan to‘la edi. Bu his borgan sari vahimaga, butun vujudlarini kemiruvchi qo‘rquvga aylanib borardi. Qayerga ketyaptilar? Nima uchun ketyapdilar? Ertaga nimalar bo‘larkin, boshlariga nimalar tusharkin? Tolelari va falakning gardishi ularni qayerga olib borarkin?

Bu yurak siquvchi shubha va taraddudlarga qaramay, olg‘a borardilar. Ba’zan mana shu adirdan oshib o‘tsalar yoki anavi qishloqni bosib o‘tsalar Musa aka bilan uchrashadigandek va bu azob-uqubatlardan qutuladigandek tuyulardi ularga. Shu fikr ularni bir joyda to‘xtab qolmaslikka, doim ilgarilab borishga majbur qilardi. Lekin bu adirdan o‘tgach, son-sanoqsiz boshqa adirlar ularning yo‘llarini to‘sar, bir qishloqdan o‘tgach, xuddi shunga o‘xshash qish uyqusiga cho‘mgan boshqa qishloqqa duch kelishardi. Qishloqlarda uchragan odamlar ularga beparvolik bilan qarab o‘z yo‘llariga ketishaverardi! Har kim o‘z dardi bilan ovora edi. Ulardan ahvol so‘rashga biror kishining iloji ham, majoli ham yo‘q edi. Hammaning yuzida bitmas-tuganmas dard va muhtojlik tamg‘asi bor edi. Dehqonlar ko‘zida doimo g‘am-tashvish

aks etardi. Qishloqdan chiqqanlarining o'ninchi kuni Sariya xola oziq-ovqatlarining tugay boshlaganini payqab, yanada ehtiyotroq qilib ishlata boshladi. Qorni to'ymagan bolalarning yana ovqat yegilari kelardi, lekin Sariya xola ularni ovitib, kuniga bir martagina ovqatlantirish bilan kifoyalanardi. Faqat uch yashar Olmosga ikki mahal ovqat berardi. Sariya xola ko'ylagining ko'kragiga yashirib qo'yilgan o'ttiz tumanni hech sarf qilgisi kelmas, uni eng yomon qora kunga asrardi. U noma'lum kelajakdan juda qo'rqsa ham, axir bir kun bolalari bir burda non so'rab tilanchilik qilishlari mumkinligini ko'z oldiga keltirmasdi. Oxirgi kuni xurjunda bir kaft un bilan jindak qotgan lavashdan boshqa hech narsa qolmaganini ko'rgach tilanchilik qilish fikri lop etib miyasiga keldi-yu, go'yo chaqmoqday urdi. Yo'q! U tirik ekan bolalarining tilanchilik qilib kun ko'rishlariga yo'l qo'ymaydi! Rangini sarg'aytirgan, quvvatini ketkazgan va belini bukchaytira boshlagan muhtojlik hali uning ruhini sindira olmagan, uning insoniy hayot kechirish orzusini yo'qota olmagan edi. U bolalarini Tehronga yetkazishga shoshilar, unda yo Musa akani, yo Faridunni topish umidida edi. Shu umid bilan u yiqilib-surilib, tinkasi qurigan tizzalari bukilib-bukilib ketishiga qaramay, Tehronga intilar edi.

Qisqa qish kuni tugab tez qosh qoraya boshladi. Qor bosgan va oppoq cho'ldan boshqa hech narsa ko'zga chalinmaydi. Na biror qishloq va na biror inson bolasi ko'rinadi. Qorong'ulik quyuqlashgan sari bepoyon cho'lning sukuti ichida qo'rquv ham orta borardi. Sariya xola qish kechalarida yirtqich hayvonlarning shu yo'llarga chiqishi, hatto qishloqlarga ham kirib borishini eshitgan edi. Yirtqichlarning shafqatsizligi to'g'risida uzun qish kechalari eshitganlari hozir sahroning bu jimjitligi ichida ko'z oldida jonlanib, yanada vahimasini oshirib yubordi. Sariya xola shu vahima ta'siri ostida kuch-quvvatini to'plab, qadamini tezlatishga tirishar ekan, Gulnozni shoshirdi:

— Tezroq yuraqol, qizim, biror boshpanaga yetib olaylik.

Ikki ko'rpa, bir tugun va Olmosning og'irligi ostida ezilgan Gulnoz, indamay qadamini tezlatishga harakat qildi. Lekin tizzalarida og'ir sanchiq paydo bo'lganini sezdi. Oyoqlari tosh osib qo'ygandek og'irlashib, taxtadek jonsiz bo'lib qolgan edi. Ortiq

yura olmasligini sezgan qiz, o'ziga sal kuch berishga urindi. Lekin qadamini tezlata olmadi. Qiz onasiga qaradi. Uning ahvoli yanada mushkulroq edi, og'ir-og'ir nafas olar, oxirgi kuchini sarflab qadam tashlardi. Gulnozning unga juda rahmi kelib:

— Onajon, juda charchabsan-ku! — dedi.

— Ha, qizim, — deb xirillab javob berdi ayol — oyoqlarimni ko'tara olmay qoldim. Oyoqlarim chalishib ketyapti, yiqilib tushmasam go'rga edi.

Gulnoz indamadi. Qora sochlarini orqasiga tashlab, qizarib ketgan qo'llaridan oqayotgan ter tomchilarini artdi-da, mudray boshlagan Olmosning boshini yana yelkasiga qo'yib, bir necha qadam ilgarilab ketdi. Tepalik oldiga kelgach, orqasiga qayrilib qaradi. Onasi undan ancha orqada arang oyog'ini sudrab kelmoqda edi. Gulnoz to'xtab, kutdi. Hozir ham onasining keyinda qolishiga Niyoz sabab bo'lgan edi... Bola vaziyatning mushkul va fojiali ekanini tushunganidan katta kishilardek jiddiy qadam tashlar, onasi va opasi bilan baravar yurishga harakat qilar, ularga ortiqcha yuk bo'lishni istamasdi. Lekin keyingi kunlarda u tez-tez orqada qolib ketar, o'tirib olar va oyoq og'rig'idan shikoyat qilardi.

Gulnozga yetishga o'n-o'n besh qadamcha qolganda cho'kkalab qoldi-da: "Ona, endi yurolmayman", deb yig'lab yubordi. O'zini kattalardek jiddiy tutgan bolaning bu ko'z yoshlarida benihoyat zo'r alam va umidsizlik bor edi.

Sariya xola zo'rg'a bir tosh ustiga o'tirib, uning bo'ynidan quchoqladi, yuz-ko'zidan o'pdi.

— Yig'lama, o'g'lim! Birpas damingni ol, keyin yo'lga tushamiz. Boshingni tizzamga qo'y!

Bola onasining tizzasiga bosh qo'yib yotib oldi. Oyoqlarida mador qolmagan, necha kundan beri davom etayotgan azobga chiday olmagan bola uxlab qoldi. Cho'lni qorong'ulik bosdi. Ular bir-birovlarini zo'rg'a ko'rishardi.

— Onajon, — dedi Gulnoz. — Niyozni ham men ko'tarib olaqolay. Bir amallab ketarmiz.

Uning o'zi ham buning iloji yo'qligini bilardi. Ikki ko'rpa bilan bir tugun va Olmosni zo'rg'a ko'tarib kelayotgan holda yana yetti yashar Niyozni qanday ko'tara olardi?..

— Kuching yetmaydi, qizim. O'zing ham zo'rg'a turibsan...

— Nima qilamiz bo'lmasa, ona? Bu yerda qolib bo'lmaydi, bolalar tungi sovuqda qotib qolishadi. Nima qildik endi, a? Niyozni tashlab ketib, qishloqdan odam yuboramizmi?

Sariya xola qat'iy e'tiroz bildirdi:

— Unday dema, qizim! Uni tashlab ketib, otangga qay yuz bilan ko'rinaman? Bu katta o'g'limiz, otangning butun umidi shundan! Uni tashlab keta olmayman!

Gulnoz yana bir iloj topishga urindi.

— Unday bo'lsa ko'rpalarni tashlab, yengilroq bo'lib yo'lga tushaylik!

Sariya xola uh tortdi:

— Ko'rpa bo'lmasa bolalar ikki kunga ham chidayolmaydi, bolam! Ochiq havoda hammasi zotiljam bo'lib qoladi. Yomon kunga yarab turgan narsamiz shu-ku, axir!

— Endi nima qilish kerak, ona? Bu yerda qolsak, birdan bo'rilar kelsa nima bo'ladi?

Sariya xola ko'pdan beri o'zini ham qiynayotgan bu fikrni aytib Gulnozni qo'rqitishni istamagan edi. Qiz o'zining miyasiga tasodifan kelib qolgan bu fikrdan vahimaga tushdi, onaning bag'riga kirdi:

— Bir ilojini top, ona!

Xotin uh tortdi.

— Yomon yerda tunayapmiz, bolam! Uyimizni buzib, sarson qilib qo'ydilar. Uyimizni buzganlarning uyida boyqushlar sayrasin!

Bu qarg'ish va nolalarning befoyda ekanini payqagan ayol sho'rlik jim bo'ldi. Qayrilib ko'zlari jiqqa yoshga to'lgan Gulnozga qaradi va qat'iy bir qarorga kelgandek, shirin uyquda yotgan Niyoz bilan Olmosni shol ro'molga o'rab, katta toshning yoniga o'tqazib qo'ydi. Keyin bolalarning atrofini tosh bilan o'radi-da, o'rnidan turarkan bolalarining yuzidan o'pib, yig'lab yubordi. Qo'llarini ochib:

— Parvardigor, bolalarimni senga topshirdim, bularni o'zing saqla! — dedi ona.

Onasining qanday dahshatli ish qilmoqchi bo'lganini endigina sezgan Gulnoz onasini quchoqlab, ho'ngrab yig'lab yubordi.

— Ona, bularni qayerga tashlab ketmoqchisan? Dasht va cho'llarga bolani ishonib tashlab bo'ladimi? Yo'q, men o'lsam ham ular bilan birga o'laman!

Onasi, go'yo yuragi toshga aylanib ketgandek, indamay, ishga kirishdi! Ayozni bundan sal ilgari Olmos yotgan ko'rpaga o'radi. Gulnozning qo'lidagi tugunni o'zi ko'tarib, yo'lga tushdi.

Gulnoz ham oyoqlarini zo'rg'a bosib uning orqasidan ketdi. Go'yo yuragining bir parchasi cho'lda qolganday edi. Go'yo tizzalaridan mador qolmay, joni tanini tark etganday bo'ldi. Lekin u onasining qanchalik azob chekkani, qalbi pora-pora bo'lganini sezmadi.

Biroz yurib tepaning ustiga chiqishdi, oldinda miltillab yorug'lik ko'rindi. Bu yo bir qishloq, yo biror kichikroq shaharcha edi. Undagi xira chirog'lar bularning qalbida benihoyat zo'r umidlar tug'dirdi.

Sariya xola orqasiga qarab, hech narsadan xabarsiz bolalari tinchgina uxlab yotgan tomonga ko'z tashladi.

— Parvardigor, bolalarimni senga topshirdim, bolalarimni o'z panohingda asra, — deb yolvordi u. Birdan uzoqlardagi qorong'ulik ichida chaqmoqday bir narsa yalt etib so'ndi. Sariya holaning a'zoyi-badani titrab ketdi. Nazarida, esi og'ib, ko'ziga jin va shaytonlar ko'rinayotgandek bo'ldi. Kalima keltirib, ko'zlarini yumdi-da, keyin ochib, yana o'sha tomonga qaradi. Yana zulmat ichida cho'g'dek yongan bir juft ko'z ko'rindi. U ko'zlar borgan sari tez va yaqinroqdan ko'rina boshladi. Qayta o'sha tomonga qarashga botina olmagan Sariya xola qishloq tomon boqib xira chiroqlarga tikildi.

— Tez bo'l, qizim Gulnoz! Qishloqqa yugur! Zora biror insofli odam topilsa, kelib bolalarimni qutqarsa, — dedi u va Gulnozning qo'lini mahkam siqdi. — Cho'lga bir qara, anavi yonib ko'rinayotgan nima? Qo'rqyapsanmi, har bir toshning yonida bir juft ko'z miltillayapti!

Gulnoz o'girilib, qorong'i sahroga qarab, hech narsa ko'rmadi. Onasi esa hamon zulmat ichida yonib ko'rinayotgan yuzlarcha jonivorlarning ko'zlari to'g'risida gapirardi. Onasining qanday azob chekayotganini, bu hol davom etsa ko'p o'tmay, onasi es-

dan og'ib qolishini Gulnoz endi tushundi. Ayozni yerga qo'ydi-da, go'yo oyoqlariga qaytadan kuch kirgandek bolalarga tomon yugurdi. Ularni toshlar orasidan olib, halloslagan holda turtina-turtina tepaga, qishloqning chiroqlari ko'rinib turgan joyga olib chiqdi.

— Hech narsa yo'q, ona! Ko'zingga ko'rinibdi-da! Ko'p o'ylayverma! Bolalarni eson-omon qishloqqa yetkazib olamiz.

Endi ular goh yuklarni, goh bolalarni yigirma-o'ttiz qadam ilgariga eltib qo'yishar, keyin yana qaytib, qolganlarini ko'tarib ketishar edi. Lekin ular yurgan sari yo'l uzayar, qishloqning yuraklarga umid baxsh etgan chiroqlari tobora uzoqlashar edi. Shunga ham qaramay, Sariya xolaning boyagi umidsizlik va qo'rquvi ancha pasaygan edi. Dahshatli jin, qo'rqinchli ko'zlar endi xayolidan nari ketgan edi. U endi es-hushini yig'ib oldi.

Bu ahvolda qishloqqa tong otguncha ham yeta olmasligini, halok bo'lib ketishi mumkinligini tushunib Sariya xola yuklarning hammasini bir yerga to'pladi. Xurjunning ustiga o'tirib, bolalarini bag'riga bosdi. Ko'rpaga o'ralib oldi-da, Gulnozni qishloqqa jo'natdi:

— Bor, qizim, zora birorta bandayi Xudo topilsa, holimizga rahmi kelib mushkulimizni oson qilsa!

Bu ahvoldan qutulish uchun boshqa chora yo'qligini anglagan Gulnoz qishloqqa jo'nadi. Juda tinkasi qurigan bo'lishiga qaramay, oxirgi kuchini to'plab qadam tashlardi. Nihoyat, oyoqlari qavarib ketib, nafasi qisila boshlagach, qishloq itlarining hurgan tovushini eshitdi, sevinchidan ko'zlarida yosh paydo bo'ldi, qalbi yengillashib, oyoqlariga darmon kirdi.

Qishloqqa kirib, birinchi eshikni taqillatdi. Hovlidagi it shovqin ko'tardi. Uy egasi qari bir kishi edi. U erinibgina eshikni kim taqillatayotganini so'radi. Ayol tovushini eshitib, darrov eshik ochdi. Gulnozni hurmat bilan ichkariga olib kirib, keksa bir ayolga topshirdi. Gulnoz o'zini tuta olmay, ho'ng-ho'ng yig'ladi. Onasi va ukalarining tepa bag'rida qolganini so'zladi.

Uning so'zini tinglab bo'lgach:

— Abbosxonning cho'poni yo'lbarsdek yigit, hozir uyg'otaman, borib ularni olib keladi, qizim, — deb tashqariga chiqib ketdi chol.

Ko‘p o‘tmay Gulnozning qulog‘iga ko‘chadan ikki otliq o‘tgani eshitildi. U sabrsizlik bilan kuta boshladi. Tanchaning chetida o‘tirar ekan, vaziyat unga yana ham dahshatliroq tuyuldi. Har bir kechgan daqiqa, kechgan soatni eslar ekan tagi yo‘q chuqurlik, bitmas-tuganmas azoblarga duch kelganini payqardi. Otliqlar jo‘nashganidan to qaytib kelishgunicha o‘tgan bir soatcha vaqt unga bir yildan ham uzoqroq ko‘rindi. Ko‘chadan kelgan oyoq tovushlarini eshitib hovliga otildi.

Onasini ham, ukalarini ham sog‘-salomat olib kelishgan edi. Kampir ularni tanchaga o‘tqazib, choy qo‘yib yubordi. Qand o‘rniga mayiz olib kelar ekan, xijolat chekib uzr so‘radi:

— Bor-yo‘g‘imiz shu, choy ichinglar, ichingizga issiq yugursin. Kulbamizda boshqa hech narsamiz yo‘q, agar bor bo‘lsa, jonim bilan biror ovqat qilib berardim!

Sariya xola minnatdorchilik bildirdi:

— Shunday qorong‘u kechada uyingizga kiritganingiz uchun katta rahmat, bundan ko‘ra ulug‘roq yaxshilik bo‘lmaydi!

Ertasiga barvaqt turib jo‘namoqchi bo‘lishdi. Lekin kampir Olmosning alangayi otash bo‘lib yotganini ko‘rib, ruxsat bermadi:

— Bir-ikki kun sabr qilinglar, bola sho‘rlik shamollab qolganga o‘xshaydi. Sal o‘ziga kelgandan keyin ketarsizlar...

Sariya xola qizchaning boshini ushlab, boshqa iloj yo‘qligini payqadi. Isitma Olmosning a’zoyi-badanini misday qizitib yuborgan, bechora qizcha uzib tashlangan gunafshadek so‘lib bormoqda edi... Kun bo‘yi bolaning ahvoli yaxshilanmadi, aksincha kechga borib og‘irlashib ketdi. Sariya xola qiynalib, intizorlik bilan bolaning tuzalishini kutardi. Sariya xola bu uydan tezroq chiqib ketishga oshiqardi, chunki, kunda uch mahal ovqat vaqtida uy egalariga tovon bo‘lishlarini sezgan edi. Uchinchi kuni qizchaga achchiq choy ichirib ustiga kampirning po‘stinini yopib, terlatdilar. Kasal o‘ziga kelib, ko‘zlarini ochib atrofdagilarga mo‘ltillab qaray boshladi.

Sariya xola uni ko‘tarib yo‘lga tushmoqchi bo‘ldi.

Kampir choli bilan allanarsalar haqida pichirlashdi-da, Sariyaga:

— Hay, singlim, shu sovuqda bu bolani olib yursang, o‘ldirib qo‘yasan-da, uvoliga qolasan. Biznikida qola qolsin. Xotirjam bo‘l. O‘z bolamdek holidan xabar olib turaman, och bo‘lsak och, to‘q bo‘lsak to‘q bo‘ladi, — dedi.

Sariya Gulnozga, Gulnoz Sariyaga qaradi. Ikkalasi ham Olmosning so'niq ko'zlariga va so'lg'in yuziga qarab, rozi bo'ldilar.

— Alloh taolo chirog'ingizni ravshan qilsin!

Ular yuklarini yig'ishtirisharkan, allanarsani payqagan qizchaning ko'zlarida tashvish alomati ko'rindi. U zaif qo'lchalarini po'stinning tagidan chiqarib:

— Oyi! Oyi! — dedi.

Sariya xola egilib uning yuzidan o'pdi-da, qo'llarini yana po'stinning ostiga tiqib qo'ydi.

— Kelaman, qizim, hozir kelaman.

Ko'ngilchan va sodda uy xo'jayini ularni yo'ldan qaytarmoqchi bo'lishdi:

— Ketmay qo'yaqol, singlim, qol, biz bilan birga turaverasan. O'zing qizim, bolalaring esa, menga nevara bo'ladi.

— Rahmat, xola! Katta rahmat! Qanday qilib qolay? O'zingizga ham yeyish uchun noningiz yo'q-ku, yana men ham shuncha qayg'u-hasratim bilan sizlarga ortiqcha yuk bo'laymi? Boray, ehtimol, cholimni toparman. Ollohning karami keng!

Shunday qilib u sovuq qish kunlarida quruq nonga qanoat etib, bolalarini yetaklab noma'lum kelajak sari yo'lga chiqdi. Kelajak noma'lum va qo'rqinchli edi. Lekin bu yerda qolish qam dahshatli edi, yarim xaroba, aholisi och-yalang'och qishloqlardan o'tib, ilgarilab boraverdilar.

Beshinchi kuni Ayoz ham shamollab qoldi. Sariya xola uni hech kimga bermayman, o'lsa ham qo'limda o'lsin, deb yo'lida davom etdi.

Shu tarzda ularni uylaridan quvg'in bo'lgan vaqtdan boshlab kutilmagan musibat va toqat qilib bo'lmaydigan iztiroblar bilan to'la hayot o'z quchog'iga oldi. Quturib turgan dengizning zo'r to'lqini qirg'oqdagi kichkinagina qayiqni o'z qa'riga tortib, u yoqdan bu yoqqa ayovsiz ko'tarib tashlaganiday taqdir ham ularni sarson-sargardon qila boshladi. Qo'zg'algan, o'z joyini tark etgan to'lqinlar orasida na biror jon asraydigan joy, na yopishmoqqa biror cho'p-xas uchrardi. Go'yo falokatli va omonsiz oqim toshdan toshga urilib, dahshatli halokat chuquriga tomon to'xtovsiz yugurar va Sariya xola bilan Gulnozni ham o'zi bilan oqizib ketardi...

* * *

Bir oy yurishgandan keyin Tehronga yetib kelishdi. Ular go'yo quruq tuproq orasidan chiqib kelgan suv azim bir daryoga qo'shilganday shaharda g'oyib bo'lishdi. Go'yo sel ularni o'z to'lqinlari orasida chayqaltirib kelib, baland to'g'on tepasidan tegirmon toshi ostiga tashlab yuborganday bo'ldi. Shu kundan boshlab hayot bosh-oyog'i yo'q bir xasga aylanib, ularni ongsiz va irodasiz bir jism kabi o'z qariga tortib, ezib, yanchishga boshladi.

Tehronga yetib kelguncha Gulnoz ham, Sariya ham, Musa aka bilan Faridunni topishlariga umid bog'lagan edilar. Shu umid ularni hayot bilan bog'lab turgan so'nggi ip edi. Shahar bu so'nggi ipni ham uzib yuborib, ularni maqsad va g'oyasiz hayot quchog'iga otdi. Shaharning odam qaynagan, bir-biriga ulanib ketgan qing'ir-qiyshiq ko'chalari, bir zum ham tinmagan shovqin-suroni, bir-biriga o'xshash sonsiz-sanoqsiz tor ko'chalari go'yo ularning zamon va makon hissidan, bir yerni ikkinchi yerdan, kechani kunduzdan farq qilish hissidan ham mahrum etgan edi. Dastlab ularning yuraklari siqildi, chiqib ketish mumkin bo'lmagan botqoqlikka tushib qolganlarini sezdilar. Son-sanoqsiz ko'chalar, bir-biriga ulanib ketgan past-baland uylar, biri ketidan biri quvlashgan mashina va foytunlar o'rgimchak ini kabi ularni o'rab, ko'z ochishga va qayerda ekanlarini aniqlashga imkon bermas edi. Bu g'ala-g'ovur, bu qaynab yotgan botqoqlik ichida adashib qolishdan qo'rqib, bir-birlarining qo'lidan mahkam ushlab, qoqilib-suqulib borar edilar. O'tgan-ketganlarning basharasiga qarab, nimanidir so'ramoqchi bo'lishar edi. Lekin ularga quloq soladigan odam yo'q edi. So'zlari og'izlarida, savollari esa tillarining uchida qolardi. Chorrahalardan birida g'ujg'on o'ynayotgan odamlar orasiga tushib qoldilar. Bu mayda olibsotar va bozor bekorchilarining to'planadigan joyi edi. Odamlar orasidan chiqib ketishga uringan Niyozning qo'li onasining qo'lidan chiqib ketdi. Odamlarning kuchli to'lqini uni uzoqqa surib ketdi. Sariya xola odamzodga xos bo'lmagan g'ayri tabiiy tovush bilan faryod ko'tardi:

— Niyoz!... O'g'lim... Qayerdasan?!

Odamlar unga bir zumgina taajjub bilan qarab turdilar-u, yana o'z ishlari bilan ovora bo'lib ketdilar: oldi-sotdi qilishga, bir-bir-

larini turtib, itarib o'zlariga yo'l ochishga boshladilar. Xotin hamon faryod chekardi. Unga Gulnozning:

— Ukajon! — degan qichqirig'i ham jo'r bo'ldi.

Bir chetga surib tashlangan Ayoz ham dod solib yig'lardi.

Gapning nimada ekanini tushunib qolgan bir yigit bolani ko'tarib kelib, Sariya xolaning oldiga qo'ydi. Fors tilida allanarsalar dedi-da, javob ham kutmay o'z yo'liga ketdi.

Ular shundan keyin odam ko'p joylarga yaqin yurmaydigan bo'ldilar.

Ular qarshisidan kelayotgan bir necha odamni to'xtatib:

— Hay, aka, Xudo xayringni bersin, arzimizga bir quloq sol, ardabillik Musa aka yoki Faridunning qayerdaligini ayt, — deb so'rab ham ko'rishdi.

Lekin o'tkinchilar ularga:

— Xonim, turki namidonam[1], — deb o'tib ketar edilar.

Nihoyat tilga tushunadigan keksa bir yamoqchini topdilar.

— Hay amaki, bizga Musa akani yo Faridunni qayerdaligini ayting. Ko'chalarda sarson bo'lib, boshpanasiz qoldik...

Chol qovoqlari ostidan ularga qaradi. Ularning bu shahar sharoiti bilan tanish emasliklarini ko'rib, ularga qiziqib tikildi-da, bigizi bilan tizzasidagi yamoq solayotgan chorig'ini bir chetga qo'ydi.

— Qayerlik bo'lasizlar, singlim?

— Ardabil tarafdanmiz, aka, hech kimimiz yo'q. Cholim bir oy burun shu yoqqa kelgan edi, hali ham qaytgani yo'q. U ketganidan so'ng gumashta Mamad bilan Ali jandarmboshi bizni qishloqdan quvdi, mol-mulkimizni talon-taroj qildi. Ehtimol, sen bilarsan, ayb bo'lsa ham aytay, erimning oti Musa, jiyanimning oti Faridun.

Yamoqchi bosh chayqadi:

— Qaydan bilay, singlim, bu shaharda yuz ming Musa bilan yuz ming Faridun bor. Men qayerdan bilay? Xo'sh, ular turadigan ko'chani, mahallani bilasanmi?

— Bilmaymiz, aka, qayoqdan bilamiz? Bu xarobaga kelishimizni bilmadik-da!

[1] Xonim, turkchani bilmayman.

Chol Gulnozning yo'l azobi va iztiroblardan sarg'ayib ketgan yuziga boqdi. Ko'zlari qizning hali qishloqchasiga yongan ko'zlariga tikildi.

— Xo'sh, endi nima qilmoqchisizlar, boradigan biror joyingiz bormi?

— Hech kimni tanimaymiz, aka, hech kimimiz yo'q.

Yamoqchi ko'zlari ich-ichiga botgan, yuzlari za'faronday sarg'ayib, ozib ketgan Ayoz va Niyozni ko'rsatdi:

— Ahvoling og'ir ekan, ikki bola bilan juda qiynalib qolasan...

— Har qancha qiynalsak ham o'zimizga biror joy topishimiz kerak.

— Pul-muling bormi, singlim?

Bu savol Sariya xolani hushyor tortishga majbur qildi. U bolalarining kelajagini o'ylab yashirib yurgani o'ttiz tumandan boshqa hech pul qolmagan edi, bu pulning borligini esa hech kimga aytmoqchi emasdi.

— Bor-yo'g'imizni ko'rib turibsan.

Yamoqchi yana takrorladi:

— Qiynalib qolasan... Xo'sh, bularni nima bilan boqasan?

— Ko'rpaning bittasini sotaman, — dedi Sariya. — Yoki bo'lmasa qizimning marjoni bor, o'shani sotaman. Erimni topguncha bir iloj qilaman. Biror boshpana topsak bir kunimizni o'tkazarmiz.

Yamoqchi yana Gulnozga qarab, fikrga toldi. Keyin o'rnidan turib, iflos fartugini qoqdi-da:

— Mening ketimdan yuringlar, — deb do'konning orqasiga o'tdi.

Chol ularni kichkinagina, iflos bir hovliga boshlab kirdi, bir necha pillapoya pastga tushib, cho'ntagidan kalit olib bir eshikni ochdi.

— Ichkari kiringlar. Ikkita xona bor. Biri menga, biri sizlarga bo'ladi, — dedi-da, ularga o'ng tarafdagi xonani ko'rsatdi.

Ular zax bosgan xonaga kirdilar.

Sariya xola yamoqchiga qaradi:

— Ijara necha pul bo'ladi?

— Nimalar deyapsan, singlim, — dedi chol. — Kuching yetgancha to'larsan-da.

— Bilib qo‘ysak deymiz?

— Keyin gaplashamiz. Hozir sizlar dam olinglar, men ham do‘konga chiqay, ochiq tashlab kelavergan edim, keyin gaplashaveramiz.

Bir hafta shu yerda turishdi. Ikkinchi kuniyoq yamoqchi: “Yaxshi shogird bo‘ladi”, deb Ayozni yetaklab do‘konga olib chiqib ketdi. Gulnoz bilan Sariya xola esa har kuni Niyozni uyga qo‘yib, yamoqchi yashaydigan ko‘chadan uzoqqa ketishga jur’at etolmasalar ham, shaharga chiqishar, soatlarcha o‘tgan-ketganlar orasidan Musa aka bilan Fariddunni axtarishardi. Lekin na Faridun va na Musa akadan xabar topdilar.

Kechqurunlari esa bir burdadan non yeb yotishar va sabrsizlik bilan tong otishini kutishardi. Shu taxlidda yetti kun o‘tdi. Sakkizinchi kuni ham umidsiz qaytib, zax bosgan uyda o‘tirardilar. Kuni bilan yamoqchiga yordamlashgan Ayoz ailaqachon uyquga ketgan edi. Niyoz ham uning yonida mudrardi.

Sariya xola bilan Gulnoz xayol surib indamay o‘tirishardi. Shu vaqt yamoqchining:

— Hay, singlim, bir buyoqqa kirchi, — degan tovushi ularning xayolini bo‘ldi.

Sariya xola darhol dahlizga chiqdi. Chol uni o‘z xonasiga boshlab kirdi. Gulnoz uni sabrsizlik bilan kuta boshladi. U yamoqchi onasini nima uchun chaqirgani haqida o‘ylardi.

Nihoyat Sariya xola qaytib keldi. Gulnoz onasining rangi o‘chib ketganini ko‘rib, uning quchog‘iga tashlandi.

— Nima gap, onajon?

Sariya g‘ussa to‘la ko‘zlari bilan unga tikildi-da, o‘zini tutolmay ho‘ngrab yig‘lab yubordi. Gulnoz yuragi bezovta bo‘lgan holda uni quchoqladi.

— Nima gap, ona? Yo otam to‘g‘risida birorta yomon xabar eshitdingmi?

— Yo‘q, bolam, otangdan xabar yo‘q. Gap yana sen to‘g‘ringda.

— Nima bo‘ldi, ona? Tez gapir, nima gap?

Sariya xola Gulnozni bag‘riga bosdi:

— Yamoqchi seni olmoqchi! Nima deysan, qizim?

Gulnoz dahshat to‘la ko‘zlarini onasiga tikdi:

— Sen nima deding, ona?

— Mening o'rnimda sen bo'lsang nima derding, bolam? Rozi bo'lmasam uydan chiqarib yuboradi, ko'chaga haydaydi. Nima qilamiz, boshimizni qayoqqa uramiz?

Gulnoz ikki qadam orqaga chekindi:

— Kel, ona, meni o'z qo'ling bilan bo'g', o'ldir meni, qutulay! Ammo menga unday gapni gapirma!

Ular sahargacha uxlasholmadi. Goh hasratlashib, goh yig'lashardi. Ularga umid va tasalli beruvchi yo'q edi. Ertalab yamoqchi Gulnozning rad javobini eshitgach, o'z uyida nasl-nasabi noma'lum odamlarni saqlab turolmasligini bildirdi-da, ijara haqini to'lashni talab qildi.

— Bir haftadan beri shu yerdasizlar. Mehmonxonada tursangiz bir xona uchun ellik tuman olardilar... Lekin men unday noinsof odam emasman. O'ttiz tuman to'lang-da, uyni bo'shatib qo'ying.

O'ttiz tumanni eshitib Sariya xolaning boshi aylanib, ko'zi tinib ketdi.

— Hay aka, bizga rahming kelsin, bizda o'ttiz tuman nima qiladi? Insof qil, ko'rpalardan birini olaqol, biz ketaylik...

Yamoqchi to'ng'illab-to'ng'illab, ko'rpalardan ozodarog'ini tanlab oldi-da, ularning narsalarini hovliga uloqtirdi. Keyin eshigini qulflab, do'koniga chiqib ketdi.

Ular hovlida birpas turishdi. Keyin yuklarni ko'tarib, bolalarni yetaklagan holda to'lqinlangan daryodek og'zini ochib kutib turgan shaharning qariga kirdilar.

Uch kun ko'chada yog'in ostida yotdilar. Niyoz shamollab qolib, yo'tala boshladi. Sariya xola uning zotiljam bo'lib qolishidan qo'rqib, bag'riga bosib yig'lar edi.

— Gulnoz, qizim, bir surishtirib ko'r. Hech bo'lmasa biror masjid top, zora masjiddan biror boshpana topilsa.

Gulnoz nariroqqa borib, o'tib ketayotgan uchta o'tkinchidan so'radi:

— Og'o, menga masjidni ko'rsatib qo'ysangiz.

Lekin hali savolga javob olmasidanoq, boshqa odam gapirib qoldi.

— Hay qiz, Gulnozmisan? Juda mushkul ahvolga tushib qolibsan-ku! Onang qani?

Gulnoz gumashta Mamadning basharasiga ham qaramay, yugurib onasining yoniga keldi-da, uning bag'riga qisildi.

— O'-o'-o'! — deb pichirladi Gulnoz.

Sariya xola qizining gumashta Mamadga duch kelganini eshitib, umrida birinchi marta Xudoning ishlaridan shikoyat qildi:

— Xudoning ishlariga ham tushunib bo'lmaydi. Qidirgan odamingni ming devorning orasiga yashiradi, qochgan odamingni ro'parangdan chiqaradi, — dedi u va bundan keyin Gulnozni yonidan bir qadam ham siljitmadi.

Kun botishga yaqin yasangan, baland bo'yli semiz bir ayol ular oldidan o'tib ketaturib qadamini sekinlatdi-da, qo'lqop kiygan qo'li bilan Ayozning betini siladi.

— Arbob, hoy, arbob, — deb chaqirdi u bir necha qadam keyinda kelayotgan yaxshi kiyingan bir yigitga, — qara, qanday chiroyli bola ekan!

Arbob ham yaqin kelib bolaning boshini siladi.

— Juda chiroyli bola ekan! Bechora yetimchaga o'xshaydi...

Ayol Sariya xolani endi ko'rganday mehribon ona tovushi bilan so'radi:

— Bu sening bolangmi, egachi?

— Ha, meniki!

— Ko'z tegmasin, yaxshi bola ekan. Xo'sh, o'zing nega bu yerda o'tiribsan?

Sariya javob bermadi. To'g'rirog'i, shunday xushmuomala ayolning ko'nglini xira qilishni istamadi. Lekin xotinning o'zi yana so'radi:

— Yo boradigan yering yo'qmi, egachi?

Xotin yana boyagi yigitga qaradi:

— Arbob, kishining yuragi ezilib ketadi. Shahar mana shunaqangi beva-bechora ayollar va bolalar bilan to'la, — dedi.

Arbob esa:

— Ilojim qancha? — deb yo'lga tushdi.

Lekin u ayol ikki qadam tashlab, yana qaytdi:

— Egachi, senga rahmim kelyapti. Yaxshi ayol ekanliging ko'rinib turibdi. Baxtsizlik seni shunday kunga solganga o'xshaydi. Tur o'rningdan, ko'chada bolalardan ham ajraysan, o'zing ham

omon qolmaysan. Tur, yur biznikiga, o'zim ham uy poylash, ovqat pishirish uchun senga o'xshagan bir xotinni axtarib yurgan edim.

Sariyaning javobini ham kutmay arbobni chaqirdi:

— Arbob, darrov ikkita foytunni to'xtat!

Arbob Hanafiy ko'chaning o'rtasida turgan foytunlarga yaqinlashib, ikkitasini kira qilib keldi.

Xonim arbob bilan birinchi foytunga chiqdi-da, ikkinchi foytunchiga:

— Bularni foytunga o'tqaz, yuklarini ham ortib, orqamizdan yur, — deb buyurdi.

Sariya xola bilan Gulnoz goh bir tushga, goh xayolga o'xshab ko'ringan bu xonimga e'tiroz bildira olmadilar. Ularning nazarida, u xotin ko'kdan yuborilgan bir xaloskor farishta edi. Go'yo chekkan azob va uqubatlar evaziga bir mukofot tariqasida Xudo ularga shu xotinni yuborganday edi. Endi yomon kunlar bitib, g'am-g'ussali kunlar tugagandek, yorug' kun va umid to'la hayot boshlagandek edi. Bu go'zal va oliyjanob xotin Tehronni ostin-ustin qilib tashlasa ham, Musa aka bilan Faridunni topib beradi, ularni falokatdan qutqaradi.

Foytunlar tosh zinapoya oldida to'xtadi. Arbob tushib, eshikni taqillatdi. Baland bo'yli, serharakat bir odam eshik ochdi. Arbob unga fors tilida allanarsalar dedi. Xizmatkor Sariya xolaning yuklarini foytundan tushirdi. Arbob foytunchilarga pul to'ladi, eshikni ochib boyagi oliyjanob xonim bilan Sariya xolalarni kichkina, lekin shinamgina hovliga boshlab kirdi-da, o'zi chiqib ketdi. Xotin Sariya xolalarni yuqoriga boshlab chiqdi-da, gilam to'shalgan, xuddi kelinlar uyiday bezatilgan, yonida ayvoni bor bir xonaga boshlab kirdi.

— Mana shu xona sizniki. Men o'z o'g'lim bilan boloxonada turaveraman. Mening otim Saodat xonimdir, — deb, Sariya, Gulnoz va bolalarning ismini so'radi. Qayerdan kelganliklari va o'zlarining kim bo'lishlarini surishtira boshladi. Faridunning turar joyini so'radi. Sariya xola Faridunning qayerga ketganini bilmasligini aytgach, boshqa savollarga javob berarkan, Saodat xonimning quloq solmayotganini ko'rib taajjublandi. "Biror joyga shoshilayotgan bo'lsa kerak", deb gapni qisqa qildi. Saodat Ni-

yozning betobligini eshitib, xizmatchini chaqirdi, forschalab unga allanimalar buyurdi. Keyin Sariya xolaga:

— Bu yigit hozir hammomga o't yoqadi. O'zing ham yuvinib ol, bolalarni ham cho'miltir. U sizlarga yangi ichki kiyimlar ham beradi. Keyin doktor chaqirib beradi. Uy ishlari to'g'risida esa ertaga gaplashamiz. Hozir shoshilib turibman, ishim bor. Shab baxayr![1] — dedi.

U ko'cha eshigini taraqlatib yopib chiqib ketdi.

Gulnoz bilan Sariya xola yarim kechada uzoq vaqt tortgan azob-uqubatlardan keyin birinchi marta rohat qilib uyquga ketganlarida ham xonim qaytmagan edi.

Ular ertalab ancha kech uyg'onishdi. Kun peshinga yaqinlashib qolgan edi. Saodat xonim bilan arbob ulardan ham kechroq turib, pastga tushishdi.

Xizmatchi Arbobga choy berdi. U bir stakan choy ichib, chiqib ketdi. Saodat xonim Sariya xola bilan Gulnozga ba'zi ishlarni buyurdi.

— Har kuni to'rt kishilik ovqat tayyorlaysan, men bilan o'g'limdan boshqa yana mehmonlarimiz ham bo'ladi. Biz shu kunga qadar mehmonsiz ovqatlangan emasmiz.

Keyin u Sariya xolaga yana kechagi savollarni berdi. Bechora ayol yana hasrat qildi.

— Men surishtirib ko'raman, — dedi Saodat xonim, — eringni ham, jiyaningni ham surishtiraman.

Sariya xola xonim gapning ma'nosiga e'tibor bermaganiga taajjub qildi, buni uning badavlat xotinligiga yo'ydi...

* * *

Birin-ketin kunlar o'tib borardi. Sariya bilan Gulnoz har kuni ertalab va kechqurun hovli va uylarni chinniday qilib supirishar, ovqat pishirishar, idish-tovoqlarni yuvishardi. Ular Saodat xonim bilan arbobning ko'nglini olishga tirishar edilar.

Qorni to'q va rangi joyiga kelgan bolalar hovlida o'ynashardi. Gulnoz ham ancha o'ziga kelib qolgan edi, Saodat xonim sovg'a qilgan, shahar modasida tikilgan ko'ylakda u juda ochilib ketgan edi.

[1] Xayrli tun.

Endi ularning Faridun bilan Musa akani topishdan boshqa tashvishlari yo'q edi. Saodat xonim ham, o'g'li ham ular bilan juda yaxshi muomalada bo'lardi, ularga ham bir oila a'zosidek e'tibor qilishardi.

Shunga ham qaramay, Sariya xola shahar hayotiga o'rgana olmas, Musa akani topishi bilanoq o'z qishlog'iga, o'z kulbasiga qaytish umidi bilan yashar edi... Lekin kutilmagan bir xabar, bu umidlarni puchga chiqardi.

Bir kun Saodat xonim ularning xonasiga g'oyat hayajonlangan holda kirib keldi-da, ho'ng-ho'ng yig'lay boshladi. U bundan bir oy burun Musa akaning Tehronda zotiljam kasalidan vafot etgani, Faridunni esa jandarmlar qo'lidan qochmoqchi bo'lgani uchun dorga osganliklarini aytdi-da, zo'r qayg'u va motamda qolgan, yuz-ko'zini tirnab, yig'lay boshlagan Sariya xola bilan Gulnozni tashlab chiqib ketdi.

Shu voqeadan besh kun keyin u Sariya xolani yuqoriga, o'z xonasiga chaqirdi.

— Sariya xola, — dedi u, — sen mening qiyomatli egachimsan. Seni o'z egachim deb, dardimni senga ochmoqchiman. Mening hayotim sening qo'lingda.

Sariya xola hayron bo'lib qoldi:

— Nima gap o'zi, Saodat xonim?

— O'g'lim Gulnozni juda yaxshi ko'rib qolibdi. Na kechasi oromi bor, na kunduzi rohati. Men yo Gulnozni olaman, yo o'zimni o'ldiraman deyapti. Jon egachi, iltimos qilaman, uyimni buzma. Yakka-yu yagona o'g'limdan ajralib qolmay. Qizingni rozi qil, u ham baxtli bo'lsin, o'g'lim ham.

Sariya nima deyishini bilmay qoldi. Xayol surib pastga tushdi. Uzoq o'yladi. Gulnozga bundan yaxshiroq bir kuyov topolmasligini o'ylab, masalani yotig'i bilan Gulnozga tushuntirdi. Otasi bilan Faridunning o'limi to'g'risidagi xabardan so'ng, tamoman umidsizlikka tushib qolgan bechora qiz, onasining bunga rozi bo'lganini ko'rib:

— O'zing bilasan, ona, Faridundan keyin men erga tegmoqchi emasdim... Yana o'zing bilasan, — deb yig'ladi.

— Toq o'tish gunoh bo'ladi, qizim. Bunday qari qiz bo'lib o'tirib bo'lmaydi. Bular ham yomon odamlar emas. Bir ona-yu, bir o'g'li... Bizlarni ham o'limdan qutqarib qolishdi.

— O‘zing bilasan, ona!

Shunday qilib, Gulnoz ochilmay so‘lgan ilk muhabbatini, umidsizlik va g‘am-alamdan his va tuyg‘ulari mahv bo‘lib, toshga aylanib ketgan yuragini arbob Hanafiyga topshirdi. Lekin u kecha soxta baxt pardasi ostida yashirinib yotgan falokatlarning yuzaga chiqishi kechasi bo‘ldi. Ertasiga Saodat xonim Sariya xolaga: “Kelinimni shaharga olib chiqib, egniga yaxshi kiyim olib beraman” — deb Gulnozni kiyintirdi-da, foytunga o‘tqazib, olib ketdi. Sariya xola qosh qorayguncha kutdi. Na Gulnozdan, na Saodat xonimdan va na arbobdan darak bo‘lmadi. Shaharda chiroqlar yona boshlagach, toqat qilolmay hovliga chiqdi. Xizmatkorni chaqirdi. Hech kim javob bermadi. Shu payt eshik ochilib, ikkita notanish kishi kirib keldi. Ular taajjub bilan Sariya xolaga qarab, uning kimligini surishtirdilar.

— O‘zingiz kim bo‘lasiz? — deb so‘radi Sariya xola javob o‘rniga.

— Biz shu hovlining egasi bo‘lamiz. Sen kimsan?

Sariyani vahima bosdi, dahshatli bir fikr butun vujudini titratdi:

— Bu hovli Saodat xonim bilan arbobning hovlisi emasmi?

— Allaqanday Saodat xonimingni qo‘y, hey xotin! Dovdiryapsanmi? Bo‘shat uyni! Qani, jo‘nab qol! Biz bu uyni bir oyga ijaraga qo‘ygan edik!..

Ular Sariya xolaning buyumlarini ko‘chaga uloqtirdilar, Ayoz bilan Niyozni yetaklab ko‘chaga olib chiqib qo‘ydilar. Sariya xolaning shikoyat va nolalariga quloq solmay:

— Ablah xotin-ey, muttahamlik ham qiladi-ya! G‘alvang o‘zingga, bizga nima keragi bor g‘alvangni! — deb uning orqasidan eshikni yopib oldilar.

* * *

Saodat xonim Gulnozni Istanbuliy ko‘chasiga, undan Lolazorga olib bordi. Gazlama magazinlari, attorlik va zargarlik do‘konlariga olib kirdi. Hatto olmos ko‘zli uzuk olib, Gulnozning barmog‘iga taqib ham qo‘ydi. Unga shahar hayoti, dabdabali bozorlar va do‘konlar haqida gapirib berdi.

Gulnoz charchab qolgan bo‘lishiga qaramay, yaqindagina o‘ziga dahshatli bo‘lib ko‘ringan shaharning maftun etuvchi sirli ha-

yotiga qiziqib qaray boshladi. Nihoyat, Saodat xonim uni kichkina, lekin shinamgina bir kafega olib kirdi. Ichkari kirishganda qattiq-qattiq gaplashib, kulishib o'tirgan ikki yigit Saodat xonimga salom berib, Gulnozga g'alati qilib qarab qo'yishgach, bir-birovlariga boqdilar. Gulnoz o'tib ketarkan ularning Saodag xonimga:

— Yangi lochinni parvozga tayyorlayapsiz, shekilli, a?! — deganlarini eshitdi.

Saodat xonim kulimsiradi:

— Kechqurun mehmonimiz bo'lishingiz mumkin...

— Mersi!.. Jon deb boramiz, Qamarbonu xonim...

Shu bilan suhbat tugadi. Lekin Gulnoz Saodat xonimni yigitlar boshqa ism bilan ataganlariga juda hayron bo'ldi. Gulnozning hayron bo'lganini payqagan Saodat xonim:

— Mening asl otim Saodat xonim. Qamarbonu ham deyishadi. Bu laqabim. Hali senga ham laqab qo'yaman, — deb kuldi.

Uning kulgi va harakati Gulnozning ko'nglida uyg'ongan yashirin vahimalarni orttirgan bo'lsa ham, hech narsa deyolmadi. Bir stakandan qahva ichib, ko'chaga chiqdilar. Qosh qoraya boshlagan edi. Gulnoz qalbida paydo bo'lgan g'ashlik va qo'rquvning ta'siri ostida qo'rqa-pisa:

— Xonim, uyga ketaylik endi, onam kutib qoldi, — dedi.

— Namuncha shoshilasan, qizim? Men seni hali mehmondorchilikka ham olib boraman. O'g'limning uylanganini eshitib, qarindoshlarimiz bizni mehmondorchilikka chaqirishibdi. Hoynahoy arbob ham o'sha yerda bizni kutib o'tirgandir.

Gulnoz nimadir demoqchi edi-yu, lekin aytolmadi. Nima ham deyolardi? E'tiroz bildirolmasdi. Shunday go'zal va oliyjanob xonimdan, o'zining qaynanasidan badgumon bo'lishga qanday asosi bor edi?.. Indamasdan bo'ysundi. Yana foytunga tushib, ko'chama-ko'cha keta boshladilar. Nihoyat Qamarbonu uni keng sahnli, yaxshi bog' va hovuzi bor hovliga olib keldi. Haqiqatan ham ularni arbobning o'zi qarshi oldi. Gulnozni qo'ltiqlab katta, ko'zni qamashtiradigan mehmonxonaga olib kirdi:

— Og'olar, tanishinglar, bog'chamizga yangi bulbul keldi.

Mehmonxonaning o'rtasidagi turli-tuman nozi-ne'mat va ichimliklar bilan to'ldirib tashlangan stol atrofida yasangan-tusan-

gan xonimlar bilan erkaklar o'tirishar edi. Ular kirib kelganlarni qarsak chalib qarshi oldilar:

— Yashasin yangi bulbul!

— Yashasin ishq bulbuli!

— Xonim, buyoqqa marhamat qiling, buyoqqa!

Bir necha yigit-qizlar bir-birlariga navbat bermay Gulnozni o'z yonlariga chaqirar edilar. Gulnozning ko'ziga hech narsa ko'rinmasdi, xonadagilarning yuz-ko'zlari tumanli bir parda ostidan ko'rinayotganga o'xshardi. U xonimlardan biri uni o'zining yoniga qanday o'tqazganini ham sezmadi. O'ng yonidagi, arbob deb gumon qilgan kishiga boqdi-yu, cho'chib tushdi-da, o'zini orqaga tashladi. Bu hali kafeda ko'rgan yigitlaridan biri edi. Atrofga boqib arbobni axtara boshladi. Arbob stolning narigi tomonida bir qorako'z juvonning yonida, uning yoqasini o'ynab, qulog'iga allanimalar deb pichirlar va hiring-hiring kulib o'tirardi. Birdan tanish bir ovoz uni yanada esankiratib qo'ydi.

— Xonimlar, og'olar, qadahlarni ko'taring, Gulnoz xonimning sog'ligiga ichaylik.

Gulnoz tovush egasiga boqar ekan, butun vujudi titrab ketdi. Bu gumashta Mamad edi. U Gulnozning ta'rifini qilmoqda edi:

— Ichinglar, og'olar, bunday xonimning sog'ligiga zahar ichsa ham arziydi. Qarshingizda o'tirgan qiz oddiy qiz emas, bu tog' lochini, dala guli... Ichinglar!..

— Ozarbayjon tog'larida o'sgan lochin, Ozarbayjon dalasida bitgan gul. Uning sog'ligiga ichinglar!.. — deb qo'shib qo'ydi allakim.

Gulnozning yonida o'tirgan to'la va qaddi-qomati kelishgan bir xonim stoldan ikkita qadah oldi-da, birini Gulnozga uzatdi.

— Men icholmayman, opajon, — deb pichirladi Gulnoz uyalib.

Qaddi-qomati kelishgan xonim qah-qah urib kulib yubordi:

— Bu yerga kelganingdan keyin har qanday ishni ham qilaverasan... Mana bunga qara, — dedi-da, Gulnozning chap yonida o'tirgan yigit bilan o'pishdi. Hamma kulib yubordi. Shundan keyin benihoyat shodlik boshlandi. Axloqsizlikning nihoyatda jirkanch va sharmandali manzaralari namoyon bo'laverdi. Gulnoz chiday olmay o'rnidan turdi-da, arbobning yoniga borib:

— Men ketaman, boshim og'riyapti, — dedi.

Allaqachon mast bo'lib qolgan arbob Gulnozning qo'lidan ushladi:

— Ketamiz, ketamiz, mening malagim, — dedi-da, uni dahliz orqali kichkina bir xonaga boshlab kirdi.

— Shu yerda birpas yotib, damingni ol, hozir kelaman, — deb chiqib ketdi.

Gulnoz uning eshikda gumashta Mamad bilan gaplashayotganini eshitdi.

— Yasha, gumashta Mamad, — derdi u, —kechagi oqshomni bir umr esimdan chiqarmayman. Uning ham savobi senga tegadi. Endi bor, ichkari kir! Men ketdim.

Gulnoz uning ketidan dahlizga chiqmoqchi bo'lganda gumashta Mamadga duch keldi.

— Yo'l ber, yo'l ber menga!..

— Qayoqqa, xonim?.. Bu yerdan hech qayoqqa chiqib bo'lmaydi! Endi maynavozchiligingni qo'y, baxtingni oyoq osti qilma!

— Qoch, benomus, menga yaqinlashma!.. Ketaman! Onamning yoniga ketaman...

— Ovora bo'lma, xonim, onangni Tehron ko'chalari o'z qa'riga tortdi. Uni endi hech qayerdan topolmaysan. Bu yer endi sening birdan-bir qarorgohing! Qayerda ekaningni bir ko'rib qo'y-chi!

U mehmonxona tomonga ochiladigan derazaning pardasini ko'tardi-da, har burchagi shahvat sahnasi bo'lgan xonani ko'rsatdi:

— Marhamat, yo'l ochiq!

Gulnoz qo'li bilan yuzini to'sib kuyinib yig'ladi-da, gandiraklab borib kravatga o'tirdi. Gumashta Mamad unga yaqinlashib qo'lidan ushlamoqchi bo'ldi:

— Menga rozi bo'lmasang, boshqalar keladi. Gulnoz, yalinaman, rozi bo'l!..

Gulnoz o'rnidan sakrab turib gumashta Mamadni tarsaki bilan tushirib qoldi.

— Benomus, sharmanda! Itga rozi bo'lsam bo'lamanki, seni yaqinimga keltirmayman! — deb dahlizga otildi.

Gulnoz dahlizda g'irt mast holda mehmonxonadan chiqib kelayotgan arbobga duch keldi:

— Meni qayerga olib kelding? Ketaylik! Tez bo'l, bu yerdan ketamiz!

Uning hayajon va g'azabiga e'tibor bermagan arbob mastlik bilan tirjaydi:

— Ketadigan yerimiz yo'q, Gulnoz! Yakka-yu yagona makonimiz shu!

Hali ham hech narsani anglamagan Gulnoz taajjub bilan:

— Nega boradigan joyimiz yo'q bo'ladi? — deb so'radi. — Uyimiz-chi? Onam-chi?

Arbob gandiraklagancha eshikka tomon yo'l oldi-da, mastlik bilan kulib dedi:

— Uyimiz? Ha-ha-ha! Uyimiz emish!.. Qani uyimiz? Bugundan boshlab borib yotadigan joyim ham yo'q. Bir omadim kelib qolgan edi-da! Endi u vaqt o'tdi-ketdi. Onang? Ana sening onang! — dedi va mehmonxona eshigidan chiqib kelayotgan Qamarbonuning qo'lidan ushlab, Gulnoz tomonga itardi-da, tashqari chiqib ketdi.

Gulnoz Qamarbonuning qarshisida to'xtadi:

— Xonim, siz juda rasvolik qildingiz!

Qamarbonu dahlizning boshida qip-qizarib turgan gumashta Mamadni ko'rib, gapning nimada ekanini angladi-da, yashin urgandek qop-qorayib ketdi. Gulnozning sochlaridan ushlab, gumashta Mamad tomonga sudradi.

— Ahmoqning qizi, ahmoq! Shuni bilginki, bu noz-u ne'matlar osmondan tushgan emas, ota-bobongdan ham meros qolgan emas!.. Seni deb bir oyda besh yuz tuman sarfladim. Sendan sitib olmasam uni, qayerdan olaman?! Yur buyoqqa! Bundan yaxshi erkakni qayoqdan topasan, yur!..

Qamarbonu uni qarg'ab sudrar va sudrab qarg'ar edi. Lekin Gulnoz bir siltanib o'zini qutqardi-da, Qamarbonuning halqumidan ushlab, bor kuchi bilan uni devorga urdi.

— Meni tilka-pora qilsang ham, aytganingni qilmayman!

Qamarbonu bir nafas o'zini yo'qotib devorga suyanib qoldi. Lekin tez o'ziga kelib, derazadan boshini chiqarib qichqirdi:

— Hay Vali! Vali! Beri kel darrov! Manavi nonko'rni pastga olib tush! Erta azondan to qora kechgacha bir daqiqa ham tinchitma! Qizlarning kiyim-kechagini yuvsin, uylarni yig'ishtirsin, kartoshka artsin! Mening xarajatimni uzgunicha ellik yil xizmat qiladi!..

* * *

Shaharning chiroqlari kechaning qora pardasini yirtib maydalab yog'ayotgan yomg'irga yo'l ochayotganga o'xshaydi. Atrofni g'ayritabiiy tuman qoplagan edi. Mayda yomg'ir hech kutilmaganda ko'chaga quyilib, yo'lda hamon tizzasini quchoqlab o'tirgan Sariya xolaning boshidan quyilib, yuzi va bo'yni orqali ichiga oqib tushar edi. Lekin u hech narsani sezmasdi. Tagi yo'q chuqurlikka tushib qolganini payqagan sari yuragini dard-alam siqardi. Dod solib yig'lagisi kelardi-yu lekin yig'lay olmasdi. Ko'z yoshlari qurigan edi. Butun vujudini ma'yuslik va umidsizlik egallab olgan edi. U shafqatsiz qismat bilan kurashadigan holatda emasdi. Boshiga tushgan barcha kulfatlarni Xudoning amri bilan bo'lganiga ishonar, "taqdiri ilohiyga chora yo'q", deb o'ylardi. Ayoz bilan Niyoz ham boshlariga tushgan bu falokatni sezgandek indamay onalariga qisilishardi. Ustilaridan yomg'ir quyib turgan bo'lsa-da, ular na joylaridan qimirlar va na biron so'z aytar edilar. Faqat sovqotgan kichkina Niyozgina tishi takillar ekan, onasining qo'lidan tortib:

— Sovqotib ketyapman, ona, ketaylik! — dedi.

Sariya xola uning boshini quchoqlab, yuzidan o'pdi. Sariya xola uyoqdan-bu yoqqa sudralaverib titilib ketgan ko'rpani bolalarining yelkasiga tashlab qo'ydi.

— Sabr qiling, bolalar! Gulnoz kelsin, keyin ketamiz!

G'oyatda sodda ayol bo'lgan Sariya xola boshiga tushgan falokatning naqadar dahshatli ekanini hali ham tushunmagan edi. Uning nazarida, hozir Gulnoz qaytib kelib, ular shahardan bosh olib ketishadiganday tuyulardi. Shu taxlidda u allamahalgacha, ko'chalarda harakat to'xtaguncha kutdi, uzoqdan ko'ringan odam qorasini Gulnoz deb o'ylardi. Lekin Gulnoz kelmadi.

Biror odamga hasrat qilib, yuragini bo'shatgisi keldi. Ehtimol, biror kishi unga yordam berar, yo'l-yo'riq ko'rsatar. Ikki o'tkinchi ko'rindi. Sariya xola ularga yaqinlashib, yolvorib dedi:

— Hay akalar, birpas to'xtanglar, menga yordam beringlar!

Uni tilanchi deb gumon qilgan o'tkinchilar e'tiborsizlik bilan bir qarab, o'tib ketaverishdi.

Sariya xola yugurib borib, ularning yo'lini to'sdi:

— Hay akalar, menga yo'l ko'rsatinglar, arz qiladigan mahkamaning daragini aytinglar.

O'tkinchilar uning tilanchi emasligini payqab to'xtadi.

— Xonim, turki namidonem... — deb ketmoqchi bo'ldilar.

Lekin bechora xotin yana ularning yo'lini to'sdi. Yana shikoyatini eshitadigan mahkamani ko'rsatishlarini so'radi. O'tkinchilar bosh chayqadilar. Shu payt uchinchi bir o'tkinchi yaqinlashib:

— Nima deysan, singlim? — deb so'radi.

Sariya xola hasrat qildi. Boshiga tushgan musibatlarni aytib:

— Qizimni topishga yordam bersang bas, aka, boshqa hech narsa kerakmas, — dedi.

— Ey, singlim, yomon odamlarga uchrabsan, — dedi o'tkinchi. — Kim biladi deysan, ehtimol, ular haqiqiy ismlarini ham yashirgandirlar. Ularni qayerdan ham toparding. Endi, yaxshisi, o'z boshingni omon saqla, bolalarni yomg'irda olib o'ltirma. Shu ko'cha bilan to'g'riga qarab yuraver, oxiriga yetgach so'lga buril. Ellik qadamcha yursang, bir mehmonxona bor. Shu yerda tunashing mumkin. Bor endi. Men o'zim ham bir qarindoshimning do'konida yotaman, bo'lmasa seni ko'chada qoldirmasdim.

— Omon bo'l, aka. Yaxshi odamlarning hammasi ham shunday muhtojlikda yashar ekan! Omon bo'l!

Sariya xola titilib ketgan ko'rpani ko'tarib, Ayoz bilan Niyozni oldiga solgan holda oyoqlarini zo'rg'a sudrab mehmonxonaga jo'nadi. Ularning ahvolini ko'rib, joy yo'q deb javob berishdi. Bechora xotin yig'lab-siqtab bir kecha tunashga joy so'radi. Nihoyat xizmatchilardan biri zinapoya ostida yotishga ijozat berdi.

Tumanli va qorong'u kecha oppoq tongga almashdi. Kechasi bilan mijja qoqmagan Sariya xola bolalarini ko'tarib ko'chaga chiqdi. Erta bahorni eslatgan quyoshning iliq shu'lalari kishining tanasini yayratardi. Sariya xola ko'pdan beri yashirib yurgan yigirma tumanidan bittasini chiqarib, besh qroniga non oldi. Besh qronini yana yashirib qo'ydi. Nonni uch bo'lakka bo'ldi. Bir bo'lagini bolalarga berdi. Qolgan ikki bo'lagini tushda va kechqurun berish uchun xurjunga solib qo'ydi. Nondan boshqa narsa

to‘g‘risida o‘ylamas ham edi. Hatto nonni ham to‘yib yeyishning iloji yo‘q edi. Bir kunda yarim tumandan ortiq sarflash mumkin emasdi. Shunday ehtiyot qilib sarflansa, pul qirq kunga yetardi. Shu qirq kun ichida ham Gulnozni topolmasa, bir o‘zi Ozarbayjonga, biror qishloqqa qaytib ketmoqchi bo‘ldi. Bu shahar u yashay oladigan joy emas edi. Notanish bir ko‘chadan chiqib qoldi. Ko‘cha mashinalar, turli-turli kishilar bilan to‘la edi.

Bolalarni yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqib qo‘llaridan mahkam ushlab oldi. Yo‘lkada o‘tirib, o‘tgan-ketganlar orasidan Gulnozni axtara boshladi. Shu tarzda bir necha kun o‘tdi! Gulnozdan darak topmadi. Har kun biror pillapoya yoki biror do‘konning eshigi tagida tunadi. Har bir o‘tgan kun uning toqatini toq qilar, umid iplarini uzardi. Har kun besh qrondan kamaya-kamaya yetti tuman puli qolgan edi. To‘yib ovqat yemaslikdan va sovuqdan bolalarning rangi somonday sarg‘ayib ketdi. Kiyim-boshlari ham dabdala bo‘lib ketdi. Sariya xola o‘zining qay ahvolga tushganini bilmasdi. Chunki butun fikri-yodi Ayoz bilan Niyozda edi. Uni vahimali bir fikr bosa boshladi. Puli tugagandan keyin nima qiladi? Boshiga kelgan musibat va ertagi kunning tashvishi uni adoyi-tamom qilib qo‘ygan edi. Bir narsani oxirigacha o‘ylay olmasdi, biror natijaga kelolmasdanoq fikrlari chigallashib ketardi. Go‘yo ko‘zlarini, xayoli va aqlini qalin bir parda o‘rab olganga o‘xshardi. Bir qadam tashlagudek holi yo‘q edi.

Shu tarzda hayotning tabiiy oqimi uni bir ko‘r kabi istagan tarafga surib ketmoqda edi. Nihoyat shu oqim uni keltirib g‘isht zavodlari joylashgan va minglarcha och-yalang‘ochlar, boshpanasiz oilalarning yo kul tepalar ostida, yo ochiq havoda yashaydigan joyga, shaharning janubiy qismiga keltirib tashladi.

Bahorning ilk nafasi kela boshlaganda, Sariya xola badanining o‘tday yona boshlaganini sezdi. Hayotdan bezgan, odamlarning shovqin-suronidan zerikkan, shafqatsiz taqdirdan kuyib, bolalarini og‘ir yuk singari ko‘tarib yurish joniga tekkan chog‘ida u isitma kasaliga mubtalo bo‘ldi. Erta-yu kech chayqovchilarning shovqin-suroni bosilmaydigan, doim odamlar g‘ujg‘on o‘ynaydigan Bojxona xiyobonining bir burchagida deyarlik behush holda yotgan Sariya xola so‘ngi besh qiron pulini Ayozga uzatdi:

— Bor, bolam, non olib kel, ukang ham yesin, o'zing ham ye! — dedi-da, Niyozni quchoqlab, ko'zini yumdi.

Nazarida, issiq tanchaning yonida uyquga ketgandek bo'ldi. O'ziga kelib ko'zini ochganida, Niyozning yig'isini eshitdi. Bolaning qorni ochib ketib, non so'rardi.

Sariya xola ko'zlarini ishqalab atrofga boqdi. Qosh qoraya boshlagan edi.

— Ayoz qani, bolam?.. Ayoz non olib kelmadimi?

Bola burnini tortib, ma'yuslik bilan onasiga qaradi:

— Bilmayman... Ayoz kelgani yo'q...

Bechora ayol bir to'lg'onib qo'ydi.

— Nima! Ayoz kelmadi?! Voy, sho'rim qursin, bu jahannam bolamni ham qa'riga tortdimi?..

Niyoz bu gaplarni eshitmagandek:

— Ona, qornim ochdi, non, — deb uning etagidan tortdi.

Sariya xola o'rnidan turmoqchi bo'ldi. Turolmadi. Tizzalari titrab, o'tirib qoldi. Isitmasi xuruj qilib badani qaltiray boshladi. Bola esa hamon "non" deb yig'lardi.

Shu payt, aftidan, tandirdan hozirgina uzilgan ikkita non qo'ltiqlagan bir kishi o'tib qoldi.

Sariya xola o'zi ham sezmagani holda:

— Og'o, Xudo xayringni bersin, shu bolaga bir burda noningdan berib ket! — deb qo'l cho'zdi.

O'tkinchi nonidan bir burda ushatib, zarda bilan uloqtirdi.

Sariya xolaning xayoliga ham kelmagan tilanchilik hayoti ana shunday boshlandi.

YIGIRMANCHI BOB

Ikkinchi kitobni tarqatish birinchisiga qaraganda ancha qiyin bo'ldi. Endi hamma joyda ham ochiq va yashirin nazorat kuchaytirilgan edi. Kitobfurush juda sergap bo'lib qolishgan edi. Ular kundalik gazetalardan tortib, jurnal va kitoblargacha ochib ko'rishar, uyoq-buyog'iga diqqat bilan qarashar, sotgan odamning boshidan oyog'iga qadar ko'zdan kechirishardi. Hatto Firdavsiy, Sa'diy, Hofiz va boshqa klassik shoirlarning muqovasi sarg'aygan, varaqlari titilib, yog' bosib ketgan kitoblarini ham bir-ikki marta uyoq-buyog'ini ko'zdan kechirmay olmasdilar.

Shunday bo'lsa ham Faridun o'rtoqlari bilan universitet talabalari, maktab muallimlari va o'quvchilar o'rtasida yuz nusxa bundan tashqari ishchi, hunarmandlar hamda mayda savdogarlar orasida uch yuz nusxa kitobcha tarqata oldi.

Kurd Ahmad bilan Farida yuz nusxadan kitobcha olishib, bir hafta ilgariyoq Ozarbayjonga jo'nab ketgan edilar. Ular Tehron bilan Tabriz o'rtasida qatnaydigan yuzlarcha shaxsiy mashinalardan biriga tushib ketgan edilar. Yo'lda Kurd Ahmad bilan Farida o'zlarini notanish kishilardek tutdilar. Tabrizga yetishgach, Kurd Ahmad Farida o'ziga boshpana topib olganiga ishonch hosil qilganidan so'nggina, Mehobodga o'tib ketdi.

Rizvon bilan Sarxon Rizo Qahramoniyning taklifi bilan Gilon va Mozandaronga jo'nashlari kerak edi. Karimxon Ozodiy Mahbusiyni janubiy neft hududlariga yuborishni maslahat berdi. Chunki Mahbusiy Ahvozlik bo'lib, janubiy hududlar unga yaxshi tanish edi. Mahbusiyga Ahvozga borishi lozimligi aytilgan edi-yu, ammo nima uchun borishi aytilmagan edi. Bu unga berilayotgan birinchi topshiriq edi.

Ular kechqurun yig'ilishib, maslahatlashmoqchi edilar.

Faridun o'qishdan qaytib ovqatlangach o'z xonasida o'tirib tashkilotning ishi to'grisida o'ylardi. U ishning kelajagi, yana ni-

malar qilish mumkinligi to‘g‘risida o‘ylardi. Uning nazarida boshlab yuborgan ishlari albatta muvaffaqiyat bilan tugallanishi kerak edi. U dunyodagi voqealarning rivojlanib borishini o‘ylar ekan, to‘g‘ri yo‘l tutayotganiga ishonardi. Tarix ufqida ikki katta kuch ajralmoqda edi. Bu kuchlardan birining bayrog‘i ozodlik va mehnat bayrog‘i edi. Ikkinchisining bayrog‘i esa zo‘rlik va zulm edi. Dunyoning har bir burchagidagi odam shu kuchlardan biriga qo‘shilishi muqarrar edi.

Agar chet elliklar aralashmasa Erondagi bu ikki kuch orasidagi kurashda ozodlik va mehnat lagerining g‘olib kelishiga Faridunning hech shubhasi yo‘q edi. Ana o‘shanda, asrlardan beri Eron tarixiga dog‘ tushirib yotgan, mamlakat xalqini ezib, o‘lim va falokatlarga duchor qilib kelayotgan kuchlar mahv etiladi, mamlakatning har burchida haqiqiy ozodlikning go‘zal bahori boshlanadi. Insonlar ozod, xalqlar ozod, fikrlar ozod bo‘ladi.

U shunday xayollarga berilganda doim buyuk Sovet mamlakati, sotsializmning qudratli qal’asi qorong‘u olamga nur bergan quyosh kabi ko‘z oldida jonlanar, qalbiga quvvat va umid bag‘ishlardi.

Uning nazarida, Sovetlar butun dunyo ozodligining buyuk tayanchi, mazlum xalqlarning abadiy sodiq do‘sti edi. U yerda hilpiragan bayroq, Lenin — Stalinning qizil bayrog‘i kelajak dunyoning, ozod va baxtiyor hayotning abadiy timsoli edi!.. Uning har bir hilpirashi zulm va ehtiyoj dunyosiga, qora va mustabid kuchlarga o‘lim hukmi yozardi!.. Faridun har minut, har onda o‘zlari tutgan kurash yo‘lining Rizo shoh qurmoqchi bo‘lgan temir devorlarning naryog‘ida hilpillayotgan bayroqdan nur olib turganini payqardi. Vatanning kelajagiga, xalqning istiqboliga olib boradigan yo‘l shu bayroqning muqaddas nurlari orqali o‘tardi.

Kurd Ahmad ham, Rizo Qahramoniy ham, Aram ham, minglab va yuz minglab, non va ozodlik dardida yurganlarning hammasi ham shunday deb o‘ylardi. Ular istibdodning yalang‘och qilichi ostida bu to‘g‘rida og‘iz ochmaslikka majbur bo‘lsalarda, ularning qalbida yongan bu umid bir nafas ham so‘nmas edi. Rizo shohlar, Hikmat Isfahoniylarning nima uchun Sovetlarni, ozodlikning azaliy va abadiy yurtini bunchalik ko‘rolmasliklarining va undan bunchalik qo‘rqishlarining sababi deb Faridun xuddi ana shuni tushunardi.

Eshik taqillashi bilan uning xayoli bo'lindi. Kelgan Shamsiyaning haydovchisi edi. U maktub olib kelgan edi. Qiz soat sakkizda, albatta, Shimronga keling deb iltimos qilgan edi.

Faridun og'ir vaziyatda qoldi. Kechqurun soat to'qqizda ular Aramnikida yig'ilmoqchi edilar. Dastlab Shamsiyaga o'zining band ekani, shuning uchun borolmasligini yozib yubormoqchi bo'ldi. Keyin ehtimol bir zarur ish bordir deb o'yladi-da, avval u yerga borib, keyin Aramlarnikiga bormoqchi bo'ldi.

Shimronda uni Shamsiya odatdagidek qarshi oldi. Faridun qizning juda o'zgarib ketganini payqadi. Bu o'zini bolalarcha erkin tutadigan Shamsiyaga yarashmasdi, hozir undagi bolalarga xos sevinch va sho'xlik yo'q edi. Lekin chehrasida umidsizlik va tashvish ham yo'q. U allaqanday o'ychan edi. Qiz unga azim chinor daraxti ostiga qo'yilgan stuldan joy ko'rsatdi.

— Bir minut kutib tursangiz. Siz bilan og'oyi Salimiy so'zlashmoqchi, dedi-da, ketdi.

Shu bir minut ichida Faridunning boshidan ming xil fikr o'tdi. U Shamsiya bilan sartib orasidagi munosabatning hozir qandayligini, ularning bir qarorga kelgan-kelmaganlari, o'zaro kelishib olgan-olmaganlarini bilishga urinib ko'rdi. Lekin muayyan bir fikrga kela qolmadi. Salimiyning boshiga tushgan xavf o'tdimi yo'qmi deb ham o'ylab ko'rdi. Yana biror natija chiqara olmadi.

Salimiy kelib salomlashdi-da, uning qarshisiga o'tirdi.

— Men bilan uchrashishni xayolingga ham keltirmagan bo'lsang kerak, albatta,— dedi u va javob kutmasdan maqsadga ko'chdi. U xotirjam ko'rinishga tirishsa ham, hayajonlanayotgani sezilib turardi.

— Bir vaqt sen menga haqiqatni boshqa joydan axtarish kerak degan eding. Meni xayolparast degan eding. O'shanda bu so'zlaring meni o'ylatib qo'ygan edi. Lekin men tagiga yetmagan ekanman, buning uchun battarroq zarbalarga duchor bo'lishga to'g'ri keldi.

Faridun uning endi nima deyishini maroq bilan kutardi, unda qandaydir o'zgarish paydo bo'la boshlaganini sezdi.

Salimiy bo'lsa ilgari o'zining yanglish va xavfli fikrlarini qanday qattiq turib himoya qilgan bo'lsa, endi ularni o'shanday keskinlik bilan tanqid qilishdan hayiqmasdi:

— Sen haqli ekansan! Istibdod tuzumi xalqning ham, vatanning ham dushmani ekan. Qashshoqlik, ochlik va falokatlarning manbai o'sha ekan. U xalqning badanidagi yara, uni kesib tashlamay turib badanni sog'aytirib bo'lmaydi!..

Sartib Rizo shoh bilan uchrashuvini gapirib berdi.

— Men umrimni puch bir xayolga qurbon qildim. Befoyda narsaga. Umrimni bir siqim tuproqday havoga sovurdim. Bu alam qiladi, albatta. Lekin endigi pushaymonning foydasi yo'q. O'tgan umrimning bir kunini menga kim qaytarib bera oladi?

Faridun uning yana umidsizlikka tushishidan qo'rqib, mehribonlik bilan unga qarab qo'ydi-da, nimadir demoqchi bo'lib og'iz juftladi. Lekin sartib so'zida davom etdi:

— Yo'q, men bu so'zlarni afsuslanib aytayotganim yo'q. Xatoni qilib qo'yib, keyin ko'z yoshi to'kish aqmoq odamning ishi. Men o'tgan kunlarimga motam tutmoqchi emasman. Men o'zimning qanchalik katta xato qilganimni juda yaxshi angladim, ana shuning uchun ham qat'iy harakat qilmoqchiman.

— Qanday qarorga keldingiz?

— Qarorim nomusli odamlarni bir yerga to'plab, shu chirik tuzumni ag'darishdir. Yo o'lim, yo vatanning ozodlik va mustaqilligidir! Bundan so'ng shu fikrsiz bir minut yashash ham men uchun uyat. Harbiylar va ziyolilar orasida mening ko'pgina sodiq va mard o'rtoqlarim bor. Sen esa quyi tabaqalarga, mehnatkash xalqqa yaqinsan. Shu bugundan boshlab bizning burchimiz xalqning shu ikki qismini birlashtirishdir!

— Tabriklayman! — dedi Faridun sartibning qo'lini qisib.— Allaqachon shunday qilish kerak edi!

Bu sartib Salimiy kirgan yangi yo'lda unga uzatilgan birinchi baquvvat qo'l edi, sartib bu qo'lda ramziy bir qudrat sezdi va uni mahkam siqdi.

— Ha, allaqachon shunday qilishga vaqt yetgan! — dedi u, — Shoh tuzumi Eronni tagsiz jar yoqasiga keltirib qo'ydi. Mamlakatni qutqarish yo'li demokratik respublika barpo qilishdadir. Biz ana shunga tayyorlanishimiz kerak. Faqat bizning shu fikrda emasligimiz ham ma'lum. Buni bizdan ham oldinroq tushungan va harakat boshlab yuborganlar ham bor. Shohni va butun saroy ahlini shoshirib qo'ygan kitobchalar o'shalarning ishi.

Biroz jim qolgach:

— Afsuski, shunday tashkilot bor bo'lsa ham uzoq yashay olmaydi!— deb qo'shib qo'ydi.

Bu so'zlardan Faridun hushyor tortdi.

— Nima uchun? — deb so'radi u.

— Chunki bir xoinni ularning iziga qo'yishgan. Bugun u yerda qamoqqa olishlar boshlanadi. Esingdami, Ozarbayjon yo'lidagi choyxonada Husayn Mahbusiy degan odamni ko'rganing esingdami? Uch ajnabiy davlat va Eronning yashirin politsiyasiga xizmat qiladigan o'sha provakatorni ularning orasiga yuborishga muvaffaq bo'lishgan. Ana shunday, yigit. Chet el kapitali mamlakatimizning boyliklarini talash bilangina cheklanib qolmaydi, u shaxsiy manfaat uchun har ishga ham hozir bo'lgan arboblarimizdan, razolat va ablahlik quchog'iga otilgan yuzlarcha bechoralardan sotqinlar, josuslar ham tayyorlaydi. O'z singlisini, o'z akasini, do'stini, hatto o'z xotinini ham sotadigan benomus kishilarni yetishtirib chiqaradi. Xalqning ruhini buzadi, vatan muhabbatini va vatanparvarlik hissini mahv etadi.

Uning gaplari endi Faridunning qulog'iga kirmas edi Uning ko'ziga Aramnikida yig'ilishgan o'rtoqlari va ular uchun tayyorlangan dor yog'ochlari ko'rinardi.

Faridun bu yerdan darhol jo'nab, shoshilinch tadbirlar ko'rmoqchi bo'lardi. Lekin sartib Salimiyning taklifini ham javobsiz qoldirgisi kelmas edi. Salimiydek odam a'zo bo'lib kirsa, tashkilot yana bir qimmatli odam bilan boyigan bo'lardi. Lekin o'rtoqlari bilan maslahatlashmay, ularning roziligini olmay turib bunday tashkilot borligini Salimiyga bildirishni lozim ko'rmadi.

— Xo'p, yaxshi, taklifingiz to'g'risida o'ylab ko'raman. Darhol bir qarorga kelish qiyinroq. Harholda, sizning hayotimizni tuzatish uchun bergan bama'ni va mantiqiy dalillaringizga qarshi bir narsa deb bo'lmaydi. O'rtamizda bo'lgan gaplarning shu yerda qolishiga amin bo'lavering, sartib.

Keyingi gapni aytganiga o'zidan juda xursand bo'ldi. Chunki Salimiy yengil nafas olib qo'ydi. Lekin Faridunning o'zi tinchlana olmadi. O'rtoqlari xayolidan nari ketmas, qalbi hayajon va iztirob bilan to'la edi. Allaqanday bir falokatning yaqinlashib qolganini sezayotganga o'xshardi. Bu yerdan tez chiqib ketish lozim edi.

Faridun uzr so‘rab, o‘rnidan turdi. Salimiy uni eshikkacha kuzatib qo‘ydi.

— Shamsiya xonim bilan munosabatingiz qanday? — deb so‘radi yo‘lda Faridun.

— Uning yaxshi qiz ekanini, sotqin otasiga o‘xshamasligini o‘zingiz ham bilasiz. Haqiqatni tushunishga qobil qiz. Shuning uchun men unga bor gapni ochiq qilib aytdim. Shundan beri tinchib qolganga o‘xshaydi. Biz nikoh o‘qittirsak ham, hech vaqt er-xotin bo‘lib yashamaydigan bo‘ldik. Nikohni shunchaki, xo‘ja ko‘rsinga o‘qitamiz. Bu majburiyat zanjirlari uzilgach, har birimiz o‘z yo‘limizdan ketamiz va o‘z baxtimizni topib olamiz.

Faridun alamli fikrlar ostida uning qo‘lini mahkam siqib xayrlashdi-da, mashinaga o‘tirib:

— Shaharga! Tezroq! — dedi.

* * *

Ishdan qaytib, ovqatlangan Karimxon Ozodiy odati bo‘yicha, sholcha ustida yastiqqa yonboshlab gazetalarni ko‘zdan kechirmoqda edi. Xovar idish-tovoqlarni yig‘ishtirib yuvish bilan ovora edi. Kichkina Ozod to‘polon qilib o‘ynar va taxtachalardan uycha yasardi. Uning bir ko‘zi otasida edi. Otasining oldiga borib nimanidir so‘ramoqchi bo‘layotgani ko‘rinib turardi. Buni sezgan Karimxon gazetalarni bir chetga yig‘ishtirib qo‘ydi:

— Beri kelchi, o‘g‘lim, taxtachalaringni olib kel, senga yaxshi uy qurib beraman.

Ozod taxtachalarini yig‘ishtirib keldi. Karimxon uycha qurar ekan o‘g‘lini gapga soldi:

— O‘g‘lim, katta bo‘lganingda kim bo‘lasan?

— Doktor bo‘laman, ota. O‘qib, Simon tog‘aga o‘xshagan doktor bo‘laman.

Bola javob berarkan, ularga chetdan muhabbat bilan qarab turgan onasiga boqar, uning boshi bilan ma’qullayotganini ko‘rib, yanada ruhlangan holda so‘zlardi.

O‘z navbatida u ham Karimxondan:

— Otajon, nega sen doktor emassan, a, nega? — deb so‘radi.

Xovar sevinch bilan uni quchoqlab o‘pti.

— Otangni hech kim o'qitmagan, o'g'lim, — dedi u,— ammo sen o'qiysan. Doktor bo'lasan...

Ozod bolalarga xos havas bilan har turli savollar berar, to'xtovsiz bijirlardi. Karimxonning ham, Xovarning ham nazarida, Ozodning kelajagi jonlanar, uning hayoti va baxti to'g'risida o'ylashardi. Shirin so'zlar, yaxshi orzular bilan bolani sevintirar, uning har bir savoliga yaxshi javob berishardi. Nihoyat, o'n besh minuti kam to'qqiz bo'lganda Xovar uni o'ringa yotqizdi. Karimxon Aramlarnikiga borishi lozimligini eslab, o'rnidan turdi.

— Vaqtliroq kelasanmi? — deb so'radi Xovar.

— Darrov kelaman, bir soatdan keyin uyda bo'laman. Shu payt o'g'ilchasining ovozi eshitildi.

— Kelib buni o'p, keyin ketarsan, — dedi Xovar.

Karimxon kelib, o'g'lining kichkinagina qo'lchasi va ko'zlaridan o'pdi. O'g'li baxt uchqunlari chaqnagan ko'zlarini yumarkan, otasi uydan chiqib ketdi.

Karimxon eshikdan chiqaturib:

— Mabodo kech qolsam yotaver, taqillatarman, — dedi.

— Yo'q, yotmayman. Kutib o'tiraman. Tezroq qayt.

— Xo'p!..

Chiqib ketaturib uning ko'zlari Xovarning ko'zlari bilan uchrashdi. Uning ko'zlarida abadiy intizorlik, abadiy muhabbat va hayajon ifodasini ko'rdi.

— Xo'p, Xovarim, darrov kelaman, — dedi-da, uning ko'zlaridan o'pdi.

U Tehronning tinchib qolgan ko'chalaridan borarkan uzoq vaqt Xovar to'grisida o'yladi. Uning muhabbat to'la ko'zlari uzoq vaqtgacha Karimxonning ko'z oldidan ketmadi.

Ko'chaning oxiriga yetgach, chapga burildi. Shu yerdagi "Navbahor" kafesida uni Mahbusiy kutib turmoqchi edi, u Aramning adresini olgan bo'lsa ham, Karimxonni kutib turmoqchi bo'lgan edi. U Karimxon bilan birga bormoqchi bo'lganini bildirdi.

— Birinchi marta borishim. Hech kimni tanimayman, birga borsak yaxshiroq bo'lar,— degan edi u.

Karimxon choyxonaga yetib kelmasidanoq Mahbusiy uning qarshisidan chiqdi.

— Kechikmadikmi? — deb so‘radi u yaqinroq kelib. Karimxon soatiga qaradi, hali o‘n minutcha vaqt bor ekanini aytdi. Ular ko‘chada turgan foytunlardan biriga tushdilar. Yo‘lda bittasi ham biror so‘z aytmadi. Karimxonning xayolidan goh ishlar, goh Xovar, goh kelajak kunlar o‘tar edi.

Mahbusiy shoshilar, ishning tezroq tugab qo‘yaqolishini xohlardi.

Odati bo‘yicha, eshikni yana Aram ochdi. Ular ichkari kirishgach, Karimxon Mahbusiyni unga tanishtirdi. Yarim qorong‘ulikda baqrayib turgan yoqimsiz sovuq ko‘zlar Aramning yodida bir umr saqlanib qoldi. Ikki-uch qadam ichkari yurishgach Aram buni Mahbusiyning o‘ziga aytdi:

— Ko‘zlaringiz yomon ekan. Men sizni yana o‘ttiz yildan keyin ko‘rsam ham darhol ko‘zingizdan tanigan bo‘lardim.

— Xotirangiz kuchli ko‘rinadi.

Shu bilan suhbat kesildi. Ular dahlizdan o‘tib Aramning yotoqxonasiga kirdilar. Karimxon esa Simonyanning uyda ekanini eshitib, hol-ahvol so‘rash uchun o‘ng tarafdagi xonaga kirdi. Oq xalat kiygan Simonyan juldur kiyimli bir yosh juvonning ko‘zini ko‘rmoqda edi. Uning kipriklarini ko‘tarib qarab:

— Shilpiq bo‘lib qolibsan, shilpiq! Tez davolatish kerak edi, shunchalik ham beparvo bo‘ladimi odam! — deb jig‘ibiyroni chiqmoqda edi. Anush ham oq xalat kiyib, unga qarashardi: goh kichkina tos berar, goh ko‘zni yuvish uchun dori solingan idishni uzatar edi. Simonyan Karimxonni ko‘rib, ishini to‘xtatmay uning salomiga alik oldi. Bemorning ko‘zini tozalagan paxtani axlat yashigiga tashlab, dori qo‘yish uchun uning qovog‘ini ko‘tardi.

— Buni qara, manavi donachalarni qara, — deb Karimxonni chaqirdi-da, juvonning qon quyilib ketgan ko‘zini ko‘rsatdi.

Nihoyat, doktor ishini tugatdi.

Yosh ayol o‘rnidan turib, yonidan pul oldi-da, uyalib doktorga uzatdi.

— Xudoyo umring uzoq bo‘lsin, doktor!

Doktor muloyimlik bilan juvonning pul uzatib turgan qo‘lini chetga surib qo‘ydi:

— Kerak emas! Kerak emas! Pullaringni yig'ib, o'zingga ko'ylak ol!

Ayol doktorning qo'lidan o'pmoqchi bo'ldi. Doktor ikki qo'llab uni to'xtatdi.

— Yana kel, har kuni kel. Ko'zing yomon og'rib qolibdi — dedi-da, Karimxonga qaradi:

— Xo'sh, ahvollar qalay, do'stim! Xovar xonimni yana xavotirga solib yuribsanmi?

— Uni xavotirga solmaslik uchun mamlakatdagi tuzumni o'zgartirish kerak, doktor!

Doktor kuldi:

— O'zgaradi, azizim, o'zgaradi. Hamma narsa ham o'zgaradi. Lekin sekin-sekin o'zgaradi.

Tabiat va jamiyatdagi taraqqiyot nazariyasiga ishonuvchi doktor bu so'zlarni tamoman jiddiy va ayni vaqtda Karimxonga umid beruvchi bir tarzda aytdi-yu, bu to'g'rida bahs boshlamoqchi emasligini bildirish uchun darhol gapni boshqa tomonga burib yubordi:

— Nega o'tirmaysan, yigit? O'tir, Anush bir stakandan choy bersin, ichaylik!

— Rahmat, doktor. Siz bilan bir so'rashib chiqay degan edim. Aramda ishim bor. Ruxsat bersangiz ketsam.

Doktor hazillashdi:

— Anush, bu yoshlarni bir ko'rsangchi? Biz keksalar bilan o'tirishni ham istamaydilar. Biz bilan gaplashadigan gaplari ham yo'q.

Anush xola kulib javob berdi:

— Sen bilan nimani ham gaplashsinlar? Bir og'iz gapirsang bir soat yo'talasan, aksirasanda, keyin yana bir og'iz gapirib qo'yasan. Ular yosh, axir. Tanlari salomat, gaplari ko'p. Qo'y, boraqolsin!

— Boraqol, o'g'lim, boraqol, — deb Karimxonning keng yelkasiga sal qo'l tekkizib qo'ydi.

Karimxon Aramning xonasiga chiqdi. Soat to'qqizdan oshgan edi. Bu yerda Aram bilan Mahbusiydan boshqa tamaki fabrikasi bilan bosmaxonadan kelgan ikki ishchi va bitta o'qituvchi ham bor edi. Ularning har biri ma'lum guruppaning boshlig'i edi.

Karimxon Faridun bilan Qahramoniyning yo'qligiga hayron bo'lib, savol nazari bilan Aramga qaradi. Aram bunga tushundi, darhol:

— Boshqa hech kim kelmaydi. Boshlash mumkin, — dedi.

— Yaxshi, boshlaylik, — dedi-da Karimxon eshik oldidagi stolga o'tirdi.

— Bugun boshlashga arziydigan masala ham yo'q, — dedi Aram,— faqat kimga nima topshiriq berishni kelishib olmoqchimiz, xolos. Ishni og'oyi Mahbusiydan boshlasak.

Mahbusiy bezovtadanib bir qimirlab qo'ydi. Aram unga qaradi, lekin og'iz ochishga ham ulgurmadi. Doktor Simonyanning asabiylashib va g'azab bilan gapirayotganini eshitib qoldi. Jandarmlarning oyoq tashlashini eslatuvchi oyoq tovushlari eshitilib qoldi. Hamma hayrat bilan bir-biriga qaradi. Aram turib dahlizga chiqmoqchi bo'ldi-yu lekin ulgurmadi. Eshik lang ochilib to'pponcha ushlagan uchta jandarm kirib keldi:

— Qo'llaringni ko'tar! — deb buyurdi jandarmlar.

Aram masalani anglab, lip etib derazaga tashlandida, bir sakrab uydan dahlizga chiqdi. Bu dahlizdan uyning tomiga chiqadigan kichkina eshikcha borligi esiga tushdi. Darhol o'sha joydan tomga chiqdi. Ichkarida keyin nima bo'lganini bilmadi. Tomda turish xavfli ekanini payqab, pech trubalari orqasiga yashirina-yashirina uch-to'rt tomdan o'tdi. Bu tomon tinchlik edi. U baland g'isht devordan uylarining orqasidagi tanish bir tor ko'chaga tushdi. Bu yerdan tezroq uzoqlashishga harakat qildi. Hali qayerga borishini bilmasdi. Lekin tez ketar ekan o'ylar edi. Hayajonli fikrlar orasida uning ko'z oldida Faridun, Rizo Qahramoniy, Kurd Ahmad jonlandi. "Birdan ular biznikiga kelib qolishsa-ya!" deb o'yladi. Kurd Ahmad bugun Tehronga qaytishi kerak edi. U tezlik bilan borib Faridunni xabardor qilishim kerak, degan qarorga keldi. Bo'lmasam-chi! Ular Aramlarnikiga kelib qolishlari mumkin. Ularni xavfdan ogohlantirib qo'yish lozim edi. U xotirjamlik bilan tez-tez tor ko'chadan foytunlar turadigan joyga chiqdi. Birinchi uchragan foytunga tushib, Faridun yashaydigan ko'chaga qarab haydashni buyurdi. Endi u erkin nafas olib, o'tgan ishlarni ko'z oldiga keltirishga tirishardi. Lekin hech narsani ham durustroq es-

lay olmadi. Faqat orqasidan to'pponcha otilgani, singan oyna parchalarining dahlizga to'kilganini va shular orasida ayol kishining dahshatli qichqirig'inigina eslay oldi, xolos. Bu ovoz jandarmlarning o'g'li orqasidan o'q otganini ko'rgan onasining tovushi edi. Bu tovush Aramning qulog'idan sira nari ketmadi. Nima qilib bo'lsa-da, shu bugunoq onasiga o'zining salomatligini bildirishi kerak edi. Lekin qanday qilib xabar berish kerak?

Bularning hammasi haqida Faridun, Qahramoniy va Kurd Ahmad bilan maslahatlashish mumkin edi. Bu odamlar ayniqsa endi unga g'oyatda yaqin edilar. Yuragi ularni tezroq ko'rish dardi bilan tez-tez ura boshlaganini sezib, foytunchiga:

— Og'a, tezroq hayda! — deb buyurdi.

Foytunchi otlarni qistab, qamchisini ko'tardi.

* * *

Mashina Faridunni Shimrondan to'g'ri Aramlarning ko'chasiga olib keldi.

Faridun ataylab mashinani ikki hovli narida to'xtatib tushdi-da, haydovchiga rahmat aytib, qaytarib yubordi.

U bir tarafdan sevinar, ikkinchi tarafdan esa xavotirlanardi. Tayyorlanayotgan xiyonatdan xabardor bo'lgani uchun sevinardi. Ehtimol, falokatning oldini olishi mumkin bo'lar.

Shimronda ko'p o'tirib qolgani uchun qayta-qayta o'zini koyirdi. Ehtimol, kechikib qolgandir.

Shunday xayollar bilan Simonyanlarning eshigiga yaqinlashdi. Lekin to'g'ridan-to'g'ri borib eshikni taqillatishga botinolmadi. U hamma narsadan ham shubhalana boshlagan edi, shuning uchun ham nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish ko'rardi. Hali Aramlarning eshigiga yetmasdanoq ikki politsiyachiga duch keldi. Holbuki bu o'rtada hech vaqt politsiyachilar bo'lmas edi. O'zini bilmaganga solib, indamay o'tib ketdi. Ellik qadam ham yurmasdan yana ikki politsiyachiga to'g'ri keldi. Simonyanlar uyining tagida politsiyaning katta qora mashinasi turganini ko'rib, shubhalangani to'g'ri chiqqanini angladi. Bularning hammasini ko'rgach, u Simonyanlarning eshigiga yaqinlashmadi. Yuragi gup-gup urgan holda ularning uyi qarshisidagi ko'chaga burilib, qorong'u bir eshikning

orqasiga o'tib kuta boshladi. Shu tarzda u yarim soat kutdi. Bu yarim soatning har minuti unga bir yilday tuyuldi. Lekin u butun irodasini to'plab, tishini tishiga qo'yib kutdi. Nihoyat, Aramlarning eshigi ochildi-da, undan bir to'da odam chiqdi. Eshik tepasidagi chiroqning xira shulasida chiqqanlar orasidan doktor Simonyan bilan Karimxon Ozodiyni tanidi. "Demak, tamom! — deb o'yladi u.— Hamma narsa halok bo'ldi!" Miyasiga lop etib o'zimni qurolli jandarmlar ustiga tashlab sheriklarimni qutqarsammikan! — degan fikr keldi. Lekin aqli bunga yo'l qo'ymadi, darhol bu harakatning foydasiz ekanini payqadi. Birdan og'ir, bir zarba yegan kishiday beixtiyor yerga o'tirib qoldi, oyoqlari bo'shashib ketdi. Ho'l g'ishtning ustiga o'tirishi bilanoq o'rnidan qo'zg'algan mashinaning tovushi qulog'iga kirdi. Lekin o'tirgan yeridan tura olmadi. Boshi tizzalariga egilgan holda uzoq o'tirib qoldi.

Ammo ma'yuslik bilan g'am foyda bermas edi. Bir ish qilish, ozodlikdagi o'rtoqlarini xabardor qilish kerak edi. Hozir, shu onda xabar berish kerak edi. O'tgan har bir soniya g'animat, har bir soniya biror o'rtog'ining hayotini saqlab qolishi mumkin edi.

Uyga kelib Aramning Rizo Qahramoniy bilan suhbatlashib o'tirganini ko'rdi. Sevinganidan ularni quchoqlab o'pdi, har ikkalasining ko'zlari yoshlandi.

— Nima bo'lganini bilasanmi? — deb so'radi Aram titroq tovush bilan.

— Bilaman, — dedi Faridun,— hammasini bilaman. Shukurki, sen qutulib qolibsan. Men seni ozod ko'raman deb o'ylamagan edim.

— Men ham sendan xavotirlandim, juda qo'rqdim. Shuning uchun darrov buyoqqa yugurdim.

Faridun bu suhbatning juda cho'zilib ketishini angladi.

— Bu yerda o'tirishdan yaxshilik chiqmaydi, — dedi,— ehtimol, xavfli hamdir. Turinglar, ketamiz. O'rtoqlarni xabardor qilib qo'yish kerak.

Yo'lda yuz bergan vaziyat va endi nima qilish kerakligi to'g'risida gaplashib ketdilar. Aram onasining juda xavotir bo'lishini aytganda, Faridun unga tasalli berdi. Kechasi bir iloj qilib unga xabar beramiz dedi.

Hozir Xovarga xabar berish lozim edi. Aram Xovarga men xabar beraman degan edi, Faridun unga qat'iy etiroz bildirdi:

— Hammadan oldin o'zing yashirinishing kerak. Endi sen shaharda bir daqiqa ham ko'rinmasliging kerak. Qani ayt, yashirinishga senga qayer qulay?

Aram bir necha joyning daragini aytdi. Kurd Ahmadning uyi, bir tanish choyxonachiniki va boshqalarniki... Lekin Faridun bularning bittasiga ham rozi bo'lmadi. Nihoyat, yaxshi tanish bo'lgan arman cherkovining qorovuli Sarkis cholniki ma'qul bo'ldi.

— Bo'lmasa ketdik, sen ham dam ol, biz ham tinchib o'z ishimizni qilaylik.

Tasodifan o'tib ketayotgan bir mashinaga tushib Sarkisning uyiga jo'nadilar. Faridun bilan Qahramoniy Aramni u yerga o'rnashtirishgach, xotirjam bo'lib xayrlashdilar:

— Hech qayerga qimirlama! Qanday yangilik bo'lsa senga xabar berib turamiz, — dedi Rizo Qahramoniy.

— O'zlaringga ehtiyot bo'linglar, Kurd Aqmadga xabar beringlar.

— Bizdan xotirjam bo'l, xavotirlanma!

Ular chiqib foytun to'xtatishib, Kurd Ahmadnikiga jo'nadilar. Singlisi Kurd Ahmadning hali kelmaganini aytdi.

— Kelib qolsa uydan chiqmay bizni kutsin! — deb chiqib ketishdi.

Shu tarzda ular yana bir necha o'rtoqlarini xavfdan xabardor qilishdi. Nihoyat, yarim kechada Xovarning oldiga jo'nadilar. Ular nazarida, bu azobli kechaning eng og'ir lahzasi endi kelgan edi. Bu mungli xabarni Xovarga qanday qilib aytadilar? Uning g'amgin boqishlariga qanday chidaydilar? Bu falokatni kimsasiz bechora xotin qanday qarshi olarkin? Yig'layverib o'zini halok qilarmikin yo o'zini tutishga quvvat toparmikin? Kichkina Ozodchi? Uning:

— Dada, dada, — deb qilgan faryodi do'stlar, o'rtoqlarning qalbi u yoqda tursin, toshni ham eritib yuborsa kerak.

Shunday bo'lsa-da, buni Xovarga bildirish kerak edi. Xovarning yotmay Karimxonni kutib o'tirishini bilardilar. Ehtimol, u hozir hovlida yurgandir, ikki ko'zi eshikdadir? Shunday paytda

unga biror do‘st, biror o‘rtoq qo‘lini cho‘zmasa kim cho‘zadi? Yo‘q, qanday og‘ir bo‘lsa ham, unga xabar berish kerak edi. Lekin u yerga borishning xavfli ekanini eslab bu fikrdan qaytdilar. Sabr qilish, kutishdan boshqa chora yo‘q edi.

Ikki kundan keyingina bir tilanchi kampir orqali Xovar bilan aloqa bog‘ladilar. Unga Aram yashiringan Sarkis cholning uyiga kelishni taklif qilishdi. Xovar bilan yuzma-yuz uchrashish, Faridunning nazarida, hayotining eng og‘ir daqiqasi bo‘lib tuyuldi. Xovar kichkina Ozodni ham o‘zi bilan olib kelgan edi. Bolaning ko‘zlarida g‘ayri tabiiy qayg‘u ko‘rinardi. Rangi sarg‘ayib ketgan va butun vujudini g‘am qoplab olgan Xovar hayron bo‘lib Faridunga tikilgan edi.

Keyinchalik Faridun uning lablari titrab, beixtiyor nimalardir deganini xotirladi:

— Xovar opa! Karimxon sog‘-salomat. Unga hech narsa bo‘lmaydi. Qo‘rqmang!..

Ular Xovarning nola qilib yig‘lashini kutgan edilar. Lekin Xovar tovush chiqarmadi. Qahramoniy uning tizzalari bukilib ketganini va beixtiyor o‘tirib qolganini ko‘rdi. U haykalday jim va sokin edi.

— Xovar singlim, — dedi Rizo Qahramoniy,— biz sizning ham, Karimxonning ham aka-ukalarimiz. Biz sizdan sabr qilishingizni, bu sinovga bardosh berishingizni so‘raymiz.

— Men shunday bo‘lishini bilardim,— dedi uzoq sukutdan so‘ng Xovar. Faridun bu so‘zlarning afsus bilan aytilganini ham, taqdirga qarshi isyon tarzida aytilganini ham ajrata olmadi. Uchalasi ham bir soatdan ortiq indamay o‘tirishdi.

Yana Xovarga biroz tasalli berishdi. Lekin buning foydasi yo‘qligini sezib, jim bo‘lishdi. Xovar bolasini mahkam bag‘riga bosgan holda xayolga tolgan edi. To‘g‘rirog‘i, Faridun uning ko‘z yoshsiz yig‘layotganini ham, og‘ir o‘yga cho‘mganini ham ajratolmadi. Ehtimol, u mahkam bag‘riga bosgan bolasining hayotini po‘rtona va bo‘ronlardan asrash yo‘llarini axtarayotgandir.

Yarim kechaga yaqin uni foytunga o‘tqazib uyiga jo‘natib keyin Kurd Ahmadning uyiga borishdi, u hali ham Tehronga qaytmagan edi.

Uyga qaytishgach, ertalabgacha uxlay olmadilar. Kelajakda qanday ish olib borish yo'llarini axtarar edilar. Ikki kundan keyin temiryo'l ishchisi Rustamning uyida o'rtoqlarni to'plamoqchi bo'lishdi.

— Kurashdan qochgan nomard,— dedi Rizo Qahramoniy. — Yo dorga osilaman, yo Pahlaviyning yiqilgan kunini ko'raman!..

— Keladi, shunday kun keladi! — deb Faridun o'rnidan turdi-da, deraza oldiga bordi.

Sharq oqara boshladi. Lekin Tehronning ustini hali quyuq qorong'ulik bosib yotar edi. Bu tugab kelayotgan kechaning qora pardasi edi. Faridun birdan ufqlar qizil rangga bo'yalganini ko'rdi. Go'zal tong, pokiza kelajak vujudga kelmoqda. U qizillik tobora ko'payar, ulg'ayar, bir mash'al, bir ozodlik quyoshi singari butun dunyoni yoritardi.

YIGIRMA BIRINCHI BOB

Karimxon Ozodiy qop-qorong'i, zax zindonga darhol o'rgana olmadi. Uning nazarida, o'zining barvasta gavdasi va keng yelkalarini tor go'r siqayotganga o'xshardi. Go'yo uni zo'rlab go'rga tiqib qo'ygan edilar. Qimirlab ham, u yoq-bu yoqqa ag'darilib ham bo'lmasdi. Hech bo'lmasa tagida og'rib yotgan qo'llarini tortib olishning iloji bo'lsaydi... Hech bo'lmaganda, goh o't bo'lib yongan, goh muzdek sovub qolayotgan oyoqlarini qimirlatolsaydi!

U nima uchun qimirlay olmaydi? O'zi qayerda? Uning aql hushi joyidami? Barmoqlarining uchidan boshlanib, chaqmoqday tezlik bilan miyasigacha tarqalayotgan bu sanchiq nimasi?.. Bu og'riq va bezillashlar qayoqdan paydo bo'lyapti?.. Xo'sh, bu suv qayerdan oqib tushyapti? Yarim behush va yarim hushyor holda u o'zini chiqib bo'lmaydigan, biron daryodan kechib o'tayotgandek his qilardi... U zo'r berib suvdan o'tishga urinar, oyoqlarini mahkam tirar, ilgariga harakat qilar, lekin daryo tugamas, sohil ko'rinmasdi. Shunda azobning nihoyatda zo'rligidan paydo bo'lgan ma'yus fikr va umidsizlik bilan muzli suv quchog'iga otilar, butun badani titrardi. Azoblari tugadi. Hissiyat jim bo'ldi. Butun a'zoyi badani rohat qila boshladi.

Ammo bu abadiy rohat emas edi. Qalbining chuqur yerida azob beradigan bir tuyg'u yashar edi. Ehtimol, u uyquga ketgandir, bularning bari yomon bir tush, dahshatli sarobdir. Qichqirsa, tush ko'rayotgan odam singari tovushi chiqmas, qo'lini uzatmoqchi bo'lar, lekin ko'tara olmasdi.

Uning bu og'ir azoblarga bardosh bergan sog'lom gavdasi o'zining yashashga qobil ekanini ko'rsatardi. Biri biridan uzoqqa cho'zilgan behushliklar orasida hushiga kelar, shunda hamma narsani yaxshi anglar, hamma narsani xotirlar edi. Qanday tutilgani, qanday bu qorong'u zindonga tushgani, qanday azoblarga bardosh bergani va do'stlariga xiyonat qilmaganini ko'z oldiga aniq kel-

tirardi. Xotirida o'tgan kunlar: musibatli bolaligi, og'ir mehnat, qamoq va surgunlar jonlanardi. Xovar, qorong'u osmondagi yorug' yulduz singari uning hayotiga nur baxsh etgan Xovar kelib ko'z oldida jonlanar edi. Uni eslarkan, qalbi shodlikka to'lar, saodat hissi bilan badaniga issiq yugurar, tor va zax zindonga bahor havosi kirgandek bo'lardi. Lekin kelajak haqida o'ylashdan qo'rqardi. Xovarning endigi hayoti va ahvolini tasavvur etishdan cho'chirdi. Bu uni ezishi, irodasini bo'shashtirishi, mahv etishi mumkin edi. U hayotidagi boshqa voqealarni eslashga tirishardi, Faridunni, Kurd Ahmadni, derazadan qochib ketgan Aramni eslardi. Bular uning ezilgan ruhiga umid va quvvat bag'ishlardi. U faqat bir narsani eslay olmasdi. Bu yerga kelganiga necha kun bo'ldi? Ehtimol, oylar o'tgandir? Oh, hech bo'lmasa hozir kechasimi, yoki kunduzi ekanini bilsaydi!.. Shunday xayolga tolgan va hushi o'zida bo'lgan daqiqalarda Mahbusiy ham uning ko'z o'ngida jonlanardi. U hali ham o'z fikrida mahkam turmoqchi bo'lar, shubhaga yo'l bermaslikka urinardi. Chunki u holda bu dahshatli azoblardan ham dahshatliroq narsa — uning aybi, ya'ni ehtiyotsizligi natijasida o'rtoqlarini falokatga duchor qilgan bo'lib chiqardi. Karimxon bu fikrning azobiga bardosh bera olmasdi. Karimxon Ozodiy bu fikrlarni o'zidan uzoqlashtirishga qancha urinsa ham, baribir yuragining bir chekkasida shubha yashirinib yotardi. Axir, u yaxshi odam bo'lsa nega birinchi ko'rishdayoq Xovarga yoqmadi? Yo'q, sevikli xotinlarning hissi yanglish bo'lmaydi! Xo'sh, u holda nima uchun Mahbusiyni ham qamadilar? U bechora ham hozir bir tor go'rda azob chekib yotgandir, axir... Bu azob beruvchi fikrlar ichida uni faqat bir narsa sevintirardi. Yaxshiyamki Mahbusiyni Kurd Ahmad va Faridun bilan tanishtirmagan edi! Sodiq odam bo'lsa ham, hozir ojizlik qilib, ularni ushlab berishi mumkin edi. Bu fikr uni ozmi-ko'pmi yupantirardi.

Hushi butunlay o'ziga kelib, shunday xayol surayotgan chog'ida birdan kameraning eshigi ochilib, uni allakimlar tor koridorga tortib chiqardilar. Xira chiroqning yorug'i ko'zini qamashtirib yubordi. U ko'zlarini pirpiratib atrofga qaradi. Koridorning kichkina tuynugi qorayib turganini ko'rib kechasi ekan deb o'yladi. Uni Sarhang Safoiyning oldiga olib kirdilar. Qarshi

tarafdan beli bukchaygan cholni olib kelardilar. Yaqin kelgach, bu hammayog'i ezilgan cholning Simonyan ekanini payqadi. Simonyan ham uni tanidi. Har ikkalasining yuzida ham bilinar-bilinmas tabassum ko'rindi.

"Endi sho'rlik juvonning ko'zini kim davolaydi?" deb o'yladi Karimxon. U yana Simonyanga qayrilib qaradi. Doktorning boshi bint bilan bog'langan edi. Yuzida so'l qulog'ining tagidan tomog'igacha cho'zilgan qizil iz bor edi. Aftidan, bu qamchining izi edi.

"Chol bu azoblarga bardosh bera olarmikan?" — deb o'yladi Karimxon.

Sarhang Safoiy uni rosa ikki soat azobladi. O'rtoqlarining nomini, Aram Simonyanning qayerga yashiringanini aytib berishini talab qildi. Karimxon bu savollarning hammasiga ham bir xilda:

— Bilmayman, — deb javob berardi.

Sarhang asabiylashib, xonada keza boshladi. Keyin unga do'q urdi.

— Sen aytmasang ham o'zimiz bilamiz, — dedi u.— Boshqalar o'rtoqlaringning nomini aytib berishdi.

U achchiqlanib sarhangga qaradi:

— Unday bo'lsa, bekorga o'zingizni qiynab nima qilasiz?

— Xo'sh, Faridun kim? Faridunni ham aytmaysanmi? — deb so'rab qoldi birdan sarhang.

Karimxonning yuragi shig' etib ketdi.

"Nahotki aytib qo'yishgan bo'lsa?" deb o'yladi. Faridunning hamisha kulib turadigan chehrasi ko'z oldiga keldi. "Yo'q, men uni tanimayman. O'zini keltirib qarshimga qo'ysang ham tanimayman, deyman".

Unga tikilib javob kutayotgan va undagi eng kichik o'zgarishni ham diqqat bilan tekshirayotgan sarhang qat'iy ohang bilan:

— Ha, Faridunni ham tanimaysanmi? — deb so'radi.

— Yo'q! Tanimayman!

Sarhang o'zini go'yo unga rahmi kelayotgan kishidek ko'rsatishga urinib:

— Yigit, sen o'zingni o'zing halok qilyapsan. Kundek ravshan gaplarni inkor qilasan. Xo'sh, mana bu nima?

U Karimxonni dastlab tintigan vaqtlarida olib qo‘yishgan yon daftarchasini ochib ko‘rsatdi.

— Nima yozganingni o‘qichi!

Yana Karimxonning yuragi orqasiga tortib ketdi. Lekin o‘zini yo‘qotmadi. Endi sarhangga ham, burnining tagiga keltirib turgan daftarchaga qaramay:

— O‘zingiz o‘qiyvering! — dedi.

— “Faridun bilan uchrashish kerak”, deb o‘qidi sarhang. Endi Faridunning kimligini aytarsan?

Karimxonning yuragi cheksiz shodlik blan to‘ldi.

“Aha, demak, hech kim hech narsa aytmabdi. Bular Faridunning kimligini ham bilmaydilar”.

Sarhang savolini takrorladi.

— Bilmayman, — dedi Karimxon.— Qayerdan bilaman? Dunyoda Faridundan ko‘pi bormi?

Sarhang unga yaqin kelib, qulochkashlab bir musht urdi:

— Olib boring, — deb buyurdi u.

Karimxonni boshqa xonaga qamadilar. Ikkita yo‘g‘on gavdali kishi uni yechintirib, rezinka tayoq bilan savalay boshladi. Karimxon butun kuchini to‘plab qarshilik ko‘rsatishga uringanda, ular battarroq g‘azablandilar. Bittasi rezinka tayoq bilan Karimxonning boshiga tushirgan edi, Karimxon ko‘z oldi qorong‘ulashib, butun dunyo aylanib ketayotgandek bo‘lib, yerga yiqildi. U ko‘zini ochib, o‘zini yana avvalgi zax qop-qorong‘u zindonda ko‘rdi. So‘l ko‘zining allaqayeri zirqirab og‘rirdi. “Yana nima gap? Menga nima bo‘ldiykin?” Ko‘zini ochishga urindi, ocha olmadi. Go‘yo qovoqlariga og‘ir tosh bog‘langandek edi. Jon achituvchi og‘riqqa chiday olmay yana o‘zidan ketdi. Shu ahvolda qancha yotganini bilmadi. Tashqarida odamlarning oyoq tovushlari eshitildi. U yotgan kamerasining eshigi ochildi. Uni koridorga olib chiqdilar. Lekin bu safar qiynashga olib bormadilar. Joyini o‘zgartirdilar. Uni boshqa kengroq, hatto ikkita kravat ham qo‘yilgan bir kameraga qamadilar.

Ko‘p o‘tmay vrach kelib, Karimxonning ko‘ziga dori qo‘yib, bog‘lab ketdi.

U qorong‘uda qo‘li bilan xonani paypaslab chiqdi. Hech kim yo‘qligini ko‘rib, kravatlardan biriga o‘tirdi.

Yana ming xil fikrlar miyasidan kecha boshladi. Nima uchun bu yerga ko'chirilganini tushunolmadi.

"Tergov tugagan bo'lsa kerak, endi sud bo'lsa kerak", deb o'yladi. Shu kamerada yana bir kecha-yu, bir kunduz yolg'iz o'tirdi. Ertasiga eshik ochildi-da, bundan olti-yetti yil burun bo'lgani singari bir kishini ichkari itarib yubordilar. Yangi mahbus yuzi bilan yerga yiqildi va oh-voh qilib zorlana boshladi. Karimxon darhol Mahbusiyni tanidi. Mahbusiy kamerada odam borligini bilmagan kishidek ingrab so'kinardi. Bundan bir necha yil ilgarigi holning aynan takrorlanishi nima uchundir Karimxonga yoqmadi. Unga bu lo'ttibozning o'yini singari tuyuldi. Shu his, azobli fikrlar va shubhalarning hammasini o'ylab Mahbusiyning inqillashi qulog'iga yoqmadi. Mahbusiyning ovozi darhol o'chdi. U qorong'ulikda turmoqchi bo'lib harakat qildi. Karimxon uning qo'ltig'idan olib, turg'izdi-da, kravatga o'tqazdi. Mahbusiyning ingrashi fig'onga aylandi.

— Sekin, Karimxon, birodar sekinroq. Bu ablahlar mening sog' joyimni qo'ymadilar.

Karimxon indamadi. Mahbusiy ham jim bo'ldi. Go'yo qorong'i, jimjit va zax kamerada ular bir-birlarini o'rganmoqda edilar, bu jimlik ichida indamay, bir-birlarining qalblarini bilmoqchi bo'lardilar.

Nihoyat, kishini ezib yuboruvchi bu og'ir sukut ikkalasini ham charchatdi. Sukutni Mahbusiy buzdi:

— Ikkalamizni bir kameraga qamaganlari juda yaxshi bo'ldi, — dedi u. — Harholda yaxshi-da, kishi bir-biriga hamdam bo'ladi. Bo'lmasa bir o'zing tanho o'tirib, soniyalarni sanashdan zerikasan, o'lim axtarib, o'lim topolmaysan. Ammo ikki kishi bo'lsang, har qanday dardga chidash mumkin. Dardimiz yengillashadi.

U kuyinib yig'ladi. Yana Karimxonning unga rahmi keldi. Tabiatan riyokorlikni bilmagan bu odam boshqalarning yaramas odatlarini ko'rganda hayratlanar, ishongisi kelmasdi. Yurakdan aytilgan so'z, uning nazarida, insonni yuqori ko'tarardi. Mahbusiyning so'zlarida ham u azob-uqubat tortgan odamning hasratini his qildi. O'zi ham yolg'izlikda xuddi shunday qiynalmagan edimi? Uning yonida odam u yoqda tursin, birorta it, mushuk, hatto sichqon bo'lsa ham kamerada unga tasalli bermasmidi?

— Eh, Husayn, — dedi u,— bu safargiday azoblarni men sira ko‘rmagan edim. Kishining shu qadar chidamli bo‘lishiga hayronman. Nimalarga chidamas ekan inson? Biror joying shikastlangani yo‘qmi?

— Chap tomondagi qovurg‘alarimdan birini sindirishdi. Nafas ololmayman. Endi biroz durustman. O‘laman-u, jonim tinchiydi deb o‘ylagan edim.

— Yo‘q, Husayn, unday dema. Inson hech vaqt o‘ziga o‘lim axtarmasligi kerak. O‘limni orzu qilma. O‘lim — yo‘qlik, bo‘shliq demakdir. Kishini tagsiz jar yoqasiga keltirib qo‘ydilar-u, qor, to‘fon, izg‘irin ko‘z ochirgani qo‘ymaydi deb faraz qil. Shunda ham kishi toshlar, qoyalarga mahkam yopishib, tish-tirnog‘i bilan tarmashsa ham-ki o‘zini saqlashga tirishadi. Lekin sira o‘zini jarga tashlamaydi. Insonning tabiati shunaqa! Yashamoq, yashamoq kerak!.. Har ishga barham beradigan o‘sha o‘limdan nima foyda? Inson hayotning lazzatidan mahrum bo‘lsa ham, uning nasibasi qiynoq va azob-uqubatlar bo‘lsa ham baribir yashashni istaydi. Axir, shuning o‘zida ham bir ehtiros, bir lazzat bor. Suvsizlikdan lablari qurigan kishi o‘zini suvga qanday ochko‘zlik bilan tashlashini tasavvur qila olasanmi? Hamma narsadan mahrum etilgan va faqat azob-uqubatlar ichida yashagan kishining orzusi juda kuchli bo‘ladi. Men bunday kishining baxtga intilishida devning kuchini ko‘raman.

— Naqadar mustahkam yuraging bor, Karimxon. Ammo, gapning ochig‘i, men endi bardosh bera olmayman. Tezroq o‘lgim keladi, xolos.

— Unday qo‘rqoq bo‘lma! Bularning hammasi o‘tib ketadi. Bizga go‘r bo‘lib xizmat qilayotgan bu zindonlar ertaga vayron bo‘ladi. Kim biladi, deysan; ehtimol, bir kun bu yer, shu zindonning o‘rni gulzor bo‘lar, bog‘i-bo‘stonga aylanar. Ehtimol, mana shu qorong‘u, zax kameramizning o‘rnida bir tup qizil gul unar, har tarafga shoxlab har bahorda go‘zal gullar ochib xushbo‘y atirlar tarqatar. O‘shanda nasllarimiz, Ozodlarimiz bizni eslamaydilar-mi?.. Shunday kunlarni ko‘rasan! Albatta, bizni eslaydilar! Albatta! Ehtimol, shunday kunni o‘zimiz ham ko‘rarmiz!..

— Bu safar bo‘g‘zimizni sirtmoqdan qutqarib qolishimizga aqlim yetmaydi, Karimxon. — Bir nafas jim qolishdi. Keyin Mahbusiy qo‘shib qo‘ydi:

— Bitta qutulish yo'li ham bor.

— Qanday yo'l? — deb so'radi Karimxon qiziqib. — Tishimiz bilan yer qazish bo'lsa ham tayyorman!..

— Birodar, Karimxon! Hech qanday chora yo'q! Biz halok bo'lamiz! O'zimizni qutqarish mumkin bo'lgan yo'ldan esa ketolmaymiz! Menga o'rtoqlaringni ayt, o'shanda qo'yib yuboramiz, deb necha martalab taklif qilishdi. Urdilar, so'kdilar, azobladilar, aytmadim. Seni ham shunday azoblaganlarini ko'ryapman. Yuraklarim ezilib ketdi. Birodar, nima qilamiz endi. Yo bir-ikkitasini aytib, jonimizni qutqarsakmikin!

Karimxon o'z quloqlariga ishonmaganday:

— Nima? — deb so'radi.

Mahbusiy inqillab-inqillab o'z fikrini takrorladi. Karimxonning miyasida yana azob beruvchi shubhalar paydo bo'ldi.

— Ehtimol, butun bu falokatlarga sabab mening ehtiyotsizligimdir? — deb o'yladi. Agar shunga bir kichkinagina dalili bo'lsaydi yonida o'tirgan bu odamning hiqildog'ini g'ajib tashlardi. Boshidan ming xil xayol o'tar, o'ylar edi.

Mahbusiy esa buni Karimxonning yumshargani alomati deb bildi-da, yana dadillandi:

— Menga shunday azob berdilarki, birodar, bu azoblarga it ham chiday olmasdi. Endi hech toqatim qolmadi. Sen mendan ko'ra yomonroq ahvoldasan. Nima qilaylik endi? Karimxon kel, hech bo'lmasa Faridunning qayerdaligini aytaylik, bizni tinch qo'ysinlar, men ham qutulay, sen ham. Xotining, bolang bor, axir.

Riyokorlik bilan aytilgan bu so'zlar Karimxonda shubha qoldirmadi. U shartta o'girilib Mahbusiyning hiqildog'idan xippa bo'g'ib oldi. Ostiga mahkam bosdi.

— Ablah, bizni sotgan sen ekansan-da! Sen meni ham xoinlikka chaqiryapsanmi? O'rtoqlarimni sotaymi?

Karimxon bo'g'ar, Mahbusiy esa qarshilik ko'rsatmoqchi bo'lar, ostida pitirlab uyoq-buyoqqa talpinar, xirillardi. Karimxonning panjalari uning hiqildog'idan tobora qattiqroq siqar, tizzalari xoinning qornidan bosar edi.

Shu payt birdan eshik ochildi. Uch kishi Karimxonning ustiga tashlanib, Mahbusiyni uning qo'lidan qutqarib oldi. Mahbusiyni chalajon holda kameradan olib chiqib ketdilar.

Bir chetda qarab turgan Sarhang Safoiy:

— Olib boring! Avvalgi joyiga olib boring! — deb buyurdi.

Karimxonni yana kecha olib chiqishgan, go'rga o'xshagan kameraga tashladilar. Endi Mahbusiyning kimligiga uning hech shubhasi qolmadi. Tuzalmas xatoga yo'l qo'yganini endi anglab, boshini kameraning nam devoriga surib, yosh boladay ho'ng-ho'ng yig'ladi.

* * *

Karimxon qamalgandan keyin Xovar o'z ahvoli to'g'risida ko'p o'yladi. Ko'p iztirob chekdi. Dunyo ko'ziga zindon bo'lib ko'rindi. Endigi hayoti va ertangi kuni qorong'u edi. Endi nima bo'ladi, ertaga uni nimalar kutadi, bilmasdi. O'ylagan sari o'yiga yetmas, boshi qotar edi.

Simonyanning qamalishi va Aramning g'oyib bo'lishi bilan uning oxirgi umidlari ham puchga chiqdi. Ular Xovarga o'z ota-onasidek bo'lib qolishgan edi. Xovarni hech bo'lmaganda bir burda non topish tashvishidan ozod qilgan bo'lar edilar. Endi nima qilish kerak? Bolasini qanday boqadi? O'zini qanday tutishi kerak? Qayerdan bir burda non topadi? Qayerga borsa, qaysi eshikni ochsa ostonadanoq:

— Qoch, ish yo'q! — deb quvadilar. Tilanchilik qiladimi?.. Yoki... Miyasiga shu fikr kelsa tagsiz jarning yoqasiga kelib qolgan odam singari ko'zi tinib, boshi aylanib ketardi. Bir burda non va kiyim uchun tanini sotgan, yosh umrini fohishaxonalarda xazon qilgan xotinlar kam edimi? Muhtojlikdan o'z qizining nomusini o'n tumanga sotgan kishilarni tanimasmidi? Tanirdi! Ko'p ko'rgan edi... U shaharning unga o'xshab muhtojlikka tushib qolgan, hech yerdan umidi bo'lmagan baxtsiz, kimsasiz ayollarni fohishaxonalarga tortadigan dallollar bilan to'la ekanini yaxshi bilardi. U shuni ham yaxshi bilar ediki, bunday dallol xotinlar baxtsizlikka uchragan o'z qurbonlarini darhol ko'rar, uning atrofida o'ralashib qolar, yoniga axloqsiz xotinlarni yuborar, pul, kiyimbosh taklif qilar va to o'z maqsadiga yetmagunicha tinchimas edi. Bularni o'ylarkan u o'zini o'ldirmoqchi, shu azoblardan bir yo'la jonini qutqarmoqchi bo'lardi.

Lekin Ozod-chi? Xo'sh, uni kimga tashlab ketadi?

Falokatning boshlanish kunlarida Xovarni bu dahshatli qadamdan saqlab qolgan narsa o'g'li Ozod to'g'risidagi fikr edi!

* * *

Karimxonning qamalganiga ikki hafta bo'lgan edi. Bir kun kechqurun Xovar oldida o'ynab yurgan Ozodga ma'yuslik bilan tikilib uyda o'tirar edi. U oqib tushayotgan ko'z yoshlarini sezmasdi. Eshik taqilladi. Xovarning "kim" degan so'rog'iga xotin kishining:

— Och, singlim, Xovar xonim, och, ishim bor!..— degan tovushi eshitildi.

Xovar eshikni ochdi. Yoshi qirqlardan oshgan, lekin basharasiga upa-elik qo'ygan bir xotin kirdi. Uning tashqi ko'rinishining o'ziyoq Xovarning yuragiga vahima soldi.

Xotin indamay uyga kirdi-da, jirkanibgina, eski tokchaning bir chetiga suyandi. U engashib tancha ko'rpani qoqdi.

— O'tiravering, toza, — dedi Xovar.

Xotin uyni ko'zdan kechirdi.

— Uying juda ham qashshoq ekan. Zax ekan. Shu yerda ham odam yashaydimi? — dedi u.

— Borimiz shu, — deb javob berdi Xovar jahl bilan.

— Xovar xonim, sen singari suqsurday juvonga bunday uyda yashash yarashmaydi.

Xovar indamadi. Xotin uyidagn narsalarni bir-bir ko'zdan kechirdi, yana ayni jirkanish bilan hech narsaga qo'l tekkizmaslikka urindi. Gapni tirikchilikning og'irligidan boshlab, boshiga kulfat tushgan Xovarga achindi. Xovar o'zini tutolmay, uning kimligini so'radi.

Xotin katta og'zini yanada kengroq ochib:

— Iya, hali tanimayapsanmi? Sendan ikki hovligina narida turaman. Qo'shnimiz-ku. Otim Qamarbonu.

— Tanimayman, ko'rmaganman.

— Sen tanimaysan-da, men esa seni taniyman. Shuning uchun ham keldim. Sendan hol-ahvol so'ragani keldim. Balki biror narsaga muhtojdirsan?

— Xudo xayringizni bersin, hech narsaga muhtoj emasman.

— Unday dema, qizim. Otangdan meros qolmagan, onangdan meras qolmaganki, yeb yotsang. Bu churuk gilamingga esa birov besh shohi[1] ham bermaydi.

Qamarbonu Xovarga hayosizlarcha tikildi. U Xovardan yo o'zi istagan sirni bilib olishi, yoki uni tuzoqqa ilintirib, uyidagi xonimlarga qo'shishi lozim edi. Har ikki maqsad uchun ham Xovar zarur edi.

Albatta, undan bir amallab sirini bilsa, yanada yaxshiroq bo'lardi. Shunday qilsa mister Garold ham, sarhang Safoiy ham undan xursand bo'lar va uni ham xursand qilardilar. Keyin yana Xovarning o'ziga navbat kelardi. Uning boshqa chorasi yo'q edi. Qamarbonu shularni o'ylar ekan, go'yo Xovarga rahmi kelganday:

— Singlim, boshingga zo'r musibat tushdi, Xudoning rahmi kelsin, — dedi.

Uning birdan shafqatli bo'lib qolgani Xovarda shubha uyg'otdi. Odamlarga ehtiyot bilan yondashishga o'rgangan Xovar indamay turaverdi.

Qamarbonu so'zida davom etdi:

— Bilaman, yolg'izsan, qo'lingdan tutadigan kishing yo'q, eringning ham qarindosh-urug'i yo'qki, shunday kunda yordam qilsa.

Onasining tizzasiga suyanib, unga yotsirab qarab turgan Ozodni bag'riga bosdi, boshini siladi.

— Essiz, essiz. Shunday bola yetim qolsa-ya!

Bu so'zlar Xovarga qattiq tegdi, yuragiga xanjardek qadaldi:

— Nega yetim bo'lar ekan? Men hali o'lganim yo'q-ku!

Qamarbonu oq charm sumkasini ochib, bir necha konfet oldi-da, uni Ozodga uzatdi. Bolaning olgisi kelmaganini ko'rib, zo'rlab tutqizdi-da, Xovarga qarab:

— Hay, qizim, eringning o'rtoqlari ham yo'qmi senga yordam qiladigan! — dedi.

— Nega yo'q bo'lsin, o'rtog'i yo'q odam bo'ladimi?

U Xovarga yaqinroq surildi:

[1] **Shohi** — Eron chaqa puli, besh tiyinga teng.

— Borligini bilaman... Mahallada hamma biladi... O'zing borishga uyalayotgan bo'lsang, manzilini ber, men borib kelay. Meni kim tanib o'tiribdi, kerak narsani olib kelib beraman.

Uning bunchalik qattiq turib olishi, Xovarning shubhasini ortlirdi.

— Rahmat, menga vositachi kerak emas.

Bu so'z Qamarbonuga qattiq tegdi. Xovardan bir gap chiqishiga aqli yetmay qolgach, bu to'g'rida gapni to'xtatib, gapni Xovarga eng dahshatli tuyulgan mavzuga ko'chirdi. U uyiga Xovarga o'xshaganlarning ko'pi kelib ketishini aytib, ularning yaxshigina pul topishlarini ham qistirib o'tdi.

— Nima bo'lardi, — dedi u, — yaxshi umr kechirasan, ochingdan o'lmaysan. Xohlamasang ering qamoqdan chiqqach, bormay qo'ysang ham bo'laveradi!..

Bu so'zlarni eshitgan Xovarning joni chiqib ketdi. U qo'liga otashkurak olib shunday qichqirdiki, o'ynayotgan o'g'li olazarak bo'lib, kelib onasining etagiga yopishdi. Xovar otashkurakni ko'tarib:

— Tur yo'qol, jo'na bu yerdan! — dedi.— Miyangni majaqlamasimdan burun jo'nab qol!..

Qamarbonuni oldiga solib haydab, hovliga olib chiqdi, hovlidan ko'chaga sudradi.

— Yana shu yerga qadam bossang o'zingni o'ldim deyaver!

Kechasi yana eshik taqilladi. Bu safar tanish tilanchi xotin kelgan edi. Xovar uni ko'rishi bilan xursand bo'lib, kampirni ichkariga boshladi. Kampirni Faridun yuborgan edi. Hol-ahvoli, turmushi va nimaga muhtojligini so'rab keling degan edi. Xovar rahmat aytib, hech narsaga muhtoj emasligini bildirdi. Tilanchi xotin Ozodni chaqirdi. Boshini silab, quchoqladi, peshonasidan o'pdi-da, olib kelgan botinkasini kiygizdi.

Keyin Xovarga bir paket uzatdi:

— Ol, Xovar singlim, Faridun berib yubordi. Qiynalib qolmasin! — dedi.

Xovar hech narsa deya olmadi. Hatto tashakkur aytishga ham tili kelmay qoldi. Xotin ketgach, paketni ochdi. Unda ellik tuman pul bor edi.

* * *

Faridun shu kunlardagi gazetalarni diqqat bilan kuzatib borardi. U sensatsion xabarlardan, rasmiy doiralarda Karimxonlarning qo'lga olinishiga doir qanday fikrlar borligini aniqlashga tirishardi. Shuning uchun ham u bu doiralarning fikrini ozmi-ko'pmi to'liq ifoda etadigan gazetalarning hammasini o'qirdi, hatto bunday gazetalarda ko'plab bosiladigan savdo ishlariga oid e'lonlar, qaysi xonimning o'ziga qanday er axtarayotgani to'g'risidagi e'lonlarni ham ko'zdan kechirardi. Bir kun gazetalarni ko'zdan kechirib o'tirar ekan, "Sado" gazetasining birinchi sahifasidagi yirik harflar bilan bosilgan bir maqolacha uning diqqatini o'ziga tortdi. Maqolaga: "Jinoyatchilardan biri qochdi. Qochqin axtarilmoqda", deb sarlavha qo'yilgan edi. Gazeta qamoqqa olingan davlat jinoyatchilaridan birining Qasri Qojor zindonidan qochganidan xabar berardi. Keyin shu hodisa to'g'risida xilma-xil muhokama yuritilardi-da, maqolaning oxirida zindondagi tartib-qoidaning bo'shligi, mahbuslarga qilinadigan muomalaning nihoyatda bo'shligi uqtirilib, ichki ishlar ministrligining diqqati shunga jalb qilinardi. Faridun maqolaning oxiridagi muhokamalarni e'tiborsizgina ko'rib, gazetani bir chetga qo'ydi-da, o'yga toldi... U qochgan kishining kimligini va qanday qilib qochganini bilgisi kelar, undan ko'ra ham o'sha qochgan kishini ko'rgisi, o'rtoqlarining ahvolini so'ragisi kelardi. Bir kishining zindondan qochgani uni behad xursand qilardi. Ayni vaqtda bundan shubhalanib: "Bu ham bir hiyla bo'lmasin tag'in?" — deb o'yladi.

Shu payt Kurd Ahmadning ukasi kelib, uning Tehronga qaytganini va Faridunni kutib o'tirganini bildirdi. Faridun Kurd Ahmadlarnikiga jo'nadi. Birdan yomon xabarlar bilan uni tashvishga solmaslik uchun hol-ahvol so'radi.

Kurd Ahmad Ozarbayjon va Kurdistondan juda yaxshi xabarlar keltirgan edi:

— U yerlarda markaziy hukumatga qarshi xalq nafrati cheksiz,— dedi u, — hamma xabar berilishini kutib turibdi. Menga qolsa ishni xuddi o'sha tomondan boshlashimiz kerak. Keyingi vaqtda Tehrondagi og'ir sharoitda hech narsa qilib bo'lmaydi degan fikrdaman. Chunki bu yerda faqat Eron reaksionerlari va Rizo

shohga emas, balki inglizlar, amerikaliklarga ham duch kelamiz. Bu yerda ularning siyosatini o'tkazmaydigan bironta arbob, bironta mansabdor, bironta savdogarni topish qiyin. Agar biz Ozarbayjondan va Kurdistondan boshlasak, tezroq maqsadga yetamiz. Chunki u yerda xalq faqat zamindorlar zulmidangina emas, hokimlar, jandarmlar va politsiyaning ham zulmidan to'ygan, milliy ozodlikka intilish kuchli. U yerda ishni tez rivojlantirib yuborish mumkin.

Faridun uning so'zlariga quloq solib o'tirar ekan:

— So'zlaring hammasi to'g'ri, — dedi, — lekin Tehronda duch kelgan ingliz va amerikaliklarning qarshiligiga u yerda duch kelmasmikinmiz?.. U yerda ham o'shalar ish ko'rmoqdalar. Ozodlikka intilgan inson Araksdan to Kaspiyning berigi sohillarigacha cho'zilgan hamma joyda ana shu mash'um kuchlarga duch keladi. Jang boshlashdan boshqa chora yo'q.

— Harholda o'tmish ko'rsatdi, kelajak isbotladiki, ozodlik uchun kurashuvchilar safi tobora kengayib bormoqda. Biz shularga tayanishimiz kerak.

— Fikrlaringga qo'shilganimni aytdim. Ozodlik bayrog'ini ko'tarish payti yaqinlashmoqda. Ehtimol, erta-indin amaliy faoliyat boshlab yuborish ham mumkin bo'lar. Endi o'rtoqlarning g'amini yeylik.

— O'rtoqlarga nima qilibdi?

Faridun bor gaplarni aytib, uni yuz bergan falokatdan xabardor qildi.

— Hujum qilib, zindonni buzib tashlash kerak,— dedi Kurd Ahmad asabiylashib, — yo zindonbonlarga pora berib, o'rtoqlarni xalos etish kerak!..

— Bulardan hech biri ham mumkin emas. Chunki bu ish bilan hozirgina o'zing aytgan inglizlar, amerikaliklar, nemislar va Rizo shohning o'zi shaxsan shug'ullanmoqda. Hech mumkin emas.

— Xo'sh, qo'l qovushtirib o'tiraveramizmi?

— Yo'q, yangi qurbonlar berishdan saqlanish kerak. Endi qanday ish olib borish to'g'risida o'ylashimiz kerak. Men senga Salimiy degan bir ajoyib do'stim bor degan edim. O'shaning yordami bilan bu xiyonatlarni yuzaga chiqargan josusning nomini ham bilib oldim. Uni yo'qotish kerak.

— Xizmatingga hozirman! Ko‘rsatib qo‘ysang bas, kallasini sapchaday uzib tashlayman.

Shu vaqt eshik taqillaydi. Ular ehtiyotlik bilan o‘rinlaridan turdilar. Kurd Ahmad ukasini eshik ochgani yubordi. Yigitcha Xovarni boshlab kirdi. Ular Xovarni ko‘rib, juda xursand bo‘ldilar. Hurmat bilan unga joy ko‘rsatdilar. Xovar o‘tirdi. Uning nihoyatda hayajonlanayotgani ko‘rinib turardi. Savol kutmasdan gapira boshladi:

— Faridun aka, men bir kishidan shubham borligini sizga aytgan edim, o‘sha odam Husayn Mahbusiy.

Faridun uning so‘zini kesdi:

— Uning xoin ekanligi ma’lum. Lekin uni qo‘lga tushirish oson emas.

— U bugun biznikiga keldi, — dedi Xovar hayajonlanib. Faridun ajablandi:

— Nima? Uyingizga keldimi?

— Ha, keldi. Turmadan qochdim deydi. Yashirinib yurgan emish. Karimxonning topshirig‘i bor, Faridunni ko‘rishim kerak deydi. Bizni uchrashtirib qo‘y deydi.

— Yana qachon keladi?

— Chorshanba kuni kechqurun.

— Juda yaxshi, — dedi Kurd Ahmad, — uni to‘g‘ri shu yerga olib kelasan. Uni yaxshilab kutib olamiz.

Kelishib olgach, Xovarni jo‘natdilar. Ikki kundan keyin o‘rtoqlarni yig‘moqchi bo‘ldilar. Lekin Mahbusiyni jazolash uchun Xovarning fikrini so‘rash lozim edi. Chunki Mahbusiy jazolangandan so‘ng u o‘z uyida qololmasdi.

— Bu to‘g‘rida tashvishlanma, — dedi Kurd Ahmad, — men uni qush singari Kurdiston tog‘lariga uchirib yuboraman. O‘rtoqlar orasida yura turadi. Ular sadoqatli odamlar. Kurdlarning naqadar sadoqatli xalq ekanini bilasan. O‘lsa o‘ladiki, ammo xiyonat qilmaydi!

* * *

Karimxonlarni tutib bergan kishi Husayn Mahbusiy ekaniga Xovar butun vujudi bilan ishonar edi. Bu to‘g‘rida u hech shubhalanmasdi. U o‘z yuragiga ishonardi. Bir ko‘rishda yoqqan

odami yaxshi, yoqmagan odam yomon bo'lib chiqishini bilardi. Insonlar to'g'risida uning o'zgacha tasavvuri, o'zgacha fikri bor edi. Uning fikricha, yaxshi odam ham, yomon odam ham bir ko'rishdayoq bilinardi...

Mahbusiyni u birinchi ko'rishidayoq yoqtirmagan edi. Oxirida u o'z yomonligini ko'rsatdi ham. Lekin Xovar faqat shunday deb o'ylab qo'ya qolmasdi. Qalbi ham shu iflos, yaramas odamdan o'ch olish hissi bilan tepardi. U Husayn Mahbusiyning jazolanishini, jazolanganda ham juda qattiq jazolanishini istardi. Karimxonning, Simonyanning va boshqalarning tortgan azoblari hamda boshliqsiz qolgan oilalar uchun o'ch olish kerak edi. Agar iloji bo'lsa u Husayn Mahbusiyni bir marta o'ldirish bilan kifoyalanmasdi. "Bunday odam uchun bir marta o'lish oz, — deb o'ylardi u.— Iblis bo'laturib farishtaga o'xshab oladi-da, xalqning yuragiga kirib, uyini kuydiradi. Xo'sh, shu ham ishmi? Yo'q, bunday odamni bir marta o'ldirish bilan ko'ngil taskin topmaydi!" Shuning uchun ham Husayn Mahbusiy zindondan qochib kelganini aytganda, Xovar ishonmadi. Uning o'g'ri ko'zlariga qarashi bilanoq ishonmadi. Aksincha, undan o'ch olish, unga jazo berish fikri yana ham kuchaydi:

— Ha, men Faridunni taniyman, — dedi,— oldin u bilan uchrashib, keyin aytaman.

Xovar Faridun va Kurd Ahmad bilan uchrashgandan ikki kun keyin yana Husayin Mahbusiy keldi. Bu safar u Ozod uchun yangi kastum ham olib kelgan edi. Zo'rlab bolaga kiygizib qo'ydi-da:

— Bu o'z bolamizdek gap, kiysin! — dedi.

Hol-ahvol so'rab bo'lgach, u Xovardan Faridunni ko'rgan ko'rmaganini so'radi. Xovar unga: "Faridunning oldiga hozir boramiz" dedi. Lekin Mahbusiy bir lahza o'ylab olgach, hozir borolmasligini aytib, uchrashuvni ertaga qoldirdi. Chunki juda zarur ishi bor emish. Xovar qistamadi. Uni shubhalantirib qo'yishidan qo'rqdi. Mahbusiy yana birpas o'tirib, Karimxon Faridunni maqtagani va uni tez-tez eslab turishini aytdi.

Suhbat orasida:

— O'zi qayerda? — deb so'radi.

Xovar bu savolga e'tibor bermadi:

— Bilmayman.

— Kasbi nima? Nima ish qiladi? Qayerda ishlaydi?

Xovar bu savollarga sira e'tibor bermay, boyagidek beparvolik bilan:

— Talaba, Universitetda o'qiydi, — deb javob berdi.

Shu payt Husayn Mahbusiyning hamisha pardali ko'zlarida bir lahzagagina uchqunlar ko'rindi. Nima uchundir yuragiga vahima tushgan Xovar bir lahzagina yonib, yana so'ngan bu uchqun nimaning ifodasi ekanligini tushunmadi.

Mahbusiy yana birpas o'tirdi-da, ilojini topsa yana kelishini aytib chiqib ketdi. Xovar nima uchundir o'zining bezovta bo'layotganini payqadi. Lekin sababini topa olmadi. Buni Husayn Mahbusiyga nisbatan bo'lgan nafrati natijasidir deb o'ylab tinchlandi va sabrsizlik bilan o'ch olish kunini kuta boshladi. Soddaligi va tajribasizligi orqasida aytib qo'ygan bir og'iz so'zi bilan Faridunning boshiga qanday falokatlar keltirishiga aqli yetmadi.

* * *

Ali jandarmboshi fon Valterning oldiga kayfi chog' holda kirdi-yu, o'ychan va parishon holda qaytib chiqdi. Go'yo fon Valter unga yillar bo'yi oz-ozdan berib kelgan narsalarining barini birdan sitib olmoqchi bo'lganga o'xshardi. Ali jandarmboshi oldin fon Valterning taklifiga tushunmadi, chunki bugungi topshiriq shu kungacha beriladigan va u odati bo'yicha havas bilan bajaradigan topshiriqlarga o'xshamasdi.

U fon Valterga taajjub bilan boqib e'tiroz bildirmoqchi bo'lganida, fon Valter tez-tez boshini silab:

— Ha, qo'rqyapsanmi? — deb so'radi.

— Janob fon Valter, axir, u tarafda mening kimim bor? Shu yerda nima qil desang ham bajarishga tayyorman. Kimni xohlasang bir kechada yo'q qilaman, qo'lim titrasa odam emasman. G'ing demay boraman, hatto a'lohazratning o'ziga bomba tashlashga ham tayyorman, chunki sen borsan, meni himoya qilasan.

— German davlati har qayerda ham seni himoya qiladi.

— Yo'q, sadag'ang ketay, meni u mamlakatga yuborma, u yer sehrli.

— Sen bilan birga fon Zalkind ham boradi. Uzog'i bilan bir oydan keyin bizning armiyamiz ham o'sha yerda bo'ladi.

— Sadag'ang ketay meni yuborma. Arbob Hanafiynimi, gumashta Mamadnimi, ishqilib, boshqa biror odamni yubor. Bu ish mening qo'limdan kelmaydi. Eronning o'zida nima ishing bo'lsa, men tayyorman.

Fon Valter unga olgan pullari va Ardabildagi sotib olgan bog'ini eslatdi:

— Jandarmligingda bunday gaplarni gapirmasding, zamindorga aylanib, minnatdorchilikni unutding! Bizni nemis deydilar. Tuxumingga o't qo'yaman, hatto kulingni ham topisha olmaydi. Bor, o'ylab ko'r!

Ali jandarmboshi oldidan o'qdek otilib chiqdi-da, esankirab Qamarbonunikiga jo'nadi. Shu paytgacha u o'zini Ardabildagi eig boylardan hisoblab yurardi. Allaqanday arzimagan ma'lumotlar va bir-ikkita odamni o'ldirgani uchun uni pul bilan mo'l-ko'l ta'minlagan nemislarni u ahmoq hisoblab, endi hamisha badavlat bo'lib yashayman, deb o'ylagan edi. Meni endi na Eron biror ma'suliyatga torta oladi va na nemis degan xayolda edi. Endi u juda katta xato qilganini angladi. Tuzoqqa shunday ilinibdiki, aslo qutulib chiqishning iloji yo'q.

Qamarbonu uning qosh-qovog'idan ahvoli mushkul ekanini anglab kulimsirab qo'ydi. Uni katta mehmonxonaga olib kirmay, kichkina alohida xonaga boshladi-da, stol tevaragida o'tirganlarga taqdim etdi.

— Tanishinglar, bu kishi ardabillik millioner zamindor Ali bo'ladilar! — deb chiqib ketdi.

Kayfi ancha oshib qolgan gumashta Mamad qadah ko'tarib o'rnidan turdi:

— Ardabillik Ali millioner! Hazil deb o'ylamang, ardabillik Ali millioner! Shu janobning sog'ligiga ichaman, xa-xa-xa... Kayfing buzuqroq ko'rinadimi, oshna?.. Yo biror gap bo'ldimi? Hay, arbob Hanafiy, qadahni to'ldirib unga uzat, axir, hamrohing-ku u, xa-xa-xa...

Ali jandarmboshi Qamarbonuning istehzoli tabassumiga ham, gumashta Mamadning mazaxlariga ham parvo qilmay konyak to'latilgan qadahni ko'tarib, ochko'zlik bilan shimirdi.

— Padaringga la'nat, fon Valter-ey, — dedi asabiylashib, — itvachcha, chegaradan o'tib, o'zingni chekaning qo'liga topshir, deydiya, itvachcha.

Gumashta Mamad astoydil qah-qah urib kulib yubordi.

— Qo'rqma, yolg'iz emassan, hamrohlaring ham bor. Mana, tanishib qo'y, bu kishi og'oyi arbob Hanafiy bo'ladilar. Xo'sh, nega sevinmaysan? Jahannamga ketadigan kishi hamrohini ko'rganda sevinguvchi edi, sevin, xursandchilik qil.

— Kul-a, kul mening ustimdan, gumashta Mamad, senga nima, kayfing joyida, dimog'ing chog'! Kulib qol!

— Ha, sen nima deb o'ylagan eding, og'ayni?! Ardabildagi bog'ingni bekorga bergan ekanlarda bo'lmasa-a?! Fon Valter katta xolangning o'g'li ekan-da, tumanlarni jaraqlatib qo'lingga berib qo'ysa! Ana, endi bunday xizmat ham qilib qo'y, olasining berasi ham bo'ladi... To'g'rimi, og'oyi Mahbusiy! Axir, sen bunday ishlarda tajribalisan-ku.

Mahbusiy Ali jandarmboshining yelkasiga qoqdi:

— Qo'rqma, Ali! Borib kelganingdan keyin shunday boy bo'lib ketasanki, istasang og'oyi Hikmat Isfahoniyning Ardabildagi mulkini ham sotib ololasan, qo'rqma!

Ali ko'nglidagi g'ashlikni tarqatish uchun hazillashgan kishi bo'lib Mahbusiyning yuziga qarsillatib bir shapaloq urdi:

— Bizni shu kulfatga solgan sen eding, oshna. Xo'sh nega o'zing bora qolmaysan?

Gumashta Mamad o'lgudek ichib, endi g'iq etmay o'tirgan arbob Hanafiyning ko'kragiga bir tushirdi:

— Uning o'rniga mana bu ketyapti, og'oyi Mahbusiyning Eronda ham ishi ko'p. Mahbusiy katta ishlar uchun yaratilgan odam. U sizlarga o'xshagan quzg'un emas, u burgut. Boringlar, tezroq boringlar. Fon Zalkind sizlarni olib borib nemis qo'shinlariga yo'l ochadi. Sizlardan besh kun keyin Bokuda bo'lamiz, tezroq jo'nanglar. Siz vayron qilgan joylarni biz borib tuzatamiz, tezroq yuguraqolinglar... Xa-xa-xa.

Ali jandarmboshi yana fon Valterni so'kib, o'z rejalarini ochmoqchi bo'ldi:

— Meni Ali deydilar!

Gumashta Mamad uning so‘zini kesdi:

— Yo‘q, sen oddiy Ali emassan, sen ardabillik og‘oyi Ali millionersan!

— Xo‘p, mayli, kul, kulib qol, Mamad! Bir kun emas, bir kun mister Garold ham boshingga shunday kunlarni solmaydi deb o‘ylaysanmi? U boshingga shunday kunlarni soladiki, fon Valterga ming marta shukur qilib qolasan. Dunyoda Eron bor ekan, amerikaliklar bor ekan, ingliz va nemislar bor ekan, bu yerda shunday o‘yinlar ham bor... Hozir nemislarning omadi kelib turibdi, ertaga nemislar yiqilgach, uning o‘rnini amerikaliklar oladilar. Ana o‘shanda: qani, og‘oyi Mamad, bir Araksning narigi tomoniga o‘tib, Bokuga o‘t qo‘yib kelingchi, deydilar. O‘shanda ko‘ramiz: dod deysan, sochlaringni yulasan, lekin quloq soladigan kishi bo‘lmaydi. Hali kulishga vaqt erta, sening ham shunday kunga tushganingni ko‘raman hali.

— Unda sen Enkevedening qo‘lida bo‘lasan, meni sira ko‘rolmaysan.

— Yo‘q, ko‘raman. Menga tegmay turinglar, biroz kutinglar, halizamon gumashta Mamad kelib qoladi, u bilan juda do‘stmiz, meni ko‘rmasa ko‘ngli buzilib ketadi, uni ham men bilan birga qamang. Keyin nima qilsangiz ham, ikkimizni birga qiling deyman.

Mahbusiy so‘zga aralashdi:

— Bo‘ldi, ko‘p vahima qilaverma, nima demoqchisan? Eshitaylik.

— Meni Ali deydilar, men...

Gumashta Mamad so‘zini tugatishga imkon bermay, Alining og‘zini ushladi:

— Jim, jim, ketsin, keyin gapirasan.

— Kim ketsin?

— Kim bo‘lardi, Qamarbonu eshikning orqasida quloq solib turibdi. Borib hammasini fon Valterga chaqadi.

Ali jandarmboshi tupurib, vinoni sepib yubordi:

— Ana uni qara-ya! Obbo, benomus itvachcha-yey, topgan odamini qara-ya! Shu benomus qo‘shmachidan ham foydalanadimi-a? Tuf-ey, tuf!..

Gumashta Mamad uning og‘zini qattiqroq yopdi.

— Nima uchun? Qamarbonuning sendan nimasi kam? Yoki sening undan nimang ortiq?.. Nimaga sendan foydalansa bo'ladi, bundan foydalansa bo'ladi-yu, undan foydalanib bo'lmaydi? So'zimga javob ber, qani, nima uchun?

Arbob Hanafiy bir qadah vino ichib, bir six kabob yedi. Gumashta Mamad uning yelkasiga qoqdi:

— E, sadag'ang ketay, indamay uraver, zap yaxshi yo'lni topib olding-da!.. Miq etmay o'tirishini qaranglar, uzoqdan ko'rgan odam buni bir farishta o'tiribdi deb o'ylaydi. Ali, mana shuni biron kim bir oyda uchta odamni bo'g'ib o'ldirgan deydimi? Qani to'g'risini ayt, qaysinisi ko'proq haq to'ladi: mister Garoldmi, mister Tomasmi yo fon Valtermi? Faqat shuni aytsang bas, boshqa savolim yo'q.

Mahbusiy yana Ali jandarmboshiga yuzlandi:

— Ha, so'zing chala qoldi... Allanarsa demoqchi eding...

Ali jandarmboshi nima demoqchiligini xotirlashga tirishdi: — Mana bu ezmachuruk gapirgani qo'yayaptimi... Ha, meni Ali deydilar, pullarimni olib Shohsavanlar[1] orasiga qochib ketaman, o'shanda fon Valter meni qayoqdan toparkin. Topib bo'pti! Nima, men ahmoqmidimki, o'zim borib bolsheviklarning qo'liga tushay?

— Be'mani gaplaringni qo'y, — dedi gumashta Mamad.— Eronda toshning orasiga yashirinib olsang ham fon Valterdan qochib qutulolmaysan, u seni har qayerdan ham topib oladi. Mana bu Mahbusiy seni topib, manavi arbob Hanafiy bo'g'ib o'ldiradi... Boshingning bahosi ham uncha qimmat emas — ikki yuz tuman... Xa-xa-xa... O'n ming tumanli mulki bo'lgan bir og'oning boshi ikki yuz tuman bo'lsaya! Xa-xa-xa...

U kulgan sari Ali jandarmboshi qizarib-bo'zarardi. Ali fon Valterning alamini ham gumashta Mamaddan olmoqchi bo'ldi. Vino butilkasini ko'tarib:

— Mana, sening boshingning bahosi! — deb gumashta Mamadning boshiga qarsillatib tushirdi.

Butilka parcha-parcha bo'lib ketdi. Gumashta Mamad hushidan ketib yiqildi.

[1] **Shohsavanlar** — Eron Ozarbayjonidagi jangovar qabila.

Bularning gapiga quloq solib turgan Qamarbonu yugurib ichkari kirdi:

— Nima gap o'zi, og'alar?

— Hech gap yo'q,— dedi sovuqqonlik bilan Husayn Mahbusiy. — Ho'l latta olib kel, xonim.

Ali ikkinchi butilkani ko'tarib qichqirdi:

— Kim bunga yordam bersa, boshini pachaqlab tashlayman, qo'yavering, o'lsin bu itvachcha.

Husayn Mahbusiy arbob Hanafiyga sezilar-sezilmas imo qildi. Arbob Hanafiy o'rnidan turib, cho'ntagidan temir xanjar oldi-da, Ali jandarmboshining kallasiga shunday urdiki, Ali o'zidan ketib yiqildi.

Mahbusiy Qamarbonuga:

— Qizlarni chaqir, manovi ahmoqlarni o'z xonalariga olib ketishsin. Hushiga keltirib jo'natib yuborishsin — dedi-da arbob Hanafiyni qo'ltiqlab xonadan chiqib ketdi.

YIGIRMA IKKINCHI BOB

1941-yilning bahori kirib kela boshadi. Har kun ertalab havo sof va tinch bo'lar edi. Moviy ufqlar shishadek top-toza va cheksiz ko'rinardi. Yangi yil bayrami — Navro'z yaqinlashib kelmoqda edi. Shaharda eski yilning oxirgi chorshambasini bayram qilmoqda edilar. Do'kon va bozorlar bo'yalgan tuxumlar, turli kiyimli matolar, qo'li va tirnoqlarini xinaga bo'yagan odamlar bilan liq to'la edi. Faridun bulardan tamoman xabarsizga o'xshardi. U na yaqinlashib kelayotgan bahorni va na bayramni sezardi: uning vaqti ming xil tashvish bilan o'tardi. Goh Aramning, goh Anush xolaning, goh Xovarning holidan xabar olar, goh Kurd Ahmad bilan ko'rishishi lozim bo'lib qolar edi, goh temiryo'l ishchilari va tamaki fabrikasi ishchilari orasiga borish kerak bo'lib qolardi, goh Salimiy, Shamsiya va Sudoba vositasi bilan zindondagilarga yordam berish yo'llarini axtarar edi. Lekin hali ham hech bir ish qilish mumkin bo'lmadi. Salimiy unga bu masala bilan Rizo shohning o'zi shug'ullanayotgani, har kun, har soatda tergov natijalarini so'rab turgani, ichki ishlar ministrligida va zindonlarda vaziyat nihoyatda jiddiyligini bildirdi. Hatto Salimiyning harbiylar orasida eng oliy mavqega ega bo'lgan do'stlari ham bu masalaga aralashishdan bosh tortgan edilar. Bu ahvolda zindondagilarni qutqarish uchun hech chora yo'q edi. Faridun Sudoba bilan Shamsiya orqali biror chora ko'rish to'g'risida o'yladi. Sarhang Safoiy Hikmat Isfahoniyning eng yaqin do'sti edi. Ehtimol, uning ishga aralashuvi bilan o'lim jazosini juda bo'lmasa umrbod surgun bilan almashtirish mumkin bo'lar.

Shu to'g'rida Shamsiya bilan so'zlashmoqchi bo'lgan edi, lekin Salimiy buni maq'ul ko'rmadi.

— Avvalo, Hikmat Isfahoniy foyda chiqmaydigan ishga aralashmaydi, ayniqsa bunaqangi ishlarga aslo aralashmaydi. Ikkinchidan, mabodo xayrixohlik bildirganida ham, hozir bu ishga aral-

ashmaydi. Chunki hozir uning Hakim ul-mulk bilan ham, Rizo shoh bilan ham aloqasi tuzalgani yo'q. Ular Hikmat Isfahoniyning o'zini tutib dorga tortish uchun bahona axtarmoqdalar.

— Xo'sh, Hakim ul-mulk-chi? Ehtimol, uning vositasi bilan ish ko'rish mumkin bo'lar?

— Bee! Sen u tulkini tanimaysanmi? U mansab uchun o'zining barcha qarindosh-urug', butun bola-chaqalarini qurbon qilishga tayyor odam. Ikkinchidan, u ham o'zidan qo'rqadi. Chunki Rizo shoh tushida ham saroy vazirining shoh bo'lishga intilishini ko'radi, hamisha undan shubhalanib yuradi. Hakim ul-mulk ham buni biladi. Buning ustiga, mister Tomasni qo'shsak masala ravshan bo'ladi. Hozir mabodo xohlagan taqdirida ham yuzta Hikmat Isfahoniy bilan yuzta Hakim ul-mulk bu ishga aralasholmaydi. Mister Tomasni sen kichkina odam deb o'ylama. Ingliz... Ingliz u, yigit!.. Bunday o'ylab qarasang faqat inglizlargina emas hali, amerikaliklar, nemislar ham bor... Hozir hammasi birlashgan..

— Shunday, butun dunyoda ahvol shunday!.. Ular o'zaro asl bo'rilar to'dasi kabi bir-birini g'ajib tashlashga hozirlar. Dunyo bozori uchun hech narsadan qaytmaydilar. Lekin ozodlik va demokratiya kuchlarini ko'rsalar darhol birlashib oladilar. Haqiqiy bo'rilar avlodi! Faqat Eronda emas, Xitoyda ham, Yaponiyada ham, Afrikada ham, Hindistonda ham, Amerikada ham ahvol shunday...

— Shuning uchun ham sizning yo'lingiz to'g'ri va sharafli yo'ldir. Men nihoyat shu yo'lni topganim uchun baxtliman... Menimcha, bu bo'rilar, birlashsalar, o'g'rilar va talonchilar birlashsalar, dunyoning barcha nomusli va ozodlikka intiluvchi kishilari ham bir bo'lib birlashib, yuzlarini ozodlikning markazi bo'lgan Moskvaga tutishlari kerak. Boshqa yo'l yo'qdir.

— Biz dushmanlarning bo'htonidan qo'rqmasdan xalqimizga hech qayerda ozodlik Moskvasiz yashay olmaydi, deb aytishimiz kerak!..

Hech qanday natija bermagan hayajon va qayg'ular Faridunni juda holdan toydirdi. Lekin uning kuch-quvvat bilan to'la qalbi tinish nimaligini, hayotdan xafa bo'lish nimaligini bilmasdi. Faridunning qalbi har kuni yangidan yangi hayajon, yangidan yangi

ehtiros bilan tepardi. Faridun shu og'ir tahlikalar qarshisida qalbida yanada ko'proq kuch-quvvat va muhabbat sezardi. Nazarida, shu paytgacha mehnatni, hayotni, odamlarni, do'st va tanishlarini hozirgidek muhabbat bilan sevmaganga o'xshardi. Yuragi hech vaqt ular uchun hozirgidek titramagan edi. Bu muhabbat shunday nozik ediki, tarang tortilgan tor singari sado bera olardi. Uning sevinchi ham shunday kuchli va ta'sirli edi. Butun vujudini qoplagan bu hayajonli va jo'shqin hislar va fikrlar, Salimiy va Shamsiya unga Sudobani eslatardi. Bu unga qiziq tuyulardi. Chunki u Gulnozdan keyin hech vaqt uylanmayman, endi ishq uchun emas, mehnat uchun yashayman deb o'ylardi. Ayni vaqtda Shamsiyaning ham, Salimiyning ham so'zlarini hazil deb hisoblar, bu so'zlar jiddiydir deyish hech aqliga kelmasdi. Lekin u bir narsaga taajjub qilardi. U ham bo'lsa, Faridun bilan uchrashganida Sudobaning hayajonlanishi edi. Qiz uni ko'rganda, o'zgarar, xijolat chekar, qizarardi. Bir og'iz ham gapirmay, jim o'tirardi. Go'yo og'iz ochsa, bema'ni bir narsa deb qo'yayotgandek qo'rqib, indamasdi. Lekin uning oldidan chiqib ketmasdi ham. U bilan birga soatlab bo'lsa ham indamay o'tirishdan tortinmasdi. Bunday minutlar unga yoqar edi. Shu qadar yoqar ediki, u o'zining vaziyati va mavqeiga qaramay, kunda kunora Faridunlarikiga kelib o'tirar, keyin kulimsirab chiqib ketardi. Bularnikiga kelganda, u ko'pincha Rizo Qahramoniy bilan suhbatlashib o'tirardi. Umuman aristokratlarni yomon ko'radigan Rizo Qahramoniy bu qizni yoqtirardi:

— Yo'q, bu qiz undaylardan emas, bu qizda hayotga nisbatan allaqanday sodda va tabiiy qarash bor. Men unda hatto romantik xislatlar bor deb o'ylayman. Ishon, bordiyu bu qiz biror cho'ponni sevib qolgudek bo'lsa, barcha vazirlar, amaldorlar va saroy tantanalarini tashlab, sevgilisi bilan birga ketadi... Hatto nazarimda, u biror ish axtarayotganga ham o'xshaydi. Sen uning ko'zlariga bir qaragin-a... Uning ko'zlari yashamoq, nafas olmoqqa tashna bo'lgan odamning ko'zlari! Bu tashnalik qayerdan? Menimcha, tabiat unga sovg'a qilgan yurak bilan u yashaydigan muhit orasida katta tafovut bor. Uning yuragi bir narsani istaydi. Yashaydigan muhiti esa tamoman boshqa bir narsani beradi. Bu esa unda shu muhitdan qochish, uzoqlarga uchish orzusini uyg'otadi. Tashnalik ham, romantika ham ana shunday.

Faridun Qahramoniyning fikrlari qanchalik chuqurligini sinab ko'rish maqsadida:

— Demak, u biror mojaro axtarar ekan-da? — dedi.

— Unday dema, sen mening gapimga tushunmading. Aksincha, bu qiz yomon odamning qo'liga tushsa hayotini fojiali ravishda tamomlaydi, agar yaxshi odamning qo'liga tushsa, umrining oxirigacha sadoqat va muhabbat bilan yashaydi, mening fikrim shunday. Bu Shamsiya xonimga sira o'xshamaydi, ular boshqa-boshqa odamlar.

Ehtimol, Qahramoniyning fikri to'g'ridir. Ehtimol, Sudoba haqiqatan ham yuqori maqsadlar bilan yashash uchun yaratilgandir. Lekin bularning Faridunga daxli yo'q edi. Uning hayotdagi nasibi boshqa ishlar edi. Bundan tashqari, u hali Gulnoz bilan uchrashaman deb umid qilardi...

Qahramoniy unga bayramning kelib qolganini eslatdi.

— Yur, Sudoba xonimga sovg'a olamiz, axir u bizni chorshanba kuni uyiga taklif qilgan-a, — deb uni sudrab chiqdi.

Nima olish to'g'risida uzoq bosh qotirdilar. Tufli olsakmikan, yo paypoq, yo ko'ylak, deb rosa o'yladilar... Bunday narsalarga Sudobaning ehtiyoji yo'q edi. Uzuk, qo'lqop, sharf-chi?.. Bu narsalarning tuzukrog'ini olish uchun pullari yetmasdi, oddiy va arzonrog'ini olib borishning ham ma'nisi yo'q edi. Xo'sh, nima olib borish kerak? Uzoq o'ylashgach, Faridunning miyasiga ajoyib bir fikr kelib qoldi.

Sudoba ham, onasi ham doim Ozarshahrdan gapirar edilar. Onasi Ozarshahrning go'zalligi, ajoyib ob-havosi, bepoyon mevazor bog'larini ko'p xotirlar, o'sha joyning dog'ini chekardi. Sudoba ham onasining ta'riflariga asosan va onasining vatani bo'lgani uchun Ozarshahrni xayoliy bir muhabbat bilan sevar edi. Ularga Ozarshahr suratini taqdim qilishdan ko'ra yaxshiroq sovg'a bo'lishi mumkin emas edi. Ularni qimmatli narsa bilan hayron qoldirib bo'lmasdi. Ularga ma'noli bir narsa sovg'a qilish kerak edi. Qahramoniy ham bu fikrga qo'shildi. Fil suyagidan doiracha yasatdilar, uning bir tomoniga billur oyna o'rnattirib, ikkinchi tomoniga yashil rangli emal bilan "Ozarshahr bahori" mavzusida rasm ishlatdilar.

— Endi bu tomoniga, oynaning tagiga, fil suyagiga Sudobaning rasmini o'ydiramiz, — deb taklif qildi Rizo Qahramoniy.

Faridun e'tiroz bildirmadi. Borib shaharning eng yaxshi naqqoshlaridan biriga uchrashib maqsadlarini aytdilar.

— Yigirma tumanga boplab beraman, — dedi usta.

Ular savdolashib o'tirmadilar.

— Yaxshi, tayyorlay bering, — deyishdi.

Rizo Qahramoniy sovg'adan juda mamnun edi. "Bu ajoyib sovg'a bo'ladi" dedi u. Uyga qaytib kelishganidan sal keyin Sudoba ham kelib Qahramoniy bilan suhbatlasha boshladi. Faridun ham undan hol-ahvol so'radi. So'radi-yu, so'raganiga pushaymon bo'ldi, chunki qizning yanoqlari bahor g'unchasiday qip-qizarib ketdi. Ehtiros to'la ko'zlarida allaqanday mehribonlik, munislik ko'rinib ketdi. Faridun uni yana kinoga borish yo sayr etish uchun kelgandir deb o'yladi. Lekin qiz Qahramoniyga qarab:

— Sizni mehmonga aytgani keldim, — dedi. — Ertaga chorshanba, onam yubordi. Kelishsin dedi. Sizni ham, og'oyi Faridunni ham...

Faridun javob bermasidanoq Qahramoniy:

— Rahmat. Bunday iltifotdan bosh tortish qiyin, — dedi.

Qiz unga qarab kulimsiradi.

— Bu uncha katta iltifot emas. Onam juda tayinlab yubordi. Borsangiz juda xursand bo'ladi. Ozarbayjonlik biror odamni ko'rsa ko'ngli tog'dek ko'tariladi. Ishonasizmi, eshikka kelgan tilanchilardan ham kimligini surishtiradi. Ozarbayjonlik chiqib qolsa, olib kirib mehmon qiladi. Qayerdan kelgani, nima uchun bunday holga tushganini surishtiradi, yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

Qahramoniy bir unga, bir Faridunga qaradi. Bir narsa esiga tushgandek:

— Sudoba xonim, biz Faridun bilan siz to'g'ringizda ko'p gaplashamiz, — dedi.

Gapning bu tomonga burilishini istamagan Faridun yalt etib Qahramoniyga qaradi. Lekin vaqt o'tgan edi. Qiz bunga qiziqdi:

— Shundaymi? Nimalar deb gaplashasiz?

— Siz juda g'alati qizsiz, tashqi ko'rinishingiz boshqa-yu, o'zingiz boshqasiz. Shu to'g'risida gaplashamiz.

— Uhh, nimalar deyishingizni bilaman!.. Bir marta Faridun bilan bu to'g'risida gaplashganmiz. Men shu paytgacha o'zim-

ning boshqacha bo'lishim mumkinligini ko'z oldimga keltira olmayman. Qanday bo'lsam, shundayman-da. Jamiyatda bo'lishni ham xohlayman. Sizga g'alati tuyulgan jihatlarimni esa onamdan o'rganganman. Hayotimda onamdan ko'ra kattaroq tarbiyachim bo'lgan emas. U mening onam, muallimam va hatto idealimdir.

— Yo'q, men uni aytayotganim yo'q. Men boshqa narsa demoqchi edim, masalan, siz eng kambag'al, eng qashshoq odamni sevsangiz nima qilar edingiz?

Faridun unga yana o'qrayib qaradi, qoshlarini chimirdi. Bu bilan u: "Bo'ldi endi, yetar!" demoqchi edi. Lekin Qahramoniy unga e'tibor bermay, qizdan javob kutib turardi.

Qiz javob o'rniga savol berdi:

— Sizningcha nima qilar edim?

Qahramoniy o'z tasavvurida xato qilmaganiga ishonch hosil qilishga shoshildi:

— Men aytamanki, o'shanda sizni hech narsa to'xtata olmasdi. Hech narsani o'ylamagan bo'lardingiz.

Qiz Faridunga qiya boqdi:

— Faridun-chi, u nima deb o'ylaydi?

— To'g'risini aytsam, uning nima deb o'ylashini bilmayman,— dedi Rizo Qahramoniy. — O'zidan so'rang!

Faridun yuzini chetga burdi. Sudoba esa jiddiy tusga kirdi:

— Men qalb qashshoq bo'lmasin deyman.

Uchalasi ham o'yga toldi.

Nihoyat Sudoba o'rnidan turdi-da, Qahramoniyga:

— Xayr endi, ertaga kutamiz, — deb xayrlashgani qo'lini uzatdi.

Eshikdan chiqib ketayotgandagina Faridunga qarab jilmayib qo'ydi.

— Tabassumini ko'rdingmi? — dedi Qahramoniy, qiz chiqib ketgach. — Go'yo o'n to'rt kechalik oy bulutlar orasidan uyimizga nur sochganday bo'ldi.

Faridun javob bermadi.

Chorshanba kuni Qahramoniy Faridunni zo'rlab Sudobalarnikiga olib bordi.

Qahramoniy o'z xayolida Sudobaning uyini Eron aristokratlariga xos ichkari va tashqarili, atrofi bog'lar va hovuzlar bilan

o‘ralgan dang‘illama hovli bo‘lsa kerak deb o‘ylardi. Sudoba ularga hovlisi kichkinagina to‘rtta xonali uyini ko‘rsatganda, hayratini zo‘rg‘a yashirdi. Qahramoniy “sovg‘ani ber” degandek qilib Faridunni turtib qo‘ydi. Faridun taraddud bilan do‘stiga boqdi:

— Berolmayman.

Qahramoniy uning so‘ziga ahamiyat bermay, Sudobaga dedi:

— Bilasizmi, xonim, biz kambag‘al odamlarmiz. Dunyodagi mol-mulkdan peshonamizga kamroq yozilgan. Shuning uchun sizga munosib biror narsa olib kelolmadik. Holimizga yarasha. Ber, Faridun, uyalma, sovg‘amiz xonimga yoqadi.

Faridun fil suyagini Sudobaga uzatdi. Sudoba benihoyat xursand bo‘lib ketdi:

— Bu menga olamdagi barcha mol-dunyodan qimmatliroq,— deb sovg‘ani onasiga ko‘rsatdi.

— Qanday go‘zal-a!

Ona ularni o‘z bolalaridek mehribonlik bilan qarshiladi. Sovg‘ani ko‘zdan kechirdi. Ozarshahrning manzarasini ko‘rib, ko‘zlariga yosh keldi.

— Bundan ham qimmatliroq narsa bo‘lishi mumkinmi? — dedi u.

U yengini shimarib, dasturxon yozdi. Unga Maryam degan bir kampir ham yordamlashardi. Kechgacha uyda boshqa hech kim ko‘rinmadi. Kechki ovqat tayyor bo‘lgach, Sudobaning o‘zi turib, ovqat olib kelish uchun onasiga yordamlasha boshladi.

— Sudoba xonim, odamni xijolat qilavermang, bu nima ovoragarchilik, — dedi Rizo Qahramoniy.

— Bugun qanday yaxshi kunligini bilsangiz edi!

Faridun hech narsa demasdi. U o‘ychanlik bilan Sudobaga, onasiga, Qahramoniyga qarab xayol surardi. U allaqayerdan qalbiga kirib olib, unda ikki xil tuyg‘u yaratgan hisni bosishga tirishar, bu his uni qayerga olib borishiga aqli yetmas edi. U o‘z vaziyatini, g‘oyib bo‘lgan Gulnozni, o‘zining og‘ir kurash yo‘lini bir-bir xayolidan o‘tkazar va Sudobaning romantik xayollari, sodda orzularining yaxshilikcha tugashiga shubha qilardi. Ayni vaqtda undan ajralib ketish, munosabatlarni uzib ketish ham qo‘lidan kelmas edi.

* * *

Rizo Qahramoniy odati bo'yicha ertalab barvaqt turib kiyindi. Dahlizga chiqib devorga osilgan qo'l yuvgichda yaxshilab yuvindi. Uyga kirib, kecha to'latib qo'ygan termosdagi choydan stakanga quydi, choyga qand solib bir burda non bilan ichdi-da, chiqib ketdi. Yarim kechagacha ishlagan Faridun hali uxlab yotar edi. U o'rtog'ining vaqtli turishiga odatlanib qolgan, uning oyoq tovushlariga uyg'onmas edi. Uning uy ichida u yoq-bu yoqqa yurganini, choy ichganini uyqu aralash sezsa-da, uyqusi bezovta bo'lmasdi. Rizo Qahramoniy ham hech vaqt uyda taraq-turuq qilmas, o'rtog'ini uyg'otib yubormaslik uchun oyoq uchida yurar, boshqa ishlarini ham tovush chiqarmaslikka tirishib, ehtiyotlik bilan bajarardi. Bugun ham kundagidek eshikni ohista yopib, Tehronning hali bo'm-bo'sh bo'lgan ko'chalaridan shaharning temiryo'l stansiyasiga yo'l oldi.

Uning fikr-u xayoli Sarxon bilan band edi. U Sarxonni juda sevardi. Tehronga kelganida dastlab tanishgan kishisi ham shu Sarxon edi. Tehron deposida birinchi ta'mirlagan parovozi Sarxonning parovozi edi. U Rizo Qahramoniy bilan birinchi ko'rishishdayoq do'stlashib ketgan edi.

— Barakalla, usta, — dedi Sarxon o'shanda, — yosh bo'lsang ham bosh ekansan, qo'ling oltin ekan. Menda bir yomon kasal bor — o'z ishiga mohir odamni ko'rsam jonimni berib yuborgim keladi! Ish o'z ustasidan qo'rqadi, chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin, deb eskilar bilib aytgan-a? Shundaymi, usta?

— O'zing ham usta odamga o'xshaysan, — dedi Rizo Qahramoniy unga kulimsirab qarab, — ustaning ishini usta odamgina qadrlaydi.

— To'g'ri so'zning sadag'asi ketsa arziydi. Nasib qilsa, bir kun seni parovozda Bandarshohga uchirib oboraman... Mozandaron o'rmonlari ichida to'xtatib, bitta qo'zini so'ydirib yangi go'shtdan kabob qilib beraman. Bir ryumkadan konyak ham uramiz. Keyin parovozimizga o'tirib yana g'izillab qaytamiz. Mening qanday mashinist ekanimni ana o'shanda bilasan.

U Rizo Qaqramoniyning Tehronga yaqinda kelganini va hech kimni tanimasligini sezib qolib:

— Juma kuni biznikiga boramiz. Musofir ekansan. Bir onam-u, bir xotinim bor, xolos. Tanishasan, bir stakan, bir stakan choy ichamiz, — deb uyiga taklif qilgan edi o'shanda.

Shu tarzda, borgan sari ular bir-birovlari bilan do'stlashib ketgan edilar. Keyinchalik, u yangi odamlar bilan ham do'stlashdi, hozir esa o'shalardan maxfiy to'garak tuzilgan edi...

Sarxon ko'pincha yo'lda bo'lgani tufayli tashkilotning topshirig'ini Rizo Qahramoniy orqali olar va bajarardi. Viloyatlardagi temiryo'l ishchilari orasida ishlash, Tehron bilan Mozandaron orasida aloqa o'rnatish va kitoblarni ularga yetkazib berish vazifasi Sarxonga yuklangan edi.

U Go'rgon, Shohi, Bandarshoh va Mozandaronning boshqa shaharlarida eng ishonchli odamlardan bir necha kichik-kichik jamoalar tuzgan edi. Bu jamoalarning har biri besh-o'n kishidan iborat bo'lsa ham, lekin a'zolarning hammasi mard va sadoqatli kishilar edi.

Rizo Qahramoniy erta bilan barvaqt Tehronning yangi vokzaliga yaqinlasharkan hamon fikri Sarxonda edi, chunki Sarxon bu safar nima uchundir kechikkan edi, bundan besh kun ilgari qaytib kelishi kerak bo'lsa ham, undan hamon darak yo'q edi. Rizo Qahramoniyning xayoliga har xil yomon fikrlar kelardi. Sarxon ikkinchi kitobchadan viloyatlardagi jamoalarga tarqatish uchun ikki yuz nusxa olib ketgan edi. "Parovozdan kitobchalarni topib olishdimikin? — deb o'ylar edi xavotirlanib Rizo Qahramoniy, — yo kitobchalarni o'rtoqlarga berayotganda qo'lga tushib qoldimikin?"

U vokzalning katta binosidan o'tib, relslar ustidan hatlab, depoga tomon yo'naldi. U atayin strelkachi Rustamning do'koni oldidan o'tdi. Ota-bobosi tehronlik va kambag'al o'tgan Rustam ishonchli odam edi. Rizo Qahramoniy Sarxonga biror gapi bo'lsa, ko'pincha Rustam orqali aytardi.

Tabiatan kamgap, doim qosh-qovog'ini solib yuradigan Rustam Rizo Qahramoniyni ko'rishi bilanoq bosh chayqab, indamay kirib ketdi. Bu Sarxonning hali ham qaytmaganini bildirar edi. Rizo Qahramoniy endi to'g'ri depoga ketdi. Ishchilar sekin-asta yig'ilishardi. Sharq tomondan quyosh endi chiqib kelar-

di. Quyosh nurini to'sib qolayotgan parcha-parcha bulutlar suzib yurardi. Ora-sira quyosh nuri ular orasidan o'tib, atrofni yoritardi. Bu ora-chora yerga tushib turgan quyosh nurlari go'yo og'ir va toliqtiruvchi ish kunining boshlanishidan darak bermoqda edi. Qirq yamoq kiyim-boshlarini temir zangi va kir bosgan ishchilar sekin-asta ish boshlab yubordilar. Ular deponi tozalashar, ustalarning ko'rsatmasiga muvofiq parovozlarning biror qismini joyiga qo'yar, yoki ajratib olar edilar. Rizo Qahramoniy ham uch kundan beri ta'mirlayotgan parovozining oldiga keldi.

Shu mahal vokzalga kirib kelayotgan bir parovozning cho'ziq qichqirig'i eshitildi. Rizo Qahramoniy ishini to'xtatib, hayajon bilan uning eshigiga chiqdi-da, vokzal tomonga qaradi. Hech narsani ko'rmay qaytib yana ishga tushdi.

Bir soatdan keyin Sarxonning kochegari depoga kirdi, u ishchilar bilan salomlashib, Rizo Qahramoniyning oldiga keldi:

— Ha, usta, horma! Salom!— dedi u.— Ahvollar qalay, kayfing chog'mi?

— Rahmat, salomat bo'l, ishlarimiz yaxshi. O'zlaringiz tinchmisiz? Safaringiz juda cho'zilib ketdi? Salomatlikmi?

— Salomatlik bo'lmay nima bo'lardi. Qaytishda parovozchamizning Safid Rudda biroz tobi qochib qoldi, besh kun qolib ketdik.

Rizo Qahramoniy yengil nafas oldi.

— Odam ham betob bo'lib qoladi, — dedi u kulib, — parovozning betob bo'lishiga taajjublanmasa ham bo'ladi.

Kochegar ketar ekan sekingina:

— Sarxon sen bilan o'rtog'ingni Rustamnikida kutmoqchi, — dedi-da, ishchilar bilan xayrlashdi. Rizo Qahramoniy o'rtog'ining Faridun ekanini bilardi. Bu Sarxonning ular bilan muhim ish to'g'risida uchrashmoqchi ekanini ham bildirardi.

Kechqurun qosh qoraygach, Qahramoniy Faridunni olib Rustamnikiga jo'nadi.

Rustam Tehronning janub tarafida, Xonobod xiyobonida, bir-biriga ulanib ketgan, rutubatli havosi, tor ko'chalari va katalakdek kichkina-kichkina hovlilari bilan kishini diqqinafas qilib yuboradigan joyda yashardi.

Bu rayonni qishin-yozin kishining ko'nglini aynitadigan qo'lansa hid tutgan edi. Devorlarning osti najosat, katalak hovlilar esa ko'lmak suvlar va axlatlar bilan to'la bo'lardi. Tongdan kun botguncha bu yerlarda yarim-yalang'och, oyoqyalang bolalar o'ynab yurishar, holsizlangan, qo'lsiz-oyoqsiz va qari-qartang tilanchilarning oyog'i uzilmasdi. Shahar mehnatkashlarining eng kambag'al tabaqalari shu yerda yashardi. Bu yerga har kelganida Faridunning yuragi siqilar, esini tanigandan to qabrga borib tushguncha muhtojlik va qashshoqlikning chiqib bo'lmas botqog'i bo'lgan bu yerda tirikchilik qilishga majbur bo'lgan odamlarning holiga achinardi. Bu uning qalbini egallab yotgan kurash hissini yanada avjlantirib yuborardi, nima uchun kurashish lozimligini yanada yaxshiroq tushunardi.

Rustamning joyi kichkina uyning yerto'lasida edi. Ko'cha eshikdan kirgandan keyin so'l tarafga burilish va besh qadamcha yurgach, tor pillapoyadan ikki bukilib pastga tushish va o'raga o'xshagan uyga kirish lozim edi. O'zining xotini va bir-biridan yosh to'rt bolasi bilan Rustam shu qorong'i va zax yerto'lada turardi.

G'isht polning ustiga uchta-to'rtta uzuq-yuluq namatlar tashlab qo'yilgandi. Gilam parchalarining rangi o'chib, titilib ketgani uchun uning qanday rangda bo'lganini ham, o'zining nima ekanligini ham ajratib olish qiyin edi. Bu esa ularning arzon garovga olinganidan darak berardi.

Uyning to'rida tunukalari ko'chgan, bo'yog'i o'chgan bir sandiq turardi. Sandiqning ustiga eski-tuskilardan qilingan ikkita-uchta yostiq bilan uvadasi chiqqan ko'rpa-to'shak yig'ib qo'yilgan edi.

Ular ichkari kirishganda Rustamning xotini boshidagi qora ro'molining bir uchini tishlagan holda yuzining bir qismini yashirib, devor tagida turar edi. To'rttala bolasi ham qosh qoraya boshlagach, onasining qanoti ostiga to'planadigan jo'jalar singari uning etagiga yopishib olgan edilar.

Faridunning ko'zi oldiga butun mamlakatdagi son-sanoqsiz oilalarda tug'ilgan ana shunday och-yalang'och bolalar keldi. Ularning juda ko'p qismi ochlik va sovuqdan o'lib ketar, ming xil kasalliklarga bardosh berolmay jon berardi.

Ularni dunyoga keltirar ekan, ota-onalari ham go'yo nima bilan boqish, qanday katta qilish, qanday tarbiyalash lozimligini o'ylashmaydiganga o'xshardi. Go'yo bu bolalar ko'r instinkt, allaqanday tavakkalchilik natijasida tug'ilar, yashagani yashab, qolgani esa o'lib ketardi. Hozir xayolidan o'tgan manzaralar unga Musa akani va uning o'z bolalari to'grisidagi og'ir tashvishlari, zo'r orzularini eslatdi. Yo'q, o'z avlodiga yaxshilik sog'inmaydigan bironta ham oila topilmaydi. Lekin ularning yoqasidan tutgan qashshoqlik va muhtojlik shu qadar bo'g'ib qo'ygan ediki, natijada taqdirga tan berib tavakkalchilik bilan yashashdan boshqa chora qolmagan edi.

Kishini ezib tashlaydigan bu fikrlarni o'zidan uzoqlashtirish uchun Faridun yerto'lani ko'zdan kechira boshladi. Devordagi mixga osilgan kichkinagina chiroq uyga xira yorug'lik berar, bolalarning soyasini xunuk va beso'naqay qilib ko'rsatardi. Faridun uyning bunday og'ir ta'sir qoldiruvchi ahvoliga achinishini yashirmoq uchun onasining pinjiga kirib hurkak nazar bilan kelgan mehmonlarni boshdan-oyog'igacha ko'zdan kechirayotgan to'rt-besh yoshlar chamasidagi qizchaning qo'lidan ushladi-da:

— Oting nima, gul qizim? — deb so'radi.

Qizcha lablarini qimirlatib allanarsa deb pichirladi. Faridun yana nimanidir so'ragan edi, qiz yana allanima deb javob berdi. So'zini tushunib bo'lmadi. Barcha onalar singari bolasining yaxshilab javob berishini istagan va xayajonlangan ona mehribonlik bilan:

— Biroz tuzukroq javob beraqolsang-chi, qizim, — deb bolasining boshini siladi.

— Tilini mushuk yeb qo'yganga o'xshaydi,— dedi Rustam mehribonlik bilan jilmayib.

Faridun Rustamning muhabbat to'la tabassumini ko'rib va onaning mehribon tovushini eshitib: "Bolalariga juda mehribon oila ko'rinadi" — deb o'ylab boshqa bolalarning ham boshini siladi.

— Kattasi necha yoshga kirdi? — deb so'radi Rustamdan.

Rustam to'ng'ich o'g'lini ko'rsatdi:

— Sakkiz yashar-u, uch oylik bo'ldi,— dedi g'urur bilan. — Oilamizga tayanch, yov boshiga to'qmoq!

Ishda, ko'chada, doim qovog'i soliq va indamas bo'lgan Rustamning oilasida juda mehribon ota ekanini ko'rgan Rizo Qah-

ramoniyning unga bo'lgan muhabbati yanada ortdi. Kim biladi, ehtimol, bu hayotning og'irligini yengillashtirishdagi eng yaxshi usuli shudir.

Faridun esa hamon bolalar bilan band edi:

— Maktabga boradimi?

— Qanday qilib boradi?— dedi Rustam soddadillik bilan.— Maktabga borishi uchun pul kerak, kiyimbosh kerak. Qorinlarini zo'rg'a to'yg'izaman. Maoshim oyiga yagirma besh tuman. Bir amallab yarim och, yarim to'q tirikchiligimizni o'tkazamiz.

Erining mehmonlar oldida bunday shikoyat qilishidan norozi bo'lgan xotin:

— Bo'ldi, dadasi, og'olar tilanchilik qilyapti deb o'ylashmasin. Xudoga shukur, bir burda non topib turipmiz, — dedi.

Rustam Rizo Qahramoniyga qarab ko'zini qisib qo'ydi:

— Ko'rdingmi, xotinimning ori keldi. Qo'rqma xotin, bular sen o'ylagan og'olardan emas. O'zimizning odamlar. Ko'ngillariga yomon gap kelmaydi. Bolam bitta bo'lsa indamasdim, bir narsa desam uyat bo'lardi. O'zing har yili tug'averganingdan keyin gapirmay bo'ladimi?

Xotin ro'molini sal ko'tarib, jilmaydi:

— O'z ixtiyorimda emas-da, Xudo bersa nima qilay?

— Men nima deyapman? Men ham Xudo beradi deyapmanda. Xudo ham har yili beraveradi, keyin qornini to'yg'az, egnini but qil deyaverasan.

Xotin ishonch bilan:

— Ko'p tashvish qilavermang, qornini bergan, nasibasini ham o'zi yetkazadi, — dedi.

— Yetkazadi-ya, yetkazadi! Agar osmondan bitta sariq chaqa tashlasa otamga la'nat? Uyga bir burda non topib kelguncha o'lib bo'laman.

Oilada hayotning og'irligidan sira shikoyat qilmaydigan Rustamga o'zining o'rinsiz hazili bema'ni tuyuldi. U o'zini tutib vazminlik bilan gapirdi:

— To'g'ri aytasan, tashvishlanishga arzimaydi. Tanim sog' ekan, sizlarni och qo'ymayman. Qani, choy qo'y...

Shu payt bitta katta xalta orqalab Sarxon kirib keldi-da:

— Qani topingchi, kimni olib keldim? — deb shovqin soldi.

U keng yelkalari bilan allakimni yashirib turardi.

Har kim bir kishi nomini atar ekan, Farida bir sakrab o'rtaga chiqdi:

— Salom, og'olar, ahvolingiz qalay?

Hamma xursandlik bilan ko'rishishar ekan, Sarxon yelkasidagi xaltani yerga qo'ydi.

— Madina opa, — dedi u, — bu ozroq guruch, go'sht, yog'. Bolalaringizga olib kelgan edim.

Rustam xaxolab kulib:

— Sizlar ketganingizdan keyin: qornini bergan, rizqini ham beradi demabmidim deb yoqamdan oladigan bo'ldi,— dedi.

— Hech kimning sovg'asi emas, o'z halol pulimga olganman.

Madina minnatdorlik bilan:

— Rahmat, Xudo davlatingni ziyoda qilsin,— dedi.

Farida ham mayiz, bodom mag'izi va qovurilgan no'xot solingan qutichani bolalar oldiga qo'yib:

— Ozarbayjondan sovg'a!— dedi.

Madina bilan Rustam unga rahmat aytishdi.

— Xo'sh, qalay borib kelding, qahramon xonim? — deb so'radi Faridun.

Sarxon Madinaga qarab:

— Madina opa, xotinim juda gapni cho'zadigan, boshlamasidan menga bir stakan achchiqqina choy ber,— dedi.

Farida unga qiya boqdi:

— Mulla palovsiz turolmagandek, u ham choysiz turolmaydi. Lekin Madina opa, birinchi stakan qanday achchiq bo'lsa o'ninchi stakan ham o'shanday achchiq bo'lishi kerak.

— O'n beshinchi stakani ham achchiq bo'ladi, — deb samovar oldiga bordi Madina,— hozir qaynaydi, damlab beraman.

Farida shoshib-pishib hayajon bilan o'z sayohati, kitobchaning Tabriz xalqiga qanday ta'sir qilgani to'g'risida gapira ketdi.

— Hammayoqqa tarqatdik. Non zavodi bilan gugurt fabrikasi ishchilariga o'zim olib bordim. Hatto nemislarning gilam to'qish fabrikasidagi ishchilarga ham berdim.

Madina choy keltirdi. Hammaga bir stakandan choy quydi.

Sarxon issiq xushbo'y choyni tarelkaga quyib, puflab-puflab ichdi:

— Jonim kirdiya! Madina opa, yana bir stakan bering.

Ikkinchi stakandagi choyni ham tarelkaga quyib ichar ekan, o'z ishlaridan gapira boshladi. U kitoblarni eng ishonchli odamlar orqali Mozandaronning shahar va qishloqlariga tarqatgani, jamoa boshliqlari bilan uchrashgani va ularni nimalar qiziqtirishini gapirib berdi.

— Joylarda ishchilarni qamoqqa olishlar ham yuz bermoqda. Baxtimizga, qamalganlar orasida birorta ham bizning kishilardan yo'q. Hammasi ham shubha bilan qamalgan yoki tirikchilikdan shikoyat qilgan odamlar. Qamalganlar orasida ayniqsa ozarbayjonliklar ko'p. Chunki yersizlik, boshpanasizlik ularni yanada isyonkorroq qilib yuborgan.

— Nahotki, o'sha tomonlarda ham ozarbayjonliklar bo'lsa? deb so'radi Faridun qiziqib.

— Ular qayerda yo'q deysan?! Men Ahvozdan tortib Bandarshohgacha Eronning barcha hududlarida bo'lganman. Qayerga borsam ham ish va bir burda non axtarib darbadar kezib yurgan ozarbayjonlik dehqonlarga, ozarbayjonlik qashshoqlarga duch keldim. Temiryo'l ishchilarining yetmish foizi ozarbayjonliklar desam yolg'onchi bo'lmayman. Ularni na nazarpisand qiladilar, na insonlardek munosabatda bo'ladilar...

— Qamoqqa olishlar hali ham davom etyaptimi?

— Uzluksiz davom etyapti. Men bizning odamlarga qamalganlarning ozod qilinishi uchun kurashinglar deb topshiriq berdim. Ishchilarning o'zlarini shu ishga tortish kerak.

— Faqat ehtiyot bo'lish sharti bilan,— dedi Faridun, — hozir biz juda ehtiyot bo'lishimiz kerak. Endi boshqa qurbon berishdan chekinib, kuchlarimizni to'plashimiz, zo'r kurashga tayyorlanishimiz lozim!

— Men sizlarni xuddi ana shuning uchun bezovta qildim. Mozandaronlik o'rtoqlarning ko'pi Tehronda, yoki biror boshqa qulayroq joyda viloyatlik o'rtoqlarning markazdagi o'rtoqlar bilan uchrashuvini uyushtirishni taklif qildilar. Kelajakdagi vazifalarimiz, hozirgi ish usullarimiz to'grisida gaplashib olsak deydilar.

Faridun xayolga cho'mdi. Bunday yig'inning hozir juda xavfli ekannni xayolidan o'tkazdi...

— Bu yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin, — dedi u. — O'rtoqlarning bir qismi qamoqda ekan, vakillarni yig'maganimiz ma'qul. Biz joylardagi o'rtoqlar bilan yanada yaqindan aloqa bog'lashga harakat qilishimiz lozim, ularni mustahkamlashimiz kerak. Shunday ish tutaylikki, hukumat yong'inning qayerdan boshlanishini bilmay qolsin. Ayni vaqtda har yerda: har viloyat, har shaharda odamlarimiz bo'lsin. Aqalli, irodali va sharoitga qarab o'z ish usulini topa oladigan odamlar bo'lsin. Kurashimizning oqibati ana shunga bog'liq.

Ular ancha vaqtgacha gaplashib o'tirdilar. Umumiy ishlarga doir gap tugagach, Sarxon Faridunga:

— Men sizlar bilan yana bir ish to'g'risida maslahatlashmoqchi edim, — dedi. — Bizning xotinchani biror yerga ishga joylasak yaxshi bo'lardi. Nima deysizlar, ishchi ayollar orasida bo'lsa yomon bo'lmas deyman? Shundaymi, Farida?

Farida mehribonlik bilan eriga tikildi:

— O'zim ham anchadan beri shuni o'ylab yurgan edim. Ammo sizga aytgani qo'rqqan edim.

— Qo'rqma, xotin. Ozodlik yo'liga xizmat qiladigan fikr bo'lsa aytaver, jonimni ham ayamayman.

Faridun ham Faridaning ishlashi to'g'risidagi fikrga qo'shildi. Unda ishchi ayollar bilan Farida orqali bevosita aloqa bog'lash mumkin bo'lardi.

— Juda yaxshi fikr, lekin bu keyingi masala. Ish topish juda mushkul-da!

— Hammamiz axtaramiz, — deb o'rnidan turdi Rizo Qahramoniy, Faridun uning qo'lidan ushladi:

— Mening ham bir maslahatim bor, o'rtoqlarning fikrini bilmoqchiman, — dedi u.

Hamma unga savol nazari bilan qaradi:

— Lekin mening gapimni to'g'ri tushuninglar. Men qo'rqayotganim yo'q, lekin ehtiyot shart.

Kelganidan beri hazildan to'xtamagan Sarxon:

— Qani, bo'l, maqsadingni ayt, sening mardligingni birinchi kuniyoq ko'rganman, — deb kuldi-da, Faridaga ko'z qisdi. Farida erining pinjiga tiqildi.

— Agarda uning mardligi bo'lmasa, tuzalmagan bo'larding.

Faridun Rizo Qahramoniyga qaradi:

— Agar o'rtoqlar maslahat ko'rishsa, men boshqa biror joyga ko'chsam, — dedi.

Rizo qat'iy etiroz bildirdi:

— Bo'lmagan gap, hech qayerga yubormayman. Nima bo'lsak, ikkalamiz birga bo'lamiz...

Sarxon jiddiylashdi:

— Shoshma, usta. Faridun to'g'ri aytyapti. Ertaga unga joy topish mening bo'ynimga.

Turib tarqalishayotgan paytda, Rustamning bolalari devorga qisilishib uxlab yotishardi. Butun suhbat paytida Faridun ulardan ko'z uzmadi. Ular uchun yaratmoqchi bo'lgan baxtli hayotning ko'rinishlari va bugungi qashshoq hayotning ayanch manzaralari ko'z oldidan bir-bir o'tdi. Go'yo tumanlar, to'fonlar orasida go'zal tong otardi. Ufq goh qorayar, goh oqarardi.

* * *

Faridun Kurd Ahmad va Aram bilan navbatdagi uchrashuvdan uyga qaytib kelganda, Rizo Qahramoniy uni o'tirgani qo'ymadi:

— Yur tezroq, ketdik, — dedi u,— hozirgina Sudoba xonim kelib ketdi. Onasi qattiq og'rib qolibdi. Zotiljam bo'lib qolibdi, alahlayotgan emish. Bizni ko'rmoqchi bo'layotgan emish, yur tezroq.

Faridun e'tiroz bildirmoqchi bo'ldi. Lekin Qahramoniy unga so'z bermadi:

— Nimalar deyapsan o'zing? Shunday kunda bormasa bo'ladimi?

Ularni Sudobaning o'zi qarshi oldi. Haqiqatan ham Sudoba ozib ketgan, ranggi siniqqan edi. Faridun bilan Qahramoniyni ko'rar ekan ko'zlari yoshlandi:

— Bundan ikki kun burun isitma tuta boshladi. Ustlarini yaxshilab o'rab yotqizib qo'ydim. Doktor chaqirtirdim, bo'lmadi. Shamollab zotiljam bo'libdilar. Har kuni kechasi alaxlab chiqadi. Tong otguncha tepasida o'tirib chiqaman. Xudo ko'rsatmasin, bir ish bo'lib qolsa, unda men...

Qizning tili tutildi, gapini oxiriga yetkazolmadi. Faridun bilan Qahramoniyni boshlab onasi yotgan xonaga olib kirdi. Bemor

boshini o'girib ularga qaradi. Ko'zlarida sevinch ko'rindi. Yigitlar hol-ahvol so'rashdi.

— Qarib qoldim, bolalarim, — dedi ayol.— Endi o'laman!

Buni eshitgan Sudoba boshini uning yostig'iga qo'yib, ho'ngrab yig'lab yubordi. Onasi qoqsuyak bo'lib qolgan qo'li bilan uning sochlarini siladi:

— Nega yig'laysan, qizim, o'lim haqdir. O'lim har kimning ham boshida bor. Yig'lama! Bor endi, biroz damingni ol, kechasi bilan uxlaganing yo'q.

— Uyqum kelayotgani yo'q, hech qayoqqa bormayman, — dedi Sudoba.

Xotin Faridunga o'girildi. Uning qarashida, chehrasida, butun harakatlarida odatdan tashqari jonlilik bor edi.

— O'g'lim Faridun, — dedi u, — bizning tomonlarda hozir bodom gullagan bo'lsa kerak. Ko'p o'tmay o'rik ham, olma ham gullaydi. Majnuntollar ham bargak yozayotgan bo'lsa kerak... U yerlarni men ko'p yillardan beri ko'rganim yo'q! Bilmadim, yigirma yil bo'ldimi, o'ttiz yilmi.

U yillarni sanay boshladi. Bemorligi xalal berib aniq hisoblay olmadi.

— Onajon, yigirma yil bo'ldi, — dedi Sudoba.

— Ha, yigirma yil bo'lsa kerak. O'shanda sen bir yashar eding. O'sha vaqtda ham endi bodom gullay bashlagan edi...

U jim bo'ldi, qaqroq lablarini yaladi. Yuzidagi ajinlarining bir-biriga qo'shilib ketayotganidan uning allaqanday azob beruvchi fikrlarni boshidan kechirayotgani ko'rinib turardi.

U yana Faridunga murojaat qildi:

— Faridun, o'g'lim, nega gapirmaysan? Gapir, biroz o'sha tomonlar to'g'risida gapirib ber. Axir, Vatanimiz-ku! Vatanga keldim — imonga keldim, degan gapni eshitmaganmisan? Yana bitta yaxshi bayt ham bor, rahmatlik otam o'qib berguvchi edi. Hozir yaxshi esimda yo'q, yo olti yashar yo yetti yashar edim. Rahmatlik otam yaxshi baytlarni bilardi. Xudoning qobiliyatli bandasi edi. Kishining dilidagi gapni topadigan odam edi. Ha, nimalar deyayotgan edim?.. Nima to'g'rida gapirayotgan edim?

— Vatan to‘g‘risidagi baytni gapirayotgan edingiz, — dedi darhol Rizo Qahramoniy.

— Ha, yaxshi bayt u... Mana eshiting, — u baytni esiga tushirish uchun bir nafas o‘yladi. Esladi, shekilli, ko‘zlari porlab ketdi:

“Azizim, Vatan yaxshi,
Kiymoqqa katan[1] yaxshi,
Kezmoqqa g‘urbat o‘lka,
O‘lmoqqa Vatan yaxshi!..”

deb, ashula aytgandek ta’sirli o‘qidi, shunday ta’sirli, shunday dard bilan o‘qidiki, Faridunning ham, Qahramoniyniig ham ko‘zlariga yosh keldi. Xotin so‘nggi misrani takrorladi:

— O‘lmoqqa vatan yaxshi!..

U birdan to‘lg‘onib qaddini ko‘tarmoqchi bo‘ldi.

— Meni vatanimga olib ketinglar, — dedi u. — O‘lar vaqtim yaqin qoldi. Azroil eshikni taqillatyapti. Qizim Sudoba, o‘g‘lim Faridun, meni vatanga olib ketinglar... Bu zindondan qutqaringlar meni. Hech bo‘lmasa o‘z Vatanimda o‘lay. Tepamga qo‘ni-qo‘shnilar yig‘ilsin, engagimni o‘z qarindoshlarim bog‘lasin... olib ketinglar!....

Bemor ingrab yostiqqa yiqildi-da, o‘zidan ketdi. Sudoba ho‘l ro‘molcha keltirib, uning peshonasiga bosdi. Ko‘z yoshlarini tiya olmay, kasalning boshiga bosh egib yig‘ladi. Bularning hammasi Faridunga ham, Qahramoniyga ham bir xayolday tuyular, yurakni ezib yuboradigan darajada ta’sir qilardi.

Ularning ikkalasi ham bu bechora xotinning achchiq taqdiridan xabardor bo‘lishlariga qaramay, bir og‘iz so‘z aytolmadilar, uning yuragidagi dardini bo‘shatayotganini sezib, indamay o‘tirardilar.

Birozdan so‘ng u yana o‘ziga kelib ko‘zini ochdi. Sudobaga qaradi, uning ko‘zidan o‘pib, bag‘riga bosdi:

— Bor, go‘zal qizim, o‘z xonangga borib, bir nafas orom ol! — dedi u mehribonlik bilan.— Men esa o‘g‘illarimga bir-ikki og‘iz gapirmoqchiman... Bor!..

Sudoba o‘rnidan turdi, onasining qo‘lidan o‘pib, chiqib ketdi. Onasi uning orqasidan qarab qoldi. U chiqib ketgach, bemor Fari-

[1] **Katan** — polotno.

dunga eshikni imlab ko'rsatdi. Faridun eshikni yopib kelib joyiga o'tirdi.

— Faridun, o'g'lim! — deb gap boshladi ayol zaif tovush bilan. — Sen mening o'g'limsan. Sen halol sut emgan yigit ko'rinasan. Xudoga ming martalab shukurki, mening yolg'iz bolamni sendek yigit bilan uchrashtiribdi. Bu yerda o'tirgan mana bu yigit ham, — deb Rizo Qahramoniyni imlab ko'rsatdi u,— mening o'g'limdir. U ham yaxshi odamlarning bolasi ekanligi ko'rinib turibdi. Quloq soling, bolalarim, men endi turmayman, buni aniq sezyapman. Tushimda ham ko'rdim, endi yostiqdan boshimni ko'tara olmayman. Quloq solinglar, sizlarga aytadigan gapim bor.

Bemor chuqur nafas oldi-da, so'zida davom etdi:

— Sudoba Hakim ul-mulkning qizi emasligini bilasizlar. Uning otasi o'z vatandoshimiz, o'z elimizdan edi. Baland bo'yli, kelishgan va oliyjanob kishi edi. U bu bangiga o'xshamasdi, bunga o'xshab yuzidan zahar tommasdi. U meni juda yoshlik chog'idayoq ko'rib, yaxshi ko'rib qolgan edi. Meni nihoyatda sevar edi. Men u bilan birga qochib ketganimda o'n sakkiz yoshda edim. Ko'p o'tmay Sudoba tug'ildi. U paytda zamon notinch edi. O'shanda Tabrizda Shayx rahbarligida qo'zg'olon ko'tarildi. Sudobaning otasi ham qo'zg'olonga qo'shildi. U Shayxdan keyingi birinchi odam, Shayxning o'ng qo'li edi. Tabrizda ozodlik e'lon qilindi. Kecha-kunduz qurol ko'tarib ko'chalarda yurardilar. Bu yaramas shahar Tehrondan ular ustiga qo'shin yuborildi. Hakim ul-mulk ham shohning qo'shini safida edi. U paytda Hakim ul-mulk hozirgidek bangi emasdi. Hali ancha sog' edi. Kelib biznikilarga qarshi urush ochdilar. Shunda Hakim ul-mulk Sudobaning otasi qo'liga asir tushib qoladi. U esa buning chap qulog'i bilan mo'ylovini qirqib, qo'yib yuboribdi: "Bor, Tehronga jo'na, seni yuborganlarga salom ayt!" debdi. Oxiri mahalliy boylar til biriktirishib Shayxni o'ldirdilar. Mening erimni ham qo'lga tushirdilar. Bu ayyor tulki uning boshini kestirdi. Jasadini Shayxning jasadi bilan birga Tabriz ko'chalarida sudrab yurdilar. Bu ham kamlik qilganday, qora guruhchilar har biri bir mujdahidning (Mujdahid — ozodlik uchun kurashuvchi; dastlab shunday nom bilan 1907–1911-yillardagi xalq ozodlik harakati qatnashchilarini

atadilar. Bularga Tabrizda mashhur Sattorxon rahbarlik qilgan edi) xotinini zo'rlik bilan o'ziga xotin qilib oldi. O'sha paytda men ham shu zindonga tushib qolganman, bolalarim. Endi esa bu ablah bangi qizimga ko'z olaytirib yuribdi!... Itning xayolidan yog'liq suyak o'tgandek, buning fikridan Sudoba o'tadigan bo'lib qolgan. Men buni sizlarga mening Sudobamni himoya qilinglar deb aytib beryapman. Uning bu dunyoda hech kimi yo'q!..

Ayolning nafasi qisib qoldi. Lekin ko'ziga yosh kelmadi, Faridun bilan Qahramoniy zo'r hayajon ichida jim o'tirar edilar. Suyaklari turtib chiqqan bu ayolga nisbatan mehrlari yanada ortgan edi. Faridun hech narsa deya olmadi.

— Xotirjam bo'ling, xola, jonimiz tanimizda ekan Sudobani ko'z qorachig'imizdek saqlaymiz, — dedi Rizo Qahramoniy.

Sudoba eshikni ochdi. Onasi uni chaqirdi:

— Kel, qizim, kelaqol!

Qiz kelib avvalgi joyiga o'tirdi. Yana onasining peshonasini ushladi. Ona qiziga qaradi:

— Men oxirgi minutlarimni kechiryapman, — dedi u zo'rg'a. Bundan keyin sizlarni bezovta qilmayman. O'lsam, hech bo'lmaganda, suyaklarimni Ozarshahrga olib borib, o'sha yerga ko'minglar. Vatanim tuprog'ida rohatlanib yotay.

U boshqa hech narsa demadi. Vidolashgan kabi tepasida o'tirganlarga bir-bir qaradi-da, ko'z yumdi.

Allamahal bo'lib qolganda Faridun o'rnidan turdi. Qahramoniy ham ko'tarildi. Sudoba ularga joy hozirlab qo'yganini bildirdi, vaqt kech bo'lib qolgani uchun tunab qolishini so'radi. Qahramoniy qolishga rozilik bildirdi. Faridun esa ertaga vaqtli turishi kerakligi, zarur ishi borligini bildirib uzr so'radi-da, qalbini ming xil his, miyasini ming xil xayol to'ldirgan holda chiqib ketdi...

YIGIRMA UCHINCHI BOB

Ayoz besh qironli pulni qo'liga ushlagan holda yelkasini qisib, sovuqdan dir-dir titrab, bozordagi odamlar orasiga kirdi. Yaqindagina yomg'ir yog'ib o'tganidan bozor pilch-pilch loy edi. Odamlar etaklarini ko'tarib, ko'lmak suvlar ustidan u yoq-bu yoqqa sakrab o'tishardi. Ayozga o'xshagan boshyalang, oyoqyalang bolalar hech kim va hech nimaga e'tibor bermay, pilchillab yotgan suyuq loyni sachratib ko'lmaklardan kechib yurardilar. Eski ko'ylak-ishton, titilib ketgan qirq yamoq shalvardan tortib, eshik halqasi, lampa shisha va bulbul qafasigacha ko'targan va sotmoq uchun osmonga otib ko'z-ko'z qilgan odamlar bozorni liq to'ldirgan edilar. Ayoz olomondan ajraldi-da, bulutlar orasidan mo'ralab sal-pal ilitayotgan bahor quyoshining nurlari ostida biroz qurigan va bozorga nisbatan ancha tinchroq bo'lgan bir yerga chiqdi. Burniga lazzatli taomlarning hidlari urildi. Bu yer qovurdoqpazlar bozori edi. Bir tarafda jiz-biz qilib go'sht, bir tarafda lavlagi va yana bir tarafda kartoshka qovurilmoqda edi.

Ayoz lavlagipazning oldiga kelib:

— Amaki, non do'koni qayerda? — deb so'radi.

Lavlagipaz uning cho'pday ozib ketgan bo'ynidan ushlab o'ngga burdi-da:

— Huv ana, o'sha yerda! — deb yo'l ko'rsatdi. Nonvoylar tandirdan yangi uzilgan nonlarni taxlab, yuziga sedana sepilgan lochiralarni chiroyli qilib pishirib, xaridorlarni kutib o'tirardilar. Bu bolaga qiziq tuyuldi. "Shuncha non bo'la turib, nega shaharda bizdaqanggi ochlar ko'p" deb o'yladi Ayoz. Bola buning sababini sira tushuna olmasdi. Birdan qo'lidagi besh qronli puli esiga tushdi-da, o'z-o'ziga: "Ha-a, pullari yo'q, shuning uchun" — deb o'yladi.

Non do'konlarining oldidagi loydan yurib bo'lmas edi. Atrof xaridor axtargan olib-sotarlar bilan to'la edi. Ayoz non do'kon-

larning biridan ikki qronlik non olib qo'ltig'iga tiqdi-da, orqasiga qaytdi. Bir taxta do'konning orqasida bir to'da bolalar o'tirishar edi. Ular ham Ayoz singari juldir kiyimli edilar. Ular orasida qiz bolalar ham bor edi. Oftobda isinishib o'tirar edilar. Ayoz to'xtab ularni tomosha qila boshladi. Bolalardan biri barmoqlarini goh tuya qulog'i, goh quyon, goh itga o'xshatib bukar, bu shakllarning soyasi devorga tushardi. Bu Ayozga juda qiziq tuyuldi. Boyagi fokuschi bola Ayozning qarab turganini ko'rib, har xil shakllar yasash bilan birga goh og'zidan, goh burnidan har xil tovushlar ham chiqara boshladi. U hali it bo'lib hurar, hali kuchukcha bo'lib akillar, hali mushuk bo'lib miyovlar edi. Uning bu hunarini faqat Ayoz emas, bozordagi boshqa odamlar ham og'izlarini ochishib tomosha qilishar, kulishardi. Birdaniga bir xotinning:

— Ushla o'g'rini! — degan tovushi hammaning diqqatini o'ziga tortdi.

Bolalardan biri og'zini ochib fokuschini tomosha qilayotgan savdogar xotinning ikki juft guldor paypog'ini olib qochgan edi. Xotinning dod-faryodi butun bozorni boshiga ko'tardi. Buni eshitib kelgan bir jandarm odamlar orasidan chiqdi-da, qochishga shaylapib turgap boyagi fokuschi bolani ushlab, qulog'idan cho'zdi. Bola qichqirib yuborib jandarmning qo'lini tishlab oldi. Jandarmning achchig'i chiqib bolaning bu qulog'idan ham cho'zib turtdi. O'rtog'ining dodlaganini ko'rgan bolalar ahillik bilan jandarmga yopirildilar. Bozorda to's-to'polon, qiy-chuv ko'tarildi. Yordamga yetib kelgan politsiyachining ko'magi bilan jandarm bolalarni ushlab oldi. Ularga qo'shib Ayozni ham olib ketdilar.

Ayozning qulog'iga atrofdagilarning uzuq-yuluq gaplari eshitilardi:

— Olib ket bularni, qutulaylik-ey..

— Bular itdan ham battar...

— Ko'zingni shamg'alat qilib molingni olib qochadi bu xumparlar...

Ayoz chetga chiqib, jandarmga yalinib yig'ladi:

— Og'o, meni qo'yib yubor, onam kutib o'tiribdi.

Jandarm uning gapiga quloq solmadi:

— O'chir ovozingni, itvachcha! Onasini qara-ya! Bu nonni qayerdan o'g'irlading?

Ayoz qasam ichdi:

— Hazrati Abbos haqqi, o‘g‘irlaganim yo‘q.

— Hazrati Abbosning g‘azabiga uchra! Yur!...

Bozordan ancha uzoqlashib, bir necha qing‘ir-qiyshiq tor ko‘chalardan o‘tgach, Ayozning esiga kasal onasi bilan ochlikdan qiynalgan Niyoz tushdi.

Bolalardan ajrab qochmoqchi bo‘ldi. Jandarm uning beliga miltig‘ining qo‘ndog‘i bilan shunday urdiki, bechora bola gurs etib yerga yiqildi. Qo‘ltig‘idagi non uchib ketdi, qo‘lidagi uch qronlik pul loyga tushdi. Ammo u sakrab turarkan, nonini bolalar bo‘lashib olishganini ko‘rdi, puli esa yo‘qoldi.

— Bular qarg‘a-quzg‘undan ham battar, — deb to‘ng‘illadi jandarm va ularni yana bir necha tor ko‘chadan olib o‘tdi.— Ularni to‘dalashtirib haydab bordi. Ayoz badani zirqirab og‘rigani uchun zo‘rg‘a qadam tashlar, endi qochish to‘g‘risida o‘ylamasdi ham. Jandarm ularni allaqanday xarobalardan olib o‘tib, shaharniig eng chekkasiga olib chiqdi:

— Kimni bozorda ko‘rsam jonini olaman! — dedi-da, qaytib ketdi.

Har narsaga ham o‘rgangan bolalar bir-birovlariga qaradilar. Xarobazorning u yoq- bu yog‘ini ko‘zdan kechirdilar. Biri devorning tagiga o‘tirib oftobda isina boshladi, biri buzilgan devorga tirmashdi, yana biri toshlar orasini titkilay boshladi. Bozorda fokus ko‘rsatgan bola bilan paypoqni olib qochmoqchi bo‘lgan bola Ayozning oldiga kelishdi:

— Cho‘ntakka tushishni bilasanmi?

Ayoz hayron bo‘lib bosh chayqadi.

Qulog‘i lavlagi bo‘lgan bola mushti bilan Ayozning boshiga bir urdi:

— Xo‘sh, nimani bilasan? Soqovmisan, tiling yo‘qmi?

Ayoz uning ko‘kragidan itarib yubordi:

— Nega boshimga urasan?..

Bola yerga yiqildi. Buni ko‘rgan o‘rtog‘i Ayozning ustiga o‘zini tashlab, uni do‘pposlay boshladi. Ayozning og‘zi qonga to‘ldi. Ayoz fokuschi bolaning oyog‘idan tortdi-da, yerga yiqitib, ezdi. Shu payt fokuschining sherigi o‘rnidan turib yordamga keldi. Ular Ayozni oyoqlari ostiga olib tepkiladilar...

Ayoz usti-boshi loyga belangan holda o'rnidan turib to'rt tarafga qaradi. Hech kim yo'q edi. Qo'li bilan og'zi va burnidagi qonni artdi. Xarobaning bir chetidagi ko'lmak suvda yuz-qo'lini yuvdi-da, uylar ko'ringan tarafga qarab ketdi. Onasi bilan ukasini topish to'g'risida dard bilan o'ylardi. U ko'chalarda aylandi. Katta va kichik uylar oldidan o'tdi. Lekin bularning hammasi Ayozga notanish joylar edi. Kun botar paytda qorni ochganini va nihoyatda charchaganini sezdi. Uch-to'rtta non do'koni oldidan o'tdi, taxlab qo'yilgan nonlarga, do'kondorlarga mo'ltillab qaradi. Nonning ishtaha ochuvchi hidi dimog'iga urilar ekan, toqati toq bo'lib, ochligi battar sezilardi. Necha marta qo'l cho'zib non so'ragisi keldi, lekin so'ramadi. Go'yo ota-onasi qarshisiga kelib, unga ta'nali ko'zlari bilan qarab turgandek bo'lardi. Bir joyda hatto non do'koniga qayrilib qaramasdan ham o'tib ketdi. Bir joydan o'tib ketaturib o'zi kabi bolalar bir uyning tepasi yopiq eshigi tagida g'uj bo'lib o'tirishganini ko'rdi. Shularga borib qo'shildi. Izg'irinda yurishdan foyda yo'q edi. Ular issiqroq yotish uchun bir-birlarining pinjiga kirib va o'zlari kabi boshpanasiz ko'cha itlariga suqilishib, uxlashardi. Tong otgach, ular birin-ketin tarqalishib ketdilar. Qizig'i shundaki, Ayoz qornining ochligini sezmasdi. Go'yo qorni umuman yo'qdek, hech vaqt bo'lmagandek edi. Qorin g'amidan biroz tinchigan Ayoz onasini topish umidida shaharni keza boshladi. Do'konlar birin-ketin ochilmoqda edi. Yomg'ir yog'ib turardi. Bir qancha vaqt ko'cha aylanar ekan, ichida allanarsa qimirlay boshlaganini, butun borlig'ini egallab ola boshlaganini sezdi. Bu ochlik, chidab bo'lmaydigan ochlik edi!

Bir yerdan o'tib ketaturib yana non hidi kelayotganini sezdi. Nonning hidi naqadar shirin, na qadar totli edi! Novvoy tandirdan endi uzilgan nonlarni taxta ustiga taxlamoqda edi. Ayoz shu nonlar ustiga o'zini otadigan darajada edi!..

Sekin non do'koniga yaqinlashdi. Novvoy unga bir tikilib qo'ydi. Ayoz bu kishining ko'zlarida allaqanday mehribonlik uchqunlari borligini sezdi. Yana bir qadam ilgari yurdi, do'kon eshigi oldida turib, yerdagi non ushoqlariga tikilib qoldi...

— Nima deysan, bola? — deb so'radi novvoy forschalab.

Ayoz zaif tovush bilan:

— Amaki, men forscha bilmayman, — dedi.

Novvoy kuldi. Ozarbayjonchani buzib-buzib, bir amallab so'radi:

— Sen tabrizlikmisan?

— Yo'q, amaki, Ardabildanman, — deb javob berdi Ayoz.

— Yetimmisan?

Ayoz ota-onasini yo'qotib qo'yib, ko'chada qolganligini gapirib berdi. Nonvoy do'konning oldini to'sib turadigan taxtani ko'tardi-da:

— Kir bu yoqqa, menga dastyor bo'lasan,— dedi.

Ayoz kunduzlari xo'jayiniga savdo-sotiq ishlariga yordam berar, kechqurunlari esa suv tashir, oyoqlarini yaxshilab yuvib, xamir tepardi. Qorni to'yib non yegani uchun suyunsa ham, ota-onasini yo'qotib qo'ygani sira esidan chiqmasdi. Kun isigan sari Ayozning nazarida otasi ham, onasi qam qishloqqa qaytib dehqonchilikka urinayotgandek tuyulardi. Bu umid unda Tehrondan ketish fikrini uyg'otdi. Bir kun yig'lab-yig'lab o'z dardini novvoyga so'zlab:

— Ota-onamni sog'indim,— dedi u.

Novvoy uning gapini diqqat bilan tingladi, rahmi keldi, shekilli:

— Yaxshi, bolam, seni Ardabilga jo'nataman. Biroz pul-mul ham beraman. U yerdan qishlog'ingga yetib olasan, — dedi.

Haqiqatan ham novvoy bir haftadan keyin Ayozni usti yuk va ichi odam bilan to'la katta mashinaning haydovchisi yoniga o'tqazib:

— Ardabilga tashlab ketasan, — dedi, — manovi pullarni ham o'ziga berasan. Iloji bo'lsa qishloq yo'lini ko'rsatib qo'y.

Uylaridan chiqqanlaridan beri Ayoz uchratgan birinchi rahmdil odam shu novvoy edi. Uning nimasidir otasiga o'xshardi. Chol uni esida saqlab qolish uchun yuz ko'ziga tikilar ekan, qarshisida otasi turgandek bo'lardi...

* * *

Tehronning ustini qora bulutlar qoplab yotardi. Shamol ularni Kaspiy dengizi va Gilon o'rmonlari ustidan haydab kelgan edi. Shamol asta pasayib, kechqurun tindi. Lekin shaharning usti-

ni qoplab yotgan bulutlar tarqalmadi. Bulut tobora quyuqlashdi. Gulduros bilan momoguldirak boshlandi... Ufqlarda odamni parcha-parcha qilib yuborayotgandek tuyulgan chaqmoqning har chaqishida Sariya xola Niyozni bag'riga bosib:

— Allohi taoloning g'azabi keldi, insonlarning zulmiga chidamayapti, dunyoni yondirib yuboradi endi...— derdi.

Sariya xola chindan ham bu tabiat hodisasini odamlarning yaramasligiga qarshi ogohlantirish deb ishonardi. Payg'ambarlar "Injil", "Tavrot" va "Qur'on" orqali ta'sir qilolmagach, Xudo o'z so'zini o'tlar-olovlarning ta'siri bilan o'tkazadi deb ishonardi. Shunga qaramay, alanga otash bo'lib yotgan tanini jaladan, o'zini chaqmoqdan saqlash kerak edi. Niyozni yetaklab, bozor yaqinidagi bir panaga yashirindi. Bu yerda jalaning o'tib ketishini kutib turgan badavlat odamlar ham, Sariyaga o'xshagan boshpanasizlar ham bor edi. Hamma ham pana joyning ichkarirog'iga, devorning tagiga qisilishga harakat qilardi. Chetroqda xuddi Niyoz tengi, ustiga qizil palto, oyog'iga chiroyli botinkacha kiygan bolaning qo'lidan ushlab shlapa kiygan bir xonim turardi. Bola onasining xo'mrayib qarashiga va qo'lidan tez-tez siltab tortishiga ham qaramay, qo'lidagi koptokni o'ynamoqchi bo'lardi. Sariya xola bilan Niyoz ko'chadan kelib, panaga kirayotganida, ayol undan jirkanib, o'zini tortib ularga yo'l bergan edi. Sariya xola bir chetga, ust boshining biron narsaga tegib kir bo'lishidan qo'rqmaydigan va hech narsadan jirkanmaydigan odamlar orasiga borib turdi. Haligi xonimning o'g'li Niyozni ko'rib, qo'lini onasinnig qo'lidan tortib oldi-da, koptokni Niyozga otib:

— Kel, o'ynaymiz, — dedi.

Niyoz xursand bo'lib koptokning orqasidan yugurdi. Koptokni olib bolaga irg'itdi. Bundan norozi bo'lgan xonim:

— O'lmas! — deb o'g'lini chaqirdi.

Lekin bola koptokni yana Niyozga otib ketidan o'zi ham yugurdi. Lekin sal o'tmay oyog'i chalishib yuztuban yiqildi.

Bolaning mehribonligidan erib ketgan Sariya xola onasidan ilgariroq borib, yerdan ko'tarib, ovuta boshladi. Lekin satang xonimning:

— Qo'lingni tekkizma, tilanchi! — deyishi, boshiga to'qmoq bilan urgandek bo'ldi.

Sariya xola bolani darhol yerga qo'yib, orqasiga chekindi. Xonim bolasini yetaklab ketar ekan:

— Bu itlar dastidan shaharda yurib ham bo'lmaydi! — dedi.

Shu so'z ham bir bo'ldi, Sariyaning shuncha tortgan azoblari ham bir bo'ldi.

— Unday dema, xonim!.. Falak sening boshingga bundan ham besh battar kunlarni solmasin tag'in. Mening ham o'zimga yarasha davlatim, yeyishga ovqatim bor edi. Unday dema!..

Devor tagida turganlardan biri:

— Yo'q, ularning o'ylashicha, hamma hayvon-u faqat o'zlarigina odam, xolos! — dedi.

Oldinda turgan boyvachchalardan birining achchig'i chiqdi:

— Bo'ldi, o'chir ovozingni hammang, qurbaqadek vaqillashaverma! — dedi u zarda bilan.

Yomg'ir tingach, panadan chiqisharkan, Niyoz yana zorlana boshladi:

— Oyi, qornim ochdi...Non!

Sariya uni chalg'itmoqchi bo'ldi:

— Biroz sabr qil, otangni topaylik, non olib beradi, o'g'lim, biroz sabr qil!

Lekin Sariya xola gapirgan sari Niyoz avjiga chiqar edi:

— Oyi, non ber, qornim ochib ketyapti!..

Sariya xola baqirib berdi:

— Jim, nonni qayoqdan olaman?!

Bola yig'ladi:

— Oyi, non!..

Sariya xolaning ham sabri tugadi:

— Qanday balo kunda tug'ilgan ekansan! Sen o'lsang, jonim tinchirmidi!

Onasidan bunday gaplarni birinchi eshitgan, uning tovushida allaqanday bir yomon alomat sezgan bolaning xo'rligi kelib umidsizlik bilan piqillab yig'ladi... Bu hol Sariya xolaning rahmini keltirdi, u o'g'lini bag'riga bosdi:

— Yig'lama, o'g'lim, qani yurchi, u yer bu yerdan bir burda non toparmiz.

Bozor maydonchasidan o'tib keta turib Sariya xola bir kishining bir paqir narsani chuqurga ag'darayotganini ko'rib qoldi. Bu

yangi so'yilgan qo'yning ichak-chavaqlari edi. Sariya xola o'g'rilarga o'xshab bir burchakda kutib turdi. Haligi kishi kirib ketgach, ichak-chavaqlarni olib ariqdagi suvda yuvdi-da, etagiga solib oldi. Niyozni yetaklab, shoshganicha bu joydan uzoqlashdi. Do'konlar eshigi ostidan mayda-chuyda cho'p-xas va parcha-purcha qog'oz yig'di. Mangalkada isinib o'tirgan bir do'kondordan bitta cho'g' so'rab oldi-da, bozorning bir xilvat yeriga chiqib kichkinagina gulxan yoqdi, simdan six yasab ichaklarni pishirdi.

— Ye, bolam, ochlikdan esing ketdi! — dedi Niyozga pishgan ichakdan uzatib.

Go'shtning hidi o'zining ham ishtahasini qitiqladi. Necha kundan beri och qorniga jindek ovqat kirgach, ko'zlariga nur, oyoqlariga darmon kirdi. Kechasi bir g'orga kirib Niyoz ham, onasi ham qattiq uyquga ketdi. Sariya xola qishloqdagi bayram arafasi kunlarini tush ko'rdi. U guruch yuvar, Gulnoz mayiz qovurar, Musa aka esa bir chetda trubkasini tutatib xayol surib o'tirardi. Bolalar ham qizil rangga bo'yalgan tuxumni o'ynashardi...

Bugun tinchib uxlagan Niyoz kech uyg'ondi. Bulutlar tarqab ketgan, iliq quyosh chiqib atrofga nur sochardi. Sariya xola bunday yashash mumkin emasligi va bir iloj qilib ish topish lozimligi to'g'risida o'ylardi. Shu fikr bilan u yana shaharga chiqdi. Endi Niyozning: "Ona, ochman, non!" — degan gapiga ham quloq solmay, uni yetaklab ko'chama-ko'cha kezar. Hali u eshikka, hali bu eshikka, hali u do'konga, hali bu do'konga borib ish axtarardi. Onasining indamay ketishini ko'rgan bola, go'yo ko'nikib qolganday ochlikdan kamroq shikoyat qilar edi. Lekin bu hol Sariya xolaning xayolida: "Bolam o'z ichini o'zi yeb o'lib qolmasin tag'in?" degan vahimali fikr tug'dirdi. Niyoz unga har qancha azob bersa ham harholda o'g'li edi, Sariya xola bundan ham ajralsam bir minut ham yashay olmasam kerak deb o'ylardi. Bu ham o'lsa, dunyoda uning hech kimi qolmasdi. Gulnoz bilan Ayozni yo'qotib qo'ygandan so'ng u Niyozga qattiq yopishib olgan edi. Bolani bir minut ham o'zidan nariga ketkazmasdi. Kechalari qattiq charchab uxlab qolganda ham, uni mahkam quchoqlab yotardi.

Lekin endigina yetti yoshga kirgan Niyoz oylab cho'zilgan ochlik va sarson-sargardonlikka bardosh berolmay, sekin-asta shamday yonib cho'pday orig'lab bormoqda edi.

Tilanchilik bilan kun kechirish mumkin emasdi. Isitma bilan og'rigan chog'ida tinka madori qurigan Sariya xola so'nggi kuchini to'plab kuniga bir qiron to'lasa ham mayli deb ish axtarardi. Nihoyat, bir kun allaqanday arbobning yangi ipak korxonasi ochganini eshitib qoldi. So'rab-so'rab korxona joylashgan yerni topdi. Katta eshikdan ichkari kirdi. Bu yer loy va iflos bo'lsa-da, katta va keng hovli edi. Dastlab Sariyaning ko'ziga tashlangan narsa hovlining u boshidan bu boshiga cho'zilgan eni uch-to'rt metr keladigan bostirma bo'ldi. Bostirmaning tagida yuzdan ortiq xotin ishlamoqda edi. Ular kichkina-kichkina dastgohlar oldida o'tirib, oyoq va qo'llari bilan ularni taraq-turuq qilib harakatlantirmoqda edilar. Hovlining narigi boshida, bostirmadan tashqarida birtalay yenglarini shimargan xotinlar bug'lanib turgan katta qozon oldida ishlashmoqda edi. Xotinlarning harakatidan pilla qaynatayotganliklari ma'lum bo'lib turardi. Shu xotinlar singari ishli bo'lib olish Sariya xolaning eng buyuk orzusi edi.

U oyoqlarini arang sudrab pilla qaynatayotgan xotinlar oldiga bordi-da, qoracha bir xotindan:

— Hay, egachi, arbob qayerda? — deb so'radi. Har mo'yidan bir ter oqib, halloslayotgan bu xotin qozondan bosh ko'tarmay javob berdi:

— Mening cho'ntagimda! Uning qaysi do'zaxda ekanini men qayoqdan bilaman, bor o'zidan so'ra!

Sariya xola savol berganiga pushaymon bo'ldi, buni yomon bir alomat deb hisoblab titrab ketdi. Shu payt yana Niyoz:

— Oyi, non! — deb yalina boshladi.

Pilla qaynatayotgan ayollar orasida turgan qo'ng'irsoch, qo'yko'zli, to'ladan kelgan bir qiz boshini ko'tardi:

— Nimaga o'dag'aylaysan, Fotima, sendan pul so'rayotgani yo'q, gap so'rayapti, axir! To'g'ri javob bersang bo'lmaydimi?! — dedi-da, Sariya xolaga:

— Xola, arbobning idorasi hovlining narigi tomonida, to'g'ri borib, chapga buriling...

Sariya xola rahmat aytib, o'sha tarafga ketdi, lekin ikki qadam yurmasdanoq boyagi qiz yetib kelib uni to'xtatdi:

— Ish axtarib yuribsizmi, xola?

— Ha, bolam, shu o'g'limga bir burda non topsam deyman.

Qiz sekingina uning qulog'iga pichirladi:

— Agar arbob qabul qilishga rozi bo'lmasa, Go'har xonimni top, u yaxshi xotin, yordam beradi. Arbobning oldida idorada ishlaydi, qora shahlo ko'zli, baland bo'yli, qaddi-qomati kelishgan xotin. Ko'rsang darrov taniysan.

Sariya xola o'zi hech tanimagan bu qizning jonkuyarligidan juda xursand bo'ldi.

— Juda yaxshi qiz ekansan, bolam, oting nima?

Qiz kulimsirab, endi javob bermoqchi bo'lgan edi hamki, qovog'idan qor yoqqan bir kishi xalaqit berdi:

— Bozor ochma bu yerda, Feruza, bor ishingga!

Qizil donali tasbeh ko'targan semiz, qora mo'ylovli kishi ularning yonidan o'tarkan Sariya xolaga xo'mrayib:

— Hay xotin, xalaqit berma, bor ishingga! — dedi.

Bu sex boshlig'i edi, Feruza darhol o'z joyiga qaytdi.

Sariya xola idora tomonga ketar ekan, yana bir qayrilib qizga qaradi, qiz qozondagi pillani kovlamoqda edi.

Sariya xola idoraga keldi. Bu sariq shoyi parda bilan ikkiga ajratilgan uzun bir xona edi. Tashqi xonaning devorlari oldiga taxta polkalar qilingan edi, ularga sariq va ko'k ipaklar chiroyli qilib yoyib qo'yilgan edi. Xonaning o'rtasiga uzun qambar stol qo'yilgan. Stolning orqasida uzun burunli, ko'zlari ola-kula, baland bo'yli bir kishi gaz cho'p ushlab turardi. Uning oldida bir to'p sariq shoyi uyilib yotardi. U shoyini ochib, barmoqlari bilan ezg'ilab qarshisida turgan kishiga ko'rsatar va asabiylik bilan gapirardi:

— Buning nimasi yomon, birodar? O'n yil kiysa ham ado bo'lmaydi.

Xaridor bosh chayqadi:

— Shunday ta'rif qilib yubordingki, go'yo bizning hech narsaga aqlimiz yetmaydi... Yaxshi molni yomon moldan farq qila olamiz. Buning bahosi o'sha men aytgandan ortiq emas.

— Hoy, birodar, payg'ambarimiz haqqi ont ichaman, o'zimga o'shandan qimmatga tushadi.

— Ortiq to'lay olmayman, — deb ketishga chog'landi xaridor.

Arbob uni to'xtatdi:

— Shoshma, qayoqqa ketyapsan? Hay, Go'har xonim, og'oga bir stakan choy ber.

Arbob xaridorni to'xtatib, shoyi pardaning orqasiga qarab allanarsa dedi. Parda orqasidan beparvolik bilan Go'har xonim chiqdi. Sariya xola bir ko'rishdayoq darhol uni tanidi. Go'har xonim arbobga qaramay:

— Nima gap? — deb so'radi.

Arbob ham unga qaramay, cho'chigan tovush bilan:

— Og'oga bir stakan choy ber! — dedi.

Go'har xonim yana beparvolik bilan pardaning orqasiga o'tib ketdi. Sariya haqiqatan ham bu xotinning arbob oldida katta e'tiborga ega ekanini payqab, bir chetga chiqib arbob o'z ishini tugatishini kutib turdi. Arbob xaridorni qo'yarda qo'ymay o'tqazdi. Nihoyat o'zi pardaning orqasiga o'tdi. U yerdan ikki kishining shivir-shiviri eshitildi. Keyin arbob bir stakan achchiq choy keltirib xaridorning oldiga qo'ydi-da, yana molini maqtab, gapni molning bahosi ustiga burdi:

— Xudo haqqi, birodar, bu bahoga sotolmayman, bordi-yu sotsam, ertaga bu ishxonani yig'ishtirib qo'yishga to'g'ri keladi. Hozir ham nega bu ishni boshladim, bor yo'g'imni shunga sarfladim deb o'zimni-o'zim ming marta koyiyman.

— Nega koyiysan, Xudoga shukur, bu juda foydali ish. Savdo yo'llari yopildi, mol olib keladigan odam yo'q, sen bo'lsang o'zing to'qib bozorga olib chiqasan, chetdan keltirmaysan...

— Yo'llarning yopiqligiga qarama... O'n ikki imom haqqi ont ichamanki, o'n besh yil urush bo'lsa, yo'llar hamisha yopiq bo'lsa, hech qayerdan Eronga bir gaz mol kelmasa ham, o'zimiz ishlab chiqargan mol o'tmaydi.

— Nega, birodar, nega unday deysan?

— Chunki savdogarlarning ombori amerikaliklarning, inglizlarning va nemislarning moli bilan liq to'la. O'ttiz yil sotsalar ham ado qilolmaydilar.

Ularning har ikkalasi ham o'z aytganida turar, suhbatni Sariya xola mutlaqo tushunmaydigan masalalarga burib yuborishardi. Lekin gap aylanib yana shoyining bahosi ustiga kelib to'xtardi. Nihoyat xaridor sovib qolgan choydan ikki qultum ichib, o'rnidan turdi:

— Bir shohi ham ortiq berolmayman, men ham bir narsa ishlab qolay-da, yo havo bilan tirikchilik qilay-mi? Xayr, bo'lmasa!— dedi-da ketmoqchi bo'ldi.

Arbob uni yana to'xtatdi:

— Hay, og'ayni, namuncha shoshasan? Shuncha baylashganingdan keyin hech bo'lmasa besh qironli mol olib ket, qo'ling bo'sh ketmasin.

— Yo'q, bir shohilik ham olmayman. Aytganimga bersang uch yuz metr olaman.

Uning ketishga qat'iy otlanganini ko'rgan arbob murosaga keldi:

— Xayr, bor ana, sening uying kuymasin, meniki kuya qolsin, ol, berdim o'sha bahoga.

Arbob to'plarni hisoblab, bir chetga ajratib qo'ydi. Xaridor unga ozgina bay puli berib:

— Molni olib ketgani kelganda qolganini beraman, — deb chiqib ketdi.

Arbob biroz o'tirib dam olgach, Sariya xolaga o'girilib qaradi:

— Ha, nima deysan, kampir?

Sariya javob berish uchun og'iz juftlaganda parda ochilib, oq samovar ko'targan Go'har xonim chiqdi, u samovarning kulini qoqqani hovliga yo'naldi. Sariya xola borib samovarni uning qo'lidan oldi:

— Ijozat ber, xonim, men kulini qoqib beray,— dedi u.

Go'har xonim samovarni darrov unga tutqizib, kibor xonimlar singari belini ushlab, uni tomosha qildi. Sariya xola samovarni tozalab unga uzatar ekan Go'har so'radi:

— Xola, ko'rpa qavish qo'lingdan keladimi?

— Juda ustaman, ko'rpani shunday qaviymanki, xonlar ham xavas qiladi.

— Ovqat pishirishni ham bilasanmi?

— Nega bilmay?

Go'har xonim, ham norozi hamda biroz cho'chib turgan arbobga bir qarab qo'ydi-da, Sariya xolaga:

— Ertaga kelib, ikkita ko'rpamni qavib berasan. Ma'qul tushsa, seni juda xursand qilaman, ma'qul tushmasa, oldimga solib quvlayman. Qayerda turasan?

Sariya turadigan joyi yo'qligini, qishloqdan kelganini aytdi. Go'har boyagidek beparvolik bilan arbobga qaradida amirona ohangda:

— Yaxshi, bolangni ham olib bor, hovlining etagida, hammomning yonida bitta bo'sh xona bor. O'sha joyda yashaysan. Hozir yuvinib ol. Ertaga ishga tushasan, — dedi.

* * *

Isib borayotgan bahor quyoshi dala va bog'larni qizdirib, o'simliklarga jon va hayot bag'ishlardi. Yerdan bug' ko'tarilgan sari daraxtlar kurtak chiqarar, gullar g'unchalar, g'allalar o'sardi. Odamlar ham sekin-asta qalin qish kiyimlarini yechib, yengilroq kiyina boshladilar. Lekin hali qishning zahri badanlardan ketmagani uchun quyosh yog'dusida isinar edilar. Bu yilgi bahorda dunyodagi vaziyat keskin tus olgani uchun kishilar ko'proq urush va tinchlik haqida gapirishardilar. Ayniqsa, Bolqondagi jiddiy vaziyat to'g'risida ko'p gapirishar edilar.

Faridun bir to'da talaba o'rtoqlari bilan birga universitet hovlisining oftob ro'ya tomonida aylanib yurar va ularning shu mavzudagi suhbatlarini tinglardi.

— Nemislar qaltis o'yin boshlab yubordilar, — dedi talabalardan biri. — Bolgariyani bosib olib, endi Yugoslaviyaga yopishdilar...

— Biror yangi xabar bormi? — deb so'radi so'nggi hodisalardan bexabar bo'lgan bir talaba.

— London radiosining kechagi xabariga qaraganda, nemislarning ig'vosi bilan venger qo'shinlari Yugoslaviyaga kirganlar.

— Urush o'z yo'nalishini o'zgartirib, Sharqqa tomon surilib kelmoqda.

— Bolqonning nemislar qo'liga o'tishi Sovetlarga katta xavf tug'diradi.

— Sovet hukumati Tashqi Ishlar ministrining o'rinbosari janob Vishinskiy vengerlarning bu harakatini qoraladi.

— Sovetlar bilan hazillashib bo'ladimi, birodar! Sovetlar kuchli davlat.

— Kuchli ekanligi to'g'ri-ya, lekin ularning ideologiyasi ham boshqa-da.

Talabalar Sovetlar haqida chekka-chekkada va bir-birlaridan hadiksirab gaplashishar, shubhaliroq odam yaqinlashsa, suhbatni taqqa to'xtatardilar. Faridun butun jamiyatda bo'lganidek bu yerda ham odamlarning ikki lagerga bo'linganini ko'rardi. Kambag'al oiladan bo'lgan talabalar bilan Eronning mustaqilligi va taraqqiyotini istagan talabalarning muhabbati Sovetlar tarafida edi. Ular vatanlarining kelajakdagi, ozodligi va yuksalishining garovi deb Sovetlarning mustahkamlanishi, uning butun dunyoda obro'sining ortishida deb bilardilar. Aksincha, boy oilalardan chiqqan talabalar buni o'zlari uchun bir falokat deb bilar, hamisha nemislarni ham, inglizlarni ham, amerikaliklarni ham maqtar edilar. Bolqonda vaziyatning keskinlashuvi hamda voqealarning bevosita Eronga yaqinlashib kelishi bu bahslarni yanada qizg'inlashtirardi.

Faridun talabalar orasidagi gaplarni o'rtoqlariga aytdi. Ular ishchilar orasida ham xuddi shunday gaplar bo'layotganini aytishdi. Rasmiy doiralar, gazetalar va reaksionerlar butun bu suhbatlarga antisovet tus berishar, ingliz va amerika matbuotidan olingan yolg'on-yashiqlarni ko'proq tarqatar edilar.

— Hozir qo'l qovushtirib o'tiradigan payt emas, — dedi Rizo Qahramoniy,— hech bo'lmasa varaqa chiqaraylik. Buni birinchi varaqamiz singari qo'lda yozamiz.

Varaqani "Xalqlarning umidi va tinchlikning tayanchi" deb atamoqchi bo'ldilar. Faridun varaqani kechasi yozib, ertalab barvaqt Rizo Qahramoniyga yetkazishi lozim edi. Varaqani tarqatishga ular yashaydigan uyning egasi bo'lgan kampir vositachilik qiladigan bo'ldi. Rizo Qahramoniy ikki kun ichida uch yuzta varaqa tayyorlashga so'z berdi.

Faridun kun botgandan keyin o'zining shaharning janub tomonidagi yangi kvartirasida o'tirib varaqaning mazmunini o'ylar ekan, birdan eshik taqillab qoldi. Kelgan kishi oddiy aholi kiyimidagi Yavar Azimiy edi. U o'tirmadi ham, shoshganicha sartib Salimiyning so'zlarini yetkazdi:

— Vaziyat og'ir. Qamoqdagilarni qatl kutmoqda.

Karimxon Ozodiy, Simonyan va boshqa o'rtoqlarni qutqarishning iloji yo'qligini yaxshi anglagan Faridun hech narsa deya olmay qoldi. Uzoq sukutdan so'nggina dona-dona qilib, ohista dedi:

— Burchimiz ularning ishini davom ettirishdir. Biz ham halok bo'lsak, boshqalar o'rnimizni bosadi.

— Sartibning ham ahvoli og'ir, shuni sizga aytib qo'yishimni so'radi. Hozir u ham josuslar qurshovida qoldi.

— Sartibga ayting, ruhi tushmasin, lozim bo'lganda biz unga qo'limizdan kelgancha yordam beramiz.

Yavar Azimiy Faridunning qo'shindagi kayfiyat haqidagi savoliga:

— Nemis ofitseri aralashmagan bironta ham qism yo'q. Mashqlarda soldatlarni ruslarga qarshi urushga tayyorlamoqdalar.

— Xo'sh, soldatlarchi?

— Soldatlarning to'qson to'qqiz foizi dehqonlar bilan ishchilarning bolasi. Ular ruslarga qarshi urushmaydilar. Bizning o'rtoqlarimiz ham iloji boricha ularga ruslar mehnatkash xalqning do'sti ekanini tushuntirmoqdalar...

Faridun undan xalqqa yaqin turgan kichik ofitserlar orasida yanada qizg'inroq ish olib borishni iltimos qildi. Keyin mehmonni ko'cha eshigigacha kuzatib qo'ydi. U ketganidan so'ng varaqada alohida bir jumla bilan soldatlar va ofitserlarga murojaat qilishga qaror qildi. Chala qolgan fikrlarini yaxshilab o'ylab olishga tirishdi. U qat'iy kurash payti yaqinlashib kelayotgani, yashirin tayyorlangan otryadlarning yaqin orada birinchi sinovdan o'tishini sezardi. Shunday fursat kelishi bilan u otryadlar otlanadilar va yengilmas bir qo'shinni, ya'ni xalqni uyushtirib istibdodga qarshi qat'iy hujumga boshlaydilar. Lekin bu buyuk armiyaning muvaffaqiyat qozonishi hozirgi kunlarda olib borilayotgan yashirin ishning sifatiga, oddiy komandirlarning siyosiy ongiga bog'liq edi. Hozirgi kunda zamonning talablariga javob beradigan saviya, idrok yetishtirish kerak edi. Eski, chirik fikr va tasavvurlar, uydirma va yolg'on-yashiq gaplar — bu yo'lda xalqning fikrini chigallashtiruvchi zanjirlar edi. Faridun hozir qo'liga qalam ushlab o'tirar ekan, o'zini mana shu zanjirlarni uzib tashlaydigan bir soldatday his qilib, jang maydoniga kirishga tayyor edi. Butun fikrlar yetilgan edi.

Faridun qo'liga qalam olib:

"O'rtoqlar!" degan so'zni yozib to'xtadi-da, qog'ozga tushirmoqchi bo'lgan hislarini qanday jumla bilan boshlash to'g'risida o'ylab qoldi.

Shu payt hovlidan tez-tez gaplashgan odamlarning ovozi eshitildi. Faridun qalamini qo'yib o'rnidan turdi. Eshikning tirqishidan qarab batareya bilan yo'lni yoritib kelayotgan qora kastumli kishini va ikki jandarmni ko'rdi. Tez orqasiga qaytib boshqa ko'chaga chiqadigan derazani ochib, ko'chaga sakramoqchi bo'lgan edi, miltiq o'qtalib turgan ikki kishiga duch keldi. Orqasiga o'girilib, eshikni sindirib ikki qurolli jandarm bilan ichkari kirgan sarhangga ro'para keldi.

— Sizlar derazadan qochishga odatlanib qolgansiz,— dedi sarhang,— bu safar kechikdingiz.

Faridun uning har vaqt yasama muloyim basharasiga qarab:

— Kechikkan siz bo'lasiz, sarhang, men har yerga ham o'z vaqtida yetib boraman,— dedi.

Qo'llarini orqasiga bog'lab, uydan olib chiqishar ekan, Faridunning dastlabki hayajoni bosilgan, u har qanday azoblarga ham chidashga tayyor edi.

* * *

Faridunning qamalgani haqida Rizo Qahramoniyga Farida xabar berdi. Dastlab Qahramoniy hech narsaga tushunmadi. Unga oldida yig'lab turgan Faridaning gaplari anglashilmovchilikdek tuyuldi. Hayratdan yiriklashib ketgan ko'zlari Faridaning yuziga tikilib qoldi. Farida Faridun kabi odamlarning kam topilishi, uning ajoyib yigit ekani to'g'risida takror-takror gapirar ekan, Qahramoniyni birdan sovuq ter bosdi. U ro'molchasi bilan terini artib, toqatsizlanib kresloga o'tirib qoldi. Miyasidan ming xil fikrlar kechdi: taassuf, ma'yuslik, hayajon, andisha... Ayni vaqtda miyasi sur'at bilan ishlar, qalbi hayajon bilan tepar edi.

Faridunning qamalishi ularga katta zarba edi. Qahramoniy boshqa o'rtoqlarining ham, ayniqsa Kurd Ahmadning ham boshiga shunday kun tushishini o'ylab, tez harakat boshlash kerak degan qarorga keldi. Kechqurun Aram Simonyan bekinib yotgan Sarkis cholnikida o'rtoqlarini to'plamoqchi bo'ldi. Bu haqda Kurd Ahmad bilan Sarxonga xabar qilishni Faridaga topshirdi.

Ular Sarkis cholning qaznog'ida to'plandilar. Hammadan oldin Rizo Qahramoniy keldi. Faridunning qamalganini Aramga xabar bergan ham u edi. Bu xabar Aramni shoshirib qo'ydi:

— Qanday bo'lmasin uni qutqarish kerak, — dedi u,— ertadan boshlab men kiyimimni o'zgartirib shaharga chiqaman, harakat qilish lozim, bo'lmasa, bu holda barcha o'rtoqlarimizdan ajralamiz.

Rizo bunga qat'iy qarshi chiqdi:

— Bu bo'lmag'ur fikrlaringni tashla! Ehtiyotsizlik qilasan-da, seni ham ushlab olishadi. Bu bilan na bizning va na qamoqdagilarning ahvoli yengillashadi.

— Xo'sh, nima qilish kerak bo'lmasa, uyda o'tirib o'rtoqlarimizni qanday qilib dorga osayotganlarini tomosha qilishimiz kerakmi?— dedi Aram sabrsizlik bilan.

Rizo ohista, ammo keskin javob berdi:

— Nima ham qilar edik! Demak, qurbon bermay ilojimiz yo'q ekan.

Kurd Ahmad, Farida va Sarxonlar kelishgach, uzundan uzoq gap sotmay va uzoq sukutga ham yo'l qo'ymay, darhol maqsadga ko'chishdi:

— Menimcha,— dedi Rizo,— shu paytgacha oldinda kelayotgan va bizga rahbarlik qilayotgan o'rtoqlar vaqtincha bo'lsa ham yashirinishlari kerak. Men ayniqsa og'oyi Kurd Ahmadni nazarda tutaman. Uning Tehrondan jo'nab ketishini taklif qilaman, biroz Kurdiston va Ozarbayjon taraflarga borib, aylanib kelsa yaxshi bo'ladi.

Ular Rizo Qahramoniyning fikrini hech qanday izohsiz ham tushunar edilar:

— Yaxshi taklif, — deb uning so'zini quvvatladi Sarxon.

Kurd Ahmad e'tiroz bildirmoqchi bo'ldi. Uning nazarida, shunday og'ir bir paytda ishdan chetga chiqib turish nomardlik va kurash maydonidan qochish bo'lar edi. Lekin o'rtoqlarining unga ishonch va hurmat bilan qarab turishlarini ko'rib, hozir vaqt shuni talab qilayotganini angladi-da, o'zini zo'rlab bo'lsa ham bunga rozi bo'ldi:

— Yaxshi, — dedi u zo'rg'a,— men og'oyi Hikmat Isfahoniydan ruxsat so'rab Shimolga ketaman. U taraflarda ba'zi ishlar ham bor. Tehrondagi tashkilotga rahbarlik qilish ishi og'oyi Rizo Qahramoniyga yuklatiladi. Shuni unutmanglarki, reaksiya va istibdodning bu hujumlari bizning qo'limizni bo'shashtirmasligi kerak.

Yanoqlari qizarib yongan Farida qizg‘inlik bilan:

— Aksincha, menga qolsa hozir ham jangga otilishga tayyorman.

— Meni bu qaznoqqa tiqib qo‘yib, hisobdan chiqarib yubormanglar, — dedi Aram, — yozish-chizish ishlaridan bo‘lsa, menga ham berib turinglar.

— Yozish-chizish ishlaridan ham beramiz, boshqa ishlardan ham, — deb javob berdi Rizo Qahramoniy.

— Lekin hozircha sabr va chidam lozim, do‘stlar, — dedi Kurd Ahmad.

Ular xayrlashishar ekan, quchoqlashib o‘pishdilar. Bitta-bittadan qaznoqdan chiqib, har birlari har tarafga ketdilar. Rizo Qahramoniy yana Faridun haqida o‘yladi. Biror chora topish kerak edi, biror ish qilish kerak edi. Faridunning ishini ilgari qamalgan o‘rtoqlarning ishi bilan birga ko‘rilmasligining chorasini topishi kerak edi. Chunki ularni qutqarishning hech iloji yo‘q edi. Ular bilan birga sud qilinadigan kishi, albatta, o‘limga mahkum etilardi. Rizo Qahramoniy shu fikrlar bilan uydan chiqib Salimiyni axtarib ketdi. Salimiyning Hikmat Isfahoniynikida ekanini aytdilar. Boshga bunday falokat tushgan kunlarda eng kichkina taxmin ham kishi qalbida ming xil umid uyg‘otadi. Qahramoniy ham hozir shunday ahvolda edi. Shuning uchun ham qanday qilib bo‘lmasin Salimiyni ko‘rish orzusida edi. Uning nazarida, Faridunning hayoti shu ko‘rishishga bog‘liq edi. Boshqacha harakat qilishning iloji yo‘q edi. Shunday fikrlar bilan Rizo Qahramoniy Hikmat Isfahoniynikiga keldi. Xizmatkorga zarur ish bilan Shamsiya xonimni ko‘rmoqchi ekanini aytdi. Uni katta bir hovlidan olib o‘tib, undan kichikroq ikkinchi hovliga boshlab kirdilar. Bu yerda uni Shamsiyaning o‘zi qarshi oldi. Mehmonni gilamlar bilan bezatilgan yorug‘ bir xonaga olib kirdi. Qahramoniy kelishdan maqsadini so‘zlaganda, Shamsiya chuqur fikrga ketdi. Shamsiyaning bu avholi uning nima uchundir hayajonlanayotganini ko‘rsatardi.

— Xo‘p, — dedi Shamsiya, — ularning ishi sarhang Safoiyning qo‘lida. U otamning yaqin do‘stidir. Men otam bilan so‘zlashib ko‘raman, uning shu ishga bosh qo‘shishini iltimos qilaman. Juda iloji bo‘lmasa, sarhangning yoniga o‘zim boraman...

Qiz jim qoldi. Lekin u hali ham asabiylik bilan shu to‘g‘rida o‘ylayotgani sezilib turardi.

— Keyingi vaqtlarda dunyo o‘z izidan chiqib ketganga o‘xshaydi, — dedi Shamsiya jonidan to‘ygan odam singari,— har kuni mash’um hodisa yuz berganini eshitasan. Hamma oy ham bir-biridan battar xabarlar. Hech ishga, hech narsaga ishonib bo‘lmay qoldi. O‘tirgan joyingda uy bosib tushayotganday joningni hovuchlab o‘tirasan.

Hali ham Faridunni qutqarish yo‘llarini axtarayotgan Rizo Qahramoniy qizning keyingi so‘zlariga e’tibor bermadi.

— Xonim, buni og‘oyi Salimiyga ham aytsak nima deysiz? Ehtimol, biror yordam berar? — deb so‘radi Rizo Qahramoniy.

— Og‘oyi Salimiy nima ham qila olar edi? — dedi g‘amginlik bilan Shamsiya. — U o‘z boshini zo‘rg‘a asrab yuribdi. Bu oliy tabaqa odamlari ichida, bu dabdabali saroylarda bosh saqlamoq oson ish deb o‘ylaysizmi! Bularning hammasi faqat chetdan qaragandagina shunday ko‘rinadi, chetdan qaragan kishigagina hashamatli tuyuladi. Yaqinroq kelib qarasangiz, bu hayot zahardan boshqa narsa emas!

Rizo Qahramoniy bir masala to‘g‘risida o‘ylayotgan chog‘ida atrofida bo‘layotgan ishlardan hech bittasini ham ko‘rmaydigan va eshitmaydigan odamlardan edi. Shuning uchun ham u Shamsiyaning bu so‘zlariga ham e’tibor bermadi.

— Demak, umid faqat sizdan ekan-da?

— Urinib ko‘raman, qo‘limdan kelganicha harakat qilaman.

— Endi, umidimiz faqat sizdan, xonim!

Qahramoniy o‘rnidan turar ekan, boshiga musibat tushgan Sudobani esladi.

— Sizdan bir iltimosim bor, mumkin bo‘lsa buni hozirchalik Sudobaga aytmay turing, — dedi Rizo Qahramoniy.

Qahramoniyni kuzatib qo‘ygandan keyin Shamsiya otasining oldiga kirdi. Hikmat Isfahoniy hozirgina ovqatlanib bo‘lib, endi yumshoq kresloga o‘zini tashlab, fikrga tolgan edi. Shamsiya uning kayfi buzuq ekani va allanarsa to‘g‘risida o‘ylab o‘tirganini payqadi.

— Nimani o‘ylab o‘tiribsiz, ota? — deb so‘radi Shamsiya va sun’iy bir mehribonlik bilan otasining bo‘ynidan quchoqlab, yuzidan o‘pmoqchi bo‘ldi, — nimani o‘ylab o‘tiribsiz?

Qizining bunday erkalanishidan biror maqsadi borligini payqagan Hikmat Isfahoniy:

— Bir narsani o'ylab o'tiribman-da, qani ayt-chi, menda nima ishing bor? — dedi.

Qiz unga yana erkalik qilib so'radi.

— Yo'q, avval siz ayting, nimani o'ylab o'tiribsiz?

— Bo'ynimga osilma, mana bu yerga o'tir, aytaman.

Shamsiya otasi ko'rsatgan kresloga o'tirdi.

— Qanday qilsam yuz ming tuman pul qo'limdan chiqib ketmas ekan deb o'ylab o'tiribman.

Odatda bunday gaplarni yoqtirmaydigan Shamsiya sun'iy qiziqish bilan:

— Yuz ming tuman? — deb so'radi.

Hikmat Isfahoniy qizining bunday ishlarga qiziqqaniga sevindi. Qizim katta bo'lib, aqli kira boshladi deb o'yladi.

— Mister Tomas orqali ingliz savdo vakolatxonasidan yuz tonna qand olgan edim — dedi u. — Uni sotmay saqlab qo'ydim. Bozordagi bor qandlarni sotib ola boshladim. Har tonnasidan hech bo'lmaganda besh-o'n ming tuman foyda qilarman deb umid etgan edim. Xuddi shu payt rus savdo vakolatxonasiga qand kelib qoldi. Endi ruslar qandni bozorga chiqarishsa mening sho'rim quriydi. Yuz ming tuman foyda u yoqda tursin, bozordan olgan qandlarimning o'zidan ham yigirma-o'ttiz ming tuman zarar qilaman.

— Ruslarning qandini ham olib qo'yaqoling-da, — dedi Shamsiya soddalik bilan.

— Hamma gap ham ana shunda: ruslar menga qandni sotishadimi, yoki yo'qmi? Avvalo, ulardan hozir achchig'im chiqib o'tirganimdek, ularning ham mening bu taklifimdan achchiqlari chiqishi turgan gap. Ikkinchidan, ming xil shart qo'yadilar. Uchinchidan esa, bizning ham o'z xaridorlarimiz bor deydilar. Bozorni monopoliyaga aylantirmang, odamlarni qanddan mahrum qilmang, deydilar. Yana nimalar deyishlarini kim biladi deysan?

Shamsiya uning so'zini kesdi:

— Xafa bo'lmang, shuni ham o'ylab o'tiribsizmi, ota? Bu safar bo'lmasa yanagi safar foyda qilarsiz.

Hikmat Isfahoniy chap ko'zini sal qisib qiziga qaradi:

— Xo‘p bo‘ladi, zap savdo qilish yo‘lini o‘rgatdingda, menga! Xo‘sh, nima darding bor? Nima demoqchisan?

Shamsiya turib, yana otasini bo‘ynidan quchoqladi:

— Istaganimni qilsangiz — aytaman.

— Yaxshi, avval eshitaychi, so‘ngra.

— Yo‘q, oldin so‘z bering, keyin aytaman.

— Xo‘p, ayt.

Shamsiya hech narsadan hech narsa yo‘q o‘qituvchisining qamalib qolganini aytdi. Bechoraning onasi va singillari borligini ham qo‘shib qo‘ydi.

— Sho‘rliklarga achinaman, — deb davom qildi u. — Sarhang Safoiy bilan gaplashib bering, uning ishini boshqalar ishi bilan aralashtirmasin...

Qizining bu so‘zlarini eshitgach, Hikmat Isfahoniy uning qo‘llarini bo‘ynidan olib tashlab qovog‘ini soldi:

— Bu mening ishim emas, men bu ishlarga aralasha olmayman. Sen ham aralashma. Bor, undan ko‘ra boshqa ishingni qil!

— Yo‘q, og‘o, siz shuni qila olasiz, — dedi Shamsiya erkalanib, — men siz uchun o‘zimni ham qurbon qildim, siz ham mening bir istagimni amalga oshiring. Odamni o‘limdan saqlab qolishdan ko‘ra oliyjanobroq ish bo‘ladimi. Bu yaxshiligingizni hech vaqt unutmayman. Sarhang aytganingizni qiladi. U do‘stingiz-ku, axir!

— Aytganingni qiladi emish! Barakalla! Aytishga oson, — deb po‘ng‘illay boshladi Hikmat Isfahoniy.— Do‘stim emish! Zap so‘zni topibsan-da!

Keyin sakrab o‘rnidan turib Shamsiyaning oldiga keldi-da, uning ko‘zlariga tikildi.

— Mening do‘st-yorim yo‘q! Ularning birortasi ham mening do‘stim emas. Ular mana buning do‘sti, ko‘rdingmi? Mana buning do‘sti! — deb yonidan yuz tumanlik pul oldi-da, Shamsiyaga ko‘rsatib, jahl bilan uloqtirib yubordi:

— Ana shunday, ular pulimning do‘stlari!.. Pulim bo‘lmasa, u do‘stlarning soyasini ham ko‘rmaysan. Do‘stlarim emish! Sarhang Safoiy aytganimni qilar emish?.. Qiladi!.. Uning bitta jilmayishi menga ming tumanga tushadi, bilasanmi. Bunday ish esa o‘n ming, yigirma ming tumanning boshini yeydi!

Bu so‘zlardan o‘zi ham vahimaga tushdi, shekilli:

— Yo‘q, yo‘q! Mening ko‘chaga tashlaydigan bekorchi pulim yo‘q! — deb qichqirdi.

Shamsiya jiddiyat va yig‘lamsirash bilan:

— Ellik ming tuman bo‘lsa ham berishingiz kerak, ota! — dedi.

Otasining avzoyidan bunga rozi bo‘lish xayoliga ham kelmaganini payqagan Shamsiya umidsizlikka tushdi. Otasiga ta’sir qilish uchun miyasiga qaltis bir fikr keldi.

Butun irodasini to‘plab:

— Siz buni qilishingiz kerak, ota, qilishingiz kerak. Bu ishga mening nomim ham aralashgan. Demak, sizga ham daxli bor, — dedi-da, yuzini qo‘llari bilan to‘sib yig‘ladi.

Hikmat Isfahoniy bir lahzada vahimaga tushdi. O‘rnidan turib Shamsiyaning qo‘lidan ushladi:

— Yoki... Yoki...

U so‘zini tugata olmadi. O‘zi o‘ylagan gapdan o‘zi qo‘rqib ketdi. Dahshatdan tili tutildi. Lablari titradi. O‘zining qanday qaltis ish qilib qo‘yganini Shamsiya ham endi tushundi. Uyalganidan va qo‘rqib ketganidan butun badanini sovuq ter bosdi. O‘zini oqlash uchun boshqa biror dalil topishga urindi. Birdan Sudoba esiga tushdi. Cho‘kayotgan odam somon yoki cho‘pga yopishganidek, u ham darhol shu fikrga yopishib qoldi:

— U Sudobaning sevgilisidir. Sudoba esa mening do‘stim.

Hikmat Isfahoniy birdan yengil tortdi, katta qornini tortib kresloga o‘rnashibroq o‘tirib oldi.

— Esxonamni o‘ynatib yubordingmi! — dedi avvalgi vaziyatiga qaytib, keyin qo‘shib qo‘ydi:

— Sudobaning sevgilisi bo‘lsa, og‘oyi Hakim ul-mulk yordam bersin. Menga nima aloqasi bor!

Xayolidan allanarsa kechdi, shekilli, kulimsirab qo‘ydi. Uning ko‘zlarida o‘ynagan bu tabassumni ko‘rib, Shamsiyani vahima bosdi. Chunki otasi biror ayyorlikni qilishni o‘ylasa, biror riyokor reja tuzsa doim ana shunday qilib kular edi. Shamsiya buni yaxshi bilardi. Ko‘nglini g‘ash qilgan narsa ham ana shu edi. Qiz fikrlarini hali bir yerga to‘play olganicha yo‘q ediki, Hikmat Isfahoniy unga:

— Xo'p, qizim, bor endi! — dedi. — Men sarhang bilan gaplashib qo'yaman. Senga va'da beramanki, Faridunning ishi alohida ko'riladi. Bor endi!

Shamsiya hech narsa tushunmay parishonxotirlik bilan uning oldidan chiqib ketdi. Otasining qanday hiyla tayyorlayotganini qancha o'ylasa ham bir fikrga kela olmadi.

* * *

Shamsiya shubhalanardi, otam meni aldamadimikin, yolg'ondan yupatmadimikin deb o'ylardi. Shu shubhalar ta'siri bilan unda dadil bir fikr uyg'ondi. O'zi sarhang Safoiyning oldiga borib maqsadiga erishmoqchi bo'ldi. Sarhang mening so'zimdan chiqmaydi deb o'ylardi.

U bir ishora qilsa, sarhang oyog'iga bosh qo'yadigandek tuyulardi. Xotinlarga xos instinkt unga shunday derdi. Dastlab o'zi ichki ishlar ministrligiga, sarhang Safoiyning oldiga bormoqchi bo'ldi. Lekin bu fikrdan qaytdi, o'z qadrini tushirib qo'yishdan qo'rqdi, sarhang Safoiyni bunday sharafga loyiq emas deb hisobladi. Unga telefon qilib, kichkina bir masala yuzasidan u bilan so'zlashgani uyda kutajagini aytdi. U o'zi ham sezmagan holda sarhang bilan juda muloyim so'zlashdi. Bundan umidlangan va nihoyatda hayratda qolgan sarhang Shamsiya tayin etgan vaqtdan bir soniya ham kechikmay yetib keldi. Shamsiya uni oq ipak ko'ylakda, atir-upalarni gurkiratib qarshi oldi. Bularning hammasi sarhangga shirin bir tush singari tuyulardi:

— Bizning ham baxtimiz ochiladigan kunlar bo'lar ekan, — dedi u o'z odatiga xilof ravishda tirjayib.

Shamsiya sarhangga uni doim hurmat qilishini aytdi. Biroz har to'g'rida suhbatlashgach, Shamsiya xizmatkorga ikki kishilik choy bilan ovqat buyurdi. Sarhang bilan birga ovqatlandi. Sarhang buni o'zi uchun katta baxt deb hisoblardi. Nihoyat, Shamsiya asl masalani unga ochdi:

— Iltimosimni bajarish mushkul ekanini bilaman... Lekin sizni istagan masalani mantiq va dalillar bilan asoslab bera oladigan aqlli odam ekaningizga ham aminman.

Sarhang xayol daryosiga g'arq bo'ldi. O'zicha allanimalarni o'ylab, hisoblab chiqayotgani ko'rinib turar edi. Nihoyat, u Shamsiyaga sun'iy jilmayish bilan boqdi:

— Xo'p, — dedi u,— siz uchun har qanday ishga ham hozirman.

Bunga mukofot sifatida Shamsiya qo'lini uzatdi. Sarhang bu mo'jazgina, yumshoq va issiq qo'lni labiga bosar ekan:

"Shu tarzda axir bir kun qalbingga ham xo'jayin bo'laman", deb o'yladi hayajon bilan.

* * *

Shamsiya chiqib ketgandan keyin Hikmat Isfahoniy xursandlik bilan kaftini kaftiga ishqab xona ichida kezib yurdi-da, birdan qah-qah urib kulib yubordi.

— Ha-a, og'oyi Hakim ul-mulk, endi qo'lga tushding, naq dumingdan ushlab oldim. Endi holingga maymunlar yig'laydi!

U Hakim ul-mulkni davlatga qarshi fitna uyushtirishda ayblash uchun fursat keldi, deb o'ylar edi. Hatto o'zini shu fikrga ishontirishga urinib: "Ehtimol, u tulki shoh bo'lishni orzu qilgandir. Bu ishlarning tashabbuskori o'shadir!" deb o'ylardi. Hikmat Isfahoniy bunday qilmoqchi bo'ldi. Hozircha Faridunni tirik saqlab qoladi, keyinchalik bu ishda Hakim ul-mulkning ham qo'li borligini podshohga shipshitib, shohning qalbida shubha uyg'otadi. Ikkinchi tarafdan esa, Shamsiyani berishni va'da qilib sarhangni qo'lga oladi-da, Hakim ul-mulkning suvdan quruq chiqmasligi uchun qanday ish ko'rish lozimligini unga tushuntiradi.

Shu fikrlar bilan u odam yuborib sarhang Safoiyni chaqirtirib keldi.

Sarhang darrov yetib keldi, albatta. Hikmat Isfahoniy uni mehribonlik bilan qarshi oldi, yaxshilab ziyofat qildi. U bilan hazillashib-kulishib, chaqchaqlashib o'tirdi. Keyin sarhangning barmog'iga bitta qimmatbaho brilliant uzuk taqdi:

— Ataylab sen uchun buyurtirdim. Yaxshi yigitsan, seni yaxshi ko'raman!

Sarhang bularning hammasidan nihoyatda xursand edi. Shamsiyadan boshqa bolasi bo'lmagan bu qari tulkining mol-mulkiga

voris bo'lish to'g'risida o'ylay boshladi. Hikmat Isfahoniy esa odati bo'yicha o'zini vazmin tutib asosiy masaladan og'iz ochmasdi. Sekin ovqatlanib o'tirar, undan bundan gapirar, ko'proq sarhangning xulq-atvori va yaxshi xislatlarini maqtardi. Sarhang soatiga qarab ketish uchun ruxsat so'ragach, ostonada turib xayrlashar ekan, go'yo bir narsa esiga tushib qolgandek mehmonni to'xtatdi-da, Faridun to'g'risidagi iltimosini bildirdi. Sarhangni shubhalantirmaslik va minnatiga qolmaslik uchun bu ishga chet el elchixonalaridan birining qiziqayotganini qistirib o'tdi. Sarhang xuddi shu gapni bir kun oldin Shamsiyadan ham eshitganini undan yashirib:

— Bosh ustiga, xizmatingizga doim tayyorman, — dedi-da, u ham o'z navbatida Hikmat Isfahoniyni o'zidan minnatdor qilish uchun qo'shib qo'ydi:

— Lekin, ishoningki, bu juda mushkul ish. Nima ham derdim. Sizning so'zingizni yerda qoldirib bo'lmaydi.

Hikmat Isfahoniy uning ketidan: "Obbo, ablah-ey, axir bo'ynimga minnat yuklab ketdi-ya!" deb tupurib, so'kib qoldi. Endi sarhangning minnatidan qutulish uchun unga qancha pul yuborish to'g'risida o'ylab ketdi, o'n ming tuman yuborsammikan, yo besh ming tuman yuborsammikan deb rosa bosh qotirdi. Goh o'n ming, goh besh ming yubormoqchi bo'ldi. Oxiri o'zini so'ka boshladi:

— Ey, ahmoq odam, muncha o'zingni qiynamasang, besh ming tuman uning butun qarindosh-urug'ingga ham yetib ortadi! Pulni yubor, vassalom. "Pulimni it olib qochdi, deb o'ylab qo'yaqolaman-da" deb dam olgani yotdi.

Lekin tinch yota olmadi. "Ehtimol uch ming tuman ham kifoya qilar!" deb o'ylay boshladi. Goh u yonboshiga, goh bu yonboshiga ag'darildi. Lekin hali ham qancha yuborish to'g'risida ma'lum bir qarorga kela olmadi.

* * *

Sarhang Safoiy Hikmat Isfahoniy oldidan g'oyat xursand bo'lib chiqdi. Ko'p vaqtdan beri nazari ilmay, unga yuqoridan qarab yurgan, davlati va nufuziga ishonib, o'zini yiqilmas bir tog'

deb hisoblagan bu odam uning qo'liga tushgan edi. Endi sarhang shunday boplaydi, shunday boplaydiki, uning manmanligidan asar ham qolmaydi... O'ziga juda qiyinlik bilan yo'l ochib kelayotgan kichkina odamning intiqomi juda yomon bo'ladi... Sarhang shunday odamlardan edi. Endi u fursatni qo'ldan boy bermaydi. Nihoyat Hikmat Isfahoniydek takabbur tuyani tiz cho'ktirish vaqti kelgan edi... Shu fikrlar bilan sarhang Safoiy Hakim ul-mulkning uyiga jo'nadi. U Hakim ul-mulk orqali Hikmat Isfahoniyning isyonchilar to'dasi bilan aloqador ekanini shohning qulog'iga yetkazmoqchi va o'z maqsadiga erishmoqchi edi.

YIGIRMA TO'RTINCHI BOB

Ular go'riston sukunati ichida o'lim hukmini eshitdilar. So'ng, yigirma to'rt soatlik umringiz qoldi deb e'lon qilib, o'limga hukm etilgan mahbuslarning kamerasiga qamab qo'ydilar.

Yigirma to'rt soat!

Bu yigirma to'rt soat ichida nimalar bo'lmaydi, deysiz!

Ular ming xil orzu va xayol bilan yashar, ozodlikdan umid uzmasdilar. Shu bilan birga o'tib borayotgan har bir soniya dahshatga solar: ularning ko'z oldida dahshatli dor yog'ochlari tobora ravshan ko'rinib borardi. Ular minutlar va soniyalarni sanay boshladilar.

Karimxon o'z o'lim soatini kutib, minutlarni sanashidan ko'ra dahshatliroq narsa yo'qligini bilardi. Bunday og'ir qiynoqqa chiday olmay jinni bo'lib qolganlarni mahbuslar orasida ko'p ko'rgan edi. Yigirma to'rt soat ichida hayotda ellik yil azob tortgandan ham ko'proq ezilgan, soch-soqoli oqargan, yuz-ko'zini ajin bosib ketgan bir mahbus hozir yana uning ko'z oldida jonlandi, Karimxon uni hech vaqt unuta olmasdi. U, bu fikr va xotiralarni o'zidan uzoqlashtirishga harakat qilar, hayotidagi yaxshi kunlarni, qalbga quvvat va chidam beruvchi hodisalarni eslashga harakat qilardi. Bu xotiralar inson faqat hayotgagina emas, o'limga ham turlicha munosabatda bo'lishini ko'rsatar edi.

Janubda surgunda bo'lganida uchragan bir konchi esiga tushdi. U konchi juda qiziq odam edi. Uning qirq yillik umrining yarmisi turma va surgunlarda o'tgan edi. U besh marta qamoqdan va ikki marta surgundan qochgan edi. Oxirgi marta qochmoqchi bo'lganida tutib olib, o'limga hukm qildilar.

Dorga osishdan oldin: "Bu dunyoda chilimga to'ymadim. Chilim beringlar, bir to'yib chekib olay. Keyin mayli, osinglar", — degan edi. O'n yoshidan boshlab umrini o'g'rilik bilan o'tkazgan o'ttiz yoshli boshqa bir mahbus esa o'lish oldida: "Ahmad choy-

xonachidan besh tuman qarzim bor, shuni beringlar. Onamga aytinglar, bergan oq sutiga rozi bo'lsin!", degan edi.

Arbobning soliq yig'uvchisini urib o'ldirgan Naminlik boshqa bir dehqon esa:

— Men o'lyapman, ammo naminliklarga ayting, u itvachcha arbobga bir shay ham bermasinlar, — deb o'z bo'yniga sirtmoq solgan edi.

Hayotning shu manzaralari hozir jonlanib, uning ko'zi oldidan bir-bir o'tar edi. Lekin ularni u shunchaki bo'lib o'tgan ishlar deb xotirlayotgani yo'q edi. Endi u bu hodisalardan hayotning hikmatini, ularda yashirinib yotgan ma'noni topishga intilardi. Bularning hammasi uni agar kishining hayoti biror maqsad, biror g'oya uchun kurash bilan o'tsa, bunday o'tgan hayotga hech bir afsus qilmaslik kerak, degan fikrga olib keldi. G'oyasiz, maqsadsiz o'tgan hayot, uning nazarida, hayvon hayotidan farq qilmasdi. Insoniyat tarixida qahramonlarni yetishtirib chiqargan narsa biror yuksak, sof maqsadga bo'lgan mayl; biror progressiv g'oyaga bo'lgan muhabbat; chuqur oliyjanob bir orzuga intilishdir, deb o'ylardi Karimxon Ozodiy. Biror ideal, biror ishq, orzu yo'lida o'limdan ham toymagan qahramonlar bo'lmasa, hayotning qizig'i bo'lmaydi. Yashasin ideal! Yashasin muhabbat va yaxshi orzular!.. Qahramonlarni yetishtirgan o'shalardir. Yashasin qahramonlar! Hayotga husn beruvchilar o'shalardir.

Bu xayollar uning qalbini yangi bir ehtiros, hayot va yashamoq ishqi bilan to'ldirardi. Oylab azob-uqubatlar ostida ezilgan qalbida yangi jo'shqin hislar qaynab toshar edi. U yaxshi va yuksak bir orzu yo'lida kurashlar ichida o'tgan umrining og'ir kunlarini o'ylar ekan yana ham ortiq ehtiros bilan, yana ham kuchliroq muhabbat bilan sevish mumkun edi degan qarorga kelardi. Biz bir sham kabi yonib o'chdik, holbuki quyosh kabi nur sochmoq mumkin edi!.. Hatto Xovarga bo'lgan cheksiz muhabbati, uni o'ylab kechirgan uzun oylari, uyqusiz kechalari ham endi so'niq va zaif bo'lib tuyuldi. U yana ham otashin bir muhabbat bilan, yana ham o'tli bir ishq bilan seva olardi. So'ngra o'zini vijdoniy bir gunohdan tozalash uchun tirishgan kabi: "Zamonimiz yomon edi, — deb o'yladi u, — umrimizni muhtojlik va pastkashlik sel-

lariga qarshi kurash bilan o'tkazdik. Kuch-quvvatimizni hayotni qorong'ulikda saqlagan zindonning devorlarini ag'darish uchun sarfladik. Kelajak ozod bo'lsin, bu ozod hayotni ko'rgan nasllar bizdan rozi bo'lsinlar, dedik. Bizning umrimiz ularga ozodlik va muhabbatning ulug'vorligini, dunyoning go'zalligini ko'rsata oladigan turmush yaratish yo'lida o'tdi. Yo'q, yo'q!.. Ular bizdan norozi bo'lmaydilar! Biz tepamizdagi moviy osmonga, porloq yulduzlarga ulardek sevinch bilan qarashga muyassar bo'lmadik..." Bu fikrlar uni biroz tinchitdi, ruhi biroz yengillashdi. "Men umrimda birorta yomon ish qilganim yo'q, birovga yomonlik sog'inmadim, — deb o'ylay boshladi u, — yaxshi odamlarga doim yaxshilik qilishga tirishdim, oldimga kelgan kambag'al va bechora odamlarga pul bilan yordam bera olmasam ham shirin so'z, xushmuomala va muhabbatim bilan yordam berishga tirishdim. Ularning qalbida biroz bo'lsada umid va sevinch tug'dira bildim. Butun hayotim bo'yi ana shu tarzda insonlarning yaxshi yashashi uchun kurashdim, lekin meni bu yo'lga tortgan na shuhrat, na mansab va na mol-dunyo edi... Meni hayotning o'zi bu yo'lga otdi. Men yuz minglarcha o'zim kabi kishilarni ezgan va mahv etgan zanjirlarni uzib tashlashga ahd qildim. Kelajak nasllar mendan yaxshi kurashmagan deb o'pkalashlari mumkin-u, lekin ular meni noto'g'ri harakat qilgan deb ayblamaydilar. Ular mening qalbim pok orzular bilan urganini his qiladilar. Albatta, his qiladilar! Chunki zamon har narsani ham chiritib, yo'q qilib yuborishi mumkin-u, lekin yuksak fikrlarni yo'q qilib yuborishdan ojizdir". Bu fikrlar uni qamoq kamerasida yolg'izlik azobidan xalos qilar, qalin devorlar bilan odamlardan ajratib qo'yilganini unuttirardi. U o'zini doim do'stlari va og'aynilari, toza yurakli va sodiq o'rtoqlari ichida his qilardi. Bu his qalbiga quvvat berar, irodasini mustahkamlardi.

Kechqurun oilasi bilan ko'rishishga ijozat berilganini bildirib, uning bu shirin xayollarini bo'ldilar. Bu sevinchli xabarni eshitib uning yuragi gupullab ura boshladi. Hech vaqt uning yuragi bunday qattiq urmagan edi. U Xovar bilan ko'rishadi! Bu so'nggi ko'rishish edi. Bechora Xovar, baxtsiz Xovar! U hozir nimalar to'g'risida o'ylayotgan ekan? Bu oxirgi ko'rishishda, bu so'nggi

vidolashishda u o'zini qanday tutar ekan? Bu azobli va og'ir fikrda u qalbida allaqanday sabrsizlik his qildi. Endi umrining so'nggi minutlarining tezroq o'tishini xohlar edi, tezroq kech kirishini istardi. U Xovarning nimalar deyishini, o'zini qanday tutishini ko'z oldiga keltirishga tirishardi. Xovar mendan, albatta, xafa bo'ladi deb o'ylardi. U Mahbusiyning yomon odam ekanini aytgan edim senga, deb ta'na qiladiganga o'xshardi. Kim biladi deysiz, ehtimol, u qayg'uning og'irligi ostida hamma narsani ham unutib qo'ygandir? Xovar bilan kichkina Ozodni qanday qarshilash to'g'risida o'ylab, ularga tasalli beruvchi so'zlar axtara boshladi. O'z fikrlarini chuqurlashtirish to'g'risida qancha o'ylamasin, lekin buning uddasidan chiqa olmas, aniq bir fikrga kelolmasdi. Ko'z oldiga goh Xovar, goh Ozod kelar, bu esa ulardan ko'zini uzib, fikrini bir yerga to'plashga imkon bermasdi. U intizorlik bilan ko'rishish soatini kuta boshladi.

Nihoyat, ko'rishish vaqti kelib yetdi. Kun botgandan ancha vaqt o'tgach, uni o'lim kamerasidan olib chiqib kichkina va rutubatli ko'rishish xonasiga olib bordilar.

U yo'lda iflos ro'molchasi bilan so'l ko'zini bog'lab qo'ydi. Bir ko'zining urib chiqarishganini Xovarga ko'rsatish unga og'ir tuyuldi. Bu ham Xovarga bir azob bo'lar edi. U xotini bilan abadiy ayrilarkan uning qalbini qaytadan yaralashni, dardini og'irlashtirishni istamasdi.

Karimxon ko'rishish xonasida o'tirib ko'zini eshikka tikkan edi. Yuragi tez-tez urardi. Ishqilib o'zimni tutsam, Xovar bilan Ozodni ko'rib yig'lab yubormasam bas, deb o'ylardi. Butun vujudi bo'shashib ketgan edi, go'yo butun a'zosi to'zib ketayotganga o'xshardi. U so'nggi kuchlarini to'plab bu bevaqt kelgan zaiflikni yengish, fikri va qalbiga hokim bo'lish uchun tirisharkan eshik ochildi. Kichkina Ozodni yetaklab Xovar kirib keldi. Karimxonning nazarida, Xovarning rangi oqarib ketganday ko'rindi. Ular bir nafas bir-birovlariga tikilib qoldilar. Karimxon xotinining ko'zlarida o'pkalanish yoki ta'na alomatini ko'rmadi, balki so'nmas muqabbat, cheksiz sadoqat belgilarini ko'rdi. Butun vujudi titrab, badaniga darhol issiqlik yugurganini sezdi. Xovarning yanoqlariga ham bilinar-bilinmas qizillik yugurdi. Beixtiyor

quchoqlashib ko'rishdilar. Bu unga abadiy bir baxt bo'lib tuyuldi. Borib o'g'lini bag'riga bosdi. Xovar bilan yonma-yon o'tirib, o'g'lini tizzasiga olib sochlaridan, yuzidan, qo'llaridan o'pa boshladi. Bu minutda u qamoqda ekanini, o'n minutdan so'ng ayrilishini tamoman unutgan edi. Xovar to'rt oylik azoblardan so'ng ozib ketgan, ko'zlari ich-ichiga tushib ketgan Karimxonga qarar, uning bog'liq ko'zidan ko'z uzolmasdi. Allaqanday yashirin bir qo'rquv ahvol so'rashga yo'l qo'ymasdi. Xovar, odatdagidek, boshini erining yelkasiga qo'yib:

— Kasal emasmisiz, Karimxon? — deb so'radi. Go'yo o'zining bu savolidan uyalib ketgandek jim qoldi va kichkina tugunchani yechib toza mayka bilan bitta ko'ylak oldi.

— Kiyimlaringiz kir bo'lib ketgandir, oling, kiyarsiz. Necha marta olib kelgan edim, qo'ymadilar. Narsa ham olmadilar.

U zo'rg'a gapirar edi. Zo'r berishiga qaramay, ovozi bo'g'ilar, ko'z yoshini to'xtata olmas edi. Karimxon kiyim-boshlarini olib bir chekkaga qo'ydi. Bularning unga endi kerak emasligini Xovarga aytishdan qo'rqdi. Xovarning o'z yelkasiga qo'yilgan boshini siladi: "O'z ahvoling qalay, qanday tirikchilik qilyapsan!?" deb so'ragisi keldi. Lekin muhtojlikning iskanjasida o'tayotgan og'ir kunlar ko'z oldiga keldi, butun vujudi titrab jim qoldi.

— Biz to'g'rimizda o'ylamang, — dedi Xovar, go'yo erining nima to'g'rida o'ylayotganini sezgandek. — Xudoga shukur, biz och qolayotganimiz yo'q. O'zim ham ishlayman. Bu yil Ozodni ham maktabga beraman.

Butun ko'rishish vaqtida otasining tizzasida erkalanib o'tirgan, uning bag'riga kirib qamoqxona nazoratchisidan ko'z uzmagan Ozod birdan sakrab otasining tizzasidan tushdi-da, uning qo'lidan tortib eshikka tomon sudray boshladi:

— Turing, otajon, uyimizga ketamiz. Bu yer yomon ekan, turing ketamiz, — dedi u.

Karimxon o'g'liga javob topolmadi, xayol uni uzoqlarga olib ketdi. Qamoqxonaning qalin devorlari, panjarali derazalaridan tashqaridagi hayot ko'z oldiga keldi:

— Boraman, o'g'lim, — dedi u, — albatta boraman. Bugun bo'lmasa, ertaga boraman. Senga ozod hayot olib boraman!

Xovar o'zini tuta olmay yig'ladi:

— Gapiring, Karimxon, gapiring. Ovozingizni to'yguncha eshitay, gapiring.

Karimxon o'g'lini yana o'tqazib, keyin Xovarning boshini siladi:

— Nimani gapiraman, Xovarim, sen ham ro'shnolik ko'rmading. Dunyoga kelib bir kun ham rohatda yashamading. Men senga yaxshi sharoit tug'dirib berolmadim.

Xovar ko'z yoshlarini artdi:

— Unday demang, Karimxon, nega unaqa deysiz? Siz qo'lingizdan kelganicha harakat qildingiz. Xudoga ming shukur, men sizdek odam bilan turmush qurdim. Men boshqa hayotni istamayman!..

Ularga ajralish payti yetganini eslatdilar. Ikkalasining chehrasida ham hayrat alomatlari ko'rindi. Vaqt naqadar tez o'tib ketibdi!.. Karimxon Xovarni ortiq qiynamaslik uchun o'rnidan turdi.

— Xafa bo'lma, Xovarim, bu qorong'i tunlar o'tib ketadi. Siz yorug' kunlarni ko'rasiz, ozodlikning yoqimli shabadasi sizni erkalatadi. O'shanda bu kunlarni unutasizlar. Istibdoddan paydo bo'lgan yaralarni ozodlikning o'sha kunlari davolaydi. Ana o'shanda men ham kelib, sizlar bilan birga ozodlikni bayram qilaman!...

Unda endi so'zlash istagi uyg'ondi, oylar mobaynida ortgan iztirob va hayajonlari, barcha xayol va orzularini so'zlab bergisi kelardi. Qamoqxona boshlig'i va nazoratchilar bu g'alati so'zlarni gapirayotgan odamning so'zini kesishga jur'at etolmasdilar. Ular, oyog'i ustida zo'rg'a turgan bu odamning ovozidagi quvvat va matonatga hayron qolgan edilar. Uni dor yog'ochi ostiga olib kelgan bu fikrlarida faqat tuganmas bir quvvatgina emas, ajoyib bir go'zallik ham bor edi!.. Lekin ular o'zlariga kelganda bu quvvat bilan go'zallik ularga dahshatli ko'rindi.

Eshikni ochib Xovarga:

— Chiqing, xonim! — dedilar.

Karimxon Ozodni Xovarga bermoqchi bo'ldi. Lekin bola bir narsani anglaganday:

— Ketdik, otajon, yuring! — deb otasining bo'ynidan mahkam quchoqlab olgandi — Yuring, ota, ketamiz! — derdi. Bu so'zlar-

ning vahimali ma'nosini endigina tushungan qamoqxona boshlig'i bolani tortib olmoqchi bo'ldi.

Karimxon uning qo'lini itarib qo'ydi:

— Ovora bo'lmang, og'o, o'zim beraman!...

O'g'lini yana bir o'pdi, erkaladi, uning kichkina qo'lchalarini bo'ynidan oldi:

— Bor, o'g'lim, seni onang kutib turibdi, kelajak kutib turibdi...

So'ngra nima bo'lganini bilmadi. Go'yo dunyo boshiga ag'darildi, hech bir tayanchi bo'lmagan, goh achchig' po'rtanalar quturgan, goh shirin bir tabassum bilan kulib boqqan tengsiz jar uni o'z quchog'iga oldi.

* * *

Quyosh tik kelgan, Tehronning butun ko'chalari bo'shab, tinchib qolgan edi. Hatto foytunchilar ham ko'rinmasdi. Magazin va do'konlar yopilgandi. Faqat choyxona, oshxonalar va ba'zi mayda do'konlargina ochiq edi. Hamma o'z uyiga, o'z hujrasiga kirib, ovqatlanib istirohat qilmoqda edi. Ko'chalarda faqat devorlar soyasiga qisilgan tilanchilar va har kuni erta tongdan to kechgacha bozor-o'charda dallollik qilib, shirinxoma olib tirikchilik qiladigan bekorchilar ko'zga tashlanar edi. Ular birovga qayerdan yaxshi paypoq sotib olish mumkinligini, birovga qayerda yog'liq go'sht borligini ko'rsatishar, tajribasiz xaridorlarni, ayniqsa qishloqdan kelgan dehqonlarni kuzatib qo'yishar; ular bilan do'kondorlar o'rtasida vositachilik qilishar; birovlarning yukini uyga eltib berishar edi.

Odamlardan yuzsizlik bilan baxshida so'rovchi bu kishilar ichida insonlik xususiyati va layoqatini tamomila yo'qotib qo'ygan, bir tuman pul uchun har qanday pastkashlikdan ham qaytmaydiganlar kam emas edi. Ular odamning qiyofasiga qaraboq uning xasis yoki saxiyligi, ziyrak yoki anqovligini darhol payqab olishga mohir edilar. Ular o'z qurbonlarining afti-angoriga qarab, hech bo'lmasa, bir-ikki qiron undirib olmay qo'ymasdilar. Kun tik kelib, issig'iga chidab bo'lmay qolgan paytlarda bunday odamlar o'z vaqtlarini taryakxonalarda yoki fohishaxonalarda o'tkazadilar. Xilvat ko'chalarda uchrab qolgan yakka-yu yolg'iz odamlarni so'yib ketishdan

ham toymasdilar... Ular orasida, kechalari, hatto shaharning markaziy ko'chalarida bo'lsa ham, o'ng kelib qolganda odamlarning boshidagi qimmatli paypog'ini olib qochadiganlari ham yo'q emas. Avgustning issiq quyoshi tik kelib, atrofga o't sochayotgan vaqtda shunday bekorchilardan bir guruhi Tehronning iflos va chang ko'chalaridan birida, devor ostiga yig'ilishgan edi.

Fon Valterning bergan pullarini qimorxonalarda va ishratxonalarda tamom qilgan, xo'jayinidan navbatdagi pulning tegishini sabrsizlik bilan kutayotgan arbob Hanafiy ham shular orasida edi. Ular davra qurib o'tirishib, karta o'ynashar va ikki so'zning birida bir-birini so'kishar, ovozlarini baralla qo'yib baqirishardi. Ulardan sal narida, shunday ko'chaning o'zida ko'cha oshpazi qovurdoq pishirmoqda edi. Uning kal boshi oftobda misday yaltirardi. U qovurdoqni lochiraga solib xaridorlarga uzatardi. Qovurdoqning totli hidi atrofni tutib ketgan edi.

— Hay, kal, qovurdog'ingdan menga ham bir kapkir ber, — deb qichqirdi arbob Hanafiy o'tirgan joyidan.

Kal besh qiron pul uzatib turgan xaridorini tashlab, qovurdoqdan lochira ustiga bir kapkir suzdi-da, chopganicha unga olib bordi.

— Ma, qovurdoq sendan aylansin, xohlasang qozoni bilan ob kelib beraman.

Qovurdoq bilan lochirani pok-pokiza tushirgan arbob:

— Ey Xudo, bir lagan palov yuborsang-chi! — dedi. — Bunaqa ovqat bilan qorin to'ydirib bo'lmaydi.

— Qamarbonunikiga boraqol, arbob,— dedi o'rtoqlaridan biri.

— Qamarbonuning uyi kuysin! Qamarbonu tekinga non berarmidi?

— Foyda qilmasa bir tiyin ham sarflamaydi.

— Seni arbob deydilar, axir! Bir vaqtlar uni rosa sog'ib ichding-ku.

— Tasodifan bir bo'lib qoldi-da! Gulnozni deb meni boqdi. Lekin u hech vaqt bunday chuv tushmagan edi.

— Nega? Gulnozdan hech ish chiqmadimi?

Arbob jiddiylashdi:

— U to'g'rida so'ramay ham qo'yaqolinglar, bolalar. Dunyoga kelib men hali bunday qizni ko'rmagan ham, eshitmagan ham edim.

Hech qanday tazyiq ham, tahdid ham uni qo'rqita olmadi. Qamarbonudek tajribali xotin ham unga bas kelolmadi. U qora moldek ishlasa ham nomusini sotishga rozi bo'lmayapti. Men axloqsiz bir odam bo'lsam ham Gulnozning o'z nomusini saqlashiga qoyilman.

— Eh, og'aynilar, — dedi o'tirganlardan biri. U, aftidan, hali odamgarchilikdan tamom chiqmagan ko'rinardi. — Xudo peshonangga bitta vatan bilan bir burda nonni yetkazib bersa-yu, ana shunday qiz bilan umr kechirsang.

Inson qalbining toza orzularini aks ettirgan bu so'zlar uzoqqa cho'zilmadi. Suhbat yana ko'cha bekorchilariga xos mavzuga ko'chdi:

— Ey... qo'ysalaringchi bu bekorchi xayollarni, — dedi arbob kaftini kaftiga ishqab, — ochimdan o'lay deyapman. Bitta palovga pulni qayerdan topsa bo'larkin? Ey Xudo, sendan ko'p emas, faqat bir palovga pul so'rayapman-a!...

— Arbob, Xudoga ko'p yolvoraverma, mening kulgim qistayapti. Esimga bir bema'ni narsa kelyapti.

— Nima?

— Qo'l ochib Xudodan yo qorniga osh, yo boshiga tosh so'ragan O'rdubodlik kishi qissasini bilasanmi?

Arbob uning so'ziga e'tibor bermadi:

— Hay bola, anavini qara, bu kim bo'ldi? — deb u sekingina qadam tashlab kelayotgan, boshdan oyoq qora kiyimli xotinni ko'rsatdi. O'tirganlarning hammasi ham gap qotdi.

— Juda arbobga zab xotin ekan-da.

— Kambag'alga ham yomon bo'lmaydi.

— Yo'g'-ey, unday bo'lmasa kerak.

— Ko'rmaysanmi qora kiyib olganini.

Xovar nihoyatda charchaganidan ularning na o'zlariga, na so'zlariga e'tibor bermay g'amgin holda o'tib ketdi.

— Bu anavi osilganning xotini-ku,— dedi arbob.

— Parvo qilma, arbob, bir kun sening onang ham shunday qora kiyadi... Vaqti g'animatda kayfingni surib qol,— dedi ulfatlardan biri.

Ko'zi bilan Xovarni kuzatib turgan arbob uning gapiga ham ahamiyat bermadi. Xovar o'n-o'n besh qadam naridagi non do'-

kon oldiga borib to‘xtadi-da, issiqdan mudrab o‘tirgan novvoyga murojaat qildi:

— Amaki, uch popsa non bering.

Keksa do‘kondor boshini ko‘tarib mudroq ko‘zlari bilan unga qaradi, shoshmay taroziga tosh qo‘yib, non olish uchun o‘rnidan turdi.

Xovar qo‘yniga yashirib qo‘ygan o‘n tumanlik pulni olib, hisoblagichga qo‘ydi.

Arbob karta o‘ynayotgan pakanagina yigitning yelkasiga turtdi:

— Tur o‘rningdan, Xudo tushlik ovqatning pulini yetkazdi.

Uch yigit darhol o‘rinlaridan turishdi. Xovar ularning maslahatlarini ham eshitgani yo‘q. O‘rinlaridan turib kelganlarni ham ko‘rmadi.

Pulini hisoblagichning ustiga qo‘yib, non tortish bilan ovora bo‘lgan keksa do‘konchiga qarab turardi. Xayoli o‘zida emas edi. U hamma narsani unutgan edi. Uch yigitning qachon kelib, qanday qilib atrofini o‘rab olishganini sezmay qoldi. Ulardan biri Xovarning o‘ng tomonida, ikkinchisi chap tomonida turardilar, uchinchisi esa orqasidan bo‘ynini cho‘zib do‘kondordan so‘radi:

— Amaki, non necha puldan?

Qo‘lidagi nonni taroziga qo‘yayotgan keksa do‘konchi bularni yaxshi tanir edi, shuning uchun:

— Jo‘nanglar bu yerdan! — deb o‘shqirib berdi.

Ularning uchalasi baravar:

— Sotmasang sotma, boshqa joydan olamiz, — deb kulishganicha shovqin-suron qilishib, allaqayoqqa g‘oyib bo‘lishdi.

Do‘kondor nonni tortib, hisoblagichning ustiga qo‘ydi.

— Ol, qizim.

Xovar nonga qaradi. Pul to‘lash lozimligini esladi. Lekin pulni topolmadi. Qo‘ynini axtardi, pul yo‘q edi. Beixtiyor ko‘zlariga yosh keldi.

— Pulim esimdan chiqib qolibdi. Borib olib kelay, — deb qaytib ketdi.

Oyoqlari yurmasdi. Ozod uyda och o‘tirardi. Egnidagi motam kiyimidan boshqa sotishga ham hech narsa qolmagan edi. Nima qilayotganini, qayoqqa ketayotganini sezmasdi. Shu tarzda Lola-

zor xiyoboniga chiqdi. Ko'cha bo'm-bo'sh edi. Do'konlar tagida yotgan tilanchilar oldidan tez o'tdi. Ariq ichida yurgan bir necha yosh bolalarga ko'zi tushdi. Ular tilanchi bolalar edi. Nazarida, Ozod ham shular ichida yurgandek tuyuldi. Yuragi qinidan chiqib ketayozdi. Yo'q, Ozod uchun har narsaga ham chidashi lozim! Uni katta qilishi, voyaga yetkazishi kerak. Shundan keyingina butun bu azoblarni unutish mumkin edi. Yonidan o'tib ketayotgan kishi unga qaradi. U badavlat odamga o'xshardi. O'tkinchi Xovarga qarab to'xtadi. U hayosizlik bilan Xovarga tirjayib tikildi-da, cho'ntagidan ikki tumanli pul olib ko'rsatdi.

— Xonim, yur men bilan, ikki tumanim bor...— dedi.

Xovarning ustidan go'yo bir chelak sovuq suv quyilgandek, allakim unga bir tarsaki urgandek tuyuldi. Ozod ham, ochlik ham xotiridan ko'tarildi.

— Benomus! — deb o'tkinchining aftiga tupurdi-da, ura qochdi.

Hech yerda to'xtamay, yugurganicha uyga keldi. Uni Ozod eshik oldida kutib o'tirgan ekan.

Ozodning butun fe'li Karimxonga o'xshar edi. U kamgap, vazmin bola edi. U hech vaqt hech narsadan shikoyat qilmas, o'zini mag'rur tutar, ochlikdan sillasi qurisa ham non so'ramas edi. Shuning uchun ham Xovar o'g'lining beixtiyor onasining qo'liga qaraganini ko'rib, o'zini tuta olmadi, ko'z yoshlari duv to'kildi:

— Do'kon yopiq ekan, qo'zichog'im, do'kon yopiq ekan. Biroz sabr qil. Bir damdan keyin non olib kelaman.

Bola hech narsa demadi. Xomushlik bilan o'rnidan turdi-da, onasiga qarab, bolalarga xos qizg'inlik bilan gapira boshladi:

— Ona, nega yig'laysiz? Otamni sog'indingizmi? Men ham sog'indim. Nega kelmaydilar ular? Siz doim ikki oydan keyin keladi derdingiz. Ikki oy hali ham o'tgani yo'qmi? Xat yozing, kelsinlar endi! Ular kelganlaridan keyin nonimiz ko'payadi. Go'shtimiz ham bo'ladi. Esingizdami, otam menga konfetlar ham olib kelar edilar... Xat yozing, kelsinlar, sog'indim.

— Yozaman, qo'zichog'im, yozaman. Bor, suratini ko'rib tur, o'zlari ham kelib qoladilar.

Xovar tokchada turgan suratni olib, o'g'lining qo'liga berdi. Bu Karimxon bilan Faridunning birga oldirgan surati edi. Ozod

ularga qarar, onasiga turli savollar berar edi. Ochlik esidan chiqqanday edi. Bu Xovarni sevintirdi. Lekin kelajakning fikri, kechqurun, ertaga ertalab, undan keyin nima qilish kerak degan fikr miyasidan nari ketmasdi. Kelajakning g'ami doim uning qarshisida turar va yuragiga vahima solar edi.

Eshik taqillashi bilan uning kelajak to'g'risidagi qo'rqinchli fikrlari va non topish dardi esidan chiqdi. Uning:

— Kim u?— degan savoliga ko'chadan ayol kishi javob berdi.

— Och, singlim, qo'rqma? Och!

"Faridundan biror xabar bo'lsa edi!" deb o'ylab, yuragi gupillab urgani holda eshikni ochdi. Do'rdoq lablariga elik surgan semiz xotin bilan o'rta bo'yli, nozik gavdali, shahlo ko'zlari muloyimlik bilan boquvchi bir qiz kirib keldi. Qizning kulib turgan yoqimtoy yuzini ko'rib Xovar uning yaxshi bir xabar keltirganini taxmin qildi. Farishtaday go'zal va pokiza qizning yomon xabar keltirishi mumkin emasdi. Bu qizning oyog'i qutlug' bo'lsa kerak. Yaratgan ham uni bilib yaratgan! Yaxshi odamning boqishlari ham doim go'zal bo'ladi. Xovar kelganlarning kiyim-boshiga razm soldi. Semiz xotin qizil gulli sariq materialdan xalatga o'xshash kiyim kiygan, oyog'ida ipak paypoq va qizil hoshiyali oq yengil tufli. Juda o'ziga oro berib, o'lgudek pardoz qilgan edi. Ikkinchisi, nozik gavdali, shahlo ko'z qiz esa kambag'al qizlarga xos eski chit ko'ylakda edi. Xovar uni boyvachcha xonimning xizmatkoridir deb o'yladi. Xatti-harakatlaridan ularning bir-biriga tamoman zid, ikki xil odam ekanligi darhol ko'zga chalinar edi. Boyvachcha xotinning allaqanday hayosizligi ko'rinardi. Xizmatkorga o'xshash qizning chehrasidan esa g'ussa bilan uyatchanlik sezilardi. Uning eski chit ko'ylagining yoqasidan oppoq bo'yni ko'rinib turardi. Qora sochlarini yaxshilab o'rib, orqasiga tashlab qo'ygan edi. Yoshi o'n to'qqiz, yigirmalardan ortiq bo'lmasa ham, boqishlari dunyoda ko'p yashagan va ko'p dard chekkan odamlarning boqishidek g'amgin edi. Olachipor bulutlar yoz osmoniga yarashganidek bu g'amginlik uning shahlo ko'zlariga yarashar, boqishlariga allaqanday g'alati mehribonlik baxsh etar edi. Bu Gulnoz edi. Xovar bu yoqimtoy qizga qarab kulimsiradi, ularni ichkariga taklif qildi.

Uyda ularni o'tqizadigan biror joy yo'qligini o'ylab, afsuslandi, ilgariroq o'zi ichkari kirib derazani ochdi. Deraza tokchasiga gazeta to'shadi.

— Marhamat, o'tiringlar, xonimlar, — dedi u, hali ham bosilmagan hayajon bilan.

Har ikkala mehmon rahmat aytib ko'rsatilgan joyga o'tirdi. Xovar semiz xonimning harakatlari va gap-so'zlarida yasama takabburlik borligini payqab, Gulnozga bo'lgan mehri yanada oshib ketdi.

Birinchi ko'rishdayoq yoqib qolgan bu qizga hayron bo'lib tikilar, undan ko'z uzolmasdi, go'yo semiz xotinni tamomila unutgan edi. Semiz xotin:

— Uff, naqadar qashshoq, naqadar beo'xshov kulba ekan! — deb o'zining shu yerdaligini Xovarga eslatganday bo'ldi. Xovar unga allanarsa demoqchi bo'ldi-yu, lekin indamadi. Uyga bir qarab qo'ydi.

— Keyingi kunlarda bizning uyimiz ham shunaqa edi, dedi Gulnoz, uning ko'nglini ko'tarmoqchi bo'lgandek, — qo'l artishga ham birorta eski lattamiz qolmagan edi. Xuddi shunaqa edi.

Uning bu so'zlari birinchi ko'rishdayoq unga mehr qo'ygan Xovarning qalbidagi muhabbatini yanada oshirib yubordi. Ayni vaqtda unga ko'ngli achidi. Yomon xotiralarni qizning esidan chiqarishga harakat qildi.

— Xudoga shukur, ko'rinishdan, endi hamma narsangiz borga o'xshaydi!

Gulnoz, o'zining ma'sum ko'zlari bilan unga yalt etib tikildi-yu, yana chetga qaradi. Xovar uning yanada g'amginroq boqqanini ko'rdi.

Qiz kulimsiradi. Xovarga bu tabassumda sevinchdan ko'ra ko'proq ko'z yoshi borday tuyuldi.

Semiz xonim gapga aralashdi:

— Ha, har narsamiz bor! — dedi u.

— Xudo yor bo'lsin. Sira qiyinchilik ko'rmanglar...

Semiz xonim yo'g'on qo'llarini biqiniga tirab, xona ichida kezdi:

— Xohlasang, sening ham hamma narsang bo'ladi.

Xovar ajablandi:

— Qanday qilib, egachi? — deb so‘radi u. — Men baxti qora ayolman.

— Mening baxtim senikidan ko‘ra ham qoraroq edi, endi hamma narsam bor.

— Sizning qo‘ltig‘ingizga kiradigan, qo‘lingizdan tutadigan, tayanadigan odamingiz bo‘lsa kerak-da. Mening kimim bor? Dunyoda mana shu yakka-yu yagona o‘g‘limdan boshqa hech kimim yo‘q.

— Men ham oldin senga o‘xshab, shunday deb o‘ylagan edim. Keyin qarasam, suyanadigan odamlar bor ekan.

— Kim ekan u, egachi? Kim u yomon kunda qo‘lingdan tutadigan?

Xonim Xovarning qarshisida to‘xtadi. Oyna oldida pardoz qilayotgandek sochlarini silab Xovarga tomon engashdi:

— Sen hali yoshsan, — dedi u, — istasang har narsaga ega bo‘lishing mumkin!

Xovar uyalib yerga qaradi. Derazada o‘tirgan Gulnoz ham boshini quyi solib o‘tirar edi.

Semiz xotin so‘zida davom etdi:

— Bizning peshonamiz shunday o‘zi, singlim. Rozi bo‘lsak ham olib boradilar, rozi bo‘lmasak ham. Modomiki hozir ishongan odamimiz yo‘q ekan, go‘zalligimizdan foydalanishimiz kerak. Xudo taoloning bizga bergan davlati — shu. Shunday ekan puli ham, ishongan biror kishisi ham, husni ham bo‘lmagan bechoralar nima qiladi? Ular ochidan o‘ladi, tilanchilik qiladi. Bizga esa Xudoning rahmi kelgan. Bizga baxt yozayotganida rahmi kelib, juda bo‘lmasa shu husnni beribdi-ku, o‘zini eplab yursin, ko‘chalarda ochdan o‘lmasin degani-da shu! Hali yoshsan, vaqt g‘animatidan foydalan, fursatni qo‘ldan berma. Chunki bu baxt ham bir kun bizdan ketadi. Yuzimiz tirishib, mana bular, — u yanoqlarini ushlab ko‘rsatdi, — sarg‘aygach, bizga hech kim qaramay qo‘yadi, ha! Qariganingda ko‘chada itdek ochingdan o‘lib ketmaslik uchun go‘zalligingni ishlatib qol, yoshligingda pul g‘amlab ol.

Xovar boshini quyi solib o‘ylardi: bular nima uchun shunday yomon yo‘lga kirisharkin? Nega o‘z nomuslarini saqlashmas ekan?.. Shularni o‘ylar ekan g‘ayri ixtiyoriy ravishda yig‘lardi.

Semiz xonimning maqsadini tushungach, uni qo'lidan sudrab ko'chaga olib chiqib tashlashdan o'zini zo'rg'a tiydi. Go'yo eng buyuk va muqaddas narsa bilan hayotning ma'nosi va jonini tashkil etadigan narsa bilan vidolashayotgandek bo'ldi. Yo'q, oyog'i ostidan yer qochar, u ustida turgan ko'prik ag'darilar va tagsiz chuqurlik uni o'z qariga tortardi.

Shu payt titragan yelkalariga allakimning qo'li tekkanday bo'ldi. Bu Ozod edi. U so'l qo'lini onasining yelkasiga qo'yib:

— Ona, qornim og'riyapti... — dedi.

Gulnoz Ozodning oldiga keldi:

— Bechora bola, demak, ertalabdan beri hech narsa yemaganga o'xshaydi, — deb bolaning yuzidan o'pdi-da, afsuslanib qo'shib qo'ydi: — Bizning Ayoz ham shunday edi.

Uyiga kelgan ayollarning biri nihoyatda pastkash va iflos, ikkinchisining esa nihoyatda oliyjanob va pokiza ekanini ko'rib Xovar o'z dardini unutdi. Qizning keyingi harakatini ko'rib, ularning xo'jayin va xizmatkor ekaniga ishonmay qo'ydi:

— Singlim, Xudo haqqi, hech narsa tushuna olmayapman, aytchi, sizlar kim bo'lasiz? Biringiz farishtadek sof va toza ko'rinasiz, biringiz esa... nima desam ekan... Sening yuz-ko'zingdan nur yog'iladi, buning esa... Menga tushuntir, nima gap o'zi, nima maqsadda bu yerga keldingiz?..

Gulnoz javob bermay, Ozodni bag'riga bosdi, mahkam quchoqlab o'par ekan, bolaning qo'lidagi surat yerga tushib ketdi. Xovarning suratga ko'zi tushdi. Rasmdan unga Karimxon jiddiy va horg'inlik bilan qarab turar edi. Yo rabbiy!.. Bu ko'zlar hozir Xovardan gina qilayotgandek, bu so'zlarga quloq solma, deyayotgandek tuyuldi.

U suratni olib, labiga bosdi-da, o'rnidan turdi.

— Xonimlar, — dedi u qat'iy qilib, — kim ekaningizni bilmasam ham sizlarga rahmim kelayapti. Sizlarga achinaman. Lekin sizlarga yordam berolmayman. Men bu bo'm-bo'sh uyda ochimdan o'lsam o'lamanki, o'zimni sotishga rozi bo'lolmayman. Bunday qilolmayman.

Gulnozning ko'zi allaqanday hayajon va iztirob bilan yonib ketdi. U Xovarning qo'lidagi suratga tikilib turardi.

— Ko'rsam mumkinmi? Iltimos qilaman sizdan,— dedi u titroq tovush bilan.

Hech narsaga tushunmagan Xovar suratni unga uzatdi:

— Mana, marhamat!

Gulnoz suratni qo'liga olar ekan rangi o'chib ketdi, oyoqlarining darmoni qurib deraza tokchasiga o'tirib qoldi.

Tizzasiga tirsaklari bilan suyanib, uzoq vaqt rasmga tikildi...

Uning ko'zlaridan yumalab tushayotgan yoshlarni ko'rgan Xovar:

— Yig'lama, xonim, nega yig'laysan? Yo rasmdagi odamlarni taniysanmi? — deb so'radi.

Gulnoz bosh qimirlatib tasdiqladi.

U ma'yus bo'lib, umidsizlik bilan Faridunni ko'rsatdi:

— Bu sizning tanishingizmi?

— U mening akam! Akamdan ham afzal!..

Birdan Xovarning miyasiga lop etib bir fikr kelib:

— Hay qiz, sen Gulnoz emasmisan? — deb so'radi.

Qiz ho'ngrab yig'lab yubordi.

— Ha, Gulnozman, Gulnozman.

— Oh, Faridun sening to'g'ringda qanday gapirardi-ya. Hamisha seni maqtardi.

Qiz turib, Xovarni quchoqladi. Boshini uning yelkasiga qo'yib, yana yig'ladi. Bu yigitni ne umidlar bilan sevganini, qanday orzular qilganini va boshiga qanday kunlar tushganini so'zlab berdi:

— Borma, Xovar opajon, borma u yerga, — dedi u.

— Bu xotinni Qamarbonu yuborgan. Uch kundan beri bunga gap o'rgatadi. Unday deysan, bunday deysan, deb gap uqtiradi. Seni olib borsak har birimizga o'n tumandan pul va'da qilgan edi. Olib bormasak, kechqurungi ovqatdan mahrum bo'lamiz!.. Borma, borma u yerga! U yer shunday bir jahannamki, tushgan odam qaytib chiqa olmaydi. U yerga borgach, qaytish mumkin emas... Borma!..

Xovar uning sochini siladi:

— Sen ham qolaver shu yerda, birga yashaymiz. O'lsak ham birga o'lamiz. U yerga qaytma, — dedi Xovar.

Gulnoz bosh chayqadi:

— Endi men undan qutulolmayman. Undan yuz tuman qarzman. Qarzimni to'lamay hech qayoqqa ketolmayman.

Xovar hayron bo'ldi:

— Qanday qarz?

U Qamarbonudan qanday qarz bo'lib qolganini so'zlab berdi.

— Uy haqi, ovqat, kiyim-bosh puli va yana allaqanday xarjlar...

Xovar masalaga darhol tushunib, uning so'zini kesdi:

— U seni aldabdi, — dedi u, — qochib kel u jahannamdan! U yerda turma!

— U meni o'ldiradi, opajon. Sen uning qanday ajdaholigini bilmaysan!.. Uning changalidan qochib qutulib bo'lmaydi. Men nomusimni himoya qila oldim. Shu ham katta gap.

Ostonada goh hovliga, goh uydagi hasratlashayotgan ikki ayolga qarab turgan semiz xotinning nihoyat sabri tugadi:

— Hay, qiz, — dedi u Gulnozga, — muncha gapdoning ochilib qoldi, yur ketamiz.

Gulnoz unga ahamiyat bermadi. Yana Ozodni quchoqlab o'pdi. Xovarga ikki tuman pul uzatdi:

— Ol, o'g'lingga non olib berasan!..

Xovar qarshilik qildi. Gulnoz zo'rlab pulni uning qo'liga tutqazdi:

— So'zimni qaytarma, iltimos qilaman!

Eshik oldidan eshitilgan qichqiriqqa ikkalasi ham yalt etib qarashdi: bu Xovarning eshikni zanjirlashni unutganidan foydalanib, to'g'ri hovliga kirib kelayotgan Qamarbonu edi. U Xovar bilan Gulnozning suhbatining oxirini eshitib turgan edi. Qamarbonu Xovarning qo'lidan pulni tortib oldi. Gulnozning sochidan burab, hovliga sudradi:

— Itvachcha, men seni bozorga yuborganmidim yo bu yergami? Endi it kunini boshingga solaman.

Gulnoz na qichqirar va na qarshilik ko'rsatardi.

Qamarbonuning tarsaki va mushtlaridan qo'rqmay, uning qarshisida mag'rur turardi. Qamarbonu uni urib-urib ko'chaga sudradi. Shunda qiz o'girilib Qamarbonuning qo'lini ushladi-da, Xovarga qarab jilmayishga urindi:

— Yaxshi qol, Xovar opa, sog‘ bo‘l! — dedi.

Uning shahlo ko‘zlaridan sizib chiqib, yanoqlaridan oqayotgan ko‘z yoshlari Xovarning qalbida naqshlanib qoldi.

Qamarbonu Gulnozni ko‘chaga sudrab chiqar ekan, Xovarga qarab:

— Sen hali shoshmay tur! Men bu bilan tinchib qo‘yaqolmayman. Senga arbobning o‘zi tikilgan. O‘lsang ham, qolsang ham, axir, menikiga borishga majbursan! — dedi. Xovar bu tahdidlarni darhol unutdi. Lekin Gulnozni unutolmadi. O‘ylab-o‘ylab Gulnoz ham yuzlarcha boshqa xotin-qizlar singari istar-istamas yomon yo‘lga tushgan va undan qutula olmaydi degan qarorga keldi. Qamarbonu esa, hali ham Gulnozni qarg‘ab koyir, lekin aytganiga ko‘ndirolmasdi. Xovarning uyida yuz bergan hodisadan keyin uni bozorga ham, ko‘chaga ham chiqarmay qo‘ydi. Qizni mahbusday uyda saqladi. Uni har xil og‘ir ishlarni bajarishga majbur etdi, turli yo‘l bilan tahqirlashga urindi. Ba’zan umidsizlantirish uchun qiynar, charchatar, och qo‘yar edi-da, keyin yaxshi kiyim-bosh, ovqat va ozodlik va’da qilar, boloxonadagi xonimlarga qo‘shilishga undardi. Lekin Gulnoz har safar g‘azab bilan: “yo‘q” deb javob berardi. Qamarbonu quturib, yana yangi-yangi choralar izlardi. Lekin Gulnozning irodasi ham tobora mustahkamlana bordi. Ular o‘rtasidagi kurash borgan sari avjlanardi, bu kurash ulardan birining o‘limi bilangina tugashi mumkin edi...

YIGIRMA BESHINCHI BOB

Go'har xonim Sariya xolaga ko'k katak xalat berdi, uni ikki qavatli binoning birinchi qavatiga, ya'ni oshxona oldidagi ayvonga o'tqazib, oldiga yung va boshqa kerakli narsalarni qo'ydi-da:

— Mana shu yerda ishlaysan, — dedi.

Sariya xola har kuni ertalab shu yerga kelib ishlar, kechqurun esa fabrikadagi zax, qop-qorong'i hujrasiga borib yotardi. Go'har xonimga bolalar yoqmasligini sezib Niyozni olib kelmas, yolg'iz o'zini fabrika hovlisiga tashlab kelishga majbur bo'lardi.

Ikkinchi kun Go'har xonim Sariya xolaga bir tuman pul bergan edi, Sariya xola uni maydalab har kuni ikki qironlik non olib turdi. Nonni ikkiga bo'lib, bir bo'lagini Niyozga berar, bir bo'lagini eski-tuski lattalarga o'rab bir chetga yashirib qo'yardi:

— Buni hozir yegin, bunisini esa hali tushda yeysan, bolam, — derdi-da, o'g'lining yuzidan o'pib, ishiga ketardi. Kechqurun qaytishida Go'har xonimning sarqitlarini ko'tarib kelardi. Niyoz onasi olib kelgan nonlarni ochko'zlik bilan yer, endi ochlikdan shikoyat qilmasdi. Ammo Niyozning rangi o'ziga kelmadi, uning yuz-ko'zi sarg'ayib boraverdi. Uni avvalgi holga keltirish uchun Sariya xola o'z nafsini qiyib, topganini unga yedirardi. Kechqurun ishdan qaytganida qarovsiz qolgan Niyoz ust-boshi iflos, basharasi kir bo'lib yurganini ko'rardi. Xotinlar Niyozning loy o'ynagani, pilla qozonlariga surkalgani va hovlining o'rtasida yotib yig'laganini aytib berishardi.

Lekin Sariya xolaning bolani yolg'iz tashlab ketishdan boshqa chorasi yo'q edi. Chunki birinchi kun Niyozni ham o'zi bilan birga olib borganida, Niyoz oynavand ayvonga mo'raladi. Bunga Go'har xonimning jahli chiqib:

— Xola, o'g'ling oynani sindirib qo'yadi. Bundan keyin uni olib kelma! — deb buyurgan edi.

Sariya xola ko'rpani yaxshi g'iloflab qavish uchun butun san'atini sarfladi, chunki bundan keyingi hayoti shunga bog'liq edi. Agar ishi Go'har xonimga ma'qul tushsa, unga yana ish topib berardi, yoqmasa tag'in ko'chada qolardi. U yungni yaxshilab yuvib quritar, titib tozalardi-da, keyin ko'rpani g'iloflab qavirdi.

Kunduzlari fabrikada, shoyi parda bilan ikkiga bo'lingan idorada arbobga yordamlashgan Go'har xonim kechqurun uyga qaytgach, Sariyaning ishiga ko'z tashlab:

— Yaxshi hunaring bor ekan, xola, — deb mamnunligini izhor etardi.

Bu maqtovlardan dadillashgan Sariya yanada g'ayratlandi. Ko'rpa qoplashdan tashqari uydagi ishlarga ham qaray boshladi. Gilamlarni hovliga olib chiqib qoqdi, supurgi bilan uyning shiplaridagi islarni tozaladi. Go'har xonim ertadan kechgacha ishxonada yurgani uchun uylariga vaqtida qaray olmasdi. Yerto'lada yashaydigan garang xizmatkor chol ham pechka tozalash, bozor qilish va hovliga qarashdan boshqa ishni bilmasdi.

Go'har xonim ishdan qaytib, uylarining top-toza bo'lib qolganini ko'rgach, Sariya xoladan yana xursand bo'ldi.

— Baraka toping, xola, uyni oynadek yaraqlatib yuboribsiz! — deb minnatdorchilik bildirdi.

Yigirma to'rt yoshida erga tekkan Go'har, yigirma to'qqizida tul qolgan edi. Hozir o'zi yolg'iz yashardi. Uning eri kichik savdogar edi. O'la-o'lguncha "bola" deb o'tgan, lekin bolani yoqtirmagan Go'har ko'rgan qat'iy choralari natijasida farzand dog'ida o'lib ketgan edi. Birorta ham bolasi bo'lmaganidan butun mol-mulki Go'har xonimga qolgan edi. Shirin va erkin hayot kechirishni istagan va bunga erishgan Go'har erining o'limidan keyin ona yurti Sherozga ota-onasining oldiga qaytishni istamadi. Tehronda ko'pgina erkaklar unga sovchi qo'ydilar, bulardan ba'zilari uning chiroyiga uchdi, ba'zilari mol-mulkiga qiziqdi, lekin Go'har ularning hammasini rad qildi.

Nihoyat, u shoyi to'qish fabrikasining xo'jayiniga duch keldi. Go'har uni o'ziga yaqinlashtirsa ham, unga xotin bo'lishga rozilik bermadi. Arbob ham sabr qildi. Go'harni fabrikaga olib bordi, o'ziga yordamchi qilib oldi, har jihatdan hurmatini joyiga

qo'ydi, nihoyat, uning quli bo'lib qoldi. Shunga ham qaramay, Go'har uning qonuniy xotini bo'lishdan qat'iy bosh tortdi. Xotini va to'rt bolasi bo'lgan bu kishiga tekkudek bo'lsa, boshiga nimalar kelishini yaxshi bilardi. Unga tegsa, nikoh zanjiri bo'yniga tushar, mustaqillikdan ajrar, ixtiyorini abadiy eriga bergan bo'lar, arbobning muhabbati ham sovir va molining ham, jonining ham xo'jayini bo'lib qolar edi. Hozir esa Go'har uning xo'jayini edi, uylanmoqchi bo'lganlarning hammasini quvib, unga oyda bir-ikki marta kelishga ruxsat berish bilan o'z qadrini yanada oshirardi.

Sariya xola Go'harning hayotidagi bu jihatlarni bilmasdi ham, qiziqmasdi ham, u Go'har xonimning topshirig'ini yaxshilab bajarib, borgan sari uni o'zidan minnatdor qilardi.

Bir kun Go'har fabrikadan kelib Sariya xolani chaqirdi:

— Tezroq fabrikaga boring, Niyozning biroz mazasi yo'qroq, — dedi u.

Sariya uning gapidan hech narsa tushunmadi. Niyozni o'ylab hovlidan chiqar ekan, Go'harning rahmi keldi:

— Manovi besh tumanni ol, kerak bo'lib qolar...

Sariya xola oyoqlari chalishib fabrikaga yugurdi. Kun endi botgan edi. Lekin havo bulut bo'lgani uchun tez qorong'u tusha boshladi. Sariya xola horg'in va yuzlari sap-sariq, ust-boshlari qirq yamoq bo'lgan ishchi ayollarga duch keldi. Uning fabrika hovlisida yotib yurishini bilgan va Niyozni taniydigan xotinlar unga yo'l berishdi. Sariya xola hammom yonidagi hujraga yugurdi. O'zining zax hujrasida dastlab ko'zi tushgan kishi Feruza bo'ldi. Feruza quruq yerda o'tirar, Niyoz esa boshini uning tizzasiga qo'yib yotardi. Feruzaning yonida boshqa bir xotin ham cho'nqayib Niyozga qarab o'tirardi.

Sariyani ko'rgan xotin o'rnidan turib unga joy berdi. Sariya xola uni tanidi. Bu qoracha xotin Fotima edi.

Bir falokat yuz berajagini sezib halqumi qurigan Sariya xola Feruzaning yoniga tiz cho'kib, Niyozning ustiga engashdi:

— Niyoz o'g'lim, qayering og'riyapti?

Bola zo'rg'a ko'zini ochib, onasiga bir qaradi-yu, ko'zini yana yumdi. Feruza bolaning boshini sekin ko'tarib, Sariya xolaning tizzasiga qo'ydi. Onasi Niyozni ko'tarib, bag'riga bosmoqchi bo'lgan edi, lekin Feruza uni to'xtatdi:

— Urintirma uni, xola, umri qisqa ekan, qo'y rohatda jon bersin! — dedi-da, ko'z yoshlarini yashirish uchun yuzini bir chetga o'girdi.

* * *

Niyozning o'limidan keyin Sariya xola yana Go'harning uyiga qatnab, uning ko'rpa-ko'rpachalarini qavidi. Lekin qo'llari avvalgidek ishga bormas, ko'zlari tinib, chokni chokdan ajratolmay qolardi. Eng yomoni so'nggi kunlarda uni tez-tez tutadigan yo'tal edi. Bunday paytlarda uning nafasi qisar, u ko'zlarini yumib, qo'llarini osiltirib, qimir etmay o'tirardi. Ba'zan yuragi siqilib ketganda kimsasiz hovlining bir burchagiga borib yig'lab-yig'lab, yuragini bo'shatardi.

Ko'rpa-ko'rpachalar bitgach, Go'har xonim ularni tekshirib ko'rib Sariya xolaning ishini ma'qul topdi. Xizmat haqi deb bergan yetti tuman puli ustiga ko'k xalatni ham berdi.

— Hech qayerga ketma, — dedi Go'har xonim, — shu yerda qolaqol, menga xizmat qilib yurasan.

Lekin Sariya xola Go'harning uyida uzoq turmadi. Bir kun kechqurun Go'har boloxonadan hovliga qarab, Sariya xolaning yo'talib qon tupurganini ko'rib qoldi. Go'har buni e'tiborsiz qoldirmadi. Pastga tushdi, Sariya xolaning tez-tez yo'talganini va yo'taldan so'ng har safar qon tupurganini ko'rib: "Sil bo'lib qolibdi!" deb o'yladi-da, Sariya xolaga:

— Sariya xola, ertadan boshlab fabrikada ishlaysiz, arbob bilan o'zim gaplashib beraman,— dedi.

Arbob uni pilla qaynatuvchi xotinlar orasiga ishga qo'ydi va o'sha qorong'i zax hujrada yotib yurishiga ruxsat berdi.

Sariya xola ishlab yurgan fabrikaning nomigina fabrika edi. Aslida u Eronning juda ko'p shaharlarida uchraydigan mayda hunarmandchilik korxonlaridan biri edi. Bu yerda hamma ishlar ham: pilla qaynatish, ipak o'rash, bo'yash, shoyi to'qish ibtidoiy usulda bajarilardi. Korxona ishlab chiqargan tovar asosan qishloqlarda sotilar, uni kambag'allar olardi. Agar "sex" boshliqlarini hisobga olinmasa, korxonadagi barcha ishchilar ayol edi. Chunki ularni ishlatish juda arzonga tushar edi. Xo'jayin ularni istaganicha ishlatib, lozini topganicha haq to'lardi.

Sariya xola tushki ovqatdan so‘ng ishga tushdi. Sex boshlig‘i uni bir necha katta qozonning boshiga olib keldi-da:

— Ish tugagandan so‘ng bu qozonlardagi suvni to‘kib, yaxshilab yuvasan, keyin yana qozonlarga suv to‘ldirib qo‘yasan. Bugungi ishni ertaga qo‘yib bo‘lmaydi. Ertalab xotinlar ishga kelishganda, qozonlar suvga to‘la bo‘lishi kerak, — dedi.

U qozonlar oldidagi iflos suv va axlatlarni oyog‘i bilan ko‘rsatdi:

— Mana bular ham bo‘lmasligi kerak. Supurgi anavi yerda turadi, ko‘rdingmi? Har kuni supurib tozalaysan. Barvaqt qozonlarga olov yoqish ham sening vazifang.

Sariya xola darhol ishga kirishdi. Katta qora latta, paqir va supurgini qo‘liga oldi-da, halqob bo‘lib yotgan iflos suvlarni quritdi, qozonlar atrofini tozalay boshladi. U bug‘ ichida terlab-pishib ishlayotgan xotinlarga xalaqit bermaslikka tirishar, ulardan nariroqda yurib, ehtiyot bo‘lib ishlardi. Dastlab bu ish unga uncha og‘ir tuyulmadi. Lekin kun botib, hamma xotinlar ketgach, qozonlardagi suvni hovlining etagidagi ariqqa to‘kdi, o‘n-o‘n besh zina yuqoridagi hovuzdan suv tashib tusha boshlaganda nafasi bo‘g‘ilib, qo‘llari darmonsizlanib ketayotganini sezdi. Tez-tez yo‘talib hovuz yonida nafasini rostladi. Kechasi allamahalda qozonlarni to‘latdi. Terlab, pishib hujraga kirdi-yu, qanday uyquga ketganini ham sezmay qoldi. Keyingi yillar ichida bunchalik charchamagan edi, birinchi marta og‘ir uyquga ketdi. Lekin ertalab barvaqt o‘rnidan turdi. Uxlab qolib, ishdan haydalish vahimasi shirin uyquda yotganida ham yodidan chiqmagan edi.

Fabrika hovlisining eshigi tez-tez ochilib yopila boshladi. Sariya xola qozonlarga o‘t yoqdi. Uyquga to‘ymagan, horg‘in xotinlar ishga kelisha boshladi. Hammasidan oldin Fotima ishga keldi. Bir taxtaga o‘tirib, esnay-esnay Sariya xoladan gap so‘radi:

— Hoy xola, sizi juda og‘ir ishga qo‘yishibdi-yu. Sherigingiz kim?

Shuncha ishni Sariya xolaning bitta o‘zi qilayotganini eshitib Fotima xo‘jayinni qarg‘ay ketdi:

— Insofsiz itvachcha, ilojini topsa, qonimizni ham so‘radi. Sizdan oldin bu ishni ikki xotin qilar edi. Xo‘sh, qancha haq to‘laydi sizga?

— Bilmadim, arbob hech narsa degani yo‘q.

Fotima g‘azab bilan bosh chayqadi:

— U nima ham derdi? Unga qolsa bir shohi ham to‘lamaydi. Bugun gaplashing, yigirma tumandan kamiga rozi bo‘lmang. Ikki kishining ishini qilayapsan, axir!

Shu payt yana bir necha xotin keldi. Fotima Sariyaga aytgan gaplarini ularga ham yetkazdi-da:

— Bu qonxo‘rning nimalar qilayotganini ko‘rdingizmi! — deb qo‘shib qo‘ydi.

— Feruza to‘g‘ri aytadi, ishchi kishi o‘z huquqini o‘zi himoya qilmasa, uni oyoqosti qilib tashlashadi.

Shu payt qo‘y ko‘zli Feruza ham kelib qoldi. U xotinlar bilan salomlashdi. Sariya xola Feruzaning hali yosh bo‘lishiga qaramay, xotinlar orasida obro‘si baland ekanini payqadi.

Feruza Sariya xoladan:

— Ahvollaring qalay, xola? — deb hol-ahvol so‘radi.

— Qanday bo‘lardi, — deb gapga aralashdi Fotima,— ikki kishining ishini qilayapti-yu, qancha haq olishini bilmaydi.

Sariya xola Fotimaning birinchi kun jerkib tashlashi yomon, ko‘ngil bilan qilinmaganini tushuna boshladi. Ayni vaqtda bu gaplar unga g‘alati tuyuldi. Ish haqqi masalasida xo‘jayin bilan janjallashish mumkinligi uning xayoliga ham kelmagan edi. U ish bilan o‘sha zax hujrani bergani uchun ham xo‘jayinidan juda minnatdor edi, doim uni duo qilib yurardi.

— Hechqisi yo‘q, qizim. Berganicha berar, Xudo o‘ziga insof bersin... Ishga olganiga ham rahmat, bola-chaqasining rohatini ko‘rsin.

Fotima uning so‘zini bo‘ldi:

— Insof bersin emish... Siz bilan mening qonimni so‘rmasa, Go‘har xonimga kunda bir shoda marjonni qayerdan olib berardi.

— Unday dema, hay qiz! — deyishdi xotinlar. — Arbobning qulog‘iga yetsa, yaxshi bo‘lmaydi.

— Men biror yomon gap gapirdimmi? To‘g‘ri so‘z nega yomon bo‘lar ekan? Men biz bilan ham odam singari muomala qilishsin deyman.

Xotinlar fikrini ma’qullashmayotganini sezib Feruzaga dedi:

— Shunday emasmi, Feruza? Nega indamaysan? Menga aytadigan gaplaringdan yuzdan birini bularga ayt.

Feruza kuldi:

— Nega achchig'ing chiqib ketayapti? Sal bosinqiroq gapirishning iloji yo'qmi? Ular sendan ham, mendan ham yaxshi tushunishadi. Sal sabr qil, bular o'zlarini o'nglab olishsin, keyin ko'rasan!

Fotimaning Go'harni yomonlashi Sariya xolaga yoqmaganidek, boshqa xotinlarga ham qattiq tegdi. Feruza buni sezib suhbatni sal yumshatdi-da, gapni Sariya xolaga g'alati tuyulgan masalaga burdi.

— Eronda ishchilarga achinadigan kim bor? Hamma xo'jayin ham o'zi istaganicha haq to'laydi. Tongdan kun botguncha ishlatadi. Bu hali xo'jayinlarning erkaklar bilan bo'lgan muomalasi. Bizning ahvolimiz esa bundan besh battar. Ular qilgan ishni biz ham qilamiz, lekin ikki hissa kam haq olamiz.

— Men ham xuddi shuni aytmoqchi edim, lekin senga o'xshab do'ndirib gapirolmayman. Ammo men ham xuddi shunday demoqchi edim.

— Do'ndirishning hojati yo'q. Haqiqatning o'zi shunday. Ayb o'zimizda. O'zimiz indamay yuraversak, biz to'g'rimizda hech kim o'ylamaydi. Bola yig'lamasa, ona sut bermaydi.

Sex boshlig'i kelishi bilan suhbat to'xtadi. U Feruzaga o'qrayib:

— Hay qiz, yana gap sotayapsanmi, Xudo haqqi, bir kun emas, bir kun yo o'zing fabrikadan haydalasan, yoki seni deb fabrikani yopib qo'yishadi-da, manovilarning hammasi bir burda nonsiz qoladi, — dedi-da, xotinlarga qarab:

— Qani, joy joyingga bor hammang, ishga tushlaring, bu bekorchi gaplarni yeb ham, kiyib ham bo'lmaydi,— dedi.

Xotinlar tarqalishdi. Suv qaynab turgan qozonlarga pilla sola boshladilar. Issiq qozon oldida o'tadigan yana bir og'ir mehnat kuni boshlandi. Sariya xola ertalabki suhbatning ta'sirida sex boshlig'i oldiga borib maosh to'g'risida gaplashishga bir necha bor urindi-yu lekin jur'at etolmay, qozonlar atrofini tozalab, hovlini supurib sidira boshladi.

* * *

Sariya xola umrida vaqtini soat bilan o'lchashga odatlanmagan edi. U tong qorong'isida turib, kun botguncha yumush qilardi. Har ishning o'z vaqti bor edi. Kun chiqquncha bir ishni qilsa, kun ikki odam bo'yi ko'tarilganda, boshqa ishni qilar, kun tik kelganda uchinchi ishga kirishib, yana bir boshqa ishini kechqurun qilardi. Lekin fabrikada, uning qulog'iga soat sakkiz, soat o'n ikki, soat yetti, degan so'zlar tez-tez eshitila boshladi. Arbob bilan ishchi xotinlar o'rtasida shu soat to'g'risida ko'p gap-so'z bo'lar edi. Soatgina emas, hatto minutlar to'g'risida ham bahslashardilar.

Bugun bir xotin o'n minut kechikib kelgan edi, uni ishdan haydashdi. Xotin yig'lab xo'jayinning oldiga bordi:

— Og'o, bo'yingdan aylanay, aybga buyurma, emizikli bolamning tobi qochib qoldi, shuning uchun sal kechikib keldim.

Xo'jayin uning so'ziga quloq solmadi:

— Hammang o'n minutdan kechikadigan bo'lsang, yuztang ming minut kechikasan. Buni soatga aylantirilsa o'n olti soat bo'ladi, o'n olti soat esa bir yarim ish kuni degan gap. Men har kuni shuncha pulni ko'chaga tashlab ahmoqmanmi!

Shu voqeadan so'ng Sariya xola, soat va minutlarning nimaligiga aqli yetmasa ham, vaqtliroq turishga va kechroq yotishga harakat qiladigan bo'ldi. Lekin fabrikadagi soat to'g'risidagi bahslar tugamadi. Ishdan haydalgan xotin o'zining ham, kasal eri bilan bolasining ham ochlikdan o'lishini aytib yig'ladi, fabrikadan ketmadi. Uning bu holi barcha ishchi ayollarga ta'sir qildi. Sariya xola o'ylaganidek, hammadan oldin unga Feruza bilan Fotima yordamga kelishdi. Tushki ovqat paytida xotinlar devor soyasiga qator tizilishib ovqatlanishar ekan, Feruza bir to'da ayollarni bir chekkaga to'pladi:

— Ana ko'rib qo'yinglar, agar biz bunga indamasak, arbob bir kun bizning hammamizni ham shu kunga soladi.

Nima deysizlar, hammamizni bir-bir ko'chaga haydaguncha, indamay qarab turaveramizmi? Ochdan o'lishnmiz kerakmi?

Ishdan haydalgan xotin ta'sirlanib, ko'z yoshi qildi:

— Xudo haqqi, uyda qo'lga ilinadigan hech narsam ham yo'qki, sotib bir-ikki kun tamaddi qilib tursak. Urush boshlangan-

dan beri bozorda narx-navo tobora ortib borayapti. Menga bir yordam qilinglar, Xudo xayringizni bersin. Ko'paylashib bir yolvorib ko'ringlar, zora insofga kelsa.

— Shu kungacha ha deb yolvoravermasak, shunday kunga qolmagan bo'lar edik, — dedi uning so'zini shartta kesib Fotima.

— Biz nima ham qila olar edik, — deb e'tiroz bildirdi ishchi xotinlardan biri,— arbob bilan urishib o'tiramizmi endi?

— U biz bilan urishadi-yu, nima uchun biz u bilan urisha olmaymiz? — deb so'radi, go'yo xuddi shuni kutib turgandek Feruza. — Yuringlar, hammamiz bir bo'lib arbobning oldiga boramiz-da, o'rtog'imizni qaytarib ishga ol, bo'lmasa biz ham ishlamaymiz, deb aytamiz.

Xotinlar bir-birlariga qarashdi:

— Yaxshi, ketsang ketaver, to'rt tomoning katta ko'cha, desa nima qilamiz?

— Unday demaydi, shunday desa, korxonani yopishga to'g'ri keladi.

— Nega yopar ekan, biz ketsak ko'chadan bizga o'xshaganlardan yuzlab topiladi.

Feruza yana oldinga chiqdi:

— Biz qo'lni qo'lga bersak, so'zni bir joyga qo'ysak, arbob bunga jur'at qilolmaydi.

— Qani yuringlar mening ketimdan, — deb Fotima ularning oldiga tushdi,— qani bu dunyoda insof degan gap bor-yo'qligini bir tekshirib ko'raylik-chi!

Ular xo'jayinning oldiga borishdi. U idorasida to'p-to'p ipak gazlamalarning oldida allanimalarni hisoblardi. Xotinlarni ko'rib, cho'tni bir chetga surib qo'ydi:

— Xo'sh, nima gap?

Xotinlar Fotimani oldinga o'tkazdilar:

— Sen gapir!

Fotima oldinga o'tdi:

— Arbob, bu xotinga rahming kelsin. Gunohini kechir.

Xo'jayin xo'mraygan ko'zlarini xotinlarga tikdi-da, biroz o'ylab javob berdi.

— Xo'p, gunohini kechiraman, lekin bitta shartim bor.

Xotinlar biroz yengil nafas olishdi:

— Gunohini kechirdi, og‘o rahmdil ekan.

— Og‘oning sharti nima?

— Shartim shuki, ertadan boshlab o‘n soat o‘rniga o‘n ikki soat ishlaysizlar.

— Ish haqimiz ortadimi?

— Yo‘q, ortmaydi. Mana, ertalabdan beri unday qilib hisoblab ko‘raman, bunday qilib hisoblab ko‘raman — hech qanday foydadan darak yo‘q.

Xotinlar Feruzaga qarashdi. Ularning bu qarashida: “Ana, zap foyda qildikmi!” degan ta’na bor edi.

— Og‘o, — dedi Feruza xotinlar orasidan,— odam shunday og‘ir ishda o‘n ikki soat ishlay oladimi? O‘n soat ishlab ham ming xil kasal orttirdik. O‘n ikki soat ishlab bo‘lmaydi.

Arbob o‘rnidan turdi:

— Unda korxonani yopishga to‘g‘ri keladi. Hammangiz ko‘chada qolasiz. Ko‘rib turibsiz, hozir urush payti, korxonani yurgizish qiyin, axir.

— Nega qiyin bo‘lar ekan, og‘o? Urush sizga foydali-ku, molning narxi oshib borayapti, maoshimiz esa hamon o‘sha.

Arbobning jahli chiqib ketdi:

— Kim u menga aql o‘rgatayotgan? Men bilamanmi, sen bilasanmi? Gap shu: o‘n ikki soat ishlamasangiz hammangizni ko‘chaga haydayman. Ana shunday. Ertadan boshlab ertalab soat sakkizda ishga tushib, kechqurun soat sakkiz yarimda ishdan ketasiz. Yarim soat ovqatlanib olish uchun tanaffus. Endi tarqalinglar!

Xotinlar tarqalishar ekan har kim har xil gap gapirar, to‘ng‘illar edi:

— Ana ko‘rgan foydamiz! Xudo zararidan asrasin.

— Qani bizning himoyachilarimiz? Xo‘p himoya qilishdida!

— Qo‘lni-qo‘lga bersak unday bo‘ladi, bunday bo‘ladi deb xo‘p javrashdi, arbob bir siqishtirgan edi, jonimiz chiqib ketay dedi.

Feruza bu so‘zlarni shartta kesdi:

— Bir bechora xotinni ishga qaytardik-ku, shu ham katta gap. Qo‘lni-qo‘lga bersak ish kunini ham uzaytirishga yo‘l qo‘ymaymiz.

Shu hodisadan keyin Sariya xola Feruza bilan Fotimaning goh ovqat paytida, goh ertalab ish boshlanishidan oldin bir to‘da xotin-

lar bilan chekka-chekkada shivir-shivir qilishib yurganini ko'rardi. Hatto bir kun Feruza uning oldiga kelib, hujrasida kechqurun to'planishga ruxsat ham so'radi:

— Xola, kechqurun bir soatli ishimiz bor edi, — dedi u.

Ishdan keyin beshta xotin Sariyaning zax hujrasida qolishdi.

Sariya xola hovlida yurib, qozonlarning suvini bo'shatdi, ularni toza suv bilan to'ldirdi. Ishni tugatib, hujraga kirganida, xotinlar allaqanday kitobchani o'qib o'tirishganini ko'rib qoldi. Uning kirib kelganini ko'rib, Feruza kitobchani ko'kragiga yashirdi-da, turib Sariya xolaning yuzidan o'pdi:

— Rahmat, yashang, Sariya xola! Sizning bizga yaxshi yordaming tegdi!

Ertasi Feruza hammadan oldin keldi. U qo'ltiqlab kelgan eski gilamchasini Sariya xolaga uzatdi:

— Hujrangga sol, yotog'ing juda zax ekan, yo'talganing yo'talgan.

Haqiqatan ham Sariya xola borgan sari ko'proq qon tupura boshlagan edi. Ikki kundan keyin Feruzalar yana Sariya xolaning hujrasida to'planishdi. Sariya xola esa qozonlardagi suvni bo'shatardi. Bugun ertalabdan beri uning tez-tez yo'tali tutdi, kechqurunga borib juda zo'riqib ketdi. Xotin zo'r-bazo'r bitta qozonning suvini bo'shatdi. A'zoyi badani o'tday yonib hujraga qaytdi. Ketmoqchi bo'lib turgan Feruza Sariya xolaning ahvoli og'irligini ko'rib sheriklariga:

— Sizlar ketaveringlar, men Sariya xolaning yonida qolaman, — dedi.

Sariya xola uning qo'ng'ir sochlari va shahlo ko'zlaridan onaday mehr bilan o'pdi:

— Rahmat, qizim, barakalla. Charchagansan, uyingga ketaver.

Sariya xola so'zida qattiq turganini ko'rib, Feruza biroz o'tirib ketmoqchi bo'ldi-da:

— Hech kimingiz yo'qmi, Sariya xola? — deb so'radi.

Sariya xola unga g'amgin ko'zlar bilan tikilib, sarguzashtini so'zlab berdi.

— Gulnoz sendan ikki-uch yosh kichikroq bo'lsa kerak deb hikoyasini tugatdi. — Boshiga qanday savdolar tushganini bilmayman.

Sariya xola jim bo'ldi. Feruza ko'z yoshlarini artdi:

— Bu musibat faqat Gulnoz bilan sizing boshingizda emas, Sariya xola! — dedi u kuyunib.— Eronning butun mehnatkash ayollarining ahvoli shu.

— Yoshligimga qaramang, xola. Men ozmuncha musibat tortgan emasman. O'lim panjasidan qaytgan odamman.

U Sariya xolaga o'z hayotini gapirib berdi. Rashtda tug'ilganini, u yettiga kirganda otasi ish axtarib Ahvozga ko'chib kelganini va bu yerda janubiy neft konlariga ishga kirganini so'zlab berdi.

— Men o'n beshga kirganimda otam janubning qora bezgagiga duchor bo'lib vafot qildi. Biz ko'chada qoldik. Onam har ishga ham mohir edi, har xil narsalar to'qirdi. Sudrala-sudrala Kirmanshohga keldik. Onam gilam to'qish fabrikasiga ishga kirdi. Fotima xonim bilan ham o'sha yerda tanishganman. Bir kun korxonaning ip omboriga o't tushib ketdi. Onam o'shaning ichida kuyib ketdi. Men ham o'limdan zo'rg'a qutuldim. Shundan so'ng Kirmanshohda qolgim kelmadi. Fotima bilan birga Tehronga keldik. U bechoraning ham hech kimi yo'q. Yolg'iz boshi. Bu yerdagi kunimizni o'zing ko'rib yuribsan. Ikkalamiz bir hujrada turamiz, har oyda ijara haqqining o'ziga sakkiz tuman to'laymiz.

Sariya xola o'z dardini unutib unga tasalli berdi:

— Xafa bo'lma, qizim. Hali yoshsan, Xudo xohlasa hali yaxshi kunlarni ham ko'rasan.

— O'sha xotinning oti Saodat xonim dedingmi? — deb so'radi Feruza. — Bir surishtirib ko'ray, zora topsam.

— Bir harakat qil, qizim, yaxshiligingni qiyomatgacha unutmayman.

Feruza uni uxlatib, keyin ketdi.

Lekin bemor o'rnidan turolmadi. Isitma butun azoyi-badanini misday qizdirardi. Feruza, qoracha Fotima va boshqa xotinlar tez-tez kelib, uning holidan xabar olishar, ovqat olib kelishib yastig'ining tagiga qo'yib ketishardi. Sariya xola ishga chiqmasa ham, erta sahar paytida uyg'onar, xotinlarning ishga kelganiga qarab, to'qimachilik stanoklarining tovushiga diqqat bilan quloq solib yotardi. Bu tovushlar unga tasalli berardi.

Sariya xola yotib qolganining oltinchi kuni Feruza keldi. U haddan tashqari xafa edi:

— Sariya xola, — dedi u, — ishimiz xarob, arbob ertadan boshlab korxonani bekitmoqchi. Katta soliq chiqdi, to'lay olmayman, ishning kelajagiga ham ishonmayman, deydi. Mish-mishlarga qaraganda, ruslar bilan urush bo'larmish. Hammamizni ko'chaga haydaydi.

Bu xabar Sariya xolaning ishsiz, och holda sargardon bo'lgan kunlarini yodiga soldi. U vahima bilan boshini ko'tarib, tirsagiga suyandi.

— Endi nima qilasizlar, qizim?.. Bir burda non pulini qayerdan topasizlar?

— O'zimiz ham hayronmiz. Biror yerdan ish axtarib ko'ramiz-da...

Ko'chaga haydalgan xotinlarning holiga achingan Sariya xola o'ziga ham biror boshpana axtardi.

— Xo'sh, Gulnozdan biror xabar topdingmi, qizim? — deb so'radi u. Feruza uning paxtadek oqarib ketgan sochi, suyaklari turtib chiqqan qo'l-oyoqlari, ich-ichiga tushib ketgan ko'zlari va ajin bosgan yuziga qarab, uni sevintirmoq uchun kulimsirab.

— Ertaga bir odam keladi, o'sha odam siz aytgan xotinni topdim deyapti.

Feruza boshqa hech narsa demay jo'nab ketdi. Sariya xola Gulnozni topish umidi bilan xursand, ishsiz qolishidan xafa bo'lib, tong otdirdi.

Ertasiga ertalab hech kim korxonaga kelmadi. Kun yoyilib ketganda hovlida xotinlarning ovozlari eshitila boshladi.

Arbob fabrikani yopib, qozonlar va stanoklarni bozorga jo'natmoqda edi. Hovlida odatdan tashqari shovqin-suron eshitilardi:

— Endi qayerga boramiz?

— Bizni shu kunga solganning uyi kuysin.

— Bizga bir burda nonni kim beradi endi?

Shu xil gap so'zlar ikki kun davom etdi. Lekin fabrikaning asbob-uskunalari sotilib bo'lgach, xotinlar hisob-kitobini qilib ketishdi-yu, hovliga og'ir sukunat cho'kdi. Uchinchi kuni Sariyaning eshigi taqilladi.

Sariya xola bu Feruza bo'lsa kerak deb "ha" dedi. Lekin notanish kishi hujraga bosh suqdi:

— Hoy xotin, — dedi u, — endi sen ham o'zingga joy top... Hovlini boshqa odamga ijaraga berdim. Hech kim sening kafilingni olgan emas. Bugun kechasi qolishing mumkin, ertaga ertalab jo'nab qol.

Gulnozni topish fikrining shodligi oldida bu hech gap emasdi. "Qizimni topay, bu xarobada bir soat ham turmayman", deb o'yladi u.

Kechqurun Feruza bilan Fotima kelishdi. Feruza Sariya xolaning yoniga o'tirdi:

— Turing, Sariya xola, xayrlashaylik. Kim biladi, yana ko'rishish nasib bo'ladimi — yo'qmi. Ehtimol, Rashitga, amakimning oldiga ketarman...

Ular Sariya xolani quchoqlab o'pdilar. Sariya xola Feruzaning ko'kragiga tushib turgan sochlaridan siladi. Ko'zlari yoshga to'lgan Fotima Sariya xolani xursand qilish uchun eshik oldida turgan o'n uch-o'n to'rt yoshlar chamasidagi bolani ko'rsatdi:

— Sariya xola, mana shu bola sizga Saodat xonimning eshigini ko'rsatib qo'yadi. Uning asl oti Qamarbonu ekan. Ehtimol, Gulnozni toparsiz.

Gulnozning nomini eshitar ekan, Sariya xolaning ko'zlari chaqnab ketdi. Sakrab o'rnidan turib, nari-beri otlandi. Feruza uning qo'ltig'idan ushlab, ko'chada turgan foytunga olib chiqdi. Sariya xola ular bilan qanday xayrlashganini ham bilmadi. Foytun ko'chalardan o'tib borar, ot tuyoqlari toshga tegib taraqlar, lekin Sariya xola bu tovushlarni eshitmasdi. Tezda Gulnozini topish va butun qayg'u hasratlaridan qutulish haqida o'ylab borardi. Nihoyat, bola otlarni Qamarbonuning eshigi qarshisida to'xtatdi:

— Mana shu eshik, xola, — deb Sariya xolani tushirdi-da, foytunchiga javob berib eshikni taqillatdi.

Sariya xola a'zoyi-badani titragan holda kutib turardi. Eshik ochildi. Sariya bolaning boshidan o'pib, ichkari kirdi.

Qamarbonu hovlida turgan edi, xizmatkoridan:

— Hay yigit, kelgan kim? — deb so'radi.

Javobni kutmasdanoq o'zi kelib, qo'lidagi fonarini Sariyaning yuziga tutdi. Uning murdaday oqargan, suyaklari turtib chiqqan

yuziga, chuqur-chuqur ko'zlariga qancha tikilsa ham tanimadi. Biror tilanchi xotin shekilli, deb o'ylab lablari titradi:

— Nega indamaysan, hay xotin? Kimsan?

Uning ovozidan achchig'i chiqayotganini payqagan Sariya xola, orqasiga tislanib, titroq tovush bilan javob berdi:

— Bu men, egachi. Tanimayapsanmi, Gulnozning onasiman.

Qamarbonu eshikni zanjirladi:

— Hali o'lganing yo'qmi?.. Qani buyoqqa yur-chi, ko'raylik...

Ular ayvondagi lampaning yorug'iga kelishgach, Qamarbonu Sariya xolaga tikildi:

— Senga nima bo'ldi, gadoyga o'xshab qolibsan-ku?.. Rangingga qaragan odam Azroil soya solibdi deydi. Ranging murdaning rangiga o'xshaydi-ya.

Sariya xola Qamarbonuning bu achchiq so'zlarini tishini tishiga qo'yib tingladi. Hayotini zaharlagan, bolalarini falokatlarga yetaklaganlardan biri shu xotin ekanini bilar, ustiga tashlanib bo'g'ib o'ldirmoqchi bo'lardi. Lekin Gulnozning ahvolini battar yomonlashtirib qo'yishdan qo'rqib o'zini tiyib, indamasdi.

Qamarbonu uning bu sukutidagi g'azabni tushunganday yerto'la tomonga qarab:

— Hay Gulnoz, bu yoqqa chiq, kim kelganini ko'r, — dedi-da, ayvonga chiqib ketdi.

Yerto'la tomondan javob bo'lmadi.

Ertadan kechgacha tinmay ishlagan Gulnoz hozirgina yerto'laga tushib yotgan edi. U juda charchoq va asabiy edi. Kuni bilan kir yuvdi, gilamlarni qoqdi, hovli supurdi va idish-tovoqlarni tozaladi. Lekin javob bermaganiga sabab, charchoqligi emasdi. Qalbida Qamarbonuga nisbatan nafrat qaynab toshardi. Qamarbonuning tovushini eshitar ekan, boshiga ming xil fikr kelardi. Allaqanday bir his uni bo'g'ar, ichki bir kuch:

"Tur, o'ldir uni!" deb undardi.

Qo'liga tushgan narsani Qamarbonuning boshiga uloqtirgisi kelardi. Ayniqsa Xovar bilan uchrashgandan keyin bu fikrlar unga tinchlik bermay qo'ydi. Qamarbonuga qarshi qo'zg'algan ilgarigi nafrati yanada kuchliroq alangalangan edi. "Qamarbonuning afti qursin, usiz ham yashay olasan!" degan edi Xovar. Dastlab-

ki kunlarda Gulnoz: "Yashay olarmikinman?" deb o'ylab yurdi. Bu shubha va o'ylar "Istasam, yashay olaman!" degan qat'iy bir qarorga olib keldi.

Butun qalbiga, butun ichki olamiga yangi o't tashlagan bu ishonch faqat Qamarbonuga qarshi emas, hatto o'ziga nisbatan ham isyon ko'tarish orzusini yaratgan edi. Bir vaqtda Faridun aytgan so'zlarining ma'nosiga endi tushundi. Faridunning:

"Bizning baxtsizligimiz sabablaridan biri o'zimizning ruhan zaifligimiz. Holbuki, inson o'z orzusiga yetishi uchun kurashmog'i kerak, sherdek kurashmog'i kerak!" — degan so'zlari takror-takror eshitilardi.

Xo'sh, Gulnoz nima qildi? U taqdirning qo'lidagi ojiz bir o'yinchoq bo'lib qolgan edi, hayotining to'lqinlari uni jonsiz narsa singari u toshdan olib bu toshga urardi. Yo'q, aftidan, zaiflar yashay olmas ekan!

Bu fikrlarning hammasi uni Qamarbonunikidan qochish kerak, degan qarorga olib keldi. Avvallari irodasini sindirib kelgan ko'chalarda qolish qo'rquvidan endi asar ham qolmadi. Bu jahannamdan ko'ra ko'cha yaxshiroq! Endi uning Xovardek tayanchi bor edi. "Shu yerga kel, birga turamiz", — degan edi Xovar.

Xo'sh, Qamarbonu-chi? Qarzi-chi? Ming la'nat Qamarbonuga ham, qarziga ham! Qochish kerak!..

Qizning xatti-harakatlarida keyingi paytda allaqanday sarkashlik borligini sezgan Qamarbonu uni battarroq ta'qib etib, eza boshladi. Uni bir minut ham bo'sh qo'ymasdi, o'tin yorishni ham Gulnozga yukladi. Bu bilan ham kifoyalanmay, uydagilarning hammasini unga qarshi gij-gijladi.

— Mana bu qishloqi qizni qaranglar, — der edi u, uydagi xonimlariga Gulnozni ko'rsatib, — uning mag'rurligini ko'ringlar!

Shu gaplar bilan xonimlarda Gulnozga nafrat qo'zg'amoqchi bo'lar edi. Bu nafratga yaramas baxillik sabab edi. Gulnoz o'z nomusini saqlab qolgani uchun xonimlar uni yomon ko'rishardi. Shunaqangi tahqir, haqorat, mensimaslik va tanholikda o'tayotgan og'ir hayot uni: "Qochish, qanday qilib bo'lmasin qochish kerak! — degan qat'iy bir qarorga olib kelgan edi.

Lekin Qamarbonu ham o'z qurbonini osonlik bilan qo'ldan bermoqchi emas edi. U nima qilib bo'lmasin Gulnozni sindirmoq-

chi edi. U endi Gulnoz orqali foyda ko'rishdan ham o'zining undan kuchli ekanini namoyish qilish istagi bilan yonar edi. Shu tarzda kurash tobora avj ola borardi. Qamarbonu qizni bir daqiqa ham nazardan qochirmas edi. Shunga qaramay, Gulnoz bir kun kechqurun uydan qochib, qing'ir-qiyshiq va uzun tor ko'chalardan borib Xovarning eshigini taqillatayotganda Qamarbonu yetib kelgan, uni foytunga bosib, uyga qaytarib olib kelgan edi. Shundan beri Gulnoz yanada qattiqroq nazorat ostiga olingan edi. Uning bir minut ham qo'li bo'shamas, ish ustiga ish buyuraverar edilar. Ko'pincha qosh qoraygach, holdan toygan Gulnoz endi kelib dam olish uchun cho'zilarkan, yana chaqirib yangi ish buyurishar edi. Hatto ba'zan yarim kechada shirin uyqusidan ham uyg'otib, turli og'ir yumushlarni buyurar edilar.

Hozir ham Qamarbonuning chaqirayotganini eshitib, yana ish buyurmoqchi shekilli, deb indamay yotaverdi. Lekin Qamarbonuning odatdagidek qarg'ab-qarg'ab chaqirmaganini eshitib taajjublandi-da, o'rnidan turib hovliga chiqdi.

Sariya xola hovlining o'rtasida, ayvondan tushib turgan yorug'da Gulnozni kutar edi. Birdan ko'zi Gulnozga tushdi, lekin nima uchundir oyoqlarini qimirlata olmadi.

Gulnoz onasining quchog'iga otildi.

Qiz uni o'pib-o'pib, qo'lida ko'targanday yerto'laga olib tushdi. Faqat shu yerdagina:

— Ona!.. Ona!.. Oh, aziz onajonim!.. — deya oldi.

Go'rdan chiqqan murdaga o'xshab ozib ketgan Sariya xola Gulnozni bag'riga bosib yig'ladi:

— Qizim, bolaginam, Gulnozim...

Gulnoz ham onasining ko'ksiga bosh qo'yib, yig'lar edi.

— Bo'ldi, ona, otam qani? Ayozim qani, Niyozim qani? Bu zolim falak ularning boshiga qanday kulfatlar soldi?

— Niyozni ochlik halok qildi, bolam, — deb yig'ladi Sariya xola.— Ayozimni shu jahannam shahar o'z qa'riga tortdi, qizim! Axtardim, surishtirdim, lekin topolmadim.

— Ona, onajon, sho'rlik onam! Koshki edi toshga aylanib qolsam-u, boshimizga tushgan shu musibatlarni ko'rmasam, ona. Xudoning ham sira rahmi kelmas ekan-da, ona? Biz bechora bandasi-

ga shuncha ham azob beradimi? Axir, biz nima gunoh qilgan edik, ona? Qani rahmi kelgani?!

Sariya xola uni yana yo'qotib qo'yayotgandek mahkam quchoqlab boshini siladi:

— Men qayerdan bilay, bolam! Bizni xonavayron qilganlarning o'zi xonavayron bo'lsin, bizni sarson-sargardon qilganlar sarson-sargardon bo'lib o'lsin.

Ular kuyib ketgan yuraklarni bo'shatish uchun hasratlashar edilar. Ularning ovozlari bepoyon sahroga yoyilayotgan g'amgin qo'shiqqa o'xshar edi.

Birdan ona titrab ketdi-da, jim bo'lib qoldi. Bechora xotin yaproqday titrar, rangi sap-sarg'ayib ketgan edi. Gulnoz behush bo'lib qolgan onasini mahkam quchoqladi. Ularning qalbida to'lib-toshgan benihoyat g'am-alamdan boshqa hech narsa yo'q edi.

Sariya xolaning vujudi o'lim va hayot o'rtasida ketayotgan kurash bilan titrayotgan bo'lsa ham, hali u qarshilik ko'rsatar, yiqilmas edi. U Gulnozning quchog'ida behush yotardi.

Lekin u behushlik uzoqqa cho'zilmadi. Birozdan so'ng ko'zlarini ochib peshonasini silayotgan Gulnozining qo'lidan ushladi. Gulnoz onasining quruq suyak bo'lib qolgan vujudini bag'riga bosdi. Gulnoz shu tarzda qancha o'tirganini bilmadi.

Sariya xola qizining qo'lida uxlab qoldi.

* * *

Sariya xola fabrikaning hovlisiga qaytmadi.

Gulnoz turadigan yerto'lada qoldi. U to'xtovsiz yo'talar, qon tupurar va isitma ichida kuyib yonardi. Uning bu holini ko'rgan Gulnoz hayotning azob va uqubatlaridan bezor bo'lib ketdi:

— Onajon, bu qanday yaramas dunyo! Bu dunyo yaxshilarga zindon ekan! Beva-bechoralarni tegirmon toshiday ezayotgar bu dunyodan qayoqqa qochamiz endi? O'lmadik hamki, jonimiz orom olsa. Bu it kuni hech kimning boshiga tushmasin.

Gulnozning bu so'zlari Sariya xolaning yuragini pora-pora qildi. Tug'ib katta qilgan bu qiziga yaxshi hayot yaratib berolmagani uchun o'zini gunohkor his qildi. Axir, u ona, bolalarning tarbiyachisi, bolalar undan umid qilishdi, hammalari unga tikilishdi.

Qayerga yetaklasa shu tomonga ergashishdi. U bo'lsa bolalarini shu jahannamga boshlab keldi, bolalarini o'z qo'li bilan o'tga tashladi. Qizini bir burda nonga va tinch turmushga ega qilish uchun Sariya xola hozir nimalarga rozi bo'lmas edi, deysiz. Yo'q, oyoqqa turish lozim edi. Umrining oxirgi kunlarida ham qizining baxti uchun sham bo'lib yonishi kerak edi.

U yerto'laning devorini ushlab, turish uchun harakat qildi.

— Men ketaman, biror ish topaman, seni bu yerdan qutqaraman, qizim... Hozir qay vaqt bo'ldi? Kun chiqdimi?

Gulnoz onasining ahvoli og'irligini ko'rib, joyiga yotqizdi:

— Hozir kun botdi, ona. Kech bo'ldi...

— Qachon tong otib, qachon kech bo'lganini ham bilmabman. Aftidan, ancha yotib qolganga o'xshayman...

Gulnoz:

— Onajon, biroz yotib orom oling, men boray, zora sizga biror ovqat-povqat topib kelsam,— dedi-da, bo'g'ib kelgan yig'ini zo'rg'a bosib, tashqari chiqdi.

— Kerak emas, qizim, men hech narsa yemayman, — deb qoldi Sariya, lekin buni Gulnoz eshitmadi. Chunki tovushi nihoyatda zaiflashib qolgan edi. Bu tovush haqiqatan ham murdaga o'xshab sovib borayotgan badandan chiqar edi.

Gulnoz tezda qayta olmadi. Qamarbonu idish-tovoqlarni yuvish va mehmonlarga xizmat qilishni buyurdi. Qizning es-hushi onasida ekanini payqab, uni o'z nazorati ostida ishlata boshladi:

— Hay qiz, — deb o'dag'aylardi u, — chaqqon-chaqqon qimirla! Tekinga ishlayotganing yo'q! Men sening qorningni to'yg'azayapman, mana onangni ham boqa boshladim! Jahlimni chiqarma!

Bu so'zlaridan bittasiga ham Gulnozning javob bermaganini ko'rib, uni ruhan yengildi deb hisoblar va battarroq zarda qilardi. Chunki u shu yo'l bilan Gulnozni o'zi aytganiga ko'ndirmoqchi va xonimlari qatoriga qo'shmoqchi bo'lardi.

Gulnozning onasi kelib qolishi uning bu fikrini yana ham mustahkamladi. Shuning uchun ham u Sariya xolani ko'chaga haydab chiqarmagan edi. Uning fikricha, onasining yashashi uchun qiz har ishga ham rozi bo'lardi. Kechasi allamahalda, "mehmon"larning

oyog‘i ancha tiyilgandan keyin, u Gulnozni chaqirdi. “Mehmonlar” oldidan qaytgan sarqitlarni bir idishga solib, unga berdi.

— Olib bor, onang yesin! — dedi.

Gulnoz yerto‘laga tushganida onasi alahlamoqda edi. Dastlab u onam uyqusirayapti deb o‘yladi. Lekin peshonasidan ushlagach, uni o‘tday yonayotganini ko‘rdi. Qo‘lidagi idishni bir chetga qo‘yib, onasining yoniga o‘tirdi-da, boshini tizzasiga oldi.

— Onajon, onajon, — deb uning qo‘li va lablaridan o‘pdi.— Eshityapsizmi, onajon!

Onasi o‘ziga kelgandek bo‘ldi. Qo‘llari bilan qizining yuzini axtardi:

— Engash, Gulnoz, engash. Shahlo ko‘zlaringdan bir o‘pay. Engash, qizim...

Gulnoz egilib, boshini onasining ko‘ksiga qo‘yib yig‘ladi.

— Sizga nima bo‘ldi, ona?

Onasi tobora zaiflashmoqda, bo‘g‘iq tovush bilan javob berdi:

— Men ham ketayapman endi, qizim. Olamdan o‘tyapman. Xudoga shukur, o‘limimdan oldin seni ko‘rdim. Seni menga Xudoning o‘zi yetkazdi, ko‘zimni o‘zing bekitasan, qizim!

Gulnoz onasining hayot chirog‘ini so‘nishdan saqlab qolishni, unga hayot berishni istardi. Onasini goh bag‘riga bosar, goh silab-siypar, goh o‘pardi. Lekin hech narsa ham dunyodan o‘tayotgan odamni to‘xtatib qololmasdi. Hech narsa ham o‘limga taslim bo‘layotgan badanga kuch berolmasdi.

U tong qorong‘isida yana hushidan ketdi. Bu behushlik uzoqqa cho‘zilmadi, hayotda ko‘rgan azoblari uni jon berish azobidan qutqardi.

Uning o‘limi bilan Gulnozni hayot bilan bog‘lab turgan so‘ngi iplar ham uzilgandek bo‘ldi...

YIGIRMA OLTINCHI BOB

Gitler galalarining ittifoq mamlakatiga bostirib kirganiga besh kun bo'ldi. Butun dunyoning nazari hozir sovet — german frontida edi. Tarixning g'ildiragi go'yo o'sha yerda aylanar, dunyoning kelajagi, mamlakatlarning taqdiri o'sha yerda hal bo'layotganga o'xshardi. Faqat buyuk va mayda davlatlarninggina emas, balki bu davlatlardan insonlar munosabatlarining, u yoki bu idealga mansub bo'lgan guruh yoki oilalarning ham taqdiri shu urush maydonida hal bo'lmoqda edi. Tehron bu hodisalarni diqqat bilan kuzatib borayotgan turli va bir-biriga zid fikr qiluvchi odamlar bilan to'la bir shahar edi. Bu yerda urushning borishi, kimning g'olib kelishi to'g'risidagi gap-so'zlar oddiy bir qiziqishdangina kelib chiqmas edi. Bu gap-so'zlar turli dunyoqarashlar, mayllar, orzu va ehtiroslarning natijasi edi. Eronni to'ldirib yuborgan va hali ham to'xtovsiz kelib turgan nemis josuslari, Eronning hukmron doiralari va reaksion tabaqalar Gitlerning g'olib kelishi to'g'risidagi afsonalarni bo'lishi muqarrar bo'lgan bir haqiqatdek tarqatishar, o'zlarining targ'ibotlarida hozirgi vositalardan tortib, to o'rta asrning diniy xurofotlaridan iborat bo'lgan, aqlga sig'maydigan uydurmalargacha, barcha vositalardan foydalanar edilar.

Birinchi jahon urushida nemis imperatori Vilgelm II Muhammadning qilichini osib, g'azot e'lon qildi, deb gap tarqatgan nemis josuslari endi Gitler to'g'risida xuddi o'shanday gap tarqatishar, hatto uni haqiqiy "Sohibuzzamon", "Imom Haydar" deb e'lon qilishardi. Lekin bu barcha urinishlarga qaramay, kambag'al, och va huquqsiz xalq butun yurakdan bu urushda Sovetlarning g'olib kelishini istar edi, ozodlik va insonning insondek yashashi ana shu g'alabaga bog'liq ekanini bilar edi. Eronning kaltabin hukmronlarini turli xom-xayollarga olib borgan sovet — german frontidagi dastlabki janglar demokratik kuchlarni ham harakatga keltirgan edi. Har ikki lagerda ham qat'iy kurashga tayyorgarlik

borardi. Nemislar bu hodisalarni diqqat bilan kuzatib turar, shu paytgacha misli ko'rilmagan g'ayrat bilan Eronning ichki hayotini o'z istaklariga bo'ysundirishga harakat qilardilar. Kecha-kunduz nemis elchixonasiga keluvchilarning oyog'i uzilmas edi. Nemis elchisi fon Ettel o'z diplomatik idorasini chinakam harbiy shtabga aylantirgan edi. Bu yerda Erondan Sovetlarga qarshi ochiladigan frontning rejalari tuzilar, harbiy kuchlarning tuzilish qoidalari va hujum uchastkalari aniqlanardi. Rizo shohni endi tamom o'z ta'siriga olgan nemis fashistlari har ehtimolga qarshi ba'zi qabila boshliqlari orasida ham ish olib borishar, janubda ham, shimolda ham shu kungacha feodal hayoti kechirayotgan qabilalar orasida isyonkor guruhlar tayyorlab qo'yishmoqda edilar. Yunkers firmasining vakili, yigirma besh yildan beri Eronda ishlab kelayotgan Shunsman janubdagi qabilalar orasida markaziy davlatga qarshi qo'zg'olon uyushtirayotgani ochilib qolganida, fon Ettel uni Isfahondan... Tehronga "surgun qilishi"ga erishdi. Tabrizda "Veberbauer transport" nomli ko'zga ko'rinmas bir idoraning boshlig'i sifatida ashaddiy josus va ig'vogar polkovnik Shmitd ish ko'rardi. U butun Sovet — Eron chegaralari bo'ylab jinoyatchilar, sotqinlar, xoinlardan iborat bosqinchilarni hozirlardi. Anzalida, Go'rgonda va shimoldagi barcha shaharlarda ham xuddi shunday ishlar avj olmoqda edi. Bu ishlarning markazida esa fon Valter turardi. U Tehronda o'tirib, tevarak-atrofga yoyilgan fitna-fasod ishlarini boshqarar, ularning hammasini o'z qo'lida saqlar edi. U fon Ettel orqali Berlindan har kuni yo'l-yo'riqlar olib turar, tushida ham tezda Kavkazni va Boku neftini nemis qo'shinlari bosib olishlarini ko'rar edi. Yigirma yettinchi iyun kuni ertalab soat to'qqizda o'z xonasiga kirar ekan, xayolidan yana o'sha fikrlar o'ta boshladi. Lekin uning qalbida, allaqayerda yashirinib yotgan shubhalar ham bor edi. "Bordi-yu, birdan nemis qo'shinlari bir-ikki oy ichida Rossiyani bosib ololmasalar-chi? Bordi-yu, Sovetlarning yengib bo'lmas qarshiligiga duch kelsalarchi?.. Urush cho'zilib ketsachi? Unda bu eronliklarga ishonib bo'larmikin? Ular payt poylab turib, fon Valter kabilarning kallasini kesib, yog'ochlarga o'tqazib ko'chalarda aylantirgan paytlar kam bo'lganmi?"

Shunaqangi yomon xayollar va uyqusiz o'tkazilgan kechaning bosh og'rig'ini unutish uchun u kichkinagina, yaltiroq stol ustiga taxlab qo'yilgan yangi gazetalarga qo'l cho'zdi. Qo'liga dastlab "Ittiloat" gazetasi ilindi. Negadir bu gazetani o'qigisi kelmadi. "Ittiloat"ni biryoqqa qo'yib, boshqa gazetani ko'zdan kechira boshladi.

Shu payt ijozat so'rab, elchixonaning kotibi kirib keldi-da, kichkinagina bir varaqani stol ustiga qo'ydi. Elchi shu masala ustida gaplashib olish uchun soat o'nda uchrashishni taklif qilgan edi.

Fon Valtyor shoshilmasdan gazetani bir chetga qo'yib, varaqani oldi. Lekin o'qigan sari basharasi o'zgarar, labini tishlar edi. Ellik satrdan iborat bo'lgan bu varaqa boshdan-oyoq Gitlerning xiyonatkorligini va qonxo'r jallod ekanini fosh qilishga bag'ishlangan edi, Eronda ish ko'rayotgan nemislarning vaqt g'animatda jo'nab qolishini talab qilar edi.

Fon Valter varaqani g'ijimlab kabinetda keza boshladi:

— Tezda sizning umid o'chog'ingizni yo'q qilamiz,— dedi u, tishlarini g'ijirlatib, keyin devorga osilgan katta xarita oldiga kelib to'xtadi.

U xarita oldida turib Gitler galalari bilan Moskva o'rtasidagi masofani belgilashga urinib ko'rdi. Ko'zlarini Moskvaga, uning orqasida cho'zilib yotgan bepoyon Sovet territoriyasiga tikdi. Bu yerlar unga allaqanday anglashilmas va sirli bo'lib ko'rindi. Sovet mamlakatining yerlariga qarab yuragini vahima bosib ketdi. Boshi og'ir bir yuk kabi yelkasini ezib og'rita boshladi. Xarita oldidan uzoqlashib kitob shkafi oldiga keldi-da, hali ko'rmagan kitoblarni titkilay boshladi. Dastlab qo'liga chiqqan kitobning ustiga fors tilida "Xotiroti Gitler" deb yozilgan edi. Kitobning muqovasida qora ramka ichida bir kishining surati bor edi. U harbiy kiyimda bo'lib, boshini orqaga tashlab, o'ng qo'lini yuqori ko'tarib musht qilgan edi. Baroq qoshlari, qorachug'i ko'rinmaydigan katta ola ko'zlari ustiga tushib turar edi. Og'zi tarang tortilgan yoyga o'xshardi. Fon Valter bu rasmga qarab turgan bo'lsa ham, xayoli boshqa yoqlarda edi. Varaqa, urushning oqibati, noma'lum kelajak fikri xayolini band qilgan edi. Shuning uchun ham kitobning muqovasidagi musht ko'tarib turgan odam unga butun dunyoga xavf solayotgan-

dek, har bir kishiga do‘q qilayotgandek tuyuldi. Lekin og‘ir fikrlarini quvib, esini joyiga yig‘ib, rasmga qaradi-yu, qo‘rqib ketdi. Bu Gitlerning rasmi edi. Kitobni ehtiyotlab bilan joyiga qo‘ydi-da, boshqa bir kitobni oldi. Bu kitobning ustiga “Mussolini” deb yozilgan edi. Fon Valter uni ham joyiga qo‘yib, soatiga qaradi-da, elchining oldiga jo‘nadi.

Elchining qabulxonasida u Hakim ul-mulk bilan tashqi ishlar vaziriga duch kelib, ular bilan salomlashdi. Tashqi ishlar vazirini elchixona kotibining ixtiyoriga topshirib, o‘zi Hakim ul-mulkning qo‘ltig‘idan oldi:

— Xo‘sh, qanday yangi gaplar bor, do‘stim? — deb so‘radi do‘stona ohangda.

Hakim ul-mulk kulimsiradi:

— Shukur, sizlarning soyangizda ahvolimiz yomon emas.

— A’lohazrat qalay? Kayfiyatida biror o‘zgarish yo‘qmi?

Hakim ul-mulk bu so‘roqning mohiyatiga tushundi:

— Ollohi taolo Germaniya bilan Eronning taqdirini shunday birlashtirib yuborganki, et bilan suyakdek gap. Hech qanday kuch ularning birligini buzolmaydi. Ammo...

— Xo‘sh, xo‘sh? Yo biror shubhangiz bormi?

— Xudo ko‘rsatmasin. Ammo inglizlardan biroz xavfim bor.

Fon Valter kuldi:

— Bizning buyuk Vilgelm ular to‘g‘risida nima deganini bilasizmi? — deb so‘radi va Hakim ul-mulkning javobini kutmay dedi: — Ular mart oyidagi quyonlar singari aqlsizdirlar, degan edi u. Ulardan xavflanmang!

Shundan keyin u bilan xayrlashib, elchining xonasiga kirib ketdi. Elchi fon Valterning varaqa to‘g‘risida boshlagan gapini shartta kesdi:

— Lozim choralar ko‘rishingizga ishonaman, — dedi u va hozirgina Berlindan olingan shifr-telegrammani unga uzatdi. Telegrammada ishlarni yana ham jonlantirish, qat’iy choralar ko‘rish talab qilingan edi.

— Fyurerning rejasida Sharq katta o‘rin tutadi, — dedi elchi. — Hozirgi paytda esa Sharqning taqdiri shu yerda hal qilinadi. Eronni qo‘lga kiritish, Kavkazni Sovet Rossiyasidan ajratib olish

va Angliyaning Hindistonga boradigan yo'lini kesib qo'yish demakdir. Men hali Erondan olinadigan o'n million tonnalab neft to'g'risida gapirayotganim ham yo'q. Ha, o'n million tonnalab neft!

Fon Valter shifr-telegrammani o'qib chiqib boshini ko'tardi-da, elchining so'nggi so'zlarini beixtiyor takrorladi:

— O'n million tonnalab neft!

— Neft! Neft!.. Neftning nima ekanini tushunasizmi? Neft — hozirgi zamon texnikasining qonidir. Biz esa bunga juda muhtojmiz. Biz har qanday qilib bo'lsa ham, Eron nefti bilan Boku neftini qo'lga olishimiz kerak!..

Elchi neft to'g'risida yana ancha gapirdi. Keyin Eronga yangi kelgan qirqta nemis uchuvchisining Eron harbiy qismlari orasiga joylashtirishga Rizo shohning rozilik bildirganini fon Valterga aytdi-da, qo'shib qo'ydi:

— Butun talablarimizni qabul qilsa ham ehtiyot bo'lishimiz kerak. Bu olchoq o'zini buyuk hukmron deb his qiladi. U goh ingliz-amerikaliklar tomonga og'adi, goh biz tomonga... Dunyoda ularni ikki bukilib ta'zim qilishga majbur qiladigan narsa bor bo'lsa, u ham kuch-quvvatdir! Shuning uchun qabila boshliqlari bilan qo'shin boshliqlari bizning qo'limizda bo'lishi kerak. Har joyda ham biz istagan vaqtda kurashga tayyor bo'lgan kuchlar hozirlanib qo'yilishi kerak. Ko'p o'tmay, biz bu mayda hukmronlar bilan gaplashib o'tirish majburiyatidan qutulamiz. Nemis quroli bu millatlarni, bu davlatlarni va ularning qo'g'irchoq hukumatlarini yer yuzidan supurib tashlaydi.

Fon Valter elchining gapiga quloq solar ekan, ikkala qo'li bilan boshidagi siyrak sochlarini sekin-sekin silab o'tirardi. Qoshlari borgan sari yuqori ko'tarilib bordi. Shuning uchun uning ko'zlari odatdagidan ko'ra kattaroq ochildi.

Elchi ittifoqqa yuboriladigan ma'lumot to'plovchi josuslar to'g'risida so'radi:

— Boku — bolsheviklarning qon tomiridir, uni uzish kerak! — dedi elchi.

Fon Valter diversantlar tayyorlab qo'yilgani va ularni Sovet Ittifoqiga o'tkazish rejalarini so'zlab berdi.

— Qo‘shinlarimiz Shimoliy Kavkazga yetib borgunicha, ular o‘z faoliyatlarini boshlab yuboradilar.

— Portlovchi moddalar tayyorlab qo‘yilganmi?

— Ha, Hikmat Isfahoniyning Miyanadagi omborlarida ellik tonna hozirlab qo‘yilgan.

Elchining oldidan chiqib, o‘z xonasiga o‘tar ekan, eshigi oldida boshini changallab, xayol surib o‘tirgan Ali jandarm boshiga ko‘zi tushdi. Darhol fon Valterning qosh-qovog‘i solindi, qoshi ko‘zlari ustiga yopirildi. Ali jandarmboshi uni ko‘rishi bilanoq dik etib o‘rnidan turib, salom berdi. Fon Valter alik ham olmay, ichkari kirib ketdi. Ali jandarmboshining chiqib ketgisi, boshi oqqan tomonga qochib qolgisi keldi. Lekin qayerga qochadi? Eron ko‘rfazidan to Kaspiy dengizigacha bo‘lgan hamma joyga fon Valterning qo‘li yetar edi. O‘nî topib o‘ldirar va mol-mulkini musodara qilgan bo‘lardi. Basraga, undan Bahrayn orollariga qochish to‘g‘risida o‘yladi. Yashirincha hovli-joyini sotib, xotin, bola-chaqasini olib Basraga bormoqchi va biror boshpana topib o‘sha yerda yashamoqchi ham bo‘ldi. Lekin u yerda ham tinch yashab bo‘larmikin? Inglizlar qo‘lidan salomat chiqarmikan? Bor-yo‘g‘ini yeb, och-yalang‘och qaytib kelsa to qiyomatgacha o‘zini tiklay olmagan bo‘lardi. Yo‘q, fon Valterga bo‘ysunishdan boshqa chora yo‘q edi.

Fon Valter uni chaqirdi, lekin o‘tir deb joy ko‘rsatmadi. O‘rnidan turib, sochlarini titkilab xona ichida kezdi, keyin Ali jandarmboshining ko‘zlariga tikildi:

— Xoin! Ablah xoin! — dedi u tishlarini qisib.

Ali jandarmboshi nima qilishni bilmay, boshini quyi soldi.

— Ha, hali sen shohsavanlar ichiga qochib ketadigan bo‘ldingmi?— dedi fon Valter. — Balki, Tolish1 tog‘laridan o‘tib ketmoqchidirsan, a? Bolsheviklarga xizmat qilmoqchidirsan?!..

Ali Qamarbonunikidagi gaplardan fon Valter xabardor ekanini darhol tushundi. U fon Valterning diqqatini bu asosiy mavzudan chetga tortmoqchi bo‘ldi:

— Janob fon Valter, men qayoqda-yu, bolsheviklar qayoqda? Men ularning qoniga tashna odamman...

[1] Eron Ozarbayjon o‘rtasidagi tog‘lar,

Fon Valter umuman bunday odamlarni, xususan Ali jandarmboshini yaxshi bilgani uchun bekorchi gaplar bilan vaqt o'tkazish niyatida emasdi. U ish stoli tortmasidan bir qog'oz olib silkitdi:

— Sen biz bilan hamkorlik qilishga tilxat berganmisan?

Ali jandarmboshi sekin qog'ozga qarab, titrab ketdi:

— Berganman. Qo'l ham qo'yganman.

— Men ham senga ana shuni eslatib qo'ymoqchi edim. Bor endi, jo'na! Bu ishda jasoratli bo'lish kerak. O'lsang mol-mulking, oilang qoladi. O'lmay qolsang, qo'shinlarimiz Bokuga kirganda shahar jandarmeriyasiga boshliq bo'lasan. Qo'shinlarimiz Bokuni yaqin orada ishg'ol qiladilar...

Ali jandarmboshi chiqib ketdi.

Fon Valter urush harakatlari to'g'risidagi so'nggi axborotni o'qib chiqdi. Terisiga sig'may xursand bo'lib ketdi.

"Bitsin shubhalar, — deb o'yladi u, — Germaniya dunyoga hukmron bo'ladi!.."

* * *

Yulduzlar charaqlab turgan, oydin janub kechasi Tehron ustiga qanot yozgan edi. Kunduzi odam qaynagan ko'chalarga endi o'rta asr Sharqiga xos bir sukunat cho'kkan edi. Do'konlarning eshigini qulflab, shunday eshik tagiga joy solib yotgan mayda do'kondorlar va yamoqchilarning xurrak otishi shimolga va janubga qarab yo'lga chiqqan. Karvonlarning qo'ng'iroq tovushi bilan aralashib ketar edi. Bu karvonlar hozirgi zamon mollarini, ingliz, amerika va nemislarning turli mollarini ortgan bo'lishiga qaramay, Sharqning qadimiy odatiga ko'ra kechalari yo'l yurar, kunduzlari salqin joylarda qo'nib dam olardi. Ular bundan ming yillar ilgarigidek tuyalarning bo'yniga qo'ng'iroq osib, bitta-bitta yurib borishar, asfaltlangan yo'llarda esa ularni orqada qoldirib turli "Ford", "Shevralye" va "Kraysler"lar g'izillab o'tib turardi. Ularning bir tekisda qadam tashlab va saf tortib borishini qarshidan kelgan biror mashina chirog'ining nurigina buzar edi. Tuyalar hurkib, bir-birining orasiga kirib, yo'lni butunlay to'sib qo'yishardi. Tuyakashlar hay-haylashib tuyalarni yo'lga solishar, sakrab

tushib tuyani yetaklab mashina oldidan olib o'tardi. Shu tarzda karvon yana ilgarigi holiga tushar, saf tortar va yo'l ochilar edi. Kechaning jimjitligini buzib, tuyaning bo'ynidagi qo'ng'irog'i yana bir ohangda jaranglab, atrofga hazin tovush tarqatar edi. Mashinalar o'tib ketardi. Karvon o'z yo'lida davom etardi.

Juma masjidining katta hovlisida allakim baland tovush bilan qur'on o'qirdi. So'fining azon aytishini eslatgan bu tovush kecha qorong'ulig'ida masjidning devorlari tagida yotgan tilanchilar orasidagi kasal va nogironlarning oh-vohini bosib ketolmasdi. Lekin tun allavaqt bo'lib, ko'kdagi yulduzlar qalinlashgach, barcha narsalar ham jim bo'lardi. Go'yo butun shahar, butun Tehron jimjit janub kechasining qo'ynida abadiy uyquga ketgandek edi. Shunday kechalardan birida Hakim ul-mulk o'z mashinasida shaharni aylanib yurar va yarim soatdan so'ng a'lohazrat bilan bo'ladigan uchrashuv to'g'risida o'ylar edi. Fikrlarini yig'ib, tartibga solishga harakat qilardi. Fikri chigallashib mantiq buzilgan joyda esa aqlini boshiga yig'ib olish uchun shahar manzaralarini tomosha qilishga kirishardi. Lekin har kuni ko'rib, ko'zi o'rganib qolgan bu manzaralar uning diqqatini uzoq jalb qilolmas, tezdan zerikib qolar, shahar manzaralarida fikrini band qiladigan biror narsa yo'q edi. Na uzoq osmondagi porloq yulduzlar, na zulmat ichiga yashiringan ufq va na qorong'ulikdan eshitilayotgan karvonlarning bir ohangdagi g'amgin tavushlari uning diqqatini o'ziga torta olardi. Bu kecha unga juda og'ir tuyuldi. Bu kechadagi uchrashuvni o'zi so'ragan edi. Shunga qaramay, qalbida allaqanday vahima bor edi. Nima uchundir miyasida bu uchrashuv muvaffaqiyatsiz chiqadi, degan shubha uyg'onardi. Lekin endi vaqt o'tgan edi. Iltimos qilib uchrashuvga va'da olgan edi. Endi faqat bitta yo'l qolgan edi. Hech qanday taraddudga, shubha va qo'rquvga yo'l qo'ymay, shohning oldiga kirish, o'ylab yurgan gaplarini a'lohazratga bildirish kerak! Shu fikrlar bilan mashinani qaytarib saroyga keldi. Xonasiga kirib, "Sado" gazetasini ko'zdan kechirdi-da, kerakli joylarining tagiga ko'k qalam bilan chizib qo'ydi.

Shu payt uni a'lohazrat kutib turganini aytdilar. U soatiga qaradi. Shoh uni tayin qilingan vaqtdan o'n minut ilgari chaqirtirgan edi. Sakrab o'rnidan turib, podshohning oldiga kirdi.

Hukmdor uni odatdagidan ko'ra mehribonlik bilan qarshi oldi. Uzoq ta'zim qilib turishga majbur etmay, o'tirish uchun darrov ijozat berdi. Hakim ul-mulk bularning hammasini yaxshi alomat ekanini tushundi, o'ylab yurganlarini shohga aytish uchun qulay fursat kelganini payqadi. Rizo shoh joyidan qimirlamadi, so'l betidagi tirtig'ini qimirlatmay so'zlab ketdi:

— Og'oyi vazir, — dedi u, — biz uchun og'ir vaqtlar boshlandi. Sovetlar bilan inglizlar biz o'ylagandan tezroq harakat qilish fikridalar. Bu bizning vaziyatimizni og'irlashtirsa ham, endi chekinish uchun yo'l yo'q!

Shoh birdan g'azab bilan sakrab o'rnidan turdi. Unga bir gap bo'lganini ko'rib, Hakim ul-mulk ham o'rnidan turdi. Rizo shoh qo'lini stolga tirab davom etdi:

— Chekinish uchun yo'l yo'q! Yo'l yo'q! Ohhh... Bu hodisalar nemislar Moskvani olguncha cho'zilsa edi!..

Hakim ul-mulk a'lohazratning og'ir yuk ostida ezilayotgandek bir vaziyatda qolganini sezdi-da, unga yordamga kelishga oshiqdi:

— A'lohazrat, ehtimol, inglizlar bilan kelishish mumkin bo'lar, ehtimol, bu ishni biz istagan vaqtga qadar kechiktirishning iloji bordir.

Rizo shoh jinnilardek xona ichida kezdi. Press orasida ezilgandek to'lg'ondi:

— Masala faqat inglizlarda bo'lsaydi, bunday vaziyatda qolmagan bo'lardik. Meni bezovta qilayotgan narsa inglizlarning Eronga qo'shin kiritishi emas, vazir. Inglizlar kelsa ham toj-taxt joyida qoladi. Usul-idora qoladi, qonunlarimiz qoladi, sen ham o'z o'rningda qolasan, men ham qolaman. Ammo ruslarning oyog'i tekkan joydan o't chiqadi, olov chiqadi! Yong'in, butun mamlakatni yong'in qoplaydi! Bu yong'indan na arbob, na savdogar, na mulk va na davlat omon qoladi. Bu Karimxonlarni qancha osmagin, baribir ular tirilib, qo'llariga qizil bayroq ko'tarib ko'chaga chiqadilar. Yo'q, yo'q! Qon tizzaga chiqsa ham, urushish kerak. Toj-taxtdan voz kechsam ham urushish kerak. Chunki bugun yengilsak ham erta, bir oydan so'ng, uch oydan so'ng, nemis qo'shinlari Rossiyadan bu yerga kelgandan so'ng biz uchun barcha eshiklar ochiq bo'ladi! Sen nima deysan, vazir?

Hakim ul-mulk bosh egdi:

— A'lohazrat g'oyat to'g'ri muhokama yuritadilar.

Rizo shoh borib joyiga o'tirdi-da, o'zi bilan o'zi so'zlashayotgandek dedi:

— Ittifoqchilarning talabi rad qilinishi kerak, bizning qat'iy qarorimiz shunday! Mamlakatda harbiy holat e'lon qilinadi. Ichki boshboshdoqchilar mahv qilinishi lozim. Bo'ysunmaganlarning boshi kesiladi. Shundaymi, og'oyi vazir?

Hakim ul-mulk sakrab o'rnidan turib, ta'zim qildi-da, o'ylab yurgan fikrlarini aytish payti kelganini angladi:

— Mutlaq to'g'ri aytdingiz, a'lohazrat! — dedi u, keyin sarhang Safoiydan olgan ma'lumotga o'z mulohazalarini qo'shib, Rizo shohga aytdi.

Rizo shoh g'azab bilan xonada uyoq-buyoqqa yura boshladi. Hakim ul-mulk so'zini tugatib bosh egdi, sekingina yer ostidan shohga ko'z tashladi. Shohning yuzidagi tirtiq pir-pir uchardi. Hikmat Isfaxoniy hozir o'zi shu yerda bo'lsa edi, a'lohazrat uni o'z qo'li bilan bo'g'ib o'ldirgan bo'lardi.

— U hari tulkini shu kechayoq zindonga solish kerak!.. Eshitayapsanmi, vazir! Shu kechayoq!..

—Xo'p bo'ladi, a'lohazrat!

— Ularning hammasi ham bir guruhga mansub. Suiqasdchilar, qotillar guruhi! Balki sartib Salimiy ham o'sha guruhdadir. Ularning tashkilotchisi o'sha bo'lsa ham ajab emas! Lekin uni Qasri Qojorga yubormasdan oldin mening oldimga chaqir. Men u bilan yana bir so'zlashmoqchiman. Bu odamning so'zlari mening yuragimga dog' solgan. Uni chaqir!

— Bachashm, a'lohazrat!

— Endi ketishing mumkin, — dedi Rizo shoh tajanglik bilan.

Hakim ul-mulk o'rnidan turib ta'zim qildi, lekin ketmay, joyida turib qoldi. Rizo shoh uning yana biror narsa demoqchi ekanini anglab:

— Yana nima demoqchisan? — deb so'radi.

Hakim ul-mulk cho'ntagidan "Sado" gazetasini oldi:

— Marhamat, a'lohazrat. Bu og'oyi Hikmat Isfahoniyning gazetasi. Mana bu maqolada nemislarning taktikasi tanqid qilin-

gan. Maqsad ravshan. Mamlakat bugungidek og'ir bir siyosiy davrni boshidan kechirayotganida ittifoqchimiz nemislarda bizga nisbatan shubha uyg'otish, munosabatlarimizni yomonlashtirishdir!..

Rizo shoh gazetaning tagiga ko'k qalam bilan chizib qo'yilgan joyini o'qib chiqib, uloqtirib yubordi:

— Hikmat Isfahoniy o'z imzosini qo'yishni ham bilmaydi, bunday maqola yozish uning qo'lidan kelmaydi! Gazetaning muharriri kim?

— So'fi Eronparast degan bir kishi.

— Ertaga bu yerga chaqir!

Hakim ul-mulk yana ta'zim qilib, chiqib ketmoqchi bo'ldi, shu payt Rizo shoh qo'l ishorasi bilan uni to'xtatdi. Hakim ul-mulk ta'zim qilgancha qotib turdi. Rizo shoh bir nafas xonada kezdi. Keyin vazirning oldiga kelib o'tirish uchun joy ko'rsatdi.

Keksa vazir podshohning chehrasida boyagi g'azabdan asar ham qolmaganini darhol sezdi, hukmdorning chehrasi muloyimlashgan edi. Bu hol Hakim ul-mulkka dalda berdi, o'zini dadil tutib, shoh ko'rsatgan kursiga o'tirdi. Lekin darhol Nizomiyning: "Yo'lbarsning oqarib ko'ringan tishlari tabassum qilish uchun emas, seni parchalash uchun ochilgandir" degan so'zlarini xotirladi. Xotirladi-yu, vahimaga tushdi, ichdan kelgan titroqni zo'rg'a bosib o'rnidan turdi. Shoh uning yelkasidan bosib joyiga o'tqazdi:

— Bu taxt qanchadan qancha to'fon va bo'ronlarni ko'rgan, vazir! — dedi u.

Shohning hozirgi ovozi ham, boqishlari ham tarkidunyo qilgan, dunyoning ishlarini bir chetdan tamosha qilgan darvishni eslatardi. Lekin isitmada alahlab har narsani birdan esidan chiqargandek tuyulgan bu o'zgarishga sabab nima ekan? Bu bir zolim mustabidning o'zi oqizgan qonlar, o'zi ishlatgan hiyla va nayranglardan charchaganimi? Yoki o'lim tahlikasini sezgan yirtqichning shoshib qolganimi? Ahvolni qanday tushunish kerakligiga Hakim ul-mulkning aqli yetmadi. Shuning uchun u tajribakor saroy a'yoniga xos bir ehtiyotkorlik bilan shoh nima desa, o'shani ma'qul deyaverdi:

— To‘g‘ri aytdingiz alohazrat, tarix sahifalarida uning goh gullab-yashnagani to‘g‘risida, goh tanazzulga uchragani to‘g‘risidagi rivoyatlar juda ko‘p. Bu rivoyatlar shon-shuhratlar va razolatlar tizmasidek zamonamizgacha yetib kelgan.

— Qojorlar sulolasi hukmronlik qilgan chog‘da ochilgan qora sahifalar esa bu razolatlarning so‘ngisi bo‘ldi.

— Xuddi shunday, a’lohazrat, — dedi u yana shohning gapini ma’qullab, — Qojorlar hukmronlik qilgan davr Eronning tanazzulga yuz tutgan va zaiflashgan davri edi. Faqat Pahlaviy xonadonigina Eron quyoshini botib ketishdan saqlab qoldi, Eron tarixida yangi taraqqiyot sahnfalarini ochdi.

Hakim ul-mulk Rizo shohning o‘ylanib qolganini ko‘rib, jim bo‘ldi, unga ko‘z qirini tashladi. Shohning basharasidan uning xayoli uzoqlarda kezib yurgani ko‘rinib turardi. Tabiatidagi manmanlik, shuhratparastlik va xudbinlik hislari tutib qolganda u qat’iylashar edi. Lekin hozir uning fikri hali ham tarix sahifalari ustida kezib yurardi.

— Men Eronning eng gullagan davri Anushirvon Odil zamoni edi, deb hisoblayman.

— To‘g‘ri aytasiz, a’lohazrat, Anushirvon Odil aqlli hukmdor edi.

— Xo‘sh, men bilan Anushirvon Odil o‘rtasida qanday farq bor, vazir?

Bu kutilmagan savol Hakim ul-mulkni dovdiratib qo‘ydi. U birdan javob berolmadi. Lekin shohning savolini javobsiz qoldirib ham bo‘lmasdi.

— Yer bilan osmoncha farq bor, a’lohazrat. Eron sizning davringizdagi taraqqiyot va ravnaqni hech vaqt ko‘rgan emas. Anushirvon Odil zamonasida Mozandarondan Isfahonga borish uchun oylab yo‘l yurish kerak edi. U vaqtda tuya va eshakdan boshqa narsada bu yo‘ldan o‘tib bo‘lmasdi. Sizning zamoningizda esa shunday transport vositalari borki, mamlakatning u boshidan bu boshiga uch kunda yetish mumkin. Anushirvon Odil zamonida aeroreja yo‘q edi, sizning davringizda esa bor. U vaqtda elektr, parmashinalari yo‘q edi, sizning zamoningizda bor. U davrda avtomobillar yo‘q edi, sizning zamonangizda bor. U davrda pochta va

telegraf yo‘q edi, sizning davringizda esa bularning hammasi muhayyo... Sizning davringizni Anushirvon Odil zamoni bilan taqqoslab bo‘ladimi, a’lohazrat!

Rizo shoh sakrab o‘rnidan turib, Hakim ul-mulkka eshikni ko‘rsatdi:

— Chiq eshikka ahmoq! Anushirvon Odilning Buzer Jumehrdek vaziri bor edi, uning senga o‘xshash itvachchalarga kuni qolmagan edi. Yo‘qol ko‘zimdan!

Hakim ul-mulk o‘zining qanday qilib chiqib ketganini bilmay qoldi.

“Anushirvon Odil xalaqit berdi-da! Endi meni ham Salimiy guruhiga qo‘shib qo‘ymasa go‘rga edi. O‘z oyog‘imga o‘zim bolta urdim!”

Shunday xayollar bilan tong otguncha uxlayolmay, ilonday to‘lgonib chiqdi. Lekin shunga qaramay, qizishib ketgan qimorboz singari o‘yinni oxiriga yetkazishga qaror qildi. Ertasiga ertalab So‘fi Eronparastni chaqirtirdi-da belgilangan vaqtda u bilan shohning oldiga kirdi.

Ular ikki bukilishib, ichkari kirishdi. Deraza oldida turib allanarsani kuzatayotgan Rizo shoh, odati bo‘yicha, uzoq vaqt ularga e’tibor bermadi. Keyin og‘ir fikrlardan qutulib, esi o‘ziga kelgan odamday o‘girilib qaradi, indamay zohiriy viqor bilan ularni ko‘zdan kechirdi. A’lohazratning huzuriga kirish sharafiga birinchi marta noil bo‘lgan So‘fi Eronparast sehrlangan odam singari turgan joyida qotib qolgan edi. Uning nazarida, podshoh qadam tashlaganda saroy titraganday, boshini qimirlatganda Tehron larzaga kelganday, qoshini chimirganda ko‘zlaridan o‘t chaqnaganday, butun mamlakat qo‘rqib jim turganday tuyulardi. Rizo shohning g‘azabli basharasi va qahrli boqishlari uning esxonasini o‘ynatib yuborgandi. Qo‘rqqanidan butun borligi yaproqday titrardi. Dahshatli bir vahima butun vujudini egallab olgandi, u na biror narsani o‘ylay olardi, na sezardi. Yana to‘g‘rirog‘i, butun hissiyoti, butun borlig‘i va shuuri ishlashdan to‘xtagan edi.

Ular ikkalasi hali ham ta’zim qilib turishar va o‘tirishga ijozat bo‘lishini kutishardi. So‘fi Eronparast yana birpas shu holatda turgudek bo‘lsa, oyog‘ining darmoni qurib yiqilib tushishdan

qo‘rqar, a’lohazratning “o‘tir” deb buyurishrni kutardi. Huzurida odamlarning titrab turishiga odatlangan Rizo shoh esa ularning bu vaziyatidan ruhan lazzatlanar, indamas edi.

Nihoyat So‘fi Eronparastning qulog‘iga a’lohazratning ovozi eshitildi:

— Bugun qanday kun?

Dastlab bu savol unga g‘alati va tushunilmas ko‘rindi, yer ostidan Hakim ul-mulkka qaradi. Yonida jonli odam emas, toshdan yo‘nilgan oriq va xunuk bir haykal qadimgi Misr mumiyolariga o‘xshash bir mahluq turganini ko‘rdi. Unda hayotni eslatuvchi birorta belgi yo‘q edi. Rizo shoh savoliga javob kutardi. Ular butun aql-idroklarini ishga solib, bugun qanday kun ekani to‘g‘risida o‘ylardi. Lekin bekorga ovora bo‘lmoqda edilar! Qo‘rquv ularning aqlini tamom ishdan chiqargan, fikrlari tog‘dan pastlikka yumalatilgan arava singari bir joyda to‘xtamasdi.

Javob kutib charchagan Rizo shoh asabiylashdi:

— Bugun qanday kun deb so‘rayapman?

So‘fi Eronparast Rizo shoh g‘azablangan paytda hech kimni ayamay o‘limga buyurishi to‘g‘risidagi gaplarni ko‘p eshitgan edi. Shoshib qolgan, hatto o‘z ismini ham unutib qo‘ygan edi, shu lahzada o‘sha dahshatli hikoyalar tumanli ravishda ko‘z oldida jonlana boshladi. Ko‘ziga dor yog‘ochi, sirtmoq ko‘rinib ketdi.

Rizo shoh tutaqib o‘shqirdi:

— Karmisanlar? Bugun qanday kun deb so‘rayapman senlardan?

Ular har qancha tirishsalar ham, miyalarini har qancha ishlatsalar ham bugun qanday kun ekanini eslay olmadilar!

Rizo shoh ikki qadam ilgari yurdi:

— Eshaksanlar, eshak! Faqat ustilaringda egaringiz yo‘q, xolos! — dedi-da, So‘fi Eronparastga qaradi:

— Shu kalla, shu quloq bilan hukumatning siyosatiga qarshi qanday qilib tashviqot yurgizayapsan, og‘o?

So‘fi Eronparastping boshiga osmon ag‘darilib tushganday bo‘ldi. A’lohazratning oyog‘iga qanday tashlanib, yolvora boshlaganini payqamay qoldi.

— Shafqat qiling. Menga rahmingiz kelsin, a'lohazrat!..

Rizo shoh uni boshdan-oyoq ko'zdan kechirdi. Oyoqlariga suv ilon o'rashgandek jirkandi. Yuzini teskari o'tirib, oyoqlarini So'fi Eronparastning quchog'idan tortib oldida, Hakim ul-mulkka qarab dedi:

— Yo'qot buni! Men oldimga odam kelar deb o'ylagan edim. Haydab yubor!

Hakim ul-mulk hali ham Rizo shohning oyoqlari ostida yotgan So'fi Eronparastning qo'lidan tortib, eshikka sudradi. Uni ostonadan itarib chiqarar ekan, Rizo shohning:

— Sartib Salimiyni chaqir! — degan ovozini eshitdi.

— Bachashm! — deb, So'fi Eronparastning ketidan o'zi ham chiqdi. So'fi Eronparast yiqilib tushmaslik uchun devorlarni ushlab borardi. U sap-sarg'ayib murdaga o'xshab qolgan edi. Hakim ul-mulk uning qo'lidan sudradi:

— O'lgani boshqa joy topolmadingmi, ablah?! Bizning ham boshimizni baloga qo'ymoqchimisan?

So'fi Eronparast mo'ltillab unga qarab, uh tortdi. Hakim ul-mulk uning vahima bilan to'la ko'zlariga e'tibor bermay, o'zi bilan o'zi so'zlashayotgandek davom etdi:

— Voy ahmoq-ey! Yozgan maqolalarini o'qisang, buni bo'ri, yo'lbars, arslon deb o'ylaysan. O'zi esa yuragi chiqib ketganidan nima qilishini bilmaydi. Xuddi quyonning o'zi-ya, quyondan ham qo'rqoq, sichqonga o'xshaydi. Boshimizga nimalar kelishini endi ko'rasan. Yegan ovqatimiz ham zahar bo'ladi endi.

Hali yana rosa so'kish eshitishini oldindan sezgan Hakim ul-mulk So'fi Eronparastga yopishdi:

— Hey, sen qali shu yurak bilan dunyodagi barcha davlatlarga til tekkizib yuribsanmi? Sovetlardan tortib fransuzlargacha hammani og'zingga kelgan gaplar bilan so'kasan-a yana! Ablah! Xo'sh, bu nima qilganing? Shu yurak bilan german davlatining Erondagi taktikasini tanqid qildingmi, benomus! Qay yurak bilan yozding bu maqolani, a?

Javob olmagach, So'fi Eronparastning yoqasidan bo'g'ib silkitdi:

— Javob ber, hay padarla'nat, bir narsa deb javob ber!

Yozgan maqolasidan a'lohazratning g'azablanganini anglab, beshbattar vahimaga tushgan va bu yerdan tezroq qochishni ko'zlagan So'fi Eronparast zo'rg'a javob berdi:

— Hazrati ashraf, bolalaringga qurbon bo'lay. Shu yerdan salomat chiqarib yubor. Bundan keyin birorta davlatning nomini ham tilimga olmayman. Yana biror davlatning siyosati uyoqda tursin, nomini yozgudek bo'lsam padarimga ming la'nat! Endi mutlaqo unday qilmayman.

Yuz bergan bu hodisa uchun qanday jazoga duchor bo'lishini hali ham ko'z oldiga keltirmagan va shuning uchun harqanday odamdan o'ch olishga tayyor bo'lgan Hakim ul-mulk:

— Tufey sadqayi odamgarchilik ket! — deb uning betiga tupurib, saroy eshigidan haydab chiqardi.

* * *

Butun iyul oyi davomida Tehronni jahannam kabi qizdirgan quyosh avgustda yanada qattiqroq qizdira boshladi... Quyosh ertalab sharq ufqida paydo bo'lib, to oqshomda g'arbga botib ketguncha hamma yoqni o'tday yondirib, quritardi. Tehronning tuproq ko'chalaridan o'tgan mashina va faytonlar ko'chalarning changini burqitib ketar edi. Baland, muazzam chinorlarning yaproqlarini qat-qat chang qoplab, yaproqlar yashil ranglarini yo'qotgan edilar. Issiqdan nafas olib bo'lmasdi. Marmar saroyning salqin devorlari orasidan ham issiqning kuchini sezgan Rizo shoh achchiq apelsin shirasidan yasalgan muzdek sharbat ichib, Hakim ul-mulk bilan Salimiyni ichkari kiritishni buyurdi. Ular kelgunicha asabiy holda xona ichida keza boshladi. Keyingi kunlarda a'lohazratning chiroyi sira ochilmasdi, doim qovoq-tumshug'i osilib yurardi. Arzimagan narsalar ham uni tutaqtirib yuborardi. O'n besh yillik hukmronligi davrida yurgizgan ichki va tashqi siyosati endi uni tagi yo'q jar yoqasiga keltirib qo'ygan edi. Bu jar o'zining dahshatli og'zini ochib, uning toj-taxti, sovimaydigan g'azabi, turma va dor yog'ochlari bilan birga yutib, yo'q qilib yuborishga hozir edi. Chekinish mumkin emasdi, olg'a yurishga ham yo'l yo'q edi. A'lohazratni kundan kun ko'proq asabiylashtirayotgan

narsa ham ana shu edi. Bu fikrlar bir minut ham uni o'z holiga qo'ymas edi, kecha-yu kunduz uni ta'qib etar, qo'rqinchli sharpa singari xayolidan ketmas. O'n besh yil davomida tiklab, yiqilmaydi deb o'ylagan binosi titramoqqa, zilzila boshlanmasdanoq chok-chokidan so'kila boshlagan edi. U vaqti kelib, shu binoning xarobalari ostida qolib o'lishini xayoliga ham keltirmagan edi. Buni u hozir ham ko'z oldiga keltirolmasdi, lekin allaqanday bir hissiyot, barcha mustabidlarga xos bo'lgan allaqanday xasta bir tuyg'u shunday oqibatdan darak bermoqda edi. Shuning uchun ham normal inson ongining xususiyagi bo'lgan sabr, matonat va vazminlik uni allaqachon tark etgan edi. Yanada to'g'rirog'i, uning ongi o'lgan edi, his va ehtiros, hamda hayvoniy instinkt hayoti va tafakkuriga hokim bo'lib olgan edi. Shu tufayli uning normal bo'lmagan istaklariga to'g'ri kelmagan har bir harakat, ruhiga yoqib tushmagan har bir narsa, hatto tabiat hodisalari ham uni tutaqib ketishiga, asabiylashib qolishiga sabab bo'laverar edi. Hakim ul-mulk bilan Salimiyni kutib turgan paytda ham u xuddi ana shunday normal bo'lmagan bir vaziyatda edi. Har narsa, hatto quyoshning nurlari ham unga g'ayri tabiiy, murdor ko'rinardi. Ayniqsa Tehronning issig'iga chidayolmay, baland chinorlarga gala-gala qo'nib olib qag'illashayotgan qarg'alar uning jig'iga tegar edi.

U xona ichida kezar, o'ylar, fikrini to'plashga harakat qilar ekan oynadan motam marshini eslatuvchi tovushlar xonani to'ldirardi:

— Qa-qa-qa-ha-ha...

— Qa-qa-qa-qa-qa...

Bu tovushlar miyasiga ninadek sanchilar edi. Podshoh saroy komendantini chaqirtirdi:

— Hayvondan tug'ilgan hayvon! — deb baqirdi u. — Sen ham bir aqlingni ishlatsangchi! Sendan ham bir ish chiqsin axir. Miyalarim achib ketdi. Qa-qa-qa-qa-qa!.. O'chir bu boyqushlarning ovozini!..

Komendant o'zini yo'qotib tashqariga chiqar ekan, eshik oldida Hakim ul-mulk va sartib Salimiyga duch keldi. Rizo shoh uning astar-paxtasini ag'darib so'kar ekan Salimiy bilan Hakim ul-mulk ichkari kirishdi. Kecha Hikmat Isfahoniyning qamal-

ganini eshitgan va hozir bu yerga kirib kelayotganda saroy darvozasi oldida, bir chetda bir nechta jandarm bilan turgan sarhang Safoiyni ko'rgan Salimiy yaxshilik uchun chaqirilmaganini sezgan edi. U endi bu jallodning qo'lidan salomat qutulmasligini bilardi. Lekin u o'limni jasurlik bilan, boshini baland ko'targan holda qarshi olishga qaror qildi. Shuning uchun ichkari kirgach, podshohga egilib ta'zim qilmay, salom berish bilan kifoyalandi. Rizo shoh bir unga, bir go'yo uning mag'rurlik bilan baland ko'tarilgan boshiga shohning diqqatini jo'rttaga jalb qilish uchun qasddan ta'zim qilib turgandek ikki bukilgan Hakim ul-mulkka qarata:

— Boshingizni juda baland ko'tarib yuboribsiz, og'oyi sartib, boshingiz yelkangizga og'irlik qilib qoldimi deyman!..

Salimiy qizardi, lekin bo'shashmadi.

— Odamning boshi yelkasiga og'irlik qilmaydi, go'ng qo'ng'izning qorni og'irlik qilgan ekan, shekilli, ikki bukilib yotibdi! — dedi Salimiy. Shu payt tashqaridan ketma-ket ikkita o'q tovushi eshitildi:

— Qars-qurs...

Rizo shoh quturib, Hakim ul-mulkka qaradi.

— Bu nima? Bu qanday tovush?

Hakim ul-mulk yugurib tashqariga chiqdi. Ikki minut ham o'tmasdan qaytib keldi-da, derazadan qarab turgan Rizo shohga:

— Qarg'alarni quvlashayapti, a'lohazrat,— dedi.

Rizo shoh o'girilib, uning ko'zlariga tikildi:

O'sha o'qlarni senga o'xshagan qarg'alarga saqlab qo'yish kerak!.. Ha, senga o'xshagan qarg'alarga!

Hakim ul-mulk turgan joyida qotib qoldi:

— Ixtiyor sizda, a'lohazrat!

Rizo shoh zaharxanda bilan Salimiyga murojaat qilib, Hakim ul-mulkni ko'rsatdi:

— Bu — millatning tanasiga tushgan yara, olaqarg'a.

Salimiyga qarab yuzidagi tirtig'ini uchirdi-yu, lekin so'zini davom ettirmadi.

— Ekkaningizni o'rasiz-da, a'lohazrat,— dedi Salimiy,— sizga qullar, malaylar, buyrug'ingizni so'zsiz bajaradigan ish hayvonlari va hiylakor tulkilar kerak edi. Marhamat, mana ular.

— Sening jasurligingni yaxshi ko'raman, yigit,— dedi Rizo shoh.— O'tir, sen bilan biroz so'zlashmoqchiman.

U Salimiyga joy ko'rsatdi-da, o'zi ham o'tirdi.

Salimiy ham, Hakim ul-mulk ham hech kutilmaganda podshohning birdan bunday o'zgarib qolganiga hayron bo'lishdi. Salimiy boqishlaridan uni yeb tashlashga hozir bo'lgan Hakim ul-mulkning g'azabdan qorayib ketgan yuziga bir qaradi-yu, tezda ko'zini undan oldi. Ko'zi shohning g'azabdan qip-qizarib ketgan ko'zlariga, battar pir-pir ucha boshlagan betiga tushdi. U o'zini ikki yirtqichning o'rtasida o'tirgandek his qildi. Dadil turib kurashni davom ettirishdan boshqa chorasi yo'q edi.

Rizo shoh ham, Hakim ul-mulk ham undan ko'z uzmas, uning butun harakatini diqqat bilan ko'zdan kechirishar, go'yo uning qalbiga kirmoqchi bo'lishardi.

— Yigit,— dedi Rizo shoh vaziyatini buzmasdan,— tayyorlan; ertaga Julfaga jo'naysan. Julfani mudofaa qilishni senga topshirmoqchiman.

Bu so'zlar asl maqsadni ifoda qilmasligini tushunib, Salimiy indamadi.

Rizo shoh davom etdi:

— Ruslarga qarshi urush bo'lishi muqarrar. So'nggi yillarda vujudga kelgan vaziyat va siyosatning borishi shuni ko'rsatadi!..

— Vaziyat bilan siyosatning borishi davlatlar, ularni idora qilayotgan kishilarning yaxshi niyatlariga va irodalariga bog'liqdir, a'lohazrat.

— To'g'ri, lekin har bir millatning asrlar bo'yi saqlab kelgan e'tiqodi va milliy maqsadlari bo'ladiki, davlat boshida turgan kishilar o'z iroda va niyatlarini o'sha e'tiqod va maqsadlarga bo'ysundiradilar. Ana shuning uchun ham bizning hukumatimiz Rossiya bilan aloqada bo'lishadi, lekin hech vaqt u ketgan yo'ldan keta olmaydi. Sovetlar bilan bizni to'qnashuvga majbur qiladigan narsa ham ana shu.

— Men bu gapingizda biror mantiq va dalil ko'rmadim. Menimcha, Eron millatining asrlar bo'yi bosib o'tgan yo'li va milliy niyatlari uni bugungi Rossiya bilan yaqinlashtiradiki, Eron bilan boshqa hech qaysi davlat bunchalik yaqin emasdir. A'lohazrat,

Eron davlatining boshida turgan kishilar, xalqimizga nima uchundir o'n yettinchi yilgacha bo'lgan Rossiya bilan hozirgi Rossiyani bir deb tushuntiradilar va oyog'i ostidagi zamin chirigan mulkdorlar–pomeshchiklarning hukmronligini saqlab qolishni millatimizning manfaat va istagi deb isbot qilmoqchi bo'ladilar. Bu ahvolda Eron taraqqiy qilolmaydi, qudratli va chinakkam mustaqil davlat bo'lolmaydi. Mamlakatni talayotgan, och–yalang'och qoldirayotgan chet elliklar va chet el kapitali Eronning go'zal va sof tuprog'iga shunday bir zaharli urug'lar sepmoqdalarki, bu urug'larning bergan mevasini totib ko'radigan kelajak nasllar bugun bunga sabab bo'layotganlarni yaxshi so'z bilan tilga olmaydilar.

— Qanday urug'lar ekan u?!

— U biz bilan ikki ming olti yuz kilometrlik masofada chegaradosh bo'lgan buyuk qo'shnimizga qarshi dushmanlik urug'idir.

— Sizni ishontirib aytamanki, sartib, ikki–uch oy ichida o'sha buyuk qo'shnidan asar ham qolmaydi. Biz undan birato'la qutulamiz. O'shanda men seni Darbandga hokim qilib tayinlayman.

— A'lohazrat, biror mamlakatning shoirlari yoki yozuvchilari bunday mavhum xayollar bilan yashasalar, bu o'sha mamlakat uchun katta baxtsizlik bo'ladi. Lekin davlat boshliqlari bunday xomxayollar bilan yashasalarchi— unda baxtsizlik bilan falokatning qanchalik chuqurligini aniqlash juda qiyin.

— Sovetlarning halok bo'layotganini ko'rmayapsanmi? Gitler to'ppa-to'g'ri Moskva darvozalariga qarab bormoqda.

— Avvalo, Gitlerning Moskva darvozasini ochish–ochmasligi shubhali bir masala. Ikkinchidan, agar Sovetlarga qarshi urush boshlangudek bo'lsa, Gitler Moskvaga yetib borguncha bizning sarbozlarni Bahrayn orollaridan axtarmasak deb qo'rqaman!..

A'lohazrat sapchib o'rnidan turib stolga bir urdi. Hakim ulmulk ham o'rnidan turib, shohning qarshisiga kelib ta'zim qildi:

— A'lohazrat, bu vatan xoini qachongacha mahmadanalik qiladi? Buyuring, buning ovozini o'chiraylik!

Rizo shoh labini tishlab, yana joyiga o'tirdi:

— Asabiylashmakning hojati yo'q, og'oyi vazir,— dedi-da, Salimiyga:

— Xo'p, suhbatimizni davom ettiramiz. Demak, siz nemislarning Moskvaga kirishiga shubha qilasizmi?

— Rossiya juda buyuk davlat, a'lohazrat. Napoleon ham bir vaqtlar Moskvagacha yetib kelgan, hatto unga kirgan ham...

— Gitlerning tank va samolyotlari Napoleonda yo'q edi.

— Rossiya ham Aleksandr I davridagi Rossiya emas. Xatoga yo'l qo'ymasangiz deb qo'rqaman.

— Xo'sh nima demoqchisan?

— Aytmoqchimanki, Gitlerning puch va'dalariga aldanib, haqiqatdan uzoqlashib ketish zarar keltiradi. Napoleonning ham ayni maqsad bilan, ya'ni Eronni Rossiyaga qarshi plasdarmga aylantirish maqsadi bilan Fatali shohga yuborgan sovg'alari hali ham Zumrad Saroyda saqlanadi.

— Xo'p, nemislarning va'dasini yolg'on-u, o'zlarini mag'lub bo'ladilar, deb faraz qilaylik. Lekin Sovetlarning ham bu urushdan chinakam g'olib bo'lib chiqishlari shubhali. Inglizlar bilan amerikaliklar g'olib kelganlarida sarbozlarimizni, agar ular sen oldindan aytib qo'yayotgandek Bahrayn orollarida bo'lsalar, bu yerga qaytarish qiyin emas.

— Albatta, Eronni sotib olishga dunyo bozorida cho'ntagi to'la xaridor doim topiladi. Xalqimizning inglizlardan nihoyatda nafrat qilishini a'lohazrat bilsalar kerak deb o'ylayman. Har bir oilada er bilan xotin o'rtasida, yoki ota bilan bola o'rtasida biror nizo chiqsa, bu ishda inglizlarning qo'li bor deyish odat bo'lib qolgan...

Rizo shoh Hakim ul-mulkka qaradi:

— Sen nima deysan, vazir, sening fikring qalay?

— Men a'lohazratning sabr-toqatiga taajjub qilyapman. Bu vatanfurush va rus josusining joyi bu yer emas, Qasri Qojordir.

— Bunga nima deysiz, og'oyi sartib?.. Boring, boring endi, men siz bilan kelisholmadim. Ehtimol, og'oyi vazir gaplashar.

Sartib Salimiy o'rnidan turdi:

— Men ketaman, a'lohazrat,— dedi u, — buning oxirgi uchrashuv ekanini ham bilaman. Lekin bir ozarbayjonlik dehqondan eshitgan bitta masalni aytib ketmoqchiman.

— Ruxsat etmang, a'lohazrat,— deb yolvordi Hakim ul-mulk.

Lekin Rizo shoh amirona qo'l ko'tardi:

— Shoshma, vazir!

Sartib Salimiy kichkinagina bir tulkiga o'xshash Hakim ul-mulkni boshdan-oyoq ko'zdan kechirdi-da, hikoyasini boshladi:

— Bir dehqon kasal bo'lib qolibdi. Hech bir tabib tuzatolmabdi, hech qanday dori-darmon ham kor qilmabdi. Dehqon o'lishga ko'zi yetib, yor-do'st, qarindosh-urug' va bola-chaqalari bilan rozi-rizolik tilasha boshlabdi. Hamma bilan xayrlashib bo'lgach, qari bir tuyasi borligi esiga tushib qolibdi. U menga qancha yillardan beri xizmat qilib keldi, u bilan ham xayr-xo'sh qilay debdi. Tuyani yetaklab kelishga buyuripti, olib kelishgach, u tuyaga: "Sen menga necha yillardan beri xizmat qilib kelding. Qishni qish demading, yozni yoz demading, issiq demay, sovuq demay yukimni tashiding. Ba'zan och ham qolding, ba'zan senga suvni ham vaqtida yetkazib berolmadim. Hatto charchaganimda o'zim ham mindim. Jahlim chiqib seni urgan vaqtlarim bo'ldi. Endi kunim bitib o'lim kelib eshigimni taqillatyapti, aytchi, endi nima deysan? Mendan ko'rgan azoblaring uchun meni kechirasanmi?" depti. Tuya dehqonga: "Hamma qilganlaringni kechirdim, meni och qoldirganingni ham, suvsiz qo'yganingni ham, ustimga og'ir yuk ortib, yana o'zing minganingni ham, jahling chiqib urganingni ham, hammasini kechirdim. Lekin bir narsani sira kechirmayman", depti. Dehqon taajjub qilib: "Nima ekan u, tuyajon?" deb so'rapti. "Esingdami,— depti tuya,— falon yili yo'limiz tog'ga ko'tarila boshlaganda mening jilovimni eshakning dumiga bog'lab qo'yding. Bu qilgan ishingni qiyomatgacha ham kechirolmayman!" A'lohazrat, siz millatning so'ziga quloq solmadingiz, uning nomusli va aqlli farzandlarining og'ziga urdingiz, buning ustiga millat jilovini mana bunga o'xshash eshaklarning dumiga bog'lab qo'ydingiz,— deb Hakim ul-mulkni ko'rsatdi.— Mamlakatning siyosatini mana shunga o'xshagan eshaklarning qo'liga topshirib qo'ydingiz. Bu ishingizni na qozirgi avlod, na kelajakdagi avlodlar kechiradi!..

Rizo shoh sakrab turib:

— Olib bor buni, Hakim ul-mulk! Buning ovozini boshqa eshitmay!— deb bo'kirdi.

YIGIRMA YETTINCHI BOB

Faridun turmaning og'ir va sassiq havosiga hech o'rgana olmadi. Nafasi bo'g'ilar, yuragi gupullab urar, boshi aylanardi. Ba'zan, nazarida, havo kamligidan yuragi yorilib ketadigandek tuyular edi. Bunday paytlarda kamerada u yoq-bu yoqqa yurib, ochko'zlik bilan nafas olar edi. Oyog'ining uchida turib, kameraning g'arb tomonga qaragan kichkinagina teshikchaning temir panjaralariga og'zini yaqinlashtirib, tashqaridan kirayotgan havodan yutar, so'ng biroz yengillashib, pastga tushardi-da, yana kamerada keza boshlardi. Ko'pincha u bo'yi ikki qarich, eni bir qarich keladigan bu teshikchadan tashqariga uzoq tikilardi. Ayniqsa quyosh botayotgan va uning so'nggi nurlari kameraning nam devorlariga tushgan paytda u buyuk bir dard bilan yuragi gup-gup urgan holda tashqariga qarab qolardi. Lekin quyosh nurlari tez so'nib, kamerani yana qorong'ulik bosardi. Shunday paytlarda uning g'ami ortar, yuragi benihoyat qattiq siqilardi. Vaqtni qanday o'tkazishni bilmay qolardi. Nima qilishini bilmay, kameraning eshigiga yopishib diqqat bilan quloq solaboshlardi. Qulog'i hech qanday tovush, hech qanday harakat alomati borligini eshitmay hafsalasi pir bo'lardi. U toqatsizlanar, har qanday ish bo'lsa ham tez bo'lishini istardi. Nima bo'lsa ham tez bo'lsin!.. O'lim kelsa ham tez kelsin! — deb o'ylardi. Intizorlik va azob ichida o'tirib kutishdan yomoni yo'q edi.

Shunga qaramay, u kutar edi. Dastlabki tergovdan so'ng Qasri Qojorga ko'chirilganiga bir hafta bo'ldi. Bu bir hafta ichida undan bir og'iz ham gap so'ramadilar, bir og'iz gap aytmadilar ham. Go'yo uni tasodifan qamab qo'ygan va shu bilan uni unutgan edilar. U esa sabr qilar, kutardi, bir necha marta diqqati oshib, eshikni taqillatib, shovqin-suron ko'targisi va:

— Kelinglar, meni olib boringlar!.. Nima qilsangizlar qilinglar! — deb baqirgisi kelardi. Lekin o'zini tiydi. Turmada "Ona"

romanini bobma-bob eslay boshladi, u asarni go'yo boshqatdan o'qir, qarbir voqeani xotirida jonlantirardi. Ayniqsa Pavel Vlasovlarning qamalishini, ular o'zlarini qamoqda qanday tutganliklari ko'z oldida jonlanib ketdi. Shunday paytlarda u o'zini beixtiyor ularga solishtirib ko'rar va sabrsizlik qilgani, diqqati oshgani uchun o'zidan koyir edi. "Men jinoyatchi emasman, o'zimni mutlaqo aybsiz deb bilaman. Bas, shunday ekan, nimadan xavotirlanaman, bizni azoblagan jinoyatchilar qo'rqsinlar, xavotir bo'lsinlar!" Pavel Vlasov sudda o'zini sudyalardan baland tutgani, ularga g'urur va istehzo bilan qarashini esladi, bular Faridunga o'zini qanday tutishi lozimligini ko'rsatganday bo'ldi. "Asl kurashchilar qiyin kunlarda mahkam turishlari kerak! — deb o'yladi u.— Asl inson og'ir kunlarda sabr qila biladigan bo'lishi kerak", derdi u.

Qasri Qojorga keltirilgani bir qafta ichida u boshqa bir kitobni, o'z hayot kitobini ham o'qib chiqdi. Xotiridan o'tkazmagan hech narsa qolmadi.

Qishloq. Bolaligi. Ochlik. Opasining bir kosa ovqat qilish uchun supradan so'nggi unni sidirib olgani. Onasining o'limi. Tehron. Otasining o'limi. Bularning hammasi bir-bir kelib ko'zi oldidan o'tdi. Lekin bu xotiralar ichida yuragiga nishtar bo'lib qadalganlarning eng og'iri Gulnoz bilan Musa aka to'g'risidagi xotiralar edi. U Gulnozni yana bir ko'rarmikin? Musa aka qayerda qoldi ekan? U qayerlarda o'lib ketdiykin? O'ligini ko'madigan odam topildimikin? Yoki unga biror go'r ham nasib bo'lmaganmikin? Bolalaridan birontasi omon qolganmikin?

Bu savollarning hammasi qalbidagi kurash hissini va yashashga muhabbatini yana ham orttirib yuborardi.

Turli tuyg'ular olovlandi, qalbining chuqur bir yerida qonmas bir tuyg'u uyg'onib o't kabi kuydira boshladi.

Sevmoq! Sevmoq! Sevmoq!

Bundan ikki yil avval sal yuraksizlik qilgani uchun o'zini koyiy boshladi. O'shandagi xatosi endi uning qo'lidan Gulnozni abadiy yulib olgan edi.

U endi xotin kishining erkalatish va muhabbat olovi bilan yonmagan qalb baxtdan mahrum ekan deb o'ylay boshladi. Bu xotiralar ichida Sudobaning muhabbat bilan yongan ko'zlari jonlandi.

Qizning boqishlaridagi intizorlik va baxt bilan yongan o'tlarning ma'nosiga Faridun faqat endi, turmaning qopqorong'i devorlari orasida tushungandek bo'ldi. Shunda Gulnozning uzoqlardagi bir xayol kabi ko'z oldiga kelgan obrazi yuragida uyg'ongan bu yangi yoqimli tuyg'uni so'ndirolmadi. Bu nima o'zi? Yo o'zi ham sezmagan holda Sudobani sevib qoldimi? Bu muhabbat sezdirmay uning qalbiga kirib olib, o'zini ko'rsatish uchun payt poylab turgan ekan-da? Ehtimol, bu muhabbat qalbida ochilmay so'lgan ilk orzularning mozori ustida bitgan bir hasrat chechagi, bir tasalli gulidir?..

Sudoba to'g'risidagi xotiralar, ozodlikda o'tkazgan umrining so'nggi kechasini eslatdi. Sudobaning yotib qolgan xasta onasi, ehtimol, o'lim oldidan aytgan oxirgi so'zlari qulog'iga eshitilib ketdi. Eronni, Ozarbayjonni, ularning tarix sahifalarida murakkab va turlicha noaniq shakllarda bir-biriga chatishib ketgan hayot va taraqqiyot yo'llarini xayolidan kechirdi. Qari, savodsiz bir xotin jon berarkan yuzini Shimolga, Ozarbayjonga tutib:

— Vatan! — deb pichirlagan edi.

Bu xotinning fojiali hayoti Faridunga butun Ozarbayjonning boshiga tushgan musibatlarning ramzidek tuyuldi. U qishloqda mullalik, shaharda muharrirlik qilgan So'fi Eronparastning: "Ozarbayjon jo'z'e loyan— haqqi Eronast"[1] degan so'zlarining ma'nosiga endi tushuna boshladi. Bu so'zlar unga yolg'onchilik va soxtakorlikning yuziga tortilgan bezakli parda kabi irganch ko'rindi. U bu pardaning ostida yotgan haqiqat dunyosiga nazar solardi.

Ijtimoiy kurashning, istibdodga qarshi kurashning boshqa bir tomoni ham bor edi. Bu milliy-ozodlik harakati edi! Ozarbayjonning ozodligi! Bu fikrlar unga Sattorxon va Shayx-Muhammad Xiyoboniy harakatini xotirlatdi. Shu paytgacha ularning tarixiy hayoti va kurashlarini, maqsad va amaliy ishlarini bu nuqtayi nazardan tekshirib ko'rmagan edi. Jamiyatga ilm o'rnida taqdim etiladigan bu tarixni soxtalashtirishlar va yolg'on sharhlar bunga yo'l qo'ymagan edi. Ular esa kurashdan qo'llari bo'shab vatanning ilmiy tarixini, o'z tarixlarini yarata olmadilar. Dushman-

[1] Ozarbayjon Eronning bir qismidir.

lar o'ylab chiqargan yolg'on va soxta gaplar esa faqat hozirgi zamon hayoti va tafakkurininggina emas, o'tmishning ham, uzoq o'tmishdagi hodisalarning ham asl ma'nosini buzib ko'rsatar edi. Har narsaga soxta rang berilar edi. Tushuncha va tasavvurlarga, hayot va harakatlarga hokim bo'lib olgan bu soxta rang har ishni ostin-ustin va oyog'ini osmonga qilib tushuntirardi. Yuzlarcha kishilar maktabga qatnab aqli biror narsaga yeta boshlagan kundan boshlab shohparastlar va fors millatchi shovinistlari to'qigan yolg'on gaplardan boshqa hech narsa eshitmas edi. Darsliklar ham shunday yolg'on-yashiqlar bilan to'la edi. Go'yo kishilarning zavqi ham, odatlari ham shu soxtaliklarga tobedek edi. Eng achinarli jihati esa bu yanglish, bu falokatli va soxta gaplarni ko'p kishilarning tabiiydek qabul qilishlari va unga ishonishlari edi. Mamlakatning poytaxtida Rizo shoh qazigan ariq badanga mikroblar tashigan qon tomiri singari Isfahon, Tabriz, Xuroson, Zanjon, Hamadon, Ahvoz va Ardabil taraflarga, butun mamlakatga yiring tashib, mamlakat badanini chiritar edi. Bu soxta gaplarning ustini nari-beri bo'yalgan parda bilan niqoblab Hikmat Isfahoniy kabilar yuz minglab Musa akalarni xonavayron qilar, ularni uy-joyidan haydab, qishloq xalqini har narsani ham yutib yuboradigan tagsiz botqoqqa uloqtirar edilar. Husayn Mahbusiy kabi xoin va olchoqlar esa xalq orasida ekinzordagi yovvoyi o't kabi o'sib chiqar, atrofga ildiz otib sof tuproq va sof havoni zaharlar edi.

Zolim va kekkaygan jinoyatchi esa o'zi kabi bir hovuch pomeshchik va savdogarlarga tayanib, xalqning qonini so'rib yotardi. Lekin bularning hammasiga, butun musibatlarga, millatning badaniga tushgan bu dahshatli va iflos yaralarga tabiiy holdek qaragan kishilar ham bor edi...

Qasri Qojorga qamalganining sakkizinchi kuni Faridun shunday hayollarga berilib o'ltirar ekan, kame— raning eshigi ochildi. Uni tergovga olib chiqdilar. U tergov xonasiga kirganda sarhang Safoiy eshikka orqa o'girib telefonda gaplashmoqda edi.

— Bo'yniga qo'yish kerak, albatta, bo'yniga qo'yish kerak! — dedi sarhang o'ziga xos sovuqqonlik bilan va trubkani osib, orqasiga o'girildi.

U lablarida istehzo, qiziqish va sevinch aralash bir tabassum bilan kresloga o'tirdi-da, Faridunga joy ko'rsatdi. Keyin politsiyachini va Faridunga notanish bo'lgan grajdan kiyimidagi kishini qo'l ishorasi bilan chiqib ketishga buyurdi.

Ular chiqib ketgach, qo'llarini chalishtirib stolga tashlandi-da, qo'llariga engagini tirab Faridunga tikildi. Faridun o'zini qurboniga duch kelib, sapchishga tayyorlanayotgan yirtqich qarshisida turgandek his qildi. Sarhang besh minutcha indamay baqrayib Faridunga tikilib o'tirdi. Faridun ham undan ko'zini olsa, sal cho'chigundek bo'lsa yirtqichning sapchishini payqab uning g'azabli boqishlariga tik qarar, ko'zidan ko'z uzmas edi.

Sarhang birdan qah-qah urib kulib yubordi:

— Xush kelibsiz, og'oyi Faridun!

Faridun indamadi. U avvalgidek bemalol o'tirib, sarhangga boqardi. Hatto uning harakatlarini, yuz-ko'zidagi ifodalarini diqqat bilan kuzatib o'tirardi. Insonning ichki olami bilan tashqi harakatlari orasidagi bunday ziddiyat unga juda g'alati tuyular edi.

— Sizni bunday tez qo'limga tusharsiz deb o'ylamagan edim! — dedi sarhang achchiq istehzo bilan.

Bu odamning nihoyatda riyokor va zahar odam ekani to'grisida ko'p eshitgan Faridun o'zini yo'qotmaslikka tirishdi:

— Allaqaysi bir faylasuf inson hech narsaga ham hayron bo'lmasligi kerak degan ekan,— deb javob berdi Faridun.

— Biz hayron qolishni ko'pdan beri esdan chiqarib yuborganmiz.

— Men nima uchun Qasri Qojorga keltirilganimni bilmoq istayman!

— Albatta, bilasiz. Bunga haqqingiz bor. Demak sizning hech narsadan xabaringiz yo'q ekanda-a?

— "Hech narsa" deyish bilan nima demoqchi ekanligingizni tushunolmadim.

— Biz "hech narsa" deb har narsani aytamiz. Davlatga qarshi fitna, a'lohazratga suiqasd tayyorlash, Karimxon Ozodiy va Simon Simonyan bilan aloqa, Aram Simonyanning yashiringan joyi. Yana davom ettirishim mumkin... Ko'rganingizdek, "hech narsa"ni bunday ochib yuborsak ichidan har xil narsalar chiqib kelaveradi.

— Sarhang, siz to‘g‘ringizda ko‘p gaplarni eshitgan edim-u, lekin hazilkashligingiz to‘g‘risida hech narsa eshitmagan ekanman.

Sarhang jiddiylashdi:

— Yaxshilab o‘ylang, og‘oyi Faridun, qilgan ishlaringizni eslashingiz uchun yetti kun yetar deb o‘ylagan edim. Yana bir kun muhlat beraman. Boring. Yaxshilab o‘ylang. Shuni ham yaxshi bilingki, bizning miyani suyakdan, fikrni miyadan ajratib ola oladigan vositalarimiz bor. Boring, o‘ylang, o‘zingizga rahmingiz kelsin!..

— Iltifotingiz uchun tashakkur! Lekin aytib qo‘yay, men hamma narsani o‘ylab bo‘ldim. Yana o‘ylab ko‘rishga hech hojati qolgani yo‘q.

— Yo‘q, hali o‘ylab ko‘radigan ko‘p narsalar bor!... Boring, rosa yigirma to‘rt soatdan keyin yana uchrashamiz. O‘zingizni oqilona tutarsiz deb o‘ylayman. Eslatib qo‘yayin, a’lohazrat va uning biz kabi sodiq qullariga haqiqat har narsadan ham yuksak va qimmatli.

U stoli ustidagi tugmachani bosdi-da, istehzo bilan kulib turgan Faridunni olib ketishga buyurdi.

Uni olib ketishgach, sarhang Safoiyning boshiga yana eski shubhalar kela boshladi. Faridun, Shamsiya, Hikmat Isfahoniy!..

Sarhang chigallashib ketgan kalavaning uchini topdim deb o‘ylardi. Uning fikricha, endi sabr va mahorat bilan ish ko‘rib bu chigalni yechish, bir-biriga ulanib ketgan iplarni ajratib olish va ulardan mahkam arqon yasab, shuhrat va mansab narvonidan yana bir pog‘ona yuqori ko‘tarilishi kerak edi.

* * *

Hikmat Isfahoniy nima uchun qamalganini sira tushunolmasdi. Avval u buning sababi a’lohazratning noroziligi va g‘azabi bo‘lsa kerak deb o‘yladi. U Mozandarondagi bog‘ni berishda ikkilanganim uchun shoh mendan o‘ch olmoqchi shekilli, deb o‘yladi. Bu ish saroy kalamushi Hakim ul-mulkning ishtirokisiz bo‘lgan emas, albatta!

Lekin o‘ylab-o‘ylab bu fikriga o‘zi qarshi chiqardi: bu sabablar ilgari ham bor edi-ku, nega bo‘lmasa bundan bir yil, yoki yarim yil burun bunday qilmadi? Yo‘q, buning boshqa yanada

chuqurroq sababi bo'lsa kerak! Mamlakatning vaziyati nihoyatda mavhum, davlat va toj-taxt po'rtanali daryoda qolgan siniq qayiqqa o'xshar edi. Bu qayiq kichik bir toshga urilsa ham parchalanib ketar va Rizo shohning butun toj-taxtini o'zi bilan birga g'arq qilgan bo'lardi. Hatto siyosiy doiralar, chet el elchixonalari va aristokratlarning mehmonxonalarida ham shu to'g'rida mahfiy gap-so'zlar yura boshlagan edi. Pahlaviy va u yaratgan usul-idoraga qarshi bo'lgan turli tabaqalar yashirin ravishda Eronning kelajak konstitutsiyasi to'g'risida, monarxiya tarafdorlari esa yangi shoh vakili haqida o'ylay boshlagan edilar. Mister Tomas bilan mister Garoldning Hikmat Isfahoniy toj kiyish uchun yaralgan odamlardan degan gaplari har qancha hazil bo'lishiga qaramay, buning zamirida ozgina bo'lsa ham bir maqsad bor edi, bular tasodifiy gaplar emas edi.

Shunday ekan Rizo shoh o'zi shubhalangan odamlarni yo'ldan olayotgan bo'lishi ham ehtimoldan uzoq emas edi.

Bularni o'ylab Hikmat Isfahoniyni vahima bosardi. U Temir Tosh va Sardor Asadning turmada xoinona qatl etilganini eslar va zo'r berib bu yerdan qanday qilib qutulsam ekan deb bosh qotirardi. Hech qanday yo'l topolmagach vahimasi yana ham oshib ketar edi. "Bu ablah Pahlaviy butun mol-mulkimni o'ziniki qilib olish bilan cheklanmay, o'zimni ham yo'q qilib yuboradi" deb o'ylar edi u g'azab va alam o'tida yonib.

Yo'q, bir yo'l topish kerak! Nahotki qurbonlikka so'yiladigan qo'y singari boshini Pahlaviyning pichog'iga tutib beradi?! Eh, bir amallab shahar bilan sal aloqa bog'lay olsaydi, fon Valterga, mister Tomasga yo mister Garoldga kichkina bir qog'oz yuborolsaydi! U hammadan ko'ra ularni xabardor qilguncha vaqt o'tishidan qo'rqar edi. Hozir u shahardagi do'stlariga xabar yetkazgan odamga o'zining yarim davlatini berishga ham hozir edi.

Shu fikrlarga cho'mib o'tirar ekan eshikni ochib, chiq deb buyurdilar. U tergovga borar ekan, tergovchi yuzlarcha jallodlardan biri bo'lsa kerak deb o'ylab, qo'rqqanidan titray boshlagan edi. Lekin ichkari kirib sarhang Safoiyni ko'rib xursand bo'lib ketganidan ko'zlariga yosh keldi, shu bilan ayni vaqtda o'zining ilgarigi kerikligi va manmanligi tutib qoldi. O'zini

zohiran bo'lsa ham ilgarigidek viqorli tutishga tirishdi. Lekin bo'g'iziga solingan sirtmoqning uchi sarhang Safoiyning qo'lida edi. Shuni o'ylab u bu fikridan qaytdi, sarhangga xushomadgo'ylik qilmoqchi bo'ldi.

U sarhang Safoiyning quchog'iga tashlanib, uning qo'lini ikki qo'llab qattiq siqdi-da:

— Endi men hech narsadan qo'rqmayman! — dedi. — Xudoga shukurki, mening taqdirimni sening qo'lingga topshiribdi. Buni oddiy so'z bilan aytib bo'lmaydi, buni she'r bilan aytish kerak:

Gar tabibina biyoyi basare bolinam,
Ba du olam nadiham lazzati bemoriro.[1]

Bir vaqtlarda o'zini juda baland tutadigan bu boy odamning hozir unga xushomadgo'ylik qilishidan nihoyatda lazzatlanib ketgan sarhang Safoiy unga yarim rasmiy va quruqqina muomala qildi. Buni sezgan Hikmat Isfahoniy esa yana ko'proq xushomadgo'ylik qila boshladi.

— Xudo haqqi, ajoyib yigitsan! Sening qo'lingda jon berish ham odamga yoqadi.

Biroz jim turgach:

— Bu ablah Pahlaviy boshimizga ne kunlarni solmadi, — deb shikoyat qildi.

— Og'oyi Hikmat Isfahoniy, — dedi sarhang,— o'zingizning qayerda ekaningizni unutmasligingizni so'rar edim.

Hikmat Isfahoniyning esxonasi o'ynab ketganini ko'rib, muloyimroq gapira boshladi:

— Axir, bizning ahvolimizni ham nazarga oling! Vazifa hamda mavqeyimizning talablari bor, bularni bir daqiqa ham esimizdan chiqarishga haqqimiz yo'q. Shunday bo'lsa ham men bu yerda doim sizning ahvolingiz to'g'risida bosh qotiraman. Ish yanada mushkullashib ketmasa yaxshi edi deb qo'rqaman.

— Rahmat, og'oyi sarhang, sendan juda mamnunman. Lekin meni nima uchun bu yerga olib kelishdi? Shuning sababini menga tushuntirchi!

[1] Sen tabib bo'lib meni davolagani keladigan bo'lsang, kasallikning lazzatini ikki olamga ham alishmayman.

Sarhang bunday savolni kutmagani uchun darhol javob bermadi. O'ylanib qoldi-da, dudmal qilib javob berdi:

— O'zim ham yaxshi bilmayman. Bu a'lohazratning shaxsiy farmoni. Ehtimol, og'oyi Hakim ul-mulk masaladan xabardor bo'lsa kerak. Keyin yana Faridun...

Gapini davom ettirmadi. Bu uning rejasini buzib qo'yishi mumkin edi. Hikmat Isfahoniy boshqa hech narsa so'ramadi. Unga shu aytilgan gaplarning o'zi ham kifoya edi. U darhol masalada sarhang Safoiyning ham qo'li borligini payqadi. Lekin buni sarhangga bildirmaslikka ahd qildi.

— Menga qara, — deb gap boshladi u, iloji boricha o'z shubhasini sarhangdan yashirishga tirishib, — a'lohazratda aslo ayb yo'q, hamma ishni qo'zg'ab yurgan o'sha saroy kalamushi Hakim ul-mulk. Barcha ayb o'sha itvachchada!..

— Og'oyi sarhang, siz menga yordam bering, men u ablahning sirlarini fosh qilaman.

— Hozircha siz o'zingizni qutqarish to'g'risida o'ylasangiz bo'lardi. Bu yerdan chiqqaningizdan keyin o'ch olish to'g'risida o'ylayverasiz.

— Bu ham yaxshi maslahat. Mendan ancha yosh bo'lsang ham to'g'ri gapirding. Qani aytchi, menga yordam berasanmi, yo'qmi?

— Bu nima deganingiz, og'oyi Hikmat Isfahoniy, bu nima deganingiz?

— Meni bu yerdan qutqar, — dedi unga Hikmat Isfahoniy, — nima desang tayyorman. Kimga nima kerak bo'lsa, marhamat, ellik ming tuman, yuz ming tuman.

Sarhang qoshini chimirdi:

— Bu g'oyatda mushkul ish, og'oyi Hikmat Isfahoniy, juda mushkul ish. Ammo men bir urinib ko'raman, zora siz uchun bir ilojini qilish mumkin bo'lsa!

Uning biroz yumshaganini ko'rgan Hikmat Isfahoniy unga engashdi:

— Buning bosh qotirib o'tiradigan joyi yo'q. Mendan mister Tomasga kichkina bir qog'oz eltib bersang bo'ldi. Vassalom.

Sarhang yana ham jiddiylashdi:

— Buni a'lohazrat bilib qolsa mening boshimni oldiradi, og'oyi Hikmat Isfahoniy! Juda mushkul ish bu!

— Xo'sh, bo'lmasa men begunohdan-begunoh o'lib ketaveraymi?..

Sarhang uni yana ham ko'proq yalintirib, umrining oxirigacha o'zidan minnatdor qilib qo'ymoqchi bo'ldi.

— Hozircha hech narsa qilolmayman. Hozir qo'limdan keladigani: bu yerda, turmada sizni bitdan va turli hasharotlardan saqlashim mumkin. Nima kerak bo'lsa ayting, xavfli bo'lsa ham siz uchun bajarishga hozirman.

Sarhang shu bilan gap tamom ekanini bildirish uchun o'rnidan turdi.

Hikmat Isfahoniy ham turdi:

— Mumkin bo'lsa, bitta chilim toptirib bersang, juda xumor qilayapti, — dedi u.

— Xo'p, bo'ladi, sizga juda yaxshi chilim topib berishadi.

Hikmat Isfahoniy uning oldidan ezilgan va umidsizlangan holda chiqib ketdi. Qo'liga qurol ushlagan politsiyachining oldiga tushib, allakimni so'ka-so'ka kameraga tomon ketdi, lekin kimni so'kayotganini o'zi ham bilmas edi.

* * *

Faridunni ikkinchi marta Sarhang Safoiyning oldiga tergovga olib ketishayotganda, koridorda uzoqdan bir kishini ko'rib tanigandek bo'ldi. Diqqat bilan qarab uning Hikmat Isfahoniy ekanini bilgach, juda hayron qoldi. Hikmat Isfahoniy bilan turmada uchrashish aqlga sig'maydigan bir narsa bo'lsa ham, hozir bu haqiqat edi. Hikmat Isfahoniy unga tikilardi. U Faridunni qayerda ko'rganini eslashga tirishar, bu — uning basharasidan ko'rinib turardi. Lekin sira xotirlay olmasdi. Faridun undan yuz o'girib, o'tib ketmoqchi bo'ldi. Hikmat Isfahoniy to'xtab, unga diqqat bilan qaradi. So'ng birdan allanarsa esiga tushib qoldi:

— Bu senmisan, e haromi?! Bolshevin! — deb qichqirdi.

Faridun javob bermay o'tib ketdi. Hikmat Isfahoniy shartta burilib Faridunning ketidan sarhangning xonasiga kirdi.

— Og'oyi sarhang, buni mahkam ushlang, bu yomon odam, bu bolshevik! Bir vaqtlar buni mening o'zim tuttirib bu yerga yuborgan edim, — dedi u hayajon bilan.

Faridun so'nggi hodisalardan Hikmat Isfahoniyning xabari yo'q ekanini tushunib biroz yengillashdi. Sarhang esa Hikmat Isfahoniy shunday osonlik bilan qutulib ketmoqchi bo'layapti deb o'ylab, istehzo bilan kuldi. Hikmat Isfahoniy yanada jiddiyroq turib:

— Kulmang, kulmang. Rost aytayapman, — dedi.

— Buning kimligini bilasizmi? — deb so'radi undan sarhang Faridunni ko'rsatib. — Jazosini yengillatishni iltimos qilganingiz Faridun mana shuda!

Hikmat Isfahoniy hayrat ichida nima qilishni bilmay qotib qoldi:

— Hay yigit, sen o'sha qishloqdagi yigit emasmisan? — dedi.

Faridun o'zini hech narsa tushunmaganga soldi:

— Og'oning nima demoqchi ekanlarini tushunmadim, — dedi u.

— Yana biroz bu yerda qolsam jinni bo'laman! — dedi Hikmat Isfahoniy, — Ismimni ham esimdan chiqarib qo'yaman. Qoradan oqni ajrataolmay qolaman, — dedi-da, xonadan chiqdi.

Sarhang Faridunga o'girildi:

Suvdan quruq chiqishga yaxshi o'rganib olibsiz! — dedi jiddiy qilib.

Faridun javob bermadi. Xayoli o'zida emas edi... Sarhang u bilan allaqanday bir komediya o'ynamoqchi bo'layotganini sezib, uning rejalarini buzib yuborishga tayyorlanar edi.

Sukutni sarhang buzdi:

— Gapiring! Eshitamiz, nima der ekansiz?

— Siz meni chaqirtirdingiz. Mening esa sizga aytadigan gapim yo'q.

— O'jarlikni tashlang! Mening so'zimga kiring, do'st bo'lamiz. Sizga hayot, ozodlik va mansab va'da qilaman.

— Tashakkur. Bular evaziga men sizga hech narsa berolmayman.

— Qilgan gunohlaringizni e'tirof eting va biz bilan ishlashga va'da bering!

Faridun undan ikkinchi Husayn Mahbusiy tayyorlamoqchi bo'layotganlarini anglab, ularning bu iflos maqsadi ustidan kuldi.

— Sizni ishontirib aytamanki, men to'g'rimda yanglish fikrdasiz, sarhang!

— Istasang tug'ilgan kuningdan boshlab, to shu kunga qadar o'tgan umringni hikoya qilib beraman. Bizdan hech narsani yashirma, yigit! Buning mutlaqo foydasi yo'q, o'zingga jabr qilasan.

Faridun indamadi. Sarhang davom etdi:

— Seni dor ostiga yuborish uchun universitetdagi harakatlaringning o'zi kifoya qiladi!

— Qanday harakatlarim?

— Qanday harakatlarim? Qurbon Marandiyni taniysanmi? Yo bundan ham tonasanmi?

Faridun biroz o'ylanib qoldi. Qurbon Marandiyning qayerda ekanini tushundi. "Ehtimol, uni yolg'on guvohlik berishga majbur qilishgandir", deb o'yladi.

— Ha, o'ylanib qolding? — deb so'radi sarhang. — Bizdan biror narsani yashirishning befoyda ekanini endi tushungandirsan? Biz hamma narsani bilamiz.

— Mening qamalishimga Qurbon Marandiyning nima daxli borligiga tushunolmayapman.

— Shunday daxli bor: sen Tehronga kelgandan so'ng u bilan tanishib olgansan. Faqat tanishib olgan emas, u bilan hamfikr va maslakdosh bo'lgansan. Shuning uchun ham uning vatanga qarshi, millatga qarshi, podshohga qarshi harakatlarini qoralamagansan. Qoralash uyoqda tursin, bu harakatga tarafdor ham bo'lgansan!

— Dalil, dalil, men dalil ko'rsatishni talab qilaman!

— Dalilmi? Soib Tabriziy masalasi esingdami? Nima uchun sen o'shanda og'zingga suv olgandek jim turding? Nima uchun u xoinning tishlarini urib sindirmading?

— Men buni insofsizlik deb hisoblayman, og'oyi sarhang, o'zingiz bir o'ylab ko'ring, Soib Tabriziyning she'rlarini o'qigani uchun bir bechorani universitetdan haydab yuborish insofdanmi, axir?

— Gap Soibda emas, yigit. Biz hamma hodisalarni ayni o'zidek qabul qilaveradigan soddadil odamlar emasmiz. Biz odamlarning xatti-harakatiga qarab, ularning dunyo qarashi qandayligini bilib olamiz. Chunki odamlarning qilgan ishlari, ularning fikrlari va orzularining ifodasi bo'ladi. Inson — qalbining orzu va istagiga qarab ish qiladi. Masalan, har qanday kishi ham suv

ichishdan oldin chanqagan bo'ladi, chanqamasa suv ichmaydi. Bozorga borishdan oldin bozorga borish to'g'risida o'ylaydi. Ana shu tarzda insonning harakatiga qarab, qalb sirlarini bilib olish qiyin ish emas.

— Juda yaxshi, juda soz. Lekin buning Soibga nima aloqasi bor?

— Sen Soib orqali o'zingning xavfli va yomon fikrlaringni bizdan yashirmoqchi bo'lasan, lekin bekor ovora bo'lasan.

— U qanday xavfli va yomon fikrlar ekan?

— Sening do'sting ozarbayjon tilida she'r o'qib, keyin shu tilni himoya qila boshladi. Shundaymi?

— Men bunda hech qanday jinoyat yo'q deb hisoblayman.

— Tildan so'zlay boshlagan odam, keyinchalik xalqdan, millatdan so'zlay boshlaydi. Ozarbayjon tilini bir til kabi qabul qilgan odam, ertaga Ozarbayjon degan joyning, ozarbayjonlik deb atalgan xalqning ham borligini e'tirof etadi! Mantiq shundaydir!

— Bunga ham e'tirozim yo'q. Lekin jinoyat qani, jinoyat?

— Ozarbayjonliklarni bir xalq deb e'tirof etgan har bir kishi Eronning milliy birligini inkor etgan bo'ladi. Lekin asosiy xavf bu ham emas. Eronda Ozarbayjon to'g'risidagi fikrni maydonga otgan har bir kishi ko'zini Shimolga, Rossiyaga tikadi. Chunki u tomonda ham ozarbayjon bor. U yerda Boku, Ganja, Shamaxi degan joylar bor. Bularning hammasidan qanday xulosa chiqishini endi tushungandirsan?

— Yo'q, tushunolmay turibman!

— Tushunayapsan, lekin o'zingni tushunmaganga solayapsan. Unda men yuragingdagi gapni o'zingga ochiq aytib qo'ya qolay. Ozarbayjonni Erondan ajratib olish va uni shimoldagi Ozarbayjonga qo'shish? Jinoyat ham ana shu, xavf ham ana shu. A'lohazratning g'azabini keltirgan narsa ham ana shu! Sen ham bunga tarafdorsan. Buni inkor qilmaysanmi?

— Rahmat sizga, sarhang! Siz menga ko'p narsalarni o'rgatdingiz.

— Boshqa aytadigan so'zing yo'qmi?

— Yo'q.

Sarhang Safoiy tugmachani bosdi:

— Olib boring!

Faridunni yana qorong'i go'rga olib borib tashladilar ikki kungacha urib, qiynadilar. Ming xil azob berdilar. Hushdan ketsa, suv sepib hushiga keltirdilar. Yana hushdan ketguncha azobladilar.

Nihoyat, uchinchi kuni yana sarhangning oldiga olib keldilar.

— Sizning kim ekanligingizni men endi juda yaxshi bildim, sarhang! — dedi Faridun qat'iy qilib. — Siz endi mendan bir og'iz ham so'z eshitmaysiz!

Shundan so'ng sarhangning butun savollari javobsiz qolaverdi. Sarhang uni yana avvalgi kameraga tashlashga buyurdi. Faridunni olib ketishgach:

— Kechasi jinnini uning kamerasiga tashlanglar,— deb buyurdi.

Dastlabki qiynashlar va ikkinchi tergovdan so'ng jismoniy va ruhiy siqilishlar qarshisida Faridunning irodasi yana ham mustahkamlandi. Butun badanida harakat qilish, urishish va olishishni talab etuvchi allaqanday bir harorat sezardi. Allaqayeri sal-pal, boshqa bir yeri zirqirab og'rir edi. Lekin qayeri sal og'riyotganini, qayeri zirqirab og'riyotganini aniq ajrataolmas edi. Chiqishga yo'l axtarib, intiqom deya qichqirayotgan ehtiros va jo'shqin fikrlar uning qayeri og'riyotganini aniqlab olishga yo'l bermasdilar. Sarhang bilan bo'lgan suhbatlar, uning makkorona savollari, shisha kabi jonsiz ko'zlarining baqrayib turishi va biror marta buzilmagan sovuqqonligi xayolida jonlanardi. U hayotdagi butun bu murakkab munosabatlarning ma'nosini yana bir marta anglashga tirishar edi. Hozir turmaning qorong'i va rutubatli devorlari orasida o'tirar ekan hayot va ijtimoiy muhit unga tuzatib bo'lmaydigan va chirkinroq ko'rinar edi. Turma bu hayotning, bu borlikning butun yaramasliklarini, butun yaralarini o'zida mujassamlantirgan edi. Faridunning qop-qorong'i kamerasida jimjitlik hukm surardi. Bu jimlikni ahyon-ahyonda u yoq-bu yoqqa o'tgan nazoratchining oyoq tovushi buzar edi. U o'tib ketgach atrofni yana go'riston jimjitligi bosardi.

Lekin Faridun bu jimjitlikning aldamchi, zohiriy jimjitlik ekanini, turmaning qalin devorlari orasida va chuqur zindonlarida odamlarning aqlga sig'mas darajada azobilanayotganliklarini bi-

lar edi. Holdan toygan odamlarning oh-vohlari, nola-fig'onlari va jallodlarning g'azab bilan quturib qilgan haqorat va do'qlari zindonlarning devorlarini teshib chiqishga ojiz edilar. Kim biladi, shu tarzda yuksak orzuli va oliyjanob kishilarning qanchadan qanchasi shu tilsiz devorlar orasida yo'q bo'lib ketdi ekan?!.

Birdan Faridunning xayoliga shunday fikr keldi: uni ham sekin-asta chiritib yuborish uchun bu yerga tashlab qo'ygan bo'lsalar-a? Endi turma unga laqqa baliqqa o'xshab tuyuldi. U bu laqqa baliqning qornida sekin-asta ezilmoqda va o'z qiyofasini yo'qotmoqda edi, shu tarzda sekin-asta hazm bo'lib butunlay yo'q bo'lib, unutilib ketadi.

Bu fikridan cho'chib, sakrab o'rnidan turdi. Temir panjaralardan ushlab, oyoq uchida turib kichkina teshikdan tashqariga, moviy bo'shliqlarga uzoq qarab qoldi. Yulduzlar sayrini tomosha qildi. Yulduzlar ichidagi eng porloq va eng kattasi unga qarab turgandek tuyuldi. Bu yulduz unga qishloqni xotirlatdi, xirmonda bug'doy g'arami ustida yotib, Savalon tog'idan esgan mayin shabadada rohatlanganini, moviy osmonni tamosha qilganini esladi. Yodiga yana Gulnoz, Sariya xola, Musa aka keldi...

Shu payt birdan eshik orqasidan allaqanday tovush eshitildi. U panjaradan tushdi. Eshik ochilib allakimni ichkari itarib yubordilar. U yuztuban yiqilib, uzoq vaqt qimirlamay yotdi. U na ovoz chiqarar, na ingrar, na qimirlar edi. Faridun uni qiynoqlardan keyin hushidan ketgan bo'lsa kerak deb o'ylab, yaqinroq keldi. Egilib mahbusning yelkasidan ushlab sekin qimirlatdi. Lekin mahbus taxtadek qotib qolgan, o'likdek jonsiz edi. Faridun uni o'lib qolgan bo'lsa kerak, deb o'yladi. Cho'kka tayoq qattiq bir narsa uning hiqildog'idan bo'g'ib oldi. U bo'g'ziga iskanjaday yopishib, uni bo'g'ib tashlamoqchi bo'lgan bu ingichka, quruq suyak barmoqlardan o'zini zo'rg'a qutqardi. Mahbusning qo'lidan qutulishi bilanoq jon talvasasida:

— Qo'lingni ol!.. O'ldiraman!.. — deb qichqirdi.

Noma'lum odam uning hiqildog'ini bo'shatib, jinni singari bir sakrab chetga chiqdi-da, tishlarini g'ijirlatib uvlay boshladi. Faridun o'rnidan turib qaddini rostladi, chuqur nafas oldi, hali ham durustroq ko'rolmagan bu odamning harakatlarini kuzata boshla-

di. U esa hamon tishlarini g'ijirlatar edi. Birozdan keyin o'tirib, achchiq-achchiq yig'lay boshladi. Ko'p o'tmay yig'isi qahqaha bilan almashdi. Kulaverib xirillab qoldi. Faridun bu kishi yo chinakam jinni yoki jinni rolini o'ynayotgan biror josus bo'lsa kerak, deb o'yladi. Har ikkala holda ham bu bechoraning holi achinarli ekanini xayolidan o'tkazdi. Mahbuslarning sirini bilib olish uchun kechalari zindonlarda yurib jinni rolini o'ynash qanchalik yaramas ish! Lekin u haqiqatan ham josus bo'lsa, uni sog' qoldirmaslikni, shu yerning o'zida bo'g'ib o'ldirishni talab qilgan bir ichki his qalbida bosh ko'tardi. Chunki bu qadar iflos bir rolni o'ynash darajasida olchoqlikka borib yetgan odamni ilondek ezib tashlash, chayon kabi yanchib tashlashdan ko'ra oqilona va ezgu ish bo'lmas edi. U qalbida ikki xil his, ya'ni rahm va nafrat hissi tug'ilgan holda hali ham shaq-shaq titrab tishlarini g'ijirlatayotgan, goh yig'lab, goh kulayotgan notanish odamga qarab turardi. To'g'rirog'i, qorong'ulikda ko'ziga faqat qora bir soya, qora bir tosh kabi ko'ringan bu g'alati odamning chiqarayotgan tovushiga quloq solar va yana qo'qqisdan hujum qilib qolmasin, deb undan ko'zini uzmas edi. Jinni ham, o'z navbatida, qorong'ulikda yongan ko'zlarini unga tikib, o'z qurboni ustiga tashlanishga tayyorlanayotgan yirtqich kabi qo'llarini ko'kragi ustiga qo'ygan holda hujumga hozirlanar edi. Birdan u o'zini yerga tappa tashlab yotib oldi-da, yerni tirnab yig'lay boshladi. Keyin o'rnidan turdi, go'yo o'zini himoya qilayotgandek bir burchakda g'ujanak bo'lib, allakimga yolvora boshladi:

— Urmang, urmang meni! Axir, mening gunohim nima?! Men sizga nima yomonlik qildim? Nega meni buncha xafa qilasiz? Oh, og'o, sadag'ang ketay ko'zimni nega o'yib olayapsan? Voy ko'zim, voy ko'zim! Mana bunga qaranglar, hay, mo'min bandalar, mana buni ko'ringlar, shunchalik ham zulm qiladilarmi odamga? Qaranglar, ko'zimni o'yib qo'limga berdi! Yana o'zi kuladi, kulishini qaranglar. Inson boshiga tushgan musibatdan bunchalik kulma, og'o... Qo'rq, qo'rq — Xudodan qo'rq, bir ko'zim o'rniga ikki ko'zingdan ajralmagin tag'in. Yo'q, yo'q!.. Qo'ymayman, yo'l qo'ymayman, bu ko'zimni ham o'yib olmoqchisizlar. Qo'yinglar, hech bo'lmasa bitta ko'zim qolsin. Axir, odamzod bir ko'z

bilan ham ishlay oladi-ku. Arpa, bug'doy sochsa bo'ladi. Tosh yo'nsa ham bo'ladi. Bir burda non topsa bo'ladi-da. Qo'ymayman, qo'ymayman, bu ko'zimni o'yib olishga yo'l qo'ymayman.

O'ng qo'li bilan o'ng ko'zini yashirib kamerada yugura boshladi. Goh uyoqqa, goh buyoqqa o'zini urar, yurakni ezib yuborguday qichqirar, faryod chekardi. Nihoyat holdan toyib yiqildi, yana bir burchakka biqinib oldi.

— Bug'doyni olib borib eshakning oldiga solishdi,— deb gapira boshladi u, birozdan so'ng.— Bolaning oldiga yangi o'rilgan beda tashlashdi. Xotin, xotin, uy qulab tushmasin, kel, bolangni ol, bo'lmasa bedani yeb qo'yadi, o'ladi bolang, kel, kel darrov!.. Obbo, yana o'sha og'o kelib qoldi, bo'g'oz sigirga ko'z tikdi. Hay, birodar, bo'g'oz sigirning go'shti harom bo'ladi, pichoq ham o'tmaydi. Hoy, uying kuygur, og'o, sigirning qornini yordiya. Buzoqni tortib oldi. Mazza qilib yeyishini qaranglar-a, bug'ini chiqarib og'ziga tiqayapti! Bay-bay-bay. Bu qanday balo o'zi? Iye, bu bizning bolamizning kallasi-ku! Og'o, uying kuysin sening, tirikligicha bolani ham yeb yubordingmi?.. Bolalarim, qoching, kelinglar, mening orqamga bekininglar, bu og'o hali to'ymaganga o'xshaydi, bekininglar orqamga!.. Ahaaa... Hali u og'o emas ekan, u alvasti, yalmog'iz ekan-ku, kechalari odam suratida kelib, bolalarni onasining qo'ynidan olib yerkan. Qo'rqinglar, qo'rqinglar undan, u har tusga ham kira oladi. Og'o ham bo'la oladi; arbob ham bo'la oladi. Hatto a'lohazratning kiyimini ham kiya oladi. Boshiga toj kiyish ham qo'lidan keladi. Hammasini bola go'shti yeyish dardida qiladi! Bir marta mazasini ko'rdimi, endi hech narsadan toymaydi. Qochinglar, qochinglar undan nariga! Bolalarni ehtiyot qilinglar, bolalarni!

U: "Bolalarni ehtiyot qilinglar, bolalarni ehtiyot qilinglar!" deganicha gurs etib yerga yiqildi-yu, xirillab uyquga ketdi.

U og'ir-og'ir nafas olar, xirillab og'zidan ko'piklar sochardi. Go'yo hozir yuragi yorilib ketayotganga o'xshardi.

Faridun bularning hammasi o'yin ekaniga shubhalana boshladi.

Yarim soatcha vaqt o'tdi. Jinni yotgan joyida hamon og'ir nafas olar, har zamonda xirillab qo'yar, betoqatlik bilan qo'llarini to'rt tarafga urar edi.

Faridun uni bezovta qilmadi. Bu yarim uyqu olamida inson badani g'alati va noma'lum qonunlar asosida o'zining qo'rqinchli kasalliklarini yengishini bilar edi. Tuzatishning iloji bo'lmagan dardga uchragan xastalarni allaqanday sehr ishlatib, uxlatib qo'ygan hakimlar to'g'risidagi afsonalarni bolaligida ko'p eshitgan edi. Hozir shular esiga tushdi. Inson asablarini, insonning ruhi deb atalgan murakkab mexanizmni faqat qattiq uyqugina normal qolga qaytara olishini bilar edi. Chunki uning hozirgina aytgan gaplarining mantiqsizligi, og'zidan chiqqan so'zlarni ishonch va qizg'inlik bilan aytishi, uning aqldan ozganini, asablarining nihoyatda taranglashgani, tamoman aqldan ozganini ko'rsatib turar edi. Lekin bu insonning ongi chidayoladigan so'nggi nuqta edi. Agar uning ahvoli biroz yengillashmasa, asablari biroz bo'shashmasa, uning butun sezgilari o'lgan bo'lardi. Unda aql abadiy ishdan chiqar, faqat xayolidan o'tgan ba'zi uzuq-yuluq hayotiy lavhalargina qolar edi. Unda so'zlarni bir-biriga bog'lagan bu nisbiy mantiq, bu zaif fikrlash natijasida uning og'zidan hech narsa tushunib bo'lmaydigan so'zlari chiqaverar edi.

Jinnining xirillashi sekin-asta pasaya bordi. Endi u qo'llarini ham bezovtalik bilan qimirlatmay qo'ydi. Uzoq davom etgan azob beruvchi bezovtalikdan so'ng tinch yotib, dam olish davri boshlangan edi. Turmaga yana og'ir va kishini bo'g'uvchi bir jimjitlik cho'kdi. Atrof qop-qorong'i edi. Osmonni quyuq zulmat qoplagandi, bunday qorong'ulik hatto yarim kechada ham kam uchrardi. Aftidan, bu kechaning so'nggi damlari, tong otish payti yaqinlashib qolgan edi.

Haqiqatan ham, ko'p o'tmay tong ota boshladi. Butun kechasi bilan uxlamay chiqqan Faridunning nazarida go'yo qo'rqinch va azoblar bilan to'la bo'lgan uyqudan uyg'onayotgandek tuyuldi.

U uyg'onib kelayotgan jinnining yoniga bordi, uning qordek oqarib ketgan boshini yerdan ko'tardi. Tomog'ining tagidan qulog'igacha butun basharasini bosib ketgan soqoli ham oppoq edi.

Keksa jinni birdan ko'zini ochdi, hali ham qo'rquv bilan to'la ko'zlarini Faridunga tikdi. Allanarsalarni eslamoqchi bo'lgandek boshini sal orqasiga tashladi.

Faridun bu tanish boqishlarni qayerda ko‘rganini eslashga tirisharkan, mahbus nihoyatda g‘amginlik bilan gapira boshladi:

— Faridun... qani... qani?.. Qani... mening Gulnoz qizim qani?

— Musa tog‘a?— deb uni quchoqlab oldi Faridun. Musa aka uning qo‘lidan chiqib devorga qisildi:

— Og‘o, qurboning bo‘lay, hech narsa kerakmas. Hech narsa kerakmas, yerni ham olaqol, mollarni ham olaqol. Qo‘ylarni ham, sigirni ham olib ketaver. Faqat bolalarimni tashlab ket. Boshqa hech narsa so‘ramayman...

Birozdan so‘ng allanarsalarni o‘ylagan holda yana Faridunning oldiga keldi. Uning ko‘ziga uzoq tikilib qoldi:

— Faridun, o‘g‘lim, — deb yig‘lab yubordi.

Faridun esa uni tinchlantirishga tirishar, umidlantiruvchi har xil hikoyalar so‘zlar edi. Musa aka esa goh indamay o‘tirib, goh kuchli hayajon ichida quloq solar, tamoman o‘rinsiz baqirib-chaqirib qolar, oh-voh hilar, allaqanday alvasti to‘g‘risida gapirib ketardi. Lekin u Faridunni endi bola go‘shti yegan og‘oga o‘xshatmas, u bilan sekin va muloyim gaplashar edi. Vaqt-vaqti bilan uning esi joyiga kelganidan foydalanib, Faridun unga dunyoning yaxshilanib kelayotganidan, zulm va kambag‘allikning tamoman yo‘qotiladigan kun yaqinlashib qolganidan so‘zlardi:

— Musa tog‘a, — der edi u, — noumid bo‘lmang, sabr qiling. Dunyoda doimiy narsa yo‘q. Ayniqsa zulm va adolatsizlik binosini zamon tez chiritadi. Siz ham o‘z qishlog‘ingizga qaytasiz. O‘zingizning bir parcha yeringiz bo‘ladi. Bolalaringizni qanotingiz ostiga olib, o‘z ozod mehnatingiz bilan ozod dunyo yaratasiz. U dunyoning bayrog‘i mehnat, qasami mehnat, e’tiqodi mehnat bo‘ladi! Siz mehnat qilishdan, ishlashdan qo‘rqmaysiz-ku, Musa tog‘a! Kelajak ter to‘kib, mehnat qiladigan qadoq qo‘lli kishilarniki. O‘sha qo‘llar bu qorong‘u zindonlarni yo‘q qilib tashlaydi. Bu turmalar, bu zulm, bu iskanjalarni o‘sha qo‘llar parchalab tashlaydilar, sabr qiling, Musa tog‘a, Eronning qorong‘u osmonlarini yoritadigan kunlar ham kelib qoladi. Kim biladi, ehtimol, u quyosh Savalon tog‘ining orqasidan, Ozarbayjondan porlab chiqar. O‘shanda u kunni, u tongni eng

oldin tabriklagan sen bo'lasan, sen bilan birga ona yurting bo'ladi, Musa tog'a?..

Musa aka jim, ko'zlarini uning ko'zidan uzmay o'tirib quloq solar, uning aytganlarini g'oyat diqqat bilan anglashga tirisharди. Oylarcha davom etgan qiynoqlar va musibat natijasida aynib qolgan miyasida tumanli ravishda bo'lsa ham haqiqiy dunyo jonlanmoqda edi. Uning aql-xushi endi o'rnidan turgan kasalning badani kabi qiyinlik bilan, sekin-asta o'ziga kela boshlagan edi. Faridun yana ham qizg'inlik bilan unga kelajak kunlarning porloq sahifalarini tasvirlar, bu kunning nima sababdan tug'ilishi muqarrar ekanini unga tushuntirardi. Aslida esa bu shirin xayollar Faridunning o'ziga ham shirin tuyulardi. U tinmay so'zlar, keksaning yana shovqin-suron ko'tarishini istamasdi. Lekin bu ahvol uzoq davom etmadi. Shu paytda eshikni ochib bular o'tirgan kameraga Hikmat Isfahoniyni olib kirib qo'ydilar. Bir necha kun ichida u ancha ozib qolgan edi. Faridun uning soqollari o'sib ketgan yuzida, so'nib qolgan ko'zlarida iztirob, ma'yuslik va umidsizlik belgilarini ko'rdi. Hikmat Isfahoniy ichkari kirishi bilanoq, Musa akaning boshini tizzasi ustiga qo'yib o'tirgan Faridunga qaradi. Uning bu qarashida bundan bir yil avvalgisi u yoqda tursin, hatto uch kun oldingi takabburlik va g'ururdan ham asar qolmagan edi. "Bu azob va taqdirning shafqatsiz zarbalariga davlatmandlarga qaraganda kambag'allar va ezilganlar yaxshiroq chidaydilar" deb o'yladi Faridun. Ayni vaqtda Hikmat Isfahoniy bilan gaplashgisi, uning fikrini, nimalar o'ylayotganini bilgisi keldi. U shu to'g'rida o'ylar ekan, bu payt Hikmat Isfahoniy qo'rquv va jirkanch hislari aralash bir holda borib krovatga o'tirdi-da, lunjini shishirib "ufff!" deb qo'ydi. Musa aka kameraga yana boshqa odam kiritilganini endi sezdi. Sekin-asta boshini ko'tarib atrofni ko'zdan kechirdi. Ko'zlari Hikmat Isfahoniyga tushishi bilan sakrab o'rnidan turdi. Yana tishlari takillay boshladi:

— Og'o omon ber, menga rahm qil! Senga nima yomonlik qildim, shu yerda ham meni tinch qo'ymaysan. Og'o, menga rahming kelsin!

Hikmat Isfahoniy u meni masxara qilayapti, deb o'ylab basharasini burishtirdi, turmada ham kattalikdan tushmay:

— Bo'ldi, chol! O'tir joyingga! — dedi.

Bu so'zlardan Musa aka tamoman esini yo'qotdi. Uning ahvoli yana kechagidek yomonlashib qoldi, goh qichqirishga, goh yalinib-yolborishga boshladi:

— Qo'yma uni, Faridun, bolalarning tiriklayin qonini ichgan yalmog'iz shu, ushla uni, qo'yma! Hay it, yo'qol bu yerdan! Hay it, hay it, jo'na hozir!.. Bay-bay-bay-bay, og'oning qorniga qutur-gan itlar kirib olibdi. Og'o qimirlamay o'tir, jim o'tir, bo'lmasa itlar chiqib bizni qopib oladi. Uni qara, uni qara, qara, uning ichida qancha it o'tirganini ko'r. Hammasi ham tishini irjaytirib men-ga qarab turibdi. Och ekan ular, och! Odam go'shti yemoqchi-lar... ko'ngillari odam go'shtini tusab qopti. Odam go'shti, odam go'shti!..

Telba haqiqatan ham itlarni ko'rib turgandek, bir burchakka qisilib olib, qo'li bilan Hikmat Isfahoniyning qornini ko'rsatib: "O'sha, o'shaning o'zi!" deb baqirar edi. G'azabdan qorayib ket-gan va nimadandir qo'rqib, titray boshlagan Hikmat Isfahoniy erta-labki choydan boshqa hech narsa kirmagani uchun quldiray boshla-gan qorniga g'ayri-ixtiyoriy ravishda qaradi.

Musa aka birdan uning ustiga otilib, tagiga bosib oldi.

— O'g'ri, o'g'ri-o'g'ri!.. Yer o'grisi! Xirmon o'g'risi! Bo'g' uni, bo'g', o'lsin u!

Faridun telbaning o'sib ketgan va iflos tirnoqlari Hikmat Isfa-honiynnng bo'g'ziga botganini ko'rdi. U kuchining boricha bo'g'ar va qichqirardi. Isfahoniy Musa akaning quruq skelet bo'lib qolgan gavdasini ko'tarib tashlamoqchi bo'lar, Musa akaning jon oluvchi tirnoqlaridan qutulmoqqa harakat qilar, lekin Musa aka ham bo'sh kelmas, uni battarroq bo'g'ar edi. Ular orasidagi bu og'ir kurash shu tarzda ancha davom etdi. Nihoyat, nafasi qisa boshlagan Hik-mat Isfahoniy yerga yiqildi. Musa aka tizzalarini uning qorni ustiga qo'yib, tirnoqlarini yana ham qattiqroq botirdi. Hikmat Isfahoniy-ning xirillab qolgani eshitildi. Faridun uning bo'g'ilib qolganini ko'rib, Musa akaning qo'llaridan ushlab tortdi, tirnoqlarini uning bo'g'zidan zo'rg'a ajratib oldi. Endi Musa akani titroq tutib qoldi, og'zidan ko'piklar sachray boshladi. U hushdan ketdi. Faridun uni devor tagiga yotqizib qo'ydi.

Hikmat Isfahoniy o'rnidan turib, krovatga o'tirdi. Hushsiz holda to'lg'onib bezovtalik bilan qo'l-oyog'ini to'rt tarafga otib urayotgan Musa aka tarafga qarab tupurdi:

— Bu jinni-ku, a yigit... o'ldiray dedi-ya..

Faridun unga g'azab bilan qaradi:

— Sizning qilgan ishingiz bu, og'oyi Hikmat Isfahoniy! — dedi u. — Ko'ring, yaxshilab ko'rib oling. Qabrga tushganingizdan keyin suyaklaringiz ham tinch yotmasin! Bu qabih, iflos ishlar sizning ishingizdir!.. Yaxshilab qarang! Bechora millatni, baxtsiz dehqonlarni odam o'rnida ko'rmaysiz. Ikki yil avval bu bechora cholning yerini, ko'targan hosilini uning qo'lidan tortib oldingiz. Bu bilan ham kifoyalanmay, qarzing bor deb sigiridan tortib, xotinining kiyimigacha olib ketdingiz. Lekin bu bilan ham yuragingiz sovumadi. O'zini ham, besh bolasi bilan birga xotinini ham qishloqdan quvdingiz. Ular Tehron ko'chalarida halok bo'ldilar... Mana oyoqlaringiz ostida o'zi yotibdi. Yaxshilab ko'rib oling qilgan ishingizni!..

Hikmat Isfahoniy bir Faridunning g'azabdan qizarib ketgan ko'zlariga, bir hali ham o'ziga kelmay og'ir nafas olib yotgan Musa akaga qaradi. yig'lab yuborishiga sal qoldi:

— O'lay agar, menda gunoh yo'q, yigit, — dedi u yig'lamsirab, — butun ayb jandarmlarda. Ular qaroqchilardan ham besh battar, dehqonning yetti qavat terisini shilib oladilar. Sigirini ham, kiyim-boshlarini ham olib ketgan o'shalar. Xudo haqqi qasam ichaman, senga so'z beraman. Bu yerdan chiqsam dehqonlardan bir shohi ham soliq olmayman. Yerni ham, suvni ham o'zlariga beraman. Ekib olsinlar, foydalansinlar, bola-chaqalarini boqsinlar. Agar yolg'on aytayotgan bo'lsam, otamga la'nat.

Uning falokat oldida yumshab, qo'rqib ketganidan aytgan bu gaplari Faridunning g'azabini battar oshirib yubordi:

— Hali shoshmang, chol o'ziga kelsin, aqlini o'ziga olsin, shu yerda sud qilamiz. Hozir bo'yningizga qo'ygan jinoyatlaringizga munosib jazo beramiz. Mazlumlarning boshiga qanday kun solsang ham jazosiz qolaveradi, deb o'ylamang. Osib o'ldirmasak ham bo'g'ib o'ldira olamiz!

Hikmat Isfahoniy o'zini tamom yo'qotib: "Ikkalasi ham telba ekan, bo'g'ib o'ldiradilar endi meni, nima qildim!?" deb o'yladi u.

— Yaxshi yigit, Xudo haqqi, o'zim bir o'lib tirildim. Yana o'lmay endi. Shu yerdan salomat chiqsam, bor-yo'g'imni sarflab, seni ham qutqarib olaman. Uni ham chiqarib olaman. Bir xato qilibman, endi qilmayman, hech bir dehqonga bir ogiz yomon so'z demayman.

Faridun o'zini uning oyog'i ostiga tashlashga tayyor bo'lgan bu qo'rqoq ablahga tuganmas nafrat bilan qarab turar va hayron bo'lib:

"Eng ko'zga ko'ringan bitta vakili mana shu zaif odam bo'lgan sinf qanday qilib yashashga qobil ekan?" deb o'ylar edi.

Nihoyat Musa aka o'ziga keldi. U boshini egib uzoq o'tirdi. Keyin o'rnidan turib tuynukka chiqmoqchi bo'ldi. Lekin uddasidan chiqolmadi. Oyoqlari titrab, yiqildi. Yana turib, go'yo gunohkorni topgandek Hikmat Isfahoniyga tashlandi-da, uning hiqildog'idan oldi:

— O'g'ri!.. Talonchi!.. O'g'ri!.

Faridun uni yana ajratib qo'ydi. Zo'r bilan olib borib bir chetga yotqizdi. Hikmat Isfahoniy esa bor kuchi bilan kameraning eshigini taqillata boshladi. Eshik ochildi.

— Sarhangni, sarhangni chaqir! — deb baqirdi Hikmat Isfahoniy eshik ochgan kishiga.

Sarhangning ikki kundan beri bu yerga kelmayotganini eshitib, Faridunga o'girildi:

— Ko'rdingmi uning tulkiligini! O'zini tutishini qara-yu, tutgan ishini qara!.. Boshimizga shunday savdolarni solgan ham o'sha. Bularning hammasi o'shaning ishi. Bizlarni jo'rttaga bir yerga qamab qo'ygan. Birozdan keyin keladi-da: "Bu og'olarni nega qiynadinglar?" deb qorovullarni so'ka boshlaydi. Yana bizni o'zidan minnatdor ham qiladi. Yo'qolsin, xarob bo'lsin, oyog'i osmondan kelsin bunday davlat, bunday mamlakat!

— Hammangiz ham vatan xoini, xalq dushmanisiz! — deb nafrat bilan yuzini chetga burdi Faridun.

YIGIRMA SAKKIZINCHI BOB

Rizo Qahramoniy Faridunga yordam berish uchun ko'p urindi. Lekin hamma qilgan harakatlari bekor ketdi. Ayniqsa sartib Salimiy bilan Hikmat Isfahoniynnig qamalishi bilan ish juda og'irlashib ketdi. Shunga ham qaramay, u turma bilan aloqa bog'lash fikridan qaytmadi. U turmada ishlaydigan qorovullardan birini qo'lga olmoqchi bo'ldi. Uning qizi Farida bilan bir fabrikada ishlar edi. U Farida orqali qorovul bilan aloqa bog'ladi. Hech bo'lmaganda, ba'zi xabarlarni Faridunga yetkazishga uni ko'ndirmoqchi bo'ldi. Bu Faridunga kuch-quvvat berar, irodasini mustahkamlagan bo'lardi. Lekin chol qizining barcha qilgan iltimosini qat'iyan rad qilar edi.

— Mening ham qamalib qolishimni xohlaysanmi? — derdi u.

Turma bilan aloqa boshlash masalasi amalga oshmagach, Rizo Qahramoniy butun diqqatini yashirin tashkilotni kuchaytirishga qaratdi. Faridun qamalib qolgandan keyin, tashkilot ishining butun og'irligi uning gardaniga tushdi. Chunki ko'chaga chiqolmasdi, Kurd Ahmad esa Kurdistonga, undan Ozarbayjonga jo'nab ketgan edi. Tashkilot faoliyatini susaytirish mumkin emas edi. Aksincha, zamon shunday masalalarni o'rtaga tashlamoqda ediki, ularni xal qilishga faqat xalqninggina emas, hatto u qadar ko'p bo'lmagan tashkilot a'zolarining ham aqli yetmay qolardi. Butun Eronda, ayniqsa Tehronda siyosiy vaziyat har vaqtdagidan ko'ra keskinlashib bormoqda edi. Bu vaziyat borgan sari keskinlashar va yangidan-yangi hodisalar, yangidan-yangi fikrlar tug'dirar edi. Nemis-fashist qo'shinlarining sovet territoriyasida ilgari harakat qilib borayotganidan Eron reaksion va hokim doiralari o'z maqsadlari yo'lida foydalanar, taraqqiyparvar kishilarni ta'qib ostiga olar edilar. Ular mehnatkashlarning va demokratik maslakdagi kishilarning umidini so'ndirmoqchi bo'lar edilar. Shu yo'l bilan ham xalqning ozodlik to'grisidagi fikrlarini, orzularini mahv etishga urinardilar. Rizo Qahramoniy Tehron gazetalarini o'qir,

ishchilar bilan tez-tez suhbatlashib turar va bular to'g'risida tinimsiz o'ylar edi. Gazetalar esa nemis axborotlarini katta-katta harflar bilan bosar edilar. Ular Gebbels propagandasi tarqatgan xabarlarni ichki bir sevinch bilan takrorlashar, Sovet davlatining yo'q bo'lib ketishi muqarrar degan gaplarni oshkor aytar edilar.

Hozirda ham So'fi Eronparast tahriri ostida chiqayotgan "Sado" gazetasi hatto Moskva taslim bo'lgani to'g'risidagi xabarni eng oldin olib kelgan kishiga a'lohazrat katta mukofot va'da qilgani to'g'risidagi xabarni e'lon qildi. Bunday sharoitda tashkilot a'zolari orasida ham, demokratik maslakdagi kishilar orasida ham, mehnatkashlar orasida ham Sovet Armiyasining albatta g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otish va ularnnng ruhini tetik ushlab turish, Erondagi ikki lager o'rtasida borayotgan kurash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini Rizo Qahramoniy yaxshi anglardi. Bugun depoda yuz bergan bir hodisa uning bu fikri to'g'ri ekanini ayniqsa aniq ko'rsatdi. Nonushta vaqtida depo ishchilari sovet-german frontidagi janglarning borishi, urushning oqibati nima bilan tugashi to'g'risida so'zlasha boshladilar.

— Bitta shamning atrofidan ko'plashib puflashaversa, uning yonishi mahol, albatta,— dedi bir keksa ishchi umidsizlik bilan, — bilmadim, oxiri nima bo'larkin, umidimiz faqat Sovetlardan edi, uni mag'lub etishadi. Bundan keyin ozodlik to'g'risidagi fikrlarga ham barham beradigan bo'ldi.

Bu so'zlar Rizo Qahramoniyga juda qattiq ta'sir qildi. Bu faqat ishchilar orasidagi kayfiyatning yomonliginigina emas, tashkilotning yomon ishlayotganini, haqiqatni xalqqa yetkazib berolmayotganini ham ko'rsatardi. Faoliyatni kengaytirish kerak edi. Shu fikrlar to'g'risida kuni bilan o'ylagan Rizo Qahramoniy ishdan chiqib, strelkachi Rustamni topdi va o'rtoqlarni to'plashni buyurdi. Rustamning yosh bolalari pishillab uxlab yotgan kulbasiga eng oldin kelganlar Farida bilan Sarxon bo'ldi. Ularning ikkalasi ham bir-biriga navbat bermay gapirishardi. Farida majlisda o'z tabiatiga xos qizg'inlik bilan jamoat orasidan eshitgan gaplarini so'zlab dedi:

— Sovetlar bo'lmasa, bizning kurashimizdan foyda yo'q, ozodlikka chiqolmaymiz, vassalom... Men bunday taklif qilaman:

kelinglar, ularga xat yozamiz. Natsistlarga qarshi kurashayotgan sovet jangchilariga: "Ablahlarni qattiqroq uring, biz butun qalbimiz bilan sizlarning safingizdamiz, chunki siz bizning ham kelajagimiz uchun jang qilmoqdasiz" deb yozib yuboraylik.

Sarxon uning so'zini bo'ldi:

— Faqat bizning kelajagimiz uchun emas, butun insoniyatning kelajagi uchun. Dunyodagi barcha mehnatkashlarning ozodligi uchun... Agar bizning kelajagimiz uchun desak, o'z Eronlaridan boshqa yerni ko'rmas ekanlar deb o'ylashlari mumkin.

Endi Farida uning so'zini bo'ldi:

— O'z bilarmanlik qilmagin. Ular bunday deb o'ylamaydilar, ular senga o'xshagan qisqa o'ylamaydilar. Men mehnatkash deganda faqat seni aytayotganim yo'q, men butun dunyodagi qo'li qadoq kishilarni aytyapman.

Ularning bahsiga Rizo Qahramoniy aralashdi:

— Gap so'zda emas, mazmunda. Shu jihatdan qaraganda ikkalangiz ham to'g'ri gapirdingiz. Yaxshi taklif kiritdingiz. Xat yozib yuboramiz. Ularning ham ko'ngli ko'tarilsin, Erondagi mehnatkashlar ham jim yotmaganliklarini, qo'llaridan kelganicha harakat qilayotganliklaridan xabardor bo'lishsin.

— O'z taklifining bunday qizg'inlik bilan qarshi olindi.

— Bo'lmasa kechiktirib nima qilamiz, kelinglar, hozir yozamiz. — Rizo Qahramoniy yonidan kichkina yon daftarchasi bilan qalamini oldi. Lekin Sarxon unga norozilik bilan boqdi:

— Yo'q, usta. Bu qog'ozing bo'lmaydi, senga katta qog'oz beraman, undan keyin siyoh bilan yoz, ularga esdalik bo'lib qolsin.

U cho'ntagidan to'rt buklangan katta qog'oz va ustini zang bosa boshlagan eski avtomat ruchka olib, Rizo Qahramoniyga uzatdi:

— Endi yoz.

Rizo Qahramoniy qog'ozni oldiga qo'yib, ruchkani ushlaganicha o'ylanib qoldi. Farida sabrsizlik bilan uning xayolini bo'ldi:

— Kimga yozamiz bu xatni?— deb so'radi.

— Xalaqit berma, tinch qo'y uni, o'ylab olsin, axir,— dedi Sarxon,— Qizil Armiya jangchilariga yozamiz dedik-ku.

Lekin Farida yana tinchimadi:

— Xo'sh, ishchilar, dehqonlar, ofitserlarchi? Nega endi ularni xafa qilishimiz kerak? Kelinglar, butun sovet xalqiga yozamiz.

Bo'layotgan gaplarga diqqat bilan quloq solib, xotini bilan yonma-yon o'tirgan Rustam gapga aralashdi:

— Bu katta xato bo'ladi. Fashistlar sovet hukumati bilan Kommunistlar partiyasini xalqdan ajratib tashlamoqchilar. Mening o'ylashimcha, Sovet hukumati bilan Kommunistlar partiyasiz sovet xalqi ham bizning holimizga tushib qolgan bo'lar edi! Ular sovet xalqining jonidirlar. Ularning biri bir badanning yuragi bo'lsa, biri miyasidir. Kelinglar, xatni Sovet hukumati bilan Kommunistlar partiyasiga yozamiz.[1]

Sarxon yana o'zini ulardan bilimdanroq qilib ko'rsatdi:

— Ularda xalq ham, hukumat ham, partiya ham birdir, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Ularni qo'riqlaydigan esa soldatlardir. Soldatlarga yozamiz.

Farida o'z fikrida turdi. Rustam ham qizishib, o'z aytganida turib oldi. Nihoyat, Rizo Qahramoniy hammaga ma'qul bo'lgan taklifni kiritdi:

— Azizlarim, dunyoda ozodlikning bittagina maskani bor. Mehnatkashlarning dushmanlarini qo'rqitgan narsa ham Ittifoqining mavjudligidir. Butun dunyoda ozodlikning posboni ham Ittifoqdir. Shuning uchun xat yozsak manzil shu bitta bo'ladi: Respublikalar Ittifoqiga!..

Sarxon majlisdagilarni bir-bir ko'zdan kechirdi.

— Ustaning so'zida mantiq bor, — dedi u.— Yoz, usta, hech qanday qarshilik bo'lishi mumkin emas.

Rizo maktubni yozar ekan, goh Sarxon, goh Rustam so'z qistirib turishar edi. Ayniqsa Farida o'zini tutib turolmas, tez-tez gapga aralashardi.

— Shunday so'zlar topib yozki, yuragimiz oynada ko'ringandek aks etib tursin.

Maktub yozilib bo'lgach, o'qib chiqdilar, ba'zi joylarini tuzatdilar, yangi ifodalar qo'shdilar. Faridaning talabi bilan xatning

---

[1] Sovet hukumatining 1941-yil 19-iyulda Eron hukumatiga bergan notasida SSSRning manfaatlarini himoya qilish uchun Eronga sovet qo'shinlarining kiritilishi to'g'risida xabar berilar edi.

oxiriga yangi jumla kiritdilar: "Shunday og'ir kunlarda sizga realroq yordam ko'rsataolmaganimiz uchun nihoyatda azobdamiz".

Rizo Qahramopiy xatni toza qog'ozga ko'chirdi, avaylab buklab konvertga soldi-da, yelimladi.

— Azizlarim, endi o'z ishlarimizdan so'zlashaylik. Vaziyat yaxshi emas. Sovetlarga qarshi propaganda xalqning ruhini tushirib yuborayapti. Tushkunlik yaratayapti.

— Ammo masalaning boshqa jihati ham bor, — dedi uning so'ziga diqqat bilan quloq solib o'tirgan Sarxon, — dushmanlarimiz bu qadar ko'p qichqirishlari juda shubhali narsa. Ular qo'rqqanlaridan shunchalik shovqin-suron solib, ko'z bo'yamachilik qilyaptilar.

Farida erining so'zini quvvatlab tushdi:

— Men jamoat orasida Sovet qo'shinlarining qahramonligi tillarda doston bo'lgan deb eshitaman. Hamma qoyil qolib yuribdi. Xalqning mana bu kayfiyatini ham ko'rish kerak.

Ularning bu so'zlari Rizo Qahramoniyga masalaning boshqa tarafini ham ko'rsatdi. U rasmiy doiralar bilan gazetalar ko'targan shovqin-suronning tagida qo'rquv va umidsizlik yashirinib yotganini angladi, mardlik bilan o'zining bir taraflama fikr qilib yurganini bo'yniga oldi.

— Men masalaning bu tarafiga ahamiyat bermabman,— dedi u.— Gap shunday ekan, biz dushman propagandasini yana ham tezroq puchga chiqaramiz.

Yana bir varaqa chiqarish va og'zaki propagandani kuchaytirishga qaror qildilar. Varaqani Tehronda bosishning iloji yo'q edi. Bu ish Sarxonga topshirildi. U varaqani Sori shahridagi o'rtoqlar yordami bilan o'sha yerda bostirib, Tehronga olib keladigan bo'ldi.

Rizo Qahramoniy Faridadan Xovarning ahvolini so'radi. Farida birinchi marta gunohkorlardek boshini quyi soldi:

— Tilanchi xotin birdan allaqayoqqa yo'qolib ketli, shuning uchun men Xovar bilan hech aloqa bog'lay olmadim. Xohlasangiz bugun o'zim uning oldiga boraman.

— Aslo unday qila ko'rma. Sal ehtiyotsizlik hammamizni halok qilishi mumkin.

Farida bu ahvoldan chiqish yo'lini topgandek birdan sevinib ketdi, ularga Feruza bilan Fotima to'g'risida so'zlab berdi. Shulardan biri orqali Xovar bilan aloqa bog'lashni taklif qildi.

— Hozircha uni hech qanday ishga jalb qilib bo'lmaydi,— dedi Rizo Qahramoniy.— Unga faqat ozgina pul yetkazib bersak ber. Qiynalib qolmasin.

Rizo Qahramoniy Kurd Ahmaddan olgan xatni o'qib berdi. Maktub boshdan-oyoq shartli belgi va ishoralar bilan yozilgani uchun u har jumladan so'ng to'xtab, izoh berar, ma'nosini tushuntirar edi. Kurd Ahmad Kurdistondagi ishlarni tugatib, Tabrizga jo'naganini xabar qilar, undan Ardabilga o'tishini, Ardabildan esa Tehronga qaytishini yozar, ishlarning yaxshi borayotganini bildirar edi.

U Kurdlar orasida ozodlik to'g'risidagi fikrlarning yana avj olib ketganini, Kurdlar qulay fursat kelishi bilanoq istibdodga qarshi chiqishga tayyor ekanliklarini bildirardi.

Kechasi allamahalda Rizo Qahramoniy soatiga qaradi:

— Vaqt bo'ldi,— dedi u Rustamga.

Rustamning ishorasi bilan xotini bolalaridan ikkitasini ko'tarib eshik oldiga olib chiqdi. Ularni shu yerga yotqizib, o'zi ham ular yoniga o'tirdi.

Rustam eshikni yopib qo'ydi. Bir burchakka to'plab qo'yilgan latta-puttalar ostidan radiopriyomnikni oldi. Hamma nafas olmaslikka tirishib priyomnik atrofiga o'tirishdi.

Moskva fors tilida so'zlardi. Diktor hozir ham tinchlik davridagi singari xotirjamlik bilan dona-dona qilib gapirardi. Bu tovush, go'yo ustida nemis bombardimonchilari uchib yurgan, shaharlari qorong'ilashtirilgan, samolyot va to'plar tovushi gumbirlayotgan mamlakatdan emas, devorlaridan qush ham uchib o'tolmaydigan, o'z kuchiga ishongan qal'adan kelayotganga o'xshardi...

Moskva Sovet hukumatining Eron hukumatiga bergan 19-iyuldagi notasining mazmunini eshittirmoqda edi.

Hayajon bilan quloq solib o'tirgan Farida o'zini tutolmay:

— Kimning umri oz qolganini og'olar bir bilib qo'ysinlar!— dedi.

Sarxon Faridaga fikringga qo'shilaman deganday jilmayib:

— Xotin, jim, xalaqit berma, eshitaylik,— dedi-da, go‘yo Moskvani ko‘rmoqchi bo‘lgandek, radiopriyomnikning kichkina yumaloq ko‘ziga tikilib qoldi.

* * *

Kurd Ahmad Urmiya va Salmos tog‘lari o‘rtasidan o‘tadigan yo‘ldagi dovonning etagida terlab, suv bo‘lib kegan saman otning jilovini tortdi. Qizishib ketgan ot og‘ir nafas olar, charchaganiga qaramay, joyida tik turmas, olga intilar edi. Og‘oning bundan yarim soat oldingi asovligini sindirgan Kurd Ahmad istar-istamas rom bo‘la boshlagan otning jilovini mahkam tortdi-da, egar ustida bir yoniga sal engashib yo‘lga qaradi. U allakimni axtargan kabi tog‘ etagida ilon izi bo‘lib, yaslanib yotgan yo‘lga tikila boshladi. Besh minutcha vaqt o‘tgandan keyingina muyulishdan bo‘z otga mingan bir kishi chiqib keldi.

Kurd Ahmad hali ham sovumagan otini yo‘lning bir chetiga surdi-da, bo‘z otli kishiga:

— Rahim og‘o, jilovni tort, bu yerdan dovon boshlanar ekan,— dedi.

Rahim og‘o otni, yigirma-o‘ttiz qadam o‘tib ketgandan keyingina jilovlab, orqaga qaytdi:

— Sariq to‘riqni boplab sovutdingiz! — deb kulimsiradi u.— Yomon tentak ot-da u, odamning sal qo‘rqqanini sezsa ko‘tarib uradi.

Kurd Ahmad to‘riq otining yolini silab erkalatdi:

— Otning telbasi-yu, yigitning aqllisi deydilar-ku! — dedi u.

Rahim og‘o peshonasidan to bo‘yniyu, quloqlari aralash o‘ralgan shohi sallasini yechib, yonidan katta ro‘molcha olib terini artdi. Egniga Kurdlar yaxshi ko‘radigan keng shohi sharovar va uzun chakmon kiygan edi. Otlar hansirab dovonga ko‘tarila boshladilar, ular pishqirib bir-biridan o‘zib ketishga urinar, lekin Rahim og‘o hurmat yuzasidan Kurd Ahmadni ilgari o‘tkazib yuborar, o‘z otining jilovini tortib borar edi. Buni sezgan Kurd Ahmad, otning jilovini tortdi, ular uzangilari bir-biriga tegay-tegay deb yonmayon keta boshladilar.

— Xo‘sh, charchamadingmi?

Rahim og'o biri-biridan baland tog'larga, allaqanday vahimali jimjitlik qo'ynida yotgan jarlar va daralarga qarab javob berdi.

— Meni onam ot ustida tuqqan! Hunarim egar ustida qishloq va yaylovlarni kezish.

— To'g'ri,— dedi Kurd Ahmad o'ychanlik bilan,— ko'p kurdlar ot ustida tug'ilib, ot ustida o'ladilar.

Kurd Ahmad buni shunchaki aytdi, lekin Rahim og'o kurdlarda bir fazilat va qahramonlik deb hisobilangan bu odatni u tanqid qilyapti deb tushundi.

— Ko'chmanchilik haqiqatan ham Kurd xalqining baxtsizligidir,— dedi u va biroz o'ylab olgach, qo'shib qo'ydi.— O'troqlashib tomir yoymagan xalq nom-nishon qoldirmay ketadi.

— Yerga tomir yoyish uchun uni ishlash, dehqonchilik qilish kerak.

— Nahotki, xalqimiz shunga qobiliyatsiz bo'lsa?

— Nega qobiliyatsiz bo'lsin? Qobiliyati bor! Kurd xalqi juda mehnatsevar va mard xalqdir. Lekin uning oyoq-qo'llari bog'lab tashlangan. Feodal tuzum bilan patriarxal qabilaviy hayot ko'z ochib, bunday dunyoni ko'rishiga yo'l qo'ymaydi. Shu tuzumni o'zgartirish kerak.

Ularning ikkalasi ham xayolga cho'mib, jim qolishdi. Otlarning bir ohangda eshitilayotgan tuyoq tovushlari otib kelayotgan tong nafasini yana ham oshirib yuborar edi. Sharqdan quyoshning ilk nurlari qizarib ko'rina boshladi. Asta-sekin daralarga jon kirib, tog' va dovonlarda ot va eshaklar ustiga xurjun va yuklar ortgan dehqonlar ko'rina boshladilar. Oldindan, tog'ning etagidagi katta yaylovdan itning hurgan tovushi, qo'y va mollarning ma'rashi, xotinlar bilan bolalarning tovushlari eshitildi. Bu yo'lga chiqishga hozirlanayotgan bir qabila edi.

O'n besh-o'n olti yoshlar chamasidagi, tilla marvaridi oq ko'ylagi ustida tovlanib turgan qip-qizil yuzli bir qiz o'choqdan chiqqan tutundan o'zini chetga tortib, yog'och cho'mich bilan qozon kavlardi. Chodir yonida esa to'ladan kelgan, qora soch va qora ko'z bir kelin o'tirar va hech kimga e'tibor bermay, bahuzur ko'kragini ochib bola emizardi.

Kurd Ahmad bilan Rahim og'o ko'chmanchilar oldidan o'tib borishar ekan:

— Buyoqqa marhamat, og'olar, bir stakan choy ichib keting-lar,— degan tovush eshitildi. Ular beixtiyor otlarining jilovini tortib, tovush kelgan tomonga qayrilib qaradilar. Kurd Ahmad yo'l bo'yida turgan kurdlarning birortasini ham tanimadi. Taklifni shunchaki mehmondo'stlik qabilida aytilgan deb o'ylab, tashakkur bildirib jo'namoqchi bo'ldi. Hali og'iz ochishga ulgurmasidanoq qalin oq sochlari bo'yniga qadar o'sib tushgan, oppoq soqoli ko'kragini bosgan baland bo'yli, oriq va nimjon bir cholning to'dadan ajrab qarshilariga kelayotganini ko'rdi.

— Salom, Rahim og'o, otdan tush, bir parcha non-pon yeb ket,— dedi chol.

Chol yaqinlashib kelgach, Rahim og'o bir sakrab otdan tushdi-da, uning istiqboliga yurdi, cholga hurmat bilan ta'zim qildi-da, oftobda qorayib ketgan qo'lidan o'pib:

— Salom, buyuk shoh!— dedi.

Kurd Ahmad darhol bu cholning mashhur shoir Hajir ekanini payqadi. Kurd Ahmad bu mashhur shoirning o'z umrini Eron, Turkiya va Iroq kurdlari orasida, janjal va to'qnashuvlar bilan to'la yurishlarda o'tkazganini, yurakdan chiqarib aytgan she'r, qo'shiqlarida kurd xalqining orzu va hasratini kuylashini bilar edi. Hajir kurdlarning barcha to'y va bayramlarida, ularning barcha ma'rakalarida ishtirok etar, ularning barcha shodlik va qayg'ulariga sherik edi.

U ko'pincha kurd qabilalari orasida kelishmovchilik va janjallar bo'lsa, o'rtada turib, kelishtirishga harakat qilardi. U bir necha marta qabilalar orasida boshlanib ketay deb turgan qirg'inlarning oldini olgan edi. Hajir boylikka qiziqmagan kambag'al bir odam edi. Kurd Ahmad uning butun boyligi egnidagi kiyimi, qo'lidagi tamburi va yuvosh oq otidan iborat ekanini eshitgan edi. Kurd Ahmad Kurdistonga kelganda, uning og'izdan og'izga ko'chib yurgan qo'shiqlarini ko'p eshitgan edi. Bu qo'shiqlarda chuqur qayg'u ham, shirin orzular ham, g'am ham, xalqning ishonchlari ham kuylanar edi. Xalq uning qo'shiqlarida o'zining og'ir hayoti, janjallar bilan to'la tarixini, sovushni bilmagan ko'ngil orzularini ko'rar edi.

Kurd Ahmad ham otdan tushib Rahim og'o singari hurmat bilan cholning qo'lini o'pdi.

— Qayerlardan so'raymiz, taqsir?— deb so'radi Rahim og'o.

Chol qirq besh–ellik yoshlar chamasidagi hammadan yaxshi kiyingan bir kishini ko'rsatib:

— Tanishinglar,— dedi,— og'oni Husayn xonni yaylovga kuzatib qo'ymoqchiman.

Kayfi buzuqligi yaqqol ko'rinib turgan Husayn xon sipolik bilan ularnnig qo'lini siqdi, lekin Kurd Ahmadning nomini eshitib, yolg'ondan bo'lsa ham jilmayishga tirishdi.

— Rahmatli otangiz bilan do'st edik. Marhamat, qani, to'rga chiqing.

Kurd Ahmad undan yaylovga nega bunchalik kech ko'chganini so'radi.

Bu savoldan Husayn xonning yuzidagi sun'iy kulgi ham yo'qoldi. Ko'zlarida g'azab chaqnadi. U javob berish o'rniga sal narida qo'l qovushtirib turgan va kurdlarning milliy kiyimini kiygan bir necha dehqonga murojaat qildi:

— Og'olarnivg otini olinglar!

Dehqonlardan biri tezlik bilan ilgari chiqdi, kelib Kurd Ahmad bilan Rahim og'odan otlarining jilovini oldi va otlarni chetroqqa olib borib bog'lab qo'ydi.

— Qani, o'tiringlar. Biror stakandan choy ichinglar,— dedi-da, chodirdan sal chetroqqa to'shalgan gilamga taklif qildi.

O'tirishgach, yana boyagi dehqonlarga:

— Darrov dasturxon yozinglar!— deb buyurdi.

Dehqonlar chaqqonlik bilan o'rtaga dasturxonni yozishdi. Xurjunlaridan non, tuxum, yog', pishloq olib qo'ydilar.

Dehqonlardan biri qozonda qaynayotgan sutdan stakanlarga quymoqchi bo'lgan edi, Husaynxonning achchig'i chiqdi:

— Bu nima qilganing? Darrov qora qo'chqorni so'y.

Kurd Ahmad e'tiroz bildirib:

— Rahmat, salomat bo'ling, bir stakandan sut ichib yo'lga chiqaveramiz,— dedi.

Lekin Husaynxonning buyrug'ini so'zsiz bajarishga o'rganib qolgan dehqonlar bunga ahamiyat bermadilar, ulardan biri

tog‘ yonbag‘rida o‘tlab yurgan qo‘ylar orasidan qora qo‘chqorni tutib yerga bosdi-da, belidan xanjarini sug‘urib, qo‘chqorning bo‘g‘iziga qo‘ydi.

Buyrug‘ining bunday tez bajarilishidan xursand bo‘lgan Husaynxon Kurd Ahmadga qaradi:

— Xotirjam bo‘ling,— dedi u.— Bitta qo‘chqor so‘yganim bilan kambag‘al bo‘lib qolmaymiz. Zerobekning o‘g‘li Mustafobek bizning qo‘ylarimizni qo‘tani bilan yeb yotibdi-yu, siz bo‘lsangiz bitta qo‘y so‘ydirgani qo‘ymaysiz.

Uning g‘azabi va o‘yga cho‘mib o‘tirishining sababini tushuna boshlagan Kurd Ahmad bilan Rahim og‘o bu to‘g‘rida birorta savol berilsa, gap ikki qabila boshlig‘i o‘rtasidagi adovatni yanada keskinlashtirib yuborishini tushunib, indamadilar. Lekin keksa shoir gap kelishini kutib turgan ekan shekilli, Husaynxonga qarab gapira boshladi:

— Umidingni haq va adolatga bog‘la, xon, sabr qil, haq joyida qaror topadi,— deb Kurd Ahmadga o‘girildi u, — kurdlarning dardi ulug‘, o‘g‘lim! Kurdistonning yaralari tuzaladigan yara emas. Uning yaxlit vujudini uchga bo‘lib yuborganlar. Birini turklar ezmoqdalar, ikkinchisini — eronliklar, uchinchi qismini esa Iroq arablari. Tashqi dushmanlarimiz nihoyatda ko‘p, qabilalar orasida ham birlik yo‘q...

— Har bir qabila o‘z nonini yesa birlik bo‘ladi,— dedi Husaynxon,— o‘shanda qabilalarning so‘zi bir, ishi bir bo‘ladi. Yo‘lida uchraganni talayversalar, birlik bo‘ladimi? Bizning qabila boshliqlarimiz ichida na ong bor, na milliy g‘urur.

Kurd Ahmad bu odamning “milliy g‘urur” va “qabilalar ozodligi” tushunchalarini bir-biriga bog‘lashdagi mantiqiga ajablanmadi. Chunki bunday xon va qabila boshliqlarini u endi ko‘rayotgan yo‘q edi, ularning fikrlash usullari Kurd Ahmadga ma’lum edi. U shu toifadagi odamlar yo‘qotilmaguncha Kurd xalqining “milliy g‘ururini” saqlamoq qiyin ish ekanini bilar edi. Shuning uchun u o‘zini vazmin tutib Husaynxonning gapiga quloq soldi.

Husaynxon shoirning soqoliga qo‘l cho‘zdi:

— Sharofatimiz haqqi ont ichamanki,— dedi u,— mana shu oppoq soqolni hurmat qildim. Shoirning so‘zini sirga tashlayolma-

dim. Bo'lmasa Mustafobekka ko'rsatib qo'yardim! Unga shunday deb ayt! O'n kun muhlat beraman, shu o'n kun ichida cho'pon bilan qo'ylarni qaytarib bersin. Bermasa o'zidan ko'rsin. Qon tizzaga chiqadi!

O'rtaga kabob kelishi bilan suhbat kesildi. Husaynxon issiq kaboblarni mehmonlar oldiga surdi.

— Olinglar, kabob issig'ida yaxshi bo'ladi.

Ular hali bir sixdan ham kabob yeyishmagan ediki, Husaynxon gapni yana Mustafobek ustiga burdi:

— U kurd xalqining dushmani, uning otasi ham xuddi o'ziga o'xshash edi. Uni tanisangiz kerak, a?

Kurd Ahmad uning nimaga ishora qilayotganini, ya'ni o'ziga ittifoqchi axtarayotganini payqadi.

— Otalarning adovati bolalarga meros qolmasligi kerak,— deb javob berdi u.

Husaynxon bir haqoratli so'z aytmoqchi bo'ldi-yu, lekin o'zini tutdi. U g'azabini ichiga yutganini sezgan Kurd Ahmad dasturxonning tezroq yig'ishtirilishini istab, xayolchanlik bilan uzoqlarga ko'z tikdi. Tong quyoshining shu'lalari aks etgan Urmiya ko'li ko'zni qamashtirarli darajada yarqillab ko'rinardi. Ko'l atrofdagi bug'doy va sabzavotdan mo'l hosil yetishtirib beradigan yerlarga sof havo va salqinlik berardi. Vatanining bu aziz manzaralari Kurd Ahmadning xayolida bolalik va yoshlik chog'larini jonlantirdi.

U Husaynxonning patriarxal tabiatini ifodalovchi so'zlarini eshitmaslik uchun mamnuniyat bilan xotiralarga berildi. Lekin o'zini haqoratlangan deb hisoblagan va hamon ko'nglini bo'shata olmagan Husaynxon yana bunga to'sqinlik qildi:

— Xayr, mayli, Mustafobek, bir qo'yim o'rniga o'nta qo'yingni tortib olmasam, onamning bergan oq suti harom bo'lsin!

Shoir Hajir ham bu so'zlardan charchadi, shekilli, dasturxondan nariroq surildi, tamburini qo'liga oldi na tizzasi ustiga qo'yib, hazin bir kuyni chala boshladi. Tamburning simlaridan chiqqan tovushlar dara va tog'larga yoyilar, quyoshning iliq shu'lalariga qorishib ketar, Urmiya ko'lining jimjit oynasida aks sado berib, go'yo g'amgin bir doston kuylayotgandek bo'lardi. Shoir qabilalar

orasidagi qonli qirg'inda eri va o'g'li o'ldirilib yolg'iz o'zi qolgan bir xotinning g'amgin turmushi to'g'risidagi qo'shiqni kuylar edi. U qo'shiq aytar ekan xotinlar, bolalar va Husaynxonning har bir buyrug'ini o'rniga yetkazish uchun tayyor turgan dehqonlar chodir atrofiga to'plana boshladilar. Shoirni tinglashar ekan, odamlarning peshonasi va chehralaridagi doimiy itoat belgisi bo'lgan ajinlar yumshagandek tuyular edi. Ular qo'shiqqa borgan sari diqqat bilan quloq solishardi. Shu payt Kurd Ahmad yonida o'tirgan Rahim og'oning sekin turib bir yoqqa ketgani, birozdan keyin esa Husaynxon odamlaridan ham ikki kishi o'sha tarafga ketganini ko'rdi. Hajir hasrat to'la g'amgin qo'shiqlaridan sekin-asta shodlikni kuylagan qo'shiqlarga o'ta bordi. U kurdlarning mard va qo'rqmasligi to'g'risida kuylab bo'lib, o'zining rahmsiz va adovatli xoniga qarshi ko'tarilgan va uni o'ldirgan bir qabila to'g'risidagi qo'shiqni kuylay boshladi. Bu qo'shiq marshni eslatuvchi bir kuy bilan almashindi. Bu qo'shiqning har to'rtinchi misrasida: "Mahv bo'lsin zolim og'o!" degan naqarot takrorlanar edi, buni butun atrofdagilar qo'shilishib takrorlashlari kerak edi. Bu, qo'shiqning hammani qalqitib yuboradigan eng oson va kuchli joyi edi... U qo'shiq shu yerga kelganda Husaynxon o'rnidan turdi:

— Bo'ldi endi! Kun isib ketmasdan yo'lga tushaylik! — dedi u.

Dara tarafdan boyagidek sekingina, hech kimga bildirmay qaytib kelgan Rahim og'o xonning bu qilig'idan achchiqlandi. Lekin hech narsa demadi.

Kuyning yarim yerida to'xtatilganidan norozi bo'lgan odamlar afsuslanib tarqalishdilar. Dasturxonni tez yig'ishtirib olishdi. Chodirni ham taxlab bog'lashdi. Bog'langan yuklar va xurjunlar otlarning ustiga yuklana boshladi.

Keksa shoir tamburni g'ilofiga soldi-da, qo'ltiqlab indamay oti oldiga keldi. Otni yetaklab sekin-asta yuqoriga chiqib ketdi.

— Shoir xafa bo'ldi! — deyishdi odamlar afsuslanib.

Hamma shoir ketgan tomonga qaradi. Bir necha kishi uzr so'rash va uning ko'nglini ko'tarish uchun o'sha tarafga yurgan edi, Husaynxonning darg'azab bo'lib baqirishi ularni to'xtatdi:

— Bekor o'tkazadigan vaqtim yo'q! Tezroq qimirlanglar!

Kurd Ahmad bilan Rahim og'o Husaynxon bilan sovuqqina xayrlashib, otlariga mindilar.

— Yaxshiki, Husaynxonning maqsadiga darhol tushundingiz, — dedi Rahim og'o yo'lda,— men uning til uchida aytgan so'zlari sizni chalg'itib qo'ymasa edi, deb qo'rqqan edim. Hozir bizning barcha qabila boshliqlarimiz, savodlilardan tortib savodsizlargacha, kurd xalqining "milliy istiqloli" to'g'risida jar soladigan bo'lib qolganlar.

— Aslida ular faqat bir narsaning — qabilalar ustidan hukmronlikni saqlab qolish dardidalar.

— Lekin xalq endi buni tushuna boshladi. Birinchi kitobni Mehoboddagi qabilalardan bo'lgan beshta o'rtog'imga o'qib berganimda qanchalik ta'sir qilganini bir ko'rsangiz edi. Hozir u yerda yaxshigina tashkilotimiz bor.

O'zi to'g'risida so'zlashni yoqtirmaydigan Rahim og'o bu so'zlar maqtanchoqlik bo'lmadimi ekan, degandek qilib jim bo'ldi. Birozdan so'ng qo'shib qo'ydi:

— Ular "Kurd xalqining mustaqillik shartlari" degan kitobcha yozmoqchi bo'lib yurishibdi. Ular o'z kitobchalarini faqat shu yerdagina emas, Turkiya va Iroq Kurdistoniga ham o'tkazib tarqatmoqchilar. Bu kurashda biz butun Kurdlarni birlashtirishimiz kerak. Yagona va ozod Kurdiston, bizning idealimiz ana shunday.

Uning so'zlarini tinglar ekan, Kurd Ahmad bu tabiiy va oddiy orzuni amalga oshirishga qanchadan qancha katta to'siqlar borligini o'ylab ketdi. Mamlakat ichida Husaynxonlar, eski chirik feodal munosabatlar, tashqarida ingliz imperializmi, eron, turk va iroq shovinistlari!.. Uch qismga ajratib yuborilgan sakkiz millionli xalqni bu talanchilarning qo'lidan qutqarib olib, birlashtirish oson ish emas edi. U o'zining shu fikrlarini Rahim og'oga aytdi:

— Tarix bizning oldimizga juda mushkul masalani qo'ydi. Biz bu masalani kurd xalqining hayoti va kelajagi uchun hal qilishimiz kerak. Lekin buning uchun avval kurdlarning ichida ahillik yaratish kerak. To qabilalar orasidagi hozirgi munosabatlar yo'qotilmaguncha, ichki birlik yaratilmaguncha, bunga erishib bo'lmaydi. Bu ishda ozarbayjon va fors mehnatkashlari bizning ittifoqchimiz va do'stlarimizdir.

U Rahim og‘oga hokim doiralarning bu millatlar orasiga sepgan adovat va dushmanlik urug‘ining zararidan gapirib ketdi. Rim imperiyasi davridan boshlab to shu paytgacha mustamlakachilarning shiori: “Parchala va hukmronlik qil” degan shior ekanini eslatdi.

— Bo‘lmasa,— dedi u, — qirq yetti million aholisi bo‘lgan Angliya, yarim milliard aholisi bo‘lgan mustamlakalarga xo‘jayinlik qilolmagan bo‘lardi.

Bu raqamni birinchi marta eshitgan Rahim og‘o hayron qoldi.

Kurd Ahmad unga hozirgi zamon urushlarining sabablaridan biri ham shu mustamlakalar masalasi ekani, shu boradagi Angliya bilan Germaniya, Yaponiya bilan Amerika o‘rtasidagi qadimiy nizolarni gapirib berdi.

— Eron hozirgi zamon tarixining harakat yo‘lida joylashgan. Bu yerda yashaydigan xalqlar dunyodagi katta hodisalarga beparvo qaray olmaydilar. Ikki lager o‘rtasidagi kurash o‘ti tezda bu yerlarga ham yetib keladi. Bizning burchimiz xalqni shunga tayyorlash, u qaysi lager tarafda bo‘lishini tushunib olsin.

— Bizning qaysi lagerda bo‘lishimiz ma’lum, — dedi Rahim og‘o,— qo‘llarimizdagi qullik zanjirlarini parchalashni istaymiz, yangi zanjirlarga sira ham toqatimiz yo‘q!..

Ular dovonning eng tepasiga chiqqanlarida keksa shoirni ko‘rib qolishdi, u so‘qmoq yo‘ldan otini sekin haydab kelayotgan edi. U otni tezlatib bularga yetib oldi.

— Buyuk shoir,— dedi unga murojaat qilib Rahim og‘o,— yuring, bizga mehmon bo‘ling! Qo‘shiqlarning chalasini o‘sha yerda eshitamiz.

Shoir unga qarab, chuqur xo‘rsindi:

— Ehh, o‘g‘lim, mening chala qolgan qo‘shig‘imni aytib tugatish oson,— dedi u.—Xo‘sh, xalqning chala qolgan kunini kim chaladi? Mening dardim kichkina dard. Yoshim yetmishga kirdi, butun Kurdistonni boshdan-oyoq kezib chiqqanman. Bunday Husaynxonlar qo‘shig‘imni juda ko‘p bo‘lganlar. Men qo‘shiqlarimni bir yerda boshlab, boshqa bir yerda tugatgan vaqtlarim ko‘p bo‘lgan. Lekin meni kuydirib yuborgan bu emas, xalqimning g‘amidir.

Keksa shoirning g'amidan juda ta'sirlangan Kurd Ahmad unga tasalli berdi:

— Ko'p xafa bo'lma, bobo,— dedi u,— bu darding ham tuzalib ketadi. Ozod Kurdiston sening qo'shiqlaringni eshitayotganda hech qanday odam jur'at etib uni to'xtatolmaydi!..

Kurd Aqmad Xoy sharqida Rahim og'o va keksa shoir bilan xayrlashdi. Mashinaga tushib, Tabrizga jo'nadi. O'sha kunning o'zida Tabrizga yetib keldi. Shahar unga zo'r ta'sir qildi. Rizo shohning hukmronlik yillaridagi talanchilik siyosati natijasida xarobazorga aylantirilgan, jimjit bo'lib qolgan Ozarbayjonning bu qadimiy shahri hayajon ichida yashar edi. Uning kechagi turg'unlik va ojizligidan asar ham qolmagan edi. Kechagina abadiy jim va tobi bo'lib, umrining oxirgi kunlarini kechirayotgandek tuyulgan bu qahramon, go'zal shahar bugun aqlga sig'mas darajadagi energiya manbai kabi qaynar edi. Uning hech vaqt tuzatib bo'lmaydigandek tuyulgan loy va iflos ko'chalaridan yangi va sof shabada esa boshlagandek, chuqur afsus va g'am bilan tantanali o'tmishi tarixidan darak berib turadigan Ark qal'asi bilan Go'y masjidining devorlari yangicha ruh bilan qad ko'targanga o'xshardi. Ko'chalardan esgan bu shabada, go'yo yillar mobaynida havosi yangilanmagan chorrahalar, hovlilar, xarobalarni aylanib o'tib odamlarni yangidan kurash va hayotga chaqirayotgandek edi.

Eronliklarning quyosh hisobi bilan, bir ming uch yuz yigirmanchi yil, shahrivar oyining uchinchi kunida, ya'ni bir ming to'qqiz yuz qirq birinchi yilning beshinchi avgustida Eron hukumatiga Sovet hukumati bilan Angliya hukumati nota topshirdilar. Sovet notasida Rizo shoh hukumatining Eronni nemislar uchun harbiy tayyorgarlik maydoniga aylantirgani, butun mamlakat nemis josuslari bilan to'ldirib yuborilgani va Sovet chegaralari uchun xavf tug'dirganini eslatib o'tdilar, sotsializm mamlakatining xavfsizligini saqlash maqsadida sovet qo'shinlarining Eron tuprog'iga kiritilishi to'g'risida gapirilar edi.

Rizo shoh o'z sarbozlariga qarshilik ko'rsatish to'g'risida buyruq berdi. Bu yillar bo'yi davom etib kelgan mustabid va beaqllik siyosati yaratgan fojialarning so'nggi o'yini edi.

Ehtiyoj va huquqsizlik zulmi ostida ezilgan yuz minglarcha odamlar bitmas-tuganmas bir umid bilan Shimolga qarashar, Araksning bu tarafida, chegaraning buyog'ida gumburlayotgan va soat sayin Tabrizga yaqinlashib kelayotgan to'p va miltiq sadolariga quloq solishar, qizil yulduzli samolyotlar tashlagan varaqalarni hayajon bilan o'qishar va ularni kutib olishga tayyorlanishar edi. Fabrika va zavodlarning ishchilari, ko'chalarni to'ldirib yuborgan ochlar, kambag'allar, ozodlik va madaniyat to'g'risidagi fikrlar bilan yashagan intelligentlar to'p-to'p bo'lishib maslahatlashishar va harakat qilishga tayyorlanishar edi. Esini yo'qotgan holda ko'chalarda zir yugurgan politsiyachilar, jandarmlar endi ularni qo'rqita olmas edi. Shaharda betartiblik hukm surmoqda edi. Nemislar fabrikalarini, aptekalarini va magazinlarini tashlab qochmoqda edilar. Hatto tikuvchiga berib qo'yilgan palto yo kastumini, xotini uchun buyurtirgan yangi tuflini borib olishga ham vaqt topolmay, shoshilinch ravishda shaharni tashlab qochmoqda edilar. Ularning ortidan savdogar va mulkdorlar, ofitserlar, amaldorlar, jandarma va politsiya boshliqlari ham shaharni tashlab keta boshladilar, Tabriz — Tehron yo'lini mashinalar, harbiy qismlar, faytonlar, aravalar to'ldirib yuborgan edi. Mashina kirasi yuz baravar oshib ketgan edi. Qochoqlarning ko'pchiligi o'zlari bilan faqat egnidagi kiyim-boshi-yu, qimmatbaho tosh yo buyumlarini, oltin yo kumushlarinigina olgan edilar. Uydagi narsalar, gilam va boshqa turli uy-ro'zg'or buyumlari shunday joy-joyida qolavergan edi. Ko'p odamlar uy-joyini shunday tashlab chiqib ketavergan, ba'zilari esa bir kun qaytib kelish umidida mol-mulkini yo xizmatkorlariga, yo tanish-bilishlariga topshirib ketgan edilar. Kurd Ahmad shahardagi bu hayajonli vaziyatni tamosha qilib, kezib yurar ekan Pahlaviy xiyobonidan chapga burilib, bozor maydoniga chiqdi. Yonidan papiros olib labiga qistirdi-da, gugurt olish uchun bir do'konga kirdi. Do'kondor rastaning orqasida o'tirib, qandaydir bir ish bilan shug'ullanmoqda edi. Xaridorni ko'rishi bilanoq shoshib qoldi, bir narsani rasta ostiga yashirib, o'rnidan turdi. Uning hovliqib qolishi Kurd Ahmadga shubhali tuyuldi.

— Rastaning ostiga nimani yashirding, mulla?— deb so'radi u.

Do'kondor battar o'zini yo'qotib qo'ydi:

— Hech narsa, shunchaki bir mol edi... Sizga nima beray?

— Menga o'sha rastaning ostidagi narsa kerak!

Do'kondor Kurd Ahmadni boshdan oyoq bir ko'zdan kechirib chiqdi, qo'rqinchli odam emas, degan xulosaga keldi, shekilli:

— Bo'lmasa ichkari kir! — deb taklif qildi.

Kurd Ahmad rastaning orqasiga o'tdi. Do'kondor engashib, rasta ostidan qizil shoyi oldi-da, ochdi. Uning o'rtasiga tikilgan o'roq va bolg'a belgisini ko'rsatib, so'radi:

— Mana, marhamat... Yoqadimi?

— Bu nima o'zi, mulla?

— Meni kalaka qilma, og'o. Nima bo'lardi, bayroq-da! Sovetlarning bayrog'i, kelishayapti-ku, axir...

— Kim kelayapti?

— Kim bo'lar edi, do'stlarimiz kelishayapti, Sovetlar kelishayapti. Xudo xohlasa, omon bo'lsam bugun-erta eshik tepasiga osaman.

Kurd Ahmad kuldi:

— Menga gugurt ber!

Xuddi shunga o'xshagan voqealarni u, ataylab kirgan boshqa do'konlarda ham ko'rdi. Lekin do'kondorlar u yer-bu yerda ko'rinib qolayotgan jandarmlardan qo'rqishar, bu ishlarini yashirincha qilishardi.

Kurd Ahmad bozorda hayajonlanayotgan olomonga duch keldi. Hamma hayajonda edi. Birov do'konini tashlab ko'chaga otilar, birov uyidan yugurib chiqar, birov esa aksincha uyga qochar edi. Havoni titratib kichkinagina bir samolyot Tabriz ustida uchib yurardi. Bozor tepasidaya ikkinchi marta aylanib o'tganda samolyot bir narsa tashladi. Qush singari oq qog'ozlar tusha boshladi. To'da-to'da bolalar, erkaklar, hattoki xotinlar ham varaqalar ustiga o'zlarini tashlar edilar. Varaqani olib, atrofga alanglashar, jandarmlar yo'q ekaniga ishongach, hayajon bilan o'qiy boshlashar edi...

Kurd Ahmad soatiga qarab, tabrizlik do'stlari bilan ko'rishish vaqti yetganini ko'rdi-da, yana shaharning yagona asfaltlangan ko'chasi Pahlaviy xiyoboniga chiqib, shahar boshqarmasi tomon-

ga yo‘naldi. Boshqarmaning orqasida bir-biriga tirab solingan, kichkina-kichkina pastak uylar va tor ko‘chalar boshlanar edi. Ozar o‘g‘li shu ko‘chadagi hovlisiga tok ekilgan, uch xonali uyni ijaraga olgan edi.

Quyosh botib, salqin va jimjit Tabriz oqshomi tushib kelmoqda edi. Kurd Ahmad juda yaxshi ko‘radigan kaptarlar tomlar ustida dasta-dasta bo‘lib u yoqdan bu yoqqa uchishardi.

Kurd Ahmad eshikni taqillatdi. Ichkaridan xotin kishining:

“Kim u?” degan tovushi eshitildi. U o‘zini tanitgan xotin ketib bir bola chiqdi-da, yana: “Kim u?” — deb so‘radi. Kurd Ahmad yana o‘zining kimligini aytdi. Shundan so‘nggina Ozar o‘g‘lining o‘zi eshik ochdi:

— Salom, o‘rtoq, xush kelibsan....

Kurd Ahmad uning qo‘lini siqdi.

— Juda ham ehtiyotkor bo‘lib ketibsizlarmi? — deb hazillashdi Kurd Ahmad.

Ozar o‘g‘li keng kafti bilan jingalak sochlarini siladi:

— Hamid Hamidiyning ishidan so‘ng shunga majbur bo‘ldik.

Ozar o‘g‘li uning qo‘lidan tutib, sekin ayvon tomonga boshladi. U Hamid Hamidiy butun oilasi bilan surgunga jo‘natilgani, uy-joyi va mol-mulki musodara qilinganini so‘zlab berdi.

— Bundan besh oy burun uning oldidan bir kishi kelgan edi. Hamidiy betob ekan.

— Hech yordam bera oldinglarmi?

— Ha, bir mayda savdogardan ikki yuz tuman berib yuborgan edik. Yana biroz sog‘-salomat bo‘lsa, ozodlik kunlarini ko‘radi.

Uyning eshigi ochilishi bilan ichkaridagi suhbat uzildi. Kurd Ahmad qizg‘in tortishuvning oxirgi so‘zlarini eshitib qoldi:

— O‘rtoqlar juda mehribonlik qilishdi deysanmi?!

— Juda... Endi muhokama qiladigan masalalar juda ko‘payib ketdi.

Ular ichkari kirishganda hamma jim bo‘lib, o‘rnidan turdi. Ozar o‘g‘li uni o‘rtoqlari bilan tanishtirdi, Kurd Ahmad hamma bilan bir-bir qo‘l siqishib ko‘rishdi.

Bu yerda u tanimagan odamlar ham, anchadan beri taniydigan odamlar ham bor edi. Bular ichida o‘qituvchilar ham, ko‘n zavodi,

gugurt fabrikasining ishchilari ham, mayda savdogar va hunarmandlar ham bor edi.

Kurd Ahmad hali hamma bilan ko'rishib bo'lganicha ham yo'q ediki, hali gapi chala qolgan, egniga eskigina kiyim kiygan, terlab ketgan past bo'ylikkina bir yigit unga murojaat qildi; u tez-tez so'zlar va harakatlari ham chaqqon edi:

— Mana og'oyi Kurd Ahmad aytsin,— dedi-da, unga o'girildi.— Men aytamanki, o'ylab-netib o'tiradigan vaqt emas, hozir qat'iy harakat qiladigan vaqt. Butun to'kilgan qonlarning intiqomini oladigan vaqt. Tehron bilan aloqani bira to'la uzib, ozod davlat yarataylik. Siz nima deysiz shunga, og'oyi Kurd Ahmad? Siz Tehrondan kelgansiz, ahvolni bizdan yaxshiroq bilasiz.

Kimdir uning so'zini bo'ldi:

— Og'o Tehrondan emas, Urmiyadan keliptilar.

— Tehrondan kelmaganlari ham yaxshi. Bo'lmasa sizning yoningizni olgan bo'lardilar,— dedi boyagi yigit.— Tehronlilarning hammasi konservator bo'lishadi.

Bunga bir necha kishi e'tiroz bildirdi:

— Nega konservator bo'lsinlar, og'ayni? Revolutsiyaning ham o'z yo'li bor. Tomdan tarasha tushganday ko'chaga bayroq ko'tarib chiqaveraylik deysan. Biz esa poytaxtdan o'rtoqlar kelishsin, vaziyatni to'g'ri hisobga olish kerak deymiz.

— Xato qilayapsizlar, og'aynilar!.. Kutib o'tiradigan vaqt o'tdi. O'rtoqlar nima deyishadi, axir! Ular nemis josuslari bilan kurash olib bormoqdalar. Ishchilar bilan dehqonlarning qo'lidan qizil bayroqni tortib oladigan kuch yo'q hozir!

— Gap bunda emas, ukam. Sen inglizlarni, amerikaliklarni unutma. Bu bechora Eronning ahvolini sen mendan kamroq bilmaysan.

— Avvalo, og'ayni, Amerika o'z Vashingtoniga jo'nasin, Angliya esa Londonga. Mening ishimga aralashmasin! Ikkinchidan, bu yer Eron emas, Ozarbayjon. Juda qulay fursat keldi: jandarmlar qochib ketishdi, politsiya qochib ketdi, arboblar qochib qolishdi. Kelinglar, o'z xalq hukumatimizni barpo qilaylik. Qazvinga qorovul posti qo'yamiz, bu yoqqa hech kimni o'tkazmaymiz. Vassalom!..

U qizg'inlik bilan gapirar, o'zining haq ekaniga sira shubha qilmas edi. Ikki ishchi bilan bir o'qituvchi uning gapini ma'qullashib turishar, uning yonini olishardi. Kurd Ahmad bu kayfiyat faqat bir odamga xos emasligini, Ozarbayjonda kelajak davlat tuzumi, ijtimoiy hayot formasi, mamlakatning siyosiy taqdiri kabi bir qator masalalarning ko'ndalang turganini yaxshi tushunar edi.

— Aziz do'stlarim,— deb gap boshladi, majlisdagilarning qizg'in boqishlari ostida ularning hal qiluvchi gap kutib turganlarini ko'rgan Kurd Ahmad hayajon bilan, albatta, ozodlik uchun kurashimizda yangi, sharafli bir davr boshlandi. Biz o'z orzu va harakatlarimizni dunyoda olib borilayotgan buyuk kurashdan ajratib olsak, xato va noto'g'ri yo'lga tushib ketamiz, doim ishimizning oxiri voy bo'lib chiqadi.

U so'zlar ekan, hamma diqqat bilan quloq solardi, kimdir:

— Shunday, shunday!— deb tasdiqlagan edi, boshqa bittasi uni jerkib tashladi:

— Gapni bo'lma, eshitaylik!

Yana tortishuv boshlanib ketishining oldini olish uchun Kurd Ahmad so'zida davom etdi:

— Siyosiy partiyalar o'z oldilariga doim hal qilish mumkin bo'lgan vazifalarni qo'yishlari kerak, zamona sharoitini nazarga olishlari kerak.

— Mana bundan ko'ra amaliy masala bo'ladimi?— deb gap qistirdi, majlisdagilardan biri.

Kurd Ahmad masalaning mohiyatiga yaqin kelganini sezdi:

— Do'stlarim,— dedi u,— hozir bizning oldimizda tashkilot yaratish vazifasi turibdi. Biz shu paytgacha besh-o'n kishi bilan yashirin ravishda ish olib bordik. Endi biz kuchli tashkilot yaratishimiz kerak. Ishchi, dehqon va ozodlik tarafdorlarining yagona, buyuk, kuchli tashkilotini yaratishimiz kerak. Hozir bizning oldimizda turgan vazifa ana shu!

— Barakalla, og'o!

— Gap degan mana bunday bo'libdi!

Bundan ruhlangan Kurd Ahmad so'zida davom etdi:

— Bu yerda kiritilgan takliflarni tashkilot muhokama qiladi, xalqqa maslahat soladi. Bu masalalarni xalq hal qiladi.

U so‘zini tugatib o‘tirgach o‘rtaga tushgan jimlik darrov buzilmadi. Ancha vaqt o‘tgandan keyingina biroz jonlanish sezildi. Ba’zilar bir-birovlari bilan shivirlasha boshladilar.

Yangi tortishuvga yo‘l qo‘ymaslik uchun Ozar o‘g‘li o‘rnidan turdi:

— Hozir mamlakatimizga ozodlik keltiruvchi buyuk Sovet Armiyasi kelmoqda. U bizni natsistlar fitnasidan mangu ozod qiladi, ingliz va amerikaliklarning nayranglariga barham beradi, bu armiyaning bayrog‘iga ozodlik degan so‘z yozilgandir. Kelinglar, uni munosib ravishda kutib olaylik. Dastlab, shaharda tartib o‘rnataylik. Jandarmlar, politsiyachilar ko‘chib kelishdi, mamlakat o‘z holiga tashlab qo‘yilgan, ming xil o‘g‘ri, tilanchi va muttahamlar vaqtdan foydalanishlari mumkin.

— Chet el radiolari esa bundan foydalanib, ming xil bo‘htonlar to‘qiydilar,— deb uning so‘zini bo‘ldi kimdir.

— Balli,— deb uning so‘zini ma’qulladi Ozar o‘g‘li.— Shuning uchun shaharda tartib o‘rnatishni senga topshiraman, Asqar,— dedi u boyagi jo‘shqin yigitchaga murojaat qilib.— Ko‘n zavodi, gugurt fabrikasi va boshqa korxonalarning ishchilaridan otrad tuzib, ishga kirish.

Bunday faxriy topshiriqdan ruhlangan Asqar o‘rnidan turib:

— Xo‘p bo‘ladi!..— dedi.

Yakdillik bilan qabul qilingan qarorlardan ruhlangan va xursand bo‘lgan holda majlis ahli tarqalishga hozirlanar ekan yana Ozar o‘g‘lining ovozi eshitildi:

— Zulmat kecha tugay deb qoldi. Eynal–Zeynal tog‘i orqasidan otib kelayotgan tong Tabrizga yorqin quyosh nurlarini olib keladi! Tadbir va aql bilan shu tongni kutib olishga tayyorlik ko‘ringlar, do‘stlarim!..

Odamlar tarqalishgach, Ozar o‘g‘li Kurd Ahmadni ovqatga taklif qildi. Dasturxonga Tabriz kakligi bilan qiyma qo‘yildi. Ovqat vaqtida Ozar o‘g‘li Kurd Ahmadga turli savollar berar, Kurdiston va Tehrondagi vaziyatni surishtirar, Faridani maqtar, Faridun to‘g‘risida gapirardi:

— Uni bir amallab qutqarish kerak,— dedi u.—Uni bu yerga, Ozarbayjonga yuboringlar! Bizga yordam bersin.

— Bizga ham odam kerak,— dedi Kurd Ahmad, so'ng biroz o'ylab olgach qo'shib qo'ydi:

—Hali omon-eson zindondan chiqsin-chi, bir gap bo'lar...

— Bilasizmi, men unga bir yaxshi xabar topib qo'yibman!

— Qanday xabar? Ehtimol oldin meni ham sevintirarsiz?

Ozar o'g'li javob berish o'rniga o'rnidan turib, xonadan chiqib ketdi. Birozdan keyin top-toza kiyingan, lekin zaif, rangi sap-sariq bir bolani yetaklab kirdi:

— Taniysizmi?

Kurd Ahmad bolaga diqqat bilan qaradi. Uning jonli va jasoratli ko'zlarini allaqayerda ko'rgandek edi. O'ylab-o'ylab, u Musa akaning katta o'g'li ekanini esladi. Ayoz esa unga e'tiborsizlik bilan qarab qo'yar edi.

— Ayoz, azizim,— deb uni quchoqladi Kurd Ahmad.

U bolaga turli savollar bera boshladi. Ayoz shoshib-pishib, ba'zan yanglishib qolib, o'z boshidan o'tganlarini so'zlab berdi.

— Sizning arbobingiz bizni shu kunga soldi,— deb tugatdi u o'z so'zini.

Kurd Ahmad uning nafrat bilan so'zlaganini sezdi. U bolaning o'ziga ham shunday nafrat bilan qarayotganidan o'ng'aysizlandi:

— Men undaylardan emasman, o'g'lim... Men ham sizlarga o'xshagan odamman.

Bola hali ham yumshamagan tovush bilan dedi:

— Mening otamni, onamni o'ldirgan o'sha. Yana Ali jandarmboshi bilan gumashta Mamad. Seni bilmayman.

Ozar o'g'li bolaning boshini silab, tasalli berdi:

— Xafa bo'lma, Ayoz. Katta yigit bo'lganingda hammasidan o'ch olasan.

— Bo'lmasamchi!— dedi u keskinlik bilan,—Men ularning uylariga o't qo'yaman.

Ozar o'g'li bolani chiqarib yuborgach, Kurd Ahmad:

— Uni qayerdan topding?— deb so'radi.

— Bundan uch kun burun Ardabilga borgan edim. U yerda ham yaxshi uyushgan tashkilot tuzganmiz. Juma masjidining hovlisida Hasanalini ko'rdim. Tilanchilik qilib yuribdi. Shunday ozib, shunday qarib qolibdiki, tanib bo'lmaydi. U yetim bolalar ichida

masjidga Ayoz ham kelib-ketib yurganini aytdi. Bolani rosa ikki kun qidirdim. Topib, bu yerga olib keldim. Juda aqlli bola.

— Uni Tehronga olib ketaman,— dedi allanarsalarni o'ylab o'tirgan Kurd Ahmad,— Faridun juda xursand bo'ladi.

Kurd Ahmad ertasiga Ozar o'g'li topib bergan mashinaga tushib, yoniga Ayozni ham olib Tehronga jo'nadi. Bola unga endi ishonchsizlik bilan qaramasdi. U bilan mehribon otasi bilan so'zlashgandek so'zlashar, savollariga hurmat bilan javob berardi. Kurd Ahmad uning boshini silar, erkalatar, bolaning Hikmat Isfahoniy bilan Ali jandarmboshilarga bo'lgan nafratiga quloq solgan holda kurashlar bilan to'la kelajakni, ertangi ozod kunning epizodlarini kuz oldiga keltirar edi.

Orqasiga qaramay janubga qochayotgan arboblar, reaksion hokim doiralar va xo'jayinlarning kulgili vaziyati uning bu fikrini mustahkamlardi. Uchinchi kuni chang va iflos holda Tehronga yetdilar. Tehron ko'chalarida ham odatdagidan ko'ra harakat kuchli edi. Odamlar bir-birlariga ma'nodor qarashardi. Hammaning ko'zida: "Endi nima bo'ladi?" degan savol ko'rinardi. Hamma ham allanarsa demoqchiday tuyulardi. Tehronda hammaning og'zida Ozarbayjon va shimoliy viloyatlar nomi edi. Kurd Ahmadga duch kelgan har bir kishi:

— Nima gap? Ozarbayjonda nima gap?— so'rar edi. Shaharda ming xil mish-mishlar yurardi: Tabrizda sovet hukumati tuzilgan emish, barcha arboblar va aristokratlarni otib tashlayotgan emish... Bu bema'ni mish-mishlarni tarqatayotganlar asosan Shimoldan qochib kelayotgan ofitserlar, arboblar, savdogarlar edi. Kurd Ahmad bu mish-mishlarga e'tibor bermay, yo'l kiyimlarini yechdi, yuvinib qaytadan kiyindi-da, Ayozni singlisiga topshirib, Rizo Qahramoniynikiga jo'nadi. Uy egasi zo'r afsus bilan Faridundan hali ham biror xabar yo'qligini aytdi. Shaharda turli xavotirli shov-shuvlar ko'payib ketganini, Rizo Qahramoniyning kunlab uyga kelmasligini so'zlab ketdi. Kurd Ahmad o'tirib, bir stakan choy ichdi va endi nima qilish to'g'risida o'ylab oldi.

U Rizo Qahramoniyni topmoqchi bo'ldi. Vaziyat va o'rtoqlar to'g'risida undan mufassal ma'lumot olish mumkin bo'lardi. Shu maqsadda depoga jo'nadi. Rizo Qahramoniy depoda ekan.

Depoda tanaffus payti edi. Ishchilar har vaqtdagi singari devor soyasiga o'tirishib ovqatlanishmoqda edi. Rizo Qahramoniy Kurd Ahmaddan uzoqdan ko'rib, uning istiqboliga chiqdi. O'zini tutolmay, mahkam quchoqlab o'pdi, keyin sekingina uning qulog'iga:

— Zap vaqtida kelding-da,— deb shivirladi.

Kurd Ahmad o'ziga qarab turgan va uzoqdan bosh egib salom berishayotgan tanish ishchilar oldiga bordi. Salomlashdi. Har biridan hol-havol so'radi. Suvi qochib qolgan nonni pishloq va piyoz bilan yeb o'tirgan bu ishchilarning ko'zlarida umid o'tlari chaqnar, o'zlari tetik ko'rinar edilar!..

Ularning savol nazari bilan:

— Qachon?— deb so'rayotgandek qarab turganliklarini ko'rib:

— Tayyormisizlar?— deb so'radi u.

— Tayyormiz! Faqat buyruq bo'lishini kutib turibmiz!— deb javob berdilar ularning hammasi bir og'izdan.

Lekin Rizo Qahramoniy suhbatni davom ettirishga qo'ymadi.

— Vaqtimiz ziq. Xo'sh, nima gaplar? Gapir,— dedi u va Kurd Ahmadni bir chetga olib chiqdi.

U Faridunning hali sog'-salomat ekanini aytdi. Buni u Shamsiya orqali sarhangning o'zidan bilibdi.

— Faridun bilan bevosita aloqa bog'lay olmadingizmi?

— Hech iloji bo'lmadi. Vaziyat og'ir. Sirtmoq hali uning bo'g'zida turibdi. Yana bir necha kun salomat saqlay olsak, o'limdan qutuladi.

Ishchilar depoga tarqala boshladilar. Ish boshlanmoqda edi. Rizo Qahramoniy ishga tushishi kerak edi.

— Kechqurun soat to'qqizda biznikida yig'ilishamiz,— dedi Kurd Ahmad Rizo Qahramoniyga.

— Sen aytgan vaqtlar o'tib ketgan. Qorong'u tushgach, ko'chaga chiqib bo'lmaydi. Hozir harbiy holat e'lon qilingan, axir.

— Bo'lmasa qachon?

— Soat yettida ishdan chiqib, to'g'ri sizlarnikiga boraman.

— Juda yaxshi, albatta bor!

Rizo Qahramoniy ikki qadam yurib, allanarsa esiga tushdi, shekilli, orqasiga qaytdi:

— Sudobalarnikiga kirib xabar ol! U yaxshi xabarlar topib qo'ygan bo'lsa ham ajab emas. Ishonchli qiz.

— Xo'p. Soat yettida kutaman, esingdan chiqmasin.

Kurd Ahmad Sudoba bilan uchrashishdan oldin Aramni bir ko'rib chiqmoqchi bo'ldi. U yashirinib yotgan uy ham yo'li ustida edi. O'zi ham sezmagan holda tez-tez ketardi. Zamonaning bunday sur'at bilan o'zgarishidan qalbida bir hayajon, g'alati hislar tug'ilgan edi. Go'yo tog'larning tepasidagi bir ko'lning suvi o'ziga yo'l ochib pastga tushib kela boshlagan edi. U suv tog'dan tushib kelar ekan, o'z yo'lidagi tosh-u qumni surib kelmoqda edi. Zamona ham ana shunday tez o'zgarib, o'zi bilan ming xil hodisalarni boshlab kelmoqda edi. U bilan baravar oyoq tashlab borish, uning jilovini qo'lga olish kerak. Chunki kelajak, zamona bilan baravar qadam tashlab bora olgan kishiniki edi!..

* * *

Kechqurun, salqin tushganda Sudoba o'zining kichkinagina gulzoridagi gullarga suv sepib bo'lib, hovuzning tosh qirg'og'ida o'tirar edi. Onasining o'limi, Faridunning qamalishidan so'ng u mana shu yerda o'tirib, ming xil xayollarga g'arq bo'lishga odatlangan edi. Ayniqsa qosh qorayib, ufqlar birlashib ketgan vaqtlarda u uyda o'tirolmas, yuragi siqilardi. Shunday paytlarda uning ko'zi oldida Faridun jonlanar, hatto uning tovushini ham eshitgandek bo'lar edi. U Faridunni sevardi. Faridunning ko'nglini, uning orzularini bilmasa ham, yigitni butun qalbidan chuqur sevardi. Uning har bir harakati, aytgan har bir so'zi uning xayolida afsonaviy bir olam yaratardi. Faridun uni hech vaqt sevmasa ham, u Faridunni umrining oxiriga qadar sevgan bo'lardi. Faridun tanlagan yo'l esa, unga otasi tanlagan yo'lni eslatardi. Shuning uchun endi, ham otasi, ham sevgilisi tanlagan yo'l uning ham yo'li bo'lib qolgan edi. Ozodlik!.. U bu so'z ko'z oldida xilma-xil pardalarga o'ralgan go'zal bir olam, ishq xayollari singari jozibador hayot ochardi. Bu yo'lda o'limga borish ham go'zal edi!..

Shunday fikrlar bilan tanishgan chog'ini u umrining eng baxtli kundari deb hisoblar edi. Nazarida, u faqat shu fikrlar qalbiga yo'I ochgan kundan boshlab, Faridun, Kurd Ahmad, Karimxon

Ozodiy, Rizo Qahramoniy va boshqalar bilan tanishgan kundan boshlab hayoti bir ma'no kasb etgan edi. U kungacha Sudoba nima uchun yashaganini ham, nima uchun dunyoga kelganini ham bilmas edi. Faqat o'shandan keyingina Sudoba o'zining, o'z hayotining ma'no va ahamiyatini anglay boshlagan, o'z borligida bir go'zallik ko'rgan edi. Endi unga Hakim ul-mulklar, sarhang Safoiylar, Hikmat Isfahoniylarning hayoti bo'sh, bema'ni hayot bo'lib tuyulardi. Ularning yashashdan maqsadi nima?.. Ular faqat razolat yaratishar, kecha-kunduz bir-birlarini qanday qilib chalib ag'darish to'g'risida o'ylashar, hayotni turli ifloslikiar va sharmandaliklar bilan to'ldirishar edi! Ularning ideallari nima edi? Pul, pul, yana pul!..

Ular sof inson tabassumida qanday buyuk ma'nolar bo'lishini, asl inson hayotida qanday go'zalliklar bo'lishini tushunishdan ojiz edilar. Haqiqat ularning tarozusida pul bilan o'lchanar edi. Qanchalik soxtalik bilan yashasalar, pulni shuncha ko'p topar edilar. Bu barcha insofsizliklarga qarshi hayot-mamot kurashi boshlagan odamlarning safida bo'lish, o'zini ana shunday buyuk ish bilan yashayotganini his qilish qanday katta baxt!.. Qiz ana shunday shirin xayollarga berilib, dardini yengillashtirar, qalbini kuch va qudrat bilan to'ldirardi. Birdan eshik asta taqilladi. "Faridun bo'lsa-ya!" deb o'ylagan Sudoba sakrab turib, eshikka yugurdi. Lekin Faridun hech vaqt eshikni bunday taqillatmasligini bilar edi, shunday bo'lsa ham eshik har safar taqillaganda u Faridun kelmadimikan deb o'ylar edi. Eshikni ochdi. Hakim ul-mulk bilan mister Tomas kirishdi. Hakim ul-mulk yashirincha bir havas va ehtiros yongan ko'zlari bilan Sudobaga tikildi. Bu o'g'rincha qarashda yosh qizning payiga tushgan qari erkakning ochko'zligi bor edi. Sudoba esa har vaqtdagi singari teskari qarab eshikni yopdi. Hakim ul-mulk bilan mister Tomas kichkina mehmonxonaga kirib ketishdi. Urush boshlangandan beri Hakim ul-mulk har ikki-uch kunda turli-turli odamlar bilan shu yerda uchrashib turardi. Sudoba mehmonxona eshigini yopib, choy hozirlash uchun koridorga, undan oshxonaga o'tib, kichkina oq kumush samovarga olov tashladi. Keyin o'z xonasiga kirib, Nizomiyning "Xamsa"sini varaqlay boshladi. Bu uning eng sevimli kitobi edi. Unga ayniqsa

"Iskandarnoma" dostonidagi qadim ozarbayjon malikasi No'shoba to'g'risidagi hikoya yoqar edi... U quyidagi baytlarni takrorlay boshladi:

Eshitdim ko'p shodmish bir muqassir[1].
Dorga osilarkan bo'ynida zanjir.
Do'stlaridan biri berdi bir savol:
"Oz qolmoqda umring, xo'sh, bu na hol?"
Dedi: "So'nggi damdir, umrim qoldi oz,
Oz umrni g'am bilan o'tkazib bo'lmas!"

Shu she'rlar uning g'am-g'ussasini biroz yengillatar, insonni yashashga va kurashga chaqirar edi.

Sudoba kitobni muhabbat bilan varaqlar ekan, mehmonlar esiga tushdi. Kitobni yopib, tashhari chiqdi. Samovar qaynagan edi. Qaynagan suv bilan choynakni chayib tozaladi, choy damladi. Stakanlarni yuvib artdi, choy quyib, kichkinagina patnis ustiga qo'ydi. Patnisga qanddonni ham qo'ydi-da, ko'tarib mehmonxonaga olib ketdi.

Mister Tomas o'z odaticha nihoyatda xotirjam edi. Go'yo butun dunyoni, xususan Tehronni ostin-ustin qilib yuborgan urush ham uning tinchligini buzolmagandek edi. Sudoba uning oldiga choy qo'yganda:

— O, mersi, ledi,— deb kulimsiradi u.

O'zi ichkari kirganda ular birdan jim bo'lib qolishganini sezib, Sudoba taajjubda qoldi, shuning uchun mister Tomasning quruqqina qilib tashakkur bildirganiga ahamiyat bermadi. Lekin u qaytib koridorga chiqar ekan, yana mister Tomasning ovozini eshitdi va eshik oldida to'xtab, quloq sola boshladi.

Ichkarida allaqanday juda muhim masala ustida suhbat borar edi. Sudoba mamlakatning butun hayot-mamoti va siyosatini o'z qo'lida ushlagan bu odamlarning og'zidan zora Faridun to'g'risida biror narsa eshitsam deb o'ylar edi.

— Dinastiyaning o'zgartirlashi mamlakatda katta tartibsizliklar yaratishi mumkin,— der edi mister Tomas.— Unda shimoldan kelayotgan bo'rondan butun ijtimoiy hayot daryosi

[1] **Muqassir** — aybdor.

qaynab tosha boshlaydi. Toj-taxt uchun kurash boshlanadi. Bu kurashga shubhasiz xalq ham qo'shiladi. Xalq esa — bir sel, bir oqimdek gap... Unga yo'l ochib qo'yish oson, bir toshib bersa, keyin eplab, to'xtatib olish qiyin. Qo'rqamanki, bu sel bir toshib bersa, faqat Pahlaviy dinastiyasinigina emas, boshqa ko'pgina narsalarni ham yuvib ketadi. Mening fikrimga tushungandirsiz?

— Pahlaviy nomini eshitganda xalq unga la'nat o'qiydi,— dedi Hakim ul-mulk norozilik bilan.— Yangi dinastiya taxtga chiqishi bilan bu nafratning oldini olish mumkin bo'lardi.

— Hozirgi sharoitda bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bunday bir ish o't ustiga yog' quygandek gap. Hozir shunga harakat qilish kerakki, shohlarning ta'sir va hurmati ortsin. Tojdor, hatto u yog'ochdan yasalgan but singari bo'lsa ham, mamlakat unga xudoga sig'ingandek bo'ysunishi kerak!.. Aks holda, Eronni kommunizm balosidan saqlab qololmaysiz!.. Shuning uchun dinastiyani o'zgartirish to'g'risidagi gaplarni bir chetga yig'ishtirib qo'yaturing. Biz sizning faqat yangi davlat boshida turishingizga yordam berishga va'da qila olamiz.

Ular sukut ichida choylarini ichdilar. Sudoba bo'shagan stakanlar tovushini eshitdi-da, yana choy olib kelish uchun ichkari kirdi. Yer ostidan ularga qaradi. Mister Tomas trubkasini so'rib, og'zidan pag'a-pag'a tutun chiqarardi. Hakim ul-mulk boshini quyi solib, tez-tez tasbih o'girardi. Sudobaning nazarida, uning qarshisida Karimxonning qotillari, Faridunni zindonga tashlagan zolimlar o'tirgandek tuyuldi. G'azabdan qo'llari titragan holda stakanlarni zo'rg'a patnisga qo'ydi-da, xonadan chiqa boshladi.

— Mersi, xonim, men boshqa choy ichmayman,— dedi mister Tomas. Hakim ul-mulk unga qaradi:

— Yana bir stakan iching, mister Tomas,— dedi u,— Sudobaning choyi juda xushbo'y bo'libdi.

— O'-o'-o', xo'p muattar choy bo'libdi,— deb tirjaydi mister Tomas, o'zining sovuq tabassumi bilan, keyin qizga qarab qo'ydi.

Hakim ul-mulkning ham qizg'anch va hirs bilan o'ziga qarab turganini payqagan Sudoba indamay chiqib ketdi.

Ikkinchi marta ularning oldiga choy olib kirganda, mister Tomas to'xtamay, gapini davom ettiraverdi.

— Shu vaqtga qadar bolshevizm bilan sizning o'rtangizda temir to'siq bor edi. Endi bu to'siq quladi. Hozir hammamiz ham Eronni to'ldirib yuborgan bu baloga qarshi kurash yo'llari to'g'risida o'ylashimiz kerak. Agar biz sovetlar bilan nemislar bir-birini holdan toydirguncha Eronda tartib saqlab tura olsak marra bizniki.

Sudoba Hakim ul-mulkning javobini kutib o'tirmay, choylarni stol ustiga qo'yib chiqdi-da, o'z xonasiga kirdi. Yana "Xamsa"ni ochdi. No'shobaning ahvoli tasvirlangan joyning davomini o'qidi. Unda harakat qilish va faoliyat boshlash orzularini yaratgan baytlarni, qayta-qayta o'qidi:

Yaxshi-yomonni tanir xayolim,
Barkamol bo'lgandir shuur, xayolim.
Bekorga o'tmaydi kecha-kunduzim,
O'zimla o'ynagan emasman o'zim...

"Oh, buyuk Nizomiy, Ozarbayjonni xarob qildilar! Yurtingda boyqushlar sayrab, qotillar hukm surmoqdalar!" deb o'yladi qiz beixtiyor.

Stakanlarni yig'ishtirib olish uchun kelganda qulog'iga Faridunning nomi eshitildi. Yuragi gup-gup urgan holda quloq soldi.

— Bilmadim, sarhang Safoiy nima uchun bu ishni cho'zib yubordi ekan?— der edi Hakim ul-mulk.

— Ikkalasi ham xavfli odam,— deb javob berdi mister Tomas.— Sartib Salimiy ham, o'sha yaramas Faridun ham. Vaqt g'animatda ikkalasining ham ovozini o'chirish kerak. Bo'lmasa, ular keyinchalik bizni ko'p ovora qiladilar.

Sudoba ichkari kirmadi.

Butun borlig'ing bir narsa band qilgan edi: darhol Faridunning o'rtoqlariga xabar berish kerak. Ehtimol, uni qutqarib olishning ilojini topish mumkin bo'lar...

* * *

Kurd Ahmad Aramni uydan topolmay hayron bo'ldi.

— Har qancha urinsam ham ko'ndirolmadim,— dedi Anush xola.— Kiyinib chiqib ketdi. Qayerga ketganini ham aytmadi.

O‘zi ham xavotir bo‘la boshlaganiga qaramay, Kurd Ahmad unga tasalli berdi:

— Hech narsa qilmaydi, qo‘rqmang! Qaytib kelganda ayting, meni kutnb tursin,— deb ko‘chaga chiqdi-da, Sudobalarnikiga jo‘nadi..

Yo‘lda kutmaganda, uning yonida bir mashina to‘xtadi, undan Shamsiya boshini chiqardi. Shamsiyaning kayfi buzuq edi. Shamsiya Kurd Ahmadni mashinaga o‘tqazib uyga olib ketdi.

Qizdan Hikmat Isfahoniyning hali ham qamoqda ekanini eshitib Kurd Ahmad hayron bo‘ldi:

— Hech narsaga tushunolmay qoldim! Dunyo teskarisiga yurayaptimi o‘zi?

—Buning hammasi toj-taxtingdan ajragur shohning ishi!— dedi qiz.— Xudo naslini quritsin. Mamlakatda bitta ham baxtli odam qolmadi! Ular kuydirmagan uy qolmadi. Axir, bir kun bu zulmlar yig‘ilib, uning kulini ko‘kka sovurishi kerak. Sovuradi ham. Aytishlaricha, shoh buni sezibdi shekilli, pullarini ingliz banklariga o‘tkazib qo‘yibdi. O‘zi ham qochishga tayyorlanayotgan emish. Oh uning o‘ligini ko‘chalarda sudrab yurishganini bir ko‘rsam edim!

Shamsiya uzoq gapirdi, shikoyat qildi, Pahlaviyni qarg‘adi. So‘ng uy va idora ishlaridan Kurd Ahmadga ma’lumot berdi.

Shunday qilib, Kurd Ahmad Sudobaning oldiga kirib chiqishga vaqt topolmadi. Soat beshda chiqib, Aramlarnikiga ketdi. Aram uni kutib o‘tirgan edi. Ikki do‘st quchoqlashib ko‘rishdilar.

— Ehtiyotsizlik qilib yuribsan, Aram,— deb koyidi uni Kurd Ahmad.— Yolg‘iz o‘zing shaharga chiqibsan. Qo‘lga tushib qolgudek bo‘lsang, xabarsiz ham qolaveramiz.

Oylar bo‘yi qorong‘i yerto‘lada, to‘rt devor orasida o‘tirib, siqilib ketgan Aram shikoyat qildi:

— Chiday olmadim. Bir chiqib shaharni kezib keldim. Bilasanmi, hech pushaymon qilmayman bunga. Kishilarning chehralaridan ko‘pdan beri kutayotgan yorug‘ kunimizning yaqinlashib qolgani sezilib turibdi! Zindonlarning qulashidan, zanjirlarning uzilishidan xabar beruvchi bu tuyg‘u naqadar go‘zal!

— Bu hali istibdodning dahshatli markazida! Vahshiy yirtqich istiqomat qilgan g‘orda! Odamlar hali uning zaharli tishlarini

ko‘rib turibdilar. Shuning uchun hali o‘z nafratlarini yashirishga tirishmoqdalar. Kurdistonda, Ozarbayjonda nimalar bo‘layotganini ko‘z oldingga keltira olasanmi?.. Hozir u yerlarda ozodlikning ilk shabadalari esmoqda. Tur, kiyin, qora ko‘zoynak ham taqib ol! Biznikiga boramiz, Rizo Qahramoniy ham keladi.

Ochiq havoga chiqish va ish boshlash to‘g‘risidagi taklifni eshitgan Aram yosh boladek quvonib ketdi. Tez otlandi, keng soyabonli shlapasini kiyib, qora ko‘zoynak taqib oldi. Qo‘liga bitta hassa olib, xona ichida u yoq bu yoqqa yurib ko‘rsatdi va Kurd Ahmadning oldiga kelib to‘xtadi:

— Xo‘sh, qalay?

— Qiyomat! Hech kim seni taniyolmaydi.

Ikkalasi indashmay ko‘chaga chiqishdi. Shaharga qorong‘u tusha boshlagan edi. Do‘kondorlar birin-ketin do‘konlarini berkitmoqda edilar. O‘tkinchilar siyraklashmoqda edi. Shaharda qurolli patrullar markaziy davlatning hali ham mavjud ekanidan darak berib turar edilar.

Shu kunlarda ko‘chalarda bo‘layotgan qizg‘in va hayajonli gap-so‘zlar hali ham pasaymagan, aksincha, kuchaygan edi. Kurd Ahmad bilan Aramning diqqatini o‘rta yashar, yuzlari soqol bosgan ikki kishining suhbati jalb qildi. Ulardan biri ariqning bir tomonida, ikkinchisi boshqa tomonida turishar edi. Bu ko‘chada tasodifan uchrashib qolgan, ikkalasi ikki tomonga ketayotgan odamlar edi. Ikkalasi ham qattiq-qattiq va hayajon bilan so‘zlashar edi.

Tilidan bularning biri kirmanshohli, ikkinchisi tabrizli ekanligi sezilib turardi:

— Biz ertaga jo‘nayapmiz, og‘ayni. Yuklarimizni tayyorlab ham qo‘ydik.

— Qayerga? Londongami?

— Yo‘q, hozircha Isfahonga. Keyin yana ko‘ramiz...

— Demak, qochib ketayapsizlar?...

— Bo‘lmasa iloji yo‘q-da! Hali eshitganing yo‘qmi? Bolsheviklar Qazvinni egallashibdi. Hozir ular Karajning ostonasida turgan emishlar! Sen qolasanmi?

— Voy, ahmog‘-ey! Men nega qochar ekanman? Og‘o butun mol-mulkini menga tashlab ketayapti-yu.

— Men esa sen ham Londonga otlanibsanmi debman.

— Menga tegishma, hay tabrizlik. Xayr!

Ular ajralishib, har biri o'z yo'liga ketdi.

Kurd Ahmad bilan Aram bir-biriga qarab, jilmayishdi.

Shu payt "Navbahor" kafesidan ikki kishi chiqib, eshik oldida xayrlashdilar. Ulardan biri yoniga tez burilar ekan, Aram bilan yuzma-yuz to'qnashdi. Aram chetga surilib, unga yo'l berdi. Ularning ko'zlari bir-birining betiga bir lahzagina tushdi.

— Mersi!— deb qo'ydi Aram.

U turgan joyida qotib qoldi. Kurd Ahmaduning paxtadek oqarib ketganini ko'rdi:

— Senga nima bo'ldi, Aram?

Aram uzoqlashib ketayotgan boyagi odamning orqasidan qarab turar edi. Uning og'zidan faqat:

— Husayn Mahbusiy!— degan so'zgina chiqdi.

Ikkalasi ham tez uzoqlashib ketayotgan odamning ketidan yurdilar. U yaxshi kiyingan, shlapasini boshiga oliftalik bilan qiyshiq qo'ndirgan edi.

Aram katta-katta qadam tashlab, uni quvib yetdi va qo'ltig'idan oldi:

— Salom, og'oyi Mahbusiy!

Mahbusiy unga hayron bo'lib qaradi, lekin tanimadi. Shundan so'ng Aram qora ko'zoynagini olib, unga ikkinchi marta salom berdi.

— Og'oyi Aram Simonyan?!

U darrov o'zini bosib ololmadi, nima qilishini bilmay qoldi. Uning yuzida hayronlik va allaqanday yashirin bir sevinch hislari aks etar edi.

— Sizni juda ko'pdan beri axtaraman,— deya oldi u nihoyat, xushomadgo'ylik bilan.

— Lekin, har holda, men sizni oldinroq topdim. Bilasizmi, sizni nimadan tanidim? Ko'zingizdan.

Mahbusiy xaxolab kuldi:

— Aytgan gapingiz to'g'ri chiqdi. Buncha shoshib qayerga ketayapsiz? Yuring, biznikiga kirib ketarsiz,— deb taklif qildi muloyimlik bilan.

— Yo‘q, yaxshisi, men sizni do‘stimiz Kurd Ahmad bilan tanishtirib qo‘yaman. Mana u. Bugun tashkilotimizning yig‘ilishi bor. Axir, hozir mas’uliyatli kunlar-ku.

— Xo‘p, ketdik,— deb javob berdi Mahbusiy biroz o‘ylab olgach.

Ular fayton yo‘lladilar. Uchchalasi ham jim o‘tirishar edi. Kurd Ahmad ko‘zini Mahbusiydan uzmas edi.

“Birdan fikridan qaytib qolib, janjal boshlasa-ya!” deb o‘ylar edi u hayajon bilan.

Aram ham o‘zining g‘azabli ko‘zlarini ko‘zoynak orqali bu odamning qo‘rquv, vahima aks etayotgan yuziga tikkan edi.

Mahbusiy birdan o‘ziga kelgandek, ularning og‘ir va g‘azabli boqishlarini his qildi:

— Menga adresingizni bersangiz qanday bo‘larkin-a? Men keyinroq kelar edim,— dedi u sekin.

Fayton Kurd Ahmadnikiga yaqinlashib qolgan edi. Faqat bitta ko‘chadan o‘tish lozim edi, xolos.

— Nega?— deb so‘radi Aram.—Yo zarur ishingiz bormi?

— Juda zarur. Keyin aytib beraman. Biz ham bir tashkilot tuzganmiz. O‘rtoqlar bilan ko‘rishishimiz kerak edi.

Uning tovushidan qo‘rqayotgani yaqqol sezilib turardi.

— Hech narsa hilmaydi, og‘oyi Mahbusiy,— deb tasalli bera boshladi Aram,— biznikida besh minutcha o‘tirib ketasiz. Faytonga ham javob bermay turamiz. Uyni ham ko‘rib olasiz.

Mahbusiy indamadi. Bu so‘zlar unga ma’qulday tuyuldi. Fayton Kurd Ahmadning eshigi oldida to‘xtadi. Kurd Ahmad tushib eshikni taqillatdi. Bola chiqib eshik ochdi. Ular ichkari kirdilar, hovlidan o‘tib, yuqori chiqdilar. Rizo Qahramoniy, Sarxon va Farida mehmonxonada uni kutib o‘tirishar edi.

— Tanishib qo‘yinglar, og‘oyi Mahbusiy,— dedi ma’nodor kulib Kurd Ahmad.

Rizo Qahramoniy o‘rnidan turdi. Mahbusiyni diqqat bilan boshdan-oyoq ko‘zdan kechirib chiqdi. Mahbusiy ko‘rishish uchun unga qo‘lini uzatdi. U esa indamasdan uning basharasiga tupurdi:

— Xoin! Sotqin!

Mahbusiy hamma gapga tushundi. To'rga tushgan yirtqich kabi pitirlab qoldi. Qahramoniyning ko'kragidan turtib, oynadan o'zini hovliga otmoqchi bo'ldi. Lekin Kurd Ahmadning kuchli qo'llari uning hiqildog'idan qattiq qisib oldi. U xirillaganicha yerga o'tirib qoldi.

— Nega pitirlaysan, ablah?— dedi Farida.— Bizning yangi o'rtoqlarni tutib berayotganingda shu kun to'g'risida o'ylamaganmiding?..

Sarxon indamasdan uning oyoq-qo'lini bog'ladi. Uni uyning tagidagi g'ishtin yerto'laga olib tushib qamadilar.

Mahbusiy umidsizlik bilan yolvordi:

— Meni nima qilmoqchisizlar?

— Seni sud qilamiz. Yot anavi yerga!— dedi Kurd Ahmad, uni bir chetga itarib.

O'rtoqlariga o'girildi:

— Buni sud qilishdan oldin Xovarni boshqa joyga ko'chirish kerak.

Hamma bu fikrni ma'qulladi. Yerto'laning eshigini qulflab, yuqori chiqdilar.

Kurd Ahmad ukasini chaqirdi:

— Bu og'olarga choy ber, men ham yarim soatda kelaman,— deb chiqib ketmoqchi bo'ldi.

Uning ketidan Farida ham turdi:

— Shoshmang,— dedi u,— men ham birga boraman. Ehtimol, foydam tegib qolar.

— Albatta bor,— dedi Sarxon,— ko'chada turasan. Kim biladi, har qanday tasodif bo'lishi mumkin.

Farida bilan Kurd Ahmad ko'chaga chiqishdi. Mahbusiyni kutib turgan faytonga o'tirib jo'nashdi. Ko'chaga yotqizilgan toshga urilgan tuyoq tovushlari eshitila boshladi.

* * *

Xovar kuni bilan og'ziga hech narsa olmagan Ozodni aldab-suldab endi uxlatgan edi. U o'g'lini uxlatish uchun boshini tizzasiga olib tepasida bir soatdan ortiq har xil hikoyalar so'zlab berdi, turli-tuman savollarga javob topishga harakat qildi, ertaga

unga har narsalar olib berishni va'da qilib, shirin umidlar bilan uxlatdi. O'zi esa bolasining tepasida xayolga cho'mgan edi. Shaharda yurayotgan duv-duv gaplar uning ham qulog'iga yetgan edi. Tez orada yangi hukumat tuzilishidan, ozodlikdan, har narsaning mo'l bo'lishidan, har kimning ham ish bilan ta'min qilinishidan gapirishar edi. Xovar ham o'sha kunning tezroq kelishini kutar edi. Kelajak kunni, ertangi kunni kutar edi. Uni allaqanday tushunilmas ichki bir ishonch bilan kutar edi!.. U kun, kelajak buyuk kun minglarcha, yuz minglarcha kishilar qatori Xovarga ham ozodlik, ish, non va baxt olib keladi. U kun Faridunni zindondan, Gulnozni jar yoqasidan qutqaradi!.. U kunning kelishini tezlatish uchun Xovar har qanday fidokorlik ko'rsatishga ham hozir edi. Bu zulmat kechaning qalin pardasini yirtib, uni u kelajak kunni, qo'rqinchli devlarning quchog'idan tortib olish lozim bo'lsa ham, u hech o'ylab o'tirmay o'zini olg'a tashlagan bo'lar edi. Yo'q, u devlar so'nggi nafaslarini olmoqda edi! Ko'p o'tmay, qizarib kelayotgan ufqdan, qirmizi shafaqlar ichidan u kun, u saodat tongi otar va dunyoni sog'lomlashtirardi. Xovarning nazarida, o'sha yorqin kunning nurlari bilan birga Karimxon ham uyga qaytib keladigandek edi. Chunki kechaning qalin pardasini yirtgan, devlarni halok etganlar orasida u ham bor edi. Bu fikr uning ko'zi oldida Karimxonning siymosini yanada yuqori ko'tardi. U o'zini bekorga qurbon qilmagani to'g'risida o'yladi. Hayoti va o'limi mard yigitlarga loyiq bo'lganini sezdi. Ozodlik va baxtli kunlarda Xovar o'g'liga otasi to'g'risida hikoyalar so'zlab beradi, uning Rustam Zol[1] kabi qahramon bo'lganini aytadi.

— O'g'lim, sen ham otang singari mard bo'l, yigit bo'l, dunyoda nomusli bo'lib yasha! — deb nasihat qiladi.

Kechqurungi osoyishta jimjitlik, Tehron ustidagi moviy va nihoyasiz janub osmonida miltillab ko'rina boshlagan yulduzlar, go'yo uning bu xayollariga xayrixohlik bildirar, uning fikrlarini yana ham uzoqlarga olib ketardi. Oqshom shu qadar jimjit, shu qadar tinch ediki, ora-sira biror ko'rshapalakning qanot qoqqani ham baralla eshitilar edi.

---

[1] **Rustam Zol** — Firdavsiyning "Shohnoma" dostonining bosh qahramoni.

Ko'chadan chopib kelgan otlarning tuyoq tovushi bu jimjitlikning bag'rini yorib hovlini to'ldirdi. Xovar eshigi oldida fayton to'xtaganini ko'rib, qo'rqib ketdi: Qamarbonu kelgan bo'lsa-ya!

Yuragi titrab ketdi. Axir, u nimalar deb do'q qilib ketgan edi! Istasa, u nimalar qilmas edi!

Kurd Ahmad Faridani ko'chada qoldirdi, Xovar qo'rqishi mumkin deb eshikni taqillatmadi:

— Xovar, singlim, och, bu men! — dedi u.

Xovar, go'yo butun dunyoga ega bo'lganday, shodlanib ketdi. Yuragi sevinch bilan to'lib toshdi. Yomon kunda yordam qo'lini cho'zgan do'stdan ham yaxshisi bormi! Yordam, tayanch, yengil nafas olish qanday qimmatli va go'zal narsa!

U sevinchiga sig'may, eshikka yugurdi. Borib eshikni ochdi.

Kurd Ahmad shoshilib va hayajon bilan unga Xovar sevgan nom bilan murojaat qildi:

— Ul-bulingni yig'ishtir, fors qizi,— dedi u,— qarab turma, bo'l, yig'ishtir, ketamiz bu yerdan!

Hali ham o'ziga kelmagan Xovar taajjub bilan Kurd Ahmadga qaradi. Kurd Ahmad uning yanoqlaridan oqib tushayotgan ko'z yoshlarini ko'rdi va shipshiydon bo'lib qolgan uyga qarab, uning qanday qiyinchiliklar kechirganini sezdi:

— Qo'y, xafa bo'lma, fors qizi, yomon kunlarning umri oz qoldi, ko'p xafa bo'lma, yur ketdik!

U borib uyqusida allanarsalar deyayotgan Ozodni uyg'otib qo'ymaslik uchun avaylab ko'tardi.

— Bu yerga yana qaytib kelamizmi?— deb so'radi Xovar.

— Yo'q, fors qizi, bu yerga yana qaytib nima qilasan?

— Unda ijara haqi nima bo'ladi?— deb so'radi u.— Ikki oydan beri haq to'laganim yo'q.

Kurd Ahmad yonidan bitta ellik tumanlik olib unga uzatdi:

— Ol, ijara haqini ham, kalitni ham ber, darrov qaytib kel, — dedi-da, Ozodni quchog'iga olganicha faytonga chiqib o'tirdi.

Birozdan so'ng Xovar ham, Farida ham kelishdi. Faytonni Sudobalarnikiga qarab haydadilar.

Fayton eshik oldiga kelib to'xtatganda ichkaridan Sudobaning o'zi chiqib qoldi.

— Juda vaqtida chiqdingiz-da! — dedi Kurd Ahmad kulib.— Juda vaqtida chiqdingiz. Hazrat Xizirni yod qilsak ham bo'lar ekan...

Hayajon ichida qolgan Sudoba uning bu haziliga parvo qilmadi.

— Sizga aytadigan muhim xabar bor!— dedi u.

— Juda yaxshi, unda mana bu bolani bir joyga yotqizib qo'y. O'zing esa biz bilan yur Sudoba Ozodni ko'tarmoqchi bo'lgan edi, Kurd Ahmad yana hazil qildi:

— Bu katta yigit-ku, kuching yetmaydi.

Sudoba oldinda, Ozodni quchog'iga olg'an Kurd Ahmad uning ketida yuqori ko'tarildilar.

Ular Ozodni yotqizdilar-da, faytonga o'tirib, Kurd Ahmadnikiga keldilar. Sudobani ko'rib, Aram ham, Rizo Qahramoniy ham sevindilar.

Kurd Ahmad yana hazil qildi:

— Og'olar, qatorimizga yana bir do'st qo'shildi. Tanishinglar!— dedi-da, Sudobani ko'rsatdi.

Rizo Qahramoniy Sudobaning qo'lini siqdi.

— Sudoba xonim, sizni ko'rganim uchun juda xursandman.

— Tashakkur.

— Menimcha, ishni boshlayversak bo'ladi,— dedi Kurd Ahmad.

Aram bilan Qahramoniy rozi bo'lishdi.

— Xonimlar ham bilishadimi?— deb so'rashdi.

— Bilmaydilar. Endi biladilar.

Hammalari pastga tushishdi. Kurd Ahmad eshikni ochib, eng oldin ichkari kirdi.

Umidi butunlay uzilgan Mahbusiy tishi bilan arqonni g'ajib bir qo'lini bo'shatib olgan edi. Kurd Ahmad uni yerga bosib, qo'lini yana bog'ladi. Mahbusiyniig ko'zlari allaqanday dahshatli o't bilan baqrayar edi.

Uni ko'rib, Xovar birdan titrab ketdi. So'ng qo'llarini ko'tarib, uning tepasiga yurdi, lekin Kurd Ahmad uni to'xtatdi:

— Og'ir bo'l, fors qizi, hozir hammasini hal qilamiz. O'tiring, xonimlar, o'tiring, og'olar!

Ular yerto'ladagi o'tin palyonlari ustiga o'tirishdi. Kurd Ahmad Mahbusiyga qaradi:

— Sud o‘z ishini boshlaydi. Sen vatanni sotishda, o‘rtoq va do‘stlaringni sotishda, ozodlik ishiga xiyonat qilishda ayblanasan. Sen oddiy bir xoin emassan. Sen inson organizmida paydo bo‘ladigan rak kasalidan ham battarsan. Hech qanday ilon ham senday zaharli emas. Karimxonning, Simonyanning va boshqa o‘rtoqlarimizning qotilisan. Faridunni tutib bergan ham sensan! Biz seni ana shularda ayblaymiz. Senga oxirgi so‘z beriladi. Endi gapir! Eshitaylikchi, nimalar der ekansan?

Mahbusiy bir Kurd Ahmadga, bir Aramga, bir Sudobaga, bir Xovarga qaradi.

— Menga rahm qilinglar, menga rahmingiz kelsin! Meni o‘ldirmanglar! Meni qo‘yib yuboringlar! Sizlarga xizmat qilaman, qulingiz bo‘laman. Og‘olar, og‘oyi Aram, xonimlar, menga shafqat qilinglar. Meni o‘ldirmanglar! Bundan keyin sizlar uchun ishlayman.

Rizo Qaqramoniy uni oyog‘i bilan itordi:

— Nari tur, olchoq! Ablah! Yangi dunyoning otib kelayotgan tongini, ozodlikning go‘zal ertasini insoniyat sendek razil va olchoqlar bilan kutib ololmaydi! Qoch nari!

— Men sizga xizmat qilaman. Itingiz bo‘lib, eshigingiz tagidan nari ketmayman.

Hayajoni bosilmagan Farida o‘zini tutib turolmadi: O‘chir ovozingni! Ovozingni eshitsam, o‘z qo‘lim bilan bo‘g‘ib tashlagim kelayapti! Jim bo‘l!

— Sen, yaxshisi, bizga jinoyatlaring to‘g‘risida gapir. Ozodlik armiyasi xoinlarning xizmatiga muhtoj emas! — dedi Kurd Ahmad.

Mahbusiy yig‘lab yubordi:

— Menda gunoh yo‘q, og‘olar, xonimlar! Meni majbur qildilar. Menga rahmingiz kelsin. Men juda baxtsiz odamman. Mening boshimga tushgan kunlarni bilsangiz, yuragingiz yumshar edi... Meni ko‘rib, buning butun nasl-nasabi olchoq bo‘lsa kerak, deb o‘ylamanglar. Mening otam bir vaqtlar Kirmonshohning mashhur va badavlat savdogari edi... Mol-mulkining hisobi yo‘q edi... Meni bu ko‘pga solgan uning boshiga tushgan musibat bo‘ldi. Rizo shohning g‘azabiga duchor bo‘lgan savdogarlardan edi. Uni

turmada chiritib yubordilar. Halok qildilar. Mol-mulkini musodara qildilar. Uning o'limidan so'ng men o'zimni ming yoqqa urdim. Yashash yo'lini axtardim. Bir kun Angliya-Eron neft kompaniyasiga duch keldim. Bir inglizning qo'liga tushdim. O'sha kundan boshlab mening ixtiyorim o'z qo'limda qolmadi. Nima qilishni, qayerga borishni bilmaganimdan keyin majbur bo'ldim. U ingliz meni ikkinchisiga oshirdi. Mana endi xo'jayinim mister Tomas. Menga rahm qilinglar, og'aynilar... Iloho inglizlarning uyi kuysin! Biz eronliklarning uyimizni kuydirgan o'shalar.

U o'lim oldi talvasasida to'xtamay so'zlardi: surgunlarda zindonlarda mahbuslar ichida yurganini, ularga qanday xiyonat qilgani to'g'risida so'zlardi. Mister Garold, fon Valter bilan qanday uchrashganini mufassal gapirib berdi. Jon achchig'ida xotiriga nima tushsa, o'shani poyma-poy qilib so'zlab ketar edi. Bular bilan u o'z taqdirini qutqarib qolishga, aybdor emasligini isbot qilishga, shunday qilmasa, o'lib ketishdan qo'rqqanini tushuntirishga tirishardi. Lekin bularning hammasi uning jinoyatlar botqog'i ichida tamom botib qolganini ko'rsatar edi, xolos.

Nihoyat u tinchidi-da:

— Rahm qilinglar, — deb yig'ladi.

Kurd Ahmad og'ir-og'ir so'z boshladi:

— Biz kurdlarning odatida xoinlarning boshi kesiladi, yoki tiriklayin qaynab turgan qozonga tashlanadi. Bu olchoq ham xuddi ana shunday jazoga loyiq. Lekin men bu yerda xonimlarning borligini nazarga olib, uning jazosini yengillashtiraman. Men uni osib o'ldirishni taklif etaman! Kim bu taklifga rozi bo'lsa, qo'lini ko'tarsin!

Yerto'laga cho'kkan jimlik ichida qo'llar sekin-asta yuqori ko'tarildi.

Shundan so'ng Kurd Ahmad o'rnidan turib, sovun surtilgan arqonni yerto'laning to'siniga bog'ladi:

— Rizo Qahramoniy! Sud hukmini ijro qilish sizga topshiriladi,— dedi u.

Rizo Qahramoniy chaqqonlik bilan o'rnidan turdi, deyarlik behush yotgan va o'rnidan qo'zg'olishni istamagan Mahbusiy-

ning qo'llarini yechdi. So'ng kuchli qo'llari bilan Mahbusiyning yelkasidan ko'tarib, bo'yniga sirtmoq soldi.

* * *

Sudoba Hakim ul-mulk bilan mister Tomas o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatni do'stlariga gapirib berdi:

— Faridunning hayoti o'lim xavfi ostida qoldi, — dedi u va yoshlanib kelayotgan ko'zlarini yashirish uchun bir chetga burildi.

Ular Sudobaning so'zini sukut qilib, g'amginlik bilan tingladilar. Sukunatni eng oldin buzgan Farida bo'ldi:

— Qurboningiz bo'lay, bir ilojini qilinglar, uni qutqarib olinglar!— dedi u hayajon bilan.

Har kim har xil taklif kiritdi. Sarxon Sudobani sarhang Safoiyning oldiga yuborishni maslahat bèrdi.

Lekin Aram bundan hech qanday foyda chiqmasligini aytib bunga qarshi chiqdi:

— Bizdagi siyosiy arboblar va mansabdorlarning fe'l-atvori ma'lum. Kim kuchli bo'lsa, o'sha tarafga og'adilar. Shuning uchun ham sarhang Faridunni hozirgi sharoitda o'ldirishga jasorat qilolmaydi. Lekin Faridunning orqasida kuchli bir tashkilot turganini unga bildirib qo'yish kerak.

— Rozilik bersanglar,— dedi Rizo Qahramoniy,— men shu bugun kechasiyoq sarhangni o'g'irlab kelaman. Biz uni keyin Faridunni bo'shatib yuborish sharti bilan bo'shatib yuboramiz.

Bu taklifga Kurd Ahmad qarshi chiqdi.

— Sarhangni o'g'irlash bilan Faridunning o'limini tezlatgan bo'lamiz, xolos,— dedi u.—Yaxshisi, kelinglar, sarhang Safoiyga bitta xat yozamiz. Uni ogohlantirib qo'yamiz.

So'ng Sudobaga o'girildi:

— Sudoba xonim, yozing, — dedi u.

Sudoba qog'oz va qalam olib, yozishga tayyorlandi. Kurd Ahmad shoshmasdan, kerakli ifodalarni topishga tirishib, ayta boshladi:

"Og'oyi sarhang Safoiy! Istibdod so'nggi kunlarini kechirmoqda. Ozodlik quyoshi chiqish oldida turibdi. O'zingizni o'ylang! Agar yashashni istasangiz, hech bo'lmasa istibdodning

so‘nggi kunlarida jinoyat qilishdan qo‘lingizni saqlang, qonli ishlaringizga barham bering! Qo‘lingizni ortiq qonga belamang! O‘ylang, mulohaza qiling, hali ham uncha kech emas. Ehtimol, ozodlik dunyosi sizning gunohlaringizni kechirar. Taklifimiz: Faridunni ehtiyot qiling. Uning hayoti sizning kelajagingiz garovidir. Endi o‘zingiz o‘ylab ko‘ring! Siz doim bizning qo‘limizdasiz. Faridunning boshida bitta tuk kamaysa, o‘zingizni o‘lgan deb bilavering!”

Maktubni bukib paketga solgach, Kurd Ahmad Sudoba bilan Xovarni kuzatib qo‘yish uchun o‘rnidan turdi.

Xovar ularni to‘xtatdi. Yig‘lab turib Gulnozni ko‘rganini so‘zlab berdi, uni ham falokatdan qutqarish lozim deb taklif kiritdi.

Rizo Qahramoniy Faridunning Gulnozga bo‘lgan munosabatini, uning tozalik esib turgan xayollarini eslab, titrab ketdi.

— Bu ham unga bir zarba bo‘ldi,— dedi u.

— Gulnozni toping, toping!..— deb iltimos qildi Xovar Rizo Qahramoniyga.

— Lekin qayerda u? Adresini bilasanmi?

— O‘sha xotinning oti Qamarbonu ekanini yaxshi bilaman.

— Ey, singlim-ey, bu shaharda Qamarbonudan ko‘pi bormi...— dedi Kurd Ahmad.— Unday uylar ham ming-ming. Kim biladi, ehtimol, hali u asl oti emasdir. Qayerdan ham toparding endi?

Bundan Xovarning umidsizlikka tushganini ko‘rib, so‘zini davom ettirdi:

— Har holda, bir axtarib ko‘ramiz,— dedi-da, Sudobaga murojaat qildi:

— Hozircha fors qizi siznikida tursin.

Sudoba Xovarni quchoqlab o‘pdi:

— Albatta. U mening opam bo‘ladi,— dedi va yoshlanib kelayotgan ko‘zlari bilan kulimsiradi.

Kurd Ahmad ham kulimsiradi:

— Ayozni ham sizlarnikiga olib boraman, Xovarning Ozodi bilan o‘ynab yursin! — dedi va uni qanday qilib topganini so‘zlab berdi.

YIGIRMA TO'QQIZINCHI BOB

Urush tez sur'at bilan kengayib borardi. Bu tezlikka muvofiq Tehronning siyosiy doiralarida xilma-xil mulohaza va ovozalar yurardi. Rizo shoh ittifoqchilarning taklifini rad etgan kunlarda nemislar tezda Turkiya yoki Kafkazga qo'shin tushirib, Eronga yordamga kelarmish degan ovozalar tarqatilgan edi. Lekin bu ovozalar sovun ko'pigi singari tez parchalanib, uning o'rnini Gitlerning manziliga yog'dirilgan la'natlar va tamomila umidsizlikni anglatuvchi gap-so'zlarga bo'shatib bergan edi. Endi u yer-bu yerda Rizo shoh to'g'risida, uning so'nggi umrida nima qilishi va qayoqqa qochishi haqida gaplashar edilar. Yangi davlat tuzumi, mamlakatning istiqboli hammani qiziqtirardi. Asta-asta revolutsion-demokratik fikrlar yanada kengroq doiralarni qamray boshladi. Ishchi va dehqonlarning tarqoq kuchlarini birlashtirish orzulari kuchayib borardi.

Hayot va jamiyatning ichida yetishgan va uzoq muddat bo'g'ilib o'zini ko'rsata olmagan ijtimoiy kuchlar bosh ko'tarar, zo'r zilziła bilan yerni chatnatib ko'kka otilgan vulqon singari har narsani ostin-ustin qilishi bilan hokim sinfni vahimaga solardi. Yuqori sinf, istibdod va reaksion kuchlar, demokratik kuchlar o'z qudratini ko'rsata olishini his etarkan qo'rqqanlaridan titrashar, yaqinlashayotgan po'rtanani bostirish yo'llarini axtarishardi. Bu qo'rquv, bu vahima Hakim ul-mulk va Rizo shohlarni, mister Tomas va mister Garoldlarni yanada bir-birlariga yaqinlashtirar, tahlikadan xabardor bo'lgan hayvonlar galasi holiga solardi. Ular uzoq kelajak kurashiga tayyorlanar, yolgon, bo'hton va riyokorlik singari iflos qurollarini charxlar edilar. Sovet xalqi, millionlarcha sovet askarlari, erkak va xotin-qizlari insoniyat tarixida misli ko'rilmagan qahramonlik bilan har turli musibat va qurbonlarga bardosh berib, barcha xalqlarning, butun insoniyatning ozodlik va kelajagini Gitler yirtqichlaridan himoya qilar ekan, Amerika, Angliya va Eron reaksionerlari Tehronda o'tirib, kelgusi urushning

riyokor rejalarini tuzardilar. Ular xalq harakatining, demokratik taraqqiyotning oldini olish, Sovetlarga qarshi dushmanchilik siyosatini davom ettirmoq yo'llarini izlar edilar. Barcha millatlardagi kapitalist va pomeshchik sinfiga xos xilma-xil olchoq hamda vahshiy sifatlari ustiga Erondagi hokim va mulkdor tabaqaning o'ziga maxsus bir xususiyati ham bor. Bu — uning bunyod bo'lgan kundan boshlab ijtimoiy idealdan mahrumligidir. Shuning uchun ham u g'oyatda beburd munofiqdir. Butun boshli bir sinfga xarakterli bo'lgan bu xususiyat bir daryoning tarkibi bir tomchida aks etgani kabi, shu sinfning har bir vakilida, har bir shaxsning tafakkur va amallarida axloq va odatlarida o'z ifodasini topgandir.

Sarhang Safoiy ham shu sinfning avlodi edi. U o'z sinfining barcha an'analariga sodiq va o'zi ham ana shu an'analardan yasalgan edi. Uning tafakkur va axloqigina o'zi mansub bo'lgan sinfning tafakkur va axloqiga o'xshash bo'lib qolmay, u his va beburdligi bilan ham o'z sinfiga sodiq edi. Shuning uchun ham u atrofda bo'layotgan hodisalarga befarq qarayolmasdi. U bu hodisalarni kelajakdagi taraqqiyotiga bog'lagan holda o'ylab harakat qila boshladi. Sharoitni sinchiklab tekshirar, o'z manfaati qayerda ekanini tezda aniqlab, shunga muvofiq ish ko'rardi. Beburdlik, aqidasizlik, sotqinlik va ochko'zlik bu sinfning taktikasi edi. Kecha oq deb yozganini bugun qora deb ham o'qiyverardi. Faqat mansab va mol-mulk qo'ldan ketmasa bas. Hokimiyat qo'ldan chiqmasa bo'lgani!..

Buyuk jiddi-jahd va zo'r g'ayrat bilan Karimxon va uning o'rtoqlarini osishga hukm qildirgan sarhang Faridun va Hikmat Isfahoniyning ishini kechiktirar, ming xil bahona bilan masalani chalg'itar va kutardi. Lekin u oddiy kutish bilangina kifoyalanmasdi. U bir ko'zi bilan janubga, ikkinchi ko'zi bilan esa shimolga boqar, Tehronga tomon kelayotgan ikki zo'r kuchning o'tgan yo'liga nazar solar va o'ylardi. Hodisalar natijasini aniqlashga urinardi. Boshida toji va ostida taxti larzaga tushgan Rizo shohning tahdid va g'azablarini yumshatish uchun turli-tuman bahona axtarardi. Aslida, Rizo shohning o'zi ham so'nggi kunlarda zindonda chiriyotgan kishilarni unutganga o'xshardi. Aftidan, a'lohazratning borlig'ini yanada muhimroq hodisalar mashg'ul etardi.

Sarhang qulay fursatdan foydalanmoq fikrida edi. U ko'zini shimol va janubdan poytaxtga qarab kelayotgan ikki kuchdan uzib zindonga, ya'ni hozirgi vaqtda o'z qo'li ostida bo'lgan ikki odamga, Faridun bilan Hikmat Isfahoniyga boqardi!.. Bu ikki odam, go'yo u ikki kuch olib kelayotgan xilma-xil ruh va xilma-xil maylni ifodalovchi jonli bir simvol edi. Sarhangning so'nggi kunlardagi xatti-harakatlari ham xuddi ana shu instinktning talablariga asoslanardi.

Shunday mulohazalarga borib, keyingi ko'rishishda Hikmat Isfahoniy bilan yanada muloyim, yanada yumshoqroq muomalada bo'ldi. Uning holiga achinishi, ozodlikka chiqarish uchun qo'lidan kelgan harakatni ayamasligini aytdi-da, ma'noli qilib:

— Hamma narsa mening ixtiyorimda emas,— deya ilova qildi.

Sarhangning fikrlari, nima to'g'risida o'ylagani va qanday mulohazalar bilan yashaganini darhol anglagan Hikmat Isfahoniy o'zini bilib bilmaslikka urdi. Uning muhabbati va hurmatiga zo'r ishonch hosil etganligini bildirdi-yu, ammo miyasiga kelgan g'alati fikrlarning birortasini ham aytmadi. Sarhang esa og'ir izohatdan qutqargani uchun suhbatdoshidan mamnun bo'lib, yanada muloyimlashdi. Hikmat Isfahoniyga hatto o'z vazifasi yo'l qo'ymaydigan tavakkalchilikka ham hozir ekanini sezdirib:

— Sizni bu yerdan ozod etmoq uchun a'lohazratga qanday ta'sir etsak bo'larkin?— dedi-da, basharasidagi muloyim tabassumni biroz kuchaytirib, qo'shib qo'ydi:

— Balki, mister Tomasga bir parcha qog'oz yozib berarsiz?

Hikmat Isfahoniy uning hech narsani ifoda etmaydigan basharasiga qarab, bosh chayqadi:

— To'g'ri kelmaydi, endi mister Tomasga murojaat qilish to'g'ri kelmaydi.

Uning e'tirozini darhol tushuna olmagan sarhang taajjublandi:

— Nima, endi mister Tomasning so'zi o'tishiga shubhalanayapsizmi? Yanglishasiz! Mister Tomas ko'p tomondan saroy bilan aloqa bog'lagan odam. Bir tomondan aloqasi uzilsa, ikkinchi tomoni qolaveradi. Urush-purushlar sizni shubhaga solmasin. Bu-

lar yuzaki narsalar. Undan tashqari, a'lohazrat Angliya bilan emas, ruslar bilan urushayapti.

— Yo'q,— Hikmat Isfahoniy qat'iy ravishda e'tiroz bildirdi,— harqalay, inglizlar bizning ustimizga qo'shin yubordi. Bundan so'ng men boshim go'rga kirguncha ular bilan kelisha olmayman. Ular bizning mustaqilligimizni buzdilarmi, tamom — do'stligimiz tugadi.

Hikmat Isfahoniy "mustaqillik" deyishi bilanoq sarhang masalaga tushunib, jilmaydi. Demak bu keksa lo'ttiboz ham hurriyatparvarlik va demokratik libosini kiyish chog'i kelganini sarhangdan ko'ra yaxshiroq anglabdi. U Rizo shoh tarafidan zindonga solinganidan kelajak faoliyatida eng yaxshi chora singari foydalamoqni hozirdanoq mo'ljallab qo'ygan edi. Sarhang mulohazalarini sinamoq uchun qasddan o'zini sodda qilib ko'rsatdi:

— Balki fon Valterga yozarsiz, u kishi a'lohazratning ittifoqdoshidir.

Hikmat Isfahoniy, sarhangning bu taklifi bir siyosat yoki sidqidildan aytilayotganini aniqlayolmagani uchun diqqat bilan uning siymosi va ko'zlariga tikilardi. Lekin uning asl maqsadini bilish qiyinligini anglagach, ko'zlarini yerga tikib, masalaning mohiyati haqida o'ylay boshladi. U mister Tomas va fon Valter uni mahbuslikdan darhol ozod etajagiga ishonardi. Aftidan, ular iltimos qilishini kutayotirlar. Lekin u bunday iltimosni qilmaydi. Chunki bu harakat uning:

— G'arazli do'st beg'araz dushmandan yomonroq. Boshimizga bu savdolarni solgan o'shalar bo'ldi.

Sarhang, uning istibdod davrida zindonga solinishidan kelajakda qimmatli bir vosita sifatida foydalanmoqchi bo'lganini payqadi:

— Mister Garold qalay? Ularni xalq demokrat va hirriyatparvar kishilar sifatida taniydi. O'zlari ham har ikki tomonga betarafdirlar.

Hikmat Isfahoniy kulimsiradi:

— Yana nima ham qilishim mumkin, choram yo'q. Sen shuni maslahat ko'rganingdan so'ng, yozaman-da,— sarhang undan qarzdor bo'lib qolishni istamadi. Butun fikrini oshkor qildi.

— Yozing, yozing, mister Garoldga yozishingiz maslahat. Chunki hozir hamma yerda amerikaliklarni demokrat va hurriyatparvar deb taniydilar. Avom xalq ularni oliyjanob va xayrixoh deb biladi. Zolim Rizo shoh qamagan, demokratik Amerika esa ozodlik bergan bo'ladi! Bu sizning kapitalingiz va obro'yingiz bo'ladi!.. Yozing!..

Hikmat Isfahoniy xotirjamlik bilan ruchkani siyohga botirdi-da, sarhang uzatgan bloknotga nimanidir yozib, unga berdi.

— Sarhang, mister Garoldga berishingni iltimos qilaman.

Sarhang chehrasida yasama taajjub bilan tisarildi.

— Men-a?!

Hikmat Isfahoniy havoda muallaq qolgan qo'liga boqdi.

— Boshqa bir iloj toping. Bilib qolishsa, obro'yim to'kiladi.

— Sarhang, meni o'lgan deb hisobla, o'ligimga yordam ber.

Sarhang qog'ozni olib stol ustiga qo'ydi-da, xonada keza boshladi.

— Lekin... Lekin bu sizga qimmatga tushadi.

— Sarhang, qancha bo'lsa to'g'rilaysan?

— Juda qimmatga tushadigan ish-da. Juda qimmat...

Hikmat Isfahoniy sarhangning nimaga ishora qilayotganini yaxshi anglardi. Lekin uning katta pul talab qilishidan qo'rqib, o'zini bilmaslikka urardi. Sarhang: "Juda qimmatga tushadigan ish!" deganida, Hikmat Isfahoniy asabiylashdi.

— Bilasanmi, og'oyi sarhang, men savdogar kishiman, hisob-kitobning aniq bo'lishini yaxshi ko'raman. Qani, ayt, qancha so'raysan?

Sarhang, pul to'g'risida gap bo'lganida Hikmat Isfahoniy o'zini yo'qotishini bilgani uchun uning asabiyligiga ahamiyat bermadi.

— Savdomiz pishmas deb qo'rqaman,— dedi u bamaylixotir.

— Qancha so'rashingni avval aytgin-da, keyin fol boqaver! Xo'sh, qani, ayt, nima istaysan?

— Shamsiyani.

Hikmat Isfahoniyning ustidan tog' ko'tarilganday bo'ldi. U chuqur nafas oldi:

— Har qanday qiz ham erga tegishi kerak, olaqol, baxtli bo'l!

— Qizning sepi to'g'risida hozir gapirishib olsak, yanada yaxshi bo'ladi.

Hikmat Isfahoniy yana bezgakdek qaltiray boshladi. U tag'in asabiylashdi.

— Qani, eshitaychi!

— Nima ham derdim, o'zingiz mendan ko'ra yaxshiroq bilasiz. Ellik ming tuman pul bilan Ardabildagi mulkingizni berasiz.

Hikmat Isfahoniyning ko'z oldi qorong'ilashib ketdi. Kutilmagan bu og'ir zarbadan jinni bo'lib qolay dedi. E'tiroz etishga bayning buzilishidan qo'rqdi. U holda sarhang Rizo shohsiz ham uni zindonda halok qilib yuboradi. Chunki bu shunday suhbat ediki, avvalo, ochilmasligi kerak, ochildimi, demak har ikki tomon kelishmog'i lozim. Rozilik bermasa, bunday sir bilan uni salomat qo'ymasdi. Ular bir-birini parchalashga tayyor turgan bo'rilardek tikilishardi. Bu tikilish masalani hal qildi. Xuddi shu vahshiyona instinkt bilan har ikkalasi salomatlik birlashish va kelishishda ekanlini his qilib o'rindan turdilar. Hikmat Isfahoniy:

— Xudo xayr bersin,— deb unga qo'lini uzatdi.

Sarhang uning qo'lini siqib, siyohdon bilan qog'ozni uning oldiga qo'ydi.

— Marhamat, yozing!.. Shart qog'ozga yozilgan bo'lsa, yaxshi bo'ladi. Yozing!

Hikmat Isfahoniy titrab-qaqshab yozdi-da, buni ham mister Garoldga yozilgan maktubning yoniga qo'ndi. Sarhang har ikkala maktubni buklab, yon cho'ntagiga yashirdi.

— Bu kecha sizni ozod qilib, uyingizga yuboraman,— dedi-da, yengilgina tirjaydi. Bu kulish Hikmat Isfahoniyga ta'na va tahqirday tuyuldi. Qalbini qandaydir bir og'irlik ezganday bo'lib, o'zini yomon his qildi. Hamisha savdodan zarar ko'rganida o'zini shunday his hilardi.

* * *

Sarhang Hikmat Isfahoniyning butun mol-mulkini o'z qo'liga kiritmoq xayolida edi. Bu xayol asta-sekin haqiqatga aylanib borardi. Chunki yoshi yetmishdan oshgan Hikmat Isfahoniy, bar-

damligiga qaramay, umri oxir bo'lib qolgan edi. Sarhangning hisobiga qaraganda, u uzog'i bilan sakkiz yoki o'n yildan keyin o'lishi kerak edi. Tezroq o'ladigan bo'lsa yanada yaxshiroq bo'ladi. U o'lgandan so'ng, uning butun mol-mulkiga yagona voris bo'ladigan odam Shamsiya edi. Hikmat Isfahoniy besh marta uylangan bo'lishiga qaramay, Shamsiyadan boshqa farzandi yo'q edi. Shunday qilib, ko'pi bilan o'n yildan keyin uning son-sanoqsiz mol-mulki sarhangning qo'liga o'tar edi. Sarhangni Shamsiyaga oshiq qilgan narsa ham his va yurak tuyg'usi emas, balki mana shu mol-mulk edi. Sarhang qizning otasi bilan kelishgandan keyin o'z orzusining osonlikcha amalga oshishiga ishonardi. Hozir yo'lda faqat ikkitagina monelik bor: bu Shamsiya bilan sartib Salimiy edi.

U faqat Shamsiyaning roziligini olganidan so'nggina Hikmat Isfahoniyni ozod etish harakatiga tushmoqchi edi. Buning ikki sababi bor edi. Birinchidan, Shamsiya otasi qamoqda chog'ida sarhangga erga chiqishga tezroq rozilik berardi. To'g'rirog'i, boshqacha sharoitda uning rozilik berishi mushkul edi. Ikkinchidan, Hikmat Isfahoniy qamoqxonadan ozod bo'lgach, boshqacha muomalada bo'lishi ham mumkin edi. Sarhang o'z toifasidagi kishilarni yaxshi bilardi. Hikmat Isfahoniy ishi bitib, eshagi loydan o'tishi bilanoq "qiz rozi emas" deb, bergan qog'ozidan ham tonishi mumkin edi. To'gri, bunday holat yuz bergan taqdirda uni qo'rqitish uchun sarhangning qo'lida yanada zo'rroq vositalar ham bor edi. Bu dalillar Hikmat Isfahoniyni soxta erk sevar kishi ekanini ochib, uni beobro' qilishdan iborat edi. Hikmat Isfahoniy ishni bu darajaga yetkazishi shubhali bo'lsa ham, sarhang unga to'la ishonch hosil qilaolmasdi. Shuning uchun u Shamsiya bilan gaplashib ko'rishni lozim topdi. Hozirgi sharoitda Shamsiyaning roziligini olish uncha ham qiyin ko'rinmasdi. Sartib ham, Hikmat Isfahoniy ham qamoqda bo'lgan bir vaqtda, bu juda oson ish edi. Uning fikricha, qiz busiz ham sartibni xohlamaydiganday tuyulardi. Uning sartibga tegishga rozilik berishi ham zo'rlik va siquv natijasiga o'xshardi. Endi sartib o'rniga sarhang uylansin!.. Nima farqi bor? Xohlamay erga chiqqan qiz xuddi shu yo'sinda boshqasiga ham tegishi mumkin. Tabiiy va mantiqiyday ko'ringan bu

tushunchalar uyg'otgan umidlar bilan sarhang Shamsiyaning oldiga jo'nadi. Shamsiya g'amgin va xayolchan bo'lsa ham, u bilan so'zlashar ekan kulimsirashga va o'zini xursand ko'rsatishga harakat qilardi. Hatto o'zi borib choy ham damlab keldi. Bularning hammasi sarhangning yuragiga dalda berdi.

— Shamsiya xonim,— dedi u,— men yana siz bilan bundan ikki yil burungi suhbatimiz haqida gaplashmoqchiman.

Shamsiya qoshlarini chimirib, asabiylik bilan:

— Ikki yil burungi javobning ayni o'zini olasiz!— dedi.— Sizni sevdiradigan hech qanday o'zgarish yuz bergani yo'q!..

— Yaxshi fikr etib, yaxshi o'ylasangiz, juda katta o'zgarishlar yuz berganini payqaysiz!

— Siz otam bilan sartibning qamalganiga ishora qilayapsiz. Menimcha, bunday o'zgarish ko'ngilda muhabbat emas, balki nafratnigina uyg'otishi mumkin.

— Xonim, sartibni eslaganingiz uchun rahmat. Chunki uni misolga keltirish bilan fikrimni yanada osonroq ifoda eta olaman. Siz yurak va muhabbat haqida gapirayapsiz. Bir savolimga javob berishingizni so'rayman. Siz sartibga oshiqmidingiz? Shuning uchun unga tegmoqchimidingiz?

U Shamsiyaning qalbining eng nozik torlariga to'qindi. Qiz o'zini tahqirlangan hisoblab titrar va ko'z yoshlarini zo'r-bazo'r tiyib turardi. Qo'lini sarhang o'tirgan yushmoq kresloga urib:

— Sizning nazaringizda, mana shu jonsiz taxta parchasi bilan bir qiz o'rtasida hech bir farq yo'q,— dedi Shamsiya.— Sizning o'rningizda men bo'lsam, uyalgan bo'lardim, sarhang! Bu kresloni bozordan siz ham, boshqa odam ham sotib olishi mumkin. Bunga siz ham, boshqa odam ham o'tirishi mumkin. Lekin men kreslo emasman, jonli odamman-ku axir, sarhang! Shuni bilib qo'yingki, bu yerda urib turgan yurak bor, u xohlamagan kishining quchog'iga tashlanmaydi. Sarhang, sizni majburan o'zingiz istamagan bir xotin bilan birga yashang, hissiyotiga javob bering desalar, shunday qila olasizmi? Siz nohaq ravishda biz bechora xotinlarni jonsiz, ruhsiz va har qanday kishi bilan yashay oladigan bir maxluq deb hisoblayapsiz!

— Xonim, sizni ishontirib aytamanki, minglarcha xotinlar ishq-muhabbat nima ekanini bilmagan holda erga chiqadilar. Lekin muhabbat keyin paydo bo'ladi.

— To'g'ri, Eronning yuz minglarcha sho'rlik xotin-qizlari inson hayotining eng oliy va laziz ma'nosini tashkil etuvchi ishq-muhabbatdan xabarsiz holda hayot kechirmoqqa majburdirlar. Lekin men unday yashashni istamayman! Istamayman!.. Bu inson hayoti emas, balki hayvonlarcha yashashdir!..

— Ixtiyor o'zingizda, xonim! Meni bu yerga og'oyi Hikmat Isfahoniy yubordi, uning hayoti esa sizning roziligingizga bog'liqdir.—Tahdid va sovuqqonlik bilan aytilgan bu so'zlardan so'ng sarhang Hikmat Isfahoniy tomonidan yozilgan qog'ozni Shamsiyaning oldiga qo'ydi. Shamsiya qog'ozni o'qidi-da, g'ijimlab yerga otib urdi:

— Bu pastkashlik, razolat,— deb qo'llari bilan yuzini yashirdi.

Sarhang qog'ozni olib diqqat bilan tekislab cho'ntagiga soldi-da, papog'iga qo'l uzatdi.

— Xayr, xonim, qat'iy javobingizni yana bir kun kutishim mumkin.

Shamsiya bir qarorga kela olmadi. Chunki bu odam uning otasini ham, sartibni ham mahv etadigan bir olchoq ekani unga oydin edi. Yo Shamsiya uning uchun o'zini qurbon etmog'i yoki yolg'ondan va'da berib, ularni ozod etgach, sartibga tegmog'i kerak edi. Shamsiya sartib zindonga tashlangandan so'nggina uning ajib va pok yurakli inson ekanini anglay boshlagan edi. Shamsiyaning qalbida qandaydir nozik hislar paydo bo'la boshladi. Endi u shahzodaga tegmoq singari bo'sh xayolga borib, sartibni o'zidan uzoqlashtirgani uchun pushaymon bo'lar va buni hayotining tugalmas bir xatosi deb hisoblar edi. Sarhangga va'da berib, ularni zindondan qutqarish, keyin sartibga tegish fikri unga yagona najot yo'liday tuyuldi. Lekin keyin nima bo'ladi, sarhang ularni o'z holiga qo'yadimi, sartib kabi to'g'ri ko'ngilli bir odam sarhangning hiyla-yu nayranglariga bardosh bera oladimi? Shu yerda uning fikri qorishib, hech qanday qarorga kela olmadi. Nihoyat maslahatlashish uchun bir odam kerak ekani haqida o'yladi-da, Sudobaning oldiga borishga jazm qildi.

Ular keyingi oylarda juda oz ko'rishar edilar. Shamsiya kirganida, Sudoba nimadir yozmoqda edi. U Shamsiyani ko'rishi bilanoq shoshilish ravishda qog'ozlarni yig'ishtirdi-da:

— Xush kelibsan, o'rtoqjon,— deb uning qo'lini siqdi,— qani, o'tir, nega ranging o'chgan, senga nima bo'ldi?

Shamsiya uning chehrasida shodlik alomatlarini ko'rib:

— Shukur, sen durust ekansan,— deb o'tirdi.

Sudoba choy qo'yish taraddudiga tushganda, Shamsiya uni to'xtatdi.

— Sendan ko'ra yaqinroq do'stim yo'q. Kishining boshiga og'ir savdo tushganda, u do'stining yoniga najot istab keladi,— dedi.

Sudoba unga yaqinroq o'tirdi.

— Shamsiya senga nima bo'ldi: o'zi nima gap?— deb so'radi u.

Shamsiya boshiga tushgan og'ir savdoni so'zlab berdi:

— Endi menga bir maslahat ber, yo'l ko'rsat, nima qilay? Boshiga og'ir kun tushganda kishining ko'zi bog'lanib qoladi. U baxt topilmaydigan yerdan baxt axtaradi.

Shamsiyaning mushkul ahvolda qolganini anglagan Sudoba bu qiz yashagan xonadonda baxt-saodat yo'qligini va baxt-saodatni boshqa yerdan axtarish lozimligini payqadi.

— To'g'ri aytding, Shamsiya, biz ko'pincha baxt yo'q joydan baxt axtaramiz. Men baxt-saodatning asl yo'lini ko'rsatsam, bilmayman o'sha yo'ldan borasanmi, yo'qmi?

— Sudoba, sening oldingga shuning uchun keldim-da, axir.

— Shamsiya, do'stim, na sarhang va na otang senga baxt-saodat beradi. Ular tanlagan yo'l hokimiyat, mol-mulk orttirish yo'lidir. Bu yo'lda sening ham, mening ham baxtli bo'lishim haqida o'ylamaydilar. Bu yo'lda ular bechora Eronni sotmagan davlatlari qolmadi. Sen baxt axtarayapsan, ammo vatanimiz va xalqimiz zulm va qashshoqlik panjasida ingrar ekan na sen baxtli bo'lasan va na men.

Shamsiya o'zini biroz orqaga tashlab taajjub va ixtiyotkor nazar bilan dugonasiga boqar, uning nimalar gapirayotganini anglayolmasdi.

Sudoba so'zida, davom etdi:

— Ulardan aloqangni uz, boshqa joyga ketamiz. Kel, seni oddiy kishilar orasiga oboray. Ularning orasida baxtga erishish mumkin.

Shamsiya g'ayri-ixtiyoriy ravishda:

— Xo'sh, otam, mol-mulkimiz-chi?— dedi.— Ulardan ayrilsam qanday hayot kechiraman?

— Hammasini tashla, kel, sof odamlar orasiga ketaylik. U yerda dabdabali ziyofatlar ham, shahzodalar ham yo'q. Qashshoqlik va ehtiyojda bo'lsa ham oliy his va oliy fikrlar bilan yashovchi odamlar bor.

Sudobaning aytganlari Shamsiyaga anglab bo'lmaydigan tush singari tuyuldi. Go'yo Sudoba uni noma'lum qorong'i yo'lga sudrayotganga o'xshardi.

— Rahmat, do'stim, meni kechir, seni bezovta qildim,— deb Shamsiya uyiga qaytdi. Ertasiga shu taraddudda ekan yana sarhang keldi. Shamsiyaga erkinlik va saodat berishga, otasini albatta ozod etishga va sartibning ahvolini yaxshilashga va'da berdi. Tag'in qizning ko'ngli yumshalmaganini payqagach turib ketmoqchi bo'ldi:

— Xayr, xonim, og'oyi Hikmat Isfahoniyga oxirgi so'zingiz yo'qmi? Balki otangizni qayta ko'rmassiz!

Shamsiya boshini ko'tarib dahshat bilan uning ko'zlariga tikildi. Sarhangning ko'zlari shishaday sovuq va jallod ko'zi singari qat'iyat bilan yonardi. Bu qat'iyat oldida Shamsiyaning butun irodasi so'ndi. Umidsizlik va dahshat ichida qo'llari ikki yoniga shalvirab tushdi, koni qochgan lablari zo'rg'a pichirlab:

— Men roziman, sarhang, qayting!— dedi.

* * *

Sarhang o'z xonasida o'tirib mister Garoldga bergan maktubining javobini kutar va sartib Salimiy haqida o'ylardi. Har qanday suhbatdan bosh qochiruvchi, oldiga kelgan kishini so'kib haydovchi va umuman notinchlik tug'diruvchi sartibni qay yo'sinda mahv etish rejasini tuzardi. Rizo shohning amri-farmoni va sarhangning istagiga ko'ra, sartib omon qolmasligi lozim edi. Sartibning shu vaqtga qadar o'ldirilmasligi ham shohning shubhalari

to‘g‘riligini isbotlash uchun edi. Rizo shoh sartib sovet elchixonasi bilan aloqa bog‘lab, mamlakatda qo‘poruvchilik ishlari bilan shug‘ullanganini isbotlashni talab qilardi. Ammo sartib har qanday azoblarga bardosh berib “yo‘q” der edi. Vaqt yetgan, sartib mahv etilishi kerak edi. U — boshlanayotgan ozodlik harakatlarida hokim doiralar uchun yanada qo‘rqinchliroq edi, chunki uning obro‘si juda baland edi. Karimxonlar ketidan bormagan taraddudlanuvchi tabaqalar uning ketidan borishi aniq. Sarhang bu tahlikani oradan ko‘tarish, a’lohazratning g‘azabini sovutish, shuningdek o‘z yo‘lini tozalash uchun ham uni mahv etishi kerak edi. Lekin qanday qilib mahv etish mumkin? Sarhang dastlab uni o‘z kamerasida osib o‘ldirishni o‘yladi. Keyin ovqatiga zahar solib o‘ldirishni yanada o‘ng‘ayroq deb topdi. Harholda, bu ikki usul sas-sadosiz va tinch amalga oshardi. Sartib “o‘zini-o‘zi o‘ldirdi” yoki “zaharlandi” deb uning o‘limini abadiy sir pardasi ostida saqlash mumkin bo‘lardi. Biroq sarhang hali qat’iy bir qarorga kelmagan ham ediki, Hakim ul-mulk telefon qildi. Uning ovozida g‘ayritabiiy hayajon bor edi. U a’lohazratning Hikmat Isfahoniyni ozod etish haqidagi farmonini bildirar ekan, ovozidagi titroq va iztirobni yashira olmadi. Sarhang uning so‘zini tinglar ekan: “Bu ham o‘z kelajagidan xavflanayotir” deb o‘yladi. Hakim ul-mulk o‘z so‘zini:

— A’lohazrat sartibning halok etilishini istaydi,— deb tugatdi-da, sarhangning fikrini ham so‘ramay telefon trubkasini ilib qo‘ydi.

Sarhang gavdali-gavdali, buqaday baquvvat xizmatkorlardan ikkitasini chaqirtirdi:

— Tayyorlaning, a’lohazrat sartibning halok etilishini talab qilayapti,— dedi u.

— Qanday yo‘sinda?.. O‘zini o‘zi osish bilanmi, yoki?..

— Uning ochlik e’lon qilganiga necha kun bo‘ldi?— deb so‘radi sarhang.

— Besh kundan oshdi, og‘ziga hech narsa olmaydi.

— Juda zaiflanib qolganmi?

Ular bu savolning ma’nosiga tushunmadilar. Har ikkilasi bab-baravar:

— Uncha zaiflangani yo‘q, joni juda qattiq ekan,— deyishdi.

Sarhangning jahli chiqib ketdi:

— Juda bema’ni odamlarsiz-da!.. Besh kun och qolgan odam zaiflashmaydimi? Unga ukol berish kerak. Tanasiga biroz darmon kirsin.

Ular shundan keyingina sarhangning fikrini tushundilar. Zanjirdan bo‘shatilgan itday xursandlik bilan:

— Bosh ustiga,— deb shoshilinch va ruhlangan holda chiqib ketmoqchi bo‘ldilar.

Sarhang ularni to‘xtatib, kichkina quticha bilan yashil gulli ro‘molcha berdi.

— Mang, halok etilganligi haqida tuzilgan aktni shunga solinglar. A’lohazratga yuboriladi!..

Sarhang qiyomatgacha kek saqlaydigan odamlar toifasidan edi. Shaxsiyatiga tekkan arzimas so‘zni ham yillar bo‘yi ko‘nglida saqlardi, to o‘chini olmaguncha tinchlanolmasdi. Hozir a’lohazratning farmonini ijro etar ekan, ikki yil burun Shamsiyaning mehmondorchiligida sartib bilan aytishib qolganini esladi. Yuragida vahshiyona bir his qo‘zg‘oldi. Sartib o‘z halokatini qanday qarshilashini ko‘rmoqchi bo‘lib pastga tushdi.

Oq xalat kiygan, badnazar bir kishi o‘lim ignasini tayyorlab turar edi. Xizmatchilar sartibni olib kelish uchun ketishgan edi. Sarhang hukm ijro etiladigan kameraning kichik derazasidan qarab sartibning kelishini kutardi. So‘roqqa chaqirildim deb xayol qilgan sartib boshini tik tutib kirib keldi. Orqasidan darhol eshik mahkam yopildi. U oq xalat kiygan kishiga ro‘baro‘ keldi. Sarhang uning siymosida qo‘rquv va vahima asoratini axtardi. Rangi o‘chishini ko‘zladi, lekin sartib bir daqiqali hayratdan so‘ng boshini yanada tikroq tutib, g‘azabli nazar bilan oq xalat kiygan jallodga qaradi.

— Men kasal emasman!..

—Sarhang sizga ukol qilishimni buyurdi. Besh kunlik ochlikka hech qanday badan bardosh berolmaydi.

—Tashakkur, menga ukolning keragi yo‘q!— deb qaytmoqchi bo‘lar ekan, yo‘g‘on gavdali xizmatkorlarga duch keldi.

Ular:

— Qaysarlik qilmang, sartib, yaxshilikcha rozi bo'ling!— deb taxtaga yotqizmoq uchun uning ustiga bostirib borgan paytlarida, sartib qo'lini ko'tarib, nimadir demoqchi bo'ldi. Shu daqiqada uning ko'zlari kichkina derazadan unga tikilib turgan sarhangning ko'zlari bilan uchrashdi.

— Sarhang, bundan to'rt yuz yil burun Italiyada Jordano Bruno degan bir odam yashagan edi. U o'rta asr qorong'iligi tugab, yangi dunyoning ilk tongi otayotgan chog'ida sizlarga o'xshagan jallodlar tarafidan o'tda kuydirildi. Bilasanmi, u o'z jallodlariga nima degan?! Bilmaysanmi? Bo'lmasa gapimga quloq sol, u: "Janoblar, siz meni o'limga hukm qildingiz, lekin o'zingiz yanada dahshatliroq vahimadasiz" degan. Men ham o'sha buyuk insonning so'zlarini sizga eslatib o'taman. Sarhang, ranging o'chib ketdi! Chunki sizning dunyoyingizning umri oxir bo'ldi. Ana, qara, yangi dunyoning tongi otmoqda, mayli, mening qonim ham shu tongning qip-qizil shafaqlari bilan qo'shilib ketsin!

Sarhang:

— Ukol bering, ukol bering!— deb qichqirdi.

Lekin sartib ustiga bostirib kelgan xizmatkorlarni itarib yubordi. Shartta ko'ylagini yechib tashladi-da, qo'lini uzatib:

— Kel, jallod, ishingni bitir!— dedi.

Oq xalatli kishi shprisni uning hayajon va g'azabdan tarang tortilgan tomiriga botirdi. Zahar qonga aralashgan sari sartibning rangi oqarib borardi. Lekin u o'zini yo'qotmaslikka harakat qilardi. U o'z o'limi bilan ham sarhangni talvasaga solmoqchi bo'lardi. Zahar esa o'z ishini qilmoqda edi. Birozdan so'ng badani titrab krovatga yiqildi. Xizmatkorlar va xalatli kishi bir varaq qog'ozga nimadir yozib, qutichaga soldilar-da, yashil gulli ro'molchaga o'radilar. Bu onda sartib hushini yo'qotgan holda ko'zlarini yumgan edi. Uning chinordek mustahkam gavdasi hali ham titrab, go'yo zindon kamerasini larzaga keltirayotganga o'xshardi. Birdan bu titrash sarhangning badaniga o'tib, u bo'ronda qolgan yaproqday qaltiray boshladi.

— Kelinglar, kelinglar, meni bu yerdan olib ketinglar!— deb pichirladi u.

* * *

Musa aka ikki kun Faridun bilan bir kamerada turdi. Bu ikki kun ichida Faridun Musa akani tinchitish uchun qanchalik urinmasin bundan hech qanday natija chiqmadi. U goh qizishar, o'z-o'ziga nimalarnidir gapirar, xayolida jonlangan qo'rqinchli narsalar bilan jang boshlar, yig'lar, qichqirar, alahlar, goho holdan toyib o'zidan ketib soatlarcha bir burchakka qisilib o'tirardi.

Faqat ko'ngli tinchigandan so'nggina aqli ravshanlashar, hofizasida hayotning ba'zi bir real sahnalari jonlanardi. Juda tez o'tib ketuvchi bunday daqiqalarda Faridun uning nima uchun bunday ahvolga tushganini aniqlashga urinardi. U chekkan azob-uqubatlari, kaltaklanganini hikoya qilar, hozirgacha noma'lum bo'lgan gunohlar uchun ayblanganini so'yl'ardi. Musa aka shunday daqiqalardan birida: "Faridunning qayerdaligini ayt!" deb azoblaganlarini aytib yig'ladi. Faridun uzuq-yuluq so'zlardan sarhang hamma narsadan xabardor ekan degan natijaga keldi. Sarhang Faridunning qishloqdagi ishlarini ham, undan keyingi faoliyatini ham biladi. Musa akaning ham Hikmat Isfahoniy bilan bir kameraga qamalishi bejiz emas. Sarhang endi uni shubhali ma'lumotlar bilan emas, aniq dalillar va faktlar asosida aybiashi mumkin. Uni tashvishga soladigan narsa sarhangning Rizo Qahramoniy bilan Kurd Ahmadni ham qo'lga olish ehtimoli edi.

Uchinchi kuni uni ham, Musa akani ham kameradan olib chiqishdi.

U qamoqxonaning uzun o'ng yo'lagidan o'tib, sarhangning xonasiga burilarkan, Musa akani qarama-qarshi tomonga olib ketayotganlarini ko'rdi. Faridun: "Balki, bu oxirgi uchrashuvimizdir" degan fikrda to'xtadi-da, alvido nazari bilan orqaga boqdi. Musa aka zo'r qayg'u ichida boshini quyi solib ketar edi. U sokin va xayolchan edi. Birdan boshini ko'tarib yoniga boqdi. Yonida Faridunni ko'rmay hayajonga tushdi. Orqasiga qaytdi. Soqchilar miltiq qo'ndog'i bilan uning gardaniga tushirdilar. U yuz tuban yiqildi. Faridun "vahshiylar!" deya qo'llari bilan ko'zini yashirdi. Kimdir uning yelkasidan itarib:

—Og'o, kattalik qilma! Qani yur, sarhangning oldiga! — dedi.

Faridun behush holda ikki odim yurdi-da, qayrilib qaradi. U tor yo'lakning narigi boshida soqchilar bir narsani sudrab ketayotganlarini ko'rdi. Bu Musa akaning behush tanasi edi. Faridun ko'zlarini yumib, yuzini chetga burdi-da, g'amginlik bilan sarhangning xonasiga kirdi.

Sarhang uni ancha muloyimlik bilan qarshiladi.

— Endi bizga hamma narsa ma'lum ekaniga ishongan bo'lsangiz kerak deb o'ylayman? Bizdan yashirin sir yo'q. Gunohingizni yashirishga urinishingiz befoyda! Sizning vaziyatingizga tushgan kishining eng oqilona harakati o'z sheriklarining nomini va qayerdaligini aytib berish va o'z gunohini e'tirof etishdir.

Faridun keskin javob berdi:

— Sarhang, bu harakatlarning hammasi befoyda narsalar. Hukmingizni chiqaravering!..

Uni qaytarib kameraga olib ketdilar-da, uzoq vaqtgacha so'roq qilishga chaqirmadilar. U Musa akaning boshiga nimalar kelganini ham bilmadi. So'nggi marta sarhangning oldiga olib kelganlarida, Faridunning asablari juda taranglashgan edi. U olamda bo'layotgan hodisalardan bexabar edi. Eron tarixining yangi sahifalari ochilgani va bular sarhangning avzoyida ajoyib o'zgarishlar yasaganidan xabarsiz edi. Shuning uchun ham sarhang jallod kabi g'azab bilan qarshilar degan fikrda ichkari kirdi.

Sarhang boshini quyi solgan holda nimanidir o'qib o'tirardi. Qiyofasidan muhim bir narsani o'qiyotgani va bu narsa uning butun fikrini mashg'ul etgani sezilib turardi. U Faridunga juda horg'inday ko'rindi. Uning ko'zlari ancha ichiga botgan, ko'zlarining osti ko'kargan va hamisha g'azabli basharasining rangi o'chgan edi. Faridun eshik oldida turib uni diqqat bilan ko'zdan kechirardi. Sarhangning ko'zlari Kurd Ahmadlar yozgan maktubga tikilgan edi. To'grirog'i bir soatdan beri o'ninchi daf'a bu maktubni ko'zdan kechirar, har satr, har nuqtasi ustida o'ylab, aniq bir qarorga kelishga urinardi. Maktubni birinchi marta o'qiganida qizishib, achchig'langan edi. Maktubdagi tahdid unga yoqmagan, uning izzat-nafsiga tekkan edi. Bu hissiyotni uyg'otgan intiqom va g'azab Faridunni mahv etish kerak degan fikrga keltirdi. Ammo asta-sekin amaliy tushuncha va hayot instinkti natijasida intiqom

va g‘azabi sovib, Faridunni mahv etish fikri ham unga ma’nosiz tuyulgan edi. Haqiqatan ham Faridunning bir qancha qudratli kishilar bilan aloqada ekani ma’lum edi. Keyingi kunlarda fikrida aylangan va butun borligini egallab olgan mulohazalarga binoan sarhang Faridunni ozod etishga qaror qilgan edi. Kelajakda u kuniga yarashi mumkin edi. Rizo shoh taxtdan tushish arafasida edi. Buning natijasida dahshatli suvni to‘xtatib turgan to‘siq ko‘tarilib tashlangan bo‘lardi. To‘sig‘i ko‘tarilgach, bu selning qayergacha oqib borishini kim biladi deysiz. Bu oqimga tashlangan har bir tirgak biror yerda ish berishi mumkin edi. Faridun ichkari kirganida shu so‘nggi fikri qat’iy shakllanmoqda edi. Shuning uchun ham u Faridunni kutilmagan nazokat bilan qarshiladi:

— Oho, og‘oyi Faridun,— deb boshini ko‘tarib tirjaydi.— Og‘oyi Faridun, marhamat, o‘tiring! Men sizni yaxshi xabar bilan sevintirmoqchiman.— Faridun hech narsa anglamay, ko‘rsatilgan joyga o‘tirdi. Shubha va ishonchsizlik bilan to‘la ko‘zlarini sarhangga tikdi.

Sarhang ayni ohangda so‘zini davom ettirdi:

— Men qo‘lga tushirilgan ma’lumotlarning kifoya qilmasligini payqadim. Masalani chuqur va har tomonlama sinchiklab tekshirib, adolat va haqiqat yuzasidan sizni ozod etish lozim degan qarorga kelishdan bo‘lak chora qolmadi. Ha, adolat va haqiqat yuzasidan! Axir, bizning ishimizda adolat va haqiqat hamma narsadan yuksak turmog‘i lozim. Bizga o‘xshash kishilar na mansabiga va na shuhratiga mag‘rurlanmasligi kerak. Hech bir tazyiqdan qo‘rqmasligi, faqatgina haqiqat yo‘lida kurashmog‘i darkor. Agarda u shunday harakat qilmasa, u oliy mansab, buyuk shuhrat va obro‘ qozona olmaydi. Lekin nohaq zindonda chirish azobidan ozod bo‘lgan odamning tashakkur va minnatdorchiligi bizlar uchun mukofot hisoblanadi. Mening fikrimcha, dunyoda bundan ko‘ra buyukroq mukofot yo‘qdir. Inson yaxshilik qilish uchun yashashi va yaxshilik qilishdan zavq olishi kerak. Shunday emasmi, og‘oyi Faridun?

Sarhangda sodir bo‘lgan bu o‘zgarishdan hayratga tushgan Faridun, o‘ziga berilgan savolni javobsiz qol— dirmaslik uchun:

— Shunday! Shunday,— dedi.

Sarhang o‘rnidan turib uning yoniga keldi-da, qo‘lini siqdi:

— Bilasizmi, og‘oyi Faridun, men sizning begunoh ekaningizga allaqachon ishongan edim. Sizni ozod etish to‘g‘risida hujjatlarni ham tayyorlab qo‘ygan edim. Lekin bunga monelik qilgan narsa a’lohazratning insof va adolatni bilmagan tabiati edi. Ehtimol, siz mening bu so‘zlarimga ishonmassiz? Lekin bu haqiqat. Men siz bilan beg‘araz gaplashayapman. Alhol raisning roziligini oldim. Tabriklayman. Siz ozodsiz!

Faridun hali ham sarhang hiyla qilayapti deb sovuqqonlik bilan unga qarab turardi. Lekin sarhang ozod bo‘lishi haqidagi hujjatni oldiga qo‘yarkan, u ajoyib hayajonga tushdi. Sarhang tirjaydi.

— Ishonamanki, bundan so‘ng siz bilan yaxshi sharoitda uchrashmoq nasib bo‘lar. Axir, biz eski qadrdonlarmiz-ku. Shunday emasmi?

Faridun:

— Xayr, eski qadrdon!— deb qog‘ozni oldi-da, xonasidan chiqdi.

Sarhang uni eshikkacha kuzatib qo‘ymoqchi bo‘ldi. Lekin Faridun nimanidir eslagandek qaytdi.

— Sarhang, sizdan bir narsa so‘ramoqchiman.

— Marhamat! Marhamat!

— Bundan bir necha kun burun mening kameramga bir jinnini yuborgan edingiz. O‘zingizga ma’lumki, u mening tog‘am edi. U juda baxtsiz odam. O‘sha kishini menga bersangiz degan edim.

Sarhang kutilmagan bu iltimosdan shoshib qoldi va tili qaltirab:

— Og‘oyi Faridun,— dedi,— u keksa, kasalmand odam edi. Qancha davolashga urinsak ham iloji bo‘lmadi. Sizning kamerangizdan chiqqanidan ikki kun keyin vafot etdi.

Faridun indamay chiqib ketdi. Bu jahannamdan tezroq uzoqlashishga shoshilardi. Sarhang uning orqasidan qarab o‘zidan mamnun holda joyiga borib o‘tirdi. Oynaday yaraqlagan etikli oyoqlarini chalishtirib, sigara chekdi. Tutun sentabrning issiq havosida og‘ir-og‘ir buralib, xilma-xil shakllar yasar va sarhangning ko‘z oldini pardaday to‘sib turardi. Bu tuman pardasi orqa-

sida goh Hikmat Isfahoniyning, goh Shamsiyaning, goh Faridunning siymosi, goho sartibning titragan badani ko'rinar va dengiz girdobi singari bepoyon bo'shlikda ko'zdan g'oyib bo'lib ketar, yana ko'rinib, yana g'oyib bo'lib ketardi. Bu dahshatli girdob sarhangning qalbini notinch qilardi...

Ochiq havo va moviy ufqlarga boqar ekan, Faridunning qalbi shodlikka to'lar edi. Unda ilk bahorning xush islari bilan g'ayratlangan qushlar singari parvoz etish havasi uyg'onardi. Yer, tosh va chinorlarning chang bosgan yaproqlarini o'pgisi kelardi. Oh ozodlik!.. Sendan ko'ra lazizroq narsa bormi jahonda!.. Sening xushbo'y shamoling rangba-rang gullar o'stiradi, chaqir toshli qoyalarga yashil to'n kiygizadi, inson qalbida cheksiz havas va ehtiros uyg'otib, horg'inlikdan ijodga, azobdan hayotga, muqaddas hayot bilan yashamoqqa ruhlantiradi! Oh ozodlik!.. Sening kishi ruhining erkalovchi, xayoldek parvoz etuvchi qanotlaring ostida inson nimalarni ijod etmaydi-yu, nimalarga qodir bo'lmaydi!..

U qamoqxonaning tor va qorong'i muhitini unutishga urinar, ochiq havoda chuqur-chuqur nafas olardi. Ko'zi o'ngida og'ir tashvish singari doimo yuragini siquvchi qorong'i kamera emas, balki bepoyon va moviy osmon cho'zilib yotar edi. U osmonni tamosha etishdan to'ymasdi. Faridun ilgari ham yorqin ufq va moviy osmonga ko'z uzmay tikilishni sevardi. Ammo endi bular uning qalbida qandaydir yangi tuyg'ular uyg'otar edi. U yer yuzini, umuman butun koinotni hech vaqt hozir anglaganidek chuqur anglamaganga o'xshardi. Ular hech mahal hozir uyg'otayotgani singari yoqimli his uyg'otmagan edilar.

Shaharni to'ldirgan harbiy kishilar va mashinalar unga qiziq tuyuldi. Buning sababini tushuna olmadi. U dastlab uchragan kishidan:

— Og'o, aytingchi, bu nima gap o'zi?— deb so'radi.

U kishi Faridunga urush va yangi voqealar haqida gapirib berdi.

— Qayoqdan kelayapsiz, birodar?

— Qasri Qojordan chiqdim.

— Xudo xohlasa u joyning ham kuli ko'kka sovuriladi.

Faridun shahardagi buyuk o'zgarishni payqagach, o'z kvartirasiga emas, Rizo Qahramoniyning uyiga borishga jazm qildi.

Uyga yaqinlashar ekan, yuragi hayajon bilan tez-tez urib ketdi. Nazarida, qamalganiga o'n yilcha bo'lganday tuyuldi. To'xtab butun uyni ko'zdan kechirdi. Ko'zi ko'chaga ochiladigan derazaga tushdi. "Oh, qani endi, Rizo Qahramoniy uyda bo'lsa, rosa sevinardi-da!" deb xayolidan kechirib, shoshqich ravishda zinapoyadan ko'tarildi. Kampir eshikni ochar ekan, ko'zlariga ishonmadi. U bir nafas hayratlanib turgach, Faridunni bag'riga bosib, peshonasidan o'pdi. Kampir ko'zlarining yoshini artarkan:

— Shukur, Xudoga ming qatla shukur, salomat qaytibsan! — dedi. — Zindonlar eshigi ochilib, hamma omon-eson qaytsin!..

Faridun hol-ahvol so'rashganidan so'ng, Rizo Qahramoniyni yo'qladi. Qampir Rizo Qahramoniy hamisha temiryo'lda yurishini va hamisha hayajonli va shoshqich ko'rinishini aytib, ilova qildi:

— Na kechani biladi va na kunduzni. Ishlagani ishlagan. Yaqin o'rtada shohni haydaymiz, ozod zamon keladi, deydi. Hamma ozodlikka chiqadi, deydilar. Jandarma va politsiya zulmidan qutulamiz deyishadi. Qizil askarlar ham Qazvindan chiqib Qarajga kelishibdi. Nemislar tum-taraqay bo'lib qochib ketyapti. Pomeshchiklarimiz ham mana bu tomonga qochishayapti (u qo'li bilan janubga ishora qildi), ammo jamoatni xavfga solayotgan narsa inglizlarning kelishidir. Inglizlar hamma ishni rasvo qiladilar, xalqni tinch qo'ymaydi, deydilar.

Kampir aytib bergan bu uzuq-yuluq xabarni Faridun zo'r qiziqish bilan tingladi. U tikka-tik turib bir stakan choy ichgach, chiqib ketmoqchi bo'lgan edi, kampir uni to'xtatdi:

— Shu ahvolda qayoqqa borasan?.. Usti-boshingni qara, qay holda yuz-ko'zingni chang-to'zon bosib, naq darvishga o'xshab ketibsan. Bir nafas sabr qil, suv olib kelay, yuvinib, kiyim-boshingni o'zgartib ol.

Kampir suv isitdi-da, Rizo Qahramoniyning kiyimlaridan berdi. Faridun yuvinib, kiyimlarini o'zgartirdi. Keyin Kurd Ahmadni ko'rmoqchi bo'lib uydan chiqib ketdi.

U ketar ekan atrofga termulardi. Endi shahar ham, kishilar ham unga boshqacha bo'lib ko'rina boshladilar. Kishilarning harakat va so'zlarida qandaydir shoshqinlik, ko'zlarida esa tashvish va intizorlik bor edi. Go'yoki bu kishilar o'zlarini kurashga, qat'iy

janglarga da'vat etuvchi bir narsani kutayotganga o'xshardilar. Go'yo ozodlik bayrog'ini baland ko'tarib maydonga chiquvchi bir tashkilotni, bir boshliqni ko'zlamoqda edilarki, kelishi bilanoq uning orqasidan darsdek oqib zulm va istibdod binosini yer bilan yakson etadiganga o'xshardilar. Bu his uning ruhini yanada tetiklantirdi. Demak, ulug' ozodlik g'oyasi yo'lida hatto halok bo'lishga ham tayyor turuvchi qo'shin yetishmoqda. Demak, hayotning muhtojlik va zulmning chidab bo'lmas azoblari ostida qiynalib hozirlangan buyuk g'oya yuzaga chiqmoqda, shirin xayollar singari hamma mehnatkash va nomusli kishilarning ko'zlarida, orzu va amallarida bunyodga kelmoqda. U o'zida bitmas-tuganmas kuch his etdi. Uning qalbi kurashmoq, tashkiliy ishini qaytadan jonlantirmoq, mamlakatning hamma burchaklarida tashkilot shoxobchalari tuzib, bu minglarcha, millionlarcha kishilar bilan abadiy uzilmaydigan aloqa bog'lash orzusi bilan tepdi. U Kurd Ahmadni kontoradan topdi. Kurd Ahmad Hikmat Isfahoniyga savdo ishlarining ahvoli haqida ma'lumot berib bo'lgan ham ediki, Faridun kirib keldi. Kurd Ahmad uning ozodlikka chiqqanini ko'rib behad quvondi. Ammo Hikmat Isfahoniyning oldida o'z tuyg'ularini yashirishga urindi. Go'yo Faridunni tanimagan odamday:

— Og'o, biroz sabr qiling!— dedi.

Lekin Faridun kirib kelaverdi. Kurd Ahmad hayajon bilan boyagi so'zlarni takrorlagan edi, Hikmat Isfahoniy Faridunni ko'rib qoldi. U o'rnidan turib Faridunning istiqboliga yurdi.

— Oho, og'oyi Faridun, xush ko'rdik, xush ko'rdik! Marhamat, o'tiring, sizni kontoramga sherik qilib olaman. Bundan keyin yaqin do'st bo'laylik. Sen ham demokratsan, men ham demokratman! Har ikkalamiz ham anovi itvachcha zolimning zindonida yotdik, endi ozodlik bayrog'ini aslo qo'ldan qo'ymasligimiz kerak! Marhamat, o'tiring!

Faridun o'tirdi. Lekin istehzoli tabassumdan o'zini tiya olmadi.

— Nega kulayotganingizni bilaman,— dedi Hikmat Isfahoniy,— biz savdogar bo'lamiz, ko'zimizdan hech narsa qochib qutulmaydi, nimaga kulganingni tushundim. Aftidan, bu odam ham o'zini demokrat hisoblamoqda demoqchisan. Ammo qa-

samyod etamanki, bu yigirma yil hukm surgan reaksiya davrida ham qalbimda demokrat edim. Jahonda ozodlikdan ko'ra azizroq narsa yo'q. Mamlakatimiz ozod bo'lsin, savdo rivojlansin, oldi-sotdi kuchaysin, bozorlar jonlansin. Amerikadan, Angliyadan, Fransiyadan (gap shu yerga kelganda, biroz jim qoldi-da keyin ilova qildi) Sovetlar mamlakatidan mol olib kelib, bozorga to'kasan. Ozodlikning mazasi boshqacha bo'ladi!

Faridun kuldi:

— Og'oyi Hikmat Isfahoniy, nega yer haqida hech narsa demaysiz? Demokratlikning birinchi sharti yerni dehqonlarga bo'lib berish-ku.

Hikmat Isfahoniy jiddiy javob berdi:

— Ha, nima bo'libdi, avval ozodlikka erishaylik, itvachcha shohni taxtdan quvaylik, yangi majlis saylaylik, ana undan keyin yer masalasini ham ko'ramiz. Uni ham bir yo'lini topib hal qilamiz.

Faridun o'rnidan turdi, Kurd Ahmadning qo'lidan ushladi-da, Hikmat Isfahoniyga murojaat etib:

— Og'o, kechirasiz, bu kishida biroz ishim bor edi,— dedi. U Kurd Ahmadni eshikka tomon sudradi, eshikdan chiqmay turib yana Hikmat Isfahoniyga o'girilib:

— Og'o, hozir aytib qo'yayki, demokratiya uchun kurashmoqqa to'g'ri keladi,— dedi.

Hikmat Isfahonny borib Faridunni to'xtatdi:

— Azizim, kurashning nima keragi bor? Demokratiyani biz boshlayotganimiz yo'q-ku demokratiya uchun kurashib yursak. Angliya bilan Amerikadagi demokratiyadan o'rganamiz qo'yamiz-da.

— Yana bir demokratiya boru, siz uni eslamadingiz-da, a!

— Qanday demokratiya haqida gapirayotganingni sezib turibman. Sovet demokratiyasini nazarda tutayapsan! Yo'q, azizim, u bizning mamlakatga ketmaydi. Eronda unday ashaddiy demokratiya bo'lishi mumkin emas. Bizga inglizlar bilan amerikaliklar demokratiyasi mos keladi.

— Angliya va Amerika demokratiyasi Eronni jar yoqasiga keltirib qo'ydi. Qirq yildan beri eron xalqi siz aytgan "demokratiya-

ning" og'irligi ostida ingramoqda. Endi xalqqa boshqacha demokratiya kerak!

— Xo'p, og'o, bu masalani ham kelgusida hal qilamiz. Hozircha xayr! Xudo umr bersin!

Faridun ham:

— Xudo umr bersin!— deb chiqib ketdi. Sal yurgach, Kurd Aqmad uni to'xtatib:

— To'xta, yuzingni bir ko'ray, ukam, sen jallodlarning qo'lidan, xanjarning damidan salomat qutulding. Shukur, ming shukur!— dedi-da, g'ayri ixtiyoriy ravishda uni quchoqlab o'pdi.

Ajablanib boqayotgan kishilarga ahamiyat bermay, Faridun ham uni quchoqladi.

— Juda baxtliman,— dedi u.

Biroz indamay ketishdi. Go'yo bir tarzda urmoqda bo'lgan yuraklari suhbatlashar edi. Faridun Hikmat Isfahoniy bilan qilgan suhbatini xotirlab:

— Eshitdingmi, hali oldimizda katta kurash bor,— dedi,— Rizo shohni yiqitish bilan mamlakat ozod bo'lmaydi.

— To'g'ri, bizning haqiqiy kurashimiz endi boshlanadi. Bu kurash juda og'ir va shiddatli bo'ladi. Chunki shoh va hokimlar yo'g'on daraxtga chirmashgan devpechakka o'xshaydilar. Uni kesish bilan qutulib bo'lmaydi. Tag-tomiri bilan yulib tashlash, ildizini quritish kerak. Biz daraxt shirasini so'ruvchi devpechakning ildiziga kelib yetdik. Jang ana endi boshlanadi.

Ular, kelajakdagi kurashning xarakteri, shakli, hodisalarning kengayib borishi va oldilariga qo'yilgan maqsadlar haqida suhbatlashdilar. Kurd Ahmad urush harakatlari, hozirgi vaziyat, tashkilotning faoliyati, Xovar, Aram, Rizo Qahramoniy, Farida va boshqalar haqida Faridunga mukammal ma'lumot berdi.

Keyin zindon, siyosiy mahbuslarning ahvoli haqida gaplashdilar. Faridun boshidan kechirgan azoblarini Kurd Ahmadga aytib berdi. Kurd Ahmad do'sti chekkan ruhiy va jismoniy azoblarini tinglarkan:

— Zarari yo'q,— dedi,— istibdodning oxirgi kunlari yaqinlashmoqda. Zamon har bir zulmning intiqomini ham o'zi bilan

birga olib keladi. Shahidlar qonidan qizargan yerlarda yangi lolalar bitadi. Ozodlik bahori keladi.

— Do'stim, qorong'i zindonning zax devorlari ichida ham men mana shu ozodlik bahorining orzusi bilan yashar edim. Sizning harakatda ekaningiz va ozodlik uchun kurashayotganingizni bilardim. Demak, saflarimiz buzilmagan! Ana shu fikr yuragimga quvvat berar, ruhdan tushishga yo'l qo'ymasdi. Hatto azob-uqubat changalida aqldan adashgan sho'rlik tog'amni yonimga tashlaganlarida ham meni ruhiy tushkunlikdan saqlab qolgan narsa shu fikr edi.

Kurd Ahmad quvonganidan yurishdan to'xtadi:

— Demak Musa tog'ani topdingmi?

— Topdim ham, yo'qotdim ham.

Faridun Musa tog'aning fojiasini so'zlab berdi.

— Minglab oilalarni mahv etgan tuzum yakson bo'lishi kerak!

— Chekkan azoblaring evaziga senga yaxshi bir sovg'a tayyorlab qo'yibman, — dedi Kurd Ahmad va Faridunga qarab ma'nodor qilib kulimsiradi. Faridun savol nazari bilan unga tikildi.

— Aytmayman, uyga borganimizda ko'rasan.

Faridun Kurd Ahmadlar hovlisiga kirar ekan, eshik oldida Ayoz bilan uchrashdi. Bola bir nafas hayratlanib turdi-da, go'yo butun oilasini topganday shodlanib Faridunnnig quchog'iga otildi. Faridun uni ko'tarib bag'riga bosdi:

— Oh Ayoz!.. Azizim!..

Faridun bolaning boshini silab, yuzi-ko'zidan o'pdi. Sevinchining buyukligini endigina payqagan bola jilmaydi, chehrasi ochildi va go'yo eng muhim deb hisoblagan bir narsani Faridunga aytganday:

— Ko'chada qoldim-u, ammo yomon yo'lga yurmadim,— dedi.

Faridun bu so'zlarda, ularning ohangidagi jiddiy ma'noni angladi:

— Bilaman, Ayoz, bilaman. Sen o'zingni yaxshi tutasan, hamisha shunday bo'lishing kerak.

Uyga kirib o'tirishgach, Faridun bolaga ketma-ket savollar bera boshladi. Bolaning shoshib bergan javoblaridan Sariya xola va Gulnoz to'g'risida birorta ma'lumot olishga urindi. Broq, aniq ma'lumot olishga muvaffaq bo'lmadi. Faridunning sog'inchini payqagan Kurd Ahmad Gulnoz haqida Xovardan eshitganlarini aytib berdi:

— Xovar bilan Farida bugun uning manzilini bilib kelishni va'da qilishgan edi. Hozir ketlaridan boramiz.

Choy keltirildi. Faridun o'z sabrsizligini yengib tag'in umumiy ishlardan gap ochdi. Tashkilotning vaziyati haqida so'ray boshladi. Kurd Ahmad unga mukammal javob berdi, keyin soatiga qarab:

— Bir soatdan keyin miting bo'ladi, boraylik,— dedi.

— Albatta boramiz.

Bir soat ham o'tmay o'rinlaridan turdilar. Shaharni aylanmoqchi bo'ldilar. Ko'chaga chiqqanlarida quyosh g'arbga og'a boshlagan edi. Biroz yurib Lolazor xiyoboniga burilgan paytlarida:

— Sudobani ko'rdingmi?— deb so'radi Kurd Ahmad.

— Yo'q, zindondan uyga, uydan esa sening oldingga qoldim.

— Unday bo'lsa, yur — Sudobalarnikiga boramiz. Ularni ham mitingga olib boramiz. U juda yaxshi qiz. Butun borlig'i bilan bizniki. Yur, seni ko'rsa juda xursand bo'ladi, yur!

Faridun indamadi. Shaharning gavjum ko'chalaridan o'tib, Sudobalarning uyiga jo'nadilar.

O‘TTIZINCHI BOB

Onasining vafoti Gulnoz uchun taqdirning eng og‘ir zarbasi edi. Dastlabki kunlarda u butunlay umidsizlikka tushdi. Qalbida qo‘zg‘ala boshlagan va uni kurashga undagan hissiyot go‘yo bir onda yo‘qolib ketganday bo‘ldi. Yana cheksiz tanholik tuyg‘usi uning borligiga hokim bo‘lib oldi. Endi uning bu dunyoda hech kimi yo‘q, u kimsasiz va boshpanasiz edi. Nima uchun o‘zini o‘ldirmagani, nega onasi bilan qo‘shmozor bo‘lmagani, yana shu jahannamda yashamoqqa rozi bo‘lganiga taajjub qilardi... Bundan so‘ng nima uchun yashamog‘i va kimning intizorini chekmog‘i kerak?.. Faridun dorga osilgan, otasining qayerda o‘lib ketganini kim biladi?

Lekin bu mash’um tushunchalar, bunday sog‘lom va yosh yurakning hayot quvvatini, hayotga bo‘lgan muhabbatini, tumanli va shirin orzularini bo‘g‘a olmasdi... Yashamoq, yashamoq lozim edi. Uning o‘limi bilan hech kim baxtiyor bo‘lmasdi! O‘lmoq oson, har vaqt o‘lish mumkin! Lekin u faqat o‘zi uchungina yasharmidi? Xo‘sh, qashshoq bir dehqonning uyida qoldirib kelingan Olmos-chi? Xo‘sh, Tehronning shovqin-suronli ko‘chalarida yo‘qolgan Ayoz-chi?.. Oh, qani endi, ukasi bilan singlisi sog‘-salomat bo‘lsa, Gulnoz butun kishanlarini parchalab, bu zindondan qochib, ularni topar, kishilar uyida xizmatkor bo‘lib, kecha-kunduz ishlab ularni boqardi. Vayrona kulbada, siniq stol atrofida bo‘lsa ham ularga qayg‘u-hasratni unutdiruvchi bir baxt topardi!.. U go‘daklarni topib voyaga yetkazish uchun yashash va har qanday zulmga bardosh berishga tayyor edi... Ertaga ertalabdanoq yo‘lga chiqib, Ayozni axtarib topadi, bir yo‘la qishloqqa jo‘naydi! Yo‘l-yo‘lakay Olmosni ham olib, ota uyining yopiq eshigini ochadi, qorong‘i tunlarda ularning ham uylarida chiroq yonadi. Juma oqshomlarida uylariga keladigan ota-bobolarining ruhlari noumid

bo'lmaydi. Qishloq xalqi: "G'ayratli qiz ekan, ota-onasinnig chirog'ini so'ndirmadi..." deb uni hurmat etajaklar.

Shunga o'xshash yoqimli xayollar daryosiga g'arq bo'lgan kezlarida Gulnoz o'zini unutar va hayotning qalbiga shodlik keltiruvchi manzaralarini xotirlar edi. Bolalik, qishloq, qishloqning porloq tongini, qorong'ilik va ko'kda yulduzlar charaqlab turgan kezlarni, xo'rozlarning qichqirig'i, yam-yashil ko'katlar va daraxtlar ko'z o'ngida jonlanar edi. Itlar hurishi, yoz faslida toshuvchi soylarning sharillashi va qushlarning yoqimli sayrashi qulog'iga eshitilardi. Keyin ota-onasi, ularning to'ng'ich qizlari Gulnozni sevishlari, singil va ukalari, oxiri Faridun, bir umr esdan chiqmaydigan oydin kechalar, o'sha xirmon... kelib ko'z o'ngida turar va uni hayotga chaqirardi.

Kechqurun ishdan so'ng ostonada o'tirib, go'yo birov bilan suhbatlashayotganday pichirlar edi.

— U yerlarga salqin tusha boshlagan bo'lsa kerak. Kechalari Savalondan sovuq shamol esadi, daraxtlar asta-sekin sarg'aya boshlaydi.

U yo'l poylaganday ko'zini bir nuqtaga tikib qolardi. Keyin tag'in pichirlar edi.

— Biroz vaqtdan so'ng tong chog'ida qishlog'imizga tuman tushadigan bo'ladi. Oqshomlarda o'choqlardan ko'tarilgan tutunlar, bulutlar bilan aralashib ketadi. Qo'y va sigirlar g'aribona ma'raydilar. Qarg'a va boyqushlar go'ng ustiga qo'nishadi. Nima uchundir boyqushlar qishlog'imizga kuzda kelishadi. Boyqushlar hovlimizdagi go'ng ustiga qo'nishganda onam hamisha ularga ovqat sochar edi. Oh, uyimizning ahvoli qalay ekan, vayron bo'lib ketganmikan?..

Shunday xayollar bilan uylarini, oilalarini, yaxshi niyatlarini barbod qilgan boyqushlarning qiyofalari ham ko'zi oldida jonlanar edi: arbob, jandarmlar, Ali jandarmboshi, gumashta Mamad! Shunday hollarda Gulnoz o'z qalbidagi o'ch olishga chaqiruvchi sado tinmaganini anglar edi. U ishonch bilan: o'ch olmoq lozim der, hamma falokat va musibatlarga sabab bo'lgan, onasi va ukalarini bu g'urbat ko'chalariga otgan, o'zini bu qutulib bo'lmas jahannamga tashlagan, kichkina singil va ukalarini boshpanasiz

qoldirgan bu ofatlardan ayovsiz intiqom olmoq lozim! Otasining, Faridunning, qora sovuq tuproqda yotgan onasi va ukasi Niyozning qotillari o'shalardir! Faqat onasiningmi? Otasi va ukasiningmi? Yo'q, u ko'rganlaridan bilar ediki, bu ahvolga solingan kishilarning son-sanog'i yo'q. Savalon tog'i etaklaridan Tehronga qadar o'tgan yo'lida u bir emas, besh emas, ming, yuz minglarcha o'ziga o'xshash baxtsiz kishilarni ko'rdi. Uning qalbidagi o'chmagan tovush faqat bir oila, bir kishining emas, balki barcha baxtsiz kishilarning intiqom tovushi edi. Lekin...

Lekin u kim edi?

Yerda ham, ko'kda ham hukmini o'tkazuvchi Hikmat Isfahoniylar, gumashta Mamadlar, Ali jandarmboshi va Qamarbonular oldida u kim edi, ularga qarshi nima qila olardi? Ular Gulnozning ko'nglidan kechganlaridan xabardor bo'lsalar, uning tuxumini quritib yuboradilar...

Xayol va tushunchalari shu yerga kelib yetganda, u yana o'zini qutulib bo'lmas zindonda tushganday his qilardi. Kechalari tong otguncha tushida faqatgina bir narsani ko'rardi. U uchi-qiri ko'rinmaydigan bir ko'lga tushib qoladi. Saqichday yopishqoq loy bilan to'la iflos ko'l! U zo'rg'a bir oyog'ini sug'urib olib qadam tashlaydi, keyin zo'r bilan ikkinchi oyog'ini sug'urib oladi, biroq balchiq har ikki oyog'ini tizzasidan qattiq siqadi, uni qimirlashga qo'ymaydi, u qo'l va oyog'ini tipirlatadi, og'ir-og'ir nafas oladi, bo'g'iladi, keyin oyog'ini zo'rg'a balchiqdan sug'urib oladi-da, tag'in bir qadam tashlaydi, balchiq tizzasigacha ko'tariladi... Shunday qilib tong otguncha dahshatli tush unga tinchlik bermaydi... Yo'q, yo'q, faqat o'limgina bu iztiroblardan qutqara oladi, xolos! Xo'sh, Olmoschi, Ayozchi? Olmos allaqachonlar o'lib ketgan, axir, bir burda non topa olmagan ikki qariya uni sog'aytirib, qishdan olib chiqa oladimi? Onasi ham uning o'lishini bilgani uchun tashlab kelgan edi-da. Gulnozning onasi xuddi murdani go'rga ko'mganday qizchani qishloqi kampirning qo'liga berib, ohista ko'z yoshisini artgani Gulnozning esida. Keyin ona uni biror marta ham xotirlamadi. Ular Ayozdan tirik ayrildilar. Ayoz ham o'lgan, albatta. Katta odamlarni yutib yuborayotgan bu zolim, ochko'z shahar kichkina bolani sog' qo'yarmidi? Yo'q,

u ham o'lib ketgan. Endi Gulnozning navbati keldi. Hayot uni mushkulotlar qarshisiga qo'yib, undan qat'iy javob kutardi. U yo o'z nomusini yo'qotmay o'lishi yoki boloxonaga chiqib, Qamarbonuning xonimlariga aralashmog'i lozim edi! Boshqa yo'l yo'q edi. Onasi o'lganidan keyin, Gulnozning dunyoda hech bir himoyachisi qolmaganini va uning butun umidlari barbod bo'lganini payqagan Qamarbonu ham qat'iy qarorga kelgan edi. Uning har bir harakati va har bir boqishi: "Yo mening istagimni bajarasan, yoki o'lasan" der edi.

Ertadan qora kechgacha tinmay ishlash, dahshatli tushlar ko'rish, bir-biriga zid bo'lgan xayollar va qutulib bo'lmaydigan mushkulotlar Gulnozning butun borligini kemirar edilar. U o'zini yo'qotar, ishlarni ham ko'r-ko'rona, xuddi avtomat mashina singari bajarardi. Hatto keyingi kunlarda ikkita yaxshi idishni ham sindirdi. Qamarbonu uning beliga kosov bilan bir tushirdi. Keyin uning ustiga tashlanib do'pposlamoqchi bo'lgan edi, qizning keskin boqib turgan g'azabli ko'zlarini ko'rib, urishga jasorat etmadi-yu, ammo achchiq so'zlar aytdi:

— Hoy qiz, ko'zingga qarab yur, azbaroyi Xudo, boshingga shunday savdolarni solamanki, tug'ilganingga pushaymon bo'lasan! Behayo, ko'zimga qaragani uyalmaysanmi?...

Qamarbonu Gulnozni qarg'ab-qarg'ab zinapoyadan ko'tarila boshladi. Keyin yo'lda to'xtab, qo'llarini silkitgan holda bo'g'iq tovush bilan:

— Bugun oxirgi kecha, gap tamom-vassalom! — dedi.

Gulnoz qimir etmay Qamarbonu ko'zdan g'oyib bo'lguncha orqasidan qarab turdi. Bir nafasda qat'iy qarorga keldi-da, kerosin solingan idish bilan gugurtni olib o'zi yashaydigan yerto'laga yugurdi... Kerosin idishni g'isht terilgan polga qo'ydi. Rutubatli dim havosi, sovuq devorlari ichida isingan, yolg'iz qolgan og'ir daqiqalarida bir boshpana kabi sig'ingan yerto'lasi bilan abadiy vidolashayotganday to'rt tarafga jovdirab qaradi. Yerto'laning u boshidan bu boshiga yurdi. Burchakda nimadir oyog'iga ilashdi. Gulnoz uni qo'liga olib qaradi. Bu onasining murdasidan yechib olingan juldir kiyim edi. U yerda yotib juldir-juldir kiyimlarni bag'riga bosdi-da, o'krab-o'krab yig'ladi. Shu vaqtda uning

qulog'iga tashqaridan qandaydir tovush eshitildi. Uni chaqirishayotganday tuyuldi. U sakrab o'rnidan turdi-da, eshikning halqasini soldi. Kerosin idishni ko'tarib yelkasidan kerosin quydi. Sovuq bir narsa badanidan sizib tusha boshladi. Gulnoz titrab ketdi. Gugurtni axtara boshladi. Uni ancha vaqtgacha topa olmadi, sovuq qizning jon-jonini qaqshata boshladi. U shoshqin ravishda hamma yoqni timirskilay boshladi. Nihoyat, kichkina nimdosh yostiqning ustidan topdi. Mana gugurt, bir necha daqiqa umr qoldi. U gugurtni chaqadi, qip-qizil olov uning jonini chidab bo'lmas tahqir va so'ngsiz iztiroblardan qutqaradi.

U gugurtni chaqdi. Bir uchqun chaqnadi-da, darhol sokin yonuvchi olovga aylandi. Yerto'laning hammayog'i yoridi. Yana uning qalbidagi o'chmagan hayot muhabbati qo'zg'oldi. Oh dunyo naqadar go'zal! Bu sovuq, g'ishtin yerto'laning derazasi orqasida porloq quyosh bor, uning shu'lasidan hayot olib yashnagan chaman, yam-yashil o'tloq va daraxtlar odamni: "Kel, yasha!", "Kel, yasha!" deb chaqiradi. Dalalarda g'allalar oltinday sarg'aygan. Oh, Faridun ham o'sha yerda! U, Musa tog'asiga yordam bermoqda, ular xirmon ko'tarayotirlar. Keyin g'aram ostiga o'tirib, ayron ichadilar-da, suhbatga boshlaydilar.

— Inson yashash uchun tug'ilgan! — derdi Faridun.

Gulnoz ilgari yurib, Faridunni quchoqlamoq uchun qo'llarini uzatadi! Ota-onasi qarab turgan bo'lsa ham mayli! Nima qibdi, tashna bo'lgan kishi suv ichsa ayb bo'ladimi?..

Barmoqlari kuygan zahoti gugurt ham o'chib yerto'lani qorong'iliq bosdi. Yonib bitgan gugurt cho'pi yerga tushdi. Gulnoz xayoldan bosh ko'tardi, lekin serquyosh qishloq, xirmon va g'aramning osti ko'z o'ngidan ketmadi. Faridun uni imlaydi. Ayoz chaqiradi, Olmos esa quchog'ini ochib unga tomon kelar va:

— Kel, opa, kel! — derdi.

Gulnoz toqat qilolmay yerga o'tirdi. Uning miyasiga juda aniq va sodda bir fikr keldi.

— Yo'q, men o'zimni o'zim o'ldirmayman, chunki bu juda katta gunoh, juda katta gunoh! Agar o'ladigan bo'lsam qonim dushmanlarim ustiga to'kilsin! O'z qo'lim bilan o'z qonimni to'kmayman!

Go‘yo bu so‘zlarni devorlar ham takrorlayotganday bo‘ldi. Keyin go‘yoki har tomondan:

— Yetar, tur, zanjirlarni parchala, yorug‘ dunyoga chiq! — degan nido eshitilganday bo‘ldi.

Bu xayol ham, alahlash ham emasdi. Uning aqli-hushi joyida edi. Go‘yo uzoq uyqudan endi uyg‘onayotganga o‘xshardi. Shu vaqtgacha tumanli pardalar orqasidan ko‘ringan dunyoni endigina ochiq-oydin tomosha qilayotganday bo‘lardi. Ustidan og‘ir yukni tashlagan kishiday sakrab o‘rnidan turdi. Gugurt chaqib, jin chiroqni yoqdi. Gurkirab kerosin hidi kelib turgan ko‘ylagini yechib, burchakka qo‘ydi. Yostig‘i ostidagi eski kiyimini olib badanini artdi-da, yagona toza ko‘ylagini kiydi. Keyin gugurt chaqib, burchakdagi kerosinga belangan ko‘ylagini yoqib yubordi. Halqani ko‘tarib eshikni ochdi. Qorong‘ida yonayotgan ko‘ylakning kuchli shu’lasi hovliga tushdi. Kimdir ayvondan hovliga yugurdi, lovillab yonayotgan ko‘ylak yonida toshday qotib olovga tikilib turgan Gulnozni ko‘rsatib:

— Voy-dod, bu qiz uyga o‘t qo‘yib yubordi, kelinglar, — deb qichqirdi.

Kishilar hovliga tashlanib, yerto‘laning atrofini o‘rab oldilar. Gulnoz hali ham toshday qotib olovga tikilib turar va hech kimga ahamiyat bermasdi. Qamarbonu yonayotgan ko‘ylakka boqdi-da, Gulnozning qarshisida to‘xtab:

— Ha, quturdingmi, uyga o‘t qo‘ymoqchimisan! — deb qichqirdi.

Gulnoz indamadi. Bu hol Qamarbonuning battarroq jahlini chiqardi. U Gulnozning yelkasidan tortib:

— Bor, boltani olib o‘tin yor, o‘tin kerak! — deb uni turtib yubormoqchi bo‘ldi. Lekin Gulnoz daf’atan unga tomon o‘girildi:

— Bor o‘zing yor! — deb uning ko‘kragidan shunday itardiki, Qamarbonu devorga urildi, boshi g‘o‘la bo‘lishiga sal qoldi. Hamma ayollar hayrat bilan bir-birovlariga qaradilar, Gulnoz go‘zal qaddini rostlab, boshini tik ko‘tardi-da:

— Men sening malaying emasman, men ham odamman!.. — dedi.

* * *

Bu voqeadan so'ng Qamarbonu indamay o'z xonasiga kirib ketdi. Indamaganligining sababi juda achchig'i chiqqandan emasdi. Albatta, Gulnoz uning jonini bo'gziga keltirdi. U qizning harakatlarini o'jarlikdan boshqa bir narsa bilan izoh eta olmasdi. Nomus tuyg'usi insonga bu qadar ma'naviy va jismoniy quvvat berishini xayoliga ham keltirmasdi. U o'zining kichkina uyi bilan mehmonxonasini butun jamiyatning timsoli deb hisoblardi. Ichkilik va buzuq ishlar bilan mast qilgach, u eng mo'tabar mehmonlarga, masalan: savdogar, zamindor yoki politsiya xodimiga:

— Mening xotinlarim sizning xotinlaringizdan ko'ra ozodaroq, — derdi, — chunki sizlarning xotinlaringiz yashirincha qilgan ishlarni, bular oshkora qilishadi...

Bu so'zlarni aytgach, ko'zlarini suzib qah-qah urib kulardi.

Shunga ko'ra ham tabiiyki, Gulnozning o'jarligini chuqur ichki, ya'ni ma'naviy va axloqiy sabablarini anglashdan u juda uzoq edi. U faqat qarshisida yosh, zaif, ammo g'oyatda mag'rur va egilmas bir vujudni ko'rardi, xolos. Uni yosh va zaif hisoblagani uchun qizning qarshiligi ortgan sari Qamarbonu uning g'ururini yo'qotib, uning o'zini esa oyoqlari ostiga olib tepkilagisi kelardi. Lekin fikran yumshab: "Kuch egmaganni, so'z egadi" deb qizni shirin so'zlar bilan bo'ysundirishga urinardi. Qizga qattiq muomala qilgani uchun o'zini koyirdi. Hozir Gulnozning og'zidan: "Malaying emasman, bo'lmayman ham!" degan so'zlarini eshitarkan, qo'rqib orqaga chekildi. Qizga tashlanib, uning sochlarini bittalab yulmadi, holbuki, bu ishni zo'r g'ayrat bilan qilgan bo'lardi. Shunday qilmadi, chunki qo'rqdi. Qizning ham o'ziga qarshi qo'l ko'tarajagini payqadi. Boloxonada esa Qamarbonuning xayoliga boshqa fikrlar keldi: dunyo notinch bo'lib turgan vaqtda bu qizni xonimlar ichida saqlash xatodir. Bu qiz hamma xotinlarni buzadi. Ertaga ularning hammasi menga qarshi qo'zg'aladi. "Uni nima qildiki, bizni nima qiladi" deb boshimga chiqib oladilar. Bu fikrlar asossiz emasdi. Haqiqatan ham qizlar orasida asta-sekin Gulnozni hurmat etuvchi va unga o'xshab fikr yurituvchilar yetishmoqda edi. "Yo'q, uni xonimlar ichida saqlash yaramaydi" deb o'z fikrini yakunlardi Qamarbonu. Gulnozni "maxsus odamlar" uchun saqla-

nadigan xilvat uylardan biriga ko'chirish kerak degan fikrga keldi. U yerda qizni azoblamoq, oyoqosti qilmoq uchun yanada ta'sirliroq vositalar topilardi.

Lekin bu ishni hovlida yashovchilarning hammasidan yashirin ravishda qilmoq kerak deb ayvonga chiqib, xizmatkorni chaqirdi:

— Hoy yigit, borib anovi itvachchaga ayt, churuk-chalqitini yig'ishtirsin. Bitta foytun ham chaqir, egasiga olib borib beraman, qo'y, qishlog'iga jo'nab ketsin, bu molxona tozalashdan boshqaga yaramaydi.

Yarim soatdan keyin hovli darvozasidan bir foytun jo'nadi. Bu foytunning ikki burchagida ikki kishi o'tirardi. Bulardan biri Qambarbonu, ikkinchisi esa Gulnoz edi. Gulnoz haqiqatan ham ozod bo'ldim deb o'ylardi. Holbuki, umumiy xonadan karserga solingan mahbus edi.

* * *

Ikki kundan keyin daraxt va devorlar soyasi uzayib oqshom shabadasi tushgan paytda Qamarbonuning eshigi taqilladi. Bu oddiy eshik taqillashi emasdi. Kimdir juda shiddat va sabrsizlik bilan eshik halqasini gursillatib urardi. Qamarbonu xizmatkorni chaqirdi:

— Borib qara, eshikni buzmoqchi bo'layotgan kim ekan. Xuddi uyimga bosqinchilik qilish uchun kelgan odamga o'xshaydi!

Xizmatkor eshikni ochgan chog'ida Qamarbonuning o'zi ham hovlining o'rtasiga kelib qolgan edi. U shoshilinch kirib kelayotgan Xovarni darhol tanidi:

— Ha, xush kelibsiz, xonim qiz, oxiri o'zing o'z oyog'ing bilan kelding, qani marhamat, marhamat, ichkari kir.

Yarim istehzo va yarim jiddiy ravishda quchog'ini ochib Xovarning istiqboliga borarkan, ichkari kirgan bir notanish xotin bilan notanish erkakni ko'rib, og'zidagi so'zi bo'g'zida qolib, qoqqan qoziqday qaqqayib qoldi. Xovar unga yaqinlashdi:

— Gulnoz qani? Olib ketgani keldik!

Qamarbonu dastlab "Qanaqa Gulnoz?" deb so'rab, uni ham, Xovarni ham tanimasligini bayon etmoqchi bo'ldi. Lekin tezda bu fikrdan qaytdi.

— Nima qipti, olib ketarsizlar, qani, avval ichkari kirib bir stakandan choy ichinglar, keyin bafurcha gaplashamiz.

Farida o'zini tuta olmadi.

— Xonim, biz shoshib turibmiz. Qizni chaqiring, ketaylik.

Qamarbonu soxta hazin tovush bilan:

— Falakning ishini bilib bo'lmaydi, — dedi, — bechora qiz bebaxt ekan. Onasidan bir oy so'ng za'faronday sarg'ayib so'ldi. G'am-g'ussaga bardosh berolmadi.

U, Gulnoz va Sariya xola bechoraning qanday azob-uqubatga duchor bo'lgani, oxiri murdaday bo'lib bu yerga kelgani va uning vafoti haqida gapirib berdi. Ishonchli xizmatkori va e'timodli xonim ham shu yerda edi, ular Qamarbonuning gaplarini bosh qimirlatib tasdiqlar edilar. Hatto e'timodli xonim ro'molchasini olib, g'ayri ixtiyoriy oqqan ko'z yoshlarini ham artib oldi. Uni ko'rib Qamarbonu ham yig'ladi. Butun hovli, undagi odamlar va ularning harakatlari Faridunning ko'nglini aynitdi, u nafrat to'la tovushi bilan:

— Yig'lamang, xonim, — dedi, — shunday iflos ishlar borki, ularni ko'z yoshlari ham yuvolmaydi! Ularni yuvib tozalash uchun chaqmoq va to'fon kerak. Qarang, shu buyuk to'fon boshlandi. Uning qudratli gurillashi eshitilayotir. U, Gulnozni baxtsiz qilgan sizdek zolimlarni ham, sizlarni yaratgan muhitni ham yer yuzidan supurib tashlaydi!

Xovar, Farida va Faridun eshikni ochiq qoldirib, ko'chaga chiqdilar. Qamarbonu hayron bo'lib o'ziga tikilib turgan xizmatkoriga:

— Nimaga og'zingni ochib, hayvonga o'xshab ko'zingni lo'q qilib turibsan, bor eshikni yopib kel!.. — dedi.

O'TTIZ BIRINCHI BOB

Qizil Armiya Tehronning shimolida, Kirajda to'xtagan edi. Janubda Kirmonshohda ingliz qo'shinlari bilan eron qo'shinlari o'rtasida bitim tuzildi.

Tehronda eng keskin vaziyat yuz bergan davr edi. Qo'shinlar qochib ketgan, idoralarda ishlar izdan chiqqan, hamma yoqda betartiblik boshlangan edi. Hokimiyatdan, hali ham zohiriy sukut ichida yashagan saroydan boshqa hech narsa qolmagan edi.

Lekin siyosat olamida yuqori mavqega ega bo'lishni orzu qilganlar, istibdodning sodiq malaylari, o'z mol-mulki va jamiyatda hokim mavqeyini saqlamoqni istaganlar tezda tegishli joylar bilan uchrashib, urushning dastlabki kunlarida amalga kelgan to's-to'polondan foydalanib, ishga boshlagan edilar. Shunday guruhlardan biri Zargandada, Hikmat Isfahoniyning bog'ida ham to'plangan edi. Ularni ko'rgan odam jiddiy maqsad uchun emas, balki ziyofatga yig'ilishgan deb gumon qilishi mumkin edi. Yig'ilgan kishilar viqor bilan kezishar, tasbeh o'girishar, trubka chekishar, gurunglashishar, hatto hazil-mutoiba ham qilishardi. Shu bilan birga, hammasining qiyofasida jiddiyat va notinchlik ham namoyon edi. Eronda vujudga kelgan murakkab siyosiy vaziyat shu mahalgacha istibdod kishanlari ochiq faoliyat boshlashga imkon bermagan revolyutsion demokratik kuchlarning harakatga kelishi, xalq ichidagi jonlanish ularni tashvishga solib qo'ygan edi. Rizo shoh istibdodining so'nggi kunlari yaqinlashgan edi. Hech qanday kuch uni saqlab qololmasdi. Na Eronning savdogar va katta yer egalari, na ingliz-amerika imperializmi Rizo shoh hukmronligining umrini cho'zishga qodir edi. Lekin ular Rizo shohni qurbon qilish bilan o'z hukmronlik mavqelarini yo'qotish fikrida emasdilar! Hozirda ularning fikri bo'lajak Eronning yangi shohining fikri va irodasiga hokim bo'lish, uni o'z siyosatlarini ifoda etuvchi kishiga aylantirish edi. Shu maqsad bilan ular Hikmat Isfahoniyning Zargandadagi bog'ida ziyofat tashkil etishgan edi.

Bu yerga Eronning atoqli siyosatchilari, e'tiborli jurnalistlar, mashhur savdogarlar va katta yer egalari ham taklif etilgan edi.

Hikmat Isfahoniy mehmonlarni o'zi kutardi. Hovlida turib goh u tarafga, goh bu tarafga boqib, bir mehmondan hol-ahvol so'rab, boshqa biriga shirin so'z aytar va eshikdan ko'zini uzmasdi. Hatto mister Tomas bilan mister Garoldning shu yerdaligi ham uning intizorlik bilan eshikka ko'z tikishiga mone'lik qilmasdi. U shahzodani kutmoqda edi.Mister Tomas trubkasini tutatib, gerdaygan holda sovuqqonlik bilan uyoq-buyoqqa qarab qo'yar, u yonida g'ujanak bo'lib turgan kichkinagina Hakim ul-mulkdan:

— Og'oyi vazir, juda xayolchan ko'rinasiz? — deb so'radi.

— Vaziyat og'ir, mister Tomas, rus qo'shinlari Kirajda turibdi. Ozarbayjon va Gilondan hech qanday xabar yo'q, aloqa uzilgan...

Bu suhbatni eshitgan Hikmat Isfahoniy ta'na bilan:

— Sen nega Ozarbayjonning tashvishini chekasan? — dedi, — u yerda moling ham, mulking ham yo'q. Bor bisotingni Kirmonshoh, Isfahon va Sherozga to'plagansan. Men tashvishlansam arziydi, chunki g'alla qo'ldan ketdi, meva qo'ldan ketdi. Bolshevikni ko'rgan dehqon yer egasiga bir kaft don bermaydi.

— Bu falokat Ozarbayjondan bu tomonga o'tmaydi deb o'ylaysanmi? Hali Tehronga yetib kelganlari yo'g'-u, butun mamlakatda tartib-intizom buzilib ketdi, yalangoyoq gadolar qo'zg'alib, ozodlik haqida gapirmoqda. Kirmonshoh dehqoni ham shunday qilmoqda. Sarhang, Mozandarondan qanday xabarlar bor?

Sarhang ham ministrni quvontiruvchi biror javob bera olmadi.

— Og'oyi vazir, hammayoqda vahima, notinchlik. Asosli bir xabar yo'q. U yer-bu yerdan olgan ma'lumotlarimiz esa vaziyatning juda keskinlashib ketganidan darak beradi.

Sovet qo'shinlari Eronga kirishi bilan mister Tomasning juda tashvishi ortgan edi. Xalq orasida yuz bergan jonlanish, demokratik kuchlarning oshkora harakat boshlashi, qishloq va shahar mehnatkashlarining siyosiy aktivligi uning boshini qotirardi. U bularning oldini olmoq uchun yo'llar axtarardi.

— Og'oyi sarhang, — dedi u, — a'lohazrat Qirol davlati Eronda doimo osoyishtalik bo'lishining tarafdoridir. Noma'lum va johil kishilarning buzuqchilik qilishlariga chidab bo'lmaydi.

— Mister Tomas, hozirgi vaziyatda ularning yo'lini to'sish qiyin. Qo'shin qurolini tashlagan, jandarma va politsiya ham xizmatni tashlab qochib qolgan. Bunday zamonda gadolarning ustimizga yopirilishi tabiiy narsa.

Hikmat Isfahoniy kuyib-pishib:

— Mister Tomas, — dedi, — bu ishlarning oxiri nima bo'ladi? Bu yalangoyoqlar harakatga kelgan ekan, biz boshimizdagi qalpoqni ham saqlayolmaymiz. Sizlar ham shunday.

Hakim ul-mulk qo'lini g'arbga uzatdi:

— Xudoga shukurki, hozircha ularni nemislar ovora qilib turibdi. Bo'lmasa, o'z ichimizdagilar ham ko'z ochirgani qo'ymasdi. Bordi-yu, Gitlerning hujumini daf etadigan bo'lsalar, ahvolimiz mushkul bo'ladi, chunki tarozining bir pallasi g'arbda va ikkinchi pallasi esa bu yerda, Erondadir.

Hikmat Isfahoniy kuldi:

— Hozircha nemislar oldinga bosmoqda Mister Tomas, bu ishlarning oqibati nima bo'ladi?

Mister Tomas ikkinchi gal Hikmat Isfahoniyning savolini javobsiz qoldirishni istamadi. U trubkasini tutatdi:

— Dunyoda vaziyat juda yomon. Gitler yuzini Sharqqa burganidan beri tarix g'ildiragi ham o'z yo'liga tushdi. Bolsheviklar g'alaba qozonadimi yoki natsistlarmi, hozircha buni aytish qiyin. Har holda, ikkalasi ham bir-birovini boplab uryapti, bu Eronning kelajagi uchun ancha katta ahamiyatga ega.

— Albatta, — dedi Hakim ul-mulk, — bir qo'shni qanchalik zaif bo'lsa, boshqa qo'shniga shuncha yaxshi bo'ladi. Sovetlar urushdan zaiflanib chiqsa, bizga zavol yetmaydi.

Hikmat Isfahoniy mister Garoldga yuzlandi:

— Bu ham bizning do'stimiz Amerikaga bog'liq. Xudo haqqi, mister Garold, bizning butun umidimiz sizdan, Amerika va Angliyadan. Bizlarni bu tartibsizliklardan qutqaring. Eron zaif mamlakat, buning ustiga notob ham. Siz uning tabibi bo'ling, yordamingizni ayamang.

— Tashvish qilmanglar, og'olar, — dedi mister Garold, — bolsheviklar bu urushdan salomat chiqmaydilar. Har holda, qattiq shikastlanishlariga shubha yo'q. Ular o'z jarohatlarini davolashlari

uchun o'nlarcha yillar kerak bo'ladi. Ungacha Amerika va Angliya ittifoqi dunyodagi barcha xalqlarni o'z himoyasi ostiga oladi.

— Xudo sizlarning soyangizni hech mahal bizning boshimizdan ko'tarmasin, — dedi Hikmat Isfahoniy, keyin u kirib kelayotgan yangi mehmonlarni va Shamsiyani ko'rar ekan sarhangning qo'lidan ushlab:

— Sarhang, bu mehmonlar menga emas senga tegishli, — dedi.

Sarhang kuldi.

— Yo'q, hammasi sizniki, — deb Shamsiyani qo'ltiqladi.

Hikmat Isfahoniy yangi kelgan mehmonlar bilan qaytar ekan, daraxtlar ostiga to'kilgan xazonlarga boqar va ko'zlarini u mehmondan olib, bu mehmonga tikar edi. Ko'zlarida muntazirlik va maroq o'ynagan Shamsiya unga ahamiyat bermay, hanuz eshikka termulardi. U ham Shohpurni kutar edi. Sudoba bilan oxirgi marta uchrashganidan so'ng taqdiriga tan berib, sarhangga tegishga rozi bo'lgan edi. Tug'ilib o'sgan muazzam uylari, doimo uni erkalovchi odamlardan tashqarida birorta yaxshilik kelishini tasavvur eta olmagani uchun yashab turgan muhitiga moslashib, shirin umr kechirishga qaror qildi. Sarhang Safoiy xuddi soya singari uning yonidan siljimas, asta qo'lidan ushlab, uning go'zalligidan mast bo'lganday boshdan-oyog'ini tamosha qilib to'ymasdi. U sevgilisining parishon nazarini bir nafas bo'lsa ham o'z tomoniga jalb etmoq maqsadida:

— Kuz fasli haqiqatan ham go'zal, — dedi.

Shamsiya unga qaramay lablarini burdi:

— Men hech qanday go'zallik ko'rayotganim yo'q. Hamma narsa o'sishdan to'xtagan, yaproqlar to'kiladi, uyqu va g'aflat keltiradi.

— Bundan sal ilgari o'zing ta'riflayotgan eding. Kuzdan xursand bo'lishingni bayon etgan eding.

— Sal ilgari boshqa, hozir boshqa. Har suxan joye har nuqta maqome dorad[1].

Birdan hammaning oyoqqa turishi ularning bahsiga yakun yasadi. Hikmat Isfahoniy shoshib-pishib ikki qo'lini oldinga uzatgani holda bir necha ofitser atrofini o'rab kelayotgan Shohpurning istiqboliga oshiqdi. Shamsiya ko'zlarida maroq va hayajon o'ynagan holda:

[1] Har so'zning joyi, har nutqning o'z maqomi bor.

— Oh, Shohpur! — deb yubordi.

Nima uchundir ichki og'riq sezgan sarhang:

— Malikani olib kelmabdi, — deb qo'ydi.

— U ziyofatlarga malikasiz borishni yaxshi ko'radi.

Sarhang indamay qarshisida turgan odamlar bilan ko'rishib, shu tarafga kelayotgan Shohpurning oldiga borib, ta'zim qildi. Shohpur unga ahamiyat bermay, takabburlik bilan uning yonidan o'tib ketdi-da, Shamsiyaga yaqinlashdi, qo'l berib, hol-ahvol so'radi. Shamsiya yengil bosh egib, tabassum qildi. Shohpur o'ziga yaqinlashib kelgan mister Tomas bilan mister Garold tomonga ketar ekan, Shamsiya uning orqasidan ifodali nozik nigoh tashladi. Sarhang Safoiy uning qo'liga yopishdi:

— Xonim, men tomonga qarasangiz yaxshi bo'lardi!

Shamsiya unga zarda bilan qaradi:

— Siz hamma go'zal fazilatlaringizdan tashqari yana rashkchi ham ekansiz, — dedi, —tabriklayman, u holda ko'p iztirob chekishingizga to'g'ri keladi.

Sarhang hammaning Shohpur orqasidan ketayotganidan foydalanib, jur'at bilan so'zladi:

— Shamsiya, men shohparast va mansabparast odamman, buni yashirmayman. Lekin rashk masalasida hech kimga bosh egmayman. Esingda tut. Xoh Shohpur bo'lsin, xoh shoh...

Shamsiya xaxolab kulib, uni sudradi:

— Qani yur, shu so'zlaringni uning oldida ayt!

Sarhang bo'zday oqarib ketdi:

— Hay, jim, jim bo'l, jinni bo'libsan, rostakam jinni bo'libsan!

Hikmat Isfahoniy mehmonlarni xilma-xil taomlar bilan bezatilgan dasturxonlarga taklif qildi. Shohpurni eng to'rga o'tqazdi. Mister Garold bilan mister Tomasni Shohpurning ikki yoniga o'tqazdi. Bu yerda qadimgi eron odati bo'yicha, o'tirib emas, balki ingliz odati bo'yicha, tikka turib ovqatlanar edilar. Shuning o'ziyoq ziyofatga kelgan odamlar tamoman yevropalashgan, hozirgi zamon kishilari ekanini ifoda etmog'i kerak edi.

Hikmat Isfahoniy konyak bilan to'ldirilgan qadahni ko'tarib, Shohpurning sog'ligiga ichdi. Uning ketidan mister Tomas va mister Garold ham qadah ko'tarib, ular ham Shohpurning sog'ligi-

ga ichdilar. Eron o'z tarixining og'ir davrini boshdan kechirayotgani va bu davrning Shohpur tufayli yaxshi natijalar bilan tugashi haqida gapirdilar. Nihoyat Shohpur gapirdi. U goh mister Garoldga, goh mister Tomasga qarab, uzoq vaqtdan beri har ikkalasiga sig'inish zarurligini yaxshi tushunganini anglatuvchi ohangda:

— Biz ishonamizki, — dedi, — Eron bu dahshatli bo'rondan ham shikastlanmay chiqadi va o'z tarixining oqilona sahifasini ochadi. Eron o'z eski do'stining (u qadahni mister Tomas tarafga tutdi) va yangi xayrixoh o'rtog'ining (qadahini mister Garold tomonga tutdi) yordamini hech qachon unutmaydi.

Ziyofat davom etar, tostlar ko'tarilardi. Sarhang Safoiy esa bir-biroviga uzoq-uzoq tikilishayotgan Shamsiya bilan Shohpurdan ko'z uzolmas va ich-etini yerdi. Lekin bu uning basharasidagi yumshoq tirjayish va nazokatli harakatlariga sira mone'lik qilmasdi.

* * *

Saroyning atrofini yana qabriston jimligi bosdi. Yana uning darvozalarida qo'liga miltiq tutgan "gardi saltanati"[1] turardi. Hali ham ularning siymolarida qul va malay singari tobe'lik hokim edi. Butun mamlakatni titratgan zilzila go'yo saroyga yaqin kelmagandday edi. Hozir bu saroy har vaqtdagidan ko'ra mamlakatdan ajralib yashar, u abadiy tahdid etuvchi qilich singari mamlakat boshida osilib turardi. Saroy ichida hali ham qo'rquv va iztirobdan paydo bo'lgan qabriston jimligi hokim edi. Hali ham saroydagi odamlar pichirlab so'zlashar, tovush chiqarishdan qo'rqib, o'z borliklarini yashirishga tirishar, oyoqlarining uchida yurar edilar. Saroyda ko'zga tashlanadigan bir o'zgarish, a'lohazratning o'zini o'lguday sokin tutishi edi. U go'yo odamlarga qichqirish, ularni tez-tez so'kib tahdid etishdan, zindon va o'lim bilan qo'rqitishdan o'zini tiyayotganga o'xshardi. Uning g'azab bilan kezishini, tishini-tishiga qo'yib vazmin yurishi va chap yuzidagi qilich izini asabiy holda ko'rganlar bu vazminlik va muloyimlik a'lohazratga qanchalik og'ir tushayotganini anglab, g'iq etmay yurar edilar. Saroy a'yonlari ichidagi biroz fikr qiladiganlari: "Zolimlar uchun falokatdan yaxshi o'qituvchi yo'q" der edilar.

[1] Saroyni mudofaa qiluvchi qo'shin.

Rizo shoh na kechasi va na kunduzi farog'at qila olardi. U xavf va hayajon ichida yashardi. Rizo shoh taxt-u tojni shu qadar tezlik bilan qo'lidan ketajagini tasavvur etmasdi. Har narsaning bunday tez tugajagiga aqli yetmasdi. Holbuki u, o'z nomini Eron tarixining afsonaviy shohlari bilan bir qatorga yozdirmoqchi bo'lib yurardi. U ko'zi tiriklik chog'ida qilgan hukmronligidan tashqari, kelajak nasllarning ham xayollariga hokim bo'lajagi haqida o'ylar ekan, birdaniga, o'n-o'n besh kun mobaynida insoniyat tarixida ko'rilmagan beobro'lik bilan hamma narsadan mahrum bo'lish darajasiga tushib sukut etmoqda edi.

Nima uchundir keyingi vaqtlarda tez-tez uning yodiga yigirmanchi yillardagi hodisalar tushardi. Unga tarixning g'ildiragi aylanib ajoyib ravishda o'sha yillarni qaytarib kelayotganday tuyulardi. Tag'in turli-tuman partiyalar maydonga chiqardi, ozodlik va demokratiya degan so'zlar og'izlariga tushadi. Faqat farq shunda ediki, bu galgi sel uni chetga irg'itib tashlamoqda. U endi na demokratiya va na respublika pardasi ostida kurashga kirolmasdi. Bu bilan ham u yana taxtga qaytish haqidagi umidini yo'qotmasdi. Nemislar sovetlarga qarshi urushda yengilsalar ham ingliz va amerikaliklar Eronni qo'ldan chiqarmasligi va xalqni bosh ko'tarishga qo'ymasliklarini bilardi.

Rizo shoh ichkari kirgan Hakim ul-mulkdan sabrsizlik bilan:

— Sartib o'ldirildimi? — deb so'radi.

Hakim ul-mulk javob o'rniga, eshik tomonga o'girilib ofitser formasida ichkari kirgan sarhang Safoiyni ko'rsatdi. Sarhang kelin uyiga to'y olib boruvchi yangalar singari qo'lidagi yashil gulli ro'molga o'ralgan qutichani stol ustiga qo'ydi. Rizo shoh keskin harakat bilan ro'molni ochdi. Bir varaq qog'ozni olib o'qidi. Bu sartibning o'ldirilgani haqida akt edi. Lekin o'qir ekan tinchish o'rniga borlig'ini vahima o'rab oldi. Go'yo kichik qog'oz parchasi jonlanganday bo'ldi. U go'yo jonli odamga aylanib Rizo shohni tahqir eta boshladi. Qog'oz orasidan sartib Salimiyning g'azab bilan yongan ko'zlari unga tikildi. Rizo shoh uzun qalam bilan kichkina qutichani urib:

— Bu odam Eron uchun zo'r tahlika bo'lar edi! — der, sarhangga o'girildi:

— Pahlaviy nasliga vasiyat qilaman, ular sizni unutishmasin!

Sarhang:

— Hamisha sodiq qulingizman! — deb ta'zim qildi.

Shoh qutichaning ustiga ipak ro'molchani yopib qo'ydi. Qo'li bilan sarhangga: "Ket" deb ishora qildi. Sarhang boshini egib orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

Rizo shoh chuqur bir xayoldan so'ng yuzini Hakim ul-mulkka o'girib:

— Bu toji-taxtga sodiq odam, vazir! — dedi.

Hakim ul-mulk javob o'rniga "Sado" gazetasini ochib shohning oldiga qo'ydi. Shoh Pahlaviy dinastiyasining zulm va istibdodiga qarshi yozilgan maqolaga tikildi. U g'azab bilan:

— Bu odam hali ham o'ldirilgani yo'qmi? — deb baqirdi.

— Yo'q, a'lohazrat, shahzoda mister Garoldning so'roviga binoan uni ozod qilish to'g'risida farmon berdilar. Sarhang uning qiziga uylanmoqchi.

Rizo shoh:

— Eh, xoinlar, olchoqlar! — dedi-da, gazetani bir burchakka otib yubordi.

U bir qancha vaqt uy ichida kezib yurgandan keyin, o'z joyiga qaytib keldi. Rizo shoh o'z fikrini band etib, butun borlig'ini azoblayotgan masaladan gap ochdi:

— Vazir, — dedi, — qadim vaqtlarda Vaviloniyada yangi podsho saylamoqchi bo'lganlarida, o'lgan shohning murdasi ustida turib, uning yaxshilik va yomonliklarini xalqqa aytib berar ekanlar. Aytchi, shunday bir yig'in bo'lib, senga so'z berishsa, nima derding?

Hakim ul-mulk qovoq ostida shohga qaradi:

— Xudoga shukur, a'lohazrat sog'-salomatlar.

— Yo'q, vazir, bugun Eron tarixi meni dafn etmoqda. Aytchi, kelajak nasllar men to'g'rimda nima deyishadi?

U Hakim ul-mulkka juda ayanch bo'lib ko'rindi. Hatto ovozi ham o'zgarib ketgandi. Go'yo bu gapirayotgan kishi o'n besh yil davomida mamlakatni titratgan zolim emas, balki o'zining son-sanoqsiz jinoyatlari og'irligi ostida ezilgan va shafqatsiz sud qarshisida turgan mahkum edi. U kelajak nasllarning dahshatli in-

tiqomini eshitgan kabi Hakim ul-mulkning javobini kutmasdanoq, o'zini oqlashga tirishdi.

— Men Eronni xalq joniga chigirtkadek yopishgan mullalar qo'lidan qutqardim. Men Eron xotinlarini badnom qilgan chodrani tashlatdim, boshlardagi chirkin qalpoqlarini bekor qildim. Men yo'llar qurdirdim. Mashinalar keltirdim. Men Eron uchun abadiy bir tahlika bo'lgan Ozarbayjon va Kurdiston aholisini bostirdim, ular qo'yday yuvosh bo'lib qoldilar. Ularning tilini, odat va an'analarini mahv etdim. Eronning shimoliy chegaralarini mustahkamladim. Men... xo'sh, bularning hammasiga nima deysan?

Shoh o'z xizmatlarini birma-bir hisoblab chiqar ekan, Hakim ul-mulkning ko'zi o'ngida boshqa hodisa jonlanardi. Bu to'g'rida zolim shoh hech narsa demadi. Hakim ul-mulk Rizo shohning hokimiyat tepasiga kelgan vaqtini esladi: u Eron hukmroni Ahmad shohni Yevropa safariga jo'natib, uning yo'qligidan ustalik bilan foydalandi. Demokratik kuchlarni aldab, hokimiyatni qo'lga kiritdi. Keyin esa o'z dushmanlaridan qonli o'ch ola boshladi. Bu tarix sahifalarida u ham o'z titilgan qalbi, nihoyasiz azob va ruhiy kechinmalar bilan 15 yillik hayotini ko'rardi. 15 yildan beri vazir bu zolim shohning barcha tahqir va tahdidlariga chidadi, o'z shaxsiyatini, o'z izzat-nafsini jilovlab, uning hamma haqoratlariga bardosh berdi. 15 yildan beri u qalbida shohga qarshi bo'lgan nafrat hislarini bo'g'ib yashadi. Hozir 15 yillik umrini zaharlagan odam qarshisida turardi. Hozir shu 15 yil davomida chekilgan azob va tahqirlarning o'chini olishi mumkin edi. 15 yil davomida, biror marta bo'lsin boshini ko'tarib, qaddini rostlab gapirishga imkon topolmadi. Uning butun borligi bu qulay fursatni qo'ldan boy bermaslikni talab etardi.

— Hisoblaganlaringizning hammasi to'g'ri a'lohazrat, ammo to'liq emas.

Rizo shoh o'z xizmatlari boshqalar tarafidan ta'rif etiladi degan umidda:

— Xo'sh, vazir, nimani qo'shimcha qilmoqchisan? — deb so'radi.

Hakim ul-mulk ashaddiy dushmaniga dahshatli zarba bermoqchi bo'lgan kishi vaziyatini oldi.

— Men shuni qo'shimcha qila olamanki, a'lohazrat, yuz yildan ortiq vaqtdan beri Eron tarixi shu 15 yillik hokimiyat davridagi singari qonli va sharmandali bir davrni ko'rmagandi!

Rizo shoh bu kutilmagan zarbadan titrab ketib, o'rnidan turdi. Hakim ul-mulk ham o'rnidan turdi. Hukmronligining so'nggi daqiqalarini boshidan kechirayotgan shoh nafrat bilan unga boqdi:

— Xo'sh, shu 15 yil davomida har kuni yuz martadan mening oyog'imga bosh qo'ygan, qarshimda yer o'pgan, menga maddohlik qilgan sen emasmisan?.. Hakim ul-mulklar, Hikmat Isfahoniylar, sarhang Safoiylar emasmi?

Chekinish fikrida bo'lmagan Hakim ul-mulk yirtqichning ko'ksiga urgan xanjarni yanada chuqurroq botirdi:

— Ha, a'lohazrat! Senga sajda qilgan biz bo'lamiz. Ammo hurmat va muhabbat vajidan emas. Seni hurmat qilishimizning sababi sen bizning siyosatimizni yurgizarding, jonimiz va molimizni qo'rirding. Bu sajda qilish bilan biz seni hurmat qilmas edik, balki sendan nafratlanardik. Seni hech kimga omon bermagan zulmingdan, hech kimga shafqat qilmagan dorlaringdan, omonsiz zindonlaringdan qo'rqardik. Rizo shoh vazirning yoqasidan bo'g'moqchi bo'ldi. Vazir bir qadam orqaga chekindi:

— Og'oyi Rizo shoh ittifoqchilar 24 soat ichida sizni Tehrondan chiqib ketishingizga ijozat berdilar, yo'lga chiqishga tayyorgarlik ko'rsangiz yaxshi bo'lardi.

Rizo shoh tizzalari titrab o'z joyiga o'tirdi:

— Sizlar mendan ko'ra ham olchoqroqsizlar! Agar hukmronligim sizlarning qo'lingizda bo'lganda edi, hech kimga omonlik bermas edingiz. Hech kimga! Men davlatni sizlar kabi olchoq odamlarga topshirib ketganimga xursandman. Chunki sizlarning qonli ishlaringizning guvohi bo'ladigan nasllar menga tashakkur aytadilar.

U boshini kaftlari orasiga olib jim bo'lib qoldi. G'azab va kindan portlash darajasiga kelgan yuragi toshday og'irlashgandi. Go'yo o'ylash qobiliyati yo'qday, nimalar bo'layotganini anglashdan ojiz edi. Og'ir bir parda asta-sekin ko'zlarining qovog'i ustiga yopirilib tushmoqda edi:

Bu hodisa Eronning quyosh yili hisobi bilan 1320-yil 25-shahrivar oyida yuz berdi, bu 1941-yil 16-sentabrga to'g'ri keladi.

O‘TTIZ IKKINCHI BOB

17-sentabr chorshanba kuni Qizil Armiya Tehronga kirib kelganda, ko‘chalar odamga liq to‘la edi. Minglarcha kishilar hayrat va muhabbat bilan to‘la ko‘zlarini Qizil Armiyaning jangchi va komandirlariga tikib, ularni olqishlar edilar. Xalqlar nazarida, Qizil Armiya kelajakdagi xush kunlarga, ozodlik va saodat dunyosiga yo‘l ochuvchi bir kuch edi. Reaksionerlar va qora guruhchilar esa kin va vahimalar to‘la nazar bilan boqar edilar.

Rizo shohning toj-taxtdan voz kechishi hokimlar va reaksion tabaqalarni juda shoshirib qo‘ydi, xalqda esa so‘ngsiz sevinch va umid tug‘dirdi. Mehnatkash xalq ommasi Eron osmonida abadiy ozodlik quyoshi paydo bo‘lgani haqida o‘ylar va bu tuyg‘ularini ifoda etishdan chekinmasdi.

Qizil Armiya katta Kiraj yo‘lidan shaxdam qadamlar bilan Tehronga kirib kelardi. U buzilmas saflar bilan kelar ekan, zo‘r qudrat, yuksak ma’no, sof g‘oyani ifodalar edi. Uning boshi ustida haqiqiy ozodlikning abadiy simvoli bo‘lgan qizil bayroqlar hilpirardi. Qurolini bag‘riga bosgan jangchilarning ko‘zida abadiy tinchlik nurlari porlardi. U ko‘zlarda cheksiz mehr-muhabbat va do‘stlik bor edi. Yo‘q, shaharga oddiy armiya kirayotgani yo‘q, bu aslida insoniyat uchun qardoshlik va saodat, ozodlik va yaxshi kun olib kelardi. U shaharga yangi bir dunyo, minglarcha kishilarga xayol singari uzoq ko‘ringan yangi bir hayot olib kelardi... Shuning uchun ham shahar zo‘r diqqat va qiziqish bilan uning oyoq tovushlariga quloq solar, har bir qadamini maroq bilan kuzatar edi. O‘n minglarcha kishilar Qizil Armiyaga to‘yib boqish uchun, Sovet jangchilarining yuzlarini tomosha etish uchun yo‘lkalarni to‘ldirgan, tom va boloxonalarga chiqib olgan, devor va sim yog‘ochlarga chirmashgan edilar. Ular Qizil Armiyani, uning azamatlarcha qadam tashlashini tomosha qilar edilar. Janubga tomon cho‘zilib ketgan shaharda odamlar g‘ujg‘on o‘ynar, xalqning

ko'pligidan igna tashlasa ham yerga tushmasdi. Hammayoq odam bilan liq to'la edi. Armiyaning oldingi saflari yaqinlashar ekan, sukut va hayrat ichida turgan olomon ichidan yuzlarcha sado eshitildi:

— Zindabod Artashi Surx![1]

"Ura!" sadolari jo'shga kelgan daryo singari olomonni titratib yubordi. Kimdir ko'chaga otilib, qizil askarlarning boshlariga gul sochdi. Yana "ura" sadolari yangradi.

Faridun, Kurd Ahmad, Aram, Rizo Qahramoniy, Farida va Sarxon ham indamasdan turar va o'tib ketayotgan Qizil Armiya qismiga mehr-muhabbat bilan boqib, yuraklari tez-tez urardi. Ular ham minglarcha kishilar singari mashinalarda o'tib ketayotgan jangchilarning chehralari, kiyimlari, belgilarini zavq bilan tomosha qilar edilar. Qizil Armiya jangchilari va komandirlari qo'llarini silkitib tabriklayotgan olomonga muhabbat bilan boqar edilar. Endi har tomondan Qizil Armiya boshiga gullar sochilardi. Shoshib qolgan hukmron doiralarning qarshiligiga qaramay, Qizil Armiyani "sukut bilan" kutib olish mumkin bo'lmadi. Asliga qaraganda, buning uddasidan chiqadigan kuch yo'q edi. Davlat idoralarining hammasi buzilgan, harbiy tashkilotlar tarqab ketgan edi. Boylar, harbiy xizmatchilar va amaldorlarning yashiringanlari —yashirinib, yashirinmaganlari boshini olib janubga qochgan, ertaga Tehronga kirajak ingliz qo'shinlariga borib qo'shilishga shoshgan edi. Xalq esa uy-joyini ham tashlamadi. Janubga ham qochmadi. Xalq uzoq yillar davomida azob-uqubatda yashab, endi birinchi marta o'zini ozod his etib, erkin nafas olar edi. Kishilar, uylarini, ishlarini tashlab, do'konlarini yopib ko'chaga chiqishib, Ozodlik Armiyasining kutib olardilar. Hukmron doiralar necha yillar davomida har kuni tarqatib kelayotgan ig'vo va yolg'onlar xalq qalbidagi Lenin va Stalin nomiga bo'lgan muhabbat va ishonchlarini bo'shashtirolmadi, xalqning Sovet Armiyasini kutib olishda tabiiy namoyishga aylanib ketgan tantanali chiqishini to'xtatolmadi. Kishilar sevinib ketganidan bir-birlarini quchoqlar, o'par, shodlanar, "kishanlar uzildi" deb bir-birlarini tabriklashar edi. Faridun quchoqlashib o'pishayotgan, bir-birovini osmonga

[1] "Yashasin Qizil Armiya!"

otib tutayotgan: "Oshna, o'lmadik, bu kunlarni ham ko'rdik!" deyayotgan temiryo'lchilarni Kurd Ahmadga ko'rsatib:

— Iye, biz nimaga turibmiz? — dedi-da, uning bo'yniga osildi.

— Axir, biz ham istibdod og'irligini ozmuncha chekkanimiz yo'q-ku!

Kurd Ahmad uni o'pib:

— Sen hammamizdan ko'ra ko'proq azob chekding, sening har narsaga haqqing bor! — dedi.

— Yo'q, unday dema, men nomusli bir vatanparvar sifatida o'z burchimni ado etdim. Sizlar ham men singari... porloq istiqbolni ko'rmoqdasiz. Do'stlarim, orzumizga yetamiz, bu sho'rlik xaloyiqning ham baxt-saodatga yetganini o'z ko'zimiz bilan ko'ramiz!...

— Bu tarixiy kunni hozirgi kishilar ham, kelajak avlodlar ham aslo unutmaydilar. Bu tarixiy kunni bizlarning bola-chaqalarimiz ham, nevara-chevaralarimiz ham abadiy eslaydilar!.. — dedi Kurd Ahmad.

— A, Sheroz bolasi! — deb qichqirdi quvonch bilan bir tovush. Ular o'girilib qaradilar. Ikkita oyoqyalang, boshyalang kishi odamlar orasidan o'tib bir-birovlariga yaqinlashar edilar.

— Xo'sh, ahvollar qalay, ardabil bolasi?...

— Qalay bo'lardi, bayram-da, bayram!.. Sen bilan bizning bayramimiz!

Ular bir-birovlariga yaqinlashib quchoqlashdilar Sherozli deb atalgan odam:

— Haqiqatan ham bayram, — dedi... — Navro'zdan ham yaxshi.

Kimdir achchig'ini ichiga yutolmay ularga boqdi:

— Avval oyog'ingga choriq topib kiygin-da, keyin bayram qilgin! — dedi, ularga yaqin joyda turgan novcha bo'yli, koverkot kastum kiygan, qo'liga chiroyli hassa ushlagan kishi.

— Tashvish qilmay qo'yaqol, og'o, choriq ham topib olaman, — dedi ardabillik kishi. — Bayram masalasiga kelsak, men uchun bundan katta bayram yo'q, chunki Rizo shohni taxtdan ag'dardik. Endi o'lsam ham armonim yo'q.

— Podadan oldin chang chiqarma. Rizo shoh ag'darilgan bo'lsa, o'rniga o'g'li o'tirdi. Ertaga bu ko'chani bir kelib ko'rgin.

Ertaga payshanba. Tehronning janubiga bir borib qaragin. Bu tomonga kim kelayotgan ekan.

Sherozlik unga nafrat bilan qaradi.

— Unda seni tabriklash mumkin. Inglizlar senga yordam berish uchun shoshilayotirlar, og'o, xo'sh, sen nega bu yerda qolding, o'rtoqlaringning hammasi chemodanini ko'tarib janubga qochib ketganiga ancha bo'ldi-ku. Yo sen josusmisan-a!

Ardabillik o'zini yo'qotib qo'ygan novcha odamning yo'lini to'sdi:

— Og'o, ko'zimga qara, sen aytgan zamon o'tib ketgan!...

Novcha odam bo'ynini ichiga tortib, olomon ichida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Faridun o'rtoqlariga sinovchan nazar tashlab:

— Do'stlarim, qarshimizda og'ir kurash turipti, haqiqiy jang endi boshlanadi! — dedi.

* * *

Kunlar o'tgan sari ishchi tashkilotlari tuzilib harakat boshlar, demokratik gazetalar chiqara boshlar edi.

Faridun, Kurd Ahmad, Rizo Qahramoniy, Sarxon, Farida va Aram Simonyanlar charchash nimaligini bilmay, shu tashkilot va gazetalarda xizmat qilar edilar. Sudoba bilan Xovar ham shu ishga jalb etilgan edi. Qarshida keng va bepoyon ufqlar ochilardi... Xush bir kelajak jilvalanardi. Bu kelajak qarshisida go'yo o'tmishdagi barcha dard-alamlar unutilganga o'xshardi. Janub zindonlaridan qaytib kelgan bir necha jamoat arboblari ham faoliyat ko'rsata boshlagan edilar. Ilk sarosimalikdan so'ng o'ziga kela boshlagan va ingliz qo'shinlarini ko'rib yuraklangan reaksionerlar ham harakatga kirdilar. Ular yana davlat organlarini egallab oldilar. Biroq, xalqning tazyiqi bilan ularni chekintirmoq mumkin edi. Kurd Ahmad bilan Faridun uydan chiqib, shoshilgancha, shu maqsad bilan tayinlangan mitingga ketmoqda edilar. Ko'chada olomon ularni ham o'z quchog'iga oldi. Go'yo shaharning har tarafidan odamlar shu tomonga oqib kelmoqda edi. Tartibsiz holda harakat qilib hech qanday intizomga bo'ysunmagan, bir-birini turtib-itarib ilgari intilgan minglarcha kishilar shovqin-suron ko'tarib allaqayerga oshiqmoqda edilar. Bu oqimning ichida har xil odamni uchratish

mumkin edi: unda ishchilar, dehqonlar, chakanafurushlar, umuman istagan tabaqaning vakili bor edi. Lekin ularning aksariyati kambag'allar va mehnatkashlar ekanligi darhol ko'zga tashlanib turardi. Fabrika va zavod ishchilari, mayda hunarmandlar, temiryo'l ishchilari, kosiblarning shogirdlari va hech qanday hunari bo'lmagan minglarcha ishsizlar to'g'oni buzilgan daryodek oqib kelishar va qichqirishar edi:

— Zindabod ozodiyi Eron!

— Murdabod rejimi istibdod![1].

— Yo'qolsin Pahlaviy!

Har tarafdan sado va shiorlar eshitilardi. Odamlar "Ura" deb qichqirishardi. Har yuz qadamda charchamay qichqira-qichqira shior tashlagan notiqlarni yelkalariga ko'tarib olgan odamlar to'dasiga duch kelish mumkin edi. Baland tovushli notiqni yelkalarida ko'tarib kelayotgan bir to'da kishilar Faridun bilan Kurd Ahmadning diqqatini jalb qildi. Ular tikilib Rizo Qahramoniyni tanidilar. Uni ko'tarib kelayotgan temiryo'l ishchilari edi. Sarxon, uning kochegari va Rustam ham shular orasida edi. Rizo Qahramoniy o'zining baland va hayajonli tovushi bilan olomonni tetiklantirdi:

— Yo'qolsin qonli istibdod! Biz non talab qilamiz! Biz ish talab qilamiz! Bolalarimizga non beringlar!..— deya xalq qalbidan chiqqan shiorlarni maydonga tashlardi. Nihoyat u:

— Ozodlik uchun uch marta ura! — deb xitob qilaylik — dedi. Son-sanoqsiz odamlar atrofni titratib uch marta:

— Ura! Ura! Ura! — deb qichqirdilar.

Firdavsiy ko'chasida olomon odimini sekinlatib zichlashardi. Tiqilinchdan qimirlash ham mumkin emasdi. Igna tashlasa yerga tushmasdi. Faridun bilan Kurd Ahmad odamlarni oralab ilgari intilishar, bir amallab, minbar o'rnida xizmat qilishi lozim bo'lgan uyning balkoniga yetib olmoqchi bo'lishardi. Lekin odamlar devordek zich va mahkam turishar, bir qadam ham siljish mumkin emasdi. Shu payt ko'chadan motorlarning gumbirlagani eshitildi. Odamlar orqaga tislandilar. Motosiklda uchta jandarm bilan bitta jandarmboshi kelib qoldi. Ular Rizo Qahramoniyni yelkasiga ko'tarib olgan temiryo'lchilar to'dasiga yaqinlashdilar.

[1] Yashasin Eronnnng ozodligi! Bitsin istibdod rejimi!

Jandarmboshi ularga g'azab bilan tikilib tarqalishni buyurdi:

— Yo'qolsin istibdod malaylari! — deb qichqirdi Rizo Qahramoniy. "Ura" ovozlari ostida jandarmboshining yana nimalar deb baqirayotganini eshitib bo'lmadi. U g'azablanar, bo'g'ilar edi. Oldida turgan bir ishchining yoqasidan ushlab siltadi-da, bir tomonga itarib yubordi:

— Tarqalinglar, tartibni buzmanglar! — deb qo'lini to'pponchasiga uzatdi. Buni ko'rgan Rizo Qahramoniy yana:

— Yo'qolsin istibdod malaylari! Yo'qolsin Pahlaviy! — deb qichqirdi.

Birdan o'q tovushi eshitilib, atrofga jimlik cho'kdi. Rizo Qahramoniyning yuqori ko'tarilgan o'ng qo'li yoniga tushdi, yelkasida qip-qizil qon ko'rindi.

— Bu itlar qurolsizlantirilsin! — degan xitoblar eshitildi atrofdan.

Jandarmboshini shu ondayoq motosikldan urib yerga ag'dardilar. Hamma aralash-quralash bo'lib ketdi. Bir kishi jandarmboshining to'pponchasini ko'tarib boshqa jandarmlarga o'qtaldi:

— Yo'qolinglar bu yerdan!

Lekin odamlar ularni ko'z ochgani qo'ymadilar, yerga ag'darib do'pposlay boshladilar.

Faridun bilan Kurd Ahmad kuchlarining boricha Rizo Qahramoniy tomon intildilar. Ishchilardan biri o'z ko'ylagini shartta yirtib Rizoning yarasini bog'lab qo'ydi.

Faridun bilan Kurd Ahmadni ko'rib Qahramoniy xursandlik bilan jilmaydi, ko'zlariga yosh keldi. So'l qo'li bilan do'stlarini quchoqlab o'pdi:

— Do'stlarim, nihoyat, buyuk ozodlik kuni keldi! — dedi u. Uni odamlar orasidan olib chiqib ketmoqchi bo'ldilar. Lekin u bunga ko'nmadi.

— Meni yuqori olib chiqinglar! Minbarga olib chiqinglar! — deb ta'kidlardi u. Ammo rangi ketib, gandiraklay boshlagach, ishchilar uni ko'chaning chetiga olib chiqdilar. Kurd Ahmad bilan Faridun ishchilarga uni darrov doktorga olib borishni topshirib, yana minbarga qarab intildilar. Minbarga tomon siljir ekanlar, to'satdan ko'pchiligi xotinlardan iborat bo'lgan namoyishchilar-

ga duch keldilar. Ular ham tez-tez shior aytib kelishar edi. Faridunning ko'zi namoyishchilarning oldingi qatorida kelayotgan va goh-goh shior aytib qichqirayotgan Farida, Xovar va Sudobaga tushdi. Sudoba unga tamomila boshqacha bo'lib ko'rindi, hozir uning go'zalligi butunlay yangi bir ma'no, yangi bir kayfiyat kasb qilgan edi. Faridun qamoqdan chiqqandan so'ng u bilan birinchi uchrashuvini esladi. Qiz o'shanda kulimsirab, ko'zlaridan sizib chiqa boshlagan yoshlarini artgan va o'zini Faridunning quchog'iga otishdan zo'rg'a saqlab qolgan edi. Hozir ham uning ko'zlarida sof muhabbat o'tlari porlardi. U nima uchundir, bu qizga nisbatan bo'lgan munosabatini aniqlay olmaydi?.. Qalbidagi hislarini bo'g'ib yotgan nima o'zi? Bu savollarga tabiiy javob bo'lib, uning ko'zi oldida Gulnoz jonlandi. Oh, u hozir qayerdaykin? Sog'mikin? Undan biror darak chiqsa edi! U yuragini boshqa muhabbatga ochishga yo'l qo'ymayotgan sababning nima ekanini endi angladi, bu muqaddas ahdning noma'lum kelajagi edi. Lekin Sudoba buni bilmasdi. U Faridunning yashirin iztirob va hayajonlarining sababini bilmas va uni sevardi. Faridun Sudobaga ikkinchi marta qaraganda ularning ko'zlari bir-biri bilan uchrashdi. Qiz hayron bo'lib qoldi. Birozdan keyin o'zini bosib, xotinlarga qaradi-da, go'yo Faridunni tabriklaganday:

— Yashasin ozodlik! — deb qichqirdi.

Faridun bu xotinlar orasida, bir dasta gul ichidagi ilk bahor g'unchasini xotirlatuvchi Sudobaga qarab jilmaydi. Sudoba qo'lini havoda silkitib salom berdi. Minbarga tomon oshiqayotgan Kurd Ahmad Faridunni sudrab ketdi.

Ularni minbarda tashvish chekayotgan Aram kutib oldi. U hatto salomlashishni ham unutib;

— Qayerlarda yuribsiz? — dedi. — Sizni kutib boshlay olmay turibmiz!

Mitingni yoshi oltmishlarga borib qolgan keksa temiryo'lchi ishchi ochdi.

— O'rtoqlar, — dedi u, — bugun istibdodning kuni bitdi. Yigirma yil zulm va asorat ostida yashaganimiz yetar! Bir burda nonga zor bo'lib yashab bo'ldik endi! Endi ham ishsizlik va ehtiyoj siqig'i

ostida yashaymizmi? Boylar va ministrlar mamlakatimizni chet elliklarga sotishlariga hali ham bee'tibor qaraymizmi? Yo'q, o'rtoqlar! Xalq o'z ixtiyorini o'z qo'liga oladigan vaqt yetdi. Yashasin xalq hokimiyati! Yashasin bizga ozodlik keltirgan Qizil Armiya!..

Atrofni larzaga keltirgan hayajonli "ura" sadolari bosilgach, Aram so'z oldi. Undan keyin Kurd Ahmad va boshqalar so'zlashdi. To'planganlar notiqlarning so'zini diqqat bilan tingladilar.

Shu payt, notiqlar so'zlayotgan minbardan uzoqda, ko'chaning boshida, bir-birlarini turtib ilgari intilayotgan namoyishchilarning eng oxirgi qatorlarida to'rt xotin o'ziga yo'l ochib o'ta boshladi. Ulardan ikkitasi bir xilda kiyingan va o'ttiz-o'ttiz besh yoshlardagi xotinlar edi. Bu o'rta bo'yli oriq xotinlarning sochlari xinaga bo'yalgan edi. Ular atrofga beparvo qarar edilar. Yuz-ko'zini ter bosgani uchun upa-eliklari chaplashib ketgan uchinchi xotin elliklarga borgan edi. Uning basharasidan qo'rqinch aralash g'azab aks etardi, bu hol uni juda badburush qilib ko'rsatar edi. Ularning to'rtinchisi bir yosh qiz edi, uni boyagi xonimlar qo'lidan mahkam ushlab olishgan edi. Kampir boyagi ikki xotin bilan qizni bir minut ham ko'zdan qochirmasdi. U tashvishli ko'ringan qizni yosh bolani yetaklaganday yetaklab borar, o'zidan bir qadam nari siljitmasdi. Bu qiz Gulnoz edi. Keksa xotin Qamarbonu va boyagi ikki ayol uning xonimlari edi.

So'nggi kunlardagi voqealar, shohning qochishga hozirlanayotgani to'g'risidagi mish-mishlar Qamarbonuni cho'chitib qo'ydi. U janubiy Ozarbayjonda fohishaxonalarni halitdan xarob qilib tashlayotganlari va fohishaxona xo'jayinlarini o'ldirayotganlarini eshitgan edi. Buning ustiga keyingi kunlarda uyga "mehmonlar" butunlay kelmay qo'ygan edi: hamma boshqa ish bilan band edi. Bularning hammasi Qamarbonuni qat'iy harakat qilishga majbur qildi: u o'zining ish ko'radigan katta uyini tashlab ketdi, xonimlarini tarqatib yubordi. O'zi bilan faqat eng sodiq xonimlardan bir nechtasini olib qoldi-da, ular bilan bir vaqt Gulnozni aldab qo'lga tushirgan uyga ko'chib o'tdi. Yaqinlashib kelayotgan voqealar qarshisida qo'rquvdan titrab, u hozir shu yerda yashar edi.

Qamarbonu hozir o'zining ikki xonimi va Gulnoz bilan bozorga ba'zi narsalarni xarid qilgani chiqqan edi. Bozordan qaytarkan,

hech kutmaganda bu ko'chadan chiqib qolishdi, ularni selday oqib kelayotgan odamlar oqimi o'z quchog'iga olgan edi. Qamarbonu dastlab bu odam to'lqiniga juda qiziqib qaradi, lekin odamlar oqimining eng ichkarisiga kirib qolgach, qo'rqib ketdi. Bu qudratli oqim va dahshatli shiorlarni aytib qichqirayotgan namoyishchilar go'yo u mahkam bog'langan muhitni qo'porib tashlaydigan, uning yashashi uchun asos bo'lgan olamni chil-parchin qiladigan bir vulqon edi. U o'zini umr bo'yi qilib kelgan sonsiz-sanoqiz jinoyatlari uchun javob berishi kerak bo'lgan adolat sudi oldiga kelib qolgandek his qildi. Shuning uchun u, bu yerdan tezroq chiqib qochishga tirishar, odamlarni hech ayamay nari-beri turtib o'ziga yo'l ochib borardi.

Gulnoz esa tamom boshqa bir ruhiy vaziyatda edi. O'zini qudratli bir oqim, kuchli bir sel ichiga tushib qolgandek his qilardi. Bu oqim, bu sel uni o'z quchog'iga olib, qiz intizorlik bilan kutgan ozodlik va baxt tomon surib bormoqda edi. U bunga na qarshilik ko'rsatar va na odamlarni nari-beri turtardi. G'alati bir zavq bilan o'zini unutgan holda, sababini o'zi ham hali yaxshi tushunmagan bir sevinch bilan aytilayotgan so'zlarga quloq solardi. Har tarafdan eshitilayotgan:

— Yo'qolsin istibdod!

— Yo'qolsin fashizm!

— Yashasin Qizil Armiya! — shiorlarida u sodda va aniq-ravshan bir ma'no ko'rardi: ozodlik kuni yetib kelgan, baxt unga ham kulib boqqan edi!

Ular oldidan qizil bayroq ko'targan ishchilar o'tib turardi. Bular qadoq qo'lli, yuz-ko'zlari quyoshda qoraygan, usti-boshi yupun son-sanoqsiz kishilardan iborat edi. Bu endi o'z ozodligi, insonlik g'ururi va non uchun ko'tarilgan mehnatkashlar armiyasi edi. Bularga qarar ekan, birinchi marta Gulnoz o'zining yolg'iz emasligini his qildi. U endi o'zining ham shu buyuk armiyaning bir bo'lagi hisobladi. U endi o'zining asl onasini hech vaqt o'lmaydigan, hech vaqt qarimaydigan va hech qanday dardga so'z bermaydigan onasi — xalqni topgan edi. Bu onadan uni hech kim ajrata olmasdi!

Gulnoz Qamarbonuning odam siyrak va shovqin-surondan nari bo'lgan bir chetga chiqib, jimjit va xilvat tor ko'chalardan biriga qayrilmoqchi bo'layotganini ko'rib, taqqa to'xtadi:

— Xayr endi, xonim! — dedi u, bir siltanib qo'lini Qamarbonudan bo'shatib olib, —Mening yo'lim boshqa tarafda!

Qamarbonu qo'rqib ketib Gulnozga baqrayib qaradi: u hammadan ko'proq qo'rqqan voqea yuz bergan edi.

— Unday qilma, qizim! — dedi u titroq tovush bilan. — Yur uyga! Ko'chada qolasan. Bu ishing qiz bolaga yarashmaydi.

Lekin Gulnoz odamlar to'plangan tarafga o'girildi. Ular oldidan o'tib ketayotgan kambag'allarcha kiyingan xotinlar to'dasini ko'rsatib:

— Shular nima bo'lsa men ham shu! — dedi-da, orqasiga qayrilib qaramay ularga qo'shilib ketdi.

Uzoqda esa miting davom etmoqda, notiqlar nutq so'zlashmoqda edi. Butun eng oddiy so'zlar g'oyat chuqur ma'no bildirar edi. Har bir ish qiziq, har bir ish ma'noli edi. Har narsada yangi hayotning, ozodlik va baxtning hidi kelib turardi. Orzular va umidlar dunyosining eshiklari ochilardi. Xalq shod-xurram edi.

Lekin...

Lekin shu kun boshqa bir joyda ham majlis bo'lmoqda edi. To'g'rirog'i buni majlis emas, kichikroq ziyofatga o'xshatish mumkin edi. Bu yig'ilish Hikmat Isfahoniyning Zarkandadagi bog'ida bo'lmoqda edi. Unda Tehronning Hakim ul-mulk kabi e'tiborli og'olari, Eron siyosatining "yiqilmas tiraklari" yig'ilgan edilar. Bu yerda Eron oliy tabaqalarining tanlangan vakillari va siyosiy arboblari bor edilar. Hatto gavdasi endi to'lisha boshlagan sarhang Safoiy ham shu yerda edi. Turgan gapki, mister Garold bilan mister Tomas ham shu yerda edi. Ular trubkalarini lablariga qistirgan holda indamay kezib yurishar, goh unga, goh bunga bir og'iz so'z aytib qo'yishar, qovurma bodom bilan mayizdan ermak qilishar edi. Bu odamlar xalq uchun boshqa kelajak, Eron uchun boshqa taqdir hozirlamoqda edilar...

O‘TTIZ UCHINCHI BOB

Xovar hali ham Sudobanikida yashar edi. Ular tez do‘stlashib ketdilar. Xovarning alamlar va azob-uqubatlar bilan to‘la hayoti Sudobaning qalbida unga nisbatan samimiy bir muhabbat uyg‘otgan edi. Xovar ham Sudobani birinchi ko‘rishdayoq sevib qolgan edi. Uning sodda tabiati, ochiq va sof qalbi, hayotga va odamlarga mehribonligi Xovarga yoqib qolgan edi. Buning ustiga, Faridunga nisbatan bo‘lgan muhabbatidan xabar topib o‘zini unga yana ham yaqin tuta boshladi. Sudoba uning o‘ziga alohida bir xona ajratib, shu xonaga Ozod bilan Ayoz uchun ham ikkita kichkina kravat qo‘ydirib berdi.

Kun bo‘yi Xovar bilan birga goh ishchi ayollar orasida, goh maktablarda aylangan Sudoba kechqurunlari vaqt topib ikkala bolaga dars ham berardi. Ba’zan Xovar:

— Ozod mening bolam, Ayoz esa Sudobaniki! — deb hazillashardi.

Bir kuni kechqurun bolalar uyquga yotishganda Faridun bilan Kurd Ahmad kelishdi.

— Ha, ishlar qalay, fors qizi? — deb so‘radi Kurd Ahmad Xovardan. — Sudoba va Farida bilan birlikda eron xotinlarining ozodlik bayrog‘ini ko‘tarish vaqti keldi!

Sudoba:

— Biz tayyormiz, — dedi-da, Faridunga qarab qizarib ketdi.

Shu payt Aram, Sarxon va Faridalar kelib qolishdi. Faridun Faridaga qarab.

— Kurd Ahmad hozir siz to‘g‘ringizda gapirib turib edi! — dedi.

Farida kuldi:

— Nega qulog‘im qiziyapti devdim-a!

— Qaysi qulog‘ing qizidi?

— O‘ng qulog‘im. Yaxshilab gapirgan bo‘lsa kerak.

— Sizdek qahramon xotinlarni yomonlab gapirib bo'ladimi? — deb hazillashdi Aram. Yana eshik taqilladi. Sudoba eshikni ochdi. Bular Yavar Azimiy bilan Hofiz Biluriy edi. Sartib Salimiyning maslakdoshlari bo'lgan bu kishilar uning xotirasini hurmat qilib, vasiyatiga amal qildilar. Ular Faridun, Kurd Ahmad, Rizo Qaqramoniylar bilan birlashdilar.

Faridun Hofiz Biluriyning qo'lini siqdi.

— O'tiring, muhtaram ustoz, — deb joy ko'rsatdi u. — Endi ilm-ma'rifatning haqiqiy xo'jayinlari sizni axtarib keladilar.

Hofiz Biluriy jilmaydi:

— Qadoq qo'lli mehnatkashlarning bolalari! Men ularni ko'pdan beri kutaman, o'g'lim.

— Bilaman, bilaman, ustoz, — deb ularni ichkariga oldi-da, eshikdan kirib kelayotgan Qurbon Marandiyga yuzlandi Faridun.

— Ha, ahvollar qalay, do'stim?! — deb so'radi Qurbondan, — hali ham qiziqqonlimisan?

— Bo'lmasam-chi, — deb javob berdi Qurbon, — Janubning issiqlari meni sustlashtira olmasdi, albatta, lekin endi qanday kurash olib borish kerakligini yaxshi bilaman. Hayot kishiga ko'p narsani o'rgatadi.

Yana eshik taqilladi. Kelgan kishi janub surgunidan yangi qaytgan va yana revolutsion faoliyatni boshlab yuborgan Jaliliy edi. Uning yonida Faridunga notanish bo'lgan yana ikki kishi bor edi. Ular hali ichkari kirmasidanoq hamma o'rnidan turgandi. Jaliliy salom berib ko'rishgach, hurmat bilan bir chetga chekindi-da, o'rta bo'yli, keng peshonali, sochlariga oq tushgan aqlli va o'tkir nazari bilan majlisni bir-bir ko'zdan kechirayotgan odamni tanishtirdi.

— Og'oyi Said Ja'far Peshovariy![1].

Bu ismni eshitarkan hamma jonlandi, ko'zlarida sevinch aks etdi. Peshovariyning chehrasida doim yumshoq bir tabassum o'ynab turardi. Faridun, Kurd Ahmad, Aram va boshqalar navbat bilan kelib u bilan ko'rishdilar. Odamlarning harakatida, u bilan so'zlashish va boqishlarida o'ziga nisbatan katta hurmat sezib Peshovariy siqilgandek tuyulardi. U o'zini mag'rur tutishi,

[1] **Said Ja'far Peshvoriy** — Janubiy Ozarbayjon demokratik harakatining yo'lboshchisi.

qaddi-qomati va tiyrak boqishlari bilan sartib Salimiyni eslatgan odamni tanitdi:

— Og'oyi Hamid Hamidiy!

Kurd Ahmad va Faridun u bilan qadrdon do'stlardek quchoqlashib ko'rishdilar.

— Siz to'g'ringizda qanchalik tashvishlanganimizni bilsangiz edi!

Hayajondan yanoqlari qizarib ketgan Farida uning qo'lini siqar ekan:

— Tabrizliklar hali ham doim siz to'g'ringizda so'zlashadilar, — dedi.

Uning bu so'zlariga Hamid Hamidiy yoqimli bir tabassum bilan javob berdi.

Odamlarning hali ham ulardan ko'z uzmayotganini ko'rgach, Peshovariy o'rtoqlariga:

— O'tiringlar, og'olar, — dedi, — tik turishning nima hojati bor?

Kurd Ahmad uning qo'ltig'idan oldi-da, to'rdagi kreslolardan biriga olib borib:

— O'tiring, — deb joy ko'rsatdi.

Faridun Hamid Hamidiyga o'z yonidan joy berdi:

— Marhamat, o'tiring.

O'tirishdi. Hamma revolutsion faoliyat bilan mashhur bo'lgan Peshovariy bilan Hamid Hamidiyga tikilardi. Peshovariy majlisda oddiy va sodda sharoit yaratishga tirishar, savollar berar, hol-ahvol so'rar, siyosiy mavzularda gapirardi. Shu tarzda, ko'p o'tmay ular bamaylixotirlik bilan vaziyat to'g'risida suhbatlashardilar.

Sudoba ichkari kirgach, Faridun "Ittiloat" gazetasini ochib o'qir va ba'zan o'qishni to'xtatib gapirar edi.

— Og'olar, reaksionerlar va istibdod malaylari o'z tuslarini o'zgartirmoqda. Ular xameleon singari sharoitga moslashib, endi demokratiya va ozodlik haqida gapirmoqdalar.

Hamid Hamidiy "Ittiloat"ga qaradi.

— Aha-a... Hikmat Isfahoniy Eron ozodligi va mustaqilligining bayroqdori bo'libdimi!.. Yaxshi komediya!..

— Siz uni taniysizmi? — deb so'radi Aram.

— Eronda uni tanimagan odam bormi?! — deb savolga savol bilan javob berdi Hamid Hamidiy.

— Uni yangi hukumatning boshida turishga loyiq deb topishibdi, — dedi Faridun gazetadan ko'z uzmay.

— Ishonavering, xuddi shunday bo'ladi ham! — dedi Aram zaharxanda bilan.

— Bu ingliz va amerikaliklar malayi demokratiya bayrog'i ostida yangi reaksion hukumat tuzishga butun kuchini sarf qilishi turgan gap, — dedi bunday majlisda birinchi marta ishtirok qilayotgan keksa Hofiz Biluriy, — o'tgan urushda ham xuddi shunday bo'lgan edi. O'shanda ham mana shunday Hikmat Isfahoniylar sharoitga tez moslashib, ijtimoiy hayot maydoniga chiqqan edilar.

— Endi unday bo'lmaydi! — dedi Kurd Ahmad, — to'g'rirog'i, bunday bo'lmasligi kerak! Shuning uchun bizning vazifamiz butun xalqni ularga qarshi ko'tarishimiz kerak! Bu fitnachilarning ko'z bo'yamachiliklariga barham berishimiz kerak!

Peshovariy o'tirganlarning hammasi o'ziga qarab, fikrini bilmoqchi ekanini ko'rib, o'ziga xos keskinlik va aniqlik bilan so'zlab ketdi:

— Ishning borishidan men kurashimiz juda uzoqqa cho'zilsa kerak deb o'ylayman. Teshik-teshikdan qarab siyosat maydoniga bo'yin cho'zayotganlarga bir qarang! Ular kimlar? Qavomussaltana, Hakim ul-mulk, Hikmat Isfahoniy, Ibrohim Hakimiy, Sadr, bilmadim yana kimlar! Bu qari tulkilar, bu siyosatbozlar hali Eronning boshiga ko'p savdolar solishadi...

— To'xtab qolgan suv sasib ketadi, — dedi Hamid Hamidiy o'zining yosh o'rtoqlari Kurd Ahmad, Faridun, Rizo Qahramoniylarga bir-bir qarab. — Eron jamiyatida ham hozir ahvol ana shunday. Bu iflos suvni tozalash, toza suv keltirish vazifasini tarix siz yoshlarga havola qiladi.

Odamlarning gap-so'zlariga quloq solar ekan, Rizo Qahramoniy hammaning nimadandir norozi ekanini sezdi, o'zi ham nimadandir norozi edi. Bu yerda o'rtoqlarining gapiga quloq solar ekan, u buning sababini anglay boshladi. Tarix ularni yashirin ishning tor yo'llaridan ochiq kurash maydoniga chiqarib qo'ygan, ularning qarshisida katta yo'l ochgan edi, o'zining hal qilinishini kutib katta-katta vazifalar kun tartibiga chiqib kela boshlagan edi. Bu vazifalarni bir to'da fidokor kurashchilar eski usullar bilan hal

qilolmas edilar. Endi programmasi butun xalqqa ma'lum bo'lgan, mamlakatning har bir burchiga ildiz otgan buyuk va qudratli tashkilot tuzish ehtiyoji tug'ilgan edi.

— Biz endi barcha taraqqiyparvar kuchlarni birlashtiradigan bir tashkilot tuzishimiz kerak, — dedi Rizo Qahramoniy. — Uning bo'limlari tashkil etilmagan bironta ham shahar, bironta ham qishloq qolmasin.

Faridun uning fikrini quvvatlab tushdi:

— To'g'ri, mustahkam siyosiy tashkilotsiz endi hech ish qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, xalq harakatga kela boshlagan hozirgi paytda bunday tashkilot unga rahbarlik qilmasa bo'lmaydi. Buni biz qilmasak, dushmanlarimiz qiladi.

Tabrizda paytidayoq bu zaruratni tushuna boshlagan Kurd Ahmad o'rtoqlarining fikriga qo'shildi:

— Bu tashkilot o'zining mahkam va aniq rejasiga ega bo'lishi kerak. O'zining maqsadlarini xalqqa ochiq-oydin aytishi kerak.

Ular yaratilishi kerak bo'lgan bu tashkilotning buyuk siyosiy maqsadlar yo'lida kurash olib borish blan xalqning barcha taraqqiyparvar kuchlarini birlashtirishi mumkinligini qayd qildilar. U tashkilot ayniqsa ishchilar bilan kambag'al dehqonlarga tayanishi, lekin jamiyatning barcha ilg'or va taraqqiyparvar kuchlarini o'z atrofiga to'plashi lozim edi. Mamlakatda mehnat erkinligi, barcha aholiga teng huquq berish va milliy sanoatni taraqqiy qildirish uchun barcha xalqni safarbar qilmoq lozim edi.

Kurd Ahmadning fikrlarini diqqat bilan tinglagan Sarxon:

— Men bu fikrga qarshi emasman, lekin, menimcha, biz Eron mehnatkashlarining kasaba uyushmalarini ham tuzishimiz kerak, — dedi.

— To'g'ri! To'g'ri! — degan ovozlar eshitildi.

Buni ko'rgan Farida birdan o'rnidan turdi:

— Xo'sh, xotinlarni nega esdan chiqardinglar? Ularning ham tashkilotini yaratish kerak, — dedi u.

O'z takliflarining tamom sukut ichida va hatto ba'zi kishilar tomonidan shubha bilan qarshi olinishi Faridaning hayajonini battar kuchaytirib yubordi. U qip-qizarib Sudobaga, Xovarga va bunday majlisda birinchi marta qatnashayotgan Feruza bilan Rohimaga bir-bir qarab qo'ydi:

— Shundaymi, yo'qmi, qizlar? Nega indamaysizlar?...

Majlisdagilar kulib yuborishdi. Bu kulgidan so'ng tetiklashgan ayollar o'zlarini tuzatib:

— Shunday, to'g'ri, to'g'ri, — deb qichqirishdi.

— Eron xotin-qizlarini esdan chiqargan taraqqiyparvar tashkilot juda katta xatoga yo'l qo'ygan bo'ladi, — dedi jiddiy Peshovariy, — chunki xotin-qizlari zulm ostida qolgan va siyosiy huquqdan mahrum bo'lgan mamlakat badbaxt mamlakatdir. Men xonimning taklifiga katta baho beraman. Yangi partiya xotinlar orasida alohida ish olib borishi zarur.

Faridun yangi partiya o'z rejasida Eron shovinistlarining va hokim doiralarning bo'htonlariga qaramay, milliy masalaga oid o'z fikrlarini ochiq-oydin aytishi kerak deb ko'rsatdi:

— Eron kabi bir mamlakatda milliy masalani chetlab o'tib bo'lmaydi. Partiya Erondagi fors bo'lmagan millatlarga nisbatan o'z pozitsiyasini aniqlab olishi kerak.

— Hali bu masalani ko'tarishga vaqt erta, — dedi kimdir.

Lekin Peshovariy bunga darhol e'tiroz bildirdi:

— Og'oyi Faridun to'g'ri aytdi. Taraqqiyparvar va demokratik partiya Eronda yashovchi ozarbayjon, kurd va boshqa xalqlarning o'z taqdirini o'zi hal qilish huquqini tan olinishni rejasida qayd qilib o'tishi kerak.

Bu masalada ba'zilar og'ir sukutga ketganini ko'rib Rizo Qahramoniy o'zini saqlay olmadi:

— Men forsman, — dedi u hayajon bilan, — men yaxshi bilamanki, bironta ham nomusli fors Eronda ozarbayjon, kurd, arman, turkman va boshqa millatlarning tilini, odat va traditsiyalarini yo'qotib yubormoqchi emas. Eronning nomusli kishilari xalqlarning mustahkam birligi kuch ishlatish bilan emas, balki faqat ozodlik va tenglilik asosida yaratiladi, deb hisoblaydilar.

Kurd Ahmad Kurdiston va Ozarbayjonda, ayniqsa Tabrizda ko'rganlarini xotirladi, Faridunning qanchalik buyuk bir masala to'g'risida to'xtaganini darhol angladi.

— Bu masalada ikki xil fikr bo'lishi mumkin emas. Biz bu masalani buyuk Sovetlar mamlakatida qanday hal qilinganidan ibrat olishimiz kerak. Undan boshqa yo'l zulm va milliy adovat yo'lidirki, u yo'l bizning yo'limiz emas.

Revolutsion faoliyatning o'sishi, jamiyatning eskigan va chirigan asoslarini ag'darib tashlashga bo'lgan umumiy maylning o'sishi Hamid Hamidiyni sevintirdi. Demak, ta'qib va surgunlarda chekilgan azoblar bekor ketmapti!.. Hayotni qayta qurishga qodir bo'lgan yoshlar, qudratli yosh avlod yetishib kelmoqda!

— Dehqonlar masalasini yoddan chiqarmanglar, — dedi u. — Eron qishlog'i katta o'zgarishlarga muhtoj. Yangi partiya qishloqni demokratik asosda qayta qurish zarurligini o'z rejasida ochiq aytishi kerak.

Dehqonlar masalasi qo'zg'olishi bilan o'zining bir vaqtlardagi xatolarini eslagan Rizvon qizardi va o'rnidan turdi:

— Mamlakatimiz aholisining yarmisidan ko'pi dehqonlardir. Rejamizda dehqonlarning kelajagi to'g'risida qat'iy aytilgan fikrlar bo'lishi kerak. Dastavval dehqonlarni arboblar zulmidan qutqarib yerga xo'jayin qilib qo'yish kerak.

Faridun Rizo Qahramoniyga qarab kuldi:

— Yasha, Rizvon. Partiyaning qishloq xo'jalik bo'limini senga topshirib qo'yamiz.

— Mamuniyat bilan qabul qilaman.

"Hezbi Tudeyi Iron" ya'ni "Eron Xalq partiyasi" va "Eron mehnatkashlarining kasaba uyushmasi" tuzish uchun amaliy takliflarni ishlab chiqishni katta bir komissiyaga topshirildi. Faridun, Kurd Ahmad, Rizo Qahramoniy, Farida va Aram ham shu komissiyaga kirdilar.

Kurd Ahmad markazdan joylarda ishlash uchun odamlar yuborishni taklif qildi.

— Bu juda zarur, — deb uning gapini quvvatladi Aram. — Ozarbayjonga ham, Kurdistonga ham, Fors va Gilonga ham, Mozandaronga ham o'z vakillarimizni yuborishimiz kerak. Ular joylarda partiyaning mahalliy bo'limlarini tuzsinlar. Men mamnuniyat bilan Gilonga borishga tayyorman.

— Tabrizliklar Faridunni so'rayaptilar, — deb kuldi Kurd Ahmad. — Bunga nima deysizlar, o'rtoqlar?

— Rostini aytsam, — dedi Faridun hayajon bilan, — ko'pdan beri Ozarbayjonga borgim kelib yurardim. Nima uchundir bu yerlarda beqarorroqman.

Rizo Qahramoniy unga mehr bilan boqdi:

— Nima bo'libdi! — dedi u. — Oq yo'l. Partiyamizning Ozarbayjon bo'limini boshqarasan.

Vaqt ancha kech bo'lib qolgach, odamlar turib bitta-bitta tarqalishar ekan Peshovariy Faridunning qo'lini siqdi.

— Ozarbayjonga boring, men tezda Tabrizga boraman. Ozarbayjon bilan Kurdistonning milliy ozodligi to'g'risidagi g'oya buyuk g'oyadir!

Qarshisida oydin va yangi bir kurash yo'lini ochgandek tuyulgan bu so'zlar Faridunning qalbida abadiy saqlanib qoldi.

— Men sizni kutaman, — dedi u Peshovariyning qo'lini qattiq siqib.

U bilan xayrlashgach, Faridun Xovarga qaradi:

— Xo'sh, mening kichkina do'stim qalay? Nega bugun ko'rinmaydi? — deb so'radi.

— Sababi bor.

— Nima ekan u?

— O'ziga yangi do'st topib oldi. Uyda u bilan o'ynab o'tiribdi. Yuring ko'rsataman!

Ular Xovarning xonasiga kirdilar. Faridun Ozodni mahkam bag'riga bosib quchoqladi. Boshini ko'tarib, mo'ltillab tikilayotgan Ayozni ko'rib hayratdan qotib qoldi, sevinchidan ko'zlariga yosh kelgan holda bolaga otildi.

— Ayoz! Ayozjon ukam!..

Bolani mahkam quchoqlab, yuz-ko'zidan o'pdi. Hayron bo'lib qarab turgan o'rtoqlariga izoh berdi:

— Bu tog'amning o'g'li bo'ladi! Gulnozning ukasi! Baxtsiz oiladan qolgan yodgor!

— Bu yerga qanday qilib kelib qoldi?

Kurd Ahmad uni qanday qilib topganini mufassal gapirib berdi.

* * *

Shahar jang maydonini eslatardi. Bu maydonda kecha bilan kunduz, o'tmish bilan kelajak go'yo yuzma-yuz duch kelgan edi. Lekin ular na pahlavonlar singari bel olishib qat'iy kurash boshlashar, na ajrashib ketishardi. Muayyan va qat'iy bo'lmagan bir

vaziyat har ishda hukm surardi. Shu bilan birga har ikki taraf hayot-mamot uchun jang boshlashga tayyorlanayotgani sezilardi. Go'yo qonli kurash boshlanay-boshlanay deb turganday edi. Tashqaridan qaraganda voqealarni yaxshi tushunib bo'lmasdi. Qari despot o'rnini o'g'liga bo'shatib ketdi. Istibdodning qonli kuchlari maydondan chekilgandek edi. Rizo shoh yiqilishi bilan ozodlikning g'alaba chiqilishini kutganlar hayratda edilar. Chunki ozodlik to'g'risida notiqlar faqat minbardan turibgina so'zlashar edi, ozodlik faqat odamlarning og'zida yashar edi. Haqiqatda, hayotda esa eski qoida-qonunlar hukmron edi. Ish va non kutganlar o'z talablarini ochiq aytishdan boshqa hali hech ish qilganlari, hech narsaga erishganlari yo'q edi. Ko'chalar hali ham sonsiz-sanoqsiz ishsizlar, bir burda non topish uchun istagan ishga tayyor bo'lgan kishilar bilan to'la edi. Hali ham o'tgan-ketganlarga qo'l cho'zgan yetim bolalar va boshpanasiz kishilar ko'pligidan o'tib bo'lmasdi.

Ular ko'chalarda sarson qilib qo'ygan og'olarning dastlabki shoshib qolgan paytlari o'tdi, endi ular yana o'zlarini o'nglab olib xalq harakatining, demokratik tashkilotlar faoliyatining oldini olish uchun saroy atrofiga to'plana boshladilar. Hikmat Isfahoniylar, Hakim ul-mulklar, sarhang Safoiylar, mister Tomaslar, mister Garoldlarga tayanib ozodlikni yana qonga botirish rejalarini tuzmoqda edilar. Ularning ikkiyuzlamachiligi va yolg'onchiligi, kishi ko'ziga "demokrat" kiyim kiyganliklari tobora jirkanch va riyokor tusga kirib bormoqda edi...

Hikmat Isfahoniy saroydan qaytgach Kurd Ahmadni chaqirtirdi. U Kurd Ahmadning yashirin faoliyat olib borishidan, mehnatkash aholi orasida obro'si balandligidan xabar topib, uni o'ziga yaqinlashtirish fikriga tushgan edi. Shu maqsadda u saroyda va hukmron doiralarda yuz berayotgan ahvol va bo'layotgan gap-so'zlarni unga so'zlab berib, o'zini unga yaqin tutishga tirishardi. Kurd Ahmad katta hovlidan o'tib, g'isht zinadan ko'tarildi-da, ichkari kirdi. Shlapasini yechib qoziqqa ildi. Shu payt Hikmat Isfahoniyning kabinetidan bir kishi chiqib, tezlik bilan dahlizning boshidagi eshikka lip etib o'zini urdi. Bu kishi unga juda tanish ko'rindi. Kim ekanini eslar ekan fon Valterning siymosi ko'z oldida gavdalandi. Hikmat Isfahoniyning kabinetiga kirib, hech qanday shubhaga o'rin qoldirmaydigan bir ohangda:

— Og'o, hozirgina fon Valterning bu yerdan chiqib ketganini ko'rdim, — dedi.

Hikmat Isfahoniy bir qo'li bilan darrov uning og'zini yopdida, ikkinchi qo'li bilan uni yetaklab borib o'z yonidagi kresloga o'tqazdi.

— Azizim, uni bu yerda ko'rganingni yodingdan chiqar, — dedi u, — aqlli odamlar lozim bo'lmagan narsani ko'rmaslikni odat qil, deganlar.

— Lekin, har holda, men hayron qoldim! Siz xavfli yo'ldan borayapsiz.

— Nega hayron bo'lasan, azizim?! Buning hech hayron qoladigan joyi yo'q. Bularning hammasi siyosat, hammasi vatanning xayri uchun qilinayapti. Sharafim haqi ont ichamanki, men bu ishlarni faqat vatan muhabbati yo'lida qilayapman.

Menimcha, vatan muhabbati fon Valterga jazo berilishini talab qiladi.

— Yo'q, azizim, illo-billo, yo'q! Sen hali yoshsan, Eron demokratiyasining qanday egri-bugri aylanma yo'llardan borishini bilmaysan. Agar haqiqatni bilmoqchi bo'lsang fon Valterni men o'zim jo'rttaga yashirib yuribman. U hozir qafasga tushgan yo'lborsga o'xshaydi. Nemislar kelib qolgudek bo'lsa, biz uni bo'shatib yuboramiz. Uning bizga faqat foydasi tegadi, xolos.

— Nahotki, siz shunday tasodifga ishonsangiz?

— Qanday tasodifga? Nemislarning g'olib kelishigami?

— Ha.

— Hozirgi siyosiy vaziyatda men hech narsaga ishonmayman va har narsaga ham ishonaman. Ha, ha, xuddi shunday! Har narsaga ham ishonaman va hech narsaga ishonmayman. Nemislar bu urushda yutib chiqishlari ham mumkin. Ana unda fon Valterni saqlab kelgan odam vatan uchun nimalar qila olmaydi deysan.

— Xo'sh, nemislar mag'lub bo'lsalarchi? Axir shunday bo'lish ehtimoli ham bor-ku!?

— Albatta, shunday bo'lishi ham mumkin. Mag'lub bo'lsalar — boshqa masala. Unda qafasga tushgan bu yo'lbarsning terisi juda qimmatga sotiladi. Sot, vatan yo'liga ishlat! Shunday qilib, biz har ikki holatda ham hech qanday zarar ko'rmaymiz. Endi

menga quloq sol! Men hozirgina a'lohazrat Humoyun Muhammad Rizo Pahlaviyning oldidan keldim. Yangi hukumat a'zolari muhokama qilindi.

— Janobingizni bosh ministr lavozimi bilan tabrik qila olamanmi?

— Yo'q!

— Iye, nima uchun?

— Ko'p iltimos qilishdi, lekin men rad qildim. Hozirgi paytda Eron hukumatining bosh ministri bo'lish botqoqlikka botib qolgan aravani tortib chiqarishga o'xshagan bema'ni bir ishdir.

— Demak, siz hukumatda ishtirok qilmaysiz?

— Yo'q, ishtirok qilaman. Lekin faqat tashqi ishlar ministri sifatida. Hozirgi sharoitda davlat mashinasining ikki qo'ng'irog'i borki, asl davlat shu ikki boshqaruvchi kishining qo'lidadir. Ular tashqi ishlar ministrligi bilan ichki ishlar ministrligidir!!

— To'g'ri fikr bu! Lekin siz ayni vaqtda ikki ministrlikni boshqarolmaysiz-ku!

— A'lohazrat yosh bo'lsa ham ishning ko'zini biladigan odam. Ichki ishlar ministri lavozimini mening kuyovimga topshirdi.

— Sarhang Safoiygami!.. Tabrik qilaman, og'oyi Hikmat Isfahoniy! Endi haqiqatan ham davlat sizning qo'lingizga o'tibdi!

— Shundayku-ya, og'oyi Kurd Ahmad, lekin mening hayotimda eng og'ir davr endi boshlanayabdi-da! Hokimiyatga erishish, uni qo'lda saqlab qolishdan ko'ra oson bo'ladi!..

— Sizdek tadbirli odamning bu qiyinchilikka ham chora topishingizga ishonaman.

— Lekin buning naqadar og'ir ekanini bilsangiz edi! Mingta dushman, mingta ko'rolmaydigan ichi qora odamlar bor. Mana, masalan, saroy sichqoni Hakim ul-mulk.

— Bundan keyin u sizga hech narsa qilolmaydi. Tashqi ishlar ministrligi ham, ichki ishlar ministligi ham o'z qo'lingizda bo'ladi.

— Bu aytishga oson, xolos. Ammo o'rni kelganda bitta gazanda azamat bir ajdahoni halok qila oladi. U yana saroyda, o'zining ilgarigi o'rnida qolar ekan, menga tinchlik yo'q. Kecha-kunduz a'lohazratning qulog'iga quygani-quygan.

— Demak, u yana saroy ministri lavozimida qolibdi-da?

— Ha, qoldi. Bosh ministr bo'lish orzusi bor edi. Aftidan, hozir ham bu fikrdan qaytmagan ko'rinadi.

— Bunga aniq dalillar bormi?..

— E, qari tulki u. Yerning ostida nima bo'layotganini ham biladi, ustida nima bo'layotganini ham.

Ular jim qolishdi. Hikmat Isfahoniyning lablarida bilinar-bilinmas tabassum o'ynardi. U o'rnidan turib Kurd Ahmadning yoniga keldi-da, hech kutmaganda uning qo'lidan ushlab gap boshladi:

— Xohlasang, senga ham ministrlik lavozimi olib bera olaman. Savdo va sanoat ministrligi... Qalay? Rozimisan?

— Rahmat! Men ministr lavozimini qabul qilishga tayyor emasman.

— Hozir tayyor bo'lmasang, kelajakda ministr bo'lish uchun tayyorlanib bor! Xalq sening orqangdan ergashadi, oliy tabaqalar esa mening orqamdan, ana shuning uchun biz birga ishlashimiz kerak... Men bosh ministr bo'lganimda sen mening yordamchim bo'lasan. Endi bor, ertaga Shimronda katta ziyofat o'tkazishga tayyorgarlik ko'r. Mehmonlar keladi, a'lohazratning tashrif buyurishi ham ehtimol.

— Meni kechiring, — dedi Kurd Ahmad, — meni bo'shatishingizni va o'rnimga boshqa odam topishingizni so'rayman.

Hikmat Isfahoniy uning gapiga darhol tushuna olmadi, tushungach taajjub bilan unga qaradi:

— Yo'q, yo'q! Sen bilan asl ishimiz endi boshlanayapti. Biz milliy demokratik partiya tuzmoqchi bo'lib turibmiz. Seni ham partiyamizga a'zo qilib olamiz.

— Katta rahmat, biz ham o'z partiyamizni tuzishga qaror qildik.

— U qanday partiya ekan, o'g'lim? Balki men ham unga kirsam yaxshi bo'lar. Har ikki partiyaga a'zo bo'lsam nima deysan? Ham bizning partiyada, ham sizning partiyangizda.

Kurd Ahmad uni istehzo va nafrat to'la nazar bilan ko'zdan kechirdi.

— U partiya sizga to'g'ri kelmasa kerak, deb qo'rqaman. U partiya haqiqiy xalq partiyasi bo'ladi.

— Menga yoqmasligini qayoqdan bilasan, yigit!.. Mening o'rnim xuddi o'sha yerda. Men xalq yo'lida o'z jonimdan kechishga ham tayyorman. Itvachcha zolim Rizo shoh meni ham sening do'stlaring bilan birga qamab qo'ygani esingdan chiqdimi?

Kurd Ahmad u bilan tortishib o'tirish bekorga vaqt o'tkazish ekanini tushundi:

— Sizdan iltimosim shuki, meni ertadan boshlab o'z vazifamdan ozod deb hisoblasangiz, — dedi u. — Men endi faqat partiya ishlari bilan band bo'laman.

Hikmat Isfahoniy uning fikri qat'iy ekanini ko'rib o'rnidan turdi:

— Xo'p, yaxshi, taqsirim, Xudo xayringni bersin. Sen o'z yo'lingdan bor, men o'z yo'limdan. Qachon uchrashsak ham bir-birimizni unutmaylik. Ikkimiz ham vatan yo'lida xizmat qilamiz.

Kurd Ahmad ortiq uning gapiga quloq solmadi, shlapasini olib eshikka chiqdi-da hovliga kirib kelayotgan mister Tomasga duch keldi. Salomlashib o'tib ketdi. Hali ko'chaga chiqib ulgurmagan ham ediki, eshik oldida uni Shamsiya xonimning xizmatchisi to'xtatdi:

— Xonim sizni ko'rmoq istaydi, — dedi u.

Shamsiya xonim uni yengil ipak ko'ylakda qarshi oldi. Kulimsirab uning qo'lini siqdi:

— Ahvollaringiz qalay?

— Rahmat. Xonimni kayfi chog' holda ko'rish bilan xursandman!

Shamsiya unga joy ko'rsatdi, choy keltirishni buyurdi. Xursand paytlaridagi odatiga binoan to'xtovsiz gapirib o'tirdi. Kurd Ahmad suhbat orasida qizdan uning qarshisida saroyning darvozalari ochiq ekanini, Shamsiya bundan ikki kungina oldin saroyda yangi podshoh bilan ko'rishganini bilib oldi.

Kurd Ahmad choyni ichib o'rnidan turdi.

— Sizdan bir iltimosim bor, — dedi shunda qiz. — Faridunni ertaga bo'ladigan ziyofatga aytib yuborsangiz. Men o'zim unga maxsus, taklifnoma yuboraman. Sudobani ham olib kelsin?

— Afsuski, buning iloji yo'q, xonim. U bugun Tehrondan jo'nab ketayapti.

— Nega? Qayerga?

— Ozarbayjonga. Tabrizga ko'chib ketayapti. Tehron muhiti unga doim tuzalmas bir fojeani eslatib turishi uchun shunday qildi.

— Bilaman, sarhang Safoiy uning boshiga tushgan ba'zi kulfatlarni menga so'zlab bergan edi. Bizni tashlab ketishiga afsuslanaman, albatta. Lekin unga ayting, mening eshigim unga doim eng yaxshi do'stim sifatida ochiq!

— Aytaman, xonim, — dedi, sovuqqina qilib Kurd Ahmad. — Lekin bu iltifotingizdan uning foydalanish foydalanmasligini aytolmayman.

Kurd Ahmad qiz bilan xayrlashib chiqar ekan, allaqanday bir ruhiy og'irlik, ichki bir norozilik his qildi. Uning nazarida atir hidlari anqib turishiga qaramay, bu hovlining havosi zindon havosiday buzuq va og'ir edi. Bundagi har bir narsa yurakni siqar, har ish ko'ngilni aynitar edi.

Ko'chaga chiqib mashinaga o'tirayotgan Hikmat Isfahoniyni ko'rib ketiga qaytmoqchi bo'ldi. Lekin Hikmat Isfahoniy uni chaqirib qoldi:

— Men amerikalik do'stim mister Garoldning oldiga ketayapman. Uning maslahatini olmay turib tashqi ishlar ministrligini bajarish qiyin, — dedi-da diqqat bilan Kurd Ahmadga tikildi:

— Tobing yo'qmi? Juda noxush ko'rinasan? Ko'p o'ylayverma, hammasi ham o'tib ketadi. Bunday o'ylab qarasang, hamma ish ham o'tib ketadi. Kechqurun partiyamizning yig'ilishi bor.

U o'zining beso'naqay gavdasini zo'rg'a mashinaga joylab, haydovchiga haydashni buyurdi.

Mashina ko'zdan g'oyib bo'lgach, Kurd Ahmad bugungi kunning og'ir taassuroti bilan o'zi ham hech narsa sezmagan holda allaqayoqqa qarab jo'nadi. Shahar ko'chalarini to'ldirgan odamlarga aralashib ketdi. Uning nazarida, bu dunyoda haqiqiy inson baxtiga erishish juda qiyin ish bo'lib ko'rindi. Mehnatkash, or-nomusli, to'g'ri odamlar doim mana shunday ikkiyuzlamachi va yolg'onchilar bilan o'ralgan bo'lganlari uchun necha asrlardan beri erishishga intilib kelayotganlari orzulariga, sevinch va baxtga erisholmaydilar...

G'amgin va azobli bu fikrlar Kurd Ahmadning boshida qat'iy bir fikr tug'ilishiga sabab bo'ldi:

— Yo‘q, bu safar Eronning mehnatkash ommasi o‘z kutganlariga erishadi! Bu safar 1908-yil va 1920-yillardagi harakatlarning mag‘lubiyatga uchraganini ko‘rgan yuz minglab kishilarning qudratli tashkiloti tuziladi. Bu tashkilot ularni og‘ir kurashlardan olib o‘tib, abadiy ozodlikka olib chiqadi.

Bu fikrlar Kurd Ahmadning ruhini yengillashtirdi.

U Faridunning Ozarbayjonga ko‘chishga hozirlanayotganini xotirlab Xovarni o‘z uyiga olib kelish uchun Sudobanikiga jo‘nadi. Endi Eron ishchilari kasaba uyushmasida ishlayotgan Rizo Qahramoniy bilan Eron Xalq partiyasining xotin-qizlar bo‘limida ishlayotgan Farida ham shu yerda edi. Hovliga kirar ekan u hammayoqning ivirsib yotganini ko‘rdi. Xizmatkor xotin gilam va boshqa narsalarni yig‘ishtirar, chemodanlarni tayyorlar edi. Rizo Qahramoniy bilan Faridun yenglarini shimarib unga yordam bermoqda edilar. Sudoba bilan Xovar ham bu ivirsib yotgan uyni yig‘ishtirardi. Hatto bolalar ham Sudobaning topshiriqlarini bajarish uchun u yoq-bu yoqqa yugurishardi.

Faridun Kurd Ahmadni ko‘rib uning oldiga keldi-da, unga bir qog‘oz uzatdi:

— Mana, bilib qo‘y, Aram Rashtda o‘ttiz ming kishilik miting o‘tkazibdi. U yerda partiyaning mahalliy bo‘limi tashkil qilinibdi.

Kurd Ahmad telegrammani ko‘zdan kechirdi.

— Mozandarondan va Isfahondan ham telegrammalar oldik.

Rizo Qahramoniy ishni tugatib ularga yaqinlashdi-da, qiziqib so‘radi:

— U tomonlarda nima xabar?

— Mozandaronda juda yaxshi o‘tibdi. Isfahonda esa jandarmlar mitingni buzishga urinishibdi. To‘qnashuv bo‘libdi. Ikki o‘rtog‘imizni hushdan ketguncha jandarmlar kaltaklashibdi.

— Ingliz armiyasining birinchi sovg‘asi bu! — dedi xafalik bilan Faridun, — Tehronning janubi bilan shimolida go‘yo ikki mamlakat vujudga kelgandek, odamlarga munosabat, tartib-intizomi butunlay boshqa-boshqa...

— Ha, sen nima deb o‘ylagan eding, do‘stim? — dedi qizishib Rizo Qahramoniy, — inglizlarning mustamlakachi qo‘shini ozodlik olib keladi, deb o‘ylaganmiding?! Ular Sharq xalqining qonini to‘kishga odatlanganlar.

— Shimoldan qochgan barcha reaksionerlar janubda to‘planishgan, — dedi Kurd Ahmad, — Xalq harakatini bo‘g‘ib tashlash uchun ular har narsaga ham hozirdirlar. Bu esa bizni yana ham zo‘r g‘ayrat bilan ishlashga majbur etadi. Bugungi kun kechagiga o‘xshamaydi! — dedi u, keyin Xovarga murojaat qildi: — Fors qizi, tayyorlan, Ozodni ham ol! Biznikiga ketamiz. Singlim senga alohida xona hozirlab qo‘ydi, — dedi.

Shundan so‘ng u Faridunning qo‘lini siqdi:

— Xayr, bizni ham unutma!.. Doim yodingda bo‘lsin-ki, Shimol biz uchun abadiy bir quvvat va nur manbaidir! Bizning ezilgan mamlakatimizga quyosh o‘sha tomondan chiqadi. Amin bo‘lki, biz ham bu yerda o‘sha porloq kunning kelishini tezlatish uchun tinmay kurash olib boramiz!

Do‘stlar quchoqlashib, o‘pishib xayrlashdilar.

* * *

1941-yilning oktabr oyining boshlari edi. Kuzning sovuq havosi boshlanmoqda edi. Quyosh ufqdan ancha ko‘tarilganda, Tehron tomondan kelgan kulrang mashina Qazvinning chang ko‘chalariga kirib keldi. Mashinaning ustiga katta tugun bilan ikkita katta chemodan bog‘lab qo‘yilgan edi. Mashina kelib choyxona yonida to‘xtaganda, undan qora kastum kiygan o‘rta bo‘yli bir yigit tushdi. U shlapasining changini qoqdi-da, shaharga ko‘z tashlab, mashinada o‘tirgan hamrohiga murojaat qildi:

— Qazvin... Ozarbayjonning eng qadimiy yirik shaharlaridan biri... Viloyat markazi. Bu yerdan yo‘l to‘ppa-to‘g‘ri Qirajga olib boradi. Bu atrofdagi qishloqlarda faqat ozarbayjonliklar yashaydi...

Sariq ko‘ylak ustidan yelkasiga yengilgina palto tashlab olgan bir qiz yosh bolaning qo‘lidan yetaklab mashinadan tushdi-da, maroq bilan shaharni ko‘zdan kechira boshladi:

— Muncha xarob-a! — dedi qiz g‘amginlik bilan. — “Ibrohimbekning sayohatnoma”si esingdami? Unda bu shahar to‘g‘risida shunday gaplar bor: “Har bir kishi shaharni diqqat bilan ko‘zdan kechirsa unga har tarafidan: mening xo‘jayinim yo‘q, meni obod qilish to‘g‘risida hech kim o‘ylamaydi ham, degan ovozlar eshitilayotgandek tuyuladi”.

Yigit hasrat va orzular to‘la ko‘zini qizga tikdi:

— Salomatlik bo‘lsin, azizim Sudoba, hammasini qaytadan quramiz! Obod qilamiz! — deb javob berdi yigit. — Charchamadingmi? Choy ichasanmi yo meva olaymi?

— Ko‘nglim hech narsa istamayapti, Faridun. Mast odamga o‘xshayman. Nega ekanini o‘zim ham bilmayman!

Qiz hali ham qo‘lidan ushlab turgan bolaning boshini siladi:

— Sen-chi, Ayoz, qorning ochdimi?

— Yo‘q, — dedi bola Sudobaning pinjiga kirib, — hech narsa istamayman!

— Bo‘lmasa vaqtni bekorga o‘tkazmaylik, — dedi Faridun. — Termosga choy to‘ldirib olay-da, jo‘nayveramiz.

U choyxona tarafga ketarkan, haydovchi mashinadan tushib, uning qo‘lidan termosni oldi:

— Menga bering, men olib kelaman!

— Bundan keyin qaysi shaharga kelamiz? — deb so‘radi qiz muloyimlik bilan.

— Zanjonga. O‘sha yerda tunab qolamiz.

Haydovchi termosni to‘ldirib keldi. Yigit qizning qo‘ltig‘idan olib mashinaga boshladi. G‘amgin, ayni vaqtda erkalovchi bir nazar bilan unga boqdi:

— Charchasang darrov menga ayt. Yashirsang ham baribir ko‘zlaringdan bilib olaman.

Qiz kulimsiradi:

— Umr bo‘yi sendan hech narsani yashirmayman, — dedi u va o‘z so‘zini unutgan kabi suhbatni boshqa tomonga burdi: — Tabrizga qachon yetamiz?

— Ikki kundan so‘ng. Eh, Tabriz! Tabriz! Ko‘ramiz-da, bizni qanday kutib olar ekan! Eronda yashovchi har bir ozarbayjonlik uchun Tabrizning nima ekanini bilasanmi? Shirin orzu... umid va kelajakdir!...

Bu so‘zlar har ikkalasining qalbida ham ming xil orzu va istaklar uyg‘otdi. Yuraklari porloq kelajak tuyg‘usi bilan titradi. Bu hislar inson qalbida hadeb bo‘lavermaydi. Bunday hislar ilk bahor suvlarining shildiraganini eshitganda, qor ostidan chiqib kurtak yozayotgan novdalarni ko‘rganda, bahordan darak berib

sayray boshlagan qushlarning ashulasini eshitganda bir tug'ilib qoladi.

Mashina Qavzindan chiqib tobora tez yugurib Zanjonga yo'l oldi. Ayozni bag'riga bosib o'tirgan Faridun Sudobaning chaqnab turgan ko'zlariga qarab xayolga toldi. U umrining azoblar va turli qiyinchiliklar bilan o'tgan qismini o'ylamasdi, u hozir ming xil orzu va umid bilan to'la bo'lgan kelajak to'g'risida o'ylardi. Axir, mashina uni yeldek uchirib Ozarbayjonga, Tabrizga, Shimolga olib ketmoqda edi! Ular ozodlik, baxt-saodat va kelajakni qurish uchun ketmoqda edilar!

Peshovariy bilan bo'lgan ikkinchi uchrashuv esiga tushdi. Ular o'shanda Ozarbayjondagi demokratik harakat to'g'risida suhbatlashdilar. Peshovariyning:

— Ozarbayjon Eron revolutsiyalarining beshigidir. Biz bu safar ham o'sha yerdan turib Eronning butun mehnatkashlariga: qo'zg'olinglar! — deb xitob qilamiz, — degan gaplari hamon uning qulog'ida edi.

Ertaga uni ham, hayot va umr o'rtoqlarini ham og'ir va qiyinchiliklar bilan to'la kurash yo'li kutib turganini Faridun yaxshi bilar edi. Bu yo'lda yana dor yog'ochlari, zindonlar va olchoqlarcha qilingan xiyonatlar bo'lar edi. Shularni o'ylar ekan Faridunning ko'z oldida ezilgan Eronda fitna-fasod urug'ini doim sochib kelayotgan mister Tomaslar va mister Garoldlar, ularning buyrug'ini qullarcha itoatkorlik bilan bajaradigan vatanfurush Hakim ul-mulklar, Hikmat Isfahoniylar jonlandi. Butun vujudini nafrat va g'azab hislari qopladi, bu hislar uni yanada qat'iy, yanada shafqatsiz va ayovsiz kurashga chaqirdi...

Xalq ko'targan qizil bayroq yana qonga bo'yalsa ham, bu baribir reaksionerlar va mustabidlarning omon qolishlariga yordam bermaydi. O'lim ularning yoqasini qo'yib yubormaydi. Chunki kelajak ozodlik va mehnatnikidir! Tarixning hukmi ana shunday!

Faridun shu fikrlar bilan Ozarbayjon tuprog'iga qadam qo'ydi.

Zulmat va g'am bilan to'la bo'lgan olam mashinaning orqasida qoldi. Oldinda esa porloq va bepoyon bir yo'l ochilib kelmoqda edi.

Bu yo'l porloq ertaga, baxtli kelajakka olib borardi.

1948

MUNDARIJA

Ozar xalqining ardoqli farzandi *(Nurilla Choriyev)* 3

SHUNDAY KUN KELADI

Roman

Birinchi bob 7
Ikkinchi bob 61
Uchinchi bob.....79
To‘rtinchi bob 86
Beshinchi bob 99
Oltinchi bob 113
Yettinchi bob 125
Sakkizinchi bob 134
To‘qqizinchi bob 160
O‘ninchi bob 187
O‘n birinchi bob 214
O‘n ikkinchi bob 236
O‘n uchinchi bob 265
O‘n to‘rtinchi bob 280
O‘n beshinchi bob.....293
O‘n oltinchi bob 309
O‘n yettinchi bob 325
O‘n sakkizinchi bob.....341
O‘n to‘qqizinchi bob.....356
Yigirmanchi bob 382
Yigirma birinchi bob.....397
Yigirma ikkinchi bob 418

Yigirma uchinchi bob 439
Yigirma to'rtinchi bob 465
Yigirma beshinchi bob 483
Yigirma oltinchi bob 503
Yigirma yettinchi bob 525
Yigirma sakkizinchi bob 548
Yigirma to'qqizinchi bob 590
O'ttizinchi bob 615
O'ttiz birinchi bob 624
O'ttiz ikkinchi bob 634
O'ttiz uchinchi bob 644

M 54 Mirza Ibrohimov [Matn]: nasr / to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Nurilla Chori. — Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti", 2022. — 664 b.
ISBN 978-9943-8733-1-5

UO'K 821.512.162-3
KBK 84(5Ozar)





MIRZA IBROHIMOV

64-jild

Adabiy-badiiy nashr

Tarjimon
Sulton Muhammadjonov

Muharrir *Lola Fattoyeva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 41,5. Nashriyot-hisob tabog'i 25,55.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 67-1/22. Buyurtma raqami № 22-347.

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MIRZA IBROHIMOV